

O‘ZBEK ADABIYOTI
XAZINASIDAN

MAHMUD KOSHG‘ARIY

5

“O‘ZBEKISTON”
TOSHKENT – 2025

UO‘K 821.512.132.09-1
KBK 83.3
K 74

Tahrir hay’ati:

Ibrohim G‘afurov, Shuhrat Sirojiddinov, Xayriddin Sultonov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev, Olim Davlatov, Isajon Sulton, Nizomiddin Mahmudov, Jabbor Eshonqulov, Muslihiddin Muhiddinov, Rahmatilla Barakayev, Ra’no Sayfullayeva, Shuhrat Rizayev

Nashrga tayyorlovchi:

Qosimjon Sodiqov – filologiya fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

Ne’matulloh Ibrohimov – akademik, filologiya fanlari doktori, professor

Koshg‘ariy, Mahmud

K 74 Turkiy so‘zlar devoni [Dīvānu luğāti-t-türk] [Matn]: – Toshkent: “O‘zbekiston” nashriyoti, 2025. 624-b.
ISBN 978-9910-8193-2-2

“O‘zbek adabiyoti xazinasidan” deb nomlangan 200 jildlik kitoblar majmuasi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbusiga asosan yurtimizda ilk bor nashr etilmoqda.

Mazkur loyiha asrlar davomida to‘plangan boy va bebaho adabiy merosimizni asrab-avaylash, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida keng ommalashtirish orqali ularning intellektual salohiyatini yanada oshirish, shuningdek, jamiyatda kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga xizmat qilishi shubhasiz.

Ushbu nashr mamlakatimizdagi oliy ta’lim muassasalari, axborot-kutubxona markazlari va umumta’lim maktablariga taqdim qilinishi bilan e’tiborga molikdir.

UO‘K 821.512.132.09-1
KBK 83.3

ISBN 978-9910-8193-2-2

©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2025

TURKIY SO‘ZLAR DEVONI

[DĪVĀNU LUĞĀTİ-T-TÜRK]

MAHMUD KOSHG‘ARIY VA UNING “DEVONU LUG‘ATI-T-TURK” ASARI

“Devonu lug‘ati-t-turk” kitobi turkiy tilshunoslikning bizga ma’lum bo‘lgan ilk yirik, shuning bilan birga, tengi yo‘q ulug‘ yodgorligidir. O‘z zamonida asar arablarga, qolaversa, arab tili orqali Sharq-u G‘arb ilm ahliga qadimgi turklarning tili, madaniyati, tarixi to‘g‘risida to‘liq ma’lumot beruvchi qomusiy kitob sifatida yaratilgan.

Asar arabchada “*Dīvānu luγāti-t-türki”* deb atalgan. Ushbu atamada: *dīvān* – “devon”; bu o‘rinda “so‘zlarning muayyan izchillikdagi to‘plami” tushuniladi; *luγāt* – “so‘zlar” degani; uning izohlovchisi bo‘lmish *türki* – “turk” ma’nosida bo‘lib, o‘sha zamondagi turkiy tilni bildiradi. “*Dīvānu luγāti-t-türki”*ning so‘z-ma-so‘z tarjimasi “Turkcha so‘zlar devoni” bo‘ladi.

Mahmud Koshg‘ariy asarning kirish qismida kunimizgacha saqlanmagan boshqa bir asari – جَواهِرُ النَحْوُ في لُغات التُرك “*Javāhiru-n-naḥvi fi luγāti-t-türki*” to‘g‘risida so‘z yuritadi (MK.9b). Bu o‘rinda muallif *luγāt* so‘zini “tillar” ma’nosida qo‘llagan. Shunga ko‘ra, o‘sha noma’lum kitob otining tarjimasi: “Turk tillarining nahviga oid gavharlar” bo‘ladi.

“Devonu lug‘ati-t-turk” asarining bittagina qo‘lyozmasi ma’lum, u ham bo‘lsa, dastlabki emas, keyingi davrga tegishli. Uni Muhammad bin-Abu Bakr Damashqiy otli kotib Shomda hijriy 664-yil, shavval oyining yigirma yettinchi kuni (milodiy 1266-yil avgustining birinchisida), o‘zi yozishiga qaraganda, Mahmud Koshg‘ariy o‘z qo‘li bilan yozgan qo‘lyozmadan ko‘chirib tugallagan. Ushbu nodir qo‘lyozma hozir Istanbuldagi Millat kutubxonasida (Millet Genel Kütüphanesi. Kayıt No. Ar. 4189) saqlanmoqda.

Qo‘lyozma 320 varaqli (639 sahifadan iborat)[1]. Har betiga o‘n yetti qatordan qilib matn bitilgan. Xati chiroyli, nasxda. Aytarli butun boshli matn qorada, oradagi bob va fasllarning sarlavhasi, boshlanishda turkiy misollar, shuningdek, sarlavha qilib berilgan harflar qizilda. Ba’zi sarlavhalar quyuq qorada ajratib yozilgan. Matn bo‘ylab turkiy misollar qorada yozilib, ustiga qizil chiziq tortib qo‘yilibdi. Misol-to‘rtliklarning qatorlari doirachalar bilan ajratilgan.

[1] *Qo‘lyozmaning faksimil nashrlariga qarang: Kaşgarlı Mahmud.* Dīvānü Lūgati’t-Türk. Tıpkıbasım / Facsimile. – Ankara, 1990.

Muhimi, asarga Yer kurrasining xaritasi ham kiritilgan boʻlib, undagi togʻlar, choʻllar, suvlik va pasttekisliklar, shaharlar qizil, sariq, toʻq koʻk ranglarda ajratib berilgan.

Toʻgʻri oʻqilishini taʼminlash uchun turkiy misollarga qoʻyib ketilgan harakatlar izchil. Lugʻatdagi soʻz-maqolalar oʻrtasi nuqtali yaproqsimon belgi bilan, misol-toʻrtliklarning qatorlari esa doirachalar bilan ajratilgan.

Kitobning sahifa koʻrsatkichlari ikki xil: boshlab sahifaning tepa qismiga arab raqamlarida ularning koʻrsatkichi qoʻyib chiqilgan; ikkinchi tartib koʻrsatkichi esa har varaqning boshlanishida, matnning chap tomonida yangicha raqamlarda. Hozirgi raqamlar ketma-ketligida ikki oʻrinda anglashilmovchilik bor: 231-varaqdan keyingi varaqqa 239-raqami; 238-varaqdan keyin esa 232-raqami qoʻyilgan. Harqalay, bu oʻrinda varaqlar chalkashgan deb boʻlmaydi, chunki matnda uzilish yoʻq. Varaqlarning tugashiga poygir belgilari qoʻyilmagan.

Qoʻlyozmada asar boshlanishiga yirik harflar bilan *“Kitābu dīvāni luγāti-t-turki”* [yaʼni: “Turk soʻzlari devoni kitobi”] deb sarlavha qoʻyilgan (MK.1a). Oʻrta asrlar turkiy kitobatchiligida yirik asarlarni *kitāb* [yaʼni “asar; kitob”] sarlavhasi bilan boshlash rusum boʻlgan. Aftidan, kotib turkiy kitobatchilik anʼanasini yaxshi bilgan va oʻzi koʻchirgan nusxani ana shunday boshlagan.

Sarlavhadan keyin kichik harflarda asar muallifi qayd etiladi: *Taʼlīf: Maḥmūd bin-al-Ḥusayn bin-Muḥammad al-Kāšγarî raḥimahu-l-lahu* [yaʼni “Tuzuvchi: Mahmud bin-al-Husayn bin-Muhammad al-Koshgʻariy (Alloh u kishini Oʻz rahmatiga olsin)”] (MK.1a).

Shundan soʻng kotibning qisqacha soʻz boshisi berilgan. Soʻz boshidan keyin basmala bilan asar muqaddimasiga koʻchiladi.

“Devonu lugʻati-t-turk” asari qoraxoniylar davri turkiy tilining, turkiy lugʻatchilikning tengi yoʻq yodgorligidir. Ushbu asari bilan olim turkiy leksikografiya ilmining tamal toshini qoʻydi hamda mazkur sohani yuqori bosqichga olib chiqdi. Qolaversa, Mahmud Koshgʻariy turkiy tilshunoslik rivoji-gagina emas, Sharq tilshunosligi, xususan, lugʻatshunosligiga ham ulkan hissa qoʻshgan olimlardan.

Asar turkiy tilshunoslikning yirik tarixiy grammatikasi, shuning bilan birga, qomusiy xarakterdagi yodgorligi hamdir. Asarda turkiy tillar ilk bor arab tilshunosligi metodologiyasi doirasida bayon qilingan. Asarning ilmiy qiymati, muallifning yutuqlari shularning oʻzi bilan cheklanmaydi. Taʼkidlamoq kerak, olim turkiy soʻzlarning tuzilishi, tilning oʻziga xosliklarini inobatga olib, lugʻat tuzishning oʻziga yarasha yangi bir usulini ishlab chiqdi. Shuning bilan u lugʻatchilikda katta kashfiyot qildi. Yutuqlaridan yana biri, asarda eski turkiy tillarning lugʻat boyligi etnolingvistik, lingvokulturologik, qiyosiy-tipologik yoʻnalishlarda tadqiq etilgan.

Mahmud Koshgʻariy turkiy fonetika va fonologiyaning oʻtkir bilimdoni, oʻz davrining buyuk fonetistlaridan edi. U arab xatini turkiy tilga birinchilardan

bo‘lib tatbiq etgan, arab xati asosidagi turkiy yozuvning imlo qoidalarini ishlab chiqqan, uning ilmiy asoslarini bayon etgan olim. Mahmud Koshg‘ariy tomonidan ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy qilingan yozuv prinsiplari asrlar osha to XX yuzyilning boshlariga qadar aytarli o‘zgarishsiz davom etdi. Turkiy tillar tarixida to‘qqiz asrdan ortiqroq davr mobaynida yaratilgan arab yozuvli matnchilik amaliyoti ana shu an’anaga tayanadi.

Qadimgi xalq maqollari, xalq dostonlari va qo‘shiqlaridan olingan parchalar, iboralar, ko‘plab misollar, shuningdek, sheva materiallari asar uchun manba bo‘lib xizmat qilgan. Ishda so‘z ma’nosini ochiqlash maqsadida tarixiy va etnografik ma’lumotlar, so‘z bilan bog‘liq rivoyatlar ham keltiriladi.

“Devonu lug‘ati-t-turk”da turkiy so‘zlar o‘rni bilan fonetik, morfologik, stilistik, ba’zan etimologik jihatdan ham tahlil etilgan. Bu xususiyatlariga ko‘ra o‘tmishda yaratilgan lug‘atlar orasida turkshunoslikdagina emas, butun sharq leksikografiyasida unga tenglashadigani topilmaydi.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarni ikkiga ajratadi: biri, barcha turkiy qavmlar uchun tushunarli bo‘lgan, rasmiy ishlarda va yozma adabiyotda qo‘llanuvchi, o‘tmish yozma til an’analarini saqlab kelayotgan *yozma-adabiy til,* buni muallif “turkcha”, “xoqoniya tili” deb ataydi: “Bularning ichida eng ochiq va ravon til xoqoniya o‘lkasida yashovchilar tilidir” deb yozadi u. Lug‘atga asos qilib yozma-adabiy tilda qo‘llanuvchi so‘zlar olingan. Dialektal leksika esa ana shu lug‘at qatlami tevaragida, unga chog‘ishtirib boriladi. Shunga ko‘ra, asar eski turkiy yozma adabiy tilinigina emas, eski turkiy dialektlarni o‘rganishda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shunday qilib, Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarni ilmiy tasniflagan, eski turk shevalarini o‘rganib, turkiy tilning yirik, fundamental ilmiy grammatikasini yaratgan birinchi olimdir.

“Devonu lug‘ati-t-turk” kitobi ikki – muqaddima va lug‘at qismlaridan tuzilgan. Muqaddimada kitobning yaratilish sababi, o‘sha zamonda turklar ishlatgan yozuv, ot yasalishi, otlar va fe’llardagi orttirmalar, lug‘atning tuzilish prinsiplari, turkiy qavmlarning bayoni, yerlashuv o‘rni, turkiy tilning xususiyatlari, lahjalardagi farqlar to‘g‘risida so‘z yuritiladi.

Lug‘at qismi sakkiz bo‘limdan iborat. Bo‘limlarning har qaysisi *kitāb* deb atalgan.

Asar muqaddimasi va har qaysi kitob basmala bilan boshlangan. Lug‘atda so‘zlar qat’iy ketma-ketlikda: avval ismlar, so‘ng fe’llar keltiriladi. Ismlar ham, fe’llar ham so‘z qolipi va yozilish usuliga qarab muayyan tizimga solingan: ikki harflilardan boshlanib, so‘ng uch harflilar, shu tariqa olti harflilarga qadar davom etadi. Yetti harflilar sanoqli.

Lug‘at so‘z-maqolalarida fe’llarning berilish tartibi ham o‘ziga xos: fe’lli birikmalar yoki fe’l qatnashgan jumlalar o‘tgan zamon shaklida berilgan. Oxirida so‘z yuritilayotgan fe’lning kelasi zamon hamda *-maq, -mäk* affiksli masdar shakli keltiriladi.

Mahmud Koshg‘ariy “Devonu lug‘ati-t-turk”da eski uyg‘ur yozuvi haqida ma’lumot berib, uning alifbosini ham keltirgan (MK.3b–4b,102b). Olimning turkiy yozuv haqidagi ma’lumotlari va u keltirgan alifbo o‘ta muhim ahamiyatga ega. O‘tmishdan qolgan bundan boshqa uyg‘ur alifbolari ham bor. Lekin ularning hech biri Koshg‘ariy alifbosiga va u keltirgan izohlarga tenglasha olmaydi.

Koshg‘ariy o‘z lug‘atida turkiy so‘zlarni hamda ularning ma’nosini izohlash uchun keltirilgan misollarni arab xatida bergan. Lekin, o‘sha zamonda turklar qo‘llagan alifbo to‘g‘risida ma’lumot berar ekan, boshqa bir yozuv – uyg‘ur xatini keltiradi; uni “turkcha yozuv” deb ataydi olim. Uyg‘ur yozuvini Alisher Navoiy ham o‘shanday atagan edi. Jumladan, u Husayn Boyqaroning o‘g‘li Badiuzzamonga bitgan maktubida yozuvlarning turlari to‘g‘risida so‘z yurita turib, uyg‘ur xatini eslaydi va uni *türkčä xaṭ* deydi.

Koshg‘ariyning ta’kidlashicha, uyg‘ur alifbosida harflar soni o‘n sakkizta. Muallif alifboda harflarning bosh shaklini ko‘rsatib, tagida arab harflari bilan ularning o‘qilishini (transliteratsiyasini) beradi (MK.3b). Uyg‘ur harflarining vazifasi tagidagi ana shu izohlarga qarab tushuniladi.

Koshg‘ariy alifbosida harflar ketma-ketligi quyidagicha: *a,w, x, v, z, q, y, k, δ, m, n, s, b, č, r, š, t, l.*

Olimning ta’kidlashicha, tilning tovush tizimi shuning bilan cheklanmaydi; turkiy tilda ishlatiladigan yettita tovush uyg‘ur yozuvida maxsus belgisiga ega emas. Bular: [*p*], [*ž*] (sirg‘aluvchi), [*γ*], [*g*], [*ŋ*] hamda [*č*], [*w*] lardir. Ushbu tovushlar yuqorida ko‘rsatilgan harflar vositasida ifoda etilgan yoki ular singari ifodalanib, qo‘shimcha belgilar bilan farqlangan. Ushbu ma’lumotdan uyg‘ur xatida quyidagi tovushlar bir xil ifoda etilganligi ayon bo‘ladi: [*k*]–[*g*], [*x*]–[*γ*], [*č*]–[*j*]–[*ž*], [*w*]–[*f*]. Sonor [*ŋ*] esa yozuvda ikki harf (*nūn+kāf*) bilan berilgan.

Koshg‘ariy uyg‘ur alifbosidagi harflarning otini ham keltirgan: harflarning oti, ular ifodalagan tovushga *fatḥa* qo‘shib hosil qilingan: *a, wa, xa, va, za, qa, ya, kä, δa, ma, na, sa, ba, ča, ra, ša, ta, la*. Bu ketma-ketlikni esda saqlash uchun ular uchta-uchtadan birlashtirilib, *awaxa, vazaqa, yakäδa, manasa, bačara, šatala* tarzida o‘qilgan. Bu shakllar kitobda alifbo va uning izohlaridan keyin alohida-alohida qilib berilgan.

Muallifning yozishiga ko‘ra, “Barcha xoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, كَاشْغَرْ *Kāšγar* dan Yuqori Chin-gacha (الصين العليا) – hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan” (MK.4b).

Mahmud Koshg‘ariy unlilarning to‘liq yozilishi to‘g‘risida to‘xtalib, talaffuzda o‘rni yo‘qligiga qaramay (bunda qisqa unlilar nazarda tutilmoqda – Q.S.) *fatḥa* o‘rnida *alif*, *ẓamma* o‘rnida *vāv*, *kasra* o‘rnida *yā* yozish qoida ekanligini ta’kidlaydi. U o‘rnak tariqasida ayrim so‘zlarning uyg‘ur va arab yozuvlarida yozilish tartibini ham bergan: arab xatida – KeLiN, uyg‘ur xatida –

KELİN; arab xatida – TaPaN, uyg‘ur xatida – TAPAN (tuya tovoni) (MK.102b).

Muhim jihatlaridan biri, asarda turkiy tilning tovushlar tizimi, uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘liq ochib berilgan. Bunday o‘rinlarda olim arab tilshunosligida mavjud bo‘lgan terminologiyadan foydalanadi. Ularni ishlatganda muallif turkiy tilning fonetik belgilarini nazarda tutadi.

Aytmoq o‘rinliki, hozirgi tarjima va tadqiqotlarda ma’nosi ochilmay qolayotgan atamalar ham bor, bu narsa tortishuvlarga olib kelmakda. Masalan, orqa qator, yo‘g‘on [*a*] ni ifodalash uchun *išbā’* (ya’ni “yo‘g‘on”), old qator [*ä~e*] uchun esa – *išmām* (ya’ni “ingichka”) atamasi qo‘llangan. Jumladan, اتْ so‘zidagi *alif* harfini ikki xil talaffuz qilish mumkin: agar uni yo‘g‘on unli sifatida talaffuz qilinsa, “ot” (hayvon) tushuniladi, agar ingichka o‘qilsa, “et, go‘sht” bo‘ladi.

Ushbu fonetik holat lug‘atda shunday berilgan: اتْ ***at*** – “ot”; yo‘g‘on o‘qiladigan *alif* bilan (*bi’išbā’i-l-alifi*) (MK.15a); اتْ ***et*** – ingichka o‘qiladigan *alif* bilan (*bi’išmāmi-l-alifi*); “et, go‘sht” (MK.15a). Yana misol: اڤْ ***ew*** – “uy”; ingichka *alif* (ya’ni [*e*]) bilan (*bi’išmāmi-l-alifi*) (MK.27a).

Unlining yo‘g‘onligini bildiradigan *išbā’* bilan izohlangan so‘zlarga yana misol: أُجْ ***Učˇ*** – yo‘g‘on *alif* bilan (*bi’išbā’i-l-alifi*); mashhur bir shaharning oti (MK.15b); تُو ***to*** – yo‘g‘on unli (ya’ni [*o*]) bilan (*bi-l-’išbā’i*), undan tayyorlanadigan ovqatning oti (MK.268a).

Yoki *vāv* harfi turkiy matnlarda to‘rt xil unlini anglatadi [*o*]–[*ö*] yoki [*u*]–[*ü*]. U ingichka unlilarni anglatganda *išmām* atamasi bilan izohlanadi. Lug‘atda berilishiga misol: اُوتْ ***öt*** – devor va taxtadagi yoriq; *vāv* ingichka talaffuz qilinadi *(bišammati-l-vāvi)* (MK.17b); اُوذْ ***öδ*** – “vaqt, zamon”; *vāv* harfi ingichka o‘qiladi *(bišammati-l-vāvi)* (MK.17b).

Mahmud Koshg‘ariy ishlatgan *imāla* atamasining ma’nosini ham anglash kerak. Masalan, lug‘atda سيشْ shaklida yozilgan so‘zga *bi-l-’imālati* (ya’ni “*imāla* bilan”) deya izoh berilgan. Arabcha *imāla* atamasining ma’nosi “og‘dirmoq; singdirmoq” bo‘lib, cho‘ziq *alif* va qisqa *fatḥa* ning [*e*] ga moyil talaffuz qilinishini bildiradi. Muallifning ushbu izohida esa *yā* ning *fatḥa* (ya’ni [*e*]) qilib o‘qilishiga ishora etilmakda. Shunga tayangan holda, uni *seš* deb o‘qiganimiz durust, bu so‘z “kafolat” degani.

Masalan: ***men aŋar seš berdim*** – “men unga kafolat berdim” (MK.249a). Yana misol: كيشْ ***keš*** – *imāla* bilan (*bi-l-’imālati*); “o‘qdon” (MK.249b).

Asarda keltirilgan turkiy o‘rnaklarda undoshlarning ifodalanishi ham e’tiborni o‘ziga tortadi. Jumladan, [*v*] undoshi, Mahmud Koshg‘ariyning izohiga qaraganda, ikki xil variantga ega: lab-tish [*v*] va lab-lab [*w*] tovushi. Matnda [*w*] undoshi [*v*] dan farqli o‘laroq, ڤ yoki ف harflari bilan beriladi. Muhimi shundaki, ف bilan berilganlari asarning hozirgi zamon nashrlarida [*f*] deb o‘qilgan. Biroq, shuni unutmaslik kerak, sof turkiy so‘zlarda [*f*] tovushi bo‘lmagan, u o‘zlashgan

so‘zlardagina keladi. Shundan kelib chiqib, turkiy so‘zlarda kelgan ف ni [*f*] emas, [*w*] deb o‘qilgani ma’qul. Bu fikrning to‘g‘riligini bir so‘zning ikki xil yozilishi ham isbotlay oladi: **اڤْ** (MK.27a) // **اف *ew*** – “uy” (MK.268b); **افت** (MK.19a) // **أفت *uwut*** – “uyat” (MK.268b) singari.

Chamasi, turkiy so‘zlarda [*w*] tovushi [*v*] ga qaraganda ustun edi. Shuni ko‘zda tutgan shekilli, Mahmud Koshg‘ariy kitobda keltirgan o‘n sakkiz harfli uyg‘ur alifbosida (MK.3b) harflardan birining vazifasi etib ف *wā* ni ko‘rsatgan. *vāv* harfining vazifasiga kelsak, alifboda izohlanishiga ko‘ra, u faqat lab unlilarini (*o–ö, u–ü*) ifodalashga xizmat qilgan, to‘g‘rirog‘i, alifboda uning ana shu vazifasiga ishora qilingan.

Turkiy o‘rnaklarda, jarangsiz [*k*] dan farqli o‘laroq, jarangli [*g*] ni ifodalash uchun ayrim o‘rinlarda *kāf* ning ustiga uch nuqta qo‘yib ketilgan (ڭ). Masalan: **أڭا *ögä,*** ya’ni “dono” so‘zida (MK.5a). Yoki *yunna* li *ŋ* tovushi ham ana shunday harf bilan berilgan. MK.16b da: **انڭْ *aŋ*** – “yanoq”; **قزلْ انڭْ *qïzïl aŋ*** – “qizilmag‘iz”; **انڭْ *aŋ*** – qush nomi; **أنڭْ *öŋ*** – “o‘ng, old”; **أنڭْ *öŋ*** – “rang”; **أنڭْ ايشْ *oŋ ïš*** – “o‘ng ish”; **أنڭْ *oŋ*** – “o‘ng” (“so‘l” ning teskarisi).

Muallif jarangli [*g*] kelgan o‘rinlarda, shuningdek, *kāfun rakīkatun* atamasidan ham foydalangan. Arabcha *rakīka* “ingichka” degani, lekin ushbu atamada “jarangli”ni bildiradi. Lug‘atda berilishiga misol: كُوكْ ***küg*** – jarangli *kāf* (ya’ni [*g*] bilan) (*bikāfin rakīkatin*); “she’r o‘lchovi, vazni”; masalan: ***bu yïr ne küg üzä-ol*** – “bu she’r qanday vaznda?” (MK.250b). Jarangsiz [*k*] ga kelsak, uni avvalgisi bilan qorishtirib yubormaslik uchun, *kāfun ṣulbatun* atamasi bilan beriladi; *ṣuluba* asli “yo‘g‘on” degani, lekin bu o‘rinda “jarangsiz”ni bildiradi. Masalan: كُوكْ ***kök*** – jarangsiz *kāf* (ya’ni [*k*]) bilan (*bi-l-kāfi-ṣ-ṣulbati*); “ko‘k, osmon”. Bu so‘z quyidagi maqolda ham kelgan: ***Kökkä süδsä, yüzkä tüšür.*** Ma’nosi: “Ko‘kka tupursa, yuzga tushadi” (MK.251a).

Turkiy so‘zlarda tishora [*δ*] tovushining ifodalanuvi ham muhim. Bu tovush matnda ذ harfi bilan beriladi. Ta’kidlash joizki, tishora [*δ*] tovushi turkiy so‘zlarda [*d*] ga variant sifatida qo‘llangan. Bu fikrning to‘g‘riligini bir so‘zning ikki xil yozilishi ham isbotlay oladi. Yana yuqorida qayd etganimiz uyg‘ur alifbosida ham <*δ*> harfi berilgan, <*d*> esa yo‘q.

Ba’zi tadqiqotlarda, qo‘lyozmada turkiy o‘rnaklarning yozilishida xatolar ko‘p; uni turkiy tilni yaxshi bilmagan kishi ko‘chirgan, degan qarashlarni ham o‘qib qolamiz. Bunday qarashlarga umuman qo‘shilib bo‘lmaydi. Aksincha, kotib eski turkiyni juda yaxshi bilgan, o‘zi ham turkiylardan ekani aniq (buni kotibning asarga bitgan so‘zboshisidan ham bilsa bo‘ladi). Matn qunt bilan ko‘chirilgan, bilimli va yuksak ko‘nikmaga ega xattotning ishi bu. Aftidan, bitguchi asarni ko‘chirib bo‘lgandan keyin ham, turkiy o‘rnaklarni qayta-qayta ko‘rib chiqqan ko‘rinadi; tuzatish kiritilgan o‘rinlar ham bor. Xattot hatto eski uyg‘ur xatini ham yaxshi bilgan, deya olamiz: bir necha o‘rinda yozgan misollari o‘ta chiroyli; har kimsa ham bunday yoza olmaydi uyg‘ur xatini. Alloh rahmat

qilsin u kishini, qo‘lyozmani ko‘chirishda uzoq ishlagani, ancha ter to‘kkani bilinib turibdi.

Eng muhimi, qo‘lyozmada turkiy misollarning to‘g‘ri o‘qilishini ta’minlash uchun ularga turli diakritik belgilar (harakatlar) izchil qo‘yib borilgan. Ushbu grafik ishoratlar so‘zlar talaffuzini, ularning o‘qilishini aniqlashda qo‘l keladi, qo‘lyozma qadrini yanada oshiradi.

Shu o‘rinda matn imlosi, turkiy misollarga qo‘yib ketilgan diakritik belgilar bilan bog‘liq bir xususiyatga e’tibor qaratmoqchimiz. Qizig‘i shundaki, qo‘lyozmada ayrim o‘rinlarda muayyan harf ustiga va ostiga biryo‘la ikki xil harakat: *fatḥa* va *kasra* yoki *ẓamma* va *kasra* qo‘yib ketilgan. Bugina emas, bir so‘zning o‘zi biryo‘la ikki xil harf bilan yozilgan o‘rinlar ham bor. “Devonu lug‘ati-t-turk”ning hozirgi zamon nashrlarida, qo‘lyozmadagisini yanglish sanab, ulardan biri qabul qilinmoqda. Lug‘atda berilgan so‘zlarning bir xilligini saqlash, o‘quvchining ko‘pda chalg‘imasligi uchun bu yaxshidir. Lekin qo‘lyozmada so‘zga berib ketilgan ikkinchi ishoratning ma’nisi nima? Muallif nimaga ishorat qilmoqda buning bilan? Bizningcha, harfiy ishoratlarning bunday tarzda qo‘yib ketilgani, bir so‘zning ikki ikki xil yozilgani bejiz emas. Chamasi, ushbu so‘zlar ikki xil talaffuz qilingan; muallif so‘zning yozma adabiy tildagi ko‘rinishi bilan bir qatorda, uning talaffuzi, shevalardagi fonetik variantini ham ko‘zda tutgan chog‘i. Matnda turli harakatlar aralash ishlatilganining sababi ham shu. Qo‘lyozmani ko‘chirish chog‘ida kotib yanglishgan emas.

Endi buni misollarda ko‘rib chiqamiz.

Birinchisi, bir harfga biryo‘la fatḥa va kasra belgilarining qo‘yilish holati.

So‘z boshida *alif* harfiga *fatḥa* va *kasra* belgisi qo‘yilgan. Bu ishorat ikki xil vazifani o‘taydi. Birinchisi, u ingichka [*e*] tovushining ifodasi bo‘lib, bir so‘zni ikki xil – unday ham, bunday ham yozish mumkinligiga ishora qiladi. Masalan: اِقاكْ / اَقاكْ ***ewäk*** – “shoshqaloq”, اِقاكْ اَرْ / اَقاكْ ***ewäk er*** – “shoshqaloq kishi”. Yoki yana: اِلُوكْ / اَلُوكْ ***elük*** – “masxara; hazil” (MK.37a).

Ikkinchisi, yo‘g‘on o‘zakli so‘zlarda ushbu ishora bir so‘zning [*a*] bilan ham, [*ï*] bilan ham talaffuz etilganligini anglatadi. Buning misoli: اِتِنْجُو نانكْ / اَتِنْجُو ***atïnču*** / ***ïtïnču näŋ*** – “tashlangan, otilgan narsa” (MK.40a).

tašïqtï (“tashqari chiqdi”) so‘zini yozishda so‘z boshidagi *ta* harfiga biryo‘la ham *fatḥa,* ham *kasra* belgisi qo‘yib ketilgan. Shunga ko‘ra, bu so‘zni ***tašïqtï*** hamda ***tïšïqtï*** shakllarida o‘qish mumkin bo‘ladi. Mana misoli:

اَرْ اَقْدِنْ تَشقْتِى / تِشِقْتِى ***er ewdin tašïqtï*** / ***tïšïqtï*** – “kishi uydan tashqari chiqdi” (MK.163b).

taš so‘zining [*ï*] li varianti hozirgi ayrim turkiy tillarda ham saqlangan. Jumladan, turk tilida *tïš* so‘zining [*d*]- lashgan varianti keng qo‘llanadi: “tashqari chiqdi”ni turklar *dışarıya çıktı* / *dışarı çıktı* deydi; yoki *Dış İšler Bakanlığı* – “Tashqi ishlar vazirligi” degani; yoki havo yo‘llarida: “ichki yo‘llar” – *ič hatlar*,

“tashqi yo‘llar” esa *diš hatlar* bo‘ladi. Yana chog‘ishtiring, Xorazm toponimlaridan: *İčänqala* – “ichki qal’a” degani; *Dišanqala* – “tashqi qal’a”, ya’ni “shahardan tashqaridagi o‘rda”.

Bir harfga biryo‘la ẓamma va kasra belgilarining qo‘yilish holati. Bunda *ẓamma* lisi so‘zning lablangan [*u*], [*ü*], [*o*] [*ö*] tovushlari bilan, *kasra* lisi esa [*i*] yoki [*i*] bilan o‘qilishiga ishora qiladi.

Bularning misoli:

اُلْ اَنِی اَلِکْلادِی / اَلْکْلادِی *ol anï eliklädi* / *elüklädi* – “u uni masxara qildi, mazah qildi” (**اَلِکْلاَمَاکْ / اَلْکْلامَاکْ *eliklämäk* / *elüklämäk***, **اَلِکْلارْ / اَلْکْلارْ *eliklär / elüklär,*** MK.78a).

Yoki yana:

اُلْ بُو اَشِغْ جِقْکْنْلَنْدِی / جِقْکِنْلَنْدِی *ol bu ašïγ čiwkünländi* / *čiwkinländi* – “u bu ovqatni badanni yengillatadigan, badanga foydali deb bildi” (**جِقْکْنْلَنُورْ / جِقْکِنْلَنُورْ *čiwkünlänür* / *čiwkinlänür,* جِقْکْنْلَنْمَاکْ / جِقْکِنْلَنْمَاکْ *čiwkünlänmäk* / *čiwkinlänmäk***) (MK.203a).

اُنکْ / اُنکِکْ *öŋük* / *öŋik* – “popuk; yostiqning ipaklik quloqlari, bog‘ichlari” (MK.40b).

تُرُغْ / تُرِغْ *turuγ* / *turïγ* – “tog‘lardagi qal’a; turar joy” (MK.94a).

سُرُقْ / سِرُقْ *süruq* / *suruq* – “chodirning ustuni” (MK.96b).

Matnda *bir harf ustiga ostin-ustun fatḥa va ẓamma belgilarini qo‘yish holati ham uchraydi.* Masalan, ***tat*** so‘zini yozishda so‘z boshidagi *tā* harfining ustiga *fatḥa* va *ẓamma* qo‘yilgan. Bu ishora ushbu so‘zning [*a*] bilan ham, [*u*] bilan ham talaffuz qilinganini anglatadi:

تَتْ / تُتْ *tat* / *tut* – qilich va pichoqlar ustida paydo bo‘ladigan zang (MK.204a).

Yana bir e’tiborli jihati, ayrim o‘rinlarda muayyan bir so‘z ikki harf bilan ham yozilgan.

Masalan, ***qoy*** so‘zi tushum kelishigida kelganda *yā* harfining ustiga *nūn* ning nuqtasini qo‘yib, undan keyin *ẓamma* belgisi qo‘yilgan. Shunga ko‘ra, ushbu so‘zni ***qoy*** va ***qon*** shakllarida o‘qish mumkin:

اُلْ قُوئُغْ / قُونُغْ اُزْکْلادِی *ol qoyuγ* / *qonuγ özüklädi* – “u qo‘yning o‘q tomirini kesdi” (MK.77b);

اُلْ قُوئُغْ / قُونُغْ بَاتُرْدِی *ol qoyuγ* / *qonuγ baturdï* – “u qo‘yni bog‘latdi” (MK.265a);

اَرْ قُونُغْ / قُوئُغْ سُیْدِی *er qonuγ* / *qoyuγ soydï* – “kishi qo‘y terisini shildi” (MK.276b);

اَرْ قُونُغْ / قُوئُغْ سَادِی *er qonuγ* / *qoyuγ sadï* – “kishi qo‘yni sanadi” (MK.277b).

Turkiy shevalarda bunday so‘zlarning ikki xil ishlatilishini Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi ham alohida ta’kidlab o‘tgan. Jumladan, ***butaq*** so‘ziga izoh berar ekan, yozadi: **بُتَقْ / بُتِقْ *butaq* / *butïq*** – “butoq”; bir shevada. Bu so‘zdagi *tā* harfining *fatḥa* li o‘qiladigan turi bo‘lganidek, *kasra* li o‘qiladigan turi ham bor [ya’ni **بُتِقْ *butïq*** va **بُتَقْ *butaq*** tarzidagi talaffuzlari] (MK.95a).

Yoki yana:

سَرْقِيقْ / **سَرْقِيِقْ** ***sarqïyïq*** / ***sarqïnïq*** – “har narsaning ichi”. Muallifning ta’kidlashicha, bu so‘zning *nūn* bilan yoziladigan **سَرْقِنقْ** ***sarqïnïq*** shakli ham bor (MK.262a).

Yuqoridagi misollardan Mahmud Koshg‘ariy turkiy o‘rnaklarni berishda so‘zlarning fonetik variantlari, ularning shevalardagi talaffuz shakllariga alohida urg‘u bergani ko‘rinib turibdi. Bu tovush hodisasini u turli grafik vositalar, ishoratlar bilan aniq va ixcham ko‘rinishda o‘z lug‘atida aks ettira olgan. Shunga ko‘ra, turkiy o‘rnaklarni o‘qiganda, ayniqsa, asarning ilmiy nashrlarini yaratishda ularning ikkala shakli ham e’tiborga olinmog‘i kerak.

Yana bir jihati, qo‘lyozmada ko‘p o‘rinda hoshiyaga ham yonboshlatib misollar yozib qo‘yilibdi (masalan, MK.: 58b, 80b, 114b, 128b, 144b, 159b, 165a, 171a, 193a, 295a va boshqa o‘rinlarda). Bularni tasodifan tushib qolgan, ustidan o‘qish chog‘ida tuzatib chiqilgan, deb bo‘lmaydi. To‘g‘ri, bunday yerlari ham bor: matnda tasodifan tushib qolgan bir-ikki so‘z hoshiyaga ham chiqarib qo‘yilgan. Lekin, biz so‘z yuritayotganimiz yozuvlar lug‘atning butun boshli so‘z-maqolalaridir. Ularni yo‘l-yo‘lakay unutib qoldirib, keyin qo‘shib qo‘yiluvi mumkin emas. Bu qo‘shimchalar keyinchalik boshqa olimlar tomonidan to‘ldirilgan deb ham bo‘lmaydi: tili, xat uslubi bir. Demak, hoshiyadagi yozuvlarni kotibning o‘zi keyinchalik asarning boshqa bir qo‘lyozmasidan olib to‘ldirgani oydinlashadi.

Taxminimizcha, kotib ushbu qo‘lyozmani ko‘chirishda uning ikki qo‘lyozma nusxasiga tayangan ko‘rinadi. Boshda u asarni bir qo‘lyozmadan olib, to‘liq ko‘chirib chiqqan. Keyinchalik, qo‘lyozmani tugallagandan so‘ng, uning qo‘liga asarning boshqa bir eski, avvalgisiga qaraganda to‘liqroq nusxasi tushib qolgan. Bu nusxa, harqalay, uning o‘zi asar yakunida ta’kidlaganidek, lug‘at muallifi o‘z qo‘li bilan tuzgan dastlabki qo‘lyozma bo‘lishi kerak. Kotib ana shu dastlabki qo‘lyozmaga tayanib, o‘zi ko‘chirgan matn ustidan qayta ko‘rib, avvalgisida uchramagan, tushib qolgan o‘rinlarni ana shu nusxadan olib, hoshiyalarga yozib chiqqan. Hatto, bir harfga qo‘yilgan ikki xil diakritik belgini ham ko‘proq o‘sha, o‘zi ta’kidlagan, muallif nisxasiga tayanib qo‘yib chiqqan bo‘lishi ham mumkin. Shunday qilib, “Devonu lug‘ati-t-turk”ning fanga taniqli, hozircha yagona sanalayotgan ishonchli qo‘lyozmasi yaratildi.

“Devonu lug‘ati-t-turk”da turkiy so‘zlar ma’nosini ochiqlash maqsadida, o‘rni bilan, she’riy to‘rtliklar va baytlar keltirilgan. She’rlar mazmunan boy va turli-tuman bo‘lib, xalq ijodidan saylab olingan. Ushbu uzindilarni yig‘ib, bir doston yoki bir qancha qo‘shiqqa jamlash ham to‘g‘ri emas. Asarni yozgunga qadar muallif qanchadan qancha xalq dostonlari va qo‘shiqlarini yig‘ib chiqqan (buni o‘zi ham kitobning kirish qismida aytib qo‘yibdi). O‘shalardan olingan uzindilar asar bo‘ylab sochilib yotibdi. Qolaversa, bu she’riy asarlar turli davrlarga oid; ayrimlarining ildizi ikki-ikki yarim ming yil nariga ketadi.

Qo‘lyozmada ushbu she’riy uzindilar *vaqāla* jumlasi bilan boshlanib, ular qirmizi rangda sarlavha ko‘rinishida ajratib yozilgan. Ushbu jumla o‘zidan keyingi she’riy matnlarning mazmuniga muvofiq holda “(Shoir) shunday degan”, “(Bilimli) shunday degan”, “(Ko‘pni ko‘rgan donishmand) shunday degan” singari ma’nolarni beradi.

Xalq qo‘shiqlaridan olingan she’riy uzindilarni ham mazmuniga ko‘ra bir qancha turkumga ajratsa bo‘ladi: marsiyalar, ov qo‘shiqlari, qahramonlik qo‘shiqlari, mavsum qo‘shiqlari, bayram va o‘yin-kulgu qo‘shiqlari, pandnomalar, lirik she’rlar singari.

Shu o‘rinda lirik she’rlardan keltirilgan uzindilar to‘g‘risida ikki og‘iz so‘z. Turkiy lirik she’riyatning boshlanishi deganda, biz asosan, o‘rta asrlar klassik adabiyotini tushunamiz. Aslida esa turkiy lirik she’riyatning ildizini, poetik mahorat masalalarini ancha naridan – qadimgi turkiy og‘zaki she’riyatdan boshlaganimiz to‘g‘ri. Nihoyatda go‘zal tashbehlar, hech kimsaning o‘y-xayoliga kelmas ta’riflarga, badiiy san’atlarga duch kelamiz ularni o‘qib. Ko‘z o‘ngimizda, oddiy, jo‘ngina ko‘ringan she’r va qo‘shiqlarda so‘z san’atining teran an’analari, so‘z ustalarining yuzyillar osha yig‘gan tajribalari jamlangan. She’rlarda turkiy tilning boy va cheksiz imkoniyatlari ishga solingan. Mahmud Koshg‘ariy turkiy so‘zlar ma’nosini ochiqlash maqsadida keltirgan she’riy uzindilarni xalq badiiy tafakkurining eng ko‘rkli va diltortar, qadimgi turkiy lirikaning ajoyib namunalari desa bo‘ladi.

Lirik she’rlardan olingan uzindilarning ko‘pi 7 bo‘g‘inli; bundan oz yoki ortiq bo‘g‘inlilari ham bor; ular turli zamonlarda to‘qilgan turli qo‘shiq va she’rlardan olingani uchun ham shunday; to‘rtliklarning qofiyalanishi *a–a–a–b; a–a–a–a; a–b–s–b;* ikkiliklarning qofiyalanishi esa *a–a* shaklidadir.

O‘rnak qilib keltirilgan she’rlardan biri *tuzaq* so‘zining ma’nosi bilan bog‘liq. Mahmud Koshg‘ariy *tuzaq* so‘zi ikki ma’noda ishlatilganini ta’kidlagan: birinchisi – “ov arqoni, tuzoq”ni bildiradi; uning ikkinchi ma’nosi – “kishi o‘z seviklisini suyib aytadigan so‘zi”.

Muallif so‘zning ushbu ma’nolarini ochiqlash uchun quyidagi to‘rtlikni misol keltiradi:

İglädi meniŋ aδaq,
Körmäδip oγrï tuzaq.
İglädim andïn uzaq,
Emlägil emdi, tuzaq (MK.96a).

Ushbu she’rda kechgan *iglädi* fe’lining anglami – “yaraladi” (*ig* – “kasal” so‘zidan yasalgan); *körmäδip* – “ko‘rmay”; *emlägil* – “davolagil” degani (*em* – “davo” so‘zidan); to‘rtlikdagi *tuzaq* so‘zi ikki ma’noda ishlatilgan: *oγrï tuzaq* – “yashirin tuzoq”; so‘nggi qatordagisi esa ko‘chma ma’noda bo‘lib, “sevikli

yor”ni anglatadi; *Emlägil emdi, tuzaq* jumlasida “Ey sevgilim, endi dardimni o‘zing davola” deya yorga murojaat qilinmoqda.

Shulardan kelib chiqqan holda, to‘rtlikning ma’nosi quyidagicha bo‘ladi: “Yashirin tuzoqni ko‘rmay, mening oyog‘im ilindi. Uzoq vaqt qiynaldim, ey seviklim [ya’ni *tuzaq*], endi o‘zing davola”.

“Devonu lug‘ati-t-turkda”gi eng chiroyli tashbeh ishlatilgan lirik she’rlardan biri *butaq*, ya’ni “butoq” so‘zi bilan bog‘liq. Koshg‘ariyning yozishicha, shevalarda bu so‘zning *butïq* varianti ham ishlatilgan. Lug‘atda buning poetik ma’nosi bilan bog‘liq shunday bayt berilgan:

Kim ayïp, eštür qulaq:
Ay ewi artuč butaq? (MK.95a,b).

Ushbu baytda kechgan *Ay ewi* – “Oyning uyi” degani, bu birikma “Oy burji”ni ham anglatadi; qadimgi turkiy tilda “burj”ni ham *ew* deyilgan; *artuč butaq* – “sanubar daraxtining butog‘i” (qadimgi turkiyda “sanubar daraxti” *artuč* atalgan); *Ay ewi artuč butaq* jumlasi – “Oyning uyi, ya’ni turar yeri sanubar butog‘idadir” degan ma’noni anglatadi. Buning bilan seviklisining bo‘y-basti sanubar daraxtiga, uning yuzi esa to‘lin kechada sanubar ortida ko‘rinayotgan to‘lin oyga o‘xshatilmoqda. To‘lin oy go‘yo sanubar daraxtiga qo‘nib turganday shoirning tasavvurida. Xayolga kelmas, quloq eshitmagan, o‘ta ajoyib ta’rifdan ajablangan shoir: “Oyning uyi hamda turar yeri sanubarning butog‘idir, deb kim aytgan va (bunday chiroyli sifatni) qaysi quloq eshitgan?” deya hayratlanmoqda. Qadimgi turkiy lirikaning shoh satrlaridan desa bo‘ladi bu baytni.

Yoki go‘zal tashbeh ishlatilgan boshqa bir misol. Lug‘atda *yulaq* degan so‘z berilgan, muallifning ta’kidlashicha, u “bir qancha kichik-kichik suv yo‘llari; jilg‘alar” degani. Bu so‘zning poetik ma’nosi quyidagi baytda yaxshi ochiladi:

Aqturur közüm yulaq,
Tüš qïlur ördäk, yuγaq (MK.59b).

Baytda kechgan *aqturur* fe’lining ma’nosi – “oqizadi” deganidir; ayni satrdagi *yulaq* so‘zi ko‘z yoshiga tashbeh qilinmoqda; *tüš qïlur* – boshqa bir o‘rinda xuddi shu bayt keltirilib, unda *tüšlänür* deb berilgan – “(suvga) qo‘nadi” ma’nosidadir; *yuγaq* – o‘rdak singari suvda suzuvchi bir qushning oti.

Buning bilan aytmoqdaki: “Ko‘zimdan oqqan yosh suvlari jilg‘alarga aylanmoqda. Unga o‘rdak va boshqa suv qushlari qo‘nayotir”. Naqadar chiroyli bayt.

Aytish mumkinki, turkiy lirik she’riyatining ildizlari ilk o‘rta asrlar xalq og‘zaki she’riyatiga borib taqaladi. “Devonu lug‘ati-t-turk”da keltirilgan ishqiy mazmundagi to‘rtlik va baytlar lirik she’riyatimizning ilk namunalaridir.

“Devonu lug‘ati-t-turk” eski turkiy tilning boy lug‘ati va mukammal tuzilgan grammatik asaridir. Kitobda nihoyatda boy so‘zlar qatlami jamlangan, ularning ma’nolari xalq qo‘shiqlari, dostonlarning uzindilari, otaso‘zlari, iboralar, o‘sha davr jonli tilidan olingan misollar orqali ochib berilgan. Ayniqsa, asarda keltirilgan she’riy to‘rtlik va baytlarning ahamiyati katta. Ular qadimgi turkiy og‘zaki adabiyotning nihoyatda boy o‘tganidan dalolat beradi. Lug‘atda berilgan so‘z ma’nolarini ochiqlashda she’riyatdan misol keltirish tarixiy leksikografiyaning, aniqrog‘i, Mahmud Koshg‘ariyning ulug‘ kashfiyotidir. Haqiqatan, lug‘atlarda she’riy misollar berilganda so‘zning poetik ma’nosi, eng nozik qirralari yaxshi ochilar ekan. Buni keyingi davr lug‘atchiligida ham kuzatamiz. Xususan, eski o‘zbek tili (“chig‘atoy tili”), o‘zbek klassik ijodkorlari asarlari bo‘yicha tuzilgan lug‘atlar ham ayni an’anani saqladi.

Xulosa qilib aytganda, Mahmud Koshg‘ariy turkiy lug‘atchilikka, turkiy tillarning fonetikasi va ilmiy grammatikasiga asos soldi, lingvistikaning semasiologiya va qiyosiy tipologiya, lingvokulturologiya sohalarini boshlab berdi. Olim tomonidan boshlab berilgan tilshunoslikning ayni yo‘nalishlari, tadqiqot metodologiyasi turkiy tilshunoslikning keyingi takomilini ham belgilab berdi.

“Devonu lug‘ati-t-turk”ning zamonaviy nashrlari to‘g‘risida

“Devonu lug‘ati-t-turk” fanga ma’lum bo‘lgandan buyon mutaxassislar e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda.

Asarining ilk nashrini amalga oshirgan bilim kishisi Kilisli Rifatdir. U 1915–1917-yillarda Istanbulda asarni o‘zi yaratilgan tilda arabcha bosma harflarda uch kitob shaklida chop ettirgan edi (*qarang:* DLT,lxx).

“Devonu lug‘ati-t-turk”ning ilk turkcha o‘girmasini Besim Atalay yaratdi. Uning o‘girmasi 1939–1941-yillarda Anqarada uch kitob holida chop etildi.

Besim Atalayning turkcha nashridan boshlab kunimizgacha asarning turk, o‘zbek, uyg‘ur, ingliz, fors, ozarbayjon, rus tillaridagi o‘girmalari yaratildi (*nashrlar ochiqlamasiga qarang:* DLT,lxx–lxxviii). Ayniqsa, turk, o‘zbek, uyg‘ur, rus tillarida asar turli kishilar tarafidan qayta-qayta chop ettirilgani katta hodisadir.

O‘tgan yuz yil oralig‘ida asar tekstologiyasida, xususan, asarning o‘girma nashlarini yaratish borasida o‘zgarishlar, siljishlar yuz berdi. Asarning ilk nashrlari bilan hozirgilari o‘rtasida muayyan farq bor: matn bir, lekin unga yondashuv prinsiplari turlichadir; keyingilarida turkologiyada erishilgan so‘nggi yutuqlar, bilim kishilarining asar tili, qoraxoniylar davri yozma adabiy tiliga bo‘lgan yangicha yondashuvlarini kuzatish mumkin. Nashrlar borgan sayin o‘sha davr tilini o‘zida yaxshiroq aks ettira boshladi. Asardagi turkcha misollarni

transkripsiya yoki transliteratsiyaga o‘girish, so‘zlar va jumlalar ma’nosini ochiqlash, maqol va she’riy uzindilarni talqin qilish borasida o‘ziga xos qarashlar, yangi-yangi talqinlar, fikrlar yuzaga chiqmoqda. Kezi kelganda, devon tekstologiyasi borasidagi ishlar mukammallasha borayotganligini ham tan olmoq kerak.

Asarni o‘rganishda, ayniqsa, faksimil nashrlarining ahamiyati kattadir. Turk, uyg‘ur olimlari tarafidan bir necha bor asarning faksimil nashrlari yaratildi. Ushbu kitoblar olimlarga asarni keng ko‘lamda, asl qo‘lyozmadan o‘qib o‘rganish imkonini bermoqda.

Asarning muhim ilmiy tarjima nashrlari:

Divanü Lugat-it-Türk Tercümesi. Çeviren Besim Atalay. – Ankara, Cılt I: 1939, II: 1940, III: 1941.

Маҳмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони (Девону луғотит турк). I–III. Таржимон ва нашрга тайёрловчи С. Муталлибов. – Тошкент, 1960–1963.

مه همؤت قه شغه رى. تۆركى تيللار ديۋانى (ديۋانۇ لۇغا تيت تۆرك). 1-3. اوروم‌چى. 1891 – 4891.

Maḥmūd al-Kāšγarī. Compendium of the Turkic Dialects (Dīvānu luγāt at-Turk). Edited and Translated with Introduction and Indices by Robert Dankoff, in collaboration with James Kelly. – Harvard University. Part I: 1982, II: 1984, III: 1985.

Divan-ü Luğat-it-Türk. Yazan: Kaşğarlı Mahmut. Farsça’ya çeviren: Hüseyn Düzgün. – Tebriz, 2004.

Махмуд аль-Кашгари. Диван Лугат ат-Турк. Перевод, предисловие и комментарии З.-А.М. Ауэзовой. Индекс составлен Р. Эрмерсом. - Алматы, 2005.

Mahmud Kaşğari. Divanü lüğat-it-türk. Cild. I–III. Tərcümə edən və nəşrə hazırlayan: Ramiz Əskər. – Bakı, 2006.

Махмуд аль-Кашгари. Divān lugāt at-turk (Свод тюркских слов). Перевод с арабского А.Р. Рустамова под редакцией И.В. Кормушина. Том 1. – Москва, 2010.

Kâşgarlı Mahnud. Dîvânu Lugâti’t-Türk. Giriş – Metin – Çeviri – Notlar – Dizin. Hazırlayanlar: A.B. Ercilasun – Z. Akkoyunlu. – Ankara, 2014.

Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент, 2017.

Махмуд Кāшгари. Дивāну лугāти-т-турк (Свод тюркских слов). Перевод на русский язык с комментариями академика Алийбека Рустами. В трех томах. Том 1. – Ташкент, 2017.

Махмуд Кошғарий. Туркий сўзлар девони [Dîvânu Lugâti’t-Türk]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. Истанбул, 2021.

“Devonu lug‘ati-t-turk”ni ilk bor o‘zbek tiliga o‘girib uni elga tanitgan Solih Mutallibovdir. Uning 1960–1963-yillarda amalga oshirgan uch jildli nashri o‘zbek ilmidagina emas, dunyo turkshunosligida ham keng e’tirof etilgan. Tan

olmoq kerak, Solih Mutallibov tarjimasi ikki-uch avlod olimlariga ilmiy manba bo‘lib xizmat qilib keldi. Hozir ham ushbu nashrning mavqeyi yuqoridir.

“Devonu lug‘ati-t-turk”ka keyingi yillarda ham o‘zbek olimlari tarafidan bir necha bor murojaat qilindi. Xususan, Alibek Rustamovning ruscha tarjimasi avval Moskvada, keyinroq Toshkentda chop ettirildi.

2017 yili Toshkent va 2021 yili Istanbulda biz tarafimizdan ham asarning o‘zbekcha nashri e’lon qilindi.

Matnni nashrga tayyorlash prinsiplari

Ushbu nashrni tayyorlashda asar qo‘lyozmasiga (faksimil nusxasiga) tayanildi. Shuningdek, asarning Solih Mutallibov o‘girmasidan keng foydalanildi.

Biz foydalangan faksimil nashrlar:

Kaşgarlı Mahmud. Dīvānü Lūgati’t-Türk. Tıpkıbasım / Facsimile. Ankara, 1990.

مه همؤد كاشغه ريي. تۆركيي تيللار ديۋانى (ديۋانۇ لۇغه ت التۆرك). فاكسيميل. شينجاڭ خه لق نه شرييياتى. 8002.

“Devonu lug‘ati-t-turk”ning o‘zbek tilidagi ushbu ilmiy nashri ko‘proq bilim kishilariga – filologlar, tarixchilar, manbashunoslar va shunga yondosh bilim tarmoqlari bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislarga, tolibi ilmlarga mo‘ljallangan.

Unda turkiy misollar avval arab harflarida, keyin ilmiy transkripsiyada keltirilib, undan so‘ng mazmuni, ma’nolari beriladi.

Asarni o‘qish jarayonida, ayniqsa, filologlar, tarixchilar, geograflar, manbashunoslarda unda kechgan atamalarning asl matndagi variantini, ularning grafik xususiyatlarini kuzatib, bilib borishga ehtiyoj tug‘ilishiz tabiiy. Shular inobatga olinib, asarda kechgan kishi otlari, toponimlar, gidronimlar, etnonimlar va boshqa muhim atamalar arab yozuvi va transkripsiyada, fan tarmoqlariga tegishli atamalar esa qavsda arabcha variantida berib boriladi.

Masalan:

اِلِمْغَا *ilïmγa* – shoh maktublarini “turk xati” (خط التركية) bilan yozuvchi kotib.

اُگُرْلُكْ *ügürlük* – tariq qo‘yilgan joy. Oxirgi *kāf* jarangli talaffuz qilinsa (ya’ni [*g*] bilan – بالكاف الركيكه), “tariq egasi” ma’nosini bildiradi.

اُولُكْ *ülüg* – “hissa; qismat; nasiba” (ingichka talaffuz qilinadigan *alif* [*ü*] bilan – باشمام الالف) singari.

Asar qo‘lyozmasida ayrim o‘rinlarda muayyan harf ustiga va ostiga biryo‘la ikki xil harakat qo‘yilgan o‘rinlarda har ikki varianti chiziqcha bilan berib ketildi. Masalan: **اَتِنْجُو نانكْ / اِتِنْجُو *atïnču* / *ïtïnču näŋ*** – “tashlangan, otilgan narsa”; **اُنكُكْ اُنكِكْ / *öŋük* / *öŋik*** – “popuk; yostiqning ipaklik quloqlari, bog‘ichlari”.

Ingichka aytiladigan so‘zlarda jarangli undoshlar, unli va sonorlardan keyin ham jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasining faqat *-kä* varianti tanlandi: ***ewkä, bizkä, sizkä, börkčikä*** singari. Chunki asarda kechgan turkiy o‘rnaklarda

yo‘g‘on aytiladigan so‘zlar faqat *-qa* bilan kelgan: ***awqa, oγulqa, xanqa*** singari. Yana bir sabab, “Qutadg‘u bilig”ning arab yozuvli Namangan va Qohira nusxalarida ham jo‘nalish qo‘shimchasi *-qa, -kä* shaklida, masnaviy tilida *-γa* varianti oz uchraydi.

Shaxs-son qo‘shimchalari so‘zlovchi va tinglovchi birligida ingichka aytiluvchi fe’llarda ham, yo‘g‘on aytiluvchi so‘zlarda ham *-men; -sen* shakllarida berildi: ***keligli-men, barïγlï-men, qayda-men, barïrmu-sen*** singari. Chunki, ko‘k turk yozuvli bitiglarda ular ana shunday ifodalangan.

Mahmud Koshg‘ariy turkiy so‘zlarni ko‘p o‘rinda birikma holida yoki gap tarkibidagi shaklini keltirgan. Bunday holatda, qaysi so‘zga ishora etilayotgani ko‘zda tutilib, o‘sha so‘zni so‘z-maqola sarlavhasi shaklida burchakli qavsda o‘rnakning boshlanishida ham berib ketildi. Masalan:

[اَتَكْلِكْ ***etäklik***] اَتَكْلِكْ بُوزْ ***etäklik böz*** – “etak qilinadigan bo‘z”.

Bu prinsip, ayniqsa, fe’llarni berishda keng qo‘llandi. Chunki lug‘at bo‘limidagi fe’llar, asosan, birikma holida yoki gap tarkibida keltirilgan. Masalan:

[اُتْلِدِى ***otuldï***] تَرِغْ اُتْلِدِى ***tarïγ otuldï*** – “ekin o‘taldi, o‘toq qilindi”.

Yuqorida aytilganidek, qo‘lyozmaning sahifa ko‘rsatkichlari ikki xil: biri siyoh bilan hozirgi raqamlarda, ikkinchisi esa qalamda arabcha raqamlarda. Biz mutaxassis uchun qulay bo‘lsin deb, hozirgi raqamlardagi kema-ketlikni tanladik. Matnda boshdan oxir qo‘lyozma betlari ko‘rsatib boriladi.

Matnda qo‘llangan transkripsiya belgilari

Matn barcha mutaxassislarga, shu qatori chet ellik turkologlarga ham, tushunarli bo‘lishi uchun asarda kelgan turkiy misollar lotin alifbosi asosidagi transkripsiyada berilmoqda. Asarni transkripsiyaga o‘girishda quyidagi harflardan foydalanildi.

Unlilar uchun:

a – tilning tagidan chiqadigan (orqa qator), yo‘g‘on, keng, lablanmagan unli;
ä – tilning uchidan chiqadigan (old qator), ingichka, keng, lablanmagan unli;
e – tilning uchidan chiqadigan, ingichka, lablanmagan unli.
ï – tilning tagidan chiqadigan, yo‘g‘on, tor, lablanmagan unli;
i – tilning uchidan chiqadigan, ingichka, tor, lablanmagan unli;
o – tilning tagidan chiqadigan, yo‘g‘on, keng, lablangan unli;
ö – tilning uchidan chiqadigan, ingichka, keng, lablangan unli;
u – tilning tagidan chiqadigan, yo‘g‘on, tor, lablangan unli;
ü – tilning uchidan chiqadigan, ingichka, tor, lablangan unli.

Undoshlar uchun turkshunoslikda qabul qilingan *b, p, d, t, q, k, γ, g, x, z, s, č, š, y, l, m, n, ŋ, r* harflarini qo‘lladik. Bularning ichida: *γ* harfi o‘zbekcha lotin xatidagi *g‘* ga, *č – ch* ga, *š – sh* ga to‘g‘ri keladi. Shuningdek, matnda و bilan

kelgan so‘zlar – *v*, ف / ڤ bilan kelgan so‘zlar – *w*, ژ bilan kelgan so‘zlar esa *ž* bilan berildi. Turkiy so‘zlarda so‘z ichi yoki so‘z oxirida kelgan ذ harfi transkripsiyada *δ* bilan ifodalandi.

Muallif qo‘llagan tilshunoslik atamalari (terminlari) o‘zbekchaga o‘girilmadi, arabchada qanday bo‘lsa, o‘shandayligicha transkripsiyada keltirildi.

Arabcha atamalarni transkripsiyada berishda arab tiligagina xos bo‘lgan ayrim tovushlar uchun quyidagi belgilardan foydalanildi: ذ harfi uchun – *δ*; ه uchun – *h*; ح uchun – *ḥ*; ث uchun – *s̲*; ع uchun – ’; ظ uchun – *z̧*; ط uchun – *ṭ*; ض uchun – *ḍ*; ص uchun – *ṣ*.

Shuningdek, arab tilidagi cho‘ziq unlilarni berishda o‘sha unlini ifodalagan harfning ustiga chiziqcha tortib ketildi: *ā, ī, ū* singari.

Kitob mutaxassislarga foydali bo‘lishi uchun, imkon qadar, harakat qildik. Devonning ushbu nashri turkolog olimlar e’tiborini qozonajagini istayman.

Qosimjon Sodiqov,
filologiya fanlari doktori, professor.

(1a)

“KİTĀBU DĪVĀNİ LUĞĀTİ-T-TÜRKİ”

Ta’līf: Maḥmūd bin-al-Ḥusayn bin-Muḥammad al-Kāšγarî raḥimahu-l-lahu

[“DĪVĀNU LUĞĀTİ-T-TÜRKİ” [“TURKCHA SO‘ZLAR DEVONI”] KITOBI

Tuzuvchi: Mahmud bin-al-Husayn bin-Muhammad al-Koshg‘ariy (Alloh u kishini O‘z rahmatiga olsin)]

[S O‘ Z B O SH I][1]

Biz “bu kitob turkman tili (لغة التركمان)dadir” deydigan kishining fikriga qo‘shilmaymiz. Bunday deguvchi kishi turk tili(لغة الترك)ni ham, turkman tilini ham bilmaydi. Otam turkman tilini biladigan kishini olib kelib, yuqoridagi gapni aytgan kishining turkman tilini bilmasligini (shunday) isbotladi: unga kitobdagi so‘zlardan o‘qidi. Agar u kishi “bizning gapimizda bu so‘z yo‘q” deb inkor qilsa, bildimki, “bu kitob turkman tilidadir” deguvchi kishi turkman tilini bilmaydi. Bu shundayki, qipchoqcha (القفجاقيّة)so‘zni turkmanlar talaffuz qilsa, qipchoqcha qilib chiqara olmaydi. Bu holat turkman(التركمان)lar qipchoqdan olib ishlatgan ko‘pgina so‘zlarda yuz bergan.

Bu kishining qipchoqchani va bu tildagi she’rlar, masallarni bilmasligiga kelsak, albatta, o‘sha o‘lkalardan keladiganlarning ko‘pchiligi yoshlik chog‘ida keladi va, ma’lumki, o‘z qavmining tilini yosh bolagina emas, balki katta kishi ham to‘liq qamrab ololmaydi. Chunki biz arab o‘lkalarida tug‘ilgan va ilm bilan mashg‘ul bo‘lganlarning ko‘piga arab tili(اللغة العربيّة)dan ko‘p so‘zlar o‘tganligini ko‘rganmiz.

Ularning ma’nosini hatto kitoblardan qidirib topolmaysan. Bundagina emas, balki Qur’ondagi ba’zi so‘zlarni ham kitoblardan topolmaysan. Qasam ichib aytamanki, agar arablashib ketganlardan, balki faqih kishilardan Alloh taoloning: فضحكت فبشرناها باسحق

Kuldi – xursand bo‘ldi.

Shunda Biz (farishtalarimiz vositasida) u ayolga Is’hoq (ismli o‘g‘il ko‘rishi) haqida va Is’hoqdan keyin Ya’qub (ismli nabira ko‘rishi) haqida xabar berdik][2] oyatidagi so‘zining ma’nosini va أتبنون بكل ريع أية تعبثون [Sizlar har bir tepalikka

[1] Ushbu so‘zboshi devonni ko‘chirgan kotib tomonidan bitilgan.

[2] Hud surasi, 71- oyat; shayx Alouddin Mansur tarjimasi.

o‘yin-kulgu uchun bir belgi – baland bino quraverasizlarmi?!][1] oyatining ma’nosini so‘rasang, bilmaydi.

Bunda ريع *riy’un* so‘zi “baland joy”, الاية *al’āyatu* esa “alomat” ma’nosidadir. Bunga o‘xshagan misollar ko‘p. Bunday hodisa Alloh taoloning so‘zini tushunishda ro‘y bermoqdami (vaholanki, Alloh taolo so‘zlarining ma’nolarini bilishga kishilar jiddiy harakat qilgan), har bir so‘zning ma’nosidan Alloh taoloning O‘zi xabardor boshqa xalqning tilini sen bila olmaysan.

[1] Shuaro surasi, 128- oyat; shayx Alouddin Mansur tarjimasi.

[M U Q A D D I M A]

(1b)

بسم الله الرحمن الرحيم
وبه العونُ

**[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman).
Barcha ko‘mak Undandir]**

To‘liq fazl-u san’at egasi bo‘lmish Tangri taologa hamd-u sanolar bo‘lsin. U to‘g‘rilik, yanglishlikni ochiq va ravshan bayon qilgan Qur’onni Jabroil orqali Muhammad alayhis-salomga yubordi. Zamonning eng sog‘lari kasal va eng burrolari soqov bo‘lgan bir vaqtda Muhammad alayhis-salamga yuqori minbar berdi. Hujjatlarini yuqori tutdi. Muhammad alayhis-salamga va barchaga peshvo bo‘lgan xonadonlariga salot-u salom bo‘lsin.

Endi hamd-u salotdan so‘ng bu kamina, مَحْمُودْ بِنْ الْحُسَيْنْ بِنْ مُحَمّدْ *Maḥmūd bin-al-Ḥusayn bin-Muḥammad* so‘zlarini tinglangiz.

Xudo davlat quyoshini turklar burjida (فى بروج الاتُراک) yaratdi. Falakni ham shular mulkiga moslab aylantirdi. Ularni **تُرکْ *türk*** deb atadi, mulkka ega qildi, ularni zamonamizning xoqonlari qilib ko‘tardi. Zamon ahlining ixtiyor jilovini shular qo‘liga topshirdi, xalqqa bosh qildi, bularni to‘g‘ri yo‘lga yurishga qodir qildi. Bularga qarashli kishilarni g‘olib qildi. Ularga qarashli kishilar maqsadlariga yetib, beboshlar halokatidan qutuldi. Ularning (turklarning) o‘qlaridan saqlanmoq uchun ularning xatti-harakatlarini mahkam tutmoq har bir aqlli kishiga loyiq va munosibdir. Bularga yaqin bo‘lish uchun eng asosiy yo‘l – ularning tillarida so‘zlashishdir, chunki ular bu tilda so‘zlashuvchilarga yaxshi quloq soladilar, o‘zlarini yaqin tutadilar, ularga zarar bermaydilar. Hatto ular o‘z panohida turgan boshqalarning gunohini ham kechib yuboradilar.

Ishonchli bir buxoro(بُخارا)lik olimdan va nisopur(نيسابُور)lik boshqa bir ishonchli olimdan shunday eshitgan edim, ular bu so‘zni payg‘ambar alayhis-salomga nisbat berib, sanadi bilan aytgan edilar: Payg‘ambar alayhis-salom qiyomatning belgilari, oxir zamon fitnalari va o‘g‘uz turklarining (التُرک الغُزّيه) xuruji haqida gapirganda, (2a) shunday degan edi: تَعَلّمُوا لِسَانَ التُركِ فانّ لَهُم مُلکا طوَالا (“Turk tilini o‘rganing, chunki ularning hukmronligi uzoq davom etadi”).

Hadisning to‘g‘ri yoki to‘g‘ri emasligining javobgarligi aytgan kishilar gardaniga. Agar to‘g‘ri bo‘lsa, turk tilini o‘rganish vojib(zarur)dir; hadis to‘g‘ri bo‘lmagan taqdirda ham uni o‘rganish zarurligini aql taqozo qiladi.

Men turklar (تُركيّة), turkmanlar (تُركمانيّة), o‘g‘uzlar (اُغُزيّة), chigillar (جكليّة), yag‘molar (يغماييّة), qirqizlarning (قرقزيّه) shaharlarini, qishloq va yaylovlarini

ko‘p yillar kezib chiqdim, lug‘atlarini to‘pladim, turli xil so‘z xususiyatlarini o‘rganib, aniqlab chiqdim. Men bu ishlarni til bilmaganligim uchun emas, balki bu tillardagi har bir kichik farqlarni ham aniqlash uchun qildim. Vaholanki, men tilda ularning eng yetuklaridan, eng katta mutaxassislaridan, xushfahmlaridan, eski qabilalaridan, jang ishlarida usta nayzadorlaridan edim. Ularga shuncha diqqat qildimki, turklar, turkmanlar, o‘g‘uzlar, chigillar, yag‘molar va qirqiz qabilalarining tillari butunlay dilimga jo bo‘ldi. Ularni har tomonlama puxta bir asosda tartibga soldim.

Bu asar abadiy yodgorlik bo‘lsin deb, Xudoga sig‘inib, bu kitobni tuzdim. Kitob دِيوَان لُغَاتِ التُرْكِ “Divāni luγāti-t-türki” [“Turk so‘zlari devoni”] deb ataldi.

Buni ulug‘ payg‘ambar alayhis-salam martabasidagi hoshimiylar sulolasidan, abbosiylar avlodidan bo‘lmish sayyidimiz va ulug‘imiz ابو القاسم عبد الله بن مُحمد المُقتدى بامرالله *Abu-l-Qāsim ’Abdullāh bin-Muḥammadi-l-Muqtadā biamrillāh* ga armug‘on qildim. Tangri unga uzoq umr, abadiy hurmat, baxt-u saodatli hayot ato qilsin. Uning saltanatining asoslariga hech zavol yetmasin. Uning farmon doiralari kengaysin va yuksalsin. Odam o‘g‘illari uning mo‘l karami bilan yulduzlar singari yuksak martabaga erishsinlar. Qahr zalolatiga to‘lgan dushmanga uni g‘olib qilsin. Uning soyasini, ko‘rkini, qudratini, fazlini, ulug‘lig‘ini musulmonlar ustidan xoli qilmasin. (2b)

Men bu kitobni maxsus alifbo tartibida hikmatli so‘zlar, saj’lar, maqollar, qo‘shiqlar, rajaz va nasr deb atalgan adabiy parchalar bilan bezadim. Qattiq joylarini yumshatdim, qiyin va qorong‘u joylarini yoritdim. Bu ish ustida so‘zlarni o‘z joyiga qo‘yish, kerakli so‘zlarni osonlik bilan topish uchun bir necha yil mashaqqat tortdim. Nihoyat, kerakli so‘zlarni o‘z joyida ko‘zlaydigan, qiyinchiliksiz topa oladigan bir holga keltirdim.

Lug‘atni sakkiz asosiy bo‘lim(*kitāb*)da chekladik.

Birinchisi, كِتَابُ الهَمْزِ *Kitābu-l-hamzi* [ya’ni *hamza* (*alif*) bilan boshlanadigan so‘zlar kitobi]. Alloh taoloning Kitobi (كِتَابِ اللهِ تَعَالَى *Kitābu-l-lahi taā’lā*)ga tayangan holda [ya’ni unda *alif* harfi bosh o‘rinda turgani bois], uni [*alif* ni] bosh o‘ringa qo‘ydik[1].

Ikkinchisi, كِتَابُ السّالِمِ *Kitābu-s-sālimi* [ya’ni tarkibida *sālim* (*alif, vāv, yā* harflari bo‘lmagan so‘zlar) kitobi].

Uchinchisi, كِتَابُ المُضَاعَفِ *Kitābu-l-muḍā’fi* [ya’ni ikki undoshi bir xil bo‘lgan so‘zlar kitobi].

To‘rtinchisi, كِتَابُ المِثَالِ *Kitābu-l-miṯāli* [ya’ni *vāv* yoki *yā* bilan boshlangan so‘zlar kitobi].

Beshinchisi, كِتَابُ ذَواتِ الثَّلَاثَهِ *Kitābu-δ-δavāti-ṯ-ṯalāṯati* [ya’ni qisqa unli sifatida o‘qiladigan *alif, vāv, yā* harflari bor bo‘lgan so‘zlar kitobi].

[1] الله so‘zining hamda Qur’oni karimdagi Fotiha surasining *alif* bilan boshlanishiga ishora etilmakda.

Oltinchisi, كِتَابُ ذَوَاتِ الْاَربَعَهِ *Kitābu-δ-δavāti-l-arba'ti* [ya'ni *alif, vāv, yā* harflari qisqa unli sifatida yoki [*v*], [*y*] deb o'qiladigan so'zlar kitobi].

Yettinchisi, كِتَابُ الْغُنَّهِ *Kitābu-l-γunnati* [ya'ni *γunna* lilar (tarkibida burun (dimog') tovushlari kelgan so'zlar) kitobi].

Sakkizinchisi, كِتَابُ الجَمْع بَينَ السّاكِنَينِ *Kitābu-l-jam' bayna-s-sakinayni* [ya'ni yonma-yon kelgan harakatsiz ikki undoshli so'zlar kitobi].

Har bir bo'lim(*kitāb*)ni otlar (ismlar) va fe'llar tarzida ikki qismga ajratib berdim. Otlarni oldin, fe'llarni esa otlardan keyin o'z sirasiga qarab, boblarga ajratib, o'z o'rnida oldinma-ketin ko'rsatdim. Tushunilishi oson bo'lsin uchun asarda arabcha istiloh(termin)lar qo'lladim. Kitobni tuzish oldida (3a) Xalil ibni Ahmadning كتاب العين "Kitābu-l-'ayni" asarida tutgan tartibini qo'llash, iste'moldan chiqqan so'zlarni ham bera borish fikri menda tug'ilgan edi. Bu tartib arab tili (العربيّه) bilan ikki uloqchi ot singari teng poyga qilib o'zib borayotgan turk tilini (لغات التُرک) to'liqroq yoritish jihatdan ham yaxshi edi. Lekin men o'quvchilarning foydalanish masalasiga asoslandim. Men iste'-moldagi so'zlarnigina berdim, iste'moldan chiqqanlarini tashladim. Men tutgan tartib to'g'riroqdir.

Turkiy tillarda qo'llanilayotgan so'zlar bilan iste'moldan chiqqanlarini tanitish uchun quyidagi namunalarni ko'rsataman:

اَرِقْ ***arïq*** – "anhor"; qo'llanadi
اَقُرْ ***aqur*** – "otxona"; qo'llanadi
قَارْ ***qar*** – "qor"; qo'llanadi
قَرَا ***qara*** – "qora"; qo'llanadi
رَقَا ***raqa*** – noaniq
رَاقْ ***-raq*** – (chog'ishtirish qo'shimchasi); qo'llanadi
اَزُقْ ***azuq*** – "oziq-ovqat"; qo'llanadi
اَقُز ***aquz*** – noaniq
قُزِی ***qozï*** – "qo'zi"; qo'llanadi
قِيزْ ***qïz*** – "qiz"; qo'llanadi
زِقِی ***zïqï*** – noaniq
زِيقْ ***zïq*** – noaniq

Turmushda qo'llanadigan va qo'llanmaydigan so'zlar shu bilan cheklanmaydi, uch harfli, to'rt harfli va boshqa so'zlarda ham ular ko'pdir. Biz bu yerda "qadam izi birov yurganligini bildiradi" deyilgani kabi, ulardan ba'zi namunalarnigina ko'rsatib, boshqalarini shunga qiyos qilishni o'quvchilarning o'ziga havola qildik.

Qisqartish va yengillatish maqsadida bu asarni mendan oldin hech kim tuzmagan va hech kimga ma'lum bo'lmagan alohida bir tartibda tuzdim. Bu ishda men asarning qiymatini oshirish, boshqalarga (foydalanuvchilarga) esa osonlik tug'dirish maqsadida, puxta qo'llanma bo'lsin deb, har bir qabilaning o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra qiyosiy qoidalar tuzdim. Bu masalaga qiziqqan

mutaxassislarga bu asarni qo‘llanma qildim. Ilgarilab ketganlarga yetish uchun men (bu kitobimni) poygachi otdek ularning ketidan yubordim, ularga yetib olish uchun yo‘l ochib berdim, juda yuqoriga chiqish uchun narvon yasadim. So‘ngra men har bir qabilaga mansub so‘zlarning yasalish xususiyatlarini va qanday qo‘llanishini qisqacha izohlab ko‘rsatish uchun alohida yo‘l tutdim. Bu ishda (3b) misol tariqasida turklarning tilida qo‘llanib kelgan she’rlaridan, shodlik va motam kunlarida qo‘llanadigan hikmatli so‘zlaridan, maqollaridan keltirdim, toki ulardan foydalanuvchilar naql qiluvchilarga (tinglovchilarga), naql qiluvchilar esa, o‘z navbatida, shu tilda so‘zlovchilarga yetkazsin. Shuning uchun ham bularning hammasini mazkur asarda to‘pladim. Bu kitob yangiliklar berishda qiyomiga, qiymat va muhimlikda esa poyoniga yetdi.

Turkcha so‘zlarning tuzilishida qo‘llanadigan harflar haqida

Turkiy tillarda (اَلسِنَة التُرکِ) qo‘llanadigan asosiy harflar soni o‘n sakkizta. “Turkcha yozuv”(کِتَابَةُ التُرکِیّه)da shular qo‘llanadi. Ularning hammasini quyidagi so‘zlar qamraydi:

اخوک، لفّ، سمج، نزق، بذر، شتیّا

Ayirib ko‘rsatilsa, quyidagicha bo‘ladi:

ا	ف	خ	و	ز	ق	ی	ک	ذ
م	ن	ب	س	ج	ر	ش	ت	ل

Arabchada bu harflarning tengdosh sirasi ا ب ت ث singaridir. Bu asosiy harflardan boshqa talaffuzdagina (yozuvda emas) ifodalanuvchi yana yettita harf borki, turkiy so‘zlar bu harflarsiz ishlatilmaydi. Bular jarangsiz ب *pā* harfi (البا الصلبه), arabcha ج *jīm* harfi – arabcha ج *jīm* (bu lug‘atda, ya’ni turkchada) kam qo‘llanadi, ژ *zā* bilan ش *šīn* oralig‘ida talaffuz etiladigan ز *zā* harfi (ya’ni [*ž*]); arabcha ف *fā* (ya’ni [*w*]) harfi; nuqtali غ *yayn* harfi; ق *qāf* bilan ک *kāf* harflari oralig‘ida (4a) talaffuz etiladigan jarangli ک *kāf* (ya’ni [*g*]), *kāfu-l-γunna* bilan غ *γayn* oralig‘ida hamda ق *qāf* bilan ن *nūn* oralig‘ida talaffuz etiladigan نک (ya’ni [*ŋ*]) harflaridir.

Bu harflarni talaffuz qilishda turklardan boshqalar qiynaladi. Bu harflar o‘sha yuqoridagi harflardek yoziladi, tepasiga nuqta qo‘yilib ayriladi.

Biror qabila tilida ث *s̱ā* harfi yo‘qdir. Itboq harflari (*ḥurufu-l-itbāqi*)dan bo‘lmish ط *ṭā,* ظ *ẓā,* ص *ṣād,* ض *ḍād* harflari ham turkiy tillarda yo‘qdir.

Shuningdek, bo‘g‘iz tovushlari(*ḫurufu-l-ḥalqi*)dan bo‘lmish حَا *ḥā,* هَا *hā,* ع *’ayn* harflari ham turkiy tillarda yo‘qdir. اُوكّى ***ükki*** so‘zini اُوهى ***ühi*** deguvchilar juda kamdir.

اُوكّى ***ükki*** so‘zini *kāf* bilan talaffuz qilish qipchoqchadir. “Tutantiriq yog‘ochi”ni kanjaklar جَهٰا ***čähä*** deydilar. Bu so‘z til xususiyatiga mos emas; “ko‘z og‘rig‘i”ni اَوَهْ ***äväh*** deydilar, bu so‘z ham yuqoridagidek mos emasdir.

Bulardan boshqa ba’zan, vaqf holatida so‘zning oxiriga qo‘shilib keladi. Masalan, lochin qushini chaqirishda تَاهْ تَاهْ ***tah-tah*** deydilar, otning bolasini chaqirishda قُرّهْ قُرّهْ ***qurrïh-qurrïh*** deydilar. Ammo ه *hā* qo‘llangan hech bir so‘z yo‘q. Goho xo‘tanliklar so‘zida bu harf uchraydi, chunki bu hind tilining ta’siridir. Kanjaklar tilida ham ه *hā* harfi uchraydi, deyish mumkin. Chunki bu ham turkcha emas. Agar ث *s̱ā* harfini yozish kerak bo‘lsa, turkcha ذ *δāl* suratida yozilib, ustiga nuqta qo‘yiladi. ض *ḍād* harfi ham ذ *δāl* shaklida yozilib, ustiga nuqta qo‘yiladi. ص *ṣād* harfi ham س *sīn* shaklida yozilib, ustiga nuqta qo‘yiladi. حا *ḥā,* ها *hā,* ع *’ayn* harflari turkcha خ *xā* shaklida yozilib, ayrim belgi bilan ayriladi. Chunki bu harflar arabchaga xosdir. Bu harflar turkcha yozilsa, shaklda o‘xshashlik saqlansa ham, nuqta va belgilar bilan farq qilinadi. (4b) Bu harflarning hammasi to‘plansa, quyidagi shakl hosil bo‘ladi:

Bu xatni yozishda, talaffuzda o‘rni yo‘qligiga qaramay, yozuvda bir turli belgilar orttiriladi. Masalan, *ẓamma* o‘rnida *vāv, kasra* o‘rnida *yā*, *fatḥa* o‘rnida *alif* belgilarini yozish qoidadir. Arabchada اَخْ اَبْ so‘zlari boshqa so‘zlar bilan qo‘shilib kelganda, talaffuzda aniq sezilmaydigan *alif, vāv, yā* harflari qo‘shilishi shunga misoldir: هذا اَبُوكَ وَ رَأَيْت اَباكَ وَ مَرَرْت بِاَبِيكَ

Barcha xoqonlar va sultonlarning kitoblari, yozuvlari qadimgi zamonlardan shu kungacha, كَاشْغَرْ *Kāšγar* dan Yuqori Chingacha (الصين العليا) – hamma turk shaharlarida shu yozuv bilan yuritilgan. Turkiy so‘zlarda (كلام التُرك) uch harakat bilan kelish اِشْبَاعْ *išbā’*, اِماله *imāla,* اِشْمامْ *išmām,* غُنّه *γunna,* خَيْشُومْ *xayšūm* harfi, ikki undoshning qator kelishi, *qāf* bilan ج *čīm* harflarining jam kelishi, *bā* bilan *mīm*, *nūn* bilan *lām* va boshqa harflarning almashinish hollari ham uchraydi. Bular hammasi o‘z o‘rnida gapiriladi.

Fe’llardan yasalgan otlar haqida

Otlar ikki turlidir: yasama ot va tub ot. Fe’llardan yasalgan otlar fe’l oxiriga o‘n ikki harfdan birini qo‘shish bilan yasaladi.

قِلِجْ ***qïlïč,*** اُوقْ ***oq*** kabi otlar tub otlardir. (5a) Bu xil otlar boshqa so‘zlardan kelib chiqmagan. Yasama otlar boshqa so‘zlardan kelib chiqadi. Bularning

ba’zilari turmushda qo‘llanib, eshitilib yurilgan bo‘lsa, ba’zilari aniq emas, qiyosiy asosdadir. Men iste’moldagilarini berib, muhmallarini tashladim. Lekin muhmallarni solishtirib aniqlash mumkin bo‘larli qilib, quyidagicha bir qoida yaratdim: fe’llardan yasaluvchi otlar quyidagi o‘n ikki harfdan birining qo‘shilishi bilan tuziladi. Bular: ا *alif,* ت *tā,* ج *čīm,* ش *šīn,* غ *γayn,* ق *qāf,* aniq ک *kāf,* ق *qāf* bilan ک *kāf* oralig‘ida talaffuz etiladigan jarangli (الركيكة) ک *kāf* (ya’ni [*g*]), ل *lām,* م *mīm,* ن *nūn,* و *vāv* harflaridir.

ا *alif*

“Olim, dono; aqlli” ma’nosidagi بِلْكَا ***bilgä*** so‘zi بِلْدِى ***bildi*** fe’liga *alif* qo‘shilib yasalgan. Tajribada, aqlda katta bo‘lganlarga nisbatan qo‘llanadigan اُكَا ***ögä*** so‘zi ham shunday yasalgan. Bu so‘z اُودِى نَانكْنِى ***ödi näŋni*** (“narsani yaxshi tushundi”) iborasidagi اُودِى ***ödi*** fe’lining o‘zagidan yasalgan.

“Bir turli taom” ma’nosidagi اُوَا *uva* so‘zi ham shunday yasalgan. Bu so‘z “burdaladi; uvatdi” ma’nosidagi اُوْدِى ***uvdï*** fe’lidan yasalgan.

Ko‘pincha *alif* yolg‘iz kelmay, *mīm* bilan birga (مَا *-ma, -mä* shaklida) uchraydi: “kokil” ma’nosidagi كَسْمَا ***kesmä*** so‘zi كَسْدِى ***kesdi*** fe’lidan olingandir. Ko‘zni berkitmasin, deb sochni kesiladigan joyga ham كَسْمَا ***kesmä*** deyiladi.

اُورْمَا سَجْ ***örmä sač*** so‘zi ham shunday. Bu so‘z اُورْدِى ***ördi*** fe’lidan yasalgan.

ت *tā*

“Qochuvchi” ma’nosidagi قَجُتْ ***qačut*** so‘zi ham shunday. Bu so‘z قَجْدِى ***qačdï*** fe’lidan yasalgan. كَدُتْ ***keδüt*** so‘zi ham shunday. Bu so‘z كَدْتِى ***keδti*** fe’lidan yasalgan.

ج *čīm*

(5b) “Non” ma’nosida kelgan كُمَجْ ***kömäč*** so‘zidagi *čīm* kabi. Bu so‘z kul va boshqalarga كُمْدِى ***kömdi*** deganda qo‘llanuvchi كُمْدِى ***kömdi*** fe’lidan yasalgan.

سَقِنْجْ ***sewinč*** so‘zi ham shunday. Bu so‘z سَقِنْدِى ***sewindi*** fe’lidan yasalgan.

ش *šīn*

Tanish kishiga nisbatan qo‘llanuvchi بِلِشْ ***biliš*** so‘zidagi *šīn* kabi. Bu so‘z بِلْدِى ***bildi*** fe’lidan yasalgan.

“Jang” ma’nosida qo‘llanuvchi اُرُوشْ ***uruš***, تُقُشْ ***toquš*** so‘zlaridagi *šīn* kabi. Bu so‘z اُورْدِى ***urdï*** va تُقِدِى ***toqïdï*** fe’llaridan yasalgan.

غ *γayn*

γayn harfida uch xususiyat bor:

Birinchidan, fe’llarga qo‘shilib, ularni otlarga aylantiradi. “Narsa tozalandi” ma’nosidagi اَرِنْدى نَانْكْ ***arïndï näŋ*** jumlasidagi اَرِنْدى ***arïndï*** fe’lining o‘zagiga *γayn* qo‘shilib yasalgan; اَرِغْ ***arïγ*** (“sof, toza”) so‘zi shunga misoldir.

“Quruq” ma’nosidagi قُرُغْ ***quruγ*** so‘zi ham قُرِيدِى ***qurïdï*** fe’li o‘zagiga *γayn* qo‘shib yasalgan otga misoldir.

Ikkinchidan, otlarga qo‘shilib, uni o‘rin otiga aylantiradi:

“Yaylov” ma’nosidagi يَيْلَاغْ ***yaylaγ*** so‘zi يَاى ***yay*** oti oxiriga *γayn* qo‘shib yasalgan. Shuningdek, قِشْ ***qïš*** so‘zidan yasalgan قِشْلَاغْ ***qïšlaγ*** so‘zi ham قِشْ ***qïš*** so‘zi oxiriga *γayn* qo‘shilib yasalgan.

Uchinchidan, fe’llarga *γayn* va *vāv* (ya’ni [*u*]) harflari birlikda, ya’ni غُو -*γu* qo‘shilib, uni qurol otiga aylantiradi. Bu xususiyat turkiy tillarning hammasi uchun umumiy. بِيجْدِى ***bïčdï*** (“kesdi”) fe’lining o‘zagiga غُو -*γu* qo‘shilib yasalgan “narsalarni kesuvchi uskuna” ma’nosidagi بِچْغُو ***bïčγu*** so‘zi shunga misoldir.

اُرْدِى ***urdï*** fe’lidan yasalgan اُورْغُو نَانَكْ ***urγu näŋ*** (“uradigan narsa”) ham shunday.

Shu ma’noda *γayn* o‘rnida jarangli ك *kāf* (الكاف الركيكه) (ya’ni [*g*]) qo‘llash (hodisasi) ham uchraydi. (6a) كَسْدِى ***kesdi*** fe’lidan yasalan كَسْكُو نَانَكْ ***kesgü näŋ*** (“kesadigan narsa”) shunga misol bo‘la oladi.

اَقوسْدِى ***ewüsdi*** (“sovurdi”) fe’lidan yasalgan اَقوسْكُو ***ewüsgü*** (“sovuradigan”) so‘zi shunga misoldir.

γayn bilan *kāf* (ya’ni [*g*])ning almashinish masalasiga kelganda, yo‘g‘on talaffuzli so‘zlarda *γayn* qo‘llanib, uning ziddi ingichka so‘zlarda *kāf* (ya’ni [*g*]) qo‘llanadi.

Bu xil so‘zlar oxiridagi *kāf, qāf, γayn* harflari arabcha fe’llar oldiga qo‘shilib, qurol oti yasovchi *mīm* harfiga o‘xshaydi. “O‘roq” ma’nosidagi مِنْجَلْ *minjal* so‘zi, “o‘t o‘rdi” ma’nosidagi نَجَلَ *najala* fe’li oldiga *mīm* qo‘shilib yasalgan. “Elak” ma’nosidagi مُنْخُلْ *munxul* so‘zi “eladi” ma’nosidagi نَخَلَ *naxala* fe’li oldiga *mīm* qo‘shib yasalgan.

“Supurgi” ma’nosidagi مِنْسَفْ *minsaf* so‘zi ham shunday. Ya’ni نَسَفَ *nasafa* (“supurdi”) fe’lidan *mīm* orttirib yasalgan.

O‘g‘uzlar *γayn* yoki *qāf* o‘rnida *alif* hamda *vāv* [*u, ü*] o‘rnida *sīn* va *yā* (سِى -*sï, -si*) qo‘llab o‘zgartiradilar: يِغَاچْ بِچَاسِى نَانَكْ ***yïγač bïčasï näŋ*** – “yog‘och kesadigan narsa”; اُتُونكْ كَسَاسِى بَلْدُو ***otuŋ kesäsi baldu*** – “o‘tin kesadigan bolta” kabi.

Zamon va makon otlari va masdarlarda ham qoida shu xilda.

Xoqoniya turklari bilan boshqalar orasida, o‘g‘uz turkmanlar bilan boshqalar o‘rtasida payt oti, o‘rin oti va masdarlarda ham shunday farq bor. Ular o‘z o‘rnida ko‘rsatiladi.

ق *qāf*

“Taroq” ma’nosidagi تَرْغَاقْ ***taryaq*** so‘zidagi *qāf* ham shunday. Bu so‘z سَجْ تَرَادِى ***sač taradï*** birikmasidagi تَرَادِى ***taradï*** fe’lidan yasalgan.

“O‘roq” ma’nosidagi اُرْغَاقْ ***oryaq*** so‘zidagi *qāf* ham shunday. Bu so‘z اُوتْ اُرْدِى ***ot ordï*** birikmasidagi اُرْدِى ***ordï*** fe’lidan yasalgan.

ك *kāf* (aniq *kāf* – الكاف الصلبة)

“Biror narsaning bo‘lagi” ma’nosidagi كَسَاكْ نَانَكْ ***kesäk näŋ*** iborasida kelgan كَسَاكْ ***kesäk*** so‘zidagi *kāf* ham shunday. Bu so‘z كَسْدِى ***kesdi*** fe’lidan yasalgan.

“Yopinchiq” ma’nosidagi اَشُكْ ***ešük*** so‘zi “yopdi, o‘radi” ma’nosidagi اَشُودِى ***ešüdi*** fe’lidan yasalgan.

ك *g* (jarangli *kāf* – الكاف الركيكة) (6b)

تِرِيلْدِى ***tirildi*** fe’lidan yasalgan تِرِكْ ***tirig*** so‘zi kabi. اُولْدِى ***öldi*** fe’lidan yasalgan اُولُكْ ***ölüg*** so‘zidagi *kāf* kabi.

ل *lām*

بِيجْغِيلْ بِيرْ ***bičγil yer*** – “kovak, yoriq yer” iborasidagi بِيجْغِيلْ ***bičγil*** so‘zida kelgan *lām* ham shunday. Bu so‘z نَانَكْ بِيجِيلْدِى ***bičïldï näŋ*** iborasidagi بِيجِيلْدِى ***bičïldï*** fe’lidan yasalgan.

Oq va qora ranglarning almashinuvidan hosil bo‘lgan “chovkar” mazmunida kelgan تَرْغِيلْ ***tarγil*** so‘zidagi *lām* ham shundaydir. Bu so‘z تَرِيلْدِى ***tarïldï*** fe’lidan yasalgan.

م *mīm*

“Namat” ma’nosida kelgan يَذْمْ ***yaδïm*** so‘zidagi *mīm* kabi. Bu so‘z يَذْتِى ***yaδtï*** fe’lidan yasalgan. “Bir tilim qovun” ma’nosida kelgan بِيرْ بِيجِمْ قَاغُونْ ***bir bičïm qaγun*** iborasidagi بِيجِمْ ***bičïm*** (“tilim”) so‘zi بِيجْدِى ***bičdï*** (“kesdi”) fe’lidan yasalgan.

ن *nūn*

“Sel” ma’nosidagi اَقِنْ ***aqïn*** so‘zida kelgan *nūn* kabi. Bu so‘z سُفْ اَقْدِى ***suw aqdï*** gapidagi اَقْدِى ***aqdï*** fe’lidan yasalgan. “Tuproq uyumi” ma’nosida kelgan بِيغِنْ تُبْرَاقْ ***yïγïn tupraq*** iborasidagi بِيغِنْ ***yïγïn*** so‘zi تُبْرَاقْ يِغْدِى ***tupraq yïγdï*** gapidagi يِغْدِى ***yïγdï*** fe’lidan yasalgan.

و *vāv* (ya’ni [*u*], [*ü*])

Bu harf qo‘shilib yasaluvchi so‘zlar, asosan, birikma shaklida keladi; ular yolg‘iz holda juda oz uchraydi. “Qortuq-qoruq” (qon olinadigan asbob) ma’nosidagi سُرْغُو ***sorγu*** so‘zi “hayvon sutini yoki qonini so‘rish” ma’nosidagi سُرْدِى ***sordï*** fe’lidan yasalgan. “Turadigan yer” ma’nosidagi تُرْغُو بِيرْ ***turγu yer*** so‘zi ham shunday.

Bu qoidalar falak qutb yulduzi atrofida aylanish qoidasi kabi har qanday so‘zga tatbiq etiladigan umumiy qoidalardir. Ular ikki harfli, uch harfli, to‘rt harfli, besh harfli va undan ko‘p harfli fe’llarning hammasi uchun ham umumiy. Biz bu yerda qisqa ma’lumot berdik, boshqa yerlarda, Xudo xohlasa, bu haqda yana so‘zlanadi.

So‘zlarning tuzilishi haqida

So‘zlar ikki harfli bo‘ladi: اَتْ ***at***, اَرْ ***er*** so‘zlari kabi.

Uch harfli bo‘ladi: اَزُقْ ***azuq***, يَزُقْ ***yazuq*** (“ayb”) so‘zlari kabi.

To‘rt harfli bo‘ladi: (7a) يَغْمُرْ ***yaγmur***, جَغْمُرْ ***čaγmur*** (“sholg‘om”) so‘zlari kabi.

Besh harfli bo‘ladi: قُرُوغْسَاقْ ***quruγsaq*** (“me’da, qursoq”), قُذُرْغَاقْ ***quδuryaq*** (etakning bir tomoni) so‘zlari kabi.

Olti harfli bo‘ladi: كُمُلْدُرُكْ ***kömüldürük*** (otning ko‘kragiga taqiladigan ziynat bezagi) va قُذُرْغُونْ ***quδuryun*** (“quyushqon”) so‘zlari kabi.

Yetti harfli bo‘ladi: زَرْغُنْجُمُود ***zaryunjmud*** (xushbo‘y bir o‘simlik, tangagulli bo‘ladi) kabi.

Yetti harfli [so‘z]lar otlarda kam, lekin [so‘zlar] yetti harflidan ortiq bo‘lmaydi.

Otlardagi orttirma belgilar haqida

Otlarga orttiriladigan belgilar: مَدّ *madd* (cho‘zish belgisi)[1], لِينْ *līn* (yumshatish belgisi)dir. Masalan, تَغَارْ ***tayar*** (“qop, to‘rva”), جَقْارْ ***čawar*** (“tutantiriq”) so‘zlariga orttirilgan *alif* cho‘zish belgisidir. قُرِيغْ ***qorïγ*** (“qo‘rilgan, begonalardan ehtiyot saqlangan”) va اَرِيغْ ***arïγ*** (“toza, pok”) so‘zlaridagi *yā*; اَنُوقْ ***anuq*** va تَنُوقْ ***tanuq*** (“gunoh”) so‘zlaridagi *vāv* yumshatish belgisidir. اَدْغِيرْ ***aδγïr*** (“ayg‘ir”), اِشغُنْ ***išγun*** (“ravoch o‘ti”) so‘zlaridagi *hamza*; بَزْغَانْ ***bazγan*** (“yassi burunli”), قَزْغَانْ ***qazγan*** (“kovak yer”) so‘zlaridagi *nūn* harfi; تُرْقُو ***turqu*** (“ipak kiyimlik”), قُرْغُو ***quryu*** (“shoshmashoshar kishi”) so‘zlaridagi *vāv*; كُتْكِى ***kütki*** (“kichik tepa”), بُرْقِى ***burqï*** (“qattiq yuzli kishi”) so‘zlaridagi *yā* harflari otlardagi orttirma belgilaridir.

Bu so‘zlardan فَعَال *fa’āl,* فِعَال *fi’āl,* فَعُول *fa’ūl,* فَعِيل *fa’īl* tarzidagi so‘zlarda cho‘zg‘i harflarni tushirish mumkin: يِغَاجْ yoki يِغَجْ shaklida yozilishi mumkin. “Daryo va vodiyning narigi tomoni” ma’nosidagi so‘zni يُغُوجْ yoki يُغُجْ shaklida yozish mumkin. Shuningdek, قُرِيغْ yoki قُرُغْ shaklida yozish farqsizdir.

So‘zning qisqasi uzunidan yaxshiroq. Qolganlari, Xudo xohlasa, kitobning boshqa yerida aytiladi.

Fe’llardagi orttirmalar va ularning tuzilishi haqida

Fe’llar ikki harfli, uch harfli, to‘rt harfli, besh harfli, olti harfli bo‘ladi. (7b) Fe’llarga so‘ng orttiriladigan harflar o‘ntadir:

ا *alif* ([*a*], [*ä*]), ت *tā,* ر *rā,* س *sīn,* ش *šīn,* ق *qāf,* ك *kāf,* ل *lām,* ن *nūn,* لا *lām alif* (*-la, -lä*), ى *yā*.

[1] Arab tilida *madd* harflari uchtadir: ا, و, ى kabi. Bu harflarning har biri o‘zi qo‘shilgan harflarni cho‘zib talaffuz qilishga xizmat qiladi.

Bularning har biri fe’llarda biror qo‘shimcha ma’no orttirishga xizmat qiladi.

ا *alif*

“Hasad qildi” ma’nosida kelgan **تَبْزَادِى *tepzädi*** so‘zidagi *alif* kabi. Bu so‘z **تَبِزْ *tepiz*** so‘zidan yasalgan.

“Qo‘buz chaldi” ma’nosidagi **قُبْزَادِى *qobzadï*** fe’li ham **قُبُزْ *qobuz*** so‘ziga *alif* qo‘shish yo‘li bilan yasalgan.

ت *tā*

tā harfi o‘timli fe’l yasaydi. “Bug‘doy tozaladi” ma’nosida keluvchi **تَرِغْ اَرِتّى *tarïγ arïttï*** jumlasidagi **اَرِتّى *arïttï*** fe’li **اَرِيدِى *arïdï*** fe’li o‘zagiga *tā* qo‘shib, o‘timli fe’l yasalgan so‘zga misoldir.

تُونْ قُرُتّى *ton quruttï* (“kiyimni quritdi”) birikmasidagi **قُرِيدِى *qurïdï*** so‘zidagi *tā* ham shundaydir.

ر *rā*

Ko‘pincha o‘timli fe’l yasashda *rā* harfi *tā* harfi bilan birikib, **تُرْ *tur*** shaklida keladi. Chunonchi, **بَرْدِى *bardï***, **بَرْتُرْدِى *barturdï,*** **كَلْدِى *keldi*** (“keldi”), **كَلْتُرْدِى *keltürdi*** (“keltirdi”) misollari kabi.

س *sīn*

Fe’llarga *sīn* qo‘shilib, orzu va istak ma’nolarini bildiradi, masalan: **سُوقْ اِچْسَدِى *suw ičsädi*** – “suv ichmoq istadi”; **اَشْ يِيسَدِى *aš yeyisädi*** – “osh yemoq istadi” kabi. *sīn* hafi ba’zan arabcha تَفَاعُلْ bobidagi kabi fe’llarda boshqa shaxslarga nisbatan ishning bo‘lganga o‘xshab ko‘ringanini, aslida u bo‘lmaganini bildiradi: **اُلْ مَنْدِينْ يَرْمَاقْ اَلِمْسِنْدِى *ol mendin yarmaq alïmsïndï*** – “u o‘zini mendan tanga olgandek qilib ko‘rsatdi”; **اُلْ مَنكَا كُلُمْسِنْدِى *ol meŋä külümsindi*** – “u o‘zini menga kulib qaraganday qilib ko‘rsatdi”.

ش *šīn*

šīn fe’llarga qo‘shilib, (arabcha مَفاعَلَه *mafā’ala* bobidagi kabi), ishda ikki kishi sherik ekanligini bildiradi: **اُورْدِى *urdï,*** **اُرُشْدِى *urušdï;*** **تُرْدِى *turdï,*** **تُرُشْدِى *turušdï*** kabi. (8a)

Fe’llarga *šīn* qo‘shilib, ba’zan yordamlashish, bahslashish ma’nolarida ham qo‘llanadi. Bu haqda o‘z joyida gapiriladi.

ق *qāf*

qāf fe’llarga qo‘shilib, yengilish, xo‘rlanish ma’nolarini bildiradi va *maf’ūl*[1] o‘rnida qo‘llanadi: **اَرْ اَچِيقْدِى *er ačïqdï*** – “qamalgani, ayrilib qolgani uchun kishi och qoldi”; **يِلْقِى يُتُقْدِى *yïlqï yutuqdï*** – “yilqi xashaksizlikdan o‘lar holga keldi”.

[1] *maf’ūl* – sifatdosh shaklida qo‘llanuvchi so‘zlar.

Bu masalada ko‘pincha *qāf* hafi *sīn* bilan birga qo‘llanadi: ***er arsïqdï*** اَرْ اَرْسِقْدِى – “kishi aldandi”; ***er suysuqdï*** اَرْ سُيْسُقْدِى – “kishining moli o‘g‘irlandi”.

ك *kāf*

Ingichka talaffuz qilinadigan [tarkibida ingichka unlilar keladigan] (و الركيكه اليمالة) va yoki tarkibida *kāf* harfi bo‘lgan so‘zlarda *kāf* harfi *qāf* vazifasida qo‘llanadi.

qačγïn er yetsikti قَجْغِنْ اَرْ يِتسِكْتِى – “qochgan kishiga yetib olindi”; ***ol er bilsikti*** اُلْ اَرْ بِلْسِكْتِى – “u kishi bilindi” [u kishining o‘zi va yashirin tutgan narsasi ma’lum bo‘ldi].

ل *lām*

Bu majhul fe’llarda qo‘llanadi: ***oq atïldï*** اُقْ اَتِلْدِى – “o‘q otildi” va ***er oq attï*** اَرْ اُقْ اَتّى – “er o‘q otdi” jumlalaridagi kabi.

böz toqïldï بُوزْ تُقِيلْدِى – “bo‘z to‘qidi”; ***böz toqïldï*** بُوزْ تُقِيلْدِى – “bo‘z to‘qildi” kabi.

ن *nūn*

nūn harfi fe’llarga qo‘shilib, so‘zlovchi orqali (boshqalar aralashmay turib) ishning bajarilishini bildiradi: ***ol yarmaqïn alïndï*** اُلْ يَرمَاقِنْ اَلِنْدِى – “u pulini o‘z boshicha (boshqalar aralashmay turib) oldi”; ***ol mendin tawarïn qulundï*** اُلْ مَنْدِينْ تَقَّارِينْ قُلُنْدِى – “u molini mendan o‘z boshicha (birovning aralashuvisiz) olmoqni istadi, so‘radi”.

لَا *lām alif* (*-la, -lä*)

لَا *-la, -lä* qo‘shimchasi otlarga qo‘shilib fe’l yasaydi: ***beg qušladï*** بِيكْ قُوشْلَادِى – “bek qush ovladi” iborasidagi kabi. (8b) Bu gapdagi ***quš*** قُوشْ so‘zi ot bo‘lib, fe’llarga o‘xshash tuslanmas edi, lekin لَا *-la* qo‘shilib, butun xususiyati bilan fe’lga aylandi. Bu asosiy qoidadir.

Buni esingda tut. ***beg kenddä qïšladï*** بَكْ كَنْدّا قِشْلَادِى – “bek shaharda qishladi” gapidagi ***qïšladï*** قِيشْلَادِى fe’li ham ***qïš*** قِيشْ so‘ziga لَا *-la* qo‘shimchasini qo‘shib, fe’l yasalgan otga misoldir.

ى *yā* (ya’ni [*i*] va [*i*])

yā harfi lām bilan birgalikda [لِى *-lï, -li* shaklida] qo‘llanadi. Fe’lga qo‘shilib, ish bajarilishiga yaqinlashsa-da, so‘ng ishlanmaganini anglatadi: ***ol turγalï qaldï*** اُلْ تُرْغَالِى قَلْدِى – “u turayozdi”; ***ol barγalï qaldï*** اُلْ بَرْغَالِى قَلْدِى – “u borayozdi”.

Bu qoidalarni yaxshi o‘rgan.

So‘zlarning oldinma-ketin kelish tartibi

Oldin ikki harflilardan boshladik, so‘ng uch harfli, so‘ng to‘rt harfli, so‘ng besh harfli, so‘ng olti harfli [so‘z]larni beramiz.

O‘rtasi *sukun* li[1] so‘zlarni o‘rtasi harakatli[2] so‘zlardan oldin beramiz, so‘ng o‘rtasi harakatlilar yana o‘zlarining harakatlariga mos ravishda oldinma-ketin beriladi. So‘ng oldiga *hamza* (أ) va boshqa shunga o‘xshash harf orttirilgan so‘zlar beriladi. So‘ng birinchi va ikkinchi harflari orasiga harf orttirilgan so‘zlar o‘z o‘rni bilan berib boriladi. So‘ng uchinchi harfdan keyin harf orttirilgan so‘zlar beriladi. Bundan tashqari, bu so‘zlarning boshi bilan oxirini nazarda tutamiz. Kitobimizning hamma bo‘limlarida ham otlar yuqoridagi tartibda ko‘rsatiladi.

Harflarni oldinma-ketin qo‘shish tartibi haqida

So‘zlarni berishda biz keyingi harfi ب *pā* bo‘lgan so‘zlardan boshlaymiz. So‘ng qolgan harflarni beramiz. Bu tartib ilgarigi adiblar tartibiga mos bo‘lib, (9a) arab lug‘atlari tuzilishiga ham muvofiqdir. Undan keyin boshida *hamza* va *hamza* ga yaqin harfli so‘zlarni boshqalardan oldin qo‘yamiz. Biz o‘z asarimizda واو عاطفة *vāvi ’ātifa* [bog‘lovchi *vāv*]ni ko‘rsatmadik, chunki unga bu til (turkiy til) da o‘rin yo‘q. Buni yaxshi tushuningiz.

Devonda zikr qilinmaydigan sifatlar haqida

Sifatlar turli bo‘limlarda har xil maqsadlar bilan uchraydi.

Birinchi: ish qiluvchi kimsa o‘z ishining ba’zan bajarilishini bildiradi. Chunonchi, اَرْ بَرْدِی ***bardï er*** – “kishi bordi” birikmasidagi ***بَرْدِی bardï*** fe’lidan shu ma’noda qo‘llangan sifat اَرْ بَرْدَچِی ***bardačï er*** (“boruvchi kishi”)dir; اَرْ كَلْدِی ***keldi er*** – “kishi keldi” birikmasidagi ***كَلْدِی keldi*** so‘zidan yasalgan اَرْ كَلْدَچِی ***keldäči er*** ham shunday sifatdir. Bu xil sifatlar zikr qilinmaydi.

Ikkinchi: harakatning davom qilishini, ko‘p marta takrorlanishini bildiruvchi sifat اُلْ اَرْ اُلْ اَقْكَا بَرَغَانْ ***ol er-ol ewkä baraγan*** – “u uyiga ko‘p boradigan, boraveradigan kishidir”; اُلْ كِشِی اُلْ بِيزْكَا كَلَكَانْ ***ol kiši-ol bizkä kelägän*** – “u bizga ko‘p keladigan, kelaveradigan kishidir” jumlasidagi ***كَلَكَانْ kelägän*** sifati ham shundaydir. Bu xil sifatlar ham zikr qilinmaydi.

Uchinchi: “ishni qilishga qasd qiladigan, istaydigan” mazmunini bildiruvchi sifatlardir: اُلْ اَرْ اُلْ اَقْكَا بَرِغْسَاقْ ***ol er-ol ewkä barïγsaq*** – “u uyga borishga intiluvchi, istovchi kishidir”; اُلْ كِشِی اُلْ بِيزْكَا كَلِكْسَاكْ ***ol kiši-ol bizkä keligsäk*** – “u bizga kelishga intiluvchi, istovchi kishidir”. Bu sifat ham berilmadi.

---

[1] *sukun li* – harfning uzilish, cho‘zg‘isizlik belgisi.

[2] *harakatli* – harflarning o‘zidan keyingi harfga ulanishi.

To‘rtinchi: bir ishni qilish uning vazifasi ekanidan xabar berishni bildiruvchi so‘z اُلْ اَفْكَا بَرْغِلِقْ اَرْدِى ***ol ewkä barγïlïq erdi*** – “uyga borish uning vazifasi edi”. O‘g‘uzlar har qanday so‘zda ham bu *lām* ni *sīn* ga almashtiradilar. (9b)

Yana misol: اُلْ بِكِتْ بِيزْكَا كَلْكُولُوكْ اَرْدِى ***ol yigit bizkä kelgülük erdi*** – “u yigitning vazifasi bizga kelish edi”.

Beshinchi: ishni qilish sharafi unga oid bo‘lgani ta’rif qilinadi: مَنْ اَفْكَا بَرِغْلِى مَنْ ***men ewkä barïγlï-men*** – “men uyga ketish ustidaman [ketmoqchi bo‘lib turibman]”.

مَنْ سِيزْكَا كَلِكْلِى مَنْ ***men sizkä keligli-men*** – “men sizga kelish ustidaman”.

Bular ham devonda keltirilmaydi. Bu xil sifatlarning hammasi fe’ldan olinadi. Boshqa hamma fe’llardan ham shu tarzda sifat yasaladi.

Qilingan ish uning ustiga bo‘lganini bildiruvchi mavsuflar ham maxsus ko‘rsatib o‘tirilmadi. Faqat qoidalar bayoni orasidagina uning xususiyatlarini ko‘rsatish, bu sifatning tuzilish ravishini bildirish maqsadida ko‘rsatiladi.

Birlik, ko‘plik, oshirish, chog‘ishtirsh, kichraytirish, kelishiklar masalasi va boshqalar ham zikr qilinmadi. Chunki biz bularni جَوَاهِر النَحْوِ فِى لُغَاتِ التُركِ *“Javāhiru-n-naḥvi fi luγāti-t-turki”* [“Turk tillarining nahviga oid gavharlar”] ismli ayrim asarimizda berdik. Nahvga oid qoidalar u asardan qaralishi kerak.

Zikr qilinmagan masdarlar haqida

Masdarlar ikki xildir: birinchi – tub masdar. Bu xil masdarlar fe’llar bo‘limida o‘tgan zamon, kelasi zamon fe’llari bilan barobar ko‘rsatildi. Ikkinchi: aslida masdar bo‘lmay, biror so‘z qo‘shish bilan yasalgan masdarlardir. Bu xil masdarlardan hol ma’nosi ham anglashiladi. Bularni men bermayman, faqat juda zarur o‘rinlardagina ko‘rsataman.

بَرْدِى ***bardï***, بَرِيرْ ***barïr***, بَرْمَقْ ***barmaq***; كَلْدِى ***keldi***, كَلِيرْ ***kelir***, كَلْمَاكْ ***kelmäk***. Bular tub masdarlardir. (10a) مَنِكْ بَرْغِمْ بُلْسَا مَنْكا تُشْغِيلْ ***meniŋ barγïm bolsa, meŋä tušγïl*** – “boradigan vaqtimda menga uchra” deganda بَرْغِمْ ***barγïm*** – yasama masdar. كَيِكْ كَلِكِى بُلْسَا اُوقْتَا ***keyik keligi bolsa, oqta*** – “kiyik kelar vaqtida ot” jumlasidagi كَلِكِى ***keligi*** – yasama masdar. تَازْ كَلِكِى بُرْكْجِيكَا ***Taz keligi börkčikä*** – “Kalning kelish yeri do‘ppifurush do‘konidir” degan maqoldagi كَلِكِى ***keligi*** so‘zi ham shundaydir. Bu xil masdarlar yo‘g‘on o‘zakli so‘zlarga *qāf*, *γayn* orttirib tuziladi: بَرِغْ بَرْدِى ***barïγ bardï*** – “u borishda qattiq harakat bilan bordi”; اُلْ قُلِنْ اُرُغْ اُرْدِى ***ol qulïn uruγ urdï*** – “u qulini qattiq urdi” demakdir.

Bu gaplardagi بَرِغْ ***barïγ***, اُرُغْ ***uruγ*** so‘zlari yasama masdarlardir. *qāf* harfi ham, *kāf* harfi ham har vaqt izofa harfi hisoblanadigan [aniqlovchiga orttiriladigan] *yā* [ya’ni *ï, i*] harfi bilan birgalikda qo‘llanadi.

Bular *γayn* ga o‘xshash yolg‘iz o‘zi qo‘llanmaydi: اَنِكْ يُرُقِى نَتَكْ ***anïŋ yoruqï netäg?*** – “uning yurishi qanday?” degan gapda يُرُقِى ***yoruqï*** so‘zidagi *qāf* harfi *γayn* o‘rniga almashgandir.

Ingichka (الركيكه), ya’ni tarkibida *kāf* bo‘lgan so‘zlarda yasama masdar *kāf* qo‘shib yasaladi: اَنِی سُكُكْ سُكْتِی ***anï sökük sökti*** – “uni qattiq so‘kdi”; اُلْ قُلِنْ تَبِكْ تَبْدِی ***ol qulïn tepig tepdi*** – “u qulini qattiq tepkiladi” gaplaridagi سُكُكْ ***sökük***, تَبِكْ ***tepig*** so‘zlari *kāf* qo‘shib yasalgan masdardir. Bu xil tarkiblardagi masdarlarda ta’kid, puxtalash mazmuni ifodalanadi. Chunonchi, وَكَلَّمَ اُللهُ مُوسى تَكْلِيماً oyatidagi kabi.

Qoidalar shunday qisqa qilindi. Boshqa so‘zlarga solishtirib tushunish uchun ishorat qilindi, xolos. Bu yerda men ko‘rsatgan qoidalar, men ishorat qilgan asoslar hamma turkiy tillar uchun umumiydir. Buni o‘z o‘rnida tushunish mumkin.

Kitobda aytilgan va aytilmagan narsalar haqida

Kitobda ko‘rsatilgan tog‘ otlari, ko‘l, vodiy, dengiz otlari faqat musulmon shaharlardagi nomlardir. (10b) U nomlar har vaqt qo‘llanadigan va mashhur bo‘lganlari uchun yozdim. Mashhur bo‘lmaganlarining ko‘plarini tushirib qoldirdim. Musulmon bo‘lmaganlardan ba’zilarining shahar nomlarini ham yozdim, ba’zilarini qoldirdim. Mashhur bo‘lmaganlarini yozishdan foyda yo‘q. Tilga keyin kirgan so‘zlarni ham yozmadim. Erkak va ayollar nomi ham shunday, faqat eng ko‘p qo‘llanadigan, odamlarga to‘g‘ri shakllarini bilib olish zarur bo‘lgan bir qismigina ko‘rsatildi.

Turk tabaqalari va qabilalarining bayoni haqida

Turklar aslida yigirma qabiladir. Ular hammasi نُوحْ *Nūḥ* payg‘ambar o‘g‘li يَافِثْ *Yāfiṯ*, يَافِثْ *Yāfiṯ* o‘g‘li تُرکْ *Türk* ka borib taqaladilar.

Bular رُومْ *Rūm* avlodining اِبْرَهِيمْ *İbrahīm* payg‘ambar o‘g‘li اِسْحَقْ *İsḥaq*, اِسْحَقْ *İsḥaq* o‘g‘li عِيْصُو *’Īyṣū* ning رُومْ *Rūm* ga borib taqalishiga o‘xshaydi. Har bir qabilaning sanoqsiz allaqancha urug‘lari bor. Men bulardan asosini, ona urug‘larini yozdim, shaxobchalarini tashladim. Faqat o‘g‘uz turkmanlarining mayda urug‘larini ham, ularning mollariga qo‘yiladigan belgilarini ham yozdim, chunki odamlarda bularni bilishga ehtiyoj bor edi. Sharqdan boshlab har bir qabilaning turar joylarini birin-ketin tartib bilan ko‘rsatdim. رُومْ *Rūm* dan kun chiqarga bo‘lgan musulmon va boshqalarni zikr qildim. رُومْ *Rūm* ga yaqin birinchi qabila بَجَنَكْ ***pečänäk***, so‘ng قِفْجَاقْ ***qïwčaq***, so‘ng اُغُزْ ***oγuz***, so‘ng يَمَاكْ ***yämäk***, so‘ng بَشْغِرْتْ ***bašγïrt***, so‘ng بَسْمِلْ ***basmïl***, so‘ng قَايْ ***qay***, so‘ng يَبَاقُو ***yabaqu***, so‘ng تَتَارْ ***tatar***, so‘ng قِرْقِزْ ***qïrqïz*** keladi. قِرْقِزْ ***qïrqïz*** lar صِينْ *Ṣīn* yaqinidadirlar. (11a) Bu qabilalar hammasi رُومْ *Rūm* dan kun chiqargacha cho‘zilgan. So‘ng جِكِلْ ***čigil***, so‘ng تُخْسِی ***tuxsï***, so‘ng يَغْمَا ***yaγma***, so‘ng اِغْرَاقْ ***ïγraq***, so‘ng جَرُقْ ***čaruq***, so‘ng جُمُلْ ***čumul***, so‘ng اُيْغُرْ ***uyγur***, so‘ng تَنكُتْ ***taŋut***, so‘ng خِتَايْ ***xïtay***. خِتَايْ ***Xïtay*** – صِينْ *Ṣīn* dir. So‘ngra تَفْغَاجْ ***tawγač;*** bu مَاصِينْ *Māṣīn* dir.

Bu qabilalar Janub va Shimol o‘rtasidadir. Bu qabilalarning turar joylarini bu doirada[1] ko‘rsatdim.

(12b) **Turk tili xususiyatlarining bayoni**

Eng to‘g‘ri va aniq til faqat birgina shu tilni biladigan, forslar bilan aralashmaydigan va shaharlarga borish-kelish qiladigan odami bo‘lmagan kishilarning tilidir. [Ular] سُغْدَاقْ *suγdaq,* كَنْجَاكْ *känčäk,* اَرْغُو *aryu* lar kabi ikki tilda so‘zlashuvchilardir; خُتَنْ *xotan* liklar, تُبُتْ *tüpüt* lar va تَنَكُوتْ *taŋut* larning ba’zilari kabi ikki tilda so‘zlaydiganlar va boshqa shaharlarga borib yurganlar tilida buzuqlik bor. Bular bu yerlarga so‘ngroq kelishgan. Men ularning har birlarining tillarini o‘z o‘rnida so‘zlayman. Lekin جَابَرْقَا *čabarqa* liklarning uzoqda turishi, مَاصِينْ *Māṣīn* bilan ularni katta dengiz ayirib turgani uchun ularning tillari bilinmaydi.

مَاصِينْ *māṣīn* liklar va صِينْ *ṣīn* liklarning alohida tillari bor bo‘lsa ham, shaharliklar “turkcha”ni (التُّركيّة) yaxshi biladilar, bizlar bilan yozishmalari “turkcha” (التركيّه)dir. يَاجُوجْ *yājūj* va مَاجُوجْ *mājūj* lar uzoqda turgani, orada مَاصِينْ *Māṣīn* yaqinidagi dengiz to‘sqinlik qilishi natijasida ularning tillari ham ma’lum emas. تُبُتْ *tüpüt* larning tillari alohidadir. Shuningdek, خُتَنْ *xotan* liklarning ham ayrim yozuvlari va ayrim tillari bor. تُبُتْ *tüpüt* liklar ham, خُتَنْ *xotan* liklar ham “turkcha”ni (التُّركيّة) yaxshi bilmaydilar.

اُيْغُرْ *uyγur* larning tillari “turkcha” (لسان تُركىّ)dir, lekin o‘zlari bir-birlari bilan so‘zlashadigan boshqa bir tillari ham bor. Yozuvda kitobning bosh qismida ko‘rsatilgan 24 harfli “turkcha yozuv”ni (خطّ التّركيّه) qo‘llovchilar, xatlarini shu yozuv bilan yozadilar. اُيْغُرْ *uyγur* larning ham, صِينْ *ṣīn* liklarning ham yana boshqa bir yozuvlari bor. Kitoblarini, idora ishlarini u xat bilan yuritadilar. صِينْ *ṣīn* liklar va musulmon bo‘lmaganlardan boshqalar u xatni o‘qiy olmaydilar. Men bungacha so‘zlaganlarim shahar xalqlaridir. (13a) Sahroyilardan bo‘lgan جُمُلْ *čumul* larning tillari alohidadir. [Ular] “turkcha”ni (التُّركيّه) ham biladilar. Shuningdek, قَايْ *qay,* يَبَاقُو *yabaqu,* تَتَارْ *tatar,* بَاسْمِلْ *basmïl* qabilalarining har birining tili o‘ziga xosdir. Shu bilan birga, ular “turkcha” (تُركيّه)ni ham yaxshi biladilar. So‘ngra قِرْقِزْ *qïrqïz,* قِفْجَاقْ *qïwčaq*, اُغُزْ *oγuz,* تُخْسِى *tuxsï,* يَغْمَا *yaγma,* جِكِلْ *čigil,* اِغْرَاقْ *ïγraq,* جَرُقْ *čaruq* tillari faqat turkcha” (تُركيّه) dir. يَمَاكْ *yämäk* va بَشْغِرْتْ *bašγïrt* tillari bularga yaqindir. رُومْ *Rūm* gacha cho‘zilgan بُلْغَارْ *bulγar,* سُوَارْ *suvar*, بَجَنَكْ *pečänäk* lar tili bir xildagi so‘zlarning oxiri qisqartirilgan bir “turkcha” (تُركيّه)dir.

Tillarning yengili o‘g‘uzcha (الغُزيّة) , eng to‘g‘risi, yaxshisi يَغْمَا *yaγma,* تُخْسِى *tuxsï* kabilarning tili va, shuningdek, اِيلَا *Ïla* (Ili), اَرْتِيشْ *Ertiš* (Irtish), يَمَارْ *Yamar*, اَتِلْ *Etil* vodiylaridan اُيْغُرْ *uyγur* shaharlarigacha bo‘lgan joylarda

[1] “Doira” deganda Mahmud Koshg‘ariy asarga kiritilgan Yer xaritasini ko‘zda tutmoqda. Fikrimizcha, xaritani Koshg‘ariyning o‘zi tuzgan.

yashovchilar tilidir. Bularning ichida eng ochiq va ravon til – xoqoniya o‘lkasida (للملوک الخاقانيّه) yashovchilarning tilidir. بَلَاسَاغُونْ *balasayun* liklar “sug‘dcha” (سُغديّه) va “turkcha” (تُركيّه) so‘zlaydilar. طِرَازْ *Ṭïrāz* (Talas) va مَدِينَةَالبَيْضَاء *Madīnatu-l-bayḍa* shaharlarining xalqlari “sug‘dcha” (سُغديّه) ham “turkcha” (تركيّه) so‘zlaydilar. اِسْبِيجَابْ *İspijāp* [Ispijob – hozirgi Chimkent]dan to بَلَاسَاغُونْ *Balasayun* gacha bo‘lgan اَرْغُو *arγu* shaharlarining hammasida yashovchilarning tilida ham kamchilik bor. كَاشْغَرْ *Kāšγar* da kanjakcha (بلكنجاكيّه) so‘zlashadigan qishloqlar bor. Shahar o‘rtasida turuvchilar “xoqoniya turkchasi”da (بالتُركيّه الخاقانيّة) so‘zlaydilar. رُومْ *Rūm* dan مَاصِينْ *Māṣīn* gacha bo‘lgan turk shaharlarining (بلاد التُرک) hammasining bo‘yi besh mingdan sakkiz ming farsahgacha yetadi. Bu shaharlar o‘rnini aniqlash maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko‘rsatdim.

Lahjalarda bo‘lgan farqlar haqida

Tub so‘zlarda o‘zgarishlar kam bo‘ladi. So‘zlardagi o‘zgarish harflarda, ba’zi harflarning almashuvida, tushuvidadir. (13b) Masalan, *yā* bilan boshlangan ot va fe’llarning bosh harfini o‘g‘uz (الغزيّه) ham qipchoqlar (قفجَاق) *alif* ga yoki ج *jīm* ga aylantiradilar. Chunonchi, turklar (التُرک) “musofir”ni **يَلْكِنْ** ***yelkin*** desalar, ular [o‘g‘uzlar] **اَلْكِينْ** ***elkin*** deydilar; turklar **يِلغْ سوُقْ** ***yïlïγ suw*** desalar, ular(**سوُقْ**) **اِلغْ** ***ïlïγ suw*** deydilar. Shuningdek, turklar (التُرک) “dur, marvarid”ni **يِنْجُو** ***yinčü*** desalar, o‘g‘uzlar **جِنْجُو** ***jinčü*** deydilar. Turklar (التُرک) “tuyaning uzun yungi”ni **يُغْدُو** ***yuγdu*** desalar, ular **جُغْدُو** ***juγdu*** deydilar. So‘z o‘rtasida yoki oxirida kelgan *yā* [*y*] ni arg‘u(اَرْغُو)lar *nūn* ga almashtiradilar. Masalan, turklar **قُوىْ** ***qoy*** (“qo‘y”) desalar, ular **قُونْ** ***qon*** deydilar. Turklar (التُرک) “kambag‘al”ni **چِغَانْ** ***čïγay*** desalar, ular **چِغَانْ** ***čïγan*** deydilar. Turklar (الترک) **قَايُو نَانَكْ** ***qayu näŋ*** (“qaysi narsa”) desalar, ular **قَانُو** ***qanu*** deydilar.

So‘z boshidagi *mīm* harfini o‘g‘uzlar (الغُزِيّه), qipchoq (قِفْجَاق) va suvorinlar (سُوَارين) *bā* ga aylantiradilar. Masalan, turklar (التُرک) **مَنْ بَرْدِمْ** ***men bardïm*** desalar, ular **بَنْ بَرْدُمْ** ***ben bardum*** deydilar. Turklar (التُرک) “sho‘rva”ni **مُونْ** ***mün*** desalar, ular **بُونْ** ***bün*** deydilar. So‘zdagi *tā* ni o‘g‘uzlar (الغُزيّه) va ular yaqinidagilar *dāl* ga aylantiradilar, chunonchi, “tuya”ni **تَقَىْ** ***tewäy*** desalar, o‘g‘uzlar **دَوَىْ** ***dewäy*** deydilar. Turklar (التُرک) “teshik”ni **اُوتْ** ***öt*** desalar, ular **اُودْ** ***öd*** deydilar.

Turkiy qabilalarning ko‘pgina so‘zlaridagi *dāl* harfi o‘g‘uzlarda (لغة الغُزيّه) *tā* bo‘ladi. Masalan, turklar (التُرک) “xanjar”ni **بُكْدَا** ***bügdä*** desalar, ular **بُكْتَا** ***büktä*** deydilar. Turklar (التُرک) “jiyda”ni **يِكْدَا** ***yigdä*** desalar, o‘g‘uzlar **يِكْتَا** ***yigtä*** deydilar. Shunga o‘xshash yana ko‘pgina so‘zlar bor. Ular hammasi shu asosdadir. Men ularning hammasini aytib o‘tirmadim.

ب *bā* bilan ف *fā* maxrajlari orasidagi ڤ *w* harfini (14a) o‘g‘uzlar va ularga yaqin turuvchilar *vāv* ga aylantiradilar. Chunonchi, turklar (التُرک) “uy”ni **اَڤْ** ***ew***

desalar, o‘g‘uzlar (الغُزيّه) اَوْ ***ev*** deydilar. Turklar (التُرک) “ov”ni اَقْ ***aw*** desalar, ular اَوْ ***av*** deydilar. Men eng to‘g‘ri shakllarnigina beraman. Ayrim qabilalarning tillarida harflarning almashib kelishini o‘quvchining o‘zi shunga qiyos qilib aniqlay oladi.

يَغْمَا *yayma,* تُخْسِى *tuxsï,* قِفْجَاقْ *qïwčaq,* يَبَاقُو *yabaqu,* تَتَارْ *tatar,* قَاىْ *qay,* جُمُلْ *čumul* va o‘g‘uzlar (الغُزيّه) har vaqt ز *zā* ni so‘zda *yā* ga aylantiradilar va hech mahal ذ *dāl* bilan so‘zlamaydilar. Chunonchi, ulardan boshqalar “qayin daraxti”ni قَذِنْكْ ***qaδïŋ*** desalar, bu qabilalar قَيِنْكْ ***qayïŋ*** deydilar va hech mahal ذ *dāl* bilan so‘zlamaydilar. Boshqa qabilalar “qayni”ni, “yaqinlar”ni قَذِنْ ***qaδïn*** (“qaynag‘a”) desalar, bular قَيِنْ ***qayïn*** deydilar. جِكِلْ *čigil* va boshqa turkiy qabilalar tilida ذ *dāl* bilan aytilgan so‘zlar قِفْجَاقْ *qïwčaq,* يَمَكْ *yämäk,* سُوَارْ *suvar,* بُلْغَارْ *bulγar* lar hamda ruslarga (الرُوس) va رُومْ *Rūm* ga qadar borib tarqaladigan boshqa qabilalarda ز *zā* ga almashtiriladi. Masalan, turklar “oyoq”ni اَذَقْ ***aδaq*** desalar, ular اَزَقْ ***azaq*** deydilar. Chigil turklari (التُرک الجکلی) قَرِنْ تُذْتِى ***qarïn toδtï*** – “qorin to‘ydi” desalar, ular تُزْدِى ***tozdï*** deydilar. Boshqa ot va fe’llarda ham shunga qiyos qilish kerak. Xulosa qilib aytganda, chigillarda (فى لغة جكل) ذ *dāl* bilan aytiladigan so‘zlar يَغْمَا *yayma*, تُخْسِى *tuxsï*, o‘g‘uzlarda (الغُزيّه) va صِينْ *Ṣīn* ga qadar cho‘zilgan yerlarda yashovchi ba’zi arg‘u (اَرغُو)larda *yā* bilan almashadi.

رُومْ *Rūm* gacha bo‘lgan قِفْجَاقْ *qïwčaq* va boshqa qabilalarda bu harf ز *zā* ga aylantiriladi. Bularning hammasini o‘z o‘rnida ko‘rsatamiz.

So‘z boshidagi har bir *alif* [unli tovush] ni خُتَنْ *xotan* liklar, كَنْجَاكْ *käničäk* lar ه *hā* ga almashtiradilar. Biz ularni turklardan deb hisoblamaymiz, chunki ular turkiy so‘zlarda (فى كلام التُرک) yo‘q tovushni kiritganlar. Masalan, ular اَتَا ***ata*** ni هَتَا ***hata*** deydilar; اَنَا ***ana*** ni هَنَا ***hana*** deydilar. *rā* harfi ba’zan *lām* ga almashadi. (14b) Bu haqda o‘z o‘rnida so‘zlanadi. Ba’zan *zā sīn* ga, *sīn zā* ga almashadi. Bular ham quyida keladi.

Vaqt otlari va joy otlarida qo‘llanuvchi *γayn* harfini o‘g‘uzlar *alif* ga almashtiradilar: بَرْغُو ***baryu yer*** o‘rnida بَرَاسِى يِيرْ ***barasï yer*** deydilar. Turklar (التُرک) تُرْغُو اُغْرْ ***turγu oγur*** – “turish vaqti” desalar, o‘g‘uzlar (الغُزيّه) تُرَاسِى اُغُورْ ***turasï oγur*** deydilar.

qāf harfi *kāf* ga va *kāf* harfi *qāf* ga almashadi. Bular o‘z joyida keladi. Harflar almashuvi haqidagi ma’lumot shulardir.

So‘zlarda harf tushirish xususiyatiga kelganda, o‘g‘uz va qipchoqlar otlar va ishning ko‘p qayta ishlanganini bildiruvchi fe’llarning o‘rtasida kelgan *γayn* ni hamma yerda ham tushirib qoldiradilar.

Masalan, turklar (التُرک) “olaqarg‘a”ni جُمْغُقْ ***čumγuq*** desalar, ular bu so‘zdagi *γayn* ni tushirib جُمُقْ ***čumuq*** deydilar. Turklar (التُرک) “tomoq (bo‘g‘iz)”ni تَمْغَقْ ***tamγaq*** desalar, ular تَمَقْ ***tamaq*** deydilar.

Fe’llarga misol: turklar (التُرک) “u kishi uyiga hadeb ketaveradigan” ma’nosida اُلْ اَقَكَا بَارَغَانْ ***ol ewkä barayan-ol*** desalar, o‘g‘uzlar (الغُزيّه) shu ma’noda اُلْ اَقَكَا) بَارَانْ ***ol ewkä baran-ol***) deydilar. Turklar (التُرک) “u kishi qulini

hadeb uraveradigan” ma’nosida اُلْ اَرْ قُلِينِى اُرَغَانْ اُلْ ***ol er qulïnï uraγan*** desalar, o‘g‘uzlar shu gapdagi اُرَغَانْ ***uraγan*** so‘zini اُرَانْ ***uran*** deb talaffuz qiladilar.

Talaffuzda yengillik bo‘lsin uchun o‘g‘uzlar (الغُزيّه) otlardagi *kāf* (ya’ni [*g*])ni ham tushiradilar. Fe’llarda ham shu ma’nodagi so‘zlarda *γayn* o‘rniga almashgan *kāf* (ya’ni [*g*])ni ham tushiradilar.

Hamma turk tillarida ham shu yozilgan qoidalar asosdir. Qo‘shimcha qoidalar o‘z o‘rnida aytiladi. Men *ẓamma* li, *fatḥa* li, *kasra* li so‘zlarni, ya’ni *alif* bilan boshlangan so‘zlarni kitobimni ixchamlashtirish, qisqartirish, yengillatish maqsadida bir yerda berdim.

[L U G‘ A T]

(15a)

بسم الله الرحمن الرحيم

[(So‘zimni (rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU *HAMZA* BILAN BOSHLANGAN ISMLAR[1] KITOBIDIR

IKKI HARFLI SO‘ZLAR BOBI

ب *p* [harfi]:

أَبْ *ep // äp // ap* – ta’kid va kuchaytirish ko‘makchisi (حرف تاكيد و مبالغة); biror narsa juda oshirib maqtalsa, **اَبْ اَنْكُو نَانكْ *ep eδgü näŋ*** deyiladi, “juda yaxshi narsa” demakdir. “Juda oq, oppoq narsa”ni o‘g‘uzchada **اَب اَقْ *ap-aq*** deyiladi.

أَبْ *ap* – “yo‘q, emas, ha” ma’nolarida qo‘llanadigan ko‘makchi; **أَبْ بُو اَبْ أُولْ *ap bu ap-ol*** deyiladi, ma’nosi “na bu, na u; bu ham emas, u ham emas”dir.

أُبْ *üp // up* – rang haqida qo‘llanadigan oshirish ko‘makchisi. Chigilchada **أُبْ أُرُنكْ *üp ürüŋ*** deyiladi, “juda oq; oppoq” demakdir.

اُبْ اُبْ *op-op* – eshakning oyog‘i toyib ketganda o‘rnidan turg‘azish uchun qo‘llanadigan so‘z bo‘lib, “tur-tur” degan ma’noni bildiradi. Arablarning لَعاً *la’an* (“jonlan”) degan so‘ziga to‘g‘ri keladi.

اُپْ *op* – jarangsiz *bā* (ya’ni [*p*]) bilan; arg‘uchada “xirmon yanchuvchi ho‘kizlarning yetakchisi”.

ت *t* [harfi]:

اَتْ *at* – “ot”; yo‘g‘on talaffuz qilinadigan *alif* bilan (باشباع الاف – ya’ni [*a*]); maqolda (shunday kelgan): **قُوشْ قَنَتِنْ اَرْ اَتِنْ *Quš qanatïn, er atïn.*** Ma’nosi: “Qush qanoti bilan, er oti bilan”.

اَتْ *et* – ingichka talaffuz qilinadigan *alif* bilan (باشمام الالف – ya’ni [*e*]) “et, go‘sht”.

[**اَتْ *et***] “yumshoq yer; yumshoq tuproq”qa **اَتْ يِيرْ *et yer*** deyiladi.

اُتْ *ot* – “o‘t, o‘t-o‘lan”; “o‘t undi, o‘t o‘sdi” ma’nosida **اُتْ اُنْدِى *ot ündi*** deyiladi.

اُتْ *ot* – hayvonlar yeydigan har turli o‘t, xashak; “otga o‘t [xashak] bergil” ma’nosida **اَتْقَا اُتْ بِيرْكِيلْ *atqa ot bergil*** deyiladi.

اُتْ *ot* – “dori, davo”; “dori ichdim” ma’nosida **اُتْ اِجْتِمْ *ot ičtim*** deyiladi; “tabib” ma’nosidagi **اُتَاچِى *otačï*** so‘zi shu so‘zdan yasalgan.

اُتْ *ot* – “og‘u, zahar”; “bek unga zahar berdi” ma’nosida **بَكْ اَنكَارْ اُتْ بِيرْدِى *beg aŋar ot berdi*** deyiladi.

[1] Ya’ni alif bilan boshlanuvchi otlar.

ﺇﺕ *ït* – “it, ko‘ppak”.

ﭺ *č* [harfi]:

ﺃﭺ *ač* – “hoy, hoy, he” ma’nolarida qo‘llanadigan undov so‘z; “hoy, beri kel; hay, tez kel” ma’nosida ***ač berü kel*** deyiladi.

ﺃﭺ *üč* – sonda “uch”; (15b) “uch tanga” ma’nosida ***üč yarmaq*** deyiladi.

ﺃﭺ *Uč* – yo‘g‘on talaffuz qilinadigan *alif* bilan (باشباع الاف – ya’ni [*u*]); mashhur bir shahar oti.

ﺃﭺ *uč* – tog‘da o‘sadigan bir daraxtdirki, turkcha yozuvda (اقلام للتركيه يكتب - uyg‘ur xatida – *Q.S.*) yozish uchun undan qalam yasaladi; undan dug, hassa ham qilinadi.

ﺇﭺ *ič* – har narsaning uchi.

[**ﺇﭺ *ič***] “ichdan bog‘lanadigan belbog‘”ni ***ič qur*** deyiladi; kiyimning ich qismidadir.

[**ﺇﭺ *ič***] “sir”ni ***ič söz*** deyiladi, “ko‘ngildagi, dildagi yashirin so‘z” demakdir.

[**ﺇﭺ *ič***] ***ič et*** – jigarga yopishib turadigan nozik et.

ﺭ *r* [harfi]:

ﺍﺭ *er* – “er, erkak”. Bu so‘zni ko‘plikda **ﺍﺭﻧﻠﺮ *erän*** shaklida ham qo‘llaydilar. Lekin bu kam uchraydigan hol bo‘lib, qoidaga ham xilofdir. Chunki ko‘plik qo‘shimchasi [aslida] **ﻟﺮ** *-lar // -lär* tarzida bo‘ladi.

ﺇﺭ *ïr* – uyalish, izza bo‘lish, xijolat tortish ma’nolarida qo‘llanadi; “kishi izza bo‘ldi; kishi uyaldi” ma’nosida ***er ïr boldï*** deyiladi.

ﺯ *z* [harfi]:

ﺃﺯ *üz* – “yog‘”; “yog‘li sho‘rva”ni ***üzlüg mün*** deyiladi.

ﺱ *s* [harfi]:

ﺃﺱ *us* – o‘g‘uzchada yomon va yaxshini bir-biridan farqlash; “u yaxshi-yomonni ayirdi, farqiga yetdi” ma’nosida ***ol us boldï*** deyiladi.

ﺍﺱ *es* – yirtqich hayvonlarga tekkan parcha go‘sht; o‘limtik.

ﺃﺱ *us* – karsak qushi; burgut.

(Shoir) shunday degan:

Keldi meŋä tat,	**ﻛﻠﺪﻯ ﻣﻨﮑﺎ ﺗﺎﺕ**
Aydïm emdi yat.	**ﺍﻳﺪﻳﻢ ﺍﻣﺪﻯ ﻳﺎﺕ**
Qušqa bolup et,	**ﻗﻮﺷﻘﺎ ﺑﻮﻟﺐ ﺍﺕ**
Seni tilär us, böri.	**ﺳﻨﻰ ﺗﻴﻠﺮ ﺃﺱ ﺑﺮﻯ**

Aytmoqdaki: “Menga bir kofir uyg‘ur (hujum qilib) keldi. Men: seni yirtqichlar, bo‘rilar burdalasin, qushlarga yem bo‘l, deb uni o‘ldirdim”.

ﺵ *š* [harfi]:

ﺃﺵ *uš* – “shunday, xuddi” ma’nosini beradi; “xuddi shunday qil” ma’nosida ***uš munday qïl*** deyiladi.

أُشْ ***uš*** – “hozirgina, shu onda”; “hozirgina kelib turganim” ma’nosida أُش كَلدُكُمْ ***uš keldüküm*** بُو ***bu*** deyiladi.

أُشْ أُشْ ***oš-oš*** – “o‘sh-o‘sh” yoki “ho‘sh-ho‘sh”; ho‘kizni sug‘orishda qo‘llanadigan so‘z.

أُشْ ***öš*** – har qanday daraxt, shox, butoqning o‘rtasi, o‘zagi; مُنكُزْ أُشِى ***möŋüz öši*** – “shox (mo‘ngiz) o‘rtasi”; shuningdek, qush va otlarning dum suyaklariga yoki dum chiqadigan o‘rinlariga ham أُشْ ***öš*** deyiladi.

اِشْ ***išš*** – “is”, chiroq isi va devorlardagi tutun isi, qurumi; تُونْ اِشْ بُلْدِي ***ton išš boldï*** – “kiyim islandi, kirlandi”. (16a)

ق ***q*** [harfi]:

أُقْ ***oq*** – “o‘q”.

أُقْ ***oq*** – “to‘sin” yoki “xari”; اَقْ أُقى ***ew oqï*** – “uy o‘qi, bolor, uyning to‘sini”.

أُقْ يِلَانْ ***oq yïlan*** – “o‘q ilon”; o‘zini odamga otuvchi ilon.

أُقْ ***oq*** – yer va boshqa hissalarni ajratishda ishlatiladigan chek (qur’a).

أُقْ ***-oq*** – fe’llarda ta’kidni bildiruvchi qo‘shimcha; بَرغِلْ أُقْ ***barγïl-oq*** – “albatta, bor”.

أُقْ ***-oq*** – holga yaqin ma’no beruvchi bir qo‘shimcha (yuklama); بَيَا أُقْ كَلْدِيمْ ***baya-oq keldim*** – “boyayoq keldim”, ya’ni “bu soatdan oldinroq keldim”; اَمْدِي أُقْ اَيدِيمْ ***emdi-oq aydïm*** – “hozir, hoziroq aytdim; hozirgina aytdim”.

اِقْ ***ïq*** – nafas olish qiyinligi, chunonchi, muzdek suv ichib, ustidan non yegandan keyin nafas olish qiyinlashib, to‘satdan ko‘krakdan chiqadigan o‘qchiq, hiqichoq; اَنِي اِق تتّي ***anï ïq tuttï*** – “uni hiqichoq tutdi”.

ل ***l*** [xarfi]:

أُلْ ***ol*** – “u” anglamida; أُلْ اَنْدَغْ اَيْدِى ***ol andaγ aydï*** – “u (kishi) shunday dedi”.

أُلْ ***ol*** – “u” (ishorat); أُلْ اَرْ ***ol yer*** – “u kishi”.

أُلْ ***-ol*** – ot va fe’llarga qo‘shiladigan ta’kid qo‘shimchasi; أُلْ مَنِكْ أُغْلُمْ أُلْ ***ol meniŋ oγlum-ol*** – “u haqiqatan mening o‘g‘limdir”; أُلْ اَقكَا بَرْمِيشْ أُلْ ***ol ewkä barmïš-ol*** – “u uyga haqiqatan borgandir”.

م ***m*** [harfi]:

اَمْ ***em*** – “em, davo, dori”; “davolovchi”ga اَمْجِي ***emči*** deyilishi shundandir.

اَمْ ***am*** – xotinlar avrati (o‘g‘uz va qipchoqlarda).

اُمْ ***üm*** – “ishton, lozim, shalvar”.

اِمْ ***im*** – shoh askarlariga qo‘yilgan (tayinlangan) yashirin belgi, parol; bu belgi qush yoki qurol oti yoki biror so‘zdan iborat bo‘lishi mumkin; to‘qnashganda uni aytib o‘zlarini tanitadilar. Maqolda (shunday kelgan): اِمْ بِلْسَا اَرْ أُلْمَاسْ ***İm bilsä, er ölmäs.*** (16b) Ma’nosi: “Im bilsa, er o‘lmas” [Kishi yashirin belgini bilsa, nohaq o‘lmaydi].

ن ***n*** [harfi]:

أُنْ ***ün*** – “un, tovush”; bu so‘zni أُونْ ***ün*** tarzida cho‘zibroq talaffuz qilish ham mumkin.

Bu bo‘limning *muḍā’af* lari

اَرَّ ***arra*** – “siydik”; bu so‘zni eshaklar juftlashish vaqtida ikki-uch marta aytiladi; so‘ng ular juftlashadilar. Bu so‘zda arabchaga o‘xshashlik bor, chunki “arra” arabcha *jamā’* ma’nosidadir.

اُرَّ ***urra*** – erkaklardagi “churra, dabba” (o‘g‘uzcha).

اِرَّ ***ïrra*** – “izza, uyalish”; bu so‘z ikki *rā* bilan اِرَّ ***ïrra***, shuningdek, bir *rā* bilan اِرَ ***ïra*** deb ham talaffuz qilinadi.

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

أَ اُ ***a:*** – hayronlik va taajjubni bildiruvchi so‘z; أُلْ مَنِى اَأْ قِلْدِي ***ol meni a: qïldï*** – “u meni hayron qildi, taajjubda qoldirdi”.

أُدُو ***uδu*** – “uyqu”; أُدِيدِيمْ ***uδïdïm*** – “uxladim”; bu yerda *vāv* harfi *ḍamma* (*u*) bilan *kasra* (*i*) orasida kelgani uchun tushirib qoldirilgan.

أُوَا ***ova*** – chaqiruvchiga javoban, javob tariqasida “ha” deb aytilgan so‘zdir. “Ey Muhammad” deb chaqirganda chaqiriluvchining أُوَا ***ova*** – “ha, labbay?” degan javobi, “nima deysiz?” deganidir.

أُوقَا ***uqa*** – “kafillik, kafolat”; مَنْ اَنِى أُوقَا اَلْدِمْ ***men anï uqa aldïm*** – “men uni kafillikka oldim; men unga kafil bo‘ldim”.

اَوْ ***av*** – yo‘g‘on talaffuz qilinadigan *alif* bilan (باشباع الالف – ya’ni [*a*]); buyuruvchining buyrug‘ini pisand qilmaslik, bo‘ysunmaslik o‘rnida qo‘llanuvchi “a?”, “nima deyapsiz?” mazmunidagi yordamchi so‘zdir.

اَىْ ***ay*** – to‘q sariq rangdagi bir ipak kiyimlik.

اَىْ بِتِكِى ***ay bitigi*** – askarlarning oti va ozig‘i yozilgan daftar.

اِىْ ***ey*** – اَوْ ***av*** so‘zi kabi buyruqni mensimaslik, inkor qilishni bildiradigan bir so‘z.

Bu bo‘limning *γunna* lilari

اَنڭْ ***eŋ*** – “yuz, yanoq”; قِزِلْ اَنڭْ ***qïzïl eŋ*** – “qizil yanoq”.

اَنڭْ ***aŋ*** – qush oti; uning yog‘idan dori sifatida foydalaniladi. Agar yog‘i kaftga surtilsa, kaftning orqasiga ham yoyilib ketadi.

اَنڭْ ***aŋ*** – “yo‘q” yoki “emas” ma’nosidadir (o‘g‘uzcha). Biron yumushga buyurilganda, buyurilgan kishi اَنكْ اَنكْ ***aŋ-aŋ*** deydi. Bu “yo‘q-yo‘q” demakdir.

انڭْ ***öŋ*** – “old”; “u mendan oldin bordi” ma’nosida أُلْ مِنْدَا أَنكْدُنْ بَرْدِي ***ol mendä öŋdün bardï*** deyiladi.

انڭْ ***öŋ*** – “narsaning rangi”; يَاشِلْ أَنكْلُكْ تُونْ ***yašïl öŋlüg ton*** deyiladi, “yashil rangli kiyim” demakdir.

[أَنڭْ ***oŋ***] أُونڭْ اِيشْ ***oŋ ïš*** – “oson ish, qulay ish”. Bu so‘z أُنگَاىْ ***oŋay*** so‘zining qisqartirilganidir.

[اُنڭ *oŋ*] اُنڭ اِلِكْ ***oŋ elig*** – chigilchada “o‘ng qo‘l, sog‘ qo‘l”.

(17a) Ikki harflilar tugadi.

BU UCH HARFLILAR BOBLARIDIR

فَعْل *fa’l,* فُعْل *fu’l,* فِعْل *fi’l* qoliplaridagi o‘rta harfi *sukun* li so‘zlar

ب ***p*** [harfi]:

اَلبْ ***alp*** – “alp, botir, qahramon”. Maqolda (shunday kelgan): **اَلبْ يَغِيدَا اَلْجَقْ جُغِيدَا *Alp yaγïda, alčaq čoγïda.*** Ma’nosi: “Botir yov bilan to‘qnashganda (olishganda), yuvosh tirishishda sinaladi”. Bu so‘z quyidagi parchada ham kelgan:

اَلبْ اَرْ تُنكَا اُلْدِيمُو ***Alp Er Toŋa öldimü?***
اَسِيزْ اَژُونْ قَلْدِيمُو ***Esiz, ažun qaldïmü?***
اُدْلَكْ اُوجِنْ اَلْدِيمُو ***Öδläk öčin aldïmu?***
اَمْدِي يُرَكْ يِرْتِلُورْ ***Emdi yüräk yïrtïlur.***

Ma’nosi: “Xoqon اَفرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* [= اَلبْ اَرْ تُنكَا *Alp Er Toŋa*] o‘ldimi? Esiz, dunyo (undan ayrilib) qoldimi? Falak undan o‘chini oldimi? Endi yuraklar chok bo‘lmoqda [qayg‘u chekayotir]”.

ت ***t*** [harfi]:

اَرتْ سَجْ ***art sač*** – “orqa soch, gardan mo‘yi”, chunki اَرتْ ***art*** “orqa; bo‘yin” demakdir.

اَرتْ ***art*** – tog‘ tepasi. Maqolda (shunday kelgan): **اَرْمَگُوكَا اَشِكْ اَرتْ بُلُورْ *Ermägükä ešik art bolur.*** Maqolda (shunday kelgan): “Yalqovga eshik ostonasi ham tog‘ tepasidek ko‘rinadi” demakdir.

اُرتْ ***urt*** – igna teshigi.

اُرتْ ***ört*** – “o‘t; yong‘in”.

اَستْ ***ast*** – “tor yo‘l; tor ko‘cha” (chigilcha).

د ***d*** [harfi]:

اَنْدْ ***and*** – “ont, qasam”; اَنْدِقْ ***andïq*** – “qasam ich”.

ق ***q*** [harfi]:

اَرقْ ***arq*** – “chiqit, chiqindi”; تَمُرْ اَرْقِى ***temür arqï*** – “temir chiqindisi”.

اُرقْ ***urq*** – اُرُقْ ***uruq*** so‘zining qisqartirilgan shakli (o‘g‘uzcha). Arabcha عنُقْ *’unuq,* عنقْ *’unq* so‘zlari kabi.

اِرقْ ***ïrq*** – mo‘ljal qilish, fol ochish, birovning ko‘nglidagini aytish.

ك ***k*** [harfi]:

اَركْ ***erk*** – “erk”; podsholik va buyruq o‘tkirligi.

اُركْ ***örk*** – qoramollarning boshvog‘i va ot oyog‘ining bog‘i (tushov).

اِركْ ***irk*** – qo‘y; to‘rt yoshga qadam qo‘ygan qo‘y.

اِلكْ ***ilk*** – “oldin, avval”; اِلكْ سَنْ بَرْغِيلْ ***ilk sen barγïl*** – “oldin sen bor”.

Uch harflilarning *manqūṣ* lari

ب *p* [harfi]:

اُوبْ اُوبْ *op-op* – biron ishda hovliqib va maqtanib, so‘ng uni isbotlashdan ojiz qolganlarga **اُوبْ اُوبْ *op-op*** deydilar.

ت *t* [harfi]:

اُوتْ *ot* – “o‘t, olov”. (17b) Maqolda (shunday kelgan): ***Ot*** **اُوتْ تِيسَا اَغِيزْ كُيْمَاسْ *tesä, aγïz küymäs.*** Ma’nosi: “O‘t” degan bilan og‘iz kuymaydi” demakdir. Bu maqol so‘zlashdan tortinganlarga qarata aytiladi.

اُوتْ *öt* – “devor va taxta teshigi”; *vāv* harfi ingichka (ya’ni [*ö*] tarzida) talaffuz etiladi (بشمة الواو).

اُوتْ *öt* – “achchig‘liq, o‘t qopchasi”; *vāv* harfi yuqoridagidan ham ingichka talaffuz etiladi (اقل شمه منه).

ج ***č*** [harfi]:

اُوجْ *öč* – “o‘ch, intiqom, kek”. (Shoir) shunday degan:

اُوجْ كَكْ قَمُغْ كِيشِى نِنكْ يَلِنكُوقْ اُوزَا اَلِيمْ بِيلْ	***Öč-kek qamuγ kišiniŋ yalïŋuq üzä alïm bil,***
اَذْكُولُوكُوكْ اُوغَنْجَا اَلِكِينكْ بِيلا تَلِيمْ قِيلْ	***Eδgülügüg uγanča eligiŋ bilä telim qïl.***

Aytmoqdaki: “O‘ch, kek degan narsalar odamga qarz kabidir, olmay qo‘ymaslar, undan chekin. Shuni bil-da, musofirlarga, begonalarga kuching yetganicha, qo‘lingdan kelgancha yaxshilik qil”.

اُوجْ *uč* – “narsaning uchi”; **بُتَقْ اُوجِى *butaq učï*** – “butoqning uchi, shoxning uchi”.

[**اُوجْ *uč***] **اُوجْ اِيلْ *Uč el*** – mamlakat chegarasidagi viloyat.

اُوجْ *uč* – biror narsaning tugallanishi, bitishi (o‘g‘uzchada).**بُويْدَا نا اُوجْ بَارْ *Boyda nä uč bar,*** deydilar. Ma’nosi: “Xalq ko‘p bo‘lgani uchun unda tugash yo‘q”.

د ***d*** [harfi]:

اُوذْ *öδ* – (بشمه الواو – *vāv* harfi ingichka (ya’ni [*ö*] tarzida) talaffuz etiladi); “zamon, davr”. Maqolda (shunday kelgan): **اُوذْ كَجَارْ كِشِي تُويْمَاسْ يَلِنكُوقْ اُوغْلِي مَنكُو قَلْمَاسْ *Öδ kečar, kiši tuymas, yalïŋuq oγlï mäŋgü qalmas.*** Ma’nosi shunday: “Zamon kechar, kishi tuymas, inson bolasi mangu qolmas”.

اُوذْ *ud* – “sigir” (chigilcha). Turklarning qabul qilgan o‘n ikki yilidan biriga ham **اُوذْ يِيلِى *ud yïlï*** (“sigir yili”) deyiladi.

ر ***r*** [harfi]:

اُوزْ اَتْ *or at* – to‘q qizil va sariq ranglar orasidagi ot.

اُورْ *ör* – (بالشمه – *vāv* harfi ingichka (ya’ni [*ö*] tarzida) talaffuz etiladi): kaftan yoki kamzulning qo‘ltiq osti qismi.

اِيرْ *er* – teshish uskunasi.

اِيرْ *er* – “yer”; ba’zi tilda **يِيرْ *yer*** ham deydi.

ز *z* [harfi]:

اُوزْ *üz* – (بالشمه – ingichka talaffuz etiladigan unli (ya’ni [*ü*]) bilan): “yog‘”; **اُوزْلُكْ اَشْ *üzlüg aš*** – “yog‘li osh; yog‘li ovqat”.

اُوزْ *üz* – “sag‘ir”; **اُوز كِشِى *üz kiši*** – “sag‘ir kishi”.

اُوزْ *öz* – “o‘z; o‘zi”. (Shoir) shunday degan:

كُورگُلُوكْ تُنُوغ اُوزُنكْ كَا	***Körklüg tonuγ özüŋkä,***
تَتْلِيغْ اَشِيغْ اَذِينْقَا	***Tatlïγ ašïγ aδïnqa,***
تُوتْغِيلْ قُنُوقْ اَغِيرْلِيغْ	***Tutγïl qonuq aγïrlïγ,***
يَدْسُونْ جَفِينكْ بُذُونْقَا	***Yaδsun čawïŋ boδunqa.***

Aytmoqdaki: “Ko‘rkli kiyiming o‘zingga, totli ovqatingni birovga ilin. Qo‘noqlarni hurmatla, toki dovrug‘ing el-yurtga taralsin”.

اُوزْ *öz* – “dara, tog‘lardagi vodiy”; (18a) buni **تَاغْ اُوزِى *taγ özi*** (“tog‘ darasi”) ham deydilar.

[**اُوزْ *öz***] **اُوزْ كِشِى *öz kiši*** – “yaqin kishi”; **بُو بزْنِكْ اُوزْ كِشِى اُلْ *bu biznïŋ öz kiši-ol*** – “bu bizning yaqin kishimiz”.

اُوزْ *öz* – yurak va qoringa tegishli a’zolar; **اُوزُمْ اَغْرِيدِى *özüm aγrïdï*** – “qornim [ya’ni ichim] og‘ridi”.

اُوزْ *öz* – “o‘zak”; **يِغَاجْ اُوزِى *yïγač özi*** deydilarki, “xurmo va boshqa daraxtlarning yog‘i” demakdir.

اُوزْ كِشِى *uz kiši* – qo‘li ishga qovushadigan, o‘z hunariga mohir kishi.

[**اُوزْ *öz***] **اُوزْ قُنُقِى *öz qonuqï*** – gavda ichida harakat qiladigan narsa, ruh.

(Shoir) shunday degan:

بَرْدِى كُوزُومْ يَرُوقِى	***Bardï közüm yaruqï,***
اَلدِى اُزُومْ قُنُقِى	***Aldï özüm qonuqï.***
قَنْدَا اَرنجْ قَنِيقِى	***Qanda erinč qanïqï,***
اَمْدِي اُودِينْ اُوذْغُرُورْ	***Emdi udïn uδγurur.***

Aytmoqdaki: “Ko‘zimning yorug‘lig‘i [suyukligim] ketdi; u mening ruhimni ham olib ketdi. U hozir qayerda ekan? Uningsiz uyqum ham halovatsiz”.

ش *š* [harfi]:

اِيشْ *iš* – “ish”; **نا اِيشِنكْ بَارْ *ne išïŋ bar?*** – “nima ishing bor?”.

اِيشْ *eš* – “esh; o‘rtoq; hamroh”; jini bor, alohida tabiatli kishilarga ham **اِيشْلِكْ *ešlig*** deyiladi.

(Shoir) shunday degan:

اَنِنـکْ اِیشِینْ کجُورْدُمْ *Anïŋ ïšïn kečürdüm,*
اِیشِینْ یَمَا قجُورْدُمْ *Ešin yemä qačurdum.*
اُولُومْ اُوتِنْ اِیجُورْدُمْ *Ölüm otïn ičürdüm,*
اِیجْتِی بُلُبْ یُوزِي تُرُنْ *İčti bolup yüzi türün.*

Aytmoqdaki: “Uning ishini bitirdim [o‘ldirib, ishini bartaraf qildim], sherigini ham qochirdim. O‘lim sharbatini tottirdim, yuzini burishtirgan holda ichdi”.

غ ***γ*** [harfi]:

اُوغْ ***oγ*** – chodirning [o‘tovning] yuqori qismida bo‘lgan uvuqlar [ya’ni chodir yog‘ochlari].

ق ***q*** [harfi]:

اُوقْ ***oq*** – “meros ulushi”; اَنـکَارْ بِیرْ اُوقْ تَکْدِی ***aŋar bir oq tegdi*** – “unga merosdan bir ulush tegdi”.

ک ***g*** [harfi]:

اُوکْ ***ög*** – “aql va ziyraklik”. Shuning uchun yoshi ulug‘ va aqllilarga اُوکا ***ögä*** laqabi beriladi. Bu so‘z o‘rta yoshga yetib ulg‘aygan har bir hayvonga nisbatan ham ishlatiladi. Shuningdek, to‘rt yoshdan oshgan otlarga اُوکْ اَتْ ***ög at*** deydilar.

اِیکْ ***ig*** – “dug”; shu ma’noda bu so‘z یِیکْ ***yig*** ham deyiladi.

اِیکْ ***ig*** – “kasallik”. (18b)

ل ***l*** [harfi]:

اُولْ ***ul*** – devor va uylarning poydevori; تَامْ اُولِی ***tam ulï*** – “devor osti, devor poydevori”.

[اُولْ ***öl***] اُولْ نَانـکْ ***öl näŋ*** – “ho‘l narsa”; اُولْ تُونْ ***öl ton*** – “ho‘l, nam kiyim”. O‘g‘uzlar buni bilmaydi.

اِیلْ ***el*** – “el, viloyat”; بَکْ اِیلِی ***beg eli*** – “bek eli, bek viloyati”.

اِیلْ ***el*** – “ochiqliq, bo‘shliq”; قَبُغْ اِیلِی ***qapuγ eli*** – “eshik yonidagi bo‘sh joy, ochiq maydon”.

اِیلْ ***el*** – bir turli ot nomi, chunki ot turklarning qanotidir. Otboqarni اِیلْ بَشِی ***el bašï*** deydilar. Bu “viloyat boshlig‘i” demakdir. Lekin bundan “otboqar”ni tushunadilar.

اِیلْ ***el*** – ikki shoh orasidagi kelishuv, yarashuv; اِیکِی بَکْ بِیرْلَا اِیلْ بُلْدِی ***iki beg birlä el boldï*** – “ikki bek bir-biri bilan yarashdi”.

[اِیلْ ***il***] اِیلْ کِشِی ***il kiši*** – “past odam; baxil kishi”.

اِیلْ قُوشْ ***il quš*** — “quzg‘un”.

م ***m*** [harfi]:

[اُومْ ***um***] اَرْ اُومْ بُلْدِی ***er um boldï*** – “kishining me’dasi buzuldi”; ko‘p go‘sht yeyishdan kishining me’dasi buzuldi.

ن ***n*** [harfi]:

اُونْ ***on*** – “o‘n”.

اُونْ *ün* – “un, tovush” (cho‘ziq va qisqa talaffuz qilish ham mumkin – ممدودا و مقصورا).

اُونْ *un* – “un”.

[اِينْ *en*] اِينْ يِيرْ *en yer* – “o‘nqir-cho‘nqir yer”; **اِينْ يُقْ *en yoq*** – “past-baland joy” deyilishi shundan.

اِينْ *en* – “en”, har narsaning eni; **بُو بُوزْ اِينِى نَجَا *bu böz eni nečä?*** – “bu bo‘zning eni qancha?”

اِينْ *in* – “in”; sher, tulki va boshqa yirtqichlar uyasi; **يِينْ *yin*** shakli ham bor.

اِينْ *in* – “qo‘y qiyi”; bu so‘zning **يِينْ *yin*** shakli ham bor.

Bu bobdagi to‘rt harflilar

ي *y* [harfi]:

اُويْ *oy* – yerdagi chuqurlik, o‘ydim-chuqur.

[اُويْ *oy*] اُويْ اَتْ *oy at* – “qora ot”.

O‘rta harfi *sukun* li so‘zlar tugadi.

فَعَل *fa’al*, فَعْل *fa’ul*, فَعِل *fa’il* kabi o‘rta harfi har xil shaklda qo‘llanuvchi so‘zlar bo‘limi

ت *t* [harfi]:

[اَدْتْ *aδut*] بيرْ اَدْتْ نَانكْ *bir aδut näŋ* – “bir kaft narsa”. (19a)

[اُرْتْ *orut*] اُرْتْ اُتْ *orut ot* – “bir yil turgan o‘t; quruq xashak”.

اُجْتْ *öčüt* – “o‘ch, qasos; dushmanlik”; bu so‘zning asli **اُوجْ *öč*** dir.

اُغْتْ *oγut* – bo‘za tayyorlashda ishlatiladigan achitqining oti. Bu ko‘p dorilardan iboratdirki, unlari undirilgan arpa uni bilan aralashtiriladi. Keyin qorishtirilib, g‘o‘laklarga o‘xshatib kesiladi, so‘ng quritiladi. Keyin bug‘doy va arpa qaynatiladi. O‘sha xamir o‘g‘itni (g‘o‘lakni) yanchib, har bir bug‘doyga bir bo‘lakdan sepiladi, so‘ngra qaynatilgan bug‘doyni toza bir narsaga o‘rab, uch kungacha dimlab qo‘yiladi. Shundan keyin xumga solinadi va yetilguncha o‘n kun qo‘yiladi. So‘ng ustiga suv quyib suziladi. Bu bug‘doy sharobi [bo‘za]dir.

اَقَتْ *ewät* – “to‘g‘ri; ma’qul” degan ma’noni anglatuvchi so‘zdir. Bu so‘zning uch xil talaffuzi bor: yag‘mo, tuxsi, qipchoqlar **اَقْتْ *ewät,*** o‘g‘uzlar **اَمَتْ *emät*** yoki **اَوَتْ *evät*** deydilar. Boshqa turklar esa **يَمَتْ *yemät*** deydilar.

اُقْتْ *uwut* – “uyalish, hayo”.

اُقْتْ *owut* – taomga yoki podshoh huzuriga chaqirish.

اَكِتْ *egit* – yaradan, shuningdek, ko‘z tegishidan saqlash uchun bolalarning yuziga surtiladigan bir dori. Bu dori za’faronga bir qancha narsalar qo‘shib tayyorlanadi.

اُكُتْ *ögüt* – “o‘git, nasihat”.

(Shoir) shunday degan:

اَلْغِيلْ اُكْتْ مِنْدِينْ اُغُولْ اَرْدَمْ تِيلا — *Alγïl ögüt mendin, oγul, erdäm tilä,*
بُويْدَا اُولُغْ بِلْكَا بُلُبْ بِلْكِينكْ اُولَا — *Boyda uluγ bilgä bolup, bilgiŋ ülä.*

Aytmoqdaki: “Ey o‘g‘lim, mendan o‘git ol, odobli va tarbiyali bo‘lishga intil. Xalq ichida ulug‘ olim bo‘lib tanil, uning orasida ilmingni tarqat”.

اُكِتْ ***ügit*** – bug‘doy va shuning kabilarni yanchish.

اُكِتچِى ***ügitči*** – bug‘doy va boshqa donlarni yanchuvchi kimsa, tegirmonchi.

اَكَتْ ***egät*** – nikoh kechasi kelin yonida xizmat qiluvchi xotin, yanga.

اِيكِتْ ***igit*** – “yolg‘on” (o‘g‘uzcha); اِكِتْ سُوزْ ***igit söz*** – “yolg‘on so‘z”.

اُلْتْ ***ölüt*** – bir-birini o‘ldirish. O‘ldiruvchi kimsani اُلْتجى ***ölütči*** deyiladi.

[اُلْتْ ***ölüt*****]** اُلْتْ اَرْ ***ölüt er*** – kuch-quvvati ketgan katta yoshli kishi. (19b)

ج ***č*** [harfi]:

[اَتَجْ ***atač*****]** o‘zini katta kishilardek ulug‘sifat (keksa-qari) qilib ko‘rsatuvchi bolaga اَتَجْ اُغُولْ ***atač oγul*** deyiladi.

اَتِجْ ***etič*** – bolalar yong‘oq o‘ynaydigan chuqurcha.

اِشِجْ ***ešič*** – “qozon”. Bu so‘z quyidagi maqolda ham kelgan:

اِشِجْ اَيُورْ تُوبُمْ اَلْتُونْ — ***Ešič ayur: tübüm altun.***
قَمِجْ اَيُورْ مَنْ قَيْدَامَنْ / قَنْدَامَنْ — ***Qamïč ayur: men qayda-men / qanda-men?***

Ma’nosi: Qozon aytur: tubim oltin. Cho‘mich aytur: men qaydaman? [ya’ni, qozon: “Tubim oltin”, deb maqtansa, cho‘mich: “Unday bo‘lsa, men qaydaman?” – deydi].

Bu masal kimligini (hamma) biladi-yu, tanishlar oldida maqtanuvchi kishiga qarata aytiladi.

اَكَجْ ***egäč*** – o‘zining ortiq ziyrakligi bilan odamlarga xuddi o‘z singlisidek tuyuluvchi yosh qiz; bu so‘z yosh qizlarni sevish, erkalash uchun qo‘llanadi.

اَمَجْ ***amač*** – “nishon, mo‘ljal”.

اَمَجْ ***amač*** – “omoch, omoch-bo‘yinturuq”; dehqonchilik asboblaridan.

اُلِجْ ***ulïč*** – bolalarni sevib, erkalab aytiladigan so‘z; اُلِجم ***ulïčïm*** – “o‘g‘ilcham, qarog‘im” (qarluqcha).

اَنَجْ ***anač*** – “ona qiz”, ya’ni o‘zining ziyrakligi bilan hammaning onasidek bo‘lib qolgan yosh qiz. Bu so‘z qizlarni erkalash uchun aytiladi.

اَنُجْ ***enüč*** – ko‘zga tushgan parda, noxina.

ر ***r*** [harfi]:

اَغِرْ ***aγïr*** – “og‘ir”, har narsaning og‘iri. Xalq yoki bek tomonidan hurmat qilinadigan kishiga اَغِيرْلِيغْ كِشِى ***aγïrlïγ kiši*** deb aytiladi; تَنكْرِى مَنِى اَغِيرْلَادِي ***täŋri meni aγïrladï*** – “Xudo meni siyladi, qadrladi”. اَغِيرْ اَدَاقْ اَمْرُلْدِي ***aγïr aδaq amruldï*** – og‘ir oyoq kechadan bir muncha muddat o‘tgandan keyin to‘xtadi deyilmoqda, ya’ni “og‘ir oyoqli kishi sekin va sust yursa ham manzilga yetadi” degan ma’noda.

[اَغِيرْ *ayïr*] اَغِيرْ نَانـكْ *ayïr näŋ* – “narxi oshiq narsa, qimmatbaho narsa”.

[اُغُرْ *uγur*] اُغُرْ اَتْ *uγur at* – “peshonasida oqi bor (qashqa) ot”; bu so‘z ham shaklan, ham mazmunan arabchaga mos; faqat bu so‘zning bosh harfi arabchada *fatḥa* li [*a*], turkchada *ẓamma* li [*u*] dir.

اُغُرْ *oγur* – “vaqt”; **نَا اُغُرْدَا كَلْدِينـكْ *ne oγurda keldiŋ?*** – “qay vaqt kelding?”

اُغُرْ *oγur* – “davlat; dargoh”; **بَكْ اُغُرِينْدَا مَنِـكْ اِيشِمْ اِيتِلْدِي *beg oγurïnda meniŋ išïm etildi*** – “bek davlatida (dargohida) mening ishim o‘nglandi”. (20a)

اُغُرْ *oγur* – ishning o‘rnida bo‘lishi, joyida, vaqtida bo‘lishi; **بُو اِيشْ اُغُرْلُغْ بُلْدِي *bu iš oγurluγ boldï*** – “bu ish vaqtida bo‘ldi”.

اُغُرْ *oγur* – “badal, evaz; o‘rinma-o‘rin, boshma-bosh”; **اَتْقَا اُغُرْ اَلْدِيمْ *atqa oγur aldïm*** – “ot evaziga [boshma-bosh] oldim” (o‘g‘uzcha).

اُغُرْ *oγur* – yaxshi va muvaffaqiyatli; xayrli; bu so‘z faqat safarga yoki safarga chiquvchiga nisbatan qo‘llanadi: **يُولْ اُغُرْ بُلْسُونْ *yol oγur bolsun*** – “safar bexatar bo‘lsin”.

اَكِرْ *egir* – “iyir”, qorin og‘rig‘ini davolash uchun qo‘llanadigan o‘simlik. Bu so‘z ushbu maqolda kelgan: **اَكِرْ بُلْسَا اَرْ اَلْمَاسْ *Egir bolsa, er ölmäs.*** – Ma’nosi: “Iyir bo‘lsa, kishi o‘lmaydi” [Kishining yonida ana shu dori bo‘lsa, o‘limdan saqlanadi]. Chunki qorin og‘rig‘iga duchor bo‘lgan odam uni yesa, tuzaladi. Bu maqol har ishga oldindan hozirlanish kerak, degan ma’noda qo‘llanadi.

اُكُرْ *ügür* – “tariq”. Bu so‘z turkcha; o‘g‘uzlar bilmaydilar.

[اُكُرْ *ögür*] يَاغ اُكُرِى *yaγ ögüri* – “kunjit” (o‘g‘uzcha).

اُكُرْ *ügür* – “poda”; qo‘y, echki, kiyik; yovvoyi o‘rdakning kichik xili – churrak deyilgan qush; tuyalar podasiga nisbatan ham qo‘llanadi.

اَمِرْ *emir* – “tuman; bulut” (o‘g‘uzcha).

ز *z* [harfi]:

اُبُزْ *opuz* – “qattiq yer”; **اُوىْ اُبُزْ *oy opuz*** – “past va sahroli yer”.

اَتِزْ *atïz* – ikki dara orasidagi chegara.

[اُجُزْ *učuz*] اُجُزْ نَانـكْ *učuz näŋ* – “arzon narsa”. Har bir tuban, past narsaga **اُجُزْ *učuz*** deydilar. **بَكْ انِى اُجُزْلادِى *beg anï učuzladï*** – “bek uni yerga urdi, xo‘rladi”.

اُدُزْ *uδuz* – “qo‘tir”. Maqolda (shunday kelgan): **تِلْكُو اُوزْ اِينِكَا اُرْسَا اُدُزْ بُلُورْ *Tilkü öz inikä ürsä, uδuz bolur.*** Ma’nosi: “Tulki o‘z iniga qarab ulisa [irillasa, hursa], qo‘tir bo‘ladi”. Bu maqol o‘z elini, urug‘ini va mamlakatini yomonlovchilarga qarata aytiladi.

اَذِيزْ *eδiz* – baland yer va boshqa baland narsalar.

[اَذِيزْ *eδiz*] اَذِيزْ تَاغ *eδiz tay* – baland tog‘ yoki oshib o‘tish mumkin bo‘lmagan tog‘.

اَغُژْ *ayuž* – “og‘iz; og‘iz suti”; bu so‘z oxiridagi tovush ز *zā* bilan yoki ژ *žā* bilan yozilishi ham mumkin. (20b)

اَغِزْ *ayïz* – ariq og‘zi; charm idish yoki qovg‘aning og‘zi; xum og‘zi; quduq og‘zi.

اَغِزْ ***agïz*** – odam va hayvonlar og‘zi. Maqolda (shunday kelgan): اَغِزْ بِيسَا كُوزْ ايَاذورْ ***Agïz yesä, köz uyaδur.*** Ma’nosi: “Og‘iz yesa, ko‘z uyalur”. Bu maqol birovning biror narsasini yeganlar uning hojatini chiqarishdan tortinishi mumkin emasligini ko‘rsatish uchun aytiladi.

اُغُزْ ***oγuz*** – turklarning bir qabilasi. O‘g‘uzlar turkmanlardir. Ular yigirma ikki urug‘dir. Ularning har birining maxsus belgilari, mollariga mos tamg‘alari bordirkim, urug‘larni shu tamg‘alariga qarab ayiradilar.

Birinchisi va boshliqlari قِنِقْ ***qïnïq*** – qiniqlardir. Zamonamizning xoqonlari shu qiniqlar urug‘idandir. Mollarining tamg‘asi shunday:

Ikkinchisi, قَيِغْ ***qayïγ*** – qayig‘lardir. Tamg‘asi shunday:

Uchinchisi, بَايُنْدُرْ ***bayundur*** – bayundurlardir. Tamg‘asi shunday:

To‘rtinchisi, اِيفا ***ïwa*** – ivalardir. Ularni يِفْا ***yïwa*** lar ham deb ataydilar. Tamg‘asi shunday:

Beshinchisi, سَلْغُرْ ***salγur*** – salg‘urlardir. Tamg‘asi shunday:

Oltinchisi, اَفْشَارْ ***awšar*** – avsharlardir. Tamg‘asi shunday:

Yettinchisi, بَكْتِلِى ***begtili*** – begtililardir. Tamg‘asi shunday:

Sakkizinchisi, بُكْدُزْ ***bügdüz*** – bukduzlardir. Tamg‘asi shunday:

To‘qqizinchisi, بَيَاتْ ***bayat*** – bayatlardir. Tamg‘asi shunday:

O‘ninchisi, يَزْغِرْ ***yazγïr*** – yazg‘irlardir. Tamg‘asi shunday:

O‘n birinchisi, اَيْمُرْ ***eymür*** – eymurlardir. Tamg‘asi shunday:

O‘n ikkinchisi, قَرَابُلُكْ ***qarabölük*** – qarabo‘luklardir. Tamg‘asi shunday:

O‘n uchinchisi, اَلْقَابُلُكْ ***alqabölük*** – alqabo‘luklardir. Tamg‘asi shunday:

O‘n to‘rtinchisi, اِكْدَرْ / اِكْدِرْ ***igdär*** / ***igdir*** – igdarlardir. Tamg‘asi shunday:

O‘n beshinchisi, اُرَكِرْ ***ürägir*** – uragirlardir. يُرَكِرْ ***yürägir*** – yuragir ham deydilar. Tamg‘asi shunday:

O‘n oltinchisi, تُوتِرْقا ***tutïrqa*** – tutirqalardir. Tamg‘asi shunday:

O‘n yettinchisi, اُولايُنْدُلُغْ ***ulayundluγ*** – ulayundlug‘lardir. Tamg‘asi shunday:

O‘n sakkizinchisi, تُوكَرْ ***tögär*** – to‘garlardir. Ba’zan *vāv* harfi tushirilib, تُكَرْ shaklida ham yozadilar. (21a) Tamg‘alari shunday:

O‘n to‘qqizinchisi, بَجَنَكْ ***pečänäk*** – pachanaklardir. Tamg‘asi shunday:

Yigirmanchisi, جُوَالْدَرْ ***čuvaldar*** – chuvaldarlardir. Tamg‘asi shunday:

Yigirma birinchisi, جَبْنى ***čepni*** – chepnilardir. Tamg‘asi shunday:

Yigirma ikkinchisi, جَرُقْلُغْ ***čaruqluγ*** – charuqlug‘lardir. Bularning soni oz, tamg‘alari noma’lum.

مَحْمُودْ *Maḥmūd* (Koshg‘ariy) aytadi: Bu qabilalarni bilishga kishilarning ehtiyoji borligi uchun birma-bir izoh berdim. Bu tamg‘alar ularning mollari va podalarining belgisidir. Mollari aralashib ketganda har qabila o‘z molini shu tamg‘alardan ayirib oladi.

Bular ososiy qabilalardir. Ularning har birida aymoqlari bor. Qisqartish uchun ularni yozmadim. Bu nomlar qabilalardagi eng qadimgi bobolarning ismidir. Arablarda بَنو سَلِيمْ *Banu Salīm,* ya’ni “Salim avlodlari”, بَنو خَفَاجَه *Banu Xafāja,* ya’ni “Xafoja avlodlari” deb yuritilgani kabi. Bular ham qadimgi otalariga nisbat berib yuritadilar.

اُغُزْ ***ögüz*** – جَيْحُونْ *Jayḥūn,* فُرَاتْ *Furāt* kabi daryolarga berilgan nom. O‘g‘uzlar bu so‘zni o‘zlarining shaharlari joylashgan بَناكَتْ *Banākāt* vodiysi ma’nosida qo‘llaydilar. Ularning ko‘chmanchilari ham shu daryoning ikki qirg‘og‘iga joylashganlar. Turk mamlakatlaridagi bir qancha boshqa daryolar ham shu ot bilan yuritiladi.

اِلَا *Ïla* (Ila) va يَفِنجْ *Yawïnč* (Yovinch) sahrolari orasidagi shahar اِيكى اُوكُوزْ ***İki ögüz*** deb ataladi.

اُكُزْ ***öküz*** – “ho‘kiz”. Maqolda (shunday kelgan): اُكُزْ اَذاقِى بُلْغِنْجَا بُزَاغُو بَشِى بُلْسَا يِيكْ ***Öküz aδaqï bolγïnča, buzaγu bašï bolsa yeg.*** Ma’nosi: “Ho‘kizning oyog‘i bo‘lguncha, buzoqning boshi bo‘lgan yaxshiroq”. Bu maqol “mustaqillik bo‘ysunishdan yaxshi” degan ma’noda qo‘llanadi.

س ***s*** [harfi]:

اَوُسْ ***awus*** (21a) – “mum” (bulg‘orcha).

اُولَاسْ كُوزْ ***ulas köz*** [اُولَاسْ] – “suzilgan, yoqimli ko‘z; xumor ko‘z”.

(Shoir) shunday degan:

بُلْنَارْ مِينِى اُولَاسْ كُوزْ	***Bulnar meni ulas köz,***
قَرَا مَنَكِيزْ قِيزِيلْ يُوزْ	***Qara meŋiz, qïzïl yüz.***
اَنْدِينْ تَمَارْ تُوكَالْ تُوزْ	***Andïn tamar tükäl tüz,***
بُلْنَابْ يَنَا اُولْ قَجَارْ	***Bulnap yana ol qačar.***

Aytmoqdaki: “Xumor ko‘zli, ko‘rkam yuzli, qora xolli seviklim, (go‘zal) yanoqlaridan shirinlik tomadi, bu bilan asir qiladi-da, so‘ng mendan qochadi”.

ش ***š*** [harfi]:

اُبُشْ ***öpüš*** – “o‘pish”; ikki kishi orasida.

اَتِشْ ***atïš*** – “otish; otishma”.

اَتَشْ / اَتِشْ ***Atïš / Ataš*** – er kishilarning otlaridan.

اُتُشْ ***Utuš*** – er kishilarning otlaridan.

اُتُشْ ***ötüš*** – (باشمام الالف – ingichka talaffuz etiladigan *alif* [*ü*] bilan); “o‘yinda yutish”. Bu shundayki, bolalar halqa (davra) bo‘lib o‘tiradilar. Bolalardan biri

yonidagi bir bolani turtadi va unga اُتشْ اُتشْ ***ötüš-ötüš*** deydi, ya'ni "yoningdagini ham turt" deydi.

اِتِشْ ***itiš*** – ikki kishi orasida o'zini qo'l bilan himoya qilish.

اُجَشْ ***öčäš*** – "o'chakishish"; اُلْ مَنِنـكْ بِرْلَا اُوجَشْدِي ***ol meniŋ birlä öčäšdi*** – "u men bilan o'chakishdi".

اَدَشْ ***adaš*** – "do'st, o'rtoq".

اِدِشْ ***idiš*** – "qadah; piyola"; yag'mo, tuxsi, yamak, o'g'uz va arg'ular tilida tos, obdasta, tovoq va laganlarning hammasi اِدِشْ ***idiš*** deb yuritiladi.

اَرِشْ ***arïš*** – "o'rish"; اَرِشْ اَرْقَاغ ***arïš-arqaɣ*** – "o'rish-arqoq" deb qo'llanadi.

اُرُشْ ***uruš*** – "talashish, tortishish; urishish".

اَغِشْ ***aɣïš*** – "ko'tarilish".

اُغُشْ ***uɣuš*** – "qavm, qarindosh".

اُقشْ ***uwuš*** – "ushoq", narsaning mayda bo'lagi; اُقشْ اَتْمَاكْ ***uwuš etmäk*** – "ushatilgan non, burdalangan non".

اُقُشْ ***uquš*** – "uqish, anglash; idrok etish; tushunish"; اُقُوشْلُغْ كِشِى ***uqušluɣ kiši*** – "uquvli kishi, fahm-farosatli kishi".

[اُوكُوشْ ***öküš***] اُوكُوشْ نَانـكْ ***öküš näŋ*** – "ko'p narsa"; (22a) har narsaning ko'pi. Maqolda (shunday kelgan): تِيرِيكْ اَسَنْ بُلْسَا تَانكُ اُوكُوشْ كُرُوزْ ***Tirig esän bolsa, taŋ öküš körür.*** Ma'nosi: "Kishi eson [sog'] bo'lsa, qiziq narsalarni ko'p ko'radi".

[اُوكُوشْ ***öküš***] اُوكُوشْ يِلْقِى ***öküš yïlqï*** – "qaysar ot, sarkash hayvon".

اَلِشْ ***alïš*** – suvning hovuzga quyiladigan o'rni.

اَلَشْ ***Aluš*** – كَاجْغَرْ *Kāčyar* dagi bir qishloq oti.

اَلِشْ ***alïš*** – "olish, hisoblashish"; اَلِشْ بِيرِيشْ ***alïš-beriš*** – "olish-berish"; oladiganni olish, beradiganni berish.

اُلُشْ ***ülüš*** – "ulush, hissa" (*šīn* harfi aslida *kāf* (ya'ni [*g*]) dir).

اُولُكْ ***ülüg*** – "ulush, hissa"; bu so'z oxirida *kāf* (ya'ni [*g*]) bo'lishi asosdir. Bu arab tilida *kāf* ning *šīn* ga almashinuvi kabidir. Chunonchi, Majnunning فعيناشِ عيناها وجيدشِ جيدها misrasidagi عيناش و جيدش so'zlari عيناک و جيدک o'rnida qo'llangan.

اُلَشْ ***uluš*** – "qishloq" (chigilcha); بَلَاسَاغُونْ *Balasayun* va ularning yuqori yonidagi arg'ulilar tilida "shahar" demakdir. Shuning uchun بَلَاسَاغُونْ *Balasayun* shahrini قُوزْ اُولُوشْ ***Quzuluš*** ham deyiladi.

اُلُشْ ***ülüš*** – xalq orasida "hissa", "taqsimlash" yoki "ulashmoq". So'z oxirdagi *šīn* harfi *kāf* (ya'ni [*g*]) ga almashgan. Chunonchi, ربّک و تحتک so'zlari o'rnida قد جعل ربّش تحتش سرّيًا qo'llanganda *šīn kāf* ga almashgani kabi.

غ *ɣ* [harfi]:

اَجِغْ ***ačïɣ*** – xon yoki shohning baxshishnomasi, mukofoti; خَانْ مَنْكَا اَجِغْ بِيرْدِي ***xan meŋä ačïɣ berdi*** – "xon menga mukofot berdi".

اَجِغْ ***ačïɣ*** – noz-ne'matlar ichida yashash, noz-ne'matlardan bahramand bo'lish; اُوزُنكْنِى اَجِغْلِغْ تَتْ ***özüŋni ačïɣlïɣ tut*** – "o'zingni yaxshi tut. Noz-ne'matlardan bahramand bo'l, oziqlan" demakdir.

اَچِغْ ***ačïγ*** – “achchiq; achchiq bo‘lgan har bir narsa”.

اَڈِغْ ***aδïγ*** – “ayiq”. Maqolda (shunday kelgan): **اَڤْچِی نَجَا اَلْ بِلْسَا اَڈِغ اَنْجَا یُولْ بِلِیرْ** ***Awčï nečä al bilsä, aδïγ anča yol bilir.*** Ma’nosi: “Ovchi ov hiylalarini qancha bilsa, ayiq ham qochish yo‘llarini shunchalik biladi”. Bu maqol ikki tajribali kishi tortishib qolganda aytiladi.

اَڈِغْ ***aδïγ*** – mastlikdan hushiga kelgan kishi; (22b) **اَسْرُکْ اَڈِغْ** ***esrüg aδïγ*** – “mast va hushyor”.

اَڈِغْ ***Aδïγ*** – bizdagi bir qishloqning oti.

[اَڈِغْ ***uδuγ*****]** **اُڈغْ اَرْ** ***uδuγ er*** – “o‘yg‘oq odam”; ko‘ngli ziyrak kishiga **اُڈغْ کُونکُولْ اُلُوکْ اَرْ** ***uδuγ köŋüllüg er*** (“sezgir tabiatli kishi”) deyiladi.

اَرِغْ ***arïγ*** – chodir pardasi (barsag‘ancha).

[اَرِغْ ***arïγ*****]** **اَرِغْ نَانکْ** ***arïγ näŋ*** – “toza narsa”.

اُرُغْ ***uruγ*** – “urug‘”, har bir narsaning urug‘i; (ekiladigan) urug‘ni ham shunday ataydilar. **اُرُغْ اکْتِی** ***uruγ ekti*** – “urug‘ ekdi; don sochdi”. Qarindosh-urug‘ni ham shunga o‘xshatib **اُرُغْ تَرِغْ** ***uruγ-tarïγ*** deydilar.

اَزِغْ ***azïγ*** – “oziq; hayvonning oziq tishi”.

اَسِغْ ***asïγ*** – “foyda”.

اُسُغْ ***osuγ*** – bir ishning boshqa ishga aylanishi; **بُو اِیشْ اُسْغِی مُنْڈَغْ** ***bu iš osγï munday*** – “bu ishning aylanishi shunday”.

اَلِغْ ***alïγ*** – har narsaning qaytarilishi (o‘g‘uzcha va qipchoqcha).

اُلُغْ ***uluγ*** – “ulug‘; har narsaning ulug‘i, kattasi”. (Shoir) shunday degan:

اُلُغْ لُوقُغْ بُلْسَا سَنْ اَدکُو قِلِینْ ***Uluγluquγ bulsa-sen eδgü qïlïn,***
بُلْغِیلْ کِشِیکْ بَکْلَارْ قَتِنْ یَخشِی اُولَانْ ***Bolγïl kišig beglär qatïn yaxšï ulan.***

Ma’nosi: “Daraja yoki martaba topsang, ezgu ishlar qil; kishilarning ishlarini beklarga yaxshi ko‘rinishda yetkazuvchi vositachi bo‘l”.

[اِلِغْ ***ïlïγ*****]** **اِلِغْ سُوڤْ** ***ïlïγ suw*** – “ilig‘ suv”; asli *yā* bilan **یِلِغْ** ***yïlïγ*** bo‘lishi kerak.

ق ***q*** [harfi]:

اَچُقْ ***ačuq*** – “ochiq”; **اَچُقْ قَبُغْ** ***ačuq qapuγ*** – “ochiq eshik”; **اَچُقْ کُوکْ** ***ačuq kök*** – “ochiq havo”; **اَچُقْ اِیشْ** ***ačuq iš*** – “aniq va ravshan ish”.

اُچَقْ ***očaq*** – “o‘choq”.

اَچِقْ ***ačïq*** – “katta aka”; xoqoniy turklari (الخاقانیه) katta akalarini **اَچِقِمْ** ***ačïqïm*** deydilar, *qāf* harfi faqat so‘zlovchi birligi *mīm* bilan qo‘shilib keladi. Lekin tinglovchiga ko‘ra **اَچِقِنکْ** ***ačïqïŋ*** shakli qo‘llanmaydi. (23a)

اَڈَقْ ***aδaq*** – “oyoq”.

[اَڈُقْ ***aδuq*****]** **اَڈُقْ نَانکْ** ***aδuq näŋ*** – “noma’lum narsa”; **اَڈُقْ** ***aδuq*** ning asli **اَغْڈُقْ** ***ayduq*** (“o‘zgaruvchi”) degan ma’nodadir: **اَنِنکْ مَنکْزِی اَغْڈِی** ***anïŋ meŋzi ayδï*** – “uning rangi o‘zgardi”. Yengillatish uchun *γayn* harfi tushirilgan.

[اُڈُقْ ***uδïq*****]** **اُڈُقْ اُرْ** ***uδïq er*** – “uyquchi kishi; mudrovchi kishi”.

اِدُقْ ***ïδuq*** – har bir qutlug‘ narsa; o‘z holiga qo‘yilgan hayvonga **اِدُقْ** ***ïδuq*** deydilar. Unga yuk ortilmaydi, suti sog‘ilmaydi, yungi olinmaydi. Egasi uni nazr qilgani uchun shunday qilinadi.

اِدُقْ ***ïδuq*** – “uzun, cho‘ziq”; **اِدُقْ تَاغ** ***ïδuq tay*** – “o‘tish mumkin bo‘lmagan cho‘ziq tog‘”.

اَرِقْ ***arïq*** – “ariq; nahr”. Maqolda (shunday kelgan): **اَغِيلْ دَا اُغْلَاقْ تُغْسَا اَرِقْ دَا اُوتِى اُونَارْ** ***Aγïlda oγlaq tuγsa, arïqda otï ünär.*** Ma’nosi: “Og‘ilda uloq tug‘ilsa, ariqda o‘ti unadi”. Bu maqol ovqat yoki rizq uchun ortiqcha urinish va qayg‘urish kerak emasligini anglatish uchun aytiladi.

[اَرُقْ ***aruq*** **] اَرُقْ اَرْ** ***aruq er*** – “oriq, charchagan kishi va shu kabilar”.

اَرُقْ تُرُقْ ***Aruq turuq*** – فَرْغَانَه *Farγāna* bilan كَاجْغَرْ *Kāčγar* o‘rtasidagi baland bir tepalikning oti.

اَرُقْ / اَرِقْ ***arïq / aruq*** – “oriq, zaif” (o‘g‘uzcha va qipchoqcha).

اُرُقْ ***uruq*** – “arqon”.

[اُزُقْ ***uzuq*** **] اُزُقْ اُوقْ** ***uzuq oq*** – “yashirin o‘q”. Kim otganligini aniqlash qiyin bo‘lgan o‘q.

[اَزُقْ ***azuq*** **] اَزُقْ مُنقْ** ***azuq munq*** – “qochgan; yo‘ldan ozgan; adashgan”.

اَزَقْ ***Azaq*** – o‘g‘uz beklaridan birining oti.

اَزُقْ ***azuq*** – “oziq, oziq-ovqat”. Maqolda (shunday kelgan): **سَرتْ نِنكْ اَزُقِى اَرِغ بُلْسَا يُولْ اُوزَا يِيرْ** ***Sartnïγ azuqï arïγ bolsa, yol üzä yer.*** Ma’nosi: “Savdogarning moli toza, beshubha bo‘lsa, yo‘l ustida yeydi”. Bu maqol aytgan so‘zining uddasidan chiqa olmagan, quruq maqtanchoqlarga qarata aytiladi.

[اَزَقْ ***uzaq*** **] اَزَقْ اِيشْ** ***uzaq iš*** – “cho‘zilgan ish”; bir yerga yuborilgan kishining kechikishiga ham shu so‘z qo‘llanadi: **يَلَاوَچْ اَزَقْ بَرْدِي** ***yalavač uzaq bardï*** (“yuborilgan kishi kechikdi”) kabi.

[اُزُقْ ***ozuq*** **] اُزُقْ اَتْ** ***ozuq at*** – “o‘zar ot”; uloq poygasida oldin boruvchi chopqir ot.

اَشَقْ ***ašaq*** – “tog‘ etagi” (o‘g‘uzcha).

اَشُقْ ***ašuq*** – “odam va boshqa jonzotlarning to‘pig‘i”. (23b)

[اُشَقْ ***ušaq*** **] اُشَقْ نَانكْ** ***ušaq näŋ*** – “kichik, mayda narsa”. Shuningdek, yosh bolalarni ham **اُشَقْ اُغْلَانْ** ***ušaq oγlan*** deydilar. O‘tinning maydasiga **اُشَقْ اُوتُنكْ** ***ušaq otuŋ*** deydilar. Bu so‘z birlik emas, jamlik holati uchun qo‘llanadi.

اَشُقْ ***ašuq*** – “temir qalpoq, dubulg‘a”. Bu so‘zda *alif yā* o‘rniga almashgan. Arabcha المعى و يلمغى kabi.

اُغُقْ ***uγuq*** – mahsini ayab, ustidan kiyiladigan paytavaga o‘xshash narsa.

اِوِقْ ***ïwïq*** – qir va toshloq yerlarda yashaydigan kiyik.

[اَلُقْ ***aluq*** **] اَلُقْ اَرْ** ***aluq er*** – “johil kishi” (o‘g‘uzcha).

اُولُقْ ***oluq*** – “chora”; daraxt kundasini o‘yib taroshlangan, oxurga o‘xshash narsa; (unda) hayvonlar sug‘oriladi; uzumdan siqib olingan shinni kabilar sovitiladi.

[اُلُقْ *uluq*] اُلُقْ تُونْ *uluq ton* – “eskirib, uvadasi chiqqan kiyim”; har bir eskirgan narsaga ham **اُلُقْ *uluq*** deyiladi.

اُلُقْ *uluq* – “kichik qayiq; qayiq”. Bu tamoman avvalgi so‘zdir [ya’ni avvalgi so‘zning omonimidir].

اُلُقْ *uluq* – ot kuragining old qismi. Maqolda (shunday kelgan): **اُلُقْ يَغِرِى اُغُولْقَا قَلِيرْ *Uluq yaγïrï oγulqa qalïr.*** Ma’nosi: “Otning kuragidagi yag‘ir bolalariga meros bo‘lib qoladi”. Chunki pay tomirlari u yerga to‘plangani uchun tez tuzalmaydi.

اَلِقْ *alïq* – “qush tumshug‘i” (o‘g‘uzcha).

[اَنُقْ *anuq*] اَنُقْ نَانكْ *anuq näŋ* – “bor narsa”. Maqolda (shunday keladi): **اَنُقْ اُتْرُو تُتْسَا يُوقَا سَانْمَاسْ *Anuq otru tutsa, yoqqa sanmas.*** Ma’nosi: “Mehmonga bor ovqat taqdim qilingach, ko‘rmadim demaydi”. Bu maqol uy egasi bor narsasini mehmonga taqdim qilishi zarurligiga ishorat qilib aytiladi.

ك *k* [harfi]:

اَبَكْ *ebäk* – bolalar tilida “non” yoki “nanna” demakdir.

اَتَكْ *etäk* – “etak”.

اَتُكْ *etük* – “etik”.

اُوتُكْ *ötüg* – “hikoya; ertak”; biror maqsadni shohga bildirish, hikoya qilish uchun ham shu so‘z qo‘llanadi. Asli bir narsani hikoya qilishdan olingan.

اُتُكْ *ötüg* – ich ketish va qusish kasali; **اَنكَارْ اُتُوكْ تُتّى *aŋar ötüg tuttï*** – “uni ich ketish va qusish tutdi”.

اُتُكْ *ütüg* – “dazmol”; andavaga o‘xshash temir (uskuna) bo‘lib, uni qizdiradilar va kiyimning chok hamda baxyalarini va tuklarini bostirib silliqlaydilar.

اِجُكْ *ičük* – suvsar, olmaxon va boshqa hayvonlarning terisidan qilingan po‘stin. (24a)

اُذِيكْ *üδik* – ishq va shavqning qo‘zg‘alishi, hayajonga kelishi.

(Shoir) shunday degan:

اُوذِيكْ مَينِى قُمِتّى	*Üδik meni qumïttï,*
سَقِنچْ مَنكَا يُمِتّى	*Saqïnč meŋä yumïttï.*
كُونكلُوم اَنكَارْ اَمِتّى	*Köŋlüm aŋar emitti,*
يُوزُمْ مَنِكْ سَرْغَرُورْ	*Yüzüm meniŋ sarγarur.*

Aytmoqdaki: “Suyukliga bo‘lgan ishq meni hayajonga soldi. Qayg‘u-alam menga yog‘ila boshladi. Ko‘nglim unga moyil bo‘ldi, (uning hasratida) yuz(lar) im sarg‘ayib bormoqda”.

اَرُكْ *erük* – shaftoli, o‘rik, olxo‘ri mevalarining umumiy nomi; ular biror sifati bilan bir-biridan farq qiladi:

تُولُكْ اَرُكْ *tülüg erük* – “shaftoli”;

سَارِغْ اَرُكْ *sarïγ erük* – “o‘rik”;

قرَا اَرُكْ *qara erük* – “olxo‘ri”.

[اُرُكْ *örüg*] o‘rilgan har narsaga **اُرُكْ *örüg*** deydilar; **اُرُكْ سَجْ *örüg sač*** – “o‘rilgan soch”.

اُرُكْ *örük* – bir yerda bir qancha vaqt turib qolish; **سُو اُونْ كُونْ اُرُكْ بُلْدِي *sü on kün örük boldï*** – “qo‘shin bir yerda o‘n kun turib qoldi, ya’ni qo‘zg‘almadi ham, urushmadi ham”. Bek yoki qavm (bir joyda) turib qolsa ham, shu so‘zni qo‘llaydilar.

[اِرِكْ *irig*] اِرِكْ نَانَكْ *irig näŋ* – “irigan, chirigan narsa”; **اِرِكْ اُتُونَكْ *irig otuŋ*** – “chirigan o‘tin”.

[**اَرِكْ *erig***] **اَرِكْ نَانَكْ *erig näŋ*** – yog‘ va boshqa eriydigan narsa; qotgandan so‘ng erigan har bir narsaga ham **اَرِكْ نَانَكْ *erig näŋ*** deydilar.

اِرُكْ *irük* – devor va boshqa narsalardagi yoriq. Maqolda (shugday kelgan): **كُنْدَا اِرُكْ يُقْ بَكْدَا قِيِقْ يُوقْ *Kündä irük yoq, begdä qïyïq yoq.*** – “Quyosh kulchasida teshik yo‘q bo‘lganiday, bekning va’dasida ham qaytish yo‘q”. Bu maqol beklarni o‘z va’dalariga xilof qilmaslikka undash maqsadida qo‘llanadi.

اَرُكْ / اَرِكْ *erük* / *erik* – terini oshlaydigan har bir narsa; **تَرِى اَرُكْلادِى / اَرِكْلادِى *teri erüklädi* / *erikladi*** – “terini oshladi”.

[**اَرِكْ *erig***] **اَرِيكْ يِيلْقِى *erig yïlqï*** – “yo‘rg‘a”; **اَرِكْ اَتْ *erig at*** – “yo‘rg‘a ot”. O‘g‘uzlar buni bilmaydilar.

[**اَرِكْ *erig***] **اَرِكْ اَرْ *erig er*** – “tirishqoq, g‘ayratli kishi”. Maqolda (shunday kelgan): **اَرِكْ اِيرِنِى يَاغْلِيغْ اَرْمَكُو بَاشِى قَانْلِيغْ *Erig irini yaγlïγ, ermägü bašï qanlïγ.*** – “Tirishqoqning labi yog‘li, erinchoqning boshi qonli”. Chunki tirishqoq ko‘p ishlab, yaxshi taom, go‘sht, yog‘ topadi. Shuning uchun u moy oshaydi. Erinchoq o‘zining yalqovligi bilan ishdan qochadi. Xafalikdan boshiga uradi, uni qonatadi. Bu matal yalqovlikni tashlashga, g‘ayrat bilan ishlashga undab aytiladi.

[**اِرِكْ *irig***] **اِرِكْ نَانَكْ *irig näŋ*** – “qattiq, dag‘al narsa”; (24b) yantoqning boshiga ham **اِرِكْ *irig*** deydilar.

اَزِكْ *ezik* – terida uzunasiga tirnalishdan hosil bo‘lgan chiziq.

اُزُكْ *özök* – xotinlar laqabi; “sof; oltin kabi toza; pok xotin” mazmunida **اُزُكْ اَلْتُونْ *altun özök*** deydilar. Badani inju kabi toza bo‘lgan xotinga **اُزُكْ اَرْتِنِى *ertini özök*** deydilar. Chunki **اَرْدِنِي *erdini*** degan so‘z “durri g‘alton” demakdir. Bu so‘zning *dāl* harfi *tā* harfining almashinganidir. Chigil qabilasida bu so‘z qo‘llanadi. Asli **اُوزُوك *öz-ök***, ya’ni “xuddi; o‘z-o‘zi” ma’nosidadir, **اُل اَرْنِى اُكْ كَلدُرْ *ol erni-ök keldür*** – “u kishining o‘zinigina keltir”. Tarkibida *qāf* va *yayn* harflari bo‘lgan so‘zlarda **اُك *-ök*** o‘rnida **اُق *-oq*** qo‘llanadi.

اُزُكْ *özük* – yerdan sizib chiqib hovuzga aylangan suv, sizot suv; shuningdek, vodiylardan ajrab chiqqan ariqni **اُزُكْ سُوقْ *özük suw*** deyiladi.

اُزَكْ / اُوزَاكْ *özäk* – belning ichki qismidagi tomir, payg‘ambarning مازالَت أكلة خَيبَرَ تعَاودُنى فى كلِّ عِام حتّى كَانَ هذا اَوان قطِعَه اَبهَرى hadisidagi ابهر *abhar* so‘zi ana shudir.

أُژُك ***üžük*** – “bo‘g‘in, hijo”; **بِتِكْ أُژُكْلَادِي** ***bitig üžüklädi*** – “harflarni va kitobni hijjaladi”. Hijo harflarining har biriga ham **أُژُك** ***üžük*** deydilar: **بُو نَا أُژُكْ أُلْ** ***bu ne üžük-ol?*** – “bu qanday harf?”; **ز** *zā* harfi ikki maxraj o‘rtasida talaffuz qilinadi.

[**اِسِكْ** ***isig***] **اِسِكْ يِيرْ** ***isig yer*** – “qovjirab yotgan yer”.

[**اِسِكْ** ***isig***] **اِسِكْ نَانَكْ** ***isig näŋ*** – “qizib turgan narsa”; **اِسِكْ كُونْ** ***isig kün*** – “issiq kun”.

اَشُكْ ***ešük*** – ust kiyimi.

اَشُكْ ***ešük*** – xon va beklar o‘lganda ularning hurmati uchun qabrlari ustiga yopilib, so‘ng faqirlarga bo‘lib beriladigan ipaklik mato, yirtish.

اُشِكْ ***ušik*** – mevalarni uruvchi, ularni o‘sishdan to‘xtatib qo‘yuvchi sovuq.

اَلِكْ ***elig*** – “qo‘l”; (25a) **اُونكُ اَلِكْ** ***oŋ elig*** – “o‘ng qo‘l”. O‘g‘uzlar **سَاغ اَلِكْ** ***saγ elig*** (“o‘ng qo‘l”) deydilar. Chap qo‘lni hamma turklar bir xilda **سُولْ اَلِكْ** ***sol elig*** (“so‘l qo‘l”) deydilar.

اُولُكْ ***ölüg*** – “o‘lik”.

اُولُكْ ***ülüg*** – “hissa; qismat; nasiba” (ingichka talaffuz qilinadigan *alif* [*ü*] bilan – باشمام الالف).

اِلِكْ ***ilig*** – “ilik” (o‘g‘uzcha); boshqa bir turklarda **يِلِكْ** ***yilig*** deydilar. O‘g‘uzchadagi *alif* harfi o‘rniga *yā* harfi almashgan.

اَمِكْ ***emig*** – “emchak”; erkaklar emchagi ham **اَمِكْ** ***emig*** deyiladi.

[**اَمِكْ** ***emik***] **اَمِكْ كُونْ** ***emik kün*** – “imiq kun, iliq kun”; sovuqdan keyin isigan, lekin harorati oshmagan har narsaga ham **اَمِكْ** ***emik*** deydilar.

اَنُكْ ***enük*** – “yosh arslon (arslon bolasi); yolli bo‘ri, tulki; it bolalari”.

“Kalitning tishi” ham **اَنُكْ** ***enük*** deyiladi; **كِرِتلِكْ اَنُوكِى** ***kiritlig enüki*** deyilgani kabi.

ل ***l*** [harfi]:

اَبُلْ ***Apul*** – bizning elda bir qishloq oti.

اَتِلْ ***Etil*** – قِفجَاقْ *Qïwčaq* ellarida bir daryoning oti [ya’ni, Volga]. U بُلْغَارْ *Bulγar* dengiziga quyiladi. Uning رُوسْ *Rūs* yerlariga quyiladigan bir irmog‘i ham bor.

(Shoir) shunday degan:

اَتِلْ سُقِى اَقَا تُرُورْ	***Etil suwï aqa turur,***
قَيَا تُبِى قَقَا تُرُورْ	***Qaya tübi qaqa turur,***
بَلِيقْ تَلِيمْ بَقَا تُرُورْ	***Balïq telim baqa turur,***
كُولُونكْ تَقِى كُشَارُورْ	***Kölüŋ taqï köšärür.***

Aytmoqdaki: “اَتِلْ *Etil* suvi oqayotir, qoyalar tubiga kuch bilan urilayotir. Toshgan suvlardan yuzaga kelgan ko‘lmaklarda baliqlar, baqalar ko‘payayotir”.

اَغِلْ ***aγïl*** – “og‘il; qo‘y og‘ilxonasi”; o‘g‘uzlar qo‘yning qiyini **اَغِلْ** ***aγïl*** deydilar. Bir-biriga yaqin turishi natijasida kelib chiqqan. Chunonchi, yomg‘irni ham, bulutni ham سَمَاءَ *samā’* deb aytilgani kabi.

أُغُلْ ***oγul*** – “o‘g‘il”. O‘zining o‘g‘li bo‘lmasa ham, er bolalarga **أُغُلْ** ***oγul*** deydilar; **بُو أُغُلْ نَا تِيرْ** ***bu oγul ne ter?*** – “bu bola nima deydi?”.

Qoidaga xilof ravishda **ارَنْ** ***erän*** so‘ziga o‘xshash **أُغْلَانْ** ***oγlan*** deb ham jam qiladilar. Aslida bu so‘zning ko‘plik shakli **أُغُلْ لَارْ** ***oγullar*** bo‘lishi kerak edi. Bularning har ikkisini birlik shaklida qo‘llaydilar.

أُكِلْ ***ökil*** – “ko‘p” (qipchoqcha); **أُكِلْ كِشِى** ***ökil kiši*** – “ko‘p kishi”.

اَمُلْ ***amul*** – har bir tinch va barqaror, turg‘un, qimirlamaydigan narsaga **اَمُلْ** ***amul*** deyiladi. Shunga ko‘ra, yumshoq fe’lli yuvosh kishilarni ham **اَمُلْ** ***amul*** deyiladi. (Shoir) shunday degan: (25b)

قَنْجَا بَرْدِنكْ اَىْ أُغُلْ	***Qanča bardïŋ ey oγul?***
اَرْدِينكْ مُنْدَا اِنْجْ اَمُلْ	***Erdiŋ munda inč amul,***
اَتّنْ اَمْدِي سَنْ تُونكُولْ	***Attïn emdi sen töŋül,***
قِيلْدِينكْ اَرْسَا قِيلْمَاغُو	***Qïldïŋ ersä qïlmaγu.***

(Xo‘jayin) ilgari yonida yashab, so‘ng otini tashlab ketib, keyin yana so‘rab kelgan yigitga otni bermaslik niyatida aytadiki: “Mening yonimda salomat va tinch eding, ahvoling yaxshi, shod va mamnun eding, nega mendan yuz o‘girding? Otdan endi umidingni uz”.

م ***m*** [harfi]:

[**اُبْمْ** ***öpüm***] **بِيرْ اُبْمْ مُونْ** ***bir öpüm mün*** – “bir qultum sho‘rva”.

[**اَتِمْ** ***atïm***] **اَتِمْ اَرْ** ***atïm er*** – “o‘q otishga usta odam, mergan”.

[**اُرُمْ** ***orum***] **بِيرْ اُرُمْ اُتْ** ***bir orum ot*** – “bir o‘rim o‘t; bir tutam o‘t”.

اُزُمْ ***üzüm*** – “uzum”.

[***aγïm***] **بِيرْ اَغِمْ بِيرْ** ***bir aγïm yer*** – yuqoriga bir xatlab chiqish mumkin bo‘lgan yer.

[**اَقِمْ** ***aqïm***] **بِيرْ اَقِمْ سُوقْ** ***bir aqïm suw*** – “bir oqishli suv”.

[**اَكِمْ** ***ekim***] **بِيرْ اَكِمْ بِيرْ** ***bir ekim yer*** – “bir ekishli joy, bir ekishda ekiladigan joy”.

[**اُكُمْ** ***ügüm***] **يَرْمَاقْ بِيرْ اُكُمْ** ***bir ügüm yarmaq*** – “bir to‘da tanga”. So‘z oxiridagi *mīm* harfi *nūn* o‘rniga almashgan.

اَلِمْ ***alïm*** – (qarzdor) kishidan olinadigan narsa; qarz. Maqolda (shunday kelgan): **اَلِيمْجِى بِيرمْجِى سِجْغَانْ اَرْسْلَانْ** ***Alïmčï – arslan, berimči – sïčγan.*** Ma’nosi: “Qarz beruvchi – arslon, qarz oluvchi – sichqon” [Qarz beruvchi (puldor) hujum qilishda go‘yo arslon, qarzdor esa qo‘rquv, vahima bosganidan sichqon kabidir].

اُلُمْ ***ölüm*** – “o‘lim”.

ن ***n*** [harfi]:

اَتَنْ ***atan*** – axta qilingan tuya. Maqolda (shunday kelgan): **اَتَنْ يُوكِى اَشْ بُلْسَا اَجْقَا اَزْ كُرْنُورْ** ***Atan yüki aš bolsa, ačqa az körnür.*** Ma’nosi: “Atan [axta qilingan tuya] ning yuki oziq-ovqat bo‘lsa ham, och kishiga oz ko‘rinadi”.

اُجُنْ ***üčün*** – sababni bildiruvchi so‘z – “uchun”; **سَنِك اُجُنْ كَلْدِمْ** ***seniŋ üčün keldim*** – “sening uchun keldim”.

اِچِنْ *ičin* – “o‘zaro, o‘z ishlarida, o‘z oralarida” degan tushunchani ifodalovchi so‘z; **اُلَارْ اِچِنْ اِيتِشْدِى لَارْ *olar ičin etišdilär*** – “ular o‘zaro kelishdilar, bitishdilar”.

اُدُنْ *Udun* – خُتَنْ *Xotan* shahrining oti; خُتَنْ *Xotan* da turuvchilarga ham (26a) **اُدُنْ *udun*** deydilar.

اَدِنْ *aδïn* – “boshqa, bo‘lak, ayrim” (chigilcha).

[**اَرَنْ *erän***] **اَرَنْ تُوزْ *Eräntüz*** – yulduzlardan مِيزَان *Mīzān* nomi; bu oy manzillaridan biri.

اَرَنْ *erän* – “erlar, erkaklar”. Ba’zan ko‘plik shaklida shunday qo‘llanadi.

اَرَنْ *aran* – yo‘g‘on talaffuz qilinadigan *alif* [*a*] bilan (باشباع الالف); “otxona”.

اُرَنْ *örän* – har narsaning yomoni, buzilgani, vayron bo‘lgani (o‘g‘uzcha). Bu so‘zni men forschadan olingan deb gumon qilaman. Chunki xarob bo‘lgan narsaga forschada **وَيرَانْ *vayrān*** deydilar. O‘g‘uzlar forslar bilan juda aralashib ketganlari uchun bir qancha turkcha so‘zlarni unutib, ularning o‘rniga forscha so‘zlarni qo‘llaydilar. Bu ham shundaydir.

اِرِنْ *irin* – “lab”.

اُزُنْ *uzun* – “uzun”.

اَژُنْ *ažun* – “dunyo” (ikki maxraj orasidagi ژ *žā* bilan); **بُو اَژُنْ *bu ažun*** – “bu dunyo”; **اُلْ اَژُنْ *ol ažun*** – “u dunyo, oxirat” (chigilcha).

اَسَنْ *esän* – “eson, sog‘”; **اَسَنْ مُوسَنْ *esänmü-sen?*** – “Esonmisan? Sog‘misan? Salomatmisan?”. Ushbu maqolda ham kelgan: **اَسَنْدَا اِيفَكْ يُوقْ *Esändä ewäk yoq.*** Ma’nosi: “Sog‘liqda shoshilish yo‘q”. Bu ibora ishlaganda shoshilmaslik, hovliqmaslik kerakligini bildirish uchun qo‘llanadi.

اَسِنْ *esin* – “shamol, shabada” (“esadigan” degan ma’noda).

اُشُنْ *öšün* – kiftning bosh qismi, tepasi.

[**اَغَنْ *ayan***] **اَغَنْ اَرْ *ayan er*** – “dimog‘i bilan so‘zlovchi, manqa kishi”. Bu so‘z talaffuzda ham, ma’noda ham arabchaga mos keladi.

اُغَنْ *uγan* – har narsaga qodir; kuchli; qudratli; **اُغَنْ تَنكْرِي *uγan Täŋri*** – “qudratli Xudo”.

اَوِنْ *ewin* – “dona; urug‘”.

اَقِنْ *aqïn* – “sel”; “to‘satdan kelgan sel”ga **مُنْدُزْ اَقِنْ *munduz aqïn*** deydilar. To‘satdan, kechasi sel kabi kelgan askarlarga **اَقِنْچِى كَلْدِى *aqïnčï keldi*** deydilar, ya’ni “askarlar selday keldi” demakdir.

اَكِنْ *egin* – “egin; yelka; kift”.

اَكِنْ *ekin* – “ekin; ekin ekiladigan yer” (o‘g‘uzcha).

اَكِنْ *ekin* – eni bir yarim qarich, bo‘yi to‘rt gazli bo‘z; bu bilan suvor qabilasi savdo-sotiq qiladi.

اُكُنْ *ügün* – pul (tanga, chaqa), gul va boshqa narsalar to‘dasi, uyumi. (26b) “Bir yerga to‘plangan tuproq uyumi”ga **اُكُنْ تُبْرَاقْ *ügün tupraq*** deyiladi.

اَلِنْ *alïn* – “peshona, manglay”.

اَلِنْ *alïn* – tog‘ning yumaloq va baland tomoni.

اُلُنْ *ulun* – o‘q uchlarining sinishi. Uchsiz o‘q.

Bir harfi takrorlangan (*muḍā'af*) so‘zlar

ب ***p*** [harfi]:

اُبْبْ ***üpüp*** – “popishak qush”; buni اُبْكُكْ ***üpkük*** tarzida ham talaffuz qiladilar.

ك ***k*** [harfi]:

[اَكَكْ ***ekäk***] اِشْلَارْ اَكَكْ ***ekäk ešlär*** – “fohisha xotinlar”.

اُكَكْ ***ükäk*** – “sandiq va tobut”.

اُكَكْ ***ökäk*** – shaharning qal’a devorida urush uchun tayyorlangan burjlar.

ل ***l*** [harfi]:

اِلَلْ ***iläl*** – “ha, albatta”; xoqoniylar lahjasida (لغه الخاقانية) xoqon va beklarga javob uchun qo‘llanuvchi so‘z.

Miṣāl[1] bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

اَاتْ ***a:t*** – “ot, ism”.

اَاتْ ***a:t*** – “laqab; unvon”; بَكْ اَنَكَارْ اَاتْ بِيرْدِى ***beg aŋar a:t berdi*** – “bek unga unvon berdi”. Qabilaning ulug‘i yoki boshlig‘ini ham اَتلِغْ ***atlïγ*** deyish shundandir.

ج ***č*** [harfi]:

اَاجْ ***a:č*** – “och”. Maqolda (shunday kelgan): اَاجْ نَا يِيمَاسْ تُقْ نَا تِيمَسْ ***A:č ne yemäs, toq ne temäs.*** Ma’nosi: “Och nimalar yemaydi, to‘q nimalar demaydi”.

ذ ***δ*** [harfi]:

اَاذْ ***e:δ*** – ipak kiyimli va boshqalarga o‘xshash har bir to‘qima va yasama narsa; ba’zan qisqargan holda اَذْ ***eδ*** ham deydilar. To‘g‘risi ham shu. “Yaxshi ishlangan narsa”ni اَذْگُو اَذْ ***eδgü eδ*** deyiladi.

اَاذْ ***e:δ*** – “yaxshi fol; natijasi yaxshi so‘z; yaxshi niyat”; اِكْلِكْ تُتْزُغِى اَاذْ بُلُورْ ***İglig tutzuγï e:δ bolur*** deyiladi**.** Ma’nosi shunday: “Kasalning vasiyat qilishi uning uchun yaxshiliq keltiradi”. Bu maqolni kasalning vasiyat qilishiga ishorat qilib, uning oldida aytiladi.

ر ***r*** [harfi]:

[اَارْ ***a:r***] اَارْ بُرِى ***a:r böri*** – “yoldor bo‘ri, sirtlon”. (Shoir) shunday degan:

كُرُبْ نَجُكْ قَجْمَدِنكْ ***Körüp nečüg qačmadïŋ?***
يَمَرْ سُقِنْ كَجْمَدِنكْ ***Yamar suwïn kečmädiŋ?***
تَقَارِنكْنِى سَجْمَدِنكْ ***Tawarïŋnï sačmadïŋ?***
يِيسو سَنِى اَارْ بُرِى ***Yesü seni a:r böri.***

Yengib asir olingan kishiga qarab aytmoqda: “Nega meni ko‘rib qochmading, nega يَمَرْ *Yamar* suvini kechmading, nega boshingni qutqarish uchun mollaringni tashlab keta qolmading? Endi seni sirtlonlar yesin”.

[1] *Alif, vāv, yā* harflari bilan boshlangan so‘zlar bo‘limi.

[اَارْ *a:r*] اَارْ نَانَكْ ***a:r näŋ*** – “qo‘ng‘ir rang”. Goho u so‘zga kichik bir qo‘shimcha qo‘shib اَرْسِكْ ***ersig*** tarzida ham talaffuz qilinadi. (27a)

ز *z* [harfi]:

[اَازْ *a:z*] اَازْ نَانَكْ ***a:z näŋ*** – “oz narsa”.

اَازْ ***a:z*** – oq suvsar po‘stin. Bu so‘zni *sīn* bilan اَاسْ ***a:s*** tarzida talaffuz qilinishi ham bor. Bu yaxshiroqdir.

اِازْ ***iz*** – yerda va terida uzunasiga bo‘lgan qirilish, sidirilish izi.

[اُزْ *öz*] قِزِلْ اُزْ ***Qïzïl öz*** – كَاشْغَرْ *Kāšyar* tog‘larining biridagi qishloq.

س *s* [harfi]:

اَاسْ ***a:s*** – oq suvsar po‘stin. Bu so‘zning ز *zā* li varianti ham bor. Bu so‘z cho‘rilarga ham qo‘llanadi.

ش *š* [harfi]:

اَاشْ ***a:š*** – “ovqat; osh, taom”. “Tomizg‘i”ga ham اَشْ ***aš*** deydilar. اَيَقْ اَشْلَا ***ayaq ašla*** – “idishga tomizg‘i sol”.

غ *γ* [harfi]:

اَاغْ ***a:γ*** – ikki son orasidagi bo‘shliq, “chov, chot”; يُوزْ اَتْ مَنِک اَغْدِنْ كَجْتِی ***yüz at meniŋ aγdïn kečti*** – “mening oyog‘im ostidan yuz ot o‘tdi”. Bu so‘z barmoqlar orasidagi bo‘shliqqa ham qo‘llanadi.

ڤ *w* [harfi]:

اَاڤْ ***a:w*** – “ov”; بَکْ اَڤْقَا جِڤْتِی ***beg awqa čïqtï*** – “bek ovga chiqdi”.

اُڤْ ***üw*** – “uy”; ingichka *alif* (ya’ni [*ü*]) bilan (باشمام الالف) talaffuz qilish yaxshi.

ق *q* [harfi]:

اَاقْ ***a:q*** – “oq; har narsaning oqi” (o‘g‘uzcha). Turkiy qabilalar “chipor ot”ga اَاقْ اَتْ ***a:q at*** deydilar.

[اَاقْ *a:q*] اَاقْ سَقَالْ اَرْ ***a:q saqal er*** – “oq soqol, soch-soqoli oqargan kishi” (o‘g‘uzcha).

اَاقْ سَايْ ***A:qsay*** – bir joyning oti.

اَاقْ تَرَاکْ ***A:qteräk*** – يَغْمَا *Yaγma* shahrida اِلَا *Ïla* suvi ustidagi bir ko‘prik.

ل *l* [harfi]:

اَالْ ***a:l*** – to‘q sariq rangdagi ipak kiyimlik; undan xon bayroqlari va amaldorlarning otlariga yopiladigan yopiq qilinadi. Shuning kabi to‘q sariq rangga ham الْ ***a:l*** deydilar.

اَالْ ***a:l*** – “hiyla; firib; makr”. Maqolda bu shunday qo‘llangan: اَالِينْ اَرْسْلَانْ تُتَارْكُوجُنْ اُيُقْ تُتْمَاسْ ***A:lïn arslan tutar, küčün uyuq tutmas.*** Ma’nosi: “Hiyla bilan arslon tutilar, kuch bilan uyuq tutilmas. Kuch bilan polizlarda o‘tqazib qo‘yilgan qo‘g‘irchoq-qo‘riqchini ham tutib bo‘lmaydi”. Bu maqol “kuch bilan ishni bitira olmaganlarga alohida tadbir qo‘llash kerak” degan ma’noda qo‘llanadi.

لَا *lā* [harfi]:

اَلَا ***ala*** – pes, ola tanli kishi.

[اَلَا *ala*] “olacha rangli ot”ga اَلَا اَتْ ***ala at*** deydilar.

[اَلا *ala*] بَکْ خَانْقَا اَلا بُلْدِي ***beg xanqa ala boldï*** – “bek xonga qarshi chiqdi; xonning dushmani bo‘ldi; xonning dushmani bilan topishdi”. (27b)

اَلا ***Ala*** – فَرْغَانَه *Farγāna* yaqinidagi bir yaylov.

اَلا يِغَاجْ ***Alayïγač*** – chegaraga yaqin bir joyning oti.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

اَايْ ***a:y*** – “oy”; o‘n to‘rt kunli oyga تُولُنْ اَايْ ***tolun ay*** (“to‘lin oy”) deyiladi.

اَايْ ***a:y*** – “oy”; (30 kundan iborat bo‘lgan vaqt, muddat). (Shoir) shunday degan:

قِشْقَا اِتِنْ کَلْسَا قَلِی قُتْلُغْ يَاىْ ***Qïšqa etin kelsä qalï qutluγ yay,***
تُنْ کُنْ کَجَا اَلْقِنُورْ اُدْلَکْ بِلَا اَايْ ***Tün, kün, kečä alqïnur öδläk bilä a:y.***

Aytmoqdaki: “Yoz barakali, qutli kelsa, qishga tayyorlan, chunki kecha va kunduzning o‘tishi bilan oy va zamon (ham) o‘tib ketadi (yoz ketib, qish keladi)”.

O‘ttiz kunlik oy muddatini ham اَىْ ***ay*** deb atashga sabab shuki, uni oyning o‘tishi اَىْ ***ay*** bilan bilinadi. Maqolda (shunday keladi): اَايْ تُلُونْ بُلْسَا اَلِکِنْ اِمْلَامَاسْ ***A:y tolun bolsa, eligin imlämäs.*** Ya’ni: “To‘lin oyni qo‘l bilan ko‘rsatilmaydi. Chunki u har kimga aniq ko‘rina beradi”, deganda اَىْ ***ay*** ana shu ma’noda qo‘llangan. Bu maqol har bir aniq va mashhur narsaga qo‘llanadi.

Manqūṣ[1] bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

اَوُتْ ***avut*** – “hovuch”; اَدُتْ ***aδut*** tarzida ham talaffuz qilinadi.

اُوُتْ ***uvut*** – “uyat”; bu so‘zni اُفُتْ ***uwut*** ham deydilar.

اَوَتْ ***evät*** – “to‘g‘ri, ma’qul”; اَفَتْ ***ewät*** ham deyiladi. Bu yerdagi ikki maxraj orasida talaffuz qilinadigan ڤ *wa* harfi har qanday o‘rinda *vāv* bilan o‘rin almashishi mumkin: “payg‘ambar” ma’nosidagi يَلَاوَجْ ***yalavač*** yoki يَلَافَجْ ***yalawač*** kabi; tursus mevasini يَوا ***yava*** deyilganiday يَڤا ***yawa*** ham deyiladi. سَيْرَمْ *Sayram* (اِسْبِجَابْ *İspijāb*) liklarda “daraxt” ma’nosidagi اوُنْ ***a:vun*** so‘zi ham shundaydir (ya’ni *vāv* va ڤ *w* bilan talaffuz qilinadi). “Dona” ma’nosidagi اَڤِنْ ***ewin*** so‘zi ham shunday ikki xil talaffuz qilinadi.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

اُيَزْ ***üyäz*** – mayda chivin (o‘g‘uzcha).

غ ***γ*** [harfi]:

[1] Tarkibida *alif, vāv, yā* harflaridan biri bo‘lgan so‘zlar.

اَيِغْ ***ayïγ*** – “ayig‘”; o‘g‘uz, qipchoq, yag‘mo tillarida **اَدِغْ** ***aδïγ*** tarzida qo‘llanadi.

اَيِغْ ***ayïγ*** – “qanday yaxshi, qanday yomon” ma’nolarida qo‘llanuvchi so‘z. Bu so‘z “yomon”, “yaxshi” so‘zlarini ta’kidlash uchun qo‘llanadi: **اَيِغْ اَدْكُو** ***ayïγ eδgü*** – “qanday yaxshi”; **اَيِغْ يَقُزْ نَانىكْ** ***ayïγ yawuz näŋ*** – “qanday yomon narsa”.

ق ***q*** [harfi]:

اَيَقْ ***ayaq*** – “idish; kosa; piyola”; o‘g‘uzlar buni bilmaydilar. Ular **اَيَقْ** ***ayaq*** o‘rnida **جَنَقْ** ***čanaq*** deydilar.

اَيَقْ ***ayaq*** – “oyoq”; **اَدَقْ** ***aδaq*** tarzida ham talaffuz qiladilar.

اَيِقْ ***ayïq*** – “va’da”; (28a) **اَنِكْ مَنْكَا اَيِقِى بَارْ** ***anïŋ meŋä ayïqï bar*** – “uning menga va’dasi bor”.

اُيُقْ ***oyuq*** – “xayol; sharpa (soya; qora); belgi toshi” (o‘g‘uzcha). (Shoir) shunday degan:

بَرْدِي اَرَنْ قُنُقْ كُرُبْ قُتْقَا سَقَارْ ***Bardï erän qonuq körüp, qutqa saqar,***
قَلْدِى يَقُزْ اُيُقْ كُرُبْ اَفْنِى يِقَارْ ***Qaldï yawuz oyuq körüp, ewni yïqar.***

Aytmoqdaki: “Mehmonni davlat va barakatdan sanaydiganlar o‘lib ketdi, sahrolarda ko‘ringan qoralarni va manzillarni belgilash uchun qo‘yilgan toshlarni ko‘rib, odam deb o‘ylab, u kelib qo‘nib qolmasin, deb chodirini buzuvchilargina qoldi”.

ك ***k*** [harfi]:

اُيُكْ ***üyüg*** – tepaga o‘xshash balandlik, qir-tepaliklar (o‘g‘uzcha).

[اُيُكْ ***öyüg]*** **اُيُكْ يِيرْ** ***öyüg yer*** – suv va boshqa narsalar ko‘pligidan oyoq bosganda botib, uni sug‘urib olish qiyin bo‘lgan qumlik joy.

اِيكْ ***ig*** – ip yigiradigan dug; **يِيك** ***yig*** ham deyiladi.

ن ***n*** [harfi]:

اُيُنْ ***oyun*** – “o‘yin”.

Oxiri *alif* ([*a*], [ä]) bilan tugagan so‘zlar bo‘limi

ى ***y*** [harfi]:

اَيَا ***aya*** – “kaft; qo‘l kafti”.

اُيَا ***uya*** – “qush uyasi, ini”.

اُيَا ***uya*** – “birodar, yaqin”. (Shoir) shunday degan:

تَقُرْ اُجُنْ تَنْكْرِى اَدْلَمَذِبْ ***Tawar üčün täŋri eδlämäδip,***
اُيَا قَدَشْ اُغْلِنِى جِنْلَا بُغَارْ ***Uya, qadaš, oγlïnï čïnla boγar.***

Birodarlar orasidagi shafqatsizlik to‘g‘risida shunday demoqda: “Mol-mulkni deb, Tangridan qo‘rqmay, yaqin birodarining o‘g‘lini ham ayamay bo‘g‘adi”.

To‘rt harflilar[1]

ب *b* [harfi]:

اَبَا *ebä* – “ona” (o‘g‘uzcha). Qarluq turkmanlari (تركمان القرلقيه) jarangsiz **ب** *pā* (ببا صلبة) bilan **اَپَا *epä*** deydilar.

اَبَا *apa* – yo‘g‘on *alif* (ya’ni [*a*]) bilan (باشباع الالف); “ayiq” (qipchoqcha).

ابا *aba* – “ota” (tuputlar tilida – بلغة تبت). Bu arab tilining izi bo‘lsa kerak. Chunki tuputlar يَمَنْ *Yaman* dan qochib, turklar shahriga kelib, bola-chaqa qilib qolgan bir kishidan tarqaganlar. Ular بَنُو ثابِتْ *Banū Sābit* ning avlodlaridir.

اَبَا بَشِى *aba bašï* – tog‘larda bodring shaklida o‘suvchi bir o‘t; uning poyasi tikanli bo‘ladi. Tog‘liklar uni yeydilar.

اَبِى *Abï* – erkaklar oti.

اُبَا *oba* – “qabila” (o‘g‘uzcha).

اُبُو *obu* – “upa”.

ت *t* [harfi]:

اَتَا *ata* – “ota”. (28b)

اَتَاسَاغُونْ *atasaɣun* [اَتَا *ata*] – “tabib”.

ج *č* [harfi]:

اَجَا *ečä* – “acha”, ya’ni “egachi” ma’nosida. Bu so‘z **اَگَا *egä*** ham deyiladi. Bu yerdagi ج *čīm* harfi *kāf* dan o‘zgargan: **جُرْمْ** va **جُنْبُذْ كَرْمْ** va **كُنْبَذْ** so‘zlaridagi kabi.

اَچِى *ačï* – “keksa xotin”; barsg‘anliklar tilida.

اُچَا *uča* – “orqa”.

اِچِى *ičï* – “yoshi katta birodar, aka”.

ذ *δ* [harfi]:

اُذُو *öδü* – “uyum, tepa”; **قَمْ اُذُو *qum öδü*** – “qum uyumi, tepa”. Arg‘ular shahrini **اُذُو كَنْذ *Öδükend*** deyish ham shundan.

اُذُو *uδu* – “orqa, ket”. **مَنْ اَنِنكْ اُذُو كَلْدِمْ *men anïŋ uδu keldim*** – “men uning orqasidan keldim”; **مَنْ سَنِكْ اُذُو بَرْدِمْ *men seniŋ uδu bardïm*** – “men sening ketingdan bordim, orqangdan bordim”.

اِذِى *eδi* – “xo‘jayin, ega”. **اِذِمْ نَا تِيرْ *eδim ne ter?*** – “egam (xo‘jayinim) nima deydi?”

اِذِى *eδi* – “Xudo”. **اِذِمِزْ يَرْلِغِى *eδimiz yarlïɣï*** – “egamiz buyrug‘i”.

ر *r* [harfi]:

اَرَا *ara* – narsaning o‘rtasi, orasi. **كِشِى اَرَا كِرْدِمْ *kiši ara kirdim*** – “kishilar, xalq orasiga kirdim”.

اَرِى *arï* – “ari; asalari”. Bu so‘zda arabchaga o‘xshashlik, moslik bor. Chunki arabcha **اَرِى *arï*** – “asal” demakdir; turkchadagi “asal” – aridan chiqadigan hosil. Chigil turklari “asal”ni **اَرِي يَغِى *arï yaɣï*** (“ari yog‘i”) deydilar.

---

[1] Bu yerda harflari uchta bo‘lsa ham, lekin oxirgi tovushi cho‘zib, to‘liq aytiladigan, ya’ni o‘sha unlisi ikki tovushga teng bo‘lgan so‘zlar ko‘zda tutilmoqda.

اُورُو ***oru*** – “o‘ra”. Bug‘doy, sholg‘om va boshqa narsalarni saqlash uchun qazilgan chuqur.

اُرِی ***orï*** – “tovush; baqiriq; faryod”. Maqolda (shunday kelgan): **اُرِی قُبْسَا اُغْشْ اَقْلِشُوْرْ يَغِی كَلْسَا اِمْرَمْ تَبْرَشُوْرْ** ***Orï qopsa, oγuš aqlïšur, yayï kelsä, imräm tebräšür.*** Ma’nosi: “Faryod ko‘tarilsa, urug‘lar to‘planadilar, dushman kelsa, hamma yig‘iladi”. Ya’ni, faryod chiqsa, unga yordam berish uchun urug‘lar to‘planadilar; yov kelsa, hamma uni o‘ldirish uchun otlanadi. Bu maqol ishlarda uyg‘oqlik va mehribonlik, birdamlikka undab aytiladi.

اُرِي ***urï*** – “o‘g‘il bola”. **اُرِي اُغْلَانْ** ***urï oγlan*** – “o‘g‘il bolalar”.

ز ***z*** [harfi]:

اَزُو ***azu*** – ikki narsa orasida ikkovidan birini ajratib, tanlab olishda ixtiyor va maylni bildiruvchi so‘z.

اُزُومْ يِيگِلْ اَزُو قَاغُونْ يِيگِلْ ***üzüm yegil azu qaγun yegil*** (29a) – “uzum yegin yoki qovun yegin”. Ko‘pincha, bu so‘z so‘rab bilish zarur bo‘lgan o‘rinlarda qo‘llanadi: **كَلِرْمُوسَنْ اَزُو بَرِيرْمُوسَنْ** ***kelirmü-sen azu barïrmu-sen?*** – “kelasanmi yoki ketasanmi?”

اُزَا ***oza*** – o‘tgan asrlar. **اُزَاقِی بِلْگَا اَنْجَا اَيْمِيشْ** ***ozaqï bilgä anča aymïš*** – “o‘tgan donolar shunday deganlar”. (Shoir) shunday degan:

اَرْدِی اُزَا اَرَنْ لَارْ	***Erdi oza eränlär,***
اَرْدَمْ بَگِی بِلِگْ تُاغْ	***Erdäm begi bilig tayγ.***
اَيْدِی اُكُشْ اُكْتْ لَارْ	***Aydï öküš ögütlär,***
كُنْكُلُمْ بُلُرْ اَنكَرْ سَاغْ	***Köŋlüm bolur aŋar sayγ.***

Aytmoqdaki: “Ilgarilar ilm cho‘qqisini egallagan, fazilatli kishilar bor edi. Ular ko‘p-ko‘p o‘gitlar aytar edilar, ularni eslab ko‘nglim taskin topadi”.

اُزِی ***özi*** – ikki tog‘ orasidagi keng yo‘l (chigilcha).

اِزِی ***izi*** – kelgusi yildan keyingi yil, kelajak yil. **اَرْقِنْ اِزِی** ***arqïn izi*** – “kelar yil”.

ش ***š*** [harfi]:

اَشُو ***ašu*** – qizil tuproq; qizil kesak.

غ ***γ*** [harfi]:

اَغُو ***ayu*** – “zahar, og‘u”.

اَغِی ***ayï*** – ipak kiyimlik. Uni saqlagan xazinachiga **اَغِيچِی** ***ayïčï*** deyiladi.

ۋ ***w*** [harfi]:

اَۋَا ***awa*** – alamlanishni bildiruvchi so‘z. Kishi biror narsadan xafa bo‘lsa va achinsa, **اَۋَا اَۋَا** ***awa-awa*** deydi [“Afsus”, “attang”, “esizgina” demakdir].

اُۋَا ***uwa*** – bir taom oti. Guruchni qaynatib, so‘ng sovuq suvga solinadi, keyin suvi to‘kilib, shakar solinadi, sovuqliq uchun yeyiladi.

اِۋَا ***ïwa*** – o‘g‘uzlardagi bir urug‘.

ق ***q*** [harfi]:

اَقِی ***aqï*** – “saxiy, qo‘li ochiq”.

اَقِی ***aqï*** – “toza narsa”. **اَقِی یَغَاق** ***aqï yaγaq*** – “po‘sti tozalangan yong‘oq”.

ک ***g*** [harfi]:

اَکَا ***egä*** – “egachi, opa”. O‘g‘uzlar **اَزَا** ***ezä*** deydilar.

اُکَا ***ögä*** – tajribali, aqlli, ko‘p yashagan odam. Suqa[1] lardan bo‘lib, tigindan bir darajada quyi mansab. Buning asosi bor. Bu shundayki, ذوالْقَرنَيْنْ *δū-l-qarnayn* صينْ *Ṣīn* ga kelib yetganda turklar xoni urushish uchun yosh yigitlardan iborat bir guruh askarni yo‘lladi. Vazir shohga aytdi: (29b) “Siz butunlay yoshlarni chiqardingiz, aslida katta yoshli, urush ishlarida tajribasi bor odamlarni yuborish kerak edi”, – deganda **اُوکَا** ***ögä*** so‘zini “tajribali; katta yoshli” ma’nosida qo‘lladi. Shunda shoh to‘g‘ri deydi va katta yoshli kishilarni yo‘llaydi. Ular kechasi ذوالْقَرْنَينْ *δū-l-qarnayn* ning oldingi askarlariga hujum qildilar va yengdilar. Turk askarlaridan biri ذوالْقَرْنَينْ *δū-l-qarnayn* askaridan birini qilich bilan urib kindigigacha ikkiga ajratib yubordi. O‘lgan askarning belbog‘ida oltin hamyon bor edi. Hamyonga qilich tegib kesildi. Undan qonga bo‘yalgan oltinlar yerga sochildi. Ertasi ertalab turk askarlari qonga bo‘yalgan oltinlarni ko‘rib, bir-birlariga “bu nima?” deyishar va **اَلْتُنْ قَانْ** ***altun qan*** (“qonli oltin”) deb aytishar edi. Bu joydagi katta tog‘ shu ism bilan ataldi. Uyg‘urlar yaqinidagi bu tog‘ atrofida ko‘pgina sahroyi turklar yashar edilar. Shundan so‘ng ذوالقَرنَين *δū-l-qarnayn* turk shohi bilan sulh tuzdi.

ل ***l*** [harfi]:

اَلَا ***ala*** – “ola; oq; tanasida oqi bor odam”. Maqolda (shunday kelgan): **کِشِی اَلاسِی اِچتِنْ یِلْقِی اَلاسِی تَشْتِینْ** ***Kiši alasï ičtin, yïlqï alasï taštïn.*** Ma’nosi: “Kishining olasi (buzuq fikri) ichida; yilqiniki tashida, sirtida”. Bu maqol ko‘nglidagi xiyonatni yashirib, yoqimli muomala qiluvchilarga nisbatan qo‘lanadi.

اَلَا ***elä*** – “sekin; shoshilmay”; **اَلَا اَلَا** ***elä-elä*** deydilar, “sekin-sekin, asta-asta” demak. Bu so‘zga *kāf, lām* qo‘shib **اَلَا کِلْ** ***elägil*** ham deyiladi.

اُلَا ***ula*** – cho‘l va sahrolarda yo‘l ko‘rsatish uchun qo‘yiladigan tosh**.** Maqolda (shunday kelgan): **اُلَا بُلْسَا یُولْ اَزْمَاسْ بِلِکْ بُلْسَا سُوزْ یَزْمَاسْ** ***Ula bolsa yol azmas, bilig bolsa, söz yazmas.*** Ma’nosi: “Belgi bo‘lsa, odam yo‘ldan adashmaydi, aqli bo‘lsa, kishi so‘zda yanglishmaydi” maqolida bu so‘z shu ma’noda qo‘llangan.

اِلَا ***Ïla*** – bir daryo oti. U turk shaharlarining جَيْحُونْ *Jayḥūn* idir. Uning ikki qirg‘og‘ida ikki turk qavmi: yag‘mo, tuxsi va ba’zi chigillar yashaydilar. (30a)

[**اِلِی** ***ili***] **اِلِی قَبُغْ** ***ili qapuγ*** – ilgaklangan eshik; ilgagi ilingan eshik, kalitsiz ochilishi mumkin bo‘lgan eshik.

م ***m*** [harfi]:

اُمَا ***ümä*** – “ona” (tuputlar tilida); (bu so‘z) arablardan o‘tgan bo‘lsa kerak.

اُمَا ***ümä*** – “uyga kelgan qo‘noq, mehmon”. Maqolda (shunday kegan): **اُمَا کَلْسَا قُتْ کَلِیرْ** ***Ümä kelsä, qut kelir.*** Ma’nosi: “Mehmon kelsa, qut kelar”. Ya’ni, “Senga mehmon kelsa, u bilan birga baraka, qut, baxt keladi”. Qo‘noqni yaxshi qarshi oladilar, malol olmaydilar. (Shoir) shunday degan:

[1] *Suqa* – oddiy xalq.

كَلْسَا قَلِى يَرْلِغْ بُلُبْ يُنْجِغْ اُمَا — *Kelsä qalï yarlïγ bolup yunčïγ ümä,*
كَلْدُرْ اَنُقْ بُلْمِيشْ اَشِغْ تُتمَا اُمَا — *Keldür anuq bolmïš ašïγ tutma uma.*

Aytmoqdaki: “Agar (Xudoning) yorlig‘i bo‘lib, bechora, g‘arib mehmon kelgudek bo‘lsa, o‘zingda bo‘lgan narsalarni tezlik bilan unga keltirib qo‘y, unga yordam berishni kechiktirma”.

ن ***n*** [harfi]:

اَنَا ***ana*** – “ona”.

اِنِى ***ini*** – “ini, kichik birodar, uka”.

γunna li tovushlar bo‘lgan so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

اَنكَتْ ***aŋït*** – “flamingo”; g‘ozga o‘xshash pushti rangli bir qush.

اَنكُتْ ***aŋut*** – sharob quyadigan voronka. Maqolda (shunday kelgan): يُرْتْ كِچِكْ بُلْسَا اَنكُتْ بُدُكْ اُورْ ***Yurt kičig bolsa, aŋut bedüg ür.*** Ma’nosi: “Idishning teshigi kichik bo‘lsa, katta voronka qo‘y”. Bu maqol kichik ishni katta qilib ko‘rsatadigan kishiga nisbatan qo‘llanadi.

ر ***r*** [harfi]:

اَنكَرْ ***aŋar*** – “unga” demakdir; اَنكَرْ اَيْدِمْ ***aŋar aydïm*** – “unga aytdim”. (Shoir) shunday degan:

اَيْدِمْ انْكَرْ سَاقُكْ / سَاقِكْ — *Aydïm aŋar sewüg / sewig,*
بِزْنِي تَبَا نَا اَلْكْ — *Bizni tapa ne elüg,*
كَجْتِنْكْ بَلزَي كَارِكْ — *Kečtiŋ balzay kerig,*
قِرْلَارْ اَدْزْ بَادْكْ — *Qïrlar eδiz beδüg.*

Seviklisi bilan uchrashgani haqida aytmoqdaki: “Unga dedim: Ey seviklim, bizning tomonga qanday o‘tding? Uzun cho‘llar, baland qirlardan qanday kechding?”.

اُنكُرْ ***öŋür*** – “o‘ngur; g‘or”.

اِنكِرْ ***iŋir*** – yorug‘lik bilan qorong‘ulikning bir-biriga aralashishi, qo‘shilishi; o‘g‘uzlar buni اِمِرْ ***imir*** – deydilar.

ز ***z*** [harfi]:

اَنكِزْ ***aŋïz*** – “angiz”; bug‘doy va boshqa donlar o‘rilib olingach, yerda (sochilib-to‘kilib) qolganlari.

س ***s*** [harfi]:

[اِنكَسْ ***iŋäs***] (30b) boshqa yurtlik kabi hayrat bilan o‘ng-chapga angrayib yuruvchi kishiga اِنكَسْ كِشِى ***iŋäs kiši*** deydilar.

ل ***l*** [harfi]:

[اَنكِلْ ***aŋïl***] اَنكِلْ اَجُقْ قَبُغْ ***aŋïl ačuq qapuγ*** – “lang ochiq eshik”.

ن ***n*** [harfi]:

öŋin اُنكِنْ – “boshqa”; ***bu atta öŋin keldür*** بُو اَتَّا اُنكِنْ كَلْدُرْ – “bu otdan boshqasini keltir”.

Mujarrad so‘zlar bo‘limi tugadi.

BU ORTIQCHA HARFLILAR BOBLARIDIR

Har turli harakatlarda qo‘llanuvchi اَفْعَل *af’al* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

armut اَرْمُتْ – “nashvati, olmurut”.

چ ***č*** [harfi]:

artuč اُرْتُخْ – ar-ar daraxti, qora archa; گاشْغَرْ *Kāšγar* da bu ismda ikkita qishloq bor.

üčlüč اُجْلُج – “quyon tuzog‘i”; bu uchlari temir bilan birlashtirilgan uch novdadan iborat.

oδγuč اُدْغُجْ – “o‘t shu’lasi, alanga”.

arγuč اَرْغُجْ – kishini mag‘rur qiluvchi, hovliqtiruvchi narsa; ***arγuč ažun*** اَرْغُجْ اَژُنْ – “mag‘rurlantiruvchi dunyo”.

erkäč اَرْكَجْ – “taka, erkak echki”. Maqolda (shunday kelgan): ***Erkäč eti em bolur, ečkü eti yel bolur.*** اَرْكَجْ اَتِى اَمْ بُلُورْ اَجْكُو اَتِى يِلْ بُلُورْ

Ma’nosi: “Takaning eti em bo‘ladi, urg‘ochi echkining eti yel bo‘ladi”. Ya’ni: “Taka go‘shti davo bo‘ladi, echki eti qorinni dam qiladi”.

örküč اُرْكُجْ – “mavj, to‘lqin”; ***suw örküčländi*** سُوفْ اُرْكُجْلَنْدِى – “suv to‘lqinlandi”.

örgüč اُرْگُجْ – o‘rilgan soch, xotinlar kokili.

örküč اُرْكُجْ – ustiga qozon yoki idish qo‘yib taom pishiriladigan uchoyoq, dala o‘chog‘i.

ر ***r*** [harfi]:

aδγïr اَدْغِرْ – “ayg‘ir”.

Ülkär اُلْكَرْ – “Hulkar”; janglarda ***ülkär čerig*** اُلْكَرْ جَرِكْ deyiladigan bir hiyla bor: askarlar har tarafdan to‘da-to‘da bo‘lib to‘planadilar. Bir to‘da ilgarilagach, qolganlar ham unga ergashadi. Shu hiyla ishlatilganda, yengilish kamdan kam bo‘ladi.

ز ***z*** [harfi]:

Erwüz اَرْفُزْ – erkaklar oti.

[***erküz***] اَرْكُزْ ***erküz suw*** اَرْكُزْ سُوفْ – ilk ko‘klamda qor va muzlarning erishidan hosil bo‘lgan suv. (Shoir) shunday degan:

يَاىْ بَرُوبَنْ اَرْكُزِى *Yay barupan erküzi,*
اَقتِى اَقِنْ مُنْدُزِى *Aqtï aqïn munduzï,*
تُغْدِى يَرُقْ يُلْدُوزِي *Tuγdï yaruq yulduzï,*
تِنكْلَا سُوزُمْ كُلْكُوسُزْ *Tïŋla sözüm külgüsüz.*

(31a) Aytmoqdaki: “Ko‘klam kelib, muzlar erib, sellar oqa boshladi. Yorug‘ tong yulduzi nur sochib chiqdi. So‘zimni jiddiy tingla”.

اُكْسُزْ ***ögsüz*** – “yetim; nima qilarini bilmovchi, o‘ksiz”. Aslida **اُكْسُزْ** ***ögsüz*** so‘zi “aql, idrok” ma’nosidagi **اُوكْ** ***ög*** so‘zidan yasalgan.

ش ***š*** [harfi]:

اُتَمِشْ ***Ötämiš*** – erkaklar oti.

اَدْرِشْ ***aδrïš*** – ikkiga ayrilgan yo‘lning boshi.

اُدْرُشْ ***öδrüš*** – ikki narsaning birini tanlash o‘z ixtiyorida bo‘lishlik.

اَدْغِشْ ***Aδgïš*** – bir joyning oti.

اُدْكِشْ ***öδgiš*** – asli **اُكْدْشْ** ***ögδiš*** bo‘lib, harflar [tovushlar] o‘rin almashib qolgan. اُوزْجَندْ *Özjänd* da turuvchi turkiy qabilalardan biri.

اَرْتِشْ ***Ertiš*** – يَمَاكْ *Yämäk* sahrosida oqadigan bir suv (nahr)ning oti. Bir necha tarmoq (ariq)lardan iborat bo‘lgan shu suv (nahr) o‘sha yer (qir)dagi bir ko‘lga quyiladi. Uni **اَرْتِشْ سُقِى** ***Ertiš suwï*** deyiladi. Bu so‘z “suvdan o‘tishda kim tez o‘tar” ma’nosida qo‘llanadigan **اَرْتِشْ** ***ertiš*** so‘zidan olingan.

اِرْتَشْ ***irtäš*** – “talashish, tortishuv”. Biror ish ustida xalq o‘rtasida voqe bo‘lgan bahslashish, tortishuv **اِرْتَشْ قُبْدِى** ***irtäš qopdï*** – “bahs-munozara qizib ketdi”.

اَرْقِشْ ***arqïš*** – “karvon”. Maqolda (shunday kelgan): **يِرَاقْ يِيرْ سَافِنْ اَرْقِش كَلْدُرُورْ** ***Yïraq yer sawïn arqïš keldürür.*** Ma’nosi: “Uzoq shahar [yer] xabarini karvon keltirar”. Bu maqol arablarning وَيَاتْيِكْ بِالْا خبارِمَنْ لَمْ تُزَوِدِ maqoliga o‘xshab ketadi.

اَرْقِشْ ***arqïš*** – yurtidan uzoqqa ketgan kishiga yuborilgan odam [xabar yetkazuvchi]; **اَنكْ اَرْقِشِى كَلْدِى** ***anïŋ arqïšï keldi*** – “uning elchisi, xabarchisi keldi”. Bu so‘z “maktub, noma” ma’nosida ham qo‘llanadi.

اَلْقِشْ ***alqïš*** – “olqish, maqtash; duo qilmoq; tabrik; birovning yaxshi xislatlarini eslash”. **اُلْ بَكْ كا اَلْقِشْ بِيرْدِى** ***ol begkä alqïš berdi*** – “u bekka duoyi sanoni yo‘lladi”, ya’ni: “u bekni (yaxshi sifatlarini eslab, uni) olqishladi”; **يَلَاوَجْقَا اَلْقِشْ بِيرْكِلْ** ***yalawačqa alqïš bergil*** – “payg‘ambarga salovot ayt [uni olqishla]”.

غ ***γ*** [harfi]:

اُتْرُغْ ***otruγ*** – “orol, jazira”.

[**اَتْلِغْ** ***atlïγ***] **اَرْ اَتْلِغْ** ***atlïγ er*** – “otliq er”.

[**اُتْلُغْ** ***otluγ***] **اُتْلُغْ تَاغْ** ***otluγ tay*** – “ustida o‘t o‘sgan tog‘”.

[**اِتْلِغْ** ***ïtlïγ***] **اِتْلِغْ اَفْ** ***ïtlïγ ew*** – “itli uy; iti bor uy”.

اَرْتِغْ ***artïγ*** – xotinlar kiyadigan nimcha.

اَرْتِغْ ***artïγ*** – hayvonlar ustiga ortilgan yukning bir tomoni.

اَغْرِغْ ***ayrïγ*** – “og‘riq; barcha turdagi og‘riq”. Umuman har bir a’zoda yuzaga kelgan og‘riqlar ham shu so‘z bilan ifodalanadi.

[اَغْرُغ *ayruγ*] اَغْرُغ سُنْكُوكِى ***ayruγ söŋüki*** – “umurtqa suyaklarining birinchisi”.

اُغْرُغ ***uγruγ*** – soyning kesilishi, uzilishi; (31b) تَاغ اُغْرُغِى ***tay uγruγï*** – “tog‘ning uzilish o‘rni”.

ق ***q*** [harfi]:

اَتْلُقْ ***Atluq*** – طَرَازْ *Ṭarāz* [Avliyoota] yaqinidagi bir shahar oti.

اَتْلُقْ ***atluq*** – ularning [*Ṭarāz* aholisining] tilida “otxona”.

اُجْغُقْ ***učγuq*** – “tumov, shamollash, uchinish”.

اَدْرِقْ ***aδrïq*** – bir xil o‘simlik, arablar ثِيلْ *ṣīl* deydilar.

اَدْرُقْ ***aδruq*** – “boshqa, bo‘lak” (o‘g‘uzcha); turklar buni اَدِنْ ***aδïn*** deydilar. Maqolda (shunday kelgan): اَدِنْ كِشِى نَانْكِى نَنَكْسِنْمَاسْ / نَنَكْ سَانْمَاسْ ***Aδïn kiši näŋi näŋsinmäs*** / ***näŋ sanmas.*** – “Boshqa birovning moli qo‘lingda bo‘lsa ham, seniki hisoblanmaydi. Chunki u qaytariladi”.

اُدْلُقْ ***uδluq*** – bilak so‘ngagining yo‘g‘on joyi.

اُدْلُقْ ***uδluq*** – sigirlarning kechasi yotadigan joyi; “og‘il, molxona” (arg‘ucha).

اُدْمَقْ / اُدْمُقْ ***uδmaq*** / ***uδmuq*** – “ergashuvchi; yollangan kishi”.

اَرْتُقْ ***artuq*** – “ortiq; ziyoda”.

اُرْتَقْ ***ortaq*** – “o‘rtoq; esh”. Maqolda (shunday kelgan): اُرْتَقْ اَرْدَنْ اَرْتُقْ اَلْمَاسْ ***Ortaq erdän artuq almas.*** Ma’nosi: “O‘rtoq o‘rtog‘idan [taqsimda hissasini] ko‘p olmaydi”. Bu maqol (yaqinlarni) insofga chaqirish maqsadida qo‘llanadi.

اَژْمُقْ ***ažmuq*** – “oq achchiqtosh”; kalning boshini ham shunga o‘xshatib اَژْمُقْ تَازْ ***ažmuq taz*** deyiladi. Bu so‘zdagi ژ *žā* ikki maxraj orasidan chiqadi.

اِسْرِقْ ***ïsrïq*** – “isiriq”; bolalarning boshiga toshadigan yaralarni yoki ko‘z tegishidan bolalarni davolaganda aytiladigan so‘z; (isiriqni) tutatiladi va bolaning yuziga tutunini اِسْرِقْ اِسْرِقْ ***ïsrïq-ïsrïq*** (“ey jin, es-hushini yo‘qot”) deb tutiladi.

اُسْرُقْ ***osruq*** – “ichdan chiqadigan yel”.

اُسْرِقْ ***usrïq*** – “uyquli kishi, mudrovchi, ko‘zi suzilgan kishi”.

[اَغْدُقْ *ayduq*] اَغْدُقْ كِشِى ***ayduq kiši*** – “notanish kishi”. Harflarini almashtirib اَدْغُقْ ***adγuq*** tarzida ham talaffuz etiladi.

اَغْرُقْ ***ayruq*** – “og‘irlik; yuk, mato”; اَغِرْ اَغْرُقْ قَيُودَا قَلْدِى ***ayïr ayruq qayuda qaldï?*** – “yuk va og‘irliklar qayerda qoldirildi?”.

اِفْرِقْ ***ïwrïq*** – “ko‘zacha”. May ichiladigan jo‘mrakli idish. Bu so‘z talaffuzda ham, ma’noda ham arabchaga mos keladi, faqat *bā* harfi turkcha (تركيه) ف *wā* harfiga almashadi. (Shoir) shunday degan: (32a)

اِفْرِقْ بَشِى قَزْلَيُو	***Ïwrïq bašï qazlayu,***
سَغْرَقْ تُلُو كُزْلَيُو	***Sayraq tolu közläyü,***
سَقِنْجْ قُدِى كِزْلَيُو	***Saqïnč quδï kezläyü,***
تُنْ كُنْ بِلَا سَقْنَلِمْ	***Tün-kün bilä sewnälim.***

Aytmoqdaki: “Ivriq [may idishi]ning boshi g‘ozdek, tubi esa ko‘z kosasi kabi [qayg‘u-hasratga] to‘lgan. Qayg‘uni uning tagiga ko‘maylig-u, kecha-kunduz sevinaylik”.

أُقرُوقْ ***oqruq*** – “arqon”. Maqolda (shunday kelgan):تَاغغْ أُقرُوقِنْ اَكْمَاسْ تَنكِزْنِى قَيْغِقِنْ بُكمَاسْ ***Tayïγ oqruqïn egmäs, teŋizni qayγïqïn bükmäs.*** Ma’nosi: “Tog‘ arqon bilan egilmaydi, dengiz qayiq bilan bekilmaydi”. Bu maqol katta ishni arzimagan sabab bilan to‘xtatib bo‘lmaslik mazmunida qo‘llanadi.

أُقلُقْ ***oqluq*** – o‘q solinadigan asbob, “sog‘doq”.

اَلْجَقْ ***alčaq*** – “yumshoq tabiatli, yuvosh; nozik; zarif”.

اُلْدُقْ اَتْ ***ulduq at*** – “taqasiz ot”. Boshqa hayvonlarga nisbatan ham ishlatiladi.

اَلْغُقْ ***Alγuq*** – كَاشْغَرْ *Kāšγar* da bir qishloqning oti.

[اَمْرَقْ ***amraq***] اَمْرَقْ كُنكُلْ ***amraq köŋül*** – “sof, ishq bilan isigan ko‘ngil”.

ك ***k*** [harfi]:

اِبْرُكْ ***iprük*** – qatiq bilan sutning aralashtirilgani; bu qurtoba ichishdan ichi qotgan kishiga surgi uchun beriladigan doridir.

اَبْمَكْ ***ebmäk*** – “non”; yag‘mo, tuxsi va ba’zi o‘g‘uz va qipchoqlar so‘zi. Bu so‘zda arabchaga o‘xshashlik bor, chunki arabchada maxrajlari bir-biriga yaqin bo‘lgani uchun *vāv* ni *bā* va *tā* ga almashtirish bor. Chunonchi, بالله و تالله kabi bir so‘zni uch harf bilan almashtirib aytadilar. Lekin turkiy so‘zlarni arab so‘zlariga o‘xshatish uzoqdir.

اَتْلِكْ ***etlik*** – “kanora” (go‘sht osiladigan temir); “so‘yishga tayyorlangan qo‘y”ga ham اَتْلِكْ قُوىْ ***etlik qoy*** deydilar; اَتْلِكْ كِشِى ***etlig kiši*** – “etli kishi”, ya’ni “semiz, sergo‘sht kishi”. “Gavdali kishi” o‘rnida ham jarangli *kāf* bilan (ركيكة بكاف) اتْلِكْ كِشِى ***etlig kiši*** qo‘llanadi. Mening maqsadim sifatlarni ko‘rsatmaslik edi. Faqat juda zarur o‘rinlardagina ko‘rsatildi.

اَتْرَكْ ***eträk*** – rangi sariq kishi (o‘g‘uzcha).

اُتْرُكْ ***ötrük*** – “hiylagar, aldamchi, ayyor, yolg‘onchi” (o‘g‘uzcha). (Shoir) shunday degan:

اُتْرُكْ اُتُنْ اُغْرى لَيُو يُوزْكَا بَقَارْ	***Ötrük utun oyrïlayu yüzkä baqar,***
اَلكِنْ تُشُبْ بِرْمِشْ اَشِغْ بَشْرَا قَقَارْ	***Elkin tüšüp bermiš ašïγ bašra qaqar.***

(32b) Aytmoqdaki: “Kishilarning tubani, baxili mehmonga o‘g‘riga qaraganday qarovchi, bergan oshini minnat qilib, uning boshiga qoquvchi (kishi)dir”.

اُتْلُكْ ***ötlüg*** – “o‘git, nasihat”; shu ma’noda اُوُتْ ***övüt*** (so‘zi) ham qo‘llanadi. Asli اُكُتْ ***ögüt*** dir.

اَتْمَكْ ***etmäk*** – “non”.

اِجْلِكْ ***ičlik*** – egarning tagidan qo‘yiladigan ichki to‘qim.

اِجْمَكْ ***ičmäk*** – qo‘zi terisidan qilingan po‘stin.

اِذْرِكْ ***iðrik*** – qattiq narsa; (bu so‘z) arg‘ucha bo‘lib, asli اِرِكْ ***irik*** dir.

اُذْلَكْ ***öðläk*** – “zamon, vaqt”. (Shoir) shunday degan:

اُڈْلَکْ قَمَغْ کُفرَدِی *Öδläk qamuγ küwrädi,*
اَرْدَمْ اَرِغْ سَفرَدِی *Erdäm arïγ sewrädi.*
یُنْجِغْ یَقْرْ تَفرَدِی *Yunčïγ yawuz tawradï,*
اَرْدَمْ بَکِی جَرْتِلُورْ *Erdäm begi čertilür.*

Aytmoqdaki: “Zamon butunlay ozdi [aynidi], ilm-hikmat, poklik kamaydi. Tuban, yovuzlar kuchaydi. Fazilatli bek اَفْرَاسِیَابْ *Afrāsiyāb* o‘lgani uchun shunday bo‘ldi”.

[اُدْرَکْ *üδrük*] اُڈْرَکْ نَانَکْ ***üδrük näŋ*** – “ko‘payuvchi narsa; avval oz bo‘lib, so‘ng ko‘paygan har bir narsa”.

[اَدْلِکْ *eδlik*] اَڈْلِکْ نَانَکْ ***eδlik näŋ*** – “foydalaniladigan har narsa”.

اُرْپَکْ ***ürpäk*** – “hurpayganlik; tuklarning hurpayganligi” (odam va hayvon haqida).

اَرْتِکْ ***ertik*** – yuriladigan yo‘l.

اُرْتُکْ ***örtüg*** – “parda, o‘rtuk”; masalan: egar pardasi (yopig‘i); martabali odamlarning qabrlari ustiga yopilgan ipaklik va yopiladigan boshqa har narsaga ham shunday deyiladi.

اُرْجُکْ ***örčüg*** – “o‘rilgan soch” (o‘g‘uzcha); bu so‘z اُرْگُجْ ***örgüč*** (so‘zi)ning o‘zgartirilganidir.

اُرْدَکْ ***ördäk*** – “o‘rdak”. Maqolda (shunday kelgan): قَازْ قُبْسَا اُرْدَکْ کُولِکْ اِکَانُورْ ***Qaz qopsa, ördäk kölig igänür.*** Ma’nosi: “G‘oz (suvdan) ko‘tarilsa, ko‘lni o‘rdak egallaydi”. Bu maqol xalq orasidan biror ulug‘ kishi ketgandan keyin, uning o‘rniga tuban bir kishining ko‘tarilganiga ishora qilib aytiladi.

[اَرْسَکْ *ersäk*] اَرْسَکْ اِشْلَارْ ***ersäk ešlär*** – “buzuq va ersiragan xotin”. Maqolda (shunday kelgan): اَرْسَکْ اَرْکَا تَکْمَسْ اِیڤْکْ اَڤکَا تَکْمَسْ ***Ersäk erkä tegmäs, ewäk ewkä tegmäs.*** – “Erkakka rag‘batli, er uchun shoshilgan xotin erga yolchimaydi, shoshma-shoshar kishi uyiga yetolmaydi”. Chunki shoshilish natijasida (bu ishda) kutilgan sharoitlarni hisobga olmaydi. (33a) Shuningdek, shoshilgan erkak ham uyiga yetolmaydi. Chunki shoshilinch bilan otini halokatga yetkazadi-da, o‘kinib qoladi: Bu اِن المنبت لاارضا قطَعَ وَ لاظَهرا اَبقی deyilgan hadisga o‘xshaydi. Bu maqol shoshilmaslikka undab aytiladi.

اَرْلِکْ ***erlik*** – “erlik, mardlik”.

اَرْنَکْ ***ernäk*** – “barmoq”; اَرنگَاکْ ***erŋäk*** deb ham qo‘llanadi.

اِیزْلِکْ ***izlik*** – turkiy xalqlarning hayvon terisidan yasalgan chorig‘i. Maqolda (shunday kelgan): اِزْلِکْ بُلْسَا اَرْ اَلْدِیمَاسْ اِجْلِکْ بُلْسَا اَتْ یَغْرِیمَاسْ ***İzlik bolsa, er uldïmas, ičlik bolsa, at yaγrïmas.*** – “Choriq bo‘lsa, kishining oyog‘i og‘rimaydi, to‘qim bo‘lsa, ot yag‘ir bo‘lmaydi”. Bu maqol har ishning ketini o‘ylashga undab aytiladi.

اَسْرُکْ ***esrük*** – “mast, sarxush”.

اَڤشُکْ ***ewšük*** – kishi (hayoti)da keyinroq yuzaga kelgan vaziyat, ahvol.

اِلْرُکْ ***ilrük*** – “isiriq”; اُجْ *uč* qabilasi tilida.

اُمْزُكْ ***ömzük*** – egarning old va orqa taraflari.

اِگْدُكْ ***igdük*** – sut va qatiqdan ishlangan, suzmaga o‘xshash, yeyiladigan narsa.

اَگْرِكْ ***egrik*** – yigirilgan ip.

اُگْرُكْ ***ögrük*** – bola beshigini tebratish.

اَكْشِكْ ***ekšik*** – (ta’mi) nordon-chuchuk narsa; masalan, nordon-chuchuk anor.

اَكْسُكْ ***eksük*** – “o‘ksik; kamchilikli; yetishmagan; nuqsonli narsa”. اَكْسُكْ يَرْمَاقْ ***eksük yarmaq*** – “o‘tmas, siyqasi chiqqan, kamchilikka ega bo‘lgan tanga”.

اُگْمَكْ ***ögmäk*** – xotinlarning ko‘ylaklariga taqiladigan oltin yoki kumushdan qilingan halqa, zirak. Bu so‘z, aslida, masdardir.

اُگْمَاكْ ***ügmäk*** – to‘dalangan narsa. Bu ham, aslida, masdardir.

اَنْدَكْ ***endäk*** – “sath; bir narsaning yuzi, ust tomoni” (o‘g‘uzcha).

ل ***l*** [harfi]:

اُجْكُلْ / اُجْكِلْ ***üčgül*** / ***üčgil*** – “uchburchak; uch bo‘lak; uch qirrali narsa”.

[اَرْسَلْ ***arsal***] اَرْسَلْ سَچْ ***arsal sač*** – “qizg‘ish soch”.

[اَشْتَلْ ***aštal***] اَشْتَلْ اُغُلْ ***aštal oγul*** – “kenja o‘g‘il”.

[اَنْدِكْ ***endik***] اَنْدِك اَرْ ***endik yer*** – “hovliqma kishi”. Maqolda (shunday kelgan): اَنْدِك اُمَا اِفْلِكْنِى اَغِرْلَارْ ***Endïk ümä ewligni aγïrlar.*** Ma’nosi: “Befahm mehmon uy egasini hurmatlaydi”. Bu maqol bilan asli mehmon hurmatlanishi kerakligi ta’kidlanadi. (Shoir) shunday degan: (33b)

اَنْدِكْ كِشِى تَيِتلسُونْ	***Endik kiši tetilsün,***
اِيلْ تُرُو يَتِلْسُونْ	***El törü yetilsün,***
تُقلِى بُرِى قَتِيلْسُونْ (؟)	***Toqlï-böri qatïlsun,***
قَدْغُو يَمَا سَقِلْسُونْ	***Qaδγu yemä sawïlsun.***

Ma’nosi: “Qilichimiz bilan (shunday) zarba beraylikki, ahmoqlar esini yig‘sin, mamlakat ishi tuzalsin, qo‘zi va bo‘rilar tinch-totuv yashasin, bizdan qayg‘u-g‘am ketsin”.

م ***m*** [harfi]:

اُتْرُمْ ***ötrüm*** – “surgi dori”; سُوتْ اُتْرُمْ ***süt ötrüm*** – “sutli bir o‘t”. Bu o‘t arabchada شُبْرُمْ *šubrum* deyiladi.

اَخْشَمْ ***axšam*** – “kech; oqshom; kunbotar vaqti”.

اَدْرِمْ ***aδrïm*** – egar ostiga ikki tarafdan qo‘yilgan jazliq. U namatdan bo‘ladi.

اُدْرُمْ ***üδrüm*** – har narsaning tanlangani, yaxshisi.

اَرْدَمْ ***erdäm*** – “odob, axloq, tarbiya”. Maqolda (shunday kelgan): اَرْدَمْ بَشِى تِيلْ ***Erdäm baši til.*** Ma’nosi: “Odobning boshi til”. Shirin tilli bo‘lgan kishi yuqori martaba topadi.

اُسْتَمْ ***üstäm*** – kamar, to‘qa va egarning boshiga o‘rnatish uchun oltin-kumushdan ishlangan ziynat. O‘g‘uzlar uni سَاخْتْ ***sāxt*** deydilar.

[اِسْرِمْ ***ïsrïm***] اِسْرِمْ كِشِى ***ïsrïm kiši*** – “peshonasi tirishgan, qovog‘i soliq kishi”.

اِشْكُمْ ***išküm*** – shohlar uchun maxsus qo‘llanuvchi katta bir kosa shaklidagi xontaxta; uning oyoqlari bo‘lmaydi.

[**اُقْتَمْ** ***oqtam***] **بِيرْ اُقْتَمْ بِيرْ** ***bir oqtam yer*** – “bir o‘q otarli uzoqliqdagi yer”.

اَكْرِمْ ***egrim*** – suv to‘plangan joy.

اِمْرَمْ ***imräm*** – biror ishga mamlakat odamlaridan to‘plangan har bir to‘da: **اِمْرَمْ تِيرِشْتى** ***imräm terišti*** – “xalq yig‘inga to‘plandi”.

ن ***n*** [harfi]:

اُتْغُنْ ***otγun*** – egarning chap tomonidagi enli bir qayish; unga ayilning halqasi o‘tkazilib, tili bog‘lanadi.

اَرْقُنْ ***arqun*** – yovvoyi otdan qochgan xonaki baytal bolasi; u poygalarda eng chopqir ot bo‘ladi.

اُرْكَنْ ***örkän*** – “qayish” (o‘g‘uzcha).

اَرْكَنْ ***erkän*** – “ekan”; bu so‘z harakatning holini anglatadi. (34a) **اُلْ كَلُرْ اَرْكَنْ كُرْدُمْ** ***ol kelür erkän, kördüm*** – “uni kelayotgan holda, u kelayotganda ko‘rdim” demakdir.

[**اِرْكِنْ** ***irkin***] **اِرْكِنْ سُوقْ** ***irkin suw*** – “suv to‘plami”; har bir to‘plangan narsaga ham **اِرْكِنْ** ***irkin*** so‘zi qo‘llanadi. Qarluqlarning kattalariga **كُولْ اِرْكِنْ** ***köl irkin*** deyishi ham shundandir. Bu “limmo-lim ko‘l kabi aqli ko‘p, aqli to‘lgan, aqli to‘lishgan kishi” demakdir.

[**اِرْكِنْ** ***irkin***] **اِرْكِنْ يَغْمُرْ** ***irkin yaγmur*** – kunlab davom etuvchi yomg‘ir; bir necha kun to‘xtamay yog‘adigan yomg‘ir.

اَرْقُنْ ***arqun*** – kelgusi yil nomi; **اَرْقُنْ اِيزى** ***arqun izi*** – “kelgusi yil”.

اُرْكُنْ ***ürkün*** – yov tomonidan tushgan qo‘rquv natijasida va to‘polondan xalqda paydo bo‘lgan sarosima. Ko‘rqib istehkomlarga va qo‘rg‘onlarga bekinadilar.

اُتْرَنْ ***otran*** – “ishton”; buni yag‘mo qabilasida eshitdim.

[**اِجْكِنْ** ***ičkin***] **اِجْكِنْ اَرْ** ***ičkin er*** – “yovga taslim bo‘lib, u tomonga o‘tgan va omonlik berilgan kishi”.

اُسْتُنْ ***üstün*** – “ust, baland”; **اَنْدَا اُسْتُنْ** ***anda üstün*** – “undan baland”.

اَسْتِنْ ***astïn*** – “ost, quyi” demakdir. Bu so‘z to‘g‘ri emas. To‘g‘risi **اَلْتِنْ** ***altïn*** dir.

اَلْتِنْ ***altïn*** – “quyi, tuban”.

اَوْرَنْ ***ewrän*** – temirchi o‘chog‘ining qo‘rasiga o‘xshatib qurilib, unda non pishiriladi; “yertandir”.

اِشْغُنْ ***išγun*** – “ravoch”.

[**اَشْكِنْ** ***eškin***] **اَشْكِنْ تُبْرَاقْ** ***eškin tupraq*** – “to‘plangan tuproq va qum”. Cho‘ziq yo‘lga **اَشْكِنْ** ***eškin*** deyiladi. Tez yuradigan otliq chopariga **اَشْكِنْجى** ***eškinči*** deyish ham shundandir.

اَمْشَنْ ***emšän*** – po‘stin qilinadigan teri.

اَنْدَنْ ***andan*** – “so‘ng, keyin” (o‘g‘uzcha); **اَنْدَنْ اَيْدِمْ** ***andan aydïm*** – “undan keyin aytdim”. Turklar **اَنْدَا** ***anda*** deydilar, “u yerda” demakdir: **مَنْ اَنْدَا اَرْدِمْ** ***men anda erdim*** – “men u yerda edim”.

Muḍā’af so‘zlar

ت ***t*** [harfi]:

اَرْتُتْ ***artut*** – bek va shu kabi kishilarga tortiq qilinadigan ot va boshqa narsalar; so‘ng bu so‘z har bir tortiqqa ham qo‘llana boshlagan.

ق ***q*** [harfi]:

[**اَرْقُقْ** ***arquq***] **اَرْقُقْ كِشِى** ***arquq kiši*** – so‘z tinglamaydigan, so‘zga kirmaydigan o‘jar kishi.

اَرْقُقْ ***arquq*** – ustun, ikki devor yoki ustun orasiga qo‘yilgan yog‘och.

ک ***k*** [harfi]:

اُبْكُكْ ***öpkük*** – “sassiqpopishak” (chigilcha). (34b)

اَمْكَكْ ***emgäk*** – “emgak, mehnat, mashaqqat”. Maqolda (shunday kelgan): **اَمْكَكْ اَكِنْدَا قَلْمَاسْ** ***Emgäk ekindä qalmas.*** Ma’nosi: “Mehnat bo‘sh ketmaydi”. Bu maqolning mazmuni اِن مَعَ العُسرِ يُسرا oyatining mazmuniga o‘xshaydi. (Shoir) shunday degan:

اَيْدِى سَنِكْ اُوذُو ***Aydï seniŋ uδu,***
اَمْكَكْ تَلَمْ اِيذُو ***Emgäk telim ïδu,***
يُمْشَرْ قَتَغْ اُوذُو ***Yumšar qatïγ öδü,***
كُنكُلُمْ سَنْكا يُكْرُكْ ***Köŋlüm seŋä yügrük.***

Bu yerda sevishganlarning uchrashuvi ta’riflanmoqda: “Qiz aytdi: Bunday qiyinchiliklarni yengib biz tomonga qanday kelding? Yigit javob bermoqda: Men sen uchun tog‘lar osha qiyinchiliklarni yengib keldim. Ko‘nglim sen tomon intildi”.

اُمْكُكْ ***ömgük*** – bolalar boshidagi yumshoq joyi.

اَشْكَكْ ***eškäk*** – “eshak”; ikki tilning birida **اَشْيَاكْ** ***ešyäk*** deyiladi; bunda *yā* harfi takrorlangan harflarning biri o‘rniga almashgan. Bu xususiyat arab tilida ham uchraydi. Masalan, تَقَضى البَارى iborasidagi تَقَضَ so‘zining asli تَقَضضَ bo‘lib, ikki ض bilan ham keladi. Shuningdek, ulug‘ tangrining يَتَمَطى اَهْله الى ذهَب ثم va وَقدْخَابَ degan so‘zlarida ham shunday holat bor. Bulardagi دَسَاهَا va مَنْ دَسَاهَا so‘zlarining asli يَتَمَطط va دَسَسَها dir.

اَرْكَكْ ***erkäk*** – har qanday hayvonning va parrandaning erkagi; **اَرْكَكْ تَقَاغُو** ***erkäk taqaγu*** – “erkak tovuq”, ya’ni “xo‘roz”.

اِنكَكْ ***iŋäk*** – “sigir”; o‘g‘uzlar “toshbaqaning urg‘ochisi”ni **اِنكَكْ** ***iŋäk*** deydilar.

Miṯāl bo‘limi

ر ***r*** [harfi]:

اُيْغُرْ ***Uyγur*** – ذوالْقرْنينْ *δū-l-qarnayn* turk shohi bilan sulh qilganda qurgan besh shaharli viloyat ismi.

نظام الدِين اِسرافِيل طغان تِكِين بن محمد جقِر طنقاخان *Niẓāmuddīn Isrāfīl ṭoγan tigin bin-Muḥammad Jaqir ṭonqaxan* otasidan menga shunday xabar qildi: ذوالْقرْنَينْ *δū-l-qarnayn* أُيْغُرْ *Uyγur* viloyatiga yaqinlashgach, turk xoqoni unga to‘rt ming odamni yo‘lladi. Ularning boshlaridagi baland qalpoq parlari xuddi lochin qanotiday edi. O‘qni oldindan qanday otsalar, orqadan ham shunday ustalik bilan otar edilar. Bularga ذوالْقرْنينْ *δū-l-qarnayn* (35a) hayron qoldi va اِينَانْ خُذ خُرَنْدْ *inān xuδ xurand* – “bular o‘zi topib yeguvchilar, boshqalarga muhtoj bo‘lmovchilar”, ya’ni “bulardan ov qochib qutulolmaydi; qachon xohlasalar otib yeydilar”, dedi. Shundan so‘ng viloyat خُذ خُرْ *Xuδxur* deb ataldi.

خ *xā alif* ga (ya’ni [*u*] ga) almashdi. Shunga o‘xshash bo‘g‘iz harflari ham bir-biriga almashadi. Ayniqsa, خ *xā* ning *alif* ga va *alif* ning خ *x*ā ga almashinish hollari ko‘p uchraydi.

Kitob yozuvchisi مَحْمُودْ *Maḥmūd* aytdi: Bobolarimizning اَمِيرْ ***amïr*** ni خَمِيرْ ***xamïr*** deyishlari shunga misoldir. Chunki o‘g‘uzlar اَمِيرْ ***amïr*** deyolmay, *alif* ni خ *xā* harfiga almashtirib, خَمِيرْ ***xamïr*** derdilar. Turk shaharlarini somoniylardan qo‘lga olgan bobolarimiz bekni بحر كين der edilar. Bunda ham اُيْغُرْ ***uyγur*** so‘zida almashtirganlari *alif* harfini خ *xā* harfiga almashtirganlar. اُيْغُرْ ***uyγur*** degan so‘zda خ *xā* ni *alif* ga almashtirgach, خُذ *xuδ* dagi ذ *δāl* ni *yā* ga almashtirdilar. So‘ng خُرْ *xur* dagi خ *xā* ni *γayn* ga almashtirdilar. خ *xā* ning *γayn* ga almashib kelishi ko‘p uchraydigan hodisadir. خَتَر غَدَر degandagi kabi (Shunday qilib, خُذْ خُرْ ***xuδxur*** so‘zi اُيْغُرْ ***uyγur*** holiga keldi).

U viloyatda beshta shahar bo‘lib, u yerning aholisi g‘irt kofirlar va nihoyatda mohir otuvchlardir. U shaharlarni ذوالْقرْنَينْ *δū-l-qarnayn* bino qilgan. (Bular) سُلمى ***Sülmi***, so‘ng قُوجُو ***Qoču***, so‘ng جَنْبَلِقْ ***Čanbalïq***, so‘ng بِيشْ بَلِقْ ***Bešbalïq***, so‘ng يَنكِى بَلِيقْ ***Yaŋïbalïq*** shaharlaridir.

ش ***š*** [harfi]:

اَيْتِشْ ***aytïš*** – ikki kishining bir-biridan hol-ahvol so‘rashishi.

غ ***γ*** [harfi]:

اَيْتِغْ ***aytïγ*** – اَيْتِشْ ***aytïš*** ning boshqa bir shakli; sog‘liq, salomatlik so‘rashishdir.

ق ***q*** [harfi]

اَيْرُقْ ***ayruq*** – “boshqa, ayrim” ma’nosidagi so‘z bo‘lib, o‘g‘uzchadir.

اَيْرِقْ ***ayrïq*** – “ajriq”; u yumshoq bir o‘t. Turklar اَدْرِقْ ***aδrïq*** deydilar. O‘g‘uzlar ذ *δāl* harfini *yā* ga almashtiradilar.

اَيْلُقْ اَيْلُقْ ***ayluq-ayluq*** – “shunday-shunday” demakdir (o‘g‘uzcha).

Maṭvī [1] **so‘zlar bo‘limi**

ل ***l*** [harfi]:

اَيْلَا ***eylä*** – “shunday” (o‘g‘uzcha); اَيْلَا قِلْغِلْ ***eylä qïlγïl*** – “shunday qilg‘il” demakdir.

[1] Harflardan boshi va oxiri *alif* bo‘lgan so‘zlar.

اُيْلَا ***öylä*** – “peshin, tush vaqti” (o‘g‘uzcha); qipchoqlar *yā* ni ز *zā* ga almashtirib, اُزْلَا ***özlä*** deydilar.

Shularning boshqa bir turi

ق ***q*** [harfi]:

اَاجْلِقْ ***a:člïq*** – “ochlik, ovqatsizlik”. (35b)

اَشْلِقْ ***ašlïq*** – “oshxona” (osh yeyiladigan joy); o‘g‘uzlar “bug‘doy”ni اَشْلِقْ ***ašlïq*** deydilar.

ک ***k*** [harfi]:

اَشْيَکْ ***ešyäk*** – “eshak”; اَشْکَکْ ***eškäk*** shakli ham bor. Birinchisi to‘g‘riroq.

ڤ ***w*** [harfi]:

اَفِيَا ***awïya*** – “behi”, ba’zi bir lug‘at [sheva] da.

Shularning to‘rt harflilari

ت ***t*** [harfi]:

اِكْتُو ***iktü*** – qo‘lda boqiladigan hayvon; bo‘rdoqi.

ر ***r*** [harfi]:

اَقْرُو ***aqru*** – “sekin”; اَقْرُو اَقْرُو ***aqru-aqru*** – “sekin-sekin” yoki “aqrin-aqrin”.

ک ***g*** [harfi]:

اَدْگُو ***eδgü*** – yaxshi, chiroyli narsa. (Shoir) shunday degan:

قُشْنِى قُنُمْ اَغِشْقَا ***Qošnï-qonum ayïšqa,***
قِلْغِلْ اَنـكَرْ اَغِرْلِقْ ***Qïlγïl aŋar ayïrlïq,***
اَرْتُتْ اَلِبْ اَنُنْغِلْ ***Artut alïp anunγïl,***
اَدْگُو تَقْرْ اُغُرْلُقْ ***Eδgü tawar oγurluq.***

Aytmoqdaki: “Qarindoshlarga, qo‘ni-qo‘shnilarga yaxshilik qil, ularni hurmatla. (Ulardan) biror sovg‘a olsang, evaziga qadrliroq narsa hozirla”.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

اَمْشُوىْ ***amšuy*** – bir xil sariq olxo‘ri.

γunna lilar bo‘limi

ز ***z*** [harfi]:

اَنـكْدُزْ ***aŋduz*** – “rosan”; yerdan qazib olinadigan o‘simlik ildizi. Otlarning qorin og‘rig‘i kasaliga davo bo‘ladi. Maqolda (shunday kelgan): اَنـكْدُزْ بُلْسَا اَتْ اُلْمَاسْ ***Aŋduz bolsa, at ölmäs.***

Ma’nosi: “Rosan o‘ti yoningda bo‘lsa, ot yo‘lda qorin og‘rig‘idan o‘lmaydi”. Ot og‘rib qolgan taqdirda, u bilan davolanadi. Bu maqol safarga chiquvchilarni puxta hozirlanishga undab aytiladi.

ج *č* [harfi]:

اِنكْلِجْ *iŋlič* – sassiq sarimsoqqa o‘xshagan bir tog‘ o‘ti; kabob bilan yeyiladi.

ك *k* [harfi]:

اَنكْلِكْ *eŋlik* – xotinlar yuzlariga (yonoqlariga) surtadigan pushti qizil rang, upa-elik.

ن ***n*** [harfi]:

اُنكْدُنْ *öŋdün* – “to‘g‘ridan, oldindan”; o‘g‘uzlar *dāl* va *nūn* ni tashlab, **اُنكْ *öŋ*** deydilar. O‘g‘uzlar uchun bu bir qoidadir: **اُنكْدُنْ يُرُتْ *öŋdün yurut*** – “(otingni) to‘g‘ridan sol, oldindan yurgiz” demakdir.

Oxiri *γunna* li so‘zlar

اُلْدَنكْ *uldaŋ* – “pocha”. Maqolda (shunday kelgan): **اِتْقَا اُفتْ اَتْسَا اُلْدَنكْ يِيمَاسْ *İtqa uwut etsä* (*yetsä?*)*, uldaŋ yemäs.*** Ma’nosi: “Itga uyat kelsa, oriyat qilsa, pocha tashlasang ham, yemaydi”. Bu maqol [oriyatli,] uyatchan bo‘lishga undab, kishini yomon ishlardan qaytishga da’vat qilib aytiladi. (36a)

ل *l* [harfi]:

اُژْلَنكْ *užlaŋ* – (ikki maxraj orasida talaffuz qilinadigan ژ *zā* bilan) “buqalamun” (o‘g‘uzcha).

د *d* [harfi]:

اِژْدَنكْ *izdäŋ* – baliq tutadigan bir xil to‘r; shundayki, anhorning bir yeriga cho‘plardan to‘g‘on qilinadi. O‘rta yeridan teshikcha qoldirib, teshik og‘ziga to‘r-tuzoq qo‘yiladi. Baliq tushgan zahoti darrov to‘r ko‘tariladi.

س *s* [harfi]:

اَخْسُنكْ اَرْ *axsuŋ er* – mastlikda to‘palon qiladigan kishi; janjalkash. Bu so‘zni **اَخْسُمْ *axsum*** tarzida ham qo‘llaniladi.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ب *b* [harfi]:

[**اَيْبَنكْ *aybaŋ***] **اَرْ اَيْبَنكْ *aybaŋ er*** – “kal kishi” (chigilcha).

اَيْدِنكْ *aydïŋ* – “oydin, oy yorug‘lig‘i”.

To‘rt harflilar bo‘limi

[**اَرِنكَّانْ *eriŋän***] **اَرْ اَرِنكَّانْ *eriŋän er*** – “bo‘ydoq kishi”. Maqolda (shunday kelgan): **اَرِنكَانكَا اَلِكْ قَرِي بُوزُنْ / بُوزِنْ أُومْ تِكَامَاسْ / تُكَامَاسْ *Eriŋäŋä elik qarï bözün* / *bözin üm tikämäs* / *tükämäs.*** – “Bo‘ydoqqa ellik gaz bo‘z ham ishtonlikka

yetmaydi, chunki begonalar unga yon bosmaydilar”. Bu maqolni uylanishga tashvish qilayotgan yigitga nisbatan aytiladi.

O‘rtasi turli harakatli اَفْعَال *af’āl,* اُفْعَال *uf’āl,* اِفْعَال *if’āl* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ر ***r*** [harfi]:

اَرْقَارْ ***arqar*** – urg‘ochi tog‘ echkisi; uning shoxidan pichoqqa sop qilinadi.

اَشْبَارْ ***ašbar*** – “tert” (somon bilan kepakni aralashtirib beriladigan mol yemi).

اِشْلَارْ ***ešlär*** – “xotin”; asli اَشِيلَارْ ***ešilär*** (“xonimlar”) demakdir. Ko‘p qo‘llanganidan, yengillik uchun *yā* harfi tushirilgan. Bu so‘z ko‘plikdadir, lekin birlikda ham qo‘llanadi. Buning atalish voqeasi uzoqdir.

غ ***γ*** [harfi]:

اُخْشَاغْ ***oxšaγ*** – “o‘xshash”; اَنِكْ اُخْشَاغِى ***anïŋ oxšaγï*** – “uning o‘xshashi” demakdir.

اَرْقَاغ ***arqaγ*** – “arqog‘” [bo‘z, shol, gilam va boshqalar to‘qilganda yonlamasiga qo‘yiladi].

اُقْرُوغ ***owruγ*** – bu so‘zni اُغْرُوغ ***oγruγ*** ham deyiladi. Suyaklarning bo‘g‘inli joyi; tog‘ning yon bag‘ri, tugash joyi.

اُقْرُوغ ***owruγ*** – umurtqa suyagining bo‘yinga tushgan joyi. (36b)

Bu so‘zlarning eng to‘g‘risi اُغْرُوغ ***oγruγ*** shaklidir.

اُغْرَاغ ***uγraγ*** – “maqsad va niyat”.

اَنْدَاغ ***andaγ*** – “shunday”; اَنْدَاغ اَيْدِمْ ***andaγ aydïm*** – “shunday dedim” (chigilcha).

اَنْدِغ ***andïγ*** – elak, g‘alvir kabi narsalarning gardishi.

ق ***q*** [harfi]:

اُبْرَاقْ ***opraq*** – suzuk (suzilgan) va eskirgan narsa. “Suzilgan, eskirgan kiyim”ga اُبْرَاقْ تُونْ ***opraq ton*** deyiladi.

اَتْغَاقْ ***atγaq*** – qorinda sariq suv yig‘ilish kasalligi; “qulanj”. Sariq rangdagi bir turli o‘simlikka ham اَتْغَاقْ ***atγaq*** deyiladi. Qayg‘udan rangi sarg‘ayganlarga ham اَتْغَاقْ ***atγaq*** deyiladi.

اُجْمَاقْ ***učmaq*** – “jannat”. (Shoir) shunday degan:

تُرْلُكْ جَجَكْ يَزِلْدِي ***Türlüg čečäk yazïldï,***
بَرْجِنْ يَذِمْ كَرِلْدِى ***Barčïn yaδïm kerildi.***
اُجْمَاقْ يَرِى كُرُلْدِي ***Učmaq yeri körüldi,***
تُمْلُغْ يَنَا كلكُوسُوزْ ***Tumluγ yana kelgüsüz.***

Ko‘klamni ta’riflab aytmoqda: “Turli chechaklar ochildi, xuddi (naqshinkor) ipak gilamlar yozilganday bo‘ldi. Jannat yeri ko‘rindi. Sovuq qaytib kelmas darajada havo ilidi”.

اَخْسَاقْ ***axsaq*** – “oqsoq, cho‘loq”.

[اَرْتَاقْ *artaq*] اَرْتَاقْ نَانىكْ ***artaq näŋ*** – “buzuq narsa, buzilgan narsa”.

اُرْغَاقْ ***oryaq*** – “o‘roq”.

اُغْرَاقْ ***oyraq*** – قَرَا يِغَاجْ *Qarayïyač* deb atalgan chegaradagi shaharda yashovchi bir turk aymog‘i.

[اُغْلَاقْ ***aylaq***] اُغْلَاقْ يِيرْ ***aylaq yer*** – “ovloq, kishisiz yoki xoli yer”.

اُغْلَاقْ ***oylaq*** – “uloq, echki bolasi”. Maqolda (shunday kelgan): اُغْلَاقْ يِلِكْ سِزْ اُغْلَانْ يِلِكْ سِزْ ***Oylaq yiliksiz, oylan biligsiz.*** Ma’nosi: “Echki bolasida ilik yo‘q, yosh bolada aql yo‘q”.

ك ***k*** [harfi]:

اِسْتَاكْ ***istäk*** – “istak; so‘rash; surishtirish, payidan bo‘lish”; اِسْتَاكْ قُبْدِى ***istäk qopdï*** – “istak tug‘ildi, talab paydo bo‘ldi”.

اُسْتَاكْ ***üstäk*** – bir narsada ortiqchalik, orttirish; mingning ustiga yuz orttirish kabi. مَنْ اُسْتَاكْ يِيرْدِمْ ***men üstäk berdim*** – “men ustiga ust berdim; men ortiqcha berdim”.

ن ***n*** [harfi]:

اَيْلَانْ ***oplan*** – sichqon jinsi[oilasi]dan bo‘lgan kichik bir jonivor.

اَرْغُونْ ***aryun*** – uzunligi yarim gaz keladigan sichqon(lar) jinsi[oilasi]dagi bir jonivor, devor yoriqlaridan chumchuqlarni ovlaydi, qo‘yga otilsa, go‘shtini sarg‘aytirib yuboradi. Uyqudagi odamga otilsa, u kishining siydigi tutiladi. (37a)

اَلْتُونْ ***altun*** – “oltin, tilla”.

اُمْكَانْ ***ömgän*** – “gardan tomiri”.

اِنكَانْ ***iŋän*** – “urg‘ochi tuya”. Maqolda (shunday kelgan): اِنكَانْ اِنكْرَسَا بُتُو بُزْلَارْ ***İŋän ïŋrasa, botu bozlar.*** Ma’nosi: “Urg‘ochi tuya ingrasa, erkak tuya bo‘zlaydi”. Bu maqol “yaqinlar doim bir-biri haqida qayg‘uradilar” degan mazmunda qo‘llanadi.

Bu bo‘limning *miṣāl* lari

ش ***š*** [harfi]:

اُيْنَاشْ ***oynaš*** – “o‘ynash”; begona kishi bilan gaplashadigan, yuradigan xotin.

ق ***q*** [harfi]:

[اُيْنَاقْ ***oynaq***] اُيْنَاقْ اِشْلَارْ ***oynaq ešlär*** – “o‘ynoqi, buzuq xotin”.

ن ***n*** [harfi]:

اَيْرَانْ ***ayran*** – “ayron”.

vāv harfi qo‘shilgan so‘zlar bo‘limi

غ ***γ*** [harfi]:

[اُيْنَاغُو ***oynayu***] اُيْنَاغُو يِيرْ ***oynayu yer*** – “o‘ynaladigan joy”.

Ularning *manqūṣ* i

ن ***n*** [harfi]:
اُلْيَانْ ***ulyan*** – xushbo‘y bir o‘simlikning ildizi bo‘lib, uni yeyishadi.

γunna lilar bo‘limi

ک ***k*** [harfi]:
اَرِنكَاكْ ***eriŋäk*** – “barmoq”. Maqolda (shunday kelgan): بِيشْ اَرِنكَاكْ تُوزْ اَرْمَاسْ ***Beš eriŋäk tüz ermäs.*** Ma’nosi: “Besh qo‘l [barmoq] barobar emas”. Shunga o‘xshash, kishilar ham bir-birlaridan farq qiladi.
اُرُنكَاكْ ***ürüŋäk*** – “ganch, gips”.

فَعَال ***fa’āl*** va فَعُول ***fa’ūl*** qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ج ***č*** [harfi]:
اَلُوجْ ***aluč*** – sovuq narsa, sovutilgan narsa.
ر ***r*** [harfi]:
اُلَارْ ***ular*** – kaklikning erkagi.
ز ***z*** [harfi]:
[اُوسُوزْ ***usuz***] اُوسُوزْ كِشِى ***usuz kiši*** – “uyqusiz kishi”.
اِسِيزْ ***isiz*** – so‘zga kirmaydigan bebosh, sho‘x bola.
اَذِيزْ ***eδiz*** – har narsaning balandi.
ش ***š*** [harfi]:
اِگِيشْ ***igiš*** – ma’danlar eritilganda chiqadigan chiqindi.
اِگِيشْ ***igiš*** – bo‘ysunmaydigan qaysar hayvon (ot).
ک ***k*** [harfi]:
[اَقَاكْ / اِقَاكْ ***ewäk / iwäk***] اَرْ اِقَاكْ / اَقَاكْ ***ewäk / iwäk er*** – “shoshqaloq kishi”.
اَلُوكْ/ اِلُوكْ ***elük / ilük*** – “masxara; hazil”.
غ ***γ*** [harfi]:
اُلَاغْ ***ulaγ*** – bekning buyrug‘i bilan yuruvchi pochtachining ma’lum bekatlarda ayriboshlab miniladigan oti.
اُلَاغْ ***ulaγ*** – “yamoq; to‘n yamog‘i”.
ق ***q*** [harfi]:
اُخَاقْ ***uxaq*** – o‘rik – turshakdan siqib olinadigan suv; uni ichiladi.
اُشَاقْ ***ušaq*** – “chaqimchilik”; اُشَاقْ سُوزْ ***ušaq söz*** – “chaqimchilik tarzida so‘zlangan so‘z, mayda va tuhmatli so‘z”.
ل ***l*** [harfi]:
[اُسَالْ ***osal***] اُسَالْ كِشِى ***osal kiši*** – “ish bilmagan kishi, g‘aflatda qolgan kishi”.
اِنَالْ ***Ïnal*** – onasi katta urug‘dan, (37b) otasi oddiy xalqdan tug‘ilgan bola ismi. Bu asosdir.

ن ***n*** [harfi]:

اُجَانْ ***očan*** – ikki yelkanli qayiq (qipchoqcha).

Bu bo‘limning *miṣāl* lari

[اَيَاسْ ***ayas***] اَيَاسْ كُوكْ ***ayas kök*** – “tiniq osmon”. Chiroyli qullarni ham اَيَاسْ ***ayas*** deb ataydilar; yuzining tiniqligini unga o‘xshatadilar.

ن ***n*** [harfi]:

اُتُونْ ***utun*** – “tuban, past”.

To‘rt harflilar

ك ***g*** [harfi]:

[اُكَايْ ***ögäy***] اُكَايْ اَتَا ***ögäy ata*** – “o‘gay ota”; اُكَايْ اُغُلْ ***ögäy oγul*** – “o‘gay o‘g‘il”; اُكَايْ قِيزْ ***ögäy qïz*** – “o‘gay qiz”.

م ***m*** [harfi]:

اُمَايْ ***umay*** – “yo‘ldosh” (tuqqan xotinlar qornidan chiquvchi narsa). Uni bolaning qornidagi hamrohi – yo‘ldoshi deyiladi. Maqolda (shunday kelgan): اُمَايْقَا تَپِنْسَا اُغُلْ بُلُورْ ***Umayqa tapïnsa, oγul bolur.*** Ma’nosi: “Kimki bunga xizmat qilsa, u o‘g‘il ko‘radi” demakdir. Xotinlar yaxshilik kutadilar.

Har xil harakatlar bilan فَعْلَى ***fa’lā*** qolipida talaffuz qilinuvchi so‘zlar

ب ***p*** [harfi]:

اَرْبَا ***arpa*** – “arpa”. Maqolda (shunday kelgan): اَرْبَاسِيزْ اَتْ اَشُومَاسْ اَرْقَاسِيزْ اَلبْ ***Arpasïz at ašumas, arqasïz alp čerig sïyumas.*** Ma’nosi: “Arpasiz ot qir osholmaydi, yordamchisiz yigit (bahodir) jangda yenga olmaydi”. Bu maqol ishda hamkorlikka chaqirish ma’nosida qo‘llanadi.

ت ***t*** [harfi]:

اُرْتُو ***ortu*** – har narsaning o‘rtasi; اُرْتُو اَرْ ***ortu er*** – “o‘rta yoshli kishi”; اَفْ اُرْتُوسِى ***ew ortusï*** – “uy o‘rtasi”; كُونْ اُرْتُو ***kün ortu*** – “kun o‘rtasi; tush” (chigilcha).

اَرْتَا / اِرْتَا ***ertä*** / ***irtä*** – “erta, tong, sahar vaqti”.

ج ***č*** [harfi]:

اَرْجِى ***arčï*** – “to‘rva”.

د ***d*** [harfi]:

اُرْدُو ***ordu*** – shoh turadigan shahar; “o‘rda”. Shuning uchun كَاشْغَرْ *Kāšγar* ni اُرْدُوكَنْدْ ***Ordukend*** deydilar, ya’ni “shohlar turuvchi shahar” demakdir.

اُرْدُو ***Ordu*** – بَلَاسَاغُونْ *Balasaγun* yaqinidagi bir shahar; shuning uchun بَلَاسَاغُونْ *Balasaγun* ni قُوزْاُرْدُو ***Quzordu*** ham deyiladi.

[اُرْدُو ***ordu***] اُرْدُو بَشِى ***ordu bašï*** – shohlar xizmatidagilarning oti.

أُرْدُو *ordu* – sichqon, kalamush kabi yer ostida yashovchi hayvonlar ini. (38a)

[**أُرْدُو *ordu***] **أُرْدُوتَالْ *ordutal*** – mo‘yni tushirish uchun hammomda ishlatiladigan aralashma; ohak. Yosh ko‘krakka urilgan tamg‘a. Bu so‘z ikki tilning birida (o‘g‘uz yoki turk tilida) qo‘llanadi.

اَكْدُو *ekdü* – qilich qini va bunga o‘xshash narsalarni o‘yish uchun qo‘llanadigan uchi egri pichoq.

اَكْدِى *ekdi* – mol so‘yiladigan joy, kushxona.

اَمْدِى *emdi* – “hozir, endi”; **اَمْدِى كَلْدِمْ *emdi keldim*** – “hozir keldim” yoki “endi keldim”. O‘g‘uzlar *alif* ni *kasra* qilib **اِمْدِي *imdi*** deb talaffuz qiladilar. (Shoir) shunday degan:

أُبْكمْ كَلِبْ أُغْرَدِمْ	***Öpkäm kelip oγradïm,***
اَرسْلَنْ لِيو كُكْرَدِمْ	***Arslanlayu kökrädim,***
اَلبْ لَارْ بَشِنْ تُغْرَدِمْ	***Alplar bašïn toγradïm,***
اَمْدِى مَنِى كِيمْ تُتَارْ	***Emdi meni kim tutar?***

Aytmoqdaki: “Achchig‘im kelib (yovga qarshi) xezlandim, arslon yanglig‘ o‘kirdim, alplarning boshlarini kesdim, so‘ng g‘alayonga qarab: “endi meni kim tuta oladi?”, deb qichqirdim”.

أُمْدُو *umdu* – “umid qilish; so‘rash, ta’ma qilish”; “so‘rovchi (gadoy)”ga **أُمْدُوجى *umdučï*** deydilar.

اَنْدَا *anda* – “u yerda, unda”.

ر *r* [harfi]:

أُبْرِى *oprï* – “chuqur” (o‘pirilgan joy).

أُتْرَا *otra* – “o‘rta, har tomonlama (ko‘p qirrali) narsaning o‘rtasi”; bu so‘z **أُرْتُو *ortu*** ning harf almashganidir.

اَيْرُو *ayru* – “boshqa, yo‘q esa, bo‘lmasa”; **مُونِى تِيلَامَسَا سَنْ اَيْرُو نَا كَرَاكْ *munï tilämäsä-sen, ayru ne keräk?*** – “sen buni istamasang, boshqa yana kim kerak?”

اَذْرِى *aδrï* – “ayri”; bug‘doy sovurish uchun qo‘llanadigan uskuna. Ikki shoxli har bir narsani ham **اَذْرِى *aδrï*** deydilar. Bu so‘z kishilarga ham qo‘llanadi. **اَذْرِى بُتْلُغْ *aδrï butluγ*** – “ayri butli (odam)”.

أُتْرُو *otru* – “(har narsaning) qarshisi, ro‘parasi”; **أُولْ مَنكَا أُتْرُو كَلْدِى *ol meŋä otru keldi*** – “u menga ro‘para keldi”.

اَسْرَا *asra* – “quyi, ost”.

اِسْرَا *isrä* – “quyi, so‘ng”; **أُلْ اَنْدَنْ اِسرَا أُلْ *ol andan isrä-ol*** – “u bundan so‘ng va quyi” demakdir.

اَسْرِى / اِسْرِى *esri* / *isri* – “qoplon”; ikki rangli chipor ipga **اَسْرِى / اِسْرِى يَشِغْ *esri* / *isri yašïγ*** deyiladi. Ikki rangdagi har bir chipor narsaga ham, qoplon rangiga o‘xshagani uchun **اَسْرِي / اِسْرِي *esri* / *isri*** deyiladi.

أُغْرِى *oγrï* – “o‘g‘ri”. Aslida *γayn kasra* li bo‘lishi kerak edi; yengillatib *sukun* holida talaffuz qilinadi. Arabchada إبل ham, إبِل ham, أُذُن ham, أُذن ham deyilgani

kabi. بُو نَانىڭ اَنِىڭ أُغْرِى اُلْ ***bu näŋ anïŋ oγrï-ol*** (38b) – “bu narsa undan so‘ng” demakdir.

اَكْرِى ***egri*** – har bir egri va qiyshiq narsa. Maqolda (shunday kelgan): يِلَانْ كِنْدُو اَكْرِيسِينْ بِلْمَاسْ تَقَىْ بُويْنِنْ اَكْرِى تِيرْ ***Yïlan kendü egrisin bilmäs, teväy boynïn egri ter.*** Ma’nosi: “Ilon o‘zining egriligini bilmaydi-da, tuyaning bo‘ynini egri deydi”. Bu maqol birovning aybidan so‘z ochuvchi g‘iybatchilarga nisbatan qo‘llanadi.

اُكْرَا ***ügrä*** – “ugra oshi”. Bu tutmochdan mayinroq, lazzatliroq.

اَلْرِى / اِلْرِى ***elri*** / ***ilri*** – echki bolasining terisi; bir *dāl* orttirilib, اَلْدِرِى / اِلْدِرِى ***eldiri*** / ***ildiri*** ham deyiladi.

ز ***z*** [harfi]:

اَژْرُو ***ažru*** – shoqol, chiyabo‘ri deyilgan yirtqich bir hayvon; ikki maxraj o‘rtasidagi ز *zā* bilan talaffuz qilinadi. Kishilar bir narsa tevaragida to‘plansalar, كِشِى اَژْرُولَيُو قُرْدِي ***kiši ažrulayu qurdï*** deydilar. Ya’ni “kishilar shoqol odamni yemoq uchun to‘plangani kabi yig‘ildilar” demakdir.

س ***s*** [harfi]:

اَرْسُو ***ersü*** – har bir jo‘n narsa (o‘g‘uzcha).

غ ***γ*** [harfi]:

اَرْغُو ***arγu*** – ikki tog‘ orasi; طِرَازْ *Ṭirāz* va بَلَاسَاغُونْ *Balasaγun* orasidagi shaharlarga ham اَرْغُو ***Arγu*** deydilar. Chunki u ikki tog‘ orasidadir.

اُرْغَا ***urγa*** – katta daraxt (o‘g‘uzcha); arg‘u tilida ham shundaydir.

اِمْغَا ***ïmγa*** – mol (soliq) yig‘uvchi amaldor.

[اَنْغَا ***anγa***] اَنْغَا اَرْ ***anγa er*** – “qadrsiz, jo‘n odam”; “har qanday qadrsiz, jo‘n, tashlandiq narsa”ga ham اَنْغَا ***anγa*** deyiladi.

ۋ ***w*** [harfi]:

[اِرْقِى ***irwi***] اِرْقِى قُلَاقْ ***irwi qulaq*** – “ingichka, uzunquloq”.

اِرْقِى ***irwi*** – kasallarni davolashda qo‘llanuvchi hindcha bir dorining oti.

ق ***q*** [harfi]:

اَرْقَا ***arqa*** – “orqa, sirt”.

اَرْقَا ***arqa*** – qiyin vaqtlarda yordam beruvchi kishi; orqa kuch; hiyla va tadbirlar bilan yordam beruvchi kishi. Aytiladiki: اَرْقَاسِزْ اَلبْ جَرِكْ سِيُومَاسْ ***Arqasïz alp čerig sïyumas.*** Ma’nosi: “Yordamchisiz qahramon jang saflarini sindirolmaydi”.

ك ***k*** [harfi]:

اُبْكَا ***öpkä*** – “o‘pka, oq jigar”.

اُبْكَا ***öpkä*** – “g‘azab”; uning shunday aytilishiga sabab g‘azabning o‘pkada paydo bo‘lishidir. Bu so‘zning shu ma’noda qo‘llanishi so‘zning paydo bo‘lish o‘rniga ko‘ra kelib chiqqan. Chunonchi, “yomg‘ir”ni “osmon” deyilgani kabi. (39a)

اُتْكِى ***ötki*** – “evaz, badal” (chigilcha); بُو اَتْقَا اُتْكِى بِيرْدِمْ ***bu atqa ötki berdim*** – “bu otning evazini, badalini berdim” demakdir.

اَجْكُو ***ečkü*** – “echki”.

اِچْكُو ***ičkü*** – “ichkilik; har bir ichiladigan narsa”.

اَذْكُو ***eδgü*** – “yaxshi, ezgu”. (Shoir) shunday degan:

كَلْسَا كِشِى اَتْمَا اَنـكَارْ اُرْتَرْ كُلَا	***Kelsä kiši atma aŋar örtär külä,***
بَقِلْ اَنـكَارْ اَذْكُولُـكُنْ اَغْزِنْ كُلَا	***Baqqïl aŋar eδgülügün aγzïn külä.***

Aytmoqdaki: “Senga kishi kulib kelsa, sen uning yuziga qaynoq kul sochma, unga ezgulik va labingda kulgu bilan boq”.

اَرْكِى ***erki*** – ikkilanish, shubhani bildiruvchi so‘z; so‘roq mazmunini ifodalaydi; **اُلْ كَلِرْمُو اَرْكِى** ***ol kelirmü erki?*** – “u kelarmikin yo yo‘q?”. Bu so‘roq olmoshi o‘rnida.

اُرْكُو ***örkü*** – “tuyaning o‘rkachi”.

اَسْكُو ***eskü*** – “elak; g‘alvir”.

اَسْكِى ***eski*** – “eski”; **اَسْكِى تُونْ** ***eski ton*** – “eski kiyim”.

اُلْكُو ***ülgü*** – “ahd; va’da”.

[**اَلْكَا** ***elkä***] **الْكَا بُلَاقْ** ***elkä bulaq*** – bir turk qabilasining oti.

ل ***l*** [harfi]:

اُغْلَا ***oγla*** – “yosh yigit” (arg‘ucha).

اُغْلِى ***oγlï*** – كَاشغَر *Kāšγar* da ekiladigan oq va shirin sabzi; uni yeyiladi.

م ***m*** [harfi]:

[**اَذْمَا** ***aδma***] **اَذْمَا يِلْقِى** ***aδma yïlqï*** – “yoshligi uchun yuk ortilmay, o‘z holiga qo‘yib qo‘yilgan hayvon”.

[**اُرْمَا** ***örmä***] **اُرْمَا سَجْ** ***örmä sač*** – “o‘rilgan soch”.

اَزْمَا ***azma*** – bichilgan qo‘chqor; moyaklari terisidan ajratib olingani uchun qo‘ylarga chopolmaydigan qo‘chqor.

اُژْمَا ***üžmä*** – “tut daraxti”. Ikki maxraj orasidagi **ژ** *zā* bilan talaffuz qilinadi.

[**اُسْمِى** ***usmï***] **اُسْمِى تَرِمْ** ***Usmï tarïm*** – islom shaharlaridan uyg‘urlargacha oqadigan katta bir suv. U yerlarda (uyg‘urlarga yetgach) qumga singib ketadi.

اَكْمَا ***egmä*** – uyning toqisi.

[**اُكْمَا** ***ügmä***] **اُكْمَا تُبْرَاقْ** ***ügmä tupraq*** – “uyulgan tuproq”. Har bir uyulgan narsaga ham **اُكْمَا** ***ügmä*** so‘zi qo‘llanadi.

اَلْمَا ***alma*** – “olma” (o‘g‘uzcha). Turklar **اَلْمِلَا** ***almïla*** deydilar.

اُلْمَا ***ulma*** – bug‘u tuzog‘i.

ن ***n*** [harfi]:

اُتْنُو ***ötnü*** – “qarz”; **مَنْ يَرْمَاقْ اُتْنُو بِيرْدِمْ** ***men yarmaq ötnü berdim*** – “men tanga qarz berdim”.

اَشْنُو ***ašnu*** – “oldin, ilgari”; **مَنْ اَنْدَا اَشْنُو كَلْدِمْ** ***men anda ašnu keldim*** – “men undan oldin keldim”.

اَنْدَا ***anda*** – “u yerda”. O‘g‘uzlar “so‘ng” ma’nosidagi so‘z uchun (39b) *alif* ni *nūn* ga almashtiradilar. “U yerda” ma’nosida boshqalar bilan bir xilda **اَنْدَا** ***anda*** deb ham qo‘llaydilar.

alif ni *nūn* ga almashtirish arab tilida ham bor. Chunki Qur’onda Muso alayhissalom hikoyasida kechgan وما رب العالمين iborasidagi مَا *ma* so‘zi مَن *man* ma’nosidadir. Ya’ni, *nūn* o‘rnida *alif* almashgandir. Chunki arab tilida “nima?” ma’nosidagi so‘roq olmoshi jonlilarga *man,* jonsizlarga *ma* dir. Shuningdek, لنسفعا بالناصيه degan oyatda ham *alif nūn* ga almashgan. عشى *’Ašā* degan shoirning quyidagi she’rida:

ولا النصب المنصب لا تعبدنه
لعا قبه والله ربک فاعبدا

فاعبدا so‘zining asli فاعبدن dir.

فَعْلَى *fa’lā* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

اِكِى *iki* – “ikki”.

فُعْل *fu’ul* qolipidagi ج *čīm* bilan yasalgan *γunna* li so‘zlar bo‘limi

ت *t* [harfi]:

اُتُنْجْ *ötünč* – “qarz”; **مَنْ اَنكَارْ يَرْمَاقْ اُتُنْجْ بِيرْدِمْ *men aŋar yarmaq ötünč berdim*** – “men unga tanga qarz berdim” demakdir.

[**اُتُنْجْ *utunč***] **اُتُنْجْ اِيشْ *utunč iš*** – “uyaladigan ish”. Asli **اُقْتْ *uwut*** (“uyat”) so‘zidan olingan.

ج *č* [harfi]:

اُجُنْجْ *üčünč* – “uchinchi”.

اِكِنْجْ *ikinč* – “ikkinchi”. O‘zidan oldingi sonning davomi ekani va ma’lum sira-tartibda ekanini bildirish uchun o‘ndan kam bo‘lgan son so‘zlari o‘zagiga *nūn* va ج *čīm* orttirish qoidadir: **تُورْتُنْجْ *törtünč*** (“to‘rtinchi”), **بِيشِنْجْ *bešinč*** (“beshinchi”) kabi. Bularning asli **تُورتْ *tört,* بِيشْ *beš*** edi. Yuqoridagi maqsadda bu so‘zlarga *nūn,* ج *čīm* orttirildi. Buni har qanday son so‘zlariga qo‘shish ham mumkin: **اُونُنْجْ *onunč*** – “o‘ninchi”, **يِكِرْمِنْجْ *yigirminč*** – “yigirmanchi” kabi. Bu qat’iy qoidadir.

اَرِنْجْ *erinč* – “ehtimol, zora, balki”. **اُلْ كَلدِى اَرِنْجْ *ol keldi erinč*** – “balki u kelgandir. U kelgan chiqar”.

اُرُنْجْ *urunč* – “pora”. (40a)

اِرِنْجْ *erinč* – maishat bilan kun kechirish; yaxshi yashash. Ba’zi lahjalarda ikki maxraj orasidagi ز *zā* bilan **اِرِنژْ *erinž*** deb aytiladi.

ف *w* [harfi]:

اَوِنْجْ *awïnč* – “ovunish, bir narsaga uns olish”. **مَنكَا اَوِنْدِى *meŋä awïndï*** – “(u) men bilan ovundi, men bilan unslashdi”.

ک *k* [harfi]:

اِكِنجْ ***ikinč*** – sonda ikkinchi narsa.

اُكُنجْ ***ökünč*** – “o‘kinch, pushaymon”; **اُلْ تَلِمْ اُكُنجْ اُكُنْدِى** ***ol telim ökünč ökündi*** – “u ko‘p pushaymonlar qildi” demakdir.

اُكُنجْ ***ögünč*** – “maqtash”; **بُو اِيشْقَا نَا اُكُنجْ كَرَاكْ** ***bu išqa[1] ne ögünč kerak?*** – “bu ishga maqtanish nima kerak?”

ل ***l*** [harfi]:

[**اِيلِنجْ** / **اَيْلِنجْ** ***aylïnč*** / ***ïlïnč***] **اِيلِنجْ يُولْ** / **اَيْلِنجْ** ***aylïnč*** / ***ïlïnč yol*** – “qing‘ir-qiyshiq yo‘l, tekis bo‘lmagan yo‘l”. Har bir notekis narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

اِلَنجْ / **اَلَنجْ** ***eläńč*** / ***iläńč*** – maslahat beruvchi kishinig maslahatida yanglishlik ma’lum bo‘lgach, uni ayblash.

م ***m*** [harfi]:

اُمُنجْ ***umunč*** – “umid, xohish”; **اُمُنجْ تَنكرِى كَا تُتْ** ***umunč täŋrikä tut*** – “umidingni Xudoga qil”.

[**اُنُنجْ** ***onunč***] **اُنُنجْ يَرْمَاقْ** ***onunč yarmaq*** – “o‘ninchi tanga”. Boshqalari ham shunday.

اِنَنجْ ***ïnanč*** – “ishonchli”; **اِنَنجْ بَكْ** ***ïnanč beg*** – “ishonchli bek” [lavozimlardan biri].

Bu bo‘limning فَعْلَى *fa’inlā* qolipida bo‘lgan so‘zlar turi

ت ***t*** [harfi]:

[**اِتِنْجُو** / **اَتِنْجُو** ***atïnču*** / ***ïtïnču***] **اِتِنْجُو نَانكْ** / **اَتِنْجُو** ***atïnču*** / ***ïtïnču näŋ*** – “tashlangan, otilgan narsa”.

[**اِتِنْجُو** ***itinču***] **اِتِنْجُو نَانكْ** ***itinču näŋ*** – “qaytarilgan, yo‘qotilgan, yitilgan narsa”.

ذ ***δ*** [harfi]:

[**اِذِنْجُو** ***ïδïnču***] **اِذِنْجُو سَجْ** ***ïδïnču sač*** – kishining keyinchalik qo‘yilgan sochi. Boshqalarga ham qo‘llanadi. Yoshligi uchun yuk ortilmay, o‘z holicha o‘tlab yuruvchi hayvonga **اِذِنْجُو يِلْقِى** ***ïδïnču yïlqï*** deyiladi.

اِرِنْجُو / **اَرِنْجُو** ***erinču*** / ***irinču*** – “gunoh, xato”.

ڤ ***w*** [harfi]:

[**اَڤِنْجُو** ***awïnču***] **اَڤِنْجُو نَانكْ** ***awïnču näŋ*** – “ovuniladigan, ulfatlashiladigan, uns olinadigan narsa”. Shuning uchun qo‘shnilarga ham **اَڤِنْجُو** ***awïnču*** deyiladi.

ق ***q*** [harfi]:

اَقِنْجى ***aqïnčï*** – kechasi borib, yovni bostiradigan qo‘shin.

Bu bo‘limning *kāf* li *γunna* lilari

اَبَنكْ ***apaŋ*** – “agar”; **اَبَنكْ سَنْ بَرْسَاسَنْ** ***apaŋ sen barsa-sen*** – “agar sen borsang”.

ت ***t*** [harfi]:

اُتُنكْ ***otuŋ*** – “o‘tin”.

[1] Arab yozuvida *iškä* yozilib, keyin *kāf qāf* ga o‘zgartirilgan.

ر ***r*** [harfi]:

أُرُنكْ *örüŋ* – “har bir oq narsa”. O‘g‘uzlar **اَقْ *aq*** deydilar

أُرُنكْ *örüŋ* – yosh bolalarning tirnoqlari yuzida bo‘ladigan oq nuqta. Uni **تِرنكَاقْ أُرُنكِى *türüŋaq örüŋi*** – “tirnoq oqi” deyiladi.

أُرُنكْ *ürüŋ* – folbinga beriladigan muzd pul; **اَلِكْ أُرُنكِى بِيرْ *elig ürüŋi ber*** – “qo‘l haqini ber”. (40b)

أُرَنكْ *Uraŋ* – رُومْ *Rūm* viloyati yaqinida, shimoliy chegarasidagi bir joy oti. Bu so‘zning **وَرَنكْ *Varaŋ*** tarzida o‘qilishi yaxshiroq.

اِرِنكْ *iriŋ* – “yiring”.

ش ***š*** [harfi]:

[**أُشَنكْ *ušaŋ***] **أُشَنكْ تَاشْ *ušaŋ taš*** – “tekis tosh”; **يُشُنكْ / يُشَنكْ *yušaŋ* / *yušuŋ*** ham deyiladi.

ل ***l*** [harfi]:

[**اَلَنكْ *alaŋ***] **اَلَنكْ يَزِى *alaŋ yazï*** – “tekis maydon, yalang dasht”. Bu so‘z **اَنكِلْ *aŋïl*** – “lang ochiq eshik” so‘zining harf almashtirilgan shaklidir.

Muḍā’af so‘zlar bo‘limi

اَنكَّكْ *eŋäk* – “jag‘; og‘izning ikki chekkasi”.

اَنكَكْ *eŋäk* – xotinlar bosh yopinchiqlariga bog‘laydigan ip, bog‘ich.

أُنكِكْ *öŋik* – echki yungidan qilinadigan yasama soch; **أُنكِكْ يُرگَيَاكْ *öŋik yörgäyäk*** – “ulama soch”. Buni boshqa ma’nodagi **أُنكِى *öŋi*** so‘zidan olingan.

أُنكِكْ / أُنكُكْ *öŋük* / *öŋik* – “popuk; yostiqning ipaklik quloqlari, bog‘ichlari”.

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

أُنكِى *öŋi* – “boshqa”. Bu so‘z oxiridagi *yā* harfi *nūn* harfidan o‘zgargan, **أُنكِنْ *öŋin*** dir. Bu xususiyat arab tilida ham bor. Masalan, “yashirindi” ma’nosida arablar اِنْكَمَنَ *inkamana,* اِنْكَمى *inkama* so‘zlarini qo‘llaydilar.

Shu bo‘limning boshqa bir turi

اَرنكَيُو *eriŋäyü* – olti barmoqli odam.

اَرنكَيُو *eriŋäyü* – bo‘yi ikki gazli, juda pakana kishi.

فَعَالُو *fa’ālū,* فُعَالُو *fu’ālū* va فِعَالُو *fi’ālū* qoliplaridagi so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

أَلَاتُو *ülätü* – burun artadigan ipaklik (dastro‘mol); qo‘yinda saqlanadi.

ج ***č*** [harfi]:

اَلاجُو ***alaču*** – “olachuq; boshpana, chodir, kapa”.

اَبَاچِی ***abačï*** – “ola bo‘ji”. Bolalarni qo‘rqitish uchun اَبَاچِی كَلْدِی ***abačï keldi*** – “ola bo‘ji keldi” deydilar.

اَغِنْجی ***aγïnčï*** (***aγïčï?***) – ipakli kiyimlarni saqlovchi, xazinachi.

غ ***γ*** [harfi]:

[اُلَاغُو ***ulaγu***] اُلاغُو نَانَكْ ***ulaγu näŋ*** – bir narsaga ulanguday narsa, ulanadigan narsa (to‘n yamog‘i kabi).

[اُلیغُو ***ulïγu***] بُو اُغُزْ اُلْ بُرِی اُلیغُو ***bu oγur-ol böri ulïγu*** – “bu chiya bo‘ri (va boshqalar ham) uvlaydigan vaqtdir”.

ق ***q*** [harfi]:

اَبَاقِی ***apaqï*** – ko‘z tegmasin uchun bog‘cha va polizlarga qo‘yilgan qo‘riqchi.

اَتَاقِی ***ataqï*** (41a) – “otaginam, otajonim” ma’nosidagi mehribonlikni bildiruvchi so‘z.

ك ***g*** [harfi]:

اِتَاكُو ***itägü*** – tegirmon toshi o‘rnatilgan yog‘och parrak. Unni yirik qilmoqchi bo‘lganda, u yog‘och bilan toshni bir oz ko‘tarib qo‘yiladi. Mayda qilmoqchi bo‘lganda, toshni quyi tushiriladi.

اِچَاكُو ***ičägü*** – qovurg‘a suyaklarining ich tarafida bo‘lgan qismlar oti.

اُلِیكَا ***öligä*** – yelim olinadigan o‘simlik.

اِنَاكُو ***inägü*** – kindikning ichki tomoni to‘g‘risida paydo bo‘luvchi qulanjga o‘xshash bir kasal.

ك ***k*** [harfi]:

اَبَاكِی ***epäki*** – biror narsani oz ko‘rganda aytiladigan so‘z. “Ko‘rar kun bor ekan-a” deyilgani singari.

م ***m*** [harfi]:

اَنُومِی ***anumï*** – moxov kasalligi.

اِكَامَا ***igämä*** – bir turli cholg‘u.

Bu bo‘limning harfi illatidan ikkitasi qo‘llangan so‘zi

ك ***k*** [harfi]:

اَيَاكُو ***eyägü*** – “yon; taraf”. Chodir yonlariga ham اَيَاكُو ***eyägü*** deyiladi. “Tog‘ning o‘rtasidagi yer”ga اَيَاكُويِرْ ***eyägü yer*** deyiladi.

Oxirida *nūn* orttirilgan so‘zlar

اشجَانْ ***Aščan*** صِين – *Ṣīn* ga borishdagi qo‘noq qo‘nib o‘tiladigan joy oti.

اَلُو جِينْ ***alučïn*** – yeyiladigon serbo‘g‘in bir o‘simlik.

ذ ***δ*** [harfi]:

اُرُمْ ذُونْ ***urumδun*** – “bo‘yoq; rang”.

غ *γ* [harfi]:

اُرَاغُونْ *urayun* – kasallarga qo‘llanadigan hindcha bir dori.

ک *k* [harfi]:

اُتُوکَانْ *Ötükän* – tatar dashtlaridagi bir yerning oti, uyg‘urlarga yaqindir.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

اَلْمِلَا *almïla* – “olma”.

ک *g* [harfi]:

اَرْمَکُو *ermägü* – “erinchoq, yalqov”. Maqolda (shunday kelgan):/ **اَرْمَکُوکَا بُلِتْ بُلْتْ یُکْ بُلُورْ *Ermägükä bulït / bulut yük bolur.*** Ma’nosi: “Yalqovga bulut soyasi ham yuk bo‘ladi”.

غ *γ* [harfi]:

اُغْلَاغُو *oγlaγu* – to‘qliq, mo‘l-ko‘lchilikda o‘sgan kishi; **اُغْلَاغُوقَاتُونْ *oγlaγu qatun*** – “saida xotinlar” demakdir.

اُخْشَاغُو *oxšaγu* – “o‘yinchiq”. Xotinlarga ham **اُخْشَاغُو *oxšaγu*** deyiladi.

افَاعُول *afā’ūl* qolipidagi har xil harakatli so‘zlar bo‘limi

ت *t* [harfi]:

اَرُوبَاتْ *arubat* – “tamari hindiy”.

اُرَاغُوتْ *uraγut* – “xotin”.

اَرَامُوتْ *aramut* – uyg‘urlar yaqinida yashovchi bir turk qabilasi.

اَرَامُوتْ *Aramut* – bir joy oti.

ج *č* [harfi]:

اِقِیلَاجْ *ïqïlač* – o‘ynoqi uchqur ot. Maqolda (shunday kelgan): **اَلْبْ اَرِکْ یَقْرِتْمَا اِقِیلَاجْ اَرْقَاسِنْ یَغْرِتْمَا *Alp erig yawrïtma, ïqïlač arqasïn yayrïtma.*** Aytmoqdaki: “Botirlarni ranjitma va holsizlantirma, uchqur ot orqasini yag‘ir qilma”. (41b) Bu so‘zlar bilan beklarga nasihat qilinadi.

(Shoir) shunday degan:

اِقِیلَاجِمْ اَرِکْ بُلْدِی ***Ïqïlačïm erig boldï,***
اَرِکْ بُلْغُو یَرِی کُرْدِی ***Erig bolγu yeri kördi.***
بُلِتْ اُورُبْ کُوکْ اُرْتُلْدِی ***Bulït örüp kök örtüldi,***
تُمَنْ تُرُوبْ تُلِی یَغْدِی ***Tuman türüp tolï yaγdï.***

Ma’nosi: “O‘ynoqi uchqur otim kishnab, yugura boshladi. Bunga u mayl qildi. Bulut o‘rlab, ko‘k o‘rtandi, tuman turib, jala quydi”.

اَلَاوَانْ *alavan* – “timsoh”.

اَفعَلَان *af’alān* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

اَرْبَغَانْ ***arpaγan*** – arpaga o‘xshagan bir o‘simlik. Boshog‘i bo‘lsa ham, doni bo‘lmaydi.

اَرْمَغَانْ ***armaγan*** – safardan foyda topib qaytgan kishining qarindosh-urug‘lariga keltirgan sovg‘asi, armug‘on (o‘g‘uzcha). Bu so‘zni **يَرْمَقَانْ** ***yarmaqan*** deguchilar ham bor. Bu **اَمُجْ** ***amuč*** (“sovg‘a”) dir.

فِعنْلى *fi’inlī* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

[**اِتِنْدِى** ***itindi***] **اِتِنْدِى نَانكْ** ***itindi näŋ*** – “tashlandiq narsa”.

ق ***q*** [harfi]:

[**اَقِنْدِى** ***aqïndï***] **اَقِنْدِى سُوقْ** ***aqïndï suw*** – “oqar suv”.

[**اَكِنْدِى** ***ekindi***] **اَكِنْدِى تَرِغْ** ***ekindi tarïγ*** – “ekilgan urug‘”.

[**اُكُنْدِي** ***ögündi***] **اُكُنْدِي كِشِي** ***ögündi kiši*** – hammaning tilida maqtalgan kishi, og‘izga tushgan odam.

[**اِكِنْدِى** ***ekindi***] **اِكِنْدِى نَانكْ** ***ekindi näŋ*** – “ikkinchi narsa”; sira son.

اِكِنْدِى ***ekindi*** – namozi asr (kun botishidan oldingi namoz) vaqti.

Uch harflilar bo‘limi tugadi.

BU TO‘RT HARFLILAR BOBLARIDIR

اَفْعَال *af’āl* qolipida bo‘lib, bir harfi qaytalangan [*muḍā’af*] so‘zlar bo‘limi

اَرْغَاغْ ***arγaγ*** – baliq tutiladigan qarmoq.

اِرْغَاغْ ***ïrγaγ*** – suvdan muzni muzxonaga tortib olinadigan temir changal.

Bu bo‘limning *miṯāl* turi

ل ***l*** [harfi]:

[**اِمْتِلِى** ***imtili***] **بُو اِيشِغْ اِمْتِلِى قِلْدِي** ***bu ïšïγ imtili qïldï*** – “bu ishni o‘ylamay qildi” (chigilcha).

ج ***č*** [harfi]:

اُمْدُوجِى ***umdučï*** – “tilanchi, gadoy”.

اَرْقُجِى ***arqučï*** – “vositachi”. Ikki kishi orasida turgan kishi. Bu so‘z qiz tomon bilan kiyov tomon o‘rtasidagi sovchiga ham qo‘llanadi.

د ***d*** [harfi]:

اَرْدِنِى ***erdini*** – “toza inju; durri g‘alton”. Xotinlarga **اُزُكْ اَرْتِنِى** ***ertini özök*** deyish bilan “durri g‘alton tanali xotin” ma’nosi anglashiladi. Bu so‘zda *dāl tā* ga singib ketgan. Arabcha مُدّكِرْ *muddakir* so‘zining (42a) asli مُذْتَكِرْ *muδtakir* bo‘lgani kabi.

ر ***r*** [harfi]:

اُسْبِرِى ***üspiri*** – issiq kulda pishirilib, yog‘ga to‘g‘rab, ustiga shakar sepib yeyiladigan non.

O‘rtasidagi harfi ikkilangan **فَعُول** *fa’ūl* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

[**اُتّزْ** ***ottuz***] **اُتّزْ يَرمَاقْ** ***ottuz yarmaq*** – “o‘ttiz tanga”, boshqa narsalarga ham qo‘llanadi. “Uch”ni **اُتّزْ** ***ottuz*** so‘zi bilan ham yuritiladi. Men buni **كُنكُت** ***Küŋüt*** da yag‘molardan eshitdim. Ular **اُتّزْ اِجَالِمْ** ***ottuz ičälim*** deb, uchtadan ichganlarini o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. (Shoir) shunday degan:

اُتّزْ اِچبْ قِقْرَلِمْ	***Ottuz ičip qïqralïm,***
يُقَارْ قُبُبْ سَكْرَلِمْ	***Yuqar qopup sekrälim.***
اَرسْلَنْ لَيُو كُكْرَلِمْ	***Arslanlayu kökrälim,***
قَجْتِى سَقِنجْ سَقْتَلِمْ	***Qačtï saqïnč, sewnälim.***

“Uch qaytadan ichaylik, o‘rindan turib sakraylik, arslon yanglig‘ o‘kiraylik. Qayg‘u ketdi, sevinaylik”.

Ushbu she’rdagi **اُتّزْ اِچبْ قِقْرَلِم** ***ottuz ičip qïqralïm*** iborasida **اُتّزْ** ***ottuz*** so‘zi “uch qaytadan, uchta-uchtadan” ma’nosida qo‘llangan.

[**اِسِّزْ** ***essiz***] **اِسِّزْ كِشِى** ***essiz kiši*** – “yuzsiz, uyatsiz, yaxshilikni bilmaydigan kishi”. Bu so‘zda *sīn* harfining takrorlanishi mubolag‘a uchundir.

اَسِّزْ ***essiz*** – “hayf, afsus”. Arabcha يا اَسَفا *yā asafā* degan so‘z kabi achinish, hayfsinishni bilduruvchi so‘z. **اَسِّزْ اَنِكْ يِكِتْلِكِى** ***essiz anïŋ yigitligi*** – “hayf uning yoshligiga”.

اِكّزْ اُغلَانْ ***ikkiz oγlan*** – “egizak bola”.

غ ***γ*** [harfi]:

[**اَرِّغْ** ***arrïγ***] **اَرِّغْ نَانكْ** ***arrïγ näŋ*** – “juda toza narsa”; *rā* ning takrorlanishi mubolag‘a uchundir.

ك ***k*** [harfi]:

[**اَلِّكْ** ***ellig***] **اَلِّكْ يَرْمَاقْ** ***ellig yarmaq*** – “ellik tanga va boshqa har qanday narsa”.

فَعْلَل *fa’lal* qolipidagi uchinchi harfi *sukun* li bo‘lgan so‘zlar bo‘limi

غ ***γ*** [harfi]:

اَقِجْغَا ***awïčγa*** – “qari chol”.

Bosh harfi *zamma* li bo‘lgan so‘z

م ***m*** [harfi]:
اُدِتْمَا ***uδïtma*** – “suzma, yangi panir (pishloq)”.

Bosh harfi *kasra* li bo‘lgan so‘z

غ ***γ*** [harfi]:
اِلِمْغَا ***ïlïmγa*** – shox maktublarini “turk xati” (خطّ التركيّة) bilan yozuvchi kotib.

اَفْعَالِل ***af’ālil*** qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:
اَلْبَاغُتْ ***alpaγut*** – “yengilmas kurashchi, botir, bahodir, pahlavon”.
(Shoir) shunday degan:

بُذْرَجْ يَمَا قُدُرْدِى ***Buδrač yemä qudurdï,***
اَلْبَاغْتِنْ اُدْرْدِى ***Alpaγutïn öδürdi.***
سُوسِنْ يَنَا قِدِرْدِى ***Süsin yana qadïrdï,***
كَلكَالِمَتْ اِرْكَشُورْ ***Kelgälimät irkäšur.***

Aytmoqdaki: “بُذْرَجْ *Buδrač* – yabaqular begining oti, yana qutirdi [jumbushga keldi], botirlarini saraladi, qo‘shinni qayta yig‘di, jangga kirish uchun hozirlik ko‘rmoqda” (42b)
ق ***q*** [harfi]:
اَدْغِرَاقْ ***aδγïraq*** – quloqlari oq, tanasining ba’zi joylari qora bir turli kiyik. U echki, taka suratidadir.
[اَدْغِرَاقْ ***Aδγïraq***] سُقِى اَدْغِرَاقْ ***Aδγïraq suwï*** – yag‘molar shahridagi bir suv(naxr)ning oti.
اَرْقَجُقْ ***arqačuq*** – og‘izning ichiga dori quyish uchun qo‘llanadigan ichi kovak bir asbob, u sukurrajaga o‘xshaydi.
ل ***l*** [harfi]:
اَرْذُوتَالْ ***arδutal*** – mo‘yni to‘ktirishga qo‘llanadigan aralashma. Ohak, zirnix.

فَعْلُولِى ***fa’lūlī*** qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:
اَشْكُرْتِى ***ešgürti*** – naqshli (gulli) chincha (صِينى) ipak kiyimlik.
ز ***z*** [harfi]:
اَفْزُورِى ***awzurï*** – aralashtirilgan ovqat, chunonchi, bug‘doy, arpa uni aralashtirilib qilinadi.

فَعْلَنْدِى *fa’landī* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

د ***d*** [harfi]:

[اُدْرُنْدِى ***öðründi***] اُدْرُنْدِى نَانَكْ ***öðründi näŋ*** – “tanlangan, saralangan narsa”.

[اَقْدِنْدِى ***ewdindi***] اَقْدِنْدِى نَانَكْ ***ewdindi näŋ*** – “har nasaning qirindisi”. Bu so‘z turi arabcha فُعالَه bobidagi fe’ldan yasalgan ismga o‘xshaydi. Bir narsaning ortig‘ini bildiradi.

فُعُولِين *fu’ūlīn* qolipidagi *ɣunna* lilar bo‘limi

ن ***n*** [harfi]:

اُنكُوزِينْ ***oŋužïn*** – cho‘llarda odamni o‘ldiruvchi jinlar.

To‘rt harflilar bo‘limi tugadi.

BU BESH HARFLILAR BOBLARIDIR

فَعَلْعَل *fa’al’al* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

Bu bo‘lim yolg‘iz ot va sifatlarni hamda *ismü-l-makān* (اسماء الاماكِن) – joy otlarini o‘z ichiga oladi. Aslida joy otlari va sifatlarni solishtirishga – qiyosga havola qilib, uning aytilishiga bog‘liq hollardagina ko‘rsatilishi kerak edi. Bu yerda ularni shu maqsadda, qiyos qiluvchiga qulaylik yaratish uchun ko‘rsatildi.

غ ***ɣ*** [harfi]:

[اُقْتُلْغْ ***uwutluɣ***] اُقْتُلْغْ كِشِى ***uwutluɣ kiši*** – “uyatchan kishi”.

[اَغِرْلِغْ ***aɣïrlïɣ***] اَغِرْلِغْ اَرْ ***aɣïrlïɣ er*** – “odamlar orasida hurmatli, sevimli kishi”.

[اُغُرْلُغْ / اُغُرْلُغْ اِيشْ ***oɣurluɣ / oɣurlïɣ***] اُغُرْلُغْ / اُغُرْلُغْ اِيشْ ***oɣurluɣ / oɣurlïɣ ïš*** – “o‘z vaqtida, mahalida bo‘lgan ish”.

[اُبُزْلُغْ ***opuzluɣ***] اُوىْ اُبُزْلُغْ يِيرْ ***oy opuzluɣ yer*** – “o‘ydim-chuqur yer”.

[اُدُزْلُغْ ***uδuzluɣ***] اُدُزْلُغْ كِشِى ***uδuzluɣ kiši*** – “qo‘tir yarali kishi”.

[اَغُزْلُغْ ***aɣužluɣ***] اَغُزْلُغْ اَرْ ***aɣužluɣ er*** (43a) – “og‘izi bor kishi; og‘izli kishi”.

[اُغُشْلُغْ ***oɣušluɣ***] اُغُشْلُغْ اَرْ ***oɣušluɣ er*** – “qarindoshlari bor kishi”.

اُقُشْلُغْ اَرْ ***uqušluɣ er*** – “zakiy kishi; tushunadigan, uquvli kishi”.

اَجِغْلِغْ اَرْ ***ačïɣlïɣ er*** – “maishatli, ayshga berilgan kishi”. Maqolda (shunday kelgan): اَجِغْلِغْ اَرْ شَابُوكْ قَرِيمَاسْ ***Ačïɣlïɣ er šebük qarïmas.*** Ma’nosi: “Maishatli kishi tez qarimaydi”.

[اَجِغْلِغْ ***ačïɣlïɣ***] اَجِغْلِغْ كُبْ ***ačïɣlïɣ küb*** – quyilgan narsani achitib qo‘yadigan, o‘ziga shunday bir xususiyat o‘rnashib qolgan xum, kub.

[اَزِغْلِغْ ***aδïɣlïɣ***] اَزِغْلِغْ تَاغْ ***aδïɣlïɣ tayɣ*** – “ayiqli tog‘; ayig‘i ko‘p tog‘”.

[اُرُغْلُغْ ***uruɣluɣ***] اُرُغْلُغْ اَلْتُونْ ***uruɣluɣ altun*** – tamg‘a urilib, pul qilinib kesilib, muhr bosilgan oltin (oltin aqcha) va shu kabilar.

[اَزِغْلِغْ ***azïγlïγ***] اَزِغْلِغْ اَتْ ***azïγlïγ at*** – “ozig‘ini yorgan ot va ozig‘ini yorgan har bir hayvon”.

[أُجَقْلِغْ ***očaqlïγ***] أُجَقْلِغْ اَقْ ***očaqlïγ ew*** – “o‘choqli uy”.

[اَجُقْلُغْ ***ačuqluγ***] اَجُقْلُغْ كِشِى ***ačuqluγ kiši*** – “ochiq kishi; yaxshi xulqli kishi”.

[اَسِغْلِغْ ***asïγlïγ***] اَسِغْلِغْ اِيشْ ***asïγlïγ ïš*** – “foydali ish”.

[اَدَقْلِغْ ***aδaqlïγ***] اَدَاقْلِغْ نَانَكْ ***aδaqlïγ näŋ*** – “oyoqli narsa”.

[اَرِقْلِغْ ***arïqlïγ***] اَرِقْلِغْ يِيرْ ***arïqlïγ yer*** – “ariqli yer”.

[اُرُقْلُغْ ***uruqluγ***] اُرُقْلُغْ قُوَا ***uruqluγ qova*** – “arqonli chelak”.

[اَزِقْلِغْ / اَزُقْلُغْ ***azuqlïγ*** / ***azïqlïγ***] اَزِقْلِغْ / اَزُقْلُغْ ***azuqlïγ*** / ***azïqlïγ er*** – “ozig‘i bor er”. Maqolda (shunday kelgan): اَزُقْلُغْ / اَزِقْلِغْ اَرُقْ اَرْمَاسْ ***Azuqlïγ*** / ***azïqlïγ aruq armas.*** Ma’nosi: “Ozig‘i bor er safarda tolmaydi, charchamaydi”.

[اَرَنْلِغْ ***aranlïγ***] اَرَنْلِغْ اَقْ ***aranlïγ ew*** – “otxonasi, og‘ilxonasi bor uy”.

[اَتَنْلِغْ ***atanlïγ***] اَتَنْلِغْ اَرْ ***atanlïγ er*** – “bichilgan, axta qilingan tuyasi bor kishi”.

[اُلَرْلِغْ ***ularlïγ***] اُلَرْلِغْ تَاغْ ***ularlïγ taγ*** – “kakligi ko‘p bo‘lgan tog‘”.

[اَلِمْلِغْ ***alïmlïγ***] اَلِمْلِغْ اَرْ ***alïmlïγ er*** – “olimi, oladigani bor kishi”.

[اَلِنْلِغْ ***alïnlïγ***] اَلِنْلِغْ اَرْ ***alïnlïγ er*** – “peshonasi keng, peshonali kishi”.

[اُلُنْلُغْ ***ulunluγ***] اُلُنْلُغْ اَرْ / اِرْ ***ulunluγ er*** – “kamonga mos o‘qi bor kishi”.

ق ***q*** [harfi]:

اُرُنْجَقْ ***orunčaq*** – “omonat”. Bu so‘zni اُرُنْجَاقْ shaklida qo‘llash ham mumkin. (Shoir) shunday degan:

اُرُنْجَقْ اَلِبْ يَرْمَدِى	***Orunčaq alïp yermädi,***
اَلِمْلِغْ كُرُو اَرْمَدِى	***Alïmlïγ körü armadï,***
اَدَشْلِقْ اُزَا تُرْمَدِى	***Adašlïq üzä turmadï,***
قَلِنْ اَرَنْ تِرْكشُورْ	***Qalïn erän tirkäšür.***

Bir kishi sitam qilib aytmoqda: “U kishi omonat olishdan to‘xtamadi, omonatni egasiga qaytarishni o‘ylamadi, uni quruq qaytaraverishdan zerikmadi. Do‘stlikka rioya qilmadi, endi qalin askar bilan menga qasd qilmoqchi”.

اُغُلْجُقْ ***oγulčuq*** – “xotinlar bachadoni”.

اُغُرْشُقْ / اُغْرْشُقْ ***oγuršuq*** / ***oγïršuq*** – “urchuq”; ip yigiriladigan charx dugini tutib turadigan ayrili cho‘p-chalmak.

اُغُلْمُقْ / اُغْلْمُقْ ***uγulmuq*** / ***uγulmïq*** ustiga to‘sin qo‘yish uchun tikka turg‘azilgan yog‘och. (43b)

اُجُزْلُقْ ***učuzluq*** – “qiymati arzonlik”.

اُجْزْلُقْ ***učuzluq*** – “pastlik va kichiklik”.

اَدَشْلِقْ / اَدِشْلِقْ ***adašlïq*** / ***adïšlïq*** – “sodiqlik; samimiylik”.

اَدَقْلِقْ ***adaqlïq*** – tokzorlarda so‘riga ishlatiladigan yog‘och.

اُدُقْلُقْ ***uduqluq*** – kishining bir narsadan g‘ofilligi, hushyor emasligi, xabarsizligi.

اُدُغْلُقْ ***uδuγluq*** – “uyg‘oqlik; ishda hushyorlik; sezgirlik”.

اَرِغْلِقْ ***arïγlïq*** – “tozalik, poklik”.

[اُرُغْلُقْ ***uruγluq***] اُرُغْلُقْ بُغْدَایْ ***uruγluq buγday*** – “urug‘liq bug‘doy; uruqqa saqlangan bug‘doy”. Har qanday uruqqa saqlangan donga ham qo‘llanadi.

اَجِغْلِقْ ***ačïγlïq*** – “achchig‘liq”.

[اَجُقْلُقْ ***ačuqluq***] يُوزْ اَجُقْلِقِی ***yüz ačuqluqï*** – “ochiq yuzlilik”.

[اَجِقْلِقْ ***ačïqlïq***] قَبُغْ اَجِقْلِقِی ***qapuγ ačïqlïqï*** – “eshik ochiqligi”.

[اُجَقْلِقْ ***očaqlïq***] اُجَقْلِقْ يِرْ ***očaqlïq yer*** – “o‘choqli yer; o‘choq joyi”; اُجَقْلِقْ تِتِکْ ***očaqlïq titik*** – o‘choq qilinadigan loy va boshqa narsalar.

اَرُقْلُقْ ***aruqluq*** – “charchaganlik; horg‘inlik”.

[اُرُقْلُقْ ***oruqluq***] اُرُقْلُقْ يُونكْ ***oruqluq yüŋ*** – “arqon uchun tayyorlangan yung”.

اَزُقْلِقْ / اَزِقْلِقْ ***azuqlïq / azïqlïq*** – “oziqliq, ovqat”.

اُزَقْلِقْ ***uzaqlïq*** – “ishda sustlik; sudralish”.

اُشَقْلِقْ ***ušaqlïq*** – “ishda yoshlik qilish”; اُشَقْلِقْ قِلْمَا ***ušaqlïq qïlma*** – “yoshlik qilma”.

اُلْغُلُقْ ***uluγluq*** – “ulug‘liq; baland darajalilik”; اُلْغُلُقْ تَنگْرِیکَا ***uluγluq täŋrikä*** – “ulug‘liq Tangriga xos”.

اُلُغْلُقْ ***uluγluq*** – “yoshi ulug‘liq; katta yoshlilik”.

[اَمَجْلِقْ ***amačlïq***] اَمَجْلِقْ يِرْ ***amačlïq yer*** – otish mashqi o‘tkazish uchun tayinlangan maydon.

اَنُقْلُقْ ***anuqluq*** – “ishda qobiliyatlilik; ishga hozirlanganlik”.

ک ***k*** [harfi]:

اُزْتُلُکْ ***üzütlük*** – “baxillik”.

[اَکَتْلِکْ ***egätlik***] اَکَتْلِکْ قَرَابَاشْ ***egätlik qarabaš*** – “yanga”. Nikoh kechasi kelin va kuyovga xizmat qilishga buyurilgan xizmatchi. Kelinning o‘ziga ham اَکَتْلِکْ ***egätlik*** deyiladi. Otlarga qo‘shilgan jarangsiz *kāf* (الكاف الصلبة) ba’zan o‘rin otini bildiradi, ba’zan narsa qo‘yilgan joyni bildiradi, ba’zan masdar bo‘ladi. Bu uch holdan tashqari, *kāf* egalik ma’nosini bildiradi. Masalan, yuqoridagi اَکَتْلِکْ ***egätlik*** so‘zida *kāf* kelin-kuyovlarga xizmat qilish uchun tayinlangan kimsani bildiradi. Bu o‘rinlarda *kāf* jarangsizdir. (بالكاف الصُلبه) (44a) Ega ma’nosini bildirgan so‘zlarda *kāf* zaif, bo‘shroq tovushdir (الكاف اذاجعلتها ركيكه), ya’ni [*g*] kabi jaranglidir. اَکَتْلِکْ ***egätlig*** so‘zi “xizmatchisi bor, xizmatchiga ega” ma’nosida keladi. Bu hamma so‘zlar uchun umumiy qoidadir.

اَتَجْلِکْ ***etäčlik*** – yong‘oq o‘ynash uchun qazilgan chuqurcha (do‘l).

اَدَرْلِکْ ***eδärlik*** – ustiga egar qo‘yilgan yog‘och. So‘z oxirida zaif *kāf* bilan aytilsa (بالكاف الركيكه), “egar egasi” ma’nosini bildiradi.

اُگُرْلُکْ ***ügürlük*** – “tariq qo‘yilgan joy”. Oxirgi *kāf* zaif talaffuz qilinsa (بالكاف الركيكه), “tariq egasi” manosini bildiradi.

اَرْ اُگُرْلُکْ ***ügürlüg er*** – qo‘y va boshqa hayvonlardan podasi bor kishi. “Baytallari bor ayg‘ir”ga اَذْغِرْ اُگُرْلُکْ ***ügürlüg aδγïr*** deyiladi.

اَدِزْلِکْ ***eδizlik*** – “balandlik; adir”.

اِسِزْلِکْ ***esizlik*** – “yomonlik”.

[اَتَكْلِكْ *etäklik*] اَتَكْلِكْ بُوزْ ***etäklik böz*** – “etak qilinadigan bo‘z”. Biron kiyimning etakli ekanini anglatish uchun اَتَكْلِكْ تُونْ ***etäklig ton*** – “etakli to‘n” deyiliadi; *kāf* zaifdir (بالكاف الركيكه).

اَتُكْلُكْ سَغْرى ***etüklük sayrï*** – “mahsilik saxtiyon teri”.

[اُتُكْلُكْ *ötüglüg*] اُتُكْلُكْ كِشِي ***ötüglüg kiši*** – “shohga hojatmand kishi”.

اُزُكْلُكْ ***üzüklük*** – “uzilganlik; kesilganlik”.

اُرُمْجَكْ ***örümčäk*** – “o‘rgimchak”.

اَلَرْسُكْ / اِلَرْسُكْ ***ilärsük*** / ***elärsük*** – “ishton bog‘i”.

اِسِكْلِكْ ***isiglik*** – “issiqlik, harorat”.

اِسِكْلِكْ ***isiglik*** – “sevgi, muhabbat”; كُنكُلْ اِسِكْلِكِى كَرَاكْ ***köŋül isigligi keräk*** – “ko‘ngil muhabbati kerak”.

اَرُكْلُكْ ***erüklük*** – shaftoli o‘sadigan joy, shaftolizor.

اِيرِكْلِكْ ***eriglik*** – hayvonlarning tezligi, qizg‘inligi.

[اَشِكْلِكْ *ešiklik*] اَشِكْلِكْ يِغَاجْ ***ešiklik yïγač*** – ostona va eshik uchun ishlatiladigan, unga mo‘ljallangan yog‘och. Bu so‘z boshqa narsalarga nisbatan ham ishlatiladi.

[اَشُكْلِكْ *ešüklik*] اَشُكْلِك بَرْچِنْ ***ešüklik barčïn*** – ustki ko‘ylak uchun ishlatiladigan ipak kiymlik. Oxiri zaif *kāf* bilan talaffuz qilinsa (بالكاف الركيكه), “ko‘ylak egasi” ma’nosidadir.

اَفَكْلِكْ ***ewäklik*** – “ishlarda shoshilish”.

اَكَكْلِكْ ***ekäklik*** – “xotinning yusizligi, orsizligi”.

اُكَكْلِكْ ***ükäklik*** – “sandiq yasaladigan yog‘och”. Ustiga qubbalar ishlangan devorga اُكَكْلِك تَامْ ***ükäklik tam*** deyiladi.

اَلِكْلِكْ ***eliglik*** – “qo‘lqop”.

[اَمِكْلِكْ *emiglig*] اَمِكْلِكْ اَشْلَارْ ***emiglig ešlär*** – “emizikli xotin”. (44b) Maqolda (shunday kelgan): اَمِكْلِكْ اُرَاغْتْ كُسَاكْجِى بُلُورْ ***Emiglig uraγut küsägči bolur.*** Ma’nosi: “Emizikli xotin ishtahali bo‘ladi”. Shuning uchun unga istagani beriladi.

[اُنُكْلُكْ *enüklüg*] اُنُكْلُكْ اَرسْلَانْ ***enüklüg arslan*** – “bolali arslon”.

فَعَلْعَان *fa’al’ān* qolipidagi birinchi va ikkinchi harflari har xil harakatli so‘zlar bo‘limi

Bu bo‘lim sifatlarning sifatlanuvchilardan ko‘p hosil bo‘lishini ko‘rsatadigan o‘rindir. Bunda qilingan ishlar juda ko‘p, to‘xtovsiz bo‘layotganini bildiruvchi maxsus so‘zlar keltiriladi. Bu so‘z turkimi arabcha مِفْعَالْ *mif’āl* shaklidagi so‘zlarga to‘g‘ri keladi. Chunonchi, “ko‘p ovqat yediradigan” ma’nosidagi مِطْعَامْ yoki “ko‘p urishadigan” ma’nosidagi مِخْرَابْ so‘zlari kabi. Bu so‘zlar ishning ko‘p qaytalab bo‘lishini anglatadi.

Bu xil so‘zlarning oxirida *nūn* keladi, biroq ko‘pchilik o‘g‘uzlar va ba’zi qipchoqlar *nūn* ni *qāf* ga almashtirib, *yayn* ni tamoman tushiradilar. Ular “ichi,

yuragi siqilaveradigan” ma’nosidagi بُشْغَانْ ***bušγan*** o‘rnida بُشَقْ ***bušaq*** deb ishlatadilar. Bu asosli qoidadir.

ت ***t*** [harfi]:

[اَبِتْغَانْ ***abïtγan***] اُلْ اَرْاُلْ اُوزِنْ كِشِدَنْ اَبِتْغَانْ ***ol er-ol özin kišidän abïtγan*** – “u kishilardan o‘zini chetga oladigan, yashirinadigan kishidir”.

[اَجِتْغَانْ ***ačïtγan***] اُلْ كُبْ اُلْ سُجِكْنِى اَجِتْغَانْ ***ol küb-ol süčigni ačïtγan*** – “u ichiga quyilgan sharobni doim achitadigan kub (xum)dir”.

[اُدِتْغَانْ ***uδïtγan***] اُل بُو اُتْ اُلْ كِشِنِى اُدِتْغَانْ ***ol bu ot-ol kišini uδïtγan*** – “bu o‘sha, kishini uxlatib qo‘yadigan doridir”.

[اَرِتْغَانْ ***arïtγan***] اُلْ كِشِى اُلْ تَرِغْ اَرِتْغَانْ ***ol kiši-ol tarïγ arïtγan*** – “u bug‘doy va boshqalarni doim tozalaydigan kishidir”.

[اَزِيتْغَانْ ***azïtγan***] اُلْ كِشِى اُلْ يُولْدَنْ اَزِيتْغَانْ ***ol kiši-ol yoldan azïtγan*** – “u odamlarni doim yo‘ldan ozdiradigan kishidir”.

[اَزِيتْغَانْ ***azïtγan*** (***uzutγan****?*)] بُو اَرْ اُلْ اِيشِيغْ اَزِيتْغَانْ ***bu er-ol ïšïγ azïtγan*** (***uzutγan****?*) – “bu doim ishni cho‘zadigan kishidir”.

[اُزِتْغَانْ ***uzïtγan***] بُو اَرْ اُلْ اَتِنْ اُزِتْغَانْ ***bu er-ol atïn uzïtγan*** – “bu otini o‘zdiradigan kishidir”.

[اُسِتْغَانْ ***usïtγan***] بُو قُيَاشْ اُلْ كِشِنِى اُسِتْغَانْ ***bu quyaš-ol kišini usïtγan*** – “bu kishini isitadigan, chanqatadigan quyoshdir”.

(Shoir) shunday degan:

اُسِتغَانْ قُيَاشْ قَبْسَدِى	***Usïtγan quyaš qapsadï,***
اُمُنجْلِغ اَدَشْ يَيْسَدِى	***Umunčlïγ aδaš yaysadï,***
اَرْتِشْ سُوِيْنْ كَجْسَدِى	***Ertiš süwïn kečsädi,***
بُودُنْ اَنِنْ اُركُشُورْ	***Bodun anïn ürküšür.***

Aytmoqdaki: “Qizdiruvchi quyosh qopladi, umid qilingan do‘st bizga hasad qila boshladi. Yov اَرْتِشْ *Ertiš* suvini kechishga hozirlandi, buning oqibatida xalq orasida vahima paydo bo‘ldi” (45a)

[اَغِتْغَانْ ***aγïtγan***] بُو كَيِكْ اُلْ اِتغْ تَاغْقَا اَغِتْغَانْ ***bu keyik-ol ïtïγ taγqa aγïtqan*** – “bu, itni doim toqqa chiqaradigan kiyikdir”.

[اَقِتْغَانْ ***aqïtγan***] بُو تَاغْ اُلْ تَقْرَاقْ اَقِنْ اَقِتْغَانْ ***bu tay-ol tawraq aqïn aqïtγan*** – “bu, yomg‘irni seldek tez oqizadigan tog‘dir”.

[اُقِتْغَانْ ***oqïtγan***] بُو بِتِكْ اُلْ كِشِنِى اُقِتْغَانْ ***bu bitig-ol kišini oqïtγan*** – “bu, ko‘lami katta bo‘lgani uchun, kishini ko‘p o‘qitadigan kitobdir”.

[اُلِتْغَانْ ***ulïtγan***] بُواَرْاُلْ اِتِنْ اُلِتْغَانْ ***bu er-ol ïtïn ulïtγan*** – “bu, itini ko‘pincha ulitadigan kishidir”.

[اُنِتْغَانْ ***unïtγan***] بُو اَرْ اُلْ سُوزْ اُنِتْغَانْ ***bu er-ol söz unïtγan*** – “bu, so‘zini unutadigan kishidir”.

[اَنُتْغَانْ / اَنِتْغَانْ ***anutγan / anïtγan***] بُو اَرْ اُلْ اِيشِغْ اَنُتْغَانْ / اَنِتْغَانْ ***bu er-ol ïšïγ anutγan / anïtγan*** – “bu, ishlarga yaxshi hozirlanadigan kishidir”.

[اُجُرْغَانْ *učuryan*] بُو اَرْ اُلْ قُشِغْ اُجُرْغَانْ ***bu er-ol qušïy učuryan*** – “bu, qushni doim uchiradigan kishidir”.

[اَجُرْغَانْ *ačuryan*] بُو اَشْ اُلْ كِشِنِى اَجُرْغَانْ ***bu aš-ol kišini ačuryan*** – “bu, kishining qornini tez ochiradigan, tez hazm bo‘ladigan ovqatdir”.

[اَسُرْغَانْ *asuryan*] بُو اَرْ اُلْ تَلِمْ اَسُرْغَانْ ***bu er-ol telim asuryan*** – “bu, ko‘p aksiradigan kishidir”.

[اُسُرْغَانْ *osuryan*] بُواَرْ اُلْ اُسُرْغَانْ ***bu er-ol osuryan*** – “bu, ko‘p o‘siradigan, o‘siroq kishidir”.

[اِسِرْغَانْ *ïsïryan*] اِسِرْغَانْ اِتْ ***ïsïryan ït*** – “qopag‘on it”.

غ *γ* [harfi]:

اَقْزُغُونْ ***awužyun*** – terilarni ishlashda ishlatiladigan salam daraxtining bargi.

[اَتِشْغَانْ *atïšyan*] اُلْ مَنِكْ بِرْلَا اُقْ اَتِشْغَانْ اُل ***ol meniŋ birlä oq atïšyan-ol*** – “u men bilan o‘q otishadigandir”.

ك *g* [harfi]:

[اُبُرْكَانْ *öpürgän*] بُو اَرْ اُلْ سُوتْ اُبُرْكَانْ ***bu er-ol süt öpürgän*** – “bu, boshqalarga doim sut ichiradigan kishidir”.

[اِجُرْكَانْ *ičürgän*] بُو اَرْ اُلْ تَلِمْ سُجِكْ اِجُرْكَانْ ***bu er-ol telim süčig ičürgän*** – “bu, kishilarga doim sharbat ichiradigan kishidir”.

[اَدْرْكَانْ *eδärgän*] بُو اِتْ اُلْ كَيِكْنِى اَدْرْكَانْ ***bu ït-ol keyikni eδärgän*** – “bu, ov izlaydigan itdir”. Doim haqini talab qiluvchi kishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[اَفْرْكَانْ تَفْرْكَانْ *ewürgän-tewürgän*] بُو اَرْ اُلْ اِيشِغْ اَفْرْكَانْ تَفْرْكَانْ ***bu er-ol ïšïy ewürgän-tewürgän*** – “bu, ishni ag‘darib-to‘ntarib yuradigan kishidir”.

[اُدْرْكَانْ *öδürgän*] بُو اَرْ اُلْ تَكْمَا نَانْكْ نِى اُدْرْكَانْ ***bu er-ol tegmä näŋni öδürgän*** (45b) – “bu, narsalar orasidan yaxshisini ajratadigan kishidir”.

[اُشْرْكَانْ *üšärgän*] بُو اَرْ اُلْ كُوزِى اُشْرْكَانْ ***bu er-ol közi üšärgän*** – “bu, ochlik va boshqa sabablardan ko‘zi tinaveradigan kishidir”.

اَكْرْكَانْ ***ekürgän*** – bir o‘simlik; urug‘ini qarluq turkmanlari yeydi.

[اَكِرْكَانْ *egirgän*] بُو اَشْلَارْ اُلْ تَلِمْ يِبْ اَكِرْكَانْ ***bu ešlär-ol telim yïp egirgän*** – “bu, ko‘p ip yigiradigan xotindir”.

[اَتِلْكَانْ سَيِلْغَانْ *etilgän-sayïlyan*] بُو اَرْ اُلْ اَتِلْكَانْ سَيِلْغَانْ ***bu er-ol etilgän-sayïlyan*** – “bu, (har bir eshikka) ko‘p kirib chiqaveradigan kishidir”.

اَتِلْكَانْ ***etilgän*** – otlarda bo‘ladigan bez kasalligi. U yorilib tuzaladi. Forscha خُنَامْ *xunām* yoki خُنامْ *xunnām* deb ataladi.

[اَتِلْكَانْ *etilgän*] مَنِكْ اِيشِمْ اَدْكُولْكُنْ اَتِلْكَانْ اُلْ ***meniŋ ïšïm eδgülügün etilgän-ol*** – “mening ishim doim yaxshilikka yuzlangan, o‘ngidan keladi”.

[اُزُلْكَانْ *üzülgän*] بُو يِشِغْ اُلْ اُزُلْكَانْ ***bu yïšïy-ol üzülgän*** – “bu, tez uziladigan arqondir”.

[اُرُلْكَانْ *ürülgän*] بُو اَرْ اُلْ اُبْكَانْ اُرُلْكَانْ ***bu er-ol öpkän ürülgän*** – “bu, g‘azabi suv to‘ldirilgan meshdek to‘lib toshgan kishidir”.

[اَشِلْكَانْ *ešilgän*] بُو يِبْ اُلْ اَشِلْكَانْ ***bu yïp-ol ešilgän*** – “bu, cho‘ziladigan ipdir”.

[اَشِلْكَانْ *ešilgän*] بُو قَيِرْ اُلْ اَشِلْكَانْ ***bu qayïr-ol ešilgän*** – “bu, surilib turuvchi qumdir”.

[اَكِلْكَانْ *egilgän*] بُو بُتَقْ اُلْ اَكِلْكَانْ ***bu butaq-ol egilgän*** – “bu, doim egilib turadigan butoqdir”.

[اُكُلْكَانْ / اُكِلْكَانْ *ügülgän* / *ügilgän*] بُو نَانىڭ اُلْ تُتْجى اُكُلْكَانْ / اُكِلْكَانْ ***bu näŋ-ol tutčï ügülgän* / *ügilgän*** – “bu, doim uyuladigan narsadir”.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

د ***d*** [harfi]:

اُرُمْدَايْ ***urumday*** – zaharning zararini yo‘qotish uchun ishlatiladigan tosh.

اِفْعَلْ ***af’alal*** qolipidagi so‘zlar bo‘limi

اَرْسَلِقْ ***arsalïq*** – hayvonlarning xunasasi (o‘g‘uzcha).

Bosh harfi ***ẓamma*** li so‘zlar

ج ***č*** [harfi]:

اُسْكِجْ ***üskič*** – “mayiz”.

ك ***k*** [harfi]:

اُكْرَيُكْ ***ögräyük*** – “odat”. اَفرَاسيَابْ *Afrāsiyāb* zamonini tasvirlovchi marsiyada shunday deyilgan:

اُكْرَيُكِى مُنْدَغْ اُقْ ***Ögräyüki mundaγ-oq,***
مُنْدَا اَدِنْ تِلْدَغْ اُقْ ***Munda aδïn tildaγ-oq,***
اَتْسَا اَژُنْ اَغْرَبْ اُقْ ***Atsa ažun oγrap oq,***
تَغْلَرْ بَشِى كَرْتِلُورْ ***Taγlar bašï kertilür.***

Aytmoqdaki: “Zamonaning o‘rgangan odati shunday, bundan boshqa halokatlari ham bor, dunyo mo‘ljallab o‘q otsa bormi, tog‘lar boshi kertiladi [parcha-parcha bo‘lib ketadi]”.

فُعَا لِلْ ***fu’ālil*** qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ق ***q*** [harfi]: (46a)

[اُسَايُقْ ***usayuq***] اُسَايُقْ اَرْ ***usayuq er*** – “g‘ofil kishi”.

Bu bo‘limning ***manqūṣ*** turi

ق ***q*** [harfi]:

[اُيَدْسِلِقْ ***uyadsïlïq***] اَرْ اُيَدْسِلِقْ ***uyadsïlïq er*** – “juda uyatchan kishi”.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ه ***h*** [harfi]:

اُوهِى ***ühi*** – “ukki”. Ko‘p turklar bu so‘zni *kāf* bilan اُوكِى ***üki*** deydilar. To‘g‘risi shudir, chunki turkiy tilda bo‘g‘izdan chiqadigan ه *hā* yo‘qdir.

ɣunna lilar bo‘limi

ج ***č*** [harfi]:

اُتْكُنْجْ ***ötkünč*** – “hikoya”; اُتْكُنْدِى ***ötkünč ötkündi*** – “hikoya aytdi”.

فَعَا لِلْ *fa’ālil* qolipidagi *ɣunna* lilar bo‘limi

ر ***r*** [harfi]:

اَلانكِرْ ***alaŋïr*** – kalamush jinsidan bo‘lgan يَرْبُوغْ ***yarbuɣ*** – “qo‘shoyoq” deb atalgan kichik bir hayvon. Turkmanlar uni yeydilar.

ق ***q*** [harfi]:

[اُنكَامُقْ ***oŋamuq***] اُنكَامُقْ اَرْ ***oŋamuq er*** – “ovsar, chapaqay kishi”.

ك ***k*** [harfi]:

[اُنكَايُكْ ***öŋäyük***] اُنكَا يُكْ نَانكْ ***öŋäyük näŋ*** – “bir narsaga xos narsa”. Biror kishiga xos har narsaga ham اُنكَا يُكْ ***öŋäyük*** deyiladi.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ق ***q*** [harfi]:

اُتُنكُلُقْ ***otuŋluq*** – “o‘tinxona, o‘tin turadigan joy”.

Tangriga shukurlar bo‘lsin, *hamza* bilan boshlangan otlar bo‘limi tugadi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU (BOSHDA *HAMZA* KELGAN) FE’LLAR KITOBIDIR

IKKI HARFLILAR BO‘LIMI

Bilginki, biz fe’l boblarining hammasini ham o‘tgan zamon, kelasi zamon fe’llarini va masdarni beramiz, lekin o‘tgan zamon fe’llarinigina izohlaymiz. Aslida kelasi zamon fe’li va masdarlarni bermasak ham bo‘lar edi. Lekin ularning talaffuzini va yozilishini o‘rganish uchun berildi. *qāf* li masdar *qāf* li so‘zni yoki yo‘g‘on harfli (مشبعة) so‘zni yoki *yayn* li so‘zni taqozo qiladi. *kāf* li masdar *kāf* li so‘zni yoki ingichka va ingichkaga moyil qilingan (ممالة ركيكة) so‘zni taqazo qiladi. Bu asosiy qoidadir.

ب *p* [harfi]: (46b)

[**اُبْدِى *öpdi***] **اُلْ مَنِى اُبْدِى *ol meni öpdi*** – “u meni o‘pdi” (**اُبَارْ *öpär*, اُبْمَاكْ *öpmäk***).

Maqolda (shunday kelgan): **تَاشِغْ اِسْرُومَسَا اُبْمِشْ كَرَاكْ *Tašïγ ïsrumasa, öpmiš keräk.*** Ma’nosi: “Toshni chaynashga qodir bo‘lmagan kishi, uni o‘pishi kerak”. Bu maqol maqsadga erishish uchun kishi ish ustida yumshoq muomalada bo‘lishiga undab aytiladi.

[**اُبْدِى *öpdi***] **مُونْ اُبْدِى *mün öpdi*** – “sho‘rva va boshqa (shunga o‘xshash) narsalarni ichdi” (**اُبَارْ *öpär*, اُبْمَاكْ *öpmäk***).

ج *č* [harfi]:

[**اَجْدِى *ačdï***] **قَبُغْ اَجْدِى *qapuγ ačdï***, ya’ni “eshik va boshqa narsalarni ochdi” (**اَجَارْ *ačar*, اَجْمَاقْ *ačmaq***).

[**اُجْدِى *učdï***] **قُشْ اُجْدِى *quš učdï*** – “qush uchdi”; **اَنِكْ قُتِى اُجْدِي *anïŋ qutï učdï*** – “uning quti, baxti, davlati uchdi”; **اَرْ اَتْدَانْ قُذِي اُجْدِى *er atdan quδï učdï*** – “kishi otdan yiqilib tushdi”.

Hammasida: **اُجَارْ *učar*, اُجْمَاقْ *učmaq***.

[**اُجْدِى *očdï***] **اُوتْ اُجْدِى *ot očdï*** – “o‘t, olov o‘chdi”.

اَرْنِنكْ اُبْكَاسِى اُجْدِى *erniŋ öpkäsi očdï* – “kishining g‘azabi so‘ndi”.

اَرْ تِنِى اُجْدِي *er tïnï očdï* – “kishining nafasi o‘chdi”. Bu fe’llarning hammasida **اُجَارْ *očar*, اُجْمَاقْ *očmaq*** shakli qo‘llanadi.

[**اِجْدِى *ičdi***] **ارْ سُوقْ اِجْدِى *er suw ičdi***, ya’ni “kishi suv va boshqa narsa ichdi”. Har bir ichadigan yoki so‘radigan narsa uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (**اِجَارْ *ičär*, اِجْمَاكْ *ičmäk***).

ر *r* [harfi]:

[اَرْدِی ***erdi***] اُلْ اَنْدَغ اَرْدِی ***ol andaγ erdi*** – “u shunday edi; u unday edi” (اَرُورْ ***erür***, اَرْمَاکْ ***ermäk***).

[اُرْدِی ***ürdi***] اُلْ اُوتْ اُرْدِی ***ol ot ürdi*** – “u olov va boshqa narsalarni pufladi”.

[اُرْدِی ***ürdi***] اِتْ اُرْدِی ***it ürdi*** deyiladi, ya’ni “it hurdi” demakdir (اُرَارْ ***ürär***, اُرْمَاکْ ***ürmäk***).

[اُورْدِی ***urdï***] اَلکِنْدَاکِی نَانکْنِی یِیرْدَا اُورْدِی ***elgindäki näŋni yerdä urdï*** – “qo‘lidagi narsani yerga qo‘ydi”. Shunday maqol bor: کُمُشْ کُنکَا اُرْسَا اَلتُنْ اَدَاقِنْ کَلِیرْ ***Kümüš künkä ursa, altun aδaqïn kelir.*** Ma’nosi: “Kumush quyoshga qo‘nsa, oltin o‘z oyog‘i bilan keladi”. Bu maqolni muayyan maqsadni amalga oshirish uchun pulni ayamay sarf qilishga undab aytiladi.

اُلْ قُلِنْ اُورْدِی ***ol qulïn urdï*** – “u qulini va boshqalarni urdi” (اُرُورْ ***urur***, اُرْمَاقْ ***urmaq***).

[اَزْدِی ***ezdi***] اُلْ یِیرنِی اَزْدِی ***ol yerni ezdi*** – “u yerni qirtishladi” (اِزَارْ ***ezär***, اِزْمَاکْ ***ezmäk***). (47a)

[اُزْدِی ***üzdi***] اُلْ یِیبْ اُزْدِی ***ol yïp üzdi*** – “u ip, arqon va shunga o‘xshash boshqa narsalarni uzdi” (اُزَارْ ***üzär***, اُزْمَاکْ ***üzmäk***).

ش *š* [harfi]:

[اَشْدِی ***ešdi***] اُلْ یِشِغْ اَشْدِی ***ol yïšïγ ešdi*** – “u arqon va (shunga o‘xshash) boshqa narsalarni cho‘zdi” (اَشَارْ ***ešär***, اَشْمَاکْ ***ešmäk***).

[اَسْدِی ***esdi***] اَسِنْ اَسْدِی ***esin esdi*** – “mayin shamol esdi”.

[اَسْدِی ***esdi***] تَرِغْ اَسْدِی ***tarïγ esdi*** – “bug‘doy va boshqa narsalarni sovurdi”. Shamol tuproqni qo‘zg‘atishiga ham shu so‘z ishlatiladi. Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir.

[اُسْدِی ***usdï***] اَرْ اُسْدِی ***er usdï*** – “kishi suvsadi” (اُسَارْ ***usar***, اُسْمَاقْ ***usmaq***).

[اُسْدُمْ ***usdum***] مَنْ اَیْلَا اُسْدُمْ ***men eylä usdum*** – “men shunday gumon qildim” (o‘g‘uzcha). Masdari ham shunday.

ش *š* [harfi]:

[اَشْدِی ***ešdi***] اُلْ قَیِرْنِی اَشْدِی ***ol qayïrnï ešdi*** – “u qumni to‘kdi”. Unni qop va boshqalarga solish uchun ham shu so‘z qo‘llanadi.

[اَشْدِی ***ešdi***] اَتْلِغْ اَشْدِی ***atlïγ ešdi*** – “otliq chopdi, o‘zdi”.

[اَشْدِی ***ešdi***] قَیْنَارْ اَشِجْ اَشْدِی ***qaynar ešič ešdi*** – “qaynayotgan qozon, qaynab turgan qozon toshdi” (اَشَارْ ***ešär***, اَشْمَاکْ ***ešmäk***).

[اُشْدِی ***üšdi***] اُلْ اُقْ اُشْدِی ***ol oq üšdi*** – “u o‘qni va boshqalarni parma bilan teshdi”; اَتْمَاکَا تَلِمْ کِشِی اُشْدِی ***etmäkkä telim kiši üšdi*** – “non uchun ko‘p kishi to‘plandi” (اُشَارْ ***üšär***, اُشْمَاکْ ***üšmäk***).

ف *w* [harfi]:

[اُفْدِی ***uwdï***] اُلْ اَتْمَاکْ اُفْدِی ***ol etmäk uwdï*** – “u nonni va boshqa narsalarni uvaladi, burdaladi” (اُفَارْ ***uwar***, اُفْمَاقْ ***uwmaq***[1]).

[اَقْدِی ***ewdi***] کُرُنْجْکَا کِشِی اَقْدِی ***körünčkä kiši ewdi*** – “ko‘rish uchun kishilar narsa tevaragiga to‘plandi” (اِقَارْ / اَقَارْ ***ewär***, اَقْمَاکْ ***ewmäk***).

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (اُفْمَاکق).

[اِقْدِی *ewdi*] اَرْ اِقْدِی *er ewdi* – “kishi shoshdi”.

(Shoir) shunday degan:

اُڈو بَارِبْ اُکُشْ اِقْدِمْ	*Uδu barïp öküš ewdim,*
تَلِمْ یُورِبْ کُجِی کَقْدِمْ	*Telim yurïp küči kewdim.*
اَتِمْ بِرْلا تَکُو اِقْدِمْ	*Atïm birlä tegü ewdim,*
مِنِی کُورُبْ یَسِی اَغْدِی	*Meni körüp yesi aγdï.*

Bo‘rini ta’riflab aytmoqdaki: “Uni topish uchun shoshildim. Uning ketidan quvaverib, kuchdan toldirdim. Otim bilan tegrasida aylanib turgan edim, meni ko‘rib tuklari hurpaydi” (اِقَارْ *ewär,* اِقْمَاکْ *ewmäk*).

ق *q* [harfi]:

[اَقْدِي *aqdï*] سُوقْ اَقْدِي *suw aqdï* – “suv va boshqa narsalar oqdi”; یَغِی اَقْدِی *yaγï aqdï* – “yov keldi” (اَقَارْ *aqar,* اَقْمَاقْ *aqmaq*).

[اُقْدِی *uqdï*] اُل اَرْ اِیشِنْ اُقْدِی *ol er ïšïn uqdï* – “u kishi o‘z ishini tushundi” (اُقَارْ *uqar,* اُقْمَاقْ *uqmaq*).

ک *k* [harfi]: (47b)

[اَکْدِی *ekdi*] اُلْ تَرِغْ اَکْدِی *ol tarïγ ekdi* – “u don ekdi”. Shuningdek, bir narsa ustiga sepilgan va quyilgan dori uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (اَکَارْ *ekär,* اَکْمَاکْ *ekmäk*).

[اُگْدِی *ügdi*] اُلْ یَرْمَاقْ اُگْدِی *ol yarmaq ügdi* – “u pul va boshqa narsalarni uydi, to‘pladi” (اُکَارْ *ügär,* اُگْمَاکْ *ügmäk*).

[اَگْدِی *egdi*] اُلْ بُتَقْ اَگْدِی *ol butaq egdi* – “u butoq va boshqa narsalarni egdi” (اَکَارْ *egär,* اَگْمَاکْ *egmäk*).

ل *l* [harfi]:

[اَلْدِی *aldï*] اُلْ اَلِمِنْ اَلْدِی *ol alïmïn aldï* – “u qarzini oldi”; بَکْ اِیلْ اَلْدِی *beg el aldï* – “bek el(viloyat, mamlakat)ni oldi” (اَلِرْ *alïr,* اَلْمَاقْ *almaq*).

[اُلْدِی *uldï*] اَتْ بِشِبْ اُلْدِی *et pïšïp uldï* – “go‘sht hil-hil pishdi”. Shuningdek, “kiyilaverib eskirib, chirigan to‘n”ga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُلْرْ *ulur,* اُلْمَاقْ *ulmaq*).

[اِلْدِی *ildi / ïldï*] تِکَانْ تُونُغْ اِلْدِی *tikän tonuγ ildi* – “tikan kiyimni va boshqa narsalarni ildi”; اَرْ تَاغْدَنْ قُذِی اِلْدِی *er taγdan quδï ïldï* – “kishi tog‘ va boshqa yerdan quyi tushdi”. Bu fe’lning kelasi zamon shakli “tikan ilinishi” ma’nosida kelsa, *lām* harfi *fatḥa* bilan اِلَرْ *ilär,* “tushish” ma’nosida kelsa, *lām* harfi *ẓamma* bilan اِلُرْ *ïlur* bo‘ladi. Oldingisining masdari *kāf* bilan اِلْمَاکْ *ilmäk,* so‘nggisining masdari *qāf* bilan اِلْمَاقْ *ïlmaq* bo‘ladi.

م *m* [harfi]:

[اَمْدِی *emdi*] کَنِجْ اَنَاسِنْ اَمْدِی *gänč anasïn emdi* – “bola onasini emdi”. Hayvonlarning emishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَمَارْ *emär,* اَمَاکْ *emmäk*).

[اُمْدِی *umdï*] اُلْ مَنْدَنْ نَانَکْ اُمْدِی *ol mendän näŋ umdï* – “u mendan biror narsa umid qildi” (اُمَارْ *umar,* اُمَاقْ *ummaq*).

ن ***n*** [harfi]:

[اُنْدِی ***ündi***] اُتْ اُنْدِی ***ot ündi*** – “o‘t undi, ko‘kardi”; اُلْ اَقکَا اُنْدِی ***ol ewkä ündi*** – “u uyga ketdi” (uyg‘urcha) (اُنَارْ ***ünär***, اُنْمَاکْ ***ünmäk***).

[اِنْدِی ***indi***] اُلْ تَاغْدَنْ قُدِی اِنْدِی ***ol tayдan quδï indi*** – “u tog‘ va boshqa yerlardan quyi indi [ya’ni tushdi]” Bu so‘zda *nūn* harfi *lām* dan o‘zgargan. Arabchada ham shu xususiyat bor.

Masalan: رجلُ ششنُ الا صابع و ششله و کبنُ الدّلو و کبله

Muḍā’af so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]: (48a)

[اَتّی ***attï***] اَرْ اُقْ اَتّی ***er oq attï*** – “kishi o‘q va boshqa narsalarni otdi”; تَنکْ اَتّی ***taŋ attï*** – “tong otdi, yoridi”; اُلْ اَتّی نَانکْ نِی ***ol attï näŋni*** – “u narsani otdi, tashladi” (اَتَارْ ***atar***, اَتْمَاقْ ***atmaq***).

[اُتّی ***uttï***] اُلْ اَنِی اُتّی ***ol anï uttï*** – “u o‘yin va boshqa narsalarda uni yutdi” (اُتَارْ ***utar***, اُتْمَاقْ ***utmaq***).

(Shoir) shunday degan:

قِشْ یَایْ بِلَا تُقُشْتِی ***Qïš yay bilä toquštï,***
قِنکِرْ کُوزُنْ بَقِشْتِی ***Qïŋïr közün baqïštï.***
تُتُشْقَلِی یَقِشْتِی ***Tutušqalï yaqïštï,***
اُتْغَا لِمَتْ اُغْرَشُورْ ***Utγalïmat oγrašur.***

Aytmoqdaki: “Qish yoz bilan to‘qnashdi, ular bir-biriga qing‘ir ko‘z bilan qarashdi. Bir-birini tutish uchun yaqinlashdilar, ular bir-birini yutushni [yengishni] istar edi”.

[اُتّی ***ötti***] اُقْ کَیِکْتَنْ اُتّی ***oq keyiktän ötti*** – “o‘q kiyik va boshqa hayvonga tegib, uni teshib o‘tdi”. Har bir narsa boshqa biridan teshib o‘tishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[اُتّی ***ötti***] قَرِینْ اُتّی ***qarïn ötti*** – “qorin bo‘shaldi, ich o‘tdi” (اُتَارْ ***ötär***, اُتْمَاکْ ***ötmäk***).

[اُتّی ***ütti***] اُلْ بَاشِغْ اُتّی ***ol bašïγ ütti*** – “u boshining sochlarini va shunga o‘xshash narsalarni kuydirdi” (اُتَارْ ***ütär***, اُتْمَاکْ ***ütmäk***).

[اِتّی ***itti***] اُل اَنِی اِتّی ***ol anï itti*** – “u uni yiqitdi, qo‘li yoki oyog‘i bilan turtib, itarib yerga yiqitdi” (اِتَارْ ***itär***, اِتْمَاکْ ***itmäk***).

[اُولِتّی ***olïttï***] اُلْ اَنِکْ بُیْنِنْ اُولِتّی ***ol anïŋ boynïn olïttï*** – “u uning bo‘ynini va boshqa narsani qayirdi, bukdi”. Har qanday narsani qayirib burashga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُلِتْرْ ***olïtur,*** اُلِتْمَاقْ ***olïtmaq***).

[اُلِتّی ***ölitti***] اُلْ تُونْ اُلِتّی ***ol ton ölitti*** (58a) – “u kiyim va boshqa narsalarni ivitdi, ho‘l qildi” (اُلِتْرْ ***ölitür,*** اُلِتْمَاکْ ***ölitmäk***).

[اِلَتّی ***ilättï***] اُلْ قَاغُونْ اَقَکَا اِلَتّی ***ol qaγun ewkä ilättï*** – “u uyiga qovun va boshqa narsalarni eltdi, olib bordi” (اِلَتْرْ ***ilätür,*** اِلَتْمَاکْ ***ilätmäk***).

[اُلَتّی ***ülättï***] اُلْ جِغَاىْ قَا یَرْمَاقْ اُلَتّی ***ol čïγayqa yarmaq ülättï*** – “u faqirlarga pul, tangalar ulashishga, tarqatishga buyurdi” (اُلَتْرْ ***ülätür,*** اُلَتْمَاکْ ***ülätmäk***).

م ***m*** [harfi]:

[اَمِتّی ***emittï***] تَامْ اَمِتّی ***tam emittï*** – “devor va boshqa narsalar qiyshaydi, yiqilayozdi”; کُنکُلْمْ اَنکَرْ اَمِتّی ***köŋlüm aŋar emittï*** – “ko‘nglim unga moyil bo‘ldi” (اَمِتْرْ ***emitür,*** اَمِتْمَاکْ ***emitmäk***).

(Shoir) shunday degan:

قُلانْ تُکَالْ قُمُتّی ***Qulan tügäl qumuttï,***
اَرْقَارْ سُقَقْ یُمُتّی / یُمِتّی ***Arqar, soqaq yumuttï / yumïttï.***
یَیْلاغ تَبَا اَمِتّی ***Yaylaγ tapa emitti,***
تِزْکِقْ تُرُبْ سَکْرشُورْ ***Tïzgïq turup sekräšür.***

Ko‘klamni ta’riflab aytmoqda: “Ko‘klam qulon, kiyiklarni hayajonga soldi, tog‘ echkilari va kiyiklarni to‘pladi, ular yaylovlarga mayl qildilar. U yerlarda shodlikdan saf tortib, sakrashib o‘ynamoqdalar”.

ن ***n*** [harfi]:

[اَنُتّی ***anuttï***] اُلْ یَغِی قَا تُلُمْ اَنُتّی ***ol yaγïqa tolum anuttï*** – “u yovga qarshi qurol-yarog‘ hozirladi”. Har bir tayyorlangan narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (/ اَنُتُورْ اَنِتُورْ ***anutur / anïtur,*** اَنُتْمَاقْ ***anutmaq***). Maqolda (shunday kelgan): تُلْمْ / تُلِمْ اَنُتْسَا قُلُنْ بُلُورْ تُلُمْ اُنُتْسَا بُلُنْ بُلُورْ ***Tolum / tolïm anutsa, qulun bulur, tolum unutsa, bulun bolur.*** Ma’nosi: “Yovga (qarshi) qurol hozirlagan kishi qulun [toy] topadi, qurol hozirlashni unutgan kishi asir bo‘ladi”. Bu maqol ishlarda oldindan hozirlik ko‘rish kerak ekanligiga undab aytiladi.

[اُنَتّی ***unattï***] مَنْ اُنَامَاسْ اَرْدِمْ اُلْ مِنِی اُنَتّی ***men unamas erdim, ol unattï*** – “men bu ishga unamas edim, u meni unatdi” (اُنَاتُرْ ***unatur,*** اُنَتْمَاقْ ***unatmaq***).

[اُنِتّی ***unïttï***] اُلْ سُوزِنْ اُنِتّی ***ol sözin unïttï*** – “u so‘zini va boshqa narsalarni unutdi” (اُنِتْرْ ***unïtur***, اُنِتْمَاقْ ***unïtmaq***).

[اِينَتّی ***inättï***] اُلْ قُويِنْ اِينَتّی ***ol qoyïn inätti*** – “u qo‘yni tamg‘alashga buyurdi”. Bu qo‘yning qulog‘idan bir oz kesishdir (اِنَتْرْ ***inätür***, اِنَتْمَاکْ ***inätmäk***).

Bu bo‘limning *manqūṣ* turi

[اَيِتّی ***ayïttï***] اُلْ مَنکَا سُوزْ اَيِتّی ***ol meŋä söz ayïttï*** – “u mendan so‘z so‘radi”. O‘g‘uzlar مَنْ اَنکَارْ سُوزْ اَيِتّمْ ***men aŋar söz ayïttïm*** (“men u bilan so‘zlashdim”) deydilar, lekin bu qoida mos emas (اَيْتُورْ ***aytur***, اَيْتْمَاقْ ***aytmaq***).

[اُيَتّی ***uyattï***] اُلْ مِندِنْ اُيَتّی ***ol mendin uyattï*** – “u mendan uyaldi”. Asli اُيَاذْتِی ***uyaδtï*** dir. Bu so‘z *iδyam* [regressiv assimilyatsiya] natijasida اُيَتّی ***uyattï*** bo‘lgan (اُيَاذْرْ ***uyaδur***, اُيَاذْمَاقْ ***uyaδmaq***).

(58b) Bu bo‘limning to‘rt harflilari

ب ***b*** [harfi]:

[اَبِيدّی ***abïddï***] اُلْ اَنِی کِشِيدِنْ اَبِيدّی ***ol anï kišidin abïddï*** – “u uni kishilardan yashirdi va saqladi”. Yashirilgan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَبِتْرْ ***abïtur***, اَبِتْمَاقْ ***abïtmaq***).

Bu bo‘limning *γunna* lilari

[اُنکُقْتِی ***uŋuqtï***] اَرْ يُوزِی اُنکُقْتِی ***er yüzi uŋuqtï*** – “kishining yuzi unniqdi”; بَرْجِنْ اُنکُقْتِی ***barčïn uŋuqtï*** – “ipak kiyimlik va boshqa narsalarning rangi aynidi, unniqdi” (اُنکَقَارْ ***uŋuqar***, اُنکُقْمَاقْ ***uŋuqmaq***).

ل ***l*** [harfi]:

[اُنکُلْتِی ***oŋultï***] سُکَلْ اُنکُلْتِی ***sögäl oŋultï*** – “kasal sog‘aydi”; اِيشْ اُنکُلْتِی ***iš oŋultï*** – “chalkash ish o‘ngaldi” (اُنکُلُورْ ***oŋulur***, اُنکُلْمَاقْ ***oŋulmaq***).

Uch harflilar bo‘limi tugadi.

BU TO‘RT HARFLILAR BOBLARIDIR

O‘rtasi va oxiri *sukun* li bo‘lgan فَعْلَدی *fa’laldï* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ر ***r*** [harfi]:

[اُرْبَرْدِی ***ürpärdi***] اَرْ اُرْبَرْدِی ***er ürpärdi*** – “kishi g‘azabdan (bo‘g‘riqib) uh tortdi”; تَقَاغُونْ اُرْبَرْدِی ***taqaγun ürpärdi*** – “xo‘roz urushishga chog‘lanib hurpaydi”; اَنِکْ تِينِي اُرْبَرْدِي ***anïŋ tïnï ürpärdi*** – “uning tuki hurpaydi” (اُرْبَرْرْ ***ürpärür***, اُرْبَرْمَاکْ ***ürpärmäk***).

[أُبْتُرْدِى *öptürdi*] أُلْ اَنِى أُبْتُرْدِى ***ol anï öptürdi*** – “u uni o‘ptirdi” (أُبْتُرُرْ ***öptürür***, أُبْتُرْمَاكْ ***öptürmäk***).

[اَتَرْدِى *atturdï*] أُلْ أُقْ اَتَرْدِى ***ol oq atturdï*** – “u o‘q ottirdi; u ham otdi”. Har bir narsani ottirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَتَرُرْ ***atturur***, اَتَرْمَاقْ ***atturmaq***).

[أُتَرْدِى *öttürdi*] سِبُزْغُو أُتَرْدِى ***sïbuzγu öttürdi*** – “sibizg‘a (surnay) chaldirdi”. Biron ta’sir orqali ovoz chiqaradigan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (أُتَرُرْ ***öttürür***, أُتَرْمَاكْ ***öttürmäk***).

[اِيتَرْدِى *ettürdi*] أُلْ مَنِكْ اِيشِمْ اِيتَرْدِى ***ol meniŋ ïšïm ettürdi*** – “u mening ishimni tuzatishga buyurdi”; أُلْ اَتُكْ اِيتَرْدِى ***ol etük ettürdi*** – “u mahsini, etikni va boshqa narsalarni yamashga buyurdi” (اِيتَرُرْ ***ettürür***, اِيتَرْمَاكْ ***ettürmäk***).

[اَجْتُرْدِى *ačturdï*] أُلْ قَبُغْ اَجْتُرْدِى ***ol qapuγ ačturdï*** – “u eshikni ochishga buyurdi”. Ochishga buyurilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَجْتُرُرْ ***ačturur***, اَجْتُرْمَاقْ ***ačturmaq***).

[اِجْتُرْدِى *ičtürdi*] أُلْ مَنكَا سُوفْ اِجْتُرْدِى ***ol meŋä suw ičtürdi*** – “u menga suv va boshqa narsalarni ichtirdi” (اِجْتُرُرْ ***ičtürür***, اِجْتُرْمَاكْ ***ičtürmäk***). اِجُرْدِى ***ičürdi*** ham shu ma’noda qo‘llanadi. (59a) Maqolda (shunday kelgan): سُوفْ اِجُرْمَاسْ كَا سُوتْ بِيرْ ***Suw ičürmäskä süt ber.*** Ma’nosi: “Suv ichirmasga sut ber”. Ya’ni, “Senga yomonlik qilganga ham yaxshilik qil”.

Bu fe’llarda ishda ikki shaxsning borligi qoidadir. Biri – buyuruvchi, ikkinchisi bajaruvchidir. Bu fe’llar ikki harflidir. Bu maqsad uchun o‘zakka ikki harf orttirib yasaladi. Bu xil qoidalar qiyos qilish bilangina tushunilmaydi. Shuning uchun bu o‘rinda aytildi.

[اَخْتَرْدِى ***axtardï***] اَرْ تَاشِغْ اَخْتَرْدِى ***er tašïγ axtardï*** – “kishi toshni ag‘dardi”; تُبِى يِغَاجِغْ اَخْتَرْدِى ***tüpi yïγačïγ axtardï*** – “shamol daraxtni ag‘dardi”. Biron narsani ag‘daradigan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘zdagi خ *xā* harfi *γayn* harfi o‘rniga almashib kelgan. Chunonchi, arabchadagi خَتّار *xattār* غدّار *γaddār* va خمار النّاسِ *ximāru-n-nāsi* va غمارهم *γimāruhum* so‘zlaridagi singari; أُلْ يِرْ اَخْتَرْدِى ***ol yer axtardï*** – “u yer ag‘dardi, yer haydadi, shudgor qildi” (اَخْتَرُرْ ***axtarur***, اَخْتَرْمَاقْ ***axtarmaq***).

[اَرْتُرْدِى ***arturdï***] أُونْ يَرْمَاقْ أُزَا بِيرْ اَرْتُرْدِى ***on yarmaq üzä bir arturdï*** – “o‘n tanga ustiga bir tanga orttirdi”; اَرْ اَرْتُرْدِى ***er arturdï*** – “kishi haddidan oshdi” (اَرْتُرُورْ ***arturur***, اَرْتُرْمَاقْ ***arturmaq***).

(Shoir) shunday degan:

كَلْدِى بَرُو اَرْتُرُو ***Keldi berü arturu,***
بِيرْدِى اِيلِنْ اَرْتُرُو ***Berdi elin ertürü.***
مُنْدَا قَلِبْ أُلْتُرُو ***Munda qalïp olturu,***
بُكْرِى بُلُبْ أُنْ بُتَارْ ***Bükri bolup ün bütär.***

Asir bo‘lgan bek haqida aytmoqda: “Bek haddan ortiq kekkayib, mag‘rurlanib, ko‘p qo‘shin bilan bizga bostirib keldi. Keyin esa mamlakatini hadya qildi. O‘zi bu yerda o‘ltirib, bukri bo‘lib, tovushi ham chiqmay qoldi”.

[اَرْتُرْدِی ***ertürdi***] اَنِکْ يَازُقِنْ اَرْتُرْدِی ***anïŋ yazuqïn ertürdi*** – “uning gunohini kechirdi”; اَنِکْ اِيشِنْ اَرْتُرْدِی ***anïŋ ïšïn ertürdi*** – “uning ishini o‘tkazdi, qabul qildi”. Gap bir yerdan ikkinchi yerga biron narsani ko‘chirgan kishi to‘g‘risida borganda ham shu so‘z qo‘llanadi (اَرْتُرُرْ ***ertürür,*** اَرْتُرْمَاکْ ***ertürmäk***).

[اَزْتُرْدِی ***eztürdi***] اُلْ اُغْلِی قُلاقِنْ اَزْتُرْدِی ***ol oγlï qulaqïn eztürdi*** – “u o‘g‘lining qulog‘ini tildirdi”. (59b) Teri yoki yerdagi uzunasiga tilib chizilgan har bir chiziqqa ham shu so‘z qo‘llanadi (اَزْتُرُرْ ***eztürür,*** اَزْتُرْمَاکْ ***eztürmäk***).

[اُزْتُرْدِی ***üztürdi***] اُلْ يِپْ اُزْتُرْدِی ***ol yïp üztürdi*** – “u ip va boshqa narsalarni uzdirdi” (اُزْتُرُرْ ***üztürür,*** اُزْتُرْمَاکْ ***üztürmäk***).

[اَسْتُرْدِی ***asturdï***] اُلْ اَرْ اَسْتُرْدِی ***ol er asturdï*** – “u kishini va boshqalarni ostirishga buyurdi”; اُلْ اَتْ اَسْتُرْدِی ***ol et asturdï*** – “u go‘sht ostirdi, go‘shtni qoziqqa, kanoraga ostirdi” (اَسْتُرُرْ ***asturur,*** اَسْتُرْمَاقْ ***asturmaq***).

[اَسْتُرْدِی ***estürdi***] اُرُقْ اَسْتُرْدِی ***oruq estürdi*** – “u arqon va boshqa narsalarni cho‘zdirdi”.

[اَسْتُرْدِی ***estürdi***] اُلْ قَقِقْ اَسْتُرْدِی ***ol qawïq estürdi*** – “u kepak elatdi”. Elanadigan har narsa uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (اَسْتُرُرْ ***estürür,*** اَسْتُرْمَاکْ ***estürmäk***).

[اُسْتَرْدِی ***üstärdi***] اُلْ مَنکَا اُسْتَرْدِی ***ol meŋä üstärdi*** – “u bir ishda meni yengish uchun tirishdi”.

[اُسْتَرْدِی ***üstärdi***] اُلْ قِلْمِشْ اِيشِنْ اُسْتَرْدِی ***ol qïlmïš ïšïn üstärdi*** – “u qilgan ishidan tondi, inkor qildi”. Har bir ishda tonishga, inkor qilishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُسْتَرُرْ ***üstärür,*** اُسْتَرْمَاکْ ***üstärmäk***). Maqolda (shunday kelgan): تُوزُنْ بِرْلا اُرُشْ اُوتُونْ بِرْلا اُسْتَرْمَا ***Tüzün birlä uruš, utun birlä üstärmä.*** Ma’nosi: “Yuvosh odam bilan urish, chunki sen uni bosishing mumkin. Uyatsiz, yuzsiz odam bilan urishma, chunki u seni sharmanda qiladi”.

[اِشْتُرْدِی / اَشْتُرْدِی ***eštürdi***] اُلْ مَنکَا اَذکُو سُوزْ اَشْتُرْدِی / اِشْتُرْدِی ***ol meŋä eðgü söz eštürdi*** – “u menga yaxshi so‘z eshittirdi”. Aslida ikki *tā* bilan اَشِتّرْدِی ***ešittürdi*** dir (اِشْتُرُرْ ***eštürür,*** اِشْتُرْمَاکْ ***eštürmäk***).

[اَشْتُرْدِی ***eštürdi***] اُلْ قُمْ اَشْتُرْدِی ***ol qum eštürdi*** – “u qum va tuproqni to‘platdi, to‘plashni buyurdi”. Uni idishga solish, to‘plashni buyurishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَشْتُرُرْ ***eštürür,*** اَشْتُرْمَاکْ ***eštürmäk***).

[اُشْتُرْدِی ***üštürdi***] اُلْ اُقْ اُشْتُرْدِی ***ol oq üštürdi*** – “u kamonga o‘rnatilgan o‘q temirini teshishga buyurdi”. Har bir tor teshikni teshishga buyurishda ham shu so‘z qo‘llanadi (اُشْتُرُرْ ***üštürür,*** اُشْتُرْمَاکْ ***üštürmäk***).

[اَقْتُرْدِی ***aqturdï***] اُلْ سُوقْ اَقْتُرْدِی ***ol suw aqturdï*** – “u suvni oqizishga buyurdi” (اَقْتُرُرْ ***aqturur,*** اَقْتُرْمَاقْ ***aqturmaq***).

(Shoir) shunday degan:

اَقْتُرُرْ کُوزُمْ يُلَاقْ ***Aqturur közüm yolaq,***
تُشْلَنُرْ اُرْدُکْ يُغَاقْ ***Tüšlänür ördäk, yuγaq.***

Aytmoqdaki: “Ko‘zlarimning yoshi buloq singari oqadi, hatto unda o‘rdak kabi suv qushlari yig‘iladi, sho‘ng‘ishadi”.

[اُقْتُرْدِى ***uqturdï***] اُلْ مَنكَا اَيِكْ سُوزِنْ اُقْتُرْدِى ***ol meŋä anïŋ sözin uqturdï*** – “u menga uning so‘zini va boshqa narsalarni uqtirdi” (اُقْتُرُرْ ***uqturur***, اُقْتُرْمَاقْ ***uqturmaq***). (60a)

[اَكْتُرْدِى ***ektürdi***] اُلْ تَرِغْ اَكْتُرْدِى ***ol tarïγ ektürdi*** – “u urug‘ ektirdi”. Ekishga buyurilgan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَكْتُرُرْ ***ektürür***, اَكْتُرْمَاكْ ***ektürmäk***).

[اَكْتُرْدِى ***egtürdi***] اُلْ جُكَانْ اَكْتُرْدِى ***ol čögän egtürdi*** – “u chovgan egdirdi”. Har bir narsani egishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَكْتُرُرْ ***egtürür***, اَكْتُرْمَاكْ ***egtürmäk***).

[اُكْتُرْدِى ***ögtürdi***] اُلْ مِنِى اُكْتُرْدِى ***ol meni ögtürdi*** – “u meni maqtashni birovga yukladi, tayinladi” (اُكْتُرُرْ ***ögtürür***, اُكْتُرْمَاكْ ***ögtürmäk***).

[اُكْتُرْدِى ***ügtürdi***] اُلْ مِنكْ يَرْمَاقْ اَنكَرْ اُكْتُرْدِى ***ol miŋ yarmaq aŋar ügtürdi*** – “u unga ming tanga (pul) va boshqa narsalarni to‘plashni buyurdi” (اُكْتُرُرْ ***ügtürür***, اُكْتُرْمَاكْ ***ügtürmäk***).

[اَلْتُرْدُمْ ***alturdum***] مَنْ اَنْدَنْ يَرْمَاقْ اَلْتُرْدُمْ ***men andan yarmaq alturdum*** – “men undan tanga oldirdim” (اَلْتُرُرْمَنْ ***alturur-men***, اَلْتُرْمَاقْ ***alturmaq***).

[اُلْتُرْدِي ***olturdï***] اُلْ اَشِجْ اِجْرَا اَتْ اُلْتُرْدِي ***ol ešič ičrä et olturdï*** – “u qozonda go‘sht ivitdi, ho‘lladi”. Shuningdek, kiyim va boshqalarni ho‘llash, namlashga ham shu so‘z ishlatiladi (اُلْتُرُرْ ***olturur***, اُلْتُرْمَاقْ ***olturmaq***).

[اُلْتُرْدِى ***olturdï***] اُلْ اَرْ اُلْتُرْدِى ***ol er olturdï*** – “u kishi va boshqalar o‘tirdi” (اُلْتُرُرْ ***olturur***, اُلْتُرْمَاقْ ***olturmaq***). Maqolda (shunday kelgan): بُتُونْ اُومْ لُكْ قَنجَا قُلْسَا اُلْتُرُرْ ***Bütün ümlüg qanča qulsa olturur.*** Ma’nosi: “Butun ishtonli [ishtoni butun] qanday xohlasa, o‘shunday o‘tiradi”. Bu maqol “gunohsiz kishi hech qanday tuhmat bilan qoralanmaydi” degan mazmunda qo‘llanadi.

[اِلْتُرْدِى ***iltürdi***] اُلْ مَنكَا كَيِكْ اِلْتُرْدِى ***ol meŋä keyik iltürdi*** – “u menga kiyikni tuzoqqa ilintirishni buyurdi”. Har qanday narsani ilintirish, osishga qarata ham shu so‘z ishlatiladi (اِلْتُرُرْ ***iltürür***, اِلْتُرْمَاكْ ***iltürmäk***).

[اُلْدُرْدِى ***öldürdi***] اُلْ اُغْرِى نِي اُلْدُرْدِى ***ol oγrïnï öldürdi*** – “u o‘g‘rini va boshqalarni o‘ldirdi” (اُلْدُرُرْ ***öldürür***, اُلْدُرْمَاكْ ***öldürmäk***).

[اِلْدُرْدِى ***ildurdï***] اُلْ اَنِى تَاغْدِنْ اِلْدُرْدِى ***ol anï tayдïn ildurdï*** – “u uni tog‘dan va boshqa yerdan tushirtirdi” (اِلْدُرُرْ ***ildurur***, اِلْدُرْمَاقْ ***ildurmaq***[1]). Bu so‘z *nūn* bilan اِنْدُرْدِى ***indürdi*** deb ham qo‘llanadi.

[اُونْدُرْدِى ***ündürdi***] تَنكْرِى اُوتْ اُونْدُرْدِى ***täŋri ot ündürdi*** – “Xudo o‘t va boshqa o‘simliklarni undirdi”.

[اُنْدُرْدِى ***öndürdi***] اُلْ اَنِى اَفكَا اُنْدُرْدِى ***ol anï ewkä ündürdi*** – “u uni uyga yo‘latdi”. Bu uyg‘urlar so‘zidir, o‘g‘uzlar buni bilmaydilar (اُنْدُرُرْ ***öndürür***, اُنْدُرْمَاكْ ***öndürmäk***).

[اَتْغَرْدِى ***atγardï***] اُلْ مِنى اَتْغَرْدِى ***ol meni atγardï*** – “u meni ot va boshqa narsalarga mindirdi” (اَتْغَرُرْ ***atγarur***, اَتْغَرْمَاقْ ***atγarmaq***). (60b)

[1] Bu so‘z *qāf* va *kāf* bilan yozilgan (اِلْدُرْمَاكْقْ).

[اُتْغَرْدِى *otγardï*] اَتْ اُتْغَرْدِى *at otγardï* – “u ot va boshqa hayvonlarni o‘tlatdi” (اُتْغَرُرْ *otγarur*, اُتْغَرْمَاقْ *otγarmaq*).

[اُدْغُرْدِى *uδγurdï*] اُلْ مِنِى اُدْغُرْدِى *ol meni uδγurdï* – “u meni uyqudan uyg‘otdi” (اُدْغُرُرْ *uδγurur*, اُدْغُرْمَاقْ *uδγurmaq*).

[اُدْغَرْدِى *oδγardï*] اُلْ اَنِى كِيدِنْ اُدْغَرْدِى *ol anï kedin oδγardï* – “u uni bir qancha vaqtdan keyin o‘ylab bildi, esladi” (اُدْغَرُرْ *oδγarur*, اُدْغَرْمَاقْ *oδγarmaq*).

[اَرْغُرْدِى *arγurdï*] اُلْ اَتِنْ اَرْغُرْدِى *ol atïn arγurdï* – “u otini charchatdi” (اَرْغُرُرْ *arγurur*, اَرْغُرْمَاقْ *arγurmaq*).

(Shoir) shunday degan:

كُنكُلُمْ اَنكَرْ قَيْنَيُو *Köŋlüm aŋar qaynayu,*
اِجْتِنِ اَنكَرْ اُيْنَيُو *İčtin aŋar oynayu,*
كَلْدِى مَنكَا بُيْنَيُو *Keldi meŋä boynayu,*
اُيْنَبْ مِنِى اَرْغُرُورْ *Oynap meni arγurur.*

Ma’nosi: “Uyda do‘stim bilan o‘ynaganimda ko‘nglim unga jo‘sh urdi. U menga g‘urur bilan keldi va charchagunimcha men bilan o‘ynadi”. Har bir charchagan hayvon uchun ham shu so‘z qo‘llanadi.

[اَنْغَرْدِى *anγardï*] اُلْ اَنِى اَنْغَرْدِى *ol anï anγardï* – “u unga ond ichirdi”. Asli اَنْدْغَرْدِى *andγardï* bo‘lib, yengillik uchun *dāl* tushirilgan. Bu xususiyat oyatda ham ko‘rinadi. Masalan, فظلتم تفكهون *faẓaltum tafakkahūn* iborasidagi فظلتم *faẓaltum* ning asli فظللتم *faẓaliltum* dir. Bunda *lām* yengillik uchun tushirilgan (اَنْدْغَرُورْ *andγarur*, اَنْدْغَرْمَاقْ *andγarmaq*).

[اَلْفِرْدِى *elwirdi*] اُلْ اَنِكْ يُوزِنكَا اَلْفِرْدِى *ol anïŋ yüziŋä elwirdi* – “u uning yuziga (u bilan urishayotgandek) bir so‘z bilan otildi” (اَلْفِرَارْ *elwirär*, اَلْفِرْمَاكْ *elwirmäk*[1]).

[اُتْكُرْدِى *ötkürdi*] اُتْرُمْ قَرِنْ اُتْكُرْدِى *ötrüm qarïn ötkürdi* – “surgi o‘t ichni surdi”.

[اُتْكُرْدِي *ötkürdi*] اُلْ اَفكَا بِتِكْ اُتْكُرْدِي *ol ewkä bitig ötkürdi* – “u uyiga xat yubordi”. Biror bir narsani kimdandir berib yuborishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُتْكُرُرْ *ötkürür*, اُتْكُرْمَاكْ *ötkürmäk*).

[اِجْكَرْدِى *ičkärdi*] اُلْ اَتِنْ اَفكَا اِجْكَرْدِى *ol atïn ewkä ičkärdi* – “u otini uyga va boshqa yerga kiritdi” (اِجْكَرُرْ *ičkärür*, اِجْكَرْمَاكْ *ičkärmäk*).

[اِجْكَرْدِى *ičkärdi*] اُلْ اَنِى بَكْكَا اِجْكَرْدِى *ol anï begkä ičkärdi* – “u uni bekka kirib chaqdi. Uni qoralab so‘zladi”. Boshqa (xabarni chaqish)ga ham shunday deyiladi.

[اَدْكَرْدِى *eδgärdi*] اُلْ كِچِكْ سُوزُكْ اَدْكَرْدِى *ol kičig sözüg eδgärdi* – “u arzimas, qiymatsiz so‘zni tingladi, unga amal qildi”. Bu so‘z ko‘pincha bo‘lishsiz, inkor shaklida qo‘llanadi: (61a) اَنِكْ سُوزِنْ اَدْكَرْمَدِى *anïŋ sözin eδgärmädi* – “uning so‘ziga qo‘shilmadi, quloq solmadi, qadrlamadi”.

[اَدْكَرْدِى *eδgärdi*] اُلْ يَقْزْ نَانكْنِى اَدْكَرْدِى *ol yawuz näŋni eδgärdi* – “u buzuq narsani tuzatdi” (اَدْكَرُرْ *eδgärür*, اَدْكَرْمَاكْ *eδgärmäk*).

[1] Bu so‘z *qāf* va *kāf* bilan yozilgan (اَلْڤِرْمَاكڤْ).

[اَرْگُرْدِی ***ergürdi***] اُلْ یَاغْ اَرْگُرْدِی ***ol yaγ ergürdi*** – “u yog‘ va boshqa narsalarni eritdi” (اَرْگُرْ ***ergürür,*** اَرْگُرْمَاکْ ***ergürmak***).

[اَرْگُرْدِی / اُرْگُرْدِی ***ürgürdi*** / ***ergürdi***] اَرْگُرْدِی / اَشْقَا اُرْگُرْدِی ***ašqa ürgürdi*** / ***ergürdi*** – “u oshga ulgurib keldi”. Har bir narsa tugamay turib ulgurib kelishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُرْگُرْ / اَرْگُرْ ***ürgürür*** / ***ergürür,*** اُرْگُرْمَاکْ / اَرْگُرْمَاکْ ***ürgürmak*** / ***ergürmak***).

[اَسْکِرْدِی ***eskirdi***] تُونْ اَسْکِرْدِی ***ton eskirdi*** – “kiyim va boshqa narsalar eskirdi” (اَسْکِرْ ***eskirür,*** اَسْکِرْمَاکْ ***eskirmak***).

[اُشْکُرْدِی ***üškürdi***] اُلْ اِتِغْ کَیِکّا اُشْکُرْدِی ***ol itiγ keyikkä üškürdi*** – “u itni kiyikka qichqirtdi, o‘shqirtdi”. Shuningdek, kishi bir narsaga o‘shqirsa ham shu so‘z qo‘llanadi.

[اُشْکُرْدِی ***üškürdi***] یِلَانْ اُشْکُرْدِی ***yïlan üškürdi*** – “ilon vishilladi”. Kishining hushtak chalishiga, burgut qushning qichqirishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. Maqolda (shunday kelgan): اُسْ اُشْکُرْسَا اُلُورْ ***Us üškürsä, ölür.*** Ma’nosi: “Burgut birovning betiga qarab sayrasa, o‘shqirsa, o‘limning alomati deb hisoblaydilar” (اُشْکُرْ / اُشْکُرُرْ ***üškürür*** / ***üškirür,*** اُشْکُرْمَاکْ / اُشْکِرْمَاکْ ***üškürmäk*** / ***üškirmäk***).

[اُشْکُرْدِی ***üškürdi***] اُلْ اُنُتْمِشْ / اُنِیتْمِشْ سُوزُکْ اُشْکُرْدِی ***ol unutmïš*** / ***unïtmïš sözüg üškürdi*** – “u unutilgan so‘z va boshqa narsalarni esladi” (اُشْکُرُرْ ***üškürür,*** اُشْکُرْمَاکْ ***üškürmäk***).

O‘timsiz fe’ldan o‘timli fe’l yasash, o‘timli fe’llardan ikki foilga o‘tuvchi fe’l yasash uchun o‘tgan zamon fe’lining qo‘shimchasi bo‘lgan *dāl* harfi *tā* ga aylantiriladi. (Bunday holda) fe’lda ikki *tā* harfi paydo bo‘ladi: biri, o‘timli fe’l yasash uchun orttirilgan *tā,* ikkinchisi, *tā* ga aylangan o‘tgan zamon fe’li qo‘shimchasi *dāl* dir. Masalan, سُوزْ اُشْکُرْدِی ***söz üškürdi*** gapida اُشْکُرْدِی ***üškürdi*** fe’li “esladi” ma’nosida bo‘lsa, اُشْکُرتّی ***üškürtti*** fe’li “eslatdi” demakdir. اَنِکْ اَتِنْ اَرْغُرتّی ***anïγ atïn arγurttï*** (“uning otini charchatdi”) ikki foilga o‘tuvchi fe’lga misoldir. Bu fe’llarning اُشْکِرْتُرْدِی ***üškirtürdi,*** اَرْغُرْتُرْدی ***arγurturdï*** variantlari ham bor. (61b) Avvalgisi yaxshiroq va to‘g‘riroqdir.

ش *š* [harfi]:

[اُرْبَشْتِی ***ürpäšti***] اَرَنْ اُرْبَشْتِی ***erän ürpäšti*** – “botirlar va boshqalar bo‘lak-bo‘lak bo‘lib, bir-birlarini g‘azab bilan quvardilar, bir-birlariga hurpayardilar” (اُرْبَشُورْ ***ürpäšür,*** اُرْبَشْمَاکْ ***ürpäšmak***).

(Shoir) shunday degan:

اَرَنْ اَرِغ اُرْبَشُرْ ***Erän arïγ ürpäšür,***
اُوچِنْ کِکِنْ اِرْتَشُرْ ***Öčin, kekin irtäšür.***
سَقَلْ تُتُبْ تَرْتِشُرْ ***Saqal tutup tartïšur,***
کُکْسِی اَرَا اُوتْ تُتَارْ ***Köksi ara ot tutar.***

Aytmoqdaki: “Botirlar bir-birlariga yomon ko‘z va g‘azab bilan qarashar, ular bir-birlaridan o‘ch olmoq istar edilar. Ko‘kraklarida g‘azab o‘ti yonib, soqollariga changal solishar edi”.

[اِرْتِشْتِيلَارْ / اِرْتَشْتِيلَارْ / اِرْتِشْتِيلَارْ] ***irtäštilär / irtištilär*** ***olar bu sözüg irtäštilär / irtištilär*** – “ular bu so‘zni, ishni va boshqa narsalarni tekshirishdilar” (اِرْتَشُورْ ***irtäšür,*** اِرْتَشْمَاكْ ***irtäšmäk***).

[اَرْتِشْدِى ***artašdï***] ***yalïŋuq ičin artašdï*** يَلِنْكُقْ اِچِنْ اَرْتِشْدِى – “kishilar bir-birlarini ko‘rib buzilishdi”. Bir-birining ta’sirida buziladigan har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَرْتَشُورْ ***artašur,*** اَرْتَشْمَاقْ ***artašmaq***).

[اُرْتُشْدِى ***örtüšdi***] ***olar bu ïšïγ örtüšdi*** اُلَارْ بُو اِيشِغْ اُرْتُشْدِى – “ular bu ishni yashirishdi”. Har qanday ishni yashirish uchun birovga ko‘maklashgan kishiga ham shunday deyiladi (اُرْتُشُورْ ***örtüšür,*** اُرْتُشْمَاكْ ***örtüšmäk***).

[اُرْتَشْدِى ***örtäšdi***] ***boδun bir ekindiniŋ ewlärin örtäšdi*** بُوذْنْ بِيرْ اَكِنْدِنِينِكْ اَفلارِنْ اُرْتَشْدِى – “xalq bir-birining uyini kuydirishdi”. Boshqa (narsalarni kuydirish)ga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu fe’l shakli ko‘maklashish, bahslashishga ham qo‘llanadi (اُرْتَشُورْ ***örtäšür,*** اُرْتَشْمَاكْ ***örtäšmäk***).

[اَرْتِشْتِى ***ertišti***] ***ol meniŋ birlä arslandan ertišti*** اُلْ مَنِكْ بِرْلَا اَرسْلَانْ دَنْ اَرْتِشْتِى – “u men bilan arslon yonidan o‘tishga bahslashdi”. Shuningdek, har bir xavfli narsa oldidan o‘tishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَرْتِشُورْ ***ertišür,*** اَرْتِشْمَاكْ ***ertišmäk***).

[اَرْتِشْدِى ***artïšdï***] ***ol meŋä arčï artïšdï*** اُلْ مَنكَا اَرْچِى اَرْتِشْدِى – “u menga tuyaga yuk ortishda ko‘maklashdi” (اَرْتِشُرْ ***artïšur,*** اَرْتِشْمَاقْ ***artïšmaq***). Bu so‘z tortishish va bahslashishga ham qo‘llanadi.

[اُقْتَشْتِى ***oqtäštï***] ***ol aniŋ birlä oqtäštï*** اُلْ اَنِكْ بِرْلَا اُقْتَشْتِى – “u uning bilan o‘q otishdi”. Qur’a soqqasini tashlashga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُقْتَشُورْ ***oqtašur,*** اُقْتَشْمَاقْ ***oqtašmaq***).

[اُنْدَشْدِى ***ündäšdi***] ***ol aniŋ birlä ündäšdi*** اُلْ اَنِكْ بِرْلَا اُنْدَشْدِى – “ular bir-birlarini chaqirishdi, undashdi” (اُنْدَشُورْ ***ündäšür,*** (62a) اُنْدَشْمَاكْ ***ündäšmäk***).

[اُبْرَشْتِى ***oprašti***] ***tonlar oprašti*** تُونْ لَارْ اُبْرَشْتِى – “to‘nlar to‘ziy boshladi, to‘zishga yuz tutdi”. Boshqa (narsalarning to‘zishi)ga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُبْرَشُورْ ***oprašur,*** اُبْرَشْمَاقْ ***oprašmaq***). Maqolda (shunday kelgan): ***Kεŋäšlig bilig üδräšür, keŋässiz bilig oprašur.*** كَنكَاشْ لِيكْ بِلِيكْ اُدْرَشُورْ كَنكَاشْ سِيزْ بِلِيكْ اُبْرَشُورْ Ma’nosi: “Maslahatli ish borgan sari yaxshilashib boradi, maslahatsiz ish borgan sari buzilishga yuz tutadi”.

[اُبْرُشْدِى ***öprüšdi***] ***ol meŋä mün öprüšdi*** اُلْ مَنكَا مُونْ اُبْرُشْدِى – “u menga sho‘rva va boshqa narsalarni ichishda ko‘maklashdi” (اُبْرُشُورْ ***öprüšür,*** اُبْرُشْمَاكْ ***öprüšmäk***). Bu fe’l shakli bahslashishga ham qo‘llanadi.

[اُتْرُشْدِى ***ötrüšdi***] ***olar bir-birkä bitig ötrüšdi*** اُلَارْ بِيرْ بِيرْكَا بِتِكْ اُتْرُشْدِى – “ular bir-birlariga xat va boshqa narsalarni yubordilar” (اُتْرُشُرْ ***ötrüšür,*** اُتْرُشْمَاكْ ***ötrüšmäk***). Bu so‘zning asli اُتْكُرِشْدِى / ***ötkürüšdi*** / ***ötkürišdi*** dir. Bu so‘z ko‘maklashishga, bahslashishga qarta ham qo‘llanadi.

[اُتْرُشْدِى ***otrušdï***] ***ol aŋar otrušdï*** اُلْ اَنكَرْ اُتْرُشْدِى – “u unga (bir ishda) teskari turdi, xusumat qildi”.

[اُتْرُشْدِى ***otrušdï***] ***ol meŋä otrušdï*** اُلْ مَنكَا اُتْرُشْدِى – “u menga yuzlandi; men bilan betma-bet turdi” (اُتْرُشُورْ ***otrušur,*** اُتْرُشْمَاقْ ***otrušmaq***).

[اُتْرُشْدِی ***utrušdï***] اُلْ مَنـکَا کَسْمَا اُتْرُشْدِی ***ol meŋä kesmä utrušdï*** – “u menga soch kesishda ko‘maklashdi”. Ortiqchasi qaychi bilan qiyiladigan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُتْرُشُورْ ***utrušur***, اُتْرُشْمَاقْ ***urtušmaq***).

[اُجْرُشْدِی ***učrušdï***] اُلْ مَنـکَا قُشْ اُجْرُشْدِی ***ol meŋä quš učrušdï*** – “u menga qush uchirishdi, qush uchirishda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُجْرُشُورْ ***učrušur***, اُجْرُشْمَاقْ ***učrušmaq***).

[اُجْرُشْدِی ***öčürüšdi***] اُلْ اَیـکْ اَبْکَاسِنْ مَنِـکْ بِرْلَا اُجْرُشْدِی ***ol anïŋ öpkäsin meniŋ birlä öčürüšdi*** – “u uning g‘azabini bostirishda menga ko‘maklashdi”. Bu so‘z o‘t o‘chirishda ko‘maklashishga ham qo‘llanadi (اُجْرُشُورْ ***öčürüšür***, اُجْرُشْمَاکْ ***öčürüšmäk***).

[اِجْرُشْدِی ***ičrüšdi***] اُلْ مَنـکَا سُوفْ اِجْرُشْدِی ***ol meŋä suw ičrüšdi*** – “u menga suv ichishda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اِجْرُشُورْ ***ičrüšür***, اِجْرُشْمَاکْ ***ičrüšmäk***).

[اَدْرِشْدِی ***aδrïšdï***] اُلَارْ اِیـکّی اَدْرِشْدِی ***olar ikki aδrïšdï*** – “ular ikkovi ayrilishdi” (اَدْرِشُورْ ***aδrïšur***, اَدْرِشْمَاقْ ***aδrïšmaq***).

(Shoir) shunday degan:

تُمَانْ جَجَکْ تِزِلْدِی	***Tümän čečäk tizildi,***
بُکُنْدَنْ اُلْ یَزِلْدِی	***Bükündän ol yazïldï.***
اُکُشْ یَتِبْ اُزَلْدِی	***Öküš yatïp üzäldi,***
یِیرْدَا قُبَا اَدْرِشُورْ	***Yerdä qopa aδrïšur.***

Yozni maqtab aytmoqda: “Turli-tuman chechaklar tizildi, g‘unchasidan, kurtagidan yozilib ko‘rindi. (62b) Ular uzoq vaqt yer tagida yotib ezilgan edi. Yerdan bosh ko‘tarib bir-biridan ayrilishayotir”.

[اُدْرُشْدِی ***öδürüšdi***] اُلْ مَنـکَا تَوَارْ اُدْرُشْدِی ***ol meŋä tavar öδürüšdi*** – “u menga gazmol va boshqa narsalarni tanlashda ko‘maklashdi” (اُدْرُشُورْ ***öδrüšür***, اُدْرُشْمَاکْ ***öδrüšmäk***).

[اِسْرِشْتِی ***ïsrïštï***] اِکّی اَدْغِرْ بِرْلَا اِسْرِشْتِی ***ikki aδγïr birlä ïsrïštï*** – “ikki ayg‘ir va boshqa hayvonlar bir-biri bilan tishlashdi” (اِسْرِشُورْ ***ïsrïšur***, اِسرِشْمَاقْ ***ïsrïšmaq***). Ko‘maklashish va bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[اَسْرُشْدِی ***asrušdï***] اِکّی اَرْ اَسْرُشْدِی ***ikki er asrušdï*** – “ikki kishi kim ko‘p aksirishda bahslashdi” (اَسْرُشُرْ ***asrušur***, اَسْرُشْمَاقْ ***asrušmaq***).

[اُسْرُشْدِی ***osrušdï***] اُلَارْ اِکّی اُسْرُشْدِی ***olar ikki osrušdï*** – “ular ikkovi o‘sirishdi; kim ko‘p o‘sirish o‘ynashdi” (اُسْرُشُرْ ***osrušur***, اُسْرُشْمَاقْ ***osrušmaq***).

[اُغْرَشْدِی ***oγrašdï***] اِکّی یَغِی اُغْرَشْدِی ***ikki yaγï oγrašdï*** – “ikki yov bir-biriga tikilishdi, bir-biriga qasd qilishdi”. Boshqa (shuning singari holat)da tikilish va o‘qrayishga ham shunday (اُغْرَشُرْ ***oγrašur***, اُغْرَشْمَاقْ ***oγrašmaq***).

[اَغْرِشْتِی لَارْ ***aγrïštïlar***] اُلَارْ بُو اِیشْقَا اَغْرِشْتِی لَارْ ***olar bu ïšqa aγrïštïlar*** – “ular bu ishga og‘rinishdi, xafa bo‘lishdi, achinishdi” (اَغْرِشُورْ ***aγrïšur***, اَغْرِشْمَاقْ ***aγrïšmaq***).

[أُغْرُشْتِى *oγrušti*] أُلْ مَنكَا سُنكُوكْ أُغْرُشْتِى ***ol meŋä söŋük oγrüšti*** – “u menga so‘ngakni bo‘lak-bo‘lak qilib ayirishda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (أُغْرُشْمَاقْ *oγrušmaq*, أُغْرُشُرْ *oγrušur*).

[اَفرِشْتِى *ewrišti*] اَنِكْ بِرْلَا تَلِمْ اَفرِشْتِى ***anïŋ birlä telim ewrišti*** – “uning bilan ko‘p aylanishdi, ko‘p mashg‘ul bo‘ldi”; اُلْ اَنِكْ قَجْمِيشْ اَتِغْ اَفرِشْتِى ***ol anïŋ qačmïš atïγ ewrišti*** – “u uning qochgan otini qaytarishga ko‘maklashdi”; اُلْ مَنكَا تَوَارْ اَفرِشْتِى ***ol meŋä tavar ewrišti*** – “u menga molni ag‘darishda [ya’ni astarini o‘ngga ag‘darishda] ko‘maklashdi” (اَفرِشُورْ / اَفرِشْمَاكْ *ewrišür* / *ewrüšür*, اَفرِشْمَاكْ / اَفرِشْمَاكْ *ewrišmäk* / *ewrüšmäk*).

[أُقْرَشْدِى / أُقْرَشْدِى *oqrašdï* / *oqrušdï*] يُنْدْ قَمُغْ أُقْرَشْدِى / أُقْرَشْدِى ***yund qamuγ oqrašdï*** / ***oqrušdï*** – “(o‘tloqni ko‘rib) butun otlar podasi kishnadi” (أُقْرَشُورْ *oqrašur*, أُقْرَشْمَاقْ *oqrašmaq*).

(Shoir) shunday degan:

يَشِنْ اَتِبْ يَشْنَدِى ***Yašïn atïp yašnadï,***
تُمَانْ تُورُبْ تُشْنَدِى ***Tuman turup tüšnädi.***
اَذغِرْ قِسِرْ كِشْنَدِى ***Aδγïr, qïsïr kišnädi,***
أُكُرْ اَلِبْ أُقَرشُورْ ***Ügür alïp oqrašur.***

Ko‘klamni tasvirlab aytmoqda: “Yashin otib yashnadi, tuman qo‘zg‘alib, hayajonga tushdi. Ayg‘ir va biyalar ko‘klam kelganidan zavqlanib, (63a) kishnashdi, uyur olib, nasl tarqatishdi”.

[اَكْرِشْتِى *egrišti*] اُلْ بَكْكَا كَنْدْ اَكْرِشْتِى ***ol begkä kend egrišti*** – “u bekka qo‘rg‘onni o‘rashga, muhosara qilishga ko‘maklashdi”.

[اَكْرِشْتِى *egrišti*] قِزْ اَنَاسِى بِرْلَا يِبْ اَكْرِشْتِى ***qïz anasï birlä yïp egrišti*** – “qiz onasi bilan ip yigirishda bahslashdi”. Ko‘maklashishda ham shu so‘z qo‘llanadi (اَكْرِشُورْ *egrišür*, اَكْرِشْمَاكْ *egrišmäk*).

[أُكْرِشْتِى *ögrišti*] اُلْ اَنكَرْ بِيشِكْ أُكْرِشْتِى ***ol aŋar bešik ögrišti*** – “u beshik tebratishda unga ko‘maklashdi” (أُكْرِشُورْ *ögrišür*, أُكْرِشْمَاكْ *ögrišmäk*).

[اَمْرِشْتِى *emrišti*] اَتِمْ بَرْجَا اَمْرِشْتِى ***etim barča emrišti*** – “(qo‘tir va boshqalardan) butun a’zoyi badanim qichishdi” (اَمْرِشُورْ *emrišür*, اَمْرِشْمَاكْ *emrišmäk*).

[اَرْفَشْدِى *arwašdï*] قَامْ لَارْ قَمُغْ اَرْفَشْدِى ***qamlar qamuγ arwašdï*** – “sehrgarlar avrashdi, bir turli so‘zlar aytishdi”. Jin chalishi va boshqalarga qarshi avrash ham shunday (اَرْفَشُرْ *arwašur*, اَرْفَشْمَاقْ *arwašmaq*).

[اَرْقَشْتِى *arqaštï*] اُلْ اَنِكْ بِرْلَا يُكْ اَرْقَشْتِى ***ol anïŋ birlä yük arqaštï*** – “u uning bilan yuk orqalashdi [ya’ni u o‘rtog‘ining yukini orqasiga qo‘yib, ko‘tarib bordi]” (اَرْقَشُورْ *arqašur*, اَرْقَشْمَاقْ *arqašmaq*).

[اَلْقِشْتِى *alqïštï*] بُوىْ اِكّى بِلَا اَلْقِشْتِى ***boy ikki bilä alqïštï*** – “ikki urug‘ (qabila) bir-birini yo‘q qildi”. Har narsani yo‘q qilish uchun bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَلْقِشُورْ *alqïšur*, اَلْقِشْمَاقْ *alqïšmaq*).

[اَلْقَشْدِى *alqašdï*] اُلْ مَنِكْ بِرْلَا اَلْقِشْ اَلْقَشْدِى ***ol meniŋ birlä alqïš alqašdï*** – “u men bilan maqtashdi, olqishladi, alqashdi”. Alqashda ko‘maklashishga ham shu so‘z

qo‘llanadi (اَلْقَشُورْ / اَلْقِشُورْ *alqïšur / alqašur,* اَلْقَشْمَاقْ / اَلْقِشْمَاقْ *alqïšmaq / alqašmaq*).

(Shoir) shunday degan:

اَلبْ لَارْ اَرِغ اَلْقشُرْ *Alplar arïγ alqïšur,*
كُچْ بِيرْ قِلِبْ اَرْقَشُرْ *Küč bir qïlïp arqašur,*
بِيرْ بِيرْ اُوزَا اَلْقَشُرْ *Bir-bir üzä alqašur,*
اَدَكَرمَذِبْ اُقْ اَتَارْ *Eδgärmäδip oq atar.*

Jangni ta’riflab aytmoqda: “Botirlar bir-birini o‘ldirardi, kuchlarini to‘plab, bir-biriga ko‘maklashar, buning uchun bir-birini maqtashar edi, ularning har biri o‘limdan qo‘rqmay o‘q otardi”.

[اِرْكِشْتِى *irkišti*] اُلْ مَنكَا تَوَارْ اِرْكِشْتِى *ol meŋä tavar irkišti* – “u menga mol va boshqa narsalarni to‘plashda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اِرْكِشُورْ *irkišür,* اِرْكِشْمَاكْ *irkišmäk*).

[اَلْكَشْتِى *elgäšti*] اُلْ اَنكَرْ اُونْ اَلْكَشْتِى *ol aŋar un elgäšti* – “u unga un elashda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَلْكَشُور *elgäšür,* اَلْكَشْمَاكْ *elgäšmäk*).

[اَمْكَشْتِى *emgäšti*] بُو اِيشْ تَا بُوىْ اَمْكَشْتِى *bu ïšta boy emgäšti* (63b) – “bu ishda odamlarning ba’zisi ba’zilarining sababidan charchashdi, qiynalishdi” (اَمْكَشُرْ *emgäšür,* اَمْكَشْمَاكْ *emgäšmäk*).

[اُبْلَشْدِى *üpläšdi*] بُودُنْ اِكِنْدِى تَقْارِنْ اُبْلَشْدِى *bodun ekindi tawarïn üpläšdi* – “xalq bir-birining molini nes-nobud qildi, g‘arot qildi” (اُبْلَشُرْ *üpläšür,* اُبْلَشْمَاكْ *üpläšmäk*). Bu so‘z o‘g‘irlashga nisbatan ham qo‘llanadi.

[اُتْلَشْدِى *ötläšdi*] اُتْلَشْدِى نَانكْ *ötläšdi näŋ* – “narsalar teshilib yorildi” (اُتْلَشُورْ *ötläšür,* اُتْلَشْمَاكْ *ötläšmäk*).

[اُتْلَشْدِى *ötläšdi*] اَلبْ لَارْ اُتْلَشْدِى *alplar ötläšdi* – “botirlar talashishdi, urushishdi” (اُتْلَشُورْ *ötläšür,* اُتْلَشْمَاكْ *ötläšmäk*).

[اِتْلِشْدِى *itlišdi*] اِتْلِشْدِى نَانكْ *itlišdi näŋ* – “narsalar yo‘q bo‘ldi, yo‘qoldi” (اِتْلِشُورْ *itlišür,* اِتْلِشْمَاكْ *itlišmäk*).

[اَجْلِشْدِى *ačlïšdï*] قَبُغْلَارْ اَجْلِشْدِى *qapuγlar ačlïšdï* – “eshiklar barobar ochildi”. Yechilmagan masalaning yechilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَجْلِشُرْ *ačlïšur,* اَجْلِشْمَاقْ *ačlïšmaq*).

[اَدْلَشْدِى *eδläšdi*] اُلَارْ بِيرْ اِكِنْدِينِى اَدْلَشْدِى *olar bir ekindini eδläšdi* – “ular bir-biriga bo‘lgan hurmatni yo‘qotishdi” (اَدْلَشُرْ *eδläšür,* اَدْلَشْمَاكْ *eδläšmäk*).

[اُدْلَشْدِى *uδlašdï*] اِقِنْ بِيرْ بِيرْكَا اُدْلَشْدِى *ïwïq bir-birkä uδlašdï* – “kiyiklar bir-birining izidan yurishdi (اُدْلَشُورْ *uδlašur,* اُدْلَشْمَاقْ *uδlašmaq*).

[اَرْلَشْدِى *erläšdi*] اُلَارْ اِكِى اَرْلَشْدِى *olar ikki erläšdi* – “ular ikkisi erlikda, mardlikda bahslashdi” (اَرْلَشُورْ *erläšür,* اَرْلَشْمَاكْ *erläšmäk*).

[اُرْلَشْدِى *urlašdï*] بُودُنْ قَمُغْ اُرْلَشْدِى *bodun qamuγ urlašdï* – “butun xalq baqirib-chaqirdi”. Asli اُرِيلَشْتِى *urïlaštï* dir (اُرْلَشُورْ *urlašur,* اُرْلَشْمَاقْ *urlašmaq*).

[أُزْلُشْدِى *üzlüšdi*] أُزْلُشْدِى نَانىڭ *üzlüšdi näŋ* – “narsa uzildi”; بَكِى كِشِى أُزْلُشْدِى *begi kiši üzlüšdi* – “er-xotinlik (munosabatlari) uzildi”.

[أُزْلُشْدِى *üzlüšdi*] اَلِمْلِغْ بِيرِمْلِكْدِنْ أُزْلُشْدِى *alïmlïγ-berimligdin üzlüšdi* – “(oluvchi bilan beruvchi) oldi-berdidan uzilishdi” (أُوزْلُشُورْ *üzlüšür*, أُزْلُشْمَاكْ *üzlüšmäk*).

[اِشْلَشْدِى *išläšdi*] اُلْ مَنِكْ بِرْلَا اِشْلَشْدِى *ol meniŋ birlä išläšdi* – “u mening bilan ishda bahslashdi”. Ishda ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اِشْلَشُورْ *išläšür*, اِشْلَشْمَاكْ *išläšmäk*).

[اِغْلَشْتِى *ïylaštï*] اُغْلَانْ اِغْلَشْتِى *oγlan ïylaštï* – “bolalar yig‘lashdi”. Bu so‘zning *yā* bilan kelgan يِغْلَشْتِى *yïγlaštï* shakli ham bor (اِغْلَشُرْ *ïylašur*, اِغْلَشْمَاقْ *ïylašmaq*).

[اَفْلَشْدِى *awlašdï*] كِشِى اَفْلَشْدِى *kiši awlašdï* – “kishilar bir ish ustida to‘planishdi” (اَفْلَشُورْ *awlašur*, اَفْلَشْمَاقْ *awlašmaq*).

[اَفْلَشْتِى *ewläšti*] بَكْ بِرْلَا اَفْلَشْتِى اُيْنَابْ *beg birlä ewläšti oynap* – “u bek bilan uyini o‘rtaga qo‘yib (uydan) qimor o‘ynashdi”. Bu maxsus qoidadir. (64a) Qimor o‘ynashni bildirish uchun o‘rtaga qo‘yib qimor o‘ynaladigan so‘zning o‘zagi olinib, oxiriga لَشْتِى *lašti* / *-läšti* qo‘shimchasi qo‘shiladi (اَفْلَشُورْ *ewläšür*, اَفْلَشْمَاقْ *awlašmaq* (*ewläšmäk?*)).

[أُغْلُشْدِى *üglüšdi*] بِيرْ نَانىڭ بِيرْ أُزَا أُغْلُشْدِى *bir näŋ bir üzä üglüšdi* – “bir narsa bir narsa ustiga yig‘ildi”. Masalan, qum to‘planishi, chigirtkaning qamish ustiga to‘planishi yoki kishilarning ish atrofiga to‘planishi singari (أُغْلُشُورْ *üglüšür*, أُغْلُشْمَاكْ *üglüšmäk*).

[اَقْلِشْدِى *aqlïšdï*] تَكْمَا يَنَكَاقْتِنْ بُودُنْ اَقْلِشْدِى *tekmä yaŋaqtïn bodun aqlïšdï* – “har yoqdan kishilar yig‘ilishdi, xalq yig‘ildi”. Shunga o‘xshash har yoqdan suv oqishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَقْلِشُورْ *aqlïšur*, اَقْلِشْمَاقْ *aqlïšmaq*).

[اَغْلَشْدِى *egläšdi*] اَلَارْ قَمُغْ اَدَقْ اَغْلَشْدِى لَارْ *olar qamuγ aδaq egläšdilär* – “ularning bari bir ishda ittifoq bo‘ldilar” demakdir. Bir-birlariga biron narsani oyoq bilan bosib yanchishga ko‘mak berish uchun ham qo‘llanadi (اَغْلَشُرْ *egläšür*, اَغْلَشْمَاكْ *egläšmäk*).

[اِغْلَشْدِى *igläšdi*] يِلْقِى اَرِغْ اِغْلَشْدِى *yïlqï arïγ igläšdi* – “yilqi va boshqa hayvonlar kasallandi” (اِغْلَشُرْ *igläšür*, اِغْلَشْمَاكْ *igläšmäk*).

[اَمْلَشْدِى لَارْ *emläšdilär*] بَالِغْ لَارْ اَمْلَشْدِى لَارْ *balïγlar emläšdilär* – “yaralar davolandi” (اَمْلَشُورْلَارْ *emläšürlär*, اَمْلَشْمَاكْ *emläšmäk*).

[أُمْلَشُو *ümläšü*] اُلْ اَنِكْ بِرْلَا جُكَانْ اُرْدِى أُمْلَشُو *ol anïŋ birlä čögän urdï ümläšü* – “u uning bilan ishtonni o‘rtaga qo‘yib chavgon o‘ynashdi” (أُمْلَشُورْ *ümläšür*, أُمْلَشْمَاكْ *ümläšmäk*).

[اِمْلَشْدِى *imläšdi*] اُلْ اَنِكْ بِلَا اَلكِنْ اِمْلَشْدِى *ol anïŋ bilä elgin imläšdi* – “u uning bilan qo‘l ila ishoratlashdi” (اِمْلَشُرْ *imläšür*, اِمْلَشْمَاكْ *imläšmäk*).

ق *q* [harfi]:

[أُتْسُقْتِى *utsuqtï*] اُلْ يَرْمَاقْ أُتْسُقْتِى *ol yarmaq utsuqtï* – “u (qimor o‘ynab) tanga va boshqa narsa yutqizdi” (أُتْسُقَارْ *utsuqar*, أُتْسُقْمَاقْ *utsuqmaq*). Maqolda (shunday kelgan): سِنَامَسَا اَرْسِقَارْ سَقِنْمَسَا أُتْسُقَارْ *Sïnamasa, arsïqar, saqïnmasa, utsuqar.*

Ma’nosi: “Sinamasa, kishi aldanadi, boshda ishning oxiri to‘g‘risida o‘ylamasa, yengiladi (yutqizadi)”. Bu maqol ishda tajribaga suyanish kerakligiga, o‘ylab ish qilishga undab aytiladi.

[اَرْسِقْتِی ***arsïqtï***] اَرْ اَرْسِقْتِی ***er arsïqtï*** – “kishi mag‘rurlandi, kerildi” (اَرْسِقَارْ ***arsïqar***, اَرْسِقْمَاقْ ***arsïqmaq***).

[اُرْسُقْتِی ***ursuqtï***] اَرْ اُرْسُقْتِی ***er ursuqtï*** – “kishi kurashda yengildi va kaltak yedi” (اُرْسُقَارْ ***ursuqar***, اُرْسُقْمَاقْ ***ursuqmaq***).

[اَلْسِقْتِی ***alsïqtï***] اُلْ تَقَارِنْ اَلْسِقْتِی ***ol tawarïn alsïqtï*** – “uning moli tortib olindi” (اَلْسِقَارْ ***alsïqar***, اَلْسِقْمَاقْ ***alsïqmaq***). (64b)

[اَنْدِقْتِی ***andïqtï***] اَرْ اَنْدِقْتِی ***er andïqtï*** – “kishi ont ichdi” (اَنْدِقَارْ ***andïqar***, اَنْدِقْمَاقْ ***andïqmaq***).

(Shoir) shunday degan:

قُيْغَشْبْ يَتْسَا اَنِکْ يُوزِينکَا	***Qoyγašïp yatsa anïŋ yüziŋä,***
اَلْسِقَرْ اُوکِنْ اَنِکْ سُوزِينکَا	***Alsïqar ögin anïŋ söziŋä.***
مِنکْ کِشِی يُلْغِی بُولُبْ اُوزِينکَا	***Miŋ kiši yuluγï bolup öziŋä,***
بِيرْکَالَرْ اَذِنْ اَنِکْ کُوزِينکَا	***Bergälär öδin anïŋ köziŋä.***

Aytmoqdaki: “Uning bilan birga yotib, uning yuzlariga boqib, so‘zlarini eshitgan kishi o‘zini yo‘qotadi. Uning husniga ming kishi jon berishga ham rozi bo‘ladi”.

ک *k* [harfi]:

[اِنْجِکْتِی ***inčikti***] اَرْ اِنْجِکْتِی ***er inčikti*** – “sovuq suvni ustiga quyishdan kishining sezgisi yo‘qoldi, xuddi hushdan ketgandek bo‘ldi; undan titrab qaqshadi” (اِنْجِکَارْ ***inčikär***, اِنْجِکْمَاکْ ***inčikmäk***).

[اُسْتِکْتِی / اُسْتُکْتِی ***üstükti / üstikti***] اُلْ بُو اِيشْ قَا اُسْتُکْتِی / اُسْتِکْتِی ***ol bu ïšqa üstükti / üstikti*** – “u bu ishga qattiq istak bildirdi” (اُسْتُکَارْ ***üstükär***, اُسْتُکْمَاکْ ***üstükmäk***). Asli اُوزْتِکْتِی ***üztikti*** dir.

[اِرْبَلْدِی ***irpäldi***] يِغَاجْ اِرْبَلْدِی ***yïγač irpäldi*** – “yog‘och arralandi” (اِرْبَلْرْ ***irpälür***, اِرْبَلْمَاکْ ***irpälmäk***). Maqolda (shunday kelgan): اُنکَاکَیْ اِرْبَلْدِی اِيشْ ***Öŋäkäy irpäldi ïš.*** Ya’ni: “Ishning tuzalishiga qasd qilingan bo‘lsa ham, lekin buzildi”.

[اَرْتِلْدِی ***artïldï***] اَرْ اَتْ اُوزَا اَرْتِلْدِی ***er at üzä artïldï*** – “kishi ot ustiga ortildi, tashlandi”. Ya’ni “kishi otning ikki yoniga tashlangani holda ortildi”; تَغَارْ اَشْيَکْ اُوزَا اَرْتِلْدِی ***tayar ešyäk üzä artïldï*** – “qop va boshqa narsalar eshak ustiga ortildi” (اَرْتِلُورْ ***artïlur***, اَرْتِلْمَاقْ ***artïlmaq***).

[اُرْتُلْدِی ***örtüldi***] اِيشْ اَرْ اُوزَا اُرْتُلْدِی ***ïš er üzä örtüldi*** – “ish kishiga noaniqligicha qoldi”; کُوکْ اُرْتُلْدِی ***kök örtüldi*** – “ko‘k bulutlandi”. Aslida biron narsa ostiga yashiringan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُرْتُلُورْ ***örtülür***, اُرْتُلْمَاکْ ***örtülmäk***).

[اُرْتَلْدِی ***örtäldi***] بُکْ اُرْتَلْدِی ***bük örtäldi*** – “chakalakzor va boshqalar yondirildi” (اُرْتَلُورْ ***örtälür***, اُرْتَلْمَاکْ ***örtälmäk***).

[اِرْتَلْدِی ***irtäldi***] اِرْتَلْدِی نَانَکْ ***irtäldi näŋ*** – “narsa so‘raldi, surishtirildi, talab qilindi” (اِرْتَلُورْ ***irtälür***, اِرْتَلْمَاکْ ***irtälmäk***).

(Shoir) shunday degan:

کُنکلُمْ اِچِنْ اُرْتَدِی ***Köŋlüm ičin örtädi,***
یَتْمِیشْ یَشِغْ قَرْتَدِی ***Yetmiš (bitmiš?) yašïγ (bašïγ?) qartadï.***
کَجْمِشْ اُدْکْ اِرْتَدِی ***Kečmiš öδüg irtädi,***
تُنْ کُنْ کَجبْ اِرْتَلُورْ ***Tün-kün kečip irtälür.***

O‘lgan kishi to‘g‘risida aytmoqdaki: “(Uning musibati) ko‘nglimni o‘rtab yubordi, (65a) yurak-bag‘rimni yaraladi. O‘tgan kunlarni qo‘msatdi, kecha-kunduz uni izlatdi”.

[اُبْرُلْدِی ***öprüldi***] مُونْ اُبْرُلْدِی ***mün öprüldi*** – “sho‘rva va boshqa narsalar ichildi” (اُبْرُلُورْ ***öprülür***, اُبْرُلْمَاکْ ***öprülmäk***).

[اُسْتَلْدِی ***üstäldi***] سُوقْ اُسْتَلْدِی ***suw üstäldi*** – “suv ko‘paydi”. Qo‘shib orttirilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. Boshqa narsalar(ning ortishi)ga nisbatan ham shunday deyiladi (اُسْتَلُورْ ***üstälür***, اُسْتَلْمَاکْ ***üstälmäk***).

[اِسْتَلْدِی ***istäldi***] اِسْتَلْدِی نَانَکْ ***istäldi näŋ*** – “narsa so‘raldi, istaldi” (اِسْتَلُورْ ***istälür***, اِسْتَلْمَاکْ ***istälmäk***).

[اَشْتِلْدِی ***eštildi***] بُو سُوزْ اَشْتِلْدِی ***bu söz eštildi*** – “bu so‘z va boshqa narsalar eshitildi” (اَشْتِلُورْ ***eštilür***, اَشْتِلْمَاکْ ***eštilmäk***).

[اَغْتِلْدِی ***aγtïldï***] اَرْ اَغْتِلْدِی ***er aγtïldï*** – “kishi yerga urildi, yiqitildi”. Asli اَغْتَرِلْدِی ***aγtarïldï*** dir (اَغْتِلُورْ ***aγtïlur***, اَغْتِلْمَاقْ ***aγtïlmaq***).

[اَوْدِلْدِی ***ewdildi***] اَوْدِلْدِی نَانَکْ ***ewdildi näŋ*** – “narsa to‘plandi” (اَوْدِلُورْ ***ewdilür***, اَوْدِلْمَاکْ ***ewdilmäk***).

[اِگْدِلْدِی ***igdildi***] اُغُلْ اِگْدِلْدِی ***oγul igdildi*** – “bola va boshqalar tarbiyalandi” (اِگْدِلُورْ ***igdilür***, اِگْدِلْمَاکْ ***igdilmäk***).

[اُتْرُلْدِی ***ütrüldi***] سِبِزْغُو اُتْرُلْدِی ***sïbïzγu ütrüldi*** – “sibizg‘a [nay] va boshqa cholg‘u asboblari chalindi” (اُتْرُلُورْ ***ütrülür***, اُتْرُلْمَاکْ ***ütrülmäk***).

[اُتْرُلْدِی ***utruldï***] سَجْ اُتْرُلْدِی ***sač utruldï*** – “soch va boshqa narsalar kesildi, olindi” (اُتْرُلُورْ ***utrulur***, اُتْرُلْمَاقْ ***utrulmaq***).

[اَدْرِلْدِی ***aδrïldï***] یُولْ اَدْرِلْدِی ***yol aδrïldï*** – “yo‘l ayrildi”. Ikki ulfat ayrilishiga, uzoqlashishiga ham, yillar ayrilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَدْرِلُورْ ***aδrïlur***, اَدْرِلْمَاقْ ***aδrïlmaq***).

[اُدْرُلْدِی ***öδrüldi***] اُدْرُلْدِی نَانَکْ ***öδrüldi näŋ*** – “narsa ayirildi, ajratildi, tanlandi”. Bir to‘da kishilarning bir tomonga ajralishiga ham shu so‘z qo‘llanadi: اَنِکْ اَرَانِی اُدْرُلْدِی ***anïŋ eräni ödrüldi*** – “uning kishilari bir tarafga ajraldi” (اُدْرُلُورْ ***ödrülür***, اُدْرُلْمَاکْ ***ödrülmäk***).

[اِسْرِلْدِی ***ïsrïldï***] اَتْمَاکْ اِسْرِلْدِی ***etmäk ïsrïldï*** – “non va boshqa narsalar chaynaldi” (اِیسْرِلُورْ ***ïsrïlur***, اِسْرِلْمَاقْ ***ïsrïlmaq***).

[اَشْرُلْدِی ***ašruldï***] يُکْ اَرتّنْ اَشْرُلْدِی ***yük arttïn ašruldï*** – “yuk tepadan va boshqa joylardan o‘tkazildi, oshirildi” (اَشْرُلْرُ ***ašrulur,*** اَشْرُلْمَاقْ ***ašrulmaq***).

[اُغْرَلْدِی ***oγraldï***] اُلْ يِيرْکَا اُغْرَلْدِی ***ol yerkä oγraldï*** – “u yerga va boshqa yerlarga borishga qaror qilindi” (اُغْرَلْرْ ***oγralur,*** اُغْرَلْمَاقْ ***oγralmaq***).

[اُغْرُلْدِی ***oγruldï***] سُنکُوکْ اُغْرُلْدِی ***söŋük oγruldï*** – “suyaklar ayrildi va bo‘lak-bo‘lak bo‘lib qoldi” (اُغْرُلْرْ ***oγrulur,*** اُغْرُلْمَاقْ ***oγrulmaq***).

(Shoir) shunday degan:

بَلْچِقْ بَلِقْ يُغْرُلُورْ — ***Balčïq, balïq yuγrulur,***
چِغَايْ يَقْزْ يِغْرِلُورْ — ***Čïγay, yawuz yïγrïlur.***
اَرِنـکَکْ لَرِی اُغْرُلُورْ — ***Eriŋäkläri oγrulur,***
اَذْغُجْ بِلا اَفرِشُورْ — ***Azγuč bilä ewrišür.***

(65b) Yoz bilan qish tortishuvi haqida aytmoqda: “Qishda loy, balchiqlar uyilib ketadi. Kambag‘al, yupun kishilar eziladi. Barmoqlari sovqotib qovushmay, zirqiraydi, ular olov bilangina jon saqlaydi”.

[اَفرِلْدِی ***ewrildi***] اَرْ اَفرِلْدِی ***er ewrildi*** – “kishi ketayotgan yo‘lidan qaytdi, o‘girildi”. O‘z yo‘nalishidan iziga qaytgan har bir kishiga nisbatan ham shu so‘z qo‘llanadi (اَفرُلْرُ ***ewrülür,*** اَفرُلْمَاکْ ***ewrülmäk***).

[اَکْرِلْدِی ***egrildi***] کَنْدْ اَکْرِلْدِی ***kend egrildi*** – “shahar o‘rab olindi”; يِبْ اَکْرِلْدِی ***yïp egrildi*** – “ip yigirildi” (اَکْرِلْرُ ***egrilür,*** اَکْرِلْمَاکْ ***egrilmäk***).

[اُکْرِلْدِی ***ögrildi***] بِيشِکْ اُکْرِلْدِی ***bešik ögrildi*** – “bolaning beshigi tebratildi” (اُکْرِلْرُ ***ögrilür,*** اُکْرِلْمَاکْ ***ögrilmäk***).

[اَمْرُلْدِی ***amruldï***] قَيْنَارْ اَشِجْ اَمْرُلْدِی ***qaynar ešič amruldï*** – “sovuq suv quyilishidan qozonning qaynashi to‘xtadi”; اَرْ تِينِی اَمْرُلْدِی ***er tïnï amruldï*** – “kishining nafasi o‘chdi va o‘ldi”. Qo‘zg‘ala-qo‘zg‘ala tinchigan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَمْرُلْرُ ***amrulur,*** اَمْرُلْمَاقْ ***amrulmaq***).

[اِرْغَلْدِی ***ïrγaldï***] يِغَاجْ اِرْغَلْدِی ***yïγač ïrγaldï*** – “daraxt silkitildi”. Silkitilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (اِرْغَلْرْ ***ïrγalur,*** اِرْغَلْمَاقْ ***ïrγalmaq***).

[اَرْقَلْدِی ***arwaldï***] اَرْقِشْ اَرْقَلْدِی ***arqïš*** (***arwïš?***) ***arwaldï*** – “avrash, afsun so‘zlari o‘qildi” (اَرْقَلْرْ ***arwalur,*** اَرْقَلْمَاقْ ***arwalmaq***).

[اَلْقَلْدِی ***alqaldï***] بَکْکَا اَلْقِشْ اَلْقَلْدِی ***begkä alqïš alqaldï*** – “begga olqish, yaxshi duo aytildi” (اَلْقَلْرْ ***alqalur,*** اَلْقَلْمَاقْ ***alqalmaq***).

[اِرْکِلْدِی ***irkildi***] سُو تَلِمْ اِرْکِلْدِی ***sü telim irkildi*** – “ko‘p askar to‘plandi”. To‘planib ko‘paygan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (اِرْکِلْرْ ***irkilür,*** اِرْکِلْمَاکْ ***irkilmäk***). Boshqa (narsa yoki kishilar) to‘plansa ham, shu so‘z qo‘llanadi. Bu fe’l o‘timli va o‘timsiz shakllarda ishlatiladi.

[اُرْکُلْدِی ***ürküldi***] اُرْکُنچْ بُلْبْ اُرْکُلْدِی ***ürkünč bolup ürküldi*** – “shov-shuv qo‘zg‘aldi, hatto qochish boshlandi” (اُرْکُلْرْ ***ürkülür,*** اُرْکُلْمَاکْ ***ürkülmäk***).

[اَلْکَلْدِی ***elgäldi***] اُونْ اَلْکَلْدِی ***un elgäldi*** – “un va boshqa narsalar elandi” (اَلْکَلْرْ ***elgälür,*** اَلْکَلْمَاکْ ***elgälmäk***).

ن *n* [harfi]:

[اَرْتِنْدِی ***artïndï***] اَرْ اَرْجِسِنْ اَرْتِنْدِی ***er arčïsïn artïndï*** – “kishi to‘rvasini ulovga ortdi”. Boshqa narsaga (ortsa) ham shu so‘z qo‘llanadi (اَرْتِنُرْ ***artïnur***, اَرْتِنْمَاقْ ***artïnmaq***).

[اُرْتُنْدِی ***örtündi***] اُرَاغُتْ يُوزِنْ اُرْتُنْدِی ***uraγut yüzin örtündi*** – “xotin yuzini ochdi”. Yuzini bekitishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُرْتُنُرْ ***örtünür***, اُرْتُنْمَاکْ ***örtünmäk***).

[اُرْتَنْدِی ***örtändi***] اُرْتَنْدِی نَانکْ ***örtändi näŋ*** – “narsa kuydi” (اُرْتَنُرْ ***örtänür***, (66a) اُرْتَنْمَاکْ ***örtänmäk***). Kun botgandan so‘ng bulut qizarsa, بُلِتْ اُرتَنْدِی ***bulït örtändi*** deyiladi. Turklar buni yaxshilikka yo‘yadilar. Maqolda (shunday kelgan):

تُنْلَا بُلِتْ اُرْتَنْسَا ***Tünlä bulït örtänsä,***
اَقْلُکْ اُرِی کَلْدُرْمِشْجَا بُلُورْ ***Ewlüg urï keldürmiščä bolur,***
تَنکْدَا بُلِتْ اُرْتَنْسَا ***Taŋda bulït örtänsä,***
اَقکَا يَغِی کِرْمِشْجَا بُلُورْ ***Ewkä yaγï kirmiščä bolur.***

Ma’nosi: “Kechqurun bulut qizarsa, xotin o‘g‘il tuqqandek, ertalab bulut qizarsa, yov uyga kirgandek bo‘ladi”. Keyingisini yomonlikka yo‘yadilar.

[اَقِدِنْدِی ***ewdindi***] اُوزِنکَا يَمِيشْ اَقِدِنْدِی ***öziŋä yemiš ewdindi*** – “o‘ziga meva va boshqa narsalarni to‘pladi” ([اَقِدِنُرْ ***ewdinür***], اَقِدِنْمَاکْ ***ewdinmäk***).

[اُتْرُنْدِی ***otrundï***] اُلْ مَنکَا اُتْرُنْدِی ***ol meŋä otrundï*** – “u menga yuzlandi”; يِلْ يِغَاجْقَا ***yïl yïγačqa otrundï*** – “shamol daraxtga yuzlandi” (اُتْرُنُرْ ***otrunur***, اُتْرُنْمَاقْ ***otrunmaq***).

[اِسْرِنْدِی ***ïsrïndï***] اَرْ اِسْرِنْدِی ***er ïsrïndï*** – “kishi bir ish to‘g‘risida jahli chiqib, xafalandi”. Aslida bu so‘z hali qaynab pishmagan gulkaram va shuning singari boshqa narsalar ustidan sovuq suv quyib qaynog‘i tinib, xomligicha qolgan narsaga nisbatan aytiladi. Yumshoq ko‘ngilli kishining g‘azablanishiga ham qo‘llanadi (اِسْرِنُرْ ***ïsrïnur***, اِسْرِنْمَاقْ ***ïsrïnmaq***).

[اَغرِنْدِی ***aγrïndï***] بَالِغْ اَغرِنْدِی ***balïγ aγrïndï*** – “yara og‘ridi, yarador yarasining og‘rig‘idan azoblandi, alam chekdi. Unga yarasining og‘rig‘i sezildi”. Bu so‘z boshqa narsalar(ning og‘rishi)ga ham qo‘llanadi (اَغْرِنُرْ ***aγrïnur***, اَغْرِنْمَاقْ ***aγrïnmaq***).

[اُگْرَنْدِی ***ögrändi***] اُلْ بِلِکْ اُگْرَنْدِی ***ol bilig ögrändi*** – “u bilim, hikmat va boshqa (fazilat)ni o‘rgandi” (اُگْرَنُرْ ***ögränür***, اُگْرَنْمَاکْ ***ögränmäk***).

(Shoir) shunday degan:

اَرْدَمْ تِلَا اُگْرَنِبْ بُلْمَا کُڤَازْ ***Erdäm tilä, ögränin bolma küwäz,***
اَرْدَمْ سِزِنْ اُگُنْسَا اَنکْمَکُوذا اَنکَارْ ***Erdämsizin ögünsä eŋmägüδä aŋar.***

Aytmoqdaki: “Bilim, hikmat o‘rgan, o‘rganishda havoyilik va takabburlik qilma. Hech narsa o‘rganmay, o‘zini bilimdon ko‘rsatib maqtangan kishi imtihon chog‘ida o‘zini yo‘qotib qo‘yadi”.

اَرْ اُزْلُقْ اُگْرَنْدِی ***er uzluq ögrändi*** – “kishi hunar va boshqa (fazilat)ni o‘rgandi”.

[اَگْرِنْدِی ***egrindi***] اُرَاغُتْ يِبْ اَگْرِنْدِی ***urayut yïp egrindi*** – “xotin o‘zi uchun ip yigirdi. Yoki asli yigirmagani holda, ip yigirgandek ko‘rindi” (اَگْرِنُرْ ***egrinür,*** اَگْرِنْمَاگْ ***egrinmäk***).

[اُخْسِنْدِی ***oxsïndï***] اُلْ قِلْمِشْ اِيشِنگَا اُخْسِنْدِی ***ol qïlmïš ïšïŋa oxsïndï*** – “u qilgan ishiga o‘ksindi, pushaymon yedi” (اُخْسِنُورْ ***oxsïnur,*** اُخْسِنْمَاقْ ***oxsïnmaq***).

[اَرْسِنْدِی ***ersindi***] اُغُلْ اَرْسِنْدِی ***oyul ersindi*** – “o‘g‘il balog‘atga yetdi” (اَرْسِنُرْ ***ersinür,*** اَرْسِنْمَاگْ ***ersinmäk***). (66b)

[اَقْسِنْدِی ***ewsindi***] اُلْ بُو اَقْنِی اَقْسِنْدِی ***ol bu ewni ewsindi*** – “u bu uyni o‘z uyi hisobladi, hatto kirib joylashdi” (اَقْسِنُرْ ***ewsinür,*** اَقْسِنْمَاگْ ***ewsinmäk***).

[اِجْغِنْدِی ***ičγïndï***] اُلْ قُشْنِی اَلگِدِنْ اِجْغِنْدِی ***ol qušnï elgidin ičγïndï*** – “u qushni qo‘lidan bexos uchirib yubordi, qo‘lidan chiqardi”. Maqolda (shunday kelgan): يَقَادَقِی يَلْغَاغَالِی اَلگِدَاگِی اِجْغِنُورْ ***Yaqadaqï yalγaγalï elgidägi ičγïnur.*** Ma’nosi: “Yoqasiga to‘kilgan ovqat yuqini yalash bilan ovora bo‘lgan kishi qo‘lidagi kosa va shu kabi narsalardan ayriladi”. Bu maqol biron (arzimas) narsaga alahsib, qo‘lidagini ehtiyot qilmagan kimsaga qarata aytiladi; اَرْ اِجْغِنْدِی ***er ičγïndï*** – “kishilar orasida yel to‘xtatib qola olmay, beixtiyor chiqarib yubordi va bundan uyaldi” (اِجْغِنُورْ ***ičγïnur,*** اِجْغِنْمَاقْ ***ičγïnmaq***).

[اِرْغَنْدِی ***irγandï***] يِغَاجْ اِرْغَنْدِی ***yïyač irγandï*** – “daraxt silkindi, qimirladi”. (Silkingan) boshqa narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi (اِرْغَنُورْ ***irγanur,*** اِرْغَنْمَاقْ ***irγanmaq***).

[اَشْغِنْدِی ***ašγïndï***] تَاشْ اَشْغِنْدِی ***taš ašγïndï*** – “tosh qirildi [ishqalandi]”. Har bir qattiq narsaning qirilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَشْغِنُرْ ***ašγïnur,*** اَشْغِنْمَاقْ ***ašγïnmaq***).

[اَلْقِنْدِی ***alqïndï***] اَلْقِنْدِی نَانگْ ***alqïndï näŋ*** – “narsa butunlay tugadi, tamom bo‘ldi”; اَرْ اَلْقِنْدِی ***er alqïndï*** – “kishi o‘ldi, tugadi, yo‘q bo‘ldi” (اَلْقِنُرْ ***alqïnur,*** اَلْقِنْمَاقْ ***alqïnmaq***).

اَمْلَلُرْ كُوزُمْ اَنِكْ تُوزِنكَا ***Emlälür közüm anïŋ toziŋa.***

Sevgilisini ta’riflab aytmoqdaki: “Uning shirinligi bilan borlig‘im ovlanadi, oyog‘ining to‘zoni bilan ko‘zim davolanadi”.

[اِكْلَلْدِي *iglältdi*] تَكْمَا تُرْلُكْ اِيكْ اِكْلَلْدِي ***tegmä türlüg ig iglältdi*** – “har turli kasallik bilan og‘ridi” (اِكْلَلُرْ ***iglälür***, اِكْلَلْمَاكْ ***iglälmak***).

[اَمْلَدِی ***emläldi***] اِڭلِیک اَمْلَدِی ***iglig emläldi*** – “kasal davolandi” (اَمْلَلُرْ ***emlälür***, اَمْلَلَمَاکْ ***emlälmäk***).

[اِمْلَدِی ***imläldi***] کِشِی اِمْلَدِی ***kiši imläldi*** – “kishi ko‘z qiri va boshqa harakat bilan imlandi” (اِمْلَلُرْ ***imlälür***, اِمْلَلْمَاکْ ***imlälmäk***).

Manqūṣ lardan besh harflilar

ت ***t*** [harfi]:

[اَرْبَلَدِی ***arpalandï***] اَتْ اَرْبَلَدِی ***at arpalandï*** – “ot va boshqa hayvonlarga arpa berildi” (اَرْبَلَنُرْ ***arpalanur***, اَرْبَلَنْمَاقْ ***arpalanmaq***).

د ***d*** [harfi]:

[اُرْدُولَدِی ***ordulandï***] بَکْ بِیرْ یِیرکْ اُرْدُولَدِی ***beg bir yerig ordulandï*** – “bek bir yerni o‘ziga o‘rda qildirdi” (اُرْدُولَنُرْ ***ordulanur***, اُرْدُولَنْمَاقْ ***ordulanmaq***).

[اُتْرُولَدِی ***otrulandï***] اُلْ اَنکَرْ اُتْرُولَدِی ***ol aŋar otrulandï*** – “u unga yuzma-yuz bo‘ldi” (اُتْرُولَنُرْ ***otrulanur***, اُتْرُولَنْمَاقْ ***otrulanmaq***).

ق ***q*** [harfi]:

[اَرْقَلَدِی ***arqalandï***] اُلْ مَنِی اَرْقَلَدِی ***ol meni arqalandï*** – “u menga orqa qildi, suyandi”.

[اَرْقَلَدِی ***arqalandï***] اُلْ تَاغْنِی اَرْقَلَدِی ***ol taγnï arqalandï*** – “u toqqa suyaldi” (اَرْقَلَنُرْ ***arqalanur***, اَرْقَلَنْمَاقْ ***arqalanmaq***).

م ***m*** [harfi]:

[اُژْمْلَدِی ***üžümländi***] یِغَاجْ اُژْمْلَدِی ***yïγač üžümländi*** – “daraxt tut berdi, tut hosilga kirdi” (اُژْمْلَنُرْ ***üžümlänür***, اُژْمْلَنْمَاکْ ***üžümlänmäk***).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ت ***t*** [harfi]:

[اُوتْلَدِی ***otlandï***] اَتْ اُوتْلَدِی ***at otlandï*** – “ot yurish natijasida qizishdi”; اَرْ اُوتْلَدِی ***er*** (76a) ***otlandï*** – “kishi g‘ozabdan o‘tlandi, qizishdi” (اُوتْلَنُرْ ***otlanur***, اُوتْلَنْمَاقْ ***otlanmaq***).

ز ***z*** [harfi]:

[اَازْلَدِی ***a:zlandï***] اُلْ بُو یَرْمَاقِغْ اَازْلَدِی ***ol bu yarmaqïγ a:zlandï*** – “u bu tangani va boshqa narsalarni oz deb bildi” (اَازْلَنُورْ ***a:zlanur***, اَازْلَنْمَاقْ ***a:zlanmaq***).

[اُوزْلَدِی ***uzlandï***] اَرْ اُوزْلَدِی ***er uzlandï*** – “kishi o‘z hunarida ustalik ko‘rsatdi” (اُوزْلَنُورْ ***uzlanur***, اُوزْلَنْمَاقْ ***uzlanmaq***).

ش ***š*** [harfi]:

[اِیشْلَدِی ***išländi***] اَرْ اِیشْلَدِی ***er išländi*** – “kishi o‘zini ish qilayotgandek qilib ko‘rsatdi”.

[اِیسْلَدِی ***ïslandï***] اَڤْ اِیسْلَدِی ***ew ïslandï*** – “uy tutundan qoraydi”. Tutundan qoraygan to‘n va boshqa narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi (اِیسْلَنُرْ ***ïslanur***, اِیسْلَنْمَاقْ ***ïslanmaq***).

ف ***w*** [harfi]:

[اَاقْلَنْدِى ***a:wlandï***] اَرْ اُوزِنكَا اَاقْلَنْدِى ***er öziŋä a:wlandï*** – “kishi o‘zi uchun ov qilishga kirishdi” (اَاقْلَنْمَاقْ ***a:wlanmaq***, اَاقْلَنْرْ ***a:wlanur***).

ك ***g*** [harfi]:

[اُوكْلَنْدِى ***ügländi***] اَرَقْ اَرْ اُوكْلَنْدِى ***aruq er ügländi*** – “charchagan kishi va boshqalar dam oldi”. Bolaning ulg‘ayishiga ham shu so‘z ishlatiladi (اُوكْلَنْرْ ***üglänür***, اُوكْلَنْمَاكْ ***üglänmäk***).

Shu bo‘limning to‘rt harflilari

ت ***t*** [harfi]:

[اَدْتْلَادِى ***aδutladï***] اَرْ يَرْمَاقْ اَدْتْلَادِى ***er yarmaq aδutladï*** – “kishi kafti bilan tangani hovuchlab oldi”. Hovuchga suv to‘ldirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَدْتْلَارْ ***aδutlar***, اَدْتْلَامَاقْ ***aδutlamaq***).

[اُزْتْلَادِى ***üzütlädi***] اُلْ اَنِى اُزْتْلَادِى ***ol anï üzütlädi*** – “u uni baxillikka nisbat berdi, baxil dedi” (اُزْتْلَارْ ***üzütlär***, اُزْتْلَامَاكْ ***üzütlämäk***).

[اُكْتْلَادِى ***ögütlädi***] اُلْ اُغْلِنْ اُكْتْلَادِى ***ol oγlïn ögütlädi*** – “u o‘g‘liga va boshqalarga nasihat qildi, o‘gitladi” (اُكْتْلَارْ ***ögütlär***, اُكْتْلَامَاكْ ***ögütlämäk***).

[اَكَتْلَادِى ***egätlädi***] اُلْ قِيزِنْ اَكَتْلَادِى ***ol qïzïn egätlädi*** – “u qizi bilan birga erining uyiga oqsoch [joriya]ni qo‘shib jo‘natdi” (اَكَتْلَارْ ***egätlär***, اَكَتْلَامَاكْ ***egätlämäk***).

[اُلْتَلَادِى ***ölütlädi***] اَرْ اُلْتَلَادِى ***er ölütlädi*** – “kishi urushdi, janjallashdi, hatto oralaridagi munosabat urib o‘ldirishgacha borib yetdi” (اُلْتَلَارْ ***ölütlär***, اُلْتَلَامَاكْ ***ölütlämäk***).

ج ***č*** [harfi]:

[اَمَجْلَادِى ***amačladï***] اَرْ قُشُغْ اَمَجْلَادِى ***er qušuγ amačladï*** – “kishi qushni nishonga oldi” (اَمَجْلَارْ ***amačlar***, اَمَجْلَامَاقْ ***amačlamaq***[1]).

[اَنْجْلَادِى ***enüčlädi***] اُتَاجِى كُوزُكْ اَنْجْلَادِى ***otačï közüg enüčlädi*** – “tabib ko‘zga tushgan parda (noxina)ni davoladi” (اَنْجْلَارْ ***enüčlär***, اَنْجْلَامَاكْ ***enüčlämäk***). (76b)

ر ***r*** [harfi]:

[اَدْرْلَادِى ***eδärlädi***] اَتْ اَدْرْلَادِى ***at eδärlädi*** – “(kishi) otni va boshqa ulovlarni egarladi” (اَدْرْلَارْ ***eδärlär***, اَدْرْلَامَاكْ ***eδärlämäk***).

[اَغِرْلَادِى ***ayïrladï***] تَنكْرِى مَنِى اَغِرْلَادِى ***Täŋri meni ayïrladï*** – “Tangri menga marhamat qildi”. Umuman, bir-birini hurmat qilishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَغِرْلَارْ ***ayïrlar***, اَغِرْلَامَاقْ ***ayïrlamaq***).

[اُغُرْلَادِى ***oγurladï***] اَرْ اِيشِنْ اُغُرْلَادِى ***er išïn oγurladï*** – “kishi ishini qilishga umid qildi, ishondi, o‘z vaqtida qildi” (اُغُرْلَارْ ***oγurlar***, اُغُرْلَامَاقْ ***oγurlamaq***).

Yana: اَرْ تَوَارْ اُغُرْلَادِى ***er tavar oγurladï*** – “kishi mol o‘g‘irladi”. Chunki u fursat kutib turgan edi. Bunday ma’noda kelishiga yana boshqa bir sabab bor. U ham bo‘lsa, اُغُرِى ***oγrï*** so‘zining “o‘g‘irlovchi” ma’nosida bo‘lishidir. Yuqoridagi

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (اَمَجْلَاكَقْ).

fe’l shu so‘zdan yasalgan, biroq yengil bo‘lsin uchun *yā* harfi tashlangan. Bu narsa menga juda ma’qul, ikkalasi ham chiroylidir.

(Shoir) shunday degan:

بَكِمْ اُوزِنْ اُغُزْلَادِى	***Begim özin oγurladï,***
يَرَغ بِيلِبْ اُغُزْلَادِى	***Yaraγ bilip oγurladï.***
اُلُغ تَنَكْرِى اَغِزْلَادِى	***Uluγ täŋri aγïrladï,***
اَنِنْ قُتْ قِقْ تُرِى تُغْدِى	***Anïn qut-qïw töri tuγdï.***

تَنكُتْ *taŋut* larning begi yovni qo‘lga tushirish uchun pistirmaga yashiringanini ta’riflab aytmoqda: “Begim o‘zini (yovdan) chetga olib yashirindi, u shuni [bekinish hiylasini] ma’qul ko‘rdi. Ulug‘ Tangri unga marhamat qildi, shuning uchun davlati, kuch-qudrati ortdi”.

ز *z* [harfi]:

[اَتِزْلَادِى ***atïzladï***] اَرْ يِيرِنْ اَتِزْلَادِى ***er yerin atïzladï*** – “kishi yerini ariq tortib, ekin uchun tayyorlab qo‘ydi” (اَتِزْلَارْ ***atïzlar,*** اَتِزْلَامَاقْ ***atïzlamaq***).

[اُجُزْلَادِى ***učuzladï***] بَكْ اَنِى اُجُزْلَادِى ***beg anï učuzladï*** – “bek uni haqorat qildi” (اُجُزْلَارْ ***učuzlar,*** اُجُزْلَامَاقْ ***učuzlamaq***).

[اُدُزْلَادِى ***üδüzlädi***] اُلْ اَنِى اُدُزْلَادِى ***ol anï üδüzlädi*** – “u uning qo‘tirini davoladi” (اُدُزْلَارْ ***üδüzlär,*** اُدُزْلَامَاكْ ***üδüzlämäk***).

[اَغِزْلَادِى ***aγïzladï***] اُلْ اَرِقْنِى اَغِزْلَادِى ***ol arïqnï aγïzladï*** – “u ariqqa og‘iz ochdi”; اُلْ قُلِنْ اَغِزْلَادِى ***ol qulïn aγïzladï*** – “u qulining va boshqalarning og‘ziga urdi” (اَغِزْلَارْ ***aγïzlar,*** اَغِزْلَامَاقْ ***aγïzlamaq***).

[اُغُزْلَادِى ***oγuzladï***] اُلْ مَنِى اُغُزْلَادِى ***ol meni oγuzladï*** – “u meni (77a) o‘g‘uz deb sanadi, o‘g‘uz deb bildi” (اُغُزْلَارْ ***oγuzlar,*** اُغُزْلَامَاقْ ***oγuzlamaq***).

س *s* [harfi]:

[اُقِتِسَادِى ***oqïtïsadï***] اُلْ بِتِكْ اُقِتِسَادِى ***ol bitig oqïtïsadï*** – “u xatni o‘qitmoqchi bo‘ldi”. Bu so‘z kishini chaqirishni istashga ham qo‘llanadi (اُقِتِسَارْ ***oqïtïsar,*** اُقِتِسَامَاقْ ***oqïtïsamaq***).

[اُكِتِسَادِى ***ügitisädi***] اُلْ تَرِغْ اُكِتِسَادِى ***ol tarïγ ügitisädi*** – “u bug‘doy tuyishni istadi” (اُكِتِسَارْ ***ügitisär,*** اُكِتِسَامَاكْ ***ügitisämäk***).

[اَكِرْسَادِى ***egirsädi***] اَرْ اَكِرْسَادِى ***er egirsädi*** – “kishi davolanish uchun egir [yurak og‘rig‘ini tuzatuvchi bir o‘t]ni istadi”.

[اَكِرِسَادِى ***egirisädi***] اُرَاغْتْ يِبْ اَكِرِسَادِى ***uraγut yïp egirisädi*** – “xotin ip yigirgisi keldi”; بَكْ كَنْدْ اَكِرِسَادِى ***beg kend egirisädi*** – “bek qo‘rg‘onni o‘rashni istadi [o‘rab olmoqchi bo‘ldi]” (اَكِرِسَارْ ***egirisär,*** اَكِرِسَامَاكْ ***egirisämäk***).

[اَجِغْسَادِى ***ačïγsadï***] اَرْ اَجِغْسَادِى ***er ačïγsadï*** – “kishi nordon va achchiq narsani tusadi” (اَجِغْسَارْ ***ačïγsar,*** اَجِغْسَامَاقْ ***ačïγsamaq***).

[اُلُغْسَادِى ***uluγsadï***] اَرْ اَتَّا اُلُغْسَادِى ***er atta uluγsadï*** – “kishi otning kattasini istadi”. Bu so‘z har bir narsaning kattasini istash ma’nosida ham qo‘llanadi (اُلُغْسَارْ ***uluγsar,*** اُلُغْسَامَاقْ ***uluγsamaq***).

[اَرُكْسَادِى *erüksädi*] اَرْ اَرُكْسَادِى *er erüksädi* – “kishi o‘rik va boshqa mevalarni istadi” (اَرُكْسَارْ *erüksär*, اَرُكْسَامَاكْ *erüksämäk*).

[اُلُكْسَادِى *ölügsädi*] اَرْ اُلُكْسَادِى *er ölügsädi* – “kishi o‘lishni istadi, o‘lgisi keldi” (اُلُكْسَارْ *ölügsär*, اُلُكْسَامَاكْ *ölügsämäk*).

ش *š* [harfi]:

[اُكُشْلَادِى *öküšlädi*] اَرْ تَوَارِنْ اُكُشْلَادِى *er tavarïn öküšlädi* – “kishi molini ko‘p deb bildi” (اُكُشْلَارْ *öküšlär*, اُكُشْلَامَاكْ *öküšlämäk*).

غ *γ* [harfi]:

[اَرِغْلَادِى *arïγladï*] قُزِى اَرِغْلَادِى *qozï arïγladï* – “(kishi) qo‘zining va boshqa hayvonlarning moyagini olib tashladi, bichdi”.

[اَرِغْلَادِى *arïγladï*] اُلْ يَرْمَاقِغْ اَرِغْلَادِى *ol yarmaqïγ arïγladï* – “u tanganing yaxshisini, o‘tadiganini terib chiqdi”. Bu so‘z har narsaning yaxshisini tanlashga ham qo‘llanadi (اَرِغْلَارْ *arïγlar*, اَرِغْلَامَاقْ *arïγlamaq*).

[اَرِغْلَادِى *arïγladï*] اُلْ كَبَازْ اَرِغْلَادِى *ol käpäz arïγladï* – “u paxtaning urug‘ini, chigitini chiqardi, ayirib oldi”. Har bir mevaning urug‘ini ayirishga, chiqarishga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَرِغْلَارْ *arïγlar*, اَرِغْلَامَاقْ *arïγlamaq*).

[اَزِغْلَادِى *azïγladï*] تُنكُزْ اَتَغْ اَزِغْلَادِى *toŋuz atïγ azïγladï* – “to‘ng‘iz qoziq tishi bilan otni urdi va yaraladi”; (77b) مَنْ تُنكُزْنِى اَزِغْلَادِمْ *men toŋuznï azïγladïm* – “men to‘ng‘izning ozig‘ tishiga urdim”. Ikki yoqlama oziq tishli har bir yirtqichga ham shu so‘z ishlatiladi (اَزِغْلَارْ *azïγlar*, اَزِغْلَامَاقْ *azïγlamaq*).

[اُلْغَادِى *uluγladï*] تَنكْرِى مَنِى اُلْغَادِى *Täŋri meni uluγladï* – “Tangri meni ulug‘ladi, menga ulug‘likni ato qildi”; بَكْ مَنِى اُلْغَادِى *beg meni uluγladï* – “bek meni ulug‘lardan sanadi”. Maqolda (shunday kelgan): اُلْغْنِى اُلْغَلاسَا قُتْ بُلُورْ *Uluγnï uluγlasa, qut bulur.* Ma’nosi: “(Kishi) qariyalarning yoshini hurmatlasa, baxt topadi” (اُلْغَلارْ *uluγlar*, اُلْغَلامَاقْ *uluγlamaq*).

ق *q* [harfi]:

[اَدْقَلَادِى *aδaqladï*] اُلْ اَنِى اَدْقَلَادِى *ol anï aδaqladï* – “u uning oyog‘iga urdi” (اَدْقَلَارْ *aδaqlar*, اَدْقَلَامَاقْ *aδaqlamaq*).

[اَدْقَلَادِى *aδuqladï*] اُلْ اَنِى اَدْقَلَادِى *ol anï aδuqladï* – “u uni tanimagani uchun qiziqsindi” (اَدْقَلَارْ *aδuqlar*, اَدْقَلَامَاقْ *aδuqlamaq*).

[اَرُقْلَادِى *aruqladï*] بَكْ اَرُقْلَادِى *beg aruqladï* – “bek charchab, dam oldi”. “Xoqoniya tili”da (فى لغت الخاقانيه) bu so‘z “uxlash”ma'nosida keladi. Aslida “charchagandan so‘ng; charchab, dam oldi” demakdir (اَرُقْلَارْ *aruqlar*, اَرُقْلَامَاقْ *aruqlamaq*).

[اَشُقْلَادِى *ašuqladï*] اُلْ اَنِى اَشُقْلَادِى *ol anï ašuqladï* – “u uning to‘pig‘iga urdi” (اَشُقْلَارْ *ašuqlar*, اَشُقْلَامَاقْ *ašuqlamaq*).

[اَشَقْلَادِى *ašaqladï*] اُلْ اَنِى اَشَقْلَادِى *ol anï ašaqladï* – “u uni arzimas, kichik deb bildi”. Maqolda (shunday kelgan): يَغِينِى اَشَقْلَاسَا بَشْقَا جِقَارْ *Yaγïnï ašaqlasa, bašqa čïqar.* Ma’nosi: “Yovni kichik desa, boshga chiqadi”. Ya’ni “u boshni halok qiladi” degan mazmunni anglatadilar; “ehtiyot bo‘l, yovni kichik sanama” demoqchi bo‘ladilar.

[اُشَقْلَادِی ***ušaqladï***] اُلْ مَنِکْ سُوزُمْنِی اُشَقْلَادِی ***ol meniŋ sözümni ušaqladï*** – “u mening so‘zimni ushoq [mayda, ahamiyatsiz] deb bildi” (اُشَقْلَارْ ***ušaqlar***, اُشَقْلَامَاقْ ***ušaqlamaq***).

[اَنُقْلَادِی ***anuqladï***] اُلْ اَنُقْلَادِی نَانَکْنِی ***ol anuqladï näŋni*** – “u narsani tayyor holida topib oldi [tayyor narsani oldi]” (اَنُقْلَارْ ***anuqlar***, اَنُقْلَامَاقْ ***anuqlamaq***).

ک *k* [harfi]:

[اِجُکْلَادِی ***ičüklädi***] اُلْ تُونُغْ اِجُکْلَادِی ***ol tonuγ ičüklädi*** – “u to‘niga suvsar, olmaxon va shunga o‘xshash hayvonlarning mo‘ynasini sirdi” (اِجُکْلَارْ ***ičüklär***, اِجُکْلَامَاکْ ***ičüklämäk***).

[اَرُکْلَادِی ***erüklädi***] تَرِی اَرُکْلَادِی ***teri erüklädi*** – “u terini oshladi” (اَرُکْلَارْ ***erüklär***, اَرُکْلَامَاکْ ***erüklämäk***).

[اُزُکْلَادِی ***özüklädi***] اُلْ قُویُغْ / قُونُغْ اُزُکْلَادِی ***ol qoyuγ / qonuγ özüklädi*** – “u qo‘yning asosiy tomirini kesdi”. (78a) Bu so‘z bosh tomirga urish ma’nosida ham qo‘llanadi (اُزُکْلَارْ ***özüklär***, اُزُکْلَامَاکْ ***özüklämäk***).

[اِسِگْلَادِی ***isiglädi***] اَرْ اِسِگْلَادِی ***er isiglädi*** – “kishi tush chog‘ida, kun tig‘i ostida ketdi, yo‘l yurdi” (اِسِگْلَارْ ***isiglär***, اِسِگْلَامَاکْ ***isiglämäk***).

[اُسُگْلَادِی ***üsüglädi***] اُلْ کِرتْلِکْ اُسُگْلَادِی ***ol kiritlig üsüglädi*** – “u eshikni kalitsiz, hiyla bilan ochdi” (اُسُگْلَارْ ***üsüglär***, اُسُگْلَامَاکْ ***üsüglämäk***[1]) (kanjakcha).

[اَسِرْکَادِی ***esirkädi***] اُلْ اَسِرْکَادِی نَانَکْنِی ***ol esirkädi näŋni*** – “u bir narsaning yo‘qolishiga achindi, afsuslandi” (اَسِرْکَارْ ***esirkär***, اَسِرْکَامَاکْ ***esirkämäk***).

[اُشِگْلَادِی ***üšiklädi***] اُلْ کَیِکْنِی اُشِگْلَادِی ***ol keyikni üšiklädi*** – “u kiyikni tuzoqda sovqotib turgan chog‘ida tutdi”. Bu so‘z boshqa (hayvon)larga ham qo‘llanadi (اُشِگْلَارْ ***üšiklär***, اُشِگْلَامَاکْ ***üšiklämäk***).

[اَکَگْلَادِی ***ekäklädi***] اَرْ اُرَاغْتْنِی اَکَگْلَادِی ***er uraγutnï ekäklädi*** – “er xotinni so‘kdi, buzuqqa chiqardi” (اَکَگْلَارْ ***ekäklär***, اَکَگْلَامَاکْ ***ekäklämäk***).

[اُکَگْلَادِی ***ökäklädi***] اُلْ تَامِغْ اُکَگْلَادِی ***ol tamïγ ökäklädi*** – “u shahar devoriga yulduz[burj]lar qo‘ndirdi”. Bu so‘z har bir narsaga (qutichalar ishlash ma’nosida ham) qo‘llanadi (اُکَگْلَارْ ***ökäklär***, اُکَگْلَامَاکْ ***ökäklämäk***).

[اَلِگْلَادِی / اَلُگْلَادِی ***eliklädi / elüklädi***] اُلْ اَنِی اَلِگْلَادِی / اَلُگْلَادِی ***ol anï eliklädi / elüklädi*** – “u uni masxara qildi, ustidan kuldi” (اَلِگْلَارْ / اَلُگْلَارْ ***eliklär / elüklär***, اَلِگْلَامَاکْ / اَلُگْلَامَاکْ ***eliklämäk / elüklämäk***).

(Shoir) shunday degan:

تَنْکُتْ سُوسِنْ اُشِگْلَادِی	***Taŋut süsin üšiklädi,***
کِشِی اِیشِنْ اَلِگْلَادِی / اَلُگْلَادِی	***Kiši ïšïn eliklädi / elüklädi.***
اَرِنْ اَتِنْ بَلِگْلَادِی	***Erin, atïn beliklädi,***
بُلُنْ بُولِبْ بَشِی تِغْدِی	***Bolun bolïp baši tïγdï.***

Aytmoqdagi: “Yov صین *Ṣīn* yaqinidagi tangutlar viloyatini, tangut qo‘shini zafar qozonmasin deya, qattiq sovuqda kech bilan bosdi. So‘ng ularning ustidan

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (اُسُگْلَامَاکْ/قْ).

kuldi; ularning otlari va qo‘shinini bizga tortiq qildi. Ular qiyinchilik tortib, (bizga) bosh egdi”.

[اَمِكْلَادِى ***emiklädi***] اُرَاغُتْنِى اَمِكْلَادِى ***uraγutnï emiklädi*** – “(er) xotinning emchagiga urdi” (اَمِكْلَارْ ***emiklär***, اَمِكْلَامَاكْ ***emiklämäk***).

[اَنْكْلَادِى ***enüklädi***] اِتْ اَنْكْلَادِى ***ït enüklädi*** – “it bolaladi”; اَرسْلَانْ اَنْكْلَادِى ***arslan enüklädi*** – “urg‘ochi arslon bolaladi” (اَنْكْلَارْ ***enüklär***, اَنْكْلَامَاكْ ***enüklämäk***).

[اَسَنْلَادِى ***esänlädi***] اُلْ مَنكَا اَسَنْلَادِى ***ol meŋä esänlädi*** – “u menga salom berdi, qo‘l berib, hol-ahvol so‘radi” (اَسَنْلَارْ ***esänlär***, اَسَنْلَامَاكْ ***esänlämäk***).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ذ ***δ*** [harfi]: (78b)

[اُدْولَادِى ***uδuladï***] اُلْ اَنِى اُدْولَادِى ***ol anï uδuladï*** – “u uning orqasidan yurdi, unga ergashdi” (اُدْولَارْ ***uδular***, اُدْولَامَاقْ ***uδulamaq***).

ر ***r*** [harfi]:

[اَرَالَادِى ***araladï***] اُلْ اِكّى كِشِى اُتْرَا اَرَالَادِى ***ol ikki kiši otra araladï*** – “u ikki kishining ishini kelishtirdi, yarashtirdi”. Bu so‘z “ikki narsa orasidan o‘tish” ma’nosida ham qo‘llanadi. Ba’zan “sulh” ma’nosida اَرِيلَادِى ***arïladï*** so‘zini ham qo‘llaydilar, ko‘pchilikda shunday. Lekin اَرَالَادِى ***araladï*** varianti to‘g‘ridir (اَرَالَارْ ***aralar***, اَرَالَامَاقْ ***aralamaq***).

[اُرِيلَادِى ***urïladï***] اَرْ اُرِيلَادِى ***er urïladï*** – “kishi shovqin soldi, qattiq baqirdi” (اُرِيلَارْ ***urïlar***, اُرِيلَامَاقْ ***urïlamaq***).

[اُرِيلَادِى ***urïladï***] اَرْ اُرِيلَادِى ***er urïladï*** – “kishi o‘zini maqtadi, maqtashda o‘zini oshirib yubordi, kibrlandi” (اُرِيلَارْ ***urïlar***, اُرِيلَامَاقْ ***urïlamaq***[1]).

(Shoir) shunday degan:

اُزِنْ اُكْنِبْ اُرِيلَادِى	***Özin ögnip urïladï,***
يَرِقْ يِيرِكْ قَرِيلَادِى	***Yarïq yerig qarïladï.***
اَتِغْ كَمْشِبْ اُرِيلَادِى	***Atïγ kemšip urïladï,***
اُفْتْ بُولِبْ تُبُو اَغْدِى	***Uwut bolïp töpü aγdï.***

Unga hujum qilgan bir botir to‘g‘risida aytmoqda: “O‘zini baland tutib, haddidan oshdi. Savlat to‘kib yerni o‘lchadi. Ot bilan bostirib, hamla qildi, (biroq) sharmanda bo‘lib, tepalikka chekindi”.

[اُرُولَادِى ***örülädi***] اُلْ قُونُغْ اُرُولَادِى ***ol qonuγ örülädi*** – “u qo‘yni turgan holda, ya’ni oyoqlarini bog‘lamay so‘ydi” (اُرُولَارْ ***örülär***, اُرُولَامَاكْ ***örülämäk***).

غ ***γ*** [harfi]:

[اَغُولَادِى ***aγuladï***] اُلْ اَشِنْ اَغُولَادِى ***ol ašïn aγuladï*** – “u uning ovqatini va boshqa narsalarni zaharladi” (اَغُولَارْ ***aγular***, اَغُولَامَاقْ ***aγulamaq***).

---

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (اُرِيلَامَاكْقْ).

ف ***w*** [harfi]:

[***awaladï*** اَقالَادِی] اَنِکْ تَکْرَا کِشِی اَقالَادِی ***anïŋ tegrä kiši awaladï*** – “uning tegrasiga kishi(lar) yig‘ildi”; ***awaladï*** اَقالَادِی, asosan, shov-shuv, fitna ma’nolari ifodalangan o‘rinlarda qo‘llanadi. Boshqa o‘rinda ***awdï*** اَقْدِی so‘zi ishlatiladi (***awalar*** اَقالَارْ, ***awalamaq*** اَقالَامَاقْ).

ق ***q*** [harfi]:

[***aqïladï*** اَقِیلَادِی] اُلْ مَنِی اَقِیلَادِی ***ol meni aqïladï*** – “u meni saxiy deb bildi” (***aqïlar*** اَقِیلَارْ, ***aqïlamaq*** اَقِیلَامَاقْ).

ک ***g*** [harfi]:

[***egäladi*** اَکَالَادِی] اُلْ اَنِی اَکَالَادِی ***ol anï egäladi*** – “u uni egachi deb atadi” (***egälär*** اَکَالَارْ, ***egälämäk*** اَکَالَامَاکْ).

[***ögäladï*** اُکَالَادِی] اُلْ اَنِی اُکَالَادِی ***ol anï ögäladï*** – “u unga *ögä* unvonini berdi”; ***ögä*** اُکَا – “yurt kattasi” demakdir (***ögälär*** اُکَالَارْ, ***ögälämäk*** اُکَالَامَاکْ).

ن ***n*** [harfi]:

[***analadï*** اَنَالَادِی] اُلْ اَنِی اَنَالَادِی ***ol anï analadï*** – “u uni o‘ziga ona deb bildi, ona deb atadi” (79a) (***anal*** اَنَالَارْ, ***analamaq*** اَنَالَامَاقْ).

γunna lilar bo‘limi

د ***d*** [harfi]:

[***aŋdïdï*** اَنکْدِیدِی] اَفْجِی کَیِکْنِی اَنکْدِیدِی ***awčï keyikni aŋdïdï*** – “ovchi kiyikni tutish uchun panaga berkinib, hiyla qildi”; ***aŋdïdï*** اُلْ اَنِی اَنکْدِیدِی ***ol anï aŋdïdï*** – “u uni tutish uchun hiyla qildi” (***aŋdïr*** اَنکْدِیرْ, ***aŋdïmaq*** اَنکْدِیمَاقْ).

Buning boshqa bir turi

[***aŋïladï*** اَنکِیلَادِی] اَشْیَاکْ اَنکِیلَادِی ***ešyäk aŋïladï*** – “eshak hangradi” (***aŋïlar*** اَنکِیلَارْ, ***aŋïlamaq*** اَنکِیلَامَاقْ).

Yana boshqa turi

[***öŋikländi*** اُنکِکْلَنْدِی] اُرَاغْتْ اُنکِکْلَنْدِی ***uraγut öŋikländi*** – “xotin chakkasiga echki qilidan ulama soch taqdi” (***öŋiklänür*** اُنکِکْلَنْرْ, ***öŋiklänmäk***[1] اُنکِکْلَنْمَاکْ).

Besh harflilar bo‘limi

ن ***n*** [harfi]:

[***aγrïqandï*** اَغْرِقَنْدِی] اَرْ اَغْرِقَنْدِی ***er aγrïqandï*** – “kishi og‘rig‘idan zorlandi, dard chekdi” (***aγrïqanur*** اَغْرِقَنْرْ, ***aγrïqanmaq*** اَغْرِقَنْمَاقْ).

[1] Qo‘lyozmada bu so‘z انککلیماق shaklida berilgan.

Ikki *sākin* harflilar turi

[اَنْدْغَرْدِمْ *andγardïm*] مَنْ اَنِى اَنْدْغَرْدِمْ *men anï andγardïm* – “men unga ont ichirdim” (اَنْدْغَرْرْمَنْ *andγarur-men*, اَنْدْغَرْمَاقْ *andγarmaq*).

Olti harflilar turi

ت *t* [harfi]:

[اَرْمُتْلَنْدِى *armutlandï*] يِغَاجْ اَرْمُتْلَنْدِى *yïγač armutlandï* – “nashvati nok daraxti meva tugdi” (اَرْمُتْلَنْمَاقْ *armutlanmaq*, اَرْمُتْلَنْرْ *armutlanur*).

ج *č* [harfi]:

[اَرْتُجْلَنْدِى *artučlandï*] تَاغْ اَرْتُجْلَنْدِى *tay artučlandï* – “tog‘ archazorga aylandi, tog‘da archa ko‘paydi” (اَرْتُجْلَنْمَاقْ *artučlanmaq*, اَرْتُجْلَنْرْ *artučlanur*).

[اُرْكُجْلَنْدِى *örküčländi*] سُوفْ اُرْكُجْلَنْدِى *suw örküčländi* – “suv to‘lqinlandi” (اُرْكُجْلَنْمَاكْ *örküčlänmäk*, اُرْكُجْلَنْرْ *örküčlänür*).

[اُرْكُجْلَنْدِى *örgüčländi*] قِيزْ اُرْكُجْلَنْدِى *qïz örgüčländi* – “qizning sochi o‘riladigan bo‘ldi, jamalak bo‘ldi” (اُرْكُجْلَنْمَاكْ *örgüčlänmäk*, اُرْكُجْلَنْرْ *örgüčlänür*).

[اُرْكُجْلَنْدِى *örküčländi*] اَشِجْ اُرْكُجْلَنْدِى *ešič örküčländi* – “qozon o‘choqli bo‘ldi, o‘choqqa o‘rnatildi” (اُرْكُجْلَنْمَاكْ *örküčlänmäk*, اُرْكُجْلَنْرْ *örküčlänür*).

ر *r* [harfi]:

[اَدْغِرْلَنْدِى *aδγïrlandï*] تَاىْ اَدْغِرْلَنْدِى *tay aδγïrlandï* – “toy ayg‘irlandi, ayg‘ir qiliqli bo‘ldi”. Baytalning ayg‘irli bo‘lishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَدْغِرْلَنْرْ *aδγïrlanur*, اَدْغِرْلَنْمَاقْ *aδγïrlanmaq*).

ق *q* [harfi]:

[اُدْمَقْلَنْدِى *uδmaqlandï*] اَرْ اُدْمَقْلَنْدِى *er uδmaqlandï* – “kishi shogirdli bo‘ldi, hunar o‘rgatish uchun bola oldi” (اُدْمَقْلَنْمَاقْ *uδmaqlanmaq*, اُدْمَقْلَنْرْ *uδmaqlanur*).

[اَرْتُقْلَنْدِى *artuqlandï*] اَرْ اَرْتُقْلَنْدِى *er artuqlandï* – “kishi haddidan oshdi, hovliqdi” (اَرْتُقْلَنْمَاقْ *artuqlanmaq*, اَرْتُقْلَنْرْ *artuqlanur*). (79b)

[اِژْمَقْلَنْدِى *ïžmaqlandï*] تَازْ بَشِى اِژْمَقْلَنْدِى *taz baši ïzmaqlandï* (*ïžmaqlandï?*) – “kalning boshi buzildi, kali ko‘paydi”; يِيرْ اِژْمَقْلَنْدِى *yer ïžmaqlandï* – “yerning sho‘ri ko‘paydi, sho‘rlandi” (اِژْمَقْلَنْمَاقْ *ïžmaqlanmaq*, اِژْمَقْلَنْرْ *ïžmaqlanur*).

[اَغْرُقْلَنْدِى *ayruqlandï*] اُلْ بُو اِيشِغْ اَغْرُقْلَنْدِى *ol bu ïšïγ ayruqlandï* – “u bu ishni og‘irsindi, bu ish unga qiyin tuyuldi”. Bu so‘z yuk og‘ir ekanligini anglatishda ham qo‘llanadi (اَغْرُقْلَنْمَاقْ *ayruqlanmaq*, اَغْرُقْلَنْرْ *ayruqlanur*).

[اُغْرَقْلَنْدِى *oγraqlandï*] اَرْ اُغْرَقْلَنْدِى *er oγraqlandï* – “kishi o‘g‘roqlarga o‘xshab qoldi, o‘g‘roqlashdi” (اُغْرَقْلَنْمَاقْ *oγraqlanmaq*, اُغْرَقْلَنْرْ *oγraqlanur*).

ك *k* [harfi]:

[اَتْمَكْلَنْدِى *etmäkländi*] اَرْ اَتْمَكْلَنْدِى *er etmäkländi* – “kishining noni ko‘paydi, boy bo‘ldi” (اَتْمَكْلَنْمَاكْ *etmäklänmäk*, اَتْمَكْلَنْرْ *etmäklänür*). Bu xil fe’llar ko‘p. Bular otlardan yasaladi. Arab tilida bunga misol ko‘p. Masalan, arablarda البن الرجل – “suti ko‘paydi”, اسحى – “kiyadigan po‘stini ko‘paydi” demakdir.

[اِچْمَكْلَنْدِى *ičmäkländi*] اَرْ اِچْمَكْلَنْدِى *er ičmäkländi* – “kishi barra qo‘zi terisidan po‘stin (ichmak) kiydi”. “Po‘stinli bo‘ldi, po‘stinga ega bo‘ldi” mazmunida ham shu so‘z qo‘llanadi (اِچْمَكْلَنْمَاكْ *ičmäkländi*, اِچْمَكْلَنُرْ *ičmäkländi*).

[اَرْسَكْلَنْدِى *ersäkländi*] اِشْلَارْ اَرْسَكْلَنْدِى *ešlär ersäkländi* – “xotin ersiradi, shahvoniy nafsini qondirmoq istadi” (اَرْسَكْلَنُرْ *ersäkländi*, اَرْسَكْلَنْمَاكْ *ersäkländi*).

[اُكْمَكْلَنْدِى *ökmäkländi*] اُرَاغُتْ اُكْمَكْلَنْدِى *uraɣut ökmäkländi* – “xotin zirakli bo‘ldi, zirak taqdi” (اُكْمَكْلَنُرْ *ökmäkländi*, اُكْمَكْلَنْمَاكْ *ökmäkländi*).

م *m* [harfi]:

[اَكْرِمْلَنْدِى *egrimländi*] سُوقْ اَكْرِمْلَنْدِى *suw egrimländi* – “suv hovuzda girdoblanib, o‘ralib aylandi” (اَكْرِمْلَنُرْ *egrimländi*, اَكْرِمْلَنْمَاكْ *egrimländi*).

ن *n* [harfi]:

[اِشْتُنْلَنْدِى *ištonlandï*] اَرْ اِشْتُنْلَنْدِى *er ištonlandï* – “kishi ishton kiydi”. Asli اِچْتُنْلَنْدِى *ičtonlandï* dir. *šīn* bilan چ *čīm* ning maxrajlari bir-biriga yaqin bo‘lgani uchun چ *čīm šīn* ga aylangan (اِشْتُنْلَنُرْ *ištonlanur*, اِشْتُنْلَنْمَاقْ *ištonlanmaq*).

Bu bo‘limning *muḍā’af* lari

ق *q* [harfi]:

[اَرْقُقْلَنْدِى *arquqlandï*] اَرْ اَرْقُقْلَنْدِى *er arquqlandï* – “kishi ishni qabul qilishdan bosh tortdi” (اَرْقُقْلَنُرْ *arquqlanur*, اَرْقُقْلَنْمَاقْ *arquqlanmaq*).

ك *k* [harfi]:

[اَمْكَكْلَنْدِى *emgäkländi*] اُلْ بُو اِيشِغْ اَمْكَكْلَنْدِى *ol bu išïɣ emgäkländi* – “u bu ishni og‘ir, qiyin deb bildi” (80a) (اَمْكَكْلَنُرْ *emgäkländi*, اَمْكَكْلَنْمَاكْ *emgäkländi*).

[اَشْكَكْلَنْدِى *eškäkländi*] اَرْ اَشْكَكْلَنْدِى *er eškäkländi* – “kishi eshakli bo‘ldi, eshakka ega bo‘ldi”. Ikki tilning birida shunday (اَشْكَكْلَنُرْ *eškäkländi*, اَشْكَكْلَنْمَاكْ *eškäkländi*).

[اِرْكَكْلَنْدِى / اَرْكَكْلَنْدِى *erkäkländi* / *irkäkländi*] سُوقْ اَرْكَكْلَنْدِى / اِرْكَكْلَنْدِى *suw erkäkländi* / *irkäkländi* – “suv mavjlandi, to‘lqinlandi”; / اَنِكْ يِينِى اَرْكَكْلَنْدِى اِرْكَكْلَنْدِى *anïŋ yini erkäkländi* – “uning yungi qo‘rquvdan hurpaydi”. Botirlik ko‘rsatgan kishiga nisbatan ham shu so‘z qo‘llanadi (اِرْكَكْلَنُرْ *irkäkländi*, اِرْكَكْلَنْمَاكْ *irkäkländi*).

To‘rt harflilar

ب *p* [harfi]:

[اَرْبَالَادِى *arpaladï*] اُلْ اَتِنْ اَرْبَالَادِى *ol atïn arpaladï* – “u otga arpa berdi, arpa bilan boqdi, arpa yedirdi” (اَرْبَالَارْ *arpalar*, اَرْبَالَامَاقْ *arpalamaq*).

ت *t* [harfi]:

[اُرْتُولَادِي *ortuladï*] اَرْ يَاشِنْ اُرْتُولَادِي *er yašïn ortuladï* – “kishi o‘rta yoshga bordi, o‘rta yoshli bo‘ldi” (اُرْتُولَارْ *ortular*, اُرْتُولَامَاقْ *ortulamaq*).

[اَرْتَالَادِی ***ertäladi***] اَرْ اِیشْقَا اَرْتَالَادِی ***er išqa ertäladi*** – “kishi erta ishga boshladi” (اَرْتَالَارْ ***ertälär***, اَرْتَالَامَاکْ ***ertälämäk***[1]).

ر ***r*** [harfi]:

[اِسْرِیلَادِی ***esriladi***] اُلْ کِذِزْنِی اِسْرِیلَادِی ***ol kiðizni esriladi*** – “u kiyizni bo‘yadi, u kiyizni qoplon rangli bo‘yoq bilan (yo‘l-yo‘l qilib) bo‘yadi”(اَسْرِیلَارْ ***esrilär***, اَسْرِیلَامَاکْ ***esrilämäk***).

[اُغْرِیلَادِی ***oγriladï***] اُلْ نَانَکْ اُغْرِیلَادِی ***ol näŋ oγriladï*** – “u narsa o‘g‘irladi”. Jonli tilda bu so‘zdagi *rā* harfi *sukun* li, ya’ni اُغِرْلَادی ***oγïrladï*** deb ham aytiladi, u to‘g‘ri emas (اُغْرِلَارْ ***oγrilar***, اُغْرِلَامَاقْ ***oγrilamaq***).

ت ***t*** [harfi]:

[اِکْتُولَادِی ***iktüladi***] اُلْ قُوی اِکْتُولَادِی ***ol qoy iktüladi*** – “u qo‘yga va boshqa hayvonlarga yem-xashak berdi” (اِکْتُولَارْ ***iktülär***, اِکْتُولَامَاکْ ***iktülämäk***).

غ ***γ*** [harfi]:

[اَرْغُولَادِی ***arγuladï***] اُلْ اکّی کِشِی اَرَا اَرْغُولَادِی ***ol ikki kiši ara arγuladï*** – “u ikki kishining orasidan yorib o‘tdi” (اَرْغُولَارْ ***arγular***, اَرْغُولَامَاقْ ***arγulamaq***).

[اُبْکَلَادِی ***öpkäladi***] اُلْ اَنکَرْ اُبْکَلَادِی ***ol aŋar öpkäladi*** – “u uning o‘pkasiga urdi” (اُبْکَلَارْ ***öpkälär***, اُبْکَلَامَاکْ ***öpkälämäk***).

[اُبْکِیلَادِی ***öpkilädi***] اُلْ اَنْدِنْ اُبْکِیلَادِی ***ol andïn öpkilädi*** – “u undan o‘pkaladi, arazladi” (اُبْکِیلَارْ ***öpkilär***, اُبْکِیلَامَاکْ ***öpkilämäk***).

Qoidalar o‘z o‘rnida aytiladi. Tangriga maqtov bo‘lsinki, *hamza* lilar bo‘limi tugadi.

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (اَرْتَالَامَاکقْ).

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU *SĀLIM*[1] OTLAR KITOBIDIR

(80b) IKKI HARFLILAR BOBI

ب *p* [harfi]:

تَبْ *tap* – “bop, yetarli” ma’nosini beruvchi yuklama; **بُو اَشْ مَنگا تَبْ *bu aš meŋä tap*** – “bu osh menga bop, yetarli”; **تَبْ بُلْدِی *tap boldï*** – “mos bo‘ldi, bop bo‘ldi”.

تُبْ *töp* – (bir turli yegulik. Buni tayyorlash uchun) bug‘doyni suvda qaynatib, arpa xamiri bilan aralashtirilib, bir idishga solib, namatga o‘rab, issiq bir joyga qo‘yiladi, ertasiga yeyiladi.

جَبْ جَبْ *čap-čap* – qamchin urilganda chiqadigan ovoz va labning shapillagan tovushi, “shap-shap; chap-chap” deyilgan taqlidiy so‘z; masalan: **اُلْ اَرُکْ جَبْ جَبْ يِيدِی *ol erük čap-čap yedi*** – “u shaftolini chap-chap qilib yedi”.

جُبْ *čöp* – sharbat quyqasi va har qanday narsaning loyqasi. “Tuban va past kishilar”ga **جُبْ جَبْ کِشِيلارْ *čöp-čäp kišilär*** deydilar.

جِبْ *čïb* – kichik, ingichka novda; **جِبِقْ *čïbïq*** (“chiviq”)ning qisqargani; **تُبِقْ *topïq*** ni qisqartib, **تُوبْ *top*** deyilgani singari.

جُبْ *čöp* – tutmoch (non) parchasi, burdasi; **بِيرْ جُبْ يِيگِلْ *bir čöp yegil*** – “bir burda yegin”. Bu so‘z kesilgan, maydalangan ugraga nisbatan ham ishlatiladi.

زَبْ زَبْ *zap-zap* – yurishda oyoq harakatining tezligidan chiqadigan ovoz, “ship-ship” degan so‘zdir. **زَبْ زَبْ بَرْغِلْ *zap-zap barγïl*** – “ship-ship, shipillab, tez borgin”.

سَبْ *sep* – kelinlar sepi, moli.

سِبْ *sïp* – ikki yoshli toychoq.

شَبْ *šap* – “tez, darrov”. Bu arabcha harfi taxziz deyilgan هلا *hallā* (“ogoh bo‘l; tez bo‘l”) so‘zi kabidir: **شَبْ کِلْ *šap kel*** – “tez kel”.

قُبْ *qop* – ta’kidlash, puxtalash, oshirish ma’nolarida qo‘llanadigan yuklama; masalan: **اُغُلْ قُبْ بَدُودِی *oγul qop bedüdi*** – “o‘g‘il juda katta bo‘lib ketdi”; **قُبْ اَذگُو نَانگْ *qop eδgü näŋ*** – “juda ezgu narsa”.

[کِبْ / کُبْ *köp* / *kip*] کِبْ نَانگْ / کُبْ *köp* / *kip näŋ* – “ko‘p narsa, o‘ralib ketgan narsa”; masalan: **کِبْ سَجْ / کُبْ *köp* / *kip sač*** – “ko‘p soch, chuvalgan soch”. Maqolda (shunday kelgan): **کُبْ سُکْتَگا قُشْ قُنَارْ کُرکْلُوکْ کِشِیگا سُوزْ کَلِیرْ *Köp sügütkä quš qonar, körklüg kišikä söz kelir.*** Ma’nosi: “Sershox daraxtga qush qo‘nadi,

[1] *Sālim* – oxirida *alif, vāv, yā* va *hamza* harflari bo‘lmagan so‘zlar.

yaxshi kishiga so‘z [maqtov] keladi”. Yoki buning boshqacha shakli: (81a) يِغَاجْ اُوجِنْكَا يِيلْ تَكِيرْ كُرگُلُكْ كِشِيكَا سُوزْ كَلِيرْ ***Yïγač učïŋa yel tegir, körklig kišikä söz kelir.*** Ma’nosi: “Daraxt uchiga shamol tegadi, yumshoq odamga so‘z yetadi”. Shuning uchun u o‘zini saqlashi kerak, deyiladi.

ت ***t*** [harfi]:

بَتْ ***bat*** – “cho‘kma, quyqa”.

[بَتْ ***bat***] بَتْ كَلْ ***bat kel*** – “tez kel”; شَبْ كَلْ ***šap kel*** – “tez kel” singari. Og‘ir narsaning yerga tushishida chiqqan tovushga بَتْ تُشْدِى ***bat tüšdi*** deyiladi.

بِتْ ***bit*** – “bit, mita”. Bug‘doyga tushadigan mayda qurtga ham بِتْ ***bit*** deyiladi; تَرِغْ بِتِى ***tarïγ biti*** – “bug‘doy biti”.

جَتْ جَتْ ***čat-čat*** – biror narsa tushganda chiqadigan tovushni anglatish uchun ishlatiladigan taqlidiy so‘z; جَتْ جَتْ اُرْدِى ***čat-čat urdï*** – “chat-chat urdi; urganda chat-chat degan tovush chiqdi”.

جِتْ ***čït*** – qamish yoki tikandan qilinadigan uy, chayla.

شَتْ ***šat*** – “dadillik, yuraklilik, jur’at”; masalan: اَنِكْ نَا شَتِى بَارْ ***anïŋ ne šatï bar?*** (“uning nima yuragi bor?; uning qanday jur’ati bor?”) deganda (o‘sha kimsaning) yuraksizligi ko‘rsatiladi.

قَتْ ***qat*** – “qat, qavat”; تُونْ قَتِى ***ton qatï*** – “to‘n qati”. Tog‘ qoyalarining muyilishini قَدْرَاقْ ***qadraq*** deyish ham shundandir.

قَتْ ***qat*** – o‘g‘uzcha “yon” va “old” ma’nosida ishlatiladi; بَكْ قَتِنْدَا ***beg qatïnda*** – “bek yonida”.

قُتْ ***qut*** – “baxt; davlat”. قُتْلُغْ ***qutluγ*** ham shu so‘zdan yasalgan.

(Shoir) shunday degan:

قُتْ قُقْغْ بِرْسَا اِدِمْ قُولِنكَا ***Qut-quwïγ bersä, iδim qulïŋa,***
كُنْدَا اِشِى يُكْسَبَنْ يُوقَارْ اَغَارْ ***Kündä išï yüksäpän yuqar ayar.***

Aytmoqdaki: “Tangri quliga baxt-davlat bersa, kun sayin uning ishi yuksalib, rivoj topadi”.

كُتْ ***köt*** – “ko‘t”.

مَتْ ***-mat, -mät*** – “shunday” ma’nosini beruvchi yuklama. اَنْدَغْ مَتْ ***andaγ-mat*** – “u shunday”.

ج ***č*** [harfi]:

سَجْ ***sač*** – “soch”.

سُجْ ***suč*** – biron narsaning ishga yaroqsizligini anglatadi; قِلِجْ سُجْ قِلْدِى ***qïlïč suč qïldï*** – “qilich o‘tmaslik qildi”; اَرْ سُجْ قِلْدِى ***er suč qïldï*** – “kishi ishni qabul qilishdan tortindi”.

قَجْ ***qač?*** – “qancha?”, son to‘g‘risida; قَجْ يَرْمَاقْ بِيرْدِى ***qač yarmaq berdi?*** – “qancha tanga berdi?”.

قُجْ ***qoč*** – “qo‘chqor”. Bu o‘g‘uzcha. Asli قُجنكَارْ ***qočïŋar*** dir.

قَجْ ***qač*** – “marta”; masalan: قَجْ قَتَا اَيْدِمْ ***qač qata aydïm*** – “necha qayta aytdim”.

كُچْ *köč* – “ko‘chish, jo‘nab ketish”; (81b) masalan: **سُو كُچْتِى *sü köčti*** – “askar ko‘chdi”.

كُچْ *köč* – “vaqt, fursat”; masalan: **بِيرْ كُچْ كُذْكِلْ *bir köč küðgil*** – “bir oz kutgin, bir oz tur”.

هَچْ هَچْ *hač-hač* – mollar boshini bermay harakatlanganda tinchitish uchun aytiluvchi “ho‘sh-ho‘sh” degan so‘z. Bu arabchaga o‘xshaydi. Chunki bu so‘zda turkiy til(لغات الترک)da bo‘lmagan ه *hā* harfi uchraydi. Turkchada esa bu tovush yo‘qdir.

د *d* [harfi]:

كَدْ *ked* – bu so‘z ذ *ðāl* bilan ham, *dāl* bilan ham talaffuz qilinadi. Biron narsani ta’kidlash va oshirib ko‘rsatish maqsadida qo‘llanadi; **كَدْ اَتْ *keð at*** – “qanday yaxshi ot”; **كَدْ نَانَكْ *keð näŋ*** – “qanday yaxshi narsa”.

ر *r* [harfi]:

بِرْ *bir* – “bir”; son; **بِيرْ يَرْمَاقْ *bir yarmaq*** – “bir tanga”. Bu so‘zni **بِيرْ** tarzida cho‘ziqroq talaffuz qilish ham mumkin. Lekin bu xilda talaffuz qilinadigan so‘zlar ko‘p. Turkiy tilda (لغات الترک) aytilishida cho‘ziqlik, yozilishida qisqalik yaxshidir.

[**تَرْ *tar***] **اَرْ تَرِيلْدِى *er tarïldï*** – “kishi uyaldi, xijolat bo‘ldi”. Bu so‘z **اَرْ بُلْدِى *ar boldï*** so‘ziga o‘xshashdir.

جَرْ *čer* – vujud og‘irlig‘ini ifoda etgan taqlidiy so‘z; **اَرْ جَرْلَنْدِى *yer čerländi*** – “kishining tanasi og‘irlashdi” (xoqoniya tilida).

جَرْ *čer* – “vaqt” (o‘g‘uzcha). **بُو جَرْلِكْ دَا كَلْ *bu čerlikdä kel*** – “bu vaqtda kel”.

جَرْ *čer* – “ro‘para” (o‘g‘uzcha); masalan: **اَنِكْ اَفِى بُو جَرْلِكْ دَا *anïŋ ewi bu čerlikdä*** – “uning uyi bu narsaning ro‘parasidadir”. Ikki askar safiga ham **جَرِكْ *čerig*** deydilar. Chunki ular ham bir-biriga ro‘para turadilar.

جِرْ *čïr* – to‘n va boshqa kiyimlarning yirtilishida chiqadigan ovoz; masalan: **اَنِكْ تُونِنْ جِرْ يِرتّى *anïŋ tonïn čïr yïrttï*** – “uning kiyimini chir yirtdi”.

جُرْ *čür* – “foyda, manfaat”; masalan: **اُلْ اَنْدِنْ نَانَكْ جُرْلَادِى *ol andïn näŋ čürlädi*** – “u undan foydalandi”.

جُرْ جُرْ *čur-čur* – sutni idishga soqqanda eshitiladigan ovoz. Har bir suyuq narsaning tovushi ham shunday.

جِرْ *jir* – “jir, yog‘”; **اَشِجْتَا جِرْ يُوقْ *ešičtä jir yoq*** – “qozonda yog‘ yo‘q”; **بُو اَتّا جِرْ يُوقْ *bu että jir yoq*** (82a) – “bu go‘shtda jir yo‘q”.

سِرْ سِرْ *sïr-sïr* – chigirtka chiqaradigan tovushga aytiladi; **سِرْ سِرْ اتّى *sïr-sïr etti*** – “chirilladi”. Qora chigirtka chirillab tovush chiqardi. Qamish qalam va boshqalar bilan yozayotganda chiqadigan ovozga nisbatan ham shu so‘z qo‘llanadi.

سِرْ *sïr* – chinni kosalarni bo‘yab naqshlash uchun yelimdan tayyorlab qo‘llanadigan sir; **سِرْلِغْ اَيَاقْ *sïrlïγ ayaq*** – “naqshlangan, sirlangan kosa”.

شَرْ شَرْ *šar-šar* – kuchli yomg‘irning tovushi. Har bir suyuq narsaning oqqan tovushi ham shu so‘z bilan ifodalanadi. Bu so‘zda *šīn* harfi ج *čīm* bilan almashgan.

[جَرْ جُرْ *čar-čur*] اُلْ جَرْ جُرْ يِيدِى ***ol čar-čur yedi*** – “u qo‘liga tushganini qoldirmay yedi”.

[قَرْ قُرْ *qar-qur*] قَرْ قُرْ اَتّى قَرِنْ ***qar-qur etti qarïn*** – “qorin qurilladi, g‘uldiradi”. Bu so‘z aytilishda va ma’nosida arabchaga o‘xshashdir.

قُرْ ***qur*** – “martaba”. مَنِكْ قُرِمْ اُلُغْ ***meniŋ qurïm uluγ*** – “mening martabam ulug‘”.

قُرْ ***qur*** – “qurshovchi, belbog‘, kamar”. اِچْ قُرْ ***ičqur*** – xotinlarning qo‘ltiq ostiga taqadigan ziynati.

[قِرْ *qïr*] قِرْ يَغِى ***qïr yaγï*** – “maxfiy dushman”.

[قِرْ *qïr*] قِرْ اَتْ ***qïr at*** – “saman ot”.

قِرْ ***qïr*** – “to‘g‘on, suv to‘planadigan joy”.

قِرْ ***qïr*** – “qir; yassi tog‘”.

[كُرْ *kür*] كُرْ اَرْ ***kür er*** – “og‘ir, dovyurak, mag‘rur kishi”. Maqolda (shunday kelgan): كِمْ كُرْ بُلْسَا كُقَازْ بُلُورْ ***Kim kür bolsa, küwäz bolur.*** Ma’nosi: “Dovyurak kishi mag‘rur bo‘ladi”.

(Shoir) shunday degan:

اَرْتِشْ سُقِى يِمَاكِى	***Ertiš suwï yemäki,***
سِتُغَبْ تُتَرْ بِلاكِى	***Sïtyap tutar bilägi.***
كُرْمَتْ اَنِكْ يُرَاكِى	***Kür-mät aniŋ yüragi,***
كَلْكَالِمَتْ اِرْكِشُورْ	***Kelgäli-mät irkišür.***

يِمَاكْ *yemäk* – qipchoqlarning bir toifasi. (Bu yerda) aytmoqdaki: “Irtish suvining yamaklari bilaklarini qattiq shimardi [ya’ni, hozirlandi]. Ular dovyurak kishilar; bizga jang qilish uchun to‘planmoqdalar”.

ز *z* [harfi]:

بِزْ ***biz*** – “biz” anglamidagi olmosh; بِزْ كلْدِيمِيزْ ***biz keldimiz*** – “biz keldik”.

تُزْ ***tüz*** – “to‘g‘ri, tekis narsa”; تُزْ يِيرْ ***tüz yer*** – “tekis yer”.

جُزْ ***čüz*** – qizil va qora rangli zar tikilgan صين *ṣīn* ipak gazmoli. (82b)

[قُزْ *quz*] قُزْ تَاغ ***quz taγ*** – “kun tushmas [ya’ni terskay] tog‘; kun oqqandagina chapdan kun tushadigan tog‘”. U kunning chap yog‘ida bo‘ladi. Unda doimo qor va sovuq bo‘ladi. Maqolda (shunday kelgan): قُزْدَا قَارْ اُكْسُومَاسْ قُويْدَا يَاغْ اُكْسُومَاسْ ***Quzda qar öksümäs, qoyda yaγ öksümäs.*** Ma’nosi: “Quz tog‘da qor ozaymaydi, qo‘yda yog‘ ozaymaydi”.

[قِزْ *qïz*] قِزْ نَانَكْ ***qïz näŋ*** – “qimmatbaho narsa”; masalan: بُو اَتْ قِزْ اَلْدِمْ ***bu at qïz aldïm*** – “bu otni qimmat narxga oldim”.

قِزْ ***qïz*** – “qiz; joriya”; قِزْ قِرْقِنْ ***qïz qïrqïn*** – “joriyalar”.

قِزْ ***qïz*** – “qiz”; مَنِكْ قِزِمْ ***meniŋ qïzïm*** – “mening qizim”; اَوْ قِزِى ***ev qïzï*** – “bo‘yi yetgan va uyda o‘tirib qolgan qiz; uy qizi”; يِنْجْكَا قِزْ ***yinčkä qïz*** – “bo‘yi yetgan qiz”. Bu so‘z ozod qizlardan tashqari, sotib olingan joriya qizlar uchun ham qo‘llanadi. Asli “bo‘yi yetgan, lekin turmushga chiqmagan qiz” demakdir. Boshqa ma’nolar so‘ng istiora tarzida kelib chiqqan.

قِزْ قُشْ ***qïzquš*** – kishining ustiga qo‘nadiganday past uchadigan qush.

قِزْ كِشِي ***qïz kiši*** – “baxil kishi” (arg‘ucha). Maqolda (shunday kelgan): **قِزْ كِشِي سَاقِى يُورِغْلِى بُلْمَاسْ** ***Qïz kiši sawï yorïylï bolmas.*** Ma’nosi: “Baxil kishining dovrug‘i chiqmaydi, shuhrat qozonmaydi”. Bu maqol kishilarni yaxshi ot chiqarish uchun saxiy bo‘lmoq kerakligiga undab aytiladi.

كَزْ ***kez:*** “o‘qning orqa tomoni” **اُقْ كَزِى** ***oq kezi*** deyiladi.

كَزْ ***kez*** – sut, un va boshqa ovqatlardan qozon tagiga yopishib qoladigan qirmoch; qirib olinadi. Bunga **اَشِجْ كَزِى** ***ešič kezi*** (“qozon qirmochi”) deyiladi.

كَزْ ***kez*** – صين *Ṣīn* da ishlangan bir turli ipaklik.

كُزْ ***küz*** – “kuz, kuz fasli”.

كِزْ ***kiz*** – mushk qutichasi, taxt, sandiq, chamadon va boshqalar; **كِزْدَاكِى كِزْ يِبَارْ** ***Kizdägi kiz yïpar.*** Ma’nosi: “Mushk hidi mushk qutichasida saqlanib qoladi” [“Ipor hidi ipor sandig‘ida saqlanib qoladi”]. Bu maqol xotinlar og‘zining hidi mushkka o‘xshatilgan vaqtda qo‘llanadi.

مِزْ ***miz*** – “biz” ma’nosidagi bir qo‘shimcha. (83a) Bu so‘zda *bā mīm* ga almashgan. *bā* harfi so‘zning boshida kelganda ishlatiladi: **بِزْ بَرْدِمِزْ** ***biz bardïmïz*** – “biz bordik”; **كلْدِمِزْ** ***keldimiz*** – “keldik”. Bu qoida butun ot va fe’llar uchun umumiydir: **اَتِمِزْ** ***atïmïz*** (“otimiz”) kabi.

س ***s*** [harfi]:

بِسْ ***bis*** – meshga o‘xshash narsalarning tagida qoladigan silqindi.

[**تَسْ** ***tes*** – oshirish qo‘shimchasidir (o‘g‘uzcha)]. O‘g‘uzlar yumaloq narsa to‘g‘risida oshirib so‘zlamoqchi bo‘lganlarida **تَسْ تَكِرْمَا** ***tes tegirmä*** deydilar, bu “dum-dumaloq” demakdir. Bu qoidaga xilofdir. Chunki narsalarning ranglarini tavsiflashda so‘zning bosh harfini olib, unga *bā* (ya’ni [*p*]) qo‘shish butun turk tillari uchun (umumiy) qoidadir. O‘g‘uzlar esa *mīm* qo‘shadilar. To‘q ko‘k rangli narsani turklar **كُبْ كُوكْ** ***köp-kök*** (desalar), o‘g‘uzlar **كُمْ كُوكْ** ***köm-kök*** deydilar. Ya’ni turklar **كُوكْ** ***kök*** so‘zining bosh harfiga *bā* (ya’ni [*p*]) harfini qo‘shib, oshirish so‘zi – **كُبْ** ***köp*** shaklini hosil qiladilar. Rang ma’nosidagi **كُوكْ** ***kök*** so‘zi oldiga *bā* (ya’ni [*p*]) harfini qo‘yib, **كُبْ كُوكْ** ***köp-kök*** tarzida qo‘llaydilar. O‘g‘uzlar *bā* (ya’ni [*p*]) ni *mīm* ga almashtirib, **كُمْ كُوكْ** ***köm-kök*** tarzida qo‘llaydilar.

سَرِغْ ***sarïγ*** so‘zining oshirma sifatini **سَبْ سَرِغْ** ***sap-sarïγ*** tarzida qo‘llaydilar. **سَرَغْ** ***sarïγ*** so‘zining oldidagi *sīn* harfini olib, unga *bā* (ya’ni [*p*]) ni qo‘shish orqali yasaladi. Undan keyin rangi aytilayotgan narsaning oti keltiriladi. Shuning singari “bo‘sh yer, ochiq yer” ma’nosidagi **يَزِى** ***yazï*** so‘zining oshirma sifatini **يَبْ يَزِى** ***yap-yazï*** deyiladi. Butun oshirma sifatlar shu tarzda yasaladi, ammo *bā* (ya’ni [*p*]) o‘rnida *sīn* qo‘llash qoidaga yotdir.

تَسْ ***tas*** – yomon, past narsa (o‘g‘uzcha). **بُو اَتْ تَسْ تَكُلْ** ***bu at tas tegül*** – “bu ot yomon emas”.

تُسْ تُسْ ***tos-tos*** – to‘n va namat singari yumshoq narsani urilganda eshitiladigan ovoz; **تُسْ تُسْ اُرْدِى** ***tos-tos urdï*** (83b) – “to‘s-to‘s urdi”.

كَسْ *kes* – “har narsaning bo‘lagi”; **بِيرْ كَسْ اَتْمَاكْ *bir kes etmäk*** – “bir bo‘lak non”.

كَسْ *kes* – “kesak”; tahorat sindirilganda ishlatiladi.

كِسْ *kis* – “xotin”; **اَنِكْ كِسِى *anïŋ kisi*** – “uning xotini”. Bu yerda izofa yo‘qdir. Ba’zilar izofali qilib, **اُلْ كِشِى اَلْدِى *ol kiši aldï*** (“u xotin oldi”) deb qo‘llaydilar.

ش *š* [harfi]:

[**بُشْ *boš***] **بُشْ يِلْقِى *boš yïlqï*** – “bo‘sh, erkin yilqi”. Shundan olinib, **اُلْ اِشْلَارْ بُشْ *ol ešlär boš*** (“u xotin erkin, u xotinni ozod qildi, tashladi, unutdi”) deydilar; **اُلْ قُلْ بُشْ قِلْدِى *ol qul boš qïldï*** – “u qulni ozod qildi”. Umuman, “ozod” so‘zini **بُشْ *boš*** so‘zi bilan ifoda qiladilar. Maqolda (shunday kelgan): **بُشْ نَانَكْ كَا اِذِى بُلْمَاسْ *Boš näŋkä iδi bolmas.*** Ma’nosi: “Bo‘sh narsaga ega yo‘q” demakdir. Bu maqol bilan o‘z molini puxta saqlashga undaladi.

تُشْ *tüš* – tushiladigan, qo‘niladigan joy, shuningdek, “tushish vaqti”; **تُشْ اُوذِى *tüš öδi*** – “tushim vaqti”.

جَشْ *čaš* – “feruza tosh”.

(Shoir) shunday degan:

يَرَتّى يَشِلْ جَشْ	***Yarattï yašïl čaš,***
سَقْرْدِى اُرْنَكْ قَشْ	***Sawurdï örüŋ qaš.***
تِزِلْدِى قَرَا قُشْ	***Tizildi Qaraquš,***
تُنْ كُنْ اُوزَا يُرْكنُورْ	***Tün-kün üzä yörgänür.***

Osmonni ta’riflab aytmoqda: “Tangri osmonni feruza rangli qilib yaratdi. Uni “qosh” yanglig‘ yulduzlar bilan bezadi. Bu shunday oq toshki, undan uzukka ko‘z yasaladi. ميزَانْ *Mīzān* yulduzi tizildi. Bu yulduzlar turkumi turkchada قَرَا قُشْ *Qaraquš* deyiladi. Yana kecha va kunduz bir-birini qoplaydi [ya’ni, bir-birining ketidan almashinib turadi]”.

جِشْ جِشْ *čiš-čiš* – yosh bolalar va chaqaloqlarni to‘sishda xotinlar tomonidan qo‘llanadigan “chush-chush” degan so‘z. Ot mingan kishi ham otni minib kelgandan so‘ng, uni siydirish uchun shu so‘zni qo‘llaydi.

سِشْ *siš* – “six”. Tutmoch degan ovqatni tizishga xizmat qiladigan narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

قُشْ *quš* – “qush”; jamlikni bildiradigan turdosh ot. Keyin bularni bir-biridan ayirishda kerakli so‘zlar qo‘shiladi: **اُرْنَكْ قُشْ *örüŋquš*** – “oq lochin”; **قَرَا قُشْ *qaraquš*** – “burgut”; **تَغَى قُشْ *tewäyquš*** – “tuyaqush”; (84a) **يُونْ قُشْ *yunquš*** – “tovus”; **اِيلْ قُشْ *ilquš*** – “ilqush, qirg‘iy”. So‘ngra مُشْتَرِى *Muštarī* yulduziga ham **قَرَا قُشْ *Qaraquš*** deyiladi. **قَرَا قُشْ تُغْدِى *Qaraquš tuγdï*** – مُشْتَرِى *Muštarī* yulduzi chiqdi, demakdir. U tong chog‘ida chiqadi. O‘g‘uzlar “tuya oyoqlarining uchi”ga ham **قَرَا قُشْ *qaraquš*** deydilar. **قِزْ قُشْ *qïzquš*** – tukining rangi بَاىْ بَرَاقِشْ *bay baraqïš* rangiga o‘xshash bo‘lgan bir qush, ya’ni “qizilto‘sh qush”.

قِشْ *qïš* – “qish”. Maqolda (shunday kelgan): قِشْ قُنُقِی اُوتْ ***Qïš qonuqï ot.*** Ma’nosi: “Qishning ziyofati o‘t, olovdir”.

تَفْ *tew* – “hiyla, nayrang”. Maqolda (shunday kelgan): اَقجِی نَجَا اَلْ بِلْسَا اَدِغْ اَنْجَا يُولْ بِلِيرْ ***Awčï nečä al bilsä, aδïγ anča yol bilir***[1]. Ma’nosi: “Ovchi qanchalik ov hiylasini bilsa, ayiq ham qochish uchun shuncha yo‘l biladi”.

جِفْ *čiw* – mayning xum va boshqa narsada qaynashidan chiqqan tovush, “jig‘-jig‘” singari.

قِفْ *qïw* – “baxt, tole”.

ق ***q*** [harfi]:

[تُقْ ***toq***] تُقْ كِشِی ***toq kiši*** – “to‘q kishi”; تُقْ اَرْ ***toq er*** – turklarda aytilgani singari boshida sochi yo‘q kishi; تُقْ يِلْقِی ***toq yïlqï*** – shoxsiz to‘qol hayvon.

[تُقْ تُقْ ***toq-toq***] تُقْ تُقْ اَتّی ***toq-toq etti*** – “to‘q-to‘q qildi”, toshni toshga urganda chiqadigan bir tovush; اَرْ كِشِی بِرْلَا تُقْ تُقْ بُلْدِی ***er kiši birlä toq-toq boldï*** – “er-xotin orasida kelishmovchilik bo‘ldi”.

جَقْ *čaq* – xuddi, aynan; “choq” so‘zi kabi bir narsaning aynan o‘zini bildiradigan so‘z; masalan: جَقْ اُلْ اَتْنِی تُتْغِلْ ***čaq ol atnï tutγïl*** – “shu otning o‘zinigina tutgin”; جَقْ اَمَجْنِی اُرْغِلْ ***čaq amačnï urγïl*** – “nishonning o‘zinigina urgin”.

جَقْ جُقْ *čaq-čuq* – o‘tin, suyak va yong‘oq singari narsalarning singan chog‘idagi tovushini bildiradigan so‘z; جَقْ جُقْ اَتّی ***čaq-čuq etti*** (“chaq-chuq etdi”) degan gap shu ma’noda qo‘llangan.

جَقْ *čaq* – “churq” degan taqlidiy so‘z; اُلْ اَنِی اُرْدِی جَقْ اَتْمَدِی ***ol anï urdï, čaq etmädi*** – “u uni urdi, u churq etmadi”, ya’ni “dodlamadi ham, tovush ham chiqarmadi”.

زَقْ زَقْ *zaq-zaq* – qo‘chqorni suzish uchun qistab ishlatiladigan so‘z.

سَقْ سَقْ *saq-saq* (84b) – qo‘rg‘on, ot va boshqa narsalarni yovdan saqlashda qo‘riqchi va chegarachilarni ogoh qilish uchun “hushyor bo‘l” degan ma’noda qo‘llanadigan so‘z; سَقْ سَقْ ***saq-saq*** – “hushyor bo‘l” demakdir; سَقْ اَرْ ***saq er*** – “hushyor kishi”.

[سُقْ ***soq***] سُقْ يَلنكُوسْ اَرْ ***soq yalïŋus er*** – “so‘qqabosh er, na o‘rtog‘i bor, na yordamchisi bor, butunlay yolg‘iz, kimsasiz kishi”.

ك ***k*** [harfi]:

[بَكْ ***bek***] بَكْ نَانكْ ***bek näŋ*** – “mustahkam, mahkam narsa”.

بُكْ ***bük*** – “chakalakzor”.

بُكْ ***bük*** – “burchak” (arg‘ucha).

تَكْ ***tek*** – “anchayin, shunchayin”; تَكْ كلْدِمْ ***tek keldim*** – “shunchayin, anchayin, biror maqsadsiz keldim”; تَكْ تُرْ ***tek tur*** – “tek tur; jim tur” (o‘g‘uzcha).

جَكْ جُكْ *ček-čük* – “laxtak-luxtak; arzon mato”.

جُكْ جُكْ *čök-čök* – tuyani cho‘ktirishda qo‘llanadigan so‘z.

---

[1] Bu o‘rinda *tew* so‘ziga misol keltirilayotgan bo‘lsa-da, unga ma’nodosh bo‘lgan *al* so‘zi berilgan. Boshqa o‘rinda ham ushbu maqol *al* so‘zi bilan kelgan.

چِکْ چِکْ *čik-čik* – echkilarni chaqirishda qo‘llanadigan so‘z. Bu so‘z sug‘orishda ham aytiladi.

چِکْ / چُکْ *čik* / *čük* – “chik”. Oshiq o‘yinida oshiqning qorni bilan yotgan holati, chikka; **چِکْ / چُکْ تُرْدِی *čik* / *čük turdï*** – “chikka turdi”.

[**دُکْ *dük***] **دُکْ اُرْدِی *dük urdï*** – kafti bilan yengilgina, “duk” etib urdi.

[**دُکْ *dük***] **دُکْ مِنکْ *dük miŋ*** – minglar orasidagi son; **دُکْ مِنکْ یَرْمَاقْ *dük miŋ yarmaq*** – “minglar orasidagi tanga; shu miqdordagi pul”.

[**دِکْ *dik***] biron narsa tik turganda **دِکْ تُرْدِی *dik turdï*** deyiladi.

سِکْ *sik* – erkakning olati. مَحْمُودْ *Maḥmūd* (Koshg‘ariy) aytadi: Odob yuzasidan va buyuk tangrining kitobiga hurmat saqlash uchun Qur’on o‘qiganda uni o‘quvchi kishi erkak va xotinlar oldida quyidagi oyatlarni past ovoz bilan o‘qishi kerak:

وَ اتَت کل وَاحدة منهن سِکینا وکذلک قوله تعالَی مَا یفتَح الله للنَاسِ مِن رَحمة فَلاممسِک لَهَا وَمَایمسِک فلامرسِلَ لَه مِن بَعده

Bu xil oyatlarni ularning oldida sekinlikda o‘qish kerak. Chunki ular bu so‘zlar ma’nosini tushunmay, o‘z tillaridagi ma’noda gumon qilib, gunohkor bo‘ladilar va kuladilar. Shuningdek, اِن هَذا الا اِختِلاق oyatini o‘qiganda sekin o‘qilishi kerak. Chunki **تِلَاقْ *tïlaq*** turk tilida “xotinlar avrati” ma’nosidadir. Shuningdek, arabcha so‘roq ko‘makchisi so‘zini ham quyidagi kabi oyatlarda انتم انزلتموه مِنَ المزن اَم نحن المنزلون ovoz chiqarmay o‘qilishi kerak. Chunki o‘g‘uzcha (85a) **اَمْ *am*** *so‘zi* “xotinlar avrati”dir. Ammo so‘z ma’nosini bilganlar oldida o‘qiyverish zararsiz.

شُکْ *šük* – tinchitish, to‘xtatish so‘zi; **شُکْ تُرْ *šük tur*** – “jim tur”.

[**مُکْ *mük***] **اُلْ مُکْ تُرْدِی *ol mük turdï*** – “u bukilib turdi”.

ل *l* [harfi]:

[**بُلْ *bul***] **بُلْ اَتْ *bul at*** – oyoqlarida oqi bor ot. Peshanasi oq qashqali otlarga **اُغَرْ بُلْ *uγar bul*** deyiladi. Uzoq turib qolishdan ta’mi ketgan bug‘doyga ham **بُلْ *bul*** deyiladi. Ko‘p yillar turib qolib, ta’mi ketgan bug‘doyga **بُلْ تَرِغْ *bul tarïγ*** deyiladi. Yomg‘irdan, namdan yoki uzoq turib qolishi natijasida eskirgan har bir narsaga ham **بُلْ *bul*** deyiladi. Bu so‘zda arabchaga o‘xshashlik shaklda ham, ma’noda ham bor. Chunki bu so‘zning arabchasi بُلْ *bul* dir.

تِلْ *til* – “so‘z, kalom” (الکلام); **اُلْ اَنکَرْ تِلْ تَکُرْدِی *ol aŋar til tegürdi*** – “u unga til tegizdi; tili bilan, so‘zi bilan izo berdi”.

تِلْ *til* – “til” (اللسان). Maqolda (shunday kelgan): **اَرْدَمْ بَشِی تِلْ *Erdäm bašï til.*** Ma’nosi: “Odob-fazilatning boshi – til”. Bu yerda **تِلْ *til*** – “yaxshi so‘z” demakdir. Arabcha المر مخبو تحت لِسانِه kabi.

تِلْ *til* – “so‘z, lug‘at” (اللُغه); **اُغُزْ تِلِی *oγuz tili*** – “o‘g‘uz so‘zi, o‘g‘uz tili” (لُغه الغُزیّه); **یَبَاقُو تِلِی *yabaqu tili*** – “yabaqu tili” (لُغه یباقو). Bu so‘z ma’no jihatdan arabchaga muvofiq keladi. Arabcha “til” ma’nosidagi لسان *lisān* so‘zi ham ko‘p ma’nolarni anglatadi. لسان deganda انی اتتنی لسان لا اسر بها من علو لاعجب فیها ولاسخر *lisān* – “lug‘at, so‘z” demakdir.

تِلْ ***til*** – “yov tarafdan kelgan kishi”; تِلْ تُتّيم ***til tuttïm*** – “yov ahvolini surishtirib bilish uchun til, ya’ni asir tutdim”.

چِلْ ***čil*** – teriga tushgan kaltak izi.

[شَلْ شُلْ] شَلْ شُلْ اَلِكْلِكْ ***šal-šul eliglig*** – qo‘li ishga qovushmagan uquvsiz kishi.

قُلْ ***qul*** – “qul”. Maqolda (shunday kelgan): قُلْ يَغِى اِتْ بُرِى ***Qul – yayï, ït – böri.*** Ma’nosi: “Qul – yov, u qo‘lidan kelsa, egasining molidan olib, fursat topib, qochishning payida bo‘ladi. It ham xonadon uchun bo‘ridir. Chunki u yeydigan narsa topsa, undan o‘zini tiya olmaydi”. Bu maqol qulning xo‘jayiniga oz vafo qilishini bildirish uchun so‘zlanadi.

قِلْ ***qïl*** – “qil, mo‘y”. Odam va boshqa narsaning mo‘yi.

قِلْ قُشْ ***qïlquš*** – erta ko‘klamda keladigan, o‘rdakdek bir qush. (85b) Beklar ilk bahorda uni bir-birlariga sovg‘a qiladilar. Uni قِلْ قُذرُقْ ***qïlquðruq*** deb ham aytadilar.

كُلْ ***kül*** – “kul”. Maqolda (shunday kelgan): كُلْ اُرْكُنْجَا كُوزْ اُرْسَا يِيكْ ***Kül ürgünčä, köz ürsä yig.*** Ma’nosi: “Kulni puflaguncha, cho‘g‘ni puflagan yaxshi”. Bu maqol kichik ishni tashlab, katta ishga urinuvchilarga aytilgan.

م ***m*** [harfi]:

تَمْ ***tam*** – “tamba, tirgovich” (eshik orqasiga tiraladi); قَبُغْ تَمْلَتّى ***qapuγ tamlattï*** – “eshikni tambaladi”.

تُمْ ***tum*** – “sovuq”. Aslida “sovuq” ma’nosida shu تُمْ ***tum*** so‘zi ishlatilsa-da, yana ayni ma’noda تُمْلُغْ ***tumluγ*** so‘zi ham qo‘llanadi. Sovuq narsaga ham shunday deyiladi.

تُمْ ***tum*** – mol, hayvonlar rangini aniqlashda “to‘q” ma’nosini berish uchun qo‘llanadigan so‘z; تُمْ قَرَا اَتْ ***tum qara at*** – “tim qora ot, juda qora, tiniq qora ot”; تُمْ تُرُغْ اَتْ ***tum toruγ at*** – “butunlay to‘rig‘ ot”.

چِمْ ***čïm*** – biron narsaning namligini yoki xomligini oshirib ko‘rsatishda qo‘llanadigan so‘z; چِمْ يِيكْ اَتْ ***čïm yig et*** – “juda xom et, go‘sht”; چِمْ اُلْ تُونْ ***čïm öl ton*** – “juda ho‘l kiyim”.

چِمْ ***čim*** – yerdan o‘rib olib, quyoshda quritilib, yoqiladigan o‘t; چِمْ بِچْتِى ***čim bïčtï*** – “chim o‘rdi, chim kesdi”.

[سُمْ] سُمْ سُجُكْ نَانكْ ***süm süčüg näŋ*** – “juda shirin narsa; chup-chuchuk narsa” (o‘g‘uzcha).

قُمْ ***qum*** – “qum” (chigilcha), o‘g‘uzlar bilmaydilar.

كَمْ ***kem*** – kasallik; اَتْ كَمْلَنْدِى ***at kemländi*** – “ot va boshqa hayvonlar kasallandi”.

كُمْ ***köm*** – rang to‘g‘risidagi كُوكْ ***kök*** so‘zining oldiga qo‘shilib, sifatni oshirib ko‘rsatuvchi old qo‘shimcha. O‘g‘uzcha كُمْ كُوكْ ***köm-kök*** kabi.

كِمْ ***kim?*** – “so‘roq so‘zi, kim?”; بُو كِيمْ ***bu kim?*** – “bu kim?”. Birlik, ko‘plik uchun qo‘llanadi. O‘g‘uzlar بُوىْ كِيمْ ***boy kim?*** deydilar, “bu qaysi qabila?” demakdir. بُوىْ ***boy*** so‘zi ko‘plik o‘rnida qo‘llanadi.

ن ***n*** [harfi]:

بَنْ ***ben*** – “men” anglamidagi bir so‘z; بَنْ بَرْدِمْ ***ben bardïm*** – “men bordim” (o‘g‘uzcha). Turklar مَنْ ***men*** deydilar.

تُنْ ***tün*** – “tun, kecha, kech”; تُونْلا كَلْدِمْ ***tünlä keldim*** – “kech bilan keldim; kechasi keldim”.

تِنْ ***tïn*** – “ruh, jon, nafas”; masalan: اَنِكْ تِينِى كَسِلْدِى ***anïŋ tïnï kesildi*** (86a) – “uning joni uzildi”.

تِنْ ***tin*** – “yugan”. تِنْ تِزْكِنْ ***tin tizgin*** – “yugan va tizgin”.

جِنْ ***čïn*** – “to‘g‘ri, rost”; جِنْ سُزْلَارْ ***čïn sözlär*** – “to‘g‘ri so‘zlar; chin so‘zlar”; جِنْ اَيْدِنكْ ***čïn aydïŋ*** – “chin aytding; rost aytding”.

سَنْ ***sen*** – “sen” anglamidagi bir so‘z. Turklar bu so‘zni kichiklarga, xizmatchilarga hamda so‘zlovchidan daraja, martaba, yoshda quyi bo‘lgan kishilarga nisbatan aytadilar. O‘zlaridan yuqori hurmatli kishilarga سِزْ ***siz*** deydilar. O‘g‘uzlar aksincha qo‘llaydilar, ya’ni kattalarga سَنْ ***sen***, kichiklarga سِزْ ***siz*** deb qullaydilar. Ko‘plikda ham shuni ishlatadilar. Qoida shudir. Chunki سِزْ ***siz*** ko‘plikdir.

قِنْ ***qïn*** – qilich va pichoqlar qini; قِلِجْ قِينِى ***qïlïč qïnï*** – “qilich qini”.

كَنْ ***ken*** (~***kän***) – kun chiqar tomondagi har bir shaharga كَنْ ***ken*** (~***kän***) deydilar. Bu so‘z كَنْدْ ***kend*** (~***känd***) ning qisqarganidir.

كُنْ ***kün*** – “kun, quyosh”; كُنْ تُغْدِى ***kün tuγdï*** – “kun tug‘di, quyosh chiqdi”. Maqolda (shunday kelgan): كُنْكَا بَقْسَا كُوزْ قَمَارْ ***Küŋä baqsa, köz qamar.*** Ma’nosi: “Kunga boqsa, ko‘z qamashadi”.

كُنْ ***kün*** – “kun, kunduz”; بُوكُنْ بَرْغِلْ ***bu kün barγïl*** – “bugun borgin”. Kun quyoshning nuridan paydo bo‘lgani uchun uni ham shu كُنْ ***kün*** so‘zi bilan ataladi.

[كِنْ ***kin***] كِنْ بِيَارْ ***kin yïpar*** – “mushk ko‘pigi”.

مَنْ ***men*** – “men” anglamidagi bir so‘z (turkcha).

مُنْ ***mün*** – “sho‘rva”. Buni yag‘molarda eshitdim: مُنْ كَلْدُرْ ***mün keldür*** deganlarida uvrali sho‘rva hozirlaganlarini ko‘rdim. Bu so‘zlarni yozishda bir cho‘ziq harf (حرف اللين) (unli harf) orttirish ham mumkin edi, lekin talaffuzga ko‘ra biz yozganimizchadir. Unga zarurat yo‘qdir.

Ikki harfli *sālim* so‘zlar bobi bitdi.

BU UCH HARFLILAR BOBLARIDIR (86b)

فُعْل ***fu’l,*** فَعْل ***fa’l,*** فِعْل ***fi’l*** qolipida oldingi harfi turli harakatda bo‘lib, o‘rtasi harakatsiz bo‘lgan so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

بَرتْ ***bart*** – may va shu kabi suyuq narsalar o‘lchovi.

يَرتْ ***yart*** – suv ichiladigan idish (o‘g‘uzcha); يَرْتْ يُرتْ تُتَى ***yart yurt tutti*** – “har tarafdan birdan oldi”.

يُرْتْ ***yurt*** – “bosinqirash; qora bosmoq”. Shuning uchun (؟) كتى يُرْتْ ham deydilar.

بِيرتْ ***bert*** – “berim”; qulning har yili o‘z xo‘jayiniga beradigan to‘lovi. Bu so‘zni *yā* bilan **بِيرتْ** shaklida yozgan tuzuk.

[**تِرتْ تِرتْ** ***tïrt-tïrt***] **اَنِكْ تُونِنْ تِرتْ تِرتْ پِرتّي** ***anïŋ tonïn tïrt-tïrt yïrttï*** – “uning kiyimini tirillatib, tirt-tirt yirtdi”.

[**تُرتْ** ***tört***] **تُرتْ يَرْمَاقْ** ***tört yarmaq*** – “to‘rt tanga”. Bu umuman “to‘rt” sonini anglatadi; **تُورتْ** tarzida *vāv* bilan yozish tuzukroq.

جَرتْ جُرتْ ***čart-čurt*** – har narsaning maydasi, sinig‘i; **بِزْنِكْ اَنْدَا بِيرْ جَرتْ اَلْغُومِزْ بَارْ** ***biznïŋ anda bir čart alyumïz bar*** – “bizning undan bir oz oladigan narsamiz bor”.

[**جِرتْ** ***čirt***] **جِرتْ سُوذْتِى** ***čirt suδtï*** – “tishlari orasidan chirtillatib tupurdi”.

سَرتْ ***sart*** – “savdogar”. Maqolda (shunday kelgan): **سَرتْ اَزُقِى اَرِغ بُلْسَا يُلْدَا بِيرْ** ***Sart azuqï arïγ bolsa, yolda yer.*** – Bu maqolning ma’nosi bir necha bor aytildi.

[**سَرتْ سُرتْ** ***sart-surt***] **اَنِكْ اَذاقِى سَرتْ سُرتْ قِلْدِى** ***anïŋ aδaqï sart-surt qïldï*** – “uning oyog‘i xalf-xulf qildi”; kattaroq oyoq kiyimi kiyganda chiqadigan ovoz.

سِرتْ ***sïrt*** – “quyruq, dum, soch”. O‘g‘uzlar kichik “tepa” va “vodiy”larga ham **سِرتْ** ***sïrt*** deydilar.

قَرتْ ***qart*** – “yara”. Shundan olib, “xulqi buzuq, qaysar kishi”ga **اَرْ قَرتْ** ***qart er*** deydilar.

قُرتْ ***qurt*** – “qurt” (hasharot); butun turklar shunday deydi, faqat o‘g‘uzlar “bo‘ri”ni **قُرت** ***qurt*** deydilar.

[**قَرتْ قُرتْ** ***qart-qurt***] **اَلِكْ قَرتْ قُرتْ اَتّى** ***elig qart-qurt etti*** – “barmoqlar qirsilladi; qars-qurs qildi”.

[**قِرتْ** ***qïrt***] **قِرتْ اُتْ** ***qïrt ot*** – “kalta o‘t”. Shuningdek, “kalta soch”ga ham **قِرتْ سَجْ** ***qïrt sač***, “baxil va xulqsiz kishi”ga **قِرتْ كِشِى** ***qïrt kiši*** deyiladi.

[**كُرتْ كُرتْ** ***kürt-kürt***] **اَتْ اَرْبَانِى كُرتْ كُرتْ يِيدِى** ***at arpanï kürt-kürt yedi*** (87a) – “ot arpani kurt-kurt yedi”. Shuningdek, kishi bodring kabi narsalarni qattiq chaynab yeganda chiqadigan ovozga ham bu so‘z qo‘llanadi.

كُرتْ ***kürt*** – tog‘ daraxtlarining bir turi. Undan kamon, qamchin va hassa yasaladi.

ج ***č*** [harfi]:

[**قَرجْ قُرجْ** ***qarč-qurč***] **اَرْ تُرْمُزْنِى قَرجْ قُرجْ يِيدِى** ***er turmuznï qarč-qurč yedi*** – “kishi bodringni qarch-qurch chaynab yedi”.

[**قُرجْ** ***qurč***] “Po‘lat”ni **قُرجْ تمُرْ** ***qurč temür*** deyiladi; “chidamli, pishiq kishi”ga **قُرجْ اَرَنْ** ***qurč erän*** deydilar. Har bir tig‘iz va qattiq narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

مُرجْ ***murč*** – “murch”.

كَنْدْ ***kend*** (***~känd***) – “shahar”. Bundan olinib كَاشْغَرْ *Kāšγar* ni **اُرْدُوكَنْدْ** ***Ordukend*** – “xon turadigan shahap; markaz” ma’nosida qo‘llanadi. Chunki bu shaharning

havosi yaxshi bo‘lgani uchun اَفرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* shu yerda yashar edi. U quyi صين *Ṣīn* dir.

(Shoir) shunday degan:

كَلْنىڭزْلَيُواَقْتِمِزْ *Kelŋizläyü aqtïmïz,*
كَنْدْلَرْ اُزَا چِقْتِمِزْ *Kendlär üzä čïqtïmïz,*
فُرْخَنْ اَفِنْ يِقْتِمِزْ *Wurxan ewin yïqtïmïz,*
بُرْخَنْ اُزَا سِجْتِمِزْ *Burxan üzä sïčtïmïz.*

Uyg‘urlarga qarshi janglarni ta’riflab aytmoqda: “Seldek ularga oqdik, shaharlar ichiga kirdik, butxonalarni yiqitdik, hatto butlar ustiga o‘tirdik [bulg‘atdik]”. Bu musulmonlarning kofirlar ustidan g‘alaba qozonganlaridagi odatlaridir. Tahqir qilib, butlari ustidan siyadilar.

كَنْدْ *kend* (***~känd***) – o‘g‘uzlar va ular bilan yaqin turuvchilar tilida “qishloq”. Ko‘pchilik turklar nazdida “viloyat”dir. Shuning uchun فَرْغَانَه *Farγāna* ni **اُوزْكَنْدْ *Özkend*** – “o‘z shahrimiz” deydilar. سَمَرْقَنْدْ *Samarqand* ni kattaligi uchun **سَمِزْ كَنْدْ *Semizkend*** – “semiz shahar” deydilar. Buni forslar **سَمَرْقَنْدْ *Samarqand*** tarzida qo‘llaydilar.

س *s* [harfi]:

بَرسْ *bars* – “bars, qoplon”.

بَرسْ *bars* – turkcha o‘n ikki muchal yillaridan birining oti. Turklar o‘n ikki xil hayvon otini o‘n ikki yilga ot qo‘yganlar. Tug‘ilish, jang tarixlari va boshqalarni ana shu yillar aylanishidan hisoblaydilar. Buning kelib chiqishi shunday: turk xoqonlaridan biri o‘zidan bir necha yil oldin bo‘lib o‘tgan urushni o‘rganmoqchi bo‘lgan. Shunda u urush bo‘lib o‘tgan yilni aniqlashda yanglishganlar. Bu masala yuzasidan (xoqon) qavmi bilan kengashdi va aytdi: “Biz bu tarixni (aniqlashda) qanchalik yanglishgan bo‘lsak, bizdan keyin ham shunday yanglishadilar. Shunday bo‘lgach, biz endi o‘n ikki oy va osmondagi o‘n ikki burjga asoslanib, o‘n ikki yilga ot qo‘yishimiz kerak, toki bizdan keyin yil hisobi shu yillarning aylanishiga qarab olinsin va bu narsa abadiy bir yodgorlik bo‘lib qolsin”. Ular: “aytganingizdek bo‘lsin”, deyishdi. (87b)

Xoqon ovga chiqdi va kishilarga vahshiy hayvonlarni اِيلَا *Ilä* daryosi tomon quvishni buyurdi, bu juda katta suv. Kishilar ov qilib, hayvonlarni suv tomon hayday boshladilar, shunda o‘n ikki hayvon suvdan o‘tdi. O‘n ikki yilni ana shu o‘n ikki hayvon oti bilan atadilar. Eng oldin suvdan o‘tgan hayvon **سِجْغَانْ *sïčγan*** (“sichqon”) bo‘ldi. Shuning uchun yil boshi uning oti bilan ataldi, shu so‘zga “yil” so‘zini qo‘shib **سِجْغَانْ يِلِى *sïčγan yïlï*** (“sichqon yili”) deb atadilar. Undan keyin o‘tganlari quyidagi tartibda bo‘ldi va ularning har biri bir yil uchun ot bo‘lib qoldi:

اُوذْ يِلِى *ud yïlï* – “sigir yili”;

بَرسْ يِلِى *bars yïlï* – “bars yili”;

تَقْشْغَانْ يِلِى ***tawïšγan yïlï*** – “quyon yili”;
نَاكْ يِلِى ***nek yïlï*** – “timsoh yili”;
يِلَانْ يِلِى ***yïlan yïlï*** – “ilon yili”;
يُنْدْ يِلِى ***yund yïlï*** – “ot yili”;
قُوىْ يِلِى ***qoy yïlï*** – “qo‘y yili”;
بِجِنْ يِلِى ***bičin yïlï*** – “maymun yili”;
تَقَاغُو يِلِى ***taqaγu yïlï*** – “tovuq yili”;
اِتْ يِلِى ***ït yïlï*** – “it yili”;
تُنكُوزْ يِلِى ***toŋuz yïlï*** – “to‘ng‘iz yili”.

To‘ng‘izga yetgandan keyin, sanoq yana سِجْغَانْ ***sïčγan*** (“sichqon”)dan boshlanadi. Bu kitobni yozgan yilimiz to‘rt yuz oltmish oltinchi (466) yilning muharram oyida يِلَانْ يِلِى ***yïlan yïlï*** (“ilon yili”) kirgan edi. Bu yil o‘tib, to‘rt yuz oltmish yettinchi yil kelsa, يُنْدْ يِلِى ***yund yïlï*** (“ot yili”) kiradi. Yil sanog‘i mana shu men ko‘rsatgan ketma-ketlikda olib boriladi. (88a) Turklar bu yillarning har qaysisida biror hikmat bor deb taxminlaydilar: masalan, ularcha sigir yili bo‘lsa, urush ko‘p bo‘ladi, chunki sigir – bir-biri bilan suzishadigan hayvon. Tovuq yili kirsa, oziq-ovqat ko‘payadi, lekin odamlarda tashvish ortadi. Chunki tovuqning ovqati don bo‘lib, uni topib yeyish uchun narsalarni titib yuradi. Timsoh yili kirsa, yog‘ingarchilik va hosil ko‘p bo‘ladi, chunki u suvda yashaydi. To‘ng‘iz yili kirsa, sovuq qor va fitna ko‘p bo‘ladi. Shunga o‘xshash, har yilga biror taxmin yuritadilar.

Turklarda haftadagi yetti kunning oti yo‘q, chunki hafta islom davrida shuhratlandi. Shunga o‘xshash oy otlari ham shaharlarda arabcha yuritiladi. Ko‘chmanchi va musulmon bo‘lmagan turklar oylarni to‘rt fasl bilan ataydilar. Har uch oyni bir ot bilan yuritadilar. Yil o‘tishini shunday biladilar. Masalan: navro‘z (“yangi kun”) dan keyingi ilk bahorga اُغْلَاقْ اَىْ ***oγlaq ay***, so‘ngra اُ لُغْ اُغْلَاقْ اَىْ ***uluγ oγlaq ay*** derlar. Chunki oy bu vaqtda katta bo‘lib qoladi. Bundan keyingisiga اُلُغْ اَىْ ***uluγ ay*** deyiladi. Chunki bu oy yozning o‘rtasida bo‘lib, bu vaqtda sut va yer ne’matlari mo‘l-ko‘l bo‘ladi. Bu otlar kam qo‘llangani uchun hammasini aytishni munosib ko‘rmadik. O‘zing tushunib ol.

بَرسْ ***bars*** – chivin, pashsha chaqishida yoki eshakem boshlanishida terida paydo bo‘lgan paysa, shish; اَنِىڭ اَتِى بَرسْ بُولْدِى ***anïŋ eti bars boldï*** – “uning eti paysa bo‘ldi, shishdi”.

تَرسْ ***ters*** – “ters, qiyin”; تَرسْ اِيشْ ***ters ïš*** – “qiyin ish”.

[جَرسْ جَرسْ ***čars-čars***] اُلْ اَنِى جَرسْ جَرسْ اُرْدِى ***ol anï čars-čars urdï*** – “u uni chars-chars urdi”. Yana تَرسْ تَرسْ اُرْدِى ***tars-tars urdï*** deganda “har tarafdan urdi” degan ma’no anglashiladi.

قَرسْ ***qars*** – tuya yoki qo‘y yungidan qilingan kiyim. (88b)

[قَرسْ قَرسْ ***qars-qars***] اُلْ قَرسْ قَرسْ اَيَا يَبْتِى ***ol qars-qars aya yaptï*** – “u qo‘llari bilan qars-qars chapak chaldi”.

ف ***w*** [harfi]:

[كُلفْ ***külw***] تَامْ كُلفْ بِقِلْدِى ***tam külw yïqïldï*** – “devor gurs etib, birdan yiqildi”.

ق ***q*** [harfi]:

اَفْ بَرقْ ***ew-barq*** – “uy va hovli; uy-joy”; بَرقْ ***barq*** so‘zi ayrim ishlatilmaydi, juft holdagina qo‘llanadi.

تُرقْ ***turq*** – har narsaning uzunligiga aytiladi; بِيرْ سُنكُو تُرْقِى ***bir söŋü turqï*** – “bir nayza uzunligida”; بِيرْ اِينِى تُرْقِى ***yer eni turqï*** – “yerning eni va bo‘yi”.

[جُلقْ ***čulq***] جُلقْ اَسْكُرُكْ ***čulq esgürük*** – “qattiq sarxush; mast”; جَلقْ جُلقْ بدرقلدى ***čalq-čulq yudruqladï*** *(?)* – “u uni shaq-shuq urdi”.

قِرقْ ***qïrq*** – sonda “qirq”. Maqolda (shunday kelgan): قِرقْ يِلْقَا تَكِينْ بَاىْ جِغَايْ تُزْلِنُورْ ***Qïrq yïlqa tegin bay čïγay tüzlinür.*** Ma’nosi: “Qirq yilgacha boy bilan kambag‘al tenglashadi”. Ya’ni vaqt o‘zgarishi bilan yoki o‘lim bilan shunday bo‘ladi.

ك ***k*** [harfi]:

[بَرَكْ ***berk***] بَرَكْ تَنَكْ ***berk näŋ*** – “mustahkam narsa”. Asli بَكْ ***bek***, *rā* harfi ortiqcha.

بُركْ ***börk*** – “bo‘rk, qalpoq, bosh kiyim”. Maqolda (shunday kelgan): تَاتْسِيزْ تُركْ بُلْمَاسْ بَاشْسِيزْ بُركْ بُلْمَاسْ ***Tatsïz türk bolmas, bašsïz börk bolmas.*** Ma’nosi: “Boshsiz bo‘rk bo‘lmaganidek, totsiz turk ham bo‘lmaydi”.

تُركْ ***Türk*** – turk shaharlaridan birining oti.

[تَرَكْ ***terk***] تَرَكْ كَلْ ***terk kel*** – “tez kel”. Tezlatishga undab aytilgan har bir ishga ham qo‘llanadi: تَرَكْ قِلْ ***terk qïl*** – “tez qil”.

تُركْ ***Türk*** – tangri yarlaqagur, نُوحْ *Nūḥ* o‘g‘lining oti. Bu ot نُوحْ *Nūḥ* ning o‘g‘li تُركْ *Türk* avlodlariga Tangri bergan otdir. Chunonchi, Tangrining هَل اَتى عَلى الانسان حين من الدهر oyatidagi اِنْسَانْ *insān* so‘zi “odam” ma’nosida kelgan. Bu yerda so‘z birlikda, ya’ni “faqat bir kishi” ma’nosidadir. Quyidagi لقد خلقنا الانسان فى احسن تقويم ثم رددناه اسفل سافلين الاالذين امنُوا وعملوا الصالحات oyatida اِنْسَانْ *insān* so‘zi “jam” ma’nosidadir. Chunki bu yerda istisno (bir narsani ko‘p narsadan ayirib olish) bor. (Istisno) faqat ko‘plikdangina ayirib olish mumkin. (89a) Bu yerda انسَانْ *insān* so‘zi بَشَرْ *bašar* so‘zi kabi ko‘plik ma’nosidadir. رُومْ *Rūm* so‘zi Tangri yarlaqagur اسْحَقْ *İsḥaq* o‘g‘li عيْصُو *’İyṣū* ga, عيْصُو *’İyṣū* o‘g‘li رُومْ *Rūm* ga atalishida ham shu hol bor. Shunga o‘xshash تُركْ ***türk*** so‘zi ham birlik va ko‘plikda qo‘llangan. Masalan, الشيخُ الامامُ الزاهدُ الحُسين بن خلف الكاشغرى koshg‘arlik Xalaf o‘g‘li imom Shayx Husayn unga ابنُ الغرقى degan odam الشيخُ ابُو بكر المُفيدُ الجرجانى ning oxir zamon haqidagi kitobida Payg‘ambardan shu hadisni rivoyat qiladi:

يقول الله جل وعز ان لى جُندا سميتهُمُ الترک واسكنتهُمُ المشرق فاذا غضبتُ على قوم سلطتهُم عليهم

Ulug‘ Tangri aytadi: “Mening bir toifa qo‘shinim bor, ularni تُركْ ***türk*** deb atadim, ularni kunchiqarga o‘rinlashtirdim. Biror xalqdan g‘azablansam, turklarni unga qarshi yo‘llayman”.

Bu narsa ular (turklar) boshqalarga nisbatan fazilatli ekanini ko‘rsatadi. Hatto Tangri ularga o‘zi ot qo‘ygan, ularni eng baland yerlarga, xushhavo joylarga o‘rnashtirgan va o‘ziniig botirlaridan sanagan. Turklarda ko‘rkamlik, yoqimlilik,

odoblilik, so‘zining ustidan chiqishlik, dadillik, kamtarlik kabi maqtashga sazovor xulqlar son-sanoqsizdir.

(She’rda) shunday deyilgan:

قَجَنْ كُرْسَا اَنِى تُرك *Qačan körsä anï türk,*
بُدُنْ اَنْغَا اَنِكْ اَيْدَجِى *Boδun anγa anïŋ aydačï.*
مُنكَرْ تَكِرْ اُلُغْلُقْ *Muŋar tegir uluγluq,*
مُنْدَا نَرُو كَسْلِنُورْ *Munda naru keslinür.*

Bir kishini maqtab aytmoqda: “Turklar uni ko‘rgudek bo‘lsa, ular unga shunday deydi: “Ulug‘liq ungagina tegadi, bundan so‘ng kesiladi [ya’ni, boshqalar yetisholmaydi]”.

تُرك ***türk*** so‘zi birlikda ham, ko‘plikda ham qo‘llanuvchidir. Masalan: **كِمْ سَنْ** ***kim-sen?*** deguvchiga **تُرك مَنْ** ***türk-men*** deyilganda birlik bo‘lsa, **تُرك سُوسِى اَتْلَنْدِى** ***türk süsi atlandï*** – “turk qo‘shini otlandi” ham deyiladi [bunda ko‘plikni bildiradi]. (89b)

تُرك ***türk*** – vaqt ma’nosida ishlatiladigan so‘z bo‘lib, butun mevalarning pishish, yetilish mahalining o‘rtasini anglatadi: **تُرك اُزُمْ اُودِى** ***türk üzüm ödi*** – “uzum pishar vaqti”; **تُرك قُيَاشْ اُودِى** ***türk quyaš ödi*** – “kun o‘rtasi”; **تُرك يِكِتْ** ***türk yigit*** – “o‘rta yoshli yigit”.

سَرك ***serk*** – sopol idish va uning siniqlari.

[**سُرك** ***sürk***] **اَنِكْ اَدَاقِى سُرك بُوزْتَكْ** ***anïŋ aδaqï sürk buz-teg*** – “uning oyog‘i muzdek sovuq”. Bu so‘z faqat shu o‘rindagina qo‘llanadi.

كُرك ***körk*** – “mo‘yna, po‘stin”.

كُرك ***körk*** – “ko‘rk, husn”; **كُركْلُكْ** ***körklüg*** – “ko‘rkli, chiroyli”.

O‘rtasi *sukun* lilar bo‘limi tugadi.

فَعَل *fa’al,* فَعُل *fa’ul,* فَعِل *fa’il* qoliplaridagi o‘rtasi harakatlilar bo‘limi

ب ***p*** [harfi]:

كَلَبْ ***keläp*** – turk yaylovlarida (مصطاف الترك) o‘sadigan va mollarni tez semirtiradigan yumshoq o‘t.

ت ***t*** [harfi]:

بَسُتْ ***basut*** – “yordamchi, orqa suyanchiq, mehribon”.

بَسُتْ ***basut*** – “yordam”; **اُلْ مَنكَا بَسُتْ بِرْدِى** ***ol meŋä basut berdï*** – “u menga yordam berdi”. Har ikki so‘z bir-biriga yaqin.

بُلِتْ ***bulït*** – “bulut”; **قَرَا بُلِتْ** ***qara bulït*** – “qora bulut”; **اَقْ بُلِتْ** ***aq bulït*** – “oq bulut”. Maqolda (shunday kelgan):

قَرَا بُلِتغْ يِيلْ اَجَارْ *Qara bulïtïγ yel ačar,*
اُرُنجْ بِلَا اِيلْ اَجَارْ *Urunč bilä el ačar.*

Ma’nosi: “Qora bulut osmonni qoplab olganda uni shamol uchiradi, shuningdek, hukumat eshigini pora ochadi”[1]. Bu maqol ishni bitirish uchun pora berish kerakligiga undab aytiladi. “Bulut” so‘zi qalin sochga ham o‘xshatiladi: بُلِت تَک سَچِی ***bulït-teg sačï*** – “sochi bulutdek qalin, quyuq, ko‘p”.

(Shoir) shunday degan:

اَغْدِي بُلِتْ كُكْرَيُو	***Aγdï bulït kökräyü,***
يَغْمُرْ تُلِي سَكْرِيُو	***Yaγmur tolï sekriyü.***
قَلِقْ اَنِى اُكْرِيُو / اُكْرَيُو	***Qalïq anï ügriyü / ügräyü,***
قَنْجَا بَرِيرْ بَلْكُوسُوزْ	***Qanča barïr belgüsüz.***

(90a) Aytmoqdaki: “Osmonni bulut qoplab, chaqmoq chaqdi, yomg‘ir va do‘l yog‘di. Shamol bulutlarni haydab harakatga keltirdi, ularning qayoqqa borishi belgisiz”.

تُبُتْ *tüpüt* – Turk diyorida (ديار الترک) yashovchi bir qavm. Mushk olinadigan kiyik shularning yerida bo‘ladi. Uning kindigi kesib olinadi. Bu mushk qutisidir. Bular bir jinoyat qilib, يَمَنْ *Yaman* dan qochib, dengiz yo‘li bilan صين *Ṣīn* ga borib o‘rnashib qolgan ثابت *Ṯābit* degan kishining avlodidir. U kishi shu yerni yoqtirib, joylashib qolgan va avlodi ko‘paygan. Avlodi ko‘pligidan turklar yeridan bir ming besh yuz farsax yerni olganlar. Sharq tomoni صين *Ṣīn*, g‘arb tomoni قِشْمِيرْ *Qïšmīr*, shimol tomoni اُيْغُرْ *Uyγur* ellari, janub tomoni esa هِندْ *Hind* dengizidir. Ularning tillarida arabchaning ta’siri bor. Chunki ular “ona”ni اُمَا ***uma***, “ota”ni اَبَا ***aba*** deydilar.

تِكِتْ *tigit* – تِكِينْ *tigin* so‘zining ko‘pligidir. Aslida bu qul ismidir. So‘ng xoqon o‘g‘illariga laqab bo‘lib qoldi. Bu shakldagi ko‘plik qoidaga xilofdir; **اُكَا تِكِتْ *ögä tigit*** – “oddiy xalqning kattalari; shohning kichik o‘g‘illari” demakdir. Bular birga qo‘llanadi. **اُكَا *ögä*** so‘zi aslida ذوالقرنين *ḏu-l-qarnayn* zamonida u bilan turklarning bitishuvidan oldin ularning oldingi qo‘shinlari orasidagi to‘q-nashuvda yuzaga kelgan.

[**جُكُتْ *čöküt***] **جُكُتْ كِشِى *čöküt kiši*** – “pakana, kalta bo‘yli kishi va boshqalar”.

چِكِتْ *čigit* – “paxta urug‘i, chigit” (arg‘ucha).

سِبُتْ *sibüt* – “kashnich” (koshg‘archa).

سُغُتْ *soγut* – “suzma” (qarluqcha).

سُغُتْ *soγut* – ichak ichiga gurunch, go‘sht va xushbo‘y dorivorlar solib, pishirib yeyiladigan hasip.

سِغِتْ *sïγït* – “yig‘i”.

سُكُتْ *sögüt* – “tol daraxti”. Maqolda (shunday kelgan): **سُكُتْ سُولِنكَا قَذِنكْ قَاسِنكَا *Sögüt süliŋä, qaδïŋ qasïŋa.*** Ma’nosi: “Tol daraxtidagi ho‘llik va mayinlik tolning o‘ziga yarashiq, qayin daraxtining qattiqligi uning o‘ziga munosib”. Bu maqol har kimsa va narsa o‘z ildiziga tortishiga piching qilib aytiladi.

[1] *Chog‘ishtiring*, A. Rustamovda: “ветер разгоняет тучи, подкупом завоевывают страны.”. Divānu lugāti-t-turk (Свод тюркских слов). Том 1. – Tashkent, 2017. С.309.

قَجُتْ ***qačut*** – “qochish”. Jang va boshqa hollarda bir-biri bilan olishish.

قَرِتْ ***qarït*** – “o‘g‘irlash; talash” (turkmancha). Bu so‘z arabcha غَارَت *γārat* dan olingan deb gumon qilaman.

قُرُتْ ***qurut*** – “qurt”. (90b)

قَنَتْ ***qanat*** – “qanot”.

قُنَتْ ***qonat*** – “qo‘nat”. Bir-birlariga taqashgan bir guruh odam, bir-birlariga yaqin yashaydigan kishilar guruhi; **اُلْ مَنِڭْ قُنَاتِمْ اُلْ** ***ol meniŋ qonatïm-ol*** – “ul kishi mening qo‘shnim, qo‘natim, yondoshim”.

كَبِتْ ***kebit*** – “ichkilik do‘koni, mayxona”.

كُجَتْ ***köčät*** – خوارزم *Xvārazm* da turuvchi turklar.

كُجُتْ ***köčüt*** – “ot, ulov”.

كَدُتْ ***keδüt*** – “kiyiladigan kiyim”. Ko‘pincha bu so‘z to‘yda kelin va kuyov yaqinlariga hurmat yuzasidan kiydiriladigan to‘nga nisbatan aytiladi: **كَدُتْ بَرْدِى** ***keδüt berdi*** – “to‘n berdi, to‘n kiygizdi”.

كِرِتْ ***kirit*** – “kalit, qulf kaliti”. Bu so‘z arabchaga yaqindir. Chunki arabcha اِقليد *ïqlïd* dir. Bu so‘zdagi *qāf* harfi *kāf* ga, *lām* harfi *rā* ga, *dāl* harfi *tā* ga almashgan, *alif* tushirilgan.

كُلُتْ ***külüt*** – kishilar orasida kulgili bo‘lgan narsa.

ج ***č*** [harfi]:

بُقَجْ ***buqač*** – “sopol idish” yoki “sopol qozon”; **اَشِجْ بُقَجْ** ***ešič-buqač*** holida ikki so‘zni birga qo‘shib qo‘llanadi; “qozon-idish”.

بَكَجْ ***bekäč*** – tiginlarning laqabi; **بَكَجْ اَرسْلَانْ تِكِينْ** ***Bekäč Arslan tigin*** kabi. Bu so‘z jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bilan (بكاف ركيكه) aytilsa, **بَكْ** ***beg*** so‘zining kichraytirilgani bo‘lib, mehribonlik va achinish ma’nolarini ifoda qiladi. Chunki “amir” ma’nosidagi **بَكْ** ***beg*** so‘zi oxiridagi *kāf* jarangli [*g*] dir (بكاف ركيكة).

بُلُجْ ***Boluč*** – erkaklar oti.

تُقُجْ ***toquč*** – “to‘qoch kulcha”. Bu so‘z **تُقْ اَرْ** ***toq er*** dagi **تُقْ** ***toq*** so‘zidan olingan. Chunki u to‘q qiladi, to‘ydiradi.

تِكُجْ ***tiküč*** – “chakich”.

جَنَجْ ***čanač*** – “xunasa; qo‘rqoq”. Ishida jur’atsizlik va tayinsizlik qilgan har bir kishi.

[**سَنَجْ** ***sanač***] **سَنَجْ كَسِرْلُو** ***sanač kesirlü*** – narsa solish uchun qizil teridan qilingan maxsus idish, sonoch.

قَقَجْ ***qaqač*** – “kir”; **تُونْ قَقَجْ بُولْدِى** ***ton qaqač boldï*** – “kiyim kir bo‘ldi”.

قُلَجْ / قُلَجْ ***Quluč / Qulïč*** – erkaklar oti.

قُلَجْ ***qulač*** – “quloch”. Asli **قُلْ اَجْ** ***qol a:č*** – “qo‘lni och; qulochni yoz”; **بِيرْ قُلَجْ بَرْجِنْ** ***bir qulač barčïn*** – “bir quloch shohi”.

قِلِجْ ***qïlïč*** – “qilich”. Maqolda (shunday kelgan): **قُشْ قِلِجْ قِنْقَا سِغْمَاسْ** ***Qoš qïlïč qïnqa sïymas.*** Ma’nosi: “Qo‘sh qilich bir qinga sig‘mas”. (91a) Bu maqol bir ish uchun intilgan ikki kishi, bir qizga sovchi yuborgan ikki odamga qarata ham

so‘zlanadi. Xoqonlarni ham shu laqab bilan yuritadilar: قِلِجْ خَانْ ***Qïlïčxan*** kabi. Bu “ishlarida, harakatlarida qilichdek kesuvchi, keskin xon” demakdir.

(Shoir) shunday degan:

اَرَنْ اَلْبِى اُقشْتِيلَرْ	***Erän alpï oqïštïlar,***
قِنكِرْ كُوزِنْ بَقِشْتِيلَرْ	***Qïŋïr közin baqïštïlar,***
قَمُغْ تُلْمُنْ تُقِشْتِيلَرْ	***Qamuγ tolmun toqïštïlar,***
قِلِجْ قِنْقَا كُجُنْ سِغْدِي	***Qïlïč qïnqa küčün sïγdï.***

Jangni ta’riflab aytmoqda: “Botirlar bir-birlarini chaqirdilar, bir-biriga qing‘ir ko‘z bilan qaradilar. Hamma qurol-yaroqlar bilan urushdilar, qilichlar(ning beti qon bilan qoplanib) qiniga zo‘rg‘a sig‘di”.

قَمِجْ ***qamïč*** – “chovli”.

كُتِجْ ***kötič*** – yosh bolalarning so‘kish so‘zi; “ey ko‘tga o‘xshash sassiq” demakdir. “Ko‘t” so‘zi bilan bog‘liq.

كُزَجْ ***közäč*** – “ko‘za”. Bu so‘z arabchaga o‘xshash, biroq *dāl* harfi ج *čīm* ga almashgan.

كُذْجْ ***köδäč*** – “ko‘za” (arg‘ucha). ذ *δāl* bilan *za* arabchadagi kabi teng keladi. Arablar “yozdi” so‘zini ذبر va زبر tarzida yozaveradilar. “Sho‘r suv”ni ماغُذْعاق va ماغُزْغاق tarzida yozaveradilar.

كُمَجْ ***kömäč*** – “ko‘moch”; o‘choqda cho‘qqa ko‘mib pishiriladigan non.

كُمُجْ ***kömüč*** – “xazina”; اُلْ كُمُجْ بُلْدِى ***ol kömüč buldï*** – “u xazina topdi”.

مَشِجْ [***mašïč***] مَشِجْ اُزُم ***mašïč üzüm*** – bir turli qora uzum.

ر ***r*** [harfi]:

بُتَرْ ***butar*** – “bardi” degan to‘qima kiyimlikka ishlatiladigan o‘rish [ya’ni uzunasiga qo‘yiladigan] ip.

[يَدَرْ يَدَرْ ***yadar-yadar***] يَدَرْ يَدَرْ يُكُرْدِى ***yadar-yadar yügürdi*** – “patir-putir chopdi”. Chopganda patir-putir oyoq tovushlari eshitildi.

بَسَرْ ***basar*** – tog‘ning sarimsoq piyozi.

بَغِرْ ***bayïr*** – “qorajigar”. Hech kimga bo‘yin egmovchi kishini بَدُكْ بَغِرْلِغْ ***bedüg bayïrlïγ*** deb yuritiladi, “bag‘ri butun” demakdir. “Yoyning o‘rta yeri”ga يَا بَغِرِي ***ya bayrï*** deyiladi.

بَقِرْ ***baqïr*** – “mis”. Maqolda (shunday kelgan): بَارْ بَقِرْ يُوقْ اَلْتُونْ ***Bar – baqïr, yoq – altun.*** Ma’nosi: “Bor – mis (qadrsiz), yo‘q – oltin (qadrli)”. Qo‘lda bor bo‘lgan narsa misdek qadrsiz, qo‘lda bo‘lmagan narsa oltindek qadrli. Bu maqol yaqinlar orasida xo‘rlanib yurgan kishi, keyin yo‘qligida qadri bilinishi ma’nosida qo‘llanadi.

بَقِرْ ***baqïr*** – صين *Ṣīn* o‘lkasidagi chaqa (pul). Oldi-sotdilari shu orqali qilinadi.

بَقِرْ سُقِمْ ***Baqïr soqïm*** (91b) – مِرّيخ *Mirrīx* (Mars planetasi)ning oti, u qizillikda misga o‘xshatiladi.

بُكُرْ ***bügür*** – “buyrak”.

بُگُرْ *Bügür* – كُجَا *Kučä* bilan اُيْغُرْ *Uyγur* o‘rtasidagi baland bir qal’a; bu chegarada.

تَبَرْ *Tabar* – qipchoq xonlaridan bo‘lgan اِنَالْ اُوزْ *İnal Uz* ning ikki o‘g‘lidan birining oti.

[**تَتِرْ *tatïr***] **تَتِرْ يِيرْ *tatïr yer*** – “daraxtsiz, binosiz yer”.

تِتِرْ *tetir* – “urg‘ochi tuya”.

[**تَقِرْ تَقِرْ *taqïr-taqïr***] **اَتْ اَذاقِى تَقِرْ تَقِرْ اَتّى *at aδaqï taqïr-taqïr etti*** – “otning oyog‘i taqir-taqir ovoz chiqardi”. Shu ma’noda **تِكِرْ تِكِرْ اَتّى *tikir-tikir etti*** (“ot tikir-tikir qilib yurdi”) deb ham qo‘llaydilar.

تَمُرْ *temür* – “temir”. Maqolda (shunday kelgan): **كُوكْ تَمُرْ كَرُو تُرْمَاسْ *Kök temür kerü turmas.*** Ma’nosi: “Ko‘k temir bekor turmaydi, yetgan joyini yaralaydi”. Buning boshqa bir ma’nosi ham bor. Qirqiz, yabaqu, qipchoq va boshqalar biror kishiga qasam ichirganda yoki undan biror narsaga va’da olganda, qilichni uning oldiga ko‘ndalang qo‘yib: **بُو كُوكْ كِرْسُونْ قِزِلْ چِقْسُونْ *Bu kök kirsün, qïzïl čïqsun*** deydilar, ya’ni “va’da buzilsa, bu ko‘k kirsin, qizil chiqsin”, ya’ni “qonga belanib chiqsin. Bu ahd buzilsa, temir seni o‘ldirsin, o‘ch olsin” demakdir. Chunki ular temirni hurmat qiladilar.

تَمُرْ *tamur* – “badandagi ter”. O‘g‘uzlar bu so‘zni **تَمَرْ *tamar*** deydilar. Ular doim so‘zni yengillatib so‘zlaydilar. So‘zda *alif* (ya’ni [*a*]) qo‘llash *yā* (ya’ni [*ï*], *vāv* (ya’ni [*u*]) ga nisbatan yengildir. Shuning uchun ular shunday qo‘llaydilar.

تَقُرْ *tawar* – “jonli-jonsiz mol; tovar”. O‘g‘uz va boshqalar **تَوَرْ *tavar*** deb yuritadilar.

(Shoir) shunday degan:

تَقُرْ كِمْنِكْ اُكْلِسَا	***Tawar kimniŋ öklisä,***
بَكْلِكْ اَنكَرْ كَرْكِيُورْ	***Beglig aŋar kergäyür,***
تَقُرْسِزِنْ قَلِبْ بَكْ	***Tawarsïzïn qalïp beg***
اَرَنْسِزِنْ اَمْكِيُورْ	***Eränsizin emgäyür.***

Ma’nosi: “Kimning moli ko‘paysa, u boshqalardan ko‘ra davlatni idora qilish ishiga loyiqroq bo‘ladi. Molsiz qolgan bek kishilarsiz qiynaladi, ularni qovishtira olmaydi. Chunki kishilar uning moli uchun xizmat qiladilar”.

جُبُرْ *čöpür* – “echkining yungi”. “Arzimagan mol va matolar”ga qo‘llanuvchi **جُبُرْ جَبُرْ *čöpür-čepür*** so‘zi ham shundan kelib chiqqan.

[**جُتُرْ *čotur***] **جُتُرْ كِشِى *čotur kiši*** – “yomon xulqli kishi”. (92a)

جَغِرْ *čaγïr* – “sharbat”.

جَغِرْ *čaγïr* – “ichkilik, may”. Bu so‘z ikki qarama-qarshi ma’no bildiruvchi so‘zlardandir.

جَغِرْ *čaγïr* – “tor va kichik yo‘l”.

جَقِرْ *čaqïr* – “ko‘kko‘z, chag‘irko‘z”. Maqolda (shunday kelgan): **اِتْ جَقِرِى اَتْقَا تَكِيرْ اَتْ جَقِرِى اِتْقَا تَكْمَاسْ *İt čaqïrï atqa tegir, at čaqïrï ïtqa tegmäs.*** Ma’nosi:

“Chag‘ir ko‘zli it otga tenglashadi, ammo chag‘ir ko‘zli ot itga tenglasha olmaydi”. Chunki bu xil otning ko‘zi xira bo‘ladi. Bu xil otdan chetlanmoqqa buyuradilar.

چِکِرْ *čikir-čikir* – mayda toshli non chaynalganda tishdan chiqadigan tovush.

سُغُرْ *suγur* – tog‘ sichqoni; kichik bir hayvon. Uning terisidan yomg‘ir yoping‘ichi qilinadi.

سِيِغْر *sïγïr* – shohlarning bir qancha kishilar bilan birgalikda qiladigan bir turli ovi. Shoh bir qancha kishini o‘rmon va dashtlardan o‘z tomoniga ov hayvonlarini haydab kelishga yuboradi. Ular hayvonlarni to‘plab kelgach, shoh qiyinchiliksiz, bemalol ovlayveradi.

سِيِغْر *sïγïr* – “sigir”; **سُوۏْ سِيِغِرِى *suw sïγïrï*** – “qo‘tos”.

قَتِرْ *qatïr* – “xachir”.

[**قَدِرْ *qadïr***] **قَدِرْ نَانَكْ *qadïr näŋ*** – “qiyin napca”; **قَدِرْ يِيرْ *qadïr yer*** – “tog‘larda qor va muz ko‘pligidan yurish qiyin bo‘lgan yerlar”.

[**قَدِرْ *qadïr***] **قَدِرْ قِشْ *qadïr qïš*** – “qattiq qish, qahraton qish”.

قَدِرْ *qadïr* – “qudratli va kuchli shoh”. Xoqoniyaliklar xonini (قَدِرْ خَانْ يلقّب الخاقانيّه) ***qadïrxan*** deyish ham shundandir. So‘zning bu ma’nosida arabchaga o‘xshashlik bor: chunki قادِر *qādir* arab tilida “kuchli, har ishni qila oluvchi” demakdir.

قِسِرْ *qïsïr* – tug‘maydigan xotinlarga va hayvonlarga qo‘llanuvchi so‘z. “Qaysar baytal” ma’nosidagi **قِسِرْ قِسْرَاقْ *qïsïr qïsraq*** iborasi shundandir.

كَلَرْ *kelär* – “kaltakesak”.

ز *z* [harfi]:

بُغُزْ *boγuz* – “bo‘g‘iz, halqum”.

تَبِزْ *tebiz* – “tuzli, sho‘rxok yer”.

[**تَبِزْ *tebiz***] **تَبِزْ كِشِى *tebiz kiši*** – “hasadli kishi”.

[**تُبُزْ *topuz***] **تُبُزْ يُكْ *topuz yük*** – “ustiga minib bo‘lmaydigan darajada qo‘pol qilib yuk ortilgan hayvon”.

[**تِتِزْ *titiz***] **تِتِزْ نَانَكْ *titiz näŋ*** – “mazasi xalilaniki kabi taxir bo‘lgan narsa”.

[**تُكُزْ *töküz***] **تُكُزْ اَتْ *töküz at*** – “peshanasida tangadek oqi bo‘lgan ot; qashqa ot”.

سَغِزْ *sayïz* – “saqich”.

[**سَغِزْ *sayïz***] **سَغِزْ تُبْرَاقْ *sayïz tupraq*** – “toza tuproq; sog‘ tuproq”.

سَقِزْ *saqïz* – kiyimga yopishgan shira va shu kabi narsa.

سَكِيزْ *sekiz* – سَكّيزْ *sekkiz* ning yengili, qisqargani. (92b)

سَمِزْ *semiz* – “semiz, har qanday hayvonning semizi”. Bu so‘zda arabchaga o‘xshashlik bor. Faqat ular *nūn* harfi o‘rniga *zā* almashtirganlar. Bu ularning tilida bo‘lishi mumkin hodisadir. Chunonchi, tinglovchini bildiruvchi olmosh o‘rnida **سَنْ *sen*** ham, **سِزْ *siz*** ham qo‘llaydilar (Bunda *za* harfi *nūn* ga almashtirilgan).

قُبُزْ ***qobuz*** – “(udga o‘xshash) chalinadigan cholg‘u, qo‘buz”.

قُتُزْ ***qotuz*** – “yovvoyi sigir, qo‘tos”.

[قُتُزْ ***qutuz***] قُتُزْ اِتْ ***qutuz ït*** – “qutirgan it”.

قَذَزْ ***qaδïz*** – “daraxt po‘stlari”.

قُذُزْ ***quδuz*** – “juvon, xotin”.

قِمِزْ ***qïmïz*** – “qimiz”; bu yilqi suti bo‘lib, uni sanach-meshlarga solib achitib ichiladi.

[قِمِزْ ***qïmïz***] قِمِزْ اَلْمِلَا ***qïmïz almïla*** – “qimizak olma; qimizga o‘xshash nordon olma”.

كُكُزْ ***köküz*** – “ko‘krak, ko‘ks”.

كِذِزْ ***kiδiz*** – “kigiz, namat”.

كِقِزْ ***kiwiz*** – uyga, yerga solinadigan keng va enli palos.

كُقُزْ ***küwiž*** – (ikki maxraj orasidagi ز *zā* bilan). Ko‘p yashagan, qarigan tol va boshqa daraxtlarning oralig‘i, o‘zagi.

[كُقُزْ ***küwiž***] كُقُزْ تُرْمَا ***küwiž turma*** – “buzilib, ta’mi ketgan turp, po‘k turp va boshqalar”.

س ***s*** [harfi]:

تَرُسْ ***tarus*** – “uy shipi”.

تَلَسْ ***talas*** – ot poygasida va chovgan o‘yinida maydon qirg‘og‘iga tortiladigan arqon.

تَلَسْ ***Talas*** – طِرَازْ *Ṭirāz* oti bilan mashhur bo‘lgan shahar. U ikkita: biri “ulug‘” ma’nosidagi اُلُغْ تَلَاسْ ***Uluγ Talas,*** ikkinchisi musulmonlar hududidagi كَمِى تَلَاسْ ***Kemi Talas*** dir.

تُلَسْ يُوزْ ***tolas yüz*** – “rangpar, yoqimsiz yuz”.

س ***š*** [harfi]:

بِچِشْ ***bičïš*** – “yirtish”; ulug‘larning ziyofatiga kelganlarga taqdim qilinuvchi shoyi gazlama.

بُرِشْ ***burïš*** – “teri va kiyimlardagi burishganlik”.

بَغِشْ ***bayïš*** – “barmoq va boshqa a’zolar bo‘g‘ini”. Qamish va shunga o‘xshash narsalarning bo‘g‘iniga ham bu so‘z qo‘llanadi.

بَقِشْ ***baqïš*** – “boqish; ko‘z bilan qaramoq”.

بِلِشْ ***biliš*** – “tanish, bilish”. Bu yerda masdar emas, harakat nomidir.

بُلُشْ ***buluš*** – “qilgan ishida foyda topish”.

بُلُشْ ***buluš*** – “so‘z bilan yordam qilish”; اُلْ مَنكَا بُلُشْ قِلْدِى ***ol meŋä buluš qïldï*** – “u menga so‘z bilan yordam qildi”.

تَبِشْ ***tapïš*** – “ikki kishi va boshqalar o‘rtasida vakillik”.

تُتُشْ ***tutuš*** – “olishish, tortishish”. Bu so‘z avvalgi so‘zdan talaffuzda yo‘g‘onroqdir.

تُتُشْ ***Tutuš*** – kishi oti.

تَقُشْ ***tawuš*** – “tuyush, sezgi va harorat”. (93a)

تُقُشْ ***toquš*** – “jang”. (Shoir) shunday degan:

تُقِشْ اِجْرَا اُرُشْتِمْ *Toqïš ičrä uruštïm,*
اُلُغْ بِرْلا قَرِشْتِمْ *Uluγ birlä qarïštïm,*
تَكُزْ اَتِنْ يَرِشْتِمْ *Töküz atïn yarïštïm,*
اَيْدِمْ اَمْدِى اَلْ اُتَارْ *Aydïm emdi, al, Ötär.*

Aytmoqdaki: “Jangda ulug‘ qo‘shin bilan qashqa otda urushdim. Unga o‘q otib: “Endi buni ol, O‘tar” dedim”. Bu [ya’ni, O‘tar] bir kishining otidir.

تُقِشْ ***Toqïš*** – kishi oti.

تَكِشْ ***tegiš*** – “bir-biriga luqma berish, bir kimsaning ikkinchisiga luqma berishi”.

تَكِشْ ***tägiš*** – “har narsaning oxiri, tagi”.

تَكِشْ ***Tekiš*** – erlar oti.

جَبِشْ ***čebiš*** – “olti oylik echki bolasi”.

جَفُشْ ***čawuš*** – jangda saflarni tuzatuvchi, dam olish vaqtida qo‘shinni zulm qilishdan saqlovchi boshliq.

جِقِشْ ***čïqïš*** – “foyda, manfaat”; **اُلْ اِيشْتَا جِقِشْ يُوقْ** ***ol ïšta čïqïš yoq*** – “bu ishda foyda yo‘q”.

جَلِشْ ***čalïš*** – “kurash qilmoq, kurashish”.

سُرُشْ ***soruš*** – doni qotmasidan burun olib, qovirib, yanchib yeyiladigan bug‘doy oti.

سِقِشْ ***siqïš*** – “qiyinchilik; siqiq”.

سُكُشْ ***söküš*** – “so‘kish; so‘kinish”.

سُكُشْ ***sügüš*** – (بالكاف الركيكه – jarangli *kāf,* ya’ni [*g*] bilan) buzoq va qo‘zilarning qovurdoqqa mos go‘shti (o‘g‘uzcha).

سِكِشْ ***sikiš*** – “jinsiy aloqa”.

قَبِشْ ***qabïš*** – “talon-taroj qilish”.

قَبُشْ ***Qabuš*** – arg‘ularda bir joy oti.

قَجِشْ ***qačïš*** – “xalq orasida qochish, quvish, shov-shuv, tinchsizlik”. Maqolda (shunday kelgan): **قَجِشْ بُلْسَا قِيَا كُرْمَاسْ** ***Qačïš bolsa, qïya körmäs.*** Ma’nosi: “Xalqda shov-shuv qo‘zg‘alsa, hech kim bir-biriga boqmaydi”.

قُجُشْ ***qučuš*** – “quchoqlashish”.

قَدَشْ ***qaδaš*** – “yaqin birodar”.

قَدِشْ ***qaδïš*** – hayvon terisidan qirqib ishlangan qayish kamar.

قَرِشْ ***qarïš*** – “qarich”; **بِرْ قَرِشْ** ***bir qarïš*** – “bir qarich”.

قُغُشْ ***qoγuš*** – oshlangan va oshlanmagan hayvon terilari.

قُغُشْ ***qoγuš*** – “suv yo‘li, tarnov”.

قُغُشْ ***qoγuš:*** **تَكرْمَانْ قُغُشِى** ***tegirmän qoγušï*** – “tegirmon novi”.

قُغُشْ ***quγuš*** – o‘q yasovchilarning o‘q o‘rnatadigan yog‘ochi.

قَمِشْ ***qamïš*** – “qamish”. (93b)

كَجِشْ ***kečiš*** – “daryo va suvlar ko‘prigi”. Maqolda (shunday kelgan): **اُلْ كَجِشْنِى سُوقْ اَلتّى** ***Ol kečišni suw eltti.*** Ya’ni: “U ko‘prikni suv [ya’ni sel] olib ketdi”. Bu

maqol “bo‘lar ish bo‘lgandan keyin uni topish (to‘g‘rilash) mumkin emas” degan ma’noda qo‘llanadi.

كَرِشْ ***keriš*** – yuqorisiga chiqish mumkin bo‘lgan har bir tog‘ning boshi (o‘g‘uz tilida).

كَرِشْ ***keriš*** – “otning yelkasi, yag‘rini”. Maqolda (shunday kelgan): كَرِشْ يَغْرِي أُغْلْقَا قَلِيرْ ***Keriš yayïrï oyulqa qalïr.*** Ma’nosi: “Ot kiftining yag‘iri o‘g‘liga meros qoladi, chunki kift bo‘g‘inlar to‘planadigan joy bo‘lib, u yerdagi yag‘ir tezda tuzalmaydi”. Bu bilan (unday) yag‘irdan saqlanishga buyuriladi.

كَرِشْ ***keriš*** – urush va talashuvda qarama-qarshi turish.

كُرُشْ ***körüš*** – “so‘z bilan emas, ko‘z bilan munozara qilish, ko‘rish”.

كِرِشْ ***kiriš*** – “kirish”; kishining o‘z mulkidan kelgan kirim.

كَرِشْ ***keriš*** – “olishish, talashish”; نَالُكْ كَرِشْتِنِكْ ***nelüg kerištiŋ?*** – “nima uchun talashding, tortishding?”.

كَلِشْ بَرِشْ ***keliš-barïš*** – “borish-kelish”. Mehmon arimaydigan uyga كَلِشْ لِكْ بَرِشْ لِغْ اَفْ ***kelišlig-barïšlïγ ew*** (“borish-kelishli uy”) deydilar.

كُمُشْ ***kümüš*** – “kumush”. (Shoir) shunday degan:

اَلبْ اَرَنْ نِي اُذْرْدُمْ	***Alp eränni öδürdüm,***
بُيْنِنْ اَنِكْ قَذْرْدِمْ	***Boynïn anïŋ qaδïrdïm.***
اَلْتُنْ كُمُشْ يُذْرْدُمْ	***Altun, kümüš yüδürdüm,***
سُوسِى قَلِنْ كِيمْ اُتَارْ	***Süsi qalïn, kim ötär?***

Jangni ta’riflab aytmoqda: “Yov askarlarini to‘zitib yubordim, ularning bo‘ynini qayirdim. Hazinadagi oltin-kumushini tortib oldim, qo‘shini qalin edi, uni kim yorib o‘tadi?”.

كُمُشْ ***kümüš*** – “tanga”; chunki unda kumush bor.

كُمُشْ ***Kümüš*** – joriya ismlaridan.

غ ***γ*** [harfi]:

بَتَغْ ***batïγ*** – daryo va boshqalarning chuqur yeri.

بَجِغْ ***bačïγ*** – “va’da, ahd”; اُلْ مَنِك بِرْلَا بَجِغْ قِيلْدِى ***ol meniŋ birlä bačïγ qïldï*** – “u mening bilan va’dalashdi”.

[بَرِغ ***barïγ***] اُلْ بَرِغ بَرْدِى ***ol barïγ bardï*** – “u ketaverdi; hech narsaga qaramay, to‘ppa-to‘g‘ri ketaverdi”.

بَرِغ / بِرِغ ***barïγ / bïrïγ*** – “badbo‘y; sassiq narsa”. Bu so‘z juft shaklda / سَسِغْ بَرِغ بِرِغ ***sasïγ-barïγ / bïrïγ*** deb ishlatiladi.

بَسِغْ ***basïγ*** – kechasi hujum qilinadigan, bosiladigan pastqam joy va g‘aflatda qoldirib, to‘satdan ushlash; (94a) اُلْ اَنِى بَسِغِيْنْدَا تُتّى ***ol anï basïγïnda tuttï*** – “u uni kechasi pastqam yerda ushladi”.

بُسُغْ ***pusuγ*** – “pistirma”.

بُشُغْ ***bošuγ*** – sulton tomonidan o‘ziga yuborilgan elchining qaytib ketishga berilgan ijozat qog‘ozi. Elchilarga berilgan tuhfaga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu

سُفرَه *sufra* (sufra) so‘ziga o‘xshaydi. “Sufra”ning asl ma’nosi “musofir uchun tortilgan taom” bo‘lsa-da, keyinchalik u taom yoziladigan, teridan qilingan dasturxonga ham qo‘llangan.

Shuningdek, bir qarindosh o‘z qarindoshi qoshiga uzoqdan kelib, qaytish chog‘ida qarindosh, yaqinlarini chaqirib, berilgan tortiqlarga ham shu so‘z qo‘llanadi. Ularga tayyorlangan ovqatga ham بُشُغْ اَشِی ***bošuγ ašï*** deb aytiladi. Bu “ruxsat oshi” demakdir.

[بِشِغْ ***pïšïγ***] بِشِغْ اَشْ ***pïšïγ aš*** – “pishgan osh”. Bu so‘z har bir pishgan narsaga ham qo‘llanadi: بِشِغْ كَرْبِچْ ***pïšïγ kerpič*** – “pishiq kirpich, pishiq g‘isht”; بِشِغْ سُجُوكْ ***pïšïγ süčüg*** – “qaynatilgan sharob”.

بَقِغْ ***baqïγ*** – “boqish, ko‘rish, qarash”; اَنِكْ بَقِغِی كُرْ ***anïŋ baqïγï kör*** – “uning boqishini, qarashini ko‘r”.

Mening maqsadim, bu kitobda bu xil masdarlarni bermaslik, faqat ko‘p qo‘llanuvchi (shakl)larni berishdir.

[بُشُغْ ***pušuγ***] بُشُغْ بُشْدِی ***pušuγ pušdï*** – “xafa bo‘ldi, ko‘ngli siqildi, ichi pishdi”.

تَبُغْ ***tapuγ*** – “xizmat”.

تَبُغْ ***tapuγ*** – “toat-ibodat”; masalan: تَنكرِی تَبُغِی ***Täŋri tapuγï*** – “Alloh (ulug‘ va qudratlidir)ga ibodat”.

تُتُغْ ***tutuγ*** – “garov”.

تُتُغْ ***tutuγ*** – jindan bo‘lgan kasallik [ya’ni, tutqanoq]; اَنِكْ تُتُغِی بَارْ ***anïŋ tutuγï bar*** – “uning jin kasali [ya’ni, tutqanog‘i] bor”.

تِدِغْ ***tïδïγ*** – “bir narsadan tiyish, man qilish, qaytarish”.

تَرِغْ ***tarïγ*** – “dona, urug‘”. Bu so‘z don ekinlarining hammasiga umumiy ravishda qo‘llanuvchi otdir.

تَرِغْ ***tarïγ*** – ko‘pchilik turk qabilalarida “bug‘doy”, faqat o‘g‘uzlar “tariq” ma’nosida qo‘llaydi. Bu – xato. (Chunki) ular “bug‘doy”ni اَشْلِقْ ***ašlïq*** deydilar.

تُرُغْ / تُرِغْ ***turuγ*** / ***turïγ*** – “tog‘lardagi qal’a; turar joy”.

تُرُغْ ***toruγ*** – bir turli otlarga qo‘llanuvchi so‘z; بُو اُغلَانِغْ بِيرْ تُرُغْقَا اَلْدِمْ ***bu oγlanïγ bir toruγqa aldïm*** – “bu o‘g‘lonni [ya’ni qul bolani] bir to‘riq otga almashdim”. Bu so‘z goho istiora yo‘sinida tuya va sigirga ham qo‘llanadi.

[تُرُغْ / تُرِغْ ***torïγ*** / ***toruγ***] تُرُغْ اَتْ / تُرِغْ ***torïγ*** / ***toruγ at*** – “to‘riq ot”.

[تُرِغْ ***torïγ***] تُرِغْ اَرتْ تِيزْ ***Torïγ art tïz*** – كَاشْغَارْ *Kāšγar* bog‘chasining oti.

جَقِغْ ***čawïγ*** – “qamchining uchi”. (94b)

سَبِغْ ***sabïγ*** – chodirning goh ochib, goh yopib qo‘yiladigan etak qismi.

سَتَغْ ***satïγ*** – “oldi-sotdi, savdo-sotiq”.

سِدِغْ ***sïδïγ*** – ko‘ylak etagining ikki yonidan yoqasigacha bo‘lgan qismi; سِدِغْ يَيِيبْ اُلْتُرْدِی ***sïδïγ yapïp olturdï*** – “ko‘ylakning ikki yonini o‘ziga o‘rab, to‘plab o‘tirdi”. Bu holat noziklik va ozodalikdan bo‘ladi.

سِدِغْ ***sïδïγ*** – tishlar oralig‘i, tish milklari oralig‘i. Biron kimsaga sir saqlashni tayinlaganda بُو سُزْنِی سِدِغْدِنْ سِزِتْمَا ***bu sözni sïδïγdïn sïzïtma*** (“bu sirni tishlaring orasidan chiqarma”) deyiladi.

سَرِغْ *sarïγ* – “sariq”. O‘ta ketgan sariqqa **سَبْ سَرِغْ *sap sarïq***; “sariq o‘t”, ya’ni “safro”ga **سَرِغْ *sarïγ*** deyiladi.

[**سَرِغْ *sarïγ***] **سَرِغْ سُوقْ *sarïγ suw*** – “qorinda yig‘ilib qolgan sariq suv”. Har bir sariq rangga ham juft qilib, **سَرِغْ سُرِغْ *sarïγ-surïγ*** deyiladi.

سُرُغْ *soruγ* – “yo‘qolgan narsani qidirish, izlash”; **سُرُغْ قِيلْدِى *soruγ qïldï*** – “yo‘qolgan narsani axtarib so‘roqladi”.

جَلِغْ *čalïγ* – bu ham “yo‘qolgan narsani axtarmoq” ma’nosidadir. Bu so‘z beklar muhim bir ish qilmoqchi bo‘lganlarida qishloq ahli va ko‘chmanchilarga bu haqda hozirlanmoqlari uchun xabar berishlariga ham qo‘llanadi.

قَبُغْ *qapuγ* – “eshik”.

قَتِغْ *qatïγ* – “har narsaning qattig‘i”.

قَدِغْ *qaδïγ* – “qaviq; ikki qavat qilib tikuv”.

قُدُغْ *quδuγ* – “quduq”. Maqolda (shunday kelgan): **قُدُغْدَا سُوقْ بَارْ اِتْ بُرْنِى تَكْمَاسْ *Quδuγda suw bar, ït burnï tegmäs.*** Ma’nosi: “Quduqda suv bor, ammo unga itning burni yetmaydi”. Bu maqol bir ishni istab, unga erisha olmaydigan yoki birov qo‘lida bo‘lgan taomni ko‘rib suqlanuvchi, lekin yetisha olmaydiganlarga qo‘llanadi.

قِدِغْ *qïδïγ* – “dengiz, ariq, vodiy qirg‘og‘i”; har bir narsaning chetiga ham shunday deyiladi: **اَرِقْ قِدِغِى *arïq qïδïγï*** – “suvning qirg‘og‘i ”; **اَيَقْ قِدِغِى *ayaq qïδïγï*** – “idish (kosa) labi”; **يَارْ قِدِغِى *yar qïδïγï*** – “jar labi”.

[**قُرُغْ *quruγ***] **قُرُغْ اَقْ *quruγ ew*** – “kishilardan, shuningdek, narsalardan xoli uy, bo‘sh uy”; **قُرُغْ اُلْمَا *quruγ ulma*** – “quruq ko‘zacha”. Ichidagi narsasidan bo‘shatilgan har bir idishga ham **قُرُغْ *quruγ*** deyiladi.

قُرُغْ *quruγ* – “har narsaning qurug‘i”. (95a) Avvalgi ma’no shundan kelib chiqqan.

قُرِغْ *qorïγ* – “bek va boshqalarning mol boqadigan yaylovi”. Qurshalgan har bir narsaga ham **قُرِغْ *qorïγ*** deyiladi.

قَسِغْ *qasïγ* – “og‘izning ichki o‘ng va chap tomoni”.

قِسِغْ *qïsïγ* – “qamoq; siqig‘, qisig‘”. **اُلْ بَكْ قِسِغِنْدَا قَلْدِى *ol beg qïsïγïnda qaldï*** – “u (bir ish uchun) bekning tazyiqida qoldi”.

قُسِغْ *qusïγ* – “qusuq, qayt”; **اَنِى قُسِغْ تُتّى *anï qusïγ tuttï*** – “uni qusuq tutdi, u qayt qildi”.

قُشُغْ *qošuγ* – “she’r, qo‘shiq, qasida” (*še’r, rajaz, qaṣāyid*).

(Shoir) shunday degan:

تَرْكَنْ قَتُنْ قُتِينكَا *Tärkän qatun qutïŋa*
تَكُرْ مِنْدِنْ قُشُغْ *Tegür mendin qošuγ.*
اَيْغِلْ سِزِنكْ تَبُغْجِى *Ayγïl: Siziŋ tapuγčï*
اُتْنُرْ يَنكِى تَبُغْ *Ötnür yaŋï tapuγ.*

Aytmoqdaki: “Hukmdor xotun sha’niga mendan maqtov, qasida (qo‘shiq) yetkur va “xizmatchingiz yangi xizmat bilan yo‘llanadi”, deb ayt”.

قَقِغْ ***qaqïγ*** – “siqig‘, zo‘rlash”. **مَنْ اَنِکْ قَقِغْنْدَا بُو اِیش قِلْدِمْ** ***men anïŋ qaqïγïnda bu iš qïldïm*** – “men uning siqig‘ida bu ishni qildim”.

قَمُغْ ***qamuγ*** – “hamma”. **قَمُغْ کِشِی تُوزْ اَرْمَاسْ** ***Qamuγ kiši tüz ermäs.*** – “Hamma kishi baravar, bir xil emas”.

قَنِغْ ***qanïγ*** – “rohatlanish, shodlanish, qoniqish”.

(Shoir) shunday degan:

تُتْچِی یَغَرْ بُلِیتِی ***Tutčï yaγar bulïtï,***
اَلْتُنْ تَمَرْ اَرِغْ ***Altun tamar arïγ.***
اَقْسَا اَنِنکْ اَقِینِی ***Aqsa anïŋ aqïnï,***
قَنْدِی مَنِکْ قَنِغْ ***Qandï menïŋ qanïγ.***

Malikaning ehsonlarini maqtab aytmoqda: “Uning ehson bulutlaridan to‘xtovsiz sof oltin yog‘iladi. Agar uning seli menga oqsa, quvonchim toshar, orzularim qonar edi”.

ق ***q*** [harfi]:

بُتِقْ ***butïq*** – “har narsaning butoq va tarmog‘i”.

بُتِقْ ***putïq*** – “kichik mesh” (koshg‘archa).

بُتِقْ ***butïq*** – “otning oyoq terisi shilib olinib qilingan mesh”. Unda qimiz va boshqalar saqlanadi.

بُتَقْ / بُتِقْ ***butaq / butïq*** – “butoq”; bir shevada. Bu so‘zdagi *tā* harfining *fatḥa* li o‘qiladigan turi bo‘lganidek, *kasra* li o‘qiladigan turi ham bor [ya’ni بُتِقْ *butïq* va بُتَقْ *butaq* tarzidagi talaffuzlari].

(Shoir) shunday degan:

کِمْ اَیبْ اِشْتُرْ قُلاقْ ***Kim ayïp, eštür qulaq:***
اَیْ اَقِی اَرْتُجْ بُتَاقْ ***Ay ewi artuč butaq?***

Aytmoqdaki: “Oyning uyi hamda turar yeri sanubarning butog‘idir, (95b) deb kim aytgan va (bunday chiroyli sifatni) qaysi quloq eshitgan?”. Bu yerda joriya ta’riflanib, uning yuzini oyga, bo‘yini sanubar butog‘iga o‘xshatmoqda.

بُجُقْ ***pučuq*** – “kesilgan, shikastlangan, pachoq narsa”. Har narsaning yarmiga ham **بُجُقْ** ***pučuq*** deyiladi. **بُجُقْ یَرْمَاقْ** ***pučuq yarmaq*** – “yarim tanga”.

بِدِقْ ***bïδïq*** – “mo‘ylab, miyiq”.

بَرَقْ ***baraq*** – “baroq, serjun it”. Turkiy xalqlar e’tiqodiga ko‘ra, burgut qariganda ikkita tuxum qo‘yib, ularni bosar emish. Tuxumlarning biridan o‘sha **بَرَقْ** ***baraq*** otli kuchuk paydo bo‘lar emish. Itlarning eng tez yuradigani va ovni qattiq qo‘riqlaydigani ham ana shu itdir. Ikkinchi tuxumidan jo‘jasi chiqar emish. Bu uning jo‘jalarining oxirgisi bo‘lar emish.

یُرِقْ ***yorïq*** – “siyrat, ichki ahvol, kishilar bilan muomala”; **بَکْ یُرِقِی نَتَکْ** ***beg yorïqï netäg?*** – “bekning siyrati, fe’l-atvori qanday?”.

بِرُقْ ***bïruq*** – shoh yonida kattalarni (martabasiga ko‘ra) o‘z joyiga o‘tqazuvchi kishi. Bu so‘zning asli **بُيْرُقْ** ***buyruq,*** chunki u shunga buyuradi.

[**بُزُقْ** ***buzuq***] **بُزُقْ اَفْ** ***buzuq ew*** – “buzuq uy”. Singan, buzilgan har narsaga ham **بُزُقْ** ***buzuq*** deyiladi.

بَشَقْ ***bašaq*** – o‘q va nayza uchidagi temir.

بَشَقْ ***bašaq*** – “to‘puq” (chigilcha). O‘g‘uz va qipchoqlar *mīm* orttirib, **بَشْمَقْ** ***bašmaq*** deydilar. Bu xilda harf orttirish arab tilida ham bor. Chunonchi, درع so‘zidan yasalgan تدرعت so‘zi تمدرعت tarzida yoki سكون so‘zidan yasalgan تسكن so‘zi تمسكن tarzida qo‘llanishi singari.

[**بُشَقْ** ***bušaq***] **بُشَقْ اَرْ** ***bušaq er*** – “tajang, tashvishli kishi”. O‘g‘uz va boshqalar so‘zi.

[**بِشِقْ** ***pïšïq***] **بِشِقْ اَتْ** ***pïšïq et*** – “pishgan go‘sht”. Yag‘molar **بَشِقْ** ***pašïq*** deydilar.

بَلِقْ ***balïq*** – “baliq”. Maqolda (shunday kelgan): **بَلِقْ سُقْدَا كُوزِى تَشْتِنْ** ***Balïq suwda, közi taštïn.***

Ma’nosi: “Baliqning o‘zi suvda, ko‘zi tashda”. Bu maqol narsaning ichida turib, tushunolmay qoluvchilarga qarata qo‘llanadi.

بَلِقْ ***balïq*** – “loy”; arg‘u va ba’zi o‘g‘uzlar so‘zi. Ba’zi arg‘ular uch undoshni yonma-yon qo‘yib, **بَالِقْ** ***balïq*** deydilar. Holbuki, turkchada ikki undoshninggina qator kelishi mumkin. Arg‘ulilar tilida buzuqlik, zaiflik bor.

بَلِقْ ***balïq*** – johiliya davridagi turklar va uyg‘urlar tilida “shahar”. Uyg‘urlarning eng katta shaharlariga **بِيشْ بَلِقْ** ***Bešbalïq*** deyilishi shundandir. **بِيشْ بَلِقْ** ***Bešbalïq*** – “besh shahar” demakdir. (96a) Uyg‘urlar boshqa bir shaharlariga **يَنكِى بَلِقْ** ***Yaŋïbalïq*** (“yangi shahar”) deydilar.

[**بُلَقْ** ***bulaq***] **بُلَقْ اَتْ** ***bulaq at*** – “bo‘yi qisqa, usti keng ot”.

بُلَقْ ***bulaq*** – bir turk qabilasi. Ularni qipchoqlar asir qilgan edilar. So‘ngra ulug‘ va qudratli Xudo (ularni) qutqazdi va ular **اَلْكَا بُلَاقْ** ***älkä bulaq*** deb ataladigan bo‘ldilar. Bu so‘zni **بُلَقْ** / **بُلَاقْ** tarzida yozish mumkin.

بَمُقْ ***pamuq*** – “momiq, paxta” (o‘g‘uzcha).

تُبِقْ ***topïq*** – “chovgan bilan uriladigan koptok, to‘p”.

[**تُبِقْ** ***topïq***] **تُبِقْ سُنكُوكْ** ***topïq sönük*** – “to‘piq so‘ngaklaridan qilinadigan ovqat”.

تُتُقْ ***tutuq*** – “bichilgan va erligi yo‘qotilgan”.

تُرُقْ ***turuq*** – “har narsaning orig‘i”.

[**تُرُقْ** ***turuq***] **اَرُقْ تُرُقْ** ***Aruq-turuq*** – فَرْغَانَه *Faryāna* bilan كَاشْغَارْ *Kāšγar* orasidagi qiyin, baland yo‘l, dovon.

تُزَقْ ***tuzaq*** – “ov arqoni, tuzoq”.

(Shoir) shunday degan:

اِگْلَدِى مَانِك اَذَاقْ	***İglädi meniŋ aδaq,***
كُرْمَدِبْ اُغْرِى تُزَاقْ	***Körmäδip oγrï tuzaq.***
اِگْلَدِمْ اَنْدِنْ اُزَاقْ	***İglädim andïn uzaq,***
اَمْلَكِلْ اَمْدِى تُزَاقْ	***Emlägil emdi, tuzaq.***

Aytmoqdaki: “Yashirin tuzoqni ko‘rmay, mening oyog‘im ilindi. Uzoq vaqt qiynaldim, ey seviklim [ya’ni تُزَاقْ *tuzaq*], endi o‘zing davola”.

تُزَقْ *tuzaq* – kishi o‘z seviklisiga suyib aytadigan so‘zi. Bu so‘zning *yā* (*ï*) bilan **تُزَقِى *tuzaqï*** tarzidagi talaffuzi ham bor.

تَشَقْ *tašaq* – “erlar moyagi, tashog‘i”. Bir-biriga yaqin turish munosabati bilan “erlik olati(zakar)”ga ham **تَشَقْ *tašaq*** deyiladi.

تُتُقْ *Tutuq* – erkaklar oti.

تَنُقْ *tanuq* – “guvoh”.

جَبَقْ *čabaq* – turk ko‘lida bo‘ladigan bir xil kichik baliqning oti. “Past kishilar”ga **جَبَقْ اَرْ *čabaq er*** deyilishi ham shunga o‘xshatishdandir.

جِبِقْ *čïbïq* – “chiviq, ho‘l novda”.

جُجُقْ *čočuq* – “har narsaning bolasi; cho‘chqaning bolasi”.

جَرُقْ *čaruq* – “choriq”. Maqolda (shunday kelgan): **يَذاغ اَتِى جَرُقْ كُوجِى اَزُقْ *Yaδay atï – čaruq, küči – azuq.*** Ma’nosi: “Yayov(ning) oti – choriq, kuchi – oziq”. Ya’ni, “yayov kishining oti – uning chorig‘i, kuch-quvvati – ovqatidir”. Bu maqol yo‘lda oyoq chaqalanib va kishining o‘zi zaiflashib qolmasligi uchun yuqoridagi ikki narsa kerakligi to‘g‘risida aytilgan.

جَرُقْ *čaruq* – اَفرَاسيَابْ *Afrāsiyāb* shahrida turuvchi بَرْجُقْ *Barčuq* otli bir toifa turklar oti. بتزنْ ابن بخْت نصرْ *Batzan ibn-Baxtu Naṣṣar* ni اَفرَسيَابْ *Afrāsiyāb* shu shaharga qamagan edi.

جُلُقْ *čoluq* – “qo‘li kesilgan cho‘loq, cho‘ltoq”.

جُلِقْ *čulïq* – musicha kattaligida bo‘lib, suvda yashaydigan olaqush.

جُمَقْ *čumaq* – “aso, hassa”.

جُمَقْ *čumaq* – uyg‘urlar va musulmon bo‘lmagan hamma xalq musulmonlarni **جُمَقْ اَرِي *čumaq eri*** der edilar, “musulmonlardan biri” demakdir. (96b)

جَنَقْ *čanaq* – yog‘ochdan o‘yib ishlangan tuzluq va shu kabi idishlar.

جَنَقْ *čanaq* – “kosa” (o‘g‘uzcha).

[**سَجُوقْ *sačuq***] **سَجُوقْ نَانكْ *sačuq näŋ*** – “sochiq narsa”.

سُدُقْ *suδuq* – “tupuk”.

سُرُقْ / سِرُقْ *süruq* / *suruq* – “chodirning ustuni”.

سِسِپقْ *sasïq* – “sopol”; اُجْ *uč* qabilasi va ularning yuqorilarida turuvchilar so‘zidir.

سُسُپقْ *susïq* – “ko‘za”. Bu so‘zni faqat bir qabiladagina eshitdim.

قَبَقْ *qabaq* – “qovoq”; **كُوزْ قَبَقِى *köz qabaqï*** – “ko‘z qovog‘i”.

قَبَقْ *qabaq* – ho‘lligicha yeyiladigan qovoq.

قَبَقْ *qabaq* – “qizning qizligi”; **قِيزْ قَبَقِى سِيدِى *qïz qabaqï sïdï*** – “qizning qizligi olindi”.

قَتِقْ *qatïq* – sirka va qatiq singari tutmoch ovqatiga qo‘shiladigan dorivor.

قَتِقْ *qatïq* – “qotishtirish, aralashtirish”.

[**قُجَقْ *qučaq***] **بِيرْ قُجَقْ بُوزْ *bir qučaq böz*** – “bir quchoq bo‘z; bir bog‘lam bo‘z”.

قَذِقْ ***qaδïq*** – “yog‘och idish” (arg‘ucha).

قَرَقْ ***qaraq*** – “ko‘z soqqasi”; **قَرَا قَرَقْ** ***qara qaraq*** – “ko‘zning qorasi”; **اُرُنكْ قَرَقْ** ***örüŋ qaraq*** – “ko‘z oqi”; **اُوتْ قَرَقْ** ***ot qaraq*** – “ko‘z qorachig‘i”.

[**قِرُقْ** ***qïruq***] **قِرُقْ اَرْ** ***qïruq er*** – “qo‘li qurib qolgan” yoki “qo‘li shol kishi”; **قِرُقْ اَدَقْ** ***qïruq aδaq*** – “oyog‘i yaroqsiz”.

[**قَزُقْ** ***qazuq***] **قَزُقْ اَرِقْ** ***qazuq arïq*** – “qazilgan ariq va boshqalar”.

قَسُقْ ***qasuq*** – ot terisidan qilingan, sonochga o‘xshash, sut va qimiz solinadigan narsa.

قَسُقْ ***qasuq*** – har qanday daraxt po‘stlog‘i. Bu so‘zning asli **قَاسْ** ***qas*** dir, *qāf* keyin qo‘shilgan.

قَسِقْ ***qosïq*** – “chilg‘uza”. Joriyalarni ham shu so‘z bilan ataydilar.

قَشَقْ ***qašaq*** – (qog‘oz yasaladigan) bir turli qamish.

قَشُقْ ***qašuq*** – “qoshiq”. Maqolda (shunday kelgan): **قُرُقْ قَشُقْ اَغِزْقَا يَرَمَاسْ قُرُغْ سُوزْ قُلَاقَا يَقِشْمَاسْ** ***Quruq qašuq ayïzqa yaramas, quruγ söz qulaqqa yaqïšmas.*** Ma’nosi: “Quruq qoshiq og‘izga yoqmas, quruq so‘z quloqqa yoqmas”. Bu maqol “birovdan yordam so‘rash uchun, unga ham biron foyda ko‘rsatish kerak” degan ma’noda qo‘llanadi.

[**قَقْوَقْ** ***qawaq***] **قَقْوَقْ اَرتْ** ***Qawaq art*** – اُوزْجَندْ *Özjänd* bilan كَاشْغَرْ *Kāšγar* o‘rtasidagi borish qiyin bo‘lgan bir joy.

[**قُقْوُقْ** ***quwuq***] **قُقْوُقْ نَاتكْ** ***quwuq näŋ*** – “kovak narsa”.

قَقْوُقْ ***qawuq*** – “qoviq, siydik qopi”.

قَقِوِقْ ***qawïq*** – tariq va shunga o‘xshash donlarni elaganda chiqadigan narsa, kepak.

قَلِقْ ***qalïq*** – “havo”.

قُلَقْ ***qulaq*** – “quloq”. Ba’zilar **قُلْخَاقْ** ***qulxaq*** va ba’zilar **قُلْقَاقْ** ***qulqaq*** deydilar. Oldingisi to‘g‘ri.

[**قُلَقْ** ***qulaq***] **قُلَقْ تُونْ** ***qulaq ton*** – “ikki yengi qisqa to‘n”. (97a)

قِلِقْ ***qïlïq*** – “qiliq, xarakter; kishilar bilan munosabat”. Bu so‘zni **قِلْقْ** ***qïlq*** ham deyiladi.

قُمُقْ ***Qumuq*** – beklardan bir kishining oti. Bir chog‘lar men u bilan uchrashgan edim.

قَمُقْ ***qamuq*** – “ot tezagi”; bu so‘z shungagina xos.

قَنَقْ ***qanaq*** – “qaymoq”. Arg‘u va bulg‘ar tilida bu so‘zdagi *yā nūn* ga almashtirilgan.

قُنُقْ ***qonuq*** – “mehmon”. (Shoir) shunday degan:

بَرْدِى اَرَنْ قُنُقْ بُلُبْ قُتْقَا سَقَارْ ***Bardï erän qonuq bulup qutqa saqar.***
قَلْدِى اَلغْ اُيُقْ كُرُبْ اَفْنِى يِقَارْ ***Qaldï alïγ uyuq körüp ewni yïqar.***

Aytmoqdaki: “Mehmonni baxt deb biluvchi erlar o‘tib ketdi. Sharpani sezsa, kirib qolmasin, deya chodirini buzadiganlar qoldi”.

قُنَقْ ***qonaq*** – “tariq”. Maqolda (shunday kelgan): **قُنَقْ بَشِى سَذرَكِى يِيكْ** ***Qonaq bašï seðräki yig.*** Ma’nosi: “Tariq boshining kamdon bo‘lishi, serdon bo‘lishidan foydaliroqdir” degan maqol bor. Chunki kamdon bo‘lsa, don to‘la va yirik bo‘ladi, agar serdon boshoq bo‘lsa, donlari mayda va kichik bo‘lib qoladi. Bu maqol qiyinchilik va zahmatni kam tortib, maqsadga yetishni xohlovchilarga qarata qo‘llanadi.

ك ***g*** [harfi]:

بِتِكْ ***bitig*** – “kitob”.

بِتِكْ ***bitig*** – “yozuv; yozmoq”. Bu, ayni chog‘da masdardir; **اَنِكْ بِتِكِى بَلگُولُكْ** ***anïŋ bitigi belgülüg*** – “uning yozuvi ma’lum, belgili”.

بِتِكْ ***bitig*** – “tumor” (o‘g‘uzcha).

بِجَكْ ***pičäk*** – “pichoq”. Maqolda (shunday kelgan): **نَجَا يِتِكْ بِجَاكْ اَرْسَا اُوزْ سَابِنْ يُنُومَاسْ** ***Nečä yitig pičäk ersä, öz sapïn yonumas.*** Ma’nosi: “Pichoq qanchalik o‘tkir bo‘lsa ham, o‘z sopini yo‘nmaydi”. Bu maqol o‘z ishini bajarolmay, boshqalar ishi to‘g‘risida so‘zlovchilarga qo‘llanadi.

بَدُكْ ***bedüg*** – “har narsaning kattasi”; **تَقِى / بَدُكْ تَقِى** ***bedüg tewi / tewäy*** – “katta tuya”.

بُرُكْ ***bürük*** – xaltaning og‘zini bog‘laydigan bog‘ich yoki ishtonbog‘.

بَزَكْ ***bezäk*** – “bezak”; bir tilda.

بَزِكْ ***bezik*** – “titroq, larza”; **اُلْ بَزِكْ بَزْدِى** ***ol bezik bezdi*** – “u qattiq titradi”.

[**بُسُكْ** ***püsük***] **اُلْ قُلِنْ بُپِسُكْ بُپِسْدِى** ***ol qulïn püsük püsdi*** – “u quliga berkinadigan joy qildi”. Qulini urishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

بُلُكْ ***bölüg*** – “har qanday hayvon jinsi, to‘dasi”; **بِيرْ بُلُكْ قُوىْ** ***bir bölüg qoy*** – “bir to‘da qo‘y”; (97b) **بِيرْ بُلُكْ كِشِى** ***bir bölüg kiši*** – “bir to‘da kishi”. Bu so‘z “xalq” va “tuya” so‘zlari singari *ismi jam’* dir.

بِلَكْ ***biläk*** – “bilak”.

بَلَكْ ***beläk*** – safar qiluvchi kishi o‘z yaqinlariga olib boradigan yoki biror yerdan boshqa bir yerga keltiruvchi sovg‘a, tuhfa.

بِلَكْ ***pelig*** – “pilik, chiroq piligi”.

بِلَكْ ***pelig*** – yaraning chuqurligini tekshirib ko‘rish uchun qo‘llanadigan ichak yoki rezinka asbob.

بِلِكْ ***bilig*** – “ilm, bilim”; **بِلِكْ اُگْرَنْ** ***bilig ögrän*** – “bilim o‘rgan”.

بِلِكْ ***bilig*** – “hikmat”; **اُزَقِى بِلْكَالَارْ** ***ozaqï bilgälär*** – “qadimgi hakimlar, olimlar”.

بِلِكْ ***bilig*** – “aql”. Maqolda (shunday kelgan): **اُغْلَانْ بِلِكْسِزْ** ***Oγlan biligsiz.*** Ya’ni: “Bolada aql yo‘q”.

بَنَكْ ***benäg*** – “dona, urug‘” (arg‘u va ba’zi tillarda).

بَنَكْ ***benäk*** – “chaqa, pul”.

تَبُكْ ***tepük*** – qo‘rg‘oshin eritilib, g‘ildirak, g‘altak shakliga keltiriladi. So‘ng bolalar unga ip shaklidagi echki yungini aylantirib bog‘lab tepib o‘ynaydi.

[**تَبِكْ** ***tepik***] **اُلْ قُلِنْ تَبِكْ تَبْدِى** ***ol qulïn tepik tepdi*** – “u qulini tepib-tepib urdi”.

[تِتِكْ *titik*] بَاشْ تِتِكْ تِتّى *baš titik titti* – “yara haddan ortiq og‘ridi”. Bu shakl ta’kid uchun qo‘llanadi: اُلْ اَرِكْ اُرُغْ اُرْدِى *ol erig uruγ urdï* – “u kishini haddan tashqari urdi [u kishini shunday urdiki], juda qattiq urdi”.

[قَجِغْ *qačïγ*] اُلْ قَجِغْ قَجْدِى *ol qačïγ qačdï* – “u jadallik bilan qochdi”.

تُتَكْ *tütäk* – obdasta va boshqa narsalarning jo‘mragi.

تِتِكْ *titik* – “loy”.

تِرِكْ *tirig* – “har bir tirik hayvon, jonzot”.

تَزَكْ *tezäk* – “ot tezagi”. Maqolda (shunday kelgan): تَزَكْ قَارْدَا يَتْمَاسْ اَدْكُو اِيسِيزْ قَتْمَاسْ *Tezäk qarda yatmas, eδgü esiz qatmas.* Ma’nosi: “Tezak (o‘zining issiqligidan) qorda yotmas [qorni eritib yuboradi], (shunga o‘xshash) yomon ham yaxshi bilan qotishmaydi, aralashmaydi”.

تَزِكْ *tezik* – “xalq orasidagi sarosima, qo‘rquv”; تَزِكْ كِشِى *tezik kiši* – “ishdan qochqoq, qo‘rqoq kishi”.

تِزِكْ *tizik* – “tizma, saf, qator”; تِزِكْ تِزِكْ *tizik tezik* (?) – “qator terak”; بِيرْ تِزِكْ بِنْجُو *bir tizik yinčü* – “bir tizim inju”.

تَژِكْ *täžik* – “fors” (الفارسى) (ikki jag‘ orasida talaffuz qilinadigan ز *zā* bilan).

تَشُكْ *tešük* – “dabba, moyak shishi”. (98a) Maqolda (shunday kelgan): تَشُكْ سُقْدَا بِلْكُرَارْ *Tešük suwda belgürär.* Ma’nosi: “Dabba shishi suv kechganda bilinadi”. Bu maqol biror ish qilishda maqtanuvchiga ishning yaxshi-yomonligi keyin bilinadi, degan mazmunda qo‘llanadi.

تَشِكْ *tešik* – “ochko‘z”; qorni to‘yadi-yu, ko‘zi to‘ymaydi.

[تُشُكْ *tüšük*] “yalqov, kamhafsala, ishyoqmas kishi”ga تُشُكْ كِشِى *tüšük kiši* deyiladi.

تُشَكْ *töšäk* – “to‘shak, o‘rin”.

تِشَكْ *tišäk* – “ikki yoshli qo‘y”.

تُلَكْ *töläk* – “tinch va og‘ir kishi”. Maqolda (shunday kelgan): اَجْ اِيڤكْ تُقْ تُلَكْ *Ač – ewäk, toq – töläk.* Ma’nosi: “Och ovqatni ko‘rganda shoshilib qoladi, lekin ovqat to‘qning parvosiga ham kelmaydi” (o‘g‘uzcha).

تُلَكْ *tüläk* – “hayvonlarning yungi to‘kilgan, tullagan vaqti”; اُلْ قُوىْ تُلاكِنْدَا كَلْدِى *ol qoy tüläkindä keldi* – “u qo‘y tullagan, yungini to‘kkan vaqtda keldi”.

تَلِكْ *telik* – “teshik”.

تُڤَكْ *tüwäk* – “tuppak”. Tol daraxtining va umuman ho‘l shoxlarning po‘st-log‘ini yormay, shox novdadan sug‘urib olinadi va uchiga g‘o‘lakchalar qo‘yib, chumchuqlarni otiladi. Yog‘ochning ichini kovak qilib ham tuppak yasaladi (chigillar lug‘ati).

جُبَكْ *čüpäk* – “bolalar chuki”.

[جِبَكْ *čipäk*] جِبَكْ قَرْغُوىْ *čipäk qarγuy* – “bir turli ov qushi, yovvoyi lochin”.

جَتُكْ *četük* – “urg‘ochi mushuk” (o‘g‘uzcha); كُوكْ جَتُكْ *kök četük* – “erkak mushuk”.

جَجَكْ *čečäk* – “gul, chechak”.

جَكَكْ ***čekäk*** – “chechak kasali” (chigilcha).

جَرِكْ ***čerig*** – “urush safi”. Maqolda (shunday kelgan): **اَلبْ جَرِكْدَا بِلْكَا تِيرِكْدَا** ***Alp čerigdä, bilgä tirigdä.*** Ma’nosi: “Botir jang alangasida (sinaladi), dono majlisda (sinaladi)”.

جَرِكْ ***čerig*** – “har narsaning ro‘parasi; vaqti” (o‘g‘uzcha).

جُرَكْ ***čüräk*** – “kulcha”.

جِلِكْ جِلِكْ ***čilik-čilik*** – echkini chaqirganda “chilik-chilik” deyiladi.

جُنُكْ ***čünük*** – “chinor daraxti”.

جُشَكْ ***čüšäk*** – “o‘t-xashak” (بالسغديه – sug‘dcha).

دُلَكْ ***döläk*** – labi uchgan sopol idish; boshi sindirilgan ko‘za, singari.

سِبَكْ ***sipäk*** – tegirmon toshining ustida aylanadigan temir. (98b)

سِبَكْ ***sibäk*** – “sumak”; siydik yoyilib ketmasligi uchun bola beshigiga qo‘yiladigan qamish.

سِدُكْ ***sidük*** – “siyduk”; hamma turi uchun ham umumiy.

سِدِغْ ***siδig*** – ustki kiyimning bir tomoni; **سِدِغْ** ***sïδïγ*** degandan ko‘ra, **سِدِكْ** ***siδig*** deyish yaxshiroqdir.

سُرُكْ ***sürüg*** – “har qanday hayvon to‘dasi; suruv”; **بِيرْ سُرُكْ قُوىْ** ***bir sürüg qoy*** – “bir suruv qo‘y va boshqa suruvlar”.

(Shoir) shunday degan:

اُكُرْ سُرُكْ قُوىْ تَقْىْ يُنْدِي بِلا	***Ügür sürüg qoy, tewäy, yundï bilä,***
يُمُرْلَيُو اَرْكَنِنْ سُوتِن سَغَارْ	***Yumurlayu erkänin sütin sayar.***

Aytmoqdagi: “Bir suruv qo‘y va tuyalari hamda otlari bo‘lgan kishi ularni sog‘ish uchun to‘playdi va foydalanadi”.

[**سُزُكْ** ***süzüg***] **سُزُكْ سُوقْ** ***süzüg suw*** – “ko‘m-ko‘k, tiniq suv”. Yoqut kabi har bir tiniq narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

سَشُكْ ***sešüg*** – “(boylog‘idan) yechilgan har bir narsa; **سَشُكْ اَتْ** ***sešüg at*** – “yechilgan ot”.

[**سَقُكْ** ***sewüg***] **سَقُكْ نَانَكْ** ***sewüg näŋ*** – “suyukli narsa”.

[**سِلِكْ** ***silig***] **سِلِكْ اَرْ** ***silig er*** – “nozik, hushyor, aqlli, sezgir er”.

شُبِكْ ***šüpik*** – meva yeyilgach, uning tashlanadigan po‘chog‘i. Bu so‘zdagi ج *čīm šīn* ga aylangan.

شُتُكْ ***šütük*** – qoramol va boshqa hayvonlar shoxidan qilinadigan siyohdon.

[**شُتُكْ** ***šütük***] **شُتُكْ سَقَالْ** ***šütük saqal*** – “ko‘sa kishi”. Bu oldingi so‘zga o‘xshaydi.

شُنُكْ ***šünük*** – “chinor daraxti”. Bu so‘zdagi ج *čīm* harfi *šīn* ga almashgan.

كَبَكْ ***kepäk*** – “kepak”; **كَبَكْ يِنْجُو** ***kepäk yinčü*** – “mayda inju”.

كَبَكْ ***kepäk*** – “bosh kepagi”.

كُبُكْ / كُبِكْ ***köpük / köpik*** – “suv ko‘pigi”.

كُبُكْ ***köpük*** – qaynayotgan qozon yuziga chiqqan ko‘pik.

كَچِكْ ***kečig*** – “kechig, ko‘prik”. Maqolda (shunday kelgan): **قَيْنَارْ اُگُزْ كَچِكْسِيزْ بُلْمَاسْ** ***Qaynar ögüz kečigsiz bolmas.*** Ma’nosi: “Tez oqar suv kechigsiz [ya’ni ko‘priksiz] bo‘lmaydi”. Bu maqol biron ishda ikkilanib, cho‘chib turgan kishiga tasalli berish uchun qo‘llanadi.

كُچُكْ ***köčüg*** – “ot, tuya orqasiga mingashgan kishi”.

كِچِكْ ***kičig*** – “har narsaning kichigi”.

كَدْكْ ***keδük*** – “yomg‘irda kiyiladigan yopinchiq”.

كَدُكْ ***kedük*** – “patdan qilinadigan bosh kiyim”. (99a)

[**كُدُكْ** ***küdüg***] **اِيشْ كُدُكْ** ***iš-küdüg*** – “ish, mashg‘ulot”. Bu ibora har vaqt birga qo‘llanadi. **كُدُكْ** ***küdüg*** tarzida ayrim qo‘llanmaydi.

كَرَكْ ***keräk*** – “kerak, ma’qul”; **كَرَكْمُو** ***keräkmü?*** deb so‘raladigan so‘rov so‘ziga javob o‘rnida “kerak” demakdir.

كُرُكْ ***körük*** – “temirchilar dami”.

كُزَكْ ***közäk*** – bo‘zchi do‘konidagi bir-birining ustiga tugilgan iplar. Ular bilan pasti yuqorisidan, ya’ni arqog‘ni o‘rishdan ajratiladi. Bu so‘z shoyi to‘quvchi kishi(ning do‘konidagi iplar)ga ham qo‘llanadi.

كَزِكْ ***kezik*** – “bezgak; titroq bilan keladigan isitma”.

[**كَزِكْ** ***kezik***] **سَرِغ كَزِكْ** ***sarïγ kezik*** – “sariq kasalligi”.

كَزِكْ ***kezig*** – “kez, kezag; ishda navbat”; **سَنِكْ كَزِيكِينكْ كَلْدِى** ***seniŋ kezigiŋ keldi*** – “sening navbating keldi”.

كَزِكْ ***kezik*** – “jur’at, botirlik”; **بُو اِيشْتَا سَنكَا كَزِكْ كَرَاكْ** ***bu ïšta seŋä kezik keräk*** – “bu ishda senga botirlik kerak”. Asosiy ma’no avvalgisi [ya’ni “navbat”]dir.

كُزُكْ ***közük*** – “gajak, kokil”; arg‘ucha so‘z.

كَسَكْ ***kesäk*** – “narsaning bo‘lagi, parchasi”; **بِيرْ كَسَكْ اُتْمَاكْ** ***bir kesäk ötmäk*** – “bir burda non”.

كَڤَكْ ***kewäg*** – (بالكاف الركيكه – jarangli *kāf,* ya’ni [*g*] bilan) “burun kemirchagi”.

[**كُڤُكْ** ***köwük***] **كُڤُكْ مُوشْ** ***köwük muš*** – “erkak mushuk”; chigillar so‘zi.

[**كُلُكْ** ***külüg***] **كُلُكْ نَانكْ** ***külüg näŋ*** – “birovdan qarzga yoki omonat olingan narsa”.

كُلُكْ ***kölük*** – yuk ortish mumkin bo‘lgan hayvon orqasi.

كَمَكْ ***kemäk*** – paxta ipidan to‘qilgan uzun-uzun oq yo‘lli yupqa kiyimlik, undan ust kiyimlar tikiladi. Qipchoqlar undan yomg‘irda kiyiladigan (yopinchiq) qiladilar.

كُنَكْ ***könäk*** – “teridan ishlangan mesh”.

مَژَكْ ***mäžäk*** – “it axlati, tezagi”. Ikki jag‘ orasida talaffuz qilinadigan ز *zā* harfi bilan; **اِتْ مَژَكِى** ***ït mäžägi*** – “it tezagi”.

نَتَكْ ***netäg?*** – “qanday? qalay?” ma’nosidagi so‘roq olmoshi; **نَتَكْ سَنْ** ***netäg-sen?*** – “qandaysan?”.

نَچُكْ ***nečüg?*** – “nega? nima uchun?” ma’nosidagi so‘roq olmoshi; **نَچُكْ بَرْدِينكْ** ***nečüg bardïŋ?*** – “nimaga bording?” (yabaqucha).

نَلُكْ ***nelüg?*** – “nechuk? nima uchun?” ma’nosida; boshqa turklar tilida.

نَرَكْ *nerək?* – “nima kerak?”. **بُو سَنكَا نَرَكْ *bu seŋä nerək?*** – “bu senga nima uchun kerak?”. Asli **نَا كَرَاكْ *ne kerək?*** bo‘lib, bir necha harflar tushirilgan. (99b)

ل *l* [harfi]:

بَجَلْ *bäčäl* – erlar, xotin-qizlar va hamma hayvonlarning kuchli, mahkam, pishiqrog‘i.

[**بَشِلْ *bašïl***] **بَشِلْ قُوىْ *bašïl qoy*** – boshining o‘rtasida oq bo‘lgan qashqa qo‘y; bir tilda.

بَدَلْ اَرتْ *Bedäl art* – أُجْ *Uč* bilan بَرسْغَانْ *Barsγan* orasidagi bir joy; o‘tish qiyin bo‘lgan cho‘qqi.

تَسَلْ *tasal* – chovgan o‘yini maydonida chegarani belgilab chizilgan chiziq. Bu **تَلاسْ *talas*** so‘zining ag‘darilganidir. Arabchada علاق ham لعاق deyilishi ham shundaydir.

تَكُلْ *tegül* – “unday emas” (o‘g‘uzcha). Bu so‘zning asli arg‘ucha **دَاغ اُلْ *daγ-ol*** so‘zidan olingan. Ular ikki *alif* ni tushirib, *dāl* ni *tā* ga, *γayn* ni *kāf* (ya’ni [*g*]) ga almashtirib qo‘llaganlar.

[**چِغِلْ تِقِلْ *čïγïl-tïγïl***] **اُقْ كيشْ اِجْرَا چِغِلْ تِغِلْ قِلْدِى *oq keš ičrä čïγïl-tïγïl qïldï*** – “o‘q o‘q idishida va boshqalarda g‘ijir-g‘ijir qilib ovoz chiqardi”.

چِكِلْ *čigil* – uch xil turkiy qavm nomi:

Birinchisi, بَرسْغَانْ *Barsγan* quyisidagi قُيَاسْ *Quyas* shaharchasida yashovchi ko‘chmanchilar.

Ikkinchisi, طِرَازْ *Ṭirāz* yaqinidagi shaharchada yashovchilar ham **چِكِلْ *čigil*** deb ataladilar. Shunday atash asoslidir. Chunki ذوالْقرْنينْ *δu-l-qarnayn* arg‘ular shahriga yetganda qattiq yomg‘ir yog‘ib, yerlar loy, botqoq bo‘lib ketgan va Iskandar yurolmay qiynalgan. U xafa bo‘lib, forscha **اِينْ چَكِلْ اَستْ *in če gil-ast?*** (“bu qanday loy, bundan qutilolmaymiz?”) deya g‘azablangan. So‘ng u yerda bir bino qurishga buyurdi, so‘ng bu kunlarda **چِكِلْ *čigil*** deb ataluvchi qo‘rg‘on bino qilindi. U yerda yashovchi turkiy qabilalar ham shu ot bilan (چِكِلى *čigili*) deb ataldilar. Shundan so‘ng bu ot har yoqqa tarqaldi. O‘g‘uzlar shahri u yerga yopishgan edi va ular chigillar bilan har vaqt urushar edilar. Hatto oralaridagi xusumat bugungacha saqlanib kelmoqda. O‘g‘uzlar chigillardek kiyinib, ularning urf-odatlarini qiluvchi turklarni ham **چِكِلْ *čigil*** deb ataydilar. Ya’ni ular جَيْحُونْ *Jayḥūn* dan yuqori صِينْ *Ṣīn* gacha bo‘lgan yerlarda yashovchi turkiy qabilalarning hammasini ham **چِكِلْ *čigil*** deb ataydilar, bu xatodir.

Uchinchisi, كَاشْغَارْ *Kāšγar* da (100a) bir qancha qishloqlarda yashovchi turkiy qabilalar ham **چِكِلْ *čigil*** deb ataladi. Bular ham bir yerdan tarqalganlar.

جُمُلْ *čumul* – turklarning bir qavmi.

سُكَلْ *sögäl* – “kasal, bemor” (o‘g‘uzcha).

سِكِلْ *sigil* – “so‘gal”.

قِزِلْ *qïzïl* – “har narsaning qizili”. Maqolda (shunday kelgan): **قِلنُو بِلْسَا قِزِلْ كَذَارْ يَرانُو بِلْسَا يَشِلْ كَذَارْ *Qïlïnu bilsä, qïzïl keδär, yaranu bilsä, yašïl keδär.*** Ma’nosi: “Xotinlar eri bilan suhbat istaganda qizil ipaklik kiyadi, yalinish va

xushomadgo‘ylik chog‘ida yashil kiyim kiyadi”. Xotinlar to‘g‘risidagi ushbu maqol maqsadga erishish uchun, yoqimli muomalada bo‘lishni eslatish maqsadida ishlatiladi.

قِزِلْ *Qïzïl* – كَاشْغَارْ *Kāšγar* da bir daryoning oti.

(Shoir) shunday degan:

قِزِلْ سَرِغ اَرْقَشِبْ	***Qïzïl, sarïγ arqašïp,***
يَبْكِنْ يَشِلْ يُزْكَشِبْ	***Yepkin, yašïl yüzkäšip,***
بِرْ بِرْ كَرُو يُرْكَشِبْ	***Bir-birgärü yörgäšip,***
يَلِنْكُقْ اَنِى تَنْكْلَشُورْ	***Yalïŋuq anï taŋlašur.***

Ko‘klamni tasvirlab aytmoqda: “Qizil, sariq gullar bir-biriga suyanishib, yashil rayhonlar bir-biri bilan o‘ralishib ko‘rinadi. Ularni ko‘rgan kishi tang qoladi”.

[**كَقَلْ *kewäl***] **كَقَلْ اَتْ *kewäl at*** – “yo‘rg‘a ot”.

م *m* [harfi]:

[**بِجِمْ *bičïm***] **بِيرْ بِجِمْ قَاغُونْ *bir bičïm qaγun*** – “bir tilim qovun”. Boshqa narsalarga ham ishlatiladi.

بُغَمْ *boγïm* – “bo‘g‘in, barmoq bo‘g‘ini”. Qamish va g‘arovlar bo‘g‘ini ham shunday ataladi.

[**بُكُمْ *büküm***] **بُكُمْ اَتُكْ *büküm etük*** – “xotinlar kiyadigan etik, mahsi” (o‘g‘uzcha). O‘g‘uzlardan boshqalar **مُكِمْ *mükim*, مُكِنْ *mükin*** deydilar. *bā mīm* ga va *nūn mīm* ga almashgan. Men buni toza turkcha deb sanamayman. Lekin qipchoq va boshqa qabilalarning (oddiy kishilari) shunday ataydilar.

تَرِمْ *tarïm* – tiginlarga (qullikdan podsholikka yetishgan kishilarga) va اَفرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* avlodidan bo‘lgan xotin va boshqalarga, xoh katta, xoh kichig bo‘lsin, **تَرِمْ *tarïm*** so‘zi ishlatiladi. Xoqoniya podsholaridan (الملوک الخاقانیه) boshqalar qancha katta bo‘lsalar ham, bu so‘z ularga nisbatan ishlatilmaydi. Podsho xotinlarining laqabi o‘rnida **اَلْتُنْ تَرِمْ *altun tarïm*** so‘zi ishlatiladi.

تَرِمْ *tarïm* – ko‘l va qumliklarga quyiladigan suvlarning qirg‘oqlari.

تَرِمْ *Tarïm* – اُيْغُرْ *Uyγur* hududida كُجَا *Kučä* yaqinidagi bir joy otidirki, uni **اُسْمِى تَرِمْ *Usmï tarïm*** deydilar. (100b) U yerda oqadigan suv ham shu so‘z bilan ataladi.

تُرُمْ *turum* – “bo‘y barobar uzunlik”; **بِيرْ اَرْ تُرُمِى سُوقْ *bir er turumï suw*** – “bir kishining bo‘yi barobar chuqur suv”. Boshqalarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

تُرُمْ *torum* – yo‘g‘on unli bilan (بالاشباع), “tuya bolasi, bo‘taloq”; **تِشِى تُرُمْ *tiši torum*** – “urg‘ochi bo‘taloq”.

[**تِزِمْ *tizim***] **بِيرْ تِزِمْ يِنْجُو *bir tizim yinčü*** – “bir tizim inju; inju tizmasi”.

تُقُمْ *toqum* – “so‘yilgan hayvon”. Ko‘pincha “so‘yiladigan ot”ga aytiladi.

[**تَكِمْ *tegim***] **بِيرْ تَكِمْ تُرْمَاكْ *bir tegim türmäk*** – “bir kishilik, bir yeyishlik qovurdoq”.

تَلِمْ *telim* – “ko‘p”. **تَلِمْ يَرْمَاقْ *telim yarmaq*** – “ko‘p tanga”.

(Shoir) shunday degan:

تَلِمْ بَشْلَرْ يُقْلْدِيمَتْ	***Telim bašlar yuwaldï-mat,***
يَغِى اَنْدِنْ يَقْلدِيمَتْ	***Yaγï andïn yawaldï-mat,***
كُچِى اَنِنكْ كُقْلْدِيمَتْ	***Küči anïγ kewäldi-mät,***
قِلِجْ قِنْقَا كُجُنْ سِغْدِى	***Qïlïč qïnqa küčün sïγdï.***

Jangni ta’riflab aytmoqda: “Yov botirlarining boshlari kesilib, dumalatildi. Shunga ko‘ra yovning g‘azabi susaydi, kuchi sindi. Yuzida qotib qolgan qoramtir qonning ko‘pligidan [qalinligidan] qilich qinga zo‘rg‘a sig‘di”.

تُلُمْ *tolum* – “urush yarog‘i”. Bu so‘z jamlovchi otdir.

[**تِلِمْ *tilim***] **بِيرْ تِلِمْ اَتْ *bir tilim et*** – “bir tilim, bir bo‘lak et, go‘sht”. Uzunasiga qirqilgan va ajratilgan har narsaga ham **تِلِمْ *tilim*** deyiladi.

دِدِمْ *didim* – nikoh kechasi kelinga kiydiriladigan toj [qimmatbaho toshlar to‘g‘nalgan bosh kiyimi].

سَرِمْ *sarïm* – ko‘zacha va boshqa idishlardagi sharob suzilib tushishi uchun shu idishlarning og‘ziga bog‘lanadigan shohi latta.

[**سَغِمْ *sayïm***] **بِيرْ سَغِمْ سُوتْ *bir sayïm süt*** – “bir sog‘im sut”.

سُقِمْ *soqïm* – yog‘ochni archa bujuri shaklida qirqib olib, ichi o‘yiladi va uch tomonidan teshib, o‘qlarning ustiga kiygiziladi, shunda o‘q uchgan vaqtda hushtak chaladi.

[**سُقِمْ *soqïm***] **بَقِرْ سُقِمْ *Baqïr soqïm*** – مِرّيخ *Mirrīx* [Mars] yulduzining oti.

[**قُچَمْ *qučam***] **بِيرْ قُچَمْ نَانكْ *bir qučam näγ*** – “bir quchoq narsa”.

قُرُمْ *qurum* – “qoya, qoyatosh”. Yig‘ilgan ko‘p molga ham **قُرُمْ *qurum*** deyiladi: **اُلْ قُرُمْ بُلْدِى *ol qurum buldï*** – “u ko‘p mol topdi”.

كَرَمْ *keräm* – “yerto‘la”. Yuqori va quyi صِينْ *ṣīn* liklar so‘zi. (101a)

كَرِمْ *kerim* – “gulli parda; gul choyshab”; **تَامْ كَرِمِى *tam kerimi*** – “ko‘rk uchun devorlarga tutiladigan narsa; kirpech”.

ن *n* [harfi]:

[**بُتُنْ *bütün***] **چِينْ بُتُنْ كِشِى *čïn bütün kiši*** – “ishonchli, to‘g‘ri kishi”.

بُتُنْ *bütün* – “butun; har bir butun, tuzuk narsa”; **بُتُنْ يَرْمَاقْ *bütün yarmaq*** – “butun, siyqalanmagan tanga”.

بُدُنْ *boδun* – “xalq, omma” (chigilcha).

بُرُنْ *burun* – “burun”.

بُرُنْ *burun* – “uch, burun”; **تَاغْ بُرُنِى *tayγ burnï*** – “tog‘ burni”.

بُرُنْ *burun* – “oldin, burun, ilgari”; **اُلْ مَنْدِنْ بُرُنْ بَرْدِى *ol mendin burun bardï*** – “u mendan burun bordi”. Bu so‘z shaklda emas, ma’noda arabchaga o‘xshaydi.

بُژُنْ *bužïn* (ikki maxraj orasida talaffuz qilinadigan ز *zā* harfi bilan) – “har xil o‘t, o‘simlik”.

بَسَنْ *basan* – “o‘lik ko‘milgandan keyin tortiladigan ovqat”. Uni **يُوغ بَسَن *yoγ basan*** deydilar.

بُغْنْ / بُغُنْ ***boγun / boγïn*** – “barmoq bo‘g‘ini; qamish bo‘g‘ini”. Bu so‘zda *mīm nūn*ga almashgan. Bu tilga mos xususiyatdir.

Ushbu baytdagi singari:

يارُبّ جعد فيهم لوتدرين
يضرب ضرب السّبط المقاديم

Arab tilida bo‘lishsizlik qo‘shimchasi لن, لم ning bir ma’noda kelishi *mīm* bilan *nūn* ning biri o‘rniga boshqasi almashishi qoida ekanidan darak beradi.

بَقَنْ ***baqan*** – “doira, xalqa”. Yerdan qazib olinadigan metallardan yasalgan halqaga **اَلْتُنْ بَقَنْ** ***altun baqan*** (“oltin xalqa”) deyiladi.

بِقِنْ ***bïqïn*** – “biqin, kishining biqini”.

بُكِنْ ***bükin*** – “erligi yo‘q, mizoji zaif kishi”.

بُكَنْ ***pökän*** – “po‘kon, ko‘richak”.

بُكَنْ ***bükän*** – “hind qovuni; tarvuz”.

بُلُنْ ***bolun*** – “asir, tutqun”. (Shoir) shunday degan:

اَبنكْ قُلْسَامْ اُدُو بَارِبْ	***Apaŋ qulsam, uδu barïp,***
تُتَرْ اَرْدِمْ سُسِنْ تَارِبْ	***Tutar erdim süsin tarïp.***
بُلُنْ قِيلِبْ بَشِى يَارِبْ	***Bolun qïlïp, bašï yarïp,***
يُلُغْ بَرْجَا مَنكَا يِغْدِى	***Yuluγ barča meŋä yïγdï.***

Yengilgan kishini tasvirlab aytmoqda: “Agar istasam, orqasidan borib, o‘zini tutar edim. Askarlarini tarqatar edim, o‘zini asir qilib, boshini yorar edim. Ammo jonini qutqarmoq uchun ko‘p narsa to‘plab topshirdi (va men uni bo‘shatib yubordim)”.

تَبَنْ ***tapan*** – “tuya tovoni”.

تُبُنْ ***tübün*** – ovqatning tagi, uning ichidagi g‘aliz narsalar. Uch qabilasining so‘zi.

تَدُنْ ***taδun*** – “ikki yoshli qoramol”. Buning urg‘ochisiga **تِشِى تَدُنْ** ***tiši taδun*** deyiladi.

تُدُنْ ***tuδun*** – “qishloq keksasi, oqsoqoli; suv taqsimlovchisi, mirobi”.

تُتُنْ ***tütün*** – “tutun”. Maqolda (shunday kelgan): (101b) **اُوتْ تُتُنْ سُزْ بُلْمَاسْ يِكِتْ يَازُقْ سُزْ بُلْمَاسْ** ***Ot tütünsüz bolmas, yigit yazuqzuz bolmas.*** Ma’nosi: “O‘t tutunsiz bo‘lmas, yigit gunohsiz bo‘lmas”.

تُگَنْ ***tügün*** – “tugun”.

تِكَنْ ***tikän*** – “tikan”. Bu so‘zning yengil, qisqa shaklidir. Qoidaga ko‘ra ikki *kāf* bilan **تِكّنْ** ***tikkän*** bo‘lishi kerak edi. Chunki bu so‘z “ilish; tilish” ma’nolaridagi **تِكْدِى** ***tikdi*** dan yasalgandir. Bu yerdagi *kāf* o‘zakning asl harfidir. Bu o‘zakdan sifat yasash uchun ikkinchi bir *kāf* qo‘shish kerak bo‘ladi. “Go‘shtni sixga tiqdi” ma’nosida keluvchi **تَقْدِى اَتنِى** ***tewdi etni*** gapidagi **تَقْدِى** ***tewdi*** dan [ya’ni

“go‘shtni sixga tiquvchi”] اَتْنِی تَقْکَانْ ***etni tewgän*** tarzida sifat yasaladi. Bu so‘z o‘zagida *kāf* yo‘q edi. Bu sifat yasashda orttirilgandir.

“Kishi suvda cho‘mildi” ma’nosidagi اَرْ جُمْدِی سُقْدَا ***er čömdi suwda*** gapidagi جُمْدِی ***čömdi*** so‘zidan sifat yasalganda ham اَرْ سُقْقَا جُمْکَانْ ***suwqa čömgän er*** (“suvda cho‘milgan kishi”) tarzida qo‘llanadi. Ya’ni bunda ham o‘zakda bo‘lmagan *kāf* orttiriladi. Agar o‘zakning o‘zida ham *kāf* harfi bor bo‘lsa, u vaqtda ikkinchi bir *kāf* orttirib, singdirib talaffuz qilinadi.

Masalan: اَرْ اُرَاغْتْنِی سِکْتِی ***er uraɣutnï sikti*** (“er xotinni sikdi”) degan jumlani sifatdosh shaklida qo‘llasak, اَرْ سِکّانْ ***sikkän er*** (“sikkan er”) deyiladi. تِکّنْ ***tikkän*** so‘zi ham shunday. Lekin (talaffuzda) yengillik uchun bir *kāf* tushirilgan.

تُلُنْ ***tulun*** – turk va o‘g‘uz tillarining birida “chakka”.

تُلُنْ ***tulun*** – ot yuganlarining o‘ng va chap tomoni; ikki chekkasidagi (munchoq, tumor singari) narsalarga ham تُلُنْ ***tulun*** deyiladi.

[تُلُنْ ***tolun***] تُلُنْ اَیْ ***tolun ay*** – “to‘lin oy; o‘n to‘rt kechalik oy”.

تَمَنْ ***Taman*** – کَاشْغَرْ *Kāšyar* o‘rtasidan o‘tuvchi soy.

[تَمَنْ ***temän***] تَمَنْ بِنکْنَا ***temän yiŋnä*** – “katta igna, juvoldiz”.

تُمَنْ ***tümän*** – “har narsaning ko‘pi”; تُمَنْ تُرْلُکْ سُوزْلادِی ***tümän-türlüg sözlädi*** – “har xil so‘zlar so‘zladi; turli-tuman so‘zladi”.

[تُمَنْ ***tümän***] تُمَن مِنکْ ***tümän miŋ*** – “ming-ming, ming tuman, ming marta ming, bir million”; تُمَنْ مِنکْ یَرْمَاقْ ***tümän miŋ yarmaq*** – “bir million tanga”.

تُسُنْ ***tosun*** – “toychoq; hali minilmagan toychoq”.

جُبَنْ ***čopan*** – “qishloq oqsoqolining yordamchisi”. (102a)

جِقَنْ ***čïqan*** – “xolaning o‘g‘li, jiyan”.

جَکُنْ ***čegün*** – “vabr[mushukka o‘xshagan bir hayvon]ning bolasi”.

جُکنْ ***čögän*** – “chavgon”.

سَبَنْ ***saban*** – “tuproqni ekin uchun hozirlash; qo‘sh”. Bu so‘z “qo‘sh bilan yer haydash” ma’nosida ham qo‘llanadi. Maqolda (shunday kelgan): سَبَنْدَا سَنْدِرِشْ بُلْسَا اُرْتْکُنْ دَا اِرْتَشْ بُلْمَاسْ ***Sabanda sandïriš bolsa, örütkündä irtäš bolmas.***

Ma’nosi: “Yer haydash chog‘ida puxtalik bo‘lsa, xirmonda anglashilmovchilik bo‘lmaydi”.

Bu maqol “keyin anglashilmovchilik, janjal chiqmasligi uchun ishni boshda pishiq qilish kerak” degan ma’noda qo‘llanadi.

سَغُنْ ***saɣun*** – qarluq kattalarining laqabi. “Turkiy tabib”larga اَتا سَغُنْ ***ata saɣun*** deyiladi.

[سِغَنْ ***sïɣan***] سِغَنْ سَجْ ***sïɣan sač*** – “silliq soch”.

سُکَنْ ***sügän*** – “savat”.

قَجَنْ ***qačan?*** – “qachon?” ma’nosidagi olmosh; قَجَنْ کلْدِنکْ ***qačan keldiŋ?*** – “qachon kelding?”. Ba’zan bu so‘z “agar” ma’nosida ham keladi: قَجَنْ بَرْسَا سَنْ ***qačan barsa-sen*** – “agar sen borsang”. “Vaqtiki” ma’nosida ham keladi. Lekin avvalgisi asoslidir.

قَذِنْ ***qaδïn*** – “qayin ona, qayin ota, qayin”. Qipchoqlar *zā* bilan talaffuz qiladilar. Maqolda (shunday kelgan): قَذْشْ تِيمِيشْ قَيْمَادُقْ قَذِنْ تِيمِيشْ قَيْمِيشْ “***Qaδaš*** ***temiš, qaymaduq,*** “***qaδïn***” ***temiš, qaymïš.*** Ma’nosi: “Qarindoshlar keldi” deyilganda, unga e’tibor berilmadi; “qayin (ona, ota) keldi” deyilgan edi, darrov unga qaraldi”. Bu maqol qayin ona va qayin otalarni hurmat qilishi uchun kuyovlarga qarata ishlatiladi.

قَرِنْ ***qarïn*** – “qorin”.

قَرِنْ اَتْمَاقْ ***qarïn atmaq*** – so‘yishga tayin qilingan molni so‘yib, qornini nishon, mo‘ljal qilib o‘q otiladi. Agar o‘qni tegizsa, u go‘shtdan ulush oladi.

قُرُنْ ***qurun*** – “qurun, devor va shiplardagi tutun islari”.

قُقُنْ ***ququn*** – “olov uchqunlari”.

قَلِنْ ***qalïn*** – “qalin, dag‘al, zich”; قَلِنْ سُو ***qalïn sü*** – “qalin qo‘shin”.

قُلَنْ ***qulun*** – “ayg‘ir, toy”.

قُلَنْ ***qolan*** – “qulvog‘; kamar”.

[قُلَنْ ***qulan***] قُلَنْ اَتِى ***qulan atï*** – “otga qorinbog‘ bog‘lanadigan joy”.

كَتَنْ ***ketän*** – “mehnat, qiyinchilik”. “Qiyinchilik ko‘rgan kishi”ga: كَتَنْ كُرْدِى كُرَاكُو يُذتِى ***Ketän kördi – kerägü yüδti,*** deyiladiki, buning ma’nosi “Mehnatni ko‘rib, qiyinchilik tortganidan, chodirini orqaladi” demakdir.

كُدَنْ ***küdän*** – “ziyofat”.

كُبَنْ ***kübän*** – tuyaga bog‘lanadigan to‘qum, egar va boshqa shunga o‘xshash asboblar (o‘g‘uzcha). (102b)

كُرِنْ ***kürin*** – qovun-tarvuz, bodring va boshqa narsalar tashish uchun ishlatiladigan chetan, kajava o‘rnidagi qop. Zambil qop, kashu.

كُزَنْ ***küzän*** – chumchuq ovlashda foydalaniladigan bir turli kalamush, qo‘shoyoq hayvonni ham shunday ataladi.

كُسَنْ ***Küsän*** – كـُجَا *Kučä* degan shaharning boshqa bir oti. U uyg‘urlarning hududidadir.

كَلِنْ ***kelin*** – “kelin”. O‘rta harfi *fatḥa* li bu xil so‘zlar aslida *alif* bilan qo‘shib yozilishi kerak edi. “Tuya tovoni” ma’nosida kelgan تَبَنْ ***tapan*** kabi so‘zlarda ham ikki *alif* yozilishi kerak edi. Bu holda so‘z o‘zagida arabcha yozuvda bo‘lmagan ikki *alif* orttirilgan bo‘ladi: تَابَانْ صوهم; shuningdek, تُبُنْ ***tüpün*** kabi o‘rtasi *ẓamma* li so‘zlarda ikki *vāv* (ya’ni [*ü*]) shakli orttirib yozilishi qoidadir: تُوبُونْ صوهم ***tüpün*** kabi.

Shuningdek, كَلِنْ ***kelin*** so‘zida bir *yā* orttirib yoziladi: كَالِينْ ويهم kabi. Biz ko‘rsatmagan boshqa so‘zlarda ham ahvol shu. Bu so‘zlarda orttirib, qisqartirib qo‘llash mumkin. Chunki bu فَعَلْ *fa’al,* فُعَلْ *fu’al,* فِعَلْ *fi’al* so‘zlari فَعَالْ *fa’āl,* فُعَالْ *fu’āl,* فِعَالْ *fi’āl* ning qisqasidir. Cho‘zib va qisqartib talaffuz qilish so‘zga zarar bermaydi. Lekin orttirib yozish mumkin bo‘lganiday, qisqartish ham yanglish emas. Balki qisqartish muvofiq.

Mujarrad so‘zlar, ya’ni tarkibidagi harflarning hammasi asliy bo‘lgan so‘zlar bo‘limi bitdi.

BU ILK HARFI BILAN IKKINCHI HARFI ORASIGA CHO‘ZUVCHI HARFLAR (مَدّ *madd* HARFLARI) QO‘SHILGAN SO‘ZLAR BOBLARIDIR

فَاعِل *fā’il* qolipidagi har xil harakatli so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

قَاغُتْ *qaɣut* – so‘kdan qilinadigan bir xil ovqat. U shundayki, so‘kni qaynatib, keyin quritib, tegirmonda tortiladi. So‘ng yog‘ va shakar bilan qoriladi [ya’ni holva tolqon qilinadi]. Bu tansiq taomlardandir.

ر ***r*** [harfi]:

جَاتِرْ *čatïr* – “chodir”.

جَاتِرْ *čatïr* – “no‘shadir”; كُجَا *küčä* shevasida.

جَاچِرْ *čačïr* – “chodir”. O‘g‘uzlar buni **جَاشِرْ *čašïr*** deb yuritadilar.

سَاتِرْ *satïr* – “ey haromi” degan ma’nodagi so‘kish. (103a)

سَاغِرْ *sayïr* – konus shaklidagi tagi tor, og‘zi keng idish. Unga ichimlik solinadi; chag‘ir idishi.

ز ***z*** [harfi]:

[**سِيبِزْ *sibiz***] **سِيبِزْ كِشِى *sibiz kiši*** – “betamiz, g‘ofil kishi”.

ش ***š*** [harfi]:

[**تُودَشْ *tüdäš***] **تُودَشْ نَنَكْ *tüdäš näŋ*** – biri biriga o‘xshash narsaga aytiladi. Asli “soch; qil” ma’nosidagi **تُو *tü*** dir. **بُو اَتْ نَا تُولُكْ *bu at ne tülüg?*** – “bu ot qanday rangda?”. دَشْ *-däš* – birgalik, yaqinlikni bildiruvchi qo‘shimcha. “Bir qorindan tug‘ilgan ikki bola”ni **قَرِنْدَشْ *qarïndaš*** deyish ham shuning uchundir. **قَرِينْ *qarïn*** (“qorin”) ga دَشْ *-daš* qo‘shilganda “bir qorinda paydo bo‘lgan” degan ma’no chiqadi. “Emchak”ni **اَمِكْ *emik*** deyiladi, “bir emchakni emgan ikki bola”ga ham **اَمِكْ دَشْ *emikdäš*** deyiladi. “Bir yurtlik ikki kishi”ga **يِرْدَشْ *yerdäš*** deyiladi. “Birodor; yaqin”ga **قَدَشْ *qadaš*** deyiladi; asli “idish” ma’nosidagi **قَا *qa*** dir. Unga دَشْ *-daš* qo‘shilgach, “bir idish[bir qorin]dan” ma’nosini anglatadi. **كُنكُلْدَشْ *köŋüldäš*** so‘zi ham shunday bo‘lib, **كُنكُلْ *köŋül*** so‘zidan yasalgan, “ko‘ngildosh, fikrdosh” degan ma’noni bildiradi. Yuqoridagi **تُودَشْ *tüdäš*** so‘zi ham shunday yasalgan bo‘lib, “turdosh, rangdosh, bir xil rangli” degan ma’nodadir.

تِيدِشْ *tïdïš* – “tiyish, man qilish”.

كَاكُشْ *keküš* – shishga surtiladigan bir turli davo; “kundus” (yetimak).

غ ***ɣ*** [harfi]:

بَالِغْ *balïɣ* – “yarador”.

(Shoir) shunday degan:

اُرْمِشْ اَزُنْ بُسُوغِنْ *Urmïš ažun pusuɣïn,*
قِلمِشْ اَنِى بَالِغْ *Qïlmïš anï balïɣ.*

اَمْ سَمْ اَنـكَرْ تِلانِبْ *Em sem aŋar tilänip,*
سِزْدَا بُلُرْ يَقغْ *Sizdä bulur yaqïγ.*

Holini bayon qilib aytmoqda: “Zamon meni mehnat tuzog‘ida tutdi, yarador qildi. Keyin u davo izlab, sening qoshingda davo topdi”.

تَاتِغْ ***tatïγ*** – “shirinlik”; **تَاتِغْ تَالِغْ** ***tatïγ-talïγ*** deb qo‘shib aytadilar.

ك ***k*/*g*** [harfi]:

بِيشِكْ ***bešik*** – “bola beshigi, beshik”.

دِيدَكْ ***didäk*** – kelin ko‘chganda, yurganda o‘zgalardan yashirinish uchun yopinadigan narsa.

بِيلَكْ ***beläk*** – “hadya, tortiq”.

تُونَكْ ***tünäk*** – “zindon, qamoqxona” (barsag‘ancha).

سُوجِكْ ***sučig*** – “har bir shirin narsa”.

سُوجِكْ ***sučig*** – “sharob, musallas, may”. Bu so‘z qarama-qarshi so‘zlardandir. ايلا *Ïlä* vodiysida yashovchilar (yag‘mo, tuxsi va chigillar) “may”ni **قِزِل سُوجِك** ***qïzïl sučig*** deydilar. (103b)

سِيزِكْ ***sezig*** – “sezgi, gumon”.

كُوبِكْ ***kübik*** – “chopon qavish”.

كُوشِكْ ***köšik*** – “yopish, bekitish, yopinchiq”.

كُولِكْ ***kölik*** – “soya, ko‘lanka”.

ل ***l*** [harfi]:

قَاغِلْ ***qaγïl*** – “istak” (tok novdalarini bog‘lashda ishlatiladigan mayda va ho‘l tol chiviqlari). Maqolda (shunday kelgan): **قَلْ سَاقِى قَلْمَاسْ قَاغِلْ بَاغِى يَزِلْمَاسْ** ***Qal sawï qalmas, qaγïl bayï yazïlmas.*** Ma’nosi: “Keksalarning so‘zi, nasihati bekor ketmaydi, tolning ho‘l novdasining bog‘i yechilmaydi”.

م ***m*** [harfi]:

بِيرِمْ ***berim*** – “olingan qarz, beriladigan narsa”. Maqolda (shunday kelgan): **اَلِمْجِى اَرسْلانْ بِيرمْجِى سِجْغَانْ** ***Alïmčï – arslan, berimči – sïčγan.*** Ma’nosi: “Olimchi [ya’ni qarz bergan] – arslon, berimchi [ya’ni qarz to‘lovchi] – sichqon”.

ن ***n*** [harfi]:

بِيجِنْ ***bičin*** – “maymun”.

بِيجِنْ ***bičin*** – (“maymun”); turklarda o‘n ikki yil otlarining biri.

تِيمِنْ ***temin*** – “bundan oldin” ma’nosidagi yordamchi so‘z; **تِيمِنْ كَلْدِمْ** ***temin keldim*** – “bundan oldin, yaqinda keldim”.

جُوذِنْ ***čoδïn*** – eritib quyilgan bir turli mis; **جُوذِنْ اَشِجْ** ***čoδïn ešič*** – “mis qozon”.

سُوغَنْ ***soγun*** – “piyoz”; **سُوغَنْ** ***soγan*** tarzidagi talaffuzi ham bor.

[**سُوغَنْ** ***suγan***] **سُوغَنْ يِلَانْ** ***suγan yïlan*** – katta, lekin zararsiz ilon.

سِيغُنْ ***sïγun*** – “bug‘u”; **سِيغُنْ اُتِى** ***sïγun otï*** – ildizi odam shaklida o‘sadigan bir o‘simlik. U bilan jinsiy aloqa qilishdan ojizlanib qolgan kishilar davolanadi. Forslar buni اِستَرَنكْ *istaraŋ* deydilar. Uning erkak va urg‘ochisi bor. Erkagidan erlar, urg‘ochisidan xotinlar foydalanadilar.

سِيغُنْ سَمُرْ *Sïyun samur* – بُغْرَاخَانْ *Buγraxan* ga zahar berilgan joyning oti.

چَاذَنْ *čaδan* – “chayon”.

لَاجِنْ *lačïn* – “lochin”. Bu yirtqich qushlardandir. Botir yigitlarni ham **لَاجِينْ *lačïn*** deydilar.

فَاعُول *fā’ūl* shaklidagi so‘zlar bo‘limi

قَاتُونْ *qatun* – اَفرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* urug‘idan bo‘lgan qizlarning unvoni. Maqolda (shunday kelgan): **خَانْ اِيشِى بُلْسَا قَاتُونْ اِيشِى قَلِيرْ *Xan ïšï bulsa, qatun ïšï qalïr.***

Ma’nosi: “Xonning ishi chiqsa, xotunning ishi qoldiriladi”. Bu maqol arablarning اذاجا نهر الله بطل نهر عيسى degan iborasiga o‘xshaydi. (104a)

قَاغُونْ *qaγun* – “qovun”. Maqolda (shunday kelgan): **قَاغُونْ قَرْمَا بُلْسَا اِدِيسِى اِكّى اَلِكِنْ تَكِيرْ *Qaγun qarma bolsa, iδisi ikki eligin tegir.*** Ma’nosi: “Qovun talon bo‘lsa, egasi ikki qo‘li bilan tortadi”. Bu maqol “kishi o‘z moliga haddan ortiq hirs qo‘yadi” mazmunida qo‘llanadi.

لَاغُونْ *laγun* – ichi chuqur qilib yog‘ochdan qilingan idish. Unda sut, qatiq va shunga o‘xshash narsalar ichiladi. Yog‘och tovoq.

BU IKKINCHI VA UCHINCHI HARFLARI ORASIGA TURLI UNLILAR (مَدّ *MADD* VA لِين *LĪN* HARFLARI) QO‘SHILGAN SO‘ZLAR BOBLARIDIR

فَعِيل *fa’īl,* فَعُول *fa’ūl,* فَعَال *fa’āl* qoliplaridagi so‘zlar bo‘limi

ج ***č*** [harfi]:

بُقَاجْ اَرتْ *Buqač art* – o‘tish qiyin bo‘lgan bir yo‘l.

بُقَاجْ *buqač* – “tovoq; qozon”. **اَشِجْ بُقَاجْ *ešič-buqač*** – “qozin-tovoq”.

ر ***r*** [harfi]:

تَتَارْ *tatar* – turkiy xalqlarning bir urug‘i.

تَغَارْ *tayar* – bug‘doy va boshqa narsalar solinadigan qop.

تَوَارْ *tawar* – “tavar, mol, mato”.

جَوَّارْ *čawar* – “tutantiriq”; **جَوَّارْ جُوَّارْ *čawar-čuwar*** shaklida juft holda qo‘llanadi.

سُقَارْ *soqar* – har bir shoxsiz hayvon. Ikki chakkasigacha sochi yo‘q yoki sochi to‘kilib ketgan kal kishiga ham **سُقَارْ *soqar*** deyiladi; **سُقَارْ قُوىْ *soqar qoy*** – “shoxsiz qo‘y”.

خُزَارْ *Xuzar* – turk shaharlaridan birining oti.

ز ***z*** [harfi]:

كُوَازْ *küwäz* – “kibrlik; o‘zini katta oladigan kishi”.

مَرَازْ *maraz* – “chivit o‘ti”.

مَرَازْ *maraz* – “muzd, ish haqi”. Arg‘u va yag‘molar **خِيَارْ مَرَازْ *xïyar maraz*** deydilar.

غ *ɣ* [harfi]:

تَشُوغ *tašuɣ* – mato va boshqa narsalarni tashish; bir yerdan boshqa bir yerga ko‘chirish.

تُشَاغ *tušaɣ* – “tushov; eshak va otning (oldingi ikki) oyog‘ini bog‘lash, tushovlash”.

ق *q* [harfi]:

بَجَاقْ *bačaq* – “nasoriylar ro‘zasi”.

تَلَاقْ *talaq* – “qorajigar; taloq”.

تِلَاقْ *tïlaq* – xotinlar avrati (chigilcha).

سُلَاقْ *sulaq* – “taloq; qorajigar” (qipchoqcha); *tā sīn* ga almashgandir. Bu ست ning asli سدس bo‘lgani singari yoki طس ning asli طست bo‘lgani singari. Nahv olimlari (اهل النحو) shuni qat’iylashtirgan.

Quyidagi she’rda نات so‘zi ناس o‘rnida kelgan:

جزى الله بنى السعلات
عمرا وقابوس شرار النات

ك *k* [harfi]:

بُدِيكْ *büdik* – “o‘yin, raqs”.

بَزَاكْ *bezäk* – “bezak, ziynat”. Bu so‘zning **بَزَكْ** shakli ham bor.

تِرَاكْ *teräk* – “terak daraxti”.

تِلَاكْ *tiläk* – “tilak, maqsad”.

[**تُلَاكْ *tüläk***] **تُلَاكْ يِلْقِى *tüläk yïlqï*** – “tullagan hayvon”. (104b) Mollar qishda junini to‘kib, yangi jun chiqarsa, **تُلَادِى *tüllädi*** deyiladi.

ل ***l*** [harfi]:

تُكَالْ *tügäl* – “tugal, tamom”. Butun narsaga ham **تُكَالْ *tügäl*** deyiladi: **تُكَالْ اَلْغِلْ *tügäl alɣïl*** – “butunlay ol; tugal ol; hammasini olgin”.

[**قِقَّالْ *qïwal***] **قِقَّالْ بُرُنْ *qïwal burun*** – “kelishgan, bichimli burun”. Bu hammaga sevimlidir.

(Shoir) shunday degan:

اَرْدِى سِنِى قِيزْ ***Ardï seni qïz,***
بُودِى اَنِكْ تَالْ ***Bodï anïŋ tal.***
يَيْلِرْ اَنِكْ اَرْتُجِى ***Yaylïr anïŋ artučï,***
بُرْنِى تَقِى قِقَّالْ ***Burnï taqï qïwal.***

Joriyani maqtab aytmoqda: “Seni yumshoq badanli qiz aldadi. (Uning) badani yumshoqligidan ar’ar novdalari singari egilar edi. Burni ham kelishgan, bichimli burun edi”.

م ***m*** [harfi]:

جُرَامْ ***čuram*** – yengil o‘q bilan otish. Bu oddiy bir o‘q otilishidan ko‘ra uzoqroq. O‘q uzoqroq borsin uchun kishi uni chalqancha yotib otadi. Bu xilda otilgan o‘qqa **جُرَامْ أقِى** ***čuram oqï*** deyiliadi.

[**قُرَامْ** ***quram***] **قُرَامْ كِشِى لَارْ** ***quram kišilär*** – shoh qoshida o‘tirgandek darajalariga qarab tartibli o‘tiruvchilar; **كِشِلَارْ قُرَامْ اُلتُرْدِى لَارْ** ***kišilär quram olturdïlar*** (“kishilar o‘z darajalariga qarab o‘tirdilar”) gapi mana shu asosdadir.

ن ***n*** [harfi]:

بُلَانْ ***bulan*** – qipchoqlar elida bo‘ladigan yirik gavdali vahshiy hayvon, uni ovlaydilar. Uning bandsiz idish ko‘rinishidagi osmonga qarab chiqqan ichi kovak bir shoxi bor. Unda qor, yomg‘ir suvlari to‘planadi. Urg‘ochisi tiz cho‘kib, erkagi uning shoxidan, erkagi tiz cho‘kib, urg‘ochisi uning shoxidan suv ichadi.

تِكِينْ ***tigin*** – aslida bu so‘z “qul” demakdir: **كُمُشْتِكِينْ** ***kümüš tigin*** – “kumushday toza rangli qul” demakdir; **اَلبْ تِكِينْ** ***alp tigin*** – “bahodir qul”; **قُتْلُغْ تِكِينْ** ***qutluγ tigin*** – “muborak qul”. So‘ng bu so‘zni xoqoniya (الخاقانيه) bolalarigagina xoslab atadilar. Keyin bu so‘z birorta yirtqich qush oti bilan juft holda ishlatiladigan bo‘ldi: **جَغْرِى تِكِينْ** ***čaγrï tigin*** – “hujumda lochindek qul”; **كُجْ تِكِينْ** ***küč tigin*** – “kuchli, quvvatli qul”. So‘ng bu ot اَفرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* bolalariga ham qo‘llana boshladi. (105a) اَفرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* ning bolalari biror ish, voqea, xabarni aytganda yoki yozganda otalariga hurmat yuzasidan o‘zlarini kamsitib, “qulingiz falon qildi” deb “qulingiz” o‘rnida **تِكِينْ** ***tigin*** so‘zini ishlatar edilar. So‘ng bu so‘z ularga ot bo‘lib qoldi. Boshqa qullardan ajratish uchun bu so‘zning yoniga yana bir narsa [ya’ni uning otini yoki laqabini ham] qo‘shib ishlatiladi.

تُزُونْ ***tüzün*** – “yumshoq fe’lli, muloyim kishi”. Maqolda (shunday kelgan): **تُزُونْ بِيرْلَا اُرُشْ اُوتُونْ بِيرْلَا تِرشْمَا** ***Tüzün birlä uruš, utun birlä tiräšmä.*** Ma’nosi: “Yumshoq kishi bilan olish, u sendan yengilishi mumkin. Qattiq yuzli kishi bilan olishma, u seni yengadi”.

تُكُونْ ***tökün*** – “dog‘, tamg‘a”.

تُمَانْ ***tuman*** – “tuman”.

جَرُونْ ***čarun*** – “chinor daraxti” (yag‘mocha).

جِكِينْ ***čikin*** – tokzorlarda o‘sadigan bir o‘simlik. Tola-tola bo‘lib o‘sadi, uni hayvonlar yeydi.

جِكِينْ ***čikin*** – “ipak”; **جِكِينْ يِبِى** ***čikin yïpï*** – “ipak ip”.

جِكِينْ ***čikin*** – atlasni zar qubbali qilib tikish; **جِكِينْ جِكْنَادِى** ***čikin čiknädi*** – “atlasni zar qubbali qilib tikdi”.

سَمَانْ ***saman*** – “somon” (chigilcha).

قُلَانْ ***qulan*** – “qulon, yovvoyi eshak”.

قَبَانْ ***Qaban*** – erlar otidan.

قُتَانْ ***Qutan*** – bu ham erlar otidan.

كُكَانْ *kökän* – buzoq va qo‘zichoqlarning arqonlari hamda sog‘iladigan biyalarning sog‘ishda bog‘lanadigan arqonlari.

يِلْ كُكَانْ *yel kökän* – “o‘q, yoy”.

OXIRIGA HARF QO‘SHILGAN *SĀLIM* SO‘ZLAR

فَعْلِى *fa’lī*, فَعْلُو *fa’lū*, فَعْلَى *fa’lā* qoliplaridagi o‘rtasi harakatsiz so‘zlar bo‘limi

ب *b* [harfi]:

تُرْبِى *turbï* – bir yoshli buzoq; “qarzdor; yordamchi” ma’nolari ham bor.

[**كُرْبَا *körpä***] **كُرْبَا اُوتْ *körpä ot*** – “ko‘rpa o‘t” [bedaning bir qarich va undan o‘siq vaqti]; **كُرْبَا يِمِيشْ *körpä yemiš*** – birinchi marta terib olingandan keyin, ikkinchi qayta chiqqan hosil, meva. Yozda tug‘ilgan bolaga ham **كُرْبَا اُغُلْ *körpä oγul*** deyiladi. Shuningdek, vaqtidan o‘tib tug‘ilgan qo‘zi, echki, buzoqlarni ham **كُرْبَا *körpä*** deyiladi.

كِرْبِى *kirpi* – “tipratikan, kirpi”; **اُقْلُغْ كِرْبِى *oqluγ kirpi*** – tipratikanning juda katta xili.

جَتِيبَا *čatïpa* – ariq qazishga, to‘g‘on bo‘g‘ishga chiqmaganlardan qishloq oqsoqoli oladigan soliq (chigilcha). (105b)

كَنْپَا *kenpä* – bir turli o‘simlik (kanjakcha).

ت *t* [harfi]:

پَرْتُو *partu* – “yaxtak; bir qavatli ustki to‘n”.

بُرْتَا *burta* – kiyimlarga chatiladigan girdak shaklidagi yupqa zarlar.

تَخْتُو *taxtu* – yigirilmagan xom ipak.

سُكْتِى *sökti* – “kepak” (barsag‘ancha).

سُقْتُو *soqtu* – bu shunday ichaklarki, ularni jigar, go‘sht va turli dorivorlar bilan to‘latiladi, keyin qaynatib yeyiladi.

قِڤْتُو *qïwtu* – “qaychi” (chigilcha).

كِرْتُو *kirtü* – “qasam”.

كِرْتُو *kirtü* – “rostlik, ishonch, haqiqat”. O‘lik haqida: **اُلْ كِرْتُو يِيرْدَا اُلْ *ol kirtü yerdä-ol***, ya’ni: “u chin yerdadir, u haqda yolg‘on gapirib bo‘lmaydi” deydilar; **اُلْ تَنكْرِيكَا كِرْتِنْدِى *ol Täŋrikä kirtindi*** – “u Tangriga ishondi va payg‘ambarini tasdiqladi”.

ج *č* [harfi]:

بَرْجَا *barča* – “barcha, butun, hamma”; **بَرْجَا كلْدِى لَارْ *barča keldilär*** – “hammasi keldi, barcha keldi”. (Donishmand) shunday degan: **قُلْدَجِى قَا مِنكْ يَغَاقْ بَرْجَا بِلَا اَيْرُقْ تَيَاقْ *Quldačïqa miŋ yaγaq, barča bilä ayruq tayaq.*** Aytmoqdaki: “Tilanchiga mingta yong‘oq, bularning ustiga yana suyanadigan hassa ham berishim kerak”.

تَرْجِی *terči* – “muzd, ish haqi oluvchi”.

تُنْجُو *tunču* – “bir yutim ovqat, luqma”.

جُمْجَا *čömčä* – “cho‘mich” (o‘g‘uzcha).

جِنْجُو *činčü* – “marvarid, inju” (o‘g‘uz va qipchoqcha); *yā* harfi ج *čīm* ga almashgandir.

جَنْجُو *čanču* – ugraning xamirini yoyadigan, xamir yoyadigan asbob, o‘qlov.

سِنْجُو *sinčü* – lochiradek, juda yupqa ham, qalin ham bo‘lmagan bir turli non.

شَنْجُو *Šanču* – Yuqori صین *Ṣīn* yo‘lidagi bir shahar. **شَانْجُو *Šanču*** deb *šīn* dan keyingi *alif* ni cho‘zib o‘qish yaxshi.

قَمْجِی *qamčï* – “qamchi”; **قِلِچْ قَمْجِی *qïlïč qamčï*** – “qilich qamchi; qilichli qamchi; ichida qilichi bor qamchi”.

قَمْجِی *qamčï* – ot, buqa va tuyalarning olati, ko‘pincha otga nisbatan aytiladi va **اَتْ قَمْجِیسِی *at qamčïsï*** deyiladi.

كَفْجِی *kewči* – كَاشْغَارْ *Kāšγar* dan اُیْغُرْ *Uyγur* largacha bo‘lgan joylarda qo‘llanadigan o‘lchov; u o‘n ratldan iborat (1 ratl =436,8 gr.).

كُمْجُو *kömčü* – “xazina”. Ko‘milgan mol va yig‘ilgan narsa; **تَقْغَاجْ كُمْجُوسِی *tawγač kömčüsi*** – “odatdagi xazina; od qavmi (عادی) xazinasi”.

مَنْجُو *manču* – faqat kosiblarning ish haqi, boshqalarniki emas.

د *d* [harfi]:

بُكْدَا *bügdä* – “xanjar”.

بَلْدُو *baldu* – “balta”.

تَمْدُو *tamdu* – “o‘t alangasi, yolqini”. Buni **تَمْدُق *tamduq*** ham deydilar.

[**چُكْدِی *čökdi***] **چُكْدِی اُلْخسَا *čökdi uluxsa*** – quloq tagidagi gardon osti suyagi.

سَمْدَا *samda* – oyoqqa kiyiladigan sandal (chigilcha).

سِنْدُو *sïndu* – (106a) “qaychi” (o‘g‘uzcha).

قَمْدُو *qamdu* – bo‘yi to‘rt gaz va eni bir qarich bo‘lgan bo‘z bo‘lagi. Buning ustiga uyg‘ur xoni (خَان اُیْغُور)ning muhri bosilib, savdo-sotiqda pul o‘rnida foydalaniladi. Eskirib, muhriga ziyon yetsa, yetti yildan so‘ng yuvilib, yangi muhr bosiladi.

قَنْدَا *qanda?* – “qayerda?”, joy to‘g‘risidagi so‘roq so‘zi; **قَنْدَا اَرْدِینكْ *qanda erdiŋ?*** – “qayerda eding?, qayerda bo‘lding?”. Asli **قَیْدَا *qayda*** so‘zidagi *yā* harfi *nūn* ga o‘zgargan, uning asli esa **قَیُودَا *qayuda*** dir.

قَرْدُو *qardu* – qattiq sovuqda funduk yong‘og‘i kattaligida suv yuzida oquvchi muz parchalari.

(Shoir) shunday kelgan:

قَرْدُونِی یِنْجُو سَقِنْمَانكْ	*Qardunï yinčü saqïnmaŋ,*
تُزْغُونِی مَنْجُو سِزِنْمَانكْ	*Tuzγunï manču sezinmäŋ.*
بُلْمَادُقْ نَانكْ كَا سَقِنْمَانكْ	*Bulmaduq näŋkä sewinmäŋ,*
بِلْكَالارْ اَنِی یِیرَارْ	*Bilgälär anï yerär.*

Aytmoqdaki: “Muz donalarini inju deb o‘ylamang, hadya ovqatni mukofot, ish haqi deb bilmang. Bo‘lmagan narsaga sevinmang, donolar uni yoqtirmaydilar”.

كَنْدُو *kendü* – “kandu, o‘zi, o‘z zoti, nafsi”; **اُلْ كَنْدُو اَيْدِى *ol kendü aydï*** – “u o‘zi aytdi”.

كُنْدِى *kündi* – “past, razil”; **اُلْ كُنْدِى كِشِى *ol kündi kiši-ol*** – “u past va razil kishidir”. Gapni aniqlash uchun ba’zan **اُلْ *ol*** so‘zi yordamchi sifatida takrorlanib orttiriladi.

مُنْدَا *munda* – “munda, bunda; shu yerda”; **اُلْ مُنْدَا اُلْ *ol munda-ol*** – “u shu yerdadir; u bundadir”.

(Shoir) shunday degan:

اَمْكَكْ سِزِنْ تُرْغُو يُوقْ مُنْدَا تَمُو ***Emgäksizin turγu yoq munda tamu,***
اَدْگُولُكْكْ كُرْمَذِبْ اَژُنْ جِقَارْ ***Eδgülügüg körmäδip ažun čïqar.***

Aytmoqdaki: “Bu dunyoda kishining mashaqqatsiz turishi sira mumkin emas. Kishi biror yaxshilik ko‘rmay turib, dunyodan o‘tadi”.

مَنْدَا *mendä* – “menda; yonimda” ma’nosidagi so‘z.

مَنْدُو *mandu* – turk sirkasining oti. Yaxshi uzum suvini olib, xumga solinadi va achitiladi. So‘ng ustiga toza musallas quyilib, bir kecha qo‘yiladi. Nihoyat, sirka bo‘lib yetiladi. Sirkaning eng yaxshisi shudir.

بُغْرَا *buγra* – “erkak tuya”; بُغْرَاخَانْ *Buγraxan* oti ham shundan olingan. (106b)

بُكْرِى *bükri* – “har bir bukri narsa”.

تَتْرُو *tetrü* – “har narsaning teskarisi, aksi”.

تُغْرُو *tuγru* – qilich, pichoq, xanjar dastalariga kirgiziladigan bandlari.

تَكْرَا *tegrä* – “tegra, tevarak, atrof, qirg‘oq”; **قُذْغ تَكْرَسِى *quδuγ tegräsi*** – “quduq atrofi”.

جُبْرَا *čüprä* – “eski kiyim”.

جَغْرِى *čaγrï* – “lochin”; **جَغْرِى بَكْ *Čaγrï-beg*** deyilgan kishi oti ham shundan.

جغْرِى *čïγrï* – “gardish, chig‘riq”; **كُوكْ جِغْرِيسِى *kök čïγrïsï*** – “osmon gardishi”.

جغْرِى *čïγrï* – “tegirmon parragi; suv chiqaradigan chig‘riq parragi”. “Ipak va ip o‘raydigan charx”, umuman, “har qanday g‘altak”ka ham shu so‘z qo‘llanadi.

(Shoir) shunday degan:

جَغْرِى اَلِبْ اَرْقُنْ مُنُبْ اَرْقَرْ يَتَارْ ***Čaγrï alïp, arqun münüp, arqar yetär.***
اَفَلَرْ كَيِكْ تَيْغَنْ اِدْبْ تِلْكُو تُتَارْ ***Awlar keyik, tayγan, ïδïp tilkü tutar.***

Bir kishining ov qilishini sifatlab aytmoqda: “Qo‘liga lochinni qo‘ndiradi; chopqir otini minadi-da, tog‘ echkilarini tutadi; shalpangquloq, xipcha tozi itlar bilan yovvoyi hayvon va tulkilarni ovlaydi”.

پِيَغْرِى *sayrï* – “maxsus, chidamli charm”. Har narsaning terisiga ham **پِيَغْرِى *sayrï*** deyiladi. Shundan olib, **يِير سَغْرِيسِى *yer sayrïsï*** – “yer yuzi, sahni” deyiladi; **كِشِى سَغْرِيسِى يُوزْ *kiši sayrïsï yüz*** – “kishining terisi yuzdir”. Chunki yuz terisi issiq-sovuqqa chidamli va qattiqroq bo‘ladi.

سِيغْرَا *sïyra* – “ikki tog‘ orasidagi katta yo‘l; vodiy” (o‘g‘uzcha).

سُقْرَى *süwräy* – “uchi nayza singari o‘tkir narsa. Chirog‘poya va six singari uchi nayza kichik narsalar”.

[سُقْرُو / سِقْرُو *suqru* / *sïqru*] سِقْرُو كِرْدِمْ / اَڤكَا سُقْرُو *ewkä suqru* / *sïqru kirdim* – “uyga ruxsatsiz kirdim”.

كُسْرِى *kösri* – “ko‘krak qovurg‘alari”.

كُفْرَا *küwrä* – har bir hayvon o‘lgandan so‘ng, ichidagilari ketib, eti qurib suyaklariga yopishib qolgan holati.

كَكْرَا *käkrä* – tuya yeydigan achchiq o‘t.

ز *z* [harfi]:

بَنْزِى *banzï* – uzum kesish vaqti o‘tgandan keyin, ishkomda qolgan uzum (107a) (kanjakcha).

سُنْزِى *sunzï* – burga jinsidagi bir hasharot. Men uni “bit” deb o‘ylayman.

جَڤْژُو *čawžu* – tanasi, shoxlari qizil, tog‘larda o‘sadigan bir daraxt. Qizil, achchiq doni bor. Shoxlarining yumshoq va qizilligidan xotinlarning barmoqlari unga o‘xshatiladi.

كَنْزِى *kenzi* – صين *ṣīn* to‘qimalarining bir turi. U qizil, sariq va zangori kabi turli tusda bo‘ladi.

س *s* [harfi]:

بُخْسِى *buxsï* – bir turli ovqat: bug‘doy qaynatiladi, keyin uni bodom mag‘zi bilan qo‘shib xumchaga solinadi; ustiga arpa suvi quyiladi va shu holda qo‘yib achitiladi. Bug‘doyi yeyiladi, suvi ichiladi.

تُخْسِى *tuxsï* – turklarning bir toifasi. قُيَاسْ *Quyas* da turadilar. Ularni **تُخْسِى جِكِلْ *tuxsï čigil*** deydilar.

تَڤْسِى *tewsi* – “dasturxon”.

تُمْسَا *tümsä* – “minbar; baland yer” (o‘g‘uzcha). Aslida bu so‘z turkcha emas.

خَڤسِى *xawsï* – “kichik quticha; huqqa”.

ش *š* [harfi]:

تُتْشِى *tutšï* – “tutash, yopishiq”; **اَنِىڭ يِيرِى مَنِڭْ يِيرْكَا تُتْشِى اُلْ *anïŋ yeri meniŋ yerkä tutšï-ol*** – “uning yeri mening yerimga tutash”. Bu so‘zda ج *čīm* bilan *šīn* birlashib ketgan; **تُتْچِى *tutčï*** ham deydilar.

تُتَاشِى *tutašï* – “tutashgan, yopishgan, birlashgan”; **مَنْ سَنكَا تُتَشِى بَرِيرْمَنْ *men seŋä tutašï barïr-men*** – “men senga tutashib boraman”.

جَخْشُو *čaxšu* – “huzaz o‘simligi”. U bilan ko‘z og‘rig‘i davolanadi. U so‘z aslida turkcha emas.

قَرْشِى *qaršï* – “shoh qasri”.

قَرْشِی *qaršï* – “teskari, qarshi”; **تُونْ كُونُكْ قَرْشِيسِی اُلْ *tün künüg qaršïsï-ol*** – “tun kunning qarshisidir”.

قَرْشِی *qaršï* – “ikki bek orasidagi qarshilik”; **اُلْ بَكْ اَنِكْ بِرْلَا قَرْشِی اُلْ *ol beg anïŋ birlä qaršï-ol*** – “u bek u bek bilan qarshidir”.

[**قَقْشِی *qawšï***] **قَاشْ قَقْشِی *qawšï qaš*** – “tutash va birikkan qoshli”.

غ *ɣ* [harfi]:

بَتْغَا *batɣa* – qalpoqlar uchun ishlatiladigan namat va yungni qo‘yib qirqiladigan taxta.

تُزْغُو *tozɣu* – yo‘lda ketayotgan tanish yoki yaqinlarga chiqarib beriladigan ovqat hadyasi.

تَمْغَا *tamɣa* – “shoh va boshqalarning tamg‘asi, muhri”.

تَمْغَا *tamɣa* – dengiz, ko‘l va vodiylarga quyiladigan suvning bir tarmog‘i. Dengizning qayiq to‘xtaydigan joyi ham **تَمْغَا *tamɣa*** deyiladi. (107b)

(Shoir) shunday degan:

تَمْغَا سُقِی تَشْرَا جِقِبْ تَاغْغْ اُتَارْ	***Tamɣa suwï tašra čïqïp tayïɣ ötär,***
اَرْتُجْ لَرِی تَكْرَا اُنُبْ تِزْكِنْ يَتَارْ	***Artučlarï tegrä ünüp tizgin yetär.***

Aytmoqdaki: “Bu suvning tarmog‘i toqqa va tog‘ yon bag‘riga tarqaladi, siljiydi. U yerlarda sarv daraxtlari ot tizimidek qatorlashib ko‘karadi”.

جُفْغَا *čuwɣa* – tezyurar xat tashuvchining yo‘lda oladigan oti, ma’lum manzilga yetganda, uni qoldirib, boshqasini minadi.

جُفْغَا *čuwɣa* – “yo‘l boshlovchi, rahbar” (qipchoq va o‘g‘uzcha). Maqolda (shunday kelgan): **قَلِنْ قُلَانْ جُفْغَاسِزْ بُلْمَاسْ *Qalïn qulan čuwɣasïz bolmas.*** Ma’nosi: “Qulonlar podasi yo‘lboshchisiz bo‘lmaydi”.

Bu maqol ulug‘ ishda boshqalarga ergashish va bo‘ysunishga buyurilgan kishilarga qarata aytiladi.

سُرْغُو *soryu* – “qortiq” [qon olishda qo‘llanadigan uskuna].

[**سَلْغَا *salɣa***] **سَلْغَا اَتْ *salɣa at*** – “boshi qattiq ot”.

قَپْغَا *qapɣa* – “qopqa, darvoza”.

قَدْغُو *qaδyu* – “qayg‘u, g‘am”.

قُدْغُو *qudyu* – “pashsha”.

قَرْغَا *qarɣa* – “qarg‘a”. Maqolda (shunday kelgan): **قَرْغَا قَرِيسِنْ كِمْ بِلِيرْ كِشِی اَلاسِنْ كِمْ تَبَارْ *Qarɣa qarïsïn kim bilir, kiši alasïn kim tapar.*** Ma’nosi: “Qarg‘aning yoshidan qarisini kim ayira oladi, kishining ko‘nglini kim bila oladi”. (Shoir) shunday degan:

قَرْغَا قَلِی بِلْسَا مُنْكِنْ اُلْ بُزْ سُقَارْ	***Qarɣa qalï bilsä muŋïn ol buz soqar,***
اَقِچِی يَشِبْ تُزَقْ تَبَا مَنْكْكَا يَقَارْ	***Awčï yašïp tuzaq tapa mäŋkä yaqar.***

Aytmoqdaki: “Qarg‘a agar ochlik, tashnalikning qiyinchiligini bilsa, u muzni cho‘qiydi; berkinib turgan ovchini ko‘rmay, uning tuzog‘idagi donni yeyman, deya baloga qoladi”.

[قُرْغُو ***quryu***] قُرْغُو اَرْ ***quryu er*** – “yengil tabiatli kishi”.

قَرْغُو ***qaryu*** – yov xavfidan saqlanish uchun eng baland yerga qurilgan minora shaklidagi bino bo‘lib, yov ko‘rinishi bilan hamma tezda qurollanishiga ishora qilib u yerga o‘t yoqiladi.

[قَشْغَا ***qašya***] قَشْغَا قُوىْ ***qašya qoy*** – “qashqa qo‘y”; قَشْغَا اَتْ ***qašya at*** – “qashqa ot”. “Qashqa tuya”ga ham shu so‘z ishlatiladi.

قَشْغَا بُغْرَا ***Qašya buyra*** – ikki joyning oti.

قَمْغِى ***qamγï*** – “har bir bukilgan va egri narsa”. “Yuz falajiga uchragan kishi”ga قَمْغِى يُوزْلُكْ ***qamγï yüzlüg*** deydilar.

ڤ ***w*** [harfi]:

تَلْڤَا ***telwä*** – “telba, devona”.

قَلْڤَا ***qalwa*** – temirsiz, uchi dumaloq yog‘ochdan qilingan o‘q. (108a)

ق ***q*** [harfi]

[بُرْقِى ***burqï***] بُرْقِى نَانكْ ***burqï näŋ*** – “tirishgan va burishgan narsa”. Bu jahli chiqqan kishining tirishgan manglayiga o‘xshaydi.

تَرْقَا ***tarqa*** – “g‘o‘ra uzum”. Bu so‘zning تَلْقَا ***talqa*** shakli ham bor.

تُرْقُو ***torqu*** – “ipak kiyimlik”. Maqolda (shunday kelgan): تَقْغَاجْ خَانّكْ تُرْقُوسِى تَلِمْ تَنكْلامَذِبْ بِجْمَاسْ ***Tawγač xannïŋ torqusï telim, teŋlämäδip bïčmas.*** Ma’nosi: “Tavg‘ach xoqonining ipak gazmoli ko‘p, lekin o‘lchamay, kesilmaydi”. Bu maqol ishni boshdan puxta o‘ylab qilishga undab, isrofgarchilikka qarshi aytiladi.

تَلْقَا ***talqa*** – “g‘o‘ra uzum”; *lām rā* ning o‘rnida almashgan.

تَلْقُو ***talqu*** – “bukilgan, o‘ralgan narsa”; تَلْقُو بِشِغْ ***talqu yïšïγ*** – “bukilgan, o‘ralgan arqon”.

جَنْقَا ***čanqa*** – “ovda qo‘llanadigan bir tur tuzoq”.

[قَتْقِى ***qatqï***] قَتْقِى كِشِى ***qatqï kiši*** – “hech kimsaga bo‘ysunmaydigan, o‘jar kishi”.

[قُتْقِى ***qutqï***] قُتْقِى اَرْ ***qutqï er*** – “xushmuomala, tavozeli kishi”.

ك ***g*** [harfi]:

بَرْكَا ***bergä*** – o‘g‘rilarni kaltaklash va eshakni haydashda ishlatiladigan xarcho‘p, qamchi.

بُرْكَا ***bürgä*** – “burga”. “Yengil tabiatli kishi”ni unga o‘xshatib, بُرْكَا كِشِى ***bürgä kiši*** deyiladi.

بِيرْكُو ***bergü*** – “(beriladigan) qarz”; اَنِكْ مَنكَا بِيرْ اَتْ بِيرْكُوسِى بَارْ ***anïŋ meŋä bir at bergüsi bar*** – “u mendan bitta ot qarzdor”.

بَلْكُو ***belgü*** – “belgi, alomat, nishon”. Maqolda (shunday kelgan): قُتْ بَلْكُوسِى بِلِكْ ***Qut belgüsi – bilig.*** Ma’nosi: “Baxtning belgisi bilim va aqldir”.

بِلْكَا ***bilgä*** – “hakim, hikmatshunos”.

بِلْگَا *bilgä* – “olim, bilag‘on”.
بِلْگَا *bilgä* – “oqil, aqlli”.
(Shoir) shunday degan:

بِلْگَا اَرِكْ اَدْگُو تُتُبْ سُوزِنْ اِشِتْ	***Bilgä erig eδgü tutup, sözin ešit,***
اَرْدَمِنِى اُگْرَنِبَنْ اِشْقَا سُرَا	***Erδämini ögränipän ïšqa sur-a.***

Aytmoqdaki: “Bilimli, aqlli kishilarga yaxshilik qilib, so‘zlarini tingla. Ilmu hunarini o‘rganib, amalga oshir”.

بِلْگَا بَگْ *bilgä beg* – “ilmli bek; aqlli, donishmand bek”. Uyg‘ur xoni **كُولْ بِلْگَا خَانْ *Köl bilgä xan*** deb atalar edi, buning ma’nosi “aqli ko‘ldek” demakdir. (108b) “Aqlli kishi”ga **بُگُو بِلْگَا *bögü bilgä*** deydilar.

تَرْگُو / تَرْكُو *tergü* – turli ovqatlar bilan to‘la dasturxon.

تِرْكِى *tergi* – “dasturxon”. Maqolda (shunday kelgan): **تِلِنْ تِرْكِى گَا تَكِيرْ *Tilin tergikä tegir.*** Ma’nosi: “Shirin, yoqimli so‘z bilan kishi dasturxonga yetishadi”. Bu maqol arabcha “kishi o‘z fazilatini tili orqali bildirishi kerak” degan maqolga o‘xshaydi.

[**تَزْكِى *tezgi***] **تَزْكِى بُلْدِى *tezgi boldï*** – “xalqning yov bosib kelish xavfidan qo‘rqib qochishi”ga nisbatan ishlatiladi.

تِلْكُو *tilkü* – “tulki”. Bu so‘z bilan qiz boladan kinoya qilinadi. Biron xotin tuqqanda doyadan: **تِلْكُومُو تُغْدِى اَزُو بُرِيمُو *Tilkümü tuγdï azu börimü?*** (“Tulki tug‘dimi yoki bo‘rimi?”) deb so‘raladi. Ya’ni “qizmi yoki o‘g‘ilmi?” demakdir. Qizlar aldoqchi hamda yalinchoq bo‘lganlari uchun tulkiga, o‘g‘il bolalar botirligiga ko‘ra bo‘riga o‘xshatiladi.

[**تِلْكَا *tilkä***] **بِيرْ تِلْكَا اَتْ *bir tilkä et*** – “bir bo‘lak go‘sht”. Uzunasiga kesilgan har narsaga ham **تِلْكَا *tilkä*** deyiladi; **بِيرْ تِلْكَا بِيرْ *bir tilkä yer*** – “uzunasiga ayrilgan bir bo‘lak yer”.

جَجْكَا *čečkä* – “to‘quvchilarning (ip taraydigan) tarog‘i”.

[**جُرْكُو *čürkü***] yosh bolalardan “siyging qistayaptimi?” deb so‘ralganda **جُرْكُو بَارْمُو *čürkü barmu?*** deydilar.

بُتْكُو *bütkü* – “axlat” (bolalarga xoslab qo‘llanadi). Bolalarga “tush qilasanmi?” deb so‘ralganda **بُتْكُو بَارْمُو *bütkü barmu?*** deyiladi.

[**جِلْكُو *čilgü***] **جِلْكُو اَتْ *čilgü at*** – “to‘q sariq ot”.

سِرْكَا *sirkä* – “sirka”.

سِرْكَا *sirkä* – “boshdagi bit sirkasi”.

[**كَتْكِى *ketki***] **كَتْكِى اَتْ *ketki at*** – “orqasi keng, beli cho‘kkan ot”.

كُتْكِى *kütki* – “tuproq uyumi; tepalik”.

كَدْگُو *keδgü* – “kiyiladigan har bir narsa”.

كُلْگُو *külgü* – “kulgi”. “Hushdan ketkazuvchi sakta kasalligi”ga ham **كُلْگُو *külgü*** deydilar; **اَرْ كُلْگُو بَرْدِى *er külgü bardï*** – “kishini sakta tutdi”. Bu so‘zning **كُلْتْگُو *kültgü*** ravishida talaffuzi ham bor.

كَرْكِى *kerki* – “o‘roq randa”.

كُرْكَا *körkä* – “yog‘och kosa, zarang kosa” (kanjakcha).

ل *l* [harfi]:

بُتْلُو *butlu* – “tuya burniga o‘tkazilgan cho‘p”. (109a)

بِرْلَا *birlä* – “birga” ma’nosidagi ko‘makchi; **اُلْ مَنِڭ بِرْلَا اَرْدِى *ol meniŋ birlä erdi*** – “u men bilan birga edi”. Yengillik uchun *rā* ni tushirib, **بِلَا *bilä*** deyish ham bor.

بِبْلِى *bibli* – “uzun murch, dori, fulful”.

تُبْلُو *tublu* – “go‘r, qabr”. Birov qarg‘alganda **تُبْلُوقَا تُلْ *tubluqa tol*** – “go‘rga to‘lg‘ur, go‘rga kirgur” deyiladi.

تُقْلِى *toqlï* – “to‘qli; olti oylik qo‘chqor, qo‘zi”.

جَفْلِى *čawlï* – “lochin”.

جَغْلَا *Čayla* – أَجْ *uč* qabilasidagi yaylovning oti.

شُغْلُو *šoγlu* – “ituzum”.

م *m* [harfi]:

[**بِجْمَا *bïčma***] **بِجْمَا يُرِينجْغَا *bïčma yorïnčγa*** – “o‘rilgan beda, o‘rilgan yo‘ng‘ichqa”. Oxiriga *mīm* va *alif* harflari qo‘shib, majhul sifatdosh ma’nosida qo‘llanadigan so‘zlar ham oddiy ismlar qatori ishlatilgani uchun men ularni ham bayon qildim.

تُتْمَا / تِتْمَا *tutma* / *titma* – “sandiq”.

تُرْمَا *turma* – “turp”. “Sabzi”ni **سَرِغ تُرْمَا *sarïγ turma*** deyiladi. Arg‘uliklar “sabzi”ni **كِيزْرِى *kizri*** deydilar. Bu so‘zni ular forslarning كَزَرْ *gazar* so‘zidan buzib olganlar. O‘g‘uzlar uni **كَشُرْ *kešür*** deydilar. Ular ham bu so‘zni forslardan olgan. O‘g‘uzlar forslar bilan aralashgach, ba’zi so‘zlarni unutdilar va ularning o‘rniga forscha so‘zlar qo‘llay boshladilar. Masalan, ular turkcha **قُمْغَانْ *qumγan*** o‘rnida اَفتَابَه *āftāba,* **بَقَنْ *baqan*** (“bo‘yin tumor”) o‘rnida قَلِيده *qalida* so‘zini qo‘llaydi; buning arabchasi قلاده *qilada.*

O‘g‘uzlarning tili nozikdir. Juft holda qo‘llanadigan so‘zlardan ot va fe’llarning biri asosiy so‘z, ikkinchisi ergashma so‘z bo‘ladi. O‘g‘uzlar boshqa turklarda ayrim holda ishlatilmaydigan ergashma so‘zning o‘zini ishlataveradilar. Masalan, bir narsa ikkinchi bir narsaga aralashsa, turklar **قَتّى قَرْدِى *qattï-qardï*** (“aralash-quralash bo‘ldi”) deydilar. Bu yerda **قَتّى *qattï*** so‘zi asos va asli bo‘lib, **قَرْدِى *qardï*** so‘zi ergashmadir. O‘g‘uzlar shu ma’noda **قَرْدِى *qardï*** so‘zining o‘zinigina qo‘llab, asosiy so‘zni tashlab aytadilar. Shuningdek, turklar “yaxshi-yomon” ma’nosini anglatish uchun juft holda **اَذگُو يَقْلَاقْ *eδgü-yawlaq*** deb qo‘llaydilar; **يَقْلَاقْ *yawlaq*** so‘zini yolg‘iz qo‘llamaydilar. O‘g‘uzlar esa ularni yolg‘iz holda ishlatadilar. (109b)

تِزْمَا *tizmä* – ishtonbog‘, to‘rvaning bog‘i va umuman har narsani yig‘ib bog‘lash uchun ipdan maxsus qilingan bog‘ich.

تَگْمَا *tegmä* – “har bir” ma’nosini beruvchi so‘z. Maqolda (shunday kelgan): **تَگْمَا كِشِى اُوزْ بُلْمَاسْ يَاتْ يَغْقْ تُوزْ بُلْمَاسْ *Tegmä kiši öz bolmas, yat-yaγuq tüz bolmas.***

Ma’nosi: “Har qanday kishi o‘zing singari bo‘lmaydiki, unga sir aytib ishonsang, suyansang. Begona va yaqinlar teng bo‘lmaydi”.

تُكْمَا *tügmä* – “ko‘ylak, chopon va qalpoqlar bog‘ichi, tugmasi”.

[**تِكْمَا *tikmä***] **تِكْمَا نَانىڭ *tikmä näŋ*** – “tikilgan narsa”.

جَلْمَا *čalma* – “chalma”; qo‘y, tuya va boshqa mollar qiyidan kesib olib, qishda yoqish uchun quritiladigan tezak.

سَتْمَا *satma* – bog‘bonning havozasi. Qorovul tunda bog‘ni poylashda daraxt tepasida o‘tirish, yotish uchun hozirlagan joyi.

سُزْمَا *süzmä* – “suzma”.

[**قَتْمَا *qatma***] **قَتْمَا يُوغَا *qatma yuγa*** – “yog‘da pishiriladigan qat-qat non” [qatlama].

قَرْمَا *qarma* – “talon-taroj”; **نَانىڭ قَرْمَالادِى *näŋ qarmaladï*** – “narsani talon-toroj qildi”.

قِرْمَا *qïrma* – “konus shaklidagi narsa”; **قِرْمَا تُبِقْ *qïrma topïq*** – “konus shaklidagi g‘irg‘irak”.

كَسْمَا *kesmä* – “eni ensiz uzun temir nayza”.

كَسْمَا *kesmä* – “yol”.

(Shoir) shunday degan:

تُنلَا بِلَا بَسْتِمِزْ	***Tünlä bilä bastïmïz,***
تَكْمَا يَنىڭقْ بُسْتِمِزْ	***Tegmä yaŋaq pustïmïz.***
كَسْمَالَرِنْ كَسْتِمِزْ	***Kesmälärin kestimiz,***
مِنڭْلَقْ اَرِنْ بِجْتِمِزْ	***Mïŋlaq erin bïčtïmïz.***

Uyg‘urlarga qarshi jangni ta’riflab aytmoqda: “Tuni bilan bosdimiz, har yog‘dan biqinib kirdik, (hatto otlarining) yollarini kesdik, مِنڭْلَقْ *Mïŋlaq* erlarini o‘ldirdik” (مِنڭْلَاقْ *Mïŋlaq* bir joyning otidir).

[**ن *n*** harfi]

بَكْنِى *begni* – arpa, bug‘doy va tariqdan qilingan ichimlik.

بَغْنَا *bayna* – “pog‘ona; narvon poyasi”.

[**تَغْنَا *tayna***] **تَغْنَا يَڤْا *tayna yawa*** – “bir turli sassiqkavrak ildizi”. Uni suzma bilan aralashtirib, tutmoch oshiga qo‘shiladi.

تَكْنَا *tegnä* – “tog‘ora”.

جُرْنِى *čurnï* – turk tabiblari tomonidan tayorlanadigan surgi dori.

چِكْنَا *čignä* – “surgi” (yag‘mocha).

خَسْنِى *xasnï* – bolalarni semirtirish uchun yalatiladigan bir dori bo‘lib, Hindistondan keltiriladi. (110a)

قُشْنِى *qošnï* – “qo‘shni”. O‘g‘uzlar *nūn* harfini *šīn* harfidan oldin qo‘yib, **قُنْشِى *qonšï*** deydilar. Har ikkisi ham qoidaga mos va to‘g‘ridir.

فَعْلان *fa'lān*, فُعْلان *fu'lān*, فِعْلان *fi'lān* qoliplaridagi so‘zlar bo‘limi

ب ***b*** [harfi]:

تُرْبُنْ ***turbun*** – “istash, izlash, solishtirish”; اَنِکْ اَفِنْ تُرْبِنْلا ***anïŋ ewin turbïnla*** – “uning uyini izla, qayerda ekan”.

تَرْبِنْ ***tarbïn*** – turklardan bir toifa kishilar bo‘lib, ular o‘zlaridan katta bir kishi buyrug‘iga bo‘ysunadilar.

ت ***t*** [harfi]:

تَرْتِينْ ***tartïn*** – “oziq-ovqatni g‘amlash”.

اَرْ تَشْتِينْ بَرْدِی ***er taštïn bardï*** [تَشْتِينْ ***taštïn***] – “kishi tashqaridan bordi”.

چِکْتَانْ ***čiktän*** – ot egari ustidan yopiladigan yopinchiq.

قَقتَانْ ***qawtan*** – “to‘n; ustki kiyim”.

ج ***č*** [harfi]:

بَرْجَانْ ***Barčan*** – bir joyning oti.

تَبْجَانْ ***tapčan*** – kursi shaklidagi uch oyoqli bir uskuna, qo‘l yetmagan balandlikda qolgan uzumlarni unga chiqib uziladi.

جُرْجَانْ ***Jurjan*** – صينْ *Ṣīn* yo‘lidagi musulmonlar hududidan biri.

خ ***x*** [harfi]:

بَرْخَانْ ***Barxan*** – Quyi صينْ *Ṣīn* oti, u کَاشْغَرْ *Kāšγar* yaqinida joylashgan tog‘ tepasidagi qo‘rg‘on bo‘lib, uning ostida tilla kon bor.

بُرْخَانْ ***burxan*** – “but, sanam”. “Haykal”ga بَذْزْ بُرْخَانْ ***beδäz burxan*** deyiladi.

تَرْخَانْ ***tarxan*** – “bek” ma’nosida. Islomiyatdan oldin qo‘llangan atama (arg‘uchadir).

د ***d*** [harfi]:

جِنْدَانْ ***čïndan*** – “sandal daraxti”; جِنْدَانْ اَتْ ***čïndan at*** – “jiyron ot; qizilgul-rang ot”.

ر ***r*** [harfi]:

تَقْرَانْ ***tawran*** – to‘planib, undan ishtonbog‘lar va sopqon bog‘lari himariladigan ip.

سَبْرَانْ ***Sabran*** – o‘g‘uzlarning shaharlaridan biri. Kishilar arabcha ص *ṣād* harfi bilan صَبْرَانْ ***Ṣabran*** deb talaffuz qiladilar. Holbuki, turk tilida *ṣād* (ص) yo‘qdir.

سُيْرَانْ ***suyran*** – minoraga o‘xshash har bir uzun narsa (o‘g‘uzcha).

س ***s*** [harfi]:

تُکْسِينْ ***tügsin*** – to‘rt burchakli qilib tugiladigan bir turli tugun.

(Shoir) shunday degan:

تَکْمَا جَجَاکْ اُکْلْدِی	***Tegmä čečäk öküldi,***
بُقْقْلَنِبْ بُکْلْدِی	***Buquqlanïp büküldi.***
تُکْسِينْ تُکُونْ تُکْلْدِی	***Tügsin tügün tügüldi,***
يَزْغَالِمَتْ يُرْکَشُورْ	***Yazγalï-mat yörgäšür.***

Shoir yozni tavsiflab aytmoqda: “Turli chechaklar ko‘paydi, g‘unchalari go‘yo burchakli tugunlarga o‘xshab, bir-biriga o‘ralib ketgan, ular yorilishga yaqin qolgan”.

تُكْسِينْ *tüksin* – xalq orasidan chiqqan, xondan uch daraja quyi amaldagi kishi. (110b)

تُقْسُونْ *toqson* – “to‘qson”. Asli **تُقُوزْ اُونْ *toquz on*** (“to‘qqiz kara o‘n”) bo‘lib, ikki so‘z keyin birlashib ketgan.

سَخْسِينْ *Saxsïn* – bulg‘orlar yaqinidagi bir shahar. U سُوَارْ *Suvar* dir.

سَكْسُونْ *seksön* – “sakson”. Asli **سَكِزْ اُونْ *sekiz on*** – “sakkiz kara o‘n” demakdir. Ikki so‘z birlashtirilib, bir so‘z holiga kelgan.

كُبْسُونْ *köpsün* – to‘shak, tagga solib yotiladigan to‘shak.

كِمْسَانْ *kimsän* – do‘ppi va kulohlarga ishlatiladigan, taqiladigan yupqa va girdak oltin kulchalari.

ش *š* [harfi]:

كِرْشَانْ *kiršän* – “qo‘rg‘oshin upa”.

[**كُكْشِينْ *kökšin***] **كُكْشِينْ نَانَكْ *kökšin näŋ*** – “osmon rangli har narsa”.

غ *ɣ* [harfi]:

بَرْغَانْ *baryan* – mirta daraxtining mevasi.

بَشْغَانْ *bašyan* – ellik-yuz ratl og‘irligida bo‘ladigan katta bir baliq. Jamoaning kattasini ham shunga o‘xshatib **بُدُنْ بَشْغَانِى *bodun bašyanï*** (“jamoa ulug‘i; raisi”) deb ataydilar.

تُتْغُونْ *tutyun* – “tutqun, asir”.

تَدْغُونْ *tadyun* – فرَاتْ *Frāt* va unga o‘xshash katta daryo. Bu so‘zni **اُكُزْ *ögüz*** so‘zi singari har bir oqar soyga nisbatan ham ishlatiladi.

[**تَلْغَانْ *talyan***] **تَلْغَانْ اِيكْ *talyan ig*** – “tutqanoq kasali”.

سِجْغَانْ *sičyan* – “sichqon”. Maqolda (shunday kelgan): **اُلْدَجِى سِجْغَانْ مُوشْ تَشَقِى قَشِيرْ *Öldäči šičyan muš tašaqï qašïr.*** Ma’nosi: “O‘ladigan sichqon mushuk tashog‘ini qashiydi”. O‘limi bir narsaga bog‘liq bo‘lgan kishi o‘sha narsa te-varagiga o‘zini urishi singari hollarda aytiladi. Arabcha الباحث عن المدية maqoli kabi.

[**سِجْغَانْ *sičyan***] **سِجْغَانْ يِلِى *sičyan yïlï*** – turkcha o‘n ikki yildan birining oti.

سَرْغَانْ *saryan* – sho‘rxok yerda o‘sadigan o‘simlik. Bu xil yerlarga **سَرْغَانْ يِيرْ *saryan yer*** (“sho‘rxok yer”) deb ataladi. Qamishi qurib qoladigan to‘qayga **سَرْغَانْ قَمِيشْ *saryan qamiš*** deyiladi.

[**قَزْغَانْ *qazyan***] **قَزْغَانْ يِيرْ *qazyan yer*** – “o‘nqir-cho‘nqir, batqoqlik yer, seryoriq yer”.

Maqolda (shunday kelgan):

قُشْ يَقْزِى سَغْزْغَانْ ***Quš yawuzï – sayzïyan,***
يِغَاجْ يَقْزِى اَزْغَانْ ***Yïyač yawuzï – azyan,***
يِيرْ يَقْزِى قَزْغَانْ ***Yer yawuzï – qazyan,***
بُدُنْ يَقْزِى بَرسْغَانْ ***Bodun yawuzï – barsyan.***

Ma’nosi: “Qushning eng yaramasi, yovuzi – zag‘izg‘on; daraxtning eng yaramasi – azg‘an daraxti. (111a) Bu shunday daraxtki, uning oq va sariq guli, zirakka o‘xshab osilib turadigan qizil mevasi bo‘ladi. Bizda bu daraxtni tokzorlarning etagiga ekiladi. Chunki u o‘tinlikka yaramaydi, yoqilganda o‘tda parchalanib, sachraydi, uydagi kiyim va boshqa narsalarni kuydiradi. Yerlarning yaramasi – o‘nqir-cho‘nqir yer. Chunki o‘tov qurishga ham, ekin ekishga ham yaramaydi. Odamning yaramasi بَرسْغَانْ *Barsγan* da turuvchilardir, chunki ular yomon qiliqli, baxil kishilardir”.

قُزْغُونْ *quzγun* – “qora qarg‘a, quzg‘un”. Maqolda (shunday kelgan): **بُرِنِنكْ اُرْتَقْ قُزْغُونَكْ يِغَاجْ بَاشِنْدَا *Börinij ortaq quzγunnuŋ yïγač bašïnda.*** Ma’nosi: “Quzg‘un chiyabo‘rining ovidan foydalanishda uning o‘rtog‘i”. U o‘zining ovlagan narsasini daraxt ustida yeydi. Bu so‘z arablarning يربض حجره و يرتعى و سطا – “Og‘ilda yotib, o‘rtada o‘tlaydilar” degan maqoliga o‘xshaydi.

قُشْغُونْ *qušγun* – hayvonlar yeydigan ho‘l qamish.

قُشْغُونْ *qušγun* – “ravoch”; **اُشغُون *ušγun*** talaffuzi ham bor.

قُمْغَانْ *qumγan* – “qumg‘on, obdasta”.

[**مُنْغَانْ *munγan***] **مُنْغَانْ كِشِى *munγan kiši*** – “ezma, sergap kishi”.

ق ***q*** [harfi]:

[**بَرْقِنْ *barqïn***] **بَرْقِنْ كِشِى *barqïn kiši*** – “qasd qilgan narsasidan hech narsa qaytara olmaydigan sayohatchi”.

[**تُرْقُونْ *turqun***] **تُرْقُونْ سُوقْ *turqun suw*** – “turg‘un suv”.

تَلْقَانْ *talqan* – “talqon”.

(Shoir) shunday degan:

اُغْلُمْ اُكُتْ اَلْغِلْ بِلِكْ سِزْلِكْ كَتَارْ	***Oγlum, ögüt alγïl, biligsizlig ketär,***
تَلْقَانْ كِمنِكْ بُلْسَا اَنكَرْ بَكْمَسْ قَتَارْ	***Talqan kimniŋ bolsa, aŋar bekmäs, qatar.***

Aytmoqdaki: “O‘g‘lim, o‘git-kengashimni qulog‘ingga ol, bilimsizlikni tashla. Kimning tolqoni bo‘lsa, shinniga qoradi. Shuningdek, aqlli kishi nasihatni qabul qiladi”.

جَلْقَانْ *čalqan* – yaraning yoyilishi, uning bir yerdan ikkinchi yerga o‘tishi. Masalan, kishining oyog‘i shishsa, uning taqim taglarigacha illat otib ketishi singari.

قَلْقَانْ *qalqan* – “qalqon”; ikki tilning birida.

(Shoir) shunday degan:

قِقْرِبْ اَتِغْ كَمْشَلِمْ	***Qïqrïp atïγ kemšälim,***
قَلْقَنْ سُنكُونْ جُمْشَلِمْ	***Qalqan sönγün čömšälim,***
قَيْنَبْ يَنَا يُمْشَلِمْ	***Qaynap yana yumšalïm,***
قَتْغِي يَغِى يُقْلُسُونْ	***Qatγï yaγï yuwïlsun.***

(111b) Shoir yovni tavsiflab aytmoqdaki: “Shovqin-suron bilan yov ustiga ot choptiraylik, qalqon va nayzalar bilan kurashaylik. Qaynab, kerak bo‘lganda, qayta tinchlanaylik, toki qaysar yov ham yumshasin”.

ك *k* [harfi]:

تَرْكَنْ *tärkän* – viloyatlarga podsho bo‘lganlarga nisbatan xoqoniya toifasidan aytiladigan xitob. Xoqonliq va podsholik tepasida bo‘lmagan kishilarga bunday deyilmaydi. Bu so‘zning ma’nosi “ey itoat qilinuvchi” demakdir.

[**تَرْكِنْ *terkin***] **تَرْكِنْ كَلْ *terkin kel*** – “tez kel”. Asli **تَرَكْ *terk,*** ya’ni “tezlik”dir.

تُرْكُنْ *törkün* – “qavm, qabila, ota-onaning uyi”; **قِزْ تُرْكُنِكَا كَلْدِى *qïz törkünikä keldi*** – “qiz otasining uyiga keldi”.

(Shoir) shunday degan:

كَلْسَا اَبَنْكْ تَرْكَنِمْ	***Kelsä apaŋ tärkänim,***
اَتَلْكَمَتْ تُرْكُنِمْ	***Etilgä-mät törkünim.***
يَذْلْمَغَىْ تَرْكِنِمْ	***Yaδïlmaγay terkinim,***
اَمْدِى جَرِكْ جَرْكَشُورْ	***Emdi čerig čergäšür.***

Xoqonni yabaqu urushiga yordamga chorlab aytmoqdaki: “Xoqon kelsa, mening kishilarim sog‘ qoladi, qabilamning uy-joylari buzulmaydi. Hozir cherig saf tortmoqda. Qani edi xoqon kela qolsa”.

[**تَرْكِنْ *terkin***] **تَرْكِنْ سُوقْ *terkin suw*** – “turib qolgan, balchiq suv”.

[**تَرْكِنْ *terkin***] **تَرْكِنْ سُو *terkin sü*** – “to‘plangan qo‘shin”. “To‘plangan har narsa”ga ham **تَرْكِنْ *terkin*** so‘zi qo‘llanadi.

تَشْكَنْ *Taškän* – شَاشْ *Šaš* ning oti. Uning asli **تَاشْ كَنْدْ *Taš kend*** bo‘lib, “toshdan qurilgan shahar” demakdir. اَبو بكر اَلْقفّال اَلشّاشِى *Abu Bakri Qaffāl Šašî* shu shaharda tug‘ilib o‘sgan.

تُشْكُنْ *tüškün* – kasiro degan tikanli bir daraxt.

جَتْكَانْ *četkän* – “yugan bog‘i, jilovi”.

جُمْكَانْ *čümgän* – “o‘tzor; shirin ajriq”.

[**جِڤْكِنْ *čiwgin***] **جِڤْكِنْ اَشْ *čiwgin aš*** – “to‘q tutadigan, semirtiradigan ovqat”.

[**جِڤْكِنْ *čiwgin***] **جِڤْكِنْ اُتْ *čiwgin ot*** – “hayvonlarni semirtiradigan o‘tlar”.

سِتْگُونْ *Sitgün* – o‘g‘uzlarning shaharlaridan biri.

سُزْكُنْ *süzgün* – tog‘ daraxtlaridan rangi qora, tikanli bir daraxt.

كِرْكِنْ *kirkin* – “shahvoniy his, shahvat”; **بُغْرَا كِرْكِنِى كِرْدِى *buγra kirkini kirdi*** – “nortuyaning shahvoniy hissi qo‘zg‘aldi, mast bo‘ldi”.

[**كَڤْكِنْ *kewgin***] **كَڤْكِنْ اَشْ *kewgin aš*** – to‘q tutmaydigan kuchsiz ovqat, osh. Bu **جِڤْكِنْ *čiwgin*** ning teskarisidir.

كَلْكِنْ *kelkin* – katta suvlarning qalqib ko‘tarilishi, toshishi. Bu xuddi seldek. (112a)

لِمْكَنْ *limkän* – “sariq olxo‘ri”.

ل *l* [harfi]:

[بَقْلَانْ *baqlan*] بَقْلَانْ قُوزِی ***baqlan qozï*** – “yosh va semiz qo‘zi”.

بَگْلَانْ ***Begläп*** – erkaklar oti.

جُغْلَانْ ***Čoγlan*** – qarluq kattalarining otlaridan.

سُگْلِینْ ***süglin*** – “qirg‘ovul”; سُقْلِینْ ***süwlin*** talaffuzi ham bor.

بَتْمَانْ ***batman*** – “botmon”; بِیرْ بَتْمَانْ اَتْ ***bir batman et*** – “bir botmon et, go‘sht”.

جُقْمِینْ ***čuqmïn*** – “lochiraga o‘xshash bir non”. Uni qozonda suv bug‘i bilan pishiriladi, bu oson singiydigan non.

سُگْمَانْ ***sökmän*** – pahlavonlarga beriladigan unvonlardan biri; ma’nosi “jang saflarini sindiruvchi” demakdir. سُگْتِی نَانگْنِی ***sökti näŋni*** (“narsani so‘kdi”) iborasidagi سُگْتِی ***sökti*** so‘zidan olingan.

سِقْمَانْ ***sïqman*** – “kuzda uzum siqiladigan vaqt”.

قُرْمَانْ ***qurman*** – “o‘q-yoy solinadigan idish” (o‘g‘uz va qipchoqcha); كِیشْ قُرْمَانْ ***keš qurman*** – “o‘q va yoy solinadigan idish”. Asli قُورْمَانْ ***qurman*** – “belga kamar bog‘la” so‘zidan olingan.

كَتْمَانْ / كِتْمَانْ ***ketmän*** / ***kitmän*** – “ketmon; yer chopiladigan uskuna”.

كُوزْمَانْ ***küzmän*** – “qo‘rda pishirilgan non”.

BU IKKINCHI VA UCHINCHI HARFLARI ORASIGA TURLI UNLILAR (مَدّ *mad* va لِین *līn* HARFLARI) QO‘SHILGAN SO‘ZLAR BOBLARIDIR

فَعَالا *fa’ālā* qolipidagi har xil harakatli so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

یماتا ***yamata*** (?) – quymoq xamirining qiyomidek suyuq qilib tayyorlangan xamir. Go‘sht qovrulganda yoki semiz tovuq kabob qilinganda, go‘sht yog‘i oqmasligi uchun uni go‘shtning ustiga surtiladi.

ج ***č*** [harfi]:

قَرَاچِی ***qaračï*** – “eshiklarni aylanib yuruvchi tilanchi”.

كَلَاجُو ***käläčü*** – “so‘z va gap” (o‘g‘uzcha).

كُمِیجَا ***kümičä*** – “pashsha”.

ر ***r*** [harfi]:

[تَبَارُو *taparu*] اُلْ مَنِکْ تَبَارُو كَلْدِی ***ol meniŋ taparu keldi*** – “u men tomon keldi”; اُلْ اَنِکْ تَبَارُو بَرْدِی ***ol anïŋ taparu bardï*** – “u unga tomon bordi”. تَبَا ***tapa*** “taraf; yon” ma’nolaridagi so‘z bo‘lib, unga *rā* va *vāv* harflari (رُو *-ru*) keyin qo‘shilgan.

خُمَارُو ***xumaru*** – “meros; yodgorlik”; بُونِی اَتَمْ دَنْ خُمَارُو بُلْدُمْ ***bunï atamdan xumaru buldum*** – “bu otamdan qolgan meros”.

خُمَارُو ***xumaru*** – “esdalik”. Kattalardan biror kishi o‘lsa, uning molidan bir nafis narsani shohga taqdim etiladi. (112b) Ana shu narsani خُمَارُو ***xumaru*** deyiladi, “undan esdalik” demakdir. Safarga ketayotgan kishi qarindosh va

tanishlariga qoldirgan narsani ham خُمَارُو ***xumaru*** deyiladi. Bu so‘z erkak va xotin-qizlarning oti sifatida ham ishlatiladi.

ژ ž [harfi]:

نَمِيژَا ***namïža*** – “boja; xotin singlisining eri” (chigilcha).

ش š [harfi]:

شَلَاشُو ***šalašu*** – صِينْ *ṣīn* to‘qimalaridan bir turi.

شَمُوشَا ***šamuša*** – “sariq yo‘ng‘ichqa”; u yeyiladi.

غ ɣ [harfi]:

قَرَاغُو ***qaraɣu*** – “zok, kuporos”.

قَرَاغُو ***qaraɣu*** – “ko‘r kishi”.

[قُرِيغُو نَانىڭ ***qurïɣu näŋ***] قُرِيغُو ***qurïɣu*** – “quriyotgan narsa”. Narsaning qurish vaqtiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

قِرَاغُو ***qïraɣu*** – “qirov”; sovuqda ko‘kdan tushadi.

بُزَاغُو ***buzaɣu*** – “buzoq”. Maqolda (shunday kelgan): اَقدَاكِى بُزَاغُو اُكُوزْ بُلْمَاسْ ***Ewdäki buzaɣu öküz bolmas.*** Ma’nosi: “Uyda o‘sgan buzoq hech qachon ho‘kiz bo‘lmaydi”. Bu maqol yoshligidan tanish bo‘lgan yigitning martabasi ko‘tarilgan chog‘da ham, u urug‘-aymoqlari nazdida (baribir) kichik ko‘rinishiga ishora qilib ishlatiladi.

بُزَاغُو تِلِى ***buzaɣu tïlï*** – “kalamush”.

[بُشُوغُو بُلْدِى اَتْ ***bošuɣu***] بُشُوغُو ***at bošuɣu boldï*** – “otni va boshqa hayvonlarni arqondan bo‘shatish vaqti bo‘ldi”.

[تُشَاغُو بُلْدِى اَتْ ***tušaɣu***] تُشَاغُو ***at tušaɣu boldï*** – “otni va boshqa hayvonlarning oyog‘ini arqonga bog‘laydigan, tushovlaydigan vaqt bo‘ldi”.

بُقَاغُو ***buqaɣu*** – o‘g‘rilarning bo‘yniga solinadigan sirtmoq.

تَقَاغُو ***taqaɣu*** – bu so‘z xo‘roz va tovuqlarning har ikkisiga teng qo‘llanib, erkagiga اَرْكَكْ تَقَاغُو ***erkäk taqaɣu,*** urg‘ochisiga تِشِى تَقَاغُو ***tiši taqaɣu*** deb farqlanadi. Maqolda (shunday kelgan): يَزِيدَاقِى سُقْلِينْ اَدْرْكَلِى اَقدَاكِى تَقَاغُو اِجْغِنْمَا ***Yazïdaqï süwlin eδärgäli, ewdägi taqaɣu ïčyïnma.*** Ma’nosi: “Qirg‘ovul oviga chiqsang, uydagi tovuqni unutma”.

Bu maqol yo‘q narsaga ishonib, qo‘lidagilardan ayrilib, quruq qoluvchilarga qarata aytiladi.

تَقَاغُو يِلِى ***taqaɣu yïlï*** (113a) – turkcha o‘n ikki yildan birining oti.

تَلَاغُو ***talaɣu*** – “tez o‘ldiruvchi zahar”. “Qattiq ich ketishi”ga ham تَلَاغُو ***talaɣu*** deyiladi.

تُمَاغُو ***tumaɣu*** – “tumov”.

قَنَاغُو ***qanaɣu*** – “nishtar”.

ك ***g*** [harfi]:

بُتُوكَا ***bütügä*** – “baqlajon”.

بِلَاكُو ***bilägü*** – “qayroqtosh”.

تِرَاكُو ***tirägü*** – “tirgovich”; umuman biron narsani tirab qo‘yadigan ustun singari narsalar.

كَرَاكُو *kerägü* – “chodir”; turkmanlar nazdida. Lekin ko‘chmanchilar nazdida bu “qishki uy” [ya’ni, o‘tov]dir. Maqolda (shunday kelgan): **كُكْ كُرْدِى كَرَاكُو يُذْتِى *Kök kördi, kerägü yüδti.*** Ya’ni: “Mehnat va mashaqqat ko‘rdi-yu, o‘tovini orqasiga yuklab oldi”.

كُزَاكُو *közägü* – “kosov”. Maqolda (shunday kelgan): **كُزَاكُو اُزُونْ بُلْسَا اَلِكْ كُيْمَاپِنْ *Közägü uzun bolsa, elig küymäs.*** Ma’nosi: “Kosov uzun bo‘lsa, qo‘l kuymas”. Bu maqol bola-chaqasi ko‘p kishining farovon yashashi haqida aytiladi.

كُشِيكَا *köšikä* – “kichik ko‘lanka”.

كَلَاكُو *kelägü* – “qo‘shoyoq”.

كُلِيكَا *kölikä* – “ko‘lanka; qalin soya”.

ل *l* [harfi]:

جُمَالِى *čümäli* – “chumoli” (chigilcha).

[**جُمِيلِى *čumïlï***] “issiqdan ko‘zi tinib, boshi aylangan kishi”ga **جُمِيلِى بُلْدِى *čumïlï boldï*** deyiladi.

كَبَالِى *käpäli* – “kapalak”.

فَعَالَان *fa’ālān,* فَعِيلَان *fa’īlān* qoliplaridagi har xil harakatli so‘zlar bo‘limi

ز *z* [harfi]:

قَرِيزَانْ *qarïzan* – ko‘p yashab, kuchdan qolgan, mukkaygan kishi.

ق *q* [harfi]:

جِيڤَانْ *čïpïqan* – “chilonjiyda”.

جِيڤَانْ *čïpïqan* – “chipqon yarasi”; qizillikda chilonjiydaga o‘xshagani uchun shunday atalgan.

قَرَاقَانْ *qaraqan* – bir turli tog‘ daraxti.

م *m* [harfi]:

[**جُلِيمَانْ *čulïman***] **جُلِيمَانْ اِيشْ *čulïman ïš*** – “chuvalgan, chigal ish”; chiqar joyi noma’lum. Bu so‘z aslida “to‘planib qolgan suv” demakdir (kanjakcha).

فَعَنْلَى *fa’anlī* qolipidagi har xil harakatli so‘zlar bo‘limi

د *d* [harfi]:

[تَتِنْدِى *tatïndï*] تَتِنْدِى سُوتْ *tatïndï süt* – “ko‘p sut”.

[**سَجِنْدِى *sačïndï***] **سَجِنْدِى نَانَكْ *sačïndï näŋ*** – “sochilgan, tarqalgan narsa”.

[**تَذِنْدِى *taδïndï***] **تَذِنْدِى نَانَكْ *taδïndï näŋ*** – “tiyilgan, man qilingan narsa”.

[**كَذِنْدِى *keδindi***] **كَذِنْدِى تُونْ *keδindi ton*** – “ko‘p kiyilgan kiyim”. (113b)

[**سُرُنْدِى *süründi***]**اَرْ سُرُنْدِى *süründi er*** – “har yerdan surilgan, quvg‘in qilingan kishi”.

قِرِنْدِى *qïrïndï* – “har narsaning qirindisi”.

ز *z* [harfi]:

زَرَنْزَا ***zaranza*** – “mahsar urug‘i”ga زَرَنْزَا اُرُغِی ***zaranza uruγï*** deyiladi.

ن ***n*** [harfi]:

[*süzündi* سُزُنْدِی ***süzündi suw*** سُوقْ] – “ko‘p tinitib tozalangan suv”.

[***qazïndï*** قَزِنْدِی ***qazïndï tupraq*** تُبْرَاقْ] – “qazilgan tuproq”.

boγundï بُغُنْدِی – odamdan boshqa hayvonlarning qovug‘i, siydik qopi.

[***selindi*** سَلِنْدِی ***selindi otuŋ*** اُتُنْقْ] – “sellar ariq chetiga chiqarib tashlagan o‘tin”.

[***salïndï*** سَلِنْدِی ***salïndï näŋ*** نَانَکْ] – “tashlangan, tashlandiq narsa”.

sulundï سُلُنْدِی – erkak kishilarning orqaga osiltirib qo‘ygan sochi. Asli ***salïndï näŋ*** سَلِنْدِی نَانَک iborasidandir. Bu “doim osilib-solinib turadigan” demakdir. Bu o‘xshovsiz qo‘pol so‘zdir.

[***tamïndï*** تَمِنْدِی ***tamïndï suw*** سُوقْ] – “tomgan suv, suv tomchilari”.

[***kömündi*** کُمُنْدِی ***kömündi näŋ*** نَانَکْ] – “ko‘milgan narsa”; *nūn dāl yā* [*i*] harflari, ya’ni ندِی *-ndi* qo‘shimchasi fe’llarga qo‘shilib, ularni otga aylantiradi. Ortiqlik yoki ishlanganlik ma’nosini bildiradi. Bu arabcha فعاله *fu’āla* shaklidagi so‘zlar o‘rnidadir.

Bu so‘z shaklida ikkinchi bir hol: o‘tgan zamon fe’li qo‘shimchasi *dāl* va *yā* [*i*] bilan fe’lning buyruq holida saqlanadigan o‘zak harfi orasiga *nūn* orttirilsa, u vaqtda bu so‘z اسم مفعول *ismi maf’ūl* majhul sifatdoshga aylanadi. ***suwnï süzti*** سُفْ نِی سُوزْتِی gapidagi ***süzti*** سُزْتِی so‘ziga asl harfi *zā* bilan o‘tgan zamonni bildiruvchi *dāl* va *yā* [*i*] harflari orasiga *nūn* orttirilsa, ***süzündi suw*** سُزُنْدِی سُوقْ shakli hosil bo‘ladi. Bu اسم مفعول *ismi maf’ūl* majhul sifatdoshdir, ya’ni harakat o‘sha ismga voqe bo‘lganini anglatadi. Men aytmagan boshqa so‘zlarning hammasini shunga qiyos qilish kerak.

fu’lulī فُعْلُلِی qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ل ***l*** [harfi]:

püstüli بُسْتُلِی – “Rum ismalog‘i”; u yeyiladi.

O‘zagi uch harflilar bo‘limi bitdi. Keyingi bo‘limlar (uchdan) ortiq harfli so‘zlar uchundir.

BU OXIRIGA HARF QO‘SHILGAN SO‘ZLAR BOBLARIDIR

fa’lāl, فَعْلَال ***fa’lal,*** فَعْلَل ***fu’lul*** فُعْلُل qoliplaridagi har xil harakatli so‘zlar bo‘limi (114a)

ت ***t*** [harfi]:

bošγut بُشْغُتْ – “hunar o‘rganuvchi shogird”.

تَرْمُتْ ***tarmut*** – tog‘larning tepalik va soyliqlari; **تَاغ تَرْمُتْ كَجْتِمْ** ***tay tarmut kečtim*** – “tog‘larning tepalik va soyliqlarini kechdim”.

تَكْشُتْ ***tägšüt*** – o‘rniga o‘rin tariqasida bir narsaning badali; qalbaki pul berib, o‘rniga yaxshisini olish kabi.

رَبْجَتْ ***rabčat*** – “majburiy ish; jarima”. Masalan, bek xalqning hayvonlarini tutib, tekinga ustiga og‘ir yuklar ortib ketaverishi kabi (kanjakcha).

جَبْغُتْ ***čapγut*** – “to‘shak”.

قَرْشُتْ ***qaršut*** – “teskarilik, qarama-qarshilik, zidlik”.

قِزْغُتْ ***qïzγut*** – “namunali jazo”; boshqalar ibrat olsin uchun xalqning ko‘z o‘ngida beriladigan jazo.

قَقْشُتْ ***qawšut*** – el va yurt tinchligi uchun ikki shoh orasidagi qovishish, kelishish. Kishiga **قَقْشُتْ** ***qawšut*** deyishda ham shu ma’no bor.

لُجْنُتْ ***lüčnüt*** – qishloq xalqidagi bug‘doy yanchish, tozalab olish va boshqa ishlar uchun qullari va hayvonlari bilan yordam berish, hashar (kanjakcha).

ج ***č*** [harfi]:

بِجْغُوجْ ***bïčγuč*** – “qaychi”; u bilan har narsani kesiladi.

بُدْرَاجْ ***Budrač*** – yabaqular kattasining oti. بَگَجْ اَرسْلَانْ تِگِينْ *Bekäč Arslan tigin* zamonida uni musulmonlar asir qilgan edilar.

يَرْگُوجْ ***yergüč*** – qilichga o‘xshatib yupqa qilib ishlangan enli yog‘och. U bilan o‘choqdagi non aylantirib turiladi.

بُسْكَاجْ ***büskäč*** – “yuqa non”.

تُتْمَاجْ ***tutmač*** – turklarning mashhur ovqati. Bu ovqat(ning kelib chiqishi) ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* ga nisbat beriladi. Shundayki, ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* zulmatdan chiqqach, oziqlari ozayib qolgan kishilar ochlikdan qo‘rqib, unga: “bizni och qo‘yma, och tutma” mazmunida **بِزْنِى تُتْمَا اَجْ** ***bizni tutma ač*** – “bizni tutma och, qo‘yib yubor; biz yurtimizga ketaylik” deganlar. Iskandar bilimdonlar bilan kengashgan va ular shu ovqatni tayyorlaganlar. Bu ovqat tanaga quvvat berib, yuzni qizartirar, tezda hazm bo‘lmas edi. (114b) Bu ovqat yeyilgach, suvidan ham ichilar edi. Turklar bu ovqatni ko‘rgach, **تُتْمَاجْ** ***tutmač*** deb atadilar. Asli **تُتْمَا اَجْ** ***tutma ač,*** ya’ni “och tutma” demakdir. Ikki *alif* tushirilib, **تُتْمَاجْ** ***tutmač*** bo‘lgan. Buning ma’nosi “o‘zingni och tutma, shu ovqatni tayyorlab ye” demakdir.

تُتْغُوجْ ***tutγuč*** – dastlabki ovqat.

تُدْرِجْ ***tudrïč*** – “go‘ng” (arg‘ucha).

تَلْغُوجْ ***talγuč*** – yuk va arqon o‘rtasiga kiritiladigan bir yog‘och. U bilan arqonni bir necha marta buraladi, arqon tortilib, yuk tarang, qattiq bo‘ladi va yuk hech qayoqqa og‘maydi.

تَقْغَاجْ ***Tawγač*** – مَاصِينْ *Māṣīn* mamlakatining oti. Bu mamlakat صِينْ *Ṣīn* dan to‘rt oylik yo‘l uzoqliqda. صِينْ *Ṣīn* (Chin) aslida uchtadir: birinchisi, Yuqori صِينْ *Ṣīn* – bu Sharqda bo‘lib, bunga **تَقْغَاجْ** ***Tawγač*** deyiladi. Ikkinchisi, O‘rta صِينْ *Ṣīn*, buni **خَطَاىْ / خِطَاىْ** ***Xïṭay / Xaṭay*** deyiladi. Uchinchisi, Quyi صِينْ *Ṣīn*,

buni بَرْخَانْ ***Barxan*** deyiladi va u كَاشْغَرْ *Kāšγar* dadir. Lekin hozir تَقْغَاجْ ***Tawγač*** ni مَاصِينْ *Māṣīn*, خَطَايْ / خِطَايْ ***Xiṭay*** / ***Xaṭay*** ni صِينْ *Ṣīn* deb yuritiladi.

تَقْغَاجْ ***tawγač*** – أُيْغُورْ *uyγur*. U تَتْ ***tat*** dir. Ular صِينْ *Ṣīn,* ya'ni تَقْغَاجْ ***Tawγač*** da yashaydilar. Har bir eski va katta narsaga تَقْغَاجْ اَذِى ***tawγač eδi*** deydilar. Bu arabcha شى عادى iborasiga o'xshashdir. Shohlarning تَقْغَاجْ خَانْ ***tawγačxan*** deyilishi ham shundandir; "katta yerli, eski xon" degan ma'nodadir.

تَتْ تَقْغَاجْ ***tat tawγač*** – "forsiy va turk" demakdir. Birinchi so'z تَتْ ***tat*** – "fors", ikkinchi so'z تَقْغَاجْ ***tawγač*** – "turk" o'rnida qo'llanadi.

Mening nazdimda men aytgan izoh to'g'riroqdir. Islom o'lkalaridagi mashhur va munosib tushunish shudir. U yerlarda ham shunday. Har ikkisi ham yaxshi.

[تَقْغَاجْ ***tawγač***] تَقْغَاجْ يُدَاسِى ***tawγač yudasï*** – bargi savsangulning barglariga o'xshash bir daraxt. Uni dori sifatida ishlatadilar.

سَرْقِجْ ***sarqïč*** – yovvoyi sachratqi jinsidan bo'lgan bir o'simlik.

سُرْقِجْ ***surqïč*** – luk deyilgan daraxtning siqib olingan shirasi. U bilan qilich, xanjar va katta pichoqlarning dastalari biriktiriladi.

سَرْنِجْ ***sarnïč*** – teridan yoki yog'ochdan yasalgan chelak. (115a)

سَغْدِجْ ***saγdïč*** – "do'st, o'rtoq".

سُغْدِجْ ***suγdïč*** – qishda kishilar o'rtasida navbat bilan o'tkaziladigan ziyofat, to'kma.

سَقْدِجْ ***sawdïč*** – novdalardan to'qilib, ichiga meva solinadigan narsa, savat.

سَنْكَجْ ***senkäč*** – findiq yong'og'i kattaligidagi shirin olma; qizil va oq bo'ladi.

قَتْقِجْ ***qatqïč*** – chayon singari chaquvchi bir narsa (arg'ucha).

قِسْغَاجْ ***qïsγač*** – "qisqich, ombir".

قِسْغَاجْ / قُسْغَاجْ ***qusγač*** / ***qïsγač*** – kichik qora jonivor, kishini tishlaydi (o'g'uzcha).

قُشْغَاجْ ***qušγač*** – "chumchuq".

كَرْبِجْ ***kerpič*** – "kirpich, g'isht"; بِشِغْ كَرْبِجْ ***pïšïy kerpič*** – "pishiq g'isht".

[كِرْتُجْ ***kirtüč***] كِرْتُجْ كِشِى ***kirtüč kiši*** – "hasadli va yomon xulqli kishi".

ر ***r*** [harfi]:

بَشْتَرْ ***baštar*** – "o'roq" (arg'ucha).

بَكْتُرْ ***Bektür*** – erkaklar oti. Asli بَكْ تُرْ ***bek tur*** – "doim o'rningda tur; ko'p yasha" demakdir.

بُكْتُرْ / بُكْتِرْ ***böktir*** / ***böktür*** – tog'lardagi baland-pastlik yer.

(Shoir) shunday degan:

اَغَا بُكْتِرْ اُزَا يُرْدِمْ	***Aγa böktir üzä yurdïm,***
بَرِقْ يَاقِبْ قِيَا كُرْدِمْ	***Barïq yaqïp qïya kördim.***
اَنِى بِيلِبْ تَقِى بَرْدِمْ	***Anï bilip taqï bardïm,***
تُكَلْ يَاغِى تُرِى تُغْدِى	***Tügäl yaγï torï*** (*tozï*?) ***tuγdï.***

Aytmoqdaki: Tog‘ning baland yerlariga chiqdim. Uzoqdan bir qora ko‘rdim, yovning qorasi ekanini tanib, turgan yerimda to‘xtab qoldim. Yovning to‘zoni ko‘tarildi [Tog‘ning yuqori cho‘qqisiga chiqdim. Yiroqqa boqib, bir qora ko‘rdim, uni aniqlab, yana bordim. Yovning to‘zoni hamma yoqni bosib ketdi].

بَلْدِرْ *paldïr* – tog‘ning burniga o‘xshash ko‘tarilib chiqqan narsa; **تَاغ بَلْدِرِی *tay paldïrï*** – “tog‘ burni”.

[**بَلْدِرْ *paldïr***] **بَلْدِرْ اُغُل *paldïr oγul*** – “o‘gay o‘g‘il”; **بَلْدِرْ قِيزْ *paldïr qïz*** – “o‘gay qiz”.

[**بَلْدِرْ *paldïr***] **بَلْدِرْ تَرِغ *paldïr tarïγ*** – “ilk ko‘klamda haydalgan, ishlangan ekin”. Eng unumli ekin shudir. Har bir narsaning ham oldin qilinishiga **بَلْدِرْ *paldïr*** deyiladi: **بَلْدِرْ قُزِی *paldïr qozï*** – “ertaki qo‘zi”. Bu to‘rt so‘zning hammasida *bā* jarangsiz (باشباع البا – ya’ni [*p*] tarzida) talaffuz qilinadi.

[**بُلْدُرْ بُلْدُرْ *buldur-buldur***] **تَاشْ قُدْغْقَا تُشْتِی بُلْدُرْ بُلْدُرْ اَتّی *taš quδuγqa tüšti, buldur-buldur etti*** – “tosh quduqqa tushdi, “buldur-buldur” tovush chiqardi”.

بِلْدِرْ / بِلْدُرْ *bïldur / bïldïr* – “bultur, o‘tgan yil”.

بُلْغَارْ *Bulγar* – turk shaharlaridan mashhur bir shahar.

تُلْفِرْ *tolwïr* – “parda, xotinlar pardasi”; u ipakli gazmollardan ishlanadi. (115b)

[**جَلْدِرْ جَلْدِرْ *čaldïr-čaldïr***] **اُقْ كِيشْتَا جَلْدِرْ جَلْدِرْ اَتّی *oq keštä čaldïr-čaldïr etti*** – “o‘q o‘qdonda shaldir-shuldur etdi”. Quruq xashakka shamol tekkanda chiqadigan tovushga ham shu so‘z qo‘llanadi.

جَغْمُرْ *čaγmur* – “shalg‘om”; **جَمْغُرْ *čamγur*** talaffuzi ham bor. Bunda *γayn* bilan *mīm* o‘rin almashgandir.

سَرْكَرْ *serkär* – “yo‘lto‘sar, o‘g‘ri” (qarluqcha).

قَنْدِرْ *qandïr* – oshlashga yaraydigan teri, go‘shtdan shilib olingandan keyin go‘sht ustida qolgan yupqa po‘st.

كَسْتَرْ *kestär* – “sopol” (*uč* tilida).

كَشْمِيرْ *Käšmir* – Turk mamlakati chekkasidagi bir shahar. Uni Xudo yor-laqag‘ur سُلَيْمَانْ *Sulaymān* payg‘ambar qurgan edi.

مَنْدَارْ *mandar* – daraxtlarga o‘ralib, ko‘pincha ularni quritadigan o‘simlik, ishq pechak (o‘g‘uzcha).

ز *z* [harfi]:

بُرْدُزْ *burduz* – “poliz, bog‘, bo‘ston”. Bu so‘z asl turkcha emas.

بَلْدِزْ *baldïz* – “xotinning singlisi”. “Erning singlisi”ga **بَلْدِزْ *baldïz*** deyilmaydi, **سِنِكِلْ *siŋil*** deyiladi.

تَرْمَزْ *tarmaz* – “bodring”.

قُتْسُزْ *qutsuz* – ishi orqaga ketgan kishi. Maqolda (shunday kelgan): **قُتْسُزْ قُدْغْقَا كِرْسَا قُمْ يَغَارْ *Qutsuz quδuγqa kirsä, qum yaγar.*** Ma’nosi: “Qutsiz quduqqa tushsa, (ustidan) qum yog‘iladi. Suvi quriydi”. اذا ادبر دمّر و اذا اقبل اقبل iborasi kabi.

قِرْقِزْ *qïrqïz* – bir turk qabilasi; qirqiz.

قَلْبُزْ *qalbuz* – “bir yutum, bir luqma narsa”; **قَلْبُزْلَادِی نَانكْنِی *qalbuzladï näŋni*** – “narsani qultumladi, yutdi”.

قُنْدُزْ ***qunduz*** – “qunduz; suv iti”.

[قُنْدُزْ ***qunduz***] قُنْدُزْ قَيْرِى ***qunduz qayrï*** – “qunduzning moyagidan olinadigan dori”.

كُنْدُزْ ***kündüz*** – “kun yorug‘i; kunduz”.

مُنْدُزْ ***munduz*** – “ahmoq kishi”. Maqolda (shunday kelgan): نَجَا مُنْدُزْ اَرْسَا اِيشْ اَدْكُو نَجَا اَكْرِى اَرْسَا يُولْ اَدْكُو ***Nečä munduz ersä, eš eδgü, nečä egri ersä, yol eδgü.*** Ma’nosi: “Yolg‘izlikdan ko‘ra, qancha ahmoq bo‘lsa ham, esh yaxshi. Cho‘lda boshi oqqan tomonga ketgandan ko‘ra, qancha egri, qing‘ir-qiyshiq bo‘lsa ham, yo‘l yaxshi”. Chunki [yo‘lsiz maqsadga yetib bo‘lmaydi] yo‘l orqaligina maqsadga yetiladi.

[مُنْدُزْ ***munduz***] مُنْدُزْ اَقِنْ ***munduz aqïn*** – “oquvchi sel”.

[مُنْدُزْ ***munduz***] مُنْدُزْ يُرِيغَا اَتْ ***munduz yorïγa at*** (116a) – “yolg‘iz yo‘rg‘asi bor ot; chopishda tengi yo‘q ot”.

پس ***s*** [harfi]:

بِجْغَاسْ ***bičγas*** – “kishilar orasidagi va’da, vaid”. (Shoir) shunday degan:

بِجْغَاسْ بِتِكْ قِلُرْلَرْ	***Bičγas bitig qïlurlar,***
اَنْدْ كَىْ يَمَا بِرُورْلَرْ	***And key yemä berürlär.***
خَانْدِنْ بَسُتْ تِلَرْلَرْ	***Xandïn basut tilärlär,***
بَسْمِلْ جُمْلْ تِرْكَشُورْ	***Basmïl, čumul tirkäšür.***

Yabaqu jangida xoqonni ko‘makka chaqirmoqda: “Bizning kishilar podshoga qarshilik qilmaslikka, unga bo‘ysunishga qasam ichib, bitim tuzildi. Hozir basmil va chumul qabilalari biz bilan urushmoqqa yig‘ildilar. Xoqon ularga yetishdi, hatto ularning qonini to‘kdi va asirga oldi” [*so‘zma-so‘z:* “Kelishuv – bitim tuzishdi, yana qasam ichishdi. Xondan yordam so‘rashdi. Basmil, chumullar (bizga qarshi) jangga to‘planishdi”].

بَكْمِسْ / بَكْمَسْ ***bekmäs*** / ***bekmis*** – “shinni” (o‘g‘uzcha).

[قِرْبَاسْ ***qïrbas***] قِرْبَاسْ اَرْ ***qïrbas er*** – “boshining sochi to‘kilib, boshqa chiqmaydigan bo‘lib qolgan kishi”.

ش ***š*** [harfi]:

[يُرْبَاشْ ***yurbaš***] يُرْبَاشْ اِيشْ ***yurbaš iš*** – “chuvalgan ish”; uchini bilib bo‘lmas darajada chalkashib ketgan ish.

[بَتْرُشْ ***batruš***] بَتْرُشْ سُوفْ ***batruš suw*** – “loyqa suv”. Xamiri ko‘payib, suvi ozaygan ovqatga ham shu so‘z qo‘llanadi.

بُلْغَاشْ ***bulγaš*** – yetib kelgan yov xavfidan kishilar orasida qo‘zg‘algan shov-shuv, vahima.

تِرْكَاشْ ***tirkäš*** – tiqilinch bo‘lgani uchun yurganda qiynalib qolish. Ariqchalardan kelib, vodiyda to‘planib qolgan ko‘lmak suvga سُوفْ تِرْكَشِى ***suw tirkäši*** deyiladi.

جُلْبُشْ ***čulbuš*** – qo‘lga va kiyimga tekkan meva shirasi.

سَرْمَشْ *sarmaš* – bir narsaning boshqa narsaga o‘ralishi, aralashishi. Biron qo‘zg‘olon natijasida kishilarning bir-biriga aralashuviga **سَرْمَشْ بُلْدِی *sarmaš boldï*** deydilar.

سُوسُشْ *suwsuš* – bug‘doy suvining sharoblik quvvati ketgandan keyingi holi. Suv qo‘shilgan ayron ham shu so‘z bilan ataladi.

قَتْلِشْ *qatliš* – “suvlarning quloq boshida qo‘shilishi”. Bunga **سُوقْ قَتْلِشْتِی *suw qatlištï*** deyiladi.

قَتْمِشْ *Qatmiš* – erkaklar oti.

قِرْتِشْ *qïrtïš* – “kishi va boshqa kimsalar yuzining rangi”; (116b) **كُرگْلُكْ قِرْتِشْلِغْ كِشِی *körklüg-qïrtïšlïγ kiši*** – “yuzining rangi chiroyli kishi”.

[**قِرْتِشْ *qïrtïš***] **يِيرْ قِرْتِشِی *yer qïrtïšï*** – “yer qobig‘i, yuzi”. Lekin bu so‘z har narsaning yuziga nisbatan ham qo‘llanavermaydi.

قَرْغِشْ *qarγïš* – “qarg‘ish, la’nat”; **تَنگْرِی قَرْغِشِی اَنِكْ اُزَا *Täŋri qarγïšï anïŋ üzä*** – “unga Xudoning la’nati (bo‘lsin)”. Bu so‘z ba’zan sifat ma’nosida ham qo‘llanadi: **قَرْغِشْ كِشِی *qarγïš kiši*** – “la’natlangan, mal’un kishi”.

قُلْدَشْ *qoldaš* – “yaqin”. Bu so‘z ko‘pincha kattalarning bolalariga qarata ishlatiladi.

كِرْدَشْ *kirdäš* – “bir hovlida turuvchi qo‘shni”.

غ *γ* [harfi]:

يُرْبَاغْ *yurbaγ* – “ishni kechiktirish, keyinga surish”.

بِرْقَغْ *bïrqïγ* – “ot va eshaklarning burnidan nafas olish bilan xirillashi, pishqirishi”; **اَتْ بِرْقِغِی *at bïrqïγï*** – “ot pishqirishi”.

بُرْقَغْ *burquγ* – “teri va boshqalarning yig‘ilib qolishi”.

[**بَشْلَاغْ *bašlaγ***] **بَشْلَاغْ نَانگْ *bašlaγ näŋ*** – “tashlandiq narsa”; **بَشْلَاغْ يِلْقِی *bašlaγ yïlqï*** – “bo‘sh, boylanmagan, o‘z boshiga yurgan hayvon”.

بِغْرِغْ *bïγrïγ* – “tiqib to‘latilgan qop va mesh”.

تَبْلَاغْ *taplaγ* – “rozilik, istashlik, muvofiq topishlik”; **بُو اِيشْ دَا سَنِكْ تَبْلَاغِنگْ بَارْمُو *bu ïšda seniŋ taplaγïŋ barmu?*** – “bu ishda sening roziliging bormi?”.

تَبْزُغْ *tapzuγ* – “kishilar orasida so‘ralgan topishmoq”; **تَبْزُغُقْ تَبْزْدِمْ *tapuzγuq tapuzdïm*** – “men undan bir topishmoq so‘radim”.

تُتْسُغْ *tutsuγ* – “vasiyat”; **مَنْ اَنگَرْ تُتْسُغْ تُتُزْدُمْ *men aŋar tutsuγ tutuzdum*** – “men unga vasiyat qildim”.

تَرْتِغْ *tartïγ* – “egar qayishi”.

تَرْتِغْ *tartïγ* – xon o‘zida yuz bergan bir ish uchun tevarakdagilarni chaqirishi, tortishi; **بَگْدَنْ تَرْتِغْجِی كَلْدِی *begdän tartïγčï keldi*** – “xonning va bekning chaqiruvchisi keldi” demakdir.

تُرْقُغْ *turquγ* – “ishda uyalish”; **(بُلْدِی) اُلْ مَنْدَنْ تُرْقُغْ *ol mendän turquγ* (*boldï*)** – “o‘zidan o‘tgan bir ish uchun u mendan uyaldi”.

تُغْرَاغْ *tuγraγ* – “xonning muhri va imzosi” (o‘g‘uzcha). Turklar bilmaydilar, men ham bu so‘zning aslini bilmayman.

تُغْرَاغ ***tuγraγ***[1] – shoh tomonidan jang vaqtida askarlarga berilib, tinchlikda qaytarib olinadigan ot.

تِلْدَاغ ***tildaγ*** – “bo‘hton, tuhmat”; (117a) **اُلْ اَنكَرْ تِلْدَاغ قِلُورْ** ***ol aŋar tildaγ qilur*** – “u unga bo‘hton qildi”. Bu so‘zning forschasi بهانه *bahāna* dir.

[**تُغْسِغْ** / **تُغْسُغْ** ***tuγsuγ*** / ***tuγsïγ***] **تُغْسُغْ** / **كُونْ تُغْسُغْ** ***kün tuγsuγ*** / ***tuγsïγ*** – “kun chiqar; Sharq”.

[**بَتْسِغْ** ***batsïγ***] **كُونْ بَتْسِغْ** ***kün batsïγ*** – “kun botar; G‘arb”.

تَلْقِغْ ***talqïγ*** – “tog‘larning tutashgan, uchrashgan yeri”.

تَلْقِغْ ***talqïγ*** – “ishda susayish, keyinga siltash”.

تُمْلِغْ ***tumlïγ*** – “sovuq; sovish”. (Shoir) shunday degan:

تُمْلِغْ كَلِبْ قَبْسَدِى	***Tumlïγ kelip qapsadï,***
قُتْلُغْ يَايِغْ تَبْسَدِى	***Qutluγ yayïγ tepsädi.***
قَرْلَبْ اَزُنْ يَبْسَدِى	***Qarlap ažun yapsadï,***
اَتْ يِنْ اُشُبْ اَمْرِشُورْ	***Et yin üšüp emrišür.***

Aytmoqdaki: “Sovuq kelib hamma yoqni qopladi. U barakali yozga hasad qilib, qor yog‘dirdi. Qor yer yuzini qoplay deb qoldi. Kishining badani uvishib, qaltiraydi, go‘yo badanda chumoli yurganga o‘xshaydi” [“Sovuq kelib qopladi. Qutlug‘ yozni haydadi. Qor olamni qoplab oldi. Kishining badani uvishib, qaltiraydi”].

Bu yerdagi **تُمْلُغْ** ***tumluγ*** so‘zining asli **تُمْ** ***tum*** dir; **اُلُكْ يُزِى تُمْلُغْ** ***ölüg yüzi tumluγ*** – “o‘likning yuzi sovuq”. O‘lgandan keyin yaqinlar ham undan yuzlarini o‘giradilar.

سِرْتِغْ ***sïrtïγ*** – “sezish, payqash”. So‘zlovchining so‘zidan hammasini emas, ba’zi maqsadlarni sezib olish; **مَنْ بُو سُوزْدَنْ سِرْتِغْ بُلْدُمْ** ***men bu sözdän sïrtïγ boldum*** – “men bu so‘zning mohiyatini, sirini sezib oldim” demakdir.

[**سَجْلِغْ** ***sačlïγ***] **سَجْلِغْ اَرْ** ***sačlïγ er*** – “sochli kishi; sochi o‘siq kishi”.

[**سَرْسِغْ** ***sarsïγ***] **سَرْسِغْ سُوزْ** ***sarsïγ söz*** – “sassiq va dag‘al so‘z”. Qo‘pol ish va qo‘pol yurishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

سِزْلَاغ ***sïzlaγ*** – “tish zirqirashi”; sovuq suv ichganda, muzni tishlaganda bo‘ladigan hol.

سِغْزِغ ***sïγzïγ*** – mahsi tikishda chok orasiga qo‘yiladigan charm.

سِغْزِغ ***sïγzïγ*** – ikki narsa orasini birlashtirish.

[**سِغْزَاغ** ***sïγzaγ***] **تِيشْ سِغْزَاغِى** ***tiš sïγzaγï*** – “tish orasidagi ochiqlik”.

سَغْلِغْ ***saγlïγ*** – “sanoqli narsa”. Asli **سَاغْلِغْ** dir.

سُوْلَاغ ***suwlaγ*** – suv yo‘li; mollarning suv ichadigan joyi.

سُوْلَاغ ***Suwlaγ*** – bir joyning oti.

[**قُتْلُغْ** ***qutluγ***] **قُتْلُغْ نَانْكْ** ***qutluγ näŋ*** – “har bir qutlug‘ narsa”. Erkak kishilar ham shu ot bilan ataladi.

[1] Bu so‘z *za* bilan *tuγzaγ* deb yozilgan (تُغْزَاغ). Biz buni fe’l o‘zagiga ko‘ra *tuγraγ* deb oldik.

قَرْشَاغ ***qaršaγ*** – “to‘n kengligi”; (117b) **اَنِکْ قَرْشَاغِی کُورْ** ***anïŋ qaršaγï kör*** – “uning choponining kengligini ko‘r”.

قُرْشَاغ ***quršaγ*** – “belbog‘, bog‘, o‘rama”; **اَقْ قُرْشَاغِی** ***ew quršaγï*** – “yungdan to‘qilgan, o‘tov ustini bog‘lanadigan jiyak. O‘tov jiyagi, arqoni”.

قِشْلَاغ ***qïšlaγ*** – “qishloq, qishlanadigan joy”. Maqolda (shunday kelgan): **اُوزْگُوزْ اِیرْ قِشْلَاغ** ***Özgüz er – qïšlaγ.*** Ma’nosi: “O‘z ishini o‘zi qilib, boshqaga yuklamaydigan kishi qishloqqa (tog‘ning o‘ti mo‘l, qori oz bo‘lgan kungay tomoniga) ega bo‘lgan kishi kabidir”.

مَانْ قِشْلَاغ ***Manqïšlaγ*** – o‘g‘uzlar mamlakatidagi bir joy oti.

قُشْلَاغ ***qušlaγ*** – “qushlar ko‘p bo‘ladigan joy”. U yerda ov qilinadi.

قَرْقَاغ ***qarqaγ*** – “o‘tsiz va suvsiz joy; qaqroq”.

[**قُلْسِغْ اَرْ**] ***qulsïγ er*** – “qiliqlari qulga o‘xshagan, qulsifat kishi”.

نِژْدَاغ ***nïždaγ*** – “qayroq tosh”; ikki jag‘ orasida aytiladigan ژ *zā* harfi bilan.

ق ***q*** [harfi]:

بَتْرَقْ ***batraq*** – uchiga maxsus ipaklik osilgan yog‘och, jangchi jangda shu bilan o‘zini belgili qiladi.

بُجْغَاقْ ***bučγaq*** – “qutr” (globus va xaritada yerning o‘rtasidan kesib o‘tgan chiziq); shundan olib, **یِیرْ بُجْغَاقِی** ***yer bučγaqï*** – “Yer qutri” deyiladi.

بُجْغَاقْ ***bučγaq*** – burchak va shuning kabilar.

بُجْغَاقْ ***bučγaq*** – so‘yilgan mol pochalarining terisi. Undan oyoq kiyimi, choriq ishlanadi.

بُخْسُقْ ***boxsuq*** – asirlar va jinoyatchilar bo‘yniga solinadigan temir zanjir, kishan. Bu so‘zning **بُغْسُقْ** ***boγsuq*** talaffuzi ham bor. Bunda خ *xā* bilan *γayn* almashinadi. Arabcha غدر ختر singari.

اَخْسَقْ بُخْسَقْ ***axsaq-buxsaq*** – “oqsoq va cho‘loqlar”ga juft holda **اَخْسَقْ بُخْسَقْ** ***axsaq-buxsaq*** deyiladi. Har ikkisi qo‘shib aytiladi.

بَدْرُقْ ***Badruq*** – erkaklar oti.

بَرْجُقْ ***Barčuq*** – اَفرَاسِیَابْ *Afrāsiyāb* bino qilgan shahar. U بُخت نصّر *Buxta Naṣṣar* o‘g‘li بیزن *Bayzan* ni shu shaharga qamagan edi.

بُرْجَقْ ***burčaq*** – “loviya”.

بُرْجَقْ ***burčaq*** – “dona, ter donasi”; **تَرْ بُرْجَقْلَنْدِی** ***ter burčaqlandï*** – “ter donalandi; dona-dona ter chiqdi”.

بُزْلُقْ ***buzluq*** – “muzxona; muz saqlanadigan joy”.

بَسْرُقْ ***basruq*** – “og‘ir narsalar; bostiriq”. Maqolda (shunday kelgan): (118a) **یِیرْ بَسْرُقِی تَاغْ بُدُونْ بَسْرُقِی بَاکْ** ***Yer basruqï – tay, boδun basruqï – beg.*** Ma’nosi: “Yerning og‘irligi tog‘ bilan, xalqning og‘irligi beklar bilan”. Bu maqol “Yer tog‘ bilan tinch turadi-yu, xalq beklar bilan tinch turadi, chunki ular yo‘lga soladilar” degan ma’noda qo‘llanadi.

[**بَشْنَقْ**] ***bašnaq*** **بَشْنَقْ اَرْ** ***bašnaq er*** – “sovutsiz, qurolsiz, qalqonsiz, boshqasiz yalang‘och kishi”.

بَشْمَقْ ***bašmaq*** – “to‘piq” (o‘g‘uzcha).

بُغْمَقْ ***boγmaq*** – “ko‘ylak bog‘ichi”.

بُغْمَقْ ***boγmaq*** – “bo‘yin tumor”. Oltin va boshqa narsalardan yasalib, qimmatbaho toshlar va marvaridlar qadalgan, kelinlarning bo‘yniga taqiladigan ziynati.

بَلْچِقْ ***balčïq*** – “balchiq, loy” (o‘g‘uzcha).

بُلْغَاقْ ***bulγaq*** – yov bostirib kelishi (mumkinligi to‘g‘risidagi darak)dan kishilar orasida kelib chiqadigan g‘ala-g‘ovur.

بُلْغَاقْ ***Bulγaq*** – erkaklar oti. (Shoir) shunday degan:

بُلْغَاقْ اُكُشْ بُلْسَا قَجَنْ بِلْكِنِكْ بِتَارْ ***Bulγaq öküš bolsa, qačan bilgiŋ yetär,***
يَنْكْشَقْ تَلِمْ سَيْرَبْ اَنِى تَمْغَقْ قَتَارْ ***Yaŋšaq telim sayrap anï tamγaq atar.***

Aytmoqdaki: “Xalqda fitna ko‘paysa, aql ozayadi va to‘g‘ri yo‘lni topolmay qoladi. Behuda so‘zlar ko‘payib ketsa, og‘iz qurib, jag‘ charchaydi”. Bu maqol o‘ylab so‘zlashga undab aytiladi.

تُبْرَاقْ ***tupraq*** – “tuproq”.

تَبْلُوقْ ***tapluq*** – yer yorilishi.

تُتْغَاقْ ***tutγaq*** – yovning oldingi ayg‘oqchilarini qo‘lga olish uchun kechasi kezuvchi ayg‘oqchi qo‘shin bo‘lagi.

تَرْتُقْ ***Tartuq*** – yag‘molarning shaharlaridan birining oti.

تَرْغَاقْ ***tarγaq*** – “taroq”.

تُرْلَاقْ ***turlaq*** – har bir oriq hayvon. Kishi ulg‘ayib, zaiflashganda ham تُرْلَاقْ ***turlaq*** deyiladi.

تَرْمَاقْ ***tarmaq*** – yirtqich qush va hayvonlar tirnog‘i.

[تَرْمَاقْ ***tarmaq***] قَرْغَاقْ تَرْمَاقِي ***qarγaq tarmaqï*** – bir turli o‘simlik oti.

تُزْلُقْ ***tuzluq*** – “tuzluq; tuz idishi”.

تُغْرَاقْ ***tuγraq*** – bobil toli.

[تِغْرَاقْ ***tïγraq***] تِغْرَاقْ اَرْ ***tïγraq er*** – “chaqqon, g‘ayratli kishi”.

(Shoir) shunday degan:

اُغْرَاقْ اَرِى تِغْرَاقْ ***Uγraq eri tïγraq,***
يِيمِى اَنِكْ اُغْلَاقْ ***Yemi anïŋ oγlaq.***
سُوتِى اُزَا سَغْرَاقْ ***Süti üzä saγraq,***
يِيرِى تَقِى اَغْلَاقْ ***Yeri taqï aγlaq.***

Aytmoqdaki: “Ug‘raqlarning erlari g‘ayratli, ularning yeydigan ovqati o‘g‘-loqdir. Qimiz tog‘oralari uza kosa arimaydi. (118b) Holbuki, yerlari qurg‘oq, unumsizdir. Ularning mardligi, saxiyligi maqtarlidir”.

تُغْسَاقْ ***tuγsaq*** – “beva xotin”. Ko‘pincha تُولْ تُغْسَاقْ ***tul-tuγsaq*** shaklida ikki so‘z qo‘shaloq qo‘llanadi.

تَقْرَاقْ ***tawraq*** – “tezlik”; **تَقْرَاقِنْ كَلْ** ***tawraqïn kel*** – “tezlik bilan kel”. Bu so‘z sifatdosh vazifasida ham qo‘llanadi: **تَقْرَاقْ اِيشْچِى** ***tawraq ïščï*** – “tez ishlaydigan ishchi” singari.

تُقْلُقْ ***toqluq*** – “to‘qliq”.

تُقْلُقْ ***toqluq*** – “kal, boshida tuki yo‘q kishi”. Shoxsiz hayvonga ham shu so‘z qo‘llanadi.

تَلْغُوقْ ***talγuq*** – “mix”. U ketmon va bel dastalari mahkam bo‘lishi uchun qoqiladi.

تُمْشُقْ ***tumšuq*** – “qush tumshug‘i”.

تَمْغَاقْ ***tamγaq*** – “tomoq, bo‘g‘iz”.

جَخْشَاقْ ***čaxšaq*** – “tog‘ cho‘qqilaridagi toshloq joy”. Maqolda (shunday kelgan): **جَخْشَاقْ اُزَا اُتْ بُلْمَاسْ جَقْرَقْ بِلَا اُفْتْ بُلْمَاسْ** ***Čaxšaq üzä ot bolmas, čaqraq bilä uwut bolmas.***

Ma’nosi: “Tog‘lar cho‘qqisidagi toshloqlarda o‘t bo‘lmaydi, shuningdek, kallarda uyat bo‘lmaydi”.

جَخْشَاقْ ***čaxšaq*** – “quritilgan meva”; o‘rik, uzum va boshqalarning quritilgani (qarluqcha).

جَارْ جَرْمَقْ ***čar-čarmaq*** – “kichik bolalar”. Bu ikkala so‘z birgalikda ishlatiladi.

جَمْرَقْ ***čamraq*** – **جَارْ جَرْمَقْ** ***čar-čarmaq*** ning boshqa bir shakli.

[**جَغْرُقْ** ***čaγruq***] **جَغْرُقْ يِيرْ** ***čaγruq yer*** – “tepilgan qattiq yer”.

جَقْمَاقْ ***čaqmaq*** – o‘t yoqish uchun ishlatiladigan chaqmoqtosh. Bu so‘z ham masdar, ham otdir. Arabcha حمدت و حمد so‘zidan جمد, جمدالما so‘zidan جمد so‘zi yasalgani singari.

جَلْبَقْ ***čalpaq*** – “kir, iflos”.

جَلْبَقْ اِيشْ ***čalpaq ïš*** – “aralash ish, chalkash, chigal ish”.

جُمْغُقْ ***čumγuq*** – oyoqlari va tumshug‘i qizil, qanotlari oq parli qarg‘a. O‘g‘uzlar *γayn* ni tushirib, **جُمُقْ** ***čumuq*** deydilar. Har bir *γayn* li otlarda yoki to‘rt harfli *kāf, γayn* li so‘zlarda ham, *kāf, γayn* ni tushirib aytadilar.

[**جَمْغُقْ** ***čamγuq***] **جَمْغُقْ اَرْ** ***čamγuq er*** – “yolg‘onchi va ikkiyuzlama kishi”**.**

بَشْغَقْ ***bašγaq*** – ikki sonning tepa bo‘lagi.

سَبْلِقْ ***saplïq*** – qilich va pichoqlar sopiga yaroqli narsa. Har narsaning dastasini **سَبْلِقْ** ***saplïq*** deyiladi. (119a)

[**سَجْغَاقْ** ***sačγaq***] **سَجْغَاقْ كِشِى** ***sačγaq kiši*** – “mollarni sochadigan kishi”.

سِجْغَاقْ ***sïčγaq*** – “chichqoq”. Bu so‘z(ning tarzi) qoidadan tashqaridir. Qoidaga ko‘ra, oxirgi *qāf* o‘rnada *nūn* bo‘lishi kerak edi, chunki ishning ko‘p martalab bo‘lishini bildiruvchi sifatlar oxiri *nūn* bilan tugaydi. **اُزْغَانْ اَتْ** ***ozγan at*** gapidagi **اُزْغَانْ** ***ozγan*** so‘zi **اُزَاغَانْ** ***ozaγan*** (“hammadan o‘zib ketadigan”) ma’nosidadir; **اُلْ اِيشْ قِلْغَانْ اُلْ** ***ol ïš qïlγan-ol*** – “u ko‘p ish qiluvchi” singari.

سُسْغَاقْ ***susγaq*** – suv va suyuq narsalarga botirib olinadigan uskuna. Qarluq, qipchoq va butun ko‘chmanchilar tilida shunday.

سُغْدَاقْ *suγdaq* – بَلَاسَاغُونْ *Balasaγun* ga joylashgan bir qavm. Ular سَمَرْقَنْدْ *Samarqand* va بُخَارَا *Buxārā* o‘rtasidagi سُغْدْ *Suγd* dan bo‘lib, keyin turklashib ketgan kishilar.

سَغْرَاقْ *saγraq* – suv va boshqa narsalar ichiladigan idish, kosa. Maqolda (shunday kelgan): **سَاوِنْ سَغْرَاقْ قَا تَكِيرْ *Sawïn saγraqqa tegir.*** Ma’nosi: “Kishi shirin so‘z bilan shohlar kosasidan suv ichadi, ya’ni ular hurmat topadi”.

سِرْمَاقْ *sïrmaq* – “eshakning to‘qimi”.

سُغْنَاقْ *Suγnaq* – o‘g‘uz shaharlaridan biri.

سَغْلِقْ *saγlïq* – “sovliq (qo‘y)”; aslida “sog‘ish”dir.

سُقْلُقْ *suwluq* – “dastro‘mol”.

سَقْلِقْ *saqlïq* – “ishda hushyorlik, uyg‘oqlik”.

سُقْلُقْ *suqluq* – “suqliq. Ovqat, buyum va boshqalar ustida ochko‘zlik”.

قَبْغَاقْ *qapγaq* – “qopqoq”.

قَبْجَقْ *qapčaq* – suv (ariq) tarmoqlarining bir-biriga tutashadigan, to‘qnashadigan yeri.

قَدْرَقْ *qadraq* – tog‘ning bukilgan, soyliq joylari; **قَتْ قَدْرَقْ *qat-qadraq*** – “bukri va egri narsa”.

قُدْرُقْ *qudruq* – “butun hayvonlarning quyrug‘i, dumi”; **قُوىْ قُدْرُقِى *qoy qudruqï*** – “qo‘y quyrug‘i”; **اَتْ قُدْرُقِى *at qudruqï*** – “otning quyrug‘i”.

(Shoir) shunday degan:

قُدْرُقْ قَتغْ تُكْدُمِزْ ***Qudruq qatïγ tügdümiz,***
تَنْكْرِيكْ اُكْشْ اُكْدُمِزْ ***Täŋrig öküš ögdümiz,***
كَمْشِبْ اَتغْ تَكْدِمِزْ ***Kemšip atïγ tegdimiz,***
اَلْدَبْ يَنَا قَجْتِمِزْ ***Aldap yana qačtïmïz.***

(119b) Aytmoqdaki: “Otlar quyrug‘ini qattiq qilib tugdik, Tangriga ko‘p hamd o‘qidik, ya’ni kofirlarga hujum qilishda takbir o‘qidik. Uzangiga qattiq bosib hujum qildik. Orqamizdan ergashinglar deb, ularni aldab, qochganga o‘xshab chekindik”.

[**قُدْرُقْ *qudruq***] **قُشْ قُدْرُقِى *quš qudruqï*** – “qush quyrug‘i”. Maqolda (shunday kelgan): **تُقُمْ يُزُبْ قُدْرُقْتَا بِجَكْ سِيمَا *Toqum yüzüp, qudruqta pičäk sïma.*** Ma’nosi: “Mol terisini shila turib, dumiga qolganda pichoqni sindirma”. Bu maqol quyidagi arabcha maqolga o‘xshaydi: شوّى اخوك حتّى اذا انضج رمّد .

قُدْرُقْ *qudruq* – “quyruq” (orqa yo‘ldan [ya’ni, to‘g‘ri ichakdan] kinoya); **قُدْرُقِى اُتْكَانْ كِشِى *qudruqï ötkän kiši*** – “orqa yo‘li keng kishi”.

قَرْسَاقْ *qarsaq* – tulkilar jinsidan bo‘lgan bir hayvon. Uning oq, o‘siq pochasidan po‘stin qilinadi.

قَرْلُقْ *qarluq* – turklardan bir guruhi. Ular ko‘chmanchi bo‘lib, o‘g‘uzlardan boshqalar; ular ham turkman(lar toifasidan)dir.

قُرْلُقْ *qurluq* – qimizni pishitish uchun ishlatiladigan idish; mesh.

قَرْنَاقْ *Qarnaq* – o‘g‘uz shaharlaridan biri.

[**قَرْنَاقْ *qarnaq***] **قَرْنَاقْ اَرْ *qarnaq er*** – “qorni katta kishi”.

قِرْنَاقْ *qïrnaq* – “joriya, cho‘ri”; yabaqu, qay, chumul, basmil, o‘g‘uz, yamak va qipchoqlar so‘zi.

[**قِزْلاقْ *qïzlaq***] **كُتِى قِزْلاقْ *köti qïzlaq*** – “qizilishton”. Uning dumi qizil bo‘ladi.

قِسْرَاقْ *qïsraq* – “yosh baytal”. O‘g‘uzlarcha “har qanday baytal”ga nisbatan aytiladi. Maqolda (shunday kelgan): **قِيزْ بِرْلا كُرَشْمَا قِسْرَاقْ بِرْلا يَرِشْمَا *Qïz birlä küräšmä, qïsraq birlä yarïšma.*** Ma’nosi: “Qiz bilan o‘ynashma, chunki ular kuchli va seni yengadi. Yosh qisir biya bilan poyga qilishma, u ayg‘irdan ko‘ra kuchlidir, u ham sening ustingdan g‘alaba qiladi (seni yengadi)”. Bu maqol xoqoniya qizlaridan biri سُلْطَانْ مَسْعُودْ *Sulṭān Mas’ūd* ning nikoh kechasi o‘z erini oyog‘i bilan chalib yiqitganidan keyin xoqoniylarda yuzaga kelgan.

قِسْمَاقْ *qïsmaq* – uzangining ikki yonidagi ikkita qayish bog‘ichi. Uzangi ikkita qayish orasida turadi.

قِسْمَاقْ *qïsmaq* – “sirtmoq, tuzoq”.

قُشْلُقْ *qušluq* – kun chiqqandan keyingi vaqt (o‘g‘uzcha).

قِشْلِقْ *qïšlïq* (120a) – “qishlik uy; qish uchun tayyorlangan har bir narsa”.

[**قُغْشَاقْ *quγšaq***] **قُغْشَاقْ نَانَكْ *quγšaq näŋ*** – “har bir bo‘sh, zaif, sust narsa”.

قِفْجَاقْ *qïwčaq* – turkiy qabilalardan biri.

قِفْجَاقْ *Qïwčaq* – كَاشْغَرْ *Kāšγar* yaqinidagi bir joyning oti.

قُلْبَاقْ *Qulbaq* – turklardan bir taqvodor kishining oti. U بَلَاسَاغُونْ *Balasaγun* tog‘larida yashar edi. Aytishlariga qaraganda, u qo‘li bilan katta qora toshga **تَنكْرِى قُلِى قُلْبَاقْ *Täŋri qulï Qulbaq*** deb yozsa, oq xat yozilar, agar oq toshga yozsa, qora xat paydo bo‘lar edi. Uning izlari haligacha ham turibdi, deydilar.

قَلْتُقْ *qaltuq* – “yovvoyi sigirlar shoxi”. Uning ichi o‘yilib, qimiz va boshqa narsalar ichiladi.

قُلْتِقْ *qoltïq* – “qo‘ltiq”.

قِلْتِقْ *qïltïq* – “bosh kepagi, qipig‘i”.

قَمْغَاقْ *qamγaq* – bo‘yi baland, barglari nozik bir o‘t. Uyning ochiq joylariga solinadi.

قُمْلاقْ *qumlaq* – قِغجَاقْ *Qïwčaq* yerlarida o‘sadigan pechakka o‘xshagan bir o‘t. Uni asalga aralashtirib, ichimlik qilinadi. Bu o‘t kemaga tushib qolsa, dengiz to‘lqinlanadi va kema chayqalib, undagi kishilar g‘arq bo‘layozadilar.

قَنْجِقْ *qanjïq* – “urg‘ochi it, qanjiq”.

مُنْجُقْ *munčuq* – “munchoq, qimmatli toshdan qilinadigan marjon”.

مُنْجُقْ *munčuq* – ot bo‘yniga taqiluvchi munchoq, qimmatli tosh, sher tirnog‘i yoki tumor.

مَنْجُقْ *mančuq* – egarga osiladigan narsalar; to‘rva va boshqalar.

[**مُنْغَانْ *munγan***] **مُنْغَانْ كِشِى *munγan kiši*** – “ezma va behuda so‘zlovchi kishi”.

ك ***k*** [harfi]:

بُرْجَكْ ***bürčäk*** – “kishining kokili; otning yoli”.

بِتْرِكْ ***pitrik*** – “tilliq, xotinlar tillig‘i”.

بِتْرِكْ ***pitrik*** – “pista” (arg‘ucha).

بِسْتِكْ ***pistik*** – yigirish uchun mo‘ljallab ajratilgan bir bo‘lak paxta (chigilcha).

بِسْتِكْ ***pistik*** – “pilta” (arg‘ucha).

بُكْسَكْ ***böksäk*** – xotinlar bo‘ksasi bilan qo‘yni orasidagi yer (u yerga ziynatli tumor taqadilar).

بُكْسَكْ ***böksäk*** – “bo‘ksa; ko‘krakning yuqori qismi”.

[تُتْسُكْ ***tütsüg***] تُتْسُكْ كِشِى ***tütsüg kiši*** – “kek saqlovchi kishi; dushmanlik va adovat qiluvchi kishi”. (120b)

تَحْجَكْ ***täḥčäk*** – صينْ *ṣīn* ipaklik gazmollaridan biri.

تُرْبِكْ ***türpik*** – “o‘roq, randa; chopqi”. Uni تُرْبِكُو ***türpigü*** ham deydilar.

تَرْلِكْ ***terlik*** – “jazliq”. Egar ostidan qo‘yiladigan namat.

تُرْلُكْ ***türlüg*** – “har turli; turli”; قَجْ تُرْلُكْ نَانَكْ ***qač türlüg näŋ*** – “har turli narsa”; قَجْ تُرْلُكْ سُوزْ اَيْدِمْ ***qač türlüg söz aydïm*** – “har turli so‘z aytdim”.

تُرْمَاكْ ***türmäk*** – tuxum va go‘shtdan tayyorlanadigan ovqat.

تِرْنَاكْ ***tirnäk*** – kishilarning maslahat uchun yig‘ilish joyi.

[تُشْلُكْ ***tüšlük***] تُشْلُكْ اُوذِى ***tüšlük öði*** – safarga ketayotgan kishining tun oxirida dam olish uchun qo‘nishi.

تَكْرَكْ ***tegräk*** – “tevarak, atrof”; قُدُغ تَكْرَكِى ***quðuγ tegräki*** – “quduq tevaragi”.

تُكْلُكْ ***tüklüg*** – “ko‘r”; تُكْلُكْ كُزْلُكْ ***tüklüg közlüg*** – “ko‘zi ko‘rmovchi kishi”.

تَقْلُكْ ***tewlüg*** – “hiylakor, firibgar, aldamchi”.

[جَكْرَكْ ***čekräk***] جَكْرَكْ قَبَا ***čekräk qapa*** – qullar kiyadigan va jundan to‘qilgan bir turli kiyim.

[جَرْلِكْ ***čerlig***] كُوزِى جَرْلِكْ ***közi čerlig*** – “zaif ko‘zli kishi”; u yorug‘likdan ko‘ra qorong‘ulikda yaxshi ko‘radi.

جَلْبَكْ ***čelpäk*** – “ko‘z chirki; ko‘z yiringi”.

جِلْدَكْ ***čildäk*** – otning ko‘kragiga chiqadigan bir yara. U yiringlaydi, fasod bog‘laydi, so‘ng uni dog‘lab tuzatadilar.

[سُرْتُكْ ***sürtüg***] سُرْتُكْ اِشْلَارْ ***sürtüg ešlär*** – “suykaluvchi va ishqalanuvchi xotin”. Surtilib eshilgan har narsaga ham سُرْتُكْ ***sürtüg*** deyiladi.

[سَدْرَكْ ***seðräg***] سَدْرَكْ بُوزْ ***seðräg böz*** – “siyrak to‘qilgan bo‘z”.

[سَدْرَكْ ***seðräg***] سَدْرَكْ قَبُغْ ***seðräg qapuγ*** – “panjarali eshik; surma eshik”.

سُرْجُكْ ***sürčük*** – “kechki yig‘ilish, o‘tirish”. O‘g‘uzlar ج *čīm* harfini *fatḥa* li qilib, سُرْجَكْ ***sürčäk*** deb talaffuz qiladilar.

سَلْجُكْ ***Säljük*** – hozirgi sultonlar bobosining oti. Ular سَلْجُكْ سُو بَاشِى ***säljük sü bašï*** deb atalar edi.

سَكْرِكْ ***sekrik*** – “tog‘da sakrab o‘tiladigan joylar”.

سُكْرُكْ ***sökrük*** – “xotinlar avrati”.

كُبْرُكْ ***köprüg*** – “ko‘prik”.

كُتْلُكْ ***kötlüg*** – qarg‘ish; ma’nosi: “ey, haromi”dir. Aslida ma’nosi: “Ey, lut qavmining ishini o‘ziga qildirgan kishi” bo‘ladi.

تُمْرُكْ ***tömrüg*** – “doira, childirma” (o‘g‘uzcha).

كُبْجُكْ ***köpčük*** – “ko‘pchik, egarning ustiga kiygiziladigan yopqi”.

كِرْبِكْ ***kirpik*** – “kiprik”. (121a)

كَرْتُكْ ***kertük*** – yog‘ochdagi kertik va kesilgan joy; **كَرْتُكْ كَمْرُكْ** ***kertük-kemrük*** – “kertik-kesik, kertilgan-yorilgan”.

كَرْتِكْ ***kertik*** – non va shunga o‘xshash narsalarni sanash, hisobini olish uchun yog‘ochga qirqib qo‘llanadigan belgi.

كُرْشَاكْ ***küršäk*** – tariq, qo‘noqlarning mag‘zini ayirib, suv yoki sutga qaynatib, so‘ng yuziga yog‘ quyib yeyiladigan ovqatning oti.

كَزْلِكْ ***kezlik*** – xotinlar kiyimlariga taqib, o‘zlari bilan olib yuradigan pichoqcha.

كُزْلُكْ ***közlük*** – ot dumidan to‘qilib, ko‘z og‘riganda, shamollaganda va yorug‘dan qamashganda ko‘zga taqiladigan narsa.

[**كُسْرُكْ** ***kösrük***] **كُسْرُكْ تُشَاغْ** ***kösrük tušaγ*** – “otni bog‘lab qo‘yadigan tushov, kishan”.

كَفْرِكْ ***kewrik*** – “chaqirtikan”.

كُفْرُكْ ***küwrük*** – “nog‘ora”.

[**كَفْرَكْ** ***kewräg***] **كَفْرَكْ نَانَكْ** ***kewräg näŋ*** – kanakunjut va boshqalarga o‘xshash tanasi bo‘sh va g‘ovak o‘simliklar.

[**كَفْشَكْ** ***kewšäg***] **كَفْشَكْ نَانَكْ** ***kewšäg näŋ*** – “yumshoq narsa”. Bu so‘z kiyimlar singari zaif va mayin narsalarga ham qo‘llanadi.

[**كُفْشَكْ** ***küwšäg***] **كُفْشَكْ اَتْ** ***küwšäg et*** – “yumshoq go‘sht”.

[**كُفْشَكْ** ***küwšäg***] **كُفْشَكْ اَتْمَاكْ** ***küwšäg etmäk*** – “yaxshi xamirdan bo‘lgan non”.

كُفْلُكْ ***küwlük*** – loyi g‘o‘lak qilib quritilgan, yong‘oqdan kichik yumaloq kesak. Uni sopqonga solib otiladi. (Uni) ho‘l holida ham otish mumkin.

كَكْلِكْ ***käklik*** – “kaklik”.

[**كَكْمَكْ** ***kekmäk***] **كَكْمَاكْ اَرْ** ***kekmäk er*** – “har xil ishlar pishitib qo‘ygan, qiyinchiliklarda pishgan kishi”. Asli **كَكْ** ***kek*** bo‘lib, “mehnat; qiyinchilik” ma’nosidadir. Bu so‘z sifat bo‘lib, qoidadan tashqaridir. Qoidaga ko‘ra, sifat **كَكْمَانْ** ***kekmän*** bo‘luvi kerak edi.

[**كَمْرُكْ** ***kemrük***] **كَمْرُكْ سُنْكُوكْ** ***kemrük söŋük*** – “go‘shti tozalangan suyak”.

كُنْجُكْ ***künčük*** – “cho‘ntak”. O‘g‘uzlar **كُنْجَكْ** ***künčäk*** deydilar.

كَنْجَاكْ ***känjäk*** – bir toifa turklar.

كَنْجَاكْ سَنْكِرْ ***Känjäk säŋir*** – طِرَازْ *Ṭirāz* yaqinidagi shaharning oti. Bu yer qipchoqlar hududidir.

كَنْدُكْ ***kendük*** – xumga o‘xshatib yasalgan bir narsa. Un va boshqa narsa solinadi (kanjakcha).

كُنْلُكْ ***künlük*** – “kunbay qilinadigan ish”.

[كُنْلُكْ ***künlük***] كُنْلُكْ يِمْ ***künlük yem*** – “kundalik, kunlik oziq”. Bu so‘z oz qo‘llanadi.

مَرْدَكْ ***merdäk*** – “ayiq bolasi”. Uni اَدِغْ مَرْدَكِى ***aδïγ merdäki*** deyiladi. Ba’zi bir turklar “to‘ng‘iz bolasi”ni تُنكُزْ مَرْدَكِي ***toŋuz merdäki*** deydilar. (121b)

[مَلْدَكْ ***meldäk***] مَلْدَكْ نَانكْ ***meldäk näŋ*** – “bir-birining ustiga qatma-qat mingashgan bo‘yin suyagi kabi cho‘ziq narsa”.

ل ***l*** [harfi]:

بِجْغِلْ ***bïčγïl*** – “qo‘l, oyoq yorilishi”; bu so‘z yer yorilishiga ham qo‘llanadi.

بَسْبَلْ ***basbal*** – “bir taqim ip”.

يَسْمِلْ ***yasmïl*** (***basmïl?***) – turk urug‘laridan biri.

[بَشْغِلْ ***bašγïl***] بَشْغِلْ يِلْقِى ***bašγïl yïlqï*** – “boshi oq mollar”.

بَتْمُلْ ***batmul*** – “uzun murch”.

بُشْكَالْ ***püškäl*** – “lochira; yupqa non”; xoqoniyaliklarning so‘zi.

بُغْرِلْ ***buγrïl*** – “to‘la idish, meshlarning buklanib turishi”.

[بُغْرُلْ ***buγrul***] بُغْرُلْ قُوىْ ***buγrul qoy*** – “tomog‘i oq qo‘y”.

[بُكْتَلْ ***böktäl***] بُكْتَلْ اَرْ ***böktäl er*** – “o‘rta bo‘yli kishi”; بُكْتَلْ اَتْ ***böktäl at*** – “orqa sag‘risi keng ot”.

[بُكْرُلْ ***bügrül***] بُكْرُلْ اَتْ ***bügrül at*** – “ikki biqini oq ot”. Shuningdek, ola qo‘y va boshqa hayvonlarga ham بُكْرُلْ ***bügrül*** deyiladi.

بَنْدَالْ ***bandal*** – bosh qismi cho‘qmoqli yog‘och. Bolalar kechasi uning uchini yondirib, bir-birlariga o‘qtalib o‘ynaydilar. Buni أُوتْ بَنْدَالْ ***ot bandal*** deyiladi. Chovgan o‘yinida o‘ynaladi.

[تَرْغِلْ ***tarγïl***] تَرْغِلْ يِلْقِى ***tarγïl yïlqï*** – “orqasida sepkilga o‘xshash oq-qora chizig‘i bor hayvon”. Otdan boshqa mollarning hammasiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

تُغْرِلْ ***toγrïl*** – yirtqich qushlardan biri. Bu mingta g‘ozni o‘ldirib, bittasinigina yeydi. Bu so‘z erkaklar oti o‘rnida ham qo‘llanadi.

تُغْرِلْ ***toγrïl*** – go‘sht va dorivorlar bilan to‘ldirilgan idish (kanjakcha).

جَشْكَالْ ***češkäl*** – sopol, tosh va uning siniqlari (kanjakcha).

سَنْكِلْ ***seŋïl*** – “yuzdagi sepkil”.

سَرْسَالْ ***sarsal*** – oq sichqon jinsidan; suvsarga o‘xshash kichik bir hayvon.

[قَرْتَالْ ***qartal***] قَرْتَالْ اَرْ ***qartal et*** – “to‘g‘ralgan go‘sht”.

[قَرْتَالْ ***qartal***] قَرْتَالْ قُوىْ ***qartal qoy*** – “oq-qorali chipor qo‘y”.

[قِرْغِلْ ***qïrγïl***] قِرْغِلْ اَرْ ***qïrγïl er*** – “o‘rta yoshli kishi”.

[قِزْغُلْ ***qïzγul***] قِزْغُلْ اَتْ ***qïzγul at*** – “qizilidan oqi kuchli va qora jigar ranglari orasida bo‘lgan bir rangli ot”.

م ***m*** [harfi]:

بَجْكَمْ ***bečkäm*** – “belgi, nishon”. Botirlar urush kunlarida ipakli narsa (122a) yoki yovvoyi sigirning dumini jang belgisi tarzida taqib oladilar. O‘g‘uzlar uni بَرْجَمْ ***pärčäm*** deydilar.

(Shoir) shunday degan:

بَجْكَمْ اُرُبْ اَتْلَقَا *Bečkäm urup atlaqa,*
اُيْغُرْدَقِى تَتْلَقَا *Uyγurdaqï tatlaqa.*
اُغْرِى يَقْزْ اِتْلَقَا *Oγrï yawuz ïtlaqa,*
قُشْلَرْ كِبِى اُجْتُمِزْ *Qušlar kibi učtumïz.*

Aytmoqdaki: “Otlarga belgi taqib, اُيْغُرْ *Uyγur* (eli)dagi تَتْ *tat* larga, ya’ni o‘g‘ri, muttaham itlarga qasd qildik. Qush uchgandek uchib, ularning ustiga yopirildik”.

بَجْكُمْ *bečküm* – “uyning shipi”.

بَذْرَمْ *baδram* – “xalq orasida shodlik va kulgu”. Gullar ochilgan joyga **بَذْرَمْ يِيرْ *baδram yer*** deyiladi, ya’ni “yoqimli yer” demakdir. Asli nima ekanini men bilmayman, chunki men buni forslar og‘zidan eshitdim. Lekin o‘g‘uzlar “hayit kuni”ni **بَيْرَمْ *bayram*** deydilar. Ya’ni “shodlik va yoqimli kun”. Demak, ular odatdagicha ذ *δā* ni *yā* ga almashtirganlar. Yoki o‘zi shunday *yā* li so‘zdir. Yoki bu o‘zi maxsus so‘zdir.

[**بِرْتَمْ *birtäm***] **اُلْ يُمُشْقَا بِرْتَمْ بَرْدِى *ol yumušqa birtäm bardï*** – “qaytishni go‘yo istamagandek, uzoq vaqt mamlakatdan uzilib, elchilik uchun ketdi”.

[**بَغْرَمْ *bayram***] **بَغْرَمْ قُمْ *bayram qum*** – “elangan qum, mayin qum”; كَاشْغَرْ *Kāšγar* bilan يَارْكَنْدْ *Yarkend* o‘rtasidagi qumliqqa **بَغْرَمْ قُومِى *Bayram qumï*** deyiladi.

بُخْسُمْ *buxsum* – “tariq, so‘klardan qilingan ichimlik, bo‘za”.

[**تُمْرُمْ *tumrum***] **تُمْرُمْ يِغَاجْ *tumrum yïγač*** – “yamoqchining ish kundasi va boshqalarga o‘xshash girdak qilib kesilgan yog‘och kunda”.

تُشْرُمْ *tüšrüm* – “pishitilgan ip lugi, o‘rami” (arg‘ucha).

زُنْكُمْ *züŋüm* – صِينْ *ṣīn* ipak gazmollaridan bir turi.

سِدْرِمْ *sïdrïm* – “qayish, tirkash” (o‘g‘uzcha); **سِدْرِمْ اِيشْلِغْ اَرْ *sïdrïm ïšlïγ er*** – “ishni o‘zi ishlab, boshqalarga qoldirmaydigan kishi”.

سَرْقِمْ *sarqïm* – “qirov”.

كُتْرُمْ *kötrüm* – “ustiga o‘tiriladigan baland kursi, supacha”.

كُجْرُمْ *köčrüm* – “sarosimalik, vahima”. Qishloq kishilarining shaharga qochib kelishi ma’nosida.

[**كَدْرِمْ *kedrim***] **كَدْرِمْ اَتْ *kedrim et*** – “so‘yilgan et”. (122b)

كَسْتَمْ *kestäm* – kechasi chaqirilmay kelgan kishilarga qilinadigan ziyofat.

Harfi qaytalagan so‘zlar bo‘limi

ر ***r*** [harfi]:

تَرْتَرْ *tartar* – qumriga o‘xshash bir qush.

[**جُرْ جُرْ *čur-čur***] **تَفْى اَمْكِى جُرْ جُرْ *tewäy emgi čur-čur*** – “tuyaning emigi “chur-chur”. Ya’ni tuya sog‘ilganda, sutning tog‘araga “chur-chur”lab tushishi.

[**قُرْ قُرْ *qur-qur***] **قَرِنْ قُرْ قُرْ اَتْى *qarïn qur-qur etti*** – “qorin “qur-qur” etdi, qorin qurilladi, quldiradi”.

ک ***k*** [harfi]:

سُکْسُکْ ***sük-sük*** – yulg‘un daraxti (yaxshi yonadigan yog‘och).

م ***m*** [harfi]:

[سُمْلِمْ ***sumlïm***] سُمْلِمْ تَتْ ***sumlïm tat*** – “turkcha bilmaydigan fors”. “Umuman turkcha bilmaydigan kishilar”ga سُمْلِمْ ***sumlïm*** deyiladi.

کُرْکُمْ ***kürküm*** – “za’faron”. Bu so‘zda arabchaga o‘xshashlik bor. Arablar ham uni کُرْکُمْ *kurkum* deydilar.

(Shoir) shunday degan:

بَکْلَرْ اَتِنْ اَرْغُرُبْ ***Beglär atïn arγurup,***
قَذغُو اَنِی تُرْغُرُبْ ***Qaδγu anï turγurup,***
مَنکْزِی یُزِی سَرْغَرِبْ ***Meŋzi yüzi sarγarïp,***
کُرْکُمْ اَنکرْ تُرْتُلُورْ ***Kürküm aŋar türtülür.***

اَفرَاسِیَابْ *Afrāsiyāb* ning o‘limiga achinib aytmoqda: “Beklar otlarini charchatib keldilar. Qayg‘u beklarni ozdirdi, yuzlari za’faron surtgandek sarg‘ayib ketdi”.

فَعَالِل ***fa’ālil*** qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ج ***č*** [harfi]:

سَرَاغُجْ ***sarayuč*** – xotinlarning boshga yopinadigan narsalari, ro‘molchalari.

ر ***r*** [harfi]:

سِپَاقُرْ ***sïpaqur*** – “yem to‘rvasi”. Bu so‘zning asli سِبْ اَقُرِی ***sïp aqurï***, ya’ni “ikki yoshga to‘lgan otning yem yeydigan joyi, oxuri” demakdir.

ز ***z*** [harfi]:

قُلَاقُزْ ***qulawuz*** – “yo‘lboshchi”; *vāv bā* ga almashgandir. Maqolda (shunday kelgan): قَلِنْ قَازْ قُلَاوُزْسُوزْ بُلْمَاسْ ***Qalïn qaz qulavuzsuz bolmas.*** Ma’nosi: “G‘oz to‘dasi yo‘lboshchisiz uchmaydi”. Bu maqol hamma ishda o‘zidan ko‘ra yo‘l biladigan kishiga bo‘ysunishga undab aytilgan.

ق ***q*** [harfi]:

جِجَالَقْ ***jïjalaq*** – “jimjiloq barmog‘i”.

جِجَامُقْ ***jïjamuq*** – “jimjiloq yonidagi barmoq”. Buni oz kishi biladi**.**

سُلَامُقْ ***solamuq*** – “chapaqay kishi”.

قَرَاچُقْ ***Qaračuq*** – فَارَابْ *Fārāb* shahrining oti. Bu ham o‘g‘uz shaharlaridandir (بلاد الغزیه).

قَرَامُقْ ***qaramuq*** – “qoramuq” (bug‘doy va boshqa donlar orasida bo‘ladigan qoramuq, begona o‘t). (123a)

قَمِجَاقْ ***qamïčaq*** – suvda xuddi pashsha suzgandek chaqqon suzuvchi qoramtil rangli kichik bir jonivor, suzgich.

ک ***g*** [harfi]:

[تُنَارِكْ ***tünärig***] تُنَارِكْ يِرْ ***tünärig yer*** – “qorong‘i yer”. “Qabr, go‘r”ga ham تُنَارِكْ ***tünärig*** deyiladi; اَرْ تُنَارِكْكَا كِرْدِى ***er tünärigkä kirdi*** – “kishi qabrga kirdi”.

[جُمَارُكْ ***čümärüg***] جُمَارُكْ كِشِى ***čümärüg kiši*** – “ko‘zi xira va ko‘zidan yosh oqib yuradigan kishi”.

خُجُونَاكْ ***xöčünäk*** – “xushbo‘y va naqshli qovun”.

بَجَانَكْ ***pečänäk*** – رُومْ *Rūm*ga yaqin turuvchi turkiy qabilalardan biri.

بَجَانَكْ ***pečänäk*** – o‘g‘uzlarning bir toifasi. Ularni بَجَنَكْ ***päčäŋ*** ham deyiladi.

فَعَلْعَل ***fa’al’al,*** فَعلْلُو ***fa’alalū*** qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ج ***č*** [harfi]:

تَفِلْغُوجْ ***tawïlγuč*** – tarxun deyilgan bir daraxt.

د ***d*** [harfi]:

[بُغُرْدَا ***buγurda***] بُغُرْدَا سَجْ ***buγurda sač*** – “jingalak soch”.

س ***s*** [harfi]:

جِنَخْسِى ***čïnaxsï*** – صِينْ *ṣīn* ning bir turli naqshli ipak gazlamasi.

غ ***γ*** [harfi]:

[تَبُزْغُو ***tapuzγu***] تَبُزْغُو نَانَكْ ***tapuzγu näŋ*** – “quvur, nov, mo‘ri, hushtak”.

[تُتُرْغُو ***tuturγu***] تُتُرْغُو نَانَكْ ***tuturγu näŋ*** – “tutilishi, buyurilishi kerak narsa”.

سِبِزْغُو ***sïbïzγu*** – “sibizg‘a, sibizg‘a nay”.

سِرِجْغَا ***sïrïčγa*** – “shisha”.

سَرِجْغَا / سِرِجْغَا ***sarïčγa*** / ***sïrïčγa*** – “chigirtka”. Unga o‘xshatilib, “zaif kishi”ga ham سَرِجْغَا / سِرِجْغَا اَرْ ***sarïčγa*** / ***sïrïčγa er*** deyiladi.

قُبُرْغَا ***quburγa*** – “boyqush”.

ق ***q*** [harfi]:

[تِرِرْقُو ***tïrïrqu***] تِرِرْقُو يِرْ ***tïrïrqu yer*** – “o‘tlari oz yer, o‘tlari bir-biriga o‘ralashib ketmagan yer”.

تَتِرْغَا ***tatïrγa*** – “oshlangan oq teri”.

تَقِلْقُو ***tawïlqu*** – qizil tol daraxti; تَقِلْغُوجْ ***tawïlγuč*** ham deyiladi.

اَقِلْقُو ***awïlqu*** – qizil mevali bir daraxt. Mevasining suvi tutmoch oshiga solinadi, po‘stlog‘i bilan ko‘z og‘rig‘i davolanadi. U bilan kiyimlar ham bo‘yaladi.

تُقُرْقَا ***tuqurqa*** – may idishi va obdastaning jo‘mragi.

تُقُرْقَا ***Toqurqa*** – كَاشْغَرْ *Kāšγar* yaylovidagi bir joyning oti.

سَقِرْقُو / سَقَرْقُو ***saqïrqu*** / ***saqarqu*** – “kana”.

قَسِرْقُو ***qasïrqu*** – “quyun, aylanma shamol”.

ك ***g*** [harfi]:

تُشُرْكُو ***tüšürgü*** – kichikroq suvning daryoga qatilish joyi, tegirmon suvining daryoga tushar o‘rni. Boshqa (suv qatiladigan joy)larga ham shu so‘z qo‘llanadi.

جَكُرْكَا ***čegürkä*** – “chigirtka” (o‘g‘uzcha). Turklar bu so‘zni uning uchmasdan burungi holiga qo‘llaydilar. Bolalar to‘dasi va qo‘shin shunga o‘xshatiladi: **جَكُرْكَاتَكْ سُو** ***čegürkä-teg sü*** – “chigirtkadek ko‘p qo‘shin”.

سُپُرْكُو ***süpürgü*** – “supurgi”.

كُتُرْكُو ***kötürgü*** – “ko‘targi; biror narsani ko‘taradigan uskuna”.

كَسُرْكُو ***kesürgü*** – “xalta, qop”.

كُسُرْكَا ***küsürgä*** – “ichiga qog‘ozlar solinadigan muqova, papka”.

دُنُشْكَا ***dünüškä*** – tunbosh deb ataladigan o‘simlik (kanjakcha). (123b)

كِمِشْكَا ***kemiškä*** – كَاشْغَرْ *Kāšγar* da tayorlanadigan guldor namat.

م ***m*** [harfi]:

[**تَكِرْمَا**] ***tegirmä*** **تَكِرْمَا نَانكْ** ***tegirmä näŋ*** – “kulcha, tanga, tegirmon toshi singari girdak narsa”.

سَكِرْمَا ***Sekirmä*** – خُتَنْ *Xotan* yo‘lidagi kichik bir shaharchaning oti.

[**قُتُرْمَا**] ***qoturma*** **قُتُرْمَا بُرك** ***qoturma börk*** – “qaytarma qalpoq”; uning oldida ham, orqasida ham qaytarmasi bo‘ladi.

[**كُجُرْمَا**] ***köčürmä*** **كُجُرْمَا اُجُقْ** ***köčürmä očuq*** – “bir yerdan ikkinchi yerga ko‘chiriladigan ko‘chirma o‘choq”; **كُجُرْمَا اُيُنْ** ***köčürmä oyun*** – “o‘n to‘rt” degan o‘yindir. Yerga qo‘rg‘onga o‘xshatib to‘rt chiziq chizib, unga o‘nta eshik qilinadi-da, yumaloq tosh, yong‘oq tashlab o‘ynaladi.

Ikkinchi harfi *sukun* li, uchinchi harfi *fatḥa* li so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

مِنْدَتُو ***mindätü*** – “ipak gazlama”.

ج ***č*** [harfi]:

[**قُلْنَجِى**] ***qulnačï*** **قُلْنَجِى قِسْرَاقْ** ***qulnačï qïsraq*** – “bo‘g‘oz mol”.

غ ***γ*** [harfi]:

[**قَرْنَغُو**] ***qarnaγu*** **قَرْنَغُو اَرْ** ***qarnaγu er*** – “qorni katta kishi”.

سَغْنَغُو ***saγnaγu*** – quritilgan qovoq.

قُنْدِغُو ***qondïγu*** – xirmon yanchishda, biror narsani tuyishda qo‘llanadigan uskuna.

قَمْجِيغُو ***qamčïγu*** – qattiq alam, qichish va isitma bilan lab va barmoqlarga toshadigan kichik toshma, uchuq.

ك ***g*** [harfi]:

تُرْبِكُو ***türbikü*** – yog‘och yo‘nadigan uskuna.

تَمْرَكُو ***temrägü*** – “temiratki”.

سُكْنَكُو ***sügnägü*** – tirnoq bilan go‘sht orasiga chiqadigan toshma.

[**كَرْشَكُو**] ***keršägü*** **كَرْشَكُو اَتْ** ***keršägü at*** – kurak suyagining oldida yag‘iri bor ot.

م ***m*** [harfi]:

بُلْغَمَا ***bulγama*** – yog‘i ham, mazasi ham yo‘q yovg‘on osh.

[جُقْرَما *čoqrama*] جُقْرَما يُلْ *čoqrama yul* – “otilma suv, otilib chiqadigan buloq suvi”.

ن *n* [harfi]:

بُلْغَنا *bulγuna* – yulg‘un daraxti singari qizil tusli bir bo‘sh daraxt, uni tuyalar yeydi. Bu so‘zning مَلْغَنا *malγuna* shakli ham bor.

فُعْلى *fu’lulī* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ن *n* [harfi]:

بُلْدُنِى *buldunï* – ichiga uzum yoki mayiz solib tayyorlanadigan ovqat (kanjakcha).

ر *r* [harfi]:

سُنْدِرِى *sundïrï* (*sundurï?*) – “dengiz”. Maqolda (shunday kelgan): اَشْيَاكْ اَيُرْ بَشِمْ بُلْسَا سُنْدُرِى دَا سُوفْ اِجْكَانْ مَنْ *Ešyäk ayur: Bašïm bolsa, sundurïda suw ičkäy-men.* Ma’nosi: “Eshak aytadi: “Boshim omon bo‘lsa, dengizdan suv ichaman”. Bu maqol maqsadga erishish uchun uzun umr orzu qiluvchilarga nisbatan qo‘llanadi. (124a)

مَنْدِرِى *mandïrï* – kelin bilan kuyov ishtirokida kechasi yig‘iladigan majlis, unda ularning ustidan pul sochadilar (chigilcha).

ل *l* [harfi]:

بُسْتَلِى *püstäli* – Rum ismalog‘i deyilgan, yeyiladigan bir turli o‘t.

ن *n* [harfi]:

كُزْكُنِى *küzküni* – qo‘ng‘iz jinsidan bo‘lib, kechasi g‘o‘ng‘illab uchadigan bir jonivor.

فُعْلُنْدِى *fu’lundī* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

د *d* [harfi]:

سُبْرُنْدِى *süpründi* – “supurindi, axlat”.

[سَرْقِنْدِى *sarqïndï*] سَرْقِنْدِى سُوفْ *sarqïndï suw* – “silqindi suv”.

قُجْغُنْدِى *qučγundï* – “piyoz” (chigilcha).

To‘rt harflilar tugadi.

BU BESH HARFLI SO‘ZLAR BOBLARIDIR

فَعَلْعَل *fa’al’al* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ج *č* [harfi]:

[سُقَرْلَجْ *suqarlač*] سُقَرْلَجْ بُرك *suqarlač börk* – “uzun qalpoq”.

قُغُرْمَاجْ *qoγurmäč* – “qo‘g‘irmoch, qovurilgan bug‘doy”. Ingichka ف *fā* (ya’ni [*w*] – بالفاء الركيكة bilan) قَقْرْمَاجْ *qawurmač* ham deyiladi.

يُغُرْغُوجْ ***yuγuryuč*** – “o‘qlog‘i”; xamiroshi va boshqalarni yoyishda qo‘llanadi.

ر ***r*** [harfi]:

[جِغِلْڤارْ ***čïγïlwar***] جِغِلْڤارْ اُقِى ***čïγïlwar oqï*** – “kichik, kalta o‘q”.

(Shoir) shunday degan:

اُتْرُو تُرُبْ يَغْدِى اَنـكَرْ كِيشْ اُقِى جِغِلْڤارْ	***Otru turup yaγdï aŋar keš oqï čïγïlwar,***
اَيْدِمْ اَسِغْ قِلْغُو اَمَسْ سَنْ تَقِى يَلْڤارْ	***Aydïm: Asïγ qïlγu emäs, sen taqï yalwar.***

Yov to‘g‘risida aytmoqda: “Menga yuzlangach, so‘g‘doqdan o‘qni yom-g‘irdek yog‘dirdim. “Endi sening yalinib-yolvorishlaring foyda bermaydi”, dedim”.

غ ***γ*** [harfi]:

[سَمُرْتُغْ ***samurtuγ***] سَمُرْتُغْ اِيشْ ***samurtuγ ïš*** – “uchini topib bo‘lmaydigan chalkash ish, chuvalgan ish”.

[قُرُتْلُغْ ***qurutluγ***] قُرُتْلُغْ كِشِى ***qurutluγ kiši*** – “qurtli kishi; qurti bor kishi”. Bu arabcha رجل تامر و لابن, ya’ni “xurmosi va suti bor odam” deyilgan iboraga o‘xshaydi.

[تَتِرْلِغْ ***tatïrlïγ***] تَتِرْلِغْ يِيرْ ***tatïrlïγ yer*** – “tekis va qattiq yer”.

[قَتِرْلِغْ ***qatïrlïγ***] قَتِرْلِغْ اَرْ ***qatïrlïγ er*** – “xachirli kishi”.

[بَسَرْلِغْ ***basarlïγ***] بَسَرْلِغْ تَاغْ ***basarlïγ tay*** – “sarimsoqli tog‘”.

[بَغِرْلِغْ ***bayïrlïγ***] بَغِرْلِغْ اَرْ ***bayïrlïγ er*** – “hech kimsaga bo‘ysunmovchi, kek-kaygan kishi”. Bu arabcha انا لنحن اعظم اكبادا من الابل, ya’ni “bizning jigarimiz tuya-nikidan ham katta” iborasi kabidir.

[جَغِرْلِغْ ***čayïrlïγ***] جَغِرْلِغْ اَرْ ***čayïrlïγ er*** – “chag‘irli [ichimligi bor] kishi”. (124b)

[سُغُرْلُغْ ***suγurluγ***] سُغُرْلُغْ تَاغْ ***suγurluγ tay*** – “sug‘ur[vabr deyilgan mushuk kattaligidagi bir xil hayvon]i ko‘p tog‘”.

[سِغِرْلِغْ ***sïγïrlïγ***] سِغِرْلِغْ اَرْ ***sïγïrlïγ er*** – “sigirli kishi”.

[تَقَرْلِغْ ***tawarlïγ***] تَقَرْلِغْ اَرْ ***tawarlïγ er*** – “molli kishi”.

[جَڤَارْلِغْ ***čawarlïγ***] جَڤَارْلِغْ يِيرْ ***čawarlïγ yer*** – “tutantiriqqa yaraydigan xas-cho‘pli yer”.

بَقِرْلِغْ ***Baqïrlïγ*** – بَلَاسَاغُونْ *Balasayun* yaqinidagi bir joy oti.

[بَقِرْلِغْ ***baqïrlïγ***] بَقِرْلِغْ تَاغْ ***baqïrlïγ tay*** – “mis ma’danli, misga ega bo‘lgan tog‘”.

[تَمِرْلُغْ ***tamïrluγ***] تَمِرْلُغْ اَتْ ***tamïrluγ et*** – “ko‘p tomir va payli go‘sht”.

[قُبُزْلُغْ ***qobuzluγ***] قُبُزْلُغْ كِشِى ***qobuzluγ kiši*** – “qo‘buz cholg‘usi va pashtori bor kishi”.

[قُتُزْلُغْ ***qotuzluγ***] قُتُزْلُغْ اَرْ ***qotuzluγ er*** – “qo‘tosli kishi”.

[سَغِزْلِغْ ***sayïzlïγ***] سَغِزْلِغْ اَرْ ***sayïzlïγ er*** – “chaynaydigan saqichi bor kishi”.

[سَغِزْلِغْ ***sayïzlïγ***] سَغِزْلِغْ يِيرْ ***sayïzlïγ yer*** – “sog‘ tuproqli yaxshi yer”.

[سَقِزْلِغْ ***saqïzlïγ***] سَقِزْلِغْ تُونْ ***saqïzlïγ ton*** – “narsalar yopishgan kiyim”.

[قَمِشْلِغْ ***qamïšlïγ***] قَمِشْلِغْ يِيرْ ***qamïšlïγ yer*** – “qamishli yer, qamishzor”.
[تَبُغْلُغْ ***tapuγluγ***] تَبُغْلُغْ اَرْ ***tapuγluγ er*** – “eski xizmatchi kishi”.
[قَبُغْلُغْ ***qapuγluγ***] قَبُغْلُغْ اَفْ ***qapuγluγ ew*** – “eshikli uy”.
[تَتِغْلِغْ ***tatïγlïγ***] تَتِغْلِغْ نَانَكْ ***tatïγlïγ näŋ*** – “mazali, shirin narsa”. Asli تَاتِغْلِغْ.
[تُتُغْلُغْ ***tutuγluγ***] تُتُغْلُغْ يِيرْ ***tutuγluγ yer*** – “jinli joy”. U yerdan o‘tganlarga zarar beradi.
[تِذِغْلِغْ ***tïδïγlïγ***] تِذِغْلِغْ نَانَكْ ***tïδïγlïγ näŋ*** – “ushlashdan tiyilgan narsa; unga yetish mumkin bo‘lmagan narsa”.
[قِزِغْلِغْ ***qïzïγlïγ***] قِزِغْلِغْ بُرَكْ ***qïzïγlïγ börk*** – “tevaragi jiyakli, qirg‘oqlari burama qalpoq”.
[قُذُغْلُغْ ***quδuγluγ***] قُذُغْلُغْ اَفْ ***quδuγluγ ew*** – “quduqli uy”.
تَرِغْلاغْ ***tarïγlaγ*** – “ekin yeri”.
[تُرُغْلاغْ ***turuγlaγ***] تُرُغْلاغْ يِيرْ ***turuγlaγ yer*** – “turar joy”.
[تَرِغْلِغْ ***tarïγlïγ***] تَرِغْلِغْ يِيرْ ***tarïγlïγ yer*** – “ekini bor yer”. Don saqlanadigan ombor”ga ham shu so‘z qo‘llanadi.
[سَرِغْلِغْ ***sarïγlïγ***] سَرِغْلِغْ اَرْ ***sarïγlïγ er*** – “sariq kasali bor kishi”.
[قُرُغْلُغْ ***quruγluγ***] قُرُغْلُغْ يَا ***quruγluγ ya*** – “qurilgan o‘q, yoy”.
[بُسُغْلُغْ ***pusuγluγ***] بُسُغْلُغْ يَغِى ***pusuγluγ yayï*** – “yashiringan yov”.
[قَبِقْلِغْ ***qapïqlïγ***] قَبِقْلِغْ قِيزْ ***qapïqlïγ qïz*** – “uydagi [kuyovga chiqmagan, bokira] qiz”.
[قَتِقْلِغْ ***qatïqlïγ***] قَتِقْلِغْ اَرْ ***qatïqlïγ er*** – “kelib chiqishi past kishi”. “Ovqatga soladigan qatig‘i bor kishi”ga ham shu so‘z qo‘llanadi.
[بَرَقْلِغْ ***baraqlïγ***] بَرَقْلِغْ كِشِى ***baraqlïγ kiši*** – “baroq kuchukli kishi”.
[جَرُقْلُغْ ***čaruqluγ***] جَرُقْلُغْ اَرْ ***čaruqluγ er*** – “choriqli kishi”.
جَرُقْلُغْ ***čaruqluγ*** – o‘g‘uzlarning bir urug‘i.
قَرَقْلِغْ ***qaraqlïγ*** – “ko‘z g‘o‘lagi bor hayvon”; كِرُورْ / قَرَقْسِيزْتَكْ كُرُورْ ***qaraqsïz-teg körür / kirür*** – “ko‘zsizlardek ko‘radi / (jangga) kiradi”. Jangda va boshqalarda (botirlar) qarshisidagi o‘q-nayzani parvo qilmay kelishlari, bir-birlariga hamla qilishlaridan kinoya qilib aytiladi. (125a)
[قَسُقْلُغْ ***qasuqluγ***] قَسُقْلُغْ اَرْ ***qasuqluγ er*** – “qimiz solinadigan meshi bor kishi”.
[قُسِقْلِغْ ***qusïqlïγ***] قُسِقْلِغْ اَرْ ***qusïqlïγ er*** – “chig‘uzasi bor kishi”.
[بَشَقْلِغْ ***bašaqlïγ***] بَشَقْلِغْ سُنْكُو ***bašaqlïγ süŋü*** – “tishli nayza”. “Temirli o‘q”qa ham shu so‘z qo‘llanadi.
[تَشَقْلِغْ ***tašaqlïγ***] تَشَقْلِغْ اَرْ ***tašaqlïγ er*** – “tashoqli er”.
[قَشُقْلُغْ ***qašuqluγ***] قَشُقْلُغْ اَيَاقْ ***qašuqluγ ayaq*** – “qoshiqli idish”.
[بُقُقْلُغْ ***buquqluγ***] بُقُقْلُغْ اَرْ ***buquqluγ er*** – “buqog‘i bor kishi”.
[تَقُقْلُغْ ***taquqluγ***] تَقُقْلُغْ اَرْ ***taquqluγ er*** – “tovuqli kishi” (o‘g‘uzcha).
[سُقَقْلِغْ ***soqaqlïγ***] سُقَقْلِغْ تَاغْ ***soqaqlïγ tay*** – “qizildan ko‘ra oq rangi o‘tkir, qiyig‘i ko‘p tog‘”.
[بَلْقْلِغْ ***balïqlïγ***] بَلْقْلِغْ اُكُزْ ***balïqlïγ ögüz*** – “balig‘i ko‘p soy”. “Botqoq, balchiqli yer”ga ham arg‘ular shu so‘zni qo‘llaydilar.

[قُلَاقْلِغْ *qulaqlïγ*] قُلَاقْلِغْ نَانَـكْ *qulaqlïγ näŋ* – “quloqli narsa” (idish).

[قُنُقْلُغْ *qonuqluγ*] قُنُقْلُغْ اَفْ *qonuqluγ ew* – “mehmonli uy”.

[تُرُمْلُغْ *turumluγ*] تُرُمْلُغْ اَرْ *turumluγ er* – “bo‘talog‘i [ikki yoshli tuya bolasi] bor kishi”.

[قُرُمْلُغْ *qurumluγ*] قُرُمْلُغْ تَاغْ *qurumluγ taγ* – “toshli tog‘”.

[تُلُمْلُغْ *tolumluγ*] تُلُمْلُغْ اَرْ *tolumluγ er* – “boshdan-oyoq qurollangan er”.

(Shoir) shunday degan:

اُنـكُدُنْ تَلَـكْ يَلْقَرْمَدِنـكْ	*Öŋdün nelüg yalwarmadïŋ,*
قَجْ قَتَا بِرْدِنـكْ تَقَارْ	*Qač qata berdiŋ tawar.*
تُلُمْلُغْ بُلُبْ قَتِنْدِنـكْ	*Tolumluγ bolup qatïndïŋ,*
قَانِـكْ اَمْدِى يِيرْ سُقَارْ	*Qanïŋ emdi yer suwar.*

Aytmoqdaki: “Bir necha bor jarima to‘lashdan ilgari nega yolvormading. Endi qurollanib otlanding. Beradigan narsalaringni tezda tayyorla, yo‘qsa, qoningni yer so‘radi”.

[تَبَنْلُغْ *tapanlïγ*] تَبَنْلُغْ تَقَى *tapanlïγ tewäy* – “paypoqli tuya”.

[تُبُنْلُغْ *topunluγ*] تُبُنْلُغْ تَرِغْ *topunluγ tarïγ* – “somonli chiqindisi ko‘p bug‘doy”.

[بُدُنْلُغْ بُقُنْلُغْ *bodunluγ-buqunluγ*] بُدُنْلُغْ بُقُنْلُغْ كِشِى *bodunluγ-buqunluγ kiši* – “urug‘-aymog‘i ko‘p kishi”.

[بَقَنْلِغْ *baqanlïγ*] بَقَنْلِغْ قَدِشْ *baqanlïγ qaδïš* – “halqali qayish”.

[قَرِنْلِغْ *qarïnlïγ*] بَدُكْ قَرِنْلِغْ اَرْ *bedüg qarïnlïγ er* – “katta qorinli kishi”.

[قُرُنْلُغْ *qurunluγ*] قُرُنْلُغْ اَفْ *qurunluγ ew* – “tutundan is bosgan, qurum bosgan uy”.

[سَغِنْلِغْ *sayïnlïγ*] سَغِنْلِغْ اَرْ *sayïnlïγ er* – “sog‘indisi [sog‘in sigiri] bor kishi”.

[سُغُنْلُغْ *soγunluγ*] سُغُنْلُغْ تَاغْ *soγunluγ taγ* – “yovvoyi piyoz o‘sadigan tog‘”.

[سَمَنْلِغْ *samanlïγ*] سَمَنْلِغْ اَرْ *samanlïγ er* – “somoni bor kishi”.

[قَغُنْلُغْ *qaγunluγ*] قَغُنْلُغْ اَرْ *qaγunluγ er* – “qovunli kishi; qovuni bor kishi”.

[قُقُنْلُغْ *ququnluγ*] قُقُنْلُغْ اُوتْ *ququnluγ ot* – “alangasi bor o‘t, olov”. (125b)

[قُلُنْلُغْ *qulunluγ*] قُلُنْلُغْ قِسْرَاقْ *qulunluγ qïsraq* – “ketidan ergashib yuruvchi toychog‘i bor biya”.

Oxirida لِغْ *-lïγ* qo‘shimchasi bor so‘zlar ma’nosida ham, *maf’ul* [qilingan ish] ma’nosida ham keladi.

Bu yana bir qancha turlarga ajraladi, bularni aytib o‘tilmasa, tushunilmaydi. Ular joy otlarini ham anglatadi.

Birinchi, egalik ma’nosida. Masalan, بَدُكْ قَرِنْلِغْ اَرْ *bedüg qarïnlïγ er* – “katta qorinli kishi” yoki سَمَنْلِغْ اَرْ *samanlïγ er* – “somoni bor kishi; somonga ega kishi” kabi.

Ikkinchisi[*maf’ūl* ma’nosidagilar]ning misoli: سَرِغْلِغْ اَرْ *sarïγlïγ er* – “sariq kasaliga yo‘liqqan kishi”; قُرُقْلُغْ يَا *quruqluγ ya* – “qurilgan, tortib otishga tayyorlangan yoy” kabi.

Uchinchisi [o‘rin ma’nosida], masalan: تَرِغْلَاغ ***tarïylaγ*** – “ekinzor”; تُرُغْلَاغ ***turuγlaγ*** – “turar joy”.

Bilish kerakki, besh harfli so‘zlarning ko‘pi aslida uch harfli so‘zlardan tarkib topadi. *yayn* va *qāf* harflari bilan tugagan so‘zlar ma’nosi farqlidir. *qāf* harflilar ko‘rsatilgan ma’nolarda bo‘lib, *yayn* harfli so‘zlar faqat joy otlarida bo‘ladi: تَرِغْلِغْ اَقْ ***tarïylïγ ew*** – “tariqli uy”; تَرِغْلِغْ ***tarïylïγ*** – “don ombori”; قُرُغْلُغْ يَا ***quruγluγ ya*** – “qurilgan o‘q”; قُرُغْلُغْ ***quruγluγ*** – “kurug‘liq” kabi. Puxtaroq tushunish uchun birma-bir ayirib ko‘rsatishni lozim topganimiz shulardir. Asl so‘z bo‘lmaganda لِغْ *-lïγ* qo‘shimchasini ajratib yozish ham mumkin: بَلِقْلِغْ اُكْز ***balïqlïγ ögüz*** – “balig‘i bor soy”; بَرَقْ لِغْ اَرْ ***baraqlïγ er*** – “baroq kuchugi bor kishi”. Bunisi yana yaxshiroq. Chunki vaznda ham, yozuvda ham qisqalik bor.

ق ***q*** [harfi]:

بُرُنْدُقْ ***burunduq*** – “jilov, no‘xta”.

[بَسِنْجَقْ ***basïnčaq***] بَسِنْجَقْ اَرْ ***basïnčaq er*** – “zaiflashgan kishi”.

سِيغْرِچْقْ ***sïγïrčïq*** – “chug‘urchuq”.

قَبِرْجَاقْ ***qapïrčaq*** – “sandiq”. Lekin bu so‘z, ko‘pincha, o‘likning tobutiga nisbatan qo‘llanadi.

قُذُرْجُقْ ***qoδurčuq*** – “qo‘g‘irchoq”. Qiz bolaning odamga o‘xshatib yasatib o‘ynaydigan o‘yinchoqlari.

قَرِنْجَقْ ***qarïnčaq*** – “chumoli” (o‘g‘uzcha). (126a) قَرِنْجَا ***qarïnča*** talaffuzi ham bor.

بَغِرْجَقْ ***bayïrčaq*** – “eshak to‘qimi”.

تُلَرْسُقْ ***tolarsuq*** – “oyoq izi”. Bu so‘z ko‘pincha hayvonlarning oyoq izini anglatadi.

[بَغِرْسَقْ ***bayïrsaq***] بَغِرْسَقْ كِشِى ***bayïrsaq kiši*** – “xushmuomala, yoqimli kishi”.

بَغِرْسُقْ ***bayïrsuq*** – “ichak”.

بَغِرْدَقْ ***bayïrdaq*** – xotinlar ko‘kragiga tutadigan narsa.

قُرُغْسَقْ ***quruγsaq*** – “me’da”. “Qushlar jig‘ildoni”ga ham shu so‘z qo‘llanadi.

بُتُرْغَاقْ ***buturγaq*** – pista shaklidagi tikanli bir o‘simlik. U kiyim va boshqa narsalarni iladi.

تَبَزْغُقْ ***tapuzγuq*** – “nov, quvir”.

تُبُلْغَاقْ ***topulγaq*** – “to‘paloq” [dorilik o‘simliklardan biri].

تُبُلْغَاقْ ***tupulγaq*** – qulanj kasalligi.

سِدِرْغَاقْ ***sïdïrγaq*** – “tuyoq”.

قُدُرْغَاقْ ***qudurγaq*** – “choponning bir tomoni, orqa etagi”.

قَدِرْغَاقْ ***qaδïrγaq*** – ko‘p ishlash natijasida qo‘lda paydo bo‘ladigan qavariq.

[بَدِجْلِقْ ***badïčlïq***] بَدِجْلِقْ يِغَاجْ ***badïčlïq yïyač*** – “toklarga ishkom va so‘ri qilish uchun tayyorlargan yog‘och”.

جَجَلَقْ ***čačalaq*** – “so‘zida turmaslik, aldamchilik”.

بَغِرْلَقْ ***bayïrlaq*** – “loyxo‘rak” deb ataluvchi bir qush.

تَقْرْلُقْ ***tawarluq*** – “xazina; turli mollar turadigan joy”.
تُرُقْلُقْ ***turuqluq*** – “oriqliq, zaiflik”.
تَرغْلِقْ ***tarïγlïq*** – “don saqlanadigan ombor”.
جُبْلْمَقْ ***čubulmaq*** – “olmaning bir bo‘lagi, bir pallasi”. Otlik qabilasi tilida.
جُمُشْلُقْ ***čumušluq*** – “hojatxona”.
جَرُقْلُقْ ***čaruqluq*** – “choriqqa mo‘ljallangan charm”.
تَنُقْلُقْ ***tanuqluq*** – “guvohlik, guvoh bo‘lish”.
تُغَاقْلِقْ ***tuγaqlïq*** – idishlar og‘zini yopadigan qopqoq tayyorlash uchun mo‘ljallangan yog‘och.
[سَتِغْلِقْ ***satïγlïq***] سَتِغْلِقْ نَانَكْ ***satïγlïq näŋ*** – “sotishga mo‘ljallangan narsa”.
سَرِغْلِقْ ***sarïγlïq*** – “sariqliq, narsalar sariqlig‘i”.
[سِرُقْلُقْ ***sïruqluq***] سِرُقْلُقْ يِغَاجْ ***sïruqluq yïγač*** – “uyga ustun qilish uchun tayyorlangan yog‘och”.
[سُغِقْلِقْ ***soγïqlïq***] سُغِقْلِقْ نَانَكْ ***soγïqlïq näŋ*** – “sovuqliq uchun tayyorlangan narsa”.
قَبَقْلِقْ ***qabaqlïq*** – “qovoq o‘sadigan joy, qovoqzor”.
قَدَشْلِقْ ***qaδašlïq*** – “birodarlik, yaqinliq”.
قُرُغْلُقْ ***quruγluq*** – “quruq narsa, narsalarning quruqligi”.
قُرُغْلُقْ ***quruγluq*** – “yoy saqlanadigan asbob; maxsus to‘rva”. كِيشْ قُرُغْلُقْ ***keš quruγluq*** – “o‘q xaltasi”.
[قَشِقْلِقْ ***qašïqlïq***] قَشِقْلِقْ مُنكُزْ ***qašïqlïq möŋüz*** – “qoshiq qilishga mo‘ljallangan shox”.
سَرَنْلِقْ ***saranlïq*** – “baxillik”. (Shoir) shunday degan:

نَكِنْ تُتَرْ بَكْلِيُو اُوزِى يِيمَاسْ ***Näŋin tutar bekläyü, özi yemäs,***
سَرَنْلِقِنْ يِيغْلَيُو اَلْتُنْ يِغَارْ ***Saranlïqïn yïγlayu altun yïγar.***

(126b) Kishilar tabiati to‘g‘risida aytmoqda: “O‘zi yemay, molini baxillik qilib qattiq tutadi. Baxillik bilan mol ustida yig‘laydi, oltin to‘plab, oxiri boshqalarga tashlab ketadi”.
قَغُنْلُقْ ***qaγunluq*** – “qovunpoliz”.
[قُنُقْلُقْ ***qonuqluq***] قُنُقْلُقْ اَوْ ***qonuqluq ev*** – “ziyofat uyi, qo‘noqli uy, mehmonxona”.
[تَغُزْمَقْ ***taγuzmaq***] تَغُزْمَقْ اَرْ ***taγuzmaq er*** – “pakana, kaltabaqay kishi”. *qāf* harfi bilan تَقُزْمَاقْ ***taquzmaq*** talaffuzi ham bor. Boshqa narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi.
مُغُزْغَقْ ***muγuzγaq*** – asalariga o‘xshagan pashsha (arg‘ucha).
Bu bo‘lim besh turlidir:
Birinchi: fe’ldan yasalgan masdar ma’nosidagi ism bo‘lib qo‘llanadi. Chunonchi, “kattalik, ulug‘liq” ma’nosidagi اُلُغْلُقْ ***uluγluq*** so‘zi “katta bo‘ldi” ma’nosidagi اُلْغَذْتِى ***ulγaδtï*** fe’lidan yasalgan; “quruqliq” ma’nosidagi قُرُغْلُقْ

quruγluq so‘zi “narsa quridi” ma’nosidagi قُرِنْدِى نَانىڭ ***qurïndï näŋ*** gapidagi قُرِدِى ***qurïdï*** fe’lidan yasalgan.

Ikkinchi: boshqa bir narsaga hozirlangan narsaning oti bo‘lib keladi: سُرُقْلُقْ يِغَاچْ ***suruqluq yïγač*** – “ustunga mo‘ljallab tayorlangan yog‘och”; تُقَاقْلِقْ يِغَاچْ ***tuqaqlïq yïγač*** – “suvni toza saqlash uchun idish og‘zini bekitishga mo‘ljallanib hozirlangan yog‘och”.

Uchinchi: “narsaning o‘sadigan, unadigan joyi” ma’nosida qo‘llanadi: قَبَغْلِقْ ***qabaγlïq*** – “qovoq o‘sadigan joy, qovoqzor”; قَغُنْلُقْ ***qaγunluq*** – “qovun o‘sadigan joy, qovunpoliz” kabi.

To‘rtinchi: bu mazmunlardan butunlay boshqa, sof ism ma’nosida qo‘llanadi: بَغْرْلَقْ ***bayïrlaq*** – “loyxo‘rak”; سِغْرْجُقْ ***sïγïrčuq*** – kaklikka o‘xshash bir qush, kabi.

Beshinchi: masdar o‘rnida keladi: تُرُقْلُقْ ***turuqluq*** – “oriqliq” ma’nosida.

Bu qoidalar shu shakldagi sanoqsiz so‘zlar uchun umumlashadi. Hech bir so‘z bu qoidalardan chetga chiqmaydi.

ك ***k*** [harfi]:

كِرِتْلِكْ ***kiritlig*** – “qulf”; كِرِتْلِكْ قَبُغْ ***kiritlig qapuγ*** – “qulfli eshik”.

[كُزَتْلِكْ ***közätlig***] كُزَتْلِكْ نَانىڭ ***közätlig näŋ*** – “saqlangan narsa”.

جُكُتْلُكْ ***čökütlük*** – “kaltabaqaylik”.

سُكُتْلُكْ ***sögütlük*** – “tolzor”. Oxiri jarangsiz *kāf* bilan (بكاف صلبة) tugasa, shu ma’noda, agar oxiri jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bilan (بالكاف الركيكة) bitsa, “tol egasi” ma’nosida qo‘llanadi.

[كُزُجْلُكْ ***közüčlük***] كُزُجْلُكْ تِتِكْ ***közüčlük titik*** (127a) – xurmacha qilish uchun tayyorlangan loy. Oxiri jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bo‘lsa (بالكاف الركيكة), ega ma’nosini anglatadi.

تَمُرْلُكْ ***temürlük*** – temir toshi [ya’ni, rudasi] eritilib, temiri ajratib olinadigan joy. Oxiri jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bilan (بالكاف الركيكة) tugasa, ya’ni تَمُرْلُكْ ***temürlüg*** shaklida kelsa, ega ma’nosini anglatadi.

كُمُرْلُكْ ***kömürlük*** – “ko‘mir daraxti, ko‘mir ko‘rasi”. So‘z oxiridagi *kāf* jarangliga almashtirilsa (بالكاف الركيكة), “ko‘mirga ega bo‘lgan kishi” ma’nosini anglatadi.

تَبِزْلِكْ ***tebizlik*** – “hasad, ko‘rolmaslik”; اَنِكْ تَبِزْلِكِى كِمْكَا تَلْقَارْ ***anïŋ tebizliki kimkä talqar?*** – “uning hasadi kimga zarar qiladi?”.

تِتِزْلِكْ ***titizlik*** – “kakralik, taxirlik”. Chunonchi, halila ta’mi singari.

بُشِنْجَكْ ***büšinčäk*** – “uzum boshi” (kanjakcha).

تَكِرْمَكْ ***tegirmäk*** – “taxtiravon”. O‘g‘uzlar اُكُرْمَكْ ***ögürmäk*** deydilar.

شَكِرْتُكْ ***šekirtük*** – “pista”.

كَبَزْلِكْ ***kepäzlik*** – “paxtazor, paxta ekiladigan joy”. Kishi to‘g‘risida so‘zlanganda كَبَزْلِكْ اَرْ ***kepäzlig er*** (“paxtasi bor kishi”) deyiladi.

[بَذِزْلِكْ ***beδizlig***] بَذِزْلِكْ اَفْ ***beδizlig ew*** – “yasatilgan uy”.

[كِذِزْلِكْ *kiδizlik*] كِذِزْلِكْ يُونكْ *kiδizlik yüŋ* – “kigizga mo‘ljallangan yung, jun”. Oxiri jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bilan (بالكاف الركيكة) bo‘lsa, ega ma’nosidadir.

تَكُزْلُكْ *tegüzlük* – peshonasi oq chovkar ot. Maqolda (shunday kelgan): اَتْ تَكُزْلُكِى اَىْ بُلْمَاسْ *At tegüzlüki ay bolmas.* Ma’nosi: “Ot(peshonasi)ning oqligi oydan tindirmaydi, oyning o‘rnini bosmaydi”. Bu maqol katta bir ish o‘rnida kichik ishni o‘ylovchiga qarshi so‘zlanadi.

سَمِزْلِكْ *semizlik* – “semizlik”.

كُڤْزْلِكْ *küwäzlik* – “taltayish, mag‘rurlanish, o‘zidan ketish”.

(Shoir) shunday degan:

اَشْتِبْ اَتَا اَنَانكْ نِكْ *Eštip ata-anaŋnïŋ*
سَڤْلَرِنِى قَدِرْمَا *Sawlarïnï qadïrma.*
نَنكْ قُبْ بُلُبْ كُڤْزْلِكْ *Näŋ qop bulup, küwäzlik*
قِلْنِبْ يَنَا قُتُرْمَا *Qïlnïp yana quturma.*

Aytmoqdaki: “Ota-onangning nasihatlarini eshit, gapingda ularning so‘zini qaytarma. Ko‘p mol topsang, o‘zingdan o‘tib, quturma. Mag‘rurlanib, fe’lingni buzma”.

جَجَكْلِكْ *čečäklik* – “gulzor, gullar o‘sadigan joy”.

كَبَكْلِكْ *kepäklik* – un elanadigan, kepak qilinadigan joy. Oxiri jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bilan (بالكاف الركيكة) ega ma’nosida qo‘llanadi.

تُڤَكْلِكْ *tüwäklik* – o‘rtasini teshib, kovak qilib, tuppak yasash uchun tayyorlangan novda. (127b) Uning og‘ziga kichik g‘o‘la qo‘yilib, nafas bilan puflab chumchuqlar otiladi.

[بِتِكْلِكْ *bitiglik*] بِتِكْلِكْ نَانكْ *bitiglik näŋ* – “bitishga mo‘ljallangan, ustida yoziladigan narsa”. Oxiri jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bilan (بالكاف الركيكة) ega ma’nosida qo‘llanadi.

[كَدُكْلُكْ *kedüglük*] كَدُكْلُكْ كِذِزْ *kedüglük kiδiz* – “yomg‘irda yoping‘ich qilish uchun tayyorlangan namat”. Oxiri jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bilan (بالكاف الركيكة) tugaganda ega ma’nosidadir.

[كُذْكْلُكْ *köδüklüg*] اِيشْلِغْ كُذْكْلُكْ اَرْ *išlïγ-köδüklüg er* – “mashg‘ulotli, ishli kishi”; كُذْكْلُكْ *köδüklüg* ning o‘zi yolg‘iz holda qo‘llanmaydi.

تِرَكْلِكْ / تِرِكْلِكْ *teräklik* / *teriklik* – “terakzor, terak o‘sadigan joy”. Jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bilan (بالكاف الركيكة) tugaganda ega ma’nosida qo‘llanadi.

[كَرَكْلِكْ *keräklig*] بُو نَانكْ اُلْ بِزْكَا كَرَكْلِكْ *bu näŋ-ol bizkä keräklig* – “bu bizga kerakli narsalardandir”.

[بَشِكْلِكْ *bešiklig*] بَشِكْلِكْ اُرَاغْتْ *bešiklig uraγut* – “beshikli va emizikli xotin”.

[تُشَكْلِكْ *tüšäklik*] تُشَكْلِكْ بَرْجِنْ *tüšäklik barčïn* (128a) – “to‘shak va boshqa narsalarga mo‘ljallangan ipakli mato”. “Mato egasi” ma’nosida jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bilan (بالكاف الركيكة) qo‘llanadi.

[كُشِكْلِكْ ***köšiklig***] كُشِكْلِكْ يِرْ ***köšiklig yer*** – “soya yer, ko‘lankali yer”.

[تِكِكْلِكْ ***tikiglig***] تِيكِكْلِكْ تُونْ ***tikiglig ton*** – “tikilgan kiyim”.

[تُكُكْلُكْ ***töküglük***] تُكُكْلُك تَرِغْ ***töküglük tarïγ*** – “to‘kuglik, saqlangan don”. Boshqa (saqlangan narsa)larga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[بِلَكْلِكْ ***biläklig***] كُوجْلُكْ بِلَكْلِكْ كِشِى ***küčlüg biläklig kiši*** – “kuchli bilakli kishi”.

[بِلِكْلِكْ ***biligliг***] بِلِكْلِكْ كِشِى ***biligliг kiši*** – “aqlli, bilimli kishi”.

[بَلِكْلِكْ ***peligliк***] بَلِكْلِكْ كَبَازْ ***peligliк kepäz*** – “piliklik paxta, pilik qilishga mo‘ljallangan paxta”.

[كُلُكْلُكْ ***kölüklüg***] كُلُكْلُكْ اَرْ ***kölüklüg er*** – “yuk ortiladigan va miniladigan tuyasi bor kishi”.

[كُلِكْلِكْ ***köliklig***] كُلِكْلِكْ يِرْ ***köliklig yer*** – “soya joy”.

بُرُنْجُكْ ***bürünčük*** – “peshanabog‘, xotinlar ro‘moli”.

[بِلِنْجَكْ ***bilinčäk***] بِلِنْجَكْ نَانَكْ ***bilinčäk näŋ*** – “o‘g‘irlangan narsaning keyinchalik o‘g‘rining qo‘lida ko‘rinishi, bilinishi”; بِلِنْجَكْ بِلْدِى ***bilinčäk bildi*** – “o‘g‘irlangan narsani egasi o‘g‘rining qo‘lida tanidi, topdi”.

تَرِنْجَكْ ***terinčäk*** – xotinlarning yengi yo‘q ust kiyimi (o‘g‘uzcha).

Bu shakldagi so‘zlar besh xildir:

Birinchi: “narsaning o‘sgan, ungan joyi” ma’nosida: سُكُتْلُكْ ***sögütlük*** – “tol bitadigan joy”. Yoki bir narsaning “joylashgan, qaror topgan, xoslangan o‘rni”ni bildiradi: كَبَكْلِكْ ***kepäklik*** – “kepakli joy; kepakka xoslangan joy”.

Ikkinchi: so‘zlangan narsani ishlashga ajratilgan narsaning oti o‘rnida qo‘llanadi: تُشَكْلِكْ بَرْچِنْ ***töšäklik barčïn*** – “to‘shakka mo‘ljallangan ipak, mato”; بُو يِغَاجْ اَلْ قَبْغْقَا تِرَكْلِكْ ***bu yïγäč-ol qapuγqa tiräklik*** – “bu, eshikka tirgovuch uchun hozirlangan yog‘ochdir” degandagi singari.

Uchinchi: kishining xulqini, tabiatini bildiruvchi masdar ma’nosida qo‘llanadi: كُفْزْلِكْ ***küwäzlik*** – “takabburlik”; يِكِتْلِكْ ***yigitlik*** – “yigitlik, yoshlik” kabi. Bu xilda uchinchi ma’no anglashilgan so‘zlarda otlar hamma tillarda faqat jarangsiz *kāf* bilan (بالكاف الصلبة) qo‘llanadi.

To‘rtinchi: aytilgan narsaning egasi ma’nosida keladi: بَلَكْلِكْ اَرْ ***biläklig er,*** بِتِكْلِكْ ارْ ***bitiglig er*** gaplarida بِلَكْلِكْ ***biläklig*** – “kuchli bilakli, kuchli bilak egasi”, بِتِكْلِكْ ***bitiglig*** – “yozuv egasi” ma’nosidadir. Bu arabcha رجل تامر ولابن iborasiga o‘xshaydi.

Beshinchi: مفعول *maf’ūl* ma’nosini [ishlangan, bajarilgan ishni] bildiradi: بِلِكْ كِشِى اَرَا اُلْكُلْكْ اُلْ ***bilig kiši ara ülüglüg-ol*** – “aqlli kishilar orasida taqsimlangandir” yoki تُشَكْلِكْ تُشَاكْ ***töšaklig töšäk*** – “to‘shalgan ko‘rpa” ma’nosida. So‘nggi ikki ma’noda faqat jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) (بالكاف الركيكة) harfi qo‘llanadi.

Yuqorida ko‘rsatilgan o‘zagi uch harfli ismlarda tarkibida *kāf* harfi bo‘lgan yoki umuman ingichka (بالكاف الركيكة) so‘zlarga لِكْ -*lik* qo‘shish qoidadir. Oldingi bo‘limda shu ma’nolarda لِقْ -*liq* qo‘shilgan. Tub o‘zakli otlarning to‘rt harfli,

besh harflilarning sahihlarida ham, boshqalarida ham, tarkibida *qāf* harfi bo‘lgan yoki umuman yo‘g‘on (فى حروف القاف و الاشباع) so‘zlarda لِقْ *-lïq*, tarkibida *kāf* harfi bo‘lgan yoki umuman ingichka (فى حروف الكاف و الركيكة) so‘zlarda ko‘rsatilgan besh ma’no uchun o‘zakka لِكْ *-lik* orttiriladi. Bu qoida hamma tillar uchun umumiydir, o‘zgarish, har xillik yo‘q.

فَعلَلان *fa’lalān* qolipidagi ikkinchi harfi harakatli va uchinchi harfi *sukun* li so‘zlar bo‘limi

ج ***č*** [harfi]:

بَلِقْچِنْ ***balïqčïn*** – “qarqara, oq qo‘ton; baliq ovlaydigan oqqush”. Uni arab tilida مالكْ الخزين “xazina egasi” deydilar.

د ***d*** [harfi]:

جُغُرْدَانْ ***čuγurdan*** (128b) – sel yerni o‘yib hosil qilgan chuqurlik.

ر ***r*** [harfi]:

قُرُغْزِينْ ***qoruγžïn*** – “qo‘rg‘oshin”; ikki maxraj orasida talaffuz qilinadigan ز *zā* bilan. O‘g‘uzlar bir necha harfni tushirib, قُشُونْ ***qošun*** deydilar.

س ***s*** [harfi]:

بُدُرْسِينْ ***bodursïn*** – “bedana”. (Shoir) shunday degan:

أُزُمْ مَنِكْ بُدُرْسِينْ ***Özüm menің bodursïn,***
أُوتِى اَنِكْ جَقْلَنُورْ ***Otï anïң čaqlanur.***

Sevgisini vasf etib aytmoqda: “Men o‘zim bedana kabiman, u (bedana) muhabbat olovi ustida aylanadi” [“Men uning muhabbat o‘ti tevaragida bedana singari aylanaman”].

غ ***γ*** [harfi]:

تَقْشْغَانْ ***tawïšγan*** – “quyon”; تَقْشْغَانْ يِلِى ***tawïšγan yïlï*** – turkcha o‘n ikki muchal (yil) otidan biri.

[تَقْشْغَانْ ***tawušγan***] تَقْشْغَانْ اُكُزْ ***Tawušγan ögüz*** – أُجْ *Učˇ* degan shaharga oqadigan soyning oti.

[جَبِتْغَانْ ***čapïtγan***] بُو اِتْ اُلْ كِشِيكَا جَبِتْغَانْ ***bu ït-ol kišikä čapïtγan*** – “bu tishlash uchun har vaqt chovut soladigan itdir”.

[جَبِتْغَانْ ***čapïtγan***] جَبِتْغَانْ اَرْ ***čapïtγan er*** – “bo‘yinga qattiq uradigan kishi” (uyg‘urcha).

[سَبِتْغَانْ ***sapïtγan***] بُو اَتْ اُلْ قُدْرُقْ سَبِتْغَانْ ***bu at-ol quδruq sapïtγan*** – “bu doimo dumini silkitadigan otdir”. Qorni ochlikdan yoki egasini ko‘rganda dumini likillatadigan itga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قَذِتْغَانْ ***qaδïtγan***] قَذِتْغَانْ اَرْ ***qaδïtγan er*** – “hech kimga bo‘ysunmaydigan kishi”. Sarkashlik qiluvchi har bir hayvonga ham qo‘llanadi.

[تَرِتْغَانْ *tarïtyan*] بُو اَرْ اُلْ تَلِمْ تَرِغ تَرِتْغَانْ ***bu er-ol telim tarïy tarïtyan*** – “bu ko‘pincha ekin ektiradigan, dehqonchilikka buyuruvchi kishidir”.

[قُرِتْغَانْ *qurïtyan*] بُو اَرْ اُلْ تَلِمْ اُزُمْ قُرِتْغَانْ ***bu er-ol telim üzüm qurïtyan*** – “bu ko‘p uzum va boshqa mevalarni quritadigan kishidir”.

[تُزِتْغَانْ *tozïtyan*] بُو اَتْ اُلْ تَلِمْ تُبْرَاقْ تُزِتْغَانْ ***bu at-ol telim tupraq tozïtyan*** – “bu doim tuproq to‘zitadigan, changitadigan otdir”.

[بُشُتْغَانْ *bošutyan*] بُو اَتْ اُلْ قَرِنْ بُشُتْغَانْ ***bu ot-ol qarïn bošutyan*** – “bu ichni suradigan doridir”. Shuningdek, eritish bilan narsaning kuchini ketkazuvchi har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[تَشِتْغَانْ *tašïtyan*] بُو اَرْ اُلْ اَقِنكَا تَلِمْ تَقْارْ تَشِتْغَانْ ***bu er-ol ewinä telim tawar tašïtyan*** – “bu doim narsani uyiga tashitadigan kishidir”.

[تَشِتْغَانْ *tašïtyan*] بُو اُوتْ اُلْ اَشِيجْ تَشِتْغَانْ ***bu ot-ol ešič tašïtyan*** – “bu qozonni toshiradigan o‘tdir”.

[قَشِتْغَانْ *qašïtyan*] بُو اَرْ اُلْ اَتِنْ قَشِتْغَانْ ***bu er-ol etin qašïtyan*** – “bu ko‘pincha badanini qashitadigan kishidir”.

[قَقِتْغَانْ *qaqïtyan*] بُو اَرْ اُلْ مَنِى تُوتْجِى قَقِتْغَانْ ***bu er-ol meni tutčï qaqïtyan*** (129a) – “bu meni doim qahr-u g‘azabda qoldiradigan, jahlimni chiqaradigan kishidir”.

[قَلِتْغَانْ *qalïtyan*] بُو اَرْ اُلْ اَتِنْ تَلِمْ قَلِتْغَانْ ***bu er-ol atïn telim qalïtyan*** – “bu otini ko‘p sakratadigan kishidir”.

[قَمَتْغَانْ *qamatyan*] بُو كُنْ اُلْ كُوزْ قَمَتْغَانْ ***bu kün-ol köz qamatyan*** – “bu ko‘zni qamashtiradigan kundir”.

[قُمِتْغَانْ *qumïtyan*] اُغُلْ مَنِى اَقكَا قُمِتْغَانْ اُلْ ***oγul meni ewkä qumïtyan-ol*** – “o‘g‘il doim mening ko‘nglimni uyga tortib turuvchidir”.

[قَنَتْغَانْ *qanatyan*] بُو اُتْ اُلْ بُرُنْ قَنَتْغَانْ ***bu ot-ol burun qanatyan*** – “bu burunni qonatadigan doridir”.

[قَنِتْغَانْ *qanïtyan*] اُكْدِى اُلْ اَرِكْ قَنِتْغَانْ ***ögdi-ol erig qanïtyan*** – “kishini quvontiradigan, qondiradigan maqtovdir”.

[بَتُرْغَانْ *baturγan*] بُو كِشِى اُلْ سُوزْ بَتُرْغَانْ ***bu kiši-ol söz baturγan*** – “bu so‘z va boshqa narsalarni yashiradigan kishidir”.

[تَتُرْغَانْ *taturγan*] بُو اَرْ اُلْ اَشْ تَتُرْغَانْ ***bu er-ol aš taturγan*** – “bu mehmon va boshqalarga ovqat tottiradigan [birovdan ovqatini ayamaydigan] kishidir”.

(Shoir) shunday degan:

اَرْدِى اَشِنْ تَتُرْغَانْ	***Erdi ašïn taturγan,***
يَقْلَقْ يَغِغْ قَجُرْغَانْ	***Yawlaq yaγïy qačuryan.***
اُغْرَقْ سُوسِنْ قَيْتَرْغَانْ	***Oγraq süsin qaytaryan,***
بَسْتِى اُلْمْ اَخْتَرُو	***Bastï ölüm axtaru.***

Bir kishining o‘limiga achinib aytmoqda: “U mehmonga, yaxshi kishilarga oshini tutadigan, yovuz yovni qochiradigan, اُغْرَقْ *oγraq* qo‘shinini qaytarib yuboradigan edi. (Esiz) o‘lim uni ag‘dardi”.

[تُبُرْغَانْ *toburγan*] تُبُرْغَانْ يِيرْ *toburγan yer* – “bossa, changi chiqadigan yumshoq yer”.

سُبُزْغَانْ *subuzγan* – musulmon bo‘lmaganlarning ibodatxonasi, ularning mozori. Maqolda (shunday kelgan): سُبُزْغَانْ دَا اَوْ بُلْمَاسْ تُبُرْغَانْ دَا اَقْ بُلْمَاسْ ***Subuzγanda ev bolmas, toburγanda aw bolmas.*** Ma’nosi: “Tiriklar uchun eski go‘rlarda uy bo‘lmaydi, shuningdek, quruq tuproqli yerda ov bo‘lmaydi”. Ov suvli, ko‘katli joylarda bo‘ladi.

قَبَرْغَانْ *qabaryan* – badanga chiqadigan qavarchiq, chiqiq. U qichishib, harorat bilan chiqadi.

[قَتُرْغَانْ *qaturγan*] بُو اَرْ اُلْ اُكُشْ قَتُرْغَانْ ***bu er-ol öküš qaturγan*** – “bu, ko‘p kuladigan, juda quvnoq kishidir”.

[قُبُرْغَانْ *qopurγan*] بُو اَرْ اُلْ تَاشِغْ يِيرْدَنْ قُبُرْغَانْ ***bu er-ol tašïγ yerdän qopurγan*** – “bu, toshni va boshqa narsalarni yerdan qo‘poradigan kishidir”. (129b)

[تُدُرْغَانْ *toδurγan*] بُو اَرْ اُلْ اَچِغْ تُدُرْغَانْ ***bu er-ol ačïγ toδurγan*** – “bu, ochlarni to‘ydiradigan kishidir”. Bu so‘zning asli تُدُغُرْغَانْ *toδγurγan* dir.

[سِدِرْغَانْ *sïδïrγan*] بُو اَرْ اُلْ سِدِرِمْ سِدِرْغَانْ ***bu er-ol sïδrïm sïδïrγan*** – “bu, qayish tayyorlaydigan, terini uzun qilib yungini qiradigan kishidir”. Shuningdek, har narsaning po‘stini shila oladigan kishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قَيْتَرْغَانْ *qaytarγan*] بُو اَلبْ اُلْ يَغِينِى قَيْتَرْغَانْ ***bu alp-ol yayïnï qaytarγan*** – “bu, yovga bas keladigan bahodirdir”.

[قَجُرْغَانْ *qačurγan*] بُو اَرْ اُلْ قُنُقْتِى قَجُرْغَانْ ***bu er-ol qonuqnï qačurγan*** – “bu, mehmonni va boshqalarni qochirib yuboradigan kishidir”.

[قَجُرْغَانْ *qačurγan*] بُو اَرْ اُلْ كِشِينِى قَجُرْغَانْ ***bu er-ol kišini qačurγan*** – “bu, oldiga kelgan kimsani ko‘rganda unga xo‘mrayib, qovoq solib, kerilib, fe’li buziladigan, g‘o‘dayib qoladigan kishidir”.

[قَدِرْغَانْ *qaδïrγan*] بُو اَرْ اُلْ اَرَنْ بُيْنِنْ قَدِرْغَانْ ***bu er-ol erän boynïn qaδïrγan*** – “bu, erlar bo‘ynini qayiradigan kishidir”.

[تَشُرْغَانْ *tašurγan*] بُو اُوتْ اُلْ اَشِيجْ تَشُرْغَانْ ***bu ot-ol ešič tašurγan*** – “bu, qozonni toshiradigan o‘tdir”. Shuningdek, sel hovuzga doim quyilib, uning suvini toshirishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

قَقُرْغَانْ *qaqurγan* – xamirga moy qo‘shib, tandirda va o‘choqda pishirilgan non.

[قَقْرْغَانْ *qawurγan*] بُو بِلَازُكْ اُلْ بِلَكْ قَقْرْغَانْ ***bu biläzük-ol biläk qawurγan*** – “bu, bilakni siqadigan bilakuzukdir”.

[تَمُرْغَانْ *tamurγan*] بُو اُغُلْ اُلْ بُرْنِى تَمُرْغَانْ ***bu oγul-ol burnï tamurγan*** – “bu, har vaqt burni qonaydigan boladir”.

سَغِزْغَانْ *sayïzγan* – “zag‘izg‘on”.

قُدُزْغُونْ *quduzγun* – “quyushqon, egarning quyushqoni”.

[تُرُشْغَانْ *turušγan*] بُو اَرْ اُلْ كِشِى بِرْلَا تُتْجِى تُرُشْغَانْ ***bu er-ol kiši birlä tutčï turušγan*** – “bu, doimo kishilar bilan xusumat qiladigan kishidir”.

[سَتِشْغَانْ اَلِشْغَانْ] ***satišγan-ališγan*** ألَارْ اِكّى تَقْارْ سَتِشْغَانْ اَلِشْغَانْ لَارْ اُلْ ***olar ikki tawar satišγan-ališγanlar-ol*** – “ular ikkisi bir-birlari bilan mol olib-sotishadiganlardir”. Bu iboraning سَتِشْغَانْ تَقْشْغَانْ ***satišγan-tawïšγan*** shakli ham bor. Bu so‘z سَتّى ***sattï*** (“sotdi”), تَقْدِى ***tawdï*** (“o‘ziga oldi, foydalandi”) so‘zlaridan olingan. (130a)

[بَقِشْغَانْ] ***baqïšγan*** اُلْ كِشِى بِرْلَا بَقِشْغَانْ اُلْ ***ol kiši birlä baqïšγan-ol*** – “u, kimsaga ko‘z qiri bilan qaraydigandir”.

[تُقُشْغَانْ] ***toqušγan*** اُلْ اَرْ اُلْ يَقْلَاق تُقُشْغَانْ ***ol er-ol yawlaq toqušγan*** – “u, ashaddiy urushadigan, urushqoq kishidir”. U, jangga qiziqtiruvchi, vasvasa soluvchi, g‘alvaning konidir.

سُقُشْغَانْ ***sowušγan*** – “gijja”. U, qorindagi qurtdir.

بِجِلْغَانْ ***bïčïlγan*** – qo‘l, oyoq va (qaqroq) yerdagi yoriqlar.

[تُبُلْغَانْ] ***topulγan*** كُوكْ تُبُلْغَانْ ***kök topulγan*** – bir qushning oti. Aytishlaricha, bu qushning ikki qanotida po‘lat bo‘ladi va u qanoti bilan toqqa urib, bir tomondan boshqa tomonga o‘tadi. Bu so‘zni menga xizmat qilib yurgan bir kishi aytgan.

[تُبُلْغَانْ] ***topulγan*** بُو اَرْ اُلْ جَرِكْ تُبُلْغَانْ ***bu er-ol čerig topulγan*** – “bu, urush safini yorib o‘tuvchi erdir”. Buning asli تَمُرْ تُبُلْدِى ***temür topuldï*** (“temirni bor kuchi bilan teshdi”)dir.

[قَتِلْغَانْ قَرِلْغَانْ] ***qatïlγan-qarïlγan*** بُو اَرْ اُلْ كِشِى بِرْلَا تُتْجِى قَتِلْغَانْ قَرِلْغَانْ ***bu er-ol kiši birlä tutčï qatïlγan-qarïlγan*** – “bu, doim kimsalar bilan aralashib yuradigan kishidir”.

[قُرُلْغَانْ] ***qorulγan*** بُو اَرْ اُلْ سِنكِرِى قُرُلْغَانْ ***bu er-ol siŋiri qorulγan*** – “bu, tirishib qoladigan kishidir”.

[قُتُلْغَانْ] ***qutulγan*** بُو اَرْ اُلْ يَغِيدِن قُتُلْغَانْ ***bu er-ol yayïdïn qutulγan*** – “bu, yovdan va boshqalardan doim qutilib qoladigan, najot topadigan kishidir”.

[قَبُلْغَانْ] ***qapulγan*** بُو نَانكْ اُلْ قَبُغْدَا قَبُلْغَانْ ***bu näŋ-ol qapuγda qapulγan*** – “bu, eshik va shunga o‘xshash narsalarning orasida siqiladigan narsadir”.

[قُشُلْغَانْ] ***qošulγan*** بُو قُزِى اُلْ سَغْلِقْ بِرْلَا قُشُلْغَانْ ***bu qozï-ol saγlïq birlä qošulγan*** – “bu, sog‘liq bilan qo‘shiladigan qo‘zidir”. Boshqa (hayvon)larga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[سُغُلْغَانْ] ***soγulγan*** بُو سُوفْ اُلْ تَقْرَاقْ سُغُلْغَانْ ***bu suw-ol tawraq soγulγan*** – “bu, tezda tuproqqa singib ketadigan suvdir”. Shuningdek, suvi tezda singib ketadigan chashmaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قَقِلْغَانْ سُقُلْغَانْ] ***qaqïlγan-soqulγan*** بُو اَرْ اُلْ تَلِمْ قَقِلْغَانْ سُقُلْغَانْ ***bu er-ol telim qaqïlγan-soqulγan*** – “bu, boshqalarning siquvidan xo‘rlangan, ezilgan, oyoq osti bo‘lgan kishidir”.

ق ***q*** [harfi]:

تُتُرْقَانْ ***tuturqan*** – “guruch”. (130b)

[تَشِرْقَانْ] ***tašïrqan*** تَشِرْقَانْ كُوزْلُكْ ***tašïrqan közlüg*** – “chag‘ir ko‘zli kishi; ko‘zi irg‘ib chiqqan kishi”.

سِقِرْقَانْ ***sïqïrqan*** – kalamushlarning bir turi.

ك ***g*** [harfi]:

[بِتِلْكَانْ ***bitilgän***] بُو اَرْ سُوكَا بِتِلْكَانْ اُلْ ***bu er sükä bitilgän-ol*** – “bu kishining (taqdiri) askarlikka bitilgandir”.

[تَرِلْكَانْ ***terilgän***] بُولارْ بُودُنْ اُلْ تُتْجِى تَرِلْكَانْ ***bular boδun-ol tutčï terilgän*** – “bular bir ish bo‘lsa, doim to‘planadigan kishilardir”. To‘planishga odatlangan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[كُتُرْكَانْ ***kötürgän***] بُو بُغرَا اُلْ يُكْ كُتُرْكَانْ ***bu buγra-ol yük kötürgän*** – “bu, yuk va shunga o‘xshash narsalarni ko‘taradigan erkak tuyadir”.

[كَجُرْكَانْ ***kečürgän***] بُو بَاكْ اُلْ يَازُقْ كَجُرْكَانْ ***bu beg-ol yazuq kečürgän*** – “bu, gunohni kechiradigan bekdir”.

[كَجُرْكَانْ ***kečürgän***] بُو اَرْ اُلْ تَلِمْ اِيشْ كَجُرْكَانْ ***bu er-ol telim iš kečürgän*** – “bu, qiyin ishlarni bajaradigan, ag‘dar-to‘ntar qiladigan kishidir”; uni اَوِرْكَانْ تَوِرْكَانْ ***ewürgän-tewürgän*** ham deyiladi.

(Shoir) shunday degan:

يَغِى اُوتِنْ اُجُرْكَانْ ***Yaγï otïn öčürgän,***
تُويْدُنْ اَنِى كُجُرْكَانْ ***Toydun anï köčürgän.***
اِشْلَرْ اُزُبْ كَجُرْكَانْ ***Išlar uzup kečürgän,***
تَكْدِى اُقِى اُلْدُرُو ***Tegdi oqï öldürü.***

O‘lgan kishining fazilatlarini eslab aytmoqda: “U yov o‘tini o‘chiradigan, qarorgohidan uni ko‘chiradigan [haydab chiqaradigan], ko‘p qiyinchiliklarni kechirgan edi. (Unga yovning) o‘qi tegdi, o‘ldirdi”.

[جَقْرْكَانْ ***čewürgän***] بُو اَرْ اُلْ تَلِمْ اُقْ جَقْرْكَانْ ***bu er-ol telim oq čewürgän*** – “bu, har vaqt o‘qni tirnog‘ida aylantiradigan kishidir”.

كُسُرْكَانْ ***küsürkän*** – “bir turli ko‘rsichqon”.

تُشُرْكُونْ ***tüšürkün*** – “katira daraxti” (bir tilda).

كُقُرْكَانْ ***küwürkän*** – “tog‘ piyozi”. O‘g‘uzlar uni كُمُرْكَانْ ***kümürkän*** deb aytadilar.

تَمُرْكَانْ ***temürkän*** – o‘qning temirli uchi (o‘g‘uzcha).

[تَكُرْكَانْ ***tegürgän***] بُو اَرْ اُلْ اِيشِغْ اَدَاقّا تَكُرْكَانْ ***bu er-ol išïγ aδaqqa tegürgän*** – “bu, ishni har vaqt adog‘iga yetkazuvchi kishidir”.

[كُلَرْكَانْ ***kölärgän***] بُو اَتْ اُلْ كُلَرْكَانْ ***bu at-ol kölärgän*** – “bu, qorni shishadigan va yerda yastanib yotib oladigan otdir”. (131a)

[سُمُرْكَانْ ***sümürgän***] بُو اَرْ اُلْ سُوتُكْ سُمُرْكَانْ ***bu er-ol sütüg sümürgän*** – “bu, sutni va shunga o‘xshash narsalarni simiradigan kishidir”.

[سُرُلْكَانْ ***sürülgän***] بُو اَرْ اُلْ تَكْمَا يِيرْدِنْ تُتْجِى سُرُلْكَانْ ***bu er-ol tegmä yerdin tutčï sürülgän*** – “bu, hamma joydan quvilib yuradigan kishidir”.

[كَرِلْكَانْ ***kerilgän***] بُو نَانَكْ اُلْ كَرِلْكَانْ ***bu näŋ-ol kerilgän*** – “bu, keriladigan narsadir”. Terining cho‘zilishi, tog‘ tepasida bulutning yoyilishi singari.

[كَرِلْكَانْ ***kerilgän***] بُو اَرْ اُلْ تَلِمْ كَرِلْكَانْ ***bu er-ol telim kerilgän*** – “bu, har vaqt esnaydigan va kerishadigan kishidir”.

[تِرِلْكَانْ ***tirilgän***] بُو اَرْ اُلْ اَدْكُو سَاقِنْ تِرِلْكَانْ ***bu er-ol eδgü sawïn tirilgän*** – “bu, ezgu ishlari bilan maqtaladigan kishidir”.

[تَرِلْكَانْ ***terilgän***] بُو نَانىڭ اُلْ بِيرْ بِيرْكَا تَرِلْكَانْ ***bu näŋ-ol bir-birkä terilgän*** – “bu, bir-biriga tartib bilan teriladigan narsadir”.

[كَسِلْكَانْ ***kesilgän***] بُو يِبْ اُلْ كَسِلْكَانْ ***bu yïp-ol kesilgän*** – “bu kesiladigan, uziladigan ipdir”.

[سَشِلْكَانْ ***sešilgän***] بُو تُكُونْ اُلْ سَشِلْكَانْ ***bu tügün-ol sešilgän*** – “bu yechilib ketadigan tugundir”.

[تُكُلْكَانْ ***tügülgän***] بُو يِبْ اُلْ تُكُلْكَانْ ***bu yïp-ol tügülgän*** – “bu tuguladigan ipdir”.

[تُكُلْكَانْ ***tügülgän***] بُو اَرْ اُلْ تُتْجِى قَاشِى كُوزِى تُكُلْكَانْ ***bu er-ol tutčï qašï-közi tügülgän*** – “bu, (o‘zining pastligi va nokasligidan) doim qosh-qovog‘i soliq, xo‘mraygan kishidir”.

Yuqoridagi *γayn* va *kāf* bo‘limida ko‘rsatilgan so‘zlar besh xil ma’noni anglatadi.

Birinchi: qilingan ishning doimiyligi, bir necha bor ishlangani va o‘z tabiati bilan sodir bo‘lishini anglatadi: بُو اُغُلْ اُلْ بُرْنِى يُمُرْغَانْ ***bu oγul-ol burnï yumuryan*** – “bu, har vaqt burni qonaydigan boladir”; بُو اَرْ اُلْ اَدْكُو سَاقِنْ تِرِلْكَانْ ***bu er-ol eδgü sawïn tirilgän*** – “bu, ezguligi bilan maqtaladigan kishidir” kabi.

Ikkinchi: sifatning sifatlanuvchi narsadan boshqaga o‘tishini va sifatning sifatlanuvchida davomli ekanini anglatadi: بُو اَرْ اُلْ تُونِنْ قُرِتْغَانْ ***bu er-ol tonïn qurïtγan*** – “bu, kiyimini quritadigan kishidir”; بُو اَرْ اُلْ سُوقْغْ سُمُرْكَانْ ***bu er-ol suwuγ sümürgän*** (131b) – “bu, suvni simiradigan kishidir”. Bu bo‘limda tub otlar jarangsiz *kāf* bilan (بالكاف الصلبة), sifatlarning bari jarangli *kāf* bilan (بالكاف الركيكة) qo‘llanadi.

Uchinchi: sifatlangan narsa مفعول *maf’ul* [ishlangan ish] ma’nosida keladi: بُو اَرْ اُلْ قَقِلْغَانْ سُقُلْغَانْ ***bu er-ol qaqïlγan-soqulγan*** – “bu, xo‘rlangan, ezilgan [qoqilgan-suqilgan] kishidir” kabi; بُو اَرْ اُلْ يِيرْدِنْ يِيرْكَا سُرُلْكَانْ ***bu er-ol yerdin yerkä sürülgän*** – “bu, yerdan yerga quvilib yuradigan kishidir” kabi.

To‘rtinchi: ishlangan ishning ishlovchi xohishidan tashqari bo‘lganini anglatadi: بُو كِشِى اُلْ سُوزُكْ اُنِتْغَانْ ***bu kiši-ol sözüg unïtγan*** – “bu, so‘zini unutib qo‘yadigan kishidir”; بُو تُكُونْ اُلْ سَشِلْكَانْ ***bu tügün-ol sešilgän*** – “bu, yechilib ketadigan tugundir” kabi.

Beshinchi: bu ma’nolarning birontasini anglatmovchi sof ot ma’nosida qo‘llanadi: كَفْرْكَانْ ***kewürkän*** – “tog‘ piyozi”; تَقْشْغَانْ ***tawušγan*** – “quyon” kabi.

رُومْ *Rūm* dan صِينْ *Ṣīn* yaqiniga qadar bo‘lgan o‘g‘uzlar, ko‘chmanchilar ayrim so‘zlardagi davomiylikni bildiruvchi *γayn* va *kāf* [*g*] ni tushirib qo‘llaydilar.

So‘zlashuvda erlar va xotin-qizlar sifati farq qilinmaydi. U jumla mazmunidangina anglashiladi.

Bu yerda ko‘rsatilgan qoidalar va sifatlar borasidagi izohlar faqat shular bilan cheklanmaydi. Buni kitobning hamma yerida uchragan to‘rt va undan ortiq harfli fe’llar uchun ham qo‘llash mumkin. Xudo xohlasa, so‘z cho‘zilmay, bular yaqin o‘rtada anglashiladi.

Ikkinchi harfi unlisiz فَعْلَلَلْ *fa’lalālal* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ج ***č*** [harfi]:

سُنْدِلَاجْ ***sundïlač*** – “sa’va”. Maqolda (shunday kelgan): سُنْدِلَاجْ اِيشِى اَرْمَاسْ اُرتْكُونْ تَبْمَاكْ ***Sundïlač ïšï ermäs örtkün tepmäk.*** Ma’nosi: “Xirmon yanchmoq sa’vaning ishi emas”. Bu maqol kuchsiz bo‘la turib, katta ishga intiluvchi, (132a) lekin bajara olmovchilarga nisbatan qo‘llanadi.

قَرْغِلَاجْ ***qarγïlač*** – “qaldirg‘och”; قَرْلِغَجْ ***qarlïγač*** tarzidagi talaffuzi ham bor.

غ ***γ*** [harfi]:

قَرْغَالِغْ ***Qarγalïγ*** – طِرَاز *Ṭirāz* shahri yaqinidagi bir qo‘rg‘on oti. Asli قَرْغَالِغْ dir.

ق ***q*** [harfi]:

تَمْغَلِقْ ***tamγalïq*** – “kichkina obdasta”.

تَمْغَلِقْ ***tamγalïq*** – bir kishi uchun maxsus dasturxon. Asli تَمْغَالِغْ ***tamγalïγ,*** ya’ni “muhrli” demakdir. Odatda, podsho o‘ziga xos dasturxon va ko‘zachani muhrlab qo‘yadi, unda bir kishiga loyiq sharob va ovqat bo‘ladi. So‘ngra har bir kichik ko‘zacha va dasturxonni تَمْغَلِقْ ***tamγalïq*** deb ataladigan bo‘ldi. Buning ma’nosi “podshodan boshqa kishi undan ovqat yemasligi uchun tamg‘a urilgan dasturxon” demakdir.

Bu so‘zning oxiridagi *γayn* ni talaffuz o‘rni yaqinligidan *qāf* bilan almashtirish ham mumkin.

سَرْمَجُقْ ***sarmačuq*** – ugra oshining bir turi. Xamirni no‘xatday maydalab, kesib tayyorlanadi. Buni kasal va kasalga o‘xshash (zaif kishi)lar ichadi.

سَرْمُسَقْ ***sarmusaq*** – “sarimsoq”; سَمُرْسَقْ ***samursaq*** shakli ham bor.

قُرْغُلُقْ ***qurγuluq*** – “yengiltaklik”.

قِزْلامُقْ ***qïzlamuq*** – “qizamiq va shunga o‘xshash toshmalar”.

قَشْغَلَقْ ***qašγalaq*** – “qashqaldoq; o‘rdakdan kichikroq suv qushi”.

(Shoir) shunday degan:

تَنْكْدَا بِلا كُرْسَا مِنِى اُرْدَكْ اَتَارْ ***Tanda bilä körsä meni ördäk ätär,***
قَلْقَا كُرُبْ قَشْغَلَقِى سُقْقَا بَتَارْ ***Qalwa körüp qašγalaqï suwqa batar.***

Ovlagan qush to‘g‘risida aytmoqda: “O‘rdak ko‘lda uchsiz o‘q bilan meni ko‘rsa, sayraydi, qashqaldog‘i ko‘rib qolsa, o‘sha ondayoq suvga sho‘ng‘ib ketadi”.

[ك ***g*** harfi]:

[بَلْگُلُگْ ***belgülüg***] بَلْگُلُگْ نَانَگْ ***belgülüg näŋ*** – “ko‘rinib turgan narsa; belgili narsa”. Maqolda (shunday kelgan): بُلْدَاچِی بُزَاغُو اُگُوزْ اَرَا بَلْگُلُگْ ***Boldačï buzaγu öküz ara belgülüg.*** Ma’nosi: “Ho‘kiz bo‘ladi deya gumon qilingan buzoq, ho‘kizlar orasida yoshligidayoq ma’lum bo‘lib qoladi”. (Bu maqol kelajagidan) yaxshilik umid qilinadigan yosh, ziyrak, botir yigitlarga qarata aytiladi.

كُزْكُنَگْ ***küzkünäk*** – lochin va qarchig‘ayga o‘xshash xoldor qush, u shamol bilan qanoatlanadi. (132b)

ن ***n*** [harfi]:

قَدْنَاغُنْ قَدِنْ ***qaδïn-qaδnaγun*** – kuyov va uning qarindoshlariga aytiladi va qo‘shaloq holda qo‘llanadi.

Bu so‘zlarning boshqa bir turi

[ج ***č*** harfi]:

سَنْدُوَاجْ ***sanduvač*** – “bulbul”. (Shoir) shunday degan:

سَنْدَا قَچَرْ سُنْدِلَاجْ	***Sendä qačar sundïlač,***
مَنْدَا تِنَرْ قَرْغِلَاجْ	***Mendä tïnar qarγïlač.***
تَتْلِغْ / تَتْلُغْ اُتَرْسَنْدُوَاجْ	***Tatlïγ / tatluγ ötär sanduvač,***
اَرْكَگْ تِشِی اُجْرَشُورْ	***Erkäk-tiši učrašur.***

Yoz va qishning munozarasini ta’riflaydi. Yoz qishga aytmoqda: “Sa’va sendan qochadi, menda qaldirg‘och rohatlanadi. Bulbul turli nag‘masi bilan sevintiradi. Menda [ya’ni yozda] erkak va urg‘ochi uchrashadi”.

ر ***r*** [harfi]:

مُنْدَرُو ***mündärü*** – ipaklar bilan bezatilgan kelin uyi.

Besh harfli so‘zlar bo‘limi tugadi.

BU OLTI HARFLI SO‘ZLAR BOBLARIDIR

فَعْلَعْلَل ***fa’al’alal*** qolipidagi turli harakatli so‘zlar

ك ***k*** [harfi]:

تِزِلْدُرُكْ ***tizildürük*** – mahsining boshiga bezak uchun qadaladigan silliq, yaltiroq chaqalar.

كُزُلْدُرُكْ ***közüldürük*** – ot dumidan to‘qilgan, ko‘z og‘riganda yoki qamashganda ko‘zga tutiladigan narsa; كُزْلُكْ ***közlük*** shakli ham bor.

جَنِشْتُرُكْ ***čäništürük*** – daraxt mevasi, u mayda g‘o‘laklardek bo‘lib, oq va qizil bo‘ladi. Yozning boshlarida pishadi, uni yeydilar.

كُمُلْدُرُكْ ***kömüldürük*** – yuk orqaga ketmasin deb, otning yelka tomonidan egarga bog‘langan narsa.

ق ***q*** [harfi]:

سَقَلْدُرُقْ ***saqalduruq*** – qalpoq tushib ketmasin uchun uni bog‘lab, jag‘ tagidan o‘tkazib qo‘yiladigan tizimcha; ipakdan to‘qiladi.

قَلَلْدُرُقْ ***Qalalduruq*** – erkaklarning otlaridan.

YETTI HARFLI SO‘ZLAR

زَرْغُنْجُمُودْ ***zarγunčmud*** – bir turli rayhon. Buni fors tilida بلنک مشک deb aytiladi.

Sālim otlar bo‘limi tugadi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU *SĀLIM* FE’LLAR KITOBIDIR

IKKI HARFLILAR BOBI

ب *p* [harfi]:

[**تَبْدِى *tapdï***] **قُلْ تَنكرِى كَا تَبْدِى *qul Täŋrikä tapdï*** – “banda Alloh taologa topindi, ibodat qildi”; (133a) **اُلْ خَانْقَا تَبْدِى *ol xanqa tapdï*** – “u xonga xizmat qildi”. Boshqalarga (xizmat qilishga) ham shu so‘z qo‘llanadi.

[**تَبْدِى *tapdï***] **اُلْ نَانكْنِى تَبْدِى *ol näŋni tapdï*** – “u yo‘qolgan narsani topdi” (**تَبَارْ *tapar*, تَبْمَاقْ *tapmaq***).

[**تَبْدِى *tepdi***] **اُلْ قُلِنْ تَبْدِى *ol qulïn tepdi*** – “u qulini tepdi” (**تَبَارْ *tepär*, تَبْمَاكْ *tepmäk***).

[**جَبْدِى *čapdï***] **اَرْ سُقْدَا جَبْدِى *er suwda čapdï*** – “kishi suvda suzdi”.

[**جَبْدِى *čapdï***] **اُلْ اَتْنِى جِبِقْ بِرْلا جَبْدِى *ol atnï čïbïq birlä čapdï*** – “u otni chiviq bilan sekingina urdi”; **جُمَقْ تَتْ بُيْنِنْ جَبْدِى *čumaq tat boynïn čapdï*** – “musulmon kofirning bo‘yniga urdi” (uyg‘urcha).

[**جَبْدِى *čapdï***] **اَرْ اَفِنْ جَبْدِى *er ewin čapdï*** – “kishi uyini (uy devorini) suyuq loy bilan chapladi” (**جَبَارْ *čapar*, جَبْمَاقْ *čapmaq***).

[**سَبْدِى *sapdï***] **يِيجِى يِكْنَا سَبْدِى *yiči yignä sapdï*** – “tikuvchi ninaga ip o‘tkazdi”.

[**سَبْدِى *sapdï***] **اُلْ قُشْ قَنَتِنْ سَبْدِى *ol quš qanatïn sapdï*** – “u qushning qanotini bog‘ladi”. Qisqa yoki kam bo‘lgan narsa o‘z jinsidan boshqa bir narsa bilan ulab to‘ldirilishi, butunlanishiga nisbatan ham shu so‘z qo‘llanadi (**سَبَارْ *sapar*, سَبْمَاقْ *sapmaq***).

[**قَبْدِى *qapdï***] **اَرْ تُونْ قَبْدِى *er ton qapdï*** – “kishi kiyimni va boshqa narsalarni shilib oldi”.

[**قَبْدِى *qapdï***] **اُغْلَانِغْ يِيلْ قَبْدِى *oγlanïγ yel qapdï*** – “bola boshiga yel [jin yara] tegdi”. Kiyim va shunga o‘xshash narsalarni shamol uchirishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (**قَبَارْ *qapar*, قَبْمَاقْ *qapmaq***).

[**قُبْدِى *qopdï***] **اَرْ يُقَارُو قُبْدِى *er yuqaru qopdï*** – “kishi joyidan turdi”.

[**قُبْدِى *qopdï***] **تُبِى قُبْدِى *tübi qopdï*** – “shamol turdi, qo‘zg‘aldi”.

[**قُبْدِى *qopdï***] **قُشْ قُبْدِى *quš qopdï*** – “qush va boshqa narsalar qo‘pdi” (**قُبَارْ *qopar*, قُبْمَاقْ *qopmaq***).

ج *č* [harfi]:

[**بِجْدِى *bïčdï***] **اَرْ اَتْ بِجْدِى *er et bïčdï*** – “kishi go‘sht va boshqa narsalarni kesdi” (**بِجَارْ *bïčar*, بِجْمَاقْ *bïčmaq***).

[سَجْتِمْ *sačtïm*] مَنْ يِبَارْ سَجْتِمْ ***men yïpar sačtïm*** – “men ipor va boshqalarni sochdim”.

[سَجْدِى *sačdï*] اُلْ اَڤكَا سُوڤْ سَجْدِى ***ol ewkä suw sačdï*** – “u uyga (hovliga) va boshqa joylarga suv sepdi” (سَجَارْ ***sačar***, سَجْمَاقْ ***sačmaq***).

[سِجْدِى *sïčdï*] اَرْ سِجْدِى ***er sïčdï*** – “kishi chichdi”. Boshqa (jonzotlar)ga ham shunday deyiladi (سِجَارْ ***sïčar***, سِجْمَاقْ ***sïčmaq***).

[قَجْدِى *qačdï*] اَرْ قَجْدِى ***er qačdï*** – “kishi va boshqalar qochdi” (قَجَارْ ***qačar***, قَجْمَاقْ ***qačmaq***).

[قُجْدِى *kučdï*] اُلْ مِنِى قُجْدِى ***ol meni kučdï*** – “u meni quchoqladi” (قُجَارْ ***kučar***, قُجْمَاقْ ***kučmaq***). (133b)

[كَجْتِى *kečti*] اَىْ كُونْ كَجْتِى ***ay, kün kečti*** – “oy va kun kechdi”.

[كَجْتِى *kečti*] اَرْ سُوڤْ كَجْتِى ***er suw kečti*** – “kishi suv va boshqa narsalarni kechdi”.

[كَجْتِى *kečti*] اَرْ كَجْتِى ***er kečti*** – “kishi o‘tdi, o‘ldi” (كَجَارْ ***kečär***, كَجْمَاكْ ***kečmäk***).

[كُجْتِى *köčti*] سُو ***sü köčti*** – “qo‘shin va boshqalar (bir yerdan boshqa yerga) ko‘chdi” (كُجَارْ ***köčär***, كُجْمَاكْ ***köčmäk***).

Nutqni yoqimli qilish uchun oxiri jarangsiz harflar (الاحرف الصلبة) bilan bitgan o‘zaklardan yasalgan o‘tgan zamon fe’li qo‘shimchasidagi *dāl* ni *tā* ga almashtirish to‘g‘riroqdir. ب *pā,* ج *čīm, qāf, kāf* harflari jarangsiz harflar (الاحرف الصلبة) dir. Bulardan boshqa harflarda o‘tgan zamon fe’l qo‘shimchasini *dāl* bilan yozish ham munosibroqdir.

(Shoir) shunday degan:

تُنْلا بِلا كُجَالِمْ ***Tünlä bilä köčälim,***
يَمَرْ سُڤْنْ كَجَالِمْ ***Yamar suwïn kečälïm.***
تَرَنْكُوكْ سُڤْنْ اِچَالِمْ ***Teränyük suwïn ičälim,***
يُڤْغَا يَغِى اُڤْلْسُونْ ***Yuwγa yayï uwulsun.***

Aytmoqdaki: “Tuni bilan ko‘chaylik, يَمَارْ *Yamar* suvini – bu bir daryodir – kechaylik. Qaynab chiqayotgan suvini ichaylik, bizga itoat qilmaydigan yov parcha-parcha bo‘lsin”.

ر ***r*** [harfi]:

[بَرْدِى *bardï*] اُلْ اَڤْكَا بَرْدِى ***ol ewkä bardï*** – “u uyga va boshqa joylarga bordi” (بَرِيرْ ***barïr***, بَرْمَاقْ ***barmaq***).

[بُرْدِى *bürdi*] اُلْ يَنْجُقْ اَغْزِى بُرْدِى ***ol yančuq aγzï bürdi***, ya’ni “u yonchiq – to‘rvaning og‘zini burdi”. Ishtonbog‘ va shunga o‘xshagan boshqa narsalarni burish uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (بُرَارْ ***bürär***, بُرْمَاكْ ***bürmäk***).

[بُرْدِى *burdï*] يِبَارْ بُرْدِى ***yïpar burdï*** – “mushk hidi chiqdi, burqiradi, gurkiradi”. Shuningdek, har bir xushbo‘y narsaning hidi chiqishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[بُرْدِى *burdï*] سُوڤْ بُرْدِى ***suw burdï*** – “suv va boshqa narsalarning bug‘i chiqdi, ko‘tarildi” (بُرَارْ ***burar***, بُرْمَاقْ ***burmaq***).

[تُرْدِي *turdï*] اَرْ يُقَارُو تُرْدِي ***er yuqaru turdï*** – “kishi va boshqalar tik turdi”.

[تُرْدِى *turdï*] تُمَانْ تُرْدِى ***tuman turdï*** – “tuman paydo bo‘ldi” (تُرُرْ ***turur***, تُرْمَاقْ ***turmaq***).

تُرُرْ ***turur*** – o‘tgan zamon shakli va masdar shakli yo‘q, kelasi zamon fe’lidir. (134a) U bog‘lama ma’nosidadir: اُلْ تَاشْ تُرُرْ ***ol taš turur*** – “u toshdir”; اُلْ قُشْ تُرُرْ ***ol quš turur*** – “u qushdir”. Bu bog‘lama – tamomlovchidir. Arabcha ينيغى (“yarashadi”) degan so‘zga to‘g‘ri keladi. Uning ham o‘tgan zamon va masdar shakli yo‘qdir.

[تُرْدِى *türdi*] اُلْ بِتِكْ تُرْدِى ***ol bitig türdi*** – “u yozuvli qog‘oz va boshqa narsalarni o‘rab tugdi, o‘radi” (تُرَارْ ***türär***, تُرْمَاكْ ***türmäk***).

[سَرْدِى *serdi*] الْ سَرْدِى ***ol serdi*** – “u bir ishda sabr qildi” (سَرَارْ ***serär***, سَرْمَاكْ ***sermäk***).

[سُرْدِى *sürdi*] اُلْ اَتْ سُرْدِى ***ol at sürdi*** – “u ot va boshqa jonzotlarni choptirdi”.

[سُرْدِى *sürdi*] اَرْ اِتِغْ سُرْدِى ***er ïtïγ sürdi*** – “kishi itini va boshqa narsalarni quvdi, haydadi”. Bek (biror) kishini shahardan surgun qilishiga ham سُرْدِى ***sürdi*** deyiladi (سُرَارْ ***sürär***, سُرْمَاكْ ***sürmäk***).

[قُرْدِى *qurdï*] خَانْ سُوسِنْ قُرْدِى ***xan süsin qurdï*** – “xon va bek qo‘shinini to‘pladi, tartibga soldi”.

[قُرْدِى *qurdï*] خَانْ جُوَاجْ قُرْدِى ***xan čuvač qurdï*** – “xon chodir qurdi, yoydi” (قُرَارْ ***qurar***, قُرْمَاقْ ***qurmaq***).

[قِرْدِى *qïrdï*] اَرْ يِيرِكْ قِرْدِى ***er yerig qïrdï*** – “kishi yerni va boshqa narsalarni qirdi” (قِرَارْ ***qïrar***, قِرْمَاقْ ***qïrmaq***).

[قُرْدِى *qurdï*] اَرْ يَا قُرْدِى ***er ya qurdï*** – “kishi yoy qurdi [otishga hozirladi]” (قُرَارْ ***qurar***, قُرْمَاقْ ***qurmaq***).

[كَرْدِي *kerdi*] اَرْ يِبْ كَرْدِي ***er yïp kerdi*** – “kishi ip va boshqa narsalarni kerdi, cho‘zdi”.

[كَرْدِى *kerdi*] بَكْ يُولْ كَرْدِى ***beg yol kerdi*** – “kishi bekning kelishi oldidan yo‘lni kengaytirdi”. Notanish kimsa o‘tmasin uchun, kuzatish joylariga kishilar qo‘yishdir. Bek yovdan qo‘rqqanda, bu ish qilinadi.

[كَرْدِى *kerdi*] اِتْ كَرْدِى ***ït kerdi*** – “it vovilladi” (qarluqcha) (كَرَارْ ***kerär***, كَرْمَاكْ ***kermäk***).

[كُرْدِى *kördi*] اُلْ مَنِى كُرْدِى ***ol meni kördi*** – “u meni ko‘rdi” (كُرَارْ ***körär***, كُرْمَاكْ ***körmäk***). Maqolda (shunday kelgan): يُوزْكَا كُرْمَا اَرْدَمْ تِلَا ***Yüzkä körmä, erδäm tilä.*** Ma’nosi: “Yuziga qarama, fazilatini [ilmini, axloqini] ista [tila]”.

[كِرْدِى *kirdi*] اُلْ اَفْكَا كِرْدِى ***ol ewkä kirdi*** – “u uyga va boshqa yerlarga kirdi” (كِرُرْ ***kirür***, كِرْمَاكْ ***kirmäk***).

ز z [harfi]:

[بَزْدِى *bezdi*] اَرْ تُمْلِغْدِنْ بَزْدِى ***er tumlïγdïn bezdi*** – “kishi sovuq va boshqa narsalardan bezdi, titradi” (بَزَارْ ***bezär***, بَزْمَاكْ ***bezmäk***). (134b)

[بُزْدِى *buzdï*] اُلْ اَفْ بُزْدِى ***ol ew buzdï*** – “u uy va boshqa narsalarni buzdi” (بُزَارْ ***buzar***, بُزْمَاقْ ***buzmaq***).

[تَزْدِی *tezdi*] كَيِكْ تَزْدِی ***keyik tezdi*** – “kiyik va boshqa hayvonlar qochdi” (تَزَارْ *tezär*, تَزْمَاكْ *tezmäk*).

[تُزْدِی *tüzdi*] بَكْ اِيلِنْ تُزْدِی ***beg elin tüzdi*** – “bek elini qurdi”.

[تُزْدِی *tüzdi*] اُلْ يِيرِكْ تُزْدِی ***ol yerig tüzdi*** – “u yerni va boshqa joylarni tekisladi” (تُزَارْ *tüzär*, تُزْمَاكْ *tüzmäk*).

[تِزْدِی *tizdi*] اُلْ سِنْجُو تِزْدِی ***ol yinčü tizdi*** – “u injuni tizdi”. Birov so‘z tuzsa, she’r yozsa ham, اُلْ سُوزْ تِزْدِی ***ol söz tizdi*** deyiladi (تِزَارْ *tizär*, تِزْمَاكْ *tizmäk*).

[جِڑْدِی *čïždï*] يَغِرْلِغْ اَتْ جِڑْدِی ***yayïrlïγ at čïždï*** – “yag‘ir ot minish oldida orqasini ayab tipirchiladi, pastlandi”. Har bir yag‘ir hayvon ham yuk ortmoqchi bo‘lganda shunday qiladi. Bu so‘z ikki jag‘ orasidagi ز *zā* bilan talaffuz etiladi (جِڑَارْ *čïžar*, جِڑْمَاقْ *čïžmaq*).

[جُڑْدِی *čöždi*] اُرَاغُتْ يِبْ جُڑْدِی ***uraγut yïp čöždi*** – “xotin ipni cho‘zdi”. Qo‘y ichagi, arqon kabi tortib cho‘zish mumkin bo‘lgan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘z ham ikki jag‘ orasidagi ز *zā* bilan aytiladi (جُڑَارْ *čöžär*, جُڑْمَاكْ *čöžmäk*).

[سُزْدِی *süzdi*] اُلْ سُوقْ سُزْدِی ***ol suw süzdi*** – “u suv va boshqa narsalarni suzdi, tinitdi” (سُزَارْ *süzär*, سُزْمَاكْ *süzmäk*).

[سِزْدِی *sïzdï*] يَاغْ سِزْدِی ***yaγ sïzdï*** – “yog‘ va boshqa narsalar eridi”.

[سِزْدِی *sïzdï*] (سِزْدِی؟) كُونْ سُزْدِی ***kün suzdï*** (*sïzdï?*) – “kun tig‘ urdi; kun ko‘rindi”.

[سِزْدِی *sïzdï*] سُكَالْ سِزْدِی ***sögäl sïzdï*** – “kasal ozdi, zaiflashdi” (سِزَارْ *sïzar*, سِزْمَاقْ *sïzmaq*).

[قَزْدِی *qazdï*] اَرْ اَرِقْ قَزْدِی ***er arïq qazdï*** – “kishi ariq va boshqa narsalarni qazidi”; اَتْ قَزْدِی ***at qazdï*** – “ot suvlug‘ini chaynab oldingi ikki oyoqlari bilan (turgan joyida) yer qazidi” (قَزَارْ *qazar*, قَزْمَاقْ *qazmaq*).

[كَزْدِی *kezdi*] اُلْ يِيرِكْ كَزْدِی ***ol yerig kezdi*** – “u yer yuzini kezdi” (كَزَارْ *kezär*, كَزْمَاكْ *kezmäk*).

س *s* [harfi]:

[بَسْدِی *basdï*] اَنِی بُرْتْ بَسْدِی ***anï burt basdï*** – “uni qora bosdi, bosinqiradi”.

[بَسْدِی *basdï*] بَكْ اِيلْ بَسْدِی ***beg el basdï*** – “bek xalqqa qora bosganday qahr qildi”. (135a)

[بَسْدِی *basdï*] بَكْنِی يَغِی بَسْدِی ***begni yaγï basdï*** – “bekni (kechasi) yov va boshqalar bosdi”.

[بَسْدِی *basdï*] اَرْ قِيزِغْ بَسْدِی ***er qïzïγ basdï*** – “er qizni bosdi, ustiga chiqdi”.

[بَسْدِی *basdï*] اِتْ كَيِكْنِی بَسْدِی ***ït keyikni basdï*** – “it kiyikni bosdi, yoqalashib, o‘ldirdi” (بَسَارْ *basar*, بَسْمَاقْ *basmaq*).

[بُسْدِي *püsdi*] اَرْ قُلِنْ بُسْدِي ***er qulïn püsdi*** – “kishi qulini rosa urdi” (بُسَارْ *püsär*, بُسْمَاكْ *püsmäk*).

[بُسْدِی *pusdï*] بَكْ يَغِيقَا بُسْدِی ***beg yaγïqa pusdï*** – “bek yovni poylab, pistirmaga bekindi” (بُسَارْ *pusar*, بُسْمَاقْ *pusmaq*).

[قُسْدِي ***qusdï***] اَرْ قُسْدِي ***er qusdï*** – “kishi va boshqalar qusdi” (قُسَارْ ***qusar***, قُسْمَاقْ ***qusmaq***).

[قُسْدِى ***qusdï***] بُدْغ قُسْدِى ***boδuγ qusdï*** – “bo‘yoq aynidi”.

[قِسْدِى ***qïsdï***] قَبُغْ اَنِكْ اَذاقِنْ قِسْدِى ***qapuγ anïŋ aδaqïn qïsdï*** – “eshik uning oyog‘ini qisdi”. Shuningdek, har bir narsani biror narsa qisishiga ham shu so‘z qo‘llanadi: اُلْ اَنِكْ تُونْلُقِنْ قِسْدِي ***ol anïŋ tonluqïn qïsdï*** – “u uning kiyimligidan qisib qoldi”. Har bir narsaning oharli holdan ko‘rimsiz holga keltirilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قِسَارْ ***qïsar***, قِسْمَاقْ ***qïsmaq***).

[كَسْدِى ***kesdi***] اُلْ يِغَاجْ كَسْدِى ***ol yïγač kesdi*** – “u yog‘och kesdi” (كَسَارْ ***kesär***, كَسْمَاكْ ***kesmäk***). Maqolda (shunday kelgan): اُيْغُرْ يِغَاجْ اُزُونْ كَسْ تَمُرْ قِسْغَا كَسْ ***Uyγur yïγač uzun kes, temür qïsγa kes.*** Ma’nosi: “Yog‘och kessang, uzun kes, temir kessang, qisqa kes, chunki temirni cho‘zsa bo‘ladi”.

Ularning bir jarchisi bor, har kun ularga (shu xil hikmatli so‘zlarni) aytib o‘rgatadi.

[كُسْدِى ***kösdi***] اُلْ اَنْدِنْ كُسْدِى ***ol andïn kösdi*** – “u undan koyidi, yuz o‘girdi” (o‘g‘uzcha) (كُسَارْ ***kösär***, كُسْمَاكْ ***kösmäk***).

ش *š* [harfi]:

[بُشْدُمْ ***pušdum***] مَنْ بُو اِيشْدِنْ بُشْدُمْ ***men bu ïšdïn pušdum*** – “men ishdan siqildim” (بُشْمَازْمَنْ ***pušmaz-men***, بُشْمَاقْ ***pušmaq***). Maqolda (shunday kelgan): بُشْمَسَارْ بُوزْ قُشْ تُتَارْ اِيقْمَسَارْ اُرُونكْ قُشْ تُتَار ***Pušmasar, boz quš tutar, ewmäsär, örüŋ quš tutar.*** Ma’nosi: “(Kishi) siqilmasa, bo‘z qushni tutadi, shoshmasa, eng yaxshi bozini – lochinni ovlaydi”. (135b) Bu maqol ishda kutilgan maqsadga yetishish uchun shoshilmaslikka, chidamli bo‘lishga undab aytiladi.

[بِشْدِى ***pïšdï***] اَشَجْ بِشْدِى ***ešäč*** (***ešič?***) ***pïšdï*** – “qozon yetildi – sho‘rva pishdi”.

[بِشْدِى ***pïšdï***] يَمِشْ بِشْدِى ***yemiš pïšdï*** – “meva pishdi”.

[بِشْدِى ***pïšdï***] اَرْ قِمِزْ بِشْدِى ***er qïmïz pïšdï*** – “kishi qimiz pishitdi”. Ya’ni, qimizni yetiltirish uchun pishitdi (بِشْمَازْ ***pïšmaz***, بِشْمَاقْ ***pïšmaq***).

[تَشْدِى ***tašdï***] اَشِجْ تَشْدِى ***ešič tašdï*** – “qozon qaynadi va toshdi”.

[تَشْدِي ***tašdï***] سُوفْ تَشْدِي ***suw tašdï*** – “suv ariqdan yoki idishdan toshdi” (تَشَارْ ***tašar***, تَشْمَاقْ ***tašmaq***).

[تُشْدِي ***tušdï***] اُلْ مَنكَا تُشْدِي ***ol meŋä tušdï*** – “u menga duch keldi, meni ko‘rdi” (تُشَارْ ***tušar***, تُشْمَاقْ ***tušmaq***).

[تُشْدِى ***tüšdi***] اَرْ اَتّنْ تُشْدِى ***er attïn tüšdi*** – “kishi otdan yiqilib tushdi”; اَرْ تَامْدِنْ تُشْدِى ***er tamdïn tüšdi*** – “kishi devordan tushdi”. Otdan tushishga ham shu so‘z qo‘llanadi. Har narsaning o‘z joyidan tushishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُشَارْ ***tüšär***, تُشْمَاكْ ***tüšmäk***).

(Shoir) shunday degan:

تَكْرَا اَلِبْ اَكْرَلِمْ ***Tegrä alïp egrälim,***
اَتّنْ تُشُبْ يُكْرَالِمْ ***Attïn tüšüp yügrälim.***

اَرسْلَنْ لَيُو كُكْرَلِمْ *Arslanlayu kökrälim,*
كُوچِى اَنِنْ كَقْلْسُونْ *Küči anïn kewilsün.*

Aytmoqdaki: “Tevarakni o‘rab olib, yov yo‘lini kesib qo‘yaylik. Otdan tushib, g‘azab bilan (yovga) hamla qilaylik. Arslonlardek na’ra tortaylik, bu harakatimizdan yov kuchi kesilib zaiflashsin”.

Maqolda (shunday kelgan): اِيڤْكْ سِنِكَاكْ سُوتْكَا تُشُورْ ***Ewäk siŋäk sütkä tüšür.*** Ma’nosi: “Shoshqaloq pashsha sutga tushadi (va g‘arq bo‘lib o‘ladi)”. Bu maqol ishda shoshmaslikka undab aytiladi.

[سَشْدِى ***sešdi***] اَرْ اَتّنْ كِشَنْ سَشْدِى ***er attïn kišän sešdi*** – “er otning tushovini yechdi”. Bog‘idan yechilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَشَارْ ***sešär,*** سَشْمَاكْ ***sešmäk***).

[قُشْدِى ***qošdï***] اُلْ قُويْقَا اَجْكُو قُشْدِى ***ol qoyqa ečkü qošdï*** – “u qo‘y (podasi)ga echkini qo‘shdi”. Har bir narsani boshqa bir narsaga qo‘shishga, bir-biriga hamroh qilinishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قُشْدِى ***qošdï***] اُلْ يِيرْ قُشْدِى ***ol yïr qošdï*** – “u yir (*yazal*), she’r (*še’r*) yozdi; she’r to‘qidi” (قُشَارْ ***qošar,*** قُشْمَاقْ ***qošmaq***).

غ *ɣ* [harfi]:

[بُغْدِي ***boɣdï***] اُلْ اَرْنِى بُغْدِي ***ol erni boɣdï*** (136a) – “u, kishi va boshqalarni bo‘g‘di” (بُغَارْ ***boɣar,*** بُغْمَاقْ ***boɣmaq***).

[تُغْدِى ***tuɣdï***] كُونْ تُغْدِى ***kün tuɣdï*** – “kun tug‘di; quyosh chiqdi”.

[تُغْدِى ***tuɣdï***] اُغُلْ تُغْدِى ***oɣul tuɣdï*** – “o‘g‘il tug‘ildi”. Maqolda (shunday kelgan): مُوشْ اُغْلِى مُيَاوْ تُغَارْ ***Muš oɣlï muyav tuɣar.*** Ma’nosi: “Mushukning bolasi onasiga o‘xshab miyovlaydi”. Bu maqol xulqi otasinikiga o‘xshagan bolaga nisbatan qo‘llanadi (تُغَارْ ***tuɣar,*** تُغْمَاقْ ***tuɣmaq***).

[تِغْدِى ***tïɣdï***] اُقْ بَشَقِنْ تَاشْ تِغْدِى ***oq bašaqïn taš tïɣdï*** – “tosh o‘qning o‘tkirligini kesdi, o‘tmas qildi, ketkizdi, ya’ni damini qaytardi” (تِغَارْ ***tïɣar,*** تِغْمَاقْ ***tïɣmaq***).

[چِغْدِى ***čïɣdï***] اُلْ تُرْكَاكْ چِغْدِى ***ol türgäk čïɣdï*** – “u kiyim va boshqa narsalarni bir orqa qilib yig‘ib bog‘ladi” (چِغَارْ ***čïɣar,*** چِغْمَاقْ ***čïɣmaq***).

[سَغْدِى ***saɣdï***] اَرْ قُوىْ سَغْدِى ***er qoy saɣdï*** – “kishi qo‘y va boshqa jonivorlarni sog‘di” (سَغَارْ ***saɣar,*** سَغْمَاقْ ***saɣmaq***).

[سُغْدِى ***suɣdï***] اُلْ قُوىْ دَنْ قُرُتْ سُغْدِى ***ol qoydan qurut suɣdï*** – “u qo‘y sutidan qurt oldi, qildi”. Bu so‘zning asli سُغُرْدِى ***suɣurdï*** dir (سُغَارْ ***suɣar,*** سُغْمَاقْ ***suɣmaq***).

[سِغْدِى ***sïɣdï***] بُو سُوزْ كُنكُلْكَا سِغْدِى ***bu söz könülkä sïɣdï*** – “bu so‘z ko‘ngilga sig‘di, ta’sir qildi”.

[سِغْدِى ***sïɣdï***] اُونْ قَابْقَا سِغْدِى ***un qapqa sïɣdï*** – “un qopga sig‘di”. Boshqa narsalar uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (سِغَارْ ***sïɣar,*** سِغْمَاقْ ***sïɣmaq***).

ڤ *w* [harfi]:

[تَڤْدِى ***tewdi***] اُلْ اَتِكْ سِيشْقَا تَڤْدِى ***ol etig sïšqa tewdi*** – “u go‘shtni six va boshqa narsalarga tizdi, sixga tortdi” (تَڤَارْ ***tewär,*** تَڤْمَاكْ ***tewmäk***).

[سَقْدِی *sewdi*] اُلْ مَنِی سَقْدِی ***ol meni sewdi*** – “u meni sevdi” (سَقْارْ ***sewär,*** سَقْمَاکْ ***sewmäk***). Maqolda (shunday kelgan): تَیْغَان یُکُرْکَنَی تِلْکُو سَقْمَاسْ ***Tayγan yügürgänni tilkü sewmäs.*** Ma’nosi: “Yugurik (chopqir) tozini tulki sevmaydi”. Chunki tozi tulkini oladi. Bu maqolni zamondoshlari orasida ilmli bo‘lib, ularning hasad va dushmanliklariga duchor bo‘lgan kishiga qarata aytiladi.

[قُقْدِی ***quwdï***] اِتْ کَیِکْنی قُقْدِی ***ït keyikni quwdï*** – “it kiyikni quvdi”. Orqasidan quvilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (136b) (قُقْارْ ***quwar,*** قُقْمَاقْ ***quwmaq***).

[کَقْدِی ***kewdi***] اَرْ سُوزُکْ کَقْدِی ***er sözüg kewdi*** – “kishi tutilib, chaynalib so‘zladi”. Asli: تَنْجُونِی کَقْدِی ***tančunï kewdi*** (“luqmani chaynadi, uni yutmadi”) degan iboradan oligan (کَقْارْ ***kewär,*** کَقْمَاکْ ***kewmäk***).

ق ***q*** [harfi]:

[بَقْدِی ***baqdï***] اُلْ مَنکَا بَقْدِی ***ol meŋä baqdï*** – “u menga boqdi, qaradi” (بَقَارْ ***baqar,*** بَقْمَاقْ ***baqmaq***).

[بُقْدِی ***buqdï***] اُلْ اَذاقِنْ بُقْدِی ***ol aδaqïn buqdï*** – “u oyog‘ini bukdi, yig‘ib, buklab o‘tirdi” (بُقَارْ ***buqar,*** بُقْمَاقْ ***buqmaq***).

[تِقْدِی ***tïqdï***] اُلْ قَابْقَا اُونْ تِقْدِی ***ol qapqa un tïqdï*** – “u qopga un tiqdi”. Idishga tiqib solingan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi. G‘ujumlari tig‘iz, tiqiq va siqilishib turadigan uzum boshiga تِقْمَا اُزُمْ ***tïqma üzüm*** (“g‘uj uzum”) deyiladi.

[تَقْدِی ***taqdï***] اَرْ بُرُنْدُقْ بُتْلُوقَا تَقْدِی ***er burunduq butluqa taqdï*** – “tuya burnining yumshoq joyiga burunduq taqdi, bog‘ladi” (o‘g‘uzcha). Har bir narsani biror narsa bilan bog‘lashga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَقَارْ ***taqar,*** تَقْمَاقْ ***taqmaq***).

[جَقْدِی ***čaqdï***] اُلْ سُوزُکْ اَنِکْ قُلَاقَّا جَقْدِی ***ol sözüg anïŋ qulaqqa čaqdï*** – “u so‘zni uning qulog‘iga eshittirdi” (o‘g‘uzcha).

[جَقْدِی ***čaqdï***] اُلْ اِکّی کِشِی اَرَا جَقْدِی ***ol ikki kiši ara čaqdï*** – “u ikki kishining orasini buzdi”.

[جَقْدِی ***čaqdï***] اُلْ جَقْمَاقْ جَقْدِی ***ol čaqmaq čaqdï*** – “u chaqmoq chaqdi” (جَقَارْ ***čaqar,*** جَقْمَاقْ ***čaqmaq***). جَقْمَاقْ ***čaqmaq*** so‘zi ham masdar, ham ismdir.

[جُقْدِی ***čoqdï***] قُشْ جُقْدِی ***quš čoqdï*** – “qush tashlandi” (جُقَارْ ***čoqar,*** جُقْمَاقْ ***čoqmaq***).

(Shoir) shunday degan:

اَرَنْ قَمُغْ اَرْتَدِي نَانکْ لَرْ اُدُو ***Erän qamuγ artadï näŋlär uδu,***
تَقَارْ کُرُبْ اُسُنْ لَیُو اَسْ کَا جُقَارْ ***Tawar körüp usunlayu eskä čoqar.***

Aytmoqdaki: “Boylikka ta’ma qilib, suqlanib kishilarning axloqi buzildi. Molni ko‘rgach, nasr qushi [ya’ni, qirg‘iy] o‘limtik ustiga otilgani kabi mol ustiga otildilar”. (137a)

[جِقْتِی ***čïqtï***] اَرْ اَقدِنْ جِقْتِی ***er ewdin čïqtï*** – “kishi uydan va boshqa yerdan chiqdi”. Maqolda (shunday kelgan): کُوجْ اَلْدِین کِرْسَا تُرُو تُنکُلْکْ تَن جِقَارْ ***Küč eldin kirsä, törü tüŋlüktän čïqar.*** Ma’nosi: “Zulm eshikdan kirsa, insof tuynukdan chiqadi”.

[سُقْدُمْ *suqdum*] مَنْ اَنِی اَفکَا سُقْدُمْ ***men anï ewkä suqdum*** – “men uni va boshqani uyga kiritdim”. Sopni boltaga o‘rnatish kabi bir narsani ikkinchisiga qattiq, mahkam joylashtirishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[سُقْدِی *soqdï*] اَرْ تُوزْ سُقْدِی ***er tuz soqdï*** – “kishi tuz va boshqa narsalarni maydaladi”.

[سُقْدی *soqdï*] قُشْ مَنکْ سُقْدِی ***quš meŋ soqdï*** – “qush donni cho‘qidi”.

[سُقْدِی *soqdï*] اَنِی یِلَانْ سُقْدِی ***anï yïlan soqdï*** – “uni ilon chaqdi” (o‘g‘uzcha) (سُقَارْ *soqar*, سُقْمَاقْ *soqmaq*).

[سِقْدِی *sïqdï*] اُلْ اُزُمْ سِقْدِی ***ol üzüm sïqdï*** – “u uzum va boshqa ho‘l mevalarni siqdi” (سِقَارْ *sïqar*, سِقْمَاقْ *sïqmaq*).

ک *k* [harfi]:

[بُکْدِی *bükdi*] اُلْ مَنِی کُرُبْ بُکْدِی ***ol meni körüp bükdi*** – “u meni ko‘rgach, yerga engashib bukildi”.

[بُکْدِی *bökdi*] اُلْ اَشْدِنْ بُکْدِی ***ol ašdïn bökdi*** – “u oshga bo‘kib qolar darajada to‘ydi”. Shuningdek, اُلْ تَقْرْقَا بُکْدِی ***ol tawarqa bökdi*** deyiladi, ya’ni “uning ko‘zi molga va boshqa narsaga to‘ydi” demakdir (بُکَارْ ***bökär***, بُکْمَاکْ ***bökmäk***).

[بُکْدِی *bögdi*] اُلْ سُوقغْ بُکْدِی ***ol suwuɣ bögdi*** – “u suvni bo‘g‘ib, to‘xtatib qo‘ydi, to‘pladi”. Shuningdek, بَکْ سُوسِنْ بُکْدِی ***beg süsin bögdi*** – “bek askarini yig‘di (بُکَارْ ***bögär***, بُکْمَاکْ ***bögmäk***). Har vaqt ko‘p askarni suvga o‘xshatilishini bilib ol; chunonchi, suv oqsa, سُوفْ اَقْتِی ***suw aqtï*** deyiladi, qo‘shin yursa, سُو اَقْتِی ***sü aqtï*** deyiladi.

[تُکْدِی *tökdi*] اُغْلَانْ سُوفْ تُکْدِی ***oɣlan suw tökdi*** – “bola suv to‘kdi”. Maqolda (shunday kelgan): اُغْلَانْ سُوفْ تُکَارْ اُلُغْ یَانِی سِنُورْ ***Oɣlan suw tökär, uluɣ yanï sïnur.*** Ma’nosi: “Bola suv to‘kadi, undan kattalarning oyog‘i sinadi”. (137b) Bu maqol yoshlar qilgan kamchilik uchun kattalar zarar ko‘rishiga urg‘ulab aytiladi.

[تَکْدِی *tegdi*] اُلْ اَفکَا تَکْدِی ***ol ewkä tegdi*** – “u uyga va boshqa joyga yetdi” (تَکِیرْ ***tegir***, تَکْمَاکْ ***tegmäk***): Maqolda (shunday kelgan): اِیفْکْ اَفکَا تَکْمَاسْ ***Ewäk ewkä tegmäs.*** Ma’nosi: “Shoshgan kishi uyiga yeta olmaydi”. Chunki u yurishda otini tez choptirib charchatib qo‘yadi, so‘ng armonda qoladi. Ishda shoshma-shosharlik qilmaslikka undab aytilgan.

(Shoir) shunday degan:

اَتْغَلِرْ اُقْنِی اَزَاقْ *Atɣalïr oqnï azaq,*
تَکْمَدِی بُوسَاقْ اُشَاقْ *Tegmädi bu saw ušaq.*

Aytmoqdaki: “Menga bu malomat yetmas edimi, (ustiga ustak) bu sho‘x qiz menga o‘q otmoq istaydi”.

[تُکْدِی *tügdi*] اَرْ تُکُونْ تُکْدِی ***er tügün tügdi*** – “kishi tugun va boshqa narsalarni tugdi” (تُکَارْ ***tügär***, تُکْمَاکْ ***tügmäk***). Maqolda (shunday kelgan): تِلِنْ تُکْمِشْنِی تِیشِنْ یَزْمَاسْ ***Tilin tügmišni tišin yazmas.*** Ma’nosi: “Til bilan bog‘langanni tish bilan yechib bo‘lmas”. Bu maqolni va’daga vafo qilishga undab aytiladi.

[تِكْدِى *tikdi*] اَرْ تُونْ تِكْدِى ***er ton tikdi*** – “kishi kiyim tikdi”.

[تِكْتِى *tikti*] اَتِغْ يِلَانْ تِكْتِى ***atïγ yïlan tikti*** – “otni va boshqa narsani ilon chaqdi”. Chayon chaqishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[تِكْدِى *tikdi*] اَرْ يِغَاجْ تِكْدِى ***er yïγač tikdi*** – “kishi daraxt va boshqa narsalarni tikdi, o‘tqazdi”. Tik qilib qo‘yilgan har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِكَارْ *tikär*, تِكْمَاكْ *tikmäk*). Maqolda (shunday kelgan): تِكْمَاكِنْجَا اُنْمَاسْ تِلَامَكِنْجَا بُلْمَاسْ ***Tikmägінčä ünmäs, tilämägінčä bulmas.*** Ma’nosi: “Ekilmaguncha – daraxt o‘tqazilmaguncha, hosil unmaydi, (biror maqsad ketidan yurib) istalmaguncha, topilmaydi, qo‘lga kirmaydi”. Bu maqol “ishda maqsadga erishish uchun tirishmoq kerak” degan ma’noda qo‘llanadi.

[جَكْدِى *čekdi*] اُلْ بِتِكْ جَكْدِى ***ol bitig čekdi*** – “u xatga nuqta qo‘ydi”.

[جَكْدِى *čekdi*] اُلْ اَتِنْ جَكْدِى ***ol atïn čekdi*** – “u otning tomiridan qon oldi” (138a) (جَكَارْ *čekär*, جَكْمَاكْ *čekmäk*).

[جُكْدِى *čökdi*] اُلْ بَكْكَا جُكْدِى ***ol begkä čökdi*** – “u bek va boshqalarning oldida tiz cho‘kdi”.

[جُكْدِى *čökdi*] تَقَّىْ جُكْدِى ***tewäy čökdi*** – “tuya cho‘kdi”.

[جُكْدِى *čökdi*] تَمُرْ سُقْدَا جُكْدِى ***temür suwda čökdi*** – “temir va boshqa narsalar suvda cho‘kdi” (جُكَارْ *čökär*, جُكْمَاكْ *čökmäk*).

[جَكْدِى *čekdi*] اُلْ تَرْكَاكْ بَاغِنْ جَكْدِى ***ol tergäk bayïn čekdi*** – “u bo‘g‘cha va boshqa narsalarning bog‘ini bog‘ladi” (جَكَارْ *čekär*, جَكْمَاكْ *čekmäk*).

[سُكْتِى *sökti*] اُلْ يَمَاغْ سُكْتِى ***ol yamaγ sökti*** – “u yamoqni kiyimdan so‘kib bo‘ldi”.

[سُكْتِى *sökti*] اُلْ اَوِنْ سُكْتِى ***ol ewin sökti*** – “u uyini (chodirini) so‘kdi (buzdi)”.

[سُكْتِى *sökti*] اُلْ بَكْكَا سُكْتِى ***ol begkä sökti*** – “u bek va boshqalar oldida tiz cho‘kdi”; سُكَا اُلْتُرْ ***sökä oltur*** (“cho‘kka tushib o‘tir”) so‘zi ham shundan olingan (سُكَارْ *sökär*, سُكْمَاكْ *sökmäk*).

[سِكْتِى *sikti*] اَرْ اُرَاغُتْنِى سِكْتِى ***er urayutnï sikti*** – “er xotinini sikdi” (سِكَارْ *sikär*, سِكْمَاكْ *sikmäk*).

ل ***l*** [harfi]:

[بُلْدِى *buldï*] اُلْ يَرْمَاقْ بُلْدِى ***ol yarmaq buldï*** – “u tanga va boshqa narsa topdi” (بُلُورْ *bulur*, بُلْمَاقْ *bulmaq*).

[بِلْدِى *bildi*] اُلْ بِلِكْ بِلْدِى ***ol bilig bildi*** – “u ilm, hikmat va boshqa narsalarni bildi” (بِلِيرْ *bilir*, بِلْمَاكْ *bilmäk*). Arg‘ular *vāv* [ü] bilan بِلُورْ ***bilür*** tarzida talaffuz qiladilar, bu boshqalar talaffuziga to‘g‘ri kelmaydi.

[تَلْدِى *teldi*] اَرْ تَامْ تَلْدِى ***er tam teldi*** – “kishi devor va boshqa narsalarni teshdi”.

[تَلْدِى *teldi*] اُلْ اُغْلَاقِغْ سَغْلِقَا تَلْدِى ***ol oγlaqïγ sayïqqa teldi*** – “u uloqni emizish uchun sovluqqa qo‘shdi”. Bu ona echkining suti kamayib qolganda yoki echki o‘lib, uloq yoki qo‘zi yetim qolganda ko‘riladigan choradir (تَلِيرْ *telir*, تَلْمَاكْ *telmäk*).

[تُلْدِي *tuldï*] اَرْ تُبِقْنِى اَذْرِى بِلَا تُلْدِي ***er torïqnï aδrï bilä tuldï*** – “er koptokni ayri bilan urdi”. Bu turklarga xos o‘yinning bir turi bo‘lib, o‘yinchilar o‘yinning oldin

o‘zidan boshlanishini istasa, u koptokni shunday ayri bilan uradi. (138b) Koptokni kim qattiq ursa, o‘yin o‘sha kishidan boshlanadi (chillak urish, (dasta) o‘yinda ham تُلْدِى ***tuldï*** deyiladi (تُلَارْ ***tular***, تُلْمَاقْ ***tulmaq***).

[تِلْدِى ***tildi***] اَرْ يِرِنْدَاقْ تِلْدِى ***er yarïndaq tildi*** – “kishi charmdan qayish qirqib oldi”. Uzunasiga tilingan har bir narsa uchun ham bu so‘z qo‘llanadi (تِلَارْ ***tilär***, تِلْمَكْ ***tilmäk***).

[جَلْدِى ***čaldï***] اُلْ اَنِى جَلْدِى ***ol anï čaldï*** – “u uni chalib yiqitdi”.

[جَلْدِى ***čaldï***] اُلْ سُوزُكْ مَنِكْ قُلَاقّا جَلْدِى ***ol sözüg meniŋ qulaqqa čaldï*** – “u so‘zni mening qulog‘imga eshittirdi”. Maqolda (shunday kelgan): جَقْسَا تُتْنُورْ جَلْسَا بِلْنُورْ ***Čaqsa, tutnur, čalsa, bilnür.*** Ma’nosi: “Chaqmoq tosh chaqilsa, olov tutadi, so‘z eshitilsa, maqsad bilinadi”.

[جَلْدِى ***čaldï***] تُونُغْ تَاشْ اُوزَا جَلْدِى ***tonuγ taš üzä čaldï*** – “kir yuvuvchi kiyimni toshga urdi”.

(Shoir) shunday degan:

اِتِمْ تُوتُبْ قُذِى جَلْدِى ***Ïtïm tutup quδï čaldï,***
اَنِكْ تُوسِنْ قِرَا يُلْدِى ***Anïŋ tüsin qïra yuldï.***
بَشِنْ اَلِبْ قُذِى سَلْدِى ***Bašïn alïp quδï saldï,***
بُغْزْ اَلِبْ تُكَلْ بُغْدِى ***Boγuz alïp tügäl boγdï.***

Itni ta’riflab aytmoqda: “Itim (bo‘rini) tutib, yerga yiqitdi, yunglarini yuldi, orqasiga ag‘dardi va tomog‘idan tishlab, rosa bo‘g‘di” (جَقْمَاقْ ***čaqmaq***, جَقَارْ ***čaqar***).

[سَلْدِى ***saldï***] اُلْ مَنكَا تُونِنْ سَلْدِى ***ol meŋä tonïn saldï*** – “u menga kiyimi bilan yaltirab ko‘rindi”. Kishi ikki qo‘li bilan uzoqdan ishorat qilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi[1].

[سَلْدِى ***saldï***] اُلْ مَنكَا كِشِى دَا اَلتُنْ سَلْدِى ***ol meŋä kišidä altun saldi*** – “u menga bir kishidan oltin chiqarib yubordi”.

[سَلْدِي ***saldï***] سُوقْ يِغَاجِغْ سَلْدِي ***suw yïγačïγ saldï*** – “suv yog‘och va boshqa narsalarni to‘pladi” (سَلَارْ ***salar***, سَلْمَاقْ ***salmaq***).

[قَلْدِى ***qaldï***] اَرْ كِيذِنْ قَلْدِى ***er keδin qaldï*** – “er keyinda qoldi”.

[قَلْدِى ***qaldï***] اُلْ اُيُونْ دَا قَلْدِى ***ol oyunda qaldï*** – “u garovda qoldi”. Qolgan va tashlangan har bir narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi. Maqolda (shunday kelgan):اِيلْ قَلْدِى تُرُو قَلْمَاسْ ***El qaldï, törü qalmas.*** Ma’nosi: “Shahar tashlanar, rasmi tashlanmas”. Bu maqol kishi taomilga qarab ish qilishiga undab aytiladi (139a) (قَلِيرْ ***qalïr***, قَلْمَاقْ ***qalmaq***).

[قُلْدِى ***quldï***] مَنْدِنْ نَانكْ قُولْدِى اُلْ ***ol mendin näŋ quldï*** – “u mendan narsa so‘radi” (قُلُورْ ***qulur***, قُلْمَاقْ ***qulmaq***).

[قِلْدِى ***qïldï***] اَرْ اِيشْ قِلْدِى ***er iš qïldï*** – “kishi ish qildi”.

[1] Qo‘lyozmada bu jumla “suv yog‘och va boshqa narsalarni to‘pladi”dan keyin kelgan. Lekin biz mazmuniga qarab shu yerga ko‘chirdik.

[قِلْدِى *qïldï*] اَرْ قِيزِغْ قِلْدِى ***er qïzïγ qïldï*** – “kishi qizni jimo qildi”. Bu so‘z erkak bilan xotin aloqasi ma’nosida qo‘llangani uchun, o‘g‘uzlar bir ish qilganlarida bu so‘zdan qochish maqsadida uni qo‘llamaydilar. Buning o‘rnida اِيتّى ***etti*** so‘zini qo‘llaydilar. Chunonchi, اَرْ يُكُنْجْ اِيتّى ***er yükünč etti*** – “kishi namoz o‘qidi” deydilar. Turklar قِلدِى ***qïldï*** so‘zini qo‘llaydilar (قِلُورْ ***qïlur***,قِلْمَاقْ ***qïlmaq***).

[كَلْدِى ***keldi***] اَرْ اَقْكَا كَلْدِى ***er ewkä keldi*** – “kishi uy va boshqa yerga keldi” (كَلِيرْ ***kelir***, كَلْمَاكْ ***kelmäk***). Maqolda (shunday kelgan): بِيرْ قَرْغَا بِرْلَا قِشْ كَلْمَاسْ ***Bir qarγa birlä qïš kelmäs.*** Ma’nosi: “Bir qarg‘a bilan qish kelmaydi”. Bu maqol ishga yordam berishi mo‘ljallangan do‘stining kelishini kutishda hovliqmaslik, sabr qilib ishlashga undab so‘zlanadi.

[كُلْدِى ***küldi***] اَرْ كُلْدِى ***er küldi*** – “kishi va boshqalar kuldi” (كُلَارْ ***külär***, كُلْمَاكْ ***külmäk***).

(Shoir) shunday degan:

كُلْسَا كِشِى اَتْمَا اَنـكَرْ اُرْتَرْ كُلَا ***Külsä kiši atma aŋar örtär külä,***
بَقّلْ اَنـكَرْ اَدْكُولُـكُنْ اَغْزِنْ كُلَا ***Baqqïl aŋar eδgülügün aγzïn külä.***

Aytmoqdaki: “Kishini o‘zingga kulib qaragan holda ko‘rsang, ya’ni birov senga kulib boqsa, sen uning yuziga kuydiradigan issiq kul sochma, sen ham kulib boq, ya’ni yaxshilikka yaxshilik qil”.

م ***m*** [harfi]:

[تَمْدِى ***tamdï***] سُوڤْ تَمْدِى ***suw tamdï*** – “suv va boshqa narsalar tomdi” (تَمَارْ ***tamar***, تَمّاقْ ***tammaq***).

[جُمْدِى ***čomdï***] اُغْلَانْ سُڤْدَا جُمْدِى ***oγlan suwda čomdï*** – “bola suvda cho‘mdi” (جُمَارْ ***čomar***, جُمّاقْ ***čommaq***).

[جُمْدِى ***čömdï***] اُرْدَكْ سُڤْقَا جُمْدِى ***ördäk suwqa čömdi*** – “o‘rdak suvga qattiq sho‘ng‘idi” (جُمَارْ ***čömär***, جُمّاكْ ***čömmäk***).

Bu so‘zning masdari *kāf* bilan, avvalgisining masdar shakli *qāf* bilan edi. Oralaridagi ma’no farqi bilinishi kerak.

[قَمْدِى ***qamdï***] اُلْ اَنِى قَمْدِى ***ol anï qamdï*** – “u uni shuncha qattiq urdiki, urib yarador qildi, o‘ldirdi” (قَمَارْ ***qamar***, قَمّاقْ ***qammaq***).

[قُمْدِى ***qumdï***] سُوڤْ قُمْدِى ***suw qumdï*** (139b) – “suv mavjlandi” (قُمَارْ ***qumar***, قُمّاقْ ***qummaq***).

[كُمْدِى ***kömdi***] اُلْ اُلْكْنِى كُمْدِى ***ol ölügni kömdi*** – “u o‘likni va boshqa narsani ko‘mdi” (كُمَارْ ***kömär***, كُمّاكْ ***kömmäk***). كُوزْمَانْ كُومْدِى ***közmän kömdi*** – “ko‘moch nonni (kulga) ko‘mdi”.

ن ***n*** [harfi]:

[بَنْدِى ***bandï***] قُوىْ بَنْدِى ***qoy bandï*** – “qo‘y bog‘landi”. Bog‘ich bilan bog‘langan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi. *nūn* harfi *lām* bilan almashgandir (بَانِرْ ***banïr***, بَنْمَاقْ ***banmaq***).

[تُنْدِى ***tundï***] كُوكْ تُنْدِى ***kök tundï*** – “ko‘k bulutlandi”.

[تُنْدِی ***tundï***] قَبُغْ تُنْدِی ***qapuγ tundï*** – “eshik yopildi”. Tog‘ beli qor bilan qoplanganda اَرتْ تُنْدِی ***art tundï*** deyiladi (تُنُورْ ***tunur***, تُنَارْ ***tunar***, تُنْمَاقْ ***tunmaq***). Bu xil fe’llarning kelasi zamon shaklini o‘g‘uz va qipchoqlar *alif* bilan تُنَار ***tunar*** shaklida qo‘llaydilar.

[تِنْدِی ***tïndï***] يَغْمُرْ تِنْدِی ***yaγmur tïndï*** – “yomg‘ir tindi”.

[تِنْدِی ***tïndï***] اَرْ اُلُغْ تِنْدِی ***er uluγ tïndï*** – “kishi yaxshi dam oldi”.

[تِنْدِی ***tïndï***] اَرُقْ تِنْدِی ***aruq tïndï*** – “horigan (kishi) tindi” (تِنَارْ ***tïnar***, تِنْمَاقْ ***tïnmaq***). O‘g‘uzlar birovni so‘zlashdan qaytarmoq istaganlarida تِنْمَا ***tïnma*** deydilar. Bu teskari(ma’noda)dir, ya’ni “tinma” demakdir. Boshqa turklar تِنْ ***tïn*** deydilar, ya’ni “so‘zlama” demakdir. O‘g‘uzlarning تِنْمَا ***tïnma*** deyishlari “so‘zlama” degan ma’noni anglatadi. O‘g‘uzlar bunda xato qilganlar.

[سَنْدِی ***sandï***] اُلْ اَرْ خَيلْ بِلَا سَنْدِی ***ol er xayl bilä sandï*** – “u kishi otliqlar to‘dasidan sanaldi”. Boshqa bir narsadan sanalgan biror narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi (سَانُرْ ***sanur***, سَنْمَاقْ ***sanmaq***). Maqolda (shunday kelgan): بَارِغْ اُترُو تُتْسَا يُوقَّا سَنْمَاسْ ***Barïγ otru tutsa, yoqqa sanmas.*** Ma’nosi: “Bor narsani mehmonga tutilsa, mehmon yo‘qqa sanamas”.

[سُنْدِی ***sundï***] اُلْ مَنكْا اَتْمَاكْ سُنْدِی ***ol meŋä etmäk sundï*** – “u menga non va boshqa narsalarni berdi, uzatdi” (سُنَارْ ***sunar***, سُنْمَاقْ ***sunmaq***).

[سِنْدِی ***sïndï***] يِغَاجْ سِنْدِی ***yïγač sïndï*** – “yog‘och sindi”; سُو سِنْدِی ***sü sïndï*** – “qo‘shin yengildi” (سِنُورْ ***sïnur***, سِنْمَاقْ ***sïnmaq***). سِنَارْ ***sïnar*** shakli ham bor. (140a)

[قُنْدِی ***qundï***] اُغرِی تَقَارْ قُنْدِی ***oγrï tawar qundï*** – “o‘g‘ri molni tortib oldi”.

(Shoir) shunday degan:

كِچِكْ بُلُبْ يَاغِنِی يِرْكُو اَمَاسْ ***Kičig bulup yaγïnï yergü emäs,***
اَدَكُرْمَذِبْ قُذْسَا اَنِی اِيلْنِی قُنَارْ ***Eδgürmäδip qoδsa anï elni qunar.***

Aytmoqdaki: “Yov kichik bo‘lsa ham, nazarga ilmaslik yaxshi emas, uni nazarga ilmay, mensimay qo‘yilsa, u shaharni sendan tortib oladi”(قُنَار ***qunar***, قُنْمَاقْ ***qunmaq***).

[كُنْدِی ***köndï***] يِغَاجْ كُنْدِی ***yïγač köndi*** – “yog‘och va boshqalar tiklandi”.

[كُنْدِی ***köndï***] اُغْرِی كُنْدِی ***oγrï köndi*** – “o‘g‘ri o‘g‘riligiga iqror bo‘ldi”. Har kimsaning tongan narsasiga iqror bo‘lishiga ham bu so‘z qo‘llanadi.

[كُنْدِی ***köndi***] اَرْ يُولْقَا كُنْدِی ***er yolqa köndi*** – “kishi yo‘lga chiqdi, yo‘lga tushdi”.

[كُنْدِی ***kündi***] اُتْنكْ كُنْدِی ***otuŋ kündi*** – “o‘tin kuydi”. Bu arg‘ular so‘zidir. Arg‘ular *yā* ni *nūn* ga almashtiradilar.

[كُنْدِی ***köndi***] تُسُونْ اَتْ كُنْدِی ***tosun at köndi*** – “o‘ynoqi sho‘x ot tindi”. Badhollikdan tuzalib, yo‘lga tushgan har narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi (كُنَارْ ***könär***, كُنْمَاكْ ***könmäk***).

[مَنْدِی ***mandï***] اَرْ تُلُمْ مَنْدِی ***er tolum mandï*** – “er jang kiyimlarini kiydi”; / اَرْ اَتْمَاكْ اُتْمَاكْ سِرْكَكَا مَنْدِی ***er etmäk / ötmäk sirkäkä mandï*** – “kishi nonni sirkaga surdi”.

Biror narsani ikkinchisiga aralashtirib xushxo‘r qilishga ham bu so‘z qo‘llanadi (مَنَارْ ***manar***, مَنْمَاقْ ***manmaq***).

[مُنْدِى ***mundï***] قَرِى اَرْ مُنْدِى ***qarï er mundï*** – “qari kishi va boshqalar aljiradi, aqldan ozdi” (مُنَارْ ***munar***, مُنْمَاقْ ***munmaq***).

[مُنْدِى ***mündi***] اَرْ اَتْ مُنْدِى ***er at mündi*** – “kishi ot va boshqa ulovga mindi” (مُنَارْ ***münär***, مُنْمَاكْ ***münmäk***).

Qoidalar, fe’llarning tuslanishi va sifatlar bayoni hamda qiyoslanish o‘rinlari

Tangrining yordami bilan aytaman: Fe’llarning yasalishida o‘tgan zamon fe’li va buyruq shakli asosdir, dedim. Chunki o‘tgan zamon fe’lining bosh harfi *maftūḥ* (*alif* li) bo‘lsa, kelasi zamon fe’li ham, masdar ham *maftūḥ* (*alif* li) bo‘ladi. (140b) Uning bosh harfi marfu’ (لَا *lā* li) bo‘lsa, o‘tgan zamon fe’li ham, masdar ham لَا *lā* li bo‘ladi. O‘tgan zamon fe’lining bosh harfi *yā* [*i, ī*] li bo‘lsa, ular ham *yā* [*i, ī*] li bo‘ladi. Chunonchi, bosh harfi *alif* [*a*] li: بَرْدِى ***bardï*** o‘tgan zamon fe’lining kelasi zamon shakli ham *alif* [*a*] li: بَرِرْ ***barïr***, yoki bosh harfi *vāv* [*u*] li: تُرْدِى ***turdï*** o‘tgan zamon fe’lining kelasi zamon fe’li ham *vāv* [*u*] li تُرُرْ ***turur*** dir, masdari ham *vāv* [*u*] li تُرْمَاقْ ***turmaq*** dir. يِنْجُو تِزْدِى ***yinčü tizdi*** – “injuni ipga tizdi” iborasidagi o‘tgan zamon fe’li تِزْدِى ***tizdi*** ning birinchi harfi *tā kasra* li bo‘lgani uchun, uning kelasi zamon shakli ham *kasra* li تِزَار ***tizär*** dir va masdarida ham *tā kasra* li: تِزْمَاكْ ***tizmäk*** dir.

Arab tilida fe’llarning o‘tgan zamon shakli kelasi zamon va masdar shakllaridan farq qiladi. Fe’lning o‘tgan zamon shaklidagi birinchi harf *qāf* قَعدَ *qa’ada* tarzida *fatḥa* li bo‘lsa, kelasi zamon shaklida u *qāf* harfi يَقعُدُ *yaq’udu* tarzida *sukun* li bo‘ladi. Masdar shaklida esa قُعُوداً *qu’udan* tarzida *qāf* [*q*] *ẓamma* bilan keladi. O‘tgan zamon fe’li *alif* li bo‘lgan مَطَرَ *matara* fe’lining *mīm* harfi, kelasi zamon fe’lida يَمطُرُ *yamturu* da *sukun* (ه) li, masdari مُطوراً *muturan* da *ẓamma* li dir. Demak, o‘tgan zamon shaklidagi *fatḥa* va kelasi zamon shaklidagi *sukun* masdar shaklidagi *ẓamma* ga aylanadi. Harf orttirilgan fe’l darajalarida ham ahvol shunday. Chunonchi, darajalari o‘tgan zamon fe’lidagi bosh harf اَكرَمَ *akrama* da *fatḥa* [*a*] li bo‘lsa, يُكْرِمُ *yükrimu* kelasi zamon fe’lida bosh harf *yā ẓamma* lidir. يَستَغفِرُ اِستِغفاراً da ham xuddi shundaydir. (141a) Arab tilida hamma fe’llarda ham o‘tgan, kelasi zamon shakllari va masdarlar bir-biriga mos kelmaydi. Turkiy tillarda bunday emas. Turk tillarida ikki, uch, to‘rt, besh harf va undan ortiq harfli fe’llarning o‘tgan, kelasi zamon shakllari va masdarlarining hammasida moslik bo‘ladi. O‘tgan zamon fe’lini asos deyishimda ikkinchi dalil shukim, harflarning takrorlanish xususiyati faqat o‘tgan zamon fe’llaridagina bo‘ladi. Kelasi zamon va masdarda bu xususiyat bo‘lmaydi.

Uchinchi, ishlovchini bildiruvchi sifat اِسم فاعِلْ *ismi fā’il* lar o‘g‘uz, qipchoq, yamak, yag‘mo, arg‘ular va suvorlardan pechanaklargacha bo‘lgan ko‘ch-

manchilar tilida o‘tgan zamon fe’lidan tuziladi. Chunonchi, ular o‘tgan zamon fe’li بَرْدِی ***bardï*** dan بَرْدَچِی ***bardačï*** tarzida ishlovchini anglatuvchi sifat yasaydilar.

O‘tgan zamon fe’l yasovchi qo‘shimcha *dāl* bilan orasiga ج *čīm* qo‘shib,تُرْدِی ***turdï*** dan تُرْدَچِی ***turdačï*** qilib tuzadilar. Butun fe’llarda qoida shu xildadir.

Biz yuqorida fe’llarning yasalishida buyruq fe’li asos qilib olinadi deganimizning boisi shundaki, ko‘pchilik turkiy qabilalar, chunonchi, chigillar va boshqalar tilida ishlovchini bildiruvchi sifatlar buyruqdan yasaladi. Shu bilan birga, turli maqsadlar bilan fe’llarga qo‘shiluvchi fe’l yasovchilarning hammasi buyruqqa qo‘shiladi. Ularni biz, Xudo xohlasa, quyida bayon qilamiz.

Shuni bilish zarurkim, fe’lning o‘tgan zamon shakli hamma fe’llarda (fe’llarning o‘zak va negiz shakllariga) *dāl* va *yā* (دی *-dï, -di*) qo‘shilib yasaladi, hech yerda o‘zgarmaydi. O‘tgan zamon fe’lini yasovchi *dāl* jarangsiz ب *pā* (الپا الصلبة), jarangsiz *tā*, jarangsiz چ *čīm* (التا و الچیم الصلبة), jarangsiz *kāf* (الکاف الصلبة) bilan qo‘shilganda *dāl tā* ga almashadi. (141b) Chunonchi, تَبْتِی ***tepti*** – “tepdi”; تُتّی ***tuttï*** – “oldi”; قَجْتِی ***qačtï*** – “qochdi”; تَفْی جُکْتِی ***teŵäy čökti*** – “tuya cho‘kdi” kabi. O‘zidan so‘nggi *dāl* ni *tā* ga aylantirishda *qāf* ham *kāf* ga o‘xshaydi. Chunonchi, اُلْ مَنکَا بَقْتِی ***ol meŋä baqtï*** kabi.

Bu *dāl* ni jarangsiz *tā* ga (تاء الصلبة) almashtirish, u harflarning maxrajlari jarangsiz bo‘lgani uchundir. Bularning asli *dāl* dir, yuqoridagi harflarga qo‘shilganda *tā* ravishda talaffuz qilish yaxshiroqdir. Har qanday fe’l boblarida va fe’l turlarida ham asos shudir.

Kelasi zamon fe’li barcha fe’l turlarida ham *rā* qo‘shib yasaladi. O‘zak oxiri *rā* bilan bitgan so‘zlarda *rā* takrorlanadi. Biri asl *rā* bo‘ladi, ikkinchisi kelasi zamon fe’lini yasovchi *rā* bo‘ladi. Kelasi zamon fe’llaridagi *rā* harfi arab tilida kelasi zamon fe’li belgisi sifatida qo‘llanuvchi *alif*, *tā*, *nūn*, *yā* harflari vazifasidadir. Agar fe’l o‘zagida *rā* bo‘lmasa, u vaqt kelasi zamon fe’lining belgisi sifatida fe’lga bir *rā* orttiriladi.

Kelasi zamon fe’li va buyruq shaklini yasash qoidasi: o‘tgan zamon fe’lida *dāl* harfidan oldin *rā* harfi bo‘lsa, u qoldirilib, o‘tgan zamon fe’li qo‘shimchasi دی *-dï, -di* tushiriladi, bir *rā* harfi orttiriladi. Buyruqda ham qoida shu. O‘tgan zamon fe’lini yasaydigan دی *-dï, -di* tushirilgach, o‘zakdagi *rā* harakatsiz qoladi. O‘zak tarkibida bor bo‘lgan harflarga kelasi zamon fe’li qo‘shimchasi sifatida bir *rā* qo‘shiladi. Agar o‘tgan zamon fe’lida yoki buyruqda *rā* bo‘lmasa, kelasi zamon fe’li qo‘shimchasi sifatida o‘zak tarkibida bo‘lmagan bir *rā* harfi orttiriladi. Chunonchi, بَرْدِی ***bardï*** o‘tgan zamon fe’lida دی *-dï* qo‘shimchasidan oldin *rā* bordir. (142a) Bu fe’lning buyrug‘i بَرْ ***bar*** bo‘lib, qo‘shimcha tashlangach, o‘zak oxirida *rā* qoladi. Bu *rā* o‘zakning o‘zida bor harfdir. Shu o‘zakdan kelasi zamon fe’li yasash uchun yana bir *rā* orttiriladi: اُلْ بَرِیرْ ***ol barïr*** kabi. اُلْ تُرْدِی ***ol turdï*** gapidagi تُرْدِی ***turdï*** fe’li ham shundaydir. Bu fe’lning buyrug‘i تُرْ ***tur*** bo‘lib, uning kelasi zamon shakli تُرُرْ ***turur*** bo‘ladi: اُلْ یُقَارُو تُرُرْ ***ol yuqaru turur***. Bu fe’lda ikkita *rā* bor: biri o‘zakniki, ikkinchisi kelasi zamon fe’li

qo‘shimchasi. O‘g‘uzlar ixchamlashtirish uchun bularning birini ko‘p fe’llarda tashlaydilar. Buyruq shakllarida bo‘lgani kabi kelasi zamon shaklini ham bir *rā* bilan qo‘llaydilar. Bu ham yaxshi emas, ham qoidaga xilofdir. O‘zakda *rā* harfi bo‘lmagan كَلْدِى ***keldi*** fe’lining buyrug‘i كَلْ ***kel*** dir. Buning kelasi zamon shakli كَلِرْ ***kelir*** dir. كُلْدِى اَرْ ***küldi er*** gapidagi كُلْدِى ***küldi*** fe’li ham o‘zagida *rā* harfi yo‘q bo‘lib, kelasi zamon fe’li yasash uchun *rā* orttirib (كُلُر ***külür***) tarzida yasalgan fe’lga misoldir. O‘zakda *rā* harfi bo‘lmagan fe’llarda o‘g‘uzlar turklarga ergashadilar. Bu qoida uch harfli, to‘rt harfli va undan ortiq harfli fe’llarning hammasida umumiydir.

Turkiy tillarda fe’llar qurilishi arab tilidagi fe’llar tuzilishiga o‘xshaydi. Chunonchi, o‘tgan zamon fe’lida فَعْلى, kelasi zamon fe’lida فَعِلُ, masdarda فَعلانُ shaklidadir. بَرْدِى ***bardï*** so‘zi arabchaning عَقرا va حَلْقى so‘zlariga mosdir. (142b) Kelasi zamon fe’li بَرِرْ ***barïr*** so‘zi arabcha نَمِرٌ رَجِلٌ بَكِرٌ so‘zlariga mos keladi. بَرْمَاقْ ***barmaq*** masdari arabcha اَلْقَرْ قافَ وَالْخَلْخالُ so‘zlariga mosdir. Bu tilda *mujarrad* yoki *mazid* fe’llarining hammasi shu xildadir.

Ikki harflilar deb ko‘rsatilgan fe’llarni talaffuzda to‘liq, cho‘ziq o‘qilishiga asoslanib, uch harflilarga kiritish mumkin. Chunonchi, بَرْدِى deyish mumkin bo‘lganidek, بَارْدِى deyish ham mumkin. Shuningdek, تُرْدِى ham, تُورْدِى ham mumkindir. Bu hol faqat o‘tgan zamon fe’llaridagina voqe bo‘lishi mumkindir. Kelasi zamon fe’li va masdarlarda mumkin emas. Bu hol ismlarda o‘zakning aslida bo‘lmagan cho‘ziq unlilarni orttirish, qisqartirish mumkin bo‘lgan holatga o‘xshaydi. Chunonchi, يِغَاجْ deyish ham mumkin, يَغَجْ deyish ham mumkin, تَنُوقْ deyish ham mumkin; تَنُقْ deyish ham mumkin. Lekin ismlarda ham, fe’llarda ham shaklda qisqalik, aytilishda qattiqlik yaxshi va to‘g‘ridir.

Masdarlar hamma fe’llarda bir xildir. O‘zagida *qāf*, *ɣayn* harflari bo‘lgan yoki talaffuzda to‘liq aytiladigan so‘zlarda *mīm, alif, qāf* (مَاقْ -*maq*) qo‘shib yasaladi. O‘zagida *kāf* harfi bo‘lgan yoki ingichka (ركيكة) talaffuz qilinadigan so‘zlarda مَاكْ -*mäk* qo‘shib yasaladi.

qāf li so‘zlar misoli: اُلْ يَا قُرْدِى ***ol ya qurdï*** gapidagi قُرْدِى ***qurdï*** fe’lining masdari قُرْمَاقْ ***qurmaq***, kelasi zamon shakli قُرَارْ ***qurar*** bo‘ladi. Bu masdar مَاق -*maq* qo‘shib yasalgan, chunki so‘z o‘zagida *qāf* bordir. *ɣayn* li so‘zga misol:اُلْ سُوتْ سَغْدِى ***ol süt saɣdï*** gapidagi سَغْدِى ***saɣdï*** fe’lining masdari (مَاقْ -*maq* bilan) سَغْمَاقْ ***saɣmaq*** dir. Chunki bu fe’l o‘zagida *ɣayn* harfi bor (سَغَارْ ***saɣar,*** سَغْمَاق ***saɣmaq***). Yo‘g‘on talaffuzli so‘zlarga (الكلمة المشبعة) misol: (143a) اَرْ بَرْدِى ***er bardï*** gapidagi بَرْدِى ***bardï*** fe’lining masdari ham بَرْمَاقْ ***barmaq*** dir, chunki bu fe’l yo‘g‘on talaffuz qilinadigan so‘zlar(الكلمة المشبعة)dandir (بِرِرْ ***barïr,*** بَرمَاق ***barmaq***). تُرْدِى ***turdï*** ham shunday (تُرُرْ ***turur,*** تُرمَاق ***turmaq***). *kāf* li so‘zga misol: كَلْدِى ***keldi*** fe’lining masdari كَلْمَاكْ ***kelmäk*** dir. Jarangli *kāf* [g] li (الكاف الركيكه) so‘zlar ham jarangsiz *kāf* li (الصلبه) kabidir. Chunonchi, اُلْ مَنِى اُكْدِى ***ol meni ögdi*** gapidagi اُكْدِى ***ögdi*** fe’lining masdari ham اُكْمَاكْ ***ögmäk*** dir. So‘zning boshida jarangli *kāf* (الكاف الركيكه) kelganda ham masdar jarangsiz *kāf* bilan (بكاف صلبة) ishlatiladi.

Chunonchi, اَرْ تَلِمْ سَرْدِی ***er telim serdi*** gapidagi سَرْدِی ***serdi*** fe'lining masdari سَرْمَاکْ ***sermäk*** dir, chunki bu so'z ingichka talaffuz qilinuvchi so'zlar (الكلمة الركيكة) dandir, بَکْ اَنِی سَرْدِی ***beg anï serdi*** (سَرَرْ ***serär,*** سَرْمَاکْ ***sermäk***); اَرْ بِتِکْ تُرْدِی ***er bitig türdi*** – "kishi xatni bukladi, o'radi" gapidagi تُرْدِی ***türdi*** fe'li ham ingichka talaffuz qilinuvchi (الكلمة الركيكة) so'zlardan bo'lgani uchun uning masdari ham تُرْمَاکْ ***türmäk*** dir. اُلْ يَرْمَاقْ تِرْدی ***ol yarmaq terdi*** – "u tanga-pul to'pladi" gapidagi تِرْدی ***terdi*** fe'li ham ingichka talaffyz qilinuvchi تِرَرْ ***terär*** fe'lidir. Buning masdari ham ingichka تِرْمَاکْ ***termäk*** shaklidir. Shuningdek, اَتْ سُرْدِی ***at sürdi*** – "ot surdi" gapidagi سُرْدِی ***sürdi*** fe'lining masdari ham ingichka سُرمَاک ***sürmäk*** shaklidadir. Bu qoida hamma fe'llarda, har qanday fe'l bir xil qo'llanuvchi qat'iy qoidalar. Biror fe'l turi bundan chetga chiqmaydi. Masdarda مَاقْ *-maq* yoki مَاکْ *-mäk* qo'llashda uning tarkibida *qāf* yoki *kāf* borligiga e'tibor berilib, ana shu misollarga qiyos qilib bilinadi. Bular asosiy masdarlar jumlasidandir. (143b)

Masdarlarning yana bir turi sof fe'l shakliga ishlovchi shaxs ma'nosini anglatuvchi qo'shimcha qo'shish orqali yasaladi. Bu xil masdar shakllari otlar turkumidagi so'zlar kabi ot o'rnida qo'llanadi. Bular fe'l o'zagiga yo'g'on so'zlarda قِی *-qï*, غی *-gï*, ingichka tovushli so'zlarda کِی *-ki, -gi* qo'shimchalarining qo'shilishi bilan yasaladi. O'zak buyruq ma'nosini anglatishi aniqdir. اُولْ بَرِغ بَرْدِی ***ol barïγ bardï*** – "u bora borguncha biror narsaga to'xtamay tik bordi"; اَنِکْ اِيشْ سُکَلْ تِنِغِی اُرتَقْ قِلِغِی بِلْکُولُکْ ***anïŋ iš qïlïγï belgülüg*** – "uning ishi, fe'li ma'lum"; ***sögäl tïnïγï ortaq*** – "kasalning nafas olishi yomon, og'ir". Bu gapdagi تِنِغِی ***tïnïγï*** fe'li اَرْ اُلُغْ تِنْدِی ***er uluγ tïndï*** – "kishi chuqur nafas oldi" gapidagi تِنْدِی ***tïndï*** fe'lidan olingandir. Yana مَنِکْ يُرِقِمْ نَتَکْ ***meniŋ yorïqïm netäg?*** – "mening yo'rig'im (holim) qanday?"; سَنِکْ يُرِقِنکْ نَتَکْ ***seniŋ yorïqïŋ netäg?*** – "sening yo'rig'ing qanday?"; اَنِکْ يُرِقِی نَتَکْ ***anïŋ yorïqï netäg?*** – "uning yo'rig'i qanday?" kabi. Bu gaplardagi يُرِقِی ***yorïqï*** so'zi يُرِيدِی ***yorïdï*** fe'lidan izofa natijasida yasalgan masdardir. يُرِيدِی ***yorïdï*** o'zagida *qāf* yo'qdir. Bu so'zdagi *qāf* izofa natijasida orttirilgan. *yayn* harfiga *qāf* qo'shilib, masdar yasaluvchi so'zlarda qo'llanadi. Bu xil masdarlarning yasalish qoidasi o'tgan zamon fe'lidan دِی *-dï, -di* tashlanishi natijasida hosil bo'lgan o'zak – buyruqdir.

qāf bo'lmagan so'zlardan bu xil yasama masdar *kāf* qo'shilib yasaladi: اَنِکْ يَرْمَاقْ تِيرِکِی کُورْ ***anïŋ yarmaq terigi kör*** – "uning pul yig'ishini ko'r". Maqolda (shunday kelgan): تَازْ کَلِکِی بُرکْجِيکَا ***Taz keligi börkčikä.*** Ma'nosi: "Kalning kelish joyi do'ppifurushning do'konidir" kabi. (144a) Bu maqolda o'ziga zarur narsadan kechgan kishi haqida so'zlanadi. Bu iboradagi کَلِکِی ***keligi*** masdarining asli کَلْدِی ***keldi*** dir. Bu so'zning ma'nosi o'zgartirilib, masdar yasovchi *kāf* qo'shilgan. Shu mazmunli so'zlarda *yayn* o'rnida *qāf* qo'llanmaydi. Faqat *yayn* qo'shilishi mumkin bo'lmagan joylardagina *qāf* qo'llanadi. Bu *qāf* o'tgan zamon fe'l qo'shimchasi bo'lgan *dāl* bilan *yā* orasiga kiradi va *muḍā'af* masdarga aylanadi. *kāf* harfi esa yuqorida aytilgan so'zlarda qo'llanadi. اَنِکْ بَرْدُقِی بَرْمَادُقِی بِير ***anïŋ barduqï-barmaduqï bir*** gapidagi بَرْدُقْ ***barduq,*** بَرْمَادُقْ ***barmaduq*** so'zlari

bardï بَرْدِى fe’lidan yasalgan bo‘lishli, bo‘lishsiz masdarlardir: Shuningdek, ***meniŋ turduqum-turmaduqum bir*** مَنِڭ تُرْدُقُمْ تُرْمَادُقُمْ بِيرْ – “mening turgan-turmaganim bir” iborasidagi ***turduq,*** تُرْدُقْ ***turmaduq*** تُرْمَادُقْ so‘zlari ham ***turdï*** تُرْدِى fe’lidan yasalgan bo‘lishli va bo‘lishsiz masdarlardir. Bu misollarda *yayn* qo‘llanilishiga o‘rin yo‘q. Chunki ***turduqï*** تُرْدُقِى o‘rnida ***turduγï*** تُرْدُغِى deyish mumkin emas. Shuningdek, ***meniŋ barduqum-barmaduqum*** مَنڭ بَرْدُقُمْ بَرْمَادُقُمْ kabi qo‘llash mumkin emas. Bu yer *yayn* ning o‘rni emasdir. ***anïŋ keldüki-kelmädüki bir*** اَنِڭ كَلْدُكِى كَلْمَادُكِى بِيرْ – “uning kelish-kelmasligi bir” gapidagi ***keldük*** كَلْدُكْ, ***kelmädük*** كَلْمَادُكْ so‘zlari *kāf* qo‘shilib yasalgan masdarlardir va yana ***seniŋ kördükiŋ-körmädüküŋ bir*** سَنِڭ كُرْدُكِنِكْ كُرْمَادُكِنِكْ بِيرْ – “sening ko‘rish-ko‘rmasliging bir” deganda ham shunday. Bu xil masdarlarni men ismlar bobida ham, fe’llar bobida ham zikr qilmayman. Chunki bu yerdagi qoidani o‘zlashtiruvchilarga boshqa hamma yerda bu xil masdarlarni tushunish qiyin bo‘lmaydi. Bu qoida hamma so‘z turlari: *mujarrad* va *mazid* larda, *muḍā’af* so‘zlarda, cho‘zg‘i harflari bo‘lgan-bo‘lmagan fe’llarning hammasida bir xilda qat’iydir.

(144b) Bu bobning (fe’l shaklining) buyrug‘i ikki harflidir. Shuning uchun bu bob ikki harfli deb yuritiladi. ***bar*** بَرْ, ***kel*** كَلْ buyruq fe’llari kabi. Ko‘p turklar buyruq fe’lining tinglovchi shaklida *qāf* kelsa yoki umuman yo‘g‘on talaffuzli (المشبعه) so‘zlarda hamda buyruq oxirida *yayn* kelganda غِلْ *-γïl*, قِلْ *-qïl*, ingichka so‘zlarda (الركيكة) va o‘zagida *kāf* harfi bo‘lgan so‘zlarda كِلْ *-kil*, *-gil* orttirib qo‘llaydilar. Bu holda ikki harflilar to‘rt harfli, uch harflilar besh harfli, to‘rt harfli olti harfli boblardan sanaladi. Chunonchi, ***barγïl*** بَرْغِلْ, ***turγïl*** تُرْغِلْ kabi. Bu so‘zlar yo‘g‘on (كلمة مشبعه) bo‘lgani uchun غِلْ *-γïl* qo‘shilgandir.

Oxiri *yayn* bilan tugagan fe’llarning buyruq shakllarida قِلْ *-qïl* qo‘shiladi: ***tayqa ayqïl***; تَاغْقَا اَغْقِلْ ***süt sayqïl*** سُوتْ سَغْقِلْ kabi. O‘zakda *kāf* harfi bo‘lgan so‘zlarda كِلْ *-gil* ko‘shiladi: ***ewkä kirgil*** اَفْكَا كِرْكِلْ – “uyga kirgin”; ***yarmaq tergil*** يَرْمَاقْ تِرْكِلْ – “tanga-pul yiqqin”; bu misollarda ikki harfli fe’llar to‘rt harfliga ko‘chgan. ***yük kötür*** يُوكْ كُتُرْ – “yuk ko‘tar”; ***tam ötür*** تَامْ اُتُرْ – “devor tesh” gaplaridagi ***kötür*** كُتُرْ, ***ötür*** اُتُرْ uch harfli fe’llardir.

Bular ***kötürgil*** كُتُرْكِلْ, ***ötürgil*** اُتُرْكِلْ shakllarida qo‘llanib, uch harflilar besh harfliga qo‘chgandir. ***at suwγar*** اَتْ سُقْغَرْ – “otni sug‘ar”; ***meni uδγur*** مَنِى اُذْغُرْ – “meni uyg‘at” gaplaridagi ***suwγar,*** سُقْغَرْ ***uδγur*** اُذْغُرْ fe’llari to‘rt harfli fe’llardir. Buyrug‘i ***uδγurγïl*** اُذْغُرْغِلْ, ***suwγarγïl*** سُقْغَرْغِلْ shaklida qo‘llanadi. Bu olti harfli buyruqlar bobiga kiradi.

Buyruq oxiriga غِلْ *-γïl,* قِلْ *-qïl*, كِلْ *-gil* qo‘shish tinglovchi birlikda bo‘lgandagina mumkin. Tinglovchi ikkita yoki ortiq bo‘lsa, bu qo‘shimchalarni qo‘shib bo‘lmaydi. Ikkilik va ko‘plik farqsiz, bir xildir. (145a) Muzakkar, muannas shakllari ham o‘zaro farq qilinmaydi, bir xil shaklda qo‘llanadi. Birlik uchun ***bar*** بَرْ, ikkilik uchun ***barïŋlar ikigü*** بَرِينْكْلَارْ اِكِيكُو (“ikkovlashib boring”), ko‘pchilik uchun ***barïŋlar qamuγ*** بَرِينْكْلَارْ قَمُغْ (“boringlar hammang”) deydilar. Tinglovchi yoshi katta, hurmatli bo‘lsa (yolg‘iz bo‘lsa ham), hurmat yuzasidan

ko‘plik shakli qo‘llanib, بَرِنكْ ***barïŋ*** deyiladi. Aslida buning ma’nosi “boringlar” demakdir.

O‘g‘uz va qipchoqlar birlikda بَرْ ***bar,*** ko‘plikda بَرِنكْ ***barïŋ*** deydilar. Ular ko‘plik qo‘shimchasi لَارْ *-lär, -lar* ni tushirib qoldiradilar; لَارْ *-lar, -lär* o‘rniga tinglovchi birligida نكِز *-(ï)ŋïz, -(i)ŋiz* qo‘llaydilar. Hurmat uchun bir kishiga ham *-zā* orttiradilar, ular tilida bir kishiga nisbatan ham ko‘plik ustiga ko‘plik qo‘llanadi.

(Shoir) shunday degan:

اَقلَبْ مَنِى قُيْمَنكِزْ	***Awlap meni qoymaŋïz,***
اَيِقْ اَيِبْ قَيْمَنكِزْ	***Ayïq ayïp qaymaŋïz.***
اَقَرْ كُزُمْ اُشْ تَنكِزْ	***Aqar közüm-uš teŋiz,***
تَكْرَا يُرَا قُشْ اُجَارْ	***Tegrä yürä quš učar.***

Seviklisiga aytmoqda: “Meni ovlab o‘zingizga asir qilganingizdan keyin, xo‘rlab tashlab qo‘ymangiz, va’daga vafo qilingiz, dengiz suvi yanglig‘ ko‘z yoshlarim daryoday oqayotir. Axir ko‘z yoshlarim atrofida qushlar uchib yuribdi”.

Bu hol tinglovchi shaxsidagina qo‘llanadi, so‘zlovchi va o‘zga shaxslarda bo‘lmaydi. Chunki *γunna* li *kāf* (كْ *-ŋ*) harfi (كاف الغنة) tinglovchi shaxsiga nisbatangina qo‘llanadi. Chunonchi, بَرْدِنكْ ***bardïŋ,*** كَلْدِنكْ ***keldiŋ*** kabi. Bu buyruq shakli emas, tinglovchi ishidan xabar berishdir. O‘tgan zamon fe’li بَرْدِنكْ ***bardïŋ*** shakli bilan buyruq shakli بَرِنكْ ***barïŋ*** shaklining bir-biridan farqi aniq. Shuning uchun bu ikki shaklning oxirida bir xil *γunna* li *kāf* harfining kelishi zararsiz.

O‘tgan zamon fe’lining qo‘shimchasi دى *-dï, -di* so‘zlovchi, tinglovchi, o‘zga shaxslarda har vaqt shu ravishda *yā* [*-ï*] lidir: بَرْدِمْ ***bardïm,*** بَرْدِنكْ ***bardïŋ,*** بَرْدِى ***bardï*** kabi. بَرْدِم ***bardïm*** da *mīm* harfi ish-harakat so‘zlovchi tomonidan bajarilganini bildiruvchi belgidir. بَرْدِنكْ ***bardïŋ*** dagi (145b) *γunna* li *kāf* (كاف الغنة) tinglovchining, بَرْدِى ***bardï*** dagi *yā* [*-ï*] o‘zgani bildiruvchi belgi (qo‘shimcha)dir.

Turklar hurmatli kishilarga nisbatan, garchi u kishi yolg‘iz bo‘lsa ham, بَرْدِنكِزْ ***bardïŋïz*** deydilar. Holbuki, نكِز *-(ï)ŋïz* aslida ko‘plikni bildiruvchi qo‘shimchadir. O‘g‘uzlar buni faqat ko‘plikda qo‘llaydilar: بَرْدِنكِزْ ***bardïŋïz*** – “hammangiz bordingiz” demakdir. Bu yerda o‘g‘uzlar talaffuzi qoidaga muvofiq bo‘lsa ham, turklarnikida iboratorolik, fasohat, katta-kichikni farq qilish kabi go‘zallik bordir. دِى *-dï, -di* hamma yerda ko‘rsatganimizdek *yā* [*ï*] li bo‘ladi. Bu qoida har bir fe’lda, har bir bo‘limda va hamma turklarda umumiydir.

Bu bobda va boshqa boblarda foil [ishlovchini bildiradigan sifatdosh] shakli har xil maqsadlar uchun besh xilda qo‘llanadi: fe’llardan yasaluvchi so‘z turlari hamma qabilalarda bir xil bo‘lsa ham, ish-harakatning bajaruvchisini bildiruvchi sifatdosh shakli qabilalar tilida har xildir. Hamma har xil tarzda farqli qo‘llovchi

birinchi shakl ishlovchi mazmunini anglatuvchi foil shaklidir: بَرْدَچِی ***bardačï*** – “boruvchi”, تُرْدَچِی ***turdačï*** – “turuvchi” kabi. Bunda sifatdosh o‘tgan zamon fe’lidan yasalgandir. O‘tgan zamon fe’l shaklini yasovchi دِی *-dï, -di* qo‘shimchasi *dāl* bilan *yā* [*ï*] orasiga ج *čīm* orttirilib yasaladi. Bu o‘g‘uz, qipchoq, yag-‘mo, ug‘raq, suvarin, pechanak, to رُوس *rus* largacha bo‘lganlar tiliga xos. (146a) Bu qoidaga muvofiqdir. Chunki بَرْدِی ***bardï*** fe’lida *dāl* o‘tgan zamon fe’lining qo‘shimchasidir. *yā* [*ï*] o‘zgalik belgisidir. Tinglovchi, so‘zlovchilarda *yā* [*ï*] ning tushishi shuni ko‘rsatadi: بَرْدِنگْ ***bardïŋ,*** بَرْدِمْ ***bardïm*** deyilgandagi kabi.

Holbuki, *dāl* o‘tgan zamon belgisi bo‘lgani uchun ham har birida saqlanadi. Ma’lum bo‘ladiki, بَرْدَچِی ***bardačï*** shaklida ج *čīm* bilan *yā* [*ï*] foil ishlovchilik qo‘shimchasidir. Bu *yā* [*ï*] o‘tgan zamondan xabar beruvchi *yā* [*ï*] emas, demak, bu *yā* [*ï*] nisbat va sifatni bildiradi: اَتْچِی ***etči*** – “qassob”, اَتْمَكْچِی ***etmäkči*** – “novvoy” kabi.

Ismlarga ج *čīm* va *yā* (چی *-čï, -či*) qo‘shib, hunar egasi ismlari yasashda hamma qavmlar ittifoqdirlar, bunda farq qilmaydilar. Chunonchi, تَرِغْ ***tarïγ*** – “don”, تَرِغْچِی ***tarïγčï*** – “don ekuvchi”; اَتَكْ ***etük*** - “etik”, اَتَكْچِی ***etükči*** – “etik tikuvchi” kabi bo‘lib, ularda ism yasovchi qo‘shimcha bilan, ya’ni چِی *-čï, -či* ekani aniqdir.

بَرْدَچِی ***bardačï*** (“boruvchi”), تُرْدَچِی ***turdačï*** (“turuvchi”) so‘zlari ham fe’ldan yasalgan sifatdosh shaklidir. Yuqoridagilar ismlardan yasalgan sifatdoshlardir. Hammasida (ism va fe’llarda) bir xil bo‘lishi yaxshi edi.

Bu qoida *qāf* li, *kāf* li, yo‘g‘on talaffuz etiluvchi (المشبعة) va boshqa xil so‘zlarda ham bir xil farqsizdir.

Chigil, koshg‘ar, balasag‘un, arg‘u, barsg‘an, uyg‘ur va Yuqori صِين *Ṣīn* gacha bo‘lgan qabilalarning hammasi shu ma’nodagi ishlovchini bildiruvchi sifatdoshlarni buyruqdan yasaydilar. O‘tgan zamon fe’li qo‘shimchasi دِی *di* o‘rniga *qāf, γayn* harflari bor yoki yo‘g‘on (مشبعة) talaffuz qilinuvchi so‘zlarda *γayn,* bundan boshqa ingichka so‘zlarda jarangli *kāf* [*g*] (الكاف الركيكه) qo‘shiladi. (146b) ج *čīm* va *yā* o‘z holida qoladi. Bular tilida بَرْ ***bar*** – buyruq. بَرْغُوچِی ***barγučï*** – ishlovchi sifatdoshdir. تُرْ ***tur*** buyrug‘ining sifatdosh shakli تُرْغُوچِی ***turγučï*** shaklidir, *qāf* li so‘zlarda يَا قُرْغُوچِی ***ya qurγučï*** – “yoy quruvchi”; تَقَارْ قَبْغُوچِی ***tawar qapγučï*** – “molni o‘g‘irlovchi”; اَتْ سُقْغَرْغُوچِی ***at suwγarγučï*** – “ot sug‘aruvchi”; مَنِی اُدْغُورْچِی ***meni uδγurčï*** – “meni uyg‘atuvchi” kabi. Tarkibida *γayn* harfi bo‘lgan ikki harfli so‘zlarda *γayn* harfi *qāf* ga aylanadi. Chunki bunday so‘zlarda bir xil maxrajli ikki bo‘g‘iz harfi birlashadi. Har ikkisini ayrim-ayrim talaffuz qilish og‘ir bo‘lgani uchun shu og‘irlikdan qochib, singdirib so‘zlanadi. Masalan: تَاغْقَا اَغْقُوچِی ***taγqa aγqučï*** va قُویْ سَغْقُوچِی ***qoy saγqučï*** kabi. Buyruq shaklida ham qoida shudir. Buyruq shakli oxiri *γayn* bilan bitgan so‘zlarda ham *γayn qāf* bilan almashtiriladi. Chunki تَاغْقَا اَغْقِلْ ***taγqa aγqïl*** (“toqqa chiqqin”); سُوتْ سَغْقِلْ ***süt saγqïl*** (“sut sog‘gin”) kabi so‘zlarda ham qoida shudir.

Tarkibida *kāf* harfi bor so‘zlarda o‘tgan zamon fe’li qo‘shimchasi *dāl* o‘rniga jarangli *kāf* [*g*] (كاف ركيكه) qo‘shiladi. Chunonchi, اَرْ كُلْكُوچِى ***külgüči er*** – “kuladigan kishi”; اَفْكَا كِرْكُوچِى ***ewkä kirgüči*** – “uyga kiradigan kishi” kabi. Ingichka talaffuz qilinadigan so‘zlarda (الكلمة الممالة) ham shunday. Chunonchi, يَرمَاق تِيركُوچِى ***yarmaq tergüči*** – “tanga-pul yig‘uvchi”; اَتْ سُرْكُوچِى ***at sürgüči*** – “ot haydovchi, chopuvchi” kabi.

Qoida o‘g‘uzlar va yuqorida o‘g‘uzlar bilan birga so‘zlangan qabilalar tiliga muvofiqdir. Ularning so‘zlari oldin ko‘rsatilgan tartibdadir.

(147a) “Qiz quda va kuyov qudalar orasidagi sovchi” ma’nosidagi يُرِغْچِى ***yorïγčï*** va تَرِغْچِى ***tarïγčï*** (“dehqon”) so‘zlarida o‘g‘uzlar turklarga ergashadilar. Bu so‘zlarni ular ham يُرِيدَچِى ***yorïdačï***, تَرِيدَچِى ***tarïdačï*** demay, يُرِغْچِى ***yorïγčï***, تَرِغْچِى ***tarïγčï*** deydilar. Hamma tillarda ham shunday. Bu sifatlarni buyruqdan yasaganda, buyruq oxiridagi harf harakatsiz, sokin bo‘lsa, oxirgi harfga bir unli tovush orttiradilar: بَرُچِى ***baručï*** – “boruvchi”, تُرُچِى ***turučï*** – “turuvchi” kabi.

Chunki بَر ***bar*** buyrug‘i oxiriga biror qo‘shimcha qo‘shilsa, *-rā* harakat belgisini oladi. Buyruqlik holidan o‘zgaradi. Shuning uchun yo‘g‘on so‘zlarda *yayn*, ingichka talaffuzli so‘zlarda *kāf* [*g*] qo‘shish zarur bo‘lgan.

Bu xil sifat hamma boblarda, hamma qabilalarda ham bir xil, farqsiz qo‘llanib kelingan. Bu xil sifatlarda shu maqsad uchun faqat *yayn, kāf* harflarini orttirish masalasiga kelsak, bu harflar *muḍā’af* bo‘lib kelgan masdarlarda ham qo‘llanishiga mosdir. Chunonchi: اَنِكْ تُرُغِى نَتَكْ ***anïŋ turuγï netäg*** (“uning holati qanday?”), تَازْ كَلِكِى بُرْكْچِيكَا ***taz keligi börkčikä*** (“kalning keladigan joyi do‘ppifurush do‘koni”) gaplaridagi تُرُغِى va كَلِكِى so‘zlari kabi. Ba’zan foil masdarlar bilan sifatlanadi: رَجُلٌ نائِمٌ وَ رَجُلٌ نَوْمٌ وَ رَجُلٌ صوْمٌ iboralari قُلْ اَرَأَيْتُمْ اِنْ اَصْبَحَ ma’nolaridadir. Chunonchi, Qur’on oyatida ham shunday kelgan: ماؤُكُمْ غَوْراً gapidagi غَوْراً so‘zi غائِراً ma’nosidadir. Hamma turkiy qabilalar tilida farq bilan qo‘llanadigan sifatlar shulardir.

Ikkinchi, ish va harakatning ko‘p martalab bo‘lganini, davomli ekanini bildiruvchi sifatdoshdir. Bu sifatlarning yasalishi hamma qabilalarda va har bir bo‘limda bir xil bo‘lib, buyruq shaklidadir. Buyruq shakli oxiriga yo‘g‘on *qāf* li so‘zlarga غَانْ *-γan* va ingichka so‘zlar oxiriga كَانْ *-gän* qo‘shiladi. Chunonchi, ko‘p marta takrorlanuvchi ish-harakatni bildiruchi sifat – بَرْغَانْ ***barγan*** – بَرْ ***bar*** buyrug‘idan; تُرْغَانْ ***turγan*** esa تُرْ ***tur*** buyrug‘idan yasalgandir. Masalan: اُلْ اَرْ اُلْ اَفْكَا ***ul ar ul ewkä barγan*** (147b) – “u kishi uyga ko‘p boradigan”; اُلْ اَرْ اُلْ اِيشْلارْقَا بَرْغَانْ ***ol er-ol ïšlarqa turγan*** – “u kishi ishlarga turib beradigan, turgan” kabi.

(Shoir) shunday degan:

تُرْغَانْ اُلُغْ اِشْلَقَا ***Turγan uluγ ïšlaqa,***
تِرْكِى اُرُبْ اَشْلَقَا ***Tergi urur ašlaqa.***
تُمْلُغْ قَدِرْ قِشْلَقَا ***Tumluγ qadïr qïšlaqa,***
قُدْتِى اَرِكْ اُمْدُرُو ***Qoδtï erig umduru.***

Bir kishi haqida achinib aytmoqda: “U kishi ulug‘ ishlarga bardoshli edi. Dasturxoni qattiq qishlarda ochiq edi, kishilarni o‘zining yaxshiliklaridan umidvor qilib tashlab ketdi”.

kāf li so‘zlardan yasalgan bu sifatdosh اَرْ كُلْكَانْ ***külgän er*** (“ko‘p kuladigan kishi”) iborasidagi كُلْكَانْ ***külgän*** dir. Bu so‘zning buyruq shakli كُلْ ***kül*** bo‘lib, buning oxiriga كَانْ *-gän* qo‘shib tuzilgan. Ish-harakatning ko‘p martalab ishlanganini bildiruvchi sifatlarda *γayn, kāf* [*g*] qo‘shilganiday, ishni ishlovchi mazmunini anglatuvchi so‘zlarda ham *γayn, kāf* [*g*] qo‘llangan: بَرْغُوچِی ***barγučï,*** كَلْكُوچِی ***kelgüči*** singari.

Bu arabchadagi فعال مفعال so‘zlariga o‘xshaydi. Ular ishning ko‘p martalab qilinganini anglatish uchun شراب طلاغ مطعام مطعان shaklidagi so‘zlarni qo‘llaydilar.

Uchinchi, bir ish qilinmasdan oldin, uni bajarish orzusida ekanini bildiruvchi sifatdir. Bu sifat fe’lning buyruq shaklidan yasalmaydi, o‘zakning oxiri yo‘g‘on (المشبعة) so‘zlarda va tarkibida *qāf* bo‘lgan so‘zlarda *γayn, sīn, alif, qāf* (غسَاقْ *-γsaq*), ingichka (الركيكة) so‘zlarda va tarkibida *kāf* bo‘lgan so‘zlarda كسَاكْ *-gsäk* qo‘shilib yasaladi. (148a)

بَرْ ***bar*** buyrug‘idan ishni ishlash, ishlashga istak mazmunida yasalgan sifat بَرغْسَاقْ ***barïγsaq*** dir: اُلْ اَفكَا بَرغْسَاقْ اُلْ ***ol ewkä barïγsaq-ol*** – “u uyga borishni istovchidir”; تُرْ مُنْدَا ***tur munda*** (“shu yerda tur”) gapidagi تُر ***tur*** fe’lidan shu mazmundagi sifat yasalmoqchi bo‘lsa, اُلْ مُنْدَا تُرُغْسَاقْ اُلْ ***ol munda turuγsaq-ol*** – “u shu yerda turmoq istaydi” tarzida tuziladi. Tarkibida *kāf* bo‘lgan so‘zlar: اُلْ بَرُو كَلِكْسَاكْ اَرْدِی ***ol berü keligsäk erdi*** – “u bu yerga kelishni istovchi edi”; اُلْ اَفكَا كِرِكْسَاكْ اُلْ ***ol ewkä kirigsäk-ol*** – “u uyga kirishni istovchidir”; اُلْ تَقَّارْ تِرِكْسَاكْ اُلْ ***ol tawar terigsäk-ol*** – “u mol to‘plashni istovchidir”. Bunday sifatlardan shu mazmun ifodalash istalganda, ismlardan ham tuziladi. Bu qoidani yaxshi eslab qol.

Ismlarda ham bu ma’no anglatmoq istalganda, kishini shu so‘z bilan ta’riflanadi. Chunonchi, اُلْ اَرْ اُلْ تَقَّرْسَاقْ ***ol er-ol tawarsaq*** – “u molparast kishidir”; بُو اُرَاغْتْ اُلْ اَرْسَاكْ ***bu uraγut-ol ersäk*** – “bu ersiragan xotindir”. Lekin ismdan yasalganda *γayn, kāf* harflarining ahamiyati yo‘q.

To‘rtinchi, gapda xabar berilgani ma’lum ishni qilish uning haqi ekanini bildiruvchi so‘z turidir. Bunda ishlovchi biror ishni qilishga qasd qilganini bildirish ma’nosidagi sifat desa ham bo‘ladi.

Bu sifatlar buyruq oxiriga *qāf* li va yo‘g‘on so‘zlarda so‘z oxiri sokin bo‘lsa, غُلُقْ *-γuluq,* ingichka so‘zlarda so‘z boshidagi *γayn* va oxirgi *qāf* o‘rniga *kāf* qo‘shib yasaladi. بَرْ ***bar*** buyrug‘idan uning haqi, maqsadi degan mazmunni berish istalganda بَرْغُلُقْ ***barγuluq*** tarzida yasaladi. Chunonchi, اُلْ بَرْغُلُقْ اَرْدِی ***ol barγuluq erdi*** – “uning borishi kerak edi, borish uning haqi, u borish niyatida edi”; اُلْ مُنْدَا تُرْغُلُقْ اَرْدِی ***ol munda turγuluq erdi*** – “bu yerda turish uning haqi, uning maqsadi bu yerda turish edi”.

(148b) O‘g‘uzlarning ba’zilari *lām* harfi o‘rniga *sīn* qo‘llaydilar: **اُلْ مُنْدَا بَرغْسَقْ اَرْدِی *ol munda barγsaq erdi*** – “u bu yerda turishga haqli edi”; **اُلْ مُنْدِنْ بَرغْسَقْ تَكُلْ *ol mundïn barγsaq tegül*** – “u bu yerdan ketmaydigan, doim shu yerda turadigan” demakdir.

Bu xil sifatlar ikki harfli fe’llardan tuzilsa, besh harfliga, uch harfli fe’llardan tuzilsa, olti harfliga aylanadi. To‘rt harfli fe’llardan tuzilsa, yetti harfli bo‘ladi. Ularni, Xudo xohlasa, o‘z o‘rnida ko‘rib o‘tiladi.

Beshinchi, ishlovchining o‘z ko‘nglida shu ishni qilmoq maqsadida ekanini bildiruvchi sifat. Bu xil sifat ilgarigi sifatga ish-harakatning bajarishdagi qat’iyligi jihatidan yaqinroqdir. Bu sifat buyruq shaklidan yasalmaydi. Bu sifatda o‘zak oxiri *yā* bilan cho‘ziladi va qo‘shimchaning bosh harfi har bir bo‘limda ham *sukun* li bo‘ladi. So‘z o‘zagiga *qāf* li va yo‘g‘on so‘zlarda (فى الكلمة القافيه اوالمشبعة) *γayn,* tarkibida *kāf* bo‘lgan, ingichka so‘zlarda (في الكلمة الكافيه اوالركيكة) *kāf* [*g*] qo‘shib yasaladi. **مَنْ سَنكَا بَرغْلِی مَنْ *men seŋä barïγlï-men*** – “men senga boradiganman, bormoqchiman, borishni o‘ylab yuribman, borish niyatidaman”; **اُلْ مُنْدَا تُرُغْلِی اُلْ *ol munda turuγlï-ol*** – “u bu yerda turmoqchi, turish niyatidadir”. Tarkibida *kāf* bo‘lgan so‘zlar misoli: **اُلْ مَنكَا كَلِكلِی تُرُرْ *ol meŋä keligli turur*** – “u mening yonimga kelishi kerak, kelishga jazm qilgan, kelishni o‘ylab yuribdi”; **اُلْ مَنكَا تَقَّارْ بِرِكلِی اُلْ *ol meŋä tawar berigli-ol*** – “u menga mol berishi kerak, mol bermoqchi”. Bu xil sifatlar yasama masdarga *lām* va *alif* qo‘shib yasalgandir. Yasama masdarlar buyruq shakli oxiridagi *sukun* li harf unli harf bilan harakatlanib, cho‘zilib *γayn* yoki *kāf* qo‘shib yasalishini yuqorida aytgan edik. (149a) Chunonchi, **اَنِكْ بَرغِی كُرْ *anïŋ barïγï kör*** (“uning borishini, ketishini ko‘r”); **اَنِكْ كَلِكِی كُورْ *anïŋ keligi kör*** (“uning kelishini ko‘r”) gaplaridagi **بَرغِی *barïγï,* كَلِكِی *keligi*** singari. Yuqorida bayon qilinganidek, bu yasama masdarlar *lām* va *alif* bilan sifatga aylangan. Bu xil sifatlar hamma qabila lahjalarida bir xil, farqsiz qo‘llanadi. Shu xil sifatlar har xil fe’llardan ham yuqoridagicha besh xil mazmunda ishlatiladi.

Ish-harakatning bajarilganini bildiruvchi (harakat nomi) shakli hamma fe’l boblarida bir xil usulda – buyruq shakli oxiriga *mīm* va *šīn* qo‘shib yasaladi. Chunonchi, “yoy qur” ma’nosidagi **يَا قُرْ *ya qur*** ning shakli **يَا قُرْمِشْ *qurmiš ya*** (“qurilgan yoy”)dir. Bu **يَا قُرْ *ya qur*** gapidagi **قُرْ *qur*** buyrug‘i oxiriga *mīm* va *šīn* [ya’ni مشْ -*miš*] qo‘shib yasalgan. **قَزْمِشْ اَرِقْ *qazmiš arïq*** – “qazilgan ariq” ham shunday.

Bu xil sifatlarda o‘zak har qachon o‘z holida hech qanday o‘zgarishsiz saqlanadi. O‘timli fe’llarda o‘zakka *mīm* va *šīn* [مشْ -*miš, -miš*] qo‘shimchasi qo‘shiladi. O‘tgan zamon o‘timsiz fe’llarda ham *mīm* va *šīn* qo‘shimchasi qo‘shiladi. U holda bu qo‘shimcha o‘tgan zamon gumon fe’li yasaydi: **اَوكَا بَرْمِشْ *ewkä barmiš*** – “(eshitishimcha) uyga borgan emish”; **اُلْ مَنكَا كَلْمِشْ *ol meŋä kelmiš*** – “(eshitishimga qaraganda) u menga kelgan emish” kabi. Bu misollarda ishlatilgan *mīm* va *šīn* qo‘shimchasi **بَرْدِی *bardï,* كَلْدِی *keldi*** kabi o‘tgan zamon

shaklini yasaydi hamda *dāl* va *yā* qo‘shimchasi [ya’ni دى *-dï, -di*] o‘rnida qo‘llanadi.

بَرْدِى *bardï*, كَلْدِى *keldi* fe’li bilan **بَرْمِشْ *barmïš*, كَلْمِشْ *kelmiš*** fe’llari orasidagi farq – birida *dāl* va *yā* qo‘shimchasi o‘tgan zamonda bo‘lgan ishni so‘zlovchi o‘z ko‘zi bilan ko‘rganidan, aniqligidan xabar beradi.

بَرْدِى *bardï* so‘zining ma’nosi: borganini o‘zim ko‘rdim, borgani aniq, demakdir. *mīm* va *šīn* [مش *-mïš, -miš*] qo‘shimchasi ham ish-harakatning o‘tgan zamonda bo‘lganini bildiradi. Lekin bunda so‘zlovchining o‘zi ko‘rmagani, aniq emasligi anglashiladi: **اُلْ بَرْمِشْ *ol barmïš*** – “u borgan emish, lekin borganini o‘zim ko‘rmadim”; **اُلْ كَلْمِشْ *ol kelmiš*** – “u kelgan emish, lekin kelganini o‘zim ko‘rmadim” demakdir. (149b) O‘tgan zamon o‘timli, o‘timsiz fe’llarining har turida shu qoida doimiy va umumiydir. Yo‘g‘on, ingichka talaffuzli so‘zlar, muzakkar va muannas shakllari farqsizdir.

بَرْمِشْ *barmïš*, كَلْمِشْ *kelmiš* so‘zlari otlar oldida aniqlovchi bo‘lib kelganda, sifatga aylanadi: **بَرْمِشْ كِشِى *barmïš kiši*** – “boradigan kishi”; **كَلْمِشْ اَرْ *kelmiš er*** – “kelgan kishi”. Bu o‘rinda **بَرْدِى *bardï*, كَلْدِى *keldi*** fe’llaridagi *dāl* va *yā* ni qo‘llashning o‘rni emas.

Yag‘mo, tuxsi, chigil, arg‘u, uyg‘ur, to صين *Ṣīn* gacha bo‘lgan hamma qabilalar o‘tgan zamon fe’lini *dāl* va *yā* qo‘shib yasashda ittifoqdirlar. Chunonchi, **بَرْدِى *bardï*** kabi. Chunki bu fe’l **بَرْ *bar*** buyrug‘iga *dāl* va *yā* qo‘shib yasalgandir. O‘g‘uzlar va qipchoqlarning ba’zilari – suvorinlar *qāf, ɣayn* li so‘zlarda va umuman yo‘g‘on so‘zlarda *yā* o‘rniga *qāf* almashtirib, *dāl* va *yā* emas, *dāl* va *qaf, kāg* li va umuman ingichka talaffuzli so‘zlarda *dāl* va *yā* o‘rniga *dāl* va *kāf* qo‘shadilar. Bularda birlik va ko‘plik ham bir shaklda, farqsizdir. Chunki ular *qāf* li so‘zlarda: **يَا قُرْدُقْ *ya qurduq*** – “u yoy qurdi” tarzida qo‘llaydilar. “Men yoy qurdim” o‘rnida ham farqsiz, bir xilda **مَنْ يَا قُرْدُقْ *men ya qurduq*** shaklini qo‘llaydilar; **بِزْ يَا قُرْدُقْ *biz ya qurduq*** – “biz yoy qurdik” kabi. *ɣayn* li so‘zlarga misol: **اُلْ سُوتْ سَغْدِى *ol süt saɣdï (saɣduq?)*** – “u sut sog‘di”; **اَلَارْ تَاغْقَا اَغْدُقْ *olar taɣqa aɣduq*** – “ular toqqa chiqdilar”. So‘zlovchi uchun ham shunday: **بِزْ اَغْدُقْ *biz aɣduq*** – “biz yuqori chiqdik”. Yo‘g‘on talaffuzli so‘zlarda ham ular *dāl* va *yā* o‘rnida *dāl* va *qāf* qo‘llaydilar: **اُلْ اَنِى اُرْدُقْ *ol anï urduq*** – “u uni urdi”; **مَنْ مُنْدَا تُرْدُقْ *men munda turduq*** – “men bu yerda turdim” kabi. *kāf* li yoki ingichka talaffuzli so‘zlarda ular *dāl* va *kāf* qo‘llaydilar. Chunonchi, **اُلْ كَلْدُكْ *ol keldük*** – “u keldi”; **بِزْ كَلْدُكْ *biz keldük*** – “biz keldik”; **اَلَارْ اَفكَا كِرْدُكْ *olar ewkä kirdük*** (150a) – “ular uyga kirdilar”. Maylli so‘zlarda ham shunday: **مَنْ اَنكَرْ تَقَّارْ بِيرْدُكْ *men aŋar tawar berdük*** – “men unga mol berdim”; **مَنْ يَرْمَاقْ تِيرْدُكْ *men yarmaq terdük*** – “men tanga to‘pladim”.

Xulosa qilib aytganda, ularda, yuqoridagi misollarda ko‘rganingizdek, birlik bilan ko‘plik orasida farq yo‘qdir.

Ko‘pchilik o‘g‘uzlar o‘tgan zamon so‘zlovchi shaklida **بَرْدِمْ *bardïm*** fe’lidagi *mīm* o‘rnidagina birlikda ham, ko‘plikda ham *qāf* yoki *kāf* harflarini qo‘llaydilar.

Qolgan shakllarda, ya’ni o‘tgan zamon o‘zga shaklida turklar bilan birlashadilar: بَرْدِی ***bardï*** o‘rnida بَرْدُقْ ***barduq***, كَلْدِی ***keldi*** o‘rnida كَلْدُكْ ***keldük*** qo‘llab buzmaydilar.

Buyruq shakli hamma lahjalarda bir xil, farqsizdir. Bo‘lishsiz fe’llarning بَرْمَادِمْ ***barmadïm***, كَلْمَادِمْ ***kelmädim*** kabi so‘zlovchi shaklida hamma qabilalarda farq yo‘qdir. Aniq o‘zga bo‘lishsiz shaklida بَرْمَادُقْ ***barmaduq*** – “bormadi (shunday eshitdim yoki ko‘rdim)”, كَلْمَادُكْ ***kelmädük*** – “kelmadi (shunday eshitdim yoki o‘zim ko‘rdim)”.

Kelasi zamon inkor fe’lida ham qoida aniq fe’lda ko‘rganimizdekdir: بَرْمِشْ ***barmiš*** – “borgan emish, borganini men ko‘rmadim”; كَلْمِشْ ***kelmiš*** – “kelgan emish, kelganini o‘zim ko‘rmadim”. Bo‘lishsizlik belgisi qo‘shilganda *qāf*li yo‘g‘on talaffuzli so‘zlarda yoki *kāf* li ingichka so‘zlarda ham, hamma fe’llarda ham shu ma’no, shu qoida o‘zgarmaydi. Aniq fe’lning bo‘lishsiz shaklida ham qoida shu xildadir: بَرْمَادِی ***barmadï*** – “(haqiqatan) bormadi”, كَلْمَادِی ***kelmädi*** – “(haqiqatan) kelmadi” kabi. O‘g‘uzlar بَرْدِی ***bardï***, كَلْدِی ***keldi*** o‘zga va so‘zlovchi fe’llardagi oxirgi *yā* o‘rniga *qāf* yoki *kāf* ga almashtirib, بَرْدُقْ ***barduq***, كَلْدُكْ ***keldük*** tarzida qo‘llaydilar. بَرْمَادُقْ ***barmaduq*** (“bormadi”), (150b) كَلْمَادُكْ ***kelmädük*** (“kelmadi”) bo‘lishsiz fe’llarida ham *qāf, kāf* qo‘llanadi. Bu qoida hamma fe’llarda qat’iydir.

Ta’kid ma’nosidagi masdar arabchaning aksi tarzida fe’ldan oldin keladi: أُلْ بَرْمَاقْ بَرْدِی ***ol barmaq bardï*** – “u hech qayoqqa qaramay bordi”; أُلْ كَلْمَاكْ كَلْدِی ***ol kelmäk keldi*** – “u aniq keldi” kabi.

Fe’lning tuslanishi quyidagichadir: بَرْدِی ***bardï*** (fe’lning o‘tgan zamon shakli), بَرِيرْ ***barïr*** (kelasi zamon shakli), بَرْمَاقْ ***barmaq*** (masdar), بَرْ ***bar*** (bir kishiga buyruq), بَرِينْكْلَارْ ***barïŋlar*** (ko‘pchilikka buyruq). Hurmat uchun buyruq shakliga لَارْ *-lar, -lär* qo‘shish turklarga xosdir. Yolg‘iz kishiga hurmat yuzasidan بَرِينْكْ ***barïŋ*** deyiladi va hokazo.

Bo‘lishsiz fe’llar hamma tillarda bir xil bo‘lib, buyruq shakli oxiriga *mīm* va *alif* [ya’ni مَا *-ma, -mä*] qo‘shish bilan yasaladi. Masalan: بَرْمَا ***barma*** – “borma”, تُرْمَا ***turma*** – “turma”, بَرْمَانكْ لَارْ ***barmaŋlar*** – “bormang”, تُرْمَانكْلَارْ ***turmaŋlar*** – “turmang” kabi. أُلْ بَرْمَاسُونْ ***ol barmasun*** – “u bormasin” (bo‘lishsiz buyrug‘ining o‘zga birligi), كَلْمَاسُونْ ***kelmäsün*** – “kelmasin” (bo‘lishsiz buyrug‘ining o‘zga birligi), بَرْسُونْ ***barsun*** – “borsin”, كَلْسُونْ ***kelsün*** – “kelsin” (buyruqning o‘zga birligi), tinglovchi buyruq shakliga hamma lahjalarda bir xil, *sīn* va *vāv* va *nūn* (سُونْ *-sun, -sün*) qo‘shish bilan yasaladi. بَرِيرْمَنْ ***barïr-men*** – “boraman” (so‘zlovchi birligi). O‘g‘uzlar kelasi zamon fe’lidagi o‘zak tarkibida bo‘lgan *rā* harfini saqlab, kelasi zamon qo‘shimchasi bo‘lgan *rā* harfini tushiradilar. Masalan: مَنْ بَرَنْ ***men baran*** – “men boraman”; مَنْ تُرَنْ ***men turan*** – “men turaman” kabi.

(151a) O‘zak tarkibida *rā* harfi bo‘lmagan taqdirdagina, kelasi zamon qo‘shimchasi bo‘lgan *rā* harfini taqozo qiladi: مَنْ كَلِرَانْ ***men kelirän*** – “men kelurman” kabi.

O‘g‘uzlar مَنْ كُلَرَنْ ***men külärän*** (“men kulaman”) deydilar, chunki كُلْدِى ***küldi*** so‘zida *rā* harfi yo‘qdir. Shuningdek, o‘g‘uzlar مَنْ بَرِيرْمَنْ ***men barïr-men*** (“men boraman”) gapidagi بَرِيرْمَنْ ***barïr-men*** fe’lidan oxirgi *mīm* harfi o‘rniga *alif* qo‘yib, بَرِيرَنْ ***barïran*** tarzida qo‘llaydilar. Yana ular مَنْ يَا قُرَرْمَنْ ***men ya qurar-men*** o‘rnida مَنْ يَا قُرَرَنْ ***men ya quraran*** (“men yoy quraman”) deydilar. Turklar bu fe’lni ikki *rā* bilan قُرَرْمَنْ ***qurar-men*** tarzida qo‘llaydilar. Birinchi *rā* o‘zak tarkibida bor, ikkinchisi kelasi zamon qo‘shimchasidir. Bu usul qoidaga muvofiqdir. O‘g‘uzlar talaffuzi qoidaga muvofiq emas, lekin unda yengillik bor. اُلْ بَرْمَاسْ ***ol barmas*** (kelasi zamon bo‘lishsiz fe’lining o‘zga birligi), مَنْ بَرْمَاسْ مَنْ ***men barmas-men*** (bo‘lishsiz fe’lining kelasi zamon so‘zlovchi birligi). Bularda ixtilof yo‘qdir, hamma qabilalar bu jihatdan ittifoqdir.

Bo‘lishsiz fe’lning kelasi zamon shaklini yasash qoidasi hamma fe’llarda (xoh o‘zga bo‘lsin, xoh so‘zlovchi bo‘lsin) bir xil – buyruq shakli oxiriga مَاسْ *mas, -mäs* va ko‘plik uchun لَرْ *-lar, -lär* qo‘shiladi. Maslan: اُلَارْ بَرْمَاسْ لَارْ ***olar barmaslar*** – “ular bormaydilar”; بُولَارْ بَرْمَاسْ لَارْ ***bular barmaslar*** – “bular bormaydilar”; بِزْ بَرْمَاسْ مِزْ ***biz barmasmïz*** – “biz bormaymiz” kabi.

Ish-harakatning kelasi zamonda bajarilishini anglatish uchun buyruq shakli oxiriga yo‘g‘on so‘zlarda غَايْ *-γay,* boshqalarda كَايْ *-gäy; γayn* li so‘zlarda esa قَايْ *-qay* qo‘shiladi: اُلْ يَا قُرْغَايْ ***ol ya quryay*** – “u yoy quradi”; اُلْ سُوتْ سَاغْقَايْ ***ol süt sayqay*** – “u sut sog‘adi”; اُلْ اَقْكَا بَرْغَايْ ***ol ewkä baryay*** – “u uyga boradi”; اُلْ مَنْكَا كَلْكَايْ ***ol meŋä kelgäy*** (151b) – “u men(ing yonim)ga keladi”; اُلْ يَرْمَاقْ تِيرْكَايْ ***ol yarmaq tergäy*** – “u tanga yig‘adi”.

Kelasi zamon fe’lining yasalishi hamma qabilalarda, hamma fe’llar uchun bir xil bo‘lib, farq qilmaydi.

Ishlovchi ish-harakatni bajarish sharafiga muvaffaq ekanini, uni qilishga erishayotganini bildiruvchi fe’llar hamma lahjalarda bir xil: *qāf* li, umuman yo‘g‘on talaffuz qilinuvchi so‘zlarda buyruq oxiriga غَالِرْ *-γalïr,* boshqalarda كَالِرْ *-gälir* qo‘shimchasi qo‘shib yasaladi: مَنْ بَرْ غَالِرْمَنْ ***men baryalïr-men*** – “men borish sharafiga egaman”; مَنْ تُرْغَالِرْمَنْ ***men turyalïr-men*** – “men turish sharafiga egaman”; اُلْ يَا قُرْغَالِرْ ***ol ya quryalïr*** – “u yoy qurish sharafiga ega”; اُلْ تَاغْقَا اَغْقَالِرْ ***ol tayqa ayqalïr*** – “u toqqa chiqish sharafiga ega, toqqa chiqishiga yaqin qoldi”; اُلْ اَقْكَا كِرْكَالِرْ ***ol ewkä kirgälir*** – “u uyga kirish sharafiga ega, uyga kirishiga yaqin qoldi”; اُلْ يَرْمَاقْ تِيرْكَالِرْ ***ol yarmaq tergälir*** – “u pul yig‘ishga erishgan, pul yig‘ishga moyil”. Bu hamma fe’llarda doimiy qoidadir.

Ismi zamon (اسماء الزمان) – zamon oti, ismi makon (اسماء المكان) – joy oti va qurol otlari yo‘g‘on (المشبعه) talaffuzli, tarkibida *qāf* harfi bo‘lgan so‘zlarda so‘z o‘zagiga غُو *-γu* va ingichka (الركيكة) talaffuzli, tarkibida *kāf* harfi bo‘lgan so‘zlarda كُو *-gü* qo‘shimchasini qo‘shish bilan yasaladi. Bu qoida chigil, yag‘mo, tuxsi, arg‘u, uyg‘ur, to Yuqori صين *Ṣīn* gacha bo‘lgan hamma qabilalar tillariga tegishlidir. O‘g‘uzlar va qipchoq, pachanak, bulg‘ar tillarida bu xil so‘zlar fe’lning buyruq shakli oxiriga (152a) اَسِى *-asï, -äsi* qo‘shimchasini qo‘shish bilan

yasaladi. Masalan, zamon oti: بُو يَا قُرْغُو اُغُرْ اَرْمَاسْ ***bu ya quryu oyur ermäs*** – “bu yoy quradigan vaqt emas”; بُو تُرْغُو يِيرْ اَرْمَاسْ ***bu turyu yer ermäs*** – “bu turadigan joy emas”. O‘g‘uzlar buni: بُو يَا قُرَاسِى أُغُرْ تَكُلْ ***bu ya qurasï oyur tegül*** (“bu yoy quradigan payt emas”); بُو تُرَاسِى يِيرْ تَكُلْ ***bu turasï yer tegül*** (“bu turadigan joy emas”) tarzida qo‘llaydilar. بُو تَاغ اڤْقُو (اُغُرْ) اَرْمَاسْ ***bu tay ayqu (oyur) ermäs*** – “bu toqqa chiqadigan vaqt emas”. Yuqorida o‘zakning oxiri *yayn* bilan bitganda, *yayn* emas, uning o‘rniga *qāf* qo‘shilishi aytilgan edi. Bunda o‘zak oxirida *yayn* bo‘lgani uchun غُ *-yu* qo‘shimchasi o‘rniga قُ *-qu* qo‘shilgan so‘zga misoldir. O‘g‘uzlar bu mazmundagi gapni بُو تَاغ اَغَاسِى أُغُرْ تَكُلْ ***bu tay ayasï oyur tegül*** (“bu toqqa chiqadigan vaqt emas”) tarzida qo‘llaydilar. Ko‘rinadiki, o‘g‘uzlar vaqt-zamon otiga اُغُرْ ***oyur,*** joy otiga يِيرْ ***yer*** so‘zini qo‘shib qo‘llaydilar. Tarkibida *kāf* harfi bo‘lgan so‘zlarga misol: بُو اَڤكَا كِرْكُو اُوذْ اُلْ ***bu ewkä kirgü öð-ol*** – “bu uyga kiradigan paytdir”; اُلْ بِزْكَا كَلْكُو بُلْدِى ***ol bizkä kelgü boldï*** – “u biznikiga keladigan bo‘ldi”. O‘g‘uzlar bu ma’noni anglatish uchun shu o‘rinda اُلْ بِزْكَا كَلَسِى بُلْدِى ***ol bizkä keläsi boldï*** (“u biznikiga keladigan bo‘ldi”) deb qo‘llaydilar. Bu xil fe’llar ot o‘rnidadir, chunki ular ot bilan birikib izofa shaklida ishlatiladi: سَنِكْ بَرْغُونكْ قَجَانْ ***seniŋ baryuŋ qačan?*** – “sen qachon borasan?” kabi. Ushbu ma’noni anglatish uchun o‘g‘uzlar سَنِك بَرَاسِنك قَجَان ***seniŋ barasïŋ qačan?*** deydilar. Yana: اَنِكْ بَرْغُوسِى مَنِكْ بَرْغُومْ يَقْتِى ***meniŋ baryum yaqtï*** – “mening ketishim yaqinlashdi”; مَنِكْ بَرَاسِمْ ***aniŋ baryusï*** – “uning borishi” demakdir. O‘g‘uzlar bu gap o‘rnida ***meniŋ barasïm*** deydilar. Bu xil otlarning yasalishida o‘g‘uzlar qoidasiga ko‘ra, o‘zak oxiriga *sīn* va *ya* (سى *-sï, -si*) qo‘shiladi. Ular tilida bu xil so‘zlarning yo‘g‘on, ingichkaligi farq qilmaydi. Boshqa turkiy lahjalarda esa bu masalada ba’zi farqlar bor.

(152b) Fe’llardan yasalgan qurol otlari fe’llik xususiyatini yo‘qotib ot o‘rnida keladi. Chunonchi, يِيكُو نَانكْ ***yegü näŋ*** – “ichiga osh solib yeyiladigan narsa” (lagan, tovoq; bundagi يِيكُو ***yegü*** ot vazifasidagi so‘zdir). اُرْغُو ***uryu*** – “urish uchun ishlatiladigan narsa”, masalan, qamchi, chiviq (bu ot vazifasidagi so‘zdir). يِغَاجْ بِجْغُو ***yïyač bïčyu*** – “yog‘och kesadigan uskuna, bolta”; سُرْغُو ***soryu*** – “so‘radigan asbob, qurol; emizik, qoruq” kabi narsalar. Bu so‘z اَمِكْ سُرْدِى ***emik sordï*** (“emchak so‘rdi, emdi”) so‘zidan olingandir. Bu otlar yo‘g‘on, ingichka talaffuzli so‘zlar farqiga muvofiq, *yayn, qāf, kāf* harflari qo‘shilishida yuqorida ko‘rsatilgan qabilalar tillarida farq qiladi. Lekin o‘g‘uzlar farq qilmaydilar. Buning qoidasi yuqorida aytib o‘tildi.

O‘g‘uzlarda qurol otlari hamma fe’llardan ham *sīn* va *yā* qo‘shib yasaladi. Chunonchi, يِغَاجْ بِجَاسِى نَانكْ ***yïyač bïčasï näŋ*** – “yog‘och kesadigan narsa, uskuna”. Yana: يِيكَاسِى نَانكْ ***yegäsi näŋ*** – “ovqat yeyiladigan narsa (lagan, tovoq)”.

Bu bobda (ikki harfli fe’llar bobida) men ko‘rsatgan qoidalar shu bobning o‘zigagina tegishli emas. Bular uch harfli, to‘rt harfli, besh harfli, olti harfli fe’llarda ham bir xil qo‘llanadi. Lekin u yerlarda xuddi shu tartibda keng

ko‘rsatib bermay, men ko‘pincha shunga havola qilaman. Shuning uchun bu qoidalarni shu yerda puxta o‘zlashtirish zarur.

Bu qoidalar turkiy tillar usullarini tushuntiruvchi bir asosdir. Shuning uchun men bu haqda bir qancha daftarlar to‘ldirdim.

Bu qoidalarni o‘rgangan kishi eshitgan, notanish turkiy so‘zlarning har birini shularga qiyos qilib, yasalish qoidalarini o‘z-o‘zidan aniqlay oladi. Buni yaxshi angla.

Ikki harflilar bo‘limi tugadi.

UCH HARFLILAR BO‘LIMI (153a)

فَعَلْدِى *fa’aldī* qolipidagi harakatlar bilan qo‘llanuvchi so‘zlar bobi

ر ***r*** [harfi]:

[تُبُرْدِى ***tübürdi***] تُبِى تُبُرْدِى ***tübi tübürdi*** – “shamol qo‘zg‘alib, tuproqni to‘zitdi” (تُبِرَارْ ***tübirär***, تُبِرْمَاكْ ***tübirmäk***). Maqolda (shunday kelgan): تُتُشْمَاكِنْجَا تُزُلْمَاسْ تُبِرْمَاكِنْجَا اَجِلْمَاسْ ***Tütüšmägінčä tüzülmäš, tübirmägінčä ačılmas.*** Ma’nosi: “Urushmaguncha, qarshilashmaguncha yarash bo‘lmaydi, shamol qo‘zg‘almaguncha, havo ochilmaydi”. Bu maqol qarshilashgan ikki kishi orasini kelishtirishni istagan kishiga qarata aytiladi.

[قَبَرْدِى ***qabardï***] بَاشْ قَبَرْدِى ***baš qabardï*** – “yara shishdi” (قَبَرُرْ ***qabarur***, قَبَرْمَاقْ ***qabarmaq***). Asli قَابَرْدِى, lekin قَبَرْدِى varianti yaxshi.

[قُتُرْدِى ***qoturdï***] اُلْ اُنُغْ قُتُرْدِى ***ol unuγ qoturdï*** – “u unni bir idishdan ikkinchi idishga bo‘shatdi” (قُتُرُرْ ***qoturur***, قُتُرْمَاقْ ***qoturmaq***).

[قُبُرْدِى ***qopurdï***] اُلْ مَنِى اُرُنْدِنْ قُبَرْدِى ***ol meni orundïn qopurdï*** – “u meni o‘rindan turg‘izdi, qo‘zg‘atdi”. O‘rnidan qo‘zg‘algan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُبُرُرْ ***qopurur***, قُبُرْمَاقْ ***qopurmaq***). Maqolda (shunday kelgan): تُتُونْ قُبُرْسَا اِسْلَنُورْ ***Tütün qopursa, ïslanur.*** Ma’nosi: “Kim tutunni qo‘zg‘atsa, o‘ziga tutaydi”. Bu maqol biror fitnani qo‘zg‘atgan kishiga ham fitnaning alami yetadi, degan ma’noda qo‘llanadi.

[كُبُرْدِى ***köpürdi***] اَشِجْ كُبُرْدِى ***ešič köpürdi*** – “qozon ko‘pirdi”; سُوتْ كُبُرْدِى ***süt köpürdi*** – “sut ko‘pirdi”. Kishining og‘zi ko‘pirsa ham shu so‘z qo‘llanadi (كُبُرُرْ ***köpürür***, كُبُرْمَاكْ ***köpürmäk***).

[بُتُرْدِى ***bütürdi***] اُتْ بَاشِغْ بُتُرْدِى ***ot bašïγ bütürdi*** – “dori yarani tuzatdi”.

[بُتُرْدِى ***bütürdi***] اَنِكْ اُوزَا اَلِمِنْ بُتُرْدِى ***anïγ üzä alïmïn bütürdi*** – “uning ustidagi olimini, qarzini hujjat bilan isbot qildi”. Qarzdan boshqa narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi (بُتُرُرْ ***bütürür***, بُتُرْمَاكْ ***bütürmäk***).

[بَتُرْدِى ***baturdï***] اُلْ سُوزِنْ مَنْدِنْ بَتُرْدِى ***ol sözin mendin baturdï*** – “u so‘zini, sirini mendan yashirdi”.

[بَتُرْدِی ***baturdï***] اُلْ اَنِی سُقْقَا بَتُرْدِی ***ol anï suwqa baturdï*** – “u uni suvga botirdi”. Qandni bo‘lamiqqa botirish kabi har bir suyuq narsaga botirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (153b) (بَتُرُرْ ***baturur***, بَتُرْمَاقْ ***baturmaq***).

[تَتُرْدُمْ ***taturdum***] مَنْ اَنـكَرْ اَشْ تَتُرْدُمْ ***men anar aš taturdum*** – “men unga osh yedirdim” (تَتُرُرْمَنْ ***taturur-men***, تَتُرْمَاقْ ***taturmaq***).

[تُتُرْدِی ***tütürdi***] اُلْ اَنـكَرْ اِتْ تُتُرْدِی ***ol anar ït tütürdi*** – “uni tutib olish uchun itini soldi”. Bu so‘zning تُتْكُرْدِی ***tütkürdi*** talaffuzi ham bor. Aslida اِتْ تُتُرْدِی ***ït tüttürdi*** (uchta *tā* li)dir. Yengillik uchun bir *tā* tushirilgan (تُتُرُرْ ***tüttürür***, تُتُرْمَاكْ ***tüttürmäk***).

[تُقُرْدِی ***tuwurdï***] اَتْ قُلَاقِنْ تُقُرْدِی ***at qulaqïn tuwurdï*** – “ot qulog‘ini chimirdi” (Bu ot biror narsadan ta’sirlanganda ikki qulog‘ini tikraytishidir) (تُقِيرَارْ ***tuwïrar***, تُقُرْمَاقْ ***tuwïrmaq***).

[قَتَرْدِی ***qatardï***] اُلْ اَتغْ قَتَرْدِی ***ol atïγ qatardï*** – “u otni qaytardi”; يَغِی قَتَرْدِی ***yaγï qatardï*** – “yovni va boshqalarni qaytardi” (قَتَرُرْ ***qatarur***, قَتَرْمَاقْ ***qatarmaq***).

(Shoir) shunday degan:

اَرْدِی اَشِنْ تَتُرْغَانْ	***Erdi ašïn taturγan,***
يَقْلَقْ يَغِغْ قَتَرْغَانْ	***Yawlaq yaγïγ qataryan.***
بُيْنِنْ تُتُبْ قَدِرْغَانْ	***Boynïn tutup qaδïryan,***
بَسْتِی اُلُمْ اَغْتَرُو	***Bastï ölüm aytaru.***

Yig‘lab aytib turgani: “Oshini (do‘stga) yediradigan [sahiy], yov to‘dasini qaytaradigan, yov bo‘ynini qayiradigan edi. O‘lim uni ag‘dardi”.

[قَتُرْدِی ***qaturdï***] اُلْ يُمْشَاقْ نَانـكْنِی قَتُرْدِی ***ol yumšaq näŋni qaturdï*** – “u yumshoq narsani qotirdi”; تَاشْ يِيرْ اَنِی قَتُرْدِی ***taš yer anï qaturdï*** – “chet el (musofirchilik) uni tajriba va imtihondan o‘tkazib pishitdi” (قَتُرُرْ ***qaturur***, قَتُرْمَاقْ ***qaturmaq***).

[قُتُرْدِی ***quturdï***] اُغْلَانْ قُتُرْدِی ***oγlan quturdï*** – “bola quturdi, hech kimni mensimaydigan bo‘lib qoldi”.

[قُتُرْدِی ***quturdï***] تَرِغْ قُتُرْدِی ***tarïγ quturdï*** – “ekinlar quturdi, ortiq shiddat bilan o‘sdi”. Me’yoridan o‘tgan har narsaga ham قُتُرْدِی ***quturdï*** deyiladi ([قُتُرُرْ ***quturur***], قُتُرْمَاقْ ***quturmaq***).

[كُتُرْدِی ***kötürdi***] اَرْ يُكْ كُتُرْدِی ***er yük kötürdi*** – “kishi yuk ko‘tardi”. Xotinlarning yuk (homila) ko‘tarishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (كُتُرُرْ ***kötürür***, تَقِی / تَقَیْ كُتُرْسَا قَمِجْ يَمَا كُتُرُرْ ***Teväy / tewi yük kötürsä, qamïč yemä kötürür.*** كُتُرْمَاكْ ***kötürmäk***). Ma’nosi: “Hamma yukni ko‘targan tuya cho‘michni ham ko‘taradi”. Bu so‘z arablarning اتبع الفرس لجامه degan maqoli kabidir. (154a)

[سُجِرْدِی ***sučirdi***] اَجِغْ نَانـكْ سُجِرْدِی ***ačïγ näŋ sučirdi*** – “achchig‘ narsa chuchidi, shirin bo‘ldi” (سُجِرَارْ ***sučirär***, سُجِرْمَاكْ ***sučirmäk***).

[قَجُرْدُمْ ***qačurdum***] مَنْ اَنِی قَجُرْدُمْ ***men anï qačurdum*** – “men uni qochirdim; uning esini chiqarib, tumtaraqay qilib qochirdim” (قَجُرُرْمَنْ ***qačurur-men***, قَجُرْمَاقْ ***qačurmaq***).

[كَجُرْدِى *kečürdi*] اُلْ مَنِى سُڤْدَنْ كَجُرْدِى ***ol meni suwdan kečürdi*** – “u meni suvdan kechirdi, o‘tkazdi”.

[كَجُرْدِى *kečürdi*] بَكْ اَنِنكْ يَازُقِنْ كَجُرْدِى ***beg anïŋ yazuqïn kečürdi*** – “bek uning gunohini kechirdi” (كَجُرُرْ ***kečürür***, كَجُرْمَاكْ ***kečürmäk***).

[كُجُرْدِى *köčürdi*] اُلْ اَنِى اَڤْدِنْ كُجُرْدِى ***ol anï ewdin köčürdi*** – “u uni uydan ko‘chirdi”.

[كُجُرْدِى *köčürdi*] اُلْ بِتِكْ كُجُرْدِى ***ol bitig köčürdi*** – “u kitob yozdi; bir nusxadan boshqasiga ko‘chirdi”. Biror narsani bir joydan ikkinchi joyga ko‘chirishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[كُجُرْدِى *köčürdi*] اُلْ كُجُتْ كُجُرْدِى ***ol köčüt köčürdi*** – “u o‘tni bir joydan boshqa bir joyga ko‘chirdi” (كَجُرُرْ ***kečürür*** (***köčürür****?*), كَجُرْمَاكْ ***kečürmäk*** (***köčürmäk****?*)).

[تُدُرْدُمْ *toδurdum*] مَنْ اَنِى تُدُرْدُمْ ***men anï toδurdum*** – “men uni to‘ydirdim”. Asli تُدُقُرْدُمْ ***toδγurdum*** dir (تُدُرُرْمَنْ ***toδrur-men***, تُدُرْمَاقْ ***toδurmaq***).

[قَدْرْدِى *qaδïrdï*] اُلْ اَنِنكْ بُيْنِنْ قَدْرْدِى ***ol anïŋ boynïn qaδïrdï*** – “u uning bo‘ynini va boshqa narsalarni qayirdi”.

[قَدْرْدِى *qaδïrdï*] اُلْ اَنِكْ سُوزِنْ قَدْرْدِى ***ol anïŋ sözin qaδïrdï*** – “u uning so‘zini qayirdi” (قَدْرَارْ ***qaδïrar***, قَدْرْمَاقْ ***qaδïrmaq***).

[قُدُرْدِى *qudurdï*] اُلْ بُو اِيشْتَا قُدُرْدِى ***ol bu ïšta qudurdï*** – “u bu ishda quturdi; qattiq harakat qildi; harakatni oshirib yubordi” (قُدُرُرْ ***qudurur***, قُدُرْمَاقْ ***qudurmaq***).

[كَدُرْدِى *keδürdi*] اُلْ مَنكَا تُونْ كَدُرْدِى ***ol meŋä ton keδürdi*** – “u menga to‘n va boshqa kiyimlarni kiygizdi” (كَدُرُرْ ***keδürür***, كَدُرْمَاكْ ***keδürmäk***).

[كَدْرْدِى *keδirdi*] اُلْ قُويُغْ كَدْرْدِى ***ol qoyuγ keδirdi*** – “u qo‘yni so‘ydi, bo‘lak-bo‘lak qildi” (كَدْرَارْ ***keδirär***, كَدْرْمَاكْ ***keδirmäk***).

[قَرَرْدِى *qarardï*] تُونْ قَرَرْدِى ***tün qarardï*** – “tun qoraydi”.

[قَرَرْدِى *qarardï*] تُونْ قَرَرْدِى ***ton qarardï*** – “kiyim va boshqa narsalar qora bo‘ldi” (قَرَارُرْ ***qararur***, قَرَرْمَاقْ ***qararmaq***).

[قُرِرْدِى *qurïrdï*] قُرِرْدِى نَانكْ ***qurïrdï näŋ*** – “narsa qurishga yuz tutdi, quriy boshladi” (قُرِيرْمَاقْ ***qurïrmaq***, قُرِيرُرْ ***qurïrur***).

[قِزَرْدِى *qïzardï*] قِزَرْدِى نَانكْ ***qïzardï näŋ*** – “narsa qizardi” (قِزَرُرْ ***qïzarur***, قِزَرْمَاقْ ***qïzarmaq***).

[تَزَرْدِى *tazardï*] تَزَرْدِى نَانكْ ***tazardï näŋ*** – “kal bo‘ldi, kal bo‘la boshladi” (تَزَرُورْ ***tazarur***, تَزَرْمَاقْ ***tazarmaq***).

[تُزَرْدِى *tüzärdi*] يِيرْ تُزَرْدِى ***yer tüzärdi*** (154b) – “yer to‘g‘rilandi, tep-tekis qilindi” (تُزَرُرْ ***tüzärür***, تُزَرْمَاكْ ***tüzärmäk***).

[كُزَرْدِى *küzärdi*] اُوذْ كُزَرْدِى ***öδ küzärdi*** – “vaqt kuzga yuzlandi, kuzga evrildi” (كُزَرُرْ ***küzärür***, كُزَرْمَاكْ ***küzärmäk***).

[بَسُرْدِى ***basurdï***] تَنكْرِى تَاغْ بِرْلَا يِيرِكْ بَسُرْدِى ***Täŋri taγ birlä yerig basurdï*** – “Tangri yerni tog‘lar bilan bostirib qo‘ydi”. Og‘ir yuk bilan bostirib qo‘yilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَسُرُرْ ***basurur***, بَسُرْمَاقْ ***basurmaq***).

[بُسَرْدِى ***busardï***] كُوكْ بُسَرْدِى ***kök busardï*** – “ko‘k tumanlandi; havoni tuman bosdi” (بُسَارُرْ ***busarur***, بُسَرْمَاقْ ***busarmaq***).

[***قِسُرْدِی qïsurdï***] ***اُلْ اُزُنْ نَانکْنِی قِسُرْدِی ol uzun näŋni qïsurdï*** – “u uzun narsani qisqartdi” (***قِسُرُرْ qïsurur***, ***قِسُرْمَاقْ qïsurmaq***).

[***کُسُرْدِی kösürdi***] ***اُلْ اَتغْ کُسُرْدِی ol atïγ kösürdi*** – “u ot(ning ikki oyog‘i)ni tushovladi” (***کُسُرُرْ kösürür***, ***کُسُرْمَاکْ kösürmäk***).

[***بُشُرْدِی bušurdï***] ***اُلْ مَنِی بُشُرْدِی ol meni bušurdï*** – “u mening yuragimni siqib yubordi” (***بُشُرُرْ bušurur***, ***بُشُرْمَاقْ bušurmaq***).

[***پِشُرْدِی pïšurdï***] ***اُلْ اَتْ پِشُرْدِی ol et pïšurdï*** – “u et va boshqa narsalarni pishirdi” (***پِشُرُرْ pïšurur***, ***پِشُرْمَاقْ pïšurmaq***).

[***تَشُرْدِی tašurdï***] ***اُتْ اَشِجْ تَشُرْدِی ot ešič tašurdï*** – “o‘t qozonni toshirib yubordi”. O‘z o‘rnidan toshib chiqqan har bir suyuq narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (***تَشُرُرْ tašurur***, ***تَشُرْمَاقْ tašurmaq***).

[***تُشُرْدِی tušurdï***] ***اُلْ مَنِی سَنکَا تُشُرْدِی ol meni seŋä tušurdï*** – “u men bilan seni ko‘rishtirdi” (***تُشُرُرْ tušurur***, ***تُشُرْمَاقْ tušurmaq***).

[***تُشُرْدِی tüšürdi***] ***اُلْ اِلکْدِینْ یَرْمَاقْ تُشُرْدِی ol eligdin yarmaq tüšürdi*** – “u qo‘lidan tangani tushirib yubordi”; ***مَنْ اَنِی اَتّنْ تُشُرْدُمْ men anï attïn tüšürdüm*** – “men uni otdan tushirdim, otdan tushirib qo‘ydim”. ***تُشُرْمَاکْ tüšürmäk*** ham shunday (***تُشُرُرْ tüšürür***, ***تُشُرْمَاکْ tüšürmäk***).

[***سَشُرْدِی sašurdï***] ***اُلْ بِنْجُونِی جَشْ بِلَا سَشُرْدِی ol yinčüni češ bilä sašurdï*** – “u indu bilan feruzani va boshqa toshlarni bir-biridan farqladi”. Bulardan boshqa gavharlarni ipga tizishda ayirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (***سَشُرُرْ sašurur***, ***سَشُرْمَاقْ sašurmaq***).

[***کُشَرْدِی küšärdi***] ***کُولْ کُشَرْدِی köl küšärdi*** – “hovuz to‘ldi, to‘lib toshayozdi” (***کُشَارُرْ küšärür***, ***کُشَارْمَاکْ küšärmäk***).

(Shoir) shunday degan:

اَلِنْ تُبُو یَشَرْدِی Alïn töpü yašardï,
اُرُتْ اُتِنْ یَشُرْدِی Urut otïn yašurdï.
کُولْنِکْ سُقِنْ کُشَرْدِی Kölniŋ suwïn küšärdi,
سِیغِرْ بُقَا مُنکْرَشُورْ Sïγïr, buqa müŋräšür.

Ko‘klamni ta’riflab aytmoqda: “Tog‘ cho‘qqilari ko‘katlar bilan yam-yashil bo‘ldi, qurigan o‘tlarni yashil o‘t qopladi. (155a) Ko‘llar suvga to‘lib, toshayozdi. Sigir, buqalar yayrab ma’rashadi”.

Idish suvi og‘zigacha to‘lib toshayozsa ham ***کُشَرْدِی küšärdi*** deyiladi.

[***بُغَرْدِی buγardï***] ***اُلْ یِغَاجْ بُغَرْدِی ol yïγač buγardï*** – “u yog‘och kesdi, yordi” (***بُغَرُورْ buγarur***, ***بُغَرْمَاقْ buγarmaq***). Bu so‘zning asli ***بُغَرَادِی buγradï*** dir.

[***تُغُرْدِی tuγurdï***] ***اُرَاغْتْ اُغُلْ تُغُرْدِی uraγut oγul tuγurdï*** – “xotin o‘g‘il tug‘di”. Hayvonlar tuqqanda, bu so‘z ularga istiora tariqasida qo‘llanadi (***تُغُرُرْ tuγurur***, ***تُغُرْمَاقْ tuγurmaq***).

Maqolda (shunday kelgan): ***اَتَا اُغْلِی اَتَجْ تُغَارْ Ata oγlï atač tuγar.*** Ma’nosi: “Ota o‘g‘li xulqda otasiga o‘xshaydi”.

[تُغُرْدِی ***tuγurdï***] اُلْ مَنکَا تُغُرْدِی ***ol meŋä tuγurdï*** – “u o‘z yo‘lini qo‘yib, menga qarab shiddat bilan keldi”. Biror ishga taassub (qoidadan tashqari harakat) bilan bir yumushga yo‘nalgan kishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُغُرُرْ ***tuγurur***, تُغُرْمَاقْ ***tuγurmaq***).

[سَغُرْدِی ***sayurdï***] اَرْ سُوقْ سَغُرْدِی ***er suw sayurdï*** – “kishi suv ichdi”.

[سَغُرْدِی ***sayurdï***] قُمْ سُوقْ سَغُرْدِی ***qum suw sayurdï*** – “qum suvni shimdi”; اُلْ قُرُتْ سَغُرْدِی ***ol qurut sayurdï*** – “u qurut qilish uchun (qatiqning) suvini sirqitdi” (bu so‘z qarluqcha).

[سَغُرْدِی ***sayurdï***] اُلْ يُقَارُو يَارِنْ سَغُرْدِی ***ol yuqaru yerin sayurdï*** – “u ko‘kka qarab tupladi, tupugini yuqoriga tupurdi”. Barsg‘anlar tilida shunday. Boshqalar سُنْدِتِی ***süδti*** deydilar (سَغُرُرْ ***sayurur***, سَغُرْمَاقْ ***sayurmaq***). Maqolda (shunday kelgan): کُوکْ کَا سَغُرْسَا يُوزْکَا تُشُورْ ***Kökkä sayursa, yüzkä tüšür.*** Ma’nosi: “Ko‘kka tupursa, yuzga tushur”. Bu maqol o‘zidan katta bilan janjallashmoqchi bo‘layotgan kishiga og‘irlik o‘ziga tushishini eslatib aytiladi.

[سِغُرْدِی ***sïyurdï***] اُلْ اُونُغْ قَابْقَا سِغُرْدِی ***ol unuγ qapqa sïyurdï*** – “u ko‘p unni kichik qopga sig‘dirdi”. (155b) Qattiq siqib bosish bilan joylangan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (سِغُرُرْ ***sïyurur***, سِغُرْمَاقْ ***sïyurmaq***).

[قُغُرْدِی ***qoγurdï***] اُلْ تَرِغْ قُغُرْدِی ***ol tarïγ qoγurdï*** – “u bug‘doy va boshqa narsalarni qovurdi”. Bu so‘zning jarangli ڤ *w* bilan (بالفا الركيكه) aytiladigan قُڤُرْدِی ***qowurdï*** shakli ham bor (قَڤُرُرْ ***qaγurur***, قَڤُرْمَاقْ ***qaγurmaq***).

[تَڤْرْدِی / تَڤُرْدِی ***tewürdi*** / ***tewirdi***] اُرْ تَڤَارِغْ اَڤْرْدِی تَڤْرْدِی / تَڤِرْدِی ***er tawarïγ ewürdi-tewürdi*** / ***tewirdi*** – “kishi molni ag‘dardi-to‘ntardi, ostin-ustun qildi”. اَڤْرْدِی ***ewürdi*** asosiy so‘zdir; تَڤْرْدِی ***tewürdi*** ko‘makchi so‘zdir (تَڤْرَارْ ***tewürär***, تَڤْرْمَاکْ ***tewürmäk***).

[جَڤْرْدِی ***čewürdi***] اَرْ اُقْ جَڤْرْدِی ***er oq čewürdi*** – “er (tirnog‘i bilan) o‘qni urib ko‘rdi”. Har bir narsani chap qo‘lning bosh barmog‘i tirnog‘i uchida aylantirishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[جَڤْرْدِی ***čewürdi***] اُلْ جِڤْرِينِی جَڤْرْدِی ***ol čïγrïnï čewürdi*** – “u (quduq) chig‘irini va boshqalarni aylantirdi” (جَڤْرَارْ ***čewürär***, جَڤْرْمَاکْ ***čewürmäk***).

[سَڤْرْدِی ***sawurdï***] اَرْ تَرِغْ سَڤْرْدِی ***er tarïγ sawurdï*** – “kishi bug‘doyni xirmonda shopirdi, sovurdi va tozaladi”. Har narsani shamolda sovurish va tozalashga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَڤْرَارْ ***sawurar***, سَڤْرْمَاقْ ***sawurmaq***).

[قَڤْرْدِی ***qawurdï***] بِلَازُکْ کُنکْ اَلْکِنْ قَڤْرْدِی ***biläzük küŋ elgin qawurdï*** – “bilakuzuk joriyaning bilagini siqdi”. Biron narsani siqadigan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (قَڤْرَارْ ***qawrar***, قَڤْرْمَاقْ ***qawurmaq***).

[بُقُرْدِی ***buqurdï***] اُلْ اَتْ تَکِيرِنْدَا بُقُرْدِی ***ol at tegirindä buqurdï*** – “u ot va boshqa narsalarning narxini pastga urdi”. Har narsani o‘z joyidan pastga tushirilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بُقُرُرْ ***buqurur***, بُقُرْمَاقْ ***buqurmaq***).

[بَقُرْدِی ***baqurdï***] اُلْ مَنکَا کِشِی بَقُرْدِی ***ol meŋä kiši baqurdï*** – “u menga birovni qaratdi” (بَقُرُرْ ***baqurur***, بَقُرْمَاقْ ***baqurmaq***).

[***čïqardïm***] ***men anï ewdän čïqardïm*** – “men uni uydan va boshqa yerlardan chiqardim” (***čïqarur***, ***čïqarmaq***).

[***siqïrdï*** / ***saqïrdï***] ***quš siqïrdï*** / ***saqïrdï*** – “qush chug‘ur-chug‘ur qilib sayradi”; ***kiši siqïrdï*** – “kishi hushtak chaldi” (***siqïrar***, ***siqïrmaq***).

[***qïqïrdï***] ***er qïqïrdï*** – “kishi birovni, biron narsani chaqirayotgandek, baland ovoz bilan qichqirdi” (***qïqïrar***, ***qïqïrmaq***).

(Shoir) shunday degan:

Quδï qïqrïp oγuš terdim,
Yaγïqaru kiriš qurdum.
Toquš ičrä uruš berdim,
Erän körüp baštï tïγdï.

Aytmoqdaki: “Quyi tomon qiyqirib, qavmimni yig‘dim, yovga qarshi o‘qni kamonga joyladim. (156a) Jang maydonida otishdim. Mening yigitlarimni ko‘rib, boshini panaga oldi”.

[***tegürdi***] ***ol meŋä begdin söz tegürdi*** – “u menga bek va boshqalardan so‘z tegizdi” (***tegürür***, ***tegürmäk***).

[***čökürdi***] ***ol teway čökürdi*** – “u tuyani cho‘ktirdi”. Kishini cho‘kkalatishga ham shu so‘z ishlatiladi (***čökürür***, ***cökürmäk***).

[***kekirdi***] ***er kekirdi*** – “kishi va boshqa kimsalar kekirdi” (***kekirär*** / ***kekrär***, ***kekirmäk***).

[***kökärdi***] ***kökärdi näŋ*** – “narsa ko‘kardi, osmon rangiga kirdi” (***kökärür***, ***kökärmäk***).

[***kölärdi***] ***kölärdi suw*** – “ko‘llagan suv; suv to‘planib ko‘lga o‘xshadi, ko‘lga aylandi” (***kölärür***, ***kölärmäk***).

[***kölärdi***] ***at kölärdi*** – “otning qorni damlanib, shishganidan chalqancha yotdi” (***kölärür***, ***kölärmäk***). Maqolda (shunday kelgan): ***Er oγlï muŋaδmas, ït oγlï kölärmäs.*** Ma’nosi: “Itning bolasi doim ot singari chalqancha yota olmaganidek, odam bolasi doim iztirobda qolmaydi, biror yumush bilan undan qutuladi”.

[***tamurdï***] ***er burnï tamurdï*** – “kishining burni qonadi”.

[***tümürdi*** / ***tumurdï*** / ***tumïrdï***] ***er yïγač tumurdï*** / ***tumïrdï*** – “kishi yog‘ochni ustun va shuning kabilarning tubiga o‘xshatib doira qilib kesdi” (***tumurur***, ***tumurmaq***).

[***čomurdï***] ***ol anï suwqa čomurdï*** – “u uni suvga cho‘mdirdi, sho‘ng‘itdi, botirdi” (***čomrur***, ***čomurmaq***). Yoki ***čömürdi***, ***čömürür***, ***čömürmäk*** ham deyiladi. Bu shakl birinchisiga qaraganda chuqurroq cho‘ktirish ma’nosidadir.

[سمُرْدِی ***simürdi***] اُلْ سُوتُکْ سِمُرْدِی ***ol sütüg simürdi*** – “u sutni va boshqa suyuqlikni simirib ichdi” (سِمُرُرْ ***simürür***, سِمُرْمَاکْ ***simürmak***).

[سُبُرْدِی ***süpürdi***] اُلْ اَفْ سُبُرْدِی ***ol ew süpürdi*** – “u uy va boshqa joylarni supurdi” (سُبُرُرْ ***süpürür***, سُبُرْمَاکْ ***süpürmak***).

[کَمُرْدِی ***kemürdi***] اُلْ سُنکُوکْ کَمُرْدِی ***ol söŋük kemürdi*** – “u so‘ngak kemirdi” (کَمُرُرْ ***kemürür***, کَمُرْمَاکْ ***kemürmak***).

[تُنَرْدِی ***tünärdi***] تُنَرْدِی یِیرْ ***tünärdi yer*** – “yer qorong‘ilashdi, qorong‘i bo‘ldi”. Zamonga ham shunday deyiladi (تُنَرُرْ ***tünärür***, تُنَرْمَاکْ ***tünärmak***).

ز ***z*** [harfi]:

[تَبُزْدِی ***tabuzdï***] اُلْ مَنکَا سُوزْ تَبُزْدِی ***ol meŋä söz tabuzdï*** (156b) – “u menga piching qildi, ilmoqli qilib so‘zladi” (تَبُزُرْ ***tabuzur***, تَبُزْمَاکْ ***tabuzmaq***).

[تُتُزْدُمْ ***tutuzdum***] مَنْ اَنکَرْ سُوزْ تُتُزْدُمْ ***men aŋar söz tutuzdum*** – “men unga so‘zni yoki rioya qilish kerak bo‘lgan narsani ishorat qildim, uqtirdim” (تُتُزُرْ ***tutuzur***, تُتُزْمَاقْ ***tutuzmaq***).

[تَمُزْدِی ***tamuzdï***] اُلْ سُوفْ تَمُزْدِی ***ol suw tamuzdï*** – “u suv va boshqa narsalarni tomizdi” (تَمُزُرْ ***tamuzur***, تَمُزْمَاقْ ***tamuzmaq***).

[کُذَزْدِی ***köδäzdi***] اُلْ مَنکَا کُذَزْدِی ***ol meŋä köδäzdi*** – “u narsani menga saqladi, asradi”; اُلْ مَنِی کُذَزْدِی ***ol meni köδäzdi*** deyiladi, “u meni kutdi” ma’nosidadir. کُذَزْدِی ***köδäzdi*** – bu so‘z “saqlamoq” va “kutmak” ma’nolarida qo‘llanadi (کُذَازُرْ ***köδäzür***, کُذَزْمَاکْ ***köδäzmak***). Bu so‘zning asli کُوزْ اَتّی ***köz attï***, ya’ni “esida tutish uchun ko‘zini bir narsaga otdi, tashladi” demakdir. Boshqa bir tilda کُزَتّی ***küzätti*** (“kuzatdi”)dir. Bu fe’llardagi *zā* harfi qoidadan tashqaridir. Chunki o‘timsiz fe’llar buyruq oxiriga *rā* harfi qo‘shish bilan o‘timli bo‘ladi, *zā* qo‘shish bilan emas. Chunonchi, اَرْ قَجْتِی ***er qačtï*** gapidagi قَجْتِی ***qačtï*** o‘timsiz fe’ldir. Bu fe’lning o‘timli shakli قَجُرْدِی ***qačurdï*** dir, اُلْ اَنِی قَجُرْدِی ***ol anï qačurdï*** gapidagi singari. Bu yerda o‘timsiz fe’l o‘zakka *rā* orttirish bilan o‘timliga aylangan. اَرْ سُوفْ کَجْتِی ***er suw kečti*** gapidagi کَجْتِی ***kečti*** fe’li ham o‘timsizdir. اُلْ اَنِی کَجُرْدِی ***ol anï kečürdi*** gapida esa کَجُرْدِی ***kečürdi*** o‘timlidir, ya’ni aslida o‘timsiz bo‘lgan کَجْتِی ***kečti*** (“o‘tdi”) fe’li o‘zakka *rā* orttirish bilan o‘timli fe’lga aylangan. سُوفْ تَمْدِی ***suw tamdï*** (“suv tomdi”), مَنِی کُذْتِی ***meni köδti*** (“meni kutdi”) gaplaridagi تَمْدِی ***tamdï***, کُذْتِی ***köδti*** o‘timsiz fe’llarining o‘timlisi ham *zā* bilan emas, *rā* harfi bilan bo‘lishi qoidaga muvofiq edi. O‘g‘uzlar ba’zi so‘zlardagi *rā* harfini *zā* ga almashtiradilar. Chunonchi, ular اُلْ تَقَارْ اَلْدُزْدِی ***ol tawar alduzdï*** (“uning moli tortib olindi”) deydilar. Buning asli اَلْدِی ***aldï*** dir.

ش ***š*** [harfi]:

[تَپِشْدِی ***tepišdi***] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا تَپِشْدِی ***ol meniŋ birlä tepišdi*** – “u men bilan tepishdi” (تَپِشُورْ ***tepišür***, تَپِشْمَاکْ ***tepišmak***).

[قَپِشْدِی ***qapïšdï***] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا تُپِقْ قَپِشْدِی ***ol meniŋ birlä topïq qapïšdï*** – “u chovgon urish va boshqa o‘yinlarda to‘pni mendan tez oldi, tez o‘ynadi” (قَپِشُورْ ***qapïšur***, قَپِشْمَاقْ ***qapïšmaq***).

[قُبُشْدِی ***qopušdï***] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا قُبُشْدِی ***ol meniŋ birlä qopušdï*** – “u men bilan tik turishda bahslashdi”. Ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُبُشُورْ ***qopušur***, (157a) قُبُشْمَاقْ ***qopušmaq***).

[کُبُشْدِی ***köpüšdi***] اُلْ مَنکَا تُونْ کُبُشْدِی ***ol meŋä ton köpüšdi*** – “u menga kiyimni qoqishda yordam berdi, silkitishdi”. “Bahslashmak” ma’nosida ham shu so‘z qo‘llanadi (کُبُشُورْ ***köpüšür***, کُبُشْمَاکْ ***köpüšmäk***).

[بِتِشْدِی ***bitišdi***] اُلْ مَنکَا بِتِکْ بِتِشْدِی ***ol meŋä bitig bitišdi*** – “u menga xat bitishda yordam qildi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (بِتِشُورْ ***bitišür***, بِتِشْمَاکْ ***bitišmäk***).

[بِتِشْتِلَارْ ***bitištilär***] اُلَارْ اِکّی بِتِشْتِلَارْ ***olar ikki bitištilär*** – “ular ikkovlari bitishdilar, ularning har biri boshqasining unga qilgan da’vosini tan oldilar” (بِتِشُورْلَار ***bitišürlär***, بِتِشْمَاکْ ***bitišmäk***).

[تُتُشْدِیلَارْ ***tutušdïlar***] اُلَارْ اِکّی تُتُشْدِیلَارْ ***olar ikki tutušdïlar*** – “ular ikkisi bir-biri bilan tutishdi”. Shuningdek, bir narsaning boshqa bir narsaga yopishishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُتُشُورْ ***tutušur***, تُتُشْمَاقْ ***tutušmaq***).

[تُتُشْدِی ***tütüšdi***] اُلْ مَنکَا کَیِکْ تُتُشْدِی ***ol meŋä keyik tütüšdi*** – “u menga (ovda) kiyik va boshqa hayvonlarni tutishdi”. “Talashish” ma’nosida ham اُلَارْ اِکّی تُتُشْدِیلَارْ ***olar ikki tütüšdilär*** (“ular ikkovi talashdilar”) deydilar. Birinchi mazmun asoslidir (تُتُشُورْ ***tütüšür***, تُتُشْمَاکْ ***tütüšmäk***).

[تِتِشْدِی ***titišdi***] اُلْ مَنکَا یُونکْ تِتِشْدِی ***ol meŋä yüŋ titišdi*** – “u menga (qo‘l bilan) yung titishdi”. “Tortishish, talashish” uchun ham shu so‘z qo‘llanadi. “Bir-birining to‘nini tortishga, yirtishga” ham shu so‘z qo‘llanadi (تِتِشُورْ ***titišür***, تِتِشْمَاکْ ***titišmäk***[1]). Maqolda (shunday kelgan): سُکُشُبْ اُرْشُورْ اُتْرَا تُونْ تِتِشُورْ ***Söküšüp uršur, otra ton titišür.*** Ma’nosi: “So‘kishdan urishish boshlanadi, o‘rtada kiyim yirtiladi”. Bu maqol (kishilarni) so‘kishdan qaytarishga undab aytiladi.

[سَتِشْدِی ***satïšdï***] اُلْ مَنکَا تَقَارْ سَتِشْدِی ***ol meŋä tawar satïšdï*** – “u menga tavar sotishda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَتِشُورْ ***satïšur***, سَتِشْمَاقْ ***satïšmaq***).

[قَتِشْدِی ***qatïšdï***] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا تَلْقَانْقَا یَاغْ قَتِشْدِی ***ol meniŋ birlä talqanqa yaγ qatïšdï*** – “u men bilan talqonga yog‘ surtishdi”. “Bahslashish”ga ham shu so‘z qo‘llanadi (قَتِشُورْ ***qatïšur***, قَتِشْمَاقْ ***qatïšmaq***).

[کَتِشْدِی ***ketišdi***] اُلَارْ بِیرْ اَکِنْدِیدِینْ کَتِشْدِی ***olar bir ekindidin ketišdi*** – “ular (ikki do‘st) bir-biridan ayrilishdi” (کَتِشُورْ ***ketišür***, کَتِشْمَاکْ ***ketišmäk***).

(Shoir) shunday degan: (157b)

یَرَغْ بُلُبْ یَغُشْدِی ***Yaraγ bulup yaγušdï,***
اَرْتُقْلُقُنْ سُکُشْدِی ***Artuqluqun söküšdi.***
قُلُنْ قَبُبْ کَتِشْدِی ***Qulun qapup ketišdi,***
سُرْدَا مَنِکْ قُویُمِی ***Sürdä meniŋ qoyumï.***

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (تِتِشْمَاکْقْ).

Foydalanib, so‘ng bir qancha narsalarni undan yashirgan sherigi haqida aytmoqda: “Vaqt poylab dushmanlik qildi, o‘rtoq bo‘la turib boshimga tashvish soldi. Qulunni o‘g‘irlab ketdi. Qo‘ylarimni haydab ketdi, so‘ng mendan ayrildi”.

لِقِنْ *-līqïn,* لِكِنْ *-likin* – bular “birga; bilan” ma’nosidagi kelishik qo‘shimchalarining ikki xil variantidir. Bular yuqoridagicha *yā* [*i, ï*] bilan ham, *vāv* [*ü, u*] bilan: لُقُنْ *-luqun*, لُكُنْ *-lükün* tarzida kelishi ham mumkin. Ba’zi joylarda bu qo‘shimcha arabcha *bāyi ilṣāq* (باء الالصاق) vazifasini bajaradi. Chunonchi, **بِلِكِنْ أُلْغُلْقًا تَكْدِمْ *biligin uluγluqqa tegdim*** (“bilig, ilm, aql vositasi bilan yuqori martabaga erishdim”) degandagi **بِلِكِنْ *biligin*** kabi. Yana bir misol: **اَذْكُولُكُنْ كَلْ اِيسِزْلِكِنْ كَلْمَا *eδgülügün kel, esizligin kelmä*** (“yaxshilik bilan kel, yomonlik bilan kelma”) iborasidagi **اذْكُولُكُنْ *eδgülügün*** so‘zlari kabi.

Bu so‘zlarda *qāf* asosdir. *kāf* faqat ingichka talaffuzli so‘zlarda *qaf* o‘rniga almashib keladi. Men bu haqda yuqorida bayon qilganman. لِقِنْ *-līqïn,* لِكِنْ *-likin* shakllari quyidagicha: o‘rtasi *vāv* [*u, ü*] li so‘zlardan so‘ng kelsa, لُقُنْ *-luqun,* لُكُنْ *-lükün* tarzida, o‘rtasi *yā* [*ï, i*] li yoki *sukun* li so‘zlardan keyin kelsa, لِقِنْ *-līqïn,* لِكِنْ *-likin* tarzida qo‘llanadi.

[**بِچِشْدِى *bïčïšdï***] **اُلْ مَنِكْ بِرْلَا يِغَاجْ بِچِشْدِى *ol meniŋ birlä yïγač bïčïšdï*** – “u yog‘och va boshqa narsalarni kesishda men bilan bahslashdi”. Ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (**بِچِشْمَاقْ *bïčïšmaq*, بِچِشُورْ *bïčïšur***). Ikki kishi bir-biridan ayrilib ketishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[**سُجُشْدِى *süčüšdi***] **سُجُشْدِى نَاتكْ *süčüšdi näŋ*** – “narsa chuchidi, shirin bo‘ldi” (**سُجِشْمَاكْ *süčišmäk*, سُجِشُورْ *süčišür***).

[**سَجِشْدِى *sečišdi***] **اُلْ مَنكَا يَرْمَاقْ سَجِشْدِى *ol meŋä yarmaq sečišdi*** – “u menga tanga va boshqa narsalarni sochishdi”. Bahslashish, tortishish uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (**سَجِشْمَاكْ *sečišmäk*, سَجِشُورْ *sečišür***).

[**سُجِشْدِى / سُجُشْدِى *sočušdï* / *sočïšdï***] **اَتْ لَارْ قَمُغْ سُجُشْدِى / سُجِشْدِى *atlar qamuγ sočušdï* / *sočïšdï*** – “otlar va boshqa hayvonlarning hammasi cho‘chib tushishdi” (**سُجُشْمَاقْ / سُجِشْمَاقْ / سُجُشُورْ / سُجِشُورْ *sočušmaq* / *sočïšmaq*, *sočušur* / *sočïšur***).

[**قَجِشْتِى *qačïštï***] **اُلَارْ بِيرْ بِيرْدِنْ قَجِشْتِى *olar bir-birdin qačïštï*** – “ular bir-biridan qochishdi” (**قَجِشْمَاقْ *qačïšmaq*, قَجِشُورْ *qačïšur***).

[**قُجُشْدِى *qučušdï***] **اُلْ مَنِكْ بِرْلَا قُجُشْدِى *ol meniŋ birlä qučušdï*** – “u men bilan quchoqlashdi” (**قُجُشْمَاقْ *qučušmaq*, قُجُشُورْ *qučušur***).

[**كَجِشْتِى *kečištï***] **اُلْ مَنِكْ بِرْلَا سُوقْ كَجِشْتِى *ol meniŋ birlä suw kečištï*** – “u men bilan suv kechishdi” (158a) (**كَجِشْمَاكْ *kečišmäk*, كَجِشُورْ *kečišür***).

[**كُجَشْدِى *küčäšdi***] **اُلَارْ اِكِّى تَقَارْ كُجَشْدِى *olar ikki tawar küčäšdi*** – “ular ikkisi mol talashishdi”. Ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (**كُجَشْمَاكْ *küčäšmäk*, كُجَشُورْ *küčäšür***).

[**بُدُشْدِى *büδüšdi***] **اُغْلَانْ بُدُشْدِى *oγlan büδüšdi*** – “bolalar o‘yin va raqsda urishdi” (**بُدُشْمَاكْ *büδüšmäk*, بُدُشُورْ *büδüšür***).

[بُذُشدِی ***buδušdï***] بُذُشْدِی نَانکْ ***buδušdï näŋ*** – “o‘tirganda ikki oyoq bir-biridan ajralgani kabi narsa ayrildi”. (بُذُشُرْ ***buδušur***, بُذُشْمَاقْ ***buδušmaq***).

[تِذِشدِی ***tïδïšdï***] أَلَارْ بِيرْ بِيرِكْ تِذِشْدِی ***olar bir-birig tïδïšdï*** – “ular bir-birini bir narsadan tiyishdi, qaytarishdi” (تِذِشُورْ ***tïδïšur***, تِذِشْمَاقْ ***tïδïšmaq***).

[قَدِشدِی ***qadïšdï***] أُلْ مَنکَا تُونْ قَدِشْدِی ***ol meŋä ton qadïšdï*** – “u menga kiyimni so‘klashda, siyrak-siyrak qilib choklashda ko‘maklashdi”. U bir turli tikishdir ([قَدِشُورْ ***qadïšur***], قَدِشْمَاقْ ***qadïšmaq***). Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قِدِشدِی ***qïdïšdï***] أُلْ مَنکَا بُرکْ قِدِشْدِی ***ol meŋä börk qïdïšdï*** – “u menga do‘ppi jiyagini tikishdi”. To‘garak hoshiyali har bir narsani (ko‘ylak yoki to‘n jiyagi) tikishda yordam berishga ham shu so‘z qo‘llanadi (قِدِشُورْ ***qïdïšur***, قِدِشْمَاقْ ***qïdïšmaq***).

[قُدُشدِی ***qodušdï***] أَلَارْ بِيرْ بِيرْکَا اِيشْ قُدُشْدِی ***olar bir-birkä ïš qodušdï*** – “ular ishni bir-biriga tashlab qo‘yishdi, bir-biriga suyanishdi, ishonishdi” (قُدُشُورْ ***qodušur***, قُدُشْمَاقْ ***qodušmaq***).

[کُدُشدِی ***küdüšdi***] أَلَارْ بِيرْ بِيرِكْ کُدُشْدِی ***olar bir-birig küdüšdi*** – “ular bir-birini kutishdi” (کُدُشُورْ ***küdüšür***, کُدُشْمَاکْ ***küdüšmäk***).

[بَرِشدِی ***barïšdï***] أَلَارْ بِيرْ بِيرْکَا بَرِشْدِی ***olar bir-birkä barïšdï*** – “ular bir-birinikiga borishdi”. “Borishda bir-biriga ko‘maklashish va bir-biri bilan bahslashish” ma’nosida ham shu so‘z qo‘llanadi (بَرِشُورْ ***barïšur***, بَرِشْمَاقْ ***barïšmaq***).

[بُرُشدِی ***bürüšdi***] أُلْ مَنکَا بُرْمَا بُرُشْدِی ***ol meŋä bürmä bürüšdi*** – “u menga og‘ni burib tikishda ko‘maklashdi”. Charm xalta og‘zi kabi to‘garak bo‘lgan narsalar uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (بُرُشُورْ ***bürüšür***, بُرُشْمَاکْ ***bürüšmäk***).

[بُرُشدِی ***burušdï***] بُرُشدِی نَانکْ ***burušdï näŋ*** – “narsa burishdi”; bu yuzning burishishi kabidir (158b) (بُرُشُورْ ***burušur***, بُرُشْمَاقْ ***burušmaq***).

[بَرِشدِی ***berišdi***] أَلَارْ بِيرْ بِيرْکَا قِيزْ بَرِشْدِی ***olar bir-birkä qïz berišdi*** – “ular bir-biriga qiz berishdi”. Ikki kishining bir-biriga narsa tortiq qilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَرِشُورْ ***berišür***, بَرِشْمَاکْ ***berišmäk***).

[تُرُشدِی ***turušdï***] کِچِکْ أُلُغْ بِرْلَا تُرُشْدِی ***kičig uluγ birlä turušdï*** – “kichik kattta bilan tortishdi, xusumatga borishdi” (تُرُشُورْ ***turušur***, تُرُشْمَاقْ ***turušmaq***). Maqolda (shunday kelgan): کِچِکْ أُلُغْ قَا تُرُشْمَاسْ قِرْغُوىْ سُنکقُرْقَا قَرِشْمَاسْ ***Kičig uluγqa turušmas, qïrγuy soŋqurqa qarïšmas.*** Aytmoqdaki: “Kichik chaqqon, shijoatli bo‘lsa ham, katta bilan olishishga kuchsizdir. Chunki kattaning hiyla va ziyrakligi bor. Shunga o‘xshash oq lochin qirg‘iy bilan olishishdan ojizdir”.

[تِرَشدِی ***tiräšdi***] أُلْ مَنِکْ بِرْلَا تِرَشْدِی ***ol meniŋ birlä tiräšdi*** – “u men bilan qattiq xusumatlashdi”. Darvozaga qo‘yilgan tirgak kabi bir narsani tiklashda ko‘mak berishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِرَشُورْ ***tiräšür***, تِرَشْمَاکْ ***tiräšmäk***).

[تُرُشدِی ***türüšdi***] أُلْ مَنکَا بِتِکْ تُرُشْدِی ***ol meŋä bitig türüšdi*** – “u menga kitob va boshqa narsalarni taxlashda ko‘maklashdi” (تُرُشُورْ ***türüšür***, تُرُشْمَاکْ ***türüšmäk***). Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[تِرِشدِی ***terišdi***] أُلْ مَنکَا يِمِشْ تِرِشْدِی ***ol meŋä yemiš terišdi*** – “u menga meva va boshqa narsalarni terishdi”. Har bir narsani terish va to‘plashga ham shu so‘z

qo‘llanadi (تَرِشُورْ ***terišür,*** تَرِشْمَاكْ ***terišmäk***). Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[تِرَشْدِى ***tiräšdi***] يِلْقِى تُيَغِنْ تِرَشْدِى ***yïlqï tuyaγïn tiräšdi*** – “yilqilar yurish qiyinligidan oyog‘ini tiradi, yurishdan to‘xtadi” (تِرَشُورْ ***tiräšür,*** تِرَشْمَاكْ ***tiräšmäk***).

[سَرِشْدِى ***sarïšdï***] اُلْ مَنكَا سُقُلْقْ سَرِشْدِى ***ol meŋä suwluq sarïšdï*** – “u menga salla o‘rashdi”. Boshqa narsalarni o‘rashda ham shu so‘z qo‘llanadi. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَرِشُورْ ***sarïšur,*** سَرِشْمَاقْ ***sarïšmaq***).

[سُرُشْدِى ***sorušdï***] تُونْ تَارِكْ سُرُشْدِى ***ton terig sorušdï*** – “kiyim terni so‘rib oldi, shimdi” (سُرُشُورْ ***sorušur,*** سُرُشْمَاقْ ***sorušmaq***).

[سُرِشْدِى ***surïšdï***] اَنِكْ يُوزِى سُرِشْدِى ***anïŋ yüzi surïšdï*** – “uning yuzi burishdi, surbet bo‘ldi” (سُرِشُورْ ***surïšur,*** سُرِشْمَاقْ ***surïšmaq***).

[سِرِشْدِى ***sirïšdï***] قِيزْ اَنَاسِنكَا كِزْ سِرِشْدِى ***qïz anasïŋa*** (159a) ***kiðiz sirïšdï*** – “qiz onasiga kiyiz bosishda ko‘maklashdi”. Bu turkmanlarning chodirlari, egar yopchiqlari va boshqa shuning singarilarni tikish kabidir (سِرِشُورْ ***sirïšur,*** سِرِشْمَاقْ ***sirïšmaq***).

[سُرُشْدِى ***sürüšdi***] اَذْغِرْ قِسْرَاقْ بِرْلَا سُرُشْدِى ***aðγïr qïsraq birlä sürüšdi*** – “ayg‘ir baytal bilan tishlashib o‘ynashdi”. Bu ayg‘irning baytalga irg‘ish istaganida bo‘ladi.

[سُرُشْدِى ***sürüšdi***] اُلْ مَنِكْ بِرْلَا سُرُشْدِى ***ol meniŋ birlä sürüšdi*** – “u meni ta’qib etdi, men bilan olishdi”.

[سُرُشْدِى ***sürüšdi***] اُلْ اَنْدَا اَلِمِنْ سُرُشْدِى ***ol anda alïmïn sürüšdi*** – “u uning ustidagi qarzini, oladiganini surushdi” (سُرُشُورْ ***sürüšür,*** سُرُشْمَاكْ ***sürüšmäk***).

[قَرِشْتِى ***qarïštï***] بُرِى تِشِى قَرِشْتِى ***böri tïšï qarïštï*** – “bo‘rining tishi qamashdi”. Bu uning ovqat yemaydigan kunlari tishlarining girih bo‘lishidir. Chunki bo‘ri oyda bir hafta ovqat yemaydi. Bu kunlarda u havodan nafas olib kun kechiradi.

[قَرِشْدِى ***qarïšdï***] تُنْ كُنْ بِرْلَا قَرِشْدِى ***tün kün birlä qarïšdï*** – “tun kun bilan qarshilashdi”.

(Shoir) shunday degan:

يَايْ قِشْ بِلَا قَرِشْتِى ***Yay qïš bilä qarïštï,***
اَرْدَمْ يَاسِنْ قُرِشْتِى ***Erdäm yasïn qurïštï.***
جَرِكْ تُتُبْ كُرُشْتِى ***Čerig tutup körüšti,***
اُقْتَاغَلِى اُتْرُشُورْ ***Oqtaγalï otrušur.***

Aytmoqdaki: “Yoz qish bilan qarshilashdi, har biri hunar, san’at yoyini qurishdi [o‘z hunarini ko‘rsatishga kirishdi]. Saf tortishib, o‘q otishda bir-biridan o‘tkazishdi”.

[قَرِشْتِيلَارْ ***qarïštïlar***] اِكِى بَكْلَارْ قَرِشْتِيلَارْ ***ikki beglär qarïštïlar*** – “ikki bek qarshilashdi va bir-birini o‘ldirishdi”.

[قَرِشْتِى ***qarïštï***] اُلْ مَنكَا يُولْدَا قَرِشْتِى ***ol meŋä yolda qarïštï*** – “u menga yo‘lda yo‘liqdi” (قَرِشُورْ ***qarïšur,*** قَرِشْمَاقْ ***qarïšmaq***).

[قُرُشْتِی *qurušti*] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا یَا قُرُشْتِی *ol meniŋ birlä ya qurušti* – “u men bilan yoy tortishda bahslashdi”. Ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُرُشُورْ *qurušur*, قُرُشْمَاقْ *qurušmaq*).

[قُرُشْدِی *quruštdi*] اَتْمَاکْ قَمُغْ قُرُشْدِی *etmäk qamuγ quruštdï* – “non butunlay quridi, qotib qoldi”. Boshqa narsalarning qurishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُرُشُورْ *qurušur*, قُرُشْمَاقْ *qurušmaq*).

[قُرِشْتِی / قُرُشْتِی / قُرِغْ قُرُشْتِی / قُرِغْ / اُلْ مَنکَا قُرُغْ *ol meŋä qoruγ* / *qoriγ qoruštï* / *qorištï* / *qoruštï* / *qorištï*] – “u qo‘riladigan, saqlanadigan yerni qo‘rishda menga yordam berdi, qo‘rishdi”.

[قِرِشْدِی *qïrïštdï*] اُلْ مَنکَا یِرْ قِرِشْدِی *ol meŋä yer qïrïštdï* (159b) – “u menga yer va boshqalarni qirishda ko‘maklashdi”. Yer qirishda bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (قِرِشُورْ *qïrïšur*, قِرِشْمَاقْ *qïrïšmaq*).

[کَرِشْدِی *kerišdi*] اُلْ مَنکَا یِبْ کَرِشْدِی *ol meŋä yïp kerišdi* – “u menga ip va boshqa narsalarni cho‘zishda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (کَرِشُورْ *kerišür*, کَرِشْمَاکْ *kerišmäk*).

[کَرِشْدِی *kerišdi*] اُلْ اَنِکْ بِرْلا کَرِشْدِی *ol anïŋ birlä kerišdi* – “u uning bilan bir narsa (xususida) janjallashdi, urishdi”; اُل اَنِک بِرلا کَرِشدِی *ol anïŋ birlä kerišdi* – “u uning bilan o‘zaro talashdi, tortishdi” (کَرِشُورْ *kerišür*, کَرِشْمَاکْ *kerišmäk*).

[کُرِشْدِی *körišdi*] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا کُرِشْدِی *ol meniŋ birlä körišdi* – “u men bilan yuzma-yuz ko‘rishdi”. Har qanday narsa ko‘rinsa ham shu so‘z qo‘llanadi (کُرِشُورْ *körišür*, کُرِشْمَاکْ *körišmäk*).

[کُرَشْدِی *küräšdi*] اُلْ مَنکَا قَارْ کُرَشْدِی *ol meŋä qar küräšdi* – “u menga qor va boshqa narsalarni kurashda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (کُرَشُورْ *küräšür*, کُرَشْمَاکْ *küräšmäk*).

[کِرِشْدِی *kirišdi*] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا اِیشْقَا کِرِشْدِی *ol meniŋ birlä ïšqa kirišdi* – “u men bilan birga ishga va boshqa narsalarga kirishda bahslashdi” (کِرِشُورْ *kirišür*, کِرِشْمَاکْ *kirišmäk*).

[بَزَشْدِی *bezäšdi*] اُلْ مَنکَا بَزَکْ بَزَشْدِی *ol meŋä bezäk bezäšdi* – “u menga bir narsaning naqshini qilishda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَزَشُورْ *bezäšür*, بَزَشْمَاکْ *bezäšmäk*).

[بُزُشْدِی *buzušdï*] اُلْ مَنکَا اَقْ بُزُشْدِی *ol meŋä ew buzušdï* – “u menga uy buzishdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (بُزُشُورْ *buzušur*, بُزُشْمَاقْ *buzušmaq*).

[تَزِشْدِی *tezišdi*] اَلَارْ اِکّی تَزِشْدِی *olar ikki tezišdi* – “ular ikkovi bir-biridan qochdi” (تَزِشُورْ *tezišür*, تَزِشْمَاکْ *tezišmäk*).

[تُزَشْدِی *tüzäšdi*] اُلْ مَنکَا یِرْ تُزَشْدِی *ol meŋä yer tüzäšdi* – “u menga yer va boshqa joylarni tekislashdi, to‘g‘rilashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُزَشُورْ *tüzäšür*, تُزَشْمَاکْ *tüzäšmäk*).

[تِزِشْدِی *tizišdi*] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا یِنْجُو تِزِشْدِی *ol meniŋ birlä yinčü tizišdi* – “u men bilan inju tizishda bahslashdi. She’r va shuning singari boshqa narsalarga,

(shuningdek) ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِزِشْمَاكْ *tizišmäk*, تِزِشْنُورْ *tizišür*).

[قَزِشْدِى *qazišdï*] اُلْ مَنكَا يِيرْ قَزِشْدِى *ol meŋä yer qazišdï* – “u menga yer va boshqa narsalarni qazishda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (قَزِشْمَاقْ *qazïšmaq*[1], قَزِشْنُورْ *qazïšur*).

[كَزِشْدِى *kezišdi*] اُلْ مَنكَا يِيرْ كَزِشْدِى *ol meŋä yer kezišdi* – “u yer yuzini aylanib chiqishda men bilan bahslashdi” (كَزِشْمَاكْ *kezišmäk*, كَزِشْنُورْ *kezišür*).

[كُزَشْتِى *közäšti*] اُلْ مَنكَا اُوتْ كُزَشْتِى *ol meŋä ot közäšti* (160a) – “u menga cho‘g‘ni o‘t oldirishda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (كُزَشْمَاكْ *közäšmäk*, كُزَشْنُورْ *közäšür*).

[بَسِشْدِى *basïšdï*] اُلْ مَنكَا اُيْمَا بَسِشْدِى *ol meŋä oyma basïšdï* – “u menga o‘yma (turkman namati) bosishda ko‘maklashdi”. To‘zg‘oq holatini qoldirmaguncha bosilib mahkamlangan narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَسِشْمَاقْ *basïšmaq*, بَسِشْنُورْ *basïšur*).

[بُسُشْدِى *pusušdï*] بَكْلَارْ بُسُشْدِى *beglär pusušdï* – “beklar bir-biriga qarshi pistirma qurishdi” (بُسُشْمَاقْ *pusušmaq*, بُسُشْنُورْ *pusušur*).

[سُسُشْدِى *süsüšdi*] اِكّى قُجْنكَارْ سُسُشْدِى *ikki qočuŋar süsüšdi* – “ikki qo‘chqor suzishdi” (سُسُشْمَاكْ *süsüšmäk*, سُسُشْنُورْ *süsüšür*).

[كَسِشْدِى *kesišdi*] اُلْ مَنكَا يِغَاجْ كَسِشْدِى *ol meŋä yïγač kesišdi* – “u menga daraxt va boshqa narsalarni kesishdi”. Bahslashish uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (كَسِشْمَاكْ *kesišmäk*, كَسِشْنُورْ *kesišür*).

[كُسَشْدِى *küsäšdi*] اَرَنْ قَمُغْ تَقَارْ كُسَشْدِى *erän qamuγ tawar küsäšdi* – “kishilar mol istashdi”. “Mol bilan faxrlanish”ga ham shu so‘z qo‘llanadi (كُسَشْمَاكْ *küsäšmäk*, كُسَشْنُورْ *küsäšür*).

[بُغُشْدِى *boγušdï*] اُلَارْ اِكّى بُغُشْدِى *olar ikki boγušdï* – “ular ikkovi (bir birini) bo‘g‘ishdi” (بُغُشْمَاقْ *boγušmaq*, بُغُشْنُورْ *boγušur*).

[سَغِشْدِى *sayïšdï*] اُلَارْ اِكّى سُوتْ سَغِشْدِى *olar ikki süt sayïšdï* – “ular ikkovi sut sog‘ishda bahslashishdi”. Ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَغِشْمَاقْ *sayïšmaq*, سَغِشْنُورْ *sayïšur*).

[سُغُشْدِى / سُغِشْدِى *soγušdï* / *soγïšdï*] اُودْ سُغُشْدِى / سُغِشْدِى *öd soγušdï* / *soγïšdï* – “vaqt (kun, havo) soviy boshladi” (سُغِشْمَاقْ *soγïšmaq*, سُغِشْنُورْ *soγïšur*).

[تُقِشْدِى *tüwišdi*] اُلْ مَنِكْ بِرْلَا اَتْ تُقِشْدِى *ol meniŋ birlä et tüwišdi* – “u men bilan go‘shtni sixga tiqishda bahslashdi”. Boshqa narsalarga ham, shuningdek, ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُقِشْمَاكْ *tüwišmäk*, تُقِشْنُورْ *tüwišür*).

[سَقَشْدِى *sawašdï*] اُلَارْ اِكّى سَقَشْدِى *olar ikki sawašdï* – “ular ikkovi savashdi, urushdi” (o‘g‘uzcha) (سَقَشْمَاقْ *sawašmaq*, سَقَشْنُورْ *sawašur*).

[سَقِشْدِي *sewišdi*] اُلَارْ اِكّى سَقِشْدِي *olar ikki sewišdi* – “ular ikkovi sevishishdi” (سَقِشْمَاكْ *sewišmäk*, سَقِشْنُورْ *sewišür*).

[1] Masdar shakli *kāf* bilan yozilib, keyin *qāf* deb tuzatib qo‘yilgan (قَزِشْمَاكْقْ).

[سُوِشْدِی ***suwïšdï***] يُغُرْمِشْ اُونْ سُوِشْدِی ***yuγurmïš un suwïšdï*** (160b) – “qorilgan un (xamir) suvi ko‘pligidan suyulib, bo‘shashib ketdi”. Suvi ko‘pligidan suyulgan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُوِشُورْ ***suwïšur***, سُوِشْمَاقْ ***suwïšmaq***).

[سُوَشْدِی ***suwašdï***] اُلْ مَنكَا اَقْ سُوَشْدِی ***ol meŋä ew suwašdï*** – “u menga uy va boshqa narsalarni suvashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُوَشُورْ ***suwašur***, سُوَشْمَاقْ ***suwašmaq***).

[قَوْشْدِی ***qawušdï***] اَرْكَكْ تِشِيقَا قَوْشْدِی ***erkäk tïšïqa qawušdï*** – “erkak ayolga qovushdi, nikoh bilan bog‘landi”. Bu so‘zning asl ma’nosi “bir narsaning bir narsaga yopishishi, birikuvi”dir. Chunonchi, قَدَاشْ قَدَاشْقَا قَوْشْدِی ***qadaš qadašqa qawušdï*** – “yaqin yaqini bilan qovushdi”. Ikki shoh orasidagi yarashuvni قَوْشُتْ ***qawšut*** deyilishi ham shundan.

Maqolda (shunday kelgan): تَاغْ تَاغْقَا قَوْشْمَاسْ كِشِی كِشِيكَا قَوْشُورْ ***Taγ taγqa qawušmas, kiši kišikä qawušur.*** Ya’ni: “Tog‘ toqqa qovushmaydi, kishi kishiga qovushadi [bir kun kelib bir-biri bilan uchrashadi]” (قَوْشُورْ ***qawušur***, قَوْشْمَاقْ ***qawušmaq***).

Bu so‘zdagi jarangli ف *fā* [*w*] ni (الفا الركيكه) *vāv* ga aylantirish ham mumkin.

[قُوْشْدِيلَارْ ***quwušdïlar***] اُلَارْ بِيرْ اَكِنْدِينِی قُوْشْدِيلَارْ ***olar bir ekindini quwušdïlar*** – “ular biri ikkinchisini (bir-birini) quvishdilar” (قُوْشُورْ ***quwušur***, قُوْشْمَاقْ ***quwušmaq***).

[بَقِشْدِی ***baqïšdï***] اُلَارْ بِيرْ بِيرْكَا بَقِشْدِی ***olar bir-birkä baqïšdï*** – “ular bir-biriga rioya bilan boqishdilar” (بَقِشُورْ ***baqïšur***, بَقِشْمَاقْ ***baqïšmaq***).

[تُقُشْتِی ***toquštï***] بَكْلَارْ تُقُشْتِی ***beglär toquštï*** – “beklar va boshqalar urushdilar” (تُقِشُورْ ***toqïšur***, تُقِشْمَاقْ ***toqïšmaq***).

(Shoir) shunday degan:

كُچِی تَنكِی تُقُشْتِی ***Küči teŋi toquštï,***
اُغُشْ قُونُمْ اُقُشْتِی ***Oγuš qonum oquštï.***
جَرِكْ تَبَا يَقِشْتِی ***Čerig tapa yaqïštï,***
بِزْكَا كلِبْ اُجْ اَتَرْ ***Bizkä kelip öč ötär.***

Bir kishini ta’riflab aytmoqda: “Kuchi tenglar urushdi, qabilalarini, urug‘-aymoqlarini chaqirdilar. Cherig tomon yaqinlashdilar, bizga kelib o‘ch olmoq istaydi”.

[تِقِشْتِی ***tïqïštï***] كِشِی اَقْدَا تِقِشْتِی ***kiši ewdä tïqïštï*** – “uyda xalq tiqilib ketdi va uy to‘ldi” (تِقِشُورْ ***tïqïšur***, تِقِشْمَاقْ ***tïqïšmaq***).

[جَقِشْدِی ***čaqïšdï***] اُلْ مَنكَا جَقْمَاقْ جَقِشْدِی ***ol meŋä čaqmaq čaqïšdï*** – “u menga chaqmoq chaqishdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (جَقِشُورْ ***čaqïšur***, جَقِشْمَاقْ ***čaqïšmaq***).

[جِقِشْدِی ***čïqïšdï***] اُلَارْ اِكّی اَقْدِنْ جِقِشْدِی ***olar ikki ewdin čïqïšdï*** – “ular ikkovi uydan chiqishda bir-birlari bilan bahslashdilar”. Ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (جِقِشُورْ ***čïqïšur***, جِقِشْمَاقْ ***čïqïšmaq***). (161a)

[سُقُشْدِی ***soqušdï***] اُلْ مَنکَا تُوزْ سُقُشْدِی ***ol meŋä tuz soqušdï*** – “u menga tuz va boshqa narsalarni maydalashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُقُشُورْ ***soqušur***, سُقُشْمَاقْ ***soqušmaq***).

[سِقِشْدِی ***sïqïšdï***] اُلْ مَنکَا اُزُمْ سِقِشْدِی ***ol meŋä üzüm sïqïšdï*** – “u menga uzum siqishdi”. Bahslashish uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (سِقِشُورْ ***sïqïšur***, سِقِشْمَاقْ ***sïqïšmaq***).

[سِقِشْدِی ***sïqïšdï***] کِشِی سِقِشْدِی ***kiši sïqïšdï*** – “kishilar to‘plandi, hatto joy torlik qildi”.

[قَقِشْدِی ***qaqïšdï***] اَرَنْ قَمُغْ قَقِشْدِی ***erän qamuγ qaqïšdï*** – “kishilar bir-birlariga qarshi g‘azablanishdi”.

[قَقِشْدِی ***qaqïšdï***] اُلاَرْ اِکّی بَشْرَا قَقِشْدِی ***olar ikki bašra qaqïšdï*** – “ular ikkisi bir-birining boshiga qoqishdi, urishdi” (قَقِشُورْ ***qaqïšur***, قَقِشْمَاقْ ***qaqïšmaq***).

[بَکِشْدِی ***bekišdi***] بَکِشْدِی نَانکْ ***bekišdi näŋ*** – “narsa mustahkamlandi” (بَکُوشُورْ ***beküšür*** (***bekišür?***), بَکِشْمَاکْ ***bekišmäk***).

[بُکُشْدِی ***büküšdi***] اُلْ مَنکَا تَالْ بُکُشْدِی ***ol meŋä tal büküšdi*** – “u menga tol novda va boshqalarni bukishda ko‘maklashdi”. Bu so‘z jarangsiz *kāf* bilan (بكاف صلبة) yoziladi (بُکُشُورْ ***büküšür***, بُکُشْمَاکْ ***büküšmäk***).

[بُکُشْدِی ***büküšdi***] اُلْ مَنکَا سُوقْ بُکُشْدِی ***ol meŋä suw büküšdi*** – “u menga suv bog‘lashdi, suvni bo‘g‘ishda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (بُکُشُورْ ***büküšür***, بُکُشْمَاکْ ***büküšmäk***).

[تَکِشْدِی ***tegišdi***] اُلاَرْ اِکّی بَکْکَا تَکِشْدِی ***olar ikki begkä tegišdi*** – “ular ikkisi bek oldida muhokama etildilar”.

[تَکِشْدِي ***tegišdi***] مَنِکْ اَلکِیمْ تَرُسْقَا تَکِشْدِي ***meniŋ eligim tarusqa tegišdi*** – “mening qo‘lim shipga yetdi” (تَکِشُور ***tegišür***, تَکِشْمَاک ***tegišmäk***). Maqolda (shunday kelgan): مُوشْ یَقْرِیقَا تَکِشْمَاسْ اَیُرْ کِشِی نَنکِی یَرَشْمَاسْ ***Müš yaqrïqa tegišmäs, ayur: Kiši näŋi yarašmas.*** Ma’nosi: “Mushuk mixga osilgan yog‘(charvi)ga yetolmay (yeta olmagach), “birovning moli yarashmaydi”, – deydi”. Bu maqolni qidirgan narsasiga yetisha olmay, “u menga zarur emasdi”, – deydigan kishiga aytiladi.

[تُکُشْدِی ***tügüšdi***] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا تُکُونْ تُکُشْدِی ***ol meniŋ birlä tügün tügüšdi*** – “u men bilan tugun tugishda bahslashdi”. Ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُکُشُورْ ***tügüšür***, تُکُشْمَاکْ ***tügüšmäk***).

[تُوکُشْدِی ***tügüšdi***] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا تُوزْ تُوکُشْدِی ***ol meniŋ birlä tuz tügüšdi*** – “u men bilan tuz va boshqa narsalarni tuyishda bahslashdi”. Ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُوکُشُرْ ***tügüšür***, تُکُشْمَاکْ ***tügüšmäk***).

[تِکِشْتِی ***tikišti***] اُلْ مَنکَا تُونْ تِکِشْتِی ***ol meŋä ton tikišti*** – “u menga kiyim (161b) va boshqa narsalarni tikishdi”.

[تَکِشْدِی ***tegišdi***] اُلْ مَنکَا تُرْمَاکْ تُرْمَاکْ تَکِشْدِی ***ol meŋä türmäk-türmäk tegišdi*** – “u menga turmak-turmak ovqatini va boshqa narsalarni taklif qildi” (تَکِشُورْ ***tegišür***, تَکِشْمَاکْ ***tegišmäk***).

[تُگُشْدِی ***tügüšdi***] اُلْ مَنگا تَرِغ تُگُشْدِی ***ol meŋä tarïγ tügüšdi*** – “u menga xirmonda don tuyishda ko‘maklashdi”. Sochib suv sepishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُگُشُورْ ***tügüšür***, تُگُشْمَاکْ ***tügüšmäk***). Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[جَکِشْدِی ***čekišdi***] اُلْ مَنگا جِکِکْ جَکِشْدِی ***ol meŋä čekik čekišdi*** – “u menga xatga nuqta qo‘yishda ko‘maklashdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (جَکِشُورْ ***čekišür***, جَکِشْمَاکْ ***čekišmäk***).

[سِکِشْدِی ***sikišdi***] اَرْ اُرَاغُتْ بِرْلَا سِکِشْدِی ***er uraγut birlä sikišdi*** – “er xotin bilan sikishdi”. Bu so‘z ularning har ikkisi uchun ham taalluqlidir (سِکِشُورْ ***sikišür***, سِکِشْمَاکْ ***sikišmäk***).

[سُگُشْدِی ***söküšdi***] اُلَارْ اِکّی سُگُشْدِی ***olar ikki söküšdi*** – “ular ikkovi bir-birini so‘kishdi” (سُگُشُورْ ***söküšür***, سُگُشْمَاکْ ***söküšmäk***).

[سُگُشْدِی ***söküšdi***] اُلْ مَنگا تُونْ سُگُشْدِی ***ol meŋä ton söküšdi*** – “u menga kiyim choklarini so‘kishdi”. Uy va boshqalarni buzishda ko‘maklashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُگُشُورْ ***söküšür***, سُگُشْمَاکْ ***söküšmäk***). Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[بِلِشْدِی ***bilišdi***] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا بِلِشْدِی ***ol meniŋ birlä bilišdi*** – “u men bilan bilishdi, tanishdi” (بِلِشُورْ ***bilišür***, بِلِشْمَاکْ ***bilišmäk***).

[بُلُشْدِی ***bulušdï***] اُلَارْ اِکّی بِیرْ بِیرِکْ بُلُشْدِی ***olar ikki bir-birig bulušdï*** – “ular ikkovi bir-birini topishdi” (بُلُشُورْ ***bulušur***, بُلُشْمَاقْ ***bulušmaq***).

[بُلُشْدِی ***bolušdï***] اُلْ مَنگا بُلُشْدِی ***ol meŋä bolušdï*** – “u menga bo‘lishdi, meni yoqladi”. Manmanlik qiluvchi kishiga, mening yonimni olib, qarshilik qildi, mening dushmanimga yov bo‘ldi (بُلُشُورْ ***bolušur***, بُلُشْمَاقْ ***bolušmaq***).

[تَلِشْدِی ***telišdi***] اُلَارْ اِکّی تَامْ تَلِشْدِی ***olar ikki tam telišdi*** – “ular ikkovi devor va boshqalarni teshishda bir-biri bilan bahslashdi”. Bir-biriga yordamlashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَلِشُورْ ***telišür***, تَلِشْمَاکْ ***telišmäk***).

[تِلِشْدِی ***tilišdi***] الْ مَنگا یَرِنْدَاقْ تِلِشْدِی ***ol meŋä yarïndaq tilišdi*** – “u menga qayish tilishdi”. Shuningdek, bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِلِشُورْ ***tilišür***, تِلِشْمَاکْ ***tilišmäk***).

[تِلَشْدِی ***tiläšdi***] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا نَانکْ تِلَشْدِی ***ol meniŋ birlä näŋ tiläšdi*** – “u men bilan yo‘qolgan narsani qidirishdi, yo‘qolgan narsani so‘roqlashdi” (تِلَاشُورْ ***tiläšür***, تِلَشْمَاکْ ***tiläšmäk***).

[جَلِشْدِی ***čalïšdï***] قَبُغْ جَلِشْدِی ***qapuγ čalïšdï*** – “eshikning yoriqlari ochildi”. Shuningdek, idishning yorig‘i va egar bo‘g‘inining ochilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (162a) (جَلِشُورْ ***čalïšur***, جَلِشْمَاقْ ***čalïšmaq***).

[جَلِشْدِی ***čalïšdï***] اُلْ مَنِکْ بِرْلَا جَلِشْدِی ***ol meniŋ birlä čalïšdï*** – “u men bilan kurash tushdi”.

[جِلَشْدِی ***čïlašdï***] اُلْ مَنگا اُتْ جِلَشْدِی ***ol meŋä ot čïlašdï*** – “u menga o‘t va boshqa narsalarni qirqishdi”. Bu so‘zning asli to‘rt harflilardan bo‘lsa ham, shunday qo‘llanadi (جِیلَشُرْ ***čïlašur***, جِیلَشْمَاقْ ***čïlašmaq***).

[سَلِشْدِی ***salïšdï***] اُلَارْ اِکّی یِینکْ سَلِشْدِی ***olar ikki yeŋ salïšdï*** – “ular ikkisi bir-biriga yeng silkishdi”. Shuningdek, ikki kishi bir-birini kurashda o‘ngga-chapga siltab

yiqitmoqchi bo‘lib, chayqatishiga ham سَلِشْدِی ***salïšdï*** deyiladi (سَلِشُورْ ***salïšur***, سَلِشْمَاقْ ***salïšmaq***). Bu so‘zning asl ma’nosi ikki kishi orasida kiyim va boshqalarni silkitishdir.

[سُلُشْدِی ***solušdï***] يَاشْ سُلُشْدِی ***yaš solušdï*** – “o‘t va boshqa ko‘katlar so‘lidi, namligi ketib, quriy boshladi”. Namligi ketgan har qanday meva va sabzavotga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُلُشُورْ ***solušur***, سُلُشْمَاقْ ***solušmaq***).

[قَلِشْدِی ***qalïšdï***] اَتْ اَدْغِرْ قَلِشْدِی ***at aδγïr qalïšdï*** – “ot-ayg‘irlar sakrashdi”. Shuningdek, xalqni tashlab ketishda bahslashgan ikki kishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قَلِشُورْ ***qalïšur***, قَلِشْمَاقْ ***qalïšmaq***).

[قِلِشْدِی ***qïlïšdï***] الْ مَنـكَا اِيشْ قِلِشْدِی ***ol meŋä ïš qïlïšdï*** – “u menga ish qilishdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (قِلِشُورْ ***qïlïšur***, قِلِشْمَاقْ ***qïlïšmaq***).

[قُلُشْدِی ***qulušdï***] اَلَارْ اِكّی قِيزْ قُلُشْدِی ***olar ikki qïz qulušdï*** – “ular ikkovi bir-biridan (bolalari uchun) qiz so‘rashdi (qarshi quda bo‘lishmoqchi bo‘ldi)”. Ikki kishi o‘zaro bir-biridan biror narsa so‘rashiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

(Shoir) shunday degan:

تُونـكُرْ قَذِنْ بُلُشْتِی ***Töŋür qaδïn bulуštï,***
قِرْقِنْ تَقِی قُلُشْتِی ***Qïrqïn taqï qulуštï.***
اَمْدِی تِشِمْ قَمَشْتِی ***Emdi tïšïm qamaštï,***
اَلْتِی تُرُمْتَايِمْنِي ***Altï Turumtayïmnï.***

Va’dasiga vafo qilmaydigan, aldamchi bir kishi haqida aytmoqda: “U men bilan qudalashishga va’dalashdi. U mening qizimni ayttirdi. Men uning qizini so‘ratdim. So‘ng va’dani buzdi. تُرُمتَای *Turumtay* otli qulimni olib ketdi, shuning uchun tishlarim qamashdi [tishlarim o‘tmas bo‘lib qoldi]”.

[كَلِشْدِی بِرِشْدِی ***kelišdi-barïšdï***] اُلْ مَنـكَا كَلِشْدِی بَرِشْدِی ***ol meŋä kelišdi-barïšdï*** (162b) – “u men bilan aralashdi, men u bilan aralashdim, borish-kelish qildik” (كَلِشُورْ ***kelišür***, كَلِشْمَاكْ ***kelišmäk***).

[كُلِشْدِی ***kölišdi***] اُلْ مَنـكَا اُلُكْ كُلِشْدِی ***ol meŋä ölüg kölišdi*** – “u menga o‘lik ko‘mishda ko‘maklashdi” (كُلِشُورْ ***kölišür***, كُلِشْمَاكْ ***kölišmäk***).

[كُلُشْدِی ***külüšdi***] بُذُونْ قَمَغْ كُلُشْدِی ***boδun qamuγ külüšdi*** – “hamma odamlar kulishdi” (كُلُشُورْ ***külüšür***, كُلُشْمَاكْ ***külüšmäk***).

[تَمِشْدِی ***tamïšdï***] سُوفْ تَمِشْدِی ***suw tamïšdï*** – “muzdan va boshqa narsadan suv (qatra-qatra) tomdi” (تَمِشُورْ ***tamïšur***, تَمِشْمَاقْ ***tamïšmaq***).

[جُمُشْدِي ***čomušdï***] اُلْ مَنِـكْ بِرْلَا سُفْقَا جُمُشْدِي ***ol meniŋ birlä suwqa čomušdï*** – “u men bilan suvga sho‘ng‘ishda bahslashdi” (جُمُشُورْ ***čomušur***, جُمُشْمَاقْ ***čomušmaq***). Chuqurroq sho‘ng‘ishda جُمُشْدِی ***čomušdï*** (***čömüšdi?***), جُمُشُورْ ***čomušur*** (***čömüšür?***), جُمُشْمَاقْ ***čomušmaq*** (***čömüšmäk?***) deyiladi. Bu yana ham chuqurroq sho‘ng‘ishdir.

[قَمَشْدِی ***qamašdï***] تِيشْ قَمَشْدِی ***tïš qamašdï*** – “nordon behi va shu kabilarni yeyishdan tishlar qamashdi” (قَمَشُورْ ***qamašur***, قَمَشْمَاقْ ***qamašmaq***).

[قُمِشْدِی *qumïšdï*] اُلَارْ اِیشْقَا قُمِشْدِی لَارْ *olar ïšqa qumïšdïlar* – “ular ishga qiziqdilar, undan zavq topdilar”. Bu so‘zning asli “har tomondan to‘lqin qo‘zg‘aldi” ma’nosidagi سُوقْ قُمُشْدِی *suw qumušdï* (“suv to‘lqinlandi”) gapidan olingan (قُمُشُورْ *qumušur*, قُمُشْمَاقْ *qumušmaq*).

[کُمُشْدِی *kömüšdi*] اُلْ مَنکَا نَانکْ کُمُشْدِی *ol meŋä näŋ kömüšdi* – “u menga narsani (yer ostiga) ko‘mishdi” (کُمِشُورْ *kömišür*, کُمِشْمَاکْ *kömišmäk*).

[کَمِشْدِي *kemišdi*] اُلْ نَانکْ کَمِشْدِي *ol näŋ kemišdi* – “u narsani ayirib tashladi, chiqarib tashladi” (کَمِشُورْ *kemišür*, کَمِشْمَاکْ *kemišmäk*). Maqolda (shunday kelgan): اَذْکُولُکْنِی سُوقْ اَذاقِنْدَا کَمِشْ بَشِنْدَا تِلَا *Eðgülügni suw aðaqïnda kemiš bašïnda tilä.* Ma’nosi: “Xalqqa yaxshilik qil, uni suv tagiga tashlasang-da, uni suv ustida ko‘rasan”. Boshqa ma’nosi: “ovqat-nonni daryo tagiga tashlasang ham, (daryo) ustida topasan, (ko‘tarilib chiqadi)”.

[تَنُشْتِی *tanuštï*] اُلَارْ اِکّی سُوزْ تَنُشْتِی *olar ikki söz tanuštï* – “ular ikkovi bir-biriga biror so‘z aytishdi”. Asli تَنُودِی *tanudï* dir (تَنُشُورْ *tanušur*, تَنُشْمَاقْ *tanušmaq*).

[تَنِشْدِی *tanïšdï*] اُلَارْ مَنِی تَنِشْدِی *olar meni tanïšdï* – “ular har ikkovi bir-biridan olgan qarzidan tonishdi” (163a) (تَنِشُورْ *tanïšur*, تَنِشْمَاقْ *tanïšmaq*).

[سُنُشْدِی *sunušdï*] اُلَارْ اِکّی اَتْمَاکْ سُنُشْدِی *olar ikki etmäk sunušdï* – “ular ikkovi bir-biriga non va boshqa narsalarni uzatishdi, tutishdi” (سُنُشُورْ *sunušur*, سُنُشْمَاقْ *sunušmaq*).

[قُنُشْدِی *qonušdï*] اُلَارْ اِکّی تَقَّارْ قُنُشْدِی *olar ikki tawar qonušdï* – “ular ikkovi bir-birining mollarini tortib olishdi”. Bir-biriga ko‘maklashish, bir-biriga bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُنُشُورْ *qonušur*, قُنُشْمَاقْ *qonušmaq*).

[قِنِشْدِي *qïnïšdï*] یِکِتْ لَارْ اِیشْقَا قِنِشْدِي *yigitlär ïšqa qïnïšdï* – “yoshlar ishda quvonishdi, suyunishdi”. Bu biror ishda zavqlanish, rohatlanishdir (قِنِشُورْ *qïnïšur*, قِنِشْمَاقْ *qïnïšmaq*).

Bu bobning qoidasi: *šīn* harfi bu fe’llarda bir qancha mazmunni ifodalaydi. Bu fe’llarning o‘zagi ikki harflidir. Chunonchi, اَرْ تَقَّارْ قَبْتِی *er tawar qaptï* – “kishi molni tortib oldi”; اُلْ اَنِی تَبْدِی *ol anï tepti* – “u uni tepdi”. Bu fe’llarga *šīn* qo‘shilib, ish ikki va bir necha kishilar orasida, ular ishtiroki bilan bajarilganini bildiradi. Masalan: اُلْ مَنِکْ بِرْلَا تُبُقْ قَبُشْدِی *ol meniŋ birlä topuq qapušdï* – “u men bilan to‘piqni tortib olishda sherik bo‘ldi”; اُلْ مَنِکْ بِرْلَا تَبِشْدِی *ol meniŋ birlä tepišdi* – “u men bilan tepishdi” kabi. So‘ng bu fe’ldan to‘rt xil variant maydonga keladi:

Birinchi, ishda ko‘maklashishni bildiradi, chunonchi, اُلْ مَنکَا تُونْ تِکِشْدِی *ol meŋä ton tikišdi* – “u menga kiyim tikishdi” va yana: اُلْ مَنکَا بِتِکْ بِتِشْدِی *ol meŋä bitig bitišdi* – “u menga xat yozishda ko‘maklashdi”.

Ikkinchi, ishda qay birining kuchliligi, to‘g‘riligi, bilimdonligi haqida bahslashish mazmunini ifodalaydi. Chunonchi, اُلْ مَنِکْ بِرْلَا جَلِشْدِی *ol meniŋ birlä čalïšdï* – “u men bilan kuch sinashib kurashishdi”; اُلْ مَنِکْ بِرْلَا یَا قُرُشْتِی *ol meniŋ birlä ya quruštï* – “ustalikni, quvvatni sinab ko‘rish uchun u men bilan yoy qurishdi” demakdir. “Ko‘maklashish” mazmuni bilan “bahslashish” mazmuni orasidagi farq shunday: (163b) fe’lga مَنکَا *meŋä* so‘zi qo‘shilsa, “ko‘mak-

lashish”ni bildiradi. Fe’lga مَنِڭ بِرْلَا ***meniŋ birlä*** iborasi qo‘shilsa, “bahslashish”ni bildiradi.

Uchinchi, bu fe’llardagi *šīn* harfi *lām* bilan birlikda ismga qo‘shilib, otish, garov, qimorda o‘rtaga qo‘yilgan narsani bildiradi: اُيْنَادِمْ اَتْلَشُو ***oynadïm atlašu*** – “otdan qimor, garov o‘ynadim, o‘rtaga ot tikib, qimor, garov o‘ynadim” demakdir; اُيْنَادِمْ اَلْتُنْلَشُو ***oynadïm altunlašu*** – “oltindan garov qo‘yib, qimor o‘ynadim”. Bu bahslashishning bir xilidir.

To‘rtinchi, bu mazmunlarda emas, balki fe’l ma’nosida keladi: كَمِشْدِى نَانكِن ***kemišdi näŋin*** – “narsasini ayirib tashladi, narsasini chiqarib tashladi”. Yana: اُلْ اَنِڭ بِرْلَا كَرِشْدِى ***ol anïŋ birlä kerišdi*** – “u u bilan talashdi, tortishdi”. Bu qoidani bilib ol.

ق ***q*** [harfi]:

[تَرِقْتِى ***tarïqtï***] يِيرْ تَرِقْتِى ***yer tarïqtï*** – “yer va boshqa narsalar tang bo‘ldi” (تَرِقَارْ ***tarïqar***, تَرِقْمَاقْ ***tarïqmaq***).

[تُرُقْتِى ***turuqtï***] قَانْ تُرُقْتِى ***qan turuqtï*** – “qon yig‘ildi”. Yarada yiring va fasod to‘planishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُرُقَارْ ***turuqar***, تُرُقْمَاقْ ***turuqmaq***).

[سُرُقْتِى ***soruqtï***] يِتُولْ سُرُقْتِى ***yitül soruqtï*** – “yo‘qolgan narsa so‘roqlashdan keyin topildi” (سُرُقَارْ ***soruqar***, سُرُقْمَاقْ ***soruqmaq***).

[قَرِقْتِى ***qarïqtï***] اَرْ كُوزِى قَرِقْتِى ***er közi qarïqtï*** – “kishi ko‘zi qordan qamashdi” (قَرِقَارْ ***qarïqar***, قَرِقْمَاقْ ***qarïqmaq***). Bu so‘z قَارْ ***qar*** (“qor”) so‘zidan olinganida قَرِقْتِى ***qarïqtï*** bo‘lib, *manqūṣ* bobiga kirgan bo‘lardi. قَرَقْ ***qaraq*** (“qarachiq”) so‘zidan olingan bo‘lsa, unda *ṣaḥiḥ* bobiga kiradi (قَرِقَارْ ***qarïqar***, قَرِقْمَاقْ ***qarïqmaq***).

[بَسِقْتِى ***basïqtï***] كِشِى يَغِى قَا بَسِقْتِى ***kiši yaγïqa basïqtï*** – “yov xalqqa tunda bosqinchilik qildi” (بَسِقَارْ ***basïqar***, بَسِقْمَاقْ ***basïqmaq***). Bu so‘z asli ikki *sīn* bilan بَسَّقْتِى ***bassïqtï*** tarzidadir.

[بُسُقْتِى ***pusuqtï***] اَرْ بُسُقْتِى ***er pusuqtï*** – “kishi pisdi, o‘zini panaga oldi” (بُسُقَارْ ***pusuqar***, بُسُقْمَاقْ ***pusuqmaq***).

[تُسُقْتِى ***tosuqtï***] بُو اُتْ مَنكَا تُسُقْتِى ***bu ot meŋä tosuqtï*** – “bu o‘t (dori) menga foyda berdi” (تُسُقَارْ ***tosuqar***, تُسُقْمَاقْ ***tosuqmaq***).

[تَشِقْتِى / تِشِقْتِى ***tašïqtï*** / ***tïšïqtï***] اَرْ اَقْدِنْ تَشِقْتِى / تِشِقْتِى ***er ewdin tašïqtï*** / ***tïšïqtï*** – “kishi uydan tashqari chiqdi”; تِشِقْتِى / تَشِقْتِى ***tašïqtï*** / ***tïšïqtï*** yag‘mo, tuxsi, (164a) qipchoq, yabaqu va ba’zi turkman urug‘lari tilidadir. Ko‘pchilik turklar چِڤْتِى ***čïqtï*** deydilar (تِشِقَارْ / تَشِقَارْ ***tašïqar*** / ***tïšïqar***, تِشِقْمَاقْ / تَشِقْمَاقْ ***tašïqmaq*** / ***tïšïqmaq***).

[تَتِقْتِى ***tatïqtï***] تُرك تَتِقْتِى ***türk tatïqtï*** – “turk totlashdi, forsga aylanib ketdi, fors qiliqli bo‘ldi”.

[تُتُقْتِى / تُتِقْتِى ***tutuqtï*** / ***tutïqtï***] قِلِچْ تُتُقْتِى / تُتِقْتِى ***qïlïč tutuqtï*** / ***tutïqtï*** – “qilich zanglandi, uni zang bosdi” (تُتُقَارْ / تُتِقَارْ ***tutuqar*** / ***tutïqar***, تُتُقْمَاقْ / تُتِقْمَاقْ ***tutuqmaq*** / ***tutïqmaq***).

[تَلِقْدِى / تِلِقْدِى ***talïqdï*** / ***tïlïqdï***] كِشِى مَنِڭ بِرْلَا تَلِقْدِى / تِلِقْدِى ***kiši meniŋ birlä talïqdï*** / ***tïlïqdï*** – “kishi men bilan so‘zlashdi, mendan ma’lumot so‘radi”; / اُلْ اَرْ اِيسِزْ تَلِقْتِى تِلِقْتِى ***ol er esiz talïqtï*** / ***tïlïqtï*** – “uning yomonligi tillarga tushdi, yomonligi

kishilar g‘ashiga sabab bo‘ldi”. Birinchisi o‘g‘uzlar so‘zidir. Turklar bu so‘zni bilmaydilar (تَلِقَارْ / تَلِقْمَاقْ *talïqar* / *tïlïqar*, *talïqmaq* / *tïlïqmaq*).

[تَغِقْتِى *tayïqtï*] اَجْكُو تَغِقْتِى *ečkü tayïqtï* – “echki yovvoyilashib, tog‘ echkilariga qo‘shilib ketdi”. Boshqa hayvonlarga ham shunday deyiladi (تَغِقَارْ *tayïqar*, تَغِقْمَاقْ *tayïqmaq*).

[جَڤْقْتِى *čawïqtï*] اَرْ جَڤْقْتِى *er čawïqtï* – “kishining dong‘i (ovozasi) chiqdi; kishi nom chiqardi” (جَڤْقَارْ *čawïqar*, جَڤْقْمَاقْ *čawïqmaq*).

[جِنِڤْتِى *činïqtï*] سُوزْ جِنِڤْتِى *söz činïqtï* – “so‘z va xabar chin ekanligi aniqlandi, chin bo‘lib chiqdi” (جِنِڤَارْ *činïqar*, جِنِڤْمَاقْ *činïqmaq*).

ك *k* [harfi]:

[كِرِكْتِى *kirikti*] تُونْ كِرِكْتِى *ton kirikti* – “kiyim va boshqa narsalar kirlandi, kir bo‘ldi” (كِرِكَارْ *kirikär*, كِرِكْمَاكْ *kirikmäk*).

[سِيزِكْتِمْ *seziktim*] بُو اِيشِغْ اَنكَارْ سِيزِكْتِمْ *bu ïšïγ anar seziktim* – “bu ishni undan sezdim” (سِزِكَارْمَنْ *sezikär-men*, سَزْكْمَاكْ *sezikmäk*).

[كُزُكْتِى *küzükti*] يِلْ كُزُكْتِى *yïl küzükti* – “vaqt, mavsum kuz bo‘ldi” (كُزُكَارْ *küzükär*, كُزُكْمَاكْ *küzükmäk*).

[بُلُكْتِى *bölükti*] قُوىْ بُلُكْتِى *qoy bölükti* – “qo‘y suruvlarga bo‘lindi, suruv-suruv bo‘ldi” (بُلُكَارْ *bölükär*, بُلُكْمَاكْ *bölükmäk*). Har qanday hayvon to‘dalarga bo‘linib turishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[جُلُكْتِى *čülükti*] اَرْ اِيشِى جُلُكْتِى *er ïšï čülükti* – “kishining ko‘rinishi parishonlashdi” (جُلُكَارْ *čülükär*, جُلُكْمَاكْ *čülükmäk*).

(Shoir) shunday degan:

تِينِى يَمَا اُجُكْتِى *Tïnï yemä öčükti,*
اَرِى اَتِى اِجِكْتِى *Eri atï ičikti.*
اِيشِى تَقِى جُلُكْتِى *Ïšï taqï čülükti,*
سُوزِنْ اَنِكْ كِيمْ تُتَارْ *Sözin anïŋ kim tutar?*

Bir asirni ta’riflab aytmoqda: “U kishi asir olingach, nafasi o‘chdi, askarlarini, otlarini bizga topshirdi. Ko‘rinishi parishonlashdi. Endi bu voqeadan so‘ng uning so‘ziga (yalinishiga) kim ham quloq tutardi?”.

(164b) Bu fe’llardagi *qāf, kāf* harflari ikki xil vazifadadir. Biri, ish yengilgan narsa ustiga tushganini bildiradi. Chunonchi, بَسَڤْتِى اَرْ *bassïqtï er* – “kishi(lar) bosildi, yov tomonidan bosildi” demakdir. Asli بَسْدِى *basdï* dir, تُونْ كِرِكْتِى *ton kirikti* – “kiyim kirlandi”, ya’ni “kiyimni kir bosdi” demakdir. Ikkinchisi, bu ma’noni anglatmaydi, balki o‘z ma’nosida keladi: chunonchi, بَلِڤْتِى اَرْ *er balïqtï* – “kishi yaralandi” kabi (بَلِڤَارْ *balïqar*, بَلِڤْمَاقْ *balïqmaq*).

جُلُكْتِى اَرْ *čülükti er* – “kishining ko‘rinishi parishonlashdi”.

ل *l* [harfi]:

[بِتِلْدِى *bitildi*] بِتِكْ بِتِلْدِى *bitig bitildi* – “kitob yozildi” (بِتِلُورْ *bitilür*, بِتِلْمَاكْ *bitilmäk*).

[تَبْلِدِی ***tepildi***] تَبْلِدِی يِيرْ ***tepildi yer*** – “yer va boshqa narsalar tepildi” (تَبْلُورْ ***teplür***, تَبْلَمَاكْ ***tepülmäk***).

[تُبْلِدِی ***tubuldï***] اُوتْ تُبْلِدِی ***öt tubuldï*** – “teshik teshildi, ochildi”.

[تُبْلِدِی ***tubuldï***] اَرْ تُونِنْ تُبْلِدِی ***er tonïn tubuldï*** – “u kishi kiyimini yechdi” (o‘g‘uzcha) (تُبْلُورْ ***tublur***, تُبْلَمَاقْ ***tubulmaq***).

[تَبْلِدِی / تَبْلِدِی ***tapuldï / tapïldï***] تَبْلِدِی نَانَكْ / تَبْلِدِی ***tapuldï / tapïldï näŋ*** – “yo‘qolgan, yashirilgan narsa topildi” (تَبْلُورْ ***taplur***, تَبْلَمَاقْ ***tapulmaq***).

[جَبْلِدِی ***čapïldï***] اَنِكْ اَقِی جَبْلِدِی ***anïŋ ewi čapïldï*** – “uning uyi suyuq loy bilan chapildi, suvaldi” (جَبْلُرْ ***čaplur***, جَبْلَمَاقْ ***čapïlmaq***). Uyg‘urlar tilida bu so‘z “bo‘yniga urmoq” ma’nosida qo‘llanadi.

[سَبْلِدِی ***sapïldï***] سَبْلِدِی يِبْ يِكْنَاكَا ***yïp yignäkä sapïldï*** – “ip ninaga o‘tkazildi”.

[سَبْلِدِی ***sapïldï***] اُغْلْ اَتَاسِنْكَا سَبْلِدِی ***oγul atasïŋa sapïldï*** – “o‘g‘il bir yerga borishda otasiga ergashdi” (سَبْلُرْ ***saplur***, سَبْلَمَاقْ ***sapïlmaq***).

[قَبْلِدِی ***qapïldï***] اَرْ اَقْدَا قَبْلِدِی ***er ewdä qapïldï*** – “er uyda qamaldi”.

[قَبْلِدِی ***qapïldï***] اَنِكْ تُونِی قَبْلِدِی ***anïŋ tonï qapïldï*** – “uning kiyimi tortib olindi, yechib olindi, o‘g‘irlandi” (قَبْلُورْ ***qapïlur***, قَبْلَمَاقْ ***qapïlmaq***).

[كُبْلِدِي ***köpüldi***] اَنِكْ تُونِی كُبْلِدِي ***anïŋ tonï köpüldi*** – “uning to‘ni qavildi” (كُبْلُورْ ***köpülür***, كُبْلَمَاكْ ***köpülmäk***).

[تُتْلِدِی ***tutuldï***] كَيِكْ تُتْلِدِی ***keyik tutuldï*** – “kiyik va boshqa yovvoyi hayvonlar tutildi” (تُتْلُورْ ***tutulur***, تُتْلَمَاقْ ***tutulmaq***).

[تَتِلْدِی ***tatïldï***] اَشْ تَتِلْدِی ***aš tatïldï*** – “osh va boshqa yeguliklar totildi” (165a) (تَتِلُورْ ***tatïlur***, تَتِلْمَاقْ ***tatïlmaq***).

[تِتِلْدِی ***titïldï***] اَتْ بِشِبْ تِتِلْدِی ***et pišïp titïldï*** – “et qaynab hil-hil bo‘lib pishdi, titildi”. Kiyim eskirib, uvadasi chiqib ketishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِتِلُورْ ***titïlur***, تِتِلْمَاقْ ***titïlmaq***).

[تَيِتِلْدِی ***teytildi***] اُغْلَانْ تَيِتِلْدِی ***oγlan teytildi*** – “bola tetiklandi, hushyorlandi” (تَيِتِلُورْ ***teytilür***, تَيِتِلْمَاكْ ***teytilmäk***).

[سَتِلْدِی ***satïldï***] تَفَارْ سَتِلْدِی ***tawar satïldï*** – “tavar (mol) sotildi” (سَتِلُرْ ***satïlur***, سَتِلْمَاقْ ***satïlmaq***).

[قَتِلْدِی ***qatïldï***] اَرْپَا اُكُرْ بِرْلَا قَتِلْدِی ***arpa ökür birlä qatïldï*** – “arpa tariq bilan aralashib ketdi”. Bir-biriga aralashib ketgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قَتِلْدِی ***qatïldï***] اَرْ اُرَاغْتْ قَا قَتِلْدِی ***er uraγutqa qatïldï*** – “erkak xotinga qo‘shildi, u bilan jimo qildi” (قَتْلُرْ ***qatlur***, قَتِلْمَاقْ ***qatïlmaq***).

[قُتَلْدِی ***qutaldï***] اَرْ قُتَلْدِی ***qutaldï er*** – “kishi qutli, baxtli bo‘ldi”. Asli قُتْ اَلْدِی ***qut aldï*** (“baxt topdi”) iborasidan olingan (قُتَالُرْ ***qutalur***, قُتَلْمَاقْ ***qutalmaq***).

[قُتُلْدِی ***qutuldï***] اَرْ اَمْكَكْتِنْ قُتُلْدِی ***er emgäktin qutuldï*** – “kishi qiyinchilikdan qutuldi” (قُتُلُرْ ***qutulur***, قُتُلْمَاقْ ***qutulmaq***).

[قُتُلْدِی ***qutuldï***] اُرَاغْتْ قُتُلْدِی ***uraγut qutuldï*** – “xotin tug‘di va qiyinchiligidan qutuldi”. Bu so‘z haqida ikki xil fikr yuritish mumkin: bu so‘z قُرْتُلْدِی ***qurtuldï*** so‘zidan bo‘lib, bir harf tushirilgan yoki bu قُتْ بُلْدِی ***qut buldï*** – “(qiyinchilikdan qutulish bilan) baxt topdi, baxtli bo‘ldi” iborasidan olingan.

[بِجلْدِی *biččildi*] یِغَاجْ بِجلْدِی *yïyač biččildï* – “daraxt va boshqa narsalar kesildi” (بِجلُورْ *biččlur*, بِجلْمَاقْ *biččilmaq*).

[سَجِلْدِی *sačïldï*] یَرْمَاقْ سَجِلْدِی *yarmaq sačïldï* – “tanga va boshqa narsalar sochildi” (سَجِلُورْ *sačïlur*, سَجِلْمَاقْ *sačïlmaq*).

[سُجُلْدِی *sučuldï*] اَرْ تُونِنْ سُجُلْدِی *er tonïn sučuldï* – “kishi kiyimini yechdi”; qo‘y terisining shilinishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُجُلُورْ *sučulur*, سُجُلْمَاقْ *sučulmaq*).

(Shoir) shunday degan:

یَغْمُرْ یَغِبْ سَجِلْدِی *Yaγmur yaγïp sačïldï,*
تُرْلُکْ جَجَاکْ سُجُلْدِی *Türlüg čečäk sučuldï.*
یُنْجُو قَابِی اَجِلْدِی *Yünčü qapï ačïldï,*
جِنْدَانْ یِپَارْ یُغْرُشُورْ *Čïndan yïpar yuγrušur.*

Ko‘klamni ta’riflab aytmoqda: “Yomg‘ir yog‘ib sochildi, turli chechaklar ochildi. Inju qopi ochildi [inju qutichalari, ya’ni oppoq daraxt gullari ochildi] (165b) Xuddi mushk va iporlar bir-biriga qo‘shilib, hid sochayotganday bo‘ldi”.

[سَرِلْدِی *serildi*] اَرْ سَرِلْدِی *er serildi* – “mast kishi chayqaldi va yiqilayozdi”. Har narsaning qiyshayib yiqilayozishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَرْلُرْ *serlür*, سَرِلْمَاکْ *serilmäk*).

[اَرِلْدِی سَرِلْدِی *arïldï-sarïldï*] بَکْ اَنکَارْ اَرِلْدِی سَرِلْدِی *beg anar arïldï-sarïldï* – “bek va boshqalar unga g‘azab qildi” (سَرِلُرْ *sarïlur*, سَرِلْمَاقْ *sarïlmaq*).

[سُرُلْدِی *sürüldi*] اَتْ سُرُلْدِی *at sürüldi* – “ot surdi”.

[سُرُلْدِی *sürüldi*] اَرْ سُرُلْدِی *er sürüldi* – “kishi va boshqalar surildi, haydaldi”.

[سُرُلْدِی *sürüldi*] مُنْجُقْ سُرُلْدِی *munčuq sürüldi* – “munchaq ezib yanchildi, maydalandi”. Narsaning o‘z-o‘zidan maydalanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsiz holda qo‘llanadi (سُرْلُرْ *sürlür*, سُرُلْمَاکْ *sürülmäk*).

[سَرُلْدِی *saruldï*] یِشغْ یِغَاجْ قَا سَرُلْدِی *yïšïγ yïyačqa saruldï* – “arqon daraxtga o‘raldi”. Boshqa narsaga o‘ralishiga ham shu so‘z ishlatiladi (سَرِلُرْ *sarïlur*, سَرِلْمَاقْ *sarïlmaq*).

[سِرِلْدِی *sïrïldï*] یَاغْ اَلِکْکَا سِرِلْدِی *yaγ eligkä sïrïldï* – “yog‘ qo‘lga surtildi”. Bir-biriga surtilgan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi. Un va boshqalarning namatga surtilishi kabi (سَرْلُرْ *sarlur*, سَرِلْمَاقْ *sarïlmaq*).

[سُزُلْدِی *süzüldi*] سُوفْ سُزُلْدِی *suw süzüldi* – “suv va boshqa narsalar suzildi, tiniqlandi” (سُزُلُرْ *süzülür*, سُزُلْمَاکْ *süzülmäk*).

[شَشِلْدِی *šešildi*] تُکُونْ شَشِلْدِی *tügün šešildi* – “tugun o‘z-o‘zidan yechilib ketdi”. Birov tomonidan yechilsa ham shu so‘z qo‘llanadi. Demak, bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir (شَشِلُرْ *šešilür*, شَشِلْمَاکْ *šešilmäk*).

[سِشِلْدِی *sïšïldï*] یِشغْ تَرِغْ سِشِلْدِی *pïšïγ tarïγ sïšïldï* – “suvda qaynatilgan bug‘doy shishdi, ko‘pchidi, hatto o‘zi qaynayotgan qozonga sig‘maydigan holga keldi”. Bo‘laklari shishib o‘z joyiga sig‘may qolgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (سِشِلُرْ *sïšïlur*, سِشِلْمَاقْ *sïšïlmaq*).

[سَغِلْدِی ***sayïldï***] سُوتْ سَغِلْدِی ***süt sayïldï*** – “sut sog‘ildi” (سَغِلُورْ ***sayïlur***, سَغِلْمَاقْ ***sayïlmaq***).

[سُغُلْدِی ***suyuldï***] سُوفْ سُغُلْدِی ***suw suyuldï*** – “suv yerga singdi, tortildi”. Shuningdek, sigir va qo‘ylarning suti tortilishi, ozayishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُغُلُرْ ***suylur***, سُغُلْمَاقْ ***suylulmaq***).

[سَقِلْدِی ***sawïldï***] كُونْ سَقِلْدِی ***kün sawïldï*** – “kun og‘di; kun botdi”. (166a)

[سَقِلْدِی ***sawuldï***] كُنْكُلُومْ اَنْكَارْ سَقِلْدِی ***köŋlüm aŋar sawuldï*** – “ko‘nglim unga moyil bo‘ldi”. O‘z o‘rnidan oqqan, qiyshaygan har bir narsaga ham سَقِلْدِی ***sawuldï*** deyiladi (سَقِلُرْ ***sawulur***, سَقِلْمَاقْ ***sawulmaq***).

[سُقِلْدِی ***suwaldï***] تَرِغْ سُقِلْدِی ***tarïγ suwaldï*** – “ekin sug‘arildi”. Biron narsa uzra suv sepilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُقِلُرْ ***suwalur***, سُقِلْمَاقْ ***suwalmaq***).

[سُقُلْدِی ***soquldï***] تُوزْ سُقُلْدِی ***tuz soquldï*** – “tuz maydalandi”.

[سُقِلْدِی ***suwaldï***] اَفْ سُقِلْدِی ***ew suwaldï*** – “uy va boshqa narsalar suvaldi” (سُقِالُرْ ***suwalur***, سُقِلْمَاقْ ***suwalmaq***).

[سُقُلْدِی ***suquldï***] تَقَّارْ اَفْكَا سُقُلْدِی ***tawar ewkä suquldï*** – “mol uy va boshqa yerlarga suquldi” (سُقُلُرْ ***suqulur***, سُقُلْمَاق ***suqulmaq***).

[سِقِلْدِی ***sïqïldï***] اُزُمْ سِقِلْدِی ***üzüm sïqïldï*** – “uzum siqildi”. Siqilgan yoki qisilgan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (سِقِلُرْ ***sïqïlur***, سِقِلْمَاقْ ***sïqïlmaq***).

[سُكُلْدِی ***sökïldi***] تُونْ سُكُلْدِی ***ton sökïldi*** – “to‘n va boshqa kiyimlarning choklari so‘kildi”. Binoning yiqilishi, buzilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُكُلُورْ ***sökülür***, سُكُلْمَاكْ ***sökülmäk***).

[سُكُلْدِی ***sögüldi***] اَرْ اَتْ سُكُلْدِی ***er et sögüldi*** – “kishi go‘sht va boshqa narsalarni qovurdi” (سُكُلُورْ ***sögülür***, سُكُلْمَاكْ ***sögülmäk***).

[سِكِلْدِی ***sikildi***] اُرَاغُتْ سِكِلْدِی ***uraγut sikildi*** – “xotin sikildi” (سِكِلُرْ ***sikilür***, سِكِلْمَاكْ ***sikilmäk***).

[سِنَلْدِی ***sïnaldï***] اِيشْ سِنَلْدِی ***iš sïnaldï*** – “ish sinaldi” (سِنَلُرْ ***sïnalur***, سِنَلْمَاقْ ***sïnalmaq***).

[تِذِلْدِی ***tïðïldï***] اَرْ اِيشْ تَنْ تِذِلْدِی ***er ištan tïðïldï*** – “kishi ishdan tiyildi, qaytarildi”. Birov ishdan tiyilsa ham, ya’ni “tiydi” ma’nosida ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu fe’l o‘timli va o‘timsiz vazifada qo‘llanadi (تِذِلُرْ ***tïðïlur***, تِذِلْمَاقْ ***tïðïlmaq***).

[تَرِلْدِی ***tarïldï***] تَرِغْ تَرِلْدِی ***tarïγ tarïldï*** – “ekin va boshqa narsalar ekildi, sochildi” (تَرِلُرْ ***tarïlur***, تَرِلْمَاقْ ***tarïlmaq***).

[تَرِلْدِی ***tarïldï***] تَرِلْدِی نَانكْ ***tarïldï näŋ*** – “narsa ayrildi”.

[تَرَلْدِی ***taraldï***] سَجْ تَرَلْدِی ***sač taraldï*** – “soch taraldi” (تَرَلُرْ ***taralur***, تَرَلْمَاقْ ***taralmaq***).

[تُرُلْدِی ***turuldï***] اَرْ اِيشْ تِنْ تُرُلْدِی ***er ištïn turuldï*** – “kishi ishdan zerikdi, ish joniga tegdi”. Ovqatga to‘yib og‘irlashishga, ovqat me’daga tegishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُرُلُرْ ***turulur***, تُرُلْمَاقْ ***turulmaq***).

[تِرِلْدِی ***tirildi***] اُلُكْ تِرِلْدِی ***ölüg tirildi*** – “o‘lik tirildi” (تِرِلُرْ ***tirilür***, تِرِلْمَاكْ ***tirilmäk***).

[تَرِلْدِی *terildi*] بُذُونْ تَرِلْدِی *boδun terildi* – “xalq terildi, yig‘ildi”; يَرْمَاقْ تِرِلْدِی *yarmaq terildi* – “tanga va boshqa narsalar yig‘ildi, to‘plandi” (166b) (تَرِلُرْ *terilür*, تَرِلْمَاکْ *terilmäk*).

[تُرُلْدِی *türüldi*] بِتِکْ تُرُلْدِی *bitig türüldi* – “xat va boshqa narsalar o‘raldi, taxlandi” (تُرُلُرْ *türülür*, تُرُلْمَاکْ *türülmäk*).

[تُزُلْدِی *tüzüldi*] يِيرْ تُزُلْدِی *yer tüzüldi* – “yer tekislandi”.

[تُزُلْدِی *tüzüldi*] اِيشْ تُزُلْدِی *iš tüzüldi* – “ish tuzildi; ish o‘rniga tushdi” (تُزُلُرْ *tüzülür*, تُزُلْمَاکْ *tüzülmäk*).

[تِزِلْدِی *tizildi*] يِنْجُو تِزِلْدِی *yinčü tizildi* – “inju va she’r tizildi”. Narsa o‘z-o‘zidan tizilishga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu fe’l o‘timli va o‘timsiz vazifada keladi (تِزِلُرْ *tizilür*, تِزِلْمَاکْ *tizilmäk*).

[تُسُلْدِی *tusuldï*] بُو اُتْ اَنکَرْ تُسُلْدِی *bu ot anar tusuldï* – “bu dori (o‘t) unga foyda qildi, yoqdi”. Biror narsaga foyda qilgan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi. Buning asli تُسُو بُلْدِی *tusu boldï* dir (تُسُلُرْ *tusulur*, تُسُلْمَاقْ *tusulmaq*).

[تَشِلْدِی *tešildi*] قَابْ تَشِلْدِی *qap tešildi* – “qop teshildi”.

(Shoir) shunday degan:

قَانِی اَقِبْ يُشُلْدِی *Qanï aqïp yošuldï,*
قَابِی قَمُغْ تَشِلْدِی *Qapï qamuγ tešildi.*
اُلُکْ بِلَا قُشُلْدِی *Ölüg bilä qošuldï,*
تُغْمِشْ کُنِی اُشْ بَتَارْ *Tuγmïš küni-uš batar.*

O‘lgan (narsa) haqida aytmoqda: “Xuddi mesh yorilib, ichi to‘la suyuq narsa to‘lib oqqanday, uning qoni to‘lib-toshib oqdi. Endi o‘likka aylandi. Uning tuqqan kuni, ya’ni baxt-u davlati, tirikligi botayotir” (تَشِلدِی *tešildi* (تَشِلُرْ *tešilür?*), تَشِلْمَاکْ *tešilmäk*).

[تُشَلْدِی *tošaldi*] تُشَکْ تُشَلْدِی *tošäk tošaldi* – “to‘shak to‘shaldi, solindi”.

[تِشَلْدِی *tišaldi*] اُرْغَاقْ تِشَلْدِی *oryaq tišaldi* – “o‘roq qayraldi”; تَکِرْمَانْ تِشَلْدِی *tegirmän tišaldi* – “tegirmonning tishi o‘tkir qilindi”. Arra va boshqa narsalarning tishi o‘tkirlanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِشَلُرْ *tišälür*, تِشَلْمَاکْ *tišälmäk*).

[تَغِلْدِی *tayïldï*] اُقْ بَشَقِی تَشْقَا تَکِبْ تَغِلْدِی *oq bašaqï tašqa tegip tayïldï* – “o‘qning boshog‘i – tig‘i toshga tegib to‘mtoqlanib, o‘tmas bo‘ldi, dami qaytdi”. Har bir tig‘li narsaning toshga yoki qattiq bir narsaga tegib o‘tmaslanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَغِلُرْ *tayïlur*, تَغِلْمَاقْ *tayïlmaq*).

[تَقِلْدِی / تِقِلْدِی *tiqïldï* / *taqïldï*] تَقِلْدِی / تِقِلْدِی اَتْ شِيشْقَا *et šïšqa tiqïldï* / *taqïldï* – “go‘sht six va boshqa narsalarga terildi” (تَقِلُرْ / تِقِلُرْ *tiqïlur* / *taqïlur*, تَقِلْمَاقْ / تِقِلْمَاقْ *tiqïlmaq* / *taqïlmaq*).

[تُقُلْدِی *toquldï*] اَرْ تُقُلْدِی *er toquldï* – “er urildi”.

[تُقُلْدِي *toquldï*] بُوزْ تُقُلْدِي *böz toquldï* (167a) – “bo‘z va boshqa matolar to‘qildi”.

[تُقُلْدِى *toquldï*] قِلِچْ تُقُلْدِى *qïlïč toquldï* – “qilich va pichoqni zang bosdi, zangladi”. اَرْ تُقُلْدِى *er toquldï* iborasi o‘g‘uzchadir (تُقِلُرْ *toqïlur*, تُقِلْمَاقْ *toqïlmaq*).

[تِقِلْدِي *tïqïldï*] كَنْدُكَا اُونْ تِقِلْدِي *kendügkä un tïqïldï* – “xumga un tiqib solindi”; اَفْكَا كِشِى تِقِلْدِى *ewkä kiši tïqïldï* – “uyga kishilar tiqildi, uy liq to‘ldi”. Biror narsa ko‘payib ketib, joy tang bo‘lishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِقِلُرْ *tïqïlur*, تِقِلْمَاقْ *tïqïlmaq*).

[تُكُلْدِى *töküldi*] سُوقْ تُكُلْدِى *suw töküldi* – “suv to‘kildi”. Un, bug‘doy kabi to‘kilishi mumkin bo‘lgan narsalarning idishdan tushib, to‘kilib qolishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir (تُكُلُرْ *tökülür*, تُكُلْمَاكْ *tökülmäk*).

[تُكُلْدِى *tügüldi*] تُكُونْ تُكُلْدِى *tügün tügüldi* – “tugun va boshqa narsalar tugildi”. Birov tomonidan tugilgan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُكُلُرْ *tüglür*, تُكُلْمَاكْ *tügülmäk*). Bu fe’l ham o‘timli va o‘timsiz holda qo‘llanadi.

[تُكُلْدِى *tügüldi*] اَشْ بُغُزْدَا تُكُلْدِى *aš boγuzda tügüldi* – “ovqat tiqildi, tomog‘ida turib qoldi” (تُكُلُرْ *tügülür*, تُكُلْمَاكْ *tügülmäk*).

[تَكِلْدِى *tegildi*] اَنِكْ كُوزِى تَكِلْدِى *anïŋ közi tegildi* – “uning ko‘zi tegdi” (تَكِلُورْ *tegilür*, تَكِلْمَاكْ *tegilmäk*).

[تِكِلْدِي *tikildi*] يِغَاجْ تِكِلْدِي *yïγač tikildi* – “daraxt ekildi”. Har bir narsaning tiklab qo‘yilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِكِلُرْ *tikilür*, تِكِلْمَاكْ *tikilmäk*).

[تَنُلْدِى *tanuldï*] اَنَكَارْ سُوزْ تَنُلْدِى *aŋar söz tanuldï* – “unga so‘z va boshqa narsalar ishorat qilindi” (تَنُلُرْ *tanulur*, تَنُلْمَاقْ *tanulmaq*).

[تِنِلْدِى *tïnïldï*] اَمْكَاكْتِنْ تِنِلْدِى *emgäktin tïnïldï* – “mashaqqatdan, qiyinchilikdan tinildi”. Bu o‘timsiz fe’lning majhul shaklidir. Bu tilda buning misoli ko‘pdir. Arab tilida bunday o‘timsiz fe’ldan majhul fe’l yasalmaydi. Lekin turkiy tillarda bu so‘z tez-tez uchraydi. Chunonchi, اَفْكَا بَرِلْدِى *ewkä barïldï* – “uyga borildi”; تَاغْدِنْ اِنِلْدِي *taγdïn inildi* – “tog‘dan quyi tushildi” (تِنِلُرْ *tïnïlur*, تِنِلْمَاقْ *tïnïlmaq*).

[بُرُلْدِى *bürüldi*] بِتِكْ بُرُلْدِى *bitig bürüldi* – “maktub va boshqa narsalar burab buklandi” (167b) (بُرُلُرْ *bürülür*, بُرُلْمَاكْ *bürülmäk*).

[بِرِلْدِى *berildi*] اَنَكَارْ يَرْمَاقْ بِرِلْدِى *aŋar yarmaq berildi* – “unga tanga va boshqa narsalar berildi” (بِرِلُورْ *berilür*, بِرِلْمَاكْ *berilmäk*).

[بَزَلْدِى *bezäldi*] اَفْ بَزَلْدِى *ew bezäldi* – “uy va boshqa joylar bezaldi, naqshlandi” (بَزَالُورْ *bezälür*, بَزَلْمَاكْ *bezälmäk*).

[بُزُلْدِى *buzuldï*] اَفْ بُزُلْدِى *ew buzuldï* – “uy buzildi”. Biron narsa qulasa ham shu so‘z ishlatiladi. Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir (بُزُلُرْ *buzulur*, بُزُلْمَاقْ *buzulmaq*).

[بُزُلْدِى *buzuldï*] اَرْ بُزُلْدِى *er buzuldï* – “kishining moli xarob bo‘ldi, zararlandi”.

[بُغُلْدِى *boγuldï*] اَرْ بُغُلْدِى *er boγuldï* – “kishi va boshqalar bo‘g‘ildi” (بُغُلُرْ *boγulur*, بُغُلْمَاقْ *boγulmaq*).

[بَقِلْدِى *baqïldï*] يِيرْكَا بَقِلْدِى *yerkä baqïldï* – “yerga va boshqa narsalarga boqildi, qaraldi” (بَقِلُرْ *baqïlur*, بَقِلْمَاقْ *baqïlmaq*).

[تُقُلْدِی ***toquldï***] اَدَّاقْ تُقُلْدِی ***aδaq toquldï*** – “uzatilgan oyoq yig‘ildi, tortildi” (تُقِلْرْ ***toqïlur***, تُقِلْمَاقْ ***toqïlmaq***).

[بُکُلْدِی ***büküldi***] بُتِقْ بُکُلْدِی ***butïq büküldi*** – “butoq egildi”. Biron kishi uni egishiga ham بُکُلْدِی ***büküldi*** deyiladi. Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir (بُکُلْرْ ***bükülür***, بُکُلْمَاکْ ***bükülmäk***). Egilib bukilgan har narsaga ham shu so‘z ishlatiladi.

[يُکُلْدِی ***yüküldi***] سُوقْ يُکُلْدِی ***suw yüküldi*** – “suv to‘plandi; to‘g‘on bilan to‘silgani uchun ko‘paydi” (يُکُلْرْ ***yükülür***, يُکُلْمَاکْ ***yükülmäk***).

[جُژُلْدِی ***čöžüldi***] يِبْ جُژُلْدِی ***yïp čöžüldi*** – “ip cho‘zildi”. Suyuq narsalarning quyilib cho‘ziluviga ham shu so‘z qo‘llanadi. Quyuq shinni, saqich va shunga o‘xshash narsalarning cho‘zilishi singari (جُژُلْرْ ***čöžülür***, جُژُلْمَاکْ ***čöžülmäk***) (ikki jag‘ orasida talaffuz qilinuvchi ژ *zā* bilan).

[جُغْلَدِی ***čoγladï***] اَرْ بُغْ جُغْلَدِی ***er boγ čoγladï*** – “kishi bo‘xchani arqon bilan bog‘ladi” (جُغْلَرْ ***čoγlar***, جُغْلَمَاقْ ***čoγlamaq***).

[جَقِلْدِی ***čaqïldï***] جَقْمَاقْ جَقِلْدِی ***čaqmaq čaqïldï*** – “chaqmoq chaqildi”. Toshga bir narsaning urilishidan o‘t chaqnasa, تَاشْ جَقِلْدِی ***taš caqïldï*** (“tosh chaqildi, hatto o‘t chiqdi”) deyiladi.

[جَقِلْدِی ***čaqïldï***] سُوزْ قُلَاقّا جَقِلْدِی ***söz qulaqqa čaqïldï*** – “so‘z quloqqa eshitildi” (جَقِلْرْ ***čaqïlur***, جَقِلْمَاقْ ***čaqïlmaq***).

(Shoir) shunday degan:

يُکُرْدِی کَقْلْ اَتْ ***Yügürdi kewäl at,***
جَقِلْدِی قِزِلْ اُتْ ***Čaqïldï qïzïl ot.***
کُيُرْدِی اَرُتْ اُتْ ***Küyürdi arut ot,***
سَجْرَبْ اَنِنْ اُرْتَنُورْ ***Sačrap anïn örtänür.***

(168a) Yovning otini ta’riflamoqda: “Uchqur ot yugurdi, tuyoqlaridan qizil o‘t chaqnadi. Undan chaqnagan o‘t (sahro) xashaklarini kuydirib yubordi”.

[جِقِلْدِی ***čïqïldï***] اَقْدِنْ جِقِلْدِی ***ewdin čïqïldï*** – “uy va boshqa joylardan chiqildi” (جِقِلْرْ ***čïqïlur***, جِقِلْمَاقْ ***čïqïlmaq***).

[جَکِلْدِی ***čekildi***] بِتِکْ جَکِلْدِی ***bitig čekildi*** – “xat va boshqa bitiglarga nuqta qo‘yildi” (جَکِلْرْ ***čekilür***, جَکِلْمَاکْ ***čekilmäk***).

[جِکِلْدِی ***čigildi***] تُکُنْ جِکِلْدِی ***tügün čigildi*** – “tugun bog‘landi”. Ip bog‘lanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (جِکِلُورْ ***čigilür***, جِکِلْمَاکْ ***čigilmäk***).

[قَجِلْدِی ***qačïldï***] اَلْمْ دِنْ قَجِلْدِی ***ölümdin qačïldï*** – “o‘lim va boshqa narsalardan qochildi” (قَجِلُورْ ***qačïlur***, قَجِلْمَاقْ ***qačïlmaq***).

[قَدِلْدِی ***qadïldï***] تُونْ قَدِلْدِی ***ton qadïldï*** – “to‘n qavib tikildi” (قَدِلْرْ ***qadïlur***, قَدِلْمَاقْ ***qadïlmaq***).

[قَرِلْدِی ***qarïldï***] بِيرْ نَانَکْ بِيرْکَا قَرِلْدِی ***bir näŋ birkä qarïldï*** – “bir narsa boshqa narsaga aralashdi” (o‘g‘uzchadir). Turklar قَتِلْدِی قَرِلْدِی ***qatïldï-qarïldï*** shaklida ikki so‘zni qo‘shib qo‘llaydilar (قَرِلْرْ ***qarïlur***, قَرِلْمَاقْ ***qarïlmaq***).

[قُرُلْدِى *quruldï*] اَرْ اَلِكِى قُرُلْدِى *er eligi quruldï* – “kishining qo‘li tortishdi, changak bo‘ldi; tomirlari tortishdi”.

[قُرُلْدِى *quruldï*] يَا قُرُلْدِى *ya quruldï* – “yoy qurildi” (قُرُلُرْ *qurulur*, قُرُلْمَاقْ *qurulmaq*).

[قِرِلْدِى *qïrïldï*] قِرِلْدِى نَانىڭ *qïrïldï näŋ* – “narsaning po‘sti, qobig‘i shilindi, qirildi” (قِرِلُرْ *qïrïlur*, قِرِلْمَاقْ *qïrïlmaq*).

[قِرِلْدِى / قُرُلْدِى *qurïldï* / *qïrïldï*] قِرِلْدِى / قَارْ قُرِلْدِى *qar qurïldï* / *qïrïldï* – “qor yerdan kuraldi”.

[قِرِلْدِى *qïrïldï*] اَرْ قِرِلْدِى *er qïrïldï* – “er qashshoq bo‘ldi”, ya’ni “uning moli olib qo‘yildi”.

[قَزِلْدِى *qazïldï*] اَرِقْ قَزِلْدِى *arïq qazïldï* – “ariq va boshqalar qazildi” (قَزِلُرْ *qazïlur*, قَزِلْمَاقْ *qazïlmaq*).

[قِزِلْدِى *qïzïldï*] اَرْ يَزُقْتِنْ قِزِلْدِى *er yazuqtïn qïzïldï* – “u kishiga kishan solindi. Qilgan yomonligining jazosini tortdi. Bundan keyin u yomon ishlar qilmaydigan bo‘ldi” (قِزِلُرْ *qïzïlur*, قِزِلْمَاقْ *qïzïlmaq*).

[قِسِلْدِى *qïsïldï*] اَلِكْ قَبُغْ قَا قِسِلْدِى *elig qapuγqa qïsïldï* – “qo‘l eshikka qisildi”. Ikki narsa orasida qisilgan, orada qolgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (قِسِلُرْ *qïsïlur*, قِسِلْمَاقْ *qïsïlmaq*).

[قُشُلْدِى *qošuldï*] بِيرْ نَانىڭ بِيرْكَا قُشُلْدِى *bir näŋ birkä qošuldï* – “bir narsa ikkinchisiga qo‘shildi”. Uning boshqa narsa bilan yaqinlauviga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُشُلُرْ *qošulur*, قُشُلْمَاقْ *qošulmaq*).

[قُشُلْدِى *qošuldï*] يِيرْ قُشُلْدِى *yïr qošuldï* – “she’r to‘qildi” (قد نظم الغزل) (168b).

[قَقِلْدِى *qaqïldï*] بَشْرَا قَقِلْدِى *bašra qaqïldï* – “boshga qoqildi, urildi, boshiga urildi” (قَقِلُر *qaqïlur*, قَقِلمَاق *qaqïlmaq*). قَقِلْدِي سُقُلْدِي *qaqïldï-suquldï* (“qoqildi-suquldi”) iborasi ham shundan olingan. Bu so‘zni biror kimsa xo‘rlanganda aytiladi.

[قَمُلْدِى *qamuldï*] اَرْ قَمُلْدِى *er qamuldï* – “kishi yonboshladi, yonboshlab yotdi” (قَمُلُرْ *qamulur*, قَمُلْمَاقْ *qamulmaq*).

[كَجِلْدِى *kečildi*] سُوقْ كَجِلْدِى *suw kečildi* – “suv va boshqalar kechildi” (كَجِلُرْ *kečilür*, كَجِلْمَاكْ *kečilmäk*).

[كُجَلْدِى *küčäldi*] اَرْ تَقَارِى كُجَلْدِى *er tawarï küčäldi* – “kishining moliga va boshqa narsalariga zo‘rlik qilindi” (كُجَالُرْ *küčälür*, كُجَالْمَاكْ *küčälmäk*).

[كَذِلْدِى *keδildi*] تُونْ كَذِلْدِى *ton keδildi* – “to‘n va boshqa kiyimlar kiyildi” (كَذِلُرْ *keδilür*, كَذِلْمَاكْ *keδilmäk*).

[كَرِلْدِى *kerildi*] اَرْ كَرِلْدِى *er kerildi* – “kishi esnadi, kerishdi”.

[كَرِلْدِى *kerildi*] اُرُقْ كَرِلْدِى *oruq kerildi* – “arqon va boshqa narsa, masalan, pishgan teri va xom teri singari narsalar cho‘zildi” (كَرِلُرْ *kerilür*, كَرِلْمَاكْ *kerilmäk*).

[كُرُلْدِى *körüldi*] كُرُلْدِى نَانىڭ *körüldi näŋ* – “narsaga qaraldi” (كُرُلُرْ *körülür*, كُرُلْمَاكْ *körülmäk*).

[كِرِلْدِى *kirildi*] اَفْكَا كِرِلْدِى *ewkä kirildi* – “uy va boshqa joylarga kirildi” (كِرِلُرْ *kirilür*, كِرِلْمَاكْ *kirilmäk*).

[كَسِلْدِى *kesildi*] كَسِلْدِى نَانىڭ *kesildi näŋ* – “narsa kesildi” (كَسِلْنُر *kesilür,* كَسِلْمَاكْ *kesilmäk*).

[كُسُلْدِى *kösüldi*] اَر اَذَقْ كُسُلْدِى *er aδaq kösüldi* – “kishi oyoq uzatdi” (كُسُلْنُر *kösülür,* كُسُلْمَاكْ *kösülmäk*). Maqolda (shunday kelgan): يُغُرْقَنْدَا اَرْتُقْ اَذَقْ كُسُلْسَا اُشِيُورْ *Yuγurqanda artuq aδaq kösülsä, üšiyür.* Ma’nosi: “Kishi oyog‘ini ko‘rpasidan ortiq uzatsa, oyog‘i uvishadi, sovqotadi”. Bu maqol kishi o‘z haddidan oshmaslikka undab aytiladi.

[كَقِلْدِى *kewildi*] اَرْ كُوچِى كَقِلْدِى *er küči kewildi* – “kishining kuchi kesildi”.

(Shoir) shunday degan:

تَكْرَا اَقِبْ اُكْرَلِمْ *Tegrä awïp ögrälim,*
اَتَنْ تُشُبْ يُكْرَلِمْ *Attïn tüšüp yügrälim.*
اَرسْلَنْ لَيُو كُكْرَلِمْ *Arslanlayu kökrälim,*
كُوچِى اَنِنْ كَقِلْسُونْ *Küči anïn* (*anïŋ?*) *kewilsün.*

Aytmoqdaki: “Yov tegrasini o‘raylik, otdan tushib hamla qilaylik, arslonlarcha bo‘kiraylik, shundan yovning kuchi kesilsin”.

[مَنِلْدِى *manïldï*] اَتْمَاكْ سِرْكَاكَا مَنِلْدِى *etmäk sirkäkä manïldï* – “non sirkaga va boshqa narsalarga botirildi, surtildi” (مَنِلْنُر *manïlur,* مَنِلْمَاقْ *manïlmaq*).

[مُنَلْدِى *münäldi*] تُونْ مُنَلْدِى *ton münäldi* – “to‘nning tevaragi, ortiqcha joylari qirqib olindi, arayishi olindi” (مُنَلْنُر *münälür,* مُنَلْمَاكْ *münälmäk*).

[مُنُلْدِى *münüldi*] اَتْ مُنُلْدِى *at münüldi* – “ot va boshqa ulovlarga minildi” (مُنُلْنُر *münülür,* مُنُلْمَاكْ *münülmäk*).

Qoida: bu bo‘lim *lām* harfiga asoslangan. *lām* harfi uch xil vazifada qo‘llanadi:

Birinchi, ikki harfli fe’lga *lām* harfi qo‘shilib, uch harfli fe’l yasaladi; *lām* harfi majhul fe’l belgisi vazifasini bajaradi. Chunonchi, يَا قُرُلْدِى *ya quruldï* – “kamon qurildi”; اَرْ اُرُلْدِى *er uruldï* – “kishi urildi”. Bu fe’llarning asli قُرْدِى *qurdï,* اُرْدِى *urdï* dir. Bu bo‘lim *lām* ga asoslangandir.

Ikkinchi, o‘timsiz fe’ldan tuzilgan majhul fe’l bo‘ladi. Bu holat arab tili qoidasida yo‘q. Chunonchi, اُلْ نَانىڭ كُرُلْدِى *ol näŋ körüldi* – “u narsa ko‘rildi”; اُلْ يِيرْكَا بَرِلْدِى *ol yerkä barildï* – “u yerga borildi”. Ba’zan bu harf o‘zidan so‘nggi harfga moslashadi. Chunonchi, بِتِكْ بِتِنْدِى *bitig bitindi* – “xat yozildi”; bu بِتِلْدِى *bitildi* ham deyiladi; اَرْ اِتِنْدِي *er itindi* – “kishi sustlandi”. Bu fe’lning اِتِلْدِى *itildi* shakli ham bor.

Uchinchi, bu mazmunlardan tashqari, mustaqil fe’l bo‘ladi: اُلُكْ تِرِلْدِى *ölüg tirildi* – “o‘lik tirildi”; سُوتْ سُغُلْدِى *süt suγuldï* – “sut suyuldi”; سُوفْ سُزُلْدِى *süw süzüldi* – “suv suzildi, tinitildi” kabi.

ن *n* [harfi]:

[تَبِنْدِمْ *tapïndïm*] مَنْ تَنْكْرِيكَا تَبِنْدِمْ *men täŋrikä tapïndïm* – “men Alloh taologa bo‘ysundim, uning buyruqlariga itoat qildim”; اُلْ بَكْكَا تَبِنْدِي *ol begkä tapïndï* – “u bekka bo‘ysundi”.

(Bilimli) shunday degan:

اُگْرَنْ اَنِکْ بِلِکِنْ	*Ögrän anïŋ biligin,*
کُنْدَا اَنکَارْ بَارُو	*Kündä aŋar baru,*
قُتْقِلِقِنْ تَبِنْغِلْ	*Qutqïlïqïn tapïnγïl,*
قُذْغِلْ کُقُزْ نَارُو	*Qoδγïl küwäz naru.*

O‘g‘liga nasihat qilib aytmoqda: “Agar bilimli kishiga yo‘liqsang, kunda uning yoniga borib, qunt bilan uning bilimlarini o‘rgan. Yaxshi muomala bilan unga bo‘ysun, takabburlikni nari qo‘y” (تَبِنُوْرْ ***tapïnur***, تَبِنْمَاقْ ***tapïnmaq***). (169b)

[تَبِنْدِی ***tepindi***] اَرْ اَتِنْ تَبِنْدِی ***er atïn tepindi*** – “kishi otini tepindi, niqtadi”. Har narsani oyog‘i bilan niqtab harakatlantirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَبِنُوْرْ ***tepinür***, تَبِنْمَاکْ ***tepinmäk***).

[بِتِنْدِی ***bitindi***] اَرْ بِتِکْ بِتِنْدِی ***er bitig bitindi*** – “kishi o‘zini xat yozayotganday ko‘rsatdi”. Shuningdek, birovning ko‘magisiz yolg‘iz o‘zi xat yozsa ham بِتِنْدِی ***bitindi*** deyiladi (بِتِنُوْرْ ***bitinür***, بِتِنْمَاکْ ***bitinmäk***).

[بُتَنْدِی ***butandï***] يِغَاجْ بُتَنْدِی ***yïγač butandï*** – “daraxt shoxlari butaldi”. Kishi daraxtni butayotganday ko‘rinsa ham shunday deyiladi (بُتَنُوْرْ ***butanur***, بُتَنْمَاقْ ***butanmaq***).

[بِجِنْدِی ***bïčïndï***] اَرْ اُزنکَا اَتْ بِجِنْدِی ***er özüŋä et bïčïndï*** – “kishi o‘zini go‘sht kesayotganday qilib ko‘rsatdi”. Yolg‘iz o‘zi bu ishni bajarishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بِجِنُوْرْ ***bïčïnur***, بِجِنْمَاقْ ***bïčïnmaq***).

[بُرُنْدِی ***büründi***] اُرَاغْتْ يُغُرْقَانْ بُرُنْدِی ***uraγut yuγurqan büründi*** – “xotin ustki to‘nni kiydi, burkanib oldi, yopindi”. Boshqa narsalarga burkanishiga ham shu so‘z ishlatiladi (بُرُنُوْرْ ***bürünür***, بُرُنْمَاکْ ***bürünmäk***).

[بَرِنْدِی ***barïndï***] اُرَاغْتَنْ قَانْ بَرِنْدِی ***uraγuttïn qan barïndï*** – “xotin tomiri qondan bo‘shaldi”; u hayz qoni chiqadigan tomirdir (بَرِنُوْرْ ***barïnur***, بَرِنْمَاقْ ***barïnmaq***).

[بَرِنْدِی ***barïndï***] اَرْ اَقْکَا بَرِنْدِی ***er ewkä barïndï*** – “kishi uyga va boshqa joylarga borayotganday ko‘rindi” (بَرِنُوْرْ ***barïnur***, بَرِنْمَاقْ ***barïnmaq***).

Bu xil fe’llar تفاعل vaznida kelgan fe’llarning ma’nosida qo‘llanadi. Bu, kishi haqiqatda ishlamagan narsasini ishlagandek qilib ko‘rsatishdir. Chunonchi, تصام الرجل و تماوت – “kishi o‘zini garanglikka soldi va o‘zini o‘l-ganday qilib ko‘rsatdi”.

[بَزَنْدِی ***bezändi***] اُرَاغْتْ بَزَنْدِی ***uraγut bezändi*** – “xotin yasandi”; اَقْ بَزَنْدِی ***ew bezändi*** – “uy ko‘rkamlashdi, bezaldi”. Bu o‘rinda *nūn* harfi *lām* ga almashgan (بَزَنُوْرْ ***bezänür***, بَزَنْمَاکْ ***bezänmäk***).

[بَسِنْدِی ***basïndï***] اُلْ اَرِکْ بَسِنْدِی ***ol erig basïndï*** – “u kishini zaif sanadi, unga kuch ishlatdi, qahr qildi” (بَسِنُوْرْ ***basïnur***, بَسِنْمَاقْ ***basïnmaq***).

[بُشَنْدِی ***bošandï***] قُوْیْ بُشَنْدِی ***qoy bošandï*** – “qo‘y boshvog‘idan, qozig‘idan bo‘shaldi; qo‘y qumoloqlab bo‘shaldi” (بُشَنُوْرْ ***bošanur***, بُشَنْمَاقْ ***bošanmaq***).

[***bošandï*** بُشَنْدِى] ***tügün bošandï*** تُگُونْ بُشَنْدِى – “tugun bo‘shaldi, yechildi”.

[***bošandï*** بُشَنْدِى] ***uraγut bošandï*** اُرَاغُتْ بُشَنْدِى (170a) – “xotin taloq qilindi” (arg‘ucha). Bu mo‘tabar emas (***bošanur,*** بُشَنُورْ ***bošanmaq***).

[***bošandï*** بُشَنْدِى] ***at boγundï*** اَتْ بُغُنْدِى – “ot va boshqa hayvonlar bo‘g‘ildi, bo‘g‘ilib o‘ldi” (***boγunur,*** بُغُنُورْ ***boγunmaq***).

[***baqïnγïl*** (***baqïndï?***)] ***iš kediŋä baqïnγïl*** اِيشْ كِيدِنْكَا بَقِنْغِلْ – “ishning oxirini ko‘zla, shunga qarab harakat qil” (***baqïnur,*** بَقِنُورْ ***baqïnmaq***).

[***baqïndï*** بَقِنْدِى] ***er aδaqïn baqïndï*** اَرْ اَذَاقِنْ بَقِنْدِى – “kishi yoyiq oyog‘ini bukladi, yig‘di” (***baqïnur,*** بَقِنُورْ ***baqïnmaq***).

[***tegindi*** تَكِنْدِى] Xoqon va beklarga birovning kelganini bildirganda chigillarda ***ol tegindi*** اُلْ تَكِنْدِى deyiladi, ya’ni “hozir bo‘ldi; ziyoratlariga yetishdi” demakdir. Ketsa ham shunday deydilar. O‘g‘uzlar bu so‘zni yoqtirmaydilar (***teginür,*** تَكِنُورْ ***teginmäk*** تَكِنْمَاكْ).

[***tügündi*** تُگُنْدِى] ***ol tügün tügündi*** اُلْ تُگُونْ تُگُنْدِى – “u bir o‘zi tugun tugdi”. O‘zini tugun tukkanday ko‘rsatishga ham shu so‘z qo‘llanadi (***tügünür,*** تُگُنُورْ ***tügünmäk*** تُگُنْمَاكْ).

[***bulundï*** بُلُنْدِى] ***yitüg / yitig bulundï*** يِتِكْ / يِتِگْ بُلُنْدِى – “yo‘qolgan narsa va boshqalar topildi” (***bulnur,*** بُلْنُورْ ***bulunmaq***).

[***bilindi*** بِلِنْدِى] ***er išïn bilindi*** اَرْ اِيشِنْ بِلِنْدِى – “er ishini bildi, tushundi” (***bilinür,*** بِلِنُورْ ***bilinmäk*** بِلِنْمَاكْ). ***er yazuqïn bilindi*** اَرْ يَازُقِنْ بِلِنْدِى – “er gunohini bildi, iqror bo‘ldi”.

[***tutundï*** تُتُنْدِى] ***kün tutundï*** كُونْ تُتُنْدِى – “kun tutildi”; ***ay tutundï*** اَىْ تُتُنْدِى – “oy tutildi”.

[***tutundï*** تُتُنْدِى] ***beg meni oγul tutundï*** بَكْ مِنِى اُغُلْ تُتُنْدِى – “bek meni o‘g‘il tutindi, o‘g‘il qildi, o‘g‘illikka oldi”. Boshqa kimsalarning avlod atalishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[***tutundï*** تُتُنْدِى] ***er keyik tutundï*** اَرْ كَيِكْ تُتُنْدِى – “kishi bir o‘zi boshqalarning ko‘magisiz, kiyik tutdi”. Shuning singari, har bir narsani olishda va ushlashda kishi yolg‘iz o‘zi bo‘lsa ham shu so‘z ishlatiladi.

[***tutandï*** تُتَنْدِى] ***ot tutandï*** اُوتْ تُتَنْدِى – “o‘t tutab yondi” (***tutanur,*** تُتَنُورْ ***tutanmaq*** تُتَنْمَاقْ).

(Shoir) shunday degan:

Üδik otï tutunup, اُدِكْ اُتِى تُتُونُبْ
Öpkä, yüräk qoγrulur. اُبْكَا يُرَكْ قُغْرُلُورْ

Sevgini ta’riflab aytmoqda: “Sevgi o‘ti yonib, undan yurak, o‘pka va uning artofidagi a’zolar kuyib qovruladi”.

[***tutundï*** تُتُنْدِى] ***ol awurta tutundï*** اُلْ اَفْرْتَا تُتُنْدِى – “u (o‘ziga) enaga qilib oldi”.

[***tutundï*** تُتُنْدِى] ***ol meni ötügči tutundï*** اُلْ مَنِى اُتُگْجِى تُتُنْدِى – “u meni shohga vositachilikka oldi”. Buning masdar shakli yuqoridagichadir.

[تَتِنْدِى *tetindi*] اُلْ اَنـكَرْ تَتِنْدِى ***ol aŋar tetindi*** (170b) – “u unga xezlandi, qarshi turdi, tik qaradi”; اَنِـكْ يُوزِنـكَا تِتْنُو بَقْسَا بُلْمَاسْ ***anïŋ yüziŋä tetnü baqsa bolmas*** – “(chiroyidan) kishi uning yuziga tik boqolmaydi” deganda ham shu ma’no bor (تِتنُورْ ***tetnür***, تِتِنْمَاكْ ***tetinmäk***).

[تُدُنْدِي *todundï*] اَرْ تُدُنْدِي ***er todundï*** – “kishi o‘zini to‘yganday tutdi”. To‘yinishga ham shunday deyiladi (تُدْنُورْ ***todnur***, تُدُنْمَاقْ ***todunmaq***).

[تِدِنْدِى *tïδïndï*] اَرْ اِيشْتِنْ تِدِنْدِى ***er ïštïn tïδïndï*** – “kishi ishdan tiyindi” (تِدِنُورْ ***tïdïnur***, تِدِنْمَاقْ ***tïdïnmaq***).

[تَرَنْدِى *tarandï*] اُلْ سَجِنْ تَرَنْدِى ***ol sačïn tarandï*** – “u birovning ko‘magisiz sochini taradi” (تَرَانُرْ ***taranur***, تَرَنْمَاقْ ***taranmaq***).

[تَرِنْدِى *tarïndï*] اَرْ تَرِغْ تَرِنْدِى ***er tarïγ tarïndï*** – “kishi o‘zini ekin ekayotganday qilib ko‘rsatdi”. Birovning ko‘magisiz yolg‘iz o‘zi ekishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَرِنُورْ ***tarïnur***, تَرِنْمَاقْ ***tarïnmaq***).

[بُشْتِى تَرِنْدِى *bušti-tarïndï*] اَرْ اِيشْتَا بُشْتِى تَرِنْدِى ***er ïšta bušti-tarïndï*** – “kishi ishda xafa bo‘ldi va siqildi” (تَرُونُرْ ***tarunur***, تَرُنْمَاقْ ***tarunmaq***).

[تُرُنْدِى *turundï*] اُلْ مَنـكَا اُتْرُو تُرُنْدِى ***ol meŋä otru turundï*** – “u menga qarshi turdi, xezlandi”. Bir-biriga yuzma-yuz turishga va o‘qtalishga ham shu so‘z ishlatiladi (تُرُنُورْ ***turunur***, تُرُنْمَاقْ ***turunmaq***).

[تُرُنْدِى *türündï*] اَرْ اُوزْ بِتِكِنْ تُرُنْدِى ***er öz bitigin türündï*** – “kishi xatini bir o‘zi o‘radi” (تُرُنُورْ ***türünür***, تُرُنْمَاكْ ***türünmäk***).

[تَرِنْدِى *terindi*] اَرْ اِيشْتِنْ تَرِنْدِى ***er ïštïn terindi*** – “kishi ishdan tiyindi”. Tiyilgan, man qilingan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[تِرَنْدِى *tirändi*] اُلْ تَامْقَا تِرَنْدِى ***ol tamqa tirändi*** – “u devor va boshqa narsalarga suyandi” (تِرَانُرْ ***tiränür***, تِرَنْمَاكْ ***tiränmäk***).

[تَرِنْدِى / تِرِنْدِى *terindi*] اُوزِنـكَا يَمِشْ تَرِنْدِى / تِرِنْدِى ***öziŋä yemiš terindi*** – “(u) o‘zi uchun meva terdi”. Yolg‘iz o‘zi boshqa narsani terishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِرِنُورْ ***terinür***, تِرِنْمَاكْ ***terinmäk***).

[تُرُنْدِى *torundï*] اَتْ تُرُنْدِى ***at torundï*** – “ot va boshqa hayvonlar o‘ynoqladi” (تُرُنُورْ ***torunur***, تُرُنْمَاقْ ***torunmaq***).

[تُرُنْدِى *turundï*] اَرْ اِيشْتَا تُرُنْدِى ***er ïšta turundï*** – “kishi ishda turdi” (تُرُنُورْ ***turunur***, تُرُنْمَاقْ ***turunmaq***).

[تَزِنْدِى *tezindi*] اُلْ تَزِنْدِى ***ol tezindi*** – “u o‘zini qochayotgandek ko‘rsatdi; u qochayotgandek ko‘rindi” (تَزِنُرْ ***tezinür***, تَزِنْمَاكْ ***tezinmäk***).

[تِزِنْدِى *tizindi*] اُرَاغْتْ يِنْجُوسِنْ تِزِنْدِى ***uraγut yinčüsin tizindi*** – “xotin injusini taqdi, tizdi” (تِزِنُرْ ***tizinür***, تِزِنْمَاكْ ***tizinmäk***).

[تُشَنْدِى *tušandï*] اَرْ اَذَاقِى تُشَنْدِى ***er aδaqï tušandï*** – “kishining oyoqlari qo‘rquvdan chalishdi”. (171a) Maqolda (shunday kelgan): اَرسَلْنْ كُكْرَسَا اَتْ اَذَاقِى تُشَالِرْ ***Arslan kökräsä, at aδaqï tušalïr.*** Ma’nosi: “Arslon o‘kirsa, otning oyoqlari chalishadi, o‘ralishadi”. Bu maqol o‘zidan kuchli kishi bilan qarshi kelib, yaqiniga borganda titrab, orqasiga qaytishi ma’nosida qo‘llanadi (تُشَانُرْ ***tušanur***, تُشَنْمَاقْ ***tušanmaq***).

[تُشَنْدِی *töšändi*] اُلْ اُوزِنکَا تُشَاکْ تُشَنْدِی *ol özinä töšäk töšändi* – “u o‘zi uchun to‘shak to‘shadi, o‘rin soldi” (تُشَانُرْ *töšänür*, تُشَنْمَاکْ *töšänmäk*).

[تَفْتِنْدِی *tewindi*] اَرْ اَلِکِنْ اُفْتِنْدِی تَفْتِنْدِی *er eligin üwündi-tewindi* – “kishi bir ish yuzasidan uyalganidan va pushaymonligidan qo‘lini yuziga tutdi” (تَفْتِنُورْ *tewinür*, تَفْتِنْمَاکْ *tewinmäk*).

[تُقْتِنْدِی *toqïndï*] اَرْ تَامْقَا تُقْتِنْدِی *er tamqa toqïndï* – “kishi devorga gavdasi bilan urildi”; اَرْ تُقْتِنْدِی *er toqïndï* – “er urildi, to‘qinishdi” (o‘g‘uzcha).

[تُقْتِنْدِی *toqïndï*] قِلِجْ تُقْتِنْدِی *qïlïč toqïndï* – “qilichni zang bosdi, zangladi”.

[تُقْتُنْدِی *toqundï*] تُقُمْ تُقْتُنْدِی *toqum toqundï* – “u o‘zi uchun tuya bo‘g‘uzladi” (تُقْتُنُورْ *toqunur*, تُقْتُنْمَاقْ *toqunmaq*).

[تِقِتْنْدِی *tïqïndï*] اَرْ یُونِکْ تَغَارْقَا تِقِتْنْدِی *er yünig tayarqa tïqïndï* – “kishi qanorga yungni qattiq tepib tiqdi”.

[تِقِتْنْدِی *tïqïndï*] اَشْ تِقِتْنْدِی *aš tïqïndï* – “u oshni zo‘rlik bilan, ko‘ngli tortmay yedi”. Bu so‘z birovdan achchiqlanganda so‘zlanadi (تِقِتْنُورْ *tïqïnur*, تِقِتْنْمَاقْ *tïqïnmaq*).

[تَلِنْدِی *telindi*] تَامْ تَلِنْدِی *tam telindi* – “devor teshildi” (تَلِنُرْ *telinür*, تَلِنْمَاکْ *telinmäk*).

(Bilimli) shunday degan:

کُجَنْدِی بِلَاکِمْ *Kučändi bilägim,*
یَفُودِی تِیلَاکِمْ *Yayudï tilägim,*
تَلِنْدِی بِلِیکِمْ *Telindi biligim,*
تَکْرُبْ اَنکَرْ جَرْتِلُورْ *Tegrüp anar, čertilür.*

Aytmoqdaki: “Bilagimga zo‘r berdim, ilm-u fan to‘g‘risida ko‘p yozib, uni charchatdim. Tilak yaqinlashdi, ilm, hikmat chashmalarining ko‘zi ochilganda, umr tugab borayotir”.

[تِلِنْدِی *tilindi*] تَرِی تِلِنْدِی *teri tilindi* – “teri bo‘ylamasiga kesildi” (تِلِنُورْ *tilinür*, تِلِنْمَاکْ *tilinmäk*).

[تَمِنْدِی *tamïndï*] اُلْ اُوزِنکَا یَاغْ تَمِنْدِی *ol özinä yay tamïndï* – “u o‘zi uchun o‘zi yog‘ tomizishga tutindi” (تَمِنُورْ *tamïnur*, تَمِنْمَاقْ *tamïnmaq*).

[جَبِنْدِی *čapïndï*] اَرْ اَتِنْ جَبِنْدِی *er atïn čapïndï* – “er otini qamchiladi”.

[جَبْدِی *čapdï*] اَرْ سُقْدَا جَبْدِی *er suwda čapdï* – “er suvda suzdi”. Bu so‘zning جَبِنْدِی *čapïndï* talaffuzi ham bor (جَبِنُورْ *čapïnur*, جَبِنْمَاقْ *čapïnmaq*).

[جَقْتِنْدِی *čaqïndï*] اَرْ اُوزِنکَا جَقْمَاقْ جَقْتِنْدِی *er özinä caqmaq čaqïndï* – “er o‘zini chaqmoq chaqqandek tutdi” (جَقْتُورْ *čaqïnur*, جَقْتِنْمَاقْ *čaqïnmaq*).

[جَکِنْدِی *čekindi*] اَرْ بِتِکْ گَا جَکِکْ جَکِنْدِی *er bitigkä* (171b) *čekig čekindi* – “kishi xatga nuqta chekishga urindi, kirishdi” (جَکِنُورْ *čekinür*, جَکِنْمَاکْ *čekinmäk*).

[جَکِنْدِی *čekindi*] اُلْ یُوکُنْ جَکِنْدِی *ol yükün čekindi* – “u yukini mahkamlashga, bog‘lashga bir o‘zi kirishdi” (جَکِنُورْ *čekinür*, جَکِنْمَاکْ *čekinmäk*).

[جَلِنْدِی *čalïndï*] اَتْ جَلِنْدِی *at čalïndï* – “yem-xashak yomonligidan ot oriqladi”.

[جَلِنْدِي *čalïndï*] سُوزْ بَكْ قُلَاقِنِكَا جَلِنْدِي ***söz beg qulaqïŋa čalïndï*** – “so‘z bek va boshqalarning qulog‘iga chalindi, eshitildi” (o‘g‘uzcha).

[جَلِنْدِى *čalïndï*] اَرْ اُوزِنْ يِيرْكَا جَلِنْدِى ***er özin yerkä čalïndï*** – “kishi o‘zini yerga tashladi; yerga tashlagandek ko‘rsatdi” (جَلِنُورْ ***čalïnur***, جَلِنْمَاقْ ***čalïnmaq***).

[جِلَنْدِى *čïlandï*] جِلَنْدِى نَانَكْ ***čïlandï näŋ*** – “rutubatdan narsa namlandi”. Asli جِيلَنْدِى ***čïylandï*** dir (جِيلَنُورْ ***čïylanur***, جِيلَنْمَاقْ ***čïylanmaq***).

[جِلَنْدِى *čïlandï*] اَتْ جِلَنْدِى ***at čïlandï*** – “ot terladi”.

[سَبِنْدِي *sabïndï*] اِشْلَارْ يِكْنَا سَبِنْدِي ***ešlär yignä sabïndï*** – “xotin o‘zini ninaga ip o‘tkazayotgandek qilib ko‘rsatdi” (سَبِنُورْ ***sabïnur***, سَبِنْمَاقْ ***sabïnmaq***).

[سَتِنْدِى *satïndï*] اَرْ اَتِنْ سَتِنْدِى ***er atïn satïndï*** – “u kishi otini sotadigandek ko‘rsatdi” (سَتِنُورْ ***satïnur***, سَتِيِنْمَاقْ ***satïnmaq***).

[سَجِنْدِى *sačïndï*] اَرْ اُوزِنكَا سُوقْ سَجِنْدِى ***er özinä suw sačïndï*** – “kishi o‘ziga o‘zi suv sepgan bo‘ldi” (سَجِنُورْ ***sačïnur***, سَجِنْمَاقْ ***sačïnmaq***).

[سُجُنْدِى *süčündi*] اَرْ سُوزْكَا سُجُنْدِى ***er sözkä süčündi*** – “kishi (eshitayotgan) so‘zning shirinligiga uchdi, so‘zga berildi” (سُجِنُورْ ***süčinür***, سُجِنْمَاكْ ***süčinmäk***). Maqolda (shunday kelgan): سُوزْكَا سُجُنْسَا بُلُنْ بَرِيرْ ***Sözkä süčünsä, bulun barïr.*** Ma’nosi: “Kishi eshitayotgan so‘zning shirinligiga qiziqsa, unga asir bo‘lib qoladi”. Buning bir hikoyasi bor. Bu maqol eshitayotgan so‘ziga qiziqib, qilayotgan ishini unutadiganlarga qarata aytiladi.

[سَرِنْدِى *sarïndï*] اَرْ سُقْلُقِنْ سَرِنْدِى ***er suwluqïn sarïndï*** – “kishi sallani boshiga o‘radi”; اُرَاغْتْ بُرُنْجَكْ سَرِنْدِى ***uraɣut bürünčäk sarïndï*** – “xotin boshini yopinchiq bilan o‘radi”. Umuman, biror narsa yopinish, o‘rash, kiyinishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَرِنُورْ ***sarïnur***, سَرِنْمَاقْ ***sarïnmaq***).

[سَرِنْدِى *sarïndï*] اَرْ اِيشْقَا سَرِنْدِى ***er ïšqa sarïndï*** (172a) – “kishi o‘zini maqsadiga yetgan kishi qatorida ko‘rdi” (سَرِنُورْ ***sarïnur***, سَرِنْمَاقْ ***sarïnmaq***).

[سُرُنْدِى *süründi*] كِشِى اُوزْ يِيْنِنْ سُرُنْدِى ***kiši öz yiynin süründi*** – “kishi o‘z badanini qashidi”. Qattiq bir narsani ezishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُرُنُورْ ***sürünür***, سُرُنْمَاكْ ***sürünmäk***).

[سُزُنْدِى *süzündi*] اَرْ اُوزِنكَا سُوقْ سُزُنْدِى ***er özinä suw süzündi*** – “kishi o‘zini o‘ziga suv tinitganday ko‘rsatdi” (سُزُنُورْ ***süzünür***, سُزُنْمَاكْ ***süzünmäk***).

[سَيِزِنْدِى *sezindi*] اُلْ اَنَكَارْ سَيِزِكْ سَيِزِنْدِى ***ol aŋar sezig sezindi*** – “u uning haqida gumon qildi” (سَيِزِنُورْ ***sezinür***, سَيِزِنْمَاكْ ***sezinmäk***).

[سَسَنْدِى / سَسِنْدِى *sesändi* / *sesindi*] سَسَنْدِى / سَسِنْدِى اَرْ قُلِنْ اُرْغَالِى ***er qulïn urɣalï sesändi* / *sesindi*** – “kishi qulini urishga qasd qildi”. Ot bog‘ini bo‘shatishga urinishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَسَنُورْ / سَسِنُورْ ***sesänür* / *sesinür***, / سَسَنْمَاكْ سَسِنْمَاكْ ***sesänmäk* / *sesinmäk***).

[سُسُنْدِى *süsündi*] اَرْ بَاشِنْ تَامْقَا سُسُنْدِى ***er bašïn tamqa süsündi*** – “kishi boshini devor va boshqa narsalarga urayotganday ko‘rindi” (سُسُنُورْ ***süsünür***, سُسُنْمَاكْ ***süsünmäk***).

[سَغِنْدِى *sayïndï*] اَرْ قُويُنْ سَغِنْدِى ***er qoyun sayïndï*** – “kishi qo‘yni sog‘ayotganday ko‘rindi” (سَغِنُورْ ***sayïnur***, سَغِنْمَاقْ ***sayïnmaq***).

[سُغُنْدِی ***soγundï***] اَرْ سُغُنْدِی ***er soγundï*** – “kishi sovuq yedi”. Bu so‘z siydik va boshqalardan tozalanishga ham qo‘llanadi (سُغُنُورْ ***soγnur***, سُغُنْمَاقْ ***soγunmaq***).

[سِغِنْدِی ***sïγïndï***] كَيِكْ تُرَغْقَا سِغِنْدِی ***keyik turaγqa sïγïndï*** – “kiyik turoqqa, iniga sig‘indi”. Boshqa biron narsaga sig‘inilsa ham shu so‘z qo‘llanadi; مَنْ تَنكْرِيكَا سِغِنُورْمَنْ ***men täŋrikä sïγïnur-men*** (“men Tangriga sig‘inaman”) deyish ham shundandir (سِغِنُورْ ***sïγïnur***, سِغِنْمَاقْ ***sïγïnmaq***).

[سَقِنْدِی ***sewündi***] اَرْ سَقِنْدِی ***er sewündi*** – “kishi sevindi, quvondi” (سَقِنُورْ ***sewünür***, سَقِنْمَاكْ ***sewünmäk***).

(Donishmand) shunday degan:

سَقِنْمَكِلْ يُنْدْ اُكُرْ اَذْغِرْاَنِنْ ***Sewünmägil yund, ügür, aδγïr, anïn,***
اَلْتُنْ كُمُشْ بُلْنَبَنْ اَغِی تَغَارْ ***Altun-kümüš bulnapan, aγï, tawar.***

Aytmoqdaki: “Yilqi, nasldor ot, ayg‘ir va nor tuyalar, shuningdek, oltin-kumush va ipakli kiyimlar topganingga suyunma, o‘zingga hunar va san’at orttir”.

[سَغِنْدِی ***saγïndï***] اُلْ مَنكَا اَذْكُو سَغِنْدِی ***ol meŋä eδgü saγïndï*** – “u menga ezgu sog‘indi va ko‘nglida buni sir tutdi”. Buni so‘z bilan ifoda etilsa ham shu so‘z ishlatiladi (172b) (سَغِنُورْ ***saγïnur***, سَغِنْمَاقْ ***saγïnmaq***).

[سَقِنْدِی ***saqïndï***] اُلْ مِنْدِنْ سَقِنْدِی ***ol mendin saqïndï*** – “u mendan saqlandi”. Bu so‘zdagi *qāf* harfi oldingi so‘zdagi harfdan ko‘ra jarangsizdir (اصلب مِن الاول) سَقِنُور ***saqïnur***, سَقِنْمَاق ***saqïnmaq***).

[سُقِنْدِی / سِقِنْدِی ***suqïndï*** / ***sïqïndï***] اُرَاغُتْ بَشِنْ سُقِنْدِی / سِقِنْدِی ***urayut bašïn suqïndï*** / ***sïqïndï*** – “xotin boshini yuvdi”. Bu uch qabilasining so‘zidir (سُقُنُورْ / سِقُنُورْ ***suqnur*** / ***sïqnur***, سُقِنْمَاقْ / سِقِنْمَاقْ ***suqïnmaq*** / ***sïqïnmaq***).

[سُكُنْدِي ***sökündi***] اَرْ بَكْكَا سُكُنْدِي ***er begkä sökündi*** – “kishi bekka tiz cho‘kdi; bek oldida (tavoze bilan) cho‘kkalab o‘tirdi”.

[سُكُنْدِی ***sökündi***] اُلْ تُونِنْ سُكُنْدِی ***ol tonïn sökündi*** – “u to‘nining choklarini so‘kayotganday ko‘rindi (سُكُنُورْ ***söknür***, سُكُنْمَاكْ ***sökünmäk***).

[سَلِنْدِی ***salïndï***] يِنْجُو قُلَاقْتِنْ سَلِنْدِی ***yinčü qulaqtïn salïndï*** – “inju quloqdan chiqarib olindi”. Har bir narsani tortib, chiqarib olishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَلِنُورْ ***salïnur***, سَلِنْمَاقْ ***salïnmaq***).

[قَبِنْدِی ***qapïndï***] اَرْ تَغَارْ قَبِنْدِی ***er tawar qapïndï*** – “kishi buyumlarni shilib olayotganday ko‘rindi” (قَبِنُورْ ***qapïnur***, قَبِنْمَاقْ ***qapïnmaq***).

[قَبِنْدِی ***qapïndï***] اُغْلَانْ يِلْ قَبِنْدِی ***oγlan yel qapïndï*** – “bolaga shirincha [bosh yarasi] chiqdi”.

[قَتِنْدِی ***qatïndï***] اُلْ تَلْقَانْقَا يَاغْ قَتِنْدِی ***ol talqanqa yay qatïndï*** – “u tolqonga yog‘ qorishtirayotgandek ko‘rindi” (قَتِنُورْ ***qatïnur***, قَتِنْمَاقْ ***qatïnmaq***).

[قَتَنْدِی ***qatandï***] قَتَنْدِی نَانكْ ***qatandï näŋ*** – “narsa qatlandi” (قَتَانُرْ ***qatanur***, قَتَنْمَاقْ ***qatanmaq***).

[قَجِنْدِی ***qačïndï***] اُلْ مِنْدِنْ قَجِنْدِی ***ol mendin qačïndï*** – “u mendan qochayotgandek ko‘rindi” (قَجِنُر ***qačïnur***, قَجِنْمَاقْ ***qačïnmaq***).

[قُرُنْدِی ***qurundï***] اَرْ تَقَارِنکَا قُرُنْدِی ***er tawarïŋa qurundï*** – “kishi moliga qurumsoqlik, baxillik qildi” (قُرِينُورْ ***qurïnur***, قُرِنْمَاقْ ***qurïnmaq***).

[قُرُنْدِی ***qurundï***] اَرْ قُرُنْدِی ***er qurundï*** – “kishi yuvingandan so‘ng o‘zini quritdi” (قُرِنُورْ ***qurïnur***, قُرِنْمَاقْ ***qurïnmaq***).

[قِرِنْدِی ***qïrïndï***] اُلْ نَانکْنِی قِرِنْدِی ***ol näŋni qïrïndï*** – “u bir narsaning qobig‘ini ajratayotgandek ko‘rindi” (قِرِنُورْ ***qïrïnur***, قِرِنْمَاقْ ***qïrïnmaq***).

[قَزِنْدِی ***qazïndï***] اُوزِنکَا قُذُغْ قَزِنْدِی ***özïŋä quδuγ qazïndï*** – “(u) o‘ziga quduq qazishga tutindi”. (Kishi o‘zini) quduq qaziyotganday qilib ko‘rsatishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قَزِنُورْ ***qazïnur***, قَزِنْمَاقْ ***qazïnmaq***).

[بَزَنْدِی قُزَنْدِی ***bezändi-quzandï***] اُرَاغْتْ بَزَنْدِی قُزَنْدِی ***uraγut bezändi-quzandï*** – “xotin o‘ziga oro berdi, bezandi” (قُزَانُرْ ***quzanur***, قُزَنْمَاقْ ***quzanmaq***).

[قِسِنْدِی ***qïsïndï***] اَرْ تَقَارِنْ قِسِنْدِی ***er tawarïn qïsïndï*** – “kishi mol-buyumlarini chiqim qilishga qisindi, qurumsoqlik qildi”. Kishi siydigini qisib tutib turishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قِسِنُورْ ***qïsïnur***, قِسِنْمَاقْ ***qïsïnmaq***).

[قَشَنْدِي ***qašandï***] اَتْ قَشَنْدِي ***at qašandï*** (173a) – “ot va boshqa hayvonlar siydi”. Bu so‘z, asosan, otga qarata aytiladi (قَشَنُورْ ***qašanur***, قَشَنْمَاقْ ***qašanmaq***).

[قُلُنْدِی ***qulundï***] اَرْ نَانکْ قُلُنْدِی ***er näŋ qulundï*** – “kishi bir narsani so‘radi” (قُلُنُورْ ***qulunur***, قُلُنْمَاقْ ***qulunmaq***).

[قِلِنْدِی ***qïlïndï***] اَرْ تَکْمَا قِلِنْجْ قِلِنْدِی ***er tegmä qïlïnč qïlïndï*** – “kishi turli ishni qildi”. Haddidan oshgan kishiga اُکُشْ قِلِنْمَا ***öküš qïlïnma*** deyish shundandir, “ko‘p haddingdan oshma” demakdir (قِلِنُورْ ***qïlïnur***, قِلِنْمَاقْ ***qïlïnmaq***).

[کَجُنْدِی ***kečündi***] اَرْ سُوقْ کَجُنْدِی ***er suw kečündi*** – “kishi suvdan kechib o‘tayotgandek ko‘rindi” (کَجُنُورْ ***kečünür***, کَجُنْمَاکْ ***kečünmäk***).

[کُجَنْدِی ***küčändi***] اَتْ کُجَنْدِی ***at küčändi*** – “ot kuchandi, og‘ir yuk ostida zo‘riqti”.

[کُجَنْدِی ***küčändi***] اُلْ اَنِکْ تَقَارِنْ کُجَنْدِی ***ol anïŋ tawarïn küčändi*** – “u uning moliga zo‘ravonlik qildi”. Oldingisi o‘timsiz, bunisi o‘timlidir (کُجَانُورْ ***küčänür***, کُجَنْمَاکْ ***küčänmäk***).

[کِجِنْدِی ***kičindi***] اُرَاغْتْ کِجِنْدِی ***uraγut kičindi*** – “xotin sho‘xlik qildi, yo‘ldan ozdi”. Itoatsizlik ma’nosidagi کِجِنْمَا ***kičinmä*** so‘zi shundan olingan. Asli اَتْ کِجِنْدِی ***et kičindi*** (“badan qashildi”) iborasidagi so‘zdandir (کِجِنُورْ ***kičinür***, کِجِنْمَاکْ ***kičinmäk***).

[کِرِنْدِی ***kirindi***] اَرْ سُقْدَا کِرِنْدِی ***er suwda kirindi*** – “kishi suvga tushdi, cho‘mildi”.

[کِرِنْدِی ***kirindi***] اَرْ اَفْکَا کِرِنْدِی ***er ewkä kirindi*** – “kishi uyga kirayotganday ko‘rindi” (کِرِنُورْ ***kirinür***, کِرِنْمَاکْ ***kirinmäk***).

[کُرُنْدِی ***köründi***] اُلْ بَکْ کَا کُرُنْدِی ***ol begkä köründi*** – “u bekka uchrashdi, ko‘rindi va (bek) uni ko‘rdi”.

[کُرُنْدِی ***köründi***] تَاغْ کُرُنْدِی ***taγ köründi*** – “tog‘ va boshqa narsalar ko‘rindi, zohir bo‘ldi”. Uzoqdan qorayib ko‘ringan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (کُرُنُورْ ***körünür***, کُرُنْمَاکْ ***körünmak***).

[**كُرُنْدِى *köründi* (*közündi?*)**] **كُرُنْدِى نَانَكْ *köründi* (*közündi?*) *näŋ*** – “narsa ko‘rindi”. Arg‘ular so‘zidir. Bunda bir qoida bor. Bu so‘z **كُزْ *köz*** so‘zidan olingan, ammo arg‘ular buyruq shaklida o‘tgan zamon fe’liga teskari qo‘llaydilar. Ya’ni buyruq fe’lida **كُرْ *kör*** shaklida *rā* bilan qo‘llaydilar, ammo o‘tgan zamon fe’lida *zā* bilan qo‘llaydilar (**كُزُنُرْ *közünür*, كُزُنْمَاكْ *közünmäk***).

[**كَسِنْدِي *kesindi***] **اَلْ اُوزِنكَا اَتْ كَسِنْدِي *ol öziŋä et kesindi*** – “u o‘zi uchun go‘sht va boshqa narsalardan bir bo‘lak kesdi” (**كَسِنُورْ *kesinür*, كَسِنْمَاكْ *kesinmäk***).

[**كُشُنْدِى *köšündi***] **اَرْ كُنْكَا كُشُنْدِى *er künkä köšündi*** – “kishi kundan o‘zini soyaga oldi, soyaladi”. Biron kishidan bekinishga ham shu so‘z ishlatiladi (173b) (**كُشِنُورْ *köšinür*, كُشِنْمَاكْ *köšinmäk***).

[**كُقْنْدِى *küwändi***] **اُلْ مَنِكْ بِرْلَا كُقْنْدِى *ol meniŋ birlä küwändi*** – “u mening bilan quvondi, faxrlandi” (**كُقْنُورْ *küwänür*, كُقْنْمَاكْ *küwänmäk***).

[**كُلْنْدِى / كُلِنْدِى *kölündi / kölindi***] **اَرْ اِلِكِى اَذَاقِى كُلْنْدِى / كُلِنْدِى *er eligi-aδaqï kölündi / kölindi*** – “ko‘p harakat qilish, ko‘p yurishdan kishining qo‘l-oyoqlari bog‘lab qo‘yilganday kuchsizlanib, chalishdi” (**كُلْنُرْ *kölnür*, كُلْنْمَاكْ *kölünmäk***).

[**كُمُنْدِى *kömündi***] **اَرْ تَقْارِنْ كُمُنْدِى *er tawarïn kömündi*** – “kishi molini ko‘mayotgandek, bekitayotgandek ko‘rindi” (**كُمُنْرْ *kömünür*, كُمُنْمَاكْ *kömünmäk***).

Bu fasl bir necha xildir:

Birinchi, ishni o‘zgalarning ko‘magisiz ishlovchining bir o‘zi qilganini anglatadi. Bu fe’lning asli ikki harflidir. **اُلْ اَقْكَا بَرِنْدِى *ol ewkä barïndï*** – “u uyga ketmagan bo‘lsa-da, ketayotgandek ko‘rindi”; **اُلْ اَشْ تَتِنْدِى *ol aš tatïndï*** – “u osh totingandek ko‘rindi, aslida u totinmagan edi”. Bu xil fe’llar arabcha *tafā’ul* bobiga o‘xshaydi. Chunonchi, arablarda تصام الرجل – “kishi kar bo‘lmagan esa-da, kar ko‘rindi, o‘zini karlikka soldi”; تعاقل – “kishi o‘zi aqlli bo‘lmagani holda, aqlli ko‘rindi” demakdir.

Ikkinchi, ishda ishlovchi yolg‘iz o‘zi birovning ko‘magisiz ishlaganini bildiradi: **اَرْ اَلِمِنْ اَلِنْدِى *er alïmïn alïndï*** – “qarz bergan kishi qarzini bir o‘zi undirib oldi”; **اُلْ تَرِغْ تَرِنْدِى *ol tarïγ tarïndï*** – “u o‘zi uchun o‘zi ekin ekdi”. Fe’l bu ma’noda qo‘llanganda gapda **اُوزِنكَا اُوزِي *öziŋä özi*** so‘zlari birga qo‘llanishi kerak. Bu gapdagi jo‘nalish qo‘shimchasi كَا *-gä* “uchun” ma’nosidadir. Ammo o‘ziga shunday ko‘ringan bo‘lsa ham, haqiqatda bo‘lmagan ish mazmunida qo‘llanganda, **اُوزِى *özi*** so‘zini qo‘llamaslik ham mumkin. Bular orasidagi farq shundaki, fe’l kishilar orasida mushtarakdir. Ishni bir kishi boshqalarsiz bajara olsa, shu ma’noni birovning ko‘magisiz bajarganini anglatmoq uchun **اُوزْ *öz*** so‘zi qo‘llanmasa, sifat to‘liq bo‘lmaydi. **اُوزْ *öz*** so‘zini qo‘shgandagina, to‘liq bo‘ladi. Shundagina bu fe’l ishlovchining yolg‘iz o‘ziga xos bo‘lib qoladi, mushtaraklikdan chiqadi. Chunonchi, oyatda فاقتلوا انفسكم “o‘zingizni o‘ldiringiz” iborasidagi “o‘ldiringiz” deganda “o‘ldirish” so‘zi hammaga umumiydir. “O‘zingizni” so‘zini qo‘llash bu yerda boshqalardan ayirib xoslaydi. (174a)

Fe’l ko‘rsatish mazmunida qo‘llanganda o‘timsiz bo‘ladi. U fe’lda mushtaraklik bo‘lmaydi. Bu yerda اُوزْ ***öz*** so‘zi aytilmasa ham, o‘timsiz fe’l shu mushtaraksizlik ma’nosini anglatadi. Bu holda اُوزْ ***öz*** so‘zini qo‘llashga zarurat qolmaydi, ma’no nuqsonsiz to‘liq bo‘ladi. Chunonchi, oyatda كلا اِن الانسان ليطغى ان راه استغنى kabi, ya’ni arabchada ham bunday hollarda “nafs” (*öz*) so‘zi qo‘llanmaydi. Bu iborada ان راى نفسه استغنى deyilmay, aksincha “nafs” so‘zi tushiriladi. Bu “ishning oxiriga qara” ma’nosida اِيشْقَا بَقِنْ ***išqa baqïn*** deyishimiz, “suv ichiga sho‘ng‘i; yuvin” ma’nosida سُقْقَا كِرِنْ ***suwqa kirin*** tarzida qo‘llashimiz ham shu qoidaga mosdir. Chunki bu bo‘limda *lām* bilan *nūn* harflarining biri o‘rniga biri almashib teng kelishi bor. Chunonchi, بِتِكْ بِتِلْدِى ***bitig bitildi*** yoki بِتِنْدِى ***bitindi*** kabi har ikki variant ham birdir. Mazmun ham bir – “kitob yozildi” demakdir. Bu fe’llarda *lām* ham, *nūn* ham majhul fe’l belgisidir. *lām* bilan *nūn* ning teng kelishi arab tilida ham bor. Chunonchi, رجل شثن الاصابع وشثله iboralarida *lām* bilan *nūn* almashib kelgani singari.

To‘rtinchi, yuqoridagi mazmunlarni ifoda qilmay, o‘z boshicha mustaqil, o‘zining asliy ma’nosida qo‘llanuvchi bir fe’l sifatida ishlatiladi: تَنكْرِيكَا تَبِنْدِى ***täŋrikä tapïndï*** – “Tangri taologa ibodat qildi”; تَنكْرِيكَا سِغِنْدِمْ ***täŋrikä sïγïndïm*** – “Tangri taologa sig‘indim” kabi. Shu ma’nolar illatli, *γunna* li va boshqa uch harfli, to‘rt harfli fe’llar uchun ham tatbiq etiladi. (174b)

Qoida: uch harfli kelasi zamon fe’llari ikki xildir. Ularning bir turi o‘rtasi *sukun* li fe’llardir. Chunonchi, اُلْ تُونْ كَدُرْدِى ***ol ton keδürdi*** (“u to‘n kiydirdi”) gapidagi كَدُرِدِى ***keδürdi*** fe’li kabi. Bu fe’lning kelasi zamon shakli كَدُرُرْ ***kedürür*** dir, ya’ni o‘tgan zamon fe’lida harakatli talaffuz qilinuvchi *dāl* harfi kelasi zamon shaklida *sukun* li, harakatsizdir. Yana: تَنكْرِيكَا تَبِنْدِى ***täŋrikä tapïndï*** (“Tangri taologa ibodat qildi”) gapidagi تَبِنْدِى ***tapïndï*** fe’lining kelasi zamon shakli تَبِنُور ***tapïnur*** kabi. Bu fe’lning o‘tgan zamon shaklida ب *pā* harakatli, kelasi zamon shaklida ب *rā sukun* lidir.

Bu fe’llarning bir turi o‘tgan zamon va kelasi zamon shakllarining har biri ham o‘rta harfi harakatli bo‘lgan fe’llardir. Chunonchi, اَتْ قُلَاقْ تُقْرْدِى ***at qulaq tuwurdï*** – “(biror sezgi natijasida) ot quloqlarini tikkaytirdi”. Bu fe’lning o‘tgan zamon shaklida ف *wā* harfi harakatli bo‘lganidek, kelar zamon shakli ham (o‘sha ف *wā* harfi) harakatli – تَقْرَارْ / تَقُرَارْ ***tawurar*** / ***tawïrar*** dir. Yana: تَنكْرِى مَنِى كُدَزْدِى ***täŋri meni köδäzdi*** (“Tangri taolo meni saqladi”) gapidagi كُدَزْدِى ***köδäzdi*** fe’lining kelasi zamon shaklida ذ *δāl* harfi harakatlidir. Bunga asos, ismdan yasalgan fe’llarning kelasi zamon shaklining o‘rtasidagi harfi, asosan, harakatli bo‘ladi. Chunonchi, تُشَكْ تُشَلْدِى ***töšäk töšäldi*** – “o‘rin solindi”; تُكُونْ تُكُلْدِى ***tügün tügüldi*** – “tugun tugildi”; تِرِغْ سُقْلْدِى ***tarïγ suwaldï*** – “ekin sug‘orildi” kabi[1].

[1] Bu o‘rinda kelasi zamon shakli ustida so‘z borayotganligiga qaramay, berilgan o‘rnaklar o‘tgan zamonda.

Tub fe'llarda kelasi zamon fe'lining o'rta harfi, asosan, *sukun* li bo'ladi: سُوتْ سَغِلْدِى ***süt sayïldï*** – "sut sog'ildi" kabi. سَغِلْدِى ***sayïldï*** fe'lining kelasi zamon shakli سَغِلْرْ ***sayïlur*** dir. كُونْ سَقْلْدِى ***kün sawuldï*** ("kun og'di") gapidagi سَقْلْدِى ***sawuldï*** fe'li سَقْلْرْ ***sawulur*** tarzida o'rta harfi *sukun* lidir.

Bu bobning bo'limlari boshqalarda bo'lmaydigan bir qancha mazmunga ega.

Tarkibida *rā* harflari bo'lgan fe'llar uch xildir. Birinchisi, ismdan tuzilgan fe'llardir. Chunonchi, تُونْ قِزَرْدِى ***ton qïzardï*** – "to'n va boshqalar qizil bo'ldi". Buning asli قِزِلْ اَرْدِى ***qïzïl erdi*** – "qizil edi". *lām* bilan *alif* tushirildi, tub fe'lgina bo'lib qoldi. Yana: تُونْ قَرَرْدِى ***ton qarardï*** – "to'n qoraydi". Bu fe'lning asli قَرَا اَرْدِى ***qara erdi*** ("qoraga aylandi") bo'lib, قَرَا ***qara*** so'zidan yasalgan.

(175a) Ikkinchisi, ikki harfli o'timsiz fe'llardir. Bularda *rā* harfi fe'lni o'timliga aylantiradi: اَرْ سُوقْ كَجْتِى ***er suw kečti*** – "kishi suvdan o'tdi". Bu gapda كَجْتِى ***kečti*** so'zi o'timsiz. اَنِى سُقْدَنْ كَجُرْدِى ***anï suwdan kečürdi*** gapida esa bu fe'l *rā* orttirilib, o'timliga aylangandir. Yana: اَرْ قَجْتِى ***er qačtï*** ("kishi qochdi") gapidagi قَجْتِى ***qačtï*** o'timsiz fe'ldir, *rā* qo'shilib, o'timliga aylanadi: قَجُرْدِى ***qačurdï*** – "qochirdi" kabi.

Uchinchi, *rā* harfi o'zakning asosiy harfidan bo'lib, bu ma'nolarni anglatmaydi, o'zi shu shaklda mustaqil fe'l sifatida qo'llanadi. Chunonchi, اَنِكْ بُيْنْ قَدْرْدِى ***anïŋ boynïn qaδïrdï*** – "uning bo'ynini qayirdi"; قَابْ قُتُرْدِى ***qap quturdï*** – "qop ichiga solingan narsadan bo'shadi".

Bu bobdagi fe'llarda *zā* harfi ikki xil vazifani bajaradi: *zā* harfi bir turli fe'lni o'timliga aylantirish vazifasini bajaradi. Chunonchi, اَر سُوقْ تَمُزْدِى ***er suw tamuzdï*** ("kishi suv tomizdi") gapidagi تَمُزْدِى ***tamuzdï*** kabi.

Ikkinchi xil fe'lda *zā* harfi bunday vazifada qo'llanmay, o'zakning asosiy harfi sifatida ishlatiladi: تَبُزْغُقْ تَبِزْدِى ***tapuzγuq tapïzdï*** – "topishmoq toptirdi" kabi.

Tarkibida *šīn* harfi bor fe'llar vazifasi to'g'risida yuqorida aytilgan.

qāf, kāf harfli fe'llar ikki xildir. Birinchisi, ikki harfli fe'llardan bo'lib, *kāf, qāf* qo'shilib, istalmagan ishning ta'siri ostida qolganini, kutilmagan ish bo'lgani, yengilganini anglatadi. Chunonchi, اَرْ يَغِيغَا بَسِقْتِى ***er yaγïγa basïqtï*** – "kishiga tunda hujum qilindi, uni yov bosdi, yovga yengildi" demakdir; اَرْ اُسُقْتِى ***er usuqtï*** – "kishi chanqadi; chanqoqlik g'alaba qildi". Bu fe'llarning asli بُسْدِى ***busdï,*** اُسْدِى ***usdï*** dir.

kāf harfli fe'llarga misol: تُونْ كِرِكْتِى ***ton kirikti*** – "to'n kirikdi, to'nni kir bosdi"; اَرْ كُنِكْتِى ***er könikti*** – "kishi ko'nikdi; unda zaiflik g'alaba qildi, hatto sheriklaridan orqada qoldi". Bu xil fe'llarning yana bir turi bunday mazmunlarni anglatmay, asl ma'noda qo'llanadi.

Chunonchi, اَرْ اَفْكَا اَشُقْتِى ***er ewkä ašuqtï*** – "kishi uyiga oshiqdi"; اَرْ اِيشِى جُلُكْتِى ***er ïšï čülükti*** – "kishining ishi yomonlashdi".

lām, nūn li fe'llar to'g'risida yuqorida aytildi.

Bu boblarning masdari فعلال *fa'allāl* shakllarida o'rta harfi harakatli bo'ladi. (175b) Chunonchi, **يُكْ كُتُرْمَاكْ *yük kötürmäk*** ("yuk ko'tarmak"), **قَجُرْمَاقْ *qačurmaq*** ("qochirmoq") singari. Bular tub masdarlardir.

Bir so'zning boshqasiga bog'lanishi (izofa) natijasida yuzaga keladigan yasama masdar فعللى *fu'lulī* shaklida, o'rta harfi *sukun* li bo'ladi. Chunonchi, **اَنِكْ يُكْ كُتُرُكِى كُرْ *anïŋ yük kötürügi kör*** – "uning yuk ko'tarishini ko'r"; **اَنِكْ سُوقْ قَجُرُكِى كُرْ *anïŋ suw kečürügi kör*** – "uning suvdan o'tkazishini ko'r" kabi.

γayn va *kāf* harflarining qo'llanishini yuqorida ko'rsatgan edim.

Bu bobning buyrug'i uch harflidir, shuning uchun biz "uch harfli" deb atadik. **تَنْكْرِيكَا تَبِنْ *täŋrikä tapïn*** – "Tangri taologa qulluq qil"; **تَنْكْرِيكَا يُكُنْ *täŋrikä yükün*** – "Tangri taologa sajda qil"; **سَرِنْ *serin*** – "chidagin, sabr qil" demakdir. Istasang, bu buyruqlarni yuqorida ko'rsatganimizdek, **تَبِنْغِلْ *tapïnγïl*, يُكُنْكِلْ *yüküngil*, سَرِنْكِلْ *seringil*** shaklida qo'llash ham mumkin.

Bo'lishsiz fe'llar haqida yuqorida ko'rsatganimizdek, o'zak oxirida *mīm* va *alif* (مَا *-ma, -mä*) qo'shilib yasaladi: **سَقِنْمَا *saqïnma*** – "o'ylama; fikr qilma", **سَقِنْمَا *sewinmä*** – "suyunma" kabi.

So'zlovchi birligida *mīm* bilan **تَبِنْدِم *tapïndïm*,** tinglovchi birligida نک *ŋ* bilan (بكاف الغنه) **تَبِنْدِنكْ *tapïndïŋ*,** o'zga birligida *yā* [*i*] bilan **تَبِنْدِى *tapïndï*** shaklida qo'llanadi. Ba'zi arg'ular tilida *kāf* [*g*] *γayn* ga aylantiriladi. Chunonchi, **تَبِنْدُغْ *tapïnduγ*** – "topinding"; **سَنْ اَنِى قَجُرْدُغْ *sen anï qačurduγ*** – "sen uni qochirding" kabi. Qoida hamma fe'llar uchun umumiydir. Bu yerda asos *kāf* [*g*] dir. *kāf* [*g*] o'rniga *γayn* qo'llash to'g'ri emas.

Bu bobda ishni ishlovchi mazmunini anglatuvchi shakl o'g'uzlardan boshqalar tilida: **تَبِنْغُچِى *tapïnγučï*, يُكُنْكُوچِى *yüküngüčï*** shaklidadir. Bu so'z shakli o'g'uzlar tilida **تَبِنْدَچِى *tapïndačï*, يُكُنْدَچِى *yükündäčï*** dir. Ishda davomlilik ma'nosini anglatuvchi sifatlar **تَبِنْغَانْ *tapïnγan*, يُكُنْكَانْ *yüküngän*** lardir. Bu sifatdoshlarda *qāf, γayn, kāf* harflarining qo'llanishi yuqorida ko'rsatilgan qoida asosidadir.

Ishni ishlash istagida ekanini bildiruvchi sifat quyidagi shaklda qo'llanadi: **تَبُغْسَاقْ اَرْ *tapuγsaq er*** – "ishni, xizmatni sevuvchi, ishchan kishi". (176a) Bu xil sifatdosh uch harfli va undan ortiq harfli fe'llarda juda oz qo'llanadi. Lekin bu yerda qoida umumiydir. Ikkidan ortiq harfli fe'llardan bunday sifatdosh yasash uchun oxirgi harf tushiriladi-da, sifat qo'shimchasi qo'shilib tuziladi. Chunonchi, **تَبِنْدِى *tapïndï*** fe'lidan bu xil sifat yasash uchun o'zakning oxirgi harfi *nūn* tushirilib, so'z "xizmat" ma'nosidagi o'zak **تَبُغْ *tapuγ*** shakliga qaytariladi. So'ng bu vazifani bajaruvchi سَاقْ-*saq* qo'shimchasi qo'shilib, yuqoridagi sifat yasaladi.

Biror ishni qilishga uning haqi bor ekanligini anglatuvchi sifatdosh فعلعلل *fa'ulu'lul* shaklida qo'llanadi, ya'ni ikki *'ayn* harakatli, birinchi va ikkinchi *lām* harflari *sukun* lidir. Chunonchi, **بَكْ يَازُقْ كَجُرُكْلُكْ اَرْدِى *beg yazuq kečürüglüg erdi*** –

“bekning burchi gunohni kechish, kechirish edi”. Yana: ***ol täŋrikä tapïnγuluq erdi*** – “uning burchi Tangri taologa topinish edi”. Bu xil sifatlar qoidasi: o‘zakning yo‘g‘on-ingichkaligiga ko‘ra, shu o‘zak oxiriga غُلُقْ *-γuluq* yoki كُلُكْ *-gülük* qo‘shimchalarini qo‘shishdir. Bu xil sifatlarda biroz masdar mazmuni ham bor.

Fe’lning ishlovchilaridan biri ekanini bildirish ma’nosidagi sifatdosh فعلعلى *fa’la’lī* shaklida ikki *’ayn* harfi *sukun* li, ikki *lām* harfi harakatlidir. O‘zakning oxiriga غلِى *-γlï,* كلِى *-gli* qo‘shimchasi qo‘shib yasaladi. Chunonchi, ***اُلْ تَنْكْرِيكَا تَبِنْغُلِى اَرْدِى ol täŋrikä tapïnïγlï erdi*** – “u Tangri taologa topinadiganlardan edi”; ***اُلْ مَنِى سُقْدِنْ كَجُرُكْلِى اَرْدِى ol meni suwdïn kečürügli erdi*** – “u meni suvdan kechiruvchilardan edi”. Bu sifatga ***اَرْدِى erdi*** fe’li qo‘shib aytilsa, ishlovchi u ishni bajarganligidan xabar beradi. Agar u sifatdan so‘ng ***اُلْ ol*** yoki ***تُرُرْ turur*** qo‘shilsa, u vaqtda ishlovchi shu ishni ishlashni istasa ham, hali ishlamaganini bildiradi.

Ishning ishlanganligini bildiruvchi مفعول *maf’ūl* shakli hamma fe’llarda bir xilda, farq qilmay, o‘zak oxiriga *mīm* va *šīn* (مِشْ *-miš, -miš*) qo‘shib yasaladi: ***كُزَتْمِشْ نَانَكْ küzätmiš näŋ*** – “saqlangan narsa”; ***قَتُرْمِشْ قَابْ qoturmïš qap*** – “bo‘shagan qop” singari. *mīm* va *šīn* (مِشْ *-mïš, -miš*) qo‘shimchasi (176b) o‘timsiz fe’llarga qo‘shilsa, ishning o‘tganligidan xabar beruvchi sifat yasaladi: ***سَقِلْمِشْ كُونْ sawïlmïš kün*** – “pastlangan, og‘gan kun”; ***سُغُلْمِشْ سُوقْ soγulmïš suw*** – “qolgan suv” kabi.

Fe’llarning turlanish usullari ikki harflilar bobida aytib o‘tildi. Payt oti, joy oti ham yuqorida ko‘rsatilgandek, so‘zlar oxiriga yasovchi qo‘shimcha لَرْ *-lar, -lär* qo‘shish bilan yasaladi.

Hech bir so‘z qoidadan chetda qolmaydi. Buni yaxshi anglab ol.

Uch harflilar bitdi.

BU TO‘RT HARFLILAR BOBLARIDIR

lām harfi uch xil harakatning biri bilan harakatli, *’ayn* harfi *sukun* li فَعْلَدِى *fa’laldī* shaklidagi so‘zlar

ر ***r*** [harfi]:

[***بُرْكُرْدِى bürkürdi***] ***كُوكْ بُرْكُرْدِى kök bürkürdi*** – “ko‘k burkaldi, bulutlandi”.

[***بُرْكُرْدِى pürkürdi***] ***يُغْچِى تُونْقَا سُوقْ بُرْكُرْدِى yuγčï tonqa suw pürkürdi*** – “kir yuvuvchi ivitish uchun kiyimga suv purkidi, suv quydi” (***بُرْكُرَارْ pürkürär,*** ***بُرْكُرْمَاكْ pürkürmäk***).

[***بُرْكُرْدِى pürkürdi***] ***قَانْ بُرْكُرْدِى qan pürkürdi*** – “yaradan qon oqdi”.

[***بِجْتُرْدِى bïčturdï***] ***اَرْ يِغَاجْ بِجْتُرْدِى er yïγač bïčturdï*** – “kishi daraxt kestirdi” (***بِجْتُرُرْ bïčturur,*** ***بِجْتُرْمَاقْ bïčturmaq***).

[بَرْتُرْدِی *barturdï*] اُلْ مَنِی اَفْکَا بَرْتُرْدِی *ol meni ewkä barturdï* – “u meni uy va boshqa yerlarga ketkazdi, yubordi” (بَرْتُرُرْ *barturur*, بَرْتُرْمَاقْ *barturmaq*).

[بَسْتُرْدِی *basturdï*] بَکْ أُغْرِینِی بَسْتُرْدِی *beg oγrïnï basturdï* – “bek o‘g‘rini oyoq-qo‘lidan bosib yotqizdirdi”. Har qanday narsaning ko‘tarilib ketishiga yo‘l qo‘ymaslikka ham shu so‘z qo‘llanadi (بَسْتُرُرْ *basturur*, بَسْتُرْمَاقْ *basturmaq*).

[بُغْتُرْدِی *boγturdï*] اُلْ اَنِی بُغْتُرْدِی *ol anï boγturdï* – “u uni bo‘g‘dirdi, bo‘g‘ishga buyurdi” (بُغْتُرُرْ *boγturur*, بُغْتُرْمَاقْ *boγturmaq*).

[بِرْقِرْدِی *bïrqïrdï*] اَتْ بِرْقِرْدِی *at bïrqïrdï* – “ot va boshqa hayvonlar pishqirdi” (بِرْقِرَارْ *bïrqïrar*, بِرْقِرْمَاقْ *bïrqïrmaq*).

[بُرْقُرْدِی *burqurdï*] اِشْلَارْ یُوزِي بُرْقُرْدِی *ešlär yüzi burqurdï* – “xotinning yuzi burishdi”. Terining burushishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بُرْقُرَارْ *burqurar*, بُرْقُرْمَاقْ *burqurmaq*).

[بَلْکُورْدِی *belgürdi*] اِیشْ بَلْکُورْدِی *iš belgürdi* – “ish va boshqa narsalar ma’lum bo‘ldi”. Maqolda (shunday kelgan): کُوزْ کَلِکِي یَازِنْ بَلْکُورَارْ *Küz keligi yazïn belgürär.* (177a) Ma’nosi: “Kuzning qanday kelishi yozda ma’lum bo‘ladi”. Oldindan ma’lum bo‘lgan, keyin keladigan narsa to‘g‘risida bu maqol qo‘llanadi.

(Shoir) shunday degan:

کِزْلَبْ تُتَرْ سَقْکْ لُکْ *Kizläp tutar sewüglüg*
اَدْرِشْ کُنِی بَلْکُرَارْ *Aδrïš küni belgürär.*
بَشْلِغْ کُزْکْ بَیْسَمَا *Bašlïγ közüg paysama,*
یَاشِی اَنِکْ سَقْرِقَارْ *Yašï anïŋ sawrïqar.*

Aytmoqdaki: “Yashirin tutilgan sevgi ayriliq kuni bilinib qoladi, ma’lum bo‘ladi. Yarali va yoshli ko‘zni yashirma, yoshi oshkor qiladi” (بَلْکُرَارْ *belgürär*, بَلْکُرْمَاکْ *belgürmäk*).

[تَلْبِرْدِی *talpïrdï*] قُشْ تَلْبِرْدِی *quš talpïrdï* – “qush ikki qanotini qoqdi, silkitdi”; تَلْفِرْ تَلْبِرْدِی *talwïr talpïrdï* – “moda kaklik silkindi”. Har narsaning tipirlashiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَلْبِرَارْ *talpïrar*, تَلْبِرْمَاقْ *talpïrmaq*).

[تُغْتُرْدِی *tuγturdï*] تَنگْرِی أُغْلْ تُغْتُرْدِی *täŋri oγul tuγturdï* – “Tangri xotindan o‘g‘il tug‘dirdi”. Asli تُغُرتَرْدِی *tuγurtturdï* dir. Buning qoidasi shunday: o‘timli bo‘lgan fe’llarga *tā* qo‘shilib, ikki foildan o‘timli fe’l tuziladi. Biri ishga buyuruvchi bo‘ladi, ikkinchisi ishlovchi bo‘ladi. Chunonchi, سُوقْ اِچْرْدِی *suw ičürdi* (“suv ichirdi”) gapidagi اِچْرْدِی *ičürdi* fe’li o‘zi avvalda o‘timlidir. Bu fe’lga *tā* orttirib, سُوقْ اِچْتُرْدِی *suw ičtürdi* deganda, “birov ichirishga buyurdi, ikkinchisi ichdi” demakdir. اُلْ اَنِي بُغْدِی *ol anï boγdï* – “u uni bo‘g‘di”. بُغْتُرْدِی *boγturdï* deyilsa, “u birovni bo‘g‘ishga buyurdi” demakdir. Bu arab tilida fe’lga *alif* harfini orttirish yo‘li bilan yuzaga keladi. Chunonchi, لقط السنبل والقطه غیره ونقط المصحف وانقطه غیره iboralaridagi لقط bilan القط hamda نقط bilan انقط fe’llari singari misoli ko‘pdir (بُغْتُرُرْ *boγturur*, بُغْتُرْمَاقْ *boγturmaq*).

[تِقْتُرْدِى / تَقْتُرْدِى *taqturdï* / *tïqturdï*] تِقْتُرْدِى / تَقْتُرْدِى اَتْ سِشْقَا *et sïšqa taqturdï* / *tïqturdï* – “kishi go‘shtni sixga terdirdi” (تَقْتُرُرْ *taqturur*, تَقْتُرْمَاقْ *taqturmaq*).

[تِقْتُرْدِى *tïqturdï*] اُونُغْ قَابْقَا تِقْتُرْدِى *unuŋ qapqa tïqturdï* – “unni qopga tiqtirdi; kishi unni qopga qattiq qilib tiqishga va bog‘lashga buyurdi”. Boshqasi ham shunday (تِقْتُرُرْ *tïqturur*, تِقْتُرْمَاقْ *tïqturmaq*).

[تُتْتُرْدِى / تُتَرْدِى *tutturdï*[1]] تُتْتُرْدِى / تُتَرْدِى بَكْ اُغْرِينِى *beg oγrïnï tutturdï* – “bek o‘g‘rini tutishga buyurdi va tuttirdi” (تُتْتُرُرْ *tutturur*, تُتْتُرْمَاقْ *tutturmaq*).

[تُكْتُرْدِى *töktürdï*] اُلْ سُوقْ تُكْتُرْدِى *ol suw töktürdi* (177b) – “u suvni va boshqa narsalarni to‘kishga buyurdi” (تُكْتُرُرْ *töktürür*, تُكْتُرْمَاكْ *töktürmäk*).

[تِكْتُرْدِى *tiktürdi*] اُلْ تُونْ تِكْتُرْدِى *ol ton tiktürdi* – “u kiyim tiktirdi, kiyim tiktirishga buyurdi, so‘ng kiyim tikildi” (تِكْتُرُرْ *tiktürür*, تِكْتُرْمَاكْ *tiktürmäk*).

[تَلْتُرْدِى *talturdï*] اَنِى اُرُبْ تَلْتُرْدِى *anï urup talturdï* – “uni urib toldirdi, charchatdi, hatto kalovlab qolayozdi” (تَلْتُرُرْ *talturur*, تَلْتُرْمَاقْ *talturmaq*).

[تَلْتُرْدِى *teltürdi*] اُلْ تَامْ تَلْتُرْدِى *ol tam teltürdi* – “u tom, devor va boshqani teshtirdi”. So‘nggi *tā lām* bilan almashgandir. Arabchada ham shu xil almashinish bor. Chunonchi, arab tilida قدر على deyilganiday, قتر على عياله و tarzida ham qo‘llanadi. Oyatda bir o‘rinda ومن قدر عليه رزقه tarzida, ikkinchi o‘rinda اذا ماابتلاه فقدر عليه رزقه kabi *dāl* harfi *tā* o‘rniga almashgan bo‘lsa, ختر و ختل iboralarida *tā* harfi *dāl* o‘rniga almashgandir. Buning asli غدر dir. Bu so‘zda uch xil almashinish bor (تَلْتُرُرْ *teltürür*, تَلْتُرْمَاكْ *teltürmäk*).

[تُلْتُرْدِى *tolturdï*] اُلْ اَيَقْ تُلْتُرْدِى *ol ayaq tolturdï* – “u kosa va boshqa idishlarni to‘ldirdi” (تُلْتُرُرْ *tolturur*, تُلْتُرْمَاقْ *tolturmaq*).

[تِلْتُرْدِى *tiltürdi*] اَرْ يَرِنْدَاقْ تِلْتُرْدِى *er yarïndaq tiltürdi* – “kishi qayish tildirdi”. Qayish singari tilinadigan, chunonchi, oshlanmagan teri singari narsalarni tildirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِلْتُرُرْ *tiltürür*, تِلْتُرْمَاكْ *tiltürmäk*).

[تَمْتُرْدِى *tamturdï*] اُل اَنِكْ اَغْزِنكَا سُوقْ تَمْتُرْدِى *ol anïŋ aγzïŋa suw tamturdï* – “u uning og‘ziga suv tomdirdi, tomizdi” (تَمْتُرُرْ *tamturur*, تَمْتُرْمَاقْ *tamturmaq*). Bu zaif bir so‘zdir.

[تَمْجُرْدِى *tamčurdï*] يَغْمُرْ تَمْجُرْدِى *yaγmur tamčurdï* – “yomg‘ir va shuning kabilar tomchiladi, oz-oz yog‘di” (تَمْجِرَارْ *tamčïrar*, تَمْجُرْمَاقْ *tamčurmaq*).

[تَبْجُرْدُمْ *tapčurdum*] مَنْ اُغْلُنِى اَنَاسِنكَا تَبْجُرْدُمْ *men oγulnï anasïŋa tapčurdum* – “men o‘g‘ilni onasiga topshirdim, uning qo‘liga tutqazdim”. Bu so‘zdagi ج *čīm* harfining asli *šīn* dir. Boshqalarga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَبْجُرُرْ *tapčurur*, تَبْجُرْمَاقْ *tapčurmaq*).

[تُلْدُرْدِى *tuldurdï*] اَتْلِغْ اَنِى تُلْدُرْدِى *atlïγ anï tuldurdï* – “otliq va boshqalar uni gavdasi bilan urdi”.

[تِلْدُرْدِى *tildürdi*] اَنِى بِجَاكْ بِلَا تِلْدُرْدِى *anï pičäk bilä tildürdi* – “uni pichoq bilan tildirdi” (تِلْدُرُورْ *tildürür*, تِلْدُرْمَاكْ *tildürmäk*).

---

[1] Qo‘lyozmada bu so‘z تُتْتُرْدِى ko‘rinishida, kelasi zamoni va masdari esa تُتْتُرُرْ, تُتْتُرْماقْ ko‘rinishida berilgan. Biroq ikkinchi *tā* ga *tašdid* belgisi ham qo‘yib ketilgan. Shuning uchun uni shunday shaklda berishni ma’qul ko‘rdik.

[بِلْتُرْدِی ***biltürdi***] اُلْ مَنکَا اِیشْ بِلْتُرْدِی ***ol meŋä iš biltürdi*** – “u menga ish bildirdi, o‘rgatdi” (178a) (بِلْتُرُرْ ***biltürür***, بِلْتُرْمَاکْ ***biltürmäk***).

[تَمْتُرْدِی ***tamturdï***] اُلْ اُوتْ تَمْتُرْدِی ***ol ot tamturdï*** – “u o‘t tomdirdi, o‘t yoqtirdi”. Chiroq yoqishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَمْدُرُرْ ***tamdurur***, تَمْدُرْمَاقْ ***tamdurmaq***).

[تَنْتُرْدِی ***tanturdï***] اُلْ مَنکَا اَلِمِنْ تَنْتُرْدِی ***ol meŋä alïmïn tanturdï*** – “u menga olimini, qarzini va boshqalarni tondirdi” (تَنْتُرُرْ ***tanturur***, تَنْتُرْمَاقْ ***tanturmaq***).

[تِنْدُرْدِی ***tïndurdï***] اُلْ مَنِی تِنْدُرْدِی ***ol meni tïndurdï*** – “u meni tindirdi, rohatlantirdi”. Bu so‘z “nafas oldi” ma’nosidagi تِیِنْدِی ***tïndï*** so‘zidan olingan.

[تُنْتُرْدِی ***tunturdï***] اُتْ اَیکْ کُوزِنْ تُنْتُرْدِی ***ot anïŋ közin tunturdï*** – “o‘t (dori) uning ko‘zini qopladi”. Har qanday narsani boshqa narsa qoplashiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُنْتُرُرْ ***tunturur***, تُنْتُرْمَاقْ ***tunturmaq***).

[تُذْغُورْدِی ***toδγurdï***] اُلْ مَنِی تُذْغُورْدِی ***ol meni toδγurdï*** – “u meni to‘ydirdi” (تُذْغُرُرْ ***toδγurur***, تُذْغُرْمَاقْ ***toδγurmaq***). Maqolda (shunday kelgan): اَقْلِکْ تُذْغُرْسَا کُوزِی یُلْقَا بُلُورْ ***Ewlig toδγursa, közi yolqa bolur.***

Ma’nosi: “Uy egasi mehmonni to‘ydirsa, mehmon ketishga otlanib, ko‘zi yo‘lda bo‘ladi”. Bu maqol ziyofatdan so‘ng ketish uchun uzr so‘ragan mehmonga qarata qo‘llanadi.

(She’rda) shunday kelgan:

تُذْغُرْمَدِی اِتِمْنِی ***Toδγurmadï ïtïmnï,***
تُرْغُرْغَلِرْ اَتِمْنِی ***Turγurγalïr atïmnï.***
سُرْدِی مَنِکْ قُتُمْنِی ***Sürdi meniŋ qutumnï,***
قَازْ تَقِی قُرْدَایِمْنِی ***Qaz, taqï qurdayïmnï.***

Ovga kerakli vositalar: it, otlarini so‘rab olib, hech narsa ovlay olmagan ovchi to‘g‘risida demoqda: “Itimga to‘ydirarli ov ham topa olmadi. Otimni urintirib, oriqlatayozdi. G‘oz va qurdayimni haydab, mening qutimni [nasibamni] ketkazdi”.

[تُذْغُرْدِی ***toδγurdï***] اُلْ مَنِي بُو اِیشْتِنْ تُذْغُرْدِی ***ol meni bu ïštïn toδγurdï*** – “u meni bu ishdan to‘ydirdi, menga u malol keldi”.

[تُرْغُرْدِی ***turγurdï***] اُلْ اَتِغْ تُرْغُرْدِی ***ol atïγ turγurdï*** – “u otni oriqlatdi” (تُرْغُرُرْ ***turγurur***, تُرْغُرْمَاقْ ***turγurmaq***).

[تُرْغُرْدِی ***turγurdï***] اُلْ مَنِی اُرُنْدُنْ تُرْغُرْدِی ***ol meni orundun turγurdï*** – “u meni o‘rnimdan turg‘izdi”.

[تُرْغُرْدِي ***turγurdï***] اَرْ تَامْ تُرْغُرْدِي ***er tam turγurdï*** – “kishi devor urdi, tikladi”. Uy va boshqa narsalarni tiklashga, qurishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُرْغُرُرْ ***turγurur***, تُرْغُرْمَاقْ ***turγurmaq***). (178b)

[تَزْغَرْدِی ***tazγardï***] اَرْ بَاشِی تَزْغَرْدِی ***er baškï tazγardï*** – “kishining bosh tuklari to‘kilib, kal bo‘layozdi” (تَزْغِرَارْ ***tazγïrar***, تَزْغِرْمَاقْ ***tazγïrmaq***).

[تُزْغِرْدِی ***tozγïrdï***] يِيرْ تُزْغِرْدِی ***yer tozγïrdï*** – “yer to‘zg‘iyozdi, to‘zon ko‘tarilayozdi” (تُزْغِرَارْ ***tozγïrar***, تُزْغِرْمَاقْ ***tozγïrmaq***).

[تُشْغُرْدِی ***tošγurdï***] اُلْ اَقِنْ تَقَارْ بِرْلَا تُشْغُرْدِی ***ol ewin tawar birlä tošγurdï*** – “u uyini mol bilan to‘lg‘izdi”. Idishni suv va boshqa narsalar bilan to‘ldirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُشْغُرْ ***tošγurur***, تُشْغُرْمَاقْ ***tošγurmaq***).

[تَشْغُرْدِی ***tašγurdï***] اَشِجْ تَشْغُرْدِی ***ešič tašγurdï*** – “qozon toshayozdi, qozondan suv (toshib) chiqayozdi” (تَشْغُرَارْ ***tašγurar***, تَشْغُرْمَاقْ ***tašγurmaq***).

[تُشْغُرْدُمْ ***tušγurdum***] مَنْ اُغْلْنِی اَتَاسِنِكَا تُشْغُرْدُمْ ***men oγulnï atasïγa tušγurdum*** – “men o‘g‘ilni otasi bilan uchrashtirdim”. Ikki kishi o‘rtasidagi uchrashtirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُشْغُرْمَنْ ***tušγurur-men***, تُشْغُرْمَاقْ ***tušγurmaq***). Asli تُشْرُدُمْ ***tušurdum*** dir.

[تَلْغُرْدِی / تَلْغُرْدِی ***talγurdï / tolγurdï***] كُنكْلُمْ تَلْغُرْدِی / تُلْغُرْدِی ***köŋlüm talγurdï / tolγurdï*** – “bulg‘anch ovqat yeyishdan ko‘nglim ayniyozdi” (تَلْغُرْ ***talγurur***, تَلْغُرْمَاقْ ***talγurmaq***).

[تَلْغُرْدِی ***talγurdï***] اَرتْ بَشِی تَلْغُرْدِی ***art bašï talγurdï*** – “tog‘ boshi va boshqa yerlarda sovuq shamol, bo‘ron qo‘zg‘aldi” (تَلْغِرَارْ ***talγïrar***, تَلْغِرْمَاقْ ***talγïrmaq***).

[تَمْغُرْدِی ***tamγurdï***] سُوقْ تَمْغُرْدِی ***suw tamγurdï*** – “muz va shu kabilardan suv tomayozdi” (تَمْغِرَارْ ***tamγïrar***, تَمْغِرْمَاقْ ***tamγïrmaq***).

[تُبْكَرْدِی ***tübkärdi***] اُلْ اِيشِغْ تُبْكَرْدِی ***ol ïšïγ tübkärdi*** – “u ishni tekshirdi; u ishning tagini tekshirdi, ketiga tushdi” (تُبْكَرُرْ ***tübkärür***, تُبْكَرْمَاكْ ***tübkärmäk***).

[تِرْكُرْدِی ***tirgürdi***] تنكْرِی اُلُكْ تِرْكُرْدِی ***täŋri ölüg tirgürdi*** – “Tangri o‘likni tiriltirdi” (تِرْكُرُرْ ***tirgürür***, تِرْكُرْمَاكْ ***tirgürmäk***).

[تُزْكَرْدِمْ ***tüzgärdim***] مَنْ اَنِی تُزْكَرْدِمْ ***men anï tüzgärdim*** – “men uni to‘g‘ri yo‘lga boshladim, yo‘lladim, yo‘lga soldim” (تُزْكُرْمَنْ ***tüzgürür-men***, تُزْكُرْمَاكْ ***tüzgürmäk***).

[تَلْمِرْدِی ***telmirdi***] اَرْ تَلِمْ تَلْمِرْدِی ***er telim telmirdi*** – “kishi bir narsani istayotganday, yo birovni ko‘rsatganday o‘ngga-so‘lga qaradi” (تَلْمِرَارْ ***telmirär***, تَلْمِرْمَاكْ ***telmirmäk***).

[جَبْتُرْدِی ***čapturdï***] اَرْ قُلِنْ سُقْدَا جَبْتُرْدِی ***er qulïn suwda čapturdï*** – “kishi qulini suvda suzdirdi”. Boshqa o‘rinlarda ham shunday.

[جَبْتُرْدِی ***čapturdï***] اُلْ اَنِكْ بُيْنِنْ جَبْتُرْدِی ***ol anïŋ boynïn čapturdï*** – “u uning gardaniga urishga buyurdi” (179a) (uyg‘urcha).

[جَبْتُرْدِی ***čapturdï***] اُلْ اَقِنْ جَبتُرْدِی ***ol ewin čapturdï*** – “u uyini suyuq loy bilan chaplattirdi, suvatdi” (جَبْتُرُرْ ***čapturur***, جَبْتُرْمَاقْ ***čapturmaq***).

[جِژْتُرْدِی ***čižtürdi***] بُو يُكْ اَتَغْ جِژْتُرْدِی ***bu yük atïγ čižtürdi*** – “bu yuk og‘irligidan ot orqasini cho‘ktirdi”. Og‘ir yukdan ot va boshqalarning orqasi bukilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (جِژْتُرُرْ ***čižtürür***, جِژْتُرْمَاكْ ***čižtürmäk***).

[جُژْتُرْدِی ***čöztürdi***] اُلْ يِيِغْ جُژْتُرْدِی ***ol yïpïγ čöztürdi*** – “u bo‘shashgan arqonni torttirdi”. Qo‘y ichagini artishga ham shu so‘z qo‘llanadi (جُژْتُرُرْ ***čöztürür***, [جُژْتُرْمَاكْ ***čöztürmäk***]). Bu so‘z ham yuqoridagi singari ikki maxraj orasidagi ژ *žā* bilan talaffuz qilinadi.

[چِگْتُرْدِی *čigtürdi*] اُلْ تُگُونْ چِگْتُرْدِی ***ol tügün čigtürdi*** – “u tugun va boshqa narsalarni tugdirdi; birovni tugun tugishga buyurdi” (چِگْتُرُرْ ***čigtürür***, چِگْتُرْمَاکْ ***čigtürmak***).

[جَقْتُرْدِی *čaqturdï*] اُلْ جَقْمَاقْ جَقْتُرْدِی ***ol čaqmaq čaqturdï*** – “u chaqmoq chaqtirdi”. Shuningdek, ikki kishini bir-biriga chaqib, o‘zaro janjal qo‘zg‘atganda ham جَقْتُرْدِی ***čaqturdï*** deyiladi (جَقْتُرُرْ ***čaqturur***, جَقْتُرْمَاقْ ***čaqturmaq***).

[جُقْتُرْدِی *čoqturdï*] اُلْ قُشُغْ قَازْقَا جُقْتُرْدِی ***ol qušuγ qazqa čoqturdï*** – “u lochinni o‘rdak va boshqa narsalarni ovlashga yo‘lladi” (جُقْتُرُرْ ***čoqturur***, جُقْتُرْمَاقْ ***čoqturmaq***).

[چِقْتُرْدِی *čïqturdï*] اُلْ اَنِی اَقدِنْ چِقْتُرْدِی ***ol anï ewdin čïqturdï*** – “u uni uydan va boshqa yerlardan chiqarishga buyurdi” (چِقْتُرُرْ ***čïqturur***, چِقْتُرْمَاقْ ***čïqturmaq***).

[جِقْتُرْدِی *jïqturdï*] اُلْ تُونِنْ جِقْتُرْدِی ***ol tonïn jïqturdï*** – “u kiyimni nam joyga qo‘ydi va kiyim namiqdi” (جِقْتُرُرْ ***jïqturur***, جِقْتُرْمَاقْ ***jïqturmaq***).

[جَکْتُرْدِی *čektürdi*] اَنگَرْ جَکِکْ جَکْتُرْدِی ***aŋar čekig čektürdi*** – “unga xat-yozuv nuqtalarini qo‘ydirdi”.

[جَکْتُرْدِی *čektürdi*] اُلْ اَتِنْ جَکْتُرْدِی ***ol atïn čektürdi*** – “u tuyoq kasali va boshqa kasal sababli otining tomiridan qon oldirdi” (جَکْتُرُرْ ***čektürür***, جَکْتُرْمَاکْ ***čektürmäk***).

[جُکْتُرْدِی *čöktürdi*] اُلْ اَنِکْ تَفَّسِینْ جُکْتُرْدِی ***ol anïŋ tewäsin čöktürdi*** – “u uning tuyasini cho‘ktirdi”.

[جُکْتُرْدِی *čöktürdi*] اُلْ کُمُشْ اَلْتُونْدُنْ جُکْتُرْدِی ***ol kümüš altundun čöktürdi*** – “u cho‘ktirish usuli bilan oltinni kumushdan ajratdi” (جُکْتُرُرْ ***čöktürür***, جُکْتُرْمَاکْ ***čöktürmäk***).

[جَلْتُرْدِی *čalturdï*] اُلْ اَنِی جَلْتُرْدِی ***ol anï čalturdï*** – “u uni chaldirdi”.

[جَلْتُرْدِی *čalturdï*] اُلْ یِتُکْ جَلْتُرْدِی ***ol yitüg čalturdï*** – “u yitgan-yo‘qolgan narsani qidirishga buyurdi”. Eshittirish uchun aytilgan har bir so‘zga ham shunday deyiladi (179b) (o‘g‘uzcha) (جَلْتُرُرْ ***čalturur***, جَلْتُرْمَاقْ ***čalturmaq***).

[جُمْتُرْدِی *čomturdï*] اُلْ اَنِی سُقْقَا جُمْتُرْدِی ***ol anï suwqa čomturdï*** – “u uni suvga cho‘mdirdi, sho‘ng‘itdi” (جُمْتُرُرْ ***čomturur***, جُمْتُرْمَاقْ ***čomturmaq***). Buning جُمْتُرْدِی ***čömtürdi***, جُمْتُرُرْ ***čömtürür***, جُمْتُرْمَاکْ ***čömtürmäk*** shakli avvalgi so‘zga ko‘ra yana ham “chuqurroq cho‘mdirish” ma’nosidadir.

[جَنْتُرْدِی *čanturdï*] اُلْ اَنِی بُو اِشْقَا جَنْتُرْدِی ***ol anï bu išqa čanturdï*** – “u uni bu ishdan qaytishga undadi”. Asli چِنْدُتْرْدِی ***čïnduturdï*** dir (جَنْتُرُرْ ***čanturur***, جَنْتُرْمَاقْ ***čanturmaq***).

[چِنْغَرْدِی *čïnγardï*] اُلْ اِیشِغْ چِنْغَرْدِی ***ol išïγ čïnγardï*** – “u ishning chinligini tekshirdi”. Asli *yā* harfi bilan چِینْغَرْدِی dir ([چِینْغَرُرْ ***čïnyarür***], چِینْغَرْمَاقْ ***čïnyarmaq***).

[سَبْتُرْدِی *septürdi*] اُلْ اَنِکْ قِزْنْ سَبْتُرْدِی ***ol anïŋ qïzïn septürdi*** – “u qiziga sep qilib kuyovga uzatishni buyurdi”.

[سَبتُرْدِی *sapturdï*] اُلْ مَنکَا قُشْ قَنَتِنْ سَبْتُرْدِی ***ol meŋä quš qanatïn sapturdï*** – “u menga qush qanotini tuzatishga buyurdi”. Har narsani tuzatishga ham shu so‘z

qo‘llanadi (سَبْتُرُرْ ***sapturur***, سَبْتُرْمَاقْ ***sapturmaq***). Avvalgi fe’lning masdari *kāf* bilan سَبْتُرْمَاكْ ***septürmäk*** dir.

[سَتَّرْدِى ***satturdï***] اُلْ مَنِكْ تَقْارِغْ سَتَّرْدِى ***ol meniŋ tawarïγ satturdï*** – “u mening tavarimni (buyumimni) va boshqa narsalarimni sottirdi” (سَتَّرُرْ ***satturur***, سَتَّرْمَاقْ ***satturmaq***).

[سُتَّرْدِى ***sutturdï***] اُلْ اَنِكْ يُوزِنكَا سُتَّرْدِى ***ol anïŋ yüziŋä sutturdï*** – “u uning yuziga tuplatdi”. Buning asli سُوذْتُرْدِى ***suδturdï*** dir (سُوذْتُرُرْ ***suδturur***, سُتَّرْمَاقْ ***sutturmaq***).

[سِتَّرْدِى ***sittürdi***] اُلْ اُغْلِنْ سِتَّرْدِى ***ol oγlïn sittürdi*** – “u bolasini siydirdi”. “Otini siydirish”ga ham shu so‘z qo‘llanadi. Asli سِيذْتُرْدِى ***siδtürdi*** edi, keyinchalik harflar singib ikkilangan (سِتَّرُرْ ***sittürür***, سِتَّرْماكْ ***sittürmäk***).

[سَجْتُرْدِى ***sačturdï***] اُلْ مَنكَا يَرْمَاقْ سَجْتُرْدِى ***ol meŋä yarmaq sačturdï*** – “u menga tanga sochtirdi” (سَجْتُرُرْ ***sačturur***, سَجْتُرْمَاقْ ***sačturmaq***).

[سِجْتُرْدِى ***sïčturdï***] اُلْ اَنِى سِجْتُرْدِى ***ol anï sïčturdï*** – “u uni chichtirdi” (سِجْتُرُرْ ***sïčturur***, سِجْتُرْمَاقْ ***sïčturmaq***).

[سُرْتُرْدِى ***sürtürdi***] اُلْ اَنِى سُرْتُرْدِى ***ol anï sürtürdi*** – “u uni vatanidan surgun qildi” (سُرْتُرُرْ ***sürtürür***, سُرْتُرْمَاكْ ***sürtürmäk***).

[سُرْتُرْدِى ***sürtürdi***] اُلْ اَنكَرْ قُوىْ سُرْتُرْدِى ***ol aŋar qoy sürtürdi*** – “u unga qo‘y va boshqa hayvonlarni haydatdi”.

[سُرْتُرْدِى ***sürtürdi***] اُلْ اَنكَرْ تَاشْ سُرْتُرْدِى ***ol aŋar taš sürtürdi*** – “u unga tosh ishqatdi”. (180a) Masdari ham shunday.

[سُرْتُرْدِى ***sorturdï***] اُلْ سُرُغْ سُرْتُرْدِى ***ol soruγ sorturdï*** – “u yo‘qolgan narsani surishtirishga buyurdi”.

[سُرْتُرْدِى ***sorturdï***] اُلْ قَانغْ سُرْتُرْدِى ***ol qanïγ sorturdï*** – “u qonni qortuq bilan so‘rib olishga buyurdi, so‘rdirdi” (سُرْتُرُرْ ***sorturur***, سُرْتُرْمَاقْ ***sorturmaq***).

[سُزْتُرْدِى ***süztürdi***] اُلْ سُوقْ سُزْتُرْدِى ***ol suw süztürdi*** – “u suv va boshqa narsalarni tinitishga, suzishga buyurdi” (سُزْتُرُرْ ***süztürür***, سُزْتُرْمَاكْ ***süztürmäk***).

[سُسْتُرْدِى ***süstürdi***] اُلْ قَجْ سُسْتُرْدِى ***ol qoč süstürdi*** – “u qo‘chqorni suzdirishga undadi, hatto u suzdi” (سُسْتُرُرْ ***süstürür***, سُسْتُرْمَاكْ ***süstürmäk***).

[سَشْتُرْدِى ***seštürdi***] اُلْ تُكُونْ سَشْتُرْدِى ***ol tügün seštürdi*** – “u tugunni va boshqa narsalarni yechishga buyurdi, yechtirdi” (سَشْتُرُرْ ***seštürür***, سَشْتُرْمَاكْ ***seštürmäk***).

[سَشْتُرْدِى ***sašturdï***] اُلْ اَلِمْ بِرِمْ بِرْلَا سَشْتُرْدِى ***ol alïm-berim birlä sašturdï*** – “u oladigan moli bilan beradiganini boshma-bosh qildi”. Oladiganini olmay, beradiganining o‘rniga topshirdi (سِشْتُرُرْ / سَشْتُرُرْ ***sašturur*** / ***šïšturur***, / سَشْتُرْمَاقْ / سِشْتُرْمَاقْ ***sašturmaq*** / ***šïšturmaq***).

[سَغْتُرْدِى ***saγturdï***] اُلْ قُوىْ سَغْتُرْدِى ***ol qoy saγturdï*** – “u qo‘y va boshqalarni sog‘dirdi” (سَغْتُرُرْ ***saγturur***, سَغْتُرْمَاقْ ***saγturmaq***).

[سِغْتُرْدِى ***sïγturdï***] اُل بِيرْ نَانكْنِى بِيرْكَا سِغْتُرْدِى ***ol bir näŋni birkä sïγturdï*** – “u bir narsani bir narsaga sig‘dirdi, joylab qo‘ydi” (سِغْتُرُرْ ***sïγturur***, سِغْتُرْمَاقْ ***sïγturmaq***).

[سَقْتُرْدِى ***sewturdi***] اُلْ تَنكْرِي سَنِي مَنكَا سَقْتُرْدِى ***ol täŋri seni meŋä sewturdi*** – “u Tangri taolo seni menga sevdirdi. Ko‘nglimga sevgingni soldi” (سَقْتُرُرْ ***sewturür***, سَقْتُرْمَاكْ ***sewturmäk***).

[سُقْتُرْدِى ***suqturdï***] اُلْ بِيرْ نَانىڭنِى بِيرْكَا سُقْتُرْدِى ***ol bir näŋni birkä suqturdï*** – “u bir narsani ikkinchisiga suqishga, kiritishga buyurdi” (سُقْتُرُرْ ***suqturur***, سُقْتُرْمَاقْ ***suqturmaq***).

[سُقْتُرْدِى ***soqturdï***] اُلْ مُرجْ سُقْتُرْدِى ***ol murč soqturdï*** – “u murch va boshqa narsalarni maydalatdi”.

[سِقْتُرْدِى ***sïqturdï***] اُلْ اُزُمْ سِقْتُرْدِى ***ol üzüm sïqturdï*** – “u uzum va boshqa ho‘l mevalarni siqishga buyurdi” (سِقْتُرُرْ ***sïqturur***, سِقْتُرْمَاقْ ***sïqturmaq***).

[سُكْتُرْدِى ***söktürdi***] اُلْ تُونْ سُكْتُرْدِى ***ol ton söktürdi*** – “u to‘n choklarini so‘ktirdi, so‘kishga buyurdi”. Devor va boshqalarni buzishga ham bu so‘z qo‘llanadi (سُكْتُرُرْ ***söktürür***, سُكْتُرْمَاكْ ***söktürmäk***).

[سُكْتُرْدِى ***söktürdi***] اُلْ اَنِى سُكْتُرْدِى ***ol anï söktürdi*** – “u uni so‘ktirdi”. Asli u سُوكْتُرْدِى dir. So‘ng idg‘om qilingan (سُكْتُرُرْ ***söktürür***, سُكْتُرْمَاكْ ***söktürmäk***).

[سِكْتُرْدِى ***siktürdi***] اَرْ كُنْكِنْ سِكْتُرْدِى ***er küŋin siktürdi*** – “kishi joriyasini siktirdi” (سِكْتُرُرْ ***siktürür***, سِكْتُرْمَاكْ ***siktürmäk***).

[سَلْتُرْدِى ***salturdï***] اُلْ مَنِى اَنَكَارْ سَلْتُرْدِى ***ol meni aŋar salturdï*** – “u meni uning ixtiyoriga tashlatdi” (o‘g‘uzcha). Yana: اُلْ مَنكَا يِينكْ سَلْتُرْدِى ***ol meŋä yeŋ salturdï*** – “u birovni to‘n yengi bilan menga ishorat qilishga buyurdi”. Har bir narsani tashlashga buyurishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَلْتُرُرْ ***salturur***, سَلْتُرْمَاقْ ***salturmaq***).

[شَشْتُرْدِى ***šeštürdi***] اُلْ تُكُونْ شَشْتُرْدِى ***ol tügün šeštürdi*** – “u tugun va boshqa narsalarni yechtirdi”; سَشْتُرْدِى ***seštürdi*** varianti ham bor. Bu almashinish arabcha bilan forschadagi almashinishga o‘xshaydi. Arabcha مِسكْ *misk*, forscha مُشكْ *mušk*, arabcha سُكرْ, forscha شَكَرْ *šäkär*, arabcha عَسْكَرْ *’askar*, forscha لَشْكَرْ *laškar* kabi.

[سَجْغُرْدِى / سَجْغُرْدِى ***sačyurdï*** / ***sačyïrdï***] اَرْ سُوقْ سَجْغُرْدِى / سَجْغُرْدِى ***er suw sačyurdï*** / ***sačyïrdï*** – “kishi suv sochtirayozdi” (سَجْغُرُرْ / سَجْغِرَارْ ***sačyurur*** / ***sačyïrar***, سَجْغُرْمَاقْ / سَجْغِرْمَاقْ ***sačyurmaq*** / ***sačyïrmaq***).

[سُجْغُرْدِى ***sučyurdï***] اَتْ سُجْغُرْدِى ***at sučyurdï*** – “ot va boshqa hayvonlar hurkayozdi” (سُجْغُرُرْ ***sučyurur***, سُجْغُرْمَاقْ ***sučyurmaq***).

[سَرْغَرْدِي ***saryardï***] سَرْغَرْدِي نَانكْ ***saryardï näŋ*** – “narsa sarg‘aydi” (سَرْغَرُورْ ***saryarur***, سَرْغَرْمَاقْ ***saryarmaq***).

[سِزْغُرْدِي ***sïzyurdï***] اَرْ يَاغْ سِزْغُرْدِي ***er yaŋ sïzyurdï*** – “kishi yog‘ va boshqa narsalarni eritdi” (سِزْغُرُرْ ***sïzyurur***, سِزْغُرْمَاقْ ***sïzyurmaq***).

Isitma bemorni holdan toydirishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

(Shoir) shunday degan:

كُنكْلِى كُيُبْ قَانِى قُرِبْ اَغْزِى اَجِبْ قَتْغُرَارْ	***Köŋli küyüp, qanï qurïp, aγzï ačïp qatγurar,***
سِزْغُرْغَلِرْ اُدْكلَرْ / اُدِكلَرْ اَسَرْ يُزِى بُرْقَرَارْ	***Sïzyuryalïr üδüklär / üδiklär essiz yüzi burqarar.***

Aytmoqdaki: “Dili kuyib, qoni qurib, og‘zini ochib qah-qah kuladi-yu, ishq-muhabbat uni eritib yuborar darajada bechoraning yuzlarini sarg‘aytirardi”.

[***suwγardï*** سُقْغَرْدِى] ***ol at suwγardï*** اُلْ اَتْ سُقْغَرْدِى – “u ot va boshqa hayvonlarni sug‘ordi” (181a) (***suwγarur*** سُقْغَرْرُرْ, ***suwγarmaq*** سُقْغَرْمَاقْ).

[***sanγardï*** سَنْغَرْدِى] ***ol anï kišidän sanγardï*** اُلْ اَنِى كِشِيدَنْ سَنْغَرْدِى – “u uni kishilardan deb sanadi” (***sanγarur*** سَنْغَرْرُرْ, ***sanγarmaq*** سَنْغَرْمَاقْ).

[***sarqurdï*** سَرْقُرْدِي] ***ol yaγnï qaptïn sarqurdï*** اُلْ يَاغْنِى قَابْتِنْ سَرْقُرْدِي – “u yog‘ni idish (mesh)dan silqitdi”. Har bir suyuq narsa bir idishdan ikkinchisiga solinganda, tagida qolganini silqitishga ham shu so‘z qo‘llanadi (***sarqurur*** سَرْقُرْرُرْ, ***sarqurmaq*** سَرْقُرْمَاقْ).

[***sütkärdi*** سُوتْكَرْدِى] ***yoγrut sütkärdi*** يُغْرُتْ سُوتْكَرْدِى – “ivigan sut chayqalib-qo‘zg‘alib sutdek suyildi” (***sütkirär*** سُتْكِرْرَارْ, ***sütkirmäk*** سُتْكِرْمَاكْ).

[***süsgürdi*** / ***süsgirdi*** سُسْكُرْدِي / سُسْكِرْدِي] ***sïγïr erig süsgürdi*** / ***süsgirdi*** سِغِرْ اَرِكْ سُسْكُرْدِي / سُسْكِرْدِي – “sigir kishini va boshqalarni suzmoqchi bo‘ldi” (***süsgirär*** سُسْكِرْرَارْ, ***süsgirmäk*** سُسْكِرْمَاكْ).

[***qapturdï*** قَبْتُرْدِى] ***ol aγar tawar qapturdï*** اُلْ اَنْكَارْ تَقَارْ قَبْتُرْدِى – “u unga mol o‘g‘irlatdi, mol o‘g‘irlashga buyurdi” (***qapturur*** قَبْتُرْرُرْ, ***qapturmaq*** قَبْتُرْمَاقْ).

Uchinchidan, uch harfli ismlarga لَشُو *-lašu, -läšü* qo‘shib yasalgan fe’ldir. Bu fe’l garov va qimor ma’nolarini anglatadi. Chunonchi, اُلْ مَنِكْ بِرْلَا اُقْ اَتّى اَتْلَشُو ***ol meniŋ birlä oq attï atlašu*** – “u men bilan otni garovga qo‘yib o‘q otishdi. Kim yutsa, o‘rtaga qo‘yilgan otni o‘sha oladi”. Bu qoida juda keng bo‘lib, ismlardan ham, fe’llardan ham tuzilaveradi. Ismlar shakli cho‘zilib ketsa ham farq qilinmay, shu ma’no uchun qo‘shilaveradi. Chunonchi, اُلْ مَنِكْ بِرْلَا اُيْنَادِى كُكُرْجْكُونْلَشُو ***ol meniŋ birlä oynadï kögürčkünläšü*** – “u men bilan kaptardan [kaptarni o‘rtaga tikib qimor] o‘ynadi”; اُلْ اَتْ يَرشْدِى مَنِكْ بِيلَا تَقْشْغَانْلَشُو ***ol at yarïšdï meniŋ bilä tawïšyanlašu*** – “u men bilan o‘rtaga quyon tikib ot chopishdi. Kim orqada qolsa, u yutqazadi. O‘zgan kimsa yutadi va u oladi”. (190b)

To‘rtinchidan, fe’l bu ma’nolardan hech birini anglatmay, o‘z ma’nosida qo‘llanadi. Chunonchi, اِيشْ بُرُشْدِى ***iš burušdï*** – “ish belashdi”; يِبْ بُيْمَشْدِى ***yïp boymašdï*** – “ip chalkashdi, chigal bo‘ldi, yozilmaydigan bo‘lib chuvaldi”.

ق ***q*** [harfi]:

[بَغْرِقْتِی ***bayrïqtï***] اَجْ اَرْ بَغْرِقْتِی ***ač er bayrïqtï*** – “ochlikdan kishining biqini, qorni jigariga yopishdi”.

[بُلْدُقْتِی ***bulduqtï***] بُلْدُقْتِی نَانَکْ ***bulduqtï näŋ*** – “bo‘lingan narsa topildi” (بُلْدُقَارْ ***bulduqar***, بُلْدُقْمَاقْ ***bulduqmaq***).

[تُتْسُقْدِی ***tutsuqdï***] اَرْ يَغِی قَا تُتْسُقْدِی ***er yayïqa tutsuqdï*** – “er yovga tutildi” (تُتْسُقَارْ ***tutsuqar***, تُتْسُقْمَاقْ ***tutsuqmaq***).

[تُنْجُقْتِی ***tončuqtï***] اَرْ تُنْجُقْتِی ***er tončuqtï*** – “kishi qayg‘urdi, hatto nafas ololmay qoldi”.

[تُنْجُقْتِی ***tončuqtï***] سُغُرْ تُنْجُقْتِی ***suγur tončuqtï*** – “sug‘ur [mushukdan kichikroq dumsiz hayvon], qishda ko‘klamgacha chiqmaydigan bo‘lib, uyasiga kirdi”. Uyasiga qishda kirib, ko‘klamgacha chiqmaydigan har qanday hayvon haqida ham تُنْجُقْتِی ***tončuqtï*** deyiladi (تُنْجِقَارْ ***tončïqar***, تُنْجِقْمَاقْ ***tončïqmaq***).

[سَنْجِقْتِی ***sančïqtï***] يَغِی سَنْجِقْتِی ***yayï sančïqtï*** – “yov yengildi”. Kishining kaltaklanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَنْجِقَارْ ***sančïqar***, سَنْجِقْمَاقْ ***sančïqmaq***).

[بَسْسِقْتِی ***bassïqtï***] اَرْ يَغِی قَا بَسْسِقْتِی ***er yayïqa bassïqtï*** – “yov erni tunda bostirdi, uni tutdi” (بَسْسِقَارْ ***bassïqar***, بَسْسِقْمَاقْ ***bassïqmaq***).

[سَقْرُقْتِي ***sawruqtï***] كُوزْدَنْ يَاشْ سَقْرُقْتِي ***közdän yaš sawruqtï*** – “ko‘zdan yosh oqdi”. Oqar suvning to‘lqinlanib mavj urishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

(Shoir) shunday degan:

كُوزُمْ يَشِي سَقْرُقْبْ قُوذِی اَقَارْ ***Közüm yašï sawruqup quδï aqar,***
بِلْنِبْ اَزُونْ اَمْكَكِنْ تُوكَلْ اُقَارْ ***Bilnip ažun emgäkin tügäl uqar.***

Aytmoqdaki: “Dunyo qiyinchiliklarini yaxshi (to‘la) tushungandan keyin ko‘zimning yoshi sovrulib oqdi” (سَقْرُقَارْ ***sawruqar***, سَقْرُقْمَاقْ ***sawruqmaq***).

ک ***k*** [harfi]:

[بِلْسِكْتِی ***bilsikti***] اَنِكْ يَشْتْ اِيشِی بِلْسِكْتِی ***anïŋ yašut ïšï bilsikti*** – “uning yashirin ishi bilindi” (191a) (بِلْسِكَارْ ***bilsikär***, بِلْسِكْمَاكْ ***bilsikmäk***).

ل ***l*** [harfi]:

[بُرْبَلْدِی ***burbaldï***] اَنِكْ اِيشِی بُرْبَلْدِی ***anïŋ ïšï burbaldï*** – “uning ishi chuvalib chalkashdi” (بُرْبَلُورْ ***burbalur***, بُرْبَلْمَاقْ ***burbalmaq***).

[بُكْسُلْدِی ***büksüldi***] قَابْ بُكْسُلْدِی ***qap büksüldi*** – “qop yorilib ketdi”. Shuningdek, har qanday idishning yorilib ketishiga ham بُكْسُلْدِی ***büksüldi*** deyiladi (بُكْسُلُورْ ***büksülür***, بُكْسُلْمَاكْ ***büksülmäk***).

[تُرْبُلْدِی ***törpüldi***] يِغَاجْ تُرْبُلْدِی ***yïyač törpüldi*** – “yog‘och to‘g‘ri bo‘ldi, randalanib to‘g‘rilandi” (تُرْبُلُورْ ***törpülur***, تُرْبُلْمَاكْ ***törpülmäk***).

[تَرْتِلْدِی ***tartïldï***] يَرْمَاقْ تَرْتِلْدِی ***yarmaq tartïldï*** – “tanga va boshqa narsalar tortildi” (تَرْتِلُورْ ***tartïlur***, تَرْتِلْمَاقْ ***tartïlmaq***). Arqon va boshqalarning cho‘zilib, tortishishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[تُرْتُلْدِي *türtüldi*] تَرِيكَا يَاغ تُرْتُلْدِي *terikä yaγ türtüldi* – “teri va boshqa narsalarga yog‘ surtildi” (تُرْتُلُورْ *türtülür*, تُرْتُلْمَاكْ *türtülmäk*).

[جَرْتِلْدِى *čertildi*] جَرْتِلْدِى نَانَكْ *čertildi näŋ* – “narsa yo‘q bo‘ldi, qo‘ldan ketdi” (جَرْتِلُورْ *čertilür*, جَرْتِلْمَاكْ *čertilmäk*). Maqolda (shunday kelgan): اَرْدَمْسِزْدَنْ قُتْ جَرْتِلُورْ *Erdämsizdän qut čertilür.* Ma’nosi: “Hunari va fazilati bo‘lmagan kishidan baxt chekinadi”.

[تَتْرُلْدِى *tetrüldi*] يِلْ تَتْرُلْدِى *yel tetrüldi* – “yelning esishi o‘zgardi; janub shamoli shimolga, shimol shamoli janubga esdi”; تَتْرُلْدِى نَانَكْ *tetrüldi näŋ* – “narsa aylandi, teskari bo‘ldi”.

[تَتْرُلْدِى *tetrüldi*] اَرْ قِلِقِى تَتْرُلْدِى *er qïlïqï tetrüldi* – “kishi va boshqalarning qilig‘i yomonlashdi, qilig‘i sovuq bo‘ldi” (تَتْرُلُورْ *tetrülür*, تَتْرُلْمَاكْ *tetrülmäk*).

[تُغْرَلْدِى *toγraldï*] اَتْ تُغْرَلْدِى *et toγraldï* – “go‘sht tilim-tilim to‘g‘raldi”. Boshqa narsalarga ham shu so‘z ishlatiladi (تُغْرَلُورْ *toγralur*, تُغْرَلْمَاقْ *toγralmaq*).

[تُغْرَلْدِى *toγraldï*] تُونْ كِيرْدَنْ تُغْرَلْدِى *ton kirdän toγraldï* – “kiyim kir bo‘lib ketganidan uvadalandi”.

Oyoqda va to‘qimalarda paydo bo‘lgan yoriqlarga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُغْرَلُورْ *toγralur*, تُغْرَلْمَاقْ *toγralmaq*).

[تَلْقِلْدِى *talqïldï*] تَلْقِلْدِى نَانَكْ *talqïldï näŋ* – “narsa to‘qindi, to‘qnashdi”; اِيشْ تَلْقِلْدِي *iš talqïldï* – “ish qaytarildi”; يُكْ تَلْقِلْدِى *yük talqïldï* – “yuk otda qaytarildi” (تَلْقِلُورْ *talqïlur*, تَلْقِلْمَاقْ *talqïlmaq*).

[تِرْمَلْدِى *tïrmaldï*] اَنِكْ يُوزِي تِرْمَلْدِى *anïŋ yüzi tïrmaldï* – “uning yuzi tirnaldi” (تِرْمَلُورْ *tïrmalur*, تِرْمَلْمَاقْ *tïrmalmaq*).

[جَقْرُلْدِي *čewrüldi*] جِڤْرِي جَقْرُلْدِي *čïγrï čewrüldi* – “chig‘iriq (quduq chig‘irig‘i) aylandi”. Har qanday narsaning aylanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (جَقْرُلُورْ *čewrülür*, جَقْرُلْمَاكْ *čewrülmäk*).

[جَرْمَلْدِى *čermäldi*] جَڤْغْ جَرْمَلْدِى *čawïγ čermäldi* – “qamchi va boshqaning uchi o‘rib to‘qildi” (191b) (جَرْمَلُورْ *čermälür*, جَرْمَلْمَاكْ *čermälmäk*).

[سُرْتُلْدِى *sürtüldi*] [نَانَكْ] سُرْتُلْدِى *sürtüldi* [*näŋ*] – “narsaning po‘sti archildi”. Bu ishni boshqa birov qilsa ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir.

[سُرْتُلْدِى *sürtüldi*] تَرِيكَا يَاغ سُرْتُلْدِى *terikä yaγ sürtüldi* – “teri va boshqa narsalarga yog‘ surtildi” (سُرْتُلُورْ *sürtülür*, سُرْتُلْمَاكْ *sürtülmäk*).

[سَنْجِلْدِى *sančïldï*] بِجَاكْ تَامْقَا سَنْجِلْدِى *pičäk tamqa sančïldï* – “pichoq devorga va boshqa yerlarga sanchildi”.

[سَنْجِلْدِى *sančïldï*] سُو سَنْجِلْدِى *sü sančïldï* – “qo‘shin yengildi”. Bu so‘zning asli اَرْكَا بِجَاكْ سَنْجِلْدِى *erkä pičäk sančïldï* (“kishiga pichoq sanchildi, urildi”)dan olingan (سَنْجِلُورْ *sančïlur*, سَنْجِلْمَاقْ *sančïlmaq*).

[سُبْرُلْدِى *süprüldi*] اَڤْ سُبْرُلْدِى *ew süprüldi* – “uy supurildi”. Birovga g‘azab qilinganda, سُبْرُكْ *süprüg* deyiladi, ya’ni “supurindi, axlat supurilgani singari sen ham ket” demakdir (سُبْرُلُرْ *süprülür*, سُبْرُلْمَاكْ *süprülmäk*).

[سِدْرِلْدِی ***sïðrïldï***] بَلِقْ اَلِکْدِنْ سِدْرِلْدِی ***balïq eligdin sïðrïldï*** – “baliq qo‘ldan sirg‘alib chiqib ketdi”. Har bir silliq narsa qo‘l va boshqa narsalardan sirg‘alib chiqishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[سِدْرِلْدِی ***sïðrïldï***] يُولْ سِدْرِلْدِی ***yol sïðrïldï*** – “yo‘lning hamma burchaklariga qaraldi” demakdir.

[سِدْرِلْدِی ***sïðrïldï***] اَرْ تَامْدِنْ سِدْرِلْدِی ***er tamdïn sïðrïldï*** – “kishi devor va boshqa joydan sidirilib tushdi” (سِدْرِلْمَاقْ ***sïðrïlmaq***, سِدْرِلْوُرْ ***sïðrïlur***).

[سَقْرُلْدِی ***sawruldï***] سُوقْ سَقْرُلْدِی ***suw sawruldï*** – “suv to‘lqinlanib, ko‘pirib mavjlandi”. Qaynab toshayotgan sho‘rvadan cho‘michga olib kamaytirilib, qaynog‘ini pasaytirish uchun cho‘michdagini qozonga qaytarib quyishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[سَقْرُلْدِی ***sawruldï***] تَرِغْ سَقْرُلْدِی ***tarïγ sawruldï*** deyiladi, “tariq sovrildi, yelpib tozalandi”.

[سَقْرُلْدِی ***sawruldï***] يَاشْ کُوزْدِنْ سَقْرُلْدِی ***yaš közdin sawruldï*** – “yosh ko‘zdan to‘kildi”.

(Shoir) shunday degan:

تُنْ کُنْ تُرُبْ يِغْلَيُو ***Tün-kün turup yïγlayu,***
يَاشِمْ مَنِکْ سَقْرُلُورْ ***Yašïm menïŋ sawrulur.***

Aytmoqdaki: “Tun-u kun tinimsiz yig‘layman, ko‘z yoshlarim sovriladi” (سَقْرُلْمَاقْ ***sawrulmaq***, سَقْرُلُورْ ***sawrulur***).

[سِغْزَلْدِی ***sïγzaldï***] بِيرْ نَانَکْ بِيرْکَا سِغْزَلْدِی ***bir näŋ birkä*** (192a) ***sïγzaldï*** – “bir narsa bir narsa ichiga mashaqqat bilan sig‘dirildi”. Masalan, ketmon, bel dastasiga mix kirib, uni ketmon va belga suqish qiyin bo‘lishi yoki itni bo‘yincha orasiga kirgizish mashaqqat bo‘lgani kabi (سِغْزَلُورْ ***sïγzalur***, سِغْزَلْمَاقْ ***sïγzalmaq***).

[سَتْغَلْدِی ***satγaldï***] اَرْ بُيْنِی سَتْغَلْدِی ***er boynï satγaldï*** – “kishi va boshqalarning bo‘yni qiyinchilik bilan qutqazildi”. Qarz o‘z qiymatiga baravar narsa bilan ado etilishi, qaytarilishiga ham سَتْغَلْدِی ***satγaldï*** deyiladi (سَتْغَلُورْ ***satγalur***, سَتْغَلْمَاقْ ***satγalmaq***).

[سِتْغَلْدِی ***sïtγaldï***] يِنَکْ سِتْغَلْدِی ***yeŋ sïtγaldï*** – “yeng shimarildi” (سِتْغَلْرْ ***sïtγalur***, سِتْغَلْمَاقْ ***sïtγalmaq***).

[سِرْمَلْدِی / سَرْمَلْدِی ***sarmaldï*** / ***sïrmaldï***] بَلِقْ سَرْمَلْدِی / سِرْمَلْدِی ***balïq sarmaldï*** / ***sïrmaldï*** – “baliq suvdan suzib olinganday chiqarildi”.

[سِرْمَلْدِی / سَرْمَلْدِی ***sarmaldï*** / ***sïrmaldï***] تُتْمَاجْ سَرْمَلْدِی / سِرْمَلْدِی ***tutmač sarmaldï*** / ***sïrmaldï*** – “tutmoch qozondan suzib olindi”. Boshqa narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَرْمَلُورْ ***sarmalur***, سَرْمَلْمَاقْ ***sarmalmaq***).

[سَرْمَلْدِی ***sarmaldï***] اَنِکْ تُونِی بَشِنْکَا سَرْمَلْدِی ***anïŋ tonï bašïŋa sarmaldï*** – “uning kiyimi boshiga o‘raldi” (سَرْمَلُورْ ***sarmalur***, سَرْمَلْمَاقْ ***sarmalmaq***). Boshqa narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu o‘timsiz fe’ldir.

[قُرْتُلْدِى ***qurtuldï***] اُرَاغُتْ قُرْتُلْدِى ***uraγut qurtuldï*** – “xotin bo‘shaldi (bola tug‘di)”.

[قُرْتُلْدِى ***qurtuldï***] اَرْ اَمْكَاكْتِنْ قُرْتُلْدِى ***er emgäktin qurtuldï*** – “kishi qiyinchilikdan qutildi”. (Shoir) shunday degan:

اُدْلَكْ يَرَغْ كُزَتّى	***Öδläk yaraγ küzätti,***
اُغْرِى تُزَقْ اُزُتّى	***Oγrï tuzaq uzuttï.***
بَكْ لَارْ بَكِنْ اَزِتّى	***Beglär begin azïttï,***
قَجْسَا قَلِى قُرْتُلُورْ	***Qačsa qalï qurtulur.***

Aytmoqdaki: “Zamona fursat kutdi, beklar begini xo‘rlash uchun yashirin tuzoq qo‘ydi, undan bek qanday qilib qochib qutuladi? Bu yerda “beklar begi” deganda اَفْرَسِيَابْ *Afrasiyāb* nazarda tutiladi” (قُرْتُلُورْ ***qurtulur***, قُرْتُلْمَاقْ ***qurtulmaq***). Buning قُتُلْدِى ***qutuldï*** shakli ham bor.

[قَرْتَلْدِى ***qartaldï***] اَنِكْ قَرْتِى قَرْتَلْدِى ***anïŋ qartï qartaldï*** – “uning yarasi qaytaladi” (قَرْتَلُورْ ***qartalur***, قَرْتَلْمَاقْ ***qartalmaq***).

[قِرْجَلْدِى ***qïrčaldï***] اَنِكْ بَشِنكَا تَاشْ قِرْجَلْدِى ***anïŋ bašïŋa taš qïrčaldï*** – “uning boshiga tosh tegib qirib o‘tdi, sidirib yubordi” (قِرْجَلُورْ ***qïrčalur***, قِرْجَلْمَاقْ ***qïrčalmaq***).

[قُتْرُلْدِى ***qutruldï***] سُوقْ اَلْمَادِنْ قُتْرُلْدِى ***suw almadïn qutruldï*** – “suv ko‘vachadan bo‘shatildi”. Har bir suyuq narsaning bo‘shatilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُتْرُلُورْ ***qutrulur***, قُتْرُلْمَاقْ ***qutrulmaq***).

[قَذْرِلْدِى ***qaδrïldï***] اَنِكْ بُويْنِنِى قَذْرِلْدِى ***anïŋ boynïnï qaδrïldï*** – “uning bo‘yni qayrildi”. Birov qayirsa ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir (قَذْرِلُورْ ***qaδrïlur***, قَذْرِلْمَاقْ ***qaδrïlmaq***). (192b)

[قَقْرُلْدِى ***qawruldï***] بُغْدَاىْ قَقْرُلْدِى ***buγday qawruldï*** – “bug‘doy va boshqa narsalar qovurildi”. Bu so‘zning *γayn* li varianti ham bor (قَقْرُلُورْ ***qawrulur***, قَقْرُلْمَاقْ ***qawrulmaq***).

[قُبْزَلْدِى ***qobzaldï***] قُبُزْ قُبْزَلْدِى ***qobuz qobzaldï*** – “qo‘buz chalindi” (قُبْزَالُو ***qobzalu***, قُبْزَلْمَاقْ ***qobzalmaq***). Bu so‘z *sīn* bilan قُبْسَالْدِى ***qobsaldï*** tarzida ham talaffuz etiladi. Bu xilda *zā* ning *sīn* ga almashinishiga misol ko‘p. Chunonchi, كيش ربيز وربيس degandagi kabi.

[اُشَلْدِي تَقْشَلْدِى ***ušaldï-tewšäldï***] اَتْمَاكْ اُشَلْدِي تَقْشَلْدِى ***etmäk ušaldï-tewšäldï*** – “non maydalandi, burdalandi”. Bu iborada asl so‘z اُشَلْدِى ***ušaldï*** dir (تَقْشَلُورْ ***tewšälür***, تَقْشَلْمَاكْ ***tewšälmäk***).

[تَفْشُلْدِى ***tewšüldï***] يِبْ تَفْشُلْدِى ***yïp tewšüldï*** – “ip ko‘p qo‘l tegishi bilan chuvaldi, chigil bo‘ldi”. Boshqa narsalarga ham shu so‘z ishlatiladi (تُقْشَلُورْ ***tüwšälür***, تُقْشَلْمَاكْ ***tüwšälmäk***).

[قُقْشَلْدِى ***quwšaldï***] اُقْ قُقْشَلْدِى ***oq quwšaldï*** – “yarqirasin deya o‘q yog‘och bilan ishqaldi” (قُقْشَلُورْ ***quwšalur***, قُقْشَلْمَاقْ ***quwšalmaq***).

[قَرْغَلْدِى ***qarγaldï***] يَاكْ قَرْغَلْدِى ***yek qarγaldï*** – “shayton va boshqalar la’natlandi” (قَرْغَلُورْ ***qarγalur***, قَرْغَلْمَاقْ ***qarγalmaq***).

[قُرْقُلْدِی ***qorquldï***] اِیشْدِینْ قُرْقُلْدِی ***ïšdïn qorquldï*** – “ishdan qo‘rqildi” (قُرْقُلُورْ ***qorqulur***, قُرْقُلْمَاقْ ***qorqulmaq***).

[قِرْقِلْدِی ***qïrqïldï***] یُونکْ قِرْقِلْدِی ***yuŋ qïrqïldï*** – “qo‘y va boshqa hayvonlar yungi qirqildi” (قِرْقِلْمَاقْ ***qïrqïlmaq***, قِرْقِلُورْ ***qïrqïlur***).

[کَرْتِلْدِی ***kertildi***] یِغَاجْ کَرْتِلْدِی ***yïyač kertildi*** – “yog‘och va boshqa narsalar kertildi”.

[کَرْتِلْدِی ***kertildi***] قُلْ بُیْنِی کَرْتِلْدِی ***qul boynï kertildi*** – “qul kamsitildi”. Bu so‘z asosan, “kesmak” ma’nosida bo‘lsa ham, bu yerda “xo‘rlamoq” ma’nosidadir (کَرْتِلُورْ ***kertilür***, کَرْتِلْمَاکْ ***kertilmäk***).

[کَذْرُلْدِی ***keðrüldi***] تُونْ کَذْرُلْدِی ***ton keðrüldi*** – “kiyim va boshqa narsalar kiyildi” (کَذْرُلُورْ ***keðrülür***, کَذْرُلْمَاکْ ***keðrülmäk***).

[کَذْرِلْدِی ***keðrildi***] قُویْ کَذْرِلْدِی ***qoy keðrildi*** – “qo‘y (go‘shti) quritildi” (کَذْرِلُورْ ***keðrilür***, کَذْرِلْمَاکْ ***keðrilmäk***).

[کِگْرُلْدِی ***kigrüldi***] تَقَرْ اَقکَا کِگْرُلْدِی ***tawar ewkä kigrüldi*** – “mol va boshqa narsalar uyga kirgizildi” (کِگْرُلُورْ ***kigrülür***, کِگْرُولْمَاکْ ***kigrülmäk***).

Bu bo‘lim ikki xildir: 1) uch harfli so‘z majhul fe’l bo‘ladi. Chunonchi, یَرْمَاقْ تَرْتِلْدِی ***yarmaq tartïldï*** (193a) – “tanga (tarozida) tortildi”; اِیشْ اُرْتُلْدِي ***ïš örtüldi*** – “ish noaniq bo‘ldi, pardalandi”. Bu xil fe’lda *lām* bilan *nūn* aralash qo‘llanadi; 2) shu shakldagi fe’l bu ma’noni anglatmay, o‘z ma’nosida keladi. Chunonchi, قُرْتُلْدِی ***qurtuldï*** – “qutildi”; سَرْمَلْدِی ***sarmaldï*** – “o‘raldi”.

ن ***n*** [harfi]:

[بَرْتِنْدِی ***bertindi***] اَلِکْ بَرْتِنْدِی ***elig bertindi*** – “qo‘l to‘qinishdan yoki bosilib qolganidan zarbaga uchradi. Unda zaiflik paydo bo‘ldi, futur yetdi” (بَرْتِنُورْ ***bertinür***, بَرْتِنْمَاکْ ***bertinmäk***).

[بُرْلَنْدِی ***pürländi***] یِغَاجْ بُرْلَنْدِی ***yïyač pürländi*** – “daraxt kurtak chiqardi”; novda chiqarishiga ham shunday deyiladi (بُرْلَنُورْ ***pürlänür***, بُرْلَنْمَاکْ ***pürlänmäk***).

[بُشْغُنْدِی ***bošγundï***] اَرْ اَلْکِی بُشْغُنْدِی ***er elgi bošγundï*** – “kishi qo‘li bo‘shaldi”. Kishining, ishlolmaydigan bo‘lib qolishiga ham shunday deyiladi. Buning asli بُشُنْدِی ***bošundï*** dir (بُشْغُنُورْ ***bošγunur***, بُشْغُنْمَاقْ ***bošγunmaq***).

[بُلْغَنْدِی ***bulγandï***] سُوقْ بُلْغَنْدِی ***suw bulγandï*** – “suv bulg‘andi, loyqalandi”.

[بُلْغَنْدِی ***bulγandï***] کُنکُلْ بُلْغَنْدِی ***köŋül bulγandï*** – “yoqimsiz narsa yeyishdan ko‘ngil aynidi”. Qayt qilsa ham shu so‘z ishlatiladi.

[بُلْغَنْدِی ***bulγandï***] بَکْ اَنکَرْ بُلْغَنْدِی ***beg aŋar bulγandï*** – “bek unga achchiqlandi, g‘azab qildi”.

[بُلْغَنْدِی ***bulγandï***] اِیلْ بُلْغَنْدِی ***el bulγandï*** – “el tarqaldi” ([بُلْغَنُورْ ***bulγanur***], بُلْغَنْمَاقْ ***bulγanmaq***).

[بَشْلَنْدِی ***bašlandï***] اَرْ اِیشْقَا بَشْلَنْدِی ***er ïšqa bašlandï*** – “kishi ishga boshladi, ishi ko‘rindi”.

[بَشْلَنْدِی ***bašlandï***] قُویْ تَاغْقَا بَشْلَنْدِی ***qoy tayqa bašlandï*** – “qo‘y toqqa haydaldi, surildi”.

[بَشْلَنْدِى ***bašlandï***] تَرِغْ بَشْلَنْدِى ***tarïγ bašlandï*** – “ekin – bug‘doy, arpa, umuman don ekinlari bosh chiqardi” ([بَشْلَنُورْ ***bašlanur***], بَشْلَنْمَاقْ ***bašlanmaq***).

[بَغْلَنْدِى ***baγlandï***] اُتْنَكْ بَغْلَنْدِى ***otuŋ baγlandï*** – “o‘tin bog‘landi”; اُوزِنَكَا اُتْنَكْ بَغْلَنْدِى ***öziŋä otuŋ baγlandï*** – “(kishi) o‘zi uchun o‘tin bog‘ladi” (بَغْلَنُورْ ***baγlanur***, بَغْلَنْمَاقْ ***baγlanmaq***).

[بَغْلَنْدِى ***baγlandï***] قُويْ بَغْلَنْدِى ***qoy baγlandï*** – “qo‘y va boshqa hayvonlar bog‘landi”.

[بُغْلَنْدِى ***boγlandï***] تُونْ بُغْلَنْدِى ***ton boγlandï*** – “kiyim bo‘g‘chaga solinib, taxmonga qo‘yildi” (بُغْلَنُورْ ***boγlanur***, بُغْلَنْمَاقْ ***boγlanmaq***).

[بُغْلَنْدِى ***boγlundï***] اَتْ بُغْلَنْدِى ***at boγlundï*** – “ot va boshqa hayvonlar bo‘g‘ildi” (بُغْلُنُورْ ***boγlunur***, بُغْلُنْمَاقْ ***boγlunmaq***).

[بَكْلَنْدِي ***bekländi***] بَكْلَنْدِي نَانَكْ ***bekländi näŋ*** – “narsa mustahkamlandi”.

[بَكْلَنْدِى ***bekländi***] اَرْ اَقِنْدَا بَكْلَنْدِى ***er ewindä bekländi*** – “kishi uyida turg‘un bo‘lib qoldi”. Qamalsa ham shu so‘z qo‘llanadi.

[بَكْلَنْدِى ***bekländi***] بَكْلَنْدِى نَانَكْ ***bekländi näŋ*** – “narsa saqlandi”. Bu fe’l o‘timli ham o‘timsiz ham bo‘lib keladi (o‘g‘uzcha) (193b) (بَكْلَنُورْ ***beklänür***, بَكْلَنْمَاكْ ***beklänmäk***).

[بَكْلَنْدِى ***begländi***] اُرَغْتْ بَكْلَنْدِى ***uraγut begländi*** – “xotin erga tegdi (begli bo‘ldi)” (بَكْلَنُورْ ***beglänür***, بَكْلَنْمَاكْ ***beglänmäk***).

[بُكْلُنْدِى ***büklündi***] بُكْلُنْدِى نَانَكْ ***büklündi näŋ*** – “narsa ikki qavat qilib buklandi” (بُكْلُنُورْ ***büklünür***, بُكْلُنْمَاكْ ***büklünmäk***).

[بُكْلُنْدِى ***böklündi***] سُوقْ بُكْلُنْدِى ***suw böklündi*** – “suv yig‘ildi, to‘plandi”. Yana سُو بُكْلُنْدِى ***sü böklündi*** – “qo‘shin to‘plandi” (بُكْلُنُورْ ***böklünür***, بُكْلُنْمَاكْ ***böklünmäk***).

[تَلْبِنْدِى ***talpïndï***] قُشْ تَلْبِنْدِى ***quš talpïndï*** – “qush talpindi. Ikki qanotini qoqib, iztirobga tushdi” (تَلْبِنُورْ ***talpïnur***, تَلْبِنْمَاقْ ***talpïnmaq***). Kimsaning iztirobga tushishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[تَرْتِنْدِى ***tartïndï***] اَرْ اُغْلِنكَا تَرْتِنْدِى ***er oγlïŋa tartïndï*** – “kishi o‘g‘liga rahm qildi. Unga qilingan har bir yaxshilik, unga berilgan har bir taom uniki (o‘g‘liniki) bo‘lishini istadi”.

[تَرْتِنْدِى ***tartïndï***] اُلْ اَقَكَا تَرِغْ تَرْتِنْدِى ***ol ewkä tarïγ tartïndï*** – “u uyiga bug‘doy va boshqa narsalar keltirayotgandek ko‘rindi”. Ko‘chmanchilar yerli xalqdan bug‘doy tortib ketishlariga ham shunday deyiladi (تَرْتِنُورْ ***tartïnur***, تَرْتِنْمَاقْ ***tartïnmaq***).

[تُرْتُنْدِى ***türtündi***] اُلْ اُوزِينكَا يَاغْ تُرْتُنْدِى ***ol öziŋä yaγ türtündi*** – “u o‘zi uchun yog‘ surtdi”. Yog‘ surayotgandek ko‘rinishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُرْتُنُورْ ***türtünür***, تُرْتُنْمَاكْ ***türtünmäk***).

[تَبْرَنْدِى ***tebrändi***] تَبْرَنْدِى نَانَكْ ***tebrändi näŋ*** – “narsa tebrandi, harakatlandi” (تَبْرَنُورْ ***tebränür***, تَبْرَنْمَاكْ ***tebränmäk***).

[تُغْرَنْدِى ***toγrandï***] اُلْ اُوزِينكَا اَتْ تُغْرَنْدِى ***ol öziŋä et toγrandï*** – “u o‘ziga go‘sht va boshqa narsalarni to‘g‘rayotganday ko‘rindi” (تُغْرَنُورْ ***toγranur***, تُغْرَنْمَاقْ ***toγranmaq***).

[تَقْرَنْدِى ***tawrandï***] اَرْ تَقْرَنْدِى ***er tawrandï*** – “kishi yurishda shoshilayotgandek ko‘rindi” (تَقْرَنُورْ ***tawranur***, تَقْرَنْمَاقْ ***tawranmaq***).

[تَرْسِنْدِى ***tersindi***] بَكْ اَنـكَرْ تَرْسِنْدِى ***beg anar tersindi*** – “bek unga g‘azab qildi”.

[تَرْسِنْدِى ***tersindi***] يَاشْ تَرْسِنْدِى ***baš tersindi*** – “yara bitgandan keyin yana qaytaladi” (تَرْسِنُورْ ***tersinür***, تَرْسِنْمَاكْ ***tersinmäk***).

[تَقْشِنْدِى ***tewšindi***] اَرْ اِيشْتَا تَلِمْ تَقْشِنْدِى ***er ïšta telim tewšindi*** – “kishi ishda ko‘p harakat qildi” (تَقْشُنُورْ ***tewšünür***, تَقْشُنْمَاكْ ***tewšünmäk***).

[تَتْغَنْدِي ***tatγandï***] اَرْ اَشِغْ تَتْغَنْدِي ***er ašïγ tatγandï*** – “kishi osh bilan lazzatlandi va tilini tanglayiga tegizib lazzat topdi” (تَتْغَنُورْ ***tatγanur***, تَتْغَنْمَاقْ ***tatγanmaq***).

[اُلْنْدِي تُلْغَنْدِى ***ölindi-tolγandï***] اَرْ اُلْنْدِي تُلْغَنْدِى ***er ölindi-tolγandï*** (194a) – “kishi dard og‘rig‘idan azoblandi, bir yoqdan ikkinchi yoqqa ag‘darilib qiynaldi”.

[تُلْغَنْدِى ***tolγandï***] اَرْ اُوزِى تُلْغَنْدِى ***er özi tolγandï*** – “kishining ichi sura boshladi, o‘radi”.

[تُلْغَنْدِى ***tolγandï***] اُلْ اُوزِنـكَا يُونـكْ تُلغَنْدِى ***ol özinä yuŋ tolγandï*** – “u o‘zi uchun yungni yumaloqlab o‘radi” (تُلْغَنُورْ ***tolγanur***, تُلْغَنْمَاقْ ***tolγanmaq***).

[تُرْقِنْدِى ***turqïndï***] اُلْ مَنْدِنْ تُرْقِنْدِى ***ol mendin turqïndï*** – “u mendan uyaldi. Qilmoqchi bo‘lgan ishidan mendan uyalib qaytdi” (تُرْقِنُورْ ***turqïnur***, تُرْقِنْمَاقْ ***turqïnmaq***).

[تَزْكِنْدِى ***tezgindi***] جِغْرِى تَزْكِنْدِى ***čïγrï tezgindi*** – “chig‘iriq va boshqalar aylandi”.

[تَزْكِنْدِى ***tezgindi***] اُلْ يِيرِكْ تَزْكِنْدِى ***ol yerig tezgindi*** – “u yer yuzini aylandi, tavof qildi”. Biror yerni tavof etuvchi kimsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَزْكِنُورْ ***tezginür***, تَزْكِنْمَاكْ ***tezginmäk***).

[بُلْغَنْدِى تَلْكَنْدِى ***bulγandï-telgändi***] اُلْ اَنـكَرْ بُلْغَنْدِى تَلْكَنْدِى ***ol anar bulγandï-telgändi*** – “u unga g‘azab qildi, achchiqlandi”. تَلْكَنْدِى ***telgändi*** ning o‘zi yolg‘iz qo‘llanmaydi, بُلْغَنْدِى ***bulγandï*** bilan birga qo‘shib qo‘llanadi (تَلْكَنُورْ ***telgänür***, تَلْكَنْمَاكْ ***telgänmäk***).

[تُبْلُنْدِى ***tuplundï***] تَامْ تُبْلُنْدِى ***tam tuplundï*** – “devor va boshqa narsalar teshildi” (تُبْلُنُورْ ***tuplunur***, تُبْلُنْمَاقْ ***tuplunmaq***).

[تُبْلَنْدِى ***tüpländi***] يِغَاجْ تُبْلَنْدِى ***yïγač tüpländi*** – “daraxt ildiz otdi”.

[تُبْلَنْدِي ***tüpländi***] اَرْ تُبْلَنْدِي ***er tüpländi*** – “kishi molli bo‘ldi”. Har qanday narsa yashnab ketsa ham shu so‘z qo‘llanadi (تُبْلَنُورْ ***tüplänür***, تُبْلَنْمَاكْ ***tüplänmäk***).

[تِذْلِنْدِي ***tïðlïndï***] اَرْ اِيشْتِنْ تِذْلِنْدِي ***er ïštïn tïðlïndï*** – “kishi ish va boshqa narsadan tiyildi”. So‘zdan to‘xtashga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِذْلِنُورْ ***tïðlïnur***, تِذْلِنْمَاقْ ***tïðlïnmaq***).

[تُشْلَنْدِى ***tüšländi***] اَلْكِنْ تُشْلَنْدِى ***elkin tüšländi*** – “musofir, yo‘lovchi qo‘ndi, uxlab, so‘ng yo‘lga tushmoq uchun qo‘ndi” (تُشْلَنُورْ ***tüšlänür***, تُشْلَنْمَاكْ ***tüšlänmäk***).

[تَرْلَنْدِى ***terländi***] اَتْ تَرْلَنْدِى ***at terländi*** – “ot va boshqalar terladi” (تَرْلَنُورْ ***terlänür***, تَرْلَنْمَاكْ ***terlänmäk***).

[تُرْلُنْدِى ***türlündi***] تُرْلُنْدِى نَانـكْ ***türlündi näŋ*** – “narsa to‘plandi” (تُرْلُنُور ***türlünür***, تُرْلُنْمَاكْ ***türlünmäk***).

(Bilimli) shunday degan:

اِدِمْنِی اُکَرْمَنْ *İδimni ögär-men,*
بِلِکْنِی یُکَرْمَنْ *Biligni yügär-men.*
کُنکُلْنِی تُکَرْمَنْ *Köŋülni tügär-men,*
اَرْدَمْ اُوزَا تُرْلُنُورْ *Erdäm üzä türlünür.*

Aytmoqdaki: “Xudoyimni alqayman, uning yordami bilan ilmni to‘playman, ko‘ngilni shunga bog‘layman, ilm-u hunar to‘plashga ko‘nglim berilgan”.

[تُزْلُنْدِی *tüzlündi*] تُزْلُنْدِی یِیرْ *tüzlündi yer* – “yer va boshqa joylar tekislandi”; (194b) تُزْلْدِی *tüzüldi* shakli ham bor.

[تُزْلُنْدِی *tüzlündi*] اِیشْ تُزْلُنْدِی *iš tüzlündi* – “ish va boshqalar tuzaldi, to‘g‘rilandi” (تُزْلُنُورْ *tüzlünür*, تُزْلُنْمَاکْ *tüzlünmäk*).

[تُزْلَنْدِی *tuzlandï*] اَتْ تُزْلَنْدِی *et tuzlandï* – “go‘sht va boshqa narsalar tuzlandi” (تُزْلَنُورْ *tuzlanur*, تُزْلَنْمَاقْ *tuzlanmaq*).

[تِزْلِنْدِی *tizlindi*] یِنْجُو تِزْلِنْدِی *yinčü tizlindi* – “inju va boshqa narsalar tizildi” (تِزْلِنُورْ *tizlinür*, تِزْلِنْمَاکْ *tizlinmäk*).

[تُشْلَنْدِی *tušlandï*] یِیرْ نَانکْ یِیرْکَا تُشْلَنْدِی *bir näŋ birkä tušlandï* – “bir narsa bir narsaga yuzma-yuz keldi, qarshilashdi” (تُشْلَنُورْ *tušlanur*, تُشْلَنْمَاقْ *tušlanmaq*).

[تِشْلَنْدِی *tišländi*] اُغْلَانْ تِشْلَنْدِی *oγlan tišländi* – “bolaning tishi chiqdi”.

[تِشْلَنْدِی *tišländi*] اُرْغَاقْ تِشْلَنْدِی *oryaq tišländi* – “o‘roqning tishi o‘tkir qilindi” (تِشْلَنُورْ *tišlänür*, تِشْلَنْمَاکْ *tišlänmäk*).

[تُکْلُنْدِی *tüglündi*] سُوقْ بُغَزْدَا تُکْلُنْدِی *suw boγazda tüglündi* – “suv tomoqqa tiqildi, shu bilan kishi bo‘g‘ildi”.

[تُکْلُنْدِی *tüglündi*] یِپْ تُکْلُنْدِی *yïp tüglündi* – “ip va boshqa narsalar tugun bo‘lib qoldi” (تُکْلُنُورْ *tüglünür*, تُکْلُنْمَاکْ *tüglünmäk)*.

[تُکْلُنْدِی *töklündi*] سُوقْ تُکْلُنْدِی *suw töklündi* – “suv to‘kildi” (تُکْلُنُورْ *töklünür*, تُکْلُنْمَاکْ *töklünmäk*).

[تِکْلِنْدِی *tiklindi*] یِغَاجْ تِکْلِنْدِی *yïγač tiklindi* – “daraxt va boshqalar tikildi, ekildi” (تِکْلِنُورْ *tiklinür*, تِکْلِنْمَاکْ *tiklinmäk*).

[جِرْلَنْدِی / جَرْلَنْدِی *čerländi*] جِرْلَنْدِی / جَرْلَنْدِی اَرْ اُوزِی *er özi čerländi* – “kishi kasal bo‘ldi, tanasi og‘irlashdi” (جِرْلَنُورْ *čerlänür*, جِرْلَنْمَاکْ *čerlänmäk*).

[جَرْلَنْدِی *čerländi*] اَیکْ کُوزِی جَرْلَنْدِی *anïŋ közi čerländi* – “uning ko‘zi og‘ridi”.

[جُرْلَنْدِي *čürländi*] اُلْ اَنْدِنْ نَانکْ جُرْلَنْدِي *ol andïn näŋ čürländi* – “u undan manfaat ko‘rdi” (جُرْلَنُورْ *čürlänür*, جُرْلَنْمَاکْ *čürlänmäk*).

[جُغْلَنْدِی *čoγlandï*] اُوتْ جُغْلَنْدِی *ot čoγlandï* – “o‘t yallig‘landi”. Kun yallig‘-lanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (جُو غْلَنُورْ *čoγlanur*, جُوغْلَنْمَاقْ *čoγlanmaq*).

[جُغْلَنْدِی *čuγlandï*] سُو قَمُغْ جُغْلَنْدِی *sü qamuγ čuγlandï* – “qo‘shin hammasi to‘dalari bilan kelishdi”. To‘plangan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (جُغْلَنُورْ *čuγlanur*, جُغْلَنْمَاقْ *čuγlanmaq*).

[جَغْلَنْدِی *čaγlandï*] اَتْ جَغْلَنْدِی *et čaγlandï* – “go‘sht chala pishdi”.

[جَقْلَنْدِی *čawlandï*] اَرْ جَقْلَنْدِی *er čawlandï* – “kishi shuhrat qozondi” (جَقْلَنُورْ *čawlanur*, جَقْلَنْمَاقْ *čawlanmaq*).

[سُرْتُنْدِی ***sürtündi***] اَتْ يِغَاجْ قَا سُرْتُنْدِی ***at yïyačqa*** (195a) ***sürtündi*** – “ot daraxtga va boshqa narsalarga surtindi, qashindi”.

[سُرْتُنْدِی ***sürtündi***] اَرْ اُزِنكَا يَاغ سُرْتُنْدِی ***er öziŋä yaγ sürtündi*** – “kishi o‘ziga yog‘ surtmoq istadi”. Biror kimsa biror narsa surtayotganday ko‘rinsa ham shu so‘z qo‘llanadi (سُرْتُنُورْ ***sürtünür***, سُرْتُنْمَاكْ ***sürtünmäk***).

[سِتْغَنْدِي ***sïtγandï***] اَرْ سِتْغَنْدِي ***er sïtγandï*** – “kishi yeng shimardi, etak shimardi”. Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir (سِتْغَنُورْ ***sïtγanur***, سِتْغَنْمَاقْ ***sïtγanmaq***).

[سِلْكِنْدِی ***silkindi***] اَرْ تُونِنْ سِلْكِنْدِی ***er tonïn silkindi*** – “kishi kiyimini silkitmoqchi bo‘ldi”.

[سِلْكِنْدِی ***silkindi***] اَرْ سِلْكِنْدِی ***er silkindi*** – “kishining tuklari hurpaydi”.

[سِلْكِنْدِی ***silkindi***] تَفَّیْ سِلْكِنْدِی ***tewäy silkindi*** – “tuya silkindi”. Maqolda (shunday kelgan): تَفَّیْ سِلْكِنْسَا اَشَاكْ كَا يُوكْ جِقَارْ ***Tewäy silkinsä, ešäkkä yük čïqar.*** Ma’nosi: “Tuya silkinsa, undan bir eshakning yuki chiqadi”. Bu maqol kichik ishni tashlab, katta ishga kirishishga undab aytiladi (سِلْكِنُورْ ***silkinür***, سِلْكِنْمَاكْ ***silkinmäk***).

[سَجْلَنْدِی ***sačlandï***] اَرْ سَجْلَنْدِی ***er sačlandï*** – “kishining sochi o‘sdi” (سَجْلَنُورْ ***sačlanur***, سَجْلَنْمَاقْ ***sačlanmaq***).

[سُجْلُنْدِی ***sučlundï***] قِلِجْ قِينْدِنْ سُجْلُنْدِی ***qïlïč qïndïn sučlundï*** – “qilich qindan sug‘urildi”. O‘rnidan sug‘urilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُجْلُنُورْ ***sučlunur***, سُجْلُنْمَاقْ ***sučlunmaq***).

[سَرْلَنْدِی ***sarlandï***] اَرْ سُقْلُقْ سَرْلَنْدِی ***er suwluq sarlandï*** – “kishi salla o‘radi”.

[سَرْلَنْدِی ***sarlandï***] اَرْ يُرْكَانْجُو سَرْلَنْدِی ***er yörgänčü sarlandï*** – “kishi oyog‘iga paytava o‘radi”.

[سَرْلَنْدِی ***sarlandï***]يِبْ يِغَاجْ قَا سَرْلَنْدِی ***yïp yïyačqa sarlandï*** – “ip daraxtga o‘raldi”. Bu fe’l o‘timli ham, o‘timsiz ham bo‘lib keladi (سَرْلَنُورْ ***sarlanur***, سَرْلَنْمَاقْ ***sarlanmaq***).

[سَرْلَنْدِی ***sarlandï***] اَرْ اِيشْقَا سَرْلَنْدِی ***er ïšqa sarlandï*** – “kishi ishga hozirlandi”.

[سِرْلَنْدِی ***sïrlandï***] اَيَاقْ سِرْلَنْدِی ***ayaq sïrlandï*** – “naqshlash uchun idish sirlandi” (سِرْلَنُورْ ***sïrlanur***, سِرْلَنْمَاقْ ***sïrlanmaq***).

[سُزْلَنْدِی ***sözländi***] اُلْ سُوزِنْ مَنكَا سُزْلَنْدِی ***ol sözin meŋä sözländi*** – “u so‘zini menga so‘zladi, ba’zi so‘zlarni bayon qildi” (سُزْلَنُورْ ***sözlänür***, سُزْلَنْمَاكْ ***sözlänmäk***).

[سُزْلُنْدِی ***süzlündi***] سُوفْ سُزْلُنْدِی ***suw süzlündi*** – “suv va boshqalar suzilib tozalandi”. (سُزْلُنُورْ ***süzlünür***, سُزْلُنْمَاكْ ***süzlünmäk***).

[سَشْلِنْدِی ***sešlindi***] اَتْ سَشْلِنْدِی ***at sešlindi*** – “ot va boshqa hayvonlar bog‘idan bo‘shaldi, yechilib ketdi” (سَشْلِنُورْ ***sešlinür***, سَشْلِنْمَاكْ ***sešlinmäk***). (195b)

[سُقْلَنْدِی ***suwlandï***] سُقْلَنْدِی نَانكْ ***suwlandï näŋ*** – “narsa suvli bo‘ldi, suvi ko‘paydi”. Mevaning suvi ko‘payishidan yumshashi, yarada sariq suv paydo bo‘lishi kabi (سُقْلَنُورْ ***suwlanur***, سُقْلَنْمَاقْ ***suwlanmaq***).

[سُقْلَنْدِی ***suwlandï***] اَيِكْ كُوزِی سُقْلَنْدِی ***aniŋ közi suwlandï*** – “uning ko‘zi suvlandi, ko‘z yoshi oqdi”.

[سَقْلَنْدِى *saqlandï*] اُلْ مِنْدِنْ سَقْلَنْدِى *ol mendin saqlandï* – “u mendan saqlandi, o‘zini chetlatdi” (سَقْلَنُورْ *saqlanur*, سَقْلَنْمَاقْ *saqlanmaq*).

[سُقْلُنْدِي *suqlundï*] اَنِڭْ اَذَاقِى اُوتْكَا سُقْلُنْدِي *anïŋ aδaqï ötkä suqlundï* – “uning oyog‘i chuqurga tiqildi”. Bir narsaga kirib, qattiq joylashib qolgan har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُقْلُنُورْ *suqlunur*, سُقْلُنْمَاقْ *suqlunmaq*).

[سُكْلُنْدِى *söglündi*] اَتْ سُكْلُنْدِى *et söglündi* – “go‘sht qovurildi, kabob qilindi”; اُلْ اُوزِنكَا اَتْ سُكْلُنْدِى *ol özinä et söglündi* – “u o‘zi uchun go‘sht pishirish, kabob qilishni istadi” (سُكْلُنُورْ *söglünür*, سُكْلُنْمَاكْ *söglünmäk*).

[سَتْلَنْدِى *satlandï*] اُلْ بُو اِيشْقَا سَتْلَنْدِى *ol bu išqa satlandï* – “u bu ishga botindi, jur’atlandi” (chigilcha) (سَتْلَنُورْ *satlanur*, سَتْلَنْمَاقْ *satlanmaq*).

[قَرْتَنْدِى *qartandï*] اَرْ قَرْتِنْ قَرْتَنْدِى *er qartïn qartandï* – “er yarasini davoladi”. “O‘z yarangga chora ko‘r, emla” ma’nosida: اُوزْ قَرْتِنكْ قَرْتَنْ *öz qartïŋ qartan* deyiladi. Bu iboradan “o‘z haddingdan oshma” degan ma’no kutiladi (قَرْتَنُورْ *qartanur*, قَرْتَنْمَاقْ *qartanmaq*).

[قُرْتَنْدِى *qurtandï*] كُنكْ قُرْتَنْدِى *küŋ qurtandï* – “joriya kanadan, bitdan va boshqa narsalardan qichindi”. Buning asli “qo‘ydan qurt axtarish”dan kelib chiqqan (قُرْتَنُورْ *qurtanur*, قُرْتَنْمَاقْ *qurtanmaq*).

[قَقْدُنْدِى *qawdundï*] اَرْ اُغْلِنكَا قَقْدُنْدِى *er oγlïŋa qawdundï* – “kishi o‘g‘liga qayishdi, yon bosdi” (قَقْدِنُورْ *qawdïnur*, قَقْدِنْمَاقْ *qawdïnmaq*).

[قَتْرُنْدِى *qatrundï*] كُلَارْ اَرْ قَتْرُنْدِى *külär er qatrundï* – “kuladigan kishi tiyildi, to‘xtadi”.

Bu so‘zning asli “bir ishda bo‘ysunmaslik”dan kelib chiqqan. Chunonchi, اُلْ مَنكَا يَرْمَاقْ بِيرُرْ اَرْكَانْ قَتْرُنْدِى *ol meŋä yarmaq berür erkän, qatrundï* – “ul menga tanga va boshqa narsalar berar ekan, tiyindi, bermay qo‘ydi” (قَتْرُنُورْ *qatrunur*, قَتْرُنْمَاقْ *qatrunmaq*).

[قَدْرَنْدِى *qaδrandï*] بَكْ اَنكَارْ قَدْرَنْدِى *beg aŋar qaδrandï* (196a) – “bek unga g‘azabini sochdi, u bilan bekning xulqi, fe’li siqildi – tang bo‘ldi, yomonlashdi” (قَدْرَنُورْ *qadranur*, قَدْرَنْمَاقْ *qadranmaq*).

[قُرْشَنْدِى *quršandï*] اَرْ قُورِنْ قُرْشَنْدِى *er qurïn quršandï* – “er belbog‘ini bog‘ladi” (قُرْشَنُورْ *quršanur*, قُرْشَنْمَاقْ *quršanmaq*).

[قَرْغَنْدِى *qarγandï*] اَرْ اُوزِنْ قَرْغَنْدِى *er özin qarγandï* – “kishi o‘zida paydo bo‘lgan bir pushaymonlik munosabati bilan o‘zini qarg‘adi” (قَرْغَنُورْ *qarγanur*, قَرْغَنْمَاقْ *qarγanmaq*).

[قَزْغَنْدِى *qazγandï*] اَرْ تَوَارْ قَزْغَنْدِى *er tavar qazγandï* – “kishi mol qozondi”) قَزْغَنُورْ *qazγanur*, قَزْغَنْمَاقْ *qazγanmaq*).

(Shoir) shunday degan:

بَقْمَسْ بُدُنْ سَوْكْ سُزْ *Baqmas bodun sewügsüz,*
يُدْقِى يُذِى سَرَنْقَا *Yudqï yuδï saranqa.*
قَزْغَنْ اِلِجْ تُزْنْلُكْ *Qazγan ulïč tüzünlüg,*
قَلْسُنْ جَقْنِكْ يَرِنْقَا *Qalsun čawïŋ yarïnqa.*

O‘g‘liga nasihat qilib aytmoqda: “Kishilar baxil, yuzsiz, shilqim odamlarni sevmaydilar. Ey o‘g‘lim, olijanob bo‘lishga tirish, noming (shuhrating) ertaga (o‘zingdan keyin) qolsin”.

[قِسْغَنْدِى *qïsγandï*] اَرْ تَقَارِنْ قِسْغَنْدِى *er tawarïn qïsγandï* – “kishi molini xarjlashdan qizg‘andi”. Boshqa narsalarga ham shu so‘z ishlatiladi (قِسْغَنُورْ *qïsγanur*, قِسْغَنْمَاقْ *qïsγanmaq*).

[قَرْفَنْدِى *qarwandï*] اُلْ يَنْجِقْ اِجْرَا يَرْمَاقْ قَرْفَنْدِى *ol yančïq ičrä yarmaq qarwandï* – “u yonchig‘i, to‘rvasi, hamyonidan tanga qidirdi”; biror narsani qidirib axtargan har kimsaga ham shu so‘z qo‘llanadi, قَرْفَنْدِى *qarwandï* deyiladi (قَرْ فَنُورْ *qarwanur*, قَرْفَنْمَاقْ *qarwanmaq*).

[قُرْقِنْدِى / قُرْقُنْدِى *qorqundï* / *qorqïndï*] اَرْ اِيشْدِنْ قُرْقُنْدِى / قُرْقِنْدِى *er ïšdïn qorqundï* / *qorqïndï* – “kishi ishdan qo‘rqinqiradi. Kishida qo‘rquv hissi paydo bo‘ldi, lekin uni ko‘nglida yashirdi” (قُرْقُنُورْ / قُرْقِنُورْ *qorqunur* / *qorqïnur*, قُرْقُنْمَاقْ / قُرْقِنْمَاقْ *qorqunmaq* / *qorqïnmaq*).

[قُرْلَنْدِى *qurlandï*] اَرْ تَقَارِنكَا قُرْلَنْدِى *er tawarïŋa qurlandï* – “kishi narsasiga achindi, narsasining yo‘qolganiga xafa boldi, buni o‘ziga ziyon sanadi” (قُرْلَنُورْ *qurlanur*, قُرْلَنْمَاقْ *qurlanmaq*). Bu so‘zning asli *vāv* harfi bilan قُورْلَنْدِى *qurlandï* dir.

[قُرْلَنْدِى *qurlandï*] يُغْرُتْ قُرْلَنْدِى *yoγrut qurlandï* – “qatiq quyuqlandi, suzma bo‘ldi”.

[قِرْلَنْدِى *qïrlandï*] يِيرْ قِرْلَنْدِى *yer qïrlandï* – “yerda yoriqlar paydo bo‘ldi” (قِرْلَنُورْ *qïrlanur*, قِرْلَنْمَاقْ *qïrlanmaq*).

[قِزْلَنْدِى *qïzlandï*] اُلْ بُو اَتغْ قِزْلَنْدِى *ol bu atïγ qïzlandï* – “u bu otni va boshqa narsalarni qimmatbaho sanadi”.

[قِزْلَنْدِى *qïzlandï*] اُلْ اَنِى قِزْلَنْدِى *ol anï qïzlandï* – “u uni qiz qilib oldi” (قِزْلَنُورْ *qïzlanur*, قِزْلَنْمَاقْ *qïzlanmaq*).

[قَزْلِنْدِى *qazlïndï*] يِيرْ قَزْلِنْدِى *yer qazlïndï* – “yer qazildi va chuqur paydo bo‘ldi” (قَزْلِنُورْ *qazlïnur*, قَزْلِنْمَاقْ *qazlïnmaq*). (196b)

[قِسْلِنْدِى *qïslïndï*] قِسْلِنْدِى نَانكْ *qïslïndï näŋ* – “narsa qisildi, ikki narsa orasida siqildi”. Masalan, uzangi qayishi yoki eshik orasida qolgan oyoq kabi (قِسْلِنُورْ *qïslïnur*, قِسْلِنْمَاقْ *qïslïnmaq*).

[قُشْلُنْدِى *qošlundï*] قُشْلُنْدِى اِيكّى نَانكْ *ikki näŋ qošlundï* – “ikki narsa yaqinlashdi, tenglashdi” (قُشْلُنُورْ *qošlunur*, قُشْلُنْمَاقْ *qošlunmaq*).

[قُشْلَنْدِى *qošlandï*] اَرْ اُزِنكَا اَتْ قُشْلَنْدِى *er öziŋä at qošlandï* – “kishi o‘ziga ikkinchi ot qo‘shdi” (قُشْلَنُورْ *qošlanur*, قُشْلَنْمَاقْ *qošlanmaq*).

[قَقْلَنْدِى *qaqlandï*] اَتْ قَقْلَنْدِى *et qaqlandï* – “go‘sht qoqlandi, go‘sht quritilib, qoq go‘sht qilindi”.

[قَقْلَنْدِى *qaqlandï*] سُوقْ قَقْلَنْدِى *suw qaqlandï* – “suv yig‘ilib, sahrolarda halqob bo‘lib ko‘llarga aylandi” (قَقْلَنُورْ *qaqlanur*, قَقْلَنْمَاقْ *qaqlanmaq*).

[كَفْشَنْدِى *käwšändi*] تَفْىْ كَفْشَنْدِى *teway käwšändi* – “tuya va boshqa hayvonlar kavshandi” (كَفْشَنُورْ *käwšänür*, كَفْشَنْمَاكْ *käwšänmäk*).

[كُچْلَنْدِى *kučländi*] اَرْ كُچْلَنْدِى *er kučländi* – “kishi va boshqalar kuchlandi” (كُچْلَنُوْرْ *kučlänür*, كُچْلَنْمَاكْ *kučlänmäk*).

[كُرْلَنْدِى *kürländi*] كُوكْ كُرْلَنْدِى *kök kürländi* – “ko‘k gulduradi”.

[كِرْلَنْدِى *kirländi*] تُونْ كِرْلَنْدِى *ton kirländi* – “kiyim va boshqa narsalar kir bo‘ldi” (كِرْلَنُوْرْ *kirlänür*, كِرْلَنْمَاكْ *kirlänmäk*).

[كِرْلَنْدِى *kirländi*] كُوزْ كِرْلَنْدِى *köz kirländi* – “ko‘z yumildi”.

[كَزْلَنْدِى *kezländi*] اُقْ كَزْلَنْدِى *oq kezländi* – “o‘q yuqorilandi”.

[كَزْلَنْدِى *kezländi*] اَشِجْ كَزْلَنْدِى *ešič kezländi* – “qozon tagiga oldi” (كَزْلَنُوْرْ *kezlänür*, كَزْلَنْمَاكْ *kezlänmäk*).

[كِزْلَنْدِي *kizländi*] اُلْ تَقَّارِنْ كِزْلَنْدِي *ol tawarïn kizländi* – “u tavarini yashirgandek bo‘ldi”. Yashirishga harakat qilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (كِزْلَنُوْرْ *kizlänür*, كِزْلَنْمَاكْ *kizlänmäk*).

[كَسْلِنْدِى *keslindi*] كَسْلِنْدِى نَانكْ *keslindi näŋ* – “narsa kesildi” (كَسْلِنُوْرْ *keslinür*, كَسْلِنْمَاكْ *keslinmäk*).

[كُكْلَنْدِى *kökländi*] اَدَرْ كُكْلَنْدِى *eδär kökländi* – “egar (chilvir bilan) bog‘landi”.

[كُكْلَنْدِى *kökländi*] اَرْ كُكْلَنْدِى *er kökländi* – “kishi ulug‘, sharafli bo‘ldi”. Moldor bo‘lishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (كُكْلَنُوْرْ *köklänür*, كُكْلَنْمَاكْ *köklänmäk*).

[كُكْلَنْدِى *kögländi*] يُوزِى اَنِكْ كُكْلَنْدِى *yüzi anïŋ kögländi* – “uning yuzida qayg‘u paydo bo‘ldi, qayg‘uli ko‘rindi”.

[كُكْلَنْدِى *kügländi*] اَرْ كُكْلَنْدِى *er kügländi* – “kishi ashula aytdi” (كُكْلَنُوْرْ *küglänür*, كُكْلَنْمَاكْ *küglänmäk*). (197a) Asli كُوكْلَنْدِى dir.

[كَمْلَنْدِى *kemländi*] اَتْ كَمْلَنْدِى *at kemländi* – “ot va boshqa hayvonlar kasalladi”. Aslida bu so‘z otga nisbatangina qo‘llanadi (كَمْلَنُوْرْ *kemlänür*, كَمْلَنْمَاكْ *kemlänmäk*).

Bu fasl to‘rt xildir:

Birinchi, atalgan so‘zning egasi ma’nosida bo‘ladi. Chunonchi, اُرَغْتْ بَكْلَنْدِى *uraγut begländi* – “xotin erli bo‘ldi; erga tegdi”; اَرْ اَنِى قِزْلَنْدِى *er anï qïzlandï* – “kishi uni qiz qilib asradi, qiz qilib oldi”.

Ikkinchi, ikki harfli otdan tuzilgan yasama fe’l bo‘ladi. Chunonchi, اَرْ اَتْلَنْدِى *er atlandï* – “er otga mindi”; اَتْ تَرْلَنْدِى *at terländï* – “ot va boshqa hayvonlar terladi” kabi.

Uchinchi, ishlovchi shu fe’lni o‘zi uchun ishlashini, chunonchi, bajarishni o‘z ustiga olgaganini bildiradi: اَرْ اُوزِنكَا يَمِشْ اَقدِنْدِى *er öziŋä yemiš ewdindi* – “kishi o‘zi uchun meva to‘plashni istadi, meva to‘plashga kirishdi”. Yana: اُلْ اُوزِنكَا اَتْ سُكْلُنْدِى *ol öziŋä et sögülündi* – “uning o‘zi boshqa birovning yordamisiz go‘shtni kabob qildi”. To‘rt harfli ism va fe’llar bu bobda tarkibida yo‘g‘on harfi bo‘lgan to‘rt harfli ism va fe’llarning cho‘zg‘ilari tushirilganda صحيح o‘rnida turadi. Chunonchi, اَرْ قَرْتِنْ قَرْتَنْدِى *er qartïn qartandï* – “kishi o‘zining yarasini tuzatdi”. Bu o‘timsiz fe’l o‘rnidadir. Asli قَرْتَادِى *qartadï* dir. اَرْكُكْلَنْدِى *er kügländi* – “kishi ashula aytdi”; asli كُوكْلَادِى *küglädi* dir. Yana: قُورْ قُرْشَنْدِي *qur quršandï* – “belbog‘ bog‘ladi”; asli قُورْشَادِى *quršadï* dir.

To‘rtinchi, bu ma’nolarni anglatmay, o‘z ma’nosida qo‘llanadi. Chunonchi, كَقْشَنْدِى تَفَّىْ *teway käwšändi* – “tuya kavshandi”. Yana: اَرْ تُرْقُنْدِى *er turqundï* – “kishi bir ishga harakat qilishdan uyaldi”; جِغْرِى تَزْكِنْدِى *čïγrï tezgindi* – “chig‘iriq va boshqa narsalar aylandi”.

(197b) Qoida: bu bobning buyrug‘i to‘rt harflidir. Chunonchi, مَنِى تُذْغُرْ *meni toδγur* – “meni to‘yg‘az, to‘ydir”; اَتْ سُقْغَرْ *at suwγar* – “otni sug‘ar”; مَنِى اُذْغُرْ *meni uδγur* – “meni uyg‘ot”.

Bu fasldagi fe’ldan ikki foilga o‘tuvchi o‘timli fe’l yasash uchun *rā* dan so‘ng *tā* orttiriladi, *tā dāl* bilan yonma-yon turishi natijasida *dāl tā* ga singib, har ikkisi ham *tā* ga aylanadi. Chunonchi, اُلْ اَتِنْ سُقْغَرتّى *ol atïn suwγarttï* – “u otini birov orqali sug‘ortirdi”. Bu shaklda ikki undosh qator kelishi ham mumkin. Va yana: مَنْ اَنِى تُذْغُرتّمْ *men anï todγurttum* – “myen uni to‘ydirishga buyurdim”. Bu qoidani tushunib ol.

Bu bob ishning bajaruvchisini anglatadigan *fā’il* shakli turk qabilalarida سُقْغَرْغُوچِى *suwγarγučï* – “sug‘oruvchi”, تُذْغُرْغُوچِى *toδγuryučï* – “to‘ydirg‘uchi”dir. O‘g‘uzlarda bu shakl تُذْغُرْدَچِى *toδγurdačï*, سُقْغَرْدَچِى *suwγardačï* shaklidadir.

Ishlovchi ishni davom ettirishini bildiruvchi fe’l shakli hamma turk qabilalarida *qāf* li, *γayn* li so‘zlarda va umuman yo‘g‘on so‘zlarda اُذْغُرْغَانْ *oδγuryan*, تُذْغُرْغَانْ *toδγuryan* shaklidadir. Tarkibida *kāf* harfi bor so‘zlarda كُلْسِرْكَانْ اَرْ *külsirgän er* – “kulib yuradigan kishi”; كَقْشَنْكَانْ تَفَّىْ *käwšäŋän tewäy* – “ko‘p kavshanadigan tuya” birikmalaridagi كُلْسِرْكَانْ *külsirgän* va كَقْشَنْكَانْ *käwšäŋän* shakllari kabi.

Ishlash ishlovchining vazifasi va maqsadi ekanini bildiruvchi fe’l اُلْ اَتْ سُقْغَرْغُلْقْ *ol at suwγaryuluq* (“otni sug‘orish uning vazifasi”) gapidagi سُقْغَرْغُلْقْ *suwγaryuluq* dir. Va yana: اُلْ اَنِى تُذْغُرْغُلْقْ اَرْدِى *ol anï toδγuryuluq erdi* (“u uni to‘ydirishi kerak edi”) gapidagi تُذْغُرْغُلْقْ *toδγuryuluq* dir. Ishlovchi ishni ishlashga qasd qiluvchi, istovchi ekanligi mazmunini anglatuvchi fe’l shakli, سُقْغَرِغْسَاقْ *suwγarïγsaq* dir. اُلْ اَتْ سُقْغَرِغْسَاقْ اَرْدِى *ol at suwγarïγsaq erdi* (“u ot sug‘orishni istagan edi”) gapidagi سُقْغَرِغْسَاقْ *suwγarïγsaq* fe’lidir. Va yana: اُلْ اَنِى سُقْدِنْ كَجْرُشْسَاكْ اَرْدِى *ol anï suwdïn kečrüššäk erdi* (“uning maqsadi uni suvdan o‘tkazishga ko‘maklashish edi”) gapidagi كَجْرُشْسَاكْ *kečrüššäk* edi. Lekin bu xil shakl tilda kam qo‘llanadi.

(198a) Ishlash ko‘nglida borligi yoki ilgari ishlaganlikni bildiradigan fe’l shakli اُلْ اَتْ سُقْغَرِغْلِى اَرْدِى *ol at suwγarïγlï erdi* gapidagi سُقْغَرِغْلِى *suwγarïγlï* dir. Va yana: اُلْ اَنِى تُذْغُرْغْلِى اُلْ *ol anï toδγuruγlï-ol* (“u uni to‘ydiradigan”) gapidagi تُذْغُرْغْلِى *toδγuruγlï* so‘zidir. Ishlangan ishni bildiruvchi shakl اُذْغُرْمِشْ اُلْ *oδγurmïš-ol* (“u uyg‘oqdir”) gapidagi اُذْغُرْمِشْ *oδγurmïš* dir. تُذْغُرْمِشْ *toδγurmïš* – “to‘ydirilgan” kabi ismi maf’ullar yuqorida ko‘rsatilgan asosdadir.

To‘rt harflilar bobi tugadi.

BU BESH HARFLILAR BOBLARIDIR

O‘rtasi har xil cho‘zg‘i harflar bilan kelgan فَعَلْدِى *fa’al’aldī* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ش *š* [harfi]:

[سَلِمْلَشْدِى ***salïmlašdï***] اَنِكْ بِرْلَا سَلِمْلَشْدِى ***anïŋ birlä salïmlašdï*** – “u uning birla husumatlashdi, tortishdi” (سَلِمْلَشُورْ ***salïmlašur***, سَلِمْلَشْمَاقْ ***salïmlašmaq***).

[قُنُقْلَشْدِى ***qonuqlašdï***] اُلَارْ اِكِى قُنُقْلَشْدِى ***olar ikki qonuqlašdï*** – “ular ikkovi bir-birini mehmon qilishdi” (قُنُقْلَشُورْ ***qonuqlašur***, قُنُقْلَشْمَاقْ ***qonuqlašmaq***).

Bu xil fe’l bobida birinchi misoldagi سَلِمْلَشْدِى ***salïmlašdï*** dan boshqa fe’l o‘zagidan yasalgan so‘z yo‘q. Lekin qimor, garov ma’nolarida uch harfli ismlardan fe’l yasalishi mumkin. Chunonchi, اَنِكْ بِرْلَا اُيْنَادِى يَرِقْلَشُو ***anïŋ birlä oynadï yarïqlašu*** – “u u bilan qimorga javshan tikib o‘ynadi”. O‘ynovchilardan yutgan kishi javshanni oladi. Bu shakl bahslashish ma’nisida ham qo‘llanadi. Chunonchi, اُلَارْ اِكِى قُنُقْلَشْدِى ***olar ikki qonuqlašdï*** – “ular ikkovi bir-birini yengish uchun mehmon qilishda bahslashishdi”. Bu mazmunlar istalganda uch harfli, to‘rt harflilardan ham va undan ortiq harfli fe’llardan ham shunga qiyos qilib yasalishi mumkin.

ن *n* [harfi]:

[بَرِمْسِنْدِي ***barïmsïndï***] اُلْ اَفكَا بَرِمْسِنْدِي ***ol ewkä barïmsïndï*** – “u uyga bormagani holda, uyga borayotgandek ko‘rindi” (بَرِمْسِنُورْ ***barïmsïnur***, بَرِمْسِنْمَاقْ ***barïmsïnmaq***).

[تَرِمْسِنْدِى ***tarïmsïndï***] اُلْ تَرِغْ تَرِمْسِنْدِى ***ol tarïγ tarïmsïndï*** – “u tariq ekmagani holda ekayotganday ko‘rindi” (تَرِمْسِنُورْ ***tarïmsïnur***, تَرِمْسِنْمَاقْ ***tarïmsïnmaq***).

[كَلِمْسِنْدِى ***kelimsindi***] اُلْ بَرُو كَلِمْسِنْدِى ***ol berü kelimsindi*** – “u beri kelayotgandek ko‘rindi” (كَلِمْسِنُورْ ***kelimsinür***, كَلِمْسِنْمَاكْ ***kelimsinmäk***). (198b)

[كُلُمْسِنْدِى ***külümsindi***] اَرْ كُلُمْسِنْدِى ***er külümsindi*** – “kishi va boshqalar kulimsindi, kulayotgandek ko‘rindi” (كُلُمْسِنُورْ ***külümsinür***, كُلُمْسِنْمَاكْ ***külümsinmäk***).

Bu fe’llarning o‘zagi ikki harfli edi. O‘zakka *mīm, sīn, nūn* harflari (مسِنْ ***-msïn, -msin***) qo‘shildi. Natijada bu fe’l besh harfli fe’lga aylandi. Bu uchta harf shu ma’noni anglatish uchun uch harfli, to‘rt harfli, besh harfli fe’llarga ham qo‘shiladi. Bu fe’l arablarning تفاعل bobiga o‘xshaydi. Ular تغافل الرجل deydilar; “u undan xabarsizdek ko‘rinadi, holbuki, xabardor edi” demakdir. تضاحك so‘zi ham shundaydir; “kulganday ko‘rindi, aslida esa kulmagan edi” demakdir.

Bu fe’lni tuzish qoidasi: fe’lga bu qo‘shimcha qo‘shilganda, o‘zak oxiridagi harf *alif* [*a, ä*] li bo‘lsa, *a, ä* cho‘zg‘isi, *vāv* [*u,ü*] li bo‘lsa, *u,ü* cho‘zg‘isi, *yā* [*ï, i*] li bo‘lsa, *ï, i* cho‘zg‘isi saqlanadi. Masalan, o‘zakning oxiri *alif* [*a, ä*] bilan tugagan so‘zga misol: اُلْ اَنْدِنْ نَانكْ تِلَمْسِنْدِي ***ol andïn näŋ tilämsindi*** – “u undan narsa so‘rayotgandek ko‘rindi”. Yana: اُلْ بِجَاكْ بِلَمْسِنْدِى ***ol pičäk***

bilämsindi – “u pichoq qayrayotgandek ko‘rindi, aslida qayramayotgan edi”. Bu fe’llarning o‘zagi, buyrug‘i ***تِيلَا tilä,*** ***بِيلَا bilä*** dir. Bularning oxiri *alif* [*ä*] bo‘lgani uchun, qo‘shimcha qo‘shilib, bu xil fe’l yasalganda ham o‘z holida qoladi. O‘zak oxiri *vāv* [*u, ü*] bo‘ladigan so‘zga misol: ***أُلْ مَنكَا تَلِمْ كُلُمْسِنْدِى ol meŋä telim külümsindi*** – “u menga ko‘p kulimsindi, kulayotgandek ko‘rindi”. Yana: ***أُلْ يُقَارُو تُرُمْسِنْدِي ol yuqaru turumsïndï*** – “u yuqori turayotgandek ko‘rindi”. Aslida u turmagan edi. Bu fe’llarning buyrug‘i ***كُلْ kül,*** ***تُرْ tur*** dir. Bu o‘zaklarning oxirgi harfi *rā, lām* harflari turg‘un (cho‘zg‘isiz) edi. Bu ma’noni anglatish uchun ko‘rsatilgan harflarga o‘zakning bosh harfidagi cho‘zg‘iga mos cho‘zg‘i orttirildi. O‘zak ikki harfli bo‘lib, bosh harfi *alif* [*a, ä*] li bo‘lsa, unda o‘zak oxiriga har qachon *alif* [*a, ä*] emas, *yā* [*ï, i*] cho‘zg‘isi orttiriladi: ***أُلْ اَفكَا بَرِمْسِنْدِى ol ewkä barïmsïndï*** – “u uyga borimsindi, borayotgandek ko‘rindi”; ***اَرْ سُقْ قَا قَرِمْسِنْدِى er suwqa qarïmsïndï*** – “kishi suvga chiqayotgandek ko‘rindi”. (199a) Bu fe’llarning oxirgi harfi yuqorida biz aytgan qoidaga muvofiq *alif* [*a, ä*] qilinmadi.

Ikki harfli fe’llarda o‘zakning bosh harfi *yā* [*ï, i*] li bo‘lsa, o‘zak oxiri o‘z holicha qoladi. Chunonchi, ***أُلْ اَفكَا كِرِمْسِنْدِى ol ewkä kirimsindi*** – “u uyga kirimsindi, kirayotgandek ko‘rindi”; ***أُلْ يَرْمَاقْ تَرِمْسِنْدِى ol yarmaq terimsindi*** – “u tanga va boshqa narsalarni terimsindi, terayotgandek ko‘rindi”.

Bu uch harfdan *mīm* doim cho‘zg‘isiz bo‘ladi; *sīn* doim *yā* [*ï, i*] li bo‘ladi; *nūn* harfi ham doim turg‘un (cho‘zg‘isiz) bo‘ladi. Cho‘zg‘ilarning hammasi o‘zakning oldingi harfiga moslashadi. Bu haqda men ikki harflilar bobida so‘zladim.

Uch harflilarga kelganda, ***أُلْ اَنِى قَجْرُمْسِنْدِي ol anï qačrumsïndï*** – “u uni qochirmagani holda, qochirayotgandek, quvlayotgandek ko‘rindi”. Yana: ***أُلْ اَنِكْ يَازُقِنْ كَجْرُمْسِنْدِى ol anïŋ yazuqïn kečrümsindi*** – “u uning gunohini kechirmagani holda, uning gunohini kechirayotgandek ko‘rindi, kechrimsindi”. Bu yerda *rā* harfi *ẓamma* li, ya’ni *vāv* [*u*] bilan talaffuz qilinadi. Chunki ***قَجُرْ qačur*** so‘zidagi ج *čīm vāv* [*u*] li edi. Uni cho‘zg‘isiz qilinib, ج *čīm* ning cho‘zg‘isi *rā* ga ko‘chirildi. Uch harflilarda ikkinchi harfdagi cho‘zg‘i uchinchi harfga ko‘chirildi, chunki o‘rta o‘zak oxiriga bosh harfdan ko‘ra yaqindir.

To‘rt harflilarga kelsak, uning misoli: ***اَرْ اَتْ سُقْغَرِمْسِنْدِى er at suwγarïmsïndï*** – “kishi ot sug‘orayotgandek ko‘rindi”. Bu yerda yonidagi *γayn* harfi *alif* [*a*] bo‘lgani holda *rā* harfi *yā* [*ï*] bilan talaffuz qilinadi, chunki *alif* [*a*] *yā* [*ï*] ga teskari emas. Ikki harflilarda ham ahvol shunday. Chunonchi, ***بَرِمْسِنْدِى barïmsïndï*** – “borimsindi, borayotganday ko‘rindi” kabi. Lekin ***تِلَمْسِنْدِى tilämsindi*** (“tilamsindi, tilayotganday ko‘rindi”) so‘zi *yā* li emas, *alif* lidir. Chunki bu to‘rt harfli o‘zagi ***تِلَا tilä*** dir. Uch harf *mīm, sīn, nūn* qo‘shishda *alif* ni lafzda tashlandi, lekin talaffuzda saqlandi. Ya’ni *lām* harfi *yā* li qilinmay, *alif* li holida qoldirildi. Shunday qilinmaganda, bu uch harfli ikki harfli boshqa fe’l bilan almashinishga eltar edi. Masalan: (199b) ***يَرِنْدَاقْ تِلِمْسِنْدِى yarïndaq tilimsindi*** (“u qayish

tilayotgandek ko‘rindi, tilimsindi”) gapidagi تِلِمْسِنْدِى ***tilimsindi*** fe’lini تِلِمْسِنْدِى ***tilimsindi*** fe’li bilan adashtirishga, shubhaga sabab bo‘lar edi. Shunga o‘xshash, پِچَاكْ بِلَمْسِنْدِى ***pičäk bilämsindi*** (“pichoq qayrayotgandek ko‘rindi”) gapidagi بِلَمْسِنْدِى ***bilämsindi*** fe’lida ham *yā* [*i*] cho‘zg‘isi orttirilsa, اِيشْ بِلِمْسِنْدِي ***iš bilimsindi*** (“ishni biladigandek ko‘rindi”) gapidagi بِلِمْسِنْدِى ***bilimsindi*** fe’li bilan adashtirish yuzaga kelar edi. Holbuki, bular biri uch harfli, ikkinchisi ikki harfli, tamom boshqa fe’llardir. Uch harfli fe’llarda so‘zning o‘rtasidagi cho‘zg‘i so‘nggi harfga ko‘chirilish qoidasini yuqorida aytgan edik. Masalan, قَجُرْ ***qačur,*** كجُرْ ***kečür*** fe’llarida ج *čīm* harfining *vāv* [*u, ü*] cho‘zg‘isi tashlangach, tashlangan *vāv* [*u, ü*] cho‘zg‘isi *rā* ga ko‘chirildi: قَجْرُمْسِنْدِى ***qačrumsïndï*** – “qochirayotganday ko‘rindi. *alif yā* ga teskari bo‘lmagani uchun, o‘z holicha qoldiriladi, ammo *vāv* cho‘zg‘isi *yā* ga teskaridir. Shuning uchun o‘zgartirilib, *yā* qilindi, degan qoidani yuqorida bayon qildik.

تُدْغُرْمْسِنْدِى ***toδγurumsïndï*** – “to‘ydirayotgandek ko‘rindi”; اُلْ اَنِى تُدْغُرْمْسِنْدِى ***ol anï toδγurumsïndï*** – “u uni to‘ydirayotganday ko‘rindi”.

Bu bayon qilgan qoidalarim butun turkiy tillarda hamma fe’llar uchun umumiydir. Hech bir narsa (fe’l) bundan chetda qolmaydi. Bu xil fe’llarda bu ma’noni anglatmaydigan birgina besh harfli fe’ldan boshqa bir so‘z yo‘q. U اُلْ مَنكَا يَرَمْسِنْدِى ***ol meŋä yaramsïndï*** (“u menga xushomad qildi, yalindi”) fe’lidir (يَرَمْسِنُورْ ***yaramsïnur,*** يَرَمْسِنْمَاقْ ***yaramsïnmaq***).

ن ***n*** [harfi]:

[قِسِرْقَنْدِى ***qïsïrqandï***] اَرْ تَقَّارِنْ قِسِرْقَنْدِى ***er tawarïn qïsïrqandï*** – “kishi molini saqlashga qattiq harakat qildi, sarf qilib yuborishdan qo‘rqdi” (قِسِرْقَنُورْ ***qïsïrqanur,*** قِسِرْقَنْمَاقْ ***qïsïrqanmaq***).

(Shoir) shunday degan:

اِلْتِبْ تَرِغْ قُنْمَدِى ***Eltip tarïγ qoδmadï,***
سِجْغَانْ تَقِى سِقِرْقَانْ ***Sïčγan taqï sïqïrqan.***
كِزْلَبْ نَلُكْ كُتَرْسَنْ ***Kizläp nelüg kütär-sen,***
اَمْدِى اَنِى قِسِرْقَانْ ***Emdi anï qïsïrqan.***

Bola-chaqasidan qizg‘anib, don yig‘gan kishining donlarini sichqon, kalamush bitta ham qoldirmay tashib ketganidan kulib unga aytmoqda: “Sichqon bilan kalamush hech narsa qoldirmay, tashib ketdi. Yashirib, nimani kutasan? Endi bola-chaqangdan qizg‘anaver”.

[بُلْتْلَنْدِى ***bulïtlandï***] كُوكْ بُلْتْلَنْدِى ***kök bulïtlandï*** – “ko‘k bulutlandi” (بُلْتْلَنُورْ ***bulïtlanur,*** بُلْتْلَنْمَاقْ ***bulïtlanmaq***).

[بَغْرْلَنْدِى ***bayïrlandï***] قَانْ بَغْرْلَنْدِى ***qan bayïrlandï*** – “qon ividi, tugun-tugun bo‘lib qoldi”; sut ivib, qatiq bo‘lib qolsa ham shu so‘z qo‘llanadi (بَغْرْلَنُورْ ***bayïrlanur,*** بَغْرْلَنْمَاقْ ***bayïrlanmaq***). (200a)

[يَغَاچ بُتَقْ لَنْدِى / بُتِقْ لَنْدِى / بُتِقْ لَنْدِى] ***butaqlandï / butïqlandï*** ***yaγač butaqlandï / butïqlandï*** – “daraxt butoq chiqardi”. Yana: سُوڤ بُتَقْ لَنْدِى / بُتِقْ لَنْدِى ***suw butaqlandï / butïqlandï*** – “suv ariqchalarga ayrildi”. Buning asli بُتَقْ / بُتِقْ ***butaq / butïq*** – “daraxtning butog‘i” demakdir (بُتَقْ لَنُورْ / بُتِقْ لَنُورْ ***butaqlanur / butïqlanur***, بُتَقْ لَنْمَاقْ / بُتِقْ لَنْمَاقْ ***butaqlanmaq / butïqlanmaq***).

[بَشَقْلَنْدِى ***bašaqlandï***] سُنگُو بَشَقْلَنْدِى ***süŋü bašaqlandï*** – “nayza tishlandi”. O‘qning uchi nayza qilinishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَشَقْلَنُورْ ***bašaqlanur***, بَشَقْلَنْمَاقْ ***bašaqlanmaq***).

[بِلِقْلَنْدِى ***balïqlandï***] كُولْ بِلِقْلَنْدِى ***köl balïqlandï*** – “ko‘l baliqli bo‘ldi”. Arg‘ular bu so‘zni loyli bo‘lgan joyga nisbatan qo‘llaydilar. Uyg‘urlarda esa biron yer qal’ali bo‘lishiga shu so‘z qo‘llanadi (بِلِقْلَنُورْ ***balïqlanur***, بِلِقْلَنْمَاقْ ***balïqlanmaq***).

[بِجَاكْلَنْدِى ***pičäkländi***] اَرْ بِجَاكْلَنْدِى ***er pičäkländi*** – “kishi pichoqli bo‘ldi” (بِجَكْلَنُورْ ***pičäklänür***, بِجَكْلَنْمَاكْ ***pičäklänmäk***).

[تُبْتْلَنْدِى ***tüpütländi***] اَرْ تُبْتْلَنْدِى ***er tüpütländi*** – “kishi tuputga o‘xshab qoldi, tuputlashdi”. Tuputlar turk mamlakatlariga boshqa yerdan kelib o‘rnashib qolgan jamoalardir (تُبْتْلَنُورْ ***tüpütlänür***, تُبْتْلَنْمَاكْ ***tüpütlänmäk***).

[تَتِغْلَنْدِى ***tatïγlandï***] اُزُمْ تَتِغْلَنْدِى ***üzüm tatïγlandï*** – “uzum totli, mazali bo‘ldi”. Mazali va shirin bo‘lgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَتِغْلَنُورْ ***tatïγlanur***, تَتِغْلَنْمَاقْ ***tatïγlanmaq***).

[تُتُقْلَنْدِى / تُتُقْلَنْدِى ***tutuqlandï / tutïqlandï***] اُرَاغْتْ تُتُقْلَنْدِى / تُتِقْلَنْدِى ***urayut tutuqlandï / tutïqlandï*** – “xotin tutuq[bichilgan kishi]ni darvozabon qildi, xizmatga oldi [u xotinga xizmat qiladi]” (تُتُقْلَنُورْ / تُتِقْلَنُورْ ***tutuqlanur / tutïqlanur***, تُتُقْلَنْمَاقْ / تُتِقْلَنْمَاقْ ***tutuqlanmaq / tutïqlanmaq***).

[تُرُقْلَنْدِى ***turuqlandï***] اُلْ بُو اَتِغْ تُرُقْلَنْدِى ***ol bu atïγ turuqlandï*** – “u bu otni oriq deb sanadi”. Otdan boshqa hayvonlarni oriq hisoblashga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُرُقْلَنُورْ ***turuqlanur***, تُرُقْلَنْمَاقْ ***turuqlanmaq***).

[تُلُمْلَنْدِى ***tulumlandï***] اَرْ تُلُمْلَنْدِى ***er tulumlandï*** – “er urush yarog‘larini osdi, qurollandi” (تُلُمْلَنُورْ ***tulumlanur***, تُلُمْلَنْمَاقْ ***tulumlanmaq***).

[جُبُرْلَنْدِى ***čöpürländi***] اَجْكُو جُبُرْلَنْدِى ***ečkü čöpürländi*** – “echkining yungi o‘sdi” (جُبُرْلَنُورْ ***čöpürlänür***, جُبُرْلَنْمَاكْ ***čöpürlänmäk***).

[جَبِشْلَنْدِى ***čepišländi***] اُغْلَاقْ جَبِشْلَنْدِى ***oγlaq čepišländi*** – “uloq chepish qatoriga o‘tdi, bog‘lab boqiladigan bo‘ldi”. U ham olti oylik bo‘lganda shunday qilinadi (جَبِشْلَنُورْ ***čepišlänür***, جَبِشْلَنْمَاكْ ***čepišlänmäk***).

[جَرُقْلَنْدِى ***čaruqlandï***] اَرْ جَرُقْلَنْدِى ***er čaruqlandï*** – “kishi choriqli bo‘ldi” (جَرُقْلَنُورْ ***čaruqlanur***,جَرُقْلَنْمَاقْ ***čaruqlanmaq***).

[جَجَكْلَنْدِى ***čečäkländi***] يِغَاچْ جَجَكْلَنْدِى ***yïγač čečäkländi*** – “daraxt va boshqalar gulladi” (جَجَكْلَنُورْ ***čečäklänür***, جَجَكْلَنْمَاكْ ***čečäklänmäk***). (200b)

[سُكُتْلَنْدِى ***sögütländi***] يِيرْ سُكُتْلَنْدِى ***yer sögütländi*** – “yer tolzorga aylandi” (سُكُتْلَنُورْ ***sögütlänür***, سُكُتْلَنْمَاكْ ***sögütlänmäk***).

[سُغُقْلَنْدِى *soyuqlandï*] بُو يِيرگ سُغُقْلَنْدِى ***bu yerig soyuqlandï*** – “bu yerni sovuq sanadi”. Har narsani sovuq deb bilishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُغُقْلَنُورْ ***soyuqlanur***, سُغُقْلَنْمَاقْ ***soyuqlanmaq***).

[سُقِغْلَنْدِى *suwïylandï*] اُلْ بَالِيغْ سُقِغْلَنْدِى ***ol balïy suwïylandï*** – “u asalni va boshqa narsalarni suyuq deb sanadi” (سُقِغْلَنُورْ ***suwïylanur***, سُقِغْلَنْمَاقْ ***suwïylanmaq***).

[قَنَتْلَنْدِى *qanatlandï*] اَرْ قَنَتْلَنْدِى ***er qanatlandï*** – “kishi uchar otli bo‘ldi va unda uchdi, tilagiga yetishga shu sabab bo‘ldi”.

[قَنَتْلَنْدِى *qanatlandï*] قُشْ قَنَتْلَنْدِى ***quš qanatlandï*** – “qush qanot chiqardi, qushning qanoti o‘sdi” (قَنَتْلَنُورْ ***qanatlanur***, قَنَتْلَنْمَاقْ ***qanatlanmaq***).

[قِلِجْلَنْدِي *qïlïčlandï*] اَرْ قِلِجْلَنْدِي ***er qïlïčlandï*** – “kishi qilichli bo‘ldi” (قِلِجْلَنُورْ ***qïlïčlanur***, قِلِجْلَنْمَاقْ ***qïlïčlanmaq***).

[جَغِرْلَنْدِى *čayïrlandï*] اَرْ جَغِرْلَنْدِى ***er čayïrlandï*** – “kishi chag‘irli (ya’ni sharbatli) bo‘ldi” (جَغِرْلَنُورْ ***čayïrlanur***, جَغِرْلَنْمَاقْ ***čayïrlanmaq***).

[جِغِرْلَنْدِى *čïyïrlandï*] يِيرْ جِغِرْلَنْدِى ***yer čïyïrlandï*** – “yerda yo‘llar paydo bo‘ldi” (جِغِرْلَنُورْ ***čïyïrlanur***, جِغِرْلَنْمَاقْ ***čïyïrlanmaq***).

[قَدِرْلَنْدِى *qaδïrlandï*] اَرْ قَدِرْلَنْدِى ***er qaδïrlandï*** – “kishining yuragi siqilgandek ko‘rindi”. Bu so‘zning asli قَدْرِنْدِى ***qadrïndï*** dir. To‘g‘risi ham shudir (قَدِرْلَنُورْ ***qaδïrlanur***, قَدِرْلَنْمَاقْ ***qaδïrlanmaq***).

[قَدِزْلَنْدِى *qaδïzlandï*] يِغَاجْ قَدِزْلَنْدِى ***yïyač qaδïzlandï*** – “daraxtning po‘stlog‘i o‘sdi, yo‘g‘onlashdi” (قَدِزْلَنُورْ ***qaδïzlanur***, قَدِزْلَنْمَاقْ ***qaδïzlanmaq***).

[قُدُزْلَنْدِى *quδuzlandï*] اَرْ قُدُزْلَنْدِى ***er quδuzlandï*** – “kishi juvonga uylandi” (arg‘ucha) (قُدُزْلَنُورْ ***quδuzlanur***, قُدُزْلَنْمَاقْ ***quδuzlanmaq***).

[قِمِزْلَنْدِى *qïmïzlandï*] اَرْ قِمِزْلَنْدِى ***er qïmïzlandï*** – “kishi qimizli bo‘ldi”. Bu – “biyaning achigan suti”dir (قِمِزْلَنُورْ ***qïmïzlanur***, قِمِزْلَنْمَاقْ ***qïmïzlanmaq***).

[قُغُشْلَنْدِى *qoyušlandï*] سُقْ قُغُشْلَنْدِى ***suw qoyušlandï*** – “suv shovillab oqdi” (قُغُشْلَنُورْ ***qoyušlanur***, قُغُشْلَنْمَاقْ ***qoyušlanmaq***).

[قَمِشْلَنْدِى *qamïšlandï*] يِيرْ قَمِشْلَنْدِى ***yer qamïšlandï*** – “yer qamishzorga aylandi, qamishzor bo‘ldi” (قَمِشْلَنُورْ ***qamïšlanur***, قَمِشْلَنْمَاقْ ***qamïšlanmaq***).

[قِدِغْلَنْدِى *qïdïylandï*] قِدِغْلَنْدِى نَانىڭ ***qïdïylandï näŋ*** – “narsa jiyaklandi” (قِدِغْلَنُورْ ***qïdïylanur***, قِدِغْلَنْمَاقْ ***qïδïylanmaq***).

[قَتِغْلَنْدِى *qatïylandï*] اَرْ قَتِغْلَنْدِى ***er qatïylandï*** – “kishi qattiq harakat qildi, tirishdi” (قَتِغْلَنُورْ ***qatïylanur***, قَتِغْلَنْمَاقْ ***qatïylanmaq***). Maqolda (shunday kelgan): كِچِكْدَا قَتِغْلَنْسَا اُلْغَادو سَقْنُورْ ***Kičigdä qatïylansa, ulyaδu sewnür.*** Ma’nosi: “Yoshlikda tirishib harakat qilgan katta bo‘lgach, sevinadi”. (201a)

[قُرُغْلَنْدِى *quruylandï*] اُلْ اُتْمَاكْنِى قُرُغْلَنْدِى ***ol ötmäkni quruylandï*** – “u nonni va boshqa narsalarni quruq (qattiq) deb bildi va yemadi” (قُرُغْلَنُورْ ***quruylanur***, قُرُغْلَنْمَاقْ ***quruylanmaq***).

[قَشُقْلَنْدِى *qašuqlandï*] اَرْ قَشُقْلَنْدِى ***er qašuqlandï*** – “kishi qoshiqli bo‘ldi” (قَشُقْلَنُورْ ***qašuqlanur***, قَشُقْلَنْمَاقْ ***qašuqlanmaq***).

[كَلَبْلَنْدِى *keläpländi*] تَاغْ كَلَبْلَنْدِى ***tay keläpländi*** – “tog‘da kalap o‘ti chiqdi”.

Bu bob bir necha xildir:

Birinchi, zikr qilingan narsaga ega bo‘lganlikni bildiradi. Chunonchi, اَرْ تَرِغْلَنْدِى ***er tarïγlandï*** – “kishi donli bo‘ldi, donga ega bo‘ldi”; اَرْ قَشُقْلَنْدِى ***er qašuqlandï*** – “kishi qoshiqli bo‘ldi, qoshiq egasi bo‘ldi” kabi.

Ikkinchi, o‘zini aytilgan narsalar xilidan, o‘shalar toifasidan sanash va ularning turmushiga moslanmoq mazmunini anglatadi. Chunonchi, اَرْ اُغُزْلَنْدِى ***er oγuzlandï*** – “kishi o‘zini o‘g‘uz toifasidan deb bildi, o‘g‘uz ko‘rinishiga kirdi, ularning odatini qildi”.

Yana: اَرْ چِكِلَنْدِى ***er čigilländi*** – “kishi o‘zini chigil toifasidan sanadi, chigillar odatini tutdi” kabi. Bu hol arabchaga o‘xshaydi. Arablar وقيس عيلان ومن تقيسا deydilar; “ularning ko‘rinishiga kirdi”, demakdir. Bu hamma fe’llar uchun umumiy qoida sanaladi.

Uchinchi, zikr qilingan narsa uning tabiatida, zotida borligini bildirishdir. Chunonchi, يِغَاجْ بُتَقْلَنْدِى / بُتِقْلَنْدِى ***yïγač butaqlandï / butïqlandï*** – “daraxt butoq chiqardi”. Yana: يِغَاجْ يَمِشْلَنْدِى ***yïγač yemišländi*** – “daraxt meva qildi” singari.

To‘rtinchi, bu ma’nolar kutilmay turib, fe’l o‘z ma’nosida qo‘llanadi. Chunonchi, اَرْ قَتِغْلَنْدِى ***er qatïγlandï*** – “kishi qattiq harakat qildi, tirishdi”; كِشِى يُمُرْلَنْدِى ***kiši yumurlandï*** – “kishi (xalq) to‘plandi” singari.

Bu fe’llarning bari uch harfli ismlardan yasalgan.

Bu qoida to‘rt harfli, besh harfli va undan ortiq harflilar uchun ham umumiydir. Ular ham shu tartibda tuziladi. Buni chuqur tushun, bilim bilan yaxshi izzat ko‘rasan.

Besh harflilar bobi tugadi.

BU OLTI HARFLILAR BOBLARIDIR

[تُشْغُتْلَنْدِى ***tušγutlandï***] اَرْ تُشْغُتْلَنْدِى ***er tušγutlandï*** – “kishi shogirdli bo‘ldi” (تُشْغُتْلَنُوْرْ ***tušγutlanur***, تُشْغُتْلَنْمَاقْ ***tušγutlanmaq***). (201b)

[تَرْمُتْلَنْدِى ***tarmutlandï*** (***turmutlandï?***)] سُوقْ تَرْمُتْلَنْدِى ***suw tarmutlandï*** (***turmutlandï?***) – “suv bilakli, kema yurar darajada katta bo‘ldi” (تُرْمُتْلَنُوْرْ ***turmutlanur***, تُرْمُتْلَنْمَاقْ ***turmutlanmaq***).

[قِزْغُتْلَنْدِى ***qïzγutlandï***] اَرْ اِيشْتَنْ قِزْغُتْلَنْدِى / اِيشْتِينْ ***er ïštïn / ïštän qïzγutlandï*** – “kishi o‘z ishining kamchiligini sezgach, afsuslanib, u ishdan qaytdi” (قِزْغُتْلَنُوْرْ ***qïzγutlanur***, قِزْغُتْلَنْمَاقْ ***qïzγutlanmaq***).

ج ***č*** [harfi]:

[تَقْغَاجْلَنْدِي ***tawγačlandï***] اَرْ تَقْغَاجْلَنْدِي ***er tawγačlandï*** – “kishi mochinliklar ko‘rinishiga kirdi, mochinlashdi” (تَقْغَجْلَنُوْرْ ***tawγačlanur***, تَقْغَجْلَنْمَاقْ ***tawγačlanmaq***).

[سُرْقُجْلَنْدِي ***sorqučlandï***] سُرْقُجْلَنْدِي بِجَاكْ ***pičäk sorqučlandï*** – “pichoq dastasi luka yog‘ochi yelimi bilan mahkamlandi” (سُرْقُجْلَنُوْرْ ***sorqučlanur***, سُرْقُجْلَنْمَاقْ ***sorqučlanmaq***).

[سُرْقُجْلَنْدِى ***sorqučlandï***] اَرْ سُرْقُجْلَنْدِى ***er sorqučlandï*** – “kishi luka deyilgan bir daraxt suviga [qilich bandini dastaga mahkamlash uchun ishlatiladigan bir daraxt yelimiga] ega bo‘ldi”.

[سُرْقُجْلَنْدِى ***sorqučlandï***] يِيرْ سُرْقُجْلَنْدِى ***yer sorqučlandï*** – “yerda sahroi hindbo o‘simligi o‘sdi; yer shunday o‘tli bo‘ldi” (سُرْقُجْلَنُورْ ***sorqučlanur,*** سُرْقُجْلَنْمَاقْ ***sorqučlanmaq***).

[سَفْدِجْلَنْدِى ***sawdïčlandï***] اَرْ سَفْدِجْلَنْدِى ***er sawdïčlandï*** – “kishi savatli bo‘ldi” (سَفْدِجْلَنُورْ ***sawdïčlanur,*** سَفْدِجْلَنْمَاقْ ***sawdïčlanmaq***).

[مَنْدَرْلَنْدِى ***mandarlandï***] يِغَاجْ مَنْدَرْلَنْدِى ***yïyač mandarlandï*** – “pechak o‘ti daraxtga o‘raldi”. Daraxtni pechak o‘ti bosdi (مَنْدَرْلَنُورْ ***mandarlanur,*** مَنْدَرْلَنْمَاقْ ***mandarlanmaq***).

ش *š* [harfi]

[جَلْبُشْلَنْدِى ***čalpušlandï***] اِلِكْ جَلْبُشْلَنْدِى ***elig čalpušlandï*** – “qo‘l shiralandi, mevalar va shirali narsalar yeyishdan qo‘l shiraga bo‘yaldi, qo‘lga shira yopishdi” (جَلْبُشْلَنُورْ ***čalpušlanur,*** جَلْبُشْلَنْمَاقْ ***čalpušlanmaq***).

[قِرْتِشْلَنْدِى ***qïrtïšlandï***] قِيزْ قِرْتِشْلَنْدِى ***qïz qïrtïšlandï*** – “joriya chiroyli bo‘ldi, chiroyi ortdi” (قِرْتِشْلَنُورْ ***qïrtïšlanur,*** قِرْتِشْلَنْمَاقْ ***qïrtïšlanmaq***).

[قُلْدَشْلَنْدِي ***qoldašlandï***] اُلْ مَنِكْ بِرْلَا قُلْدَشْلَنْدِي ***ol menin birlä qoldašlandï*** – “u o‘zini mening o‘rtoqlarimdan deb sanadi” (قُلْدَشْلَنُورْ ***qoldašlanur,*** قُلْدَشْلَنْمَاقْ ***qoldašlanmaq***).

غ *γ* [harfi]:

[بُشْلَغْلَنْدِى ***bošlaγlandï***] اَرْ اِيشْدَا بُشْلَغْلَنْدِى ***er ïšda bošlaγlandï*** – “kishi ishda manmanlikka bordi. Nasihatga quloq solmadi” (بُشْلَغْلَنُورْ ***bošlaγlanur,*** بُشْلَغْلَنْمَاقْ ***bošlaγlanmaq***). Maqolda (shunday kelgan): بُشْلَغْلَنْسَا بُخْسُقْلَنُورْ ***Bošlaγlansa, boxsuqlanur.*** Ma’nosi: “Kishi manmanlikka borsa, o‘rgatuvchini tahqirlasa, qo‘li gardanida bo‘ladi, tashvish tortadi”. Bu maqol o‘z bilgicha ish qilishni istovchilarga qarata qo‘llanadi.

[تُرْقِغْلَنْدِى ***turqïγlandï***] اُلْ مِنْدِنْ تُرْقِغْلَنْدِى ***ol mendin turqïγlandï*** – “u meni siylab kelishdan tortindi, uyaldi” (202a) (تَرْقُغْلَنُورْ ***tarquγlanur,*** تَرْقُغْلَنْمَاقْ ***tarquγlanmaq***).

[تُغْرَغْلَنْدِى ***tuγraγlandï***] اُغْلَانْ تُغْرَغْلَنْدِى ***oγlan tuγraγlandï*** – “qul tug‘roli bo‘ldi; shoh tomonidan harbiy mashq vaqtida berilib, qaytib olinadigan otga ega bo‘ldi” (تُغْرَغْلَنُورْ ***tuγraγlanur,*** تُغْرَغْلَنْمَاقْ ***tuγraγlanmaq***). O‘g‘uzchada maktub muhr bilan tamg‘alansa ham shu so‘z qo‘llanadi.

[تُمْلُغْلَنْدِى ***tumluγlandï***] بُو اُغُرْنِى تُمْلُغْلَنْدِى ***bu oγurnï tumluγlandï*** – “bu paytni sovuq sanab, maqsadidan, mo‘ljalidan qaytdi” (تُمْلُغْلَنُورْ ***tumluγlanur,*** تُمْلُغْلَنْمَاقْ ***tumluγlanmaq***).

[تُمْلُغْلَنْدِى ***tumluγlandï***] اُلْ اَنكَرْ تُمْلُغْلَنْدِى ***ol aŋar tumluγlandï*** – “u unga jafo qildi va sovuqqon bo‘ldi”.

[قِشْلَغْلَنْدِي ***qïšlaγlandï***] اُلْ بُو يِيرِكْ قِشْلَغْلَنْدِي ***ol bu yerig qïšlaγlandï*** – “u bu yerni qishlov joyi deb bildi va shu yerda qishladi” (قِشْلَغْلَنُورْ ***qïšlaγlanur,*** قِشْلَغْلَنْمَاقْ ***qïšlaγlanmaq***).

[قُشْلَغْلَنْدِى *qušlaγlandï*] خَانْ بُو يِيرِكْ قُشْلَغْلَنْدِى ***xan bu yerig qušlaγlandï*** – “xon bu yerni qush ovlaydigan joy qilib belgiladi” (قُشْلَغْلَنُورْ ***qušlaγlanur***, قُشْلَغْلَنْمَاقْ ***qušlaγlanmaq***).

ق *q* [harfi]:

[بُجْغَقْلَنْدِى *bučγaqlandï*] بُجْغَقْلَنْدِى نَانَكْ ***bučγaqlandï näŋ*** – “narsada burchak paydo bo‘ldi (بُجْغَقْلَنُورْ ***bučγaqlanur***, بُجْغَقْلَنْمَاقْ ***bučγaqlanmaq***).

[بُرْجَقْلَنْدِى *burčaqlandï*] تَرْ بُرْجَقْلَنْدِى ***ter burčaqlandï*** – “ter dona-dona bo‘ldi, tomchi-tomchi bo‘ldi”.

Boshqa narsalar dona-dona bo‘lishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بُرْجَقْلَنُورْ ***burčaqlanur***, بُرْجَقْلَنْمَاقْ ***burčaqlanmaq***).

[بَشْمَقْلَنْدِي *bašmaqlandï*] اَرْ بَشْمَقْلَنْدِي ***er bašmaqlandï*** – “kishi boshmoqli bo‘ldi, sandal-chuvak kiydi” (o‘g‘uzcha) (بَشْمَقْلَنُورْ ***bašmaqlanur***, بَشْمَقْلَنْمَاقْ ***bašmaqlanmaq***).

[بُغْنَقْلَنْدِي *boγnaqlandï*] بُلُتْ بُغْنَقْلَنْدِي ***bulut boγnaqlandï*** – “bulut mayda-mayda bo‘laklarga bo‘lindi” (بُغْنَقْلَنُورْ ***boγnaqlanur***, بُغْنَقْلَنْمَاقْ ***boγnaqlanmaq***).

[بُغْمَقْلَنْدِى *buγmaqlandï*] اَرْ بُغْمَقْلَنْدِى ***er buγmaqlandï*** – “kishi kiyimning bog‘ichini bog‘ladi” (بُغْمَقْلَنُورْ ***buγmaqlanur***, بُغْمَقْلَنْمَاقْ ***buγmaqlanmaq***).

[تَرْمَقْلَنْدِى *tarmaqlandï*] بُوىْ تَرْمَقْلَنْدِى ***boy tarmaqlandï*** – “xalq sahroning har yog‘iga yirtqich qushlar sahroga yoyilgandek yoyildi”.

بَلَا تَرْمَقْلَنْدِي / تِرْمَقْلَنْدِي ***bala tarmaqlandï / tïrmaqlandï*** – “qush bolalarining tirnog‘i bilindi”.

سُوقْ تَرْمَقْلَنْدِى ***suw tarmaqlandï*** – “suv irmoqlarga ayrildi” (تَرْمَقْلَنُورْ ***tarmaqlanur***, تَرْمَقْلَنْمَاقْ ***tarmaqlanmaq***).

[تِغْرَقْلَنْدِى *tïγraqlandï*] اَرْ تِغْرَقْلَنْدِى ***er tïγraqlandï*** – “kishi botirlandi, tiyraklandi” (تِغْرَقْلَنُورْ ***tïγraqlanur***, تِغْرَقْلَنْمَاقْ ***tïγraqlanmaq***). (202b)

(Shoir) shunday degan:

تِغْرَقْلَنِبْ سَكِرتّى ***Tïγraqlanïp sekirtti,***
اَرِنْ اَتِنْ يُكُرتّى ***Erin, atïn yügürtti.***
بِزْنِى قَمُغْ اَنكِتّى ***Bizni qamuγ eŋitti,***
اَنْدَاغ سُوكَا كِمْ يَتَارْ ***Anday sükä kim yetär?***

Urushda hamla qilgan kishini sifatlab aytmoqda: “Botirligini ko‘rsatdi, hatto bizga hamla qildi. Otliq va piyodalarini bizga qarshi choptirdi. Hunari bilan bizni hayratda qoldirdi. Bunday askarga kim qarshi tura oladi?”.

[جُقْمَقْلَنْدِى *čoqmaqlandï*] يِلَانْ جُقْمَقْلَنْدِى ***yïlan čoqmaqlandï*** – “ilon cho‘qmoq ko‘rinishiga kirdi, kulcha bo‘lib o‘ralib oldi” (جُقْمَقْلَنُورْ ***čoqmaqlanur***, جُقْمَقْلَنْمَاقْ ***čoqmaqlanmaq***).

[جِمْغُقْلَنْدِى *čïmγuqlandï*] كِشِى جِمْغُقْلَنْدِى ***kiši čïmγuqlandï*** – “kishi barchani yomonlovchi, chaqimchi, yolg‘onchi bo‘ldi” (جِمْغُقْلَنُورْ ***čïmγuqlanur***, جِمْغُقْلَنْمَاقْ ***čïmγuqlanmaq***).

[سَغْلِقْلَنْدِى *saylïqlandï*] اَرْ سَغْلِقْلَنْدِى *er saylïqlandï* – “kishi sovliq qo‘ylarga ega bo‘ldi” (سَغْلِقْلَنُورْ *saylïqlanur*, سَغْلِقْلَنْمَاقْ *saylïqlanmaq*).

[قَبْغَقْلَنْدِى *qapγaqlandï*] كِيشْ قَبْغَقْلَنْدِى *keš qapγaqlandï* – “o‘qdon qopqoqlandi, sadoq og‘zi bekitilgan shisha singari bo‘ldi, u o‘qqa to‘lg‘azildi” (قَبْغَقْلَنُورْ *qapγaqlanur*, قَبْغَقْلَنْمَاقْ *qapγaqlanmaq*).

[قَدْرُقْلَنْدِى *qadruqlandï*] تَاغْ قَدْرُقْلَنْدِى *taγ qadruqlandï* – “tog‘ ochiq yo‘llarga ega bo‘ldi. Tog‘da ochiq yo‘llar paydo bo‘ldi” (قَدْرُقْلَنُورْ *qadruqlanur*, قَدْرُقْلَنْمَاقْ *qadruqlanmaq*).

[قِسْرَقْلَنْدِى *qïsraqlandï*] اَرْ قِسْرَقْلَنْدِى *er qïsraqlandï* – “kishi baytal egasi bo‘ldi” (قِسْرَقْلَنُورْ *qïsraqlanur*, قِسْرَقْلَنْمَاقْ *qïsraqlanmaq*).

[قَرْلُقْلَنْدِى *qarluqlandï*] اَرْ قَرْلُقْلَنْدِى *er qarluqlandï* – “kishi qarluqlashdi, qarluqlarning rusumini tutdi”. Bu ham turkmanlarning bir toifasi (قَرْلُقْلَنُورْ *qarluqlanur*, قَرْلُقْلَنْمَاقْ *qarluqlanmaq*).

[قِقْجَاقْلَنْدِى *qïwčaqlandï*] اَرْ قِقْجَاقْلَنْدِى *er qïwčaqlandï* – “kishi qipchoqlashdi, qipchoqlar rusumini tutdi” (قِقْجَقْلَنُورْ *qïwčaqlanur*, قِقْجَقْلَنْمَاقْ *qïwčaqlanmaq*).

[مُنْجَقْلَنْدِى *munčaqlandï*] قِيزْ مُنْجَقْلَنْدِى *qïz munčaqlandï* – “qiz munchoq taqadigan, dur va boshqa ziynatli bo‘ldi, munchoq taqdi” (مُنْجُقْلَنُورْ *munčuqlanur*, مُنْجُقْلَنْمَاقْ *munčuqlanmaq*).

[مَنْجُقْلَنْدِى *mančuqlandï*] اَرْ تُونِنْ مَنْجُقْلَنْدِى *er tonïn mančuqlandï* – “kishi to‘nini sandiqqa soldi va uni egar orqasiga osdi” (مُنْجُقْلَنُورْ *munčuqlanur*, مُنْجُقْلَنْمَاقْ *munčuqlanmaq*).

ك *k* [harfi]:

[بُرْجَكْلَنْدِى *bürčäkländi*] اَتْ بُرْجَكْلَنْدِى *at bürčäkländi* – “ot peshanasi yolli bo‘ldi, peshana yoli o‘sdi”. Kishi kokilining ko‘rinishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بُرْجَكْلَنُورْ *bürčäklänür*, بُرْجَكْلَنْمَاكْ *bürčäklänmäk*).

[تُرْمَكْلَنْدِى *türmäkländi*] اُتْمَاكْ تُرْمَكْلَنْدِى *ötmäk türmäkländi* – “ovqatga tuxum, go‘sht, non va boshqalar solinib, qovurma qilindi” (تُرْمَكْلَنُورْ *türmäklänür*, تُرْمَكْلَنْمَاكْ *türmäklänmäk*).

[تَقْلُكْلَنْدِي *tewlügländi*] اَرْ تَقْلُكْلَنْدِي *er tewlügländi* (203a) – “kishi o‘zini takabburlardan sanab, o‘shalarning yo‘liga kirdi” (تَقْلُكْلَنُورْ *tewlüglänür*, تَقْلُكْلَنْمَاكْ *tewlüglänmäk*).

[جُكْرَكْلَنْدِى *čükräkländi*] قُلْ جُكْرَكْلَنْدِى *qul čükräkländi* – “qul yung choponga ega bo‘ldi” (جُكْرَكْلَنُورْ *čükräklänür*, جُكْرَكْلَنْمَاكْ *čükräklänmäk*).

[جَلْبَكْلَنْدِى *čelpäkländi*] كُوزْ جَلْبَكْلَنْدِى *köz čelpäkländi* – “ko‘z yumildi” (جَلْبَكْلَنُورْ *čelpäklänür*, جَلْبَكْلَنْمَاكْ *čelpäklänmäk*).

[بُكْسُكْلَنْدِى *böksükländi*] قِيزْ بُكْسُكْلَنْدِى *qïz böksükländi* – “qizning ko‘kragi ko‘tarildi” (بُكْسُكْلَنُورْ *böksüklänür*, بُكْسُكْلَنْمَاكْ *böksüklänmäk*).

[كِرْبُكْلَنْدِى *kirpükländi*] اَنِكْ كُوزِى كِرْبُكْلَنْدِى *anïŋ közi kirpükländi* – “uning ko‘ziga qadaluvchi kiprik o‘sdi” (كِرْبُكْلَنُورْ *kirpüklänür*, كِرْبُكْلَنْمَاكْ *kirpüklänmäk*).

[كَنْجَكْلَنْدِى ***känjäkländi***] اَرْ كَنْجَكْلَنْدِى ***er känjäkländi*** – “kishi kanjaklashdi, kanjak qabilasining rusumini tutdi” (كَنْجَكْلَنُوْرْ ***känjäklänür***, كَنْجَكْلَنْمَاكْ ***känjäklänmäk***).

[كُنْجُكْلَنْدِى ***könjükländi***] تُونْ كُنْجُكْلَنْدِى ***ton könjükländi*** – “kiyim chalmali, jiyakli bo‘ldi. Kiyimga jiyak qilindi” (كُنْجُكْلَنُوْرْ ***könjüklänür***, كُنْجُكْلَنْمَاكْ ***könjüklänmäk***).

م ***m*** [harfi]:

[بَجْكَمْلَنْدِى ***bečkämländi***] اَرْ بَجْكَمْلَنْدِى ***er bečkämländi*** – “er jangda va boshqa vaqtlar kiyiladigan kiyimlarini kiydi” (بَجْكَمْلَنُوْرْ ***bečkämlänür***, بَجْكَمْلَنْمَاكْ ***bečkämlänmäk***).

ن ***n*** [harfi]:

[تُرْبُنْلَنْدِى ***turbunlandï***] اَرْ تُرْبُنْلَنْدِى ***er turbunlandï*** – “kishi narsani surishtirdi” (تُرْبُنْلَنُوْرْ ***turbunlanur***, تُرْبُنْلَنْمَاقْ ***turbunlanmaq***).

[كِرْشَنْلَنْدِى ***kiršänländi***] اُرَاغْتْ كِرْشَنْلَنْدِى ***urayut kiršänländi*** – “xotin yuziga upa surdi” (كِرْشَنْلَنُوْرْ ***kiršänlänür***, كِرْشَنْلَنْمَاكْ ***kiršänlänmäk***).

[تُرْكُنْلَنْدِى ***türkünländi***] اَلْ بُو اَفَنِى تُرْكُنْلَنْدِى ***ol bu ewni türkünländi*** – “u bu uyni o‘z uyiday sanadi va unga tushdi” (تُرْكُنْلَنُوْرْ ***türkünlänür***, تُرْكُنْلَنْمَاكْ ***türkünlänmäk***).

[تُشْكُنْلَنْدِي ***tüškünländi***] تَاغْ تُشْكُنْلَنْدِي ***tay tüškünländi*** – “tog‘da tushkun daraxti ko‘paydi”; (tushkun – yelimi foydali bir daraxt) (تُشْكُنْلَنُوْرْ ***tüškünlänür***, تُشْكُنْلَنْمَاكْ ***tüškünlänmäk***).

[چِڤْكِنْلَنْدِي / چِڤْكُنْلَنْدِي ***čiwkünländi / čiwkinländi***] اَلْ بُو اَشِغْ چِڤْكُنْلَنْدِي / چِڤْكِنْلَنْدِي ***ol bu ašïγ čiwkünländi / čiwkinländi*** – “u bu oshni badanni yengillatadigan, badanga foydali deb bildi” (چِڤْكُنْلَنُوْرْ / چِڤْكِنْلَنُوْرْ ***čiwkünlänür / čiwkinlänür***, چِڤْكُنْلَنْمَاكْ / چِڤْكِنْلَنْمَاكْ ***čiwkünlänmäk / čiwkinlänmäk***).

[سُكْمَنْلَنْدِى ***sökmänländi***] اَرْ سُكْمَنْلَنْدِى ***er sökmänländi*** – “kishi o‘zini botirlardan sanadi, ularga taqlid qildi” (سُكْمَكْلَنُوْرْ ***sökmäklänür*** (***sökmänlänür****?*), سُكْمَكْلَنْمَاكْ ***sökmäklänmäk*** (***sökmänlänmäk****?*).

Bu fe’lning buyruq shakli olti harflidir: سُكْمَنْلَنْ ***sökmänlän*** – “botir bo‘l, botirlarcha harakat qil”. Yana: كِرْشَنْلَنْ ***kiršänlän*** – “yuzingga upa sur” (xotin kishiga buyruq).

(203b) Bu bobdagi fe’llar to‘rt xildir:

Birinchi, (so‘zlovchi) o‘zini fe’lda zikr qilingan narsadan sanadi va ular qilganini qo‘lladi. Chunonchi, اَرْ قِڤْجَاقْلَنْدِى ***er qïwčaqlandï***, اَرْ اُغْرَقْلَنْدِى ***er uγraqlandï*** gaplaridagi singari. “Kishi o‘zini qipchoqlardan sanadi va ularning rusumini tutdi”; “Kishi o‘zini ug‘roqlardan sanadi va ularning rusumini tutdi” demakdir.

Ikkinchi, fe’lda zikr qilingan narsaga egalik ma’nosini bildiradi. Chunonchi, اَرْ قِسْرَقْلَنْدِى ***er qïsraqlandï*** – “kishi baytalli bo‘ldi. Yana: اَرْ يَرْمَقْلَنْدِي ***er yarmaqlandï*** – “kishi tangali bo‘ldi” gaplaridagi fe’llar singari.

Uchinchi, to‘rt harfli ismlardan yasalgan fe’l sifatida qo‘llanadi. Chunonchi, اَنِڭ كُوزِى جَلْبَكْلَنْدِى ***anïγ közi čelpäkländi*** – “uning ko‘zi yumildi”. Yana: اَنِڭ كُوزِى

كِرْپِكْلَنْدِى *anïŋ közi kirpükländi* – “uning ko‘zida ko‘zga qadaladigan kiprik o‘sdi” gaplaridagi fe’llar kabi.

To‘rtinchi, bu ma’nolarning birortasini ham anglatmay, mustaqil fe’l bo‘lishidir: **تَرْ بُرْجَقْلَنْدِى *ter burčaqlandï*** – “ter dona-dona bo‘ldi”; **يِلَانْ جُقْمَقْلَنْدِى *yïlan čoqmaqlandï*** – “ilon kulcha bo‘ldi” gaplaridagi fe’llar kabi.

Olti harfli fe’llarning hammasi bu bobda deyarli to‘rt harfli ismlardan tuziladi. Ularda hech bir tub fe’l bo‘lmaydi. Ikki harfli, uch harfli, to‘rt harfli ismlarning hammasidan ham shu ma’nolar istalsa, ism oxiriga لَنْ *-lan, -län* qo‘shilib, shu xil fe’lga aylantiriladi.

Bu qoida hamma turkiy tillarda ham bir xil qat’iydir. Bularni yaxshi esla, unutma.

Tangriga shukur, *sālim* lar bo‘limi bitdi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU *muḍā’af* OTLAR KITOBIDIR

IKKI HARFLI OTLAR BOBI

ت *t* [harfi]:

تَتْ *tat* – butun turklarning nazdida “fors”. Maqolda shunday kelgan: **تَتِغْ كُوزْرَا تِكَانِكْ تُبْرَا *Tatïγ közrä, tikänig tübrä.*** Ma’nosi: “Tatning ko‘ziga ur, tikanni tubidan kes”. Yag‘mo, tuxsilar nazdida bu so‘z “islom dinini qabul qilmagan uyg‘urlar”dir. Men buni o‘z shaharlarida ularning o‘zidan eshitdim. **تَتْ تَقْغَاجْ *tat tawγač*** – “uyg‘urlar va صِين *ṣīn* liklar” (ایغری و صینی), demakdir. Bu ibora **تَتْ *tat*** so‘zini uyg‘urlarga nisbatan ham, صِين *ṣīn* liklarga nisbatan ham qo‘llanishidan darak beradi. Maqol ma’nosi ham shunga olib boradi. (204a) Chunki ular vafosizdir: tikanning jazosi tomiridan uzish bo‘lsa, shuningdek, uyg‘urga lozimi ko‘ziga urishdir. Boshqa bir maqolda shunday kelgan: **تَتْسِزْ تُرك بُلْمَاسْ بَشْسِزْ بُرك بُلْمَاسْ *Tatsïz türk bolmas, bašsïz börk bolmas.*** Ma’nosi: “Forslar bor yerda turklar albatta bor. Boshsiz bo‘rk bo‘lmagani kabi, turksiz fors bo‘lmaydi. Bosh bor yerda bo‘rk, albatta, bor”.

تَتْ / تُتْ *tat* / *tut* – qilich va pichoqlar ustida paydo bo‘ladigan zang. Maqolda (shunday kelgan): **قِلِجْ تَتِقْسَا اِيشْ يُنْجِيرْ اَرْ تَتِقْسَا اَتْ تُنْجِيرْ *Qïlïč tatïqsa, ïš yunčïr, er tatïqsa, et tunčïr.*** Ma’nosi: “Qilich zanglasa, botirning holi yomon bo‘ladi. Er [ya’ni turk] tatlashsa [eroniylar rusumini, odatini tutsa], go‘shti o‘zgaradi, hidlanadi”. Bu maqol botirlikka undalgan kishiga qarata har jinsning o‘z jinsi bilan yashashi to‘g‘risida aytiladi.

چ *č* [harfi]:

خُچْ خُچْ *xoč-xoč* – echki podasini haydashda qo‘llanadigan so‘zdir.

هَچْ هَچْ *heč-heč* – podani qaytarishda qo‘llanadigan so‘z. Asli **اَچْ اَچْ *eč-eč*** dir. So‘ngra so‘z boshiga ه *hā* harfi orttirilgan. Bu arabchaga o‘xshaydi. Chunonchi, arablar qo‘y boshidagi chaqiriqlarida هجهجت deydilar, “qo‘ylarni qaytarish uchun baqirdim” demakdir.

ش *š* [harfi]:

شِشْ *šïš* – tutmoch yeyiladigan cho‘p, qoshiq o‘rnida ishlatiladigan maxsus cho‘p.

ق *q* [harfi]:

قَقْ *qaq* – o‘rik, shaftoli singari mevalarning danagi. Shundan kelib chiqib, “shaftoli va boshqa mevalarning danagi”ga **اَرُكْ قَقِى *erük qaqï*** deyiladi.

[قَقْ *qaq*] قَقْ اَتْ *qaq et* – “qoq go‘sht”. Quritilgan har qanday narsaga ham shu so‘z ishlatiladi.

قَقْ *qaq* – yomg‘ir va sel suvidan paydo bo‘lgan ko‘l.

(Shoir) shunday degan:

قَقْلَرْ قَمُغْ كُلَرْدِى *Qaqlar qamuγ kölärdi,*
تَغْلَرْ بَشِى اِلَرْدِى *Taγlar bašï ilärdi.*
اَژُنْ تَنِى يِلِرْدِى *Ažun tanï yïlïrdï,*
تُوتُو جَجَكْ جَرْكَشُورْ *Tü-tü čečäk čergäšür.*

Ko‘klamni ta’riflab aytmoqda: “Yomg‘ir va seldan yuzaga kelgan ko‘llar to‘lib-toshdi. Ko‘llardagi suvning ko‘pligidan tog‘larning boshi xiyol ko‘rindi, chunki suv tog‘ etagini ham qoplagan edi. Dunyoning nafasi ilidi, rang-barang chachaklar chaman bo‘lib ochildi”.

ك *k* [harfi]:

كَكْ *kek* – “kek, xusumat, o‘ch”. Shundan kelib chiqib, اُجْلُكْ كَكْلِكْ كِشِى *öčlüg-keklig kiši* deyiladi, ma’nosi: “o‘chli-kekli kishi, kek saqlovchi kishi”dir.

كَكْ *kek* – “qiyinchilik”. Shundan kelib chiqib, اَرْ كَكْ كُرْدِى *kek kördi er* deyiladi, “kishi qiyinchilik ko‘rdi” demakdir.

كُكْ *kök* – “egar chilviri. (204b) Maqolda (shunday kelgan): اَرْ سُوزِى بِيرْ اَذَرْ كُكِى اُوجْ *Er sözi bir, eδär köki üč.* Ma’nosi: “Kishi bir so‘zli, qaytmaydigan bo‘ladi. Egarning chilviri uchta bo‘lganiday, uning ham, buning ham kamayish-ko‘payishi ishni buzadi”. Bu maqol va’daga vafo qilishga undab aytiladi.

كُكْ *kök* – “asl, tomir, tag”. Shunga ko‘ra, كُكُنَكْ كِمْ *kökünγ kim?* deb so‘raladi, “asling kim, qaysi qabiladansan?” demakdir (o‘g‘uzlar va qipchoqlar so‘zi).

Ikki harflilar bobi tugadi.

BU UCH HARFLILAR BOBLARIDIR

O‘rta harfi har xil unlilar bo‘lgan فَعَل *fa’al* kabi so‘zlar bo‘limi

ت *t* [harfi]:

قَتُتْ *qatut* – “aralashish, qotishish”. Shundan kelib chiqib, قَتُتْ لُغْ اُقْ *qatutluγ oq* deyiladi, “tig‘i zaharga qotishtirilgan o‘q” demakdir.

قَتُتْ *qatut* – “har qanday narsaning danagi, urug‘i”; barsg‘anlar tilida. Shundan kelib chiqib, اَرْمُتْ قَتُتّى *armut qatuttï* deyiladi, “nashvoti danak soldi” demakdir.

قَتُتْ *qatut* – kosiblar ishlatadigan yelim.

كَتُتْ كِشِى *ketüt kiši* – “besh qo‘lini og‘ziga tiquvchi, yeb to‘ymas kishi”.

ج ***č*** [harfi]:

قَجَجْ ***qačač*** – صين *ṣīn* tovori. To‘g‘risi **قَجَاجْ** dir. Joriyalarni ham shu so‘z bilan ataydilar.

قَجَاجْ ***qačač*** – “kir, nopok”. **تُونْ قَجَاجْ بُلْدِى** ***ton qačač boldï*** deyiladi, “kiyim kir bo‘ldi” demakdir; ج *čīm* harfi *qāf* o‘rniga almashgan. Asli **قَقَاجْ** ***qaqač*** dir.

ق ***q*** [harfi]:

بُقَقْ ***buqaq*** – “buqoq”.

بُقُقْ ***buquq*** – “gullar to‘dasi, gullar g‘unchasi”; **جَجَكْ بُقُقْلَنْدِى** ***čečäk buquqlandï*** – “gul g‘unchaladi”; bu gulning ochilishidan avvalgi vaqtdir.

(Shoir) shunday degan:

تَكْمَا جَجَكْ اُكْلْدِى	***Tegmä čečäk ügüldi,***
بُقُقْلَنْبْ بُكْلْدِى	***Buquqlanïp bögüldi.***
تُكْسُنْ تُكُنْ تُكُلْدِى	***Tügsün tügün tügüldi,***
يَزْلِبْ يَنَا يُرْكَشُورْ	***Yazlïp yana yörgäšür.***

Ko‘klamni ta’riflab aytmoqda: “Har turli chechaklar to‘p-to‘p bo‘lib, g‘unchalar chiqardi. Burchakli tugunlar ko‘rinishida bog‘lanishdi. Ular yoyilib, qayta yig‘iladi”.

بُقُقْ ***buquq*** – “buqoq, tomoqning ikki tarafi, teri bilan go‘sht orasida paydo bo‘ladigan et bezi”. (205a) فَرْغَانَه *Farγāna* bilan شِقْنِى *Šïqnï* shaharlarida bir qancha kishi bu dardga yo‘liqqan, bu dard nasldan-naslga ham o‘tgan. Ba’zilarining bo‘qog‘i kattaligidan ko‘kragini ko‘rolmas darajaga yetgan. Men ulardan bu kasalning sirini so‘raganimda, shunday javob bergan edilar: “Bobolarimiz g‘oyat baland tovushli kofirlar ekan. Ular sahobalar bilan jang qilishibdi. Otalarimiz ularga katta kuch bilan bostirib boribdilar, baland ovozda baqirib-chaqiribdilar. Musulmonlar ularning haybatli tovushidan hayajonga tushibdi. Bu voqea hazrati Umarning qulog‘iga ham yetib boribdi. Hazrati Umar ularni qarg‘abdi. Natijada ularning bo‘g‘izlarida shu dard paydo bo‘lgan va bu dard ularga meros bo‘lib qolgan ekan. Hozir ular orasida biror baland ovozli kishi topilmaydi”.

تَقُقْ ***taquq*** – turkman tilida “tovuq”.

سَقَقْ ***saqaq*** – “iyak”. Maqolda (shunday kelgan): **سَقَقْ اُخْشَارْ سَقَالْ بِجَارْ** ***Saqaq oxšar, saqal bïčar.*** Ma’nosi: “Soqolini qirqadi-da, hiyla bilan iyagini silaydi”. Bu arablarning يسر حسوا فى ارتغا iborasiga o‘xshaydi.

سُقَقْ ***soqaq*** – “oq kiyik”.

سُقَقْ ***soqaq*** – bu so‘zni o‘g‘uzlar forslarga kinoya tarzida qo‘llaydilar. Chunonchi, **بُو سُقَقْ نَا تِيرْ** ***bu soqaq ne ter?*** deydilar, “bu forscha nima dedi?” demakdir.

ك ***k*** [harfi]:

تُگَکْ *tügäk* – yuk bog‘lanadigan arqonlarning boshiga bog‘lanadigan yog‘och halqa.

جَکُکْ *čekük* – “temirchining bolg‘asi” (o‘g‘uzcha).

جَکِگْ *čekig* – “nuqta, xat nuqtasi”.

جَکِکْ *čekik* – “chuk, yosh bolalar chuki”.

جَکِکْ *čekik* – chumchuqdan kichikroq bir turli chinor qushi.

کَکُکْ *kekük* – bir turli qush. So‘ngagi, bo‘ynini sehrgar duoxonlar ishlatadi.

يَتُتْ *yetüt* – qo‘shinga yordamchi kuch kelishi. Bu so‘z **يَتُتْ سَچْ *yetüt sač*** (“dastlabki qo‘yilishdan keyin qo‘yilgan soch”) iborasidagi **يَتُتْ *yetüt*** so‘zidan olingan.

Bu bo‘limning *miṣāl* qismi

کُکَاگُونْ *kökägün* – “ko‘k pashsha, so‘na”. Maqolda (shunday kelgan): **اِکّی بُغْرَا اِکَاشُورْ اُتْرَا کُکَاگُونْ يَنْجِلُورْ *İkki buγra igäšür, otra kökägün yenčilür.*** Ma’nosi: “Ikki bug‘ra olishadi va tishlashadi, oralarida so‘na yanchiladi”. Bu maqol ikki botirning urushishi va orada kuchsizlarning yanchilishiga ishora qilib aytiladi. (205b)

Uch harflilar bo‘limi tugadi.

BU TO‘RT HARFLILAR BOBLARIDIR

فَعْلَال *fa’lāl* qolipidagi so‘zlar

غ *γ* [harfi]:

تُلْغَاغْ *tolγaγ* – quloqning yuqorisiga taqiluvchi xotinlar ziragi; **يِنْجُو تُلْغَاغْ *yinčü tolγaγ*** (“inju zirak”) iborasi shundan kelib chiqqan.

تُلْغَاغْ *tolγaγ* – “qiynalish”. Asli **اَمْکَاکْ تُلْغَاغْ *emgäk tolγaγ*** (“yurak burug‘i, ichburug‘”) ma’nosidadir; **اَنِکْ قَرْنی تُلْغَارْ *anïγ qarnï tolγar*** – “unda qattiq ich ketish, qayt qilish boshlandi”.

تَلْغَاغْ *talγaγ* – har yoqdan esgan qattiq izg‘irin shamol bo‘lib, u kishini behush qiladi, hatto o‘ldiradi; **تَاغْ اُزَا تَلْغَاغْ بُلْدِی *tay üzä talγaγ boldï*** – “toqqa qor yog‘di, qattiq xavfli shamol bo‘ldi”.

قَرْغَاقْ *qarγaq* – “qarg‘ish”; **تَنْکْرِی قَرْغَاغِنْکَا اِلِنْمَا *täŋri qarγaγïŋa ilinmä*** – “Tangri taoloning qarg‘ishiga yo‘liqma”.

قِرْغَاغْ *qïrγaγ* – “to‘n jiyagi, chalmasi”.

قِرْغَاغْ *qïrγaγ* – shoh yoki bek o‘zidan quyi turganlarga g‘azab qilishi; **خَانْ اَنِی قِرْغَادِی *xan anï qïrγadï*** – “xon uni qarg‘adi, unga g‘azab qildi, unga qarshi bo‘ldi”. Xudo qarg‘asa, **قَرْغَادِی *qarγadï***, kishi qarg‘asa, **قِرْغَادِی *qïrγadï*** deyiladi.

Bu qarg‘ishlarni farq qilish uchun birinchisida *alif* bilan, ikkinchisida *yā* bilan قِرْغَادِى ***qïrγadï*** deb talaffuz qilingan. Chunonchi, “Tangri taoloning elchisi” bilan “shoh elchisi”ni farq qilib, birinchisi يَلَافَچْ ***yalawač,*** ikkinchisi يَلَافَرْ ***yalawar*** deyiladi (bu uyg‘urchadir).

ق ***q*** [harfi]:

تُلْقُوقْ ***tulquq*** – “shishirilgan mesh, tulum”.

ک ***k*** [harfi]:

[يُرْگَکْ ***yürgäk***] كُوکْ يُرْگَکْ بُلْدِى ***kök yürgäk boldï*** – “ko‘k quyuq bulutlandi”.

بَزْگَاکْ ***bezgäk*** – “bezgak”.

تُرْگَاکْ ***türgäk*** – bo‘g‘cha.

تَزْگَاکْ اَرْ ***tezgäk er*** – ishdan, o‘qishdan qochuvchi (dangasa) kishi.

سَرْگَکْ ***sergäk*** – mastlikdan chayqalish, qiyshayish, sollanish, gandiraklash; اَسْرُکْ سَرْگَکْلَدِى ***esrüg sergäkländi*** – “mast gandirakladi, chayqaldi”.

گَرْگُکْ ***kergük*** – qo‘yning qat-qat qorni ichidagi katakchalarga o‘xshash narsa.

کَسْگُکْ ***kesgük*** – it bo‘yniga bog‘lanadigan tasma.

كُسْگُکْ ***kösgük*** – g‘allazorlarda, tokzorlarda ko‘zdan (qush va boshqa hayvonlardan) saqlash uchun tiklab qo‘yiladigan odam ko‘rinishidagi qo‘riqchi. Maqolda (shunday kelgan): اَلِينْ اَرسْلَانْ تُتَرْ كُوجُونْ كُسْگُکْ تُتْمَاسْ ***Alïn arslan tutar, küčün kösgük tutmas.*** (206a) Ma’nosi: “Hiyla va tadbir bilan arslon tutish mumkin, lekin kuch bilan qo‘g‘irchoq-qo‘riqchini ham tutib bo‘lmaydi”.

كُرْگَاکْ ***kürgäk*** – kemachilarning eshkaklari va har qanday narsaga qo‘llanadigan belkurak.

كَفْگَاکْ ***kewgäk*** – tutilib so‘zlaydigan, duduq kishi.

فَعَلْعَل ***fa’al’al*** qolipidagi besh harfli so‘zlar bo‘limi

ک ***k*** [harfi]:

سَمُرْگُوکْ ***semürgük*** – bulbulga o‘xshash bir qush. بَلاسَاغُون *Balasayun* liklar so‘zi.

(Shoir) shunday degan:

بُجْ بُجْ اَتَرْ سَمُرْگُکْ ***Buč-buč etär semürgük,***
بُغْزِى اُجُونْ مَنْکْلَنُورْ ***Boγzï üčün meŋlänür.***

Aytmoqdaki: “Yoqimli sayrog‘i bilan kishini sevintiruvchi qush och qolsa, don deb tuzoqqa ilinadi”.

كَذِزْگَاکْ قَاغُونْ ***keδizgäk qaγun*** – “tarovati ketib, paxtadek bo‘lib qolgan qovun”.

كِشِرْگَاکْ اَرْ ***kiširgäk er*** – “o‘taketgan baxil kishi”. Uyiga mehmon kelsa, uyi tor ko‘rinadigan kishi.

Bu bo‘limning *γunna* lilari

جَنـكَلْ اَرْ *čeŋäl er* – “yomon kishi”.

جُنـكَكْ *čüŋäk* – yog‘ochdan qilingan sut sog‘adigan idish, yog‘och chelak (chigilcha).

تَرنـكَكْ *teriŋäk* – “sizindi suv”. Arabchasi **تَرِنْقُقْ *tarïnquq*** dir. *qāf kāf* ga almashtirilgan. Bu so‘z arabchaga mos keladi.

Tangriga shukr, *muḍā’af* ismlar bo‘limi bitdi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU *muḍā’af* FE’LLAR KITOBIDIR

IKKI HARFLILAR BOBI

Bir harfi ikki bor qaytalanuvchi so‘zlar asosiy fe’llar orasida oz topiladi. Bunday fe’llar oxirida faqat *tā* harfi kelgan fe’llardagina bo‘ladi. Bunday fe’llarda o‘tgan zamon fe’lining qo‘shimchasi *dāl* fe’l o‘zagidagi *tā* bilan birikib, *tā* ga aylanadi. Bir harfning takrori yuz beradi. Biz shularni *muḍā’af* deymiz. Kelasi zamon fe’li va masdarlarda bir harfi ikki bor qaytalanganlar yo‘qligidan ham buni bilish mumkin. Aslida bir harfi qaytalangan so‘zlar juda ozdir. Shuning uchun alohida ko‘rsatdik.

ت *t* [harfi]:

[**تُتّى *tuttï***] **بَشْ تُتّى *baš tuttï*** – “yara og‘ritdi” (**تُتَارْ *tutar*, تُتْمَاقْ *tutmaq***).

[**تُتّى *tuttï***] **اِتْ كَيِكْ تُتّى *it keyik tuttï*** (206b) – “it kiyik va boshqa hayvonlarni tutdi”. Biror kimsaning bir narsani tutishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[**تُتّى *tuttï***] **اُلْ مَنكَا اَلِكْ تُتّى *ol meŋä elig tuttï*** – “u menga kafil bo‘ldi”. Maqolda (shunday kelgan): **اَلِكْ تُتْغِنْجَا اُتْ تُتْ *Elig tutγïnča, ot tut.*** Ma’nosi: “(Birovga) kafil bo‘lguncha, olov ushlash yaxshi”. Chunki kafil bo‘lgan kishi keyin pushaymon bo‘ladi (**تُتَارْ *tutar*, تُتْمَاقْ *tutmaq***).

[**تِتّى *tïttï***] **اُلْ اَنِى تِتّى *ol anï tïttï*** – “u uni qaytardi”. Asli **تِيِذْتِى *tïðtï*** dir. Keyinchalik bu harflar bir-biriga singigan (**تِذَارْ *tïðar*, تِذْمَاقْ *tïðmaq***).

[**تِتّى *tïttï***] **اُلْ اَتْ تِتّى *ol et tïttï*** – “u pishgan go‘shtni titdi”. Kiyimni yirtib, tit-pitini chiqarishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[**تِتّى *tïttï***] **قُلْ بَكْ كَا تِتّى *qul begkä tïttï*** – “qul bekka va boshqalarga qarshi turdi”.

[**تِتْرُو بَقْدِى *titrü baqdï***] **اُلْ اَنكَارْ تِتْرُو بَقْدِى *ol aŋar titrü baqdï*** – “u unga tik qaradi”. Go‘zallar to‘g‘risida shunday deyilgan: **اَنكَارْ تِتْرُو بَقْسَا بُلْمَاسْ *aŋar titrü baqsa bolmas*** – “unga tik boqish, boqib turish mumkin emas”. Ba’zan bu so‘z “qiyo boqish; yomon qarash” ma’nosida ham keladi (**تِتَارْ *titär*, تِتْمَاكْ *titmäk***). “Go‘sht va kiyimni yirtish” ma’nosida bu so‘zning masdar shakli *qāf* bilan keladi (**تِتَارْ *tïtar*, تِتْمَاقْ *tïtmaq***).

س *s* [harfi]:

[**سُسْدِى *süsdi***] **اُوذْ سُسْدِى *uð süsdi*** – “sigir, ho‘kiz va boshqalar suzdi” (**سُسَارْ *süsär*, سُسْمَاكْ *süsmäk***).

ش *š* [harfi]:

[شَشْدِی *šešdi*] اَرْ تُکُونْ شَشْدِی ***er tügün šešdi*** – “kishi tugun yechdi”. Ot va boshqa hayvonlarni bog‘lovidin yechishga ham shu so‘z qo‘llanadi (شَشَارْ ***šešär,*** شَشْمَاکْ ***šešmäk***).

ق ***q*** [harfi]:

[قَقْتِی *qaqtï*] اَنِی بَشْرَا قَقْتِی ***anï bašra qaqtï*** – “uning boshiga qoqib qo‘ydi, sekin urdi” (قَقَارْ ***qaqar,*** قَقْمَاقْ ***qaqmaq***).

[قُقْتِی *qoqtï*] يَاغ اُوتّا قُقْتِی ***yaγ otta qoqtï*** – “yog‘ tutuni o‘tda ko‘tarildi”. Bu o‘chirilgan chiroqning tutuni ko‘tarilishiga o‘xshaydi. Go‘sht kuyib, hidi chiqsa ham اَتْ قُقْدِی ***et qoqdï*** deyiladi (قُقَارْ ***qoqar,*** قُقْمَاقْ ***qoqmaq***).

ک ***k*** [harfi]:

[کِکْدِی *kikdi*] بِجَاکْ کِکْدِی اَرْ ***pičäk kikdi er*** – “kishi pichoq qayradi yoki birini biriga surtdi” (کِکَارْ ***kikär,*** کِکْمَاکْ ***kikmäk***).

O‘zaklarning o‘zidan bir harfi ikki bor qaytalanganlari mana shulardir. Boshqalari yasalmaydi. Ular quyidagilar:

ت ***t*** [harfi]:

[بَتّی *battï*] کُونْ بَتّی ***kün battï*** (207a) – “kun botdi”.

[بَتّی *battï*] قُرْغَرِینْ سُقْقَا بَتّی ***qorγarïn suwqa battï*** – “qo‘rg‘oshin va boshqalar suvga botdi”. Har bir narsa ko‘zdan g‘oyib bo‘lishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَتَارْ ***batar,*** بَتْمَاقْ ***batmaq***).

[بُتّی *bütti*] اَرْ اُونِی بُتّی ***er üni bütti*** – “ko‘ksidagi bir kasallik yoki boshqa bir illat sababli va yo kaltak zarbi sababli kishining uni o‘chdi”.

[بُتّی *bütti*] اَنِکْ اَلِمِی بُتّی ***anïγ alïmï bütti*** – “uning birovdan oladigan qarzi isbotlandi va aniqlandi”.

[بُتّی *bütti*] بَاشْ بُتّی ***baš bütti*** – “yara tuzaldi”.

[بُتّی *bütti*] قُلْ تَنکرِی کَا بُتّی ***qul täŋrikä bütti*** – “qul (banda) Tangri taoloning birligiga iqror bo‘ldi”.

[بُتّی *bütti*] اُتْ بُتّی ***ot bütti*** – “o‘t undi”. Mevaning o‘sishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[بُتّی *bütti*] اُغْلَانْ بُتّی ***oγlan bütti*** – “o‘g‘il tug‘ildi”. O‘sgan har bir narsaga yoki yaratilgan va tug‘ilganga qipchoqlar بُتّی ***bütti*** deydi (بُتَارْ ***bütar,*** بُتْمَاکْ ***bütmäk***).

[جَتّی *čattï*] اَرْ اُغْلَاقْ قُزِی قَا جَتّی ***er oγlaq qoziqa čattï*** – “kishi uloqni qo‘ziga chatishtirdi, birlashtirdi”. Boshqa hayvonlarga ham shunday deyiladi (جَتَارْ ***čatar,*** جَتْمَاقْ ***čatmaq***) (o‘g‘uzcha).

(Shoir) shunday degan:

اُرْدْلَنِبْ يُکْسَکْ تَغْغْ اُغْلَاقْ جَتَارْ	***Orδulanïp yüksäk tayïγ oγlaq čatar,***
اُيْغُرْ تَتِنْ يُفْغَا اَلِبْ يُمْغِنْ سَتَارْ	***Uyγur tatïn yuwγa alïp yumγïn satar.***

Tog‘ tepasiga joylashgan kishi to‘g‘risida aytmoqda: “U tog‘ tepasiga joylashdi, har vaqt qo‘zini uloq va boshqalarga birlashtiradi. Ya’ni u cho‘pondir. Yana u uyg‘ur totlarga aralashib, ulardan suruv olib, ularni sotadi”.

[سَتّى *sattï*] اُلْ تَقَّارْ سَتّى ***ol tawar sattï*** – “u mol va boshqa narsalarni sotdi” (سَتَارْ ***satar***, سَتْمَاقْ ***satmaq***).

[سُتّى *sutti*] اُلْ كِشِى يُوزِينكَا سُتّى ***ol kiši yüziŋä sutti*** – “u kishining yuziga tupurdi”. Asli سُوذْتِي ***suδti*** dir: *dāl* tovushi *tā* ga singib, ikki *tā* paydo bo‘lgan (سُذَارْ ***suδar***, سُذْمَاقْ ***suδmaq***).

[سِتّى *sitti*] اَرْ سِتّى ***er sitti*** – “kishi va boshqalar siydi”. Asli سِيذْتِى ***siδti*** dir (سِذَارْ ***siδär***, سِذْمَاكْ ***siδmäk***).

[قَتّى *qattï*] اُلْ سِرْكَانِى يُغُرْتْقَا قَتّى ***ol sirkäni yoγrutqa qattï*** – “u sirkani suzmaga aralashtirdi”. Biror narsani ikkinchisiga aralashtirishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قَتّى *qattï*] يُمْشَاقْ نَانكْ قَتّى ***yumšaq näŋ qattï*** – “yumshoq narsa qotdi” (قَتَارْ ***qatar***, قَتْمَاقْ ***qatmaq***).

[قُتّى *qottï*] اُلْ نَانكْ قُتّى ***ol näŋ qottï*** – “u narsani tashladi, qo‘ydi”. (207b) Asli قُوذْتِى ***qoδtï*** dir (قُذْمَاقْ ***qoδmaq***, قُذُورْ ***qoδur***).

[كَتّى *ketti*] اَرْ تُونِنْ كَتّى ***er tonïn ketti*** – “kishi kiyimini kiydi”. Asli كَذْتِى ***keδti*** dir (كَذَارْ ***keδär***, كَذْمَاكْ ***keδmäk***).

[كَتّى *ketti*] اَرْ يِيرِنْدِنْ كَتّى ***er yerindin ketti*** – “kishi joyidan ketdi” (كَذَارْ ***keδär***, كَذْمَاكْ ***keδmäk***).

Qoida: bu bobning buyruq shakli ikki harflidir. Shuning uchun biz bu bobni ikki harfli deb atadik. Chunonchi, اَتْ تُتْ ***at tut*** – “otni ushla”; تَقَّارْ سَتْ ***tawar sat*** – “mol sot” gaplaridagi تُتْ ***tut*** va سَتْ ***sat*** buyruqlari singari. Bu bobning o‘tgan zamon shaklida bir harfi ikki bor qaytalangani uchun, harfi qaytalangan bob deb ataladi. Bu hol arabchaga o‘xshamaydi. Arabchada o‘tgan zamon fe’lida harf qaytalansa, bu tilda kelasi zamon fe’li va masdarlarida ham qaytalanadi. Lekin arabchaga o‘xshashlik faqat o‘tgan zamon fe’l shaklidadir. Shuning uchun shunday ataldi. Bu fe’llarda ishning bajaruvchisini bildiruvchi shakl turk qabilalarida تُتْغُوچِى ***tutγučï*** – “oluvchi, ushlovchi”; سَتْغُوچِى ***satγučï*** – “sotuvchi”dir. Turkmanlar va ularning qo‘shnilarida bu ma’noni anglatuvchi shakl تُتّجِى ***tuttačï***, سَتّجِى ***sattačï*** dir.

Ishning ko‘p martalab ishlanganini bildiruvchi shakllar: تُتْغَانْ ***tutγan*** – “juda ko‘p olgan”, سَتْغَانْ ***satγan*** – “juda ko‘p sotuvchi” demakdir.

Maqsad ishni ishlash ekanini bildiruvchi shakllar تُتُغْسَاقْ ***tutuγsaq***, سَتِغْسَاقْ ***satïγsaq*** bo‘lib, “olish maqsadida”, “sotish maqsadida” degan ma’nolardadir.

Ishni qilish uning vazifasi ekanini bildiruvchi fe’l shakli bu bobda تُتْغُلُقْ ***tutγuluq*** dir: اُلْ تُتْغُلُقْ اَرْدِى ***ol tutγuluq erdi*** – “uning vazifasi olish edi”; اُلْ سَتْغُلُقْ تُرُرْ ***ol satγuluq turur*** – “uning vazifasi sotishdir”. O‘g‘uzlar bu ma’noni anglatish uchun bu shakllardagi *lām* harfini *sīn* ga almashtiradilar: اُلْ اَنِى تُتْغْسَقْ اَرْدِى ***ol anï tutuγsaq erdi*** – “uning vazifasi uni olish edi”; اُلْ اَنِى سَتِغْسَقْ اُلْ ***ol anï satïγsaq-ol*** – “uning vazifasi uni sotishdir” kabi.

Harakatni bajarish sharafiga egalik mazmunini bildiruvchi shakl تُتُغْلِى ***tutuγlï*** dir: اُلْ اَنِى تُتُغْلِى اُلْ ***ol anï tutuγlï-ol*** – “u uni tutishga intilgan”; اُلْ تَقَّارِنْ سَتِغْلِى اُلْ ***ol tawarïn satïγlï-ol*** – “u molini sotishga intilgandir”. Boshqa xil fe’llarni tuzish

qoidasi yuqoridagi boblarda keltirilgan qoidalarga to‘liq mos keladi. Qoidalar bu bobda bir xil bo‘lib, hech qachon o‘zgarmaydi. (208a)

Ikki harflilar tugadi.

BU UCH HARFLILAR BOBLARIDIR

فَعَلْدِى *fa’aldī* qolipidagi har bir harfi cho‘zg‘ili so‘zlar bo‘limi

ب ***p*** [harfi]:

[جَبِتّى ***čapïttï***] اِتْ كِشِى كَا جَبِتّى ***ït kišikä čapïttï*** – “it kishiga tishi bilan chovut soldi”.

[جَبِتّى ***čapïttï***] بَكْ اَنِكْ بُيْنِنْ جَبِتّى ***beg anïŋ boynïn čapïttï*** – “bek uning bo‘ynini chopishga buyurdi” (uyg‘urcha) (جَبِتُوْر ***čapïtur***, جَبِتْمَاقْ ***čapïtmaq***).

[سَبِتّى ***sabïttï***] اَتْ قُذْرُقْ سَبِتّى ***at quδruq sabïttï*** – “ot quyrug‘ini qimirlatdi”; اِتْ قُذْرُقْ سَبِتّى ***ït quδruq sabïttï*** – “it quyrug‘ini likillatdi” (سَبِتُر ***sabïtur***, سَبِتْمَاقْ ***sabïtmaq***).

[سُبِتّى ***subïttï***] اُلْ نَانكْنِى سُبِتّى ***ol näŋni subïttï*** – “u narsani o‘tkirlatdi”. Bu bir narsaning uchini, masalan, mixning uchini cho‘zish orqali yuzaga keladi (سُبِتُوْر ***subïtur***, سُبِتْمَاقْ ***subïtmaq***).

[كَبِتّى ***kebitti***] يِلْ تُونُغْ كَبِتّى ***yel tonuγ kebitti*** – “shamol kiyimni biroz quritdi” (كَبِتُوْر ***kebitür***, كَبِتْمَاكْ ***kebitmäk***).

[كُبِتّى ***köpitti***] اُلْ تُونِنْ كُبِتّى ***ol tonïn köpitti*** – “u guppi to‘n tikishga buyurdi” (كُبِتُوْر ***köpitür***, كُبِتْمَاكْ ***köpitmäk***).

ت ***t*** [harfi]:

[بِتِتّى ***bititti***] اُلْ بِتِكْ بِتِتّى ***ol bitig bititti*** – “u xat yozdirdi” (بِتِتُوْر ***bititür***, بِتِتْمَاكْ ***bititmäk***).

[تَتِتّى ***tatïttï***] تُوزْ اَشِغْ تَتِتّى ***tuz ašïγ tatïttï*** – “tuz oshni totli qildi”. Biron narsaning mazasiga ta’sir etgan har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَتِتُوْر ***tatïtur***, تَتِتْمَاقْ ***tatïtmaq***).

[تُتَتّى ***tütättï***] اُوتْ تُتُونْ تُتَتّى ***ot tütün tütättï*** – “o‘t tutab yondi, olov tutadi” (تُتِتُوْر ***tütitür***, تُتِتْمَاكْ ***tütitmäk***).

[قُتَتّى ***qutattï***] اَرْ قُتَتّى ***er qutattï*** – “kishi baxtli, davlatli, baland martabali bo‘ldi”. Ulug‘langan, martaba topgan har kimsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُتَاتُرْ ***qutatur***, قُتَتْمَاقْ ***qutatmaq***).

ج ***č*** [harfi]:

[سَجِتّى ***sačïttï***] اُلْ اَنكَرْ سُقْ سَجِتّى ***ol aŋar suw sačïttï*** – “u unga suv va boshqa narsalarni sachratdi” (سَجِتُوْر ***sačïtur***, سَجِتْمَاقْ ***sačïtmaq***).

[سَجِتّى ***sačïttï***] اُلْ اَنِكْ مِنكِيسِنْ سَجِتّى ***ol anïŋ meŋisin sačïttï*** – “u uni urib dimog‘ini yordi”. Tarqatishga, sochishga buyurilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[سُجِتّی ***sučitti***] اُلْ اَجِغْ نَانـكْنِی سُجِتّی ***ol ačïγ näŋni sučitti*** – “u achchiq va nordon narsani chuchutdi”.

[سُجِتّی ***sučitti***] اُلْ يِيرکْ سُجِتّی ***ol yerig sučitti*** – “u ekin bitmas (sho‘rxok) yerni ishga soldi” (سُجِتُورْ ***sučitür***, سُجِتْمَاکْ ***sučitmäk***). (208b)

[سِجِتّی ***sïčïttï***] اُلْ اَنِی سِجِتّی ***ol anï sïčïttï*** – “u uni to‘sdi” (سِجِتُورْ ***sïčïtur***, سِجِتْمَاقْ ***sïčïtmaq***).

[سُجِتّی ***sočïttï***] اُلْ اَتِغْ سُجِتّی ***ol atïγ sočïttï*** – “u otni va boshqa hayvonni cho‘chitdi, qo‘zg‘atib yubordi” (سُجِتُورْ ***sočïtur***, سُجِتْمَاقْ ***sočïtmaq***).

[قَجِتّی ***qačïttï***] اُلْ اَنِی قَجِتّی ***ol anï qačïttï*** – “u uni qochtirdi” (قَجِتُورْ ***qačïtur***, قَجِتْمَاقْ ***qačïtmaq***).

[کَجِتّی ***kečitti***] اُلْ اَنـكَرْ سُوقْ کَجِتّی ***ol aŋar suw kečitti*** – “u unga suv kechtirdi” (کَجِتُورْ ***kečitür***, کَجِتْمَاکْ ***kečitmäk***).

[کُجَتّی ***küčätti***] اُلْ اَنِکْ تَقَارِنْ کُجَتّی ***ol anïŋ tawarïn küčätti*** – “u uning molini qo‘lidan tortib olishga undadi” (کُجَتُورْ ***küčätür***, کُجَتْمَاکْ ***küčätmäk***).

[کِجِتّی ***kičitti***] اَنِکْ اُدُوزِی کِجِتّی ***anïŋ uδuzï kičitti*** – “uning qo‘tirini qichitdi” (کِجِتُورْ ***kičitür***, کِجِتْمَاکْ ***kičitmäk***).

[کَجِتّی ***kečitti***] اُلْ اِيشِغْ کَجِتّی ***ol ïšïγ kečitti*** – “u ishni kechiktirdi” (کَجِتُورْ ***kečitür***, کَجِتْمَاکْ ***kečitmäk***).

د ***d*** [harfi]:

[بَذْتّی ***beδütti***] اُلْ اُوغْلَانِغْ بَذْتّی ***ol oγlanïγ beδütti*** – “u bolani tarbiya qildi va ulg‘aytirdi” (بَذْتُورْ ***beδütür***, بَذْتْمَاکْ ***beδütmäk***).

[قَذِتّی ***qaδïttï***] اَرْ بَرِيرْ اَرْکَانْ قَذِتّی ***er barïr erkän, qaδïttï*** – “kishi yo‘lda bora turib, qaytdi” (قَذِتَارْ ***qaδïtar***, قَذِتْمَاقْ ***qaδïtmaq***). Kishi sovqotib o‘lsa, اَرْ تُمْلُغْقَا قَذِتّی ***er tumluγqa qadïttï*** deyiladi, bu “kishi sovqotib o‘ldi” demakdir.

[قَذِتّی ***qaδïttï***] اُلْ تُونُغْ قَذِتّی ***ol tonuγ qaδïttï*** – “u to‘nni qayirib tikishga buyurdi” (قَذِتُورْ ***qaδïtur***, قَذِتْمَاقْ ***qaδïtmaq***).

[قِذِتّی ***qïδïttï***] اُلْ بُرْکِنْ قِذِتّی ***ol börkin qïδïttï*** – “u qalpog‘ining zihini qaytarib tikishga, qaytarma qalpoq qilishga buyurdi” (قِذِتُورْ ***qïδïtur***, قِذِتْمَاقْ ***qïδïtmaq***).

Bu fe’llarning hammasidagi *dāl* ni ذ *δāl* gumon qilib, *dāl* ni *yā* qiluvchilar bor. Yag‘mo, tuxsi, o‘g‘uz, uyg‘urlar tevaragida ham buni eshitdim. *dāl* ni ذ *δāl* ga almashtirish arablarda ham bor. Chunonchi, ماذقت عدوقا و لاعذوفا deyilgandagi kabi ayrim so‘zlarda ham *dāl* bilan, ham ذ *δāl* bilan teng qo‘llanadi.

ذ ***δ*** [harfi]:

[يُذْتّی ***yuδuttï***] اُلْ کِشِی نِی تُمْلُغْقَا يُذْتّی ***ol kišini tumluγqa yuδuttï*** – “u kishini sovuqda qoldirib qotirdi, hatto kishi o‘ldi” (يُذْتُورْ ***yuδutur***, يُذْتْمَاقْ ***yuδutmaq***).

[بُذْتّی ***büδütti***] اُلْ اُغْلِنِی بُذْتّی ***ol oγlïnï büδütti*** – “u o‘g‘lini o‘yinga soldi, u o‘ynadi” (بُذْتُورْ ***büδütür***, بُذْتْمَاکْ ***büδütmäk***).

[سِذِتّی ***siδitti***] اُرَاغْتْ اُغْلِنْ سِذِتّی ***uraγut oγlïn siδitti*** – “xotin o‘g‘lini to‘sdi”. Otning egasi otini siydirishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سِذِتُورْ ***siδitür***, سِذِتْمَاکْ ***siδitmäk***).

ر ***r*** [harfi]: (209a)

[بُرُتّی ***burutti***] اُوتْ اَشِجْنِی بُرُتّی ***ot ešični burutti*** – “o‘t qozon va boshqa narsalarni bug‘latdi”.

[بُرُتّی ***burutti***] اُغْلَانْ بُرُتّی ***oγlan burutti*** – “bola sassiq yel chiqardi”; بِرِتّی ***birittï*** talaffuzi ham bor (بُرُتُورْ ***burutur***, بُرُتْمَاقْ ***burutmaq***).

[تَرُتّی ***tarutti***] اُلْ اَنکَرْ اَفِنْ تَرُتّی ***ol aŋar ewin tarutti*** – “u unga uyni tor qildi”. Har qanday narsaning toraytirilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَرُتُورْ ***tarutur***, تَرُتْمَاقْ ***tarutmaq***).

[تُرُتّی ***törütti***] تَنکْرِی يَلِنکُقْ تُرُتّی ***täŋri yalïŋuq törütti*** – “Tangri taolo insonni va boshqa mavjudotlarni yaratdi” (تُرُتُرْ ***törütür***, تُرُتْمَاکْ ***törütmäk***).

(Shoir) shunday degan:

تَنکْرِی اَژُنْ تُرُتّی	***Täŋri ažun törütti,***
چغْرِی اذ تَزْکِنُورْ	***Čïγrï iδ*** (***eδiz?***) ***tezginür.***
يُلْدُزْلَرِی جُرْکَشِبْ	***Yulduzlarï čürgäšip,***
تُنْ کُنْ اُوزَا يُرْکُنُورْ	***Tün kün üzä yörgünür.***

Aytmoqdaki: “Tangri taolo olamni yaratdi, falak muttasil aylanib turadi. Yulduzlar saf tortib tizilgan, tun kun uza burkanur [ya’ni tun kun bilan almashib turadi]”.

[تَرِتّی ***teritti***] اَرْ تَرِتّی ***er teritti*** – “kishi va boshqalar terladi”. Bu so‘z “teri” ma’nosidagi تَرِی ***teri*** dan olingan; تَرِی اُتّی ***teri ötti*** – “ter teridan o‘tdi” demakdir; *vāv* (ya’ni [ö]) harfi tushirilgach, yolg‘iz fe’lga aylandi. Yoki bu so‘z تَرْ اَتّی ***ter attï*** (“badan ter chiqardi”) iborasidan olingan; *alif* harfi tushirilib, bir fe’l holiga kelgan (تَرِتَارْ ***teritär***, تَرِتْمَاکْ ***teritmäk***).

[سَرُتّی ***saruttï***] اُلْ اَنکَرْ سُقْلُقْ سَرُتّی ***ol aŋar suwluq saruttï*** – “u unga salla o‘ratdi” (سَرِتُورْ ***sarïtur***, سَرِتْمَاقْ ***sarïtmaq***). Har narsani o‘rashni buyurishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[سُرُتّی ***soruttï***] اَرَاغُتْ کَنجْکَا سُوتْ سُرُتّی ***uraγut gänčkä süt soruttï*** – “xotin bolasiga sut emizdi”.

[سُرِتّی ***surïttï***] اَرْ يُوزِنْ سُرِتّی ***er yüzin surïttï*** – “kishi yuzini surtdi” (سُرِتُورْ ***surïtur***, سُرِتْمَاقْ ***surïtmaq***).

[سِرِتّی ***sïrïttï***] اُلْ قِيزْقَا کِدِزْ سِرِتّی ***ol qïzqa kiδiz sïrïttï*** – “u qizga namatni pishitib buklatdi”. Bu kiyimni qaytarib tikish singaridir (سِرِتُورْ ***sïrïtur***, سِرِتْمَاقْ ***sïrïtmaq***).

[قَرِتّی ***qarïttï***] اُذْلَکْ اَنِی قَرِتّی ***öδläk anï qarïttï*** – “zamon uni qaritdi” (قَرِتُورْ ***qarïtur***, قَرِتْمَاقْ ***qarïtmaq***). (209b) Maqolda (shunday kelgan): اُذْلَکْ قَرِتْمِشْقَا بُذُغْ تَلِقْمَاسْ ***Öδläk qarïtmïšqa boδuγ talïqmas.*** Ma’nosi: “Zamona qaritganga bo‘yoq bo‘yash ayb sanalmaydi”.

[قُرِتّی ***qurïttï***] کُونْ تُونُغْ قُرِتّی ***kün tonuγ qurïttï*** – “quyosh kiyim va boshqa narsalarni quritdi” (قُرِتُورْ ***qurïtur***, قُرِتْمَاقْ ***qurïtmaq***).

[کُرَتّی ***kürättï***] اُلْ اَنِکْ قُلِنْ کُرَتّی ***ol anïŋ qulïn kürättï*** – “u uning qulini qochirtirdi” (کُرَتُورْ ***kürätur***, کُرَتْمَاکْ ***kürätmäk***).

[كُرَتّى ***kürätti***] اُلْ اَنـكَرْ قَارْ كُرَتّى ***ol aŋar qar kürätti*** – “u unga qor va boshqa narsalarni kuratdi” (كُرَتُورْ ***kürätür***, كُرَتْمَاكْ ***kürätmäk***).

[كَرِتّى ***keritti***] اُلْ اِتِنْ كَرِتّى ***ol ïtïn keritti*** – “u itini vovullatdi” (كَرِتُورْ ***keritür***, كَرِتْمَاكْ ***keritmäk***) (qarluqcha).

ز ***z*** [harfi]:

[بَزَتّى ***bezätti***] اُلْ اَفِنْ بَزَتّى ***ol ewin bezätti*** – “u uyini bezatdi” (بَزَاتُورْ ***bezätür***, بَزَتْمَاكْ ***bezätmäk***).

[تَزِتّى ***tezitti***] اِتْ كَيِكْنِى تَزِتّى ***ït keyikni tezitti*** – “it kiyikni tezitdi, qochirib yubordi” (تَزِتُورْ ***tezitür***, تَزِتْمَاكْ ***tezitmäk***).

[بَزِتّى ***bezitti***] تُمْلُغْ اَنِى بَزِتّى ***tumluγ anï bezitti*** – “sovuq ani qaltiratdi, titratdi”. Titratuvchi isitma kasalini بَزْكَكْ ***bezgäk*** deyilishi shundandir (بَزِتُورْ ***bezitür***, بَزِتْمَاكْ ***bezitmäk***).

[تُزُتّى ***tozuttï***] اُلْ تُبْرَاقْ تُزُتّى ***ol tupraq tozuttï*** – “u tuproqni to‘zitdi, changini chiqardi” (تُزِتُورْ ***tozïtur***, تُزِتْمَاقْ ***tozïtmaq***).

[سِزِتّى ***sïzittï***] اُلْ اَنكَرْ يَاغْ سِزِتّى ***ol aŋar yaγ sïzittï*** – “u unga quruq yog‘ va boshqa narsalarni surtishga buyurdi” (سِزِتُورْ ***sïzïtur***, سِزِتْمَاقْ ***sïzïtmaq***).

[قُرُتّى ***quruttï***] اُلْ اَنِـكْ بُغْزِنْ قُرُتّى ***ol anïŋ boγzïn quruttï*** – “u uning ishtahasini qo‘zg‘atdi”. Bu fe’ldagi *zā* ning asli *rā* dir. Go‘yo uning taomga bo‘lgan ishtahasini birov bo‘g‘ib qo‘ydi, degan ma’noda keladi (قُرُتُورْ ***qurutur***, قُرُتْمَاقْ ***qurutmaq***). Bu hol, ya’ni o‘timli fe’lning *zā* bilan qo‘llanishi kam uchrovchi holatdir. Chunki o‘timsiz fe’llarning o‘timliga aylanishi, albatta, *rā* bilan bo‘ladi.

[كَزِتّى ***kezitti***] اُلْ مَنِى يِيرْ كَزِتّى ***ol meni yer kezitti*** – “u menga yer kezdirdi” (كَزِتُورْ ***kezitür***, كَزِتْمَاكْ ***kezitmäk***).

[كُزَتّى ***közätti***] اُلْ مَنِى كُزَتّى ***ol meni közätti*** – “u meni kutdi, menga ko‘z tikdi”. Buning asli كُوزْ اَتّى ***köz attï*** dir; “u menga ko‘z tikib, muntazir bo‘ldi” demakdir (كُزَتُورْ ***közätür***, كُزَتْمَاكْ ***közätmäk***).

ش ***š*** [harfi]:

[بُشَتّى ***bošattï***] اُلْ تَغَارْ بُشَتّى ***ol tayar bošattï*** – “u tog‘orani bo‘shatdi”. Har bir idishni ichida bor narsadan bo‘shatishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[بُشَتّى ***bošattï***] اُلْ تُكُونْ بُشَتّى ***ol tügün bošattï*** (210a) – “u tugun va boshqa narsalarni bo‘shatdi”.

[بُشَتّى ***bošattï***] اُلْ اُرَاغْتْ بُشَتّى ***ol urayut bošattï*** – “u xotinini qo‘ydi” (arg‘uchadir).

[بُشَتّى ***bošattï***] اُلْ بُلُنُغْ بُشَتّى ***ol bulunuγ bošattï*** – “u asirni bo‘shatdi”. Kimsaning yoki narsaning boshqa birovdan qutqazilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بُشَتُورْ ***bošatur***, بُشَتْمَاقْ ***bošatmaq***).

[تَشِتّى ***tašïttï***] تَرِغْ تَشِتّى ***tarïγ tašïttï*** – “u don va boshqa narsalarni bir yerdan ikkinchi yerga tashitdi” (تَشِتُورْ ***tašïtur***, تَشِتْمَاقْ ***tašïtmaq***).

[تُشَتّى ***töšättï***] اُلْ تُشَاكْ تُشَتّى ***ol töšäk töšätti*** – “u to‘shak to‘shatdi, o‘rin soldirdi” (تُشَاتُرْ ***töšätür***, تُشَتْمَاكْ ***töšätmäk***).

[تِشَتّى *tišätti*] اُلْ اُرْغَاقْ تِشَتّى *ol oryaq tišätti* – “u o‘roqni tishlatdi, tishini chiqarib o‘tkir qildirdi, qayratdi”. Tegirmon tishini o‘tkirlatishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِشَاتُرْ *tišätür*, تِشَتْمَاكْ *tišätmäk*).

[جِشَتّى / جِشْتّى *čišätti* / *čišitti*] اُرَاغْتْ كَنْجِنْ جِشَتّى / جِشِتّى *uraγut gänjin čišätti* / *čišitti* – “xotin bolasini to‘sdi” (جِشْتُورْ / جِشِتُورْ *čišätür* / *čišitür*, جِشِتْمَاكْ / جِشْتْمَاكْ *čišätmäk* / *čišitmäk*).

[قَشِتّى *qašïttï*] اَرْ تَنِينْ قَشِتّى *er tenin qašïttï* – “kishi tanini qashitdi” (قَشِتُورْ *qašïtur*, قَشِتْمَاقْ *qašïtmaq*).

[كُشِتّى *köšitti*] بُلِتْ كُوكُكْ كُشِتّى *bulït köküg köšitti* – “bulut ko‘kni qopladi” (كُشِتُورْ *köšitür*, كُشِتْمَاكْ *köšitmäk*). Biror narsani qoplagan har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

ق *q* [harfi]:

[بَقِتّى *baqïttï*] اُلْ اَنِى اَفدِنْ بَقِتّى *ol anï ewdin baqïttï* – “u uni uydan qaratdi, qarashga buyurdi”. Har kimning bir yerda turib boshqa yerga qarashiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَقِتُورْ *baqïtur*, بَقِتْمَاقْ *baqïtmaq*).

[بُقَتّى *buqattï*] بُزَاغُو بُقَتّى *buzaγu buqattï* – “buzoq buqa bo‘ldi, buqalar qatoriga o‘tdi”. Asli بُقَاذْتِى *buqaδtï* dir (بُقَاتُورْ *buqatur*, بُقَتْمَاقْ *buqatmaq*).

[تُقُتّى *toquttï*] اُلْ اَنِكْ بُيْنِنْ تُقُتّى *ol anïŋ boynïn toquttï* – “u uning bo‘yniga urdirdi” (تُقِتُورْ *toqïtur*, تُقِتْمَاقْ *toqïtmaq*).

[تُقِتّى *toqïttï*] اُلْ بُوزْ تُقِتّى *ol böz toqïttï* – “u bo‘z to‘qitdi”.

[تُقِتّى *toqïttï*] اُلْ قِلِجْ تُقِتّى *ol qïlïč toqïttï* – “u qilich va pichoqni zang bostirdi” (تُقِتُورْ *toqïtur*, تُقِتْمَاقْ *toqïtmaq*).

[تُقِتّى *toqïttï*] اُلْ قَبُغْ تُقِتّى *ol qapuγ toqïttï* – “u eshikni taqillatdi”.

[تِقِتّى *tïqïttï*] اُلْ اَنكَرْ اَشْ تِقِتّى *ol anar aš tïqïttï* – “u unga zo‘rlab osh oshatdi”. Aslida “bir narsani idishga qattiq tepib tiqish”dir (تِقِتُورْ *tïqïtur*, تِقِتْمَاقْ *tïqïtmaq*). (210b)

[قَقِتّى *qaqïttï*] اُلْ اَنِى قَقِتّى *ol anï qaqïttï* – “u uni xafa qildi, azobladi, hatto undan yuz o‘girdi” (قَقِتُورْ *qaqïtur*, قَقِتْمَاقْ *qaqïtmaq*).

[قُقِتّى *qoqïttï*] اُلْ اَنكَرْ سُكْلُنْجُو قُقِتّى *ol anar söglünčü qoqïttï* – “u unga kabob hidini chiqartirdi” (قُقِتُورْ *qoqïtur*, قُقِتْمَاقْ *qoqïtmaq*). Pilik, chiroq o‘chirilib, yoqimsiz hid chiqishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

ك *k* [harfi]:

[بَكُتّى *bekütti*] اُلْ اِيشِغْ بَكُتّى *ol ïšïγ bekütti* – “u ishni mustahkamlatdi”. Aslida tugunning mahkam bog‘lanishiga nisbatan qo‘llanadi (بَكِتُورْ *bekitür*, بَكِتْمَاكْ *bekitmäk*).

[بُكُتّى *bökütti*] يَاغْلِغْ اَشْ مَنِى بُكُتّى *yaγlïγ aš meni bökütti* – “yog‘liq osh qornim to‘ymasidan, ko‘nglimni tutdi”. Biron kimsaning boshqa birovga narsa berib, ko‘zini to‘ydirish ma’nosida ham shu so‘z qo‘llanadi.

[بُكُتّى *bökütti*] اُلْ مَنِى تَڤَارِنْ بُكُتّى *ol meni tawarïn bökütti* – “u meni mol bilan to‘ydirdi” (بُكُتُورْ *bökütür*, بُكُتْمَاكْ *bökütmäk*).

[تُگَتّی ***tügätti***] اُلْ اِیشِنْ تُگَتّی ***ol išïn tügätti*** – “u ishini tugatti, ishini bitirib qutuldi” (تُگَاتُورْ ***tügätür***, تُگَتْمَاکْ ***tügätmäk***).

[سِکِتّی ***sikitti***] اُرَاغُتْ نِی سِکِتّی ***urayutnï sikitti*** – “xotinni siktirdi” (سِکِتُورْ ***sikitür***, سِکِتْمَاکْ ***sikitmäk***).

[سَکِتّی ***sekitti***] اُلْ اَنِی سَکِتّی ***ol anï sekitti*** – “u uni shoshirdi” (سَکِتُورْ ***sekitür***, سَکِتْمَاکْ ***sekitmäk***).

ل ***l*** [harfi]:

[بُلَتّی ***bulattï***] اُلْ قُوزِي بُلَتّی ***ol qozï bulattï*** – “u qo‘zini qozon bug‘ida pishirishga buyurdi”. Qozon bug‘ida pishirilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi. Asli بُولَاذْتِی ***buladtï*** dir. Yengillatish maqsadida *vāv* [*u*] tashlangan, so‘ng harflar bir-biriga singigan (بُلَتُورْ ***bulatur***, بُلَتْمَاقْ ***bulatmaq***).

[بِلَتّی ***bilättï***] اُلْ بِچَاکْ بِلَتّی ***ol pičäk bilättï*** – “u pichoq qayratdi, pichoqni qayroqqa surtishga buyurdi” (بِلَتُورْ ***bilätür***, بِلَتْمَاکْ ***bilätmäk***).

[تِلَتّی ***tilättï***] اُلْ اَنِی تِلَتّی ***ol anï tilättï*** – “u uni qidirtirdi” (تِلَتُورْ ***tilätür***, تِلَتْمَاکْ ***tilätmäk***).

[تُلَتّی ***tülättï***] اُلْ قُوی تُلَتّی ***ol qoy tülättï*** – “u qo‘y tug‘dirdi” (o‘g‘uzcha). Bu so‘zning asl ma’nosi “yangi chaqaloq sochining to‘kilishi”dir (تُلَتُورْ ***tülätür***, تُلَتْمَاکْ ***tülätmäk***).

[جِلَتّی ***čïlattï***] اُلْ کَبَاکْ جِلَتّی ***ol kepäk čïlattï*** – “u kepak va boshqa narsalarni ho‘llatdi”. Asli جِیْلَتّی ***čïylattï*** dir (جِلَتُورْ ***čïlatur***, جِلَتْمَاقْ ***čïlatmaq***).

[جِلَتّی ***čïlattï***] اُلْ اَتَغْ جِلَتّی ***ol atïy čïlattï*** (211a) – “u otni terlaguncha choptirdi”.

[قَلَتّی ***qalattï***] اُلْ تُونُغْ قَلَتّی ***ol tonuy qalattï*** – “u to‘nni qoplatdi”. Har qanday narsani bo‘g‘cha, sandiqda taxlab qo‘yishga ham shu so‘z qo‘llanadi. Asli قَالَتّی dir (قَلَتُورْ ***qalatur***, قَلَتْمَاقْ ***qalatmaq***).

[کُلِتّی ***kölittï***] اُلْ اُلْکُنِی کُلِتّی ***ol ölükni kölittï*** – “u o‘likni va boshqa narsalarni ko‘mdirdi” (کُلِتُورْ ***kölitür***, کُلِتْمَاکْ ***kölitmäk***).

م ***m*** [harfi]:

[تَمِتّی ***tamïttï***] اُلْ سُوقْ نِي تَمِتّی ***ol suwnï tamïttï*** – “u suv va boshqa narsalarni tomizdi” (تَمِتُورْ ***tamïtur***, تَمِتْمَاقْ ***tamïtmaq***).

[قَمَتّی ***qamattï***] کُونْ کُوزُکْ قَمَتّی ***kün közüg qamattï*** – “kun tig‘lari bilan ko‘zni qamashtirdi” (قَمَتُورْ ***qamatur***, قَمَتْمَاقْ ***qamatmaq***).

[قَمَتّی ***qamattï***] اَجِغْ اَقِیَا تِیشِغْ قَمَتّی ***ačïy awya tïšïy qamattï*** – “nordon behi va boshqa mevalar tishni qamashtirdi”. Maqolda (shunday kelgan): اَتَاسِی اَجِغْ اَلْمِلَا بِیسَا أُغْلِی نِنکْ تِیشِی قَمَارْ ***Atasï ačïy almïla yesä, oylïniŋ tïšï qamar.*** Ma’nosi: “Otasi achchiq olma yesa, o‘g‘lining tishi qamashar”.

Bu maqol otasi qilgan jinoyat, o‘zi o‘lsa-da, bolaga isnod keltiradi, degan ma’noda qo‘llanadi.

[قُمِتّی ***qumïttï***] اُدْکْ مَنِی قُمِتّی ***üdig meni qumïttï*** – “sevikliga yoki yurtga bo‘lgan muhabbatim meni hayajonga soldi” (قُمِتُورْ ***qumïtur***, قُمِتْمَاقْ ***qumïtmaq***).

(Shoir) shunday degan:

بَسْمِلْ سُوسِنْ قُمِتّى *Basmïl süsin qumïttï,*
بَرْجَا كَلِبْ يُمِتّى *Barča kelip yumïttï.*
اَرسْلَنْ تَبَا اَمِتّى *Arslan tapa emitti,*
قُرْقُبْ بَشِى تَزْكِنُورْ *Qorqup bašï tezginür.*

Ğāzî Arslan tigin (اَرسْلَانْ تِكِينْ اَلْغَازِى) bilan jang qilgan basmil askarlari to‘g‘risida aytmoqda: “Basmillar qo‘shinini bizga qarshi kurashga qo‘zg‘adi. Hammasi to‘planib, اَرسْلَانْ *Arslan* tomon yurdi. Bizni ko‘rgach, ko‘zlari qorong‘ulashib, qo‘rquvdan boshlari aylandi”.

ن ***n*** [harfi]:

[تَنْتّى ***tanuttï***] اُلْ مَنكَا سُوزْ تَنْتّى ***ol meŋä söz tanuttï*** – “u so‘zni mendan boshqaga yetkazishga buyurdi” (تَنْتُورْ ***tanutur***, تَنْتْمَاقْ ***tanutmaq***).

[تُنَتّى ***tünättï***] اُلْ قُنُقُغْ اَقدَا تُنَتّى ***ol qonuquγ ewdä tünättï*** – “u mehmonni bir kecha uyda tunatdi” (تُنَتُورْ ***tünätür***, تُنَتْمَاكْ ***tünätmäk***).

[تُنَتّى ***tonattï***] اُلْ مَنِى تُنَتّى ***ol meni tonattï*** – “u menga hadya yo‘sinida to‘n kiygizdi”. Asli تُونْ اِدْتِى ***ton ïδtï*** (“to‘n yubordi”) demakdir (تُنَتُورْ ***tonatur***, تُنَتْمَاقْ ***tonatmaq***).

[سِنَتّى ***sïnattï***] اُلْ مَنِى بُو اِيشْتَا سِنَتّى ***ol meni bu ïšta sïnattï*** – “u meni bu ishda sinatdi (سِنَتُرْ ***sïnatur***, سِنَتْمَاقْ ***sïnatmaq***).

[قَنَتّى ***qanattï***] اُلْ اَنِينكْ بُرْنِنْ قَنَتّى ***ol anïŋ*** (211b) ***burnïn qanattï*** – “u uning burnini qonatdi” (قَنَتُورْ ***qanatur***, قَنَتْمَاقْ ***qanatmaq***).

[قُنَتّى ***qonattï***] اُلْ اُوزِنكَا قُنُمْ قُنَتّى ***ol öziŋä qonum qonattï*** – “u o‘z uyi atrofida o‘z urug‘larini va ular bilan birga turuvchilarni, o‘ziga yordam beradiganlarni to‘pladi” (قُنَتُورْ ***qonatur***, قُنَتْمَاقْ ***qonatmaq***).

[قِنَتّى ***qïnattï***] بَكْ اَنِى قِنَتّى ***beg anï qïnattï*** – “bek uni qiynashga, azob berishga buyurdi” (قِنَتُورْ ***qïnatur***, قِنَتْمَاقْ ***qïnatmaq***).

[كُنِتّى ***könittï***] اَرْ يِغَاجْ كُنِتّى ***er yïγač könittï*** – “kishi yog‘och va boshqa narsalarni to‘g‘rilatdi” (كُنِتُورْ ***könitür***, كُنِتْمَاكْ ***könitmäk***).

Bu bo‘limning *miṣāl*[1] turi

ت ***t*** [harfi]:

[يَتّى ***yattï***] اَرْ يَتّى ***er yattï*** – “kishi va boshqa kimsalar uxlash uchun yotdi” (يَتُورْ ***yatur***, يَتْمَاقْ ***yatmaq***).

[يُتّى ***yuttï***] اُلْ يُمُرتْغَانِى يُتّى ***ol yumurtγanï yuttï*** – “u tuxum va boshqa narsalarni yutdi”. O‘g‘uz va qipchoqlar so‘zi (يُوتَارْ ***yutar***, يُوتْمَاقْ ***yutmaq***).

[يَتّى ***yattï***] اُلْ تُنُوغْ كُونكَا يَتّى ***ol tonuγ künkä yattï*** – “u kiyim va boshqa narsalarni kunga yoydi”. Asli يَاذْتِى ***yaδtï*** dir; ذ *δāl* bilan *tā* singishgan. Singish natijasida يَتّى ***yattï*** bo‘lgan (يَذَارْ ***yaδar***, يَذْمَاقْ ***yaδmaq***).

---

[1] *Miṣāl* deganda bosh harfi *yā* bo‘lgan so‘zlar ko‘zda tutilgan.

يِتّى نَانىڭ ***yitti näŋ*** – “narsa yitdi, yo‘q bo‘ldi”.

[يَتّى ***yetti***] اُلْ مَنِى يَتّى ***ol meni yetti*** – “u menga va boshqasiga yetishdi” (يَتَارْ ***yetär***, يَتْمَاكْ ***yetmäk***).

[يِيتّى ***yetti***] اُلْ اَتْ يِيتّى ***ol at yetti*** – “u otni, ko‘r va boshqalarni yetakladi” (يِيتَارْ ***yetär***, يِيتْمَاكْ ***yetmäk***). O‘g‘uz va qipchoqlar so‘z boshidagi *yā* ni ج *jīm* ga almashtiradilar. Chunonchi, ular اُلْ مَنِى جَتّى ***ol meni jetti*** (“u menga yetishdi”) ma’nosidagi يَتّى ***yetti*** ni جَتّى ***jetti*** deydilar. Turklar سُوۏدَا يُنْدُمْ ***suwda yundum*** desalar, ular جُنْدُمْ ***jundum*** deydilar. Turklar bilan o‘g‘uzlar (tili) orasidagi bu xususiyat o‘zgarmas, doimiydir.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

[يُبَتّى ***yupattï***] اُلْ اِيشغْ يُبَتّى ***ol ïšïγ yupattï*** – “u ishni bilmaslikka soldi, boshqa birovga to‘nkadi” (يُبَتُورْ ***yupatur***, يُبَتْمَاقْ ***yupatmaq***). Aslida “aldash” ma’nosidadir. O‘g‘uzlar اُلْ اَنِى يُبِيلَادِى ***ol anï yupïladï*** deydilar; “u uni aldadi” demakdir.

[يَرَتّى ***yarattï***] تَنكرِى يَلِنكُقْ يَرَتّى ***täŋri yalïŋuq yarattï*** – “Tangri inson va boshqa mahluqlarni yaratdi”. O‘g‘uzlar اُلْ تُونُغْ يَرَتّى ***ol tonuγ yarattï*** deydilar, “u to‘nni mo‘ljalladi” demakdir. (212a) Yana: بُو اَتُكْ نِى مَنكَا يَرَتْ ***bu etükni meŋä yarat*** deydilar, “bu etikni menga mo‘ljalla” demakdir.

[يَرَتّى ***yarattï***] اُلْ اُوزِنْدِنْ سُوزْ يَرَتّى ***ol özindin söz yarattï*** – “u o‘zidan yolg‘on so‘z to‘qidi” (يَرَتُورْ ***yaratur***, يَرَتْمَاقْ ***yaratmaq***).

[يُرتّى ***yurïttï***] اُلْ مَنِى تِلَمْ يُرِتّى ***ol meni telim yurïttï*** – “u meni ko‘p yurg‘izdi”.

[يُرُتّى ***yuruttï***] اُتْ اَنِكْ قَرْنِنْ يُرُتّى ***ot anïŋ qarnïn yuruttï*** – “dori uning ichini surdi, yuritdi, bo‘shatdi” (يُرِتُورْ ***yurïtur***, يُرِتْمَاقْ ***yurïtmaq***).

[يِرَتّى ***yïrattï***] اُلْ اَنِى يِرَتّى ***ol anï yïrattï*** – “u uni yiroqlatdi, uzoqlatdi” (يِرَتُورْ ***yïratur***, يِرَتْمَاقْ ***yïratmaq***).

[يِرَتّى / يَرَتّى ***yerättï***] اَرْ اِيشْكَا يَرَتّى / يِرَتّى ***er iškä yerättï*** – “kishi ishga erinchoqlik, yalqovlik qildi” (يَرَتُورْ ***yerätür***, يَرَتْمَاكْ ***yerätmäk***).

[يَغُتّى ***yaγuttï***] اُلْ اَتِغْ مَنكَا يَغُتّى ***ol atïγ meŋä yaγuttï*** – “u otini va boshqalarni menga yaqinlashtirdi” (يَغُتُورْ ***yaγutur***, يَغُتْمَاقْ ***yaγutmaq***).

(Bilimli) shunday degan:

كَلْسَا اُمَا تُشُرْكِلْ ***Kelsä ümä tüšürgil,***
تِنْسُنْ اَنِكْ اَرُقْلُقْ ***Tïnsun anïŋ aruqluq.***
اَرْبَا سَمَنْ يَغْتِغِلْ ***Arpa, saman yaγutγïl,***
بُلْسُنْ اَتِى يَرُقْلَقْ ***Bulsun atï yaruqluq.***

Aytmoqdaki: “Uyingga mehmon kelsa, uni qo‘ndir, u hordiq chiqarib, dam olsin. Otiga arpa, somon sol, oti yorug‘liq rohatidan bahra olsin”.

[يَغِتّى ***yaγïttï***] تَنكرِى يَغْمُرْ يَغِتّى ***täŋri yaγmur yaγïttï*** – “Tangri yomg‘ir yog‘dirdi” (يَغِتُورْ ***yaγïtur***, يَغِتْمَاقْ ***yaγïtmaq***).

ل *l* [harfi]:

[يُلُتّى] اَرْ سَجِنْ يُلُتّى ***er sačïn yülütti*** – “kishi sochini oldirdi” (يُلِتُورْ ***yülitür***, يُلِتْمَاكْ ***yülitmäk***).

[يُلِتّى ***yülitti***] بَكْ بُويْنِى يُلِتّى ***beg boynï yülitti*** – “bek qabilani talon-toroj qildirdi” (يُلِتُورْ ***yülitür***, يُلِتْمَاكْ ***yülitmäk***[1]).

[يِلِتّى ***yïlïttï***] اَرْ يِلِتّى ***er yïlïttï*** – “kishi isitmaladi, isitmadan tanasi qizidi”. Bu fe’l o‘timsizdir. اَرْ سُوقُغْ يِلِتّى ***er suwïγ yïlïttï*** (“kishi suvni ilitdi”) deydilar, bu o‘timlidir (يِلِتُورْ ***yïlïtur***, يِلِتْمَاقْ ***yïlïtmaq***).

م *m* [harfi]:

[يُمِتّى ***yumïttï***] كِشِى يُمِتّى ***kiši yumïttï*** – “kishilar va boshqa kimsalar to‘plandi” (يُمِتُورْ ***yumïtur***, يُمِتْمَاقْ ***yumïtmaq***).

[يِتِتّى ***yïtïttï***] اُلْ اَنكَرْ بِجَاكْ يِتِتّى ***ol aŋar pičäk yïtïttï*** – “u unga pichoqni qayroqqa yoki qo‘lga surtib charxlatishga buyurdi” (يِتِتُورْ ***yïtïtur***, يِتِتْمَاقْ ***yïtïtmaq***).

ن *n* [harfi]:

[يِنَتّى ***yinätti***] بَاشْ يِنَتّى ***baš yinätti*** – “yara tuzaldi” (يِنَتُورْ ***yinätür***, يِنَتْمَاكْ ***yinätmäk***). Asli يَنَاذْتِى ***yenäδti*** dir. Harflar bir-biriga singigan.

[يَنَتّى ***yenätti***] اَرْ اُرَاغُتْ نِى يَنَتّى ***er uraγutnï yenätti*** – “er xotinini tug‘dirdi” (يَنَتُورْ ***yenätür***, يَنَتْمَاكْ ***yenätmäk***).

Qoida: aslida bir harfi ikki bor qaytalanuvchi so‘z turkiy tillarda (فى لغة الترک) sira yo‘q. U faqat so‘nggi harfi *tā* bo‘lgan fe’llardagina bo‘ladi. (212b) Ismlarda esa bu holat juda oz. Bu xil fe’l turida o‘tgan zamon fe’l shaklida bir harf ikki bor qaytalangani uchun, biz bularni *muḍā’af* deb atadik. Bu yerda qaytalangan harflarning biri *tā* dir. U o‘zakdagi *tā* dir. Ikkinchi harf o‘tgan zamon fe’li oxiridagi, o‘tgan zamon fe’lining belgisi *dāl* dir. Bu *dāl* jarangsiz (الصلبة) harf yonida kelganligi sababli unga singib, bu ham *tā* ga aylangan. Natijada bir harfning ikki bor qaytalanuvi yuzaga kelgan. Aslida asosiy *muḍā’af* (bir harfi ikki bor qaytalangan so‘z), yuqorida yozganimizdek, juda oz.

Bu fe’llarning buyrug‘i uch harflidir. Chunonchi, اَفْ بَزَتْ ***ew bezät*** – “uyga gul soldir”. Yana: بِتِكْ بِتِتْ ***bitig bitit*** (“xat yozdir”) gaplaridagi بَزَتْ ***bezät***, بِتِتْ ***bitit*** buyruqlari singari.

Bu bobda tarkibida harfi illat bo‘lmagan fe’llarning ishlovchi shakli بِتِكْ ***bitig*** بِتِتْكُوچِى ***bititgüči*** (“xat bituvchi”), اَتْ كُزَتْكُوچِى ***at közätgüči*** (“ot kuzatuvchi, otboqar”) gaplaridagi بِتِتْكُوچِى ***bititgüči***, كُزَتْكُوچِى ***közätgüči*** shakllarida bo‘ladi.

O‘g‘uz va qipchoqlarda bu shakl بِتِتْدَچِى ***bititdäči***, كُزَتّچِى ***közättäči*** shaklida qo‘llanadi. Buning asli كُزَتْدَچِى ***közätdäči*** edi. So‘ng *tā* bilan *dāl* singishgan.

Ishning uzluksizligini bildiruvchi ishlovchi fe’l o‘zagining oxiriga *γayn, alif, nūn* yoki *γayn* o‘rnida *kāf* [g] almashtirib, ya’ni gap qo‘shib yasaladi. Bu haqda yuqorida to‘liq ma’lumot berilgan. Chunonchi, اُلْ اَتغْ كُزَتْكَانْ اُلْ ***ol atïγ közätkän-ol*** – “u doim otini qaraydigandir”. Yana: اُلْ اَفِنْ بَزَتْكَانْ اُلْ ***ol ewin bezätkän-ol*** – “u

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (يُلِتْمَاكقْ).

doim uyini bezatadigandir”. (213a) Yo‘g‘on so‘zlarda (في الكلمة المشبعة) **اُلْ تَرِغْ** ***ol tarïγ tarïγan-ol*** – “u doim don ekadigandir”. Yana: **اُلْ بُغْدَى اَرِتْغَانْ اُلْ** ***ol buγday arïγan-ol*** – “u doim bug‘doy va boshqa narsalarni tozalaydigandir”. Bu so‘zni yasashda so‘z o‘zagining yo‘g‘onligi-ingichkaligi so‘z tarkibida *kāf* [*k, g*] yoki *qāf, γayn* harflarining bor-yo‘qlig‘iga asoslanadi.

Ishni bajarish ishlovchining maqsadi, istagi ekanini bildiruvchi shakl **تَرِتِغْسَاقْ** ***tarïtïγsaq*** shaklidir. Chunonchi, **اُلْ تَرِغْ تَرِتِغْسَاقْ اُلْ** ***ol tarïγ tarïtïγsaq-ol*** – “u ekin ekishni istaydi, uning maqsadi dehqonchilikdir”. Yana: **اُلْ اَفِنْ بَزَتِكْسَاكْ اُلْ** ***ol ewin bezätigsäk-ol*** – “u uyini bezatishni istaydi, uyini bezatishga berilgan”. Bu xil so‘zlar yasalishida asosiy qo‘shimcha *sīn* va *qāf* (سق -*saq*) qo‘shimchasi oldiga yo‘g‘on so‘zlarda (حرف الاشباع) hamda tarkibida *qāf* va *γayn* harflari bor so‘zlarda *γayn* orttiriladi. Ingichka (الركيكة) so‘zlarda va tarkibida *kāf* harfi bor so‘zlarda سق -*saq* qo‘shimchasi oldiga *kāf* [*g*] harfi orttiriladi. Bu qoida sahih fe’llar haqida yuqorida aytilgandagidek.

Ishning bajarish uning vazifasi, maqsadi ekanini bildiruvchi shakl **تَرِتِغْلِقْ** ***tarïtïγlïq*** shaklidir. Chunonchi, **اُلْ تَرِغْ تَرِتِغْلِقْ اُلْ** ***ol tarïγ tarïtïγlïq-ol*** – “dehqonchilik uning intilishidandir”. Yana: **اُلْ اَتْ كُزَتِكْلِكْ اُلْ** ***ol at közätiglig-ol*** – “ot kuzatish, ot boqish uning vazifasi va maqsadidir”. Bu shaklda *kāf* yoki *qāf* ni o‘z o‘rnida qo‘llash masalasiga e’tibor berish kerak.

Ba’zi o‘g‘uzlar bu fe’ldagi *lām* o‘rnida *sīn* qo‘llaydilar. Men buni yuqorida bayon qilganim kabi.

Ko‘nglidagi ishni qilishga muvaffaq bo‘lganlikni bildiruvchi shakl **تَرِتِغْلِى** ***tarïtïγlï*** shaklidir. Chunonchi, **اُلْ تَرِغْ تَرِتِغْلِى اَرْدِى** ***ol tarïγ tarïtïγlï erdi*** – “u tariq tortish maqsadida edi, shu maqsadiga kirishdi”. Yana: **اُلْ اَتِغْ كُزَتِكْلِى اَرْدِى** ***ol atïγ közätigli erdi*** – “u otni boqish istagida edi, unga erishdi”. Bu xususiyat bilan u *sālim* fe’l shakliga yaqindir. Ishlanganlikni bildiruvchi *maf’ūl* shakli **كُزَتْمِشْ** ***közätmiš*** dir. Chunonchi, **اَتْ كُزَتْمِشْ** ***közätmiš at*** (“kuzatilgan, qaralgan ot”) gapidagi **كُزَتْمِشْ** ***küzätmiš*** shakli singari. Yana: **بِتِمِشْ بِتِكْ** ***bititmiš bitig*** – “yozdirilgan xat”; *šīn* harfining qo‘shilish qoidasi yuqoridagi boblarda ko‘rsatildi.

Payt oti, o‘rin oti, qurol otlarining yasalish tartibi hammasi bir xil. Chunonchi, vaqt oti: **بِتِكْ بِتِتْكُو اُغُرْ** ***bitig bititgü oγur*** – “xat yozadigan vaqt”; **اَتْ كُزَتْكُو اُغُرْ** ***at közätgü oγur*** – “otga va boshqalarga qaraydigan vaqt”.

Joy oti, chunonchi, **تَرِغْ تَرِتْغُو يِرْ** ***tarïγ tarïtγu yer*** – “tariq tortadigan joy”; **تَرِغْ اِرِتْغُو يِرْ** ***tarïγ arïtγu yer*** – “don tozalaydigan joy”.

Qurol oti, chunonchi, **تَرِغْ اَرِتْغُو نَانكْ** ***tarïγ arïtγu näŋ*** – “tariq aritadigan narsa (uskuna)”. Yana: **بِتِكْ بِتِتْكُو نَانكْ** ***bitig bititgü näŋ*** – “yozuv yozadigan narsa” kabi.

Payt oti, joy oti, qurol otlarining farqi shuki, payt oti yasash istalganda u so‘zdan so‘ng **اُوذْ** ***öδ*** yoki **اُغُرْ** ***oγur*** so‘zlari keltiriladi. Chunonchi, **تَرِغْ اَرِتْغُو اُغُرْ** ***tarïγ arïtγu oγur*** – “don tozalaydigan vaqt”. (213b) O‘rin oti yasash uchun u

so‘zdan so‘ng يِيرْ ***yer*** so‘zi keltiriladi. Chunonchi, اَرِتْغُو يِيرْ ***arïtγu yer*** – “aritiladigan yer”. Qurol oti yasash uchun u so‘zdan so‘ng نَنكْ ***näŋ*** so‘zi orttiriladi. Chunonchi, تَرِغ اَرِتْغُو نَانكْ ***tarïγ arïtγu näŋ*** – “tariq aritadigan, tozalaydigan narsa” kabi.

O‘g‘uzlar bu xil ismlarning hammasida *kāf, γayn* harflarini *alif* ga almashtiradilar, *vāv* [*u, ü*] harfini *sīn* ga aylantiradilar. Ular aytadilar: تَرِغ اَرِتَاسِى ***tarïγ arïtasï oγur*** اُغُرْ – “tariq aritadigan vaqt”. Yana: تَرِغ اَرِتَاسِى يِيرْ ***tarïγ arïtasï yer*** – “tariq aritadigan yer”; تَرِغ اَرِتَاسِى نَانكْ ***tarïγ arïtasï näŋ*** – “don aritadigan narsa”. Bu qoida hamma fe’l boblari uchun umumiydir.

Ishning ikki yoki ortiq kishi orasida bo‘lganini, yordam yoki bahslashish asosida voqe bo‘lgani istalsa, bu xil ma’no anglatuvchi fe’l o‘zagiga *šīn* harfi orttirib yasaladi. Chunonchi, اُلْ مَنكَا تَرِغ اَرِتِشْدِى ***ol meŋä tarïγ arïtïšdï*** – “u menga tariq tozalashda ko‘maklashdi”; اُلْ مَنكَا اَتْ كُزَتِشْدِى ***ol meŋä at közätišdi*** – “u menga ot boqishda ko‘maklashdi yoki men bilan ot va boshqalarni boqishda bahslashdi”.

Bilgilki, bu bob ikki xildir: birinchi, *manqūṣ* bobidan uch harfli; ikkinchi, to‘rt harfli o‘timsiz fe’l bo‘lib, o‘timli fe’l yasovchi *tā* qo‘shilib, o‘timli bo‘lgan. Bu xil fe’ldan harfi illat tushib, uning o‘rnini *tā* egallaydi. Fe’l yana burungiday uch harfli fe’l o‘rnini oladi.

Masalan, *manqūṣ* lar misoli: اَرْ بُرْنِى قَانَدِى ***er burnï qanadï*** – “kishining burni qonadi”. Bu gapdagi قَانَدِى ***qanadï*** fe’li o‘timsizdir. Buning o‘timlisi: اَرْ بُرْنِنْ قَنَتّى ***er burnïn qanattï*** – “kishi burnini qonatdi” demakdir. Bu fe’lning buyruq shakli قَنَتْ ***qanat*** dir. اَنِكْ بُرْنِنْ قَنَتْ ***anïŋ burnïn qanat*** – “uning burnini qonat”. Bunda قَانَدِى ***qanadï*** dan *alif* [*a*] tushirilgan. Yana: اُلْ بِلِكْنِى قُوقِتّى ***ol pilikni qoqïttï*** – “u pilikni o‘chirib sasitdi”. Asli قُوقْدِى ***qoqdï,*** buyrug‘i قُقِتْ ***qoqït*** bo‘lib, *vāv* tushirildi.

To‘rt harflilar misoli: اَرْ قَمِنْدِى ***er qomïndï*** – “kishi hayajonlandi”. Bu o‘timsiz fe’ldir. اَنِى قُمِتْ ***anï qomït*** – “uni hayajonlantir”. (214a) Bu yerda *yā* [*ï*] tushirilib, o‘rniga *tā* orttirilib, o‘timli qilingan. Yana: اُلِيدِى نَانكْ ***ölidi näŋ*** – “narsa ho‘llandi”. Bu o‘timsizdir. اُلِتّى ***ölitti*** deyilsa, o‘timli bo‘ladi, ya’ni “boshqa birovni ho‘lladi” demakdir. Buyrug‘i اُلِتْ ***ölit*** – “uni ho‘lla” demakdir.

Bu xildagi shaklning o‘timli yasalishi o‘timsiz *manquṣ* shaklida yuz beradi. To‘rt harflilar *tā* bilan o‘timliga aylanadi. Bular sahih fe’lini o‘timliga aylantiruvchi ر *-r;* غِرْ *-γïr,* كِرْ *-gir* qo‘shimchalariga o‘rin yo‘qdir. Chunonchi, قُشْ ***quš učdï*** اُجْدِى (“qush uchdi”) o‘timsizdir; اُجُرْدِى ***učurdï*** (“birov uni uchirdi”) o‘timlidir. Bunda o‘timsiz fe’l ر *-r,* ورْ *-ur* bilan yasalgan. Yana: اُلْكْ تِرِلْدِى ***ölüg tirildi*** – “o‘lik tirildi” o‘timsizdir; تَنكرِى تِرْكُرْدِى ***täŋri tirgürdi*** – “Tangri taolo tiriltirdi”. Bunda o‘timli fe’l كُرْ *-gür* qo‘shimchasi bilan o‘timli bo‘lgan. Yana: اَرْ تُدْتِى ***er toδtï*** – “kishi to‘ydi” bu o‘timsizdir; اُلْ تُدْغُرْدِى ***ol toδγurdï*** – “u uni to‘ydirdi” bunda o‘timlidir. Bir harfi qaytalangan hamma fe’l boblariga tegishli qoidalar shudir. O‘zlik fe’lning *manquṣ* va to‘rt harflilariga kelganda, bularga *tā*

qo‘shilib, ikki *fā’il* dan *maf’ūl* ga o‘tuvchi o‘timli fe’l yasaladi. Ularning biri buyuruvchi, ikkinchisi bajaruvchidir. Chunonchi, اَرْ بِتِكْ بِتِيدِى ***er bitig bitidi*** – “kishi xat yozdi”. Bu fe’l ish birgina ishlovchi tomonidan ishlanganligini anglatadi. Ammo اُلْ اَنَكَرْ بِتِكْ بِتِتّى ***ol anar bitig bititti*** (“u unga xat yozdirdi”) gapida بِتِتّى ***bititti*** fe’li *maf’ūl* ga ikki ishlovchi *fā’il* dan o‘tgandir. Biri xat yozishga buyurgan, ikkinchisi yozgan. Yana: اَرْ بِجَاكْ بِلَادِى ***er pičäk bilädi*** – “kishi pichoq qayradi”. بِلَتّى ***bilätti*** (“qayratdi”) ham yuqoridagi singari ikki ishlovchi tomonidan bajarilgan.

Bu fe’llarda yana boshqa xosiyat shuki, bu fe’l ushbu ma’nolarda qo‘llanmay, o‘z mazmunida ishlatiladi. Chunonchi, تَامْ اَمِتّى ***tam emitti*** – “devor va boshqalar egildi, qiyshaydi”. Yana: اَرْ سُوزْ اُنِتّى ***er söz unïttï*** (“kishi so‘zini unutdi”) kabi, bu xil fe’llarda o‘timlilik yo‘q.

Bu bo‘limning *manqūṣ* turi

ت ***t*** [harfi]:

[بَيُتّى ***bayuttï***] تَنكرِى مَنِى بَيُتّى ***täŋri meni bayuttï*** – “Tangri taolo meni boyitdi” (بَيُتُورْ / بَيِتْمَاقْ / بَيُتْمَاقْ ***bayutur / bayïtur***, ***bayutmaq / bayïtmaq***).

[تَيِتّى ***tayïttï***] اُلْ اَنِى سُفْقَا تَيِتّى ***ol anï suwqa tayïttï*** – “u uni suvga toydirdi” (تَيِتُورْ ***tayïtur***, تَيِتْمَاقْ ***tayïtmaq***). Har narsani toydirishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قُيِتّى / قُيُتّى ***quyuttï / quyïttï***] اُلْ اَتِغْ قُيُتّى / قُيِتّى ***ol atïγ quyuttï / quyïttï*** – “u otini hurkitib yubordi” (قُيُتُورْ / قُيِتُورْ ***quyutur / quyïtur***, قُيُتْمَاقْ / قُيِتْمَاقْ ***quyutmaq / quyïtmaq***).

γunna lilar bo‘limi

[تُنكِتّى ***tüŋitti***] اَرْ بَشِنْ تُنكِتّى ***er bašïn*** (214b) ***tüŋitti*** – “kishi boshini munkutdi, engashtirdi” (تُنِكتُورْ ***tüŋitür***, تُنِكتْمَاكْ ***tüŋitmäk***).

[تُنكِتّى ***töŋitti***] اَرْ اُقِنْ تُنكِتّى ***er oqïn töŋitti*** – “er o‘qini ko‘k tomon otdi” (تُنكِتُورْ ***töŋitür***, تُنكِتْمَاكْ ***töŋitmäk***).

[كَنكِتّى / كَنكُتّى ***keŋütti / keŋitti***] اَرْ اَقِنْ كَنكُتّى / كَنكِتّى ***er ewin keŋütti / keŋitti*** – “kishi uyini va boshqa joylarni kengaytirdi” (كَنكُتُورْ ***keŋütür***, كَنكُتْمَاكْ ***keŋütmäk***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

[يِنكِتّى ***yeŋitti***] اَرْ يِنكِتّى ***er yeŋitti*** – “kishi burun qoqdi”. Asli اَتّى يِنكْ ***yeŋ etti*** dir (يِنكِتُورْ ***yeŋitür***, يِنكِتْمَاكْ ***yeŋitmäk***).

[يُنكَتّى ***yüŋgätti***] الْ اَنى بَكَا يُنكَتّى ***ol anï begkä yüŋgätti*** – “u uni bekka va boshqalarga chaqdi” (يُنكَاتُورْ ***yüŋätür***, يُنكَاتْمَاكْ ***yüŋätmäk***[1]). Uch harflilar bobi bitdi.

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (يُنكَاتْمَاكقْ).

BU TO‘RT HARFLILAR BOBLARIDIR

فَعْلَنْدى *fa’landī* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ب ***b*** [harfi]:

[بُرْبَتّى ***burbattï***] اُلْ اَنِـكْ اِيشِنْ بُرْبَتّى ***ol anïŋ išïn burbattï*** – “u uning ishini chatoq qilidi, galga soldi” (بُرْبَتُورْ ***burbatur***, بُرْبَتْمَاقْ ***burbatmaq***).

[تُرْبَتّى ***törbättï***] اُلْ مُنكُزْ تُرْبَتّى ***ol möŋüz törbättï*** – “u mo‘nguz (shox) va boshqa narsalarni yo‘ndirdi” (تُرْبَتُورْ ***törbätür***, تُرْبَتْمَاكْ ***törbätmäk***).

د ***d*** [harfi]:

[بَغْدَتّى ***baγdattï***] اُلْ اَنِـكْ اَذَاقِنْ بَغْدَتّى ***ol anïŋ aδaqïn baγdattï*** – “u kurashda uning oyog‘ini chalishtirdi” (بَغْدَتُورْ ***baγdatur***, بَغْدَتْمَاقْ ***baγdatmaq***).

[سِخْتَتّى ***sïxtattï***] اُلْ اَنِى سِخْتَتّى ***ol anï sïxtattï*** – “u uni yig‘latdi”. Bu so‘zning سِغْدَدْتِى ***sïγdadtï*** shakli ham bor (سِخْتَتُورْ ***sïxtatur***, سِخْتَتْمَاقْ ***sïxtatmaq***).

[كُكْلَتّى ***köklättï***] اُلْ اَدَرْ يِلِغْنْ كُكْلَتّى ***ol eδär yalïγïn köklättï*** – “u egar yonlarining qayishini to‘qitdi” (كُكْلَتُورْ ***köklätür***, كُكْلَتْمَاكْ ***köklätmäk***). Bu so‘zning كُكْدَدْتِى ***kökdädtï*** shakli ham bor.

ج ***č*** [harfi]:

[سُرْجِتّى ***sürčittï***] اُلْ اَتِنْ سُرْجِتّى ***ol atïn sürčittï*** – “u otini toydirdi, qoqiltirdi”. Otdan boshqaga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُرْجِتُورْ ***sürčitür***, سُرْجِتْمَاكْ ***sürčitmäk***[1]).

[قِرْجَتّى ***qïrčattï***] اُلْ اَنِـكْ قَاشِنْ قِرْجَتّى ***ol anïŋ qašïn qïrčattï*** – “u unga tosh otdi, tosh qoshining bir tarafiga tegib yordi”. Boshqa narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

(Shoir) shunday degan:

اَلِكِمْ اَرِغ قِرْجَتُرْ اُقْ بَشْقِى ***Eligim arïγ qïrčatur oq bašaqï,***
اُنْمِشْ اُلُغْ تَرِنكَكْ اُزَا كُبْ قَشَقِى ***Ünmiš uluγ teriŋäk üzä köp qašaqï.***

Aytmoqdaki: “O‘qning temiri qo‘limni yordi, qonga buladi. Men buloqlar suvidan ungan o‘tlar orasidan o‘tar edim” (215a) (قِرْجَتُورْ ***qïrčatur***, قِرْجَتْمَاقْ ***qïrčatmaq***).

[قِرْجَتّى ***qïrčattï***] اُقْ اَمَاجِغْ قِرْجَتّى ***oq amačïγ qïrčattï*** – “o‘q omochga tegib o‘tib ketdi”.

[تُرْجِتّى ***törčittï***] اُلْ اَنكَرْ اِيشْ تُرْجِتّى ***ol aŋar iš törčittï*** – “u unga ish boshlatdi” (تُرْجِتُورْ ***törčitür***, تُرْجِتْمَاكْ ***törčitmäk***).

[قَفْجِتّى ***qawčïttï***] اُلْ اَنِى قَفْجِتّى ***ol anï qawčïttï*** – “u uni xafa qildi, hatto qilayotgan ishini tashladi”. Yana: اُغْلَانْ اَرِينِى قَفْجِتّى ***oγlan arïnï qawčïttï*** – “bola arini g‘azablantirdi”. Maqolda (shunday kelgan): اَرِى قَفْجِتْسَا اِسْرُورْ ***Arï qawčïtsa, ïsrur.*** Ma’nosi: “Kishi arini g‘azablantirsa, uni chaqadi”. Bu maqol tashvishli bir ishni

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (سُرْجِتْمَاقْ).

boshlab, o‘zi ham undan qiynalishiga ishorat qilib aytiladi (قَفْجِتُورْ ***qawčïtur***, قَفْجِتْمَاقْ ***qawčïtmaq***).

[تَفْجِتّى ***tewčitti***] اُلْ تُونِنْ تَفْجِتّى ***ol tonïn tewčitti*** – “u to‘nini tepchitti. U to‘nini choklab emas, ko‘klatib tiktirdi” (تَفْجِتُورْ ***tewčitür***, تَفْجِتْمَاكْ ***tewčitmäk***).

ر ***r*** [harfi]:

[تَبْرَتّى ***tebrätti***] اُلْ تَبْرَتّى نَانكْنِى ***ol tebrätti näŋni*** – “u narsani tebratti, harakatlantirdi” (تَبْرَتُورْ ***tebrätür***, تَبْرَتْمَاكْ ***tebrätmäk***).

[تَبْرَتّى ***tebrätti***] اَرْ يَغِيقَا تَبْرَتّى ***er yayïqa tebrätti*** – “er yovga hujum qildi”.

[تَبْرَتّى ***tebrätti***] اَرْ تَقْى سِنْ تَبْرَتّى ***er tewisin tebrätti*** – “kishi va boshqalar tuyasini o‘rnidan turg‘izib choptirdi” (تَبْرَتُورْ ***tebrätür***, تَبْرَتْمَاكْ ***tebrätmäk***). Bu so‘z tuyadan boshqaga qo‘llanmaydi [ya’ni tuya haqida so‘z borgandagina ishlatiladi].

[تُبْرَتّى ***tuprattï***] قُوىْ اُتُغْ تُبْرَتّى ***qoy otuγ tuprattï*** – “qo‘y o‘tni yeb tugatdi, tamom qildi. Hattoki yerda biror narsa qolmadi. Yerdan sho‘r chiqib ketdi” (تُبْرَتُورْ ***tupratur***, تُبْرَتْمَاقْ ***tupratmaq***[1]).

[تُغْرَتّى ***toγrattï***] اُلْ اَنكَرْ اَتْ تُغْرَتّى ***ol aŋar et toγrattï*** – “u unga go‘sht to‘g‘ratdi”. Yeyilmaydigan narsaga bu so‘z qo‘llanmaydi (تُغْرَتُورْ ***toγratur***, تُغْرَتْمَاقْ ***toγratmaq***).

[تَقْرَتّى ***tawrattï***] اَرْ تَقْرَتّى ***er tawrattï*** – “kishi shoshildi” (تَقْرَتُورْ ***tawratur***, تَقْرَتْمَاقْ ***tawratmaq***).

[تَقْرَتّى ***tawrattï***] اُرَاغُتْ يِبْ تَقْرَتّى ***uraγut yïp tawrattï*** – “xotin ip yigirdi”.

[تِغْرَتّى ***tïγrattï***] اُغْلِنْ اِيشْقَا تِغْرَتّى ***oγlïn ïšqa tïγrattï*** – “kishi o‘g‘lini pishitdi, o‘g‘liga ish o‘rgatib, turmushning har xil ishlariga usta qildi” (تِغْرَتُورْ ***tïγratur***, تِغْرَتْمَاقْ ***tïγratmaq***).

[تِكْرَتّى ***tigrätti***] اُلْ اَتِنْ تِكْرَتّى ***ol atïn tigrätti*** – “u otini pishqirtirdi, kishnab yuradigan qildi”; اُلْ اُغِلْنِى تِكْرَتّى ***ol oγïlnï tigrätti*** deyiladi. (215b) Bu so‘zning *yayn* li shakli ham bor (تِكْرَتُورْ ***tigrätür***, تِكْرَتْمَاكْ ***tigrätmäk***).

[سَجْرَتّى ***sačrattï***] اُلْ مَنكَا سُوقْ سَجْرَتّى ***ol meŋä suw sačrattï*** – “u menga behosdan suv sachratdi”. Chunonchi, bir idishdan boshqa idishga suv va boshqa suyuqliqlar quyayotganda sochilib chiqib sachrashi yoki o‘tin yorayotganda, sinig‘i kelib tegishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. “Bir turli tuzoq”qa سَجِرَتْغُو ***sačïratγu*** deyish ham shundandir. U shunday: bir-biriga yopishgan ikkita ayri shox olinadi. Ularning oralariga tuzoqli ip bog‘lanadi. So‘ng uni tuproqqa ko‘miladi va ustiga don sochiladi. Tuzoq don yeyish uchun kelgan qushni bo‘ynidan yoki oyog‘idan ushlab qoladi. So‘ng uni ushlab oladilar.

Maqolda (shunday kelgan): سَجِرَتْغُودِنْ قُرقْمِشْ قُشْ قِرقْ يِيلْ اَذْرِى يِغَاجْ اُزَا قْنْمَاسْ ***Sačïratγudïn qorqmïš quš qïrq yïl aδrï yïγač üzä qonmäs.*** Ma’nosi: “Tuzoqdan bir marta qo‘rqqan qush qirq yilgacha ayri yog‘ochga qo‘nmaydi”. Bu payg‘ambar alayhis-salomning لايلسع المومن من جحر مرتين degan so‘zi singaridir (سَجْرَتُورْ ***sačratur***, سَجْرَتْمَاقْ ***sačratmaq***).

[سَدْرَتّى ***sedrätti***] اُلْ تُونُغْ سَدْرَتّى ***ol tonuγ sedrätti*** – “u kiyimini siyraklatdi”.

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (تُبْرَتْمَاكْقْ).

[سَدْرَتّى ***sedrätti***] اُلْ كِشِى نِى سَدْرَتّى ***ol kišini sedrätti*** – “u kishilar mehnatini yengillatdi”. Har narsani ozaytirishga, yengillatishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَدْرَتُورْ ***sedrätür***, سَدْرَتْمَاكْ ***sedrätmäk***).

[سُغْرَتّى ***suγrattï***] اُلْ اَنِكْ اَقِنْ سُغْرَتّى ***ol anïγ ewin suγrattï*** – “u uning uyini surishtirdi. Uyda bo‘lgan narsalarning hammasini ko‘rdi” (سُغْرُتُورْ ***suγrutur***, سُغْرُتْمَاقْ ***suγrutmaq***).

[سُقْرِتّى ***süwritti***] اُلْ يِغَاچِغْ سُقْرِتّى ***ol yïγäčïγ süwritti*** – “u yog‘och va boshqa narsaning bir yog‘ini qirrali qildi”. Qayrab o‘tkir qilishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُقْرِتُورْ ***süwritür***, سُقْرِتْمَاكْ ***süwritmäk***).

[سَقْرِتّى ***sewritti***] اُلْ اَقِنْ سَقْرِتّى ***ol ewin sewritti*** – “u uyini mol-matohdan bo‘shatdi”; اُلْ اِيشِنْ سَقْرِتّى ***ol išïn sewritti*** deydilar, “u ishini tamomladi” demakdir (سَقْرِتُورْ ***sewritür***, سَقْرِتْمَاكْ ***sewritmäk***).

[سَكِرِتّى ***sekiritti***] اُلْ اَتِنْ اَرِقْتِنْ سَكِرِتّى ***ol atïn arïqtïn sekiritti*** – “u otini ariq va boshqa yerlardan xatlatdi”.

[سَكْرِتّى ***sekritti***] اُلْ بِتِكْ اُقِرْ اَرْكَانْ سَكْرِتّى ***ol bitig oqïr erkän, sekritti*** – “u xatni, kitob yoki Qur’onni o‘qishda sakratib ketdi, orada ayrim joylarini qoldirib o‘qidi” (سَكْرِتُورْ ***sekritür***, سَكْرِتْمَاكْ ***sekritmäk***). (216a)

[جِلْرَتّى ***jïlrattï***] اُلْ اُقِنْ كِيشْتَا جِلْرَتّى ***ol oqïn keštä jïlrattï*** – “u o‘qini o‘qdonda shildiratdi”. Har narsani shildiratishga ham shu so‘z qo‘llanadi (جِلْرَتُورْ ***jïlratur***, جِلْرَتْمَاقْ ***jïlratmaq***).

[سَمْرِتّى ***semritti***] اَرْ اَتِنْ سَمْرِتّى ***er atïn semritti*** – “u otini va boshqa hayvonlarni semirtirdi” (سَمْرِتُورْ ***semritür***, سَمْرِتْمَاكْ ***semritmäk***).

[جِغْرَتّى ***čïγïrttï***] اُلْ يِيرِكْ جِغْرَتّى ***ol yerig čïγïrttï*** – “u yerni oyog‘i bilan tepib, qattiq qildi”. Har narsani qattiq bosib, tepib pishitishga ham shu so‘z qo‘llanadi. Chunonchi, unni idishga bosib qo‘yish singari.

[جِغْرَتّى ***čïγïrttï***] اَرْ اُغْلِنْ اِيشْتَا جِغْرَتّى ***er oγlïn ïšta čïγïrttï*** – “kishi o‘g‘lini ishga o‘rgatib, pishitdi” (جِغْرَتُورْ ***čïγïrtür***, جِغْرَتْمَاقْ ***čïγïrtmaq***).

[جُقْرَتّى ***čoqrattï***] اُلْ اَشَجْ جُقْرَتّى ***ol ešäč*** (***ešič?***) ***čoqrattï*** – “u qozonni va boshqani qaynatdi”. Bu qozonning oz suv, ko‘p don bilan bug‘lanib qaynashidir (جُقْرَتُورْ ***čoqratur***, جُقْرَتْمَاقْ ***čoqratmaq***).

[جَقْرَتّى ***čaqrattï***] اَرْ كُوزِنْ جَقْرَتّى ***er közin čaqrattï*** – “kishi ko‘zini chag‘ir ko‘zga o‘xshatib chaqchaytirdi” (جَقْرَتُورْ ***čaqratur***, جَقْرَتْمَاقْ ***čaqratmaq***).

[جِقْرَتّى ***čïqrattï***] اُلْ تِيشِنْ جِقْرَتّى ***ol tïšïn čïqrattï*** – “u tishini g‘ijirlatdi”. Yana: بُغْرَا تِيشِنْ جِقْرَتّى ***buγra tïšïn čïqrattï*** – “nor tuya tishini g‘ijirlatdi”. Qalam va eshikning g‘ijirlagan ovoziga ham shu so‘z qo‘llanadi (جِقْرَتُورْ ***čïqratur***, جِقْرَتْمَاقْ ***čïqratmaq***).

[قَقْرَتّى ***qaqrattï***] اُلْ قَقْرَتْغُو قَقْرَتّى ***ol qaqratγu qaqrattï*** – “u chumchuq va boshqa qushlarni ekindan qochirish uchun tartarak chaldi” (قَقْرَتُورْ ***qaqratur***, قَقْرَتْمَاقْ ***qaqratmaq***).

[قُقْرَتّى ***quqrattï***] اُلْ سُوفُغْ قُقْرَتّى ***ol suwuγ quqrattï*** – “u suvni va har turli suyuqlikni ozaytirdi” (قُقْرَتُورْ ***quqratur***, قُقْرَتْمَاقْ ***quqratmaq***).

[كَفْرَتّى *kewrätti*] اُلْ اَنِـكْ كُوچِنْ كَفْرَتّى ***ol anïŋ küčin kewrätti*** – “u uning kuchini zaiflatdi” (كَفْرَتُورْ ***kewrätür***, كَفْرَتْمَاكْ ***kewrätmäk***).

(Shoir) shunday degan:

اُذْلَكْ كُنِى تَقْرَتُورْ	***Öδläk küni tawratur,***
يَلِنْكُقْ كُچِنْ كَفْرَتُورْ	***Yalïŋuq küčin kewrätür.***
اَرْدِنْ اَزُنْ سَفْرَتُورْ	***Erdin ažun sewrätür,***
قَجْسَا تَقِى اَرْتِلُورْ	***Qačsa taqï ertilür.***

Aytmoqdaki: “Zamona kuni aylanur, inson kuchini zaiflatur. U erdan, ya’ni اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsīyāb* dan dunyoni bo‘shatishga shoshilayotir. U o‘limdan qochganni ham izlab topadi va u o‘ladi”. (216b)

[تَبْزَتّى *tebzätti*] اُلْ مَنِى بُو اِيشْقَا تَبْزَتّى ***ol meni bu ïšqa tebzätti*** – “u meni bu ishda hasad qildirdi” (تَبْزَتُورْ ***tebzätür***, تَبْزَتْمَاكْ ***tebzätmäk***).

[قُبْزَتّى *qobzattï*] اُلْ اَنِى قُبْزَتّى ***ol anï qobzattï*** – “u uni qo‘biz chaldirdi” (قُبْزَتُورْ ***qobzatur***, قُبْزَتْمَاقْ ***qobzatmaq***).

س ***s*** [harfi]:

[بُخْسَتّى *buxsattï*] اُلْ اُغْلِنِى اِيشْقَا بُخْسَتّى ***ol oγlïnï ïšqa buxsattï*** – “u o‘g‘lini ishga bo‘ysunmaydigan qildi”. Boshqa o‘rinlarda ham shu so‘z qo‘llanadi (بُخْسَتُورْ ***buxsatur***, بُخْسَتْمَاقْ ***buxsatmaq***).

[تَبْسَتّى *tepsätti*] اُلْ مَنِى تَبْسَتّى ***ol meni tepsätti*** – “u meni hasad qildirdi”. Bu so‘zning *zā* li shakli ham bor (تَبْسَتُورْ ***tepsätür***, تَبْسَتْمَاكْ ***tepsätmäk***).

[كَجْسَتّى *kečsätti*] اُلْ مَنِى سُقْدِنْ كَجْسَتّى ***ol meni suwdïn kečsätti*** – “u meni suvdan va boshqa yerlardan kechtirishni, o‘tkazishni istadi” (كَجْسَتُورْ ***kečsätür***, كَجْسَتْمَاكْ ***kečsätmäk***).

[سَرْسِتّى *sarsïttï*] اُلْ اَنِى سَرْسِتّى ***ol anï sarsïttï*** – “u unga dag‘allik, qo‘pollik qildi” (سَرْسِتُورْ ***sarsïtur***, سَرْسِتْمَاقْ ***sarsïtmaq***).

[سُقْسَتّى *suwsattï*] اُلْ اَنِى سُقْسَتّى ***ol anï suwsattï*** – “u uni suvsatdi” (سُقْسَتُورْ ***suwsatur***, سُقْسَتْمَاقْ ***suwsatmaq***).

[سَمْسِتّى *samsïttï*] اُلْ اَنِى سَمْسِتّى ***ol anï samsïttï*** – “u uni so‘z bilan yo qo‘l bilan xafa qildi” (سَمْسِتُورْ ***samsïtur***, سَمْسِتْمَاقْ ***samsïtmaq***).

ش ***š*** [harfi]:

[تَفْشَتّى *tewšätti*] اُلْ يِبِغْ تَفْشَتّى ***ol yïpïγ tewšätti*** – “u ipning uchini topib bo‘lmas darajada chuvaltirdi” (تَفْشَتُورْ ***tewšätür***, تَفْشَتْمَاكْ ***tewšätmäk***).

[تَفْشَتّى *tewšätti*] اُلْ اَنِـكْ تَرِنْ تَفْشَتّى ***ol anïŋ terin tewšätti*** – “u uni dona-dona ter chiqquncha charchatdi”. Masdar shakli yuqoridagidek.

[جُفْشَتّى *čuwšattï*] اُلْ جَغِرْ جُفْشَتّى ***ol čaγïr čuwšattï*** – “u chag‘ir va boshqa narsalarni achitib tayyorladi”.

[چِفْشَتّى *čïwšattï*] سِرْكَا قَرِنْ چِفْشَتّى ***sirkä qarïn čïwšattï*** – “sirka qorinni achishtirdi”. Sirkaning yerga to‘kilib qaynatishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (چِفْشَتُورْ ***čïwšatur***, چِفْشَتْمَاقْ ***čïwšatmaq***).

[شُۇشَتى *šuwšattï*] ئۇ مېنىڭ قۇلاقىغا سۇ شۇشَتى *ol meniŋ qulaqqa söz šuwšattï* – “u mening qulog‘imga so‘z shipshitdi” (شُۇشَتُۇر *šuwšatur*, شُۇشَتْمَاق *šuwšatmaq*).

[قَرْشَتى *qaršattï*] ئۇ بوزۇققا قَرْشَتى *ol bözüg qaršattï* – “u bo‘z va boshqa narsalarni qarichlatdi, o‘lchatdi” (قَرْشَتُۇر *qaršatur*, قَرْشَتْمَاق *qaršatmaq*).

[قُرْشَتتىم *quršattïm*] مەن ئانكا قوڭۇر قُرْشَتتىم *men aŋar qur quršattïm* – “men unga belbog‘ bog‘latdim, u bog‘ladi” (قُرْشَتُۇرمەن *quršatur-men*, قُرْشَتْمَاق *quršatmaq*).

[قُغْشَتى *quγšattï*] قۇياش ئېنى قُغْشَتى *quyaš anï quγšattï* – “quyosh harorati uni bo‘shashtirdi”. Har qanday qattiq narsani bo‘shashtirishga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘zdagi *γayn* o‘rnida خ *xā* ni qo‘llovchilar ham bor (قُغْشَتُۇر *quγšatur*, (217a) قُغْشَتْمَاق *quγšatmaq*).

[قُشْشَتى *quwšattï*] ئۇ ئاق قُشْشَتى *ol oq quwšattï* – “u o‘qni g‘iloflatdi, o‘qqa yog‘och g‘ilof qildirdi” (قُشْشَتُۇر *quwšatur*, قُشْشَتْمَاق *quwšatmaq*).

[كەشْشَتى *kewšättï*] ئۇ قَتىغ ئانكىنى كەشْشَتى *ol qatïγ näŋni kewšättï* – “u qattiq narsani yumshatdi” (كەشْشَتُۇر *kewšätür*, كەشْشَتْمَاك *kewšätmäk*).

[كەشْشَتى *kewšättï*] ئۇ تەڭى سېنْ كەشْشَتى *ol tewisin kewšättï* – “u tuyasini kavshatdi”. Masdar shakli yuqoridagidek.

غ *γ* [harfi]:

[تَسْغَتى *tasγattï*] ئۇ قۇلىنْ تَسْغَتى *ol qulïn tasγattï* – “u qulini va boshqa kimsalarni urdirdi” (تَسْغَتُۇر *tasγatur*, تَسْغَتْمَاق *tasγatmaq*).

[قَرْغَتى *qarγattï*] ئۇ ياكْنى قَرْغَتى *ol yekni qarγattï* – “u shaytonni va boshqalarni qarg‘atdi” (قَرْغَتُۇر *qarγatur*, قَرْغَتْمَاق *qarγatmaq*).

[قُرْغَتى *quryattï*] يېرْ قُرْغَتى *yer quryattï* – “yer namsizlikdan qaqrab qurg‘adi”. Asli قُرْغَاذْتى *quryaδtï* dir (قُرْغَتُۇر *quryatur*, قُرْغَتْمَاق *quryatmaq*).

[قِرْغَتى *qïryattï*] ئۇ ئانى بەككا قِرْغَتى *ol anï begkä qïryattï* – “u uni bekka yomonladi. Bek undan yuz o‘girib, haydadi” (قِرْغَتُۇر *qïryatur*, قِرْغَتْمَاق *qïryatmaq*).

ف *w* [harfi]:

[قَرْفَتى *qarwattï*] ئۇ ئېڭ قويۇنْدا نانكْ قَرْفَتى *ol anïŋ qoyunda näŋ qarwattï* – “u uning qo‘ynidan bir narsa qidirtirdi”. Har narsani ko‘z bilan ko‘rmay, qo‘l bilan timirskilashga ham shu so‘z qo‘llanadi (قَرْفَتُۇر *qarwatur*, قَرْفَتْمَاق *qarwatmaq*).

ق *q* [harfi]:

[بُرْقِتى *burqïttï*] ئۇ يۈزىنْ بُرْقِتى *ol yüzin burqïttï* – “u yuzini burishtirdi” (بُرْقِتُۇر *burqïtur*, بُرْقِتْمَاق *burqïtmaq*).

[تِلْقَتى *tïlqattï*] ئۇ ئېشِنْ تِلْقَتى *ol anïŋ išïn tïlqattï* – “u uning ishini kechiktirdi”.

[تَلْقَتى *talqattï*] ئۇ يۈكْنى تَلْقَتى *ol yükni talqattï* – “u yukni mustahkamladi”. Yukni tuzatish, yaxshi o‘rnatish uchun yuk bilan arqon orasiga biror narsa qo‘yib pishiqlashga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَلْقِتُۇر *talqïtur*, تَلْقِتْمَاق *talqïtmaq*).

[سَرْقِتى *sarqïttï*] ئۇ تۇنْدِنْ سۇۋْ سَرْقِتى *ol tondïn suw sarqïttï* – “u kiyim va boshqa narsalarning suvini silqitdi” (سَرْقِتُۇر *sarqïtur*, سَرْقِتْمَاق *sarqïtmaq*).

[قُرْقِتى *qorqïttï*] ئۇ ئانى قُرْقِتى *ol anï qorqïttï* – “u uni qo‘rqitdi” (قُرْقِتُۇر *qorqïtur*, قُرْقِتْمَاق *qorqïtmaq*).

ک *k* [harfi]:

[**بَرْكِتّى *berkitti***] **اُلْ بَرْكِتّى نَانىڭنِى *ol berkitti näŋni*** – “u narsani, ishni bekitdi, pishiq qildi, mustahkamladi” (**بَرْكِتُورْ *berkitür*, بَرْكِتْمَاكْ *berkitmäk***).

[**كُرْگُتّى *körgütti***] **اُلْ مَنگَا نَانىڭ كُرْگُتّى *ol meŋä näŋ körgütti*** – “u menga narsa ko‘rsatdi” (**كُرْگُتُورْ / كُرْگِتُورْ *körgütür* / *körgitür*, كُرْگُتْمَاكْ *körgütmäk***).

[**كُرْكَتّى *körkätti***] **قِيزْ كُرْكَتّى *qïz körkätti*** (217b) – “qizning yuzi, rangi chiroyli bo‘ldi” (**كُرْكَتُورْ *körkätür*, كُرْكَتْمَاكْ *körkätmäk***). Bu so‘zning asli **كُرْكَاذْتِى *körkäδti*** dir. So‘ng ذ *δāl* harfi *tā* ga singigan.

[**بِلْگَتّى *bilgätti***] **اُغْلَانْ بِلْگَتّى *oγlan bilgätti*** – “bola aqlli bo‘ldi, hushyor bo‘ldi” (**بِلْگَاتُورْ *bilgätür*, بِلْگَتْمَاكْ *bilgätmäk***). Asli **بِلْگَاذْتِى *bilgäδti*** dir. So‘ng ذ *δāl* harfi *tā* ga singigan.

Bilgilki, اَذِتّى *äδitti* (*-äδti?*) qo‘shimchasi bilan tabiatga daxldor so‘zlardan fe’l yasaladi. Chunonchi, **كُرْكْ *körk*** – “chiroy” demakdir. “Chiroyli bo‘ldi” demakchi bo‘linsa, buning oxiriga اَذْتِى *-äδti* qo‘shiladi. Chunonchi, **كُرْكَاذْتِى *körkäδti*** – “chiroyli bo‘ldi” kabi. Yana: **بِلِكْ *bilig*** – “aql” demakdir. Buning oxiriga اَذْتِى *äδti* qo‘shib, **بِلْگَاذْتِى *bilgäδti*** fe’li yasaladi. Masalan, **اُغْلَانْ بِلْگَذْتِى *oγlan bilgäδti*** – “bola aqlli bo‘ldi” demakdir. So‘ng bu so‘zdan *alif* [*ä*] tushirilib, ذ *δāl* harfi *tā* ga singdirilsa, bu harf, ya’ni *tā* ikkinchi bor qaytalangan shakl hosil bo‘ladi.

ل *l* [harfi]:

[**بُزْلَتّى *bozlattï***] **اُلْ بُتُونِى بُزْلَتّى *ol botunï bozlattï*** – “u tuya bolasini va boshqa hayvonlarni onasidan ayirdi, bo‘zlatdi” (**بُزْلَتُورْ *bozlatur*, بُزْلَتْمَاقْ *bozlatmaq***).

[**بَشْلَتْمْ *bašlattïm***] **مَنْ اَنگَرْ اِيشْ بَشْلَتْمْ *men aŋar iš bašlattïm*** – “men unga ish boshlattim” (**بَشْلَتُورْ *bašlatur*, بَشْلَتْمَاقْ *bašlatmaq***).

[**بَغْلَتْمْ *baγlattïm***] **اَنگَرْ اُتُنىڭ بَغْلَتْمْ *aŋar otuŋ baγlattïm*** – “unga o‘tin va boshqa narsalarni bog‘latdim”; **اَنگَرْ بُوغْ بَغْلَتْمْ *aŋar boγ baγlattïm*** – “unga bo‘g‘cha yoki tugunni bog‘latdim” (**بَغْلَتُورْمَنْ *baγlatur-men*, بَغْلَتْمَاقْ *baγlatmaq***).

[**بَكْلَتّى *beklätti***] **بَكْ اُغْرِينِى بَكْلَتّى *beg oγrïnï beklätti*** – “bek o‘g‘rini bog‘lash, qamashga buyurdi”.

[**بَكْلَتْمْ *beklättim***] **مَنْ اَتْ بَكْلَتْمْ *men at beklättim*** – “men ot va boshqa hayvonlarni saqlashga buyurdim” (o‘g‘uzcha) (**بَكْلَتُورْمَنْ *beklätür-men*, بَكْلَتْمَاكْ *beklätmäk***).

[**تَبْلَتْمْ *taplattïm***] **مَنْ اَنِى بُو اِيشْقَا تَبْلَتْمْ *men anï bu ïšqa taplattïm*** – “men uni bu ishga ko‘ndirdim” **(تَبْلَتُورْمَنْ *taplatur-men*, تَبْلَتْمَاقْ *taplatmaq***).

[**تُبْلَتّى *tüblätti***] **اُلْ بُو اِيشِغْ تِلِمْ تُبْلَتّى *ol bu ïšïγ telim tüblätti*** – “u bu ishni sinchiklab tekshirdi” (**تُبْلَتُورْ *tüblätür*, تُبْلَتْمَاكْ *tüblätmäk***).

[**تَرْلَتّى *terlätti***] **اُلْ اَتِنْ تَرْلَتّى *ol atïn terlätti*** – “u otini terlatdi”.

[**تُرْلَتّى *türlätti* (*terlätti?*)**] **اُلْ اَتِغْ تُرْلَتّى *ol atïγ türlätti* (*terlätti?*)** – “u otini qashlog‘ich bilan qashlatdi” (**تَرْلَتُورْ *terlätür*, تَرْلَتْمَاكْ *terlätmäk***).

[**تُزْلَتّى *tuzlattï***] **اُلْ اَتْ تُزْلَتّى *ol et tuzlattï*** – “u go‘sht va boshqa narsalarni tuzlatti” (**تُزْلَتُورْ *tuzlatur*, تُزْلَتْمَاقْ *tuzlatmaq***).

[**تِزْلَتّى *tizlätti***] **اُلْ تِزْلَتّى نَانىڭنِى *ol tizlätti näŋni*** – “u narsani tizzasi bilan tepdi, bosdi” (**تِزْلَتُورْ *tizlätür*, تِزْلَتْمَاكْ *tizlätmäk***).

[تُشْلَتّى *töšlätti*] اُلْ اَنِى تُشْلَتّى ***ol anï töšlätti*** – “u uning to‘shiga urdirdi” (تُشْلَتُوْرْ ***töšlätür***, (218a) تُشْلَتْمَاكْ ***töšlätmak***[1]).

[تُشْلَتّى ***tušlattï***] اُلْ بِيرِكْ اَنكَرْ تُشْلَتّى ***ol yerig aŋar tušlattï*** – “u uni uzoqdan bir yerga ro‘para qilib qo‘ydi”. Uzoqdan yuzma-yuz turgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (تُشْلَتُوْرْ ***tušlatur***, تُشْلَتْمَاقْ ***tušlatmaq***).

[تَشْلَتّى ***tašlattï***] اُلْ اَنِى تَشْلَتّى ***ol anï tašlattï*** – “u uni tosh bilan urdirdi”.

[تَشْلَتّى ***tašlattï***] اُلْ أُغْلِنِى تَشْلَتّى ***ol oylïnï tašlattï*** – “u o‘g‘lini tashqariga chiqardi, yo‘l qattiqlig‘ini ko‘rsin deya safarga yubordi” (تَشْلَتُوْرْ ***tašlatur***, تَشْلَتْمَاقْ ***tašlatmaq***).

[تِشْلَتّى ***tïšlattï***] اُلْ اَنِى تِشْلَتّى ***ol anï tïšlattï*** – “u uni tishlatdi”.

(Shoir) shunday degan:

جَغْرِى بَرِبْ قُشْلَتُو	***Čaγrï berip qušlatu,***
تَيْغَنْ اِدِبْ تِشْلَتُو	***Tayγan ïdïp tïšlatu,***
تِلْكُو تُنكُزْ تَشْلَتُو	***Tilkü, toŋuz tašlatu,***
اَرْدَمْ بِلَا اُگْلَلِمْ	***Erdäm bilä öglälim.***

Ov va shodlikni maqtab aytmoqa: “Chag‘riqushni yoshlarga berib, ov ovlatamiz. Ohu, to‘ng‘iz, tulkini ovlash uchun tozi itni qo‘yib yuboramiz. Ko‘maklashish uchun ularga toshlar otamiz. Yutuqlarimiz bilan maqtanaylik” (تِشْلَتُوْرْ ***tïšlatur***, تِشْلَتْمَاقْ ***tïšlatmaq***).

[تَغْلَتّى ***taγlattï***] اُلْ اَتِنْ تَغْلَتّى ***ol atïn taγlattï*** – “u otini tamg‘a urib dog‘latdi” (تَغْلَتُوْرْ ***taγlatur***, تَغْلَتْمَاقْ ***taγlatmaq***). Forslar bu so‘zni turklardan olib, دَاغْ ***dayγ*** (mollarga urilgan belgi) deydilar. Ular “qal’a” otini ham turklardan olib, دِزْ ***diz*** deydilar. Turkcha تِيزْ يِيرْ ***tïz yer*** – “baland joy” demakdir.

[تُمْلِتّى ***tumlïttï***] اُلْ سُوفْ تُمْلِتّى ***ol suw tumlïttï*** – “u suv, sut va boshqa narsalarni yaxlatdi” (تُمْلِتُوْرْ ***tumlïtur***, تُمْلِتْمَاقْ ***tumlïtmaq***).

[تُمْلُتّى / تُمْلِتّى ***tumluttï*** / ***tumlïttï***] اُلْ اَنِكْ كُنكُلِنْ تُمْلُتّى / تُمْلِتّى ***ol anïŋ köŋülin tumluttï*** / ***tumlïttï*** – “u unga g‘azab qildi, uning ko‘nglini sovutdi, hatto uni xafa qilib qo‘ydi” (تُمْلِتُوْرْ ***tumlïtur***, تُمْلِتْمَاقْ ***tumlïtmaq***).

[سَبْلَتّى ***saplattï***] اُلْ قِلِجْ سَبْلَتّى ***ol qïlïč saplattï*** – “u qilichni soplatdi”. Pichoq, xanjar va boshqa shuning singarilarga sop qilishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَبْلَتُوْرْ ***saplatur***, سَبْلَتْمَاقْ ***saplatmaq***).

[جَرْلَتّى ***jarlattï***] اُلْ أُغْلَانِغْ جَرْلَتّى ***ol oylanïγ jarlattï*** – “u bolani yig‘latdi”. Filni bo‘kirtirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (جَرْلَتُوْرْ ***jarlatur***, جَرْلَتْمَاقْ ***jarlatmaq***).

[جَرْلَتّى ***čerlättï***] اُتْ اَنِكْ كُوزِنْ جَرْلَتّى ***ot anïŋ közin čerlättï*** – “o‘t (dori) uning ko‘zini ishdan chiqardi”. G‘aliz ovqat va shunga o‘xshash yoqimsiz narsalar yeyishdan kishida kelib chiqadigan og‘irlashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (جَرْلَتُوْرْ ***čerlätür***, جَرْلَتْمَاكْ ***čerlätmäk***).

[جُرْلَتّى ***čörlättï***] اُلْ اَنْدِنْ نَانكْ جُرْلَتّى ***ol andïn näŋ čörlättï*** (218b) – “u uning molidan bir narsa oldirdi” (جُرْلَتُوْرْ ***čörlätür***, جُرْلَتْمَاكْ ***čörlätmäk***).

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (تُشْلَتْمَاكقْ).

[***čoγlattï*** جُغْلَتّى] ***ol tonïn čoγlattï*** اُلْ تُونِنْ جُغْلَتّى – “u kiyimini bo‘g‘chalatdi” (***čoγlatur,*** جُغْلَتُورْ ***čoγlatmaq***جُغْلَتْمَاقْ).

[***čïγlattï*** چِغْلَتّى] ***ol böz čïγlattï*** اُلْ بُوزْ چِغْلَتّى – “u turkcha o‘lchov gazi bilan bo‘z o‘lchatdi”. Turkcha o‘lchov gazi boshqa gaz o‘lchovining uchdan ikki ulushiga tengdir (***čïγlatur,*** چِغْلَتُورْ ***čïγlatmaq***چِغْلَتْمَاقْ).

[***čïnlattï*** چِنْلَتّى] ***ol anïŋ išïn čïnlattï*** اُلْ اَنِكْ اِيشِنْ چِنْلَتّى – “u uning ishini tasdiqlatdi” (***čïnlatur,*** چِنْلَتُورْ ***čïnlatmaq***چِنْلَتْمَاقْ).

[***sarlattï*** سَرْلَتّى] ***ol suwluq sarlattï*** اُلْ سُقْلُقْ سَرْلَتّى – “u salla o‘ratdi”. Har qanday narsani o‘rashga ham shu so‘z qo‘llanadi (***sarlatur,*** سَرْلَتُورْ ***sarlatmaq***سَرْلَتْمَاقْ).

[***sïrlattï*** سِرْلَتّى] ***ol ayaq sïrlattï*** اُلْ اَيَاقْ سِرْلَتّى – “u turklarning idishlari(piyola, kosa)ni sirlatdi” (***sïrlatur,*** سِرْلَتُورْ ***sïrlatmaq***سِرْلَتْمَاقْ).

[***sözlätti*** سُزْلَتّى] ***ol meni sözlätti*** اُلْ مَنِى سُزْلَتّى – “u meni so‘zlatti” (***sözlätür,*** سُزْلَتُورْ ***sözlätmäk***سُزْلَتْمَاكْ).

[***sïzlattï*** سِزْلَتّى] ***buz tïšïγ sïzlattï*** بُوزْ تِيشِغْ سِزْلَتّى – “muz tishni sirqiratdi”. Bu muzning tishni qoplashi yoki og‘riqni va chumoli o‘rmalashini sezish kabi. Sovuq suvga qo‘l tiqilganda, sovuqning ta’siri qoplashiga, yuzaga kelishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (***sïzlatur,*** سِزْلَتُورْ ***sïzlatmaq***سِزْلَتْمَاقْ).

[***suγlïttï*** سُغْلِتّى] ***ol anïŋ qoyuŋa elig suγlïttï*** اُلْ اَنِكْ قُويُنْكَا اَلِكْ سُغْلِتّى – “u bir narsani qidirish uchun uning qo‘yniga qo‘l suqtirdi” (***suγlïtur,*** سُغْلِتُورْ ***suγlïtmaq***سُغْلِتْمَاقْ).

[***suwlattï*** سُقْلَتّى] ***ol čöpni suwlattï*** اُلْ جُبْنِى سُقْلَتّى – “u buyum va boshqa narsalarning ustiga, pastiga suv septirdi” (***suwlatur,*** سُقْلَتُورْ ***suwlatmaq***سُقْلَتْمَاقْ).

[***senlätti*** سَنْلَتّى] ***ol anï senlätti*** اُلْ اَنِى سَنْلَتّى – “u uni yerga urib, tahqirlab, senlab so‘zlatdi, sansiratdi”. Yuqorida aytganimizdek, turklar kattalarga ***siz***, سِزْ yoshlarga ***sen*** سَنْ der edilar. Kattalarni ***sen*** سَنْ deyish tahqir sanalar edi: ***ol anï senlätti,*** اُلْ اَنِى سَنْلَتّى ya’ni “sensirab tahqir qildi” demakdir (***senlätür,*** سَنْلَتُورْ ***senlätmäk***سَنْلَتْمَاكْ).

[***sizlättim*** سِزْلَتّمْ] ***men anï sizlättim*** مَنْ اَنِى سِزْلَتّمْ – “men unga uni ulug‘lab, sizlashga buyurdim” (***sizlätür-men,*** سِزْلَتُورْمَنْ ***sizlätmäk***سِزْلَتْمَاكْ).

[***sumlïttï*** / ***sumluttï***] سُمْلِتّى / سُمْلُتّى ***ol anï sumlïttï*** / ***sumluttï*** اُلْ اَنِى سُمْلِتّى / سُمْلُتّى – “u uning gapini turklar tushunmaydigan gapga yo‘ydi”. Bu shundayki, (219a) turklar barcha turkchani (التركيه) bilmaydiganlarni سُمْلِمْ ***sumlïm*** deydilar. Chunonchi, arablar arabchani bilmaydiganlarni اَجَمْ ***ajam*** deganlari kabi. Bu asosdir. Agar arabchani keyin o‘rgansa ham, arablar har vaqt uni اَجَمْ ***ajam*** deyaveradilar. Lekin turklarda unday emas. Turkchani o‘rganib olganlarni سُمْلِمْ ***sumlïm*** demaydilar. Ular bu so‘zdan qutuladi (***sumlïtur,*** سُمْلِتُورْ ***sumlïtmaq***سُمْلِتْمَاقْ).

[***qarlattï*** قَرْلَتّى] ***täŋri qar qarlattï*** تَنكرِى قَارْ قَرْلَتّى – “Tangri qor yog‘dirdi” (***qarlatur,*** قَرْلَتُورْ ***qarlatmaq***قَرْلَتْمَاقْ).

[***qïrlattï*** قِرْلَتّى] ***ol arïq qïrlattï*** اُلْ اَرِقْ قِرْلَتّى – “u ariqqa marza qildirdi, ariq chetini yaxshilab ishlatdi” (***qïrlatur,*** قِرْلَتُورْ ***qïrlatmaq***قِرْلَتْمَاقْ).

[قُشْلَتّى *qušlattï*] اُلْ اَنـكَرْ قُشْ قُشْلَتّى *ol aŋar quš qušlattï* – “u unga qush ovlatdi” (قُشْلَتُورْ *qušlatur*, قُشْلَتْمَاقْ *qušlatmaq*).

[قِشْلَتّى *qïšlattï*] اُلْ اَنِى اَقِنْدَا قِشْلَتّى *ol anï ewindä qïšlattï* – “u uni va boshqalarni uyida qishlatdi” (قِشْلَتُورْ *qïšlatur*, قِشْلَتْمَاقْ *qïšlatmaq*). Birov bir narsaning uddasidan chiqishiga, saqlashiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قِغْلَتّى *qïγlattï*] اُلْ يِيرِكْ قِغْلَتّى *ol yerig qïγlattï* – “u yerini go‘ng solib kuchli qildi”.

[قِغْلَتّى *qïγlattï*] اُلْ اَتِنْ قِغْلَتّى *ol atïn qïγlattï* – “u otini tezaklatti” (قِغْلَتُورْ *qïγlatur*, قِغْلَتْمَاقْ *qïγlatmaq*).

[قَقْلَتّى *qaqlattï*] اُلْ اَنـكَرْ اَتْ قَقْلَتّى *ol aŋar et qaqlattï* – “u unga go‘sht qoqlatdi, qurittirdi; qoq go‘sht qildirdi” (قَقْلَتُورْ *qaqlatur*, قَقْلَتْمَاقْ *qaqlatmaq*).

[كُتْلَتّى *kötlätti*] اُلْ اُغْلَانِغْ كُتْلَتّى *ol oγlanïγ kötlätti* – “u bola va shunga o‘xshaganlarning ko‘tiga urdi” (كُتْلَتُورْ *kötlätür*, كُتْلَتْمَاكْ *kötlätmäk*).

[كَزْلَتّى *kezlätti*] اُلْ اُقْ كَزْلَتّى *ol oq kezlätti* – “u o‘q uchini tuzattirdi” (كَزْلَتُورْ *kezlätür*, كَزْلَتْمَاكْ *kezlätmäk*).

[كِزْلَتّى *kizlätti*] اُلْ مَنـكَا سُوزْ كِزْلَتّى *ol meŋä söz kizlätti* – “u menga va boshqalarga so‘zni yashirin saqlashga buyurdi” (كِزْلَتُورْ *kizlätür*, كِزْلَتْمَاكْ *kizlätmäk*).

[كَمْلَتّى *kemlätti*] بُو اُتْ اَتِغْ كَمْلَتّى *bu ot atïγ kemlätti* – “bu o‘t ot va boshqa hayvonlarni kasal qildi” (كَمْلَتُورْ *kemlätür*, كَمْلَتْمَاكْ *kemlätmäk*).

م *m* [harfi]:

[تَرْمَتّى *tarmattï*] اُلْ اَنِـكْ يُوزِنْ تَرْمَتّى *ol anïŋ yüzin tarmattï* – “u uning yuzini tirnatdi” (تَرْمَتُورْ *tarmatur*, تَرْمَتْمَاقْ *tarmatmaq*).

[جَرْمَتّى *čermätti*] اَلبْ اَرْ اَتِنْ جَرْمَتّى *alp er atïn čermätti* – “alp er otining dumini ipak bilan o‘rdirdi”. Otning dumini ipak bilan o‘rish botirlik belgisidir. Fotila-fotila qilib o‘rilgan, tugilgan har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi. Chunonchi, qamchi uchini qayish bilan o‘rib to‘qish kabi (جَرْمَتُورْ *čermätür*, جَرْمَتْمَاكْ *čermätmäk*).

[سَرْمَتّى *sermätti*] اُلْ اَنـكَرْ بَلِقْ سَرْمَتّى *ol aŋar balïq sermätti* – “u unga baliq ovlatdi, suvdan baliq tuttirdi”. (219b)

[سَرْمَتّى *sermätti*] اُلْ تُتْمَاجْ سَرْمَتّى *ol tutmač sermätti* – “u tutmoch suvini ayirtirdi”. Har qanday narsaning suvini ayirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَرْمَتُورْ *sermätür*, سَرْمَتْمَاكْ *sermätmäk*[1]).

[سَرْمَتّى *sarmattï*] اُلْ يِشِغْنِى يِغَاجْقَا سَرْمَتّى *ol yïšïγnï yïγačqa sarmattï* – “u ipni va boshqalarni yog‘ochga o‘ratdi” (سَرْمَتُورْ *sarmatur*, سَرْمَتْمَاقْ *sarmatmaq*).

ن *n* [harfi]:

[قَتْنَتّى *qatnattï*] اُلْ اَنِـكْ سُوزِنْ قَتْنَتّى *ol anïŋ sözin qatnattï* – “u uning so‘zini bir necha bor takrorlatdi”.

[قَسْنَتّى *qasnattï*] تُمْلُغْ اَنِى قَسْنَتّى *tumluγ anï qasnattï* – “sovuq uni titratdi. Hatto sovuqdan tishlari takirladi” (قَسْنَتُورْ *qasnatur*, قَسْنَتْمَاقْ *qasnatmaq*).

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (سَرْمَتْمَاكْ).

[بُلْنَتّى ***bulnattï***] اُلْ اَنِى بُلْنَتّى ***ol anï bulnattï*** – “u uni asir qilishga buyurdi. U asir bo‘ldi” (بُلْنَتُورْ ***bulnatur***, بُلْنَتْمَاقْ ***bulnatmaq***).

[قَلْنَتّى ***qalnattï***] يُفْقَا نَانىڭ قَلْنَتّى ***yuwqa näŋ qalnattï*** – “yupqa narsa qalinlashdi”. Bu so‘zning asli قَلْنَاذْتِى ***qalnaδtï*** dir. Keyinroq tovushlar idg‘om qilish, singish bilan o‘zgargan (قَلْنَتُورْ ***qalnatur***, قَلْنَتْمَاقْ ***qalnatmaq***).

Aslida *muḍā’af* bo‘lgan so‘zlardan ayrimlari

ش ***š*** [harfi]:

[شُقْشَتْدِى ***šuwšaštï***] اُلْ اَنِڭْ بِرْلَا شُقْشَتْدِى ***ol anïŋ birlä šuwšaštï*** – “u uning bilan maxfiy so‘zlashdi” (شُقْشَتْمَاقْ ***šuwšašmaq***, شُقْشَتُورْ ***šuwšašur***).

[قُغْشَتْدِى ***quγšaštï***] كِشِيلَارْ قَمُغْ قُغْشَتْدِى ***kišilär qamuγ quγšaštï*** – “kishilar o‘zini o‘rab olgan issiqdan va boshqa shuning singari hollardan bo‘shashishdi” (قُغْشَتُورْ ***quγšašur***, قُغْشَتْمَاقْ ***quγšašmaq***). Bu so‘zdagi *yayn* ni ج *čīm* ga almashtirib qo‘llash ham bor.

[قَقْشَتْدِى ***qawšaštï***] اُلْ اَنِڭْ اُقِنْ قَقْشَتْدِى ***ol anïŋ oqïn qawšaštï*** – “u uning o‘qini yog‘och bilan qaytarishda ko‘maklashdi” (قَقْشَتُورْ ***qawšašur***, قَقْشَتْمَاقْ ***qawšašmaq***).

[كَكْشَتْدِى ***kewšäštï***] تَقَىْ اُوتْ كَكْشَتْدِى ***teväy ot kewšäštï*** – “tuyalar bir-birini ko‘rib, o‘t kavush qaytarishdi” (كَكْشَتُورْ ***kewšäšür***, كَكْشَتْمَاكْ ***kewšäšmäk***).

Muḍā’af ning boshqa bir turi

ق ***q*** [harfi]:

[تُلْقُقْلَنْدِى ***tolquqlandï***] تُلْقُقْلَنْدِى نَانىڭ ***tolquqlandï näŋ*** – “narsa tulum singari shishdi” (تُلْقُقْلَنُورْ ***tolquqlanur***, تُلْقُقْلَنْمَاقْ ***tolquqlanmaq***).

ك ***k*** [harfi]:

[تُرْكَكْلَنْدِى ***türgäkländi***] تُونْ تُرْكَكْلَنْدِى ***ton türgäkländi*** – “chopon bo‘g‘chaga tugildi” (تُرْكَكْلَنُورْ ***türgäklänür***, تُرْكَكْلَنْمَاكْ ***türgäklänmäk***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ب ***b*** [harfi]:

[يَرْبَتّى ***yarbattï***] اِگْلِكْ يَرْبَتّى ***iglig yarbattï*** – “kasal yer bosdi, oyoqqa turdi”; أُغْلَانْ يَرْبَتّى ***oγlan yarbattï*** – “bola yer bosdi, oyoq qo‘ydi” (220a) (يَرْبَتُورْ ***yarbatur***, يَرْبَتْمَاقْ ***yarbatmaq***). Asli يَرْبَاذْتِى ***yarbaδtï*** dir. So‘ng ذ *δāl* harfi *tā* ga singigan.

[يَلْبِتّى ***yelpitti***] اُلْ اَتْقَا اَشْبَارْ يَلْبِتّى ***ol atqa ašbar yelpitti*** – “u ot yemini, chunonchi, xashak, kepak singarilarni ho‘lladi” (يَلْبِتُورْ ***yelpitür***, يَلْبِتْمَاكْ ***yelpitmäk***). Shuningdek, shivalab yoqqan yomg‘irdan yer yuzi chiroyli namlanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. Chunonchi, يَغْمُرْ يِيرِكْ يَلْبِتّى ***yaγmur yerig yelpitti*** deyiladi, “yomg‘ir yerni namlatdi” demakdir.

[يَلْبَتّى ***yelpätti***] اُلْ اَنـكَرْ سِنـكَاكْ يَلْبَتّى ***ol aŋar siŋäk yelpätti*** – “u unga yelpig‘ich bilan pashsha-chivinlarni yelpitdi” (يَلْبَتُورْ ***yelpätür***, يَلْبَتْمَاكْ ***yelpätmäk***).

ج ***č*** [harfi]:

[يُنْجُتّى ***yunčuttï***] اُلْ اَنِى يُنْجُتّى ***ol anï yunčuttï*** – “u uni injitdi, xafa qildi” (يُنْجُتُورْ ***yunčutur***, يُنْجُتْمَاقْ ***yunčutmaq***[1]).

ر ***r*** [harfi]:

[يَبْرِتّى ***yaprïttï***] اَتْ قُلَاقِنْ يَبْرِتّى ***at qulaqïn yaprïttï*** – “ot qulog‘ini chimirdi”. Bu biror narsadan hurkkanda, biror narsa istagan chog‘da bo‘ladi (يَبْرِتُورْ ***yaprïtur***, يَبْرِتْمَاقْ ***yaprïtmaq***).

[يَغْرِتّى ***yaɣrïttï***] اُلْ مَنِـكْ اَتِغْ يَغْرِتّى ***ol meniŋ atïɣ yaɣrïttï*** – “u otimning va boshqalarning orqasini yag‘ir qildi” (يَغْرِتُورْ ***yaɣrïtur***, يَغْرِتْمَاقْ ***yaɣrïtmaq***).

[يَقْرِتّى ***yawrïttï***] اُلْ اَنِى يَقْرِتّى ***ol anï yawrïttï*** – “u uni zaiflatdi, sustlatdi” (يَقْرِتُورْ ***yawrïtur***, يَقْرِتْمَاقْ ***yawrïtmaq***).

[يُلْرتّى ***yulïrttï***] اُلْ اُوتْ يُلْرتّى ***ol ot yulïrttï*** – “u o‘tni alangalatdi”.

[يُلْرتّى ***yulïrttï***] اُلْ تُوجُغْ يُلْرتّى ***ol tučuɣ yulïrttï*** – “u jezni yaltiratdi, kun tushsa-tushmasa, yaltirab turuvchi qalqon va jom singari jilolanadigan bo‘ldi” (يُلْرتُورْ ***yulïrtur***, يُلْرتْمَاقْ ***yulïrtmaq***).

[يُلْرَتّى ***yulrattï***] كِرْشَانْ اَنِـكْ يُوزِنْ يُلْرَتّى ***kiršän anïŋ yüzin yulrattï*** – “upa va boshqa narsalar xotin yuzini oqartirdi”. Bir narsani oqartirgan, yaltiratgan har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يُلْرَتّى / يُلْرَتّى ***yulrattï*** / ***yulrïttï***] يُلْرِتّى / اُلْ قُمْغَانِغْ يُلْرَتّى ***ol qumɣanïɣ yulrattï*** / ***yulrïttï*** – “u qumg‘onni jilolatdi”. Yaltiragan har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (يَلْرَتُورْ ***yalratur***, يَلْرَتْمَاقْ ***yalratmaq***). Bu ikki fe’lning bosh harfini *alif* [*a*] bilan talaffuz qilish *vāv* [*u*] bilan talaffuz qilishdan ko‘ra to‘g‘riroqdir.

س ***s*** [harfi]:

[يَرْسِتّى ***yarsïttï***] اُلْ اَنِى يَرْسِتّى ***ol anï yarsïttï*** – “u uni irgantirdi. Hatto ovqat yemay qo‘ydi” (يَرْسِتُورْ ***yarsïtur***, يَرْسِتْمَاقْ ***yarsïtmaq***). Asli يَارْ سُوذْتِى ***yar suδtï*** – “irganganidan tupurdi”. So‘ng ذ *δāl* harfi *tā*ga singigan.

[يُكْسَتّى ***yüksättï***] اُلْ تَامْ يُكْسَتّى ***ol tam yüksättï*** (220b) – “u devorni yuqori ko‘tardi va mustahkamladi”. Har qanday narsani mustahkamlashga ham shu so‘z qo‘llanadi (يُكْسَتُورْ ***yüksätür***, يُكْسَتْمَاكْ ***yüksätmäk***).

ش ***š*** [harfi]:

[يُمْشَتّى ***yumšattï***] اُلْ تِرى يُمْشَتّى ***ol teri yumšattï*** – “u terini oshlab yumshatdi”.

[يُمْشَتّى ***yumšattï***] اُلْ قَتِغْ نَانـكْنِى يُمْشَتّى ***ol qatïɣ näŋni yumšattï*** – “u qattiq narsani yumshatdi”.

[يُمْشَتّى ***yumšattï***] اُلْ اَرْ سُوزِكْ يُمْشَتّى ***ol er sözig yumšattï*** – “u kishi tez so‘zladi”. Qur’onni tez o‘qish va yodlashga ham shu so‘z qo‘llanadi (يُمْشَتُورْ ***yumšatur***, يُمْشَتْمَاقْ ***yumšatmaq***).

غ ***ɣ*** [harfi]:

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (يُنْجُتْمَاكْ).

[يُڤْغَتّى ***yuwγattï***] اُغْلَانْ يُڤْغَتّى ***oγlan yuwγattï*** – “bola o‘jarlandi. Hatto butunlay xulqi buzildi”. Asli يُڤْغَاذْتِى ***yuwγaδtï*** dir (يُڤْغَتُورْ ***yuwγatur***, يُڤْغَتْمَاقْ ***yuwγatmaq***).

[يَلْغَتّى ***yalγattï***] اُلْ اَنـكَرْ بَالْ يَلْغَتّى ***ol aŋar bal yalγattï*** – “u unga bol yalatdi” (يَلْغَتُورْ ***yalγatur***, يَلْغْتْمَاقْ ***yalγatmaq***).

ف ***w*** [harfi]:

[يَلْڤَتّى ***yalwattï***] اُلْ اَنـكَرْ يَاغ يَلْڤَتّى ***ol aŋar yaγ yalwattï*** – “u unga yog‘ yalatdi”. Bu so‘zdagi ف *w* harfini *yayn*ga almashtirilgan shakli ham bor (يَلْڤَتُورْ ***yalwatur***, يَلْڤَتْمَاقْ ***yalwatmaq***).

ك ***g*** [harfi]:

[يُرْكَتّى ***yörgättï***] اُلْ يِبْ يُرْكَتّى ***ol yïp yörgättï*** – “u ip yo‘rgatdi”. Oyoqqa paytava va boshqa narsalarni o‘rashga ham shu so‘z qo‘llanadi (يُرْكَتُورْ ***yörgätür***, يُرْكَتْمَاكْ ***yörgätmäk***).

ل ***l*** [harfi]:

[يِبْلَتّى ***yïplattï***] اُرَاغْتْ يُوزِنْ يِبْلَتّى ***uraγut yüzin yïplattï*** – “xotin yuz tuklarini ip bilan terdirdi” (يِبْلَتُورْ ***yïplatur***, يِبْلَتْمَاقْ ***yïplatmaq***).

[يَتْلَتّى ***yatlattï***] بَكْ يَتْلَتّى ***beg yatlattï*** – “bek kohinga yada toshini o‘qitdi; bek yadachiga duo o‘qitdi. U ham shamol esdirdi, yomg‘ir yog‘dirdi” (يَتْلَتُورْ ***yatlatur***, يَتْلَتْمَاقْ ***yatlatmaq***). Bu hodisa turklar mamlakatida mashhur. Tangri taoloning izni bilan tosh orqali shamol, yomg‘ir, sovuq chaqiriladi.

[يَزْلَتّى ***yazlattï***] اُلْ قُويِنْ يَيْلَاغْدَا يَزْلَتّى ***ol qoyïn yaylaγda yazlattï*** – “u qo‘ylarini yaylovda yozlatdi” (يَزْلَتُورْ ***yazlatur***, يَزْلَتْمَاقْ ***yazlatmaq***).

[يِغْلَتّى ***yïγlattï***] اُلْ اَنِى يِغْلَتّى ***ol anï yïγlattï*** – “u uni yig‘latdi” (يِغْلَتُورْ ***yïγlatur***, يِغْلَتْمَاقْ ***yïγlatmaq***).

[يَغْلَتّى ***yaγlattï***] اُلْ قَغِشْنِى يَغْلَتّى ***ol qaγïšnï yaγlattï*** – “u charm va boshqa narsalarni yog‘latdi” (يَغْلَتُورْ ***yaγlatur***, يَغْلَتْمَاقْ ***yaγlatmaq***).

[يُقْلَتّى ***yuqlattï***] اُلْ اَنِى تَاغْقَا يُقْلَتّى ***ol anï taγqa yuqlattï*** – “u uni toqqa va boshqa yerlarga chiqardi” (يُقْلَتُورْ ***yuqlatur***, يُقْلَتْمَاقْ ***yuqlatmaq***).

[يُكْلَتّى ***yüklättï***] اُلْ يُكْ يُكْلَتّى ***ol yük yüklättï*** – “u yuk yuklatdi” (يُوكْلَتُورْ ***yüklätür***, يُكْلَتْمَاكْ ***yüklätmäk***).

[يُكْلَتّى ***yüglättï***] اُلْ اُقْ يُكْلَتّى ***ol oq*** (221a) ***yüglättï*** – “u o‘qqa pat taqtirdi” (يُوكْلَتُورْ ***yüglätür***, يُكْلَتْمَاكْ ***yüglätmäk***). Bu so‘z aslida يُوكْ لَتّى dir.

[يَمْلَتّى ***yamlattï***] اُلْ اَفِنْ يَمْلَتّى ***ol ewin yamlattï*** – “u uyini supurtirdi va (uy) supurildi” (يَمْلَتُورْ ***yamlatur***, يَمْلَتْمَاقْ ***yamlatmaq***).

[يَشْنَتّى ***yašnattï***] تَنكرِى يَشِنْ يَشْنَتّى ***täŋri yašïn yašnattï*** – “Tangri yashin (chaqmoq) yashnatdi”. Kishining qilich va boshqa narsalarni yaltiratishiga yoki har bir yaltiroq narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

(Shoir) shunday degan:

يَشْنَتْ قِلِجْ بَشِنِى اُزَا قَقَلْ يَرَا — ***Yašnat qïlïč bašïnï üzä qaqqïl yara,***
بِجْلِبْ اَنِكْ بُيْنِى تَقِى قَلْقَنْ تُرَا — ***Bïčlïp anïŋ boynï taqï qalqan tura.***

Aytmoqdaki: “Qilichni yov boshi uzra yaltirat, uning bo‘yni kesilsin. Qilichni yovning boshiga ur, uning bo‘yni bichilib, qalqoni ham pachoqlansin”.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ل ***l*** [harfi]:

[يَيْلَتّى ***yaylattï***] اُلْ اَنِى تَاغْدَا يَيْلَتّى ***ol anï tayda yaylattï*** – “u uni yozda tog‘da va boshqa yerlarda yashatdi” (يَيْلَتُورْ ***yaylatur***, يَيْلَتْمَاقْ ***yaylatmaq***).

Bu bo‘limning *manqūṣ* turi

ن ***n*** [harfi]:

[بُيْنَتّى ***boynattï***] اُلْ اُغْلَنّى اِيشْقَا بُيْنَتّى ***ol oγlannï ïšqa boynattï*** – “u o‘g‘lini ishga bo‘yin tovlattirdi” (بُيْنَتُورْ ***boynatur***, بُيْنَتْمَاقْ ***boynatmaq***).

[سَيْبَتّى ***saypattï***] اُلْ تَقَّارِنْ سَيْبَتّى ***ol tawarïn saypattï*** – “u molini isrof qildirdi” (سَيْبَتُورْ ***saypatur***, سَيْبَتْمَاقْ ***saypatmaq***).

ر ***r*** [harfi]:

[سَيْرَتّى ***sayrattï***] اُلْ اَنكَرْ سَيْرَتّى سُوزُكْ ***ol aŋar sayrattï sözüg*** – “u uni ko‘p gapirtirdi” (سَيْرَتُورْ ***sayratur***, سَيْرَتْمَاقْ ***sayratmaq***).

ن ***n*** [harfi]:

[قَيْنَتّى ***qaynattï***] اُلْ اَشِجْ قَيْنَتّى ***ol ešič qaynattï*** – “u qozon qaynatdi” (قَيْنَتُورْ ***qaynatur***, قَيْنَتْمَاقْ ***qaynatmaq***).

Bu bo‘limning *γunna* lilari

ر ***r*** [harfi]:

[اِنكْرَتّى ***ïŋrattï***] اُلْ اَنِى اِنكْرَتّى ***ol anï ïŋrattï*** – “u uni ingratdi” (اِنكْرَتُورْ ***ïŋratur***, اِنكْرَتْمَاقْ ***ïŋratmaq***).

د ***d*** [harfi]:

[مِنكْدَتّى ***miŋdättï***] اُلْ اَنِكْ سَجِنْ مِنكْدَتّى ***ol anïŋ sačïn miŋdättï*** – “u unig sochini yumdalatdi” (مِنكْدَارْ ***miŋdär***, مِنكْدَامَاكْ ***miŋdämäk***).

ر ***r*** [harfi]:

[جِنكْرَتّى ***jïŋrattï***] اُلْ قُنكْرَاغُو جِنكْرَتّى ***ol qoŋraγu jïŋrattï*** – “u qo‘ng‘iroqni jing‘irlatdi” (جِنكْرَتُورْ ***jïŋratur***, جِنكْرَتْمَاقْ ***jïŋratmaq***).

[مَنكْرَتّى ***maŋrattï***] اُلْ اَنِى مَنكْرَتّى ***ol anï maŋrattï*** – “u uni baqirtirdi” (مَنكْرَتُورْ ***maŋratur***, مَنكْرَتْمَاقْ ***maŋratmaq***).

[مُنكْرَتّى ***müŋrättï***] اُلْ اُوذْنِى مُنكْرَتّى ***ol uδnï müŋrättï*** – “u ho‘kizni mo‘ratdi”.

[مَنكْرَتّى ***meŋrättï***] اُوتْ اَشِجْنِى مَنكْرَتّى ***ot ešični meŋrättï*** (221b) – “o‘t qozonni shaqillatib qaynatdi”.

[مُنكْرَتّى ***müŋürättï***] اُلْ اَرْنِى اُورُبْ مُنكْرَتّى ***ol erni urup müŋürättï*** – “u kishini ho‘kizday bo‘kirtirib urdi” (مُنكْرَتُورْ ***müŋürätür***, مُنكْرَتْمَاكْ ***müŋürätmäk***).

ز *z* [harfi]:

[مَنـكْزَتّى ***meŋzätti***] اُلْ بِيرْ نَانـكْنِي بِيرْكَا مَنـكْزَتّى ***ol bir näŋni birkä meŋzätti*** – “u bir narsani bir narsaga o‘xshatdi” (مَنـكْزَتُورْ ***meŋzätür***, مَنـكْزَتْمَاكْ ***meŋzätmäk***).

ل *l* [harfi]:

[تَنـكْلَتّى ***taŋlattï***] اُلْ مَنِى تَنـكْلَتّى ***ol meni taŋlattï*** – “u meni tang qoldirdi, hayron qoldirdi” (تَنـكْلَتُورْ ***taŋlatur***, تَنـكْلَتْمَاقْ ***taŋlatmaq***).

[تِنـكْلَتّى ***tïŋlattï***] اُلْ مَنـكَا سُوزْ تِنـكْلَتّى ***ol meŋä söz tïŋlattï*** – “u menga so‘z tinglatdi” (تِنـكْلَتُورْ ***tïŋlatur***, تِنـكْلَتْمَاقْ ***tïŋlatmaq***).

[سَنـكْلَتّى ***saŋlattï***] اُلْ قُشْنِى سَنـكْلَتّى ***ol qušnï saŋlattï*** – “u kaklik va boshqa qushlarning patini yuldirdi” (سَنـكْلَتُورْ ***saŋlatur***, سَنـكْلَتْمَاقْ ***saŋlatmaq***).

[مَنـكْلَتّى ***mäŋlättï***] اُلْ قَازِغ مَنـكْلَتّى ***ol qazïγ mäŋlättï*** – “u g‘oz va boshqa parrandalarni donlatdi, don yedirdi” (مَنـكْلَتُورْ ***mäŋlätür***, مَنـكْلَتْمَاكْ ***mäŋlätmäk***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

[يَنـكْزَتّى ***yaŋzattï***] اُلْ اَنـكَرْ سُوزُكْ يَنـكْزَتّى ***ol aŋar sözüg yaŋzattï*** – “u unga yashirish kerak bo‘lgan so‘zni ochib tashlatdi; sirini oshkor qildirdi” (يَنـكْزَتُورْ ***yaŋzatur***, يَنـكْزَتْمَاقْ ***yaŋzatmaq***).

ش *š* [harfi]:

[يَنـكْشَتّى ***yaŋšattï***] اُلْ اَنِـكْ بَشِنْ يَنـكْشَتّى ***ol anïŋ bašïn yaŋšattï*** – “u (ko‘p so‘zlab) uning boshini og‘ritdi” (يَنـكْشَتُورْ ***yaŋšatur***, يَنـكْشَتْمَاقْ ***yaŋšatmaq***).

ل *l* [harfi]:

[يُنـكْلَتّى ***yuŋlattï***] اُلْ قُويُغْ يُنـكْلَتّى ***ol qoyuγ yuŋlattï*** – “u qo‘yning yungini kestirdi” (يُنـكْلَتُورْ ***yuŋlatur***, يُنـكْلَتْمَاقْ ***yuŋlatmaq***).

Qoida. Bu bobning buyrug‘i to‘rt harflidir. Chunonchi, تَقْرَتْ ***tawrat*** – “tezlat”, تَبْرَتْ ***tebrät*** – “harakatlantir” kabi. Bu bobning bo‘lishsizi: تَقْرَتْمَا ***tawratma*** – “tezlatma, shoshirma”; تَبْرَتْمَا ***tebrätmä*** – “harakatlantirma” singari.

Bu bobning buyruq shaklida bir harfning ikki bor qaytariladiganlari juda oz: ايشِغْ اَرْتَتْ ***išïγ artat*** – “ishni buz”; اَنِى سِغْتَتْ ***anï sïγtat*** – “uni yig‘lat” singari.

Ishning ishlovchisini anglatadigan shakl bu bobda تَقْرَتْغُچِى ***tawratγučï*** – “tezlatuvchi”, تَبْرَتْكُچِى ***tebrätgüčï*** – “harakatlantiruvchi” shakllaridir. O‘g‘uzchada bular تَقْرَتّچِى ***tawrattačï***, تَبْرَتّچِى ***tebrättäčï*** shakllaridir.

Ishning davomiyligini ko‘rsatuvchi shakl تَقْرَتْغَانْ ***tawratγan*** – “yurishda shoshiladigan”, تَبْرَتْكَانْ ***tebrätgän*** (222a) – “ko‘p harakat qiladigan” shakllaridir.

Ishga ishtiyoqmandlikni bildiruvchi shakl اَرْ تَقْرَتِغْسَاقْ ***tawratïγsaq er*** – “ishni tezlatishni istagan kishi”; اُلْ يِغَاچِغْ تَبْرَتِكْسَاكْ اُلْ ***ol yïγačïγ tebrätigsäk-ol*** – “u daraxt va boshqa narsalarni tebratishni istovchidir”.

Ishni ishlash uning vazifasi ekanligi mazmunini anglatuvchi shakl اُلْ تَقْرَتِغْلِقْ اُلْ ***ol tawratïγlïq-ol*** – “uning vazifasi tezlatishdir”; اُلْ تَبْرَتِكْلِكْ اَرْدِى ***ol tebrätiglig erdi*** – “uning vazifasi harakatlantirishdir yoki nima aytilsa, shuni bajarardi” demakdir.

O‘g‘uzlarning ba’zilari bu so‘zdagi *lām* harfini *sīn* ga aylantiradilar. Chunonchi, ular bu shakl o‘rnida اَرْدِى اُلْ تَقْرَتِغْسَقْ ***ol tawratïγsaq erdi*** (“uning vazifasi tezlatish edi”) shaklini qo‘llaydilar; اَرْدِى اُلْ تَبْرَتِكْسَكْ ***ol tebrätigsäk erdi*** – “uning vazifasi harakatga solish edi”. Bu tilda ushbu so‘zlar oxiridagi *kāf* [*g*] va *qāf* ni *yā* [*ï, i*] ga aylantiradilar. Chunonchi, اَرْدِى اُلْ تَقْرَتِغْسِى ***ol tawratïγsï erdi*** yoki اَرْدِى تَبْرَتِكْسِى ***tebrätigsi erdi*** kabi. Bu variantning ma’nosi ham avvalgidek. Lekin birinchi shakl bunga muvofiqdir. Ba’zilar bunda ham asl turklarga ergashadilar, ularnikiga muvofiq qo‘llaydilar.

Ko‘nglidagi ishni ishlashga muvaffaq bo‘lganlikni anglatuvchi shakl: اُلْ تَقْرَتِغْلِى اُلْ ***ol tawratïγlï-ol*** – “u ortiq darajada shoshildi va unga erishdi”; اُلْ تَبْرَتِكْلِى اُلْ ***ol tebrätigli-ol*** – “u juda harakatchandir va shunday harakat qilishga yaqinlashdi” ma’nosidadir.

Ishlangan narsa ma’nosini bildiradigan shakl: تَقْرَتْمِشْ / تِقْرَتْمِشْ يِبْ ***tawratmïš*** / ***tïwratmïš yïp*** – “yigirilgan ip”; تَبْرَتْمِشْ نَانْكْ ***tebrätmiš näŋ*** – “tebratilgan narsa”.

Payt oti, joy oti, qurol otlarining qoidasi yuqoridagidek: تَقْرَتْغُو / تِقْرَتْغُو يِبْ ***tawratγu*** / ***tïwratγu yïp*** – “yigiriladigan ip”; تَبْرَتْكُو نَانْكْ ***tebrätgü näŋ*** – “uning vositasi bilan harakat qilinuvchi narsa”; تَبْرَتْكُو يِرْ ***tebrätgü yer*** – “tebratadigan yer”; تَبْرَتْكُو اُغْرْ ***tebrätgü oγur*** – “harakat qilinadigan vaqt”; تَقْرَتْغُو يِرْ ***tawratγu yer*** – “harakat qilinadigan joy”; تَقْرَتْغُو اُغْرْ ***tawratγu oγur*** – “shoshiladigan vaqt”. Bu shakldagi ismi makon (joy oti), harakat otlari o‘g‘uz tilida تَقْرَتَاسِي يِرْ ***tawratasï yer*** (222b) va تَبْرَتَاسِى اُغْرْ ***tebrätäsi oγur*** tarzida qo‘llanadi.

Bu bobdan ish ikki kishi birgalikda bajarganligini bildiruvchi shakl o‘zak oxiriga *šīn* qo‘shib yasaladi. Chunonchi, اُلْ يِغَاجْ تَبْرَتِشْدِى ***ol yïγač tebrätišdi*** – “u daraxt silkitishda ko‘maklashdi yoki bahslashdi”. Yana: اُلْ اَنِكْ بِرْلَا تَقْرَتِشْدِي ***ol anïŋ birlä tawratïšdï*** – “u uning bilan tez yurishda kuchini sinash uchun bahslashdi”.

Bu bob bir necha xildir.

Birinchisi, o‘zida *lām* harfi bor fe’llardir. Bularning ko‘pi asli ikki harfli ismlardir, ularga لَتّى *-lattï, -lättï* qo‘shimchasi qo‘shilib, fe’l yasalgan. Chunonchi, اُلْ اَنِى اَمْلَتّى ***ol anï emlättï*** – “u uni davolatdi” demakdir. Bu so‘zda اَمْ ***em*** o‘zakdir. Yana: بُغْدَاىْ اَتِغْ كَمْلَتّى ***buγday atïγ kemlättï*** – “bug‘doy otni kasal qildi”. Bu so‘zda كَمْ ***kem*** – “kasallik” ma’nosidadir.

Bulardan boshqa harfli fe’llar bir-biridan farq qiladi. Ulardan ayrimlari to‘rt harfli bo‘lib, ular yuqoridagi fe’l boblarida aytildi. To‘rt harfli fe’llardan yumshatish – cho‘zg‘i harflari tushirilib, o‘rniga qaytalanuvchi harflar qo‘yiladi. Chunonchi, اُلْ اَنِكْ يُوزِنْ تَرْمَادِى ***ol anïŋ yüzin tarmadï*** – “u uning yuzini tirnadi”. تَرْمَادِى ***tarmadï*** fe’li to‘rt harflidir. Buning buyrug‘i تَرْمَا ***tarma*** demakdir. Bu to‘rt harflidir. Fe’lni ikki ishlovchidan o‘tuvchi o‘timli qilish uchun bu to‘rt harfli fe’ldan *alif* [*a*] cho‘zg‘isi tushirilib, uning o‘rniga *tā* harfi orttirish bilan to‘rt harfliga ko‘chgan: اُلْ اَنِى تَرْمَتّى ***ol anï tarmattï*** – “u uni tirnatdi”. Buyrug‘i تَرْمَتْ ***tarmat*** – “uni tirnat”dir. O‘zing ko‘rganingdek, *tā* harfi qo‘shilgani uchun *alif* harfi tushirilgan. Yana: اُلْ اَنِى بَغْدَادِى ***ol anï baγdadï*** – “u uning oyog‘ini bog‘ladi,

chaldi”. Buyrug‘i بَغْدَا ***bayda*** (“bog‘la”) to‘rt harflidir. Ikki ishlovchidan o‘tuvchi fe’lga aylantirish uchun *tā* orttirilgan va *alif* tushirilib, اُلْ اَنِـکْ اَذَاقِنْ بَغْدَتّى ***ol anïŋ aδaqïn bayдattï*** deyiladi, “u uning oyog‘ini bog‘latdi” demakdir. Buning buyrug‘i بَغْدَتْ ***bayдat*** – “uning oyog‘ini bog‘lat” demakdir. Birinchi bob shu usulda tuziladi.

Fe’llarning ayrimlari ismlardan yasaladi. Chunonchi, (223a) اُلْ بُوزُکْ قَرْشَتّى ***ol bözüg qaršattï*** – “u bo‘zni o‘lchatdi”. Asli قَرِشْ ***qarïš*** – “qarich”dir. Yana: اُلْ اَنِى قُرْقُتّى ***ol anï qorquttï*** – “u uni qo‘rqitdi” demakdir. Asli قُرْقِنْجْ / قُرْقُنْجْ ***qorqunč*** / ***qorqïnč*** dir. Yana: اُلْ يِيرِکْ اَغْلَتّى ***ol yerig aylattï*** – “u yerni bo‘shatdi, holi qildi”. Asli اَغْلَاقْ يِيرْ ***aylaq yer*** – “bo‘sh, holi joy” demakdir. Bu fe’llarning oxiriga *tā* orttirish natijasida *alif* tushiriladi.

Bu bobning ko‘pchiligi ikki foilga o‘tuvchi fe’llardir. Biri buyuruvchi, ikkinchisi bajaruvchidir. Bu fe’llarning ayrimlari to‘rt harfli o‘timsiz fe’llar bo‘ladi. Ular *tā* harfi orqali o‘timliga aylanadi. Chunonchi, اَتْ سَمْرِيدِى ***at semridi*** – “ot semirdi” kabi; اَرْ اَتِنْ سَمْرِتّى ***er atïn semritti*** – “kishi otini semirtirdi”; نَانـکْ اُکْلِيدِى ***näŋ öklidi*** – “narsa to‘plandi, ko‘paydi”; اَرْ نَانـکِينِى اُکْلِتّى ***er näŋini öklitti*** – “kishi narsasini ko‘paytirdi”.

Bu bobning ikkinchi xili bu ma’nolarni anglatmay, o‘z holicha qo‘llanadi. Chunonchi, اَرْ تَقْرَتّى ***er tawrattï*** – “kishi shoshildi” kabi; اُغْلَانْ اُلْغَتّى ***oγlan ulγattï*** – “bola va boshqalar ulg‘aydi”.

Tangriga shukr bo‘lsin, *muḍā’af* lar bo‘limi tugadi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU *miṣāl* SO‘ZLAR[1] KITOBIDIR

IKKI HARFLILAR BOBI

ب *p* [harfi]:

يَبْ *yap* – “doira, girdak shaklidagi har qanday narsa”; bundan olib **يَبْ يَرْمَاقْ يُوقْ *yap yarmaq yoq*** deyiladi, “menda yumaloq tanga [tanga pul] yo‘q” demakdir.

يَبْ *yap* – “yapog‘” [tugilib, o‘ralashib qolgan yung]; bundan olib **يُونـكْ يَبْ *yuŋ-yap*** deyiladi, “yung va yapog‘” demakdir.

يِبْ *yïp* – “ip”.

يِبْ *yïp* – otlarni bog‘lab qo‘yiladigan uzun arqon; “ip”ni ham **يِبْ *yïp*** deyiladi.

ت *t* [harfi]:

يَتْ *yat* – (Xudodan) so‘rab maxsus toshlar (yada toshi) bilan yomg‘ir, shamol va boshqalarni chaqirish marosimidir. Bu marosim ular orasida keng tarqalgan. Men buni yag‘molar yurtida o‘z ko‘zim bilan ko‘rdim. (223b) U yerda chiqqan bir yong‘inni so‘ndirish uchun shunday marosim o‘tkazilgan edi. Tangri taoloning izni bilan yozda qor yog‘di va ko‘z oldimda yong‘inni so‘ndirdi.

ر *r* [harfi]:

يَرْ *yar* – “so‘lak”; **اَنِـكْ يَرِى اَقْتِى *anïŋ yarï aqtï*** – “uning so‘lagi oqdi”.

يِرْ *yïr* – “qo‘shiq, nag‘ma”; **اُلْ يِرْ يِرْلَادِى *ol yïr yïrladï*** – “u qo‘shiq aytdi”. Ko‘pincha bu so‘z g‘azalga [ya’ni she’rga] nisbatan qo‘llanadi. Bu so‘zni **اِرْ *ïr*** tarzida ham talaffuz qilinadi. Harf almashtirilgandir.

ش *š* [harfi]:

يَشْ *yaš* – “ko‘kat, sabza, barra, yosh o‘t”; **يَشْ اُتْ *yaš ot*** – “yosh, barra o‘t”. Bu so‘z **يَشْ يُشْ *yaš-yuš*** ko‘rinishida qo‘shma holda ergash so‘z bilan ham qo‘llanadi.

يُشْ / يِشْ *yuš / yïš* – “to‘planish”; **بُذونْ يُشْ / يِشْ بُلْدِى *boδun yuš / yïš boldï*** – “xalq to‘plandi, uyushdi” (o‘g‘uzcha).

يِشْ *yïš* – “yuqorilik, balandlik”. Chunonchi, **اَرْتْ يِشْ *art yïš*** – “yuqorilik va quyiliq”;

اِينْ *ïn* – “quyiliq”; **اَرْتْ *art*** – “tog‘dagi kechuv; dovon”.

ق *q* [harfi]:

يُقْ *yuq* – “idish yuqi”. Bu so‘zni **يَقْ *yaq*** ergash so‘zi bilan birga **يُقْ يَقْ *yuq yaq*** tarzida qo‘shma holda ham qo‘llaydilar.

---

[1] Bosh harfi *yā* li (ya’ni [*y*], [*i*], [*ï*] tovushli) so‘zlar ko‘zda tutilmoqda.

[يُقْ *yuq*]يُقْ يِيرْ ***yuq yer*** – “yuqori yer, balandlik yer”.

ك ***k*** [harfi]:

يُكْ ***yük*** – “yuk”; بِيرْ يُكْ بُغْدَايْ ***bir yük buγday*** – “bir yuk bug‘doy; og‘ir yuk va boshqalar”.

ل ***l*** [harfi]:

يُلْ ***yul*** – “buloq ko‘zi, buloq og‘zi”; جُقْرَمَا يُلْ ***čoqrama yul*** – “suvi otilib chiqadigan buloq” deyish shundandir.

يِلْ ***yïl*** – “yil”; بيرْ يِلْ كَجْتِى ***bir yïl kečti*** – “bir yil kechdi”.

م ***m*** [harfi]:

يَمْ ***yam*** – “ko‘zga tushadigan xas, cho‘p”; كُوزْكَا يَمْ تُشْتِى ***közkä yam tüšti*** – “ko‘zga cho‘p tushdi”.

يَمْ ***yem*** – “xushbo‘y, dorivor o‘tlar”; اُوتْ يَمْ ***ot-yem*** – “ovqatga solinadigan kashnich, rayhon, yalpiz, zira” singari isli narsalar har vaqt اُوتْ ***ot*** so‘zi bilan qo‘shma holda aytiladi. Ayrim qo‘llanmaydi.

ن ***n*** [harfi]:

يِنْ ***yin*** – “tezak”; قُوىْ يِنِى ***qoy yini*** – “qo‘y qumalog‘i”.

يِنْ ***yin~yïn*** – “in”; اَرْسْلَانْ يِنِى ***arslan yini*** – “arslon ini”. Tulki va boshqa yirtqichlar iniga ham يِنْ ***yin*** deyiladi. Maqolda (shunday kelgan): تِلْكُو اُوزْ يِنِكَا اُورْسَا اُذُوزْ بُلُورْ ***Tilkü öz yinikä ürsä, uðuz bolur.*** Ma’nosi: “Tulki o‘z inidan nolisa, unga nomus bo‘ladi”. Bu so‘z o‘z qabilasini malomat qiluvchilarga qarata aytiladi.

(Shoir) shunday degan:

قُشْ قُرتْ قَمُغْ تِرِلْدِى	***Quš-qurt qamuγ tirildi,***
اَرْلِكْ تِشِى تِيرِلْدِى	***Erlik-tiši terildi.***
اُكُرْ اَلِبْ تَرِلْدِى	***Ügür alïp tarïldï,***
يِنْقَا يَنَا كِرْكُسُوزْ	***Yïnqa yana kirgüsüz.***

(224a) Ko‘klamni ta’riflab aytmoqda: “Barcha qush va vahshiy hayvonlar ko‘klamning yoqimli shamoli bilan qayta tirildi. Erkak-urg‘ochilari to‘planishdi. Uyur olib tarqalishdi. Ular iniga qayta kirishmaydi”.

Bu so‘zlarning hammasini yozuvda *manqūṣ* bo‘limiga kiritib, talaffuzda yumshatish ham mumkin edi. Lekin bu to‘g‘riroqdir.

فَعْل ***fa’l,*** فُعْل ***fu’l,*** فِعْل ***fi’l*** qolipidagi o‘rta harflari ***sukun*** li so‘zlar bo‘limi

ب ***p*** [harfi]:

[يَرْبْ ***yarp***] يَرْبْ نَانكْ ***yarp näŋ*** – “mahkam, puxta narsa”.

يَرْبْ ***yarp*** – kishi sevinganda paydo bo‘ladigan yuz ochiqlig‘i; اَنِكْ يَرْبِى يَزْلْدِى ***anïŋ yarpï yazïldï*** – “sevinchdan uning yuzi yorishdi”.

ت ***t*** [harfi]:

يُرتْ ***yurt*** – xaroba holidagi bino izlari, qo‘rg‘on va boshqalar.

يَلْتْ قَيَا ***yaltqaya*** – “qoya, har bir qattiq, pishiq, mustahkam narsa”.

ج ***č*** [harfi]:

يُرجْ ***yurč*** – “xotinning o‘g‘il ukasi”. Erning aka-ukasi bilan xotinning aka-ukasini farq qilib shunday deyiladi. Erning kichik ukasiga اِنِی ***ini*** deyiladi, yoshi katta bo‘lsa, اِجِی ***eči*** deyiladi. Erkaklarning o‘zidan kichik qiz ukasiga سِنگِلْ ***siŋil*** deyilib, o‘zidan katta qiz birodariga اَكَا ***äkä*** deyiladi. Xotinning o‘zidan kichik qiz birodariga بَلْدِزْ ***baldïz*** deyilib, o‘zidan kattasiga اَكَا ***äkä*** deyiladi.

د ***d*** [harfi]:

يُنْدْ ***yund*** – “ot”. Bu so‘z “tuya” so‘zi singari birlikka ham, ko‘plikka ham qo‘llanaveradigan turdosh otdir; يُنْدْ اَتِی يِيَارْ ***yund eti yïpar*** – “ot go‘shtidan yoqimli hid keladi” demakdir. Go‘sht qaynatilib, qozondan olib qo‘yib sovutilgach, undan yoqimli bir hid keladi.

يُنْدْ ***yund*** – turklarning o‘n ikki yilidan birining oti; uni يُنْدْ يِلِی ***yund yïlï*** deyiladi.

Bu bo‘lim til va lab tovushlaridan tashkil topgan. Shuning uchun bu bo‘lim ismlari ozdir.

O‘rta harfi *alif* [*a, ä*]; *vāv* [*u, ü*] va *yā* [*ï, i*] bo‘lgan فَعَل *fa’al,* فَعُل *fa’ul,* فَعِل *fa’il* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

[يُذُتْ ***yuδut***] يُذُتْ نَانكْ ***yuδut näŋ*** – “yaxshiligi bo‘lmagan, yaxshiligi yo‘q narsa”. Birovni so‘kkanda, haqorat qilganda يُذُتْ ***yuδut*** deyiladi, “yaxshiligi yo‘q; yomon” demakdir.

[يَشُتْ ***yašut***] يَشُتْ نَانكْ ***yašut näŋ*** – “yashiriladigan narsa”. Juft holda يَشُتْ بَكُتْ ***yašut-beküt*** ham deyiladi, “yashiriladigan, berkitiladigan narsa” demakdir.

يِكِتْ ***yigit*** – “har narsaning yoshi”. (224b)

يَمَتْ ***yemät*** – “xo‘p, mayli” ma’nosidagi bir so‘z. So‘z boshidagi *yā* harfini *alif* ga almashtirib, اَمَتْ ***emät*** tarzida talaffuz qilish ham bor.

يَنُتْ ***yanut*** – “o‘rniga, evaziga, badaliga, baravariga”.

ج ***č*** [harfi]:

يَسِجْ ***yasïč*** – “o‘qning yassi va uzun uchi, uch qismi”.

يِغَجْ ***yïγač*** – “yog‘och”.

يِغَجْ ***yïγač*** – “er kishi olati”.

يِغَجْ ***yïγač*** – “bir farsah” [o‘n ikki ming qadam uzunligidagi joy]; بِيرْ يِغَجْ بِيرْ ***bir yïγač yer*** – “bir farsah uzunligidagi yer”.

يِغَجْ ***yïγač*** – “daraxt”; اُزُمْ يِغَاجِی ***üzüm yïγačï*** (“uzum daraxti”); يَغَاقْ يِغَاجِی ***yaγaq yïγačï*** (“yong‘oq daraxti”) deyilishi ana shu ma’nodadir. Bu ma’noda

qo‘llanganda “daraxt”ni يِغَاجْ ***yïyač*** deb *alif* bilan aytish va yozish يِغَجْ ***yïyač*** deb *alif* siz aytishdan ko‘ra yaxshiroqdir.

يُغُجْ / يُغَجْ ***yoγač*** / ***yoγuč*** – “ariq va daryoning narigi qirg‘og‘i”. Chunonchi, kishi bir yerda turganda uning ro‘parasi يُغُجْ / يُغَجْ ***yoγač*** / ***yoγuč*** bo‘ladi. يُغَجْ / يُغُجْ كَجْتِمْ ***yoγač*** / ***yoγuč kečtim*** – “daryoning bu tarafidan u tarafiga o‘tdim” demakdir.

ر ***r*** [harfi]:

يَغِرْ ***yaγïr*** – “yag‘ir; yirik uy hayvonlari (ot, xachir, eshak)ning yarasi”; يَغِرْلِغْ اَتْ ***yaγïrlïγ at*** – “yag‘irli, yag‘ir yarasi bor ot”.

يُكُرْ ***yügür*** – “don, tariq, bug‘doy”; bu so‘zning أُكُرْ ***ügür*** shakli ham bor.

يَمُرْ ***yamur*** – “ko‘richak; hayvonlar ko‘richagi”.

يُلَرْ ***ular*** – “otning yugani, no‘xtasi”. Maqolda (shunday kelgan): يُنْدْ بَاشِنْ يُلَارْلَبْ كَنَكْلِدِى ***Yund bašïn ularlap keŋlidi.*** Ma’nosi: “Otning boshini qaynatgandan keyin yemoqchi bo‘lsang, qochmasligi uchun unga avval no‘xta solib bog‘la, keyin uni yegin”. Bu maqol otdan foydalanish uchun oldin uni yaxshi saqlashga, bo‘sh qo‘ymaslikka undab aytiladi.

ز ***z*** [harfi]:

يَتِزْ ***yetiz*** – “har bir enli, keng narsa”; يَتِزْ قَذِشْ ***yetiz qaδïš*** – “enli qayish” demakdir; يَتِزْ يِرْ ***yetiz yer*** – “keng yer”.

يَغِزْ ***yaγïz*** – “qizil bilan qora o‘rtasidagi bir rang, qo‘ng‘ir rang”. Yerning rangi shunga o‘xshatilib, يَغِزْ يِرْ ***yaγïz yer*** deyiladi.

[يَغِزْ ***yaγïz***] يَغِزْ اَتْ ***yaγïz at*** – “chovkar ot”.

يَفُزْ ***yawuz*** – “har narsaning yomoni”.

[يُمِزْ / يُمُزْ ***yumuz*** / ***yumïz***] يُمِزْ اَرْ / يُمُزْ ***yumuz*** / ***yumïz er*** – “kaltabaqay, semiz pakana kishi, yumaloq odam”.

يَمِزْ ***yamïz*** – “ikki sonning ikki yoni, chov, sonning boshlari. Ikki sonning bosh tomonlari”.

ش ***š*** [harfi]:

يَرِشْ ***yarïš*** – “poyga, ot poygasi”; اُلْ اَتْ يَرِشْتِى ***ol at yarïštï*** – “u otda poyga qildi”.

يَرِشْ ***yarïš*** – “taqsim, ikki kishi o‘rtasida mol taqsimlash”.

يَغِشْ ***yaγïš*** – johiliya davridagi kishilarning butlarga sig‘inib ularga atab so‘yadigan qurbonliklari. (225a)

[يَفَشْ ***yawaš***] يَفَشْ كِشِى ***yawaš kiši*** – “yuvosh kishi”. Yuvosh hayvonlarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

(Donishmand) shunday degan:

قَلْدَشْ بِلَا يَرَشْغِلْ ***Qoldaš bilä yarašγïl,***
قَرْشِبْ اَدِنْ اُدُرْمَا ***Qaršïp adïn üdürmä.***
بَكْ تَتْ يَفَشْ تَقَاغُو ***Bek tut yawaš taqaγu,***
سُقْلِنْ يَزِنْ اَدَرْمَا ***Süwlin yazïn edärmä.***

Nasihat qilib aytmoqda: “Qo‘ldoshingni hurmat qil, yaxshi muomalada bo‘l. Qarshilik qilib, uni tashlab, boshqa bilan bo‘lib ketma. Uydagi yuvosh tovuqni yaxshilab boq, suvlin [dasht qushi]ni boqaman deb ovora bo‘lma”.

يُفُشْ *yöwüš* – qarindoshlarga mol va kiyim bilan ko‘maklashish. Lekin, asosan, kelinlar to‘yonasiga qo‘llanadi. U qarindosh-urug‘larning unga atalgan hadyalaridir. Maqolda (shunday kelgan): ***يُفُشْ لُكْ كَلِنْ كُدَاكُو يَفَشْ بُلُورْ Yöwüšlüg kelin küdägü yawaš bulur.*** Ma’nosi: “Yaqinlari tomonidan to‘yonalar bilan siylangan kelin kuyov tomonidan ham siylanadi”.

يُمُشْ *yumuš* – “ikki va undan ortiq kishi orasida elchilik”. Bu so‘zdan olib, “shoh”ni ***يُمِشْجِى yumišči*** deyish ham mumkin. Chunki “shoh” ma’nosidagi مَلِكْ *malik* so‘zi arabcha “elchilik” ma’nosidagi اَلوكَالةٌ so‘zidan olingan. Turkiy qabilalar مَلِكْ *malik* atamasini mutlaqo bilmaydilar

يَمِشْ *yemiš* – mevalar, ko‘pincha, “daraxt mevasi”, ya’ni “ho‘l meva”ga aytiladi.

غْ *γ* [harfi]:

يَتِغْ *yatïγ* – “uyqu; yotib uxlash”; ***اَنِى يَتِغِنْدَا تُتْغِيلْ anï yatïγïnda tutγïl*** – “uni uyquda yotganda tut”.

يِذْغ *yïδïγ* – “har bir hidli narsa”.

يِذْغ اَتْ *yïδïγ ot* – “isiriq”; كَاشْغَرْ *Kāšγar* tilida, اُچْ *uč* va بَرسْغَانْ *barsγan* lar tilida **اَلْدَرُكْ *elddürük*** deydilar. O‘g‘uzlar **اَرْلِكْ يُوزْ *yüz erlik*** deydilar.

يُذُغْ *yuδuγ* – “birovning gunohiga toyilish, kasriga qolish”; ***اَنِكْ يُذُغِى تُقْنْدِى anïγ yuδuγï toqïndï*** – “unga birovning gunohi yetdi [u birov gunohining kasriga qoldi]”.

يُذُغْ *yuδuγ* – bolalarga aytiladigan so‘kish so‘zi (kanjaklar so‘zi). Bu so‘z **يُذُتْ *yuδut*** so‘zi kabidir.

يَرَغْ *yaraγ* – “fursat va imkon”. (225b) Maqolda (shunday kelgan): ***اِيشْ يَرَاغْنْدَا سَرتْ اَسِغْنْدَا Ïš yaraγïnda, sart asïγïnda.*** Ma’nosi: “Ish (buyurgan) vaqtida bajariladi, ammo savdogar faqat foyda kutadi”.

يِشِغْ *yïšïγ* – “qayishdan to‘qilgan bog‘, bo‘yinturuq qayishi”.

يَقُغْ *yawuγ* – sel suvi tog‘lardan endirgan tosh bo‘laklari. Tog‘ cho‘qqisida odamlar, hayvonlarning harakatidan pastga yumalab tushgan tosh parchalari ham **يَقْغْ *yawuγ*** deyiladi.

يَقِغْ *yaqïγ* – shish va shunga o‘xshash yaralar uzra surtiladigan dori.

يَلِغْ *yalïγ* – “toj”; ***تَقُقْ يَلِغِى taquq yalïγï*** – “xo‘roz toji” degan ibora shundandir.

يَلِغْ *yalïγ* – “ot yoli”. Bu so‘zning bir tilda **يَالْ *yal*** shakli ham bor. To‘g‘risi **يِيلْ *yïl*** ko‘rinishli shaklidir.

يُلُغْ *yuluγ* – “fido bo‘lish”. (Shoir) shunday degan:

مِنكْ كِشِى يُلُغِى بُلُبْ اُوزُنكَا Miŋ kiši yuluγï bolup özüŋä,
بِرْكَلَرْ اُوزُنْ اَنِكْ كُوزِنكَا Bergälär özün anïŋ köziŋä.

Aytmoqdaki: “Minglab kishilar unga o‘zlarini fido qiladilar, uning ko‘zlarini ko‘rish uchun jonlarini beradilar”. اُوزْ *öz* so‘zi bu she’rda “jon” ma’nosidadir. Bu so‘zning xalq tilida qanday ma’nolarda qo‘llanishi o‘z o‘rnida bayon qilindi.

[يِلغْ *yilïγ*] يِلغْ سُوفْ *yilïγ suw* – “iliq suv”. Issiq bilan sovuq orasidagi har bir narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

يَلغْ *yalïγ* – “egarning oldingi va orqa qoshlari”. Ularni bir-biridan ayirib aniqlash uchun اُنكْدُنْكِى يَلغْ *öŋdünki yalïγ* (“old qosh”), كِيدِنْكِى يَلغْ *kedinki yalïγ* (“orqa qosh”) tarzida qo‘llanadi.

يَنغْ *yanïγ* – “qusuq”; اُلْ يَنغْ يَنْدِى *ol yanïγ yandï* – “u ko‘p qusdi”.

يَنغْ *yanïγ* – “yanish, g‘azablanish”; بَكْ يَنغِنْدَا تُشْمَا *beg yanïγïnda tüšmä* – “bek va boshqalar yanishiga, g‘azabiga yo‘liqma”.

ق *q* [harfi]:

يَتُقْ *yatuq* – ikki xil narsadan to‘qilgan kiyimlik, arqog‘i yung, o‘rishi ipdan to‘qiladi.

[يَتُقْ *yatuq*] يَتُقْ نَانكْ *yatuq näŋ* – “tashlangan, unutilgan har bir narsa”. Yalqovlarga يَتُقْ كِشِى *yatuq kiši* deyish shundandir. O‘g‘uzlar orasida o‘z yurtidan boshqa yerga chiqmaydigan, jang qilmaydiganlarni ham يَتُقْ *yatuq* deydilar; “yalqov, tashlandiq” demakdir. (226a)

يَتِقْ *yatïq* – “uyqu va ayni zamonda uxlash”; اَنِى يَتِقْدَا تُتِّى *anï yatïqïnda tuttï* – “uni uyquda, uyquda yotganida tutdi”.

[يَرُقْ *yaruq*] يَرُقْ يِيرْ *yaruq yer* – “yorug‘ yer”; يَبْ يَرُقْ نَانكْ *yap-yaruq näŋ* – “yop-yorug‘ narsa”.

يَرُقْ *yaruq* – “yerdagi, devordagi, tog‘lardagi, (chinni, sopol) idishlar va boshqalardagi yoriq, darz”: بُو اَيَقْ نِكْ يَرُقِى بَارْ *bu ayaqnïŋ yaruqï bar* – “bu idishning yorig‘i bor”.

يَرِقْ *yarïq* – janglarda kiyiladigan zirhli kiyim va qalqonning har ikkisiga qo‘llanadigan turdosh otdir. So‘ng ularni farq qilib, “zirhli kiyim”ni كُبَا يَرِقْ *kübä yarïq*, “qalqon”ni سَاىْ يَرِقْ *say yarïq* deyiladi.

[يُرِقْ *yorïq*] يُرِقْ تِلْ *yorïq til* – “ochiq va aniq til”.

يُرِقْ *yorïq* – “yo‘riq, fe’l, fe’l-u xo‘y, muomala”; اَنِكْ يُرِقِى نَتَكْ كِشِى بِلَا *anïŋ yorïqï netäg kiši bilä?* – “uning kishilar bilan muomalasi qanday?”.

يُرِقْ *yorïq* – “yurish, yuramollik, yo‘rg‘alik”; اَتْ يُرِقِى نَتَكْ *at yorïqï netäg?* – “otning yurishi qanday?”. Suv va boshqalarning oqishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

يَرِقْ *yarïq* – ikki sonning bir-biriga tutashgan, bir-biridan ayriladigan ustki, bosh qismi. Bu so‘z يَرِلْدِى نَانكْ *yarïldï näŋ* (“narsa yorildi, ayrildi”) birikmasidagi يَرِلْدِى *yarïldï* so‘zidan olingan. Ikki oyoqning biri o‘ngga, ikkinchisi chapga ayrilishiga ishora.

يَزَقْ *yazaq* – “o‘tloq” (yag‘mo va tuxsilar so‘zi).

[يَزُقْ *yazuq*] يَزُقْ اَتْ *yazuq at* – “boshvoqlanmagan, bog‘idan yechilgan ot”. Bog‘lovdan yechilgan har qanday hayvonga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يَزُقْ *yazoq*] يَزُقْ اَتْ ***yazoq et*** – kuzda har xil xushbo‘y o‘tlar bilan quritib qo‘yib, ko‘klamda yeyiladigan go‘sht. Bu يَازْ اُقْ يِى ***yaz-oq ye*** (“ko‘klamdagina yegin”) iborasidan olingan. Chunki ko‘klamda mollar oriqlab qoladi. Bu xildagi go‘sht quritgan kishi ko‘klamda ham semiz go‘sht yeydi.

يَزُقْ ***yazuq*** – “gunoh”. Maqolda (shunday kelgan): اُوتْ تُتُنْسُزْ بُلْمَاسْ يِكِتْ يَازُقْسُزْ بُلْمَاسْ ***Ot tütünsüz bolmas, yigit yazuqsuz bolmas.*** Ma’nosi: “O‘t tutunsiz bo‘lmaydi, yigit gunohsiz bo‘lmaydi”.

يَسِقْ ***yasïq*** – “yoy idishi”. Turk qabilasi tilida. Bu so‘zni o‘g‘uz va qipchoqlar bilmaydi, ular buni قُرْمَنْ ***qurman*** deydilar. (226b) Maqolda (shunday kelgan): اُبْرَقْ يَسِقْدِنْ تُوزْلُغْ يَا جِقَارْ ***Opraq yasïqdïn tozluγ ya čïqar.*** Ma’nosi: “Eski yoy idishidan buklangan yoy ham chiqadi”. Bu arablarning تَرى الْرَجُلَ النَحِيفَ فَتَزْدَرِيهِ وَفِى اَثْوابِه اَسَدٌ مَزِيدٌ degan iborasiga to‘g‘ri keladi.

يُلَقْ ***yulaq*** – “bir qancha kichik-kichik suv yo‘llari” (jilg‘alar). يُلْ يُلَقْ ***yol yulaq*** iborasi shundan olingan. Bunda *lām* ga *qāf* harfi qo‘shilgan.

(Shoir) shunday degan:

اَقتُرُرْ كُوزُمْ يُلَاقْ ***Aqturur közüm yulaq,***
تُشْ قِلُرْ اُرْدَكْ يُغَاقْ ***Tüš qïlur ördäk, yuγaq.***

Aytmoqdaki: “Ko‘zimdan oqqan yosh suvlari jilg‘alarga aylanmoqda. Unga o‘rdak va boshqa suv qushlari qo‘nayotir”.

يُلَقْ ***yolaq*** – “yurishga yaroqsiz kichik yo‘l”. U dashtlarda bo‘ladi.

[يُلَقْ *yolaq*] يُلَقْ بَرْجِنْ ***yolaq barčïn*** – “yo‘l-yo‘l beqasam, shohi”. Yo‘l-yo‘l chiziqlari bo‘lgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘zning asli يُولَقْ dir.

ك ***g*** [harfi]:

يِتُكْ ***yitüg*** – “yitgan, yo‘qolgan narsa”. Maqolda (shunday kelgan): يِتُكْلُكْ اَنَاسِى قُوِينْ اَجَارْ ***Yitüglüg anasï qoyun ačar.*** Ma’nosi: “Narsasini yo‘qotgan (kimsa) onasining qo‘ynini ham ochib qaraydi”. Ya’ni “narsa yo‘qotgan kishi bunga haqli, bunda uzrli” demakdir.

[يِتِكْ *yitig*] يِتِكْ بِجَكْ ***yitig pičäk*** – “o‘tkir pichoq”. Qilich va qilichga o‘xshash o‘tkir narsalarning hammasiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يِتِكْ *yetig*] يِتِكْ اَرْ ***yetig er*** – “yetuk er; ishlarni o‘rniga qo‘yadigan kishi”.

يُرَكْ ***yürük*** – “yurak”; يُرَكْلِكْ ***yürüklig*** – “yurakli, botir”.

يُرُكْ ***yörüg*** – “yo‘yish, ta’bir”; تُوشْ يُرُكِى ***tüš yörügi*** – “tush ta’biri”.

يُرُكْ ***yörüg*** – “so‘zning ma’nosi va ochiqlamasi”; سُوزْ يُرُكِى ***söz yörügi*** – “so‘zning ochiqlamasi”.

[يِرُكْ *yirük*] يِرُكْ اِشْلَارْ ***yirük ešlär*** – “yirik xotin”.

[يِرُكْ *yirük*] يِرُكْ نَانكْ ***yirük näŋ*** – “uzunasiga yorilib bo‘lingan, shuning uchun ko‘rkini yo‘qotgan har bir narsa”.

يِرُكْ ***yirük*** – “kemtik, labi siniq narsa”.

يُزُكْ ***yüzük*** – “uzuk”.

يِزَاكْ ***yizäg*** – “qo‘shinning oldinda boradigan qismi”.

يَنِكْ ***yenik*** – “yengil”.

ل ***l*** [harfi]:

[يَسُلْ ***yasul***] يَسُلْ تَاغ ***yasul tay*** – “baland tog‘”. Har bir baland va chuqur narsaga ham يَسُلْ ***yasul*** deyiladi.

يَشِلْ ***yašïl*** – “har narsaning yashili”. “To‘q yashil”ga يَبْ يَشِلْ ***yap-yašïl*** deyiladi. Juft holda يَشِلْ يُشُلْ ***yašïl-yušul*** ham deyiladi.

م ***m*** [harfi]:

يَدِمْ ***yaδïm*** – “o‘rin, to‘shak”; (227a) تُوْلُكْ يَدِمْ ***tülüg yaδïm*** – “yung to‘shak”. Bu asosli so‘z emas.

يَرِمْ ***yarïm*** – “narsaning yarmi”; اَلْمِلَا يَرِمِى ***almïla yarïmï*** – “olma va boshqalarning yarmi”.

يَرِمْ ***yarïm*** – ikkiga ayrilgan har narsaning har ikki bo‘lagi; يُتِقْ يَرِمِى ***butïq yarïmï*** – “butoq yarmi”. Buning asli “ikkiga ayrilmoq”dir.

يِشِمْ ***yišim*** – sovuqda ikki oyoqqa kiyiladigan pocha.

[يِغِمْ ***yïγïm***] يِغْمْ تُبْرَاقْ ***yïγïm tupraq*** – “yig‘ilgan tuproq”; *nūn mīm* ga almashgandir.

[يَلِمْ ***yalïm***] يَلِمْ قَيَا ***yalïm qaya*** – “qattiq tog‘, qoya”. Maqolda (shunday kelgan): تَلِمْ سُوزُكْ اُقْسَا بُلْمَاسْ يَلِمْ قَيَا يِقْسَا بُلْمَاسْ ***Telim sözüg uqsa bolmas, yalïm qaya yïqsa bolmas.*** Ma’nosi: “Ko‘p so‘zni tushunib bo‘lmaydi, qattiq toshni yiqitib [sindirib] bo‘lmaydi”. Bu maqol so‘zni cho‘zmaslikka undab aytiladi.

يَلِمْ ***yelim*** – tuk va shunga o‘xshash narsalarni yopishtirishga ishlatiladigan yelim. “Baliq yelimi”ga ham يَرُقْ يَلِمْ ***yaruq yelim*** deyiladi.

ن ***n*** [harfi]:

بَيَنْ ***bayan*** – “to‘q qizil”. Kelinchak guli deyilgan gul rangidagi har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi. Maqolda (shunday kelgan): قِلْنُو بِلْسَا قِزِلْ كَذَارْ يَرَانُو بِلْسَا يَشِلْ كَذَارْ ***Qïlnu bilsä, qïzïl keδär, yaranu bilsä, yašïl keδär.*** Ma’nosi: “Xotin sho‘x va ishvali bo‘lgisi kelsa, qizil ipaklik kiyadi, nozli bo‘lgisi kelsa, ko‘k ipaklik kiyadi”, ya’ni “er hurmatiga sazovor bo‘lgan kiyim kiyinadi”.

يَتَنْ ***yatan*** – “yog‘ochdan yasalib, u bilan o‘q otiladigan yoy, kamalak”.

يَتَنْ ***yatan*** – “paxtani, yungni titadigan yoy”.

يَرِنْ ***yarïn*** – “kift suyagi”. Turklar buning bilan bog‘lab shunday deydilar: يَرِنْ بُلْغَنْسَا اِيُلْ بُلْغَنُورْ ***Yarïn bulγansa, iyül*** (***el?***) ***bulγanur.*** Ma’nosi: “Kift suyagiga kulfat yetsa, elga kulfat yetadi”.

يُرُنْ ***yurun*** – “ipak kiyimlik”; يُرُنْ يُقَا ***yurun yuqa*** deyilish ham shundan.

يَشِنْ ***yašïn*** – “chaqmoq”. Turk hikmatida (حكمه الترک) shunday deyilgan: كِمِنِكْ بِلَا قَاشْ بُلْسَا يَشِنْ يَقْمَاسْ ***Kimiŋ bilä qaš bolsa, yašïn yaqmas.*** Ma’nosi: “Kimning yonida qosh toshi [u bir oq, tiniq toshdir] bo‘lsa, unga chaqmoq zarar bermaydi”. (227b) Chunki u toshning xislati shunday: hattoki, u toshni bo‘zga o‘rab o‘tga tashlansa, bo‘z ham, tosh ham kuymaydi. Bu sinalgandir. Tashna kishi og‘ziga qo‘ysa, tashnalikdan qutuladi.

[يِغِنْ ***yïγïn***] **يِغِنْ تُبْرَاقْ *yïγïn tupraq*** – “tuproq va boshqa narsalar uyumi”.

يَقِنْ *yaqïn* – “har narsaning yaqini”; **يَقِنْ يِيرْ *yaqïn yer*** – “yaqin yer”; **يَقِنْ اَرْ *yaqïn er*** – “do‘stlardan yaqini”. (Ko‘pni ko‘rgan) shunday degan:

يَقِنْ يَغُقْ كُرْمَذِبْ نَانكْنِى كُذُورْ ***Yaqïn yaγuq körmäδip näŋni küδür,***
قَذَشْ تَبَا اِتْ كِبِى قِينكْرُو بَقَارْ ***Qaδaš tapa ït kibi qïŋru baqar.***

Kishilar orasidagi vafosizlikni ta’riflab aytmoqda: “Kishilar yaqinlarini, birodarlarini hurmat qilmaydilar. Mol-u dunyoga ahamiyat berib, so‘ngakni boshqadan qizg‘angan it singari o‘z birodarlariga yomon ko‘z bilan qaraydilar”.

يِكَنْ *yigän* – bir turli o‘simlik.

يَلِنْ *yalïn* – “yalin, yallig‘”; **اُوتْ يَلِنِى *ot yalïnï*** – “olov yallig‘i”.

يُلُنْ *yulun* – “bo‘yin so‘ngagi ichidagi oq ilik, harom mag‘iz”.

يِلِنْ *yelin* – “baytal yelini”. Bir tirnoqli hayvonlar yeliniga ham shu so‘z qo‘llanadi.

O‘rtasi harakatli so‘zlarning boshqa bir turi

غ *γ* [harfi]:

[يِيغْ ***yayïγ***] **يِيغْ كِشِى *yayïγ kiši*** – “hardamxayol kishi”.

ق *q* [harfi]:

[يَيِقْ ***yayïq***] **يَيِقْ كِشِى *yayïq kiši*** – bu so‘z ham avvalgi ma’noda. Bu so‘zning ham **بِشِغْ اَتْ *pïšïγ et,*** **(اَتْ) بِشِقْ *pïšïq et*** – “pishgan go‘sht” kabi (*yayn* va *qāf* li) shakllari bor.

[**م *m*** harfi]:

يِمْ *yim* – bir turli o‘simlik urug‘i. U kunjut donasi kabidir. Lekin undan qizilroq bo‘ladi. Yog‘idan chiroq yoqish uchun foydalaniladi.

Bosh va oxiri harfi illatli so‘zlar bo‘limi

[**ب *p*** harfi]:

يَبَا *yepä* – “har bir nam va rutubatli narsa” (o‘g‘uzcha).

يَبِى *yapï* – “egar ustiga qo‘yiladigan yostiq, ko‘rpacha” (chigilcha).

ر *r* [harfi]:

[يَرُو ***yaru***] **يَرُو يَلِمْ *yaru yelim*** – “baliq tarog‘i”.

يُرَا *yörä* – “har narsaning tevaragi” (o‘g‘uzcha).

ز *z* [harfi]:

يَزِى *yazï* – “bo‘shliq, ochiq yer”.

س *s* [harfi]:

[يَسِى ***yasï***] **يَسِى نَانكْ *yasï näŋ*** – “yassi, keng narsa”.

غ ***γ*** [harfi]:

يَغِى yayï – “yov”.

ف ***w*** [harfi]:

يَفَا yawa – o‘g‘uzlarning bir qabilasi. Bu so‘zning *vāv* bilan ***يَوَا yava,*** *alif* bilan ***اَفَا awa*** shaklida talaffuzi ham bor.

يَفَا yawa – “tikanli o‘simlik”.

[***يَفَا yawa***] ***يَفَا يِيرْ yawa yer*** – “sovuqdan xoli, issiq yer”.

ق ***q*** [harfi]:

يَقَا yaqa – “kiyimning yoqasi”.

[***يَقِى yaqï***] ***يَقِى يُقِى اَرْ yaqï-yuqï er*** – “laganbardor kishi”.

يَقُو yaqu – “yomg‘irli joy”. Bu so‘zning asli ***يَاغْقُو yaγqu*** bo‘lgan, keyinchalik yengillatilgan.

ك ***g*** [harfi]:

[***يِكِى yigi***] ***يِكِى يِغَاجْ yigi yïγač*** (228a) – yog‘ochlari bir-biriga o‘ralashib ketgan ko‘p daraxt. Ba’zan *kāf* tushirilib, ***يِى يِغَاجْ yi yïγač*** shaklida ham talaffuz qilinadi; ***يِكِى تِيشْ yigi tïš*** – “zich tish” demakdir; ***تُونْ يِكِى تِكْ ton yigi tik*** – “to‘nni zich qilib, tutashtirib, pishiq qilib tik”. Tikishga ***يِى yi*** deyiladi. Buning asli ***يِكِى yigi*** dir.

ل ***l*** [harfi]:

يَلَا yala – “tuhmat; birov haqida yomon fikrda bo‘lish”. Bir turli qat-qat nonga ***يَلَاچِى يُغَا yalačï yuγa*** deyiladi. Ya’ni nozikligidan “bir narsaga sal tegishi bilan ushalib ketadigan non” demakdir. Non yopuvchi, buni sen sindirding, deb yonidagi kishiga tuhmat qiladi.

يُلَا yula – “chiroq, qandil”. (Ko‘pni ko‘rgan) shunday degan:

تَكْمَا اِيقَتْ اَشْقَا كُرُبْ تُرْغِلْ اَلَا Tegmä iwät ašqa körüp turγïl elä,
جَقْمَقْ جَقِبْ اِيقسَا قَلِى اُذْنُورْ يُلَا Čaqmaq čaqïp iwsä qalï uδïnur yula.

Aytmoqdaki: “Ishga shoshib kirishma, uning kirish joyiga diqqat qil, ehtiyot bo‘l, shoshilib chaqmoq chaqib chiroq yondirmoqchi bo‘lgan kishining shoshishidan chiroq o‘chadi”.

يَلُو yalu – “toylarni bog‘laydigan arqon”. Biyalar sog‘ilayotganda toylar tevaragida o‘tlab turishi uchun bir arqonga bog‘lanadi.

م ***m*** [harfi]:

يَمُو yemü – “so‘zimni qabul qildingmi?, buyurganimni qilishga tushundingmi?” degan ma’nodagi so‘zdir; ***سَنْ بَرْغِلْ يَمُو sen barγïl yemü*** gapining ma’nosi “sen bor, xo‘pmi” demakdir. Buning asli ***يَهْ ye*** – “xo‘p”dir. *mīm* va *vāv* (ya’ni [*ü*]) harflaridan tashkil topgan ***مُو mü*** so‘roq qo‘shimchasidir.

ن ***n*** [harfi]:

يَنَا yana – yordamchi so‘z; ma’nosi “yana, ikkinchi marta”dir; ***يَنَا كَلْدِى yana keldi*** – “yana, ikkinchi marta keldi” kabi.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

يَيَا *yaya* – “dumba”; faqat inson dumbasiga nisbatan qo‘llanadi.

و *v* [harfi]:

يَوَا *yava* – uning suvi bilan tutmochga rang beriladigan bir turli tikanli o‘simlik (طرثوث). Jarangli ف *wā* harfi (الفاء الركيكة) bilan **يَفَا *yawa*** shakli ham bor.

يَوَا *yava* – o‘g‘uz qabilalaridan; **يَفَا *yawa*** ning boshqa bir shakli. O‘g‘uzlarda “issiq yer” **يَفَا يِيرْ *yawa yer*** deyiladi. Yuqorida aytganim kabi *vāv* harfi jarangli ف *wā* ga (بالفاء الركيكة) almashadi.

فَعْلَل *fa’lal* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ت *t* [harfi]:

يَتِى *yeti* – “yetti soni”; **يَتِى قَتْ كُوكْ *yeti qat kök*** (228b) – “yetti qat ko‘k” degandagi kabi.

فَوْعَل *fav’al* qolipidagi so‘zlar

[**چ *č*** harfi]:

يُولِچْ *yulïč* – “echkining mayin yungi, tivit”.

غ *ɣ* [harfi]:

يُوغَا *yuɣa* – “qat-qat non”.

يَيْغُقْ *yayɣuq* – “baytal emchaklarining uchi”. Qipchoqlarning ba’zilari **يَزْغُقْ *yazɣuq*** deydilar.

Har xil harakatlar bilan kelgan فَعَال *fa’āl* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

يَنُوتْ *yanut* – “javob”. **سُوزْ يَنُوتِى *söz yanutï*** – “so‘zning javobi”.

يَنُوتْ *yanut* – “o‘rinma-o‘rin, baho”.

چ *č* [harfi]:

يِغَاچْ *yïɣač* – “yog‘och”. To‘rt variantli bo‘lgan **يِغَجْ** ning bir shakli.

ر *r* [harfi]:

يِيَارْ *yïpar* – “ipor, mushk” (jarangsiz پ *pā* bilan – بياء صلبة).

يُلَارْ *yular* – “otning yugani”.

يَمَارْ *Yamar* – joy oti. Bu yerda – يَبَقُو *Yabaqu* dashtida katta bir suv oqadi, uni **يَمَارْ سُوقِى *Yamar suwï*** deyiladi.

غ *ɣ* [harfi]:

يَدَغْ *yadaɣ* – “yayov”.

يَرَاغْ *yaraɣ* – “kez, fursat va imkon”; **اِيشْ يَرَاغِى *iš yaraɣï*** – “ishning fursati, xonasi”. Bu so‘zning **يَرَغْ** shakli ham bor.

يَمَاغ ***yamay*** – “yamoq”. Maqolda (shunday kelgan): **بَرْجِنْ يَمَاغِى بَرْجِنْقَا قَرِشْ يَمَاغِى قَرِشْقَا** ***Barčïn yamayï barčïnqa, qariš yamayï qarišqa.*** Ma’nosi: “Ipaklikka ipaklik yamoq munosib bo‘lsa, yungga yung yamoq loyiqdir”. Bu maqol “har bir narsa o‘ziga munosib bo‘lishi kerak”, degan ma’noda qo‘llanadi.

ق ***q*** [harfi]:

[**يِرَاقْ** ***yïraq***] **يِرَاقْ يِيرْ** ***yïraq yer*** – “yiroq yer”. Uzoq qarindoshlarga va boshqa kimsalarga ham qo‘llanadi.

(Shoir) shunday degan:

اُغْرَغِمْ كَنْدُو يِرَاقْ ***Oγraγïm kendü yïraq,***
بُلْنَدِى مَنِى قَرَاقْ ***Bulnadï meni qaraq.***

Ma’nosi: “Maqsadim uzoq edi, sevgilimning qora ko‘zi meni asir qilib yo‘ldan qaytardi”.

يَغَاقْ ***yaγaq*** – “yong‘oq”.

[**يَغُوقْ** ***yaγuq***] **يَغُوقْ يِيرْ** ***yaγuq yer*** – “yaqin yer”. Qarindoshlarga **يَقْ يَغُوقْ** ***yaq yaγuq*** deyish ham shundandir.

يُنَاقْ ***yunaq*** – eshak, ho‘kiz va shunga o‘xshash yuk ortiladigan hayvonlarning yuk ostidan qo‘yiladigan to‘qimlari.

ك ***k*** [harfi]:

يِمَاكْ ***yemäk*** – turklarning bir qavmi. Bizlarning nazarimizda ular qipchoqlardir. Lekin qipchoqlar o‘zlarini boshqa toifadan deb biladilar.

ن ***n*** [harfi]:

يَغَانْ ***yaγan*** – “fil”. Ikki tilning birida. Shuning uchun kishi oti sifatida **يَغَانْ تِكِينْ** ***Yaγan tigin*** so‘zi qo‘llanadi.

يُغُونْ ***yoγun*** (229a) – “har bir yo‘g‘on narsa”.

يِلَانْ ***yïlan*** – “ilon”; **اُقْ يِلَانْ** ***oq yïlan*** – o‘zini odam va boshqalarga otadigan ilon.

يِلَانْ يِلِى ***yïlan yïlï*** – turkcha o‘n ikki yil otlaridan biri.

يَمَانْ ***yaman*** – “yomon; har narsaning yomoni”; **يَمَانْ اِيكْ** ***yaman ig*** – “yomon kasallik”.

فَعْلى ***fa’la*** qolipidagi o‘rtasi ***sukun*** li so‘zlar bo‘limi

ب ***p*** [harfi]:

[**يَلْبِى** ***yalpï***] **يَلْبِى نَانكْ** ***yalpï näŋ*** – “yog‘ochdan o‘yib yasalgan, yuza lagan singari yassi narsa”.

ت ***t*** [harfi]:

يَرْتُو ***yartu*** – “payraxa”. Ustiga (bir narsa) yoziladigan taxtaga ham **يَرْتُو** ***yartu*** deyiladi.

ج ***č*** [harfi]:

يِرْجُو ***yerčü*** – “qabr”.

يُرْچى *yorčï* – “hunarmand; yo‘l ko‘rsatuvchi”.

يِنْجُو *yinčü* – “inju, dur”. Joriyalarga **يِنْجُو *yinčü*** deyish ham shundan. Maqolda (shunday kelgan): **اُوتْلُكْ يِنْجُو يِيرْدَا قَلْمَاسْ *Ötlüg yinčü yerdä qalmas.*** Ma’nosi: “Teshik inju yerda qolmaydi, uni bir oladigan chiqadi”. Bu maqol “joriyalar qizligicha uzoq qolib ketmaydi, unga bir uylanadigan kishi topiladi” degan ma’noda qo‘llanadi. O‘g‘uz va qipchoqlar *yā* ni ج *jīm* ga almashtirib, **جِنْجُو *jinčü*** shaklida qo‘llaydilar.

د *d* [harfi]:

يُغْدُو *yoγdu* – “tuyalarning jag‘ ostidagi uzun tuklari”.

يِگْدَا *yigdä* – “jiyda”.

يَمْدُو *yemdü* – “son tuki” (mo‘yi).

يُنْدِى *yundï* – “yug‘indi”.

ر *r* [harfi]:

[**يَبْرِى *yaprï***] **يَبْرِى يِيرْ *yaprï yer*** – “yassi va to‘g‘ri yer”.

[**يَبْرِى *yaprï***] **يَبْرِى قُلَاقْ *yaprï qulaq*** – “shalpangquloq”.

[**يَشْرُو *yašru***] **اُلْ يَشْرُو كَلْدِى *ol yašru keldi*** – “u yashirincha keldi”; **يَشْرُو اِيشْ *yašru iš*** – “yashirin ish”.

يُغْرُو *yoγru* – “tuyaning uzun mo‘ylari”. Ba’zan bu so‘zni **يُغْرُوىْ *yoγruy*** tarzida ham qo‘llaydilar. Bu so‘zdagi *rā* harfi *dāl* harfi bilan almashgan. Arab tilida ham bu xususiyat bor, عَكَرَةٌ va عَكَدَةٌ deyilgani kabi.

[**يَغْرُو *yaγru***] **اُلْ اَنكَرْ يَغْرُو يُرِيمَاسْ *ol aŋar yaγru yurïmas*** – “u uning yaqiniga bormaydi”. Bu so‘zning asli *qāf* bilan **يَقْرُو *yaqru*** edi. *yayn* bilan *qāf* bir-biriga yaqin tovushlar bo‘lgani uchun *yayn qāf* ga almashgan. Bu xususiyat arab tiliga yaqindir. يَقْرُبُ *yaqrubu* so‘zi يَقْرُو *yaqru* shaklida ham qo‘llanishi kabi. Bu so‘zda *bā vāv* ga almashgan.

يُغْرِى *yoγrï* – “lagan”. Maqolda (shunday kelgan): **اَشْ تَتِغِى تُوزْ يُغْرِينْ يِيمَاسْ *Aš tatïγï tuz, yoγrïn yemäs.*** Ma’nosi: (229b) “Osh tuz bilan totli, lekin lagan bilan yolg‘iz tuzning o‘zi yeyilmaydi”. Bu maqol ishlarda aniq maqsadli bo‘lishga undab aytiladi.

يَقْرِى *yaqrï* – “ich yog‘i”. (Shoir) shunday degan:

بِشْرِلُورْ يَقْرِى قِيَاقْ ***Pïšrïlur yaqrï qïyaq,***
تُشْغُرُرْ يُغْرِى جَنَاقْ ***Tošγurur yoγrï čanaq.***

Aytmoqdaki: “Ich yog‘i, sardaklar pishirilib, tog‘ora, kosalar to‘lg‘aziladi”.

ش *š* [harfi]:

يَخْشِى *yaxšï* – “yaxshi; har narsaning yaxshisi”; **يَخْشِى نَانَكْ *yaxšï näŋ*** – “yaxshi narsa”; **يَخْشِى اِيشْ *yaxšï iš*** – “yaxshi ish”.

يَرْشِى *yaršï* – bir narsaning yarmini olganning oti. Narsa yarmisining ham oti; **بُو اَنِكْ يَرْشِى سِى *bu aniŋ yaršïsï*** – “bu uning yarmini olgan”; **اُلْ مَنِكْ بِرْلَا تَامْ يَرِشِى *ol***

meniŋ birlä tam yarïšï – “u men bilan bir devor qo‘shni (uylarimiz orasida devor bor, xolos)” demakdir.

غ ***γ*** [harfi]:

يَفْغُو ***yawγu*** – xalqdan bo‘lib, xoqondan ikki daraja quyi o‘rinda bo‘lgan kishi.

يَفْغُو ***Yawγu*** – بَرسْغَانْ *Barsγan* shahri yaqinidagi bir kent oti. يَفْغُو *Yawγu* ga yaqin bir tepalik **يَفْغُو اَرْتْ** ***Yawγu art*** deyiladi.

يُفْغَا ***yuwγa*** – “asrandi bola”.

[**يَلْغَا** ***yalγa***] **قَرَا يَلْغَا** ***Qara yalγa*** – turk diyori (ديار الترک) bilan فَرْغَانَه *Faryāna* orasidagi yaqin borib bo‘lmaydigan xatarli jarlik. Maqolda (shunday kelgan): **قَرَا مُونکْ کَلْمَکِنجَا قَرَا يَلْغَا کَجْمَا** ***Qara muŋ kelmägінčä, qara yalγa kečmä.*** Ma’nosi: “Qora kun kelmaguncha, zinhor qora jilg‘adan o‘tma, chunki u yer hech vaqt qori arimaydigan xatarli joydir”.

يَلْغُو ***yalγu*** – “shafqatsiz, muruvvatsiz olchoq kishi” (o‘g‘uzcha).

ڤ ***w*** [harfi]:

يَلْڤِی ***yelwi*** – “sehrlash”; **يَلْڤِيجِی** ***yolwiči*** – “sehrlovchi”.

(Shoir) shunday degan:

يَلْڤِنْ اَنِکْ کُوزِی	***Yelwin anïŋ közi,***
يَلْکِنْ اَنِکْ اُوزِی	***Yelkin anïŋ özi.***
تُولُنْ اَيِنْ يُوزِی	***Tolun ayïn yüzi,***
يَرْدِی مَنِنکْ يُورَکْ	***Yardï meniŋ yürak.***

O‘zi yaxshi ko‘rgan kishisini ta’riflab aytmoqda: “Uning ko‘zi kishi (ko‘ngli)-ni ovlaydigan sehrgardir. O‘zi yel singari, qo‘nimsiz, ko‘zdan g‘oyib bo‘luvchi, yuzi (esa) to‘lin oydir. (O‘z boqishi bilan mening), yurak-bag‘rimni chok qildi”.

ق ***q*** [harfi]:

يُڤْقَا ***yuwqa*** – “yupqa; har bir yupqa narsa”. Maqolda (shunday kelgan): **اَنَاسِی تَوْلُگْ يُڤْقَا يَبَارْ اُغْلِی تِيتِکْ قُشَا قَبَارْ** ***Anasï tewlüg yuwqa yapar, oγlï tetig qoša qapar.*** Ma’nosi: “Onasi hiyla bilan nonni yupqa yopsa, bolasi ziyraklik qilib qo‘sha-qo‘sha (ikkita-ikkitadan) og‘ziga soladi”. (230a) Bu maqol ikki hushyor kishining qarshiligi teng kelishiga ishorat qilib aytiladi.

يُپْقَا ***yupqa*** – “yupqa”. Bu so‘zning ف *wā* li shakli ham bor. ب *pā* harfi ف *wā* ga almashadi. Bu xususiyat arabchada ham bor. Chunonchi, أُسْرُفْ و أُسْرُبْ و مَصْطَبَه و مَصْطَفَه و بانِيد وفانِيذْ So‘nggi so‘z arabchalashtirilgan.

يِلْقِی ***yïlqï*** – to‘rt oyoqli hayvonlarni atovchi turdosh ot.

م ***m*** [harfi]:

[**يَرْمَا** ***yarma***] **يَرْمَا يُوغَا** ***yarma yuγa*** – bir turli qatlama. Uzunasiga yorilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

يَغْمَا ***yaγma*** – turklarning bir toifasi. Ularni **قَرَا يَغْمَا** ***qara yaγma*** deb ham ataydilar.

يَغْمَا *Yaγma* – طَرَازْ / طِرَازْ *Ṭirāz / Ṭarāz* yaqinidagi bir qishloq. Bu so‘zning asli avvalgi so‘zdan kelib chiqqan.

يَلْمَا *yalma* – “paxtali to‘n”; forslar buni turkiy xalqlardan olib, يَلْمَه *yalma* shaklida ham talaffuz qiladilar. Arablar forslardan olib يَلْمَقْ *yalmaq* shaklida qo‘llaydilar. Arablar *qāf*ni ه *hā* ga aylantirganlar. Chunonchi, كَندَه *kanda* ni خَندَق *xandaq,* يَارَه *yara* ni يَارَقٌ *yaraq* qilib olganlar. Arab shoirlaridan ذوالرُّمةَ كَانَتْهُ مُتَقَبِّى يَلْمَقٍ عَرِبُ degan edi. Hech kimsa bu so‘zni turklar forslardan olgan deb da’vo qila olmaydi. Chunki men bu so‘zni eng chekka hududlarda yashovchi oddiy turk xalqlarida ham eshitganman. Bular boshqa xalqlardan ko‘ra, bu xil yomg‘ir yopinchig‘iga muhtojdirlar. Chunki ularning yurtlarida qor, yomg‘ir ko‘p yog‘adi.

ن *n* [harfi]:

يَزْنَا *yeznä* – “yezna, katta qiz qarindoshning eri”.

يِگْنَا *yignä* – “igna”. Katta igna juvoldizni **تَمَنْ يِگْنَا *temän yignä*** deyiladi.

Bu bo‘limning *maṭvī* qismi

غ *γ* [harfi]:

[**يُمْغِى *yomγï***] **يُمْغِى نَانَكْ *yomγï näŋ*** – “uyulgan ko‘p narsa”; **كِشِى يُمْغِى كَلْدِى *kiši yomγï keldi*** – “kishilar to‘planib kelishdi”.

فَعَالِى *fa’ālī* qolipidagi so‘zlarning har qanday harakatlar bilan qo‘llangan shakllari

ج ***č*** [harfi]:

[**يَلَاجِى *yalačï***] **يَلَاجِى اَرْ *yalačï er*** – “har narsada odamlarga darrov tuhmat qiluvchi, badgumon kishi”. Bir turli qatlamaga **يَلَاجِى يُوغَا *yalačï yuγa*** deyish ham shundandir, chunki u biror narsaga salgina tegishi bilan ushalib, sinib ketadi.

غ *γ* [harfi]:

[**بُيَاغُو *buyaγu***] **بُيَغُو اِيشْ *buyaγu ïš*** – “bilmaslikka solib ketilishi kerak bo‘lgan ish”.

[**يُرِيغُو *yurïγu***] **يُرِيغُو يِرْ *yurïγu yer*** – “yuriladigan yer”. Bu so‘z joy oti(sifatdosh)dir. Payt oti vazifasida ham shu shakl qo‘llanadi

يِرَاغُو *yïraγu* – “cholg‘uchi; ashulachi” (المطرب و المغنى). (230b)

[**يَشَاغُو *yašaγu***] **بُو اَرْ اُلْ اُزُونْ يَشَاغُو *bu er-ol uzun yašaγu*** – “bu uzoq yashashga haqli kishidir”. Joy oti, payt oti ham shunday.

[**يَمَاغُو *yamaγu***] **بُو تُونْ اُلْ يَمَاغُو *bu ton-ol yamaγu*** – “bu to‘n yamaladigan, yamalishi kerak bo‘lgan to‘ndir”.

ق *q* [harfi]:

يَبَاقُو *yabaqu* – bir toifa turkiy xalqlar.

يَبَاقُو *yabaqu* – “yungdan ishlangan namat”. Boshdagi sochlar chigallashib ketishiga **يَبَاقُو بُلْدِى *yabaqu boldï*** deyiladi.

[**يَبَاقُو *yabaqu***] **يَبَاقُو سُقِى *Yabaqu suwï*** – كَاشْغَرْ *Kāšγar* tog‘laridan chiqib, اُوزْجَنْدْ *Özjand* va فَرْغَانَه *Farγāna* ga oqadigan suv.

ك *g* [harfi]:

[**يُلَاكُو *yölägü***] **يُلَاكُو نَانَكْ *yölägü näŋ*** – “suyanadigan narsa, suyanchiq”.

[**يَنِيكُو *yenigü***] **بُو اُرَاغُتْ اُلْ يَنِيكُو *bu uraγut-ol yenigü*** – “bu tug‘adigan, oy-kuni yaqin xotindir”.

Har turli unli tovushlar bilan qo‘llangan فَعْلَان *fa’lān* shaklidagi so‘zlar bo‘limi

چ *č* [harfi]:

يَبْجَانْ *yapčan* – “yavshan o‘ti”. Uning hidi bilan yovvoyi sichqonlarni ovlaydilar. Bu so‘zning ف *wā* bilan **يُقْجَانْ / يَقْجَانْ *yawčan* / *yuwčan*** varianti ham bor. ب *pā* ning ف *wā* ga aylanishi haqidagi qoida yuqorida aytilgan.

ش *š* [harfi]:

يِمْشَانْ *yimšän* – qipchoq o‘lkalarida bitadigan sahro mevasi.

غ *γ* [harfi]:

[**يَقْغَانْ *yawγan***] **يَقْغَانْ اَشْ *yawγan aš*** – “yovg‘on osh, go‘shtsiz ovqat”.

يَلْغَانْ *yalγan* – “yolg‘on, yolg‘onlash”. Bu so‘z ba’zan aniqlovchi vazifasida ham qo‘llanadi.

Chunonchi, **يَلْغَانْ كِشِى *yalγan kiši*** – “yolg‘onchi kishi”; **يَلْغَانْ سُوزْ *yalγan söz*** – “yolg‘on so‘z” kabi.

يِلْغُونْ *yïlγun* – “yulg‘un, yulg‘un daraxti”.

ك *k* [harfi]:

[**يِپْكِينْ *yipkin***] **يِپْكِينْ نَانَكْ *yipkin näŋ*** – “to‘q qizil arg‘uvon rangidagi narsa”.

[**يَلْكِنْ *yelkin***] **يَلْكِنْ اَتْلِغْ *yelkin atlïγ*** – “otliq musofir”. O‘g‘uzlar “musofir”ni اَلْكِنْ ***elkin*** deydilar, ular *yā* harfini *alif* ga almashtiradilar.

ل *l* [harfi]:

يَمْلَانْ *yamlan* – bir turli kemiruvchi jonivor.

فَعِيلَانْ *fa’īlān* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ك *k* [harfi]:

يَتِيكَانْ *Yetikän* – “Yetti qaroqchi” turkum yulduzi.

م *m* [harfi]:

يَسِيمَانْ *yasïman* – suv bo‘shatilganda idishdan qulqullab chiqadigan ovoz.

يَلِيمَانْ *yalïman* – “ochiq-sochiq g‘animatlar”.

فَعَلى *fa’anlī* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

يُنْدِى *yonïndï* – “yo‘nilgan, talangan”.

Uch harflilar bo‘limi va unga qo‘shilganlar tugadi.

BU TO‘RT HARFLILAR BOBLARIDIR

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَل *fa’lal,* فَعْلَال *fa’lāl* qoliplaridagi so‘zlar bo‘limi

ت *t* [harfi]:

يَبْغُتْ *yabɣut* – yung va shuningdek, qil bilan to‘ldirilgan to‘shak va shunga o‘xshash narsalar.

ج *č* [harfi]:

يَبْتَجْ *yaptač* (231a) – yomg‘irdan, qordan saqlanish uchun cho‘ponlar yopinadigan yopinchiq.

يَبْغَجْ *yapɣuč* – eshak va boshqa hayvonlarni haydashda ishlatiladigan xivich, xalacho‘p.

يَسْغَاجْ *yasɣač* – “uvra taxta”. Bu so‘zning asli **يَسِى يِغَاجْ *yasï yïɣač,*** ya’ni “yassi yog‘och; enli taxta”dir.

ر *r* [harfi]:

يَغْمُرْ *yaɣmur* – “yomg‘ir”. Bu so‘zning **يَمْغُرْ *yamɣur*** shakli ham bor. Maqolda (shunday kelgan): **نَجَا مَا اُبْرَقْ كَذُكْ اَرْسَا يَغْمُرْقَا يَرَارْ *Nečä mä opraq keδük ersä, yaɣmurqa yarar.*** Ma’nosi: “Kiyim qancha eski bo‘lsa ham, yomg‘irga yaraydi”. Bu maqol o‘z qaramog‘idagilardan birining ahmoqligi, qo‘polligi yoki zaifligi uchun uni o‘zidan chetlatishni istagan kishiga qarata aytiladi; “har qancha kamchiligi bo‘lsa ham, bir xizmatingga yarab qoladi, undan ishda foydalanib, xursand bo‘lasan” demakdir.

(Shoir) shunday degan:

قُيْدِى بُلُتْ / بُلِتْ يَغْمُرِنْ	***Quydï bulut / bulït yaɣmurïn,***
كَرِبْ تُتَارْ اَقْ تُرِينْ	***Kerip tutar aq torïn.***
قِرْقَا قُذْتِى اُلْ قَرِنْ	***Qïrqa qoδtï ol qarïn,***
اَقِنْ اَقَرْاَنكُرَشُورْ	***Aqïn aqar eɣräšür.***

Aytmoqdaki: “Bulut oq to‘rini yoyib, osmonga yomg‘irini quydi. Qorlarini u tog‘larga tashladi. Tog‘dan hayqirib sel oqayotir”.

ز *z* [harfi]:

يَرْبُزْ *yarbuz* – bir turli xushbo‘y o‘t, o‘simlik.

يَرْبُزْ *yarbuz* – ilonni o‘ldiradigan bir hayvon. Maqolda (shunday kelgan): **يِلَانْ يَرْبُزْدِنْ قَجَارْ قَنْجَا بَرْسَا يَرْبُزْ اُتْرُو كَلُرْ *Yïlan yarbuzdïn qačar, qanča barsa, yarbuz otru kelür.*** Ma’nosi: “Ilon doim yarbuzdan qochadi. Ilon qayoqqa qochsa, u qarshisidan chiqadi”.

Bu maqol yomon ko‘rgan narsasidan qochsa ham, qutilmaydigan, unga duch kelaveradigan kishiga qarata aytiladi.

يُلْدُزْ *yulduz* – hamma yulduzlar uchun aytiladigan umumiy ot. So‘ng ular farq qilinib, مُشْتَرِی *Muštarî* (Yupiter) yulduzi – **اَرَنْ تُوزْ *Eräntüz*,** مِيزَان *Mīzān* yulduzi – **قَرَاقُشْ *Qaraquš*,** ثرَيّا *Surayyā* yulduzi – **اُلْكَرْ *Ülkär*,** Yetti qaroqchi yulduzi – **يَتِيكَانْ *Yetikän*,** قُطُب *Quṭub* yulduzi – **تَمُرْقَزُقْ *Temürqazuq*,** مِرّيخ *Mirrīḥ* yulduzi – **بَقِرْسُقِمْ *Baqïrsoqïm*** nomlari bilan ataladi.

يِلْدِزْ *yïldïz* – “ildiz”. Bu so‘zni o‘xshatish qoidasi asosida kishining avlodiga nisbatan ham qo‘llanadi: **تُوبْلُكْ يِلْدِزْلِغْ *tüblüg-yïldïzlïγ*** – “tag-tugli, tag-taxtli kishi” kabi.

يُلْسُوزْ *yolsuz* – “yo‘ldan adashgan kishi”. Bu so‘zning asli **يُولْسُوزْ** dir.

ش *š* [harfi]:

[**يَرْدَشْ *yerdäš***] **يَرْدَشْ كِشِی *yerdäš kiši*** – “hamshahar kishi”. (231b) Bu ikki kishining bir shahardan bo‘lishidir. Bir shahardan bo‘lgan ikki kishi bir-biriga **يَرْدَشْ *yerdäš*** bo‘ladi (o‘g‘uzcha).

يَرْمَشْ *yarmaš* – “shirach, kraxmal”.

يَرْمَشْ / يَرْمِشْ *yarmaš* / *yarmïš* – “yorma”; **يَرْمِشْ اُونْ / يَرْمَشْ *yarmaš* / *yarmïš un*** – “mayda un”. Bu ikki so‘z bir-biriga zid ma’nodagi so‘zlardandir. Haqiqatda, bu so‘zlarning asosi bir.

يُغْرُشْ *yuγruš* – turklarda xalq orasidan chiqib, vazirlik darajasigacha ko‘tarilgan kishi. Fors va boshqalar har qancha katta martabaga erishgan bo‘lsa ham, bu laqab berilmaydi. **يُغْرُشْ خَاقَانْ *yuγruš xaqan*** dan bir daraja quyi martabadir. Unga qor, yomg‘ir va issiqdan saqlanish uchun qora ipak chodir taqdim etiladi.

غ *γ* [harfi]:

[**يُنْجِغْ *yunčïγ***] **يُنْجِغْ اِيشْ *yunčïγ iš*** – chiriganligi, buzilganligi uchun qo‘lga olinmaydigan ish.

[**يُنْجِغْ *yunčïγ***] **اَرْ يُنْجِغْ *yunčïγ er*** – “notavon, zaif, holi xarob kishi”.

(Shoir) shunday degan:

اُذْلَكْ اَرِغْ كَفْرَدِی	***Öδläk arïγ kewrädi,***
يُنْجِغْ يَقْزْ تَفْرَدِی	***Yunčïγ yawuz tawradï.***
اَرْدَمْ يَمَا سَفْرَدِی	***Erdäm yemä sewrädi,***
اَژُنْ بَكِی جَرْتِلُورْ	***Ažun begi čertilür.***

Aytmoqdaki: “Zamon ozdi, zaif, tuban kimsalar kuchaydi. Zamon ahli [ya’ni kishilar] اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* ning vafot etishi bilan fazilatdan mahrum bo‘ldilar”.

يُرْتُغْ *yortuγ* – jang kunlari yoki biror yerga borishda shohni qurshab yuradigan soqchilar.

يَرْلِغْ *yarlïγ* – “yo‘qsil, bechora”; **يَرْلِغْ اَرْ *yarlïγ er*** (“yorlaqangan (rahm qilingan) kishi”) shundan olingan.

يَرْلِغْ *yarlïγ* – “sultonning maktubi, farmoni” (chigilcha). Buni o‘g‘uzlar bilmaydilar.

[**يَشْلِغْ *yašlïγ***] **يَشْلِغْ كُوزْ *yašlïγ köz*** – “yoshli ko‘z”.

[**يَشْلِغْ *yašlïγ***] **يَشْلِغْ اَرْ *yašlïγ er*** – “katta yoshli kishi”. Katta yoshli hayvonlarga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘zning asli **يَاشْلِغْ** dir.

[**يَمْلِغْ *yamlïγ***] **يَمْلِغْ كُوزْ *yamlïγ köz*** – “cho‘p tushgan ko‘z”. Bu so‘zning asli **يَامْلِغْ** dir.

ق *q* [harfi]:

يَبْغَاقْ *yapγaq* – qush ovlanadigan bir turli tuzoq.

يَتْغَاقْ *yatγaq* – xonni, qo‘rg‘onni va shuning kabilarni qo‘riqlovchi, soqchi; **يَتْغَاقْ يَتِّى *yatγaq yattï*** – “soqchi yotdi” kabi.

يُذْرُقْ *yuδruq* – “kaft, shapaloq”. Maqolda (shunday kelgan): **يَاتْ نِكْ يَاغْلِغْ تِكُوسِنْدَا اُوزْنُكْ قَانْلِغْ يُذْرُقْ بِيكْ *Yatnïŋ yaylïγ tiküsindän öznüŋ qanlïγ yuδruq yig.*** Ma’nosi: (239a (232a?)) “Yotning yog‘liq ovqatidan o‘zingga yaqinlarning mushti (shapalog‘i) yaxshi”. Bu maqol yaqin kishilarning oralari buzilganda bir-birlarini kelishtirish uchun qo‘llanadi.

يَرْمَاقْ *yarmaq* – “tanga”.

يَسْتُقْ *yastuq* – “yostiq”.

[**يَقْلَقْ *yawlaq***] **يَقْلَقْ كِشِى *yawlaq kiši*** – “fe’li yomon kishi”.

يَقْلَاقْ *yawlaq* – “har narsaning yomoni, tubani” (o‘g‘uzcha va qipchoqcha).

(Donishmand) shunday degan:

كُلْسَا كِشِى يُزِينكَا	***Külsä kiši yüziŋä,***
كُرْكْلُكْ يُزْنْ كُرُنْكِلْ	***Körklüg yüzin körüngil.***
يَقْلَقْ كُذْزْ تِلِنكْنِى	***Yawlaq köδäz tiliŋni,***
اَدْكُو سَقْغْ تِلَنْكِلْ	***Eδgü sawïγ tilängil.***

Aytmoqdaki: “Biror kishi senga kulib qarasa, sen ham unga ochiq chehra bilan boq, shirin so‘zli bo‘l va yoqimli muomala qil, tilingni tiy”.

[**يَقْلَاقْ *yawlaq***] **يَقْلَاقْ سَرِغْ *Yawlaq sarïγ*** – bir bekning oti bo‘lgan. **يَقْلَاقْ *yawlaq*** aslida “har qanday narsaning qattig‘i” ma’nosidadir. Chunonchi, **يَقْلَاقْ قَتِغْ يِغَاجْ *yawlaq qatïγ yïγač*** – “juda qattiq yog‘och” demakdir.

يُمْغَاقْ *yumγaq* – “yumaloq; har bir yumaloqlanadigan, girdak narsa”. Uch tilida “kashnich urug‘i”ni **يُمْغَاقْ تَنَا *yumγaq tana*** deyiladi.

تَنَا *tana* – “dona”. Bu so‘z fors tilidan olinib, turkiy talaffuzga moslashtirib, **تَنَا *tana*** qilib olingan, turkchalashtirilgan deb gumon qilaman.

يُمْشَاقْ *yumšaq* – “har qanday yumshoq narsa”.

[**يَنْدَقْ *yandaq***] **يَنْدَقْ تِكَانْ *yandaq tikän*** – “yantoq tikan”.

[**يَنْدَقْ *yandaq***] **يَنْدَقْ جَكَرْ *yandaq čekär*** – “havodan daraxtlar ustiga yog‘adigan (bolga o‘xshash) shira”.

[**يَنْدِقْ *yandïq***] **يَنْدِقْ اَتْ *yandïq at*** – “oddiy, tug‘ilishdan nuqsoni bo‘lgan ot”.

يُنْدَقْ *yundaq* – “ot tezagi”. Bu faqat ot tezagiga nisbatan qo‘llanadi. Maqolda (shunday kelgan): **يَغِينكْ اَرْسَا كَرَكْ يُنْدَقِى تَكِيرْ *Yaγïŋ ersä keräk yundaqï tegir.*** Ma’nosi: “Dushmaningda bo‘lsa ham ot bo‘lsin, eng kami, uning tezagi tegadi, uni yoqib foyda ko‘rasan”.

يَنْغُقْ *yanγuq* – ildizi sovunga o‘xshab ko‘piradigan bir tur o‘simlik. Bilgilki, *qāf* harfi fe’l o‘zaklariga qo‘shilib, qurol oti yasaydi. Chunonchi, **اُرْغَاقْ *orγaq*** qurol oti **اُورْدِى *ordï*** fe’lidan yasalgan. **يُنْغَاقْ *yunγaq*** so‘zi ham shu xilda **يُودِى *yudï*** fe’liga *qāf* qo‘shilib yasalgan qurol otidir.

يَنْلِقْ *yanlïq* – “cho‘pon to‘rvasi”.

يَنْجُقْ *yančuq* – “hamyon; pul solinadigan hamyon”.

ك *k* [harfi]:

يُدْرُكْ *yüdrük* – (239b) (232b?) ustiga kiyim va boshqalar taxlab qo‘yiladigan taxmon qutisi (sandiq).

[**يُزْلُكْ *yüzlüg***] **اِكِى يُزْلُكْ اَرْ *iki yüzlüg er*** – “ikkiyuzlama, munofiq kishi”.

[**يُزْلُكْ *yüzlüg***] **اِكِى يُزْلُكْ كُزْنكُو *iki yüzlüg közüngü*** – “ikki yuzli oyna”.

[**يُكْرُكْ *yügrük***] **يُكْرُكْ اَتْ *yügrük at*** – “yugurik ot; poygada o‘zib ketadigan chopqir ot”. O‘g‘uzlar bilag‘on, donishmand, ziyrak va fozil kishilarni **يُكْرُكْ بِلْكَا *yügrük bilgä*** deydilar.

[**يُكْسَكْ *yüksäk***] **يُكْسَكْ تَاغْ *yüksäk tay*** – “yuksak tog‘”. Har bir baland va uzun narsaga ham **يُكْسَكْ *yüksäk*** deyiladi. Bu “qush pari” ma’nosidagi **يُوكْ *yüg*** so‘zidan olingan. Chunki yuksalish uning tabiiy xususiyatidir. Shuning uchun har qanday baland narsa ham shunday atalgan.

(Donishmand) shunday degan:

اُسْ اَسْ كُرُبْ يُكْسَكْ قَلِقْ قُودِى جَقَارْ	***Us es körüp yüksäk qalïq qudï čaqar,***
بِلْكَا كِشِى اُكُتْ بِرِبْ تَفْرَقْ اُقَارْ	***Bilgä kiši ögüt berip tawraq uqar.***

Aytmoqdaki: “Karkas qushi yirtqich hayvonlardan qolgan go‘shtni (ovni) ko‘rib, o‘zini ko‘kdan tashlaydi. Donishmand kishilarni qiziqtiradigan ov o‘git-nasihatdir. Ular o‘gitni eshitish bilanoq quloqqa oladilar”.

يُكْسَكْ *yüksäk* – “angishvona”. O‘q otadiganlarning barmoqlariga kiyadigan barmoq qopi kabidir. U misdan yoki teridan yasaladi. Uni tikuvchilar nina botishidan saqlanish uchun barmoqlariga kiyib ishlaydilar.

يِلْبِكْ *yelpik* – “yel tegishi”; **اَرْكَا يِلْبِكْ تَكْدِى *erkä yelpik tegdi*** – “kishiga yel tegdi”.

ل *l* [harfi]:

[**يِبْكِلْ *yipkil***] **يِبْكِلْ تُونْ *yipkil ton*** – “arg‘uvon rangli to‘n”; *nūn* harfi *lām* ga almashgan.

[**م *m*** harfi]:

[**يَرْتِمْ *yartïm***] **بِيرْ يَرْتِمْ بُذُونْ *bir yartïm boδun*** – “xalqdan, jamoadan ayrilgan bir toifa”.

[**يُغْرُمْ *yuγrum***] **بِيرْ يُغْرُمْ اُونْ *bir yuγrum un*** – “bir xamirlik un”.

[**يَتْرُمْ *yetrüm***] **يَتْرُمْ سَجْ *yetrüm sač*** – “avvalgi qo‘yilgan sochdan so‘ng qo‘shilgan soch”.

[**يَرْشِمْ *yaršïm***] **بِيرْ يَرْشِمْ يِيرْ *bir yaršïm yer*** – “poygada bir choparlik yer”.

[**يُگْرُمْ *yügrüm***] **بِيرْ يُگْرُمْ يِيرْ *bir yügrüm yer*** – “bir chopish bilan o‘tarlik yer”.

ن *n* [harfi]:

[**يِبْكِنْ *yipkin***] **يِبْكِنْ تُونْ *yipkin ton*** – “arg‘uvon rangli to‘n”. Bu so‘z *lām* bilan ham talaffuz qilinadi.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

[**غ *γ*** harfi]:

يَيْلَاغ *yaylaγ* – “yozda turiladigan yer”.

فَعَالِل *fa’ālil* qolipidagi so‘zlar

ج *č* [harfi]: (233a)

يَلَاڤَجْ *yalawač* – “payg‘ambar”. Bu so‘zning **يَلَاوَجْ *yalavač*** shakli ham bor.

ر *r* [harfi]:

يَلَاڤَرْ *yalawar* – shohlar tomonidan elchilarga beriladigan ot (uyg‘urcha). Maqolda (shunday kelgan): **يَاشْ اَتْ كُيْمَاسْ يَلَاڤَرْ اُلْمَاسْ *Yaš ot küymäs, yalawar ölmäs.*** Ma’nosi: “Yosh (ho‘l) o‘t yonmaganidek, xabari har qancha og‘ir va dahshatli bo‘lsa ham, elchiga o‘lim yo‘q. Chunki bu achchiq xabar shohdandir”. Bu maqol ulug‘ Tangrining مَا عَلى اَلرَسُولِ اِلاّ اَلبَلَاغ degan oyati kabidir.

ق *q* [harfi]:

[**يَبِيتَقْ *yabïtaq***] **يَبِيتَقْ اَتْ *yabïtaq at*** – “ustida egari, to‘qimi yo‘q yaydoq ot”; **اُلْ اَتِغْ يَبِيتَقْ مُنْدِى *ol atïγ yabïtaq mündi*** – “u otni yaydoq mindi”.

[**ك *k*** harfi]:

يَمَاجُكْ *yemäčük* – “bug‘doy tashiladigan kichik qop”.

فَعْلُو *fa’lalū* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

غ *γ* [harfi]:

يَفْشْغُو ***yawïšγu*** – qizilcha yoki gun deyiladigan tog‘ daraxti va uning mevasi. Bu so‘zning يُمُشْغَا ***yumušγa*** shakli ham bor.

م ***m*** [harfi]:

يِكِرْمَا ***yigirmä*** – “yigirma”. Bu so‘zning يِكِرْمِى ***yigirmi*** shaklidagi talaffuzi ham bor.

To‘rt harfli so‘zlar bo‘limi tugadi.

BU BESH HARFLILAR BOBLARIDIR

فَعَلْعَل *fa’al’al* qolipidagi turli harakatlar bilan talaffuz qilinadigan so‘zlar bo‘limi

غ *γ* [harfi]:

[يِبَرْلِغْ ***yïparlïγ***] يِبَرْلِغْ كَسُرْكُو ***yïparlïγ kesürgü*** – “mushkli, mushk saqlanadigan idish”. Maqolda (shunday kelgan): يِبَرْلِغْ كَسُرْكُودِنْ يِبَرْ كِشْسَا يِيدِى قَلِيرْ ***Yïparlïγ kesürgüdin yïpar ketsä, yïδï qalïr.***

Ma’nosi: “Mushk idishida mushk tugasa ham, hidi qolaveradi”. Bu maqol boyligi qo‘ldan ketib, yuqi-yurunigina qolgan bo‘lsa ham, biror narsa so‘ralsa, undan topilaveradigan kishi haqida aytiladi.

[يَغِرْلِغْ ***yaγïrlïγ***] يَغِرْلِغْ تَقَىْ ***yaγïrlïγ teväy*** – “yag‘iri bor tuya va boshqa hayvonlar”.

[يُلَرْلِغْ ***ularlïγ***] يُلَرْلِغْ اَتْ ***ularlïγ at*** – “no‘xtali ot”.

[يَبغْلِغْ ***yapïγlïγ***] يَبغْلِغْ قَبغْ ***yapïγlïγ qapuγ*** – “yopiqli eshik”.

[يَذْغْلِغْ ***yaδïγlïγ***] يَذْغْلِغْ تُشَكْ ***yaδïγlïγ töšäk*** – “yoziqli to‘shak”.

[يَرَغْلِغْ ***yaraγlïγ***] يَرَغْلِغْ اِيشْ ***yaraγlïγ iš*** – “yarog‘lig‘, yaraydigan ish”.

[يَزِغْلِغْ ***yazïγlïγ***] يَزِغْلِغْ اَتْ ***yazïγlïγ at*** – “arqonidan bo‘shatilgan, yechilgan ot va boshqalar”.

[يِشغْلِغْ ***yïšïγlïγ***] يِشغْلِغْ اَرْ ***yïšïγlïγ er*** – “arqoni bor kishi”.

[يُلُغْلُغْ ***yuluγluγ***] يُلُغْلُغْ كِشِى ***yuluγluγ kiši*** – “pul to‘lab ajratib olingan kishi”.

[يَمَغْلِغْ ***yamaγlïγ***] يَمَغْلِغْ تُونْ ***yamaγlïγ ton*** – “yamoqli to‘n”.

[يَرَغْلِغْ ***yaraγlïγ***] يَرَغْلِغْ اَرْ ***yaraγlïγ er*** – “yarog‘i bor kishi”.

يَزُقْلُغْ ***yazuqluγ*** – “gunohkor, gunohli”.

[يِشقْلِغْ ***yïšïqlïγ***] يِشقْلِغْ اَرْ ***yïšïqlïγ er*** (233b) – “dubulg‘a kiygan kishi”.

[يَسغْلِغْ ***yasïγlïγ***] يَسغْلِغْ يَا ***yasïγlïγ ya*** – “sadoqli yoy”.

[يَغَقْلِغْ ***yaγaqlïγ***] يَغَقْلِغْ يِغَاجْ ***yaγaqlïγ yïγač*** – “yong‘oqli daraxt”.

[يُرُنْلُغْ ***yurunluγ***] يُرُنْلُغْ اُرَاغْتْ ***yurunluγ uraγut*** – “ipak kiyimliklari bor xotin”.

[يَشِنْلِغْ *yašïnlïγ*] يَشِنْلِغْ بُلِتْ *yašïnlïγ bulït* – “chaqmoqli bulut”.

[يَغَنْلِغْ *yaγanlïγ*] يَغَنْلِغْ اَرْ *yaγanlïγ er* – “fili bor kishi”.

Bu bo‘lim bir necha vazifani bajaradi. Birinchi, اسم مفعولْ *ismi maf’ūl* vazifasida keladi. Chunonchi, يَذْغْلِغْ تُشَاكْ *yaδïγlïγ töšäk* – “yozilgan to‘shak”; يَزْغْلِغْ اَتْ *yazïγlïγ at* – “yechilgan ot” kabi.

Boshqa o‘rinlarda atalgan narsaning egasi ma’nosida kelishidir. Chunonchi, يِبَرْلِغْ اَرْ *yïparlïγ er* – “iporli, ipori bor kishi”. Buning egalik ma’nosidagi misollari yuqorida o‘tdi. اَيَقْلِغْ تَقْسِى *ayaqlïγ tewsi* – “idishli, idish qo‘yilgan xontaxta”; اُيُقْلُغْ اَقْ *oyuγluγ ew* – “toqili uy” kabi.

ق *q* [harfi]:

يَرِنْدَقْ *yarïndaq* – “turklarning qayishi, tasmasi”. U echki terisidan qilinadi.

يَبُشْغَاقْ *yapušγaq* – kamon g‘ulasi kabi dumaloq, tikanli bir xil o‘t. Usti tukli bo‘ladi. Ot dumi va boshqalarga yopishib qoladi. Har bir gapga aralashaveradigan kishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

يَبُرْغَاقْ *yapurγaq* – “daraxt yaprog‘i, bargi”. “Kitob varag‘i”ga ham يَبُرْغَاقْ *yapurγaq* deyiladi.

يِغَجْلِقْ *yïγačlïq* – “daraxtzor”; “yog‘och uy”ga nisbatan ham qo‘llanadi.

يَذْغْلِقْ *yaδaγlïq* – “yayov yurish”.

يَذِغْلِقْ *yaδïγlïq* – “sasigan, buzilgan”.

[يَمَغْلِقْ *yamaγlïq*] يَمَغْلِقْ بُوزْ *yamaγlïq böz* – “yamoqqa mo‘ljallangan bo‘z va boshqalar”.

يَلِغْلِقْ *yalγïlïq* (*yïlïγlïq?*) – “issiqliq”.

يَغَقْلِقْ *yaγaqlïq* – “yong‘oq o‘sadigan joy, yong‘oqzor”.

يَرُقْلُقْ *yaruqluq* – “yorug‘liq, nur”.

يِرَقْلِقْ *yïraqlïq* – “yiroqlik, uzoqlik”.

[يَلِنْدَقْ *yalïndaq*] يَلِنْدَقْ اَرْ *yalïndaq er* – “yalang‘och kishi”.

ك *k* [harfi]:

يِكِتْلِكْ *yigitlik* – “yigitlik”. Shundan olinib, اَسِزْ اَنِكْ يِكِتْلِكِى *esiz anïγ yigitligi* (“esiz uning yigitligi”) deyiladi.

[يُرَكْلِكْ *yüräklig*] يُرَكْلِكْ اَرْ *yüräklig er* – “yurakli, dovyurak kishi”.

يَتِزْلِكْ *yetizlik* – “kenglik; narsaning eni”.

[يُلَكْلِكْ *yöläklik*] يُلَكْلِكْ يِغَاجْ *yöläklik yïγač* (234a) – “bir narsaga suyangan yog‘och”.

[يِلِكْلِكْ *yiliglig*] يِلِكْلِكْ سُنكُوكْ *yiliglig söŋük* – “ilikli suyak”.

فَعَلَعَان *fa’al’ān* qolipidagi turli harakatlar bilan talaffuz qilinadigan so‘zlar bo‘limi

ت *t* [harfi]:

[اَيِتْغَانْ *ayïtγan*] اُلْ كِشِى اُلْ تَلِمْ سُوزْ اَيِتْغَانْ *ol kiši-ol telim söz ayïtγan* – “u har vaqt so‘z so‘raydigan kishidir”.

[يَرَتْغَانْ *yaratγan*] تَنكْرِى اُلْ يِيرِكْ يَرَتْغَانْ *täŋri-ol yerig yaratγan* – “Yerni va boshqa narsalarni yaratgan Tangri taolodir”.

[يَرُتْغَانْ *yarutγan*] كُنْ اُلْ اَزُنغْ يَرُتْغَانْ *kün-ol ažunuy yarutγan* – “olamni yoritadigan Kundir”.

[يُرُتْغَانْ *yorutγan*] يُرُتْغَانْ كِشِى *yorutγan kiši* – “o‘siradigan (o‘sroq) kishi”.

[يَغُتْغَانْ *yaγutγan*] اُلْ كِشِى اُلْ اُوزِنْ يَغُتْغَانْ *ol kiši-ol özin yaγutγan* – “u yoqimliligi bilan o‘zini birovga yaqin qilib ko‘rsatadigan kishidir”.

[يَغِتْغَانْ *yaγïtγan*] تَنكْرِى اُلْ يَغْمُرْ يَغِتْغَانْ *täŋri-ol yaγmur yaγïtγan* – “yomg‘ir yog‘diradigan Tangri taolodir”.

[يَغِتْغَانْ *yaγïtγan*] اُلْ كِشِى اُلْ تُتْجِى يَغِتْغَانْ *ol kiši-ol tutči yaγïtγan* – “u yarashgandan keyin (ham) doim dushmanlik qiladigan kishidir”.

[يُمِتْغَانْ *yomïtγan*] اُلْ كِشِيلَارْ اُلْ يُمِتْغَانْ *ol kišilär-ol yomïtγan* – “u(lar) bir ish tushsa, doim to‘planadigan kishilardir”.

ر *r* [harfi]:

[يَبُرْغَانْ *yapurγan*] بُو اَرْ اُلْ اِيشِنْ يَبُرْغَانْ *bu er-ol išïn yapurγan* – “bu, ishini doim berkitadigan kishidir”. Har qanday narsani berkitishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يَشُرْغَانْ *yašurγan*] اُلْ اَرْ اُلْ نَنكِنْ يَشُرْغَانْ *ol er-ol näŋin yašurγan* – “u molini va boshqa narsalarini yashiradigan kishidir”.

[يَبُشْغَانْ *yapušγan*] اُلْ اَرْ اُلْ اِيشْقَا يَبُشْغَانْ *ol er-ol išqa yapušγan* – “u ishga yopishadigan kishidir”. Har qanday ishga bog‘lanadigan kimsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يُشُلْغَانْ *yušulγan*] بُو بَاشْ اُلْ قَانِى يُشُلْغَانْ *bu baš-ol qanï yušulγan* – “bu qoni oqib turadigan yaradir”.

[بُشِلْغَانْ / بُشُلْغَانْ *bušulγan* / *bušïlγan*] بُشِلْغَانْ / بُشُلْغَانْ بُو اَرْ اُلْ اَلِكِى اِيشْقَا *bu er-ol eligi išqa bušulγan* / *bušïlγan* – “bu, qo‘li doim ishni do‘ndiradigan, ishga qo‘li qovushimli kishidir”.

[يِغِلْغَانْ *yïγïlγan*] بو يِيرْ الْ مُنْدَا كِشِى يِغِلْغَانْ *bu yer-ol munda kiši yïγïlγan* – “bu, doim odamlar shunda yig‘iladigan yerdir”.

[يِقِلْغَانْ *yïqïlγan*] اُلْ تَامْ اُلْ تُتْجِى يِقِلْغَانْ *ol tam-ol tutči yïqïlγan* – “bu doim yiqiladigan devordir”. Boshqa narsalarga ham shunday deyiladi.

ق *q* [harfi]:

يُغُرْقَانْ *yoγurqan* – “yo‘rmalgan, qavilgan”.

ك *g* [harfi]:

يُكُرْكَانْ *yügürgän* (234b) – صِين *Ṣīn* savdogarlarining musulmon shahriga savdo uchun chiqqan karvonlaridan oldin xat-xabarlarini yetkazuvchi chopar.

[يُكُرْكَانْ *yügürgän*] يُكُرْكَانْ اَتْ *yügürgän at* – “yugurik, chopqir ot va boshqalar”.

يُكُرْكُونْ *yügürgün* – tariqqa o‘xshash tanasi qizil bir tur o‘simlik, turkmanlar uni iste’mol qiladilar.

[يَمُرْكَانْ *yemürgän*] بُو سُوفْ اُلْ يِغَاجِغْ يَمُرْكَانْ ***bu suw-ol yïyačïγ yemürgän*** – “bu daraxtni qo‘poradigan suvdir”. Ildizni qo‘poruvchi har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يِرِلْكَانْ *yirilgän*] بُو بُتِقْ اُلْ تُتْچِى يِرِلْكَانْ ***bu butïq-ol tutčï yirilgän*** – “bu har vaqt yoriladigan butoqdir”.

[يُمُلْكَانْ *yümülgän*] بُو اَرْ اُلْ كُوزِى يُمُلْكَانْ ***bu er-ol közï yümülgän*** – “bu ko‘zi yumilib turadigan kishidir”.

Bu bo‘limning *maṭvī* lari

يَزِغْچِى ***yazïγčï*** – qudalar orasida xat-xabar tashib yuruvchi, sovchi (o‘g‘uzcha).

غ ***γ*** [harfi]:

[يَيِلْغَانْ *yayïlγan*] يَيِلْغَانْ كِشِى ***yayïlγan kiši*** – “qarorsiz, tarqoq fikrli kishi”.

Har xil harakatlar bilan turli shakllarda qo‘llanilgan فَعْلَل *fa’lalal* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

چ ***č*** [harfi]:

بُرْكَمَچْ ***yörgämäč*** – “qorin va ichak”. Ingichka ichak ichiga solinib, qizdirib yoki qaynatib yeyiladi.

ق ***q*** [harfi]:

يَتْغَشْقْ ***yatγašuq*** – “bir yerda boshqa biri bilan yotgan”.

[يَتْغَشِق *yatγašïq*] يَتْغَشِقْ اُغْرِى ***yatγašïq oγrï*** – “yotar vaqt”; bir shevada.

ن ***n*** [harfi]:

يَقْرِقَنْ ***yaqrïqan*** – kamon gulagi kattaligiday mevasi bor bir turli o‘simlik. Shamollab yorilgan labga uning po‘sti surtilsa, tuzaladi.

يَقِرقَانْ ***yaqïrqan*** – muz yog‘ining oti. Muz maydalanganda undan yoqqa o‘xshab sochiladigan bir narsa.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ق ***q*** [harfi]:

يُبَاقْلَقْ ***yobaqulaq*** – “isitma titratishi” (yabaqu va yamaklar tilida).

يَبَاقْلَقْ ***yabaqulaq*** – “boyqush” (yabaqu va yamaklar tilida).

OLTI HARFLILAR BO‘LIMI

غ ***γ*** [harfi]:

[يَرْسِنْجِغْ *yarsïnčïγ*] يَرْسِنْجِغْ نَانَكْ ***yarsïnčïγ näŋ*** – “jirkaniladigan, irganiladigan nopok narsa”.

ل ***l*** [harfi]:

[يَغْمُرْچِلْ ***yaɣmurčïl***] يِيرْ ***yaɣmurčïl yer*** – “seryomg‘ir yer”.

Bu bir qoidadir. Bir narsa ustidagi harakat uzoq davomli bo‘lganligini, mo‘lligini bildirgan so‘zga (235a) *čīm* va *lām* (چِلْ *-čïl, -čil*) qo‘shiladi. Chunonchi, تُبْچِلْ يِيرْ ***tüpčil yer*** (“sershamol yer”) iborasida “shamol” ma’nosidagi تُبِى ***tüpi*** so‘ziga چِلْ *-čil* qo‘shilib, bu so‘z davomlilikni anglatuvchi sifatga aylangan. Kasaldan chiqmaydigan kishiga اِيگْچِلْ ***igčil*** deyish ham shu qoidaga muvofiqdir. Lekin bu qoida uncha keng tarqalmagan.

Xudoga shukr, boshida harfi illat bo‘lgan so‘zlarning *miṯāl* bo‘limi tugadi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU BOSHIDA HARFI ILLAT BO‘LGAN FE’LLAR KITOBIDIR

IKKI HARFLILAR BOBI

ب ***r*** [harfi]:

[يَبِتّى ***yapïttï***] اَرْ قَبُغْ يَبِتّى ***er qapuγ yapïttï*** – “kishi eshikni yopdi”.

[يَبِتّى ***yapïttï***] اَرْ تُورْ يَبِتّى ***er tor yapïttï*** – “kishi qush va boshqalarga tuzoq qo‘ydi”.

[يَبِتّى ***yapïttï***] اِيشْلَارْ اُتْمَاكْ يَبِتّى ***ešlär ötmäk yapïttï*** – “xotin tandirda non yopdi”.

[يَبِتّى ***yapïttï***] اَرْ تَامْ يَبِتّى ***er tam yapïttï*** – “kishi devor qurdi” (يَبَارْ ***yapar,*** يَبْمَاقْ ***yapmaq***).

ر ***r*** [harfi]:

[يَرْدِى ***yardï***] اَرْ يِغَاجْ يَرْدِى ***er yïγač yardï*** – “kishi o‘tin va boshqa narsalarni yordi”. Yer darz ketib yorilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (يَرَارْ ***yarar,*** يَرْمَاقْ ***yarmaq***).

[يُرْدِى ***yördï***] اُرَاغْتْ اُوغْلِنْ بَشِكْتِنْ يُرْدِى ***uraγut oγlïn bešiktin yördï*** – “xotin o‘g‘lini beshikdan yechdi” (يُرَارْ ***yörär,*** يُرْمَاكْ ***yörmäk***).

[يَرْدِى ***yerdï***] اُلْ بُتِقْ يَرْدِى ***ol butïq yerdï*** – “u butoqni va boshqa narsalarni yordi”. Bu ho‘l narsani tesha, bolta bilan yormay, uzunasiga ayirishdir (يَرَارْ ***yerär,*** يَرْمَاكْ ***yermäk***[1]).

Birinchi gapdagi يَرْمَاقْ ***yarmaq*** “bir narsani qattiq kesib yormoq”dir, يَرْمَاكْ ***yermäk*** “ayirib yirib yormoq”dir. Maqolda (shunday kelgan): تَبَغْ تَاشْ يَرَارْ تَاشْ بَاشِغْ يَرَارْ ***Tapuγ taš yerär, taš bašïγ yarar.*** Ma’nosi: “Xizmat toshni yoradi, ammo tosh boshni yoradi”. Bu maqol xo‘jayinidan qancha yaxshilik ko‘rsa ham, unga yaxshilik qilmaydigan yoki uning dushmanlariga bo‘lishadigan kishiga qarata aytiladi.

ز ***z*** [harfi]:

[يَزْدِى ***yazdï***] اُلْ تُكُونْ يَزْدِى ***ol tügün yazdï*** – “u tugunni yechdi”.

[يَزْدِى ***yazdï***] اُلْ بِتِكْ يَزْدِى ***ol bitig yazdï*** – “u xat yozdi” (o‘g‘uzcha).

[يَزْدِى ***yazdï***] اُلْ سُوزِنْدَا يَزْدِى ***ol sözindä yazdï*** – “u so‘zida adashdi, xato qildi”. (235b)

[اُرُو يَزْدِى ***uru yazdï***] اُلْ اَنِى اُرُو يَزْدِى ***ol anï uru yazdï*** – “u uni urayozdi”.

---

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (يَرْمَاكْقْ).

[يَزْدِي *yazdï*] اُلْ كَيِكْنِى يَزْدِي ***ol keyikni yazdï*** – “u ovni otishda xato qildi”. Maqolda (shunday kelgan): يَزْمَاسْ اُتِمْ بُلْمَاسْ يَنكِلْمَاسْ بِلْكَا بُلْمَاسْ ***Yazmas atïm bolmas, yanïlmas bilgä bolmas.*** Ma’nosi: “O‘q otishda xato qilmaydigan ovchi, yanglishmaydigan bilimdon bo‘lmaydi” (يَزَارْ ***yazar***, يَزْمَاقْ ***yazmaq***).

[يُوزْدِى ***yüzdi***] اَرْ سُقْدَا يُوزْدِى ***er suwda yüzdi*** – “kishi suvda suzdi”.

[يُزْدِى ***yüzdi***] اِرِنكْ يُزْدِى ***iriŋ yüzdi*** – “yiring badan va yarada yoyildi”.

[يُزْدِى ***yüzdi***] اَرْ تُغُم يُزْدِى ***er toγum yüzdi*** – “kishi so‘yilgan hayvon terisini shildi” (يُزَارْ ***yüzär***, يُزْمَاكْ ***yüzmäk***[1]).

س ***s*** [harfi]:

[يَسْدِى ***yasdï***] بَكْ سُوسِنْ يَسْدِى ***beg süsin yasdï*** – “bek qo‘shinni (uy-uyiga) tarqatib yubordi”. Bu so‘zning asli اَرْ يَاسِنْ يَسْدِى ***er yasïn yasdï*** (“er yoyidan o‘q uzdi”) gapidan olingan.

[يَسْدِى ***yasdï***] خَانْ جُوَاجْ يَسْدِى ***xan čuvač yasdï*** – “xon o‘z boshiga qo‘yadigan chodirining tugunini yozdi” (يَسَارْ ***yasar***, يَسْمَاقْ ***yasmaq***).

ش ***š*** [harfi]:

[يَشْدِى ***yašdï***] اُلْ مَنِى كُرُبْ يَشْدِى ***ol meni körüp yašdï*** – “u meni ko‘rib yashirindi”. Maqolda (shunday kelgan): تَقَىْ مُنُبْ قُوىْ اَرَا يَشْمَاسْ ***Tewäy münüp qoy ara yašmas.*** Ma’nosi: “Tuya mingan kishi qo‘y orasiga yashirinolmaydi”. Bu maqol mashhur bo‘lib qolgan ishni so‘ngra yashirmoqchi bo‘lganlarga qarata qo‘llanadi (يَشَارْ ***yašar***, يَشْمَاقْ ***yašmaq***).

[يُشْدِى ***yüšdi***] اُلْ بَكْنِى يُشْدِى ***ol bekni yüšdi*** – “u bo‘zani qumg‘on jo‘mragidan quydi”. Bo‘za – bug‘doy, arpa, tariqdan qilingan ichimlikdir (يُشَارْ ***yüšär***, يُشْمَاكْ ***yüšmäk***[2]).

غ ***γ*** [harfi]:

[يَغْدِى ***yaγdï***] يَغْمُورْ يَغْدِى ***yaγmur yaγdï*** – “yomg‘ir yog‘di”. Maqolda (shunday kelgan): قُتْلُغْ قَا قُشَا يَغَارْ ***Qutluγqa qoša yaγar.*** Ma’nosi: “Baxtli kishiga davlat qo‘sha-qo‘sha (ustma-ust) keladi” (يَغَارْ ***yaγar***, يَغْمَاقْ ***yaγmaq***). Qor, do‘l yog‘ishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يِغْدِى ***ïγdï***] اُلْ مَنِى اَشْقَا يِغْدِى ***ol meni ašqa ïγdï*** – “u meni oshdan va boshqa narsalardan qaytardi”.

[يِغْدِى ***ïγdï***] اُلْ تَرِغ يِغْدِى ***ol tarïγ ïγdï*** – “u bug‘doy va boshqalarni to‘pladi”. (236a) Har narsani to‘plagan kishiga nisbatan ham bu so‘z qo‘llanadi (يِغَارْ ***ïγar***, يِغْمَاقْ ***ïγmaq***).

ف ***w*** [harfi]:

[يُقْدِى ***yuwdï***] اَرْ تُبِقْ يُقْدِى ***er topïq yuwdï*** – “kishi to‘p va boshqa narsalarni yumalatdi” (يُقَارْ ***yuwar***, يُقْمَاقْ ***yuwmaq***).

(Ko‘pni ko‘rgan) shunday degan:

---

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (يُزْمَاكقْ).

[2] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (يُشْمَاكقْ).

تَغَرْ يِغِبْ سُقْ اَقِنْ اِنْدِى سَقِنْ *Tawar yïγïp suw aqïn indi saqïn,*
قُرُمْ كِبِى اِيذِشِنْ قُودِى يُقَارْ *Qurum kibi iδišin qudï yuwar.*

Mol yig‘ish to‘g‘risida aytmoqda: “Yig‘ilgan molni sel keldi, deb bil; sel toshni yumalatganidek, mol ham egasini yumalatadi”.

[يُقْدِى *yuwdï*] اَشْيَاكْ يُقْدِى *ešyäk yuwdï* – “eshak tez qochdi”.

[تَقْدِى *tewdï*] اُلْ اَنِى اَرْدِى تَقْدِى *ol anï ardï-tewdi* – “u uni aldadi”. G‘azablanishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يُقْدِى *yowdï*] اَرْ قدَشِنْ قُرْدِى يُقْدِى *er qadašïn qurdï-yowdï* – “kishi yaqinlariga yetishdi, ularga mol berib ko‘nglini oldi” (يُقَارْ *yowar*, يُقْمَاقْ *yowmaq*).

ق *q* [harfi]:

[يَقْدِى *yaqdï*] اَرْ بَشْقَا يَقغْ يَقْدِى *er bašqa yaqïγ yaqdï* – “kishi yaraga malham qo‘ydi”.

[يَقْدِى *yaqdï*] اُلْ اَنكَرْ يَقْدِى *ol aŋar yaqdï* – “u unga yaqinlashdi”; اَنِكْ كَلْمَاكِى يَقْدِى *anïŋ kelmäki yaqdï* – “uning kelishi yaqinlashdi” deyish ham shundan.

[يَقْدِى *yaqdï*] اُلْ اَنكَرْ اَلِكْ يَقْدِى *ol aŋar elig yaqdï* – “u unga va boshqa narsalarga qo‘lini tegizdi” (يَقَارْ *yaqar*, يَقْمَاقْ *yaqmaq*).

[يُقْدِى *yuqdï*] اَلِكْ كَا يَاغْ يُقْدِى *eligka yaγ yuqdï* – “qo‘lga yog‘ yuqdi”.

[يُقْدِى *yuqdï*] اَنِكْ اُدُوزِى اَنكَرْ يُقْدِى *anïŋ uδuzï aŋar yuqdï* – “uning qichimasi unga yuqdi”. Har bir narsa boshqa bir narsaga yuqishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (يُقَارْ *yuqar*, يُقْمَاقْ *yuqmaq*).

[يِقْدِى *yïqdï*] اُلْ اَفِنْ يِقْدِى *ol ewin yïqdï* – “u uyini va boshqa narsalarni yiqitdi” (يِقَارْ *yïqar*, يِقْمَاقْ *yïqmaq*).

ل *l* [harfi]:

[يَلْدِى *yaldï*] اُوتْ يَلْدِى *ot yaldï* – “o‘t yolqinlandi, yondi”.

[يَلْدِى *yaldï*] يَاشْ يَلْدِى *baš yaldï* – “yara yallig‘landi”.

[يَلْدِى *yaldï*] كُونْ يُوزُكْ يَلْدِى *kün yüzüg yaldï* – “kun yuzni aynitdi, qoraytirdi” (يَلَارْ *yalar*, يَلْمَاقْ *yalmaq*).

[يُلْدِى *yuldï*] اَرْ بُلُنُقْ يُلْدِى *er bulunuq yuldï* – “kishi asirni bo‘shatdi”.

[يُلْدِى *yuldï*] اَرْ تُتُغْ يُلْدِى *er tutuγ yuldï* – “kishi tutqunni qutqardi, ajratib oldi”.

[يُلْدِى *yuldï*] اَرْ قُشْ يُلْدِى *er quš yuldï* – “kishi qush tuklarini yulish uchun qaynoq suvga soldi”. Teri va boshqa narsadan tuk yulishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يُلْدِى *yuldï*] اُرَاغْتْ بَشِنْ يُلْدِى *uraγut bašïn yuldï* – “xotin mehridan va boshqa narsadan kechib, boshini qutqardi” (236b) (يُلَارْ *yular*, يُلْمَاقْ *yulmaq*).

[يُلْدِى *yuldï*] اُلْ بِتِكْ يُلْدِى *ol bitig yuldï* – “u kitobni ko‘chirib yozdi”.

[يِلْدِى *yeldi*] اَتْلِغْ يِلْدِى *atlïγ yeldi* – “otliq yeldi” (يَلَارْ *yelär*, يَلْمَاكْ *yelmäk*).

[يِلْدِى *yeldi*] اَشْ يِلْدِى *aš yeldi* – “osh va boshqa yeguliklar yeyildi” (يِلُورْ *yelür*, يِلْمَاكْ *yelmäk*).

م *m* [harfi]:

[يُمْدِى *yümdi*] اَرْ كُوزْ يُمْدِى *er köz yümdi* – “kishi ko‘zini yumdi” (يُمَارْ *yümär*, يُمَاكْ *yümmäk*).

ن ***n*** [harfi]:

[يَنْدِى ***yandï***] اَرْ يُولْدَنْ يَنْدِى ***er yoldan yandï*** – “kishi yo‘l va boshqa joydan qaytdi”.

[يَنِدِى ***yanïdï***] بَكْ اَنِى يَنِدِى ***beg anï yanïdï*** – “bek va boshqalar uni qo‘rqitdi”. Maqolda (shunday kelgan): ***Yalïŋuq meŋü tirilmäs, sïnqa kirip kirü yanmas.*** Ma’nosi: “Kishi mangu yashamaydi, qabrga kirib qaytib kelmaydi”.

[يَنْدِى ***yandï***] اُوتْ يَنْدِى ***ot yandï*** – “o‘t yondi”. Bu so‘zning يَلْدِى ***yaldï*** shakli ham bor (qipchoqcha).

[يَنْدِى ***yandï***] اَرْ يَنْدِى ***er yandï*** – “kishi qusdi” (يَنَارْ ***yanar,*** يَنْمَاقْ ***yanmaq***).

(Shoir) shunday degan:

يَنْدِى اَرِنجْ اُغْرَغِى	***Yandï erinč oγraγï,***
كَلْدِى بَرُو تِغْرَغِى	***Keldi berü tïγraγï.***
اُوزِى قُيِى اُغْرَغِى	***Özi quyï oγraγï,***
اَلْبْ لَارْ قَمُغْ تِرْكَشُورْ	***Alplar qamuγ tirkäšür.***

Yovni ta’riflab aytmoqda: “U o‘z niyatidan qaytgan chiqar, chunki uning chopari keldi. O‘zi vodiy ichkarisidadir. Bahodirlar urush uchun saf tortayotirlar”.

[يُنْدِى ***yundï***] اَرْ يُقْدَا يُنْدِى ***er suwda yundï*** – “kishi suvda yuvindi”.

[يُنْدِى ***yundï***] اَرْ يُنْدِى ***er yundï*** – “kishi tahorat qildi” (o‘g‘uzcha) (يُنَارْ ***yunar,*** يُنْمَاقْ ***yunmaq***).

[يِنْدِى ***yindï***] اَنِكْ اَفِنْ يِنْدِى ***anïŋ ewin yindi*** – “u uning uyini qidirdi”. Bu so‘zning asli يِنْدْتِى ***yindti*** bo‘lib, keyinchalik yengillatilgan (يِنْدَارْ ***yindär,*** يِنْدْمَاكْ ***yindmäk***).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

[يُودِى ***yudï***] اَرْ تُونْ يُودِى ***er ton yudï*** – “kishi kiyim va boshqa narsalarni yuvdi” (يُورْ ***yur,*** يُومَاقْ ***yumaq***). Maqolda (shunday kelgan): ***Qanïγ qan bilä yumas.*** Ma’nosi: “Qonni qon bilan yuvilmaydi”, ya’ni “to‘polon to‘polon bilan bostirilmaydi, kelishuv bilan bostiriladi”.

[يِيدِى ***yedï***] اَرْ اَشْ يِيدِى ***er aš yedi*** – “kishi osh va boshqa yeguliklarni yedi” (يِيرْ ***yer,*** يِيمَاكْ ***yemäk***).

O‘rtasi harakatlar bilan فَعْلْدِى ***fa’aldī*** qolipida kelgan so‘zlar bo‘limi (237a)

ر ***r*** [harfi]:

[يَبُرْدِى ***yapurdï***] اُلْ يِيرِكْ يَبُرْدِى ***ol yerig yapurdï*** – “u yerni yaraqlatdi, tekisladi”.

[يَبُرْدِى ***yapurdï***] اَرْ سُوزُكْ يَبُرْدِى ***er sözüg yapurdï*** – “kishi so‘zni yashirdi” (يَبُرُرْ ***yapurur,*** يَبُرْمَاقْ ***yapurmaq***).

[يِتُرْدِى ***yitürdi***] اَرْ يَرْمَاقْ يِتُرْدِى ***er yarmaq yitürdi*** – “kishi pul va boshqa narsalarni yo‘qotdi” (يِتُرُرْ ***yitürür***, يِتُرْمَاكْ ***yitürmäk***).

[يُذُرْدِى ***yüδürdi***] اُلْ تَفَى كَا يُكْ يُذُرْدِى ***ol tewäykä yük yüδürdi*** – “u tuya va boshqa hayvonlarga yuk ortdi” (يُذُرُرْ ***yüδrür***, يُذُرْمَاكْ ***yüδürmäk***).

(Bilimli) shunday degan:

اَغْرُقْ اَغِرْ اِشِنكْنِى اَدْنَاغُقَا يُذُرْمَا
اَجْرُبْ اُزُنكْ اَشَارِبْ اَدْنَاغُنِى تُدْرْمَا

Ayruq ayïr ïšïŋnï aδnayuqa yüδürmä,
Ajrup özüŋ öšärip aδnayunï toδurma.

Aytmoqdaki: “O‘z og‘ir yukingni boshqalarga yuklama, ko‘zing tinar darajada o‘zingni och qoldirib, boshqalarni to‘ydirma”.

[يَشَرْدِى ***yašardï***] اُتْ يَشَرْدِى ***ot yašardï*** – “o‘t ko‘kardi” (يَشَارُرْ ***yašarur***, يَشَرْمَاقْ ***yašarmaq***).

[يَشُرْدِى ***yašurdï***] اُلْ نَانكْ يَشُرْدِى ***ol näŋ yašurdï*** – “u narsani yashirdi” (يَشُرُرْ ***yašurur***, يَشُرْمَاقْ ***yašurmaq***).

[يَقُرْدِى ***yaqurdï***] اُلْ اَتغْ مَنكَا يَقُرْدِى ***ol atïγ meŋä yaqurdï*** – “u otni va boshqa narsalarni menga yaqinlashtirdi” (يَقُرُرْ ***yaqurur***, يَقُرْمَاقْ ***yaqurmaq***).

[يَقُرْدِى ***yaqurdï***] كِشِى يَقُرْدِى ***kiši yaqurdï*** – “kishi tez-tez nafas oldi va uning nafasi siqdi” (يَقُرُرْ ***yaqurur***, يَقُرْمَاقْ ***yaqurmaq***).

[يُكُرْدِى ***yügürdi***] اَرْ يُكُرْدِى ***er yügürdi*** – “kishi yugurdi” (يُكُرُرْ ***yügürür***, يُكُرْمَاكْ ***yügürmäk***).

(Bilimli) shunday degan:

اُنْدَبْ اُلُغْ تَبَارُو
تَقْرَقْ كَلِبْ يُكُرْكِلْ
قُرْغَقْ يِلِنْ بُذُنْ كُرْ
قَنْدَا تُشَرْ قُودِى اِلْ

Ündäp uluγ taparu
Tawraq kelip yügürgil.
Qurγaq yïlïn boδun kör
Qanda tüšär qudï il.

Qoida: har bir ikki harfli o‘timli fe’lga *lām* orttirilsa, o‘zlik yoki majhul fe’lga aylanishini yuqorida aytgan edik. O‘timli fe’lga *nūn* orttirilsa, o‘zlik fe’l hosil bo‘ladi. Bu hol arabchaga muvofiqdir. Chunki arab tilida “eshikni ochdi” ma’nosida فتح الباب deyiladi. Bu iboradagi فتح so‘zi o‘timli fe’ldir. So‘ng انفتح الباب deydilar, “eshik ochildi” degan ma’noda. Demak, *nūn* orttirilib, arab tilida o‘timli fe’l o‘zlik fe’lga aylantiriladi. Shuningdek, arab tilida birov bir narsani sindirsa, كسر الرَجل الشَىء deydilar, bu o‘timlidir. Singach, انكسَرَ deydilar; bu o‘zlik fe’ldir. Bu til (turkiy til) da اَرْ تُكُونْ يَزْدِى ***er tügün yazdï*** deydilar, “kishi tugunni yechdi” demakdir. So‘ng bu fe’lga *nūn* orttirib, تُكُونْ يَزْلِنْدِى ***tügün yazlïndï*** deydilar, “tugun yechildi” demakdir. Demak, o‘timli fe’lga *nūn* qo‘shish orqali o‘zlik fe’l yasaladi. Fe’lga *lām* orttirilib, تُكُونْ يَزْلْدِى ***tügün yazïldï*** deydilar, “tugun yechildi” demakdir. “O‘z o‘zidan yechildi” ma’nosini ifodalash uchun *nūn lām* qo‘shib يَزْلِنْدِى ***yazlïndï*** deydilar. Yana shunday (246a) اَرْ تُبِقْ يُقْدِى ***er topïq yuwdï*** deydilar. So‘ng تُبِقْ يُقْلْدِى ***topïq yuwuldï*** deydilar, “to‘p yumalatildi” demakdir. Bunda fe’l majhuldir, ya’ni “to‘p birov tomonidan yumalatilgan” demakdir. Bu fe’lga bir *nūn* orttirilib, يُقْلُنْدِى ***yuwlundï*** deyiladi, “to‘p o‘z-o‘zidan yumaladi” demakdir. *lām* dan so‘ng *nūn* keltirilmasdan oldin bu fe’l ikki jihatdan o‘timsiz edi:

Birinchisi, ish-harakat noma’lum kimsa tarafidan bajarilgani uchun, bu fe’l o‘timsiz fe’l o‘rnida edi. *nūn* harfining yoniga *lām* qo‘shish bilan ish boshqa birovning ta’sirisiz o‘z-o‘zidan bajarilgani uchun fe’l o‘timsiz bo‘lgan edi. Buni biz يُقْدِى ***yuwdï*** fe’li misolida ko‘rsatib o‘tdik. Bu fe’l ikki harfli o‘timli fe’l edi. Bunga *lām* orttirilib, يُقْلْدِى ***yuwuldï*** deyiladi, “noma’lum kimsa tomonidan yumalatildi” yoki “o‘z-o‘zidan yumaladi” demakdir. Bu holda fe’l uch harfli bo‘lib, ikki jihatdan o‘timsizdir. So‘ng *lām* bilan birga *nūn* orttirilib, يُقْلُنْدِى ***yuwlundï*** deyiladi, “o‘z-o‘zidan yumaladi” demakdir. Fe’l to‘rt harfli o‘timsiz fe’lga aylanadi. Bu ikki harflidan uch harfliga, uch harflidan to‘rt harfliga aylanadi.

Qoidalarning ko‘pi *sālim* bo‘limida bayon qilingan. Bu fe’llarning hammasida buyruq, bo‘lishsizlik va boshqa shuning singari qoidalar yuqorida izohlaganim kabidir.

To‘rt harflilar bo‘limi tugadi.

BU BESH HARFLILAR BOBLARIDIR

فَعْلَدى *fa’al’aldī* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ج ***č*** [harfi]:

[يِغَجْلَنْدِى ***yïγačlandï***] يِيرْ يِغَجْلَنْدِى ***yer yïγačlandï*** – “yer daraxtga burkandi”; bu yerda daraxtning ko‘payishi, demakdir (يِغَجْلَنُورْ ***yïγačlanur***, يِغَجْلَنْمَاقْ ***yïγačlanmaq***).

ر ***r*** [harfi]:

[يَغْرْلَنْدِى *yaγïrlandï*] تَقَّىْ يَغْرْلَنْدِى *teväy yaγïrlandï* – “tuya va boshqa hayvonlarning yag‘iri ko‘paydi” (يَغْرْلَنُوْرْ *yaγïrlanur*, يَغْرْلَنْمَاقْ *yaγïrlanmaq*). Yag‘irning qichishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يُمُرْلَنْدِى *yumurlandï*] سُو يُمُرْلَنْدِى *sü yumurlandï* – “qo‘shin va boshqalar to‘plandi” (o‘g‘uzcha).

[يُلَرْلَنْدِى *yularlandï*] اَتْ يُلَرْلَنْدِى *at yularlandï* – “ot yuganlandi” (يُلَرْلَنُوْرْ *yularlanur*, يُلَرْلَنْمَاقْ *yularlanmaq*).

ز *z* [harfi]:

[يَقْزْلَنْدِى *yawuzlandï*] اُلْ اَتِغْ يَقْزْلَنْدِى *ol atïγ yawuzlandï* – “u otni va boshqa narsalarni yovuz deb bildi” (يَقْزْلَنُوْرْ / يَقْزْلَنِيْرْ *yawuzlanur* / *yawuzlanïr*, يَقْزْلَنْمَاقْ *yawuzlanmaq*).

ش *š* [harfi]:

[يَقَشْلَنْدِى *yawašlandï*] اَرْ يَقَشْلَنْدِى *er yawašlandï* (246b) – “kishi o‘zini yuvosh qilib ko‘rsatdi; yuvosh tortib qoldi” (يَقَشْلَنُوْرْ *yawašlanur*, يَقَشْلَنْمَاقْ *yawašlanmaq*).

[يَمِشْلَنْدِي *yemišländi*] يِغَاجْ يَمِشْلَنْدِي *yïγač yemišländi* – “daraxt meva qildi” (يَمِشْلَنُوْرْ *yemišlänür*, يَمِشْلَنْمَاكْ *yemišlänmäk*).

غ *γ* [harfi]:

[يَلِغْلَنْدِى *yalïγlandï*] تَقُقْ يَلِغْلَنْدِى *taquq yalïγlandï* – “xo‘rozning toji o‘sdi”. Otning yolli bo‘lishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (يَلِغْلَنُوْرْ *yalïγlanur*, يَلِغْلَنْمَاقْ *yalïγlanmaq*).

ق *q* [harfi]:

[يَرِقْلَنْدِى *yarïqlandï*] اَرْ يَرِقْلَنْدِى *er yarïqlandï* – “er sovut (zirhli kiyim) kiydi; er qurol-yarog‘li bo‘ldi”. Sipar taqishga ham shu so‘z qo‘llanadi (يَرِقْلَنُوْرْ *yarïqlanur*, يَرِقْلَنْمَاقْ *yarïqlanmaq*).

[يِرَقْلَنْدِى *yïraqlandï*] اَرْ يِيرِكْ يِرَقْلَنْدِى *er yerig yïraqlandï* – “kishi yerni yiroq deb bildi” (يِرَقْلَنُوْرْ *yïraqlanur*, يِرَقْلَنْمَاقْ *yïraqlanmaq*).

[يُلَقْلَنْدِى *yulaqlandï*] يِيرْ يُلَقْلَنْدِى *yer yulaqlandï* – “yer bo‘laklandi; yer bo‘linib ketdi” (يُلَقْلَنُوْرْ *yulaqlanur*, يُلَقْلَنْمَاقْ *yulaqlanmaq*).

ك *k* [harfi]:

[يُرَكْلَنْدِى *yüräkländï*] اَرْ يُرَكْلَنْدِى *er yüräkländï* – “kishi va boshqalar shijoatli, yurakli bo‘ldi” (يُرَكْلَنُوْرْ *yüräklänür*, يُرَكْلَنْمَاكْ *yüräklänmäk*).

م *m* [harfi]:

[يَرِمْلَنْدِى *yarïmlandï*] يَرِمْلَنْدِى نَانكْ *yarïmlandï näŋ* – “narsa yarimladi” (يَرِمْلَنُوْرْ *yarïmlanur*, يَرِمْلَنْمَاقْ *yarïmlanmaq*).

[يِشِمْلَنْدِي *yešimländi*] اَرْ يِشِمْلَنْدِي *er yešimländi* – “kishi oyog‘iga to‘zluq (فراهِيجان) kiydi” (يِشِمْلَنُوْرْ *yešimlänür*, يِشِمْلَنْمَاك *yešimlänmäk*[1]).

[يَلِمْلَنْدِى *yelimländï*] اُقْ يَلِمْلَنْدِى *oq yelimländï* – “o‘q yelimlandi”. Boshqa narsaning yelimlanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (يَلِمْلَنُوْرْ *yelimlänür*, يَلِمْلَنْمَاك *yelimlänmäk*).

[1] Bu so‘zning masdari *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (يِشِمْلَنْمَاكق).

Bu bo‘limning oltiliklari

ر ***r*** [harfi]:

[***yalγandurdï*** يَلْغَنْدُرْدِى] اَرْ ***er yalγandurdï*** يَلْغَنْدُرْدِى – “kishi (u xabarni) yolg‘onga chiqardi” (***yalγandurur*** يَلْغَنْدُرُرْ, ***yalγandurmaq*** يَلْغَنْدُرْمَاقْ).

ز ***z*** [harfi]:

[***yïldïzlandï*** يِلْدِزْلَنْدِى] ***yïγač*** يِغَاجْ ***yïldïzlandï*** يِلْدِزْلَنْدِى – “daraxt ildiz otdi”. Kishi bir yerga joylashishi yoki joylashishga hozirlanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. Chunonchi, ***er yïldïzlandï*** اَرْ يِلْدِزْلَنْدِى – “kishi xuddi daraxt ildiz otgandek, ildiz yoydi yoki nasl-nasabli, tag-taxtli bo‘ldi” (***yïldïzlanur*** يِلْدِزْلَنُورْ, ***yïldïzlanmaq*** يِلْدِزْلَنْمَاقْ).

ق ***q*** [harfi]:

[***yudruqlandï*** يُدْرُقْلَنْدِى] اَرْ ***er yudruqlandï*** يُدْرُقْلَنْدِى – “kishi qo‘lini musht qildi” (***yudruqlanur*** يُدْرُقْلَنْمَاقْ, ***yudruqlanmaq*** يُدْرُقْلَنُورْ).

[***yarmaqlandï*** يَرْمَقْلَنْدِى] اَرْ ***er yarmaqlandï*** يَرْمَقْلَنْدِى – “kishi pulli bo‘ldi” (***yarmaqlanur*** يَرْمَقْلَنْمَاقْ, ***yarmaqlanmaq*** يَرْمَقْلَنُورْ).

[***yumšaqlandï*** يُمْشَقْلَنْدِى] اُلْ ***ol meŋä yumšaqlandï*** مَنگَا يُمْشَقْلَنْدِى – “u menga yaltoqlandi va bo‘yin egdi” (***yumšaqlanur*** يُمْشَقْلَنُورْ, (247a) ***yumšaqlanmaq*** يُمْشَقْلَنْمَاقْ).

[***yumγaqlandï*** يُمْغَقْلَنْدِى] ***yumγaqlandï näŋ*** نَانگْ يُمْغَقْلَنْدِى – “narsa yumaloqlandi, girdak qilindi” (***yumγaqlanur*** يُمْغَقْلَنْمَاقْ, ***yumγaqlanmaq*** يُمْغَقْلَنُورْ).

ن ***n*** [harfi]:

[***yawγanlandï*** يَقْغَنْلَنْدِى] اَرْ ***er ašïγ yawγanlandï*** اَشِغْ يَقْغَنْلَنْدِى – “kishi oshni yovg‘on (go‘shtsiz) bilib, oz yedi” (***yawγanlanur*** يَقْغَنْلَنُورْ, ***yawγanlanmaq*** يَقْغَنْلَنْمَاقْ).

[***yïlγunlandï*** يِلْغُنْلَنْدِى] ***yer yïlγunlandï*** يِيرْ يِلْغُنْلَنْدِى – “yerda yulg‘un undi” (***yïlγunlanur*** يِلْغُنْلَنُورْ, ***yïlγunlanmaq*** يِلْغُنْلَنْمَاقْ).

Xudoga shukr, *miṣāl* bo‘limi tugadi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU UCH HARFLI SO‘ZLAR KITOBIDIR

IKKI HARFLI OTLAR

ت *t* [harfi]:

تَاهْ *tah-tah* – lochin uchirilib, so‘ng chaqirib olish uchun aytiladigan so‘z. Bu so‘zdagi ه *hā* nafas olish uchun xizmat qiladigan tovushdir.

ج *č* [harfi]:

جُوهْ جُوهْ *čuh-čuh* – otni yurgizish hamda uning ta’zirini berish uchun aytiladigan so‘z.

ک *k* [harfi]:

كَاهْ كَاهْ *käh-käh* – itni chaqirish uchun qo‘llanadigan so‘z.

م *m* [harfi]:

مَاهْ *mah* – “mana; shu yerda; ol” ma’nolaridadir. Bu so‘z bir narsa taklif qilinganda aytiladi.

Bu bo‘limning *miṣāl* qismi

يَاهْ *yah* – “xuddi; shunday; ha” ma’nolaridagi so‘zdir. Bu **اَتْ تُتْ *at tut*** deb aytgan kishining so‘ziga javoban aytilgan **يَاهْ *yah*** – “xo‘p” ma’nosida ham qo‘llanadi.

Tez so‘zlaganda, bu so‘zlardan cho‘ziq harflisi (حروف اللين) tushib, ت *t:* تَهْ تَهْ; ج *č:* جُهْ جُهْ; ک *k:* كَهْ كَهْ; م *m:* مَهْ مَهْ deyiladi. Shuning uchun biz bularni *manqūṣ* bobida ko‘rsatdik. Chunki bu boblarda cho‘ziq harflar (حرف اللين) yozuvda emas, talaffuzda tushib qoladi.

Bu so‘zlardagi ه *hā* harfi nafas olishga xizmat qiluvchi harfdir; فبِهُداهُمُ اَقتَدِه وَ لَمْ يَتَسَنَّهْ oyatidagi kabi. Bu iboralarda so‘z oxiridagi ه *hā* dam olish uchun xizmat qiladi.

Haqiqiy ه *hā* harfi asl turk tillarida yo‘q. Faqat **اَرْ اَهْلَدِى *er ahladï*** – “kishi oh urdi” gapidagina qo‘llanadi. Shunda ham bu so‘zdagi ه *hā* ko‘krakdan chiqadigan tovushdir. Boyqushni **اُوهِى *ühi*** deguvchilar bor bo‘lsa ham, asl turklar (247b) **اُوكِى *üki*** deydilar. Xo‘tan va kanjak tillarida ه *hā* qo‘llansa ham, bular asl turklar emas, turklar o‘lkasiga keyinchalik kelib o‘rnashganlar.

O‘rta harfi *sukun* li فَعْل *fa’l,* فُعْل *fu’l,* فِعْل *fi’l* qoliplaridagi so‘zlar bo‘limi

ب *p* [harfi]:

تُوبْ *tüp* – “har qanday daraxtning asosi, ildizi”; **يِغَاجْ تُوبِى *yïγač tüpi*** – “daraxt ildizi”.

تُوبْ *tüb* – “negiz”; **تَامْ تُوبِى *tam tübi*** – “devor negizi (poydevor)”. Kishining kelib chiqishiga ham bu so‘z qo‘llanadi; **تُوبْلُكْ اَرَنْ *tüblüg erän*** – “tagli-taxtli kishilar”.

تُوبْ *top* – “to‘p, koptok”. Bu so‘z **تُپِقْ *topïq*** ning qisqarganidir.

جُوبْ *čöp* – “har narsaning siqilgandan so‘ng qolgan chiqindisi”; **اُزُمْ جُوبِى *üzüm čöpi*** – “uzum sirqindisi”; **يَاغْ جُوبِى *yaγ čöpi*** – “yog‘ quyqasi”; **بُورْ جُوبِى *bor čöpi*** – “bo‘za va boshqa narsalarning durdi”.

[**جُبْ *čöp***] **تُتْمَاجْ جُوبِى *tutmač čöpi*** – tutmoch (ovqat) qilish uchun maydalab kesilgan yupqa bo‘laklarning oti.

[**قُوبْ قِلْدِى *qop qïldï***] **اُلْ مَنِى كُرُبْ قُوبْ قِلْدِى *ol meni körüp qop qïldï*** – “u meni ko‘rib shodlandi, sevindi”.

كُوبْ *küb* – “kub”.

كِيبْ *kip* – “har narsaning qolipi”; **كَرْبِچْ كِيبِى *kerpič kipi*** deyiladi; “g‘ishtning qolipi” demakdir.

كِيبْ *kib* – o‘g‘uzlarda “kabi, o‘xshash” demakdir; bundan “bu kishi uning kabidir” ma’nosida **بُو اَرْ اَنِكْ كِيبِى *bu er anïŋ kibi*** deyiladi.

ت *t* [harfi]:

بُوتْ *but* – “son, but”.

بُوتْ *but* – qimmatbaho feruza toshning oti. U kattalarning o‘g‘il-qizlari peshanalariga taqiladi; bundan **قِزْ بُوتْ اُرِدِى *qïz but urïdï*** deyiladi; “qiz feruza taqdi” demakdir.

بُوتْ *but* – amaldor tomonidan yuborilgan sovg‘ani keltirgan kishiga beriladigan mukofot. Chunonchi, birovga sovg‘a tariqasida yuborilgan otni keltiruvchi otboqarga pul yoki qo‘y berish kabi. Ana shu qo‘y **بُوتْ *but*** deb ataladi. (248a)

تِيتْ *tït* – “sanubar daraxti”; tog‘larda bitadi.

جِيتْ *čit* – ola-bula gullari bor chit gazlama.

سُوتْ *süt* – “sut”.

شُوتْ *šüt* – “urug‘”; خُتَنْ *Xotan* shevasida.

ج *č* [harfi]:

تُوجْ *tuč* – “mis”.

كُوجْ *küč* – “kuch”.

كُوجْ *küč* – “zulm”. Maqolda (shunday kelgan): **كُوجْ اِيلْدِنْ كِرْسَا تُرُو تُنكْلُكْتِنْ جِقَارْ *Küč ildin kirsä, törü tüŋlüktin čïqar.*** Ma’nosi: “Zulm, zo‘ravonlik eshikdan

kirsa, insof tuynukdan chiqadi”. “Zulm qiluvchi kishi”ga كُجَمْجِى ***kučämči***, “kuchli kishi”ga كُوجْلُكْ ***kučlüg*** deyiladi.

كُوجْ ***kuč*** – “kunjut”; كُوجْ يَاغِى ***kuč yayï*** – “kunjut yog‘i” (chigilcha). “Kunjut o‘tining urug‘i”ga ham اِنكَاكْ كُوجِى ***eŋäk küči*** deyiladi.

كِيچْ ***keč*** – “kech”. Shundan olinib, كِيچْ كَلْدِى ***keč keldi*** – “kelishda kechikdi; kech keldi” deyiladi.

ذ ***δ*** [harfi]:

[بُوذْ ***boδ***] أُزُونْ بُوذلُغْ كِشِى ***uzun boδluγ kiši*** – “uzun bo‘yli kishi”.

بُوذْ ***boδ*** – “tuyaqush”.

[بُوذْ ***boδ***] بُوذ مُنْجُقْ ***boδ munčuq*** – joriyalar taqadigan bir tur munchoq.

ر ***r*** [harfi]:

بُورْ ***bor*** – “bo‘za”. Maqolda (shunday kelgan): بُورْ بُلْمَاذِبْ سِرْكَا بُلْمَا ***Bor bolmaδïp sirkä bolma.*** Ma’nosi: “Sharob bo‘lmay turib, sirka bo‘lma”. Bu maqol o‘zini qarilarga o‘xshatadigan yoshlarga qarata aytiladi.

بِيرْ ***bir*** – “bir”; بِيرْ يَرْمَاقْ ***bir yarmaq*** – “bir tanga”.

تُورْ ***tör*** – “uyning to‘ri” (ingichka unli (ya’ni [ö]) bilan – (بالاشمام) تُورْكَا كَچْ ***törkä keč*** – “to‘rga o‘t”.

تُورْ ***tor*** – yo‘g‘on unli (ya’ni [*o*]) bilan (بالاشباع); “qush va baliq tutiladigan to‘r; ov to‘ri; matrap va yoyma” kabi.

[جُورْ ***čor***] جُورْ اُرَاغُتْ ***čor uraγut*** – “bitov xotin” (avrat yeri bitov xotin), o‘g‘uzlar “o‘rilgan o‘t”ga ham جُورْ اُوتْ ***čor ot*** deydilar. Birinchi so‘zning asli shundandir.

[سُورْ سُورْ ***sür-sür***] اَرْ سُورْ سُورْ مُونْ اُبْتِى ***er sür-sür mün öpti*** – “kishi xo‘r-xo‘r qilib, xo‘rillatib sho‘rva ichdi”.

قُورْ ***qor*** – “ziyon”; اَرْ قُورْ قِلْدِى ***er qor qïldï*** – “kishi ziyon qildi”. (248b)

قُورْ ***qor*** – “qatiq tomizg‘isi”. Bu – hurmachada ivitilgan qatiq yo achigan qimizdan idish tagida qoldirib, ustiga sut qo‘shib, qatiq yoki qimiz qilishdir.

قُورْ ***qur*** – “quruq” (o‘g‘uzcha). Bu قُرُغْ ***quruγ*** so‘zining qisqarganidir. Maqolda (shunday kelgan): قُلَان قُدُغْقَا تُشْسَا قُرْبَقَا اَيْغِرْ بُلُورْ ***Qulan quduγqa tüssä, qurbaqa ayγïr bolur.*** Ma’nosi: “Qulon (yovvoyi eshak) quduqqa tushsa, cho‘l qurbaqasi ayg‘ir bo‘ladi”. Bu arablarning اِن الْبُغاثَ بِارضِنا تستنسِر degan iborasiga o‘xshaydi.

ز ***z*** [harfi]:

[بُوزْ ***boz***] بُوزْ اَتْ ***boz at*** – “kulrang ot”. Bu nozik, nafis, yoqimli emas. Oq va qizil rang orasidagi rangda bo‘lgan har bir hayvonga ham bu so‘z qo‘llanadi:بُوزْ قُوىْ ***boz qoy*** – “bo‘z, kulrang qo‘y”.

بُوزْ ***böz*** – “bo‘z” (ingichka unli (ya’ni [ö]) bilan – بالاشمام).

بُوزْ ***buz*** – “muz” (yo‘g‘on unli (ya’ni [*u*]) bilan – بالاشباع). Maqolda (shunday kelgan): بُوزْدَنْ سُوفْ تَمَارْ ***Buzdan suw tamar.*** Ma’nosi: “Muzdan suv tomadi”. Bu maqol xulqi otasining xulqiga o‘xshaganlarga qarata aytiladi.

بِيزْ ***bez*** – et bilan teri orasida (ma’lum sabab bilan) paydo bo‘ladigan shish.

تُوزْ ***toz*** – “to‘zon” (yo‘g‘on unli (ya’ni [*o*]) bilan – بالاشباع).

تُوزْ *toz* – qayish yoki kamarga taqiladigan va bog‘lanadigan xalqa.

[**تُوزْ *töz***] **اِيلْ تُوزْ نَتَگْ *el töz netäg?*** – “mamlakat, el qanday?”.

تُوزْ *töz* – “asl, tag, asos”; **اَنِگْ تُوبِى تُوزِى كِمْ *anïŋ tübi-tözi kim?*** – “uning tagi, asli kim? Kimga borib taqaladi?”.

[**تُوزْ *tüz***] **تُوزْ يِيرْ *tüz yer*** – “to‘g‘ri yer; tekis yer”.

تُوزْ *tuz* – “tuz” (yo‘g‘on unli (ya’ni [*u*]) bilan – بالاشباع).

تِيزْ *tiz* – “tiz, tizza”.

تَيِزْ *täyiz* – “baland yer”. Forslar shaharlarini shu so‘zdan **دِزْ *diz*** shaklida o‘zgartirib olganlar.

تَيِزْ *Tayïz* – كَاشْغَرْ *Kāšγar* yaqinidagi bir yaylov. Balandligi uchun uni **تَرِغْ اَرْتْ تَيِزْ *tarïγ art tayïz*** deyiladi.

تَيِزْنَك تَيِزْ *Tayzaŋ tayïz* – boshqa bir yaylovning oti.

[**تَيِزْ *tayïz***] **يِيزْ اَفِى تَيِزْ *Yiz ewi tayïz*** – بَرسْغَانْ *Barsγan* yaqinidagi bir yaylov oti.

چِيژْ *čež* – (ikki jag‘ orasida talaffuz qilinuvchi ژ *zā* bilan) “ilmoq”; uchi qayrilgan temir kabi narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

سُوزْ *söz* – “so‘z, kalom”. (249a)

سِيزْ *siz* – kattalarni hurmatlash uchun “sen” ma’nosida aytiladigan so‘z (chigilcha). Aslida, buning ma’nosi “sizlar” demakdir. Kichiklarga **سَنْ *sen*** deyiladi. O‘g‘uzlar buning teskarisini qo‘llaydilar.

[**قُوزْ *quz***] **قُوزْ تَاغْ *quz taγ*** – “quyosh tushmaydigan tog‘; tog‘ning quyosh tushmaydigan joyi”.

س *s* [harfi]:

[**بُوسْ *pus***] **كُوكْ بُوسْ بُلْدِى *kök pus boldï*** – “osmon chang, to‘zon va boshqa shuning kabilar bilan qoplandi”.

[**بُوسْ *pus***] **اَرْ كُوزِى بُوسْ بُلْدِى *er közi pus boldï*** – “me’dada paydo bo‘lgan bug‘dan kishining ko‘zi xiralandi”.

[**تُوسْ *tos-tos***] **اَنِى تُوسْ تُوسْ اُرْدِى *anï tos-tos urdï*** – “uning to‘ni ustiga tez-tez (tarsillatib) urdi”.

ش *š* [harfi]:

[**بُوشْ *boš***] **بُوشْ كِشِى *boš kiši*** – “ozod kishi”.

[**بُوشْ *boš***] **بُوشْ اُرَاغْتْ *boš uraγut*** – “erdan ajralgan xotin”.

[**بُوشْ *boš***] **بُوشْ اَلِكْ *boš elig*** – “ishdan va yukdan bo‘shagan qo‘l”.

[**بُوشْ *boš***] **بُوشْ اَتْ *boš et*** – “yumshoq go‘sht”; “yumshoq yer”ga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[**بُوشْ *boš***] **بُوشْ اَتْ *boš at*** – “bo‘sh qo‘yib yuborilgan ot”.

[**بُوشْ *boš***] **بُوشْ اَفْ *boš ew*** – “bo‘shatilgan uy”. Narsadan bo‘shatilgan idish yoki jildlarga ham **بُوشْ *boš*** so‘zi qo‘llanadi.

بِيشْ *beš* – “besh” (son).

تُوشْ *tüš* – “teng”; bundan **اَنِگْ تُوشِى *anïŋ tüši*** deyiladi, “uning tengi” demakdir.

تُوشْ *tüš* – “narsaning qarshi tarafi”; bundan **اَفِمْ تُوشِى *ewim tüši*** deyiladi, “uyimning qarshisi, uyimning ro‘parasi” demakdir.

تُوشْ *töš* – “to‘sh, ko‘krakning boshi”; ingichka unli (ya’ni [*ö*]) bilan (بالشمه).

تُوشْ *toš* – (yo‘g‘on unli (ya’ni [*o*]) bilan – بالاشباع); oltindan yoki kumushdan yasalib, kamar uchiga taqiladigan to‘qa.

تُوشْ *tüš* – “kun chiqqandan keyingi vaqt”; **تُوشْ اُودِی *tüš ödi*** – “tush vaqti”.

تُوشْ *tüš* – “uyqudagi aldanish, ixtilom bo‘lish”; bundan **تُوشْ كُرْمِشْ اُغْلَانْ *tüš körmiš oγlan*** deyiladi, “ixtilom bo‘lgan bola” demakdir.

تُوشْ *tüš* – “tush”; bundan **تُوشْ يُورْدِی *tüš yordï*** deyiladi, “tushni yo‘ydi” demakdir.

تِيشْ *tïš* – “tish; odam va boshqalarning tishi”.

تِيشْ *tïš* – “omoch tishi”.

[**تِيشْ *tïš***] **تِيشْ اَتْ *tïš at*** – peshanasidagi oqlig‘i (qashqasi) ko‘zlari yonigacha borib, quloqlariga yetib kelmagan, burnigacha cho‘zilib tushmagan, qashqasi shuning ikkalasi o‘rtasida bo‘lgan ot.

سِيشْ *sïš* – “tutmoch sixi”.

سِيشْ *sïš* – “shish”.

سَيِشْ *seš* – (*imāla* bilan – بالامالة)[1]; “to‘lov”. **مَنْ اَنكَرْ سَيِشْ بِيرْدِمْ *men aŋar seš berdim*** (249b) – “men unga kerakli to‘lovni to‘ladim”.

[**قُوشْ *qoš***] **قُوشْ اَتْ *qoš at*** – “shoh yonidagi yetov ot”.

قُوشْ *qoš* – “har bir juft narsa”. Shunga ko‘ra, “qaychi”ga **قُوشْ بِچَاكْ *qoš pičäk*** deyiladi, bu “juft pichoq” demakdir (arg‘ucha). Maqolda (shunday kelgan): **قُرقْمِشْ كِشِيكَا قُوىْ بَشِی قُوشْ كُرُنُورْ *Qorqmïš kišikä qoy baši qoš körünür.*** Ma’nosi: “Qo‘rqqan kishiga har qo‘yning boshi juft ko‘rinadi”. Bu maqol har narsadan qo‘rqqan, hatto u narsani xayol qilganda ham, har vaqt qo‘rqadigan kishiga nisbatan aytiladi.

كِيشْ *kiš* – “mo‘ynasidan suvsar po‘stin qilinadigan yirtqich hayvon”; **كِيشْ قُدْرُقِی *kiš quðruqï*** – “kish quyrug‘i” iborasi ham shundan olingan.

كِيشْ *keš* – (*imāla* bilan – بالامالة); “o‘qdon”. O‘g‘uzlar va ularning birodari bo‘lgan qipchoqlar bu so‘zni bilmaydilar.

لِيشْ *liš* – “so‘lak, tupuk” (chigilcha).

لِيشْ *liš* – ayni damda “balg‘am”dir; **لِيشْ اَقْتِی *liš aqtï*** – “tupuk va balg‘am oqdi” demakdir (chigilcha).

مُوشْ *müš* – “mushuk” (chigilcha). O‘g‘uzlar buni **چَتُكْ *četük*** deydilar.

غ *γ* [harfi]:

بُوغْ *boγ* – “narsalar solingan bo‘xcha, xurjin”.

تُوغْ *toγ* – “ot oyoqlarining tepinishidan chiqqan chang, to‘zon”.

تُوغْ *tuγ* – “xon huzurida chalinadigan nog‘ora va dovul”. Chunonchi, **خَانْ تُوغ اُرْدِی *xan tuγ urdï*** deydilar, “xon dovul (nog‘ora) qoqdi” demakdir.

تُوغ *tuγ* – “tug‘, bayroq”; **تُقُوزْ تُوغْلُغْ خَانْ *toquz tuγluγ xan*** – “to‘qqiz tug‘li xon yoki xoqon”. Qaramog‘idagi shahar va o‘lkalar oshib ketsa ham, tug‘

[1] *imāla* ning asl ma’nosi “moyil qilish; egish; og‘dirish” degani. Bu o‘rinda *yā* ning [*e*] ga moyil talaffuzi ko‘zda tutilmoqda. Shunga ko‘ra ushbu so‘zni *seš* shaklida o‘qilgani ma’qul.

to‘qqizdan oshirilmaydi. Xonning yuqori martabasi to‘qqiz bilan fol qilinadi. Bu xon tug‘lari to‘q sariq rangli shoyi yoki ipak matodan qilinadi. Bu ham xayrli fol sanaladi.

تُوغ *toγ* – “to‘g‘on”; **سُقْقَا تُوغ اُرْ *suwqa toγ ur*** – “suvga to‘g‘on sol”.

تُوغ *tuγ* – “har narsaning tiqini, qopqog‘i”. Shundan olinib, **تُنْكُلُكْ تُوغِى *tüŋlük tuγï*** deyiladi: “uy devorlari va boshqa yerlardagi tuynuk qopqog‘i” deganidir.

[**تِيغْ *tïγ***] **تِيغْ اَتْ *tïγ at*** – “yoli va dumi qizil, tanasi qizil bilan qora orasida bo‘lgan qo‘ng‘ir ot”.

[**جَاغ جُوغ *čaγ-čoγ***] **جَاغ جُوغ قُبْتِى *čaγ-čoγ qoptï*** – “shovqin-suron, g‘alayon qo‘pdi”. Ba’zan **جُغِى قُبْدِى *čoγï qopdï*** tarzida qo‘llanadi, “shovqin qo‘zg‘aldi” demakdir.

جُوغ *čuγ* – (tor unli (ya’ni [*u*]) bilan – بالشمة) “narsalar joylab qo‘yiladigan bo‘xcha”. (250a)

جُوغ *čoγ* – “kun tig‘i; quyosh shokilasi”; **كُونْ جُوغِى *kün čoγï*** – “kun tig‘i”.

جُوغ *čoγ* – “o‘tin yonib bo‘lgandan keyin hosil bo‘lgan cho‘g‘”.

چِيغْ *čïγ* – “savat to‘qiladigan novda”. U qamishdan to‘qilib, ingichka va yumshoq bo‘ladi; ko‘chmanchilar o‘tov qurishda ham undan foydalanadilar.

چِيغْ *čïγ* – turklarning gaz o‘lchov birligi nomi. U gazning uchdan ikki qismiga tengdir. Ko‘chmanchilar u bilan bo‘z o‘lchaydilar.

سِيغْ *-sïγ* – o‘xshatish qo‘shimchasi (حرف تشبيه). Orzu qilib aytilgan narsani o‘ziga o‘xshatish uchun ismlarning so‘ngiga qo‘shiladi. Chunonchi, **قُلْسِغْ آرْ *qulsïγ er*** – “xulqi qullar xulqiga o‘xshash kishi” kabi; **بُو قَرِى اُلْ اُغْلَانْسِغْ *bu qarï-ol oγlansïγ*** – “bu qarining qilig‘i yosh bolalar qilig‘iga o‘xshaydi”. Tarkibida ingichka tovushlari bo‘lgan so‘zlarda *yayn* o‘rniga *gāf* qo‘llanadi.Chunonchi, **بُو اَرْ اُلْ بَكْسِكْ *bu er-ol begsig*** – “bu fe’li beklar fe’liga o‘xshaydigan kishidir”. Yana **بُو اُغُلْ اُلْ اَرْسِكْ *bu oγul-ol ersig*** – “bu katta kishilarga o‘xshaydigan boladir. U kattalar qilig‘ini qiladi”.

قُوغ *qoγ* – “ko‘zga yoki taomga tushgan xas, cho‘p”.

[**قَاغ قُوغ *qaγ-quγ***] **قَازْ قَاغ قُوغ اَتّى *qaz qaγ-quγ etti*** – “g‘oz qag‘-qug‘ deb g‘ag‘illadi”.

قِيغْ *qïγ* – yerni boyitish, yumshatish uchun foydalaniladigan go‘ng.

ف *w* [harfi]:

ثوفْ *suw* – yungdan qo‘lda to‘qilgan kamar.

سُوفْ *suw* – “suv”. Maqolda (shunday kelgan): **سُوفْ بِيرْمَاسْ كَا سُوتْ بِيرْ *Suw bermäskä süt ber.*** Ma’nosi: “Suv bermasga sut ber”. Bu maqoldan maqsad – senga yomonlik qilganga sen yaxshilik qil. Chunki sening yaxshiliging uni senga tobe qiladi, demakdir.

[**قَاقْ قُوقْ *qaw-quw***] **تُونْ قَاقْ قُوقْ بُلْدِى *ton qaw-quw boldï*** – “to‘n choklari so‘kildi”.

بُوقْ *buw* – uzoq turib qolish yoki dimlanish oqibatida non yuzida paydo bo‘lgan mog‘or.

ق *q* [harfi]:

بُوقْ *boq* – “bo‘q” (o‘g‘uzcha).

[**بُوقْ *poq***] **قَاغُونْ بُوقْ بِيرْكَا تُشْدِى *qaγun poq yerkä tüšdi*** – “qovun po‘q etib (250b) yerga tushdi”. Ichi kovak har narsaning yerga tushib yorilishiga ham **بُوقْ اَتّى *poq etti*** deyiladi. Bu undan chiqqan ovozdir.

[**جُوقْ *čoq***] **جُوقْ اَرْ *čoq er*** – “yomon, past kishi” (o‘g‘uzcha).

[**چِيقْ *čïq***] **چِيقْ اَتْ كُرَايِنْ *čïq et köräyin*** – “churq et-chi, men sening mardligingni ko‘ray”. Bu so‘z ozor bergan kishiga qarshilik ko‘rsatmasligi uchun aytiladi.

[**سُوقْ *suq***] **سُوقْ اَرْ *suq er*** – “suq, ochko‘z, pastkash kishi”. Ishorat barmog‘ini **سُوقْ اَرنگاكْ *suq erŋäk*** – “suq barmoq” deyish ham shundan. Chunki u ovqatga hammadan oldin uzaluvchi ochko‘z barmoqdir.

[**سِيقْ *sïq***] **اَلَارْدَا قُويْ سِيقْ اَلْ *olarda qoy sïq-ol*** – “ularda qo‘y ozdir”.

[**قَاقُوقْ *qaqquq***] **قَازْقَاقُوقْ اَتَىْ *qaz qaqquq etti*** – “g‘oz qaq-quq deb g‘ag‘illadi”.

قَاقُوقْ *qaquq* – “qoqi”; har xil mevalarning yorib quritilishi.

ك *k* [harfi]:

بُوكْ *pük* – o‘yinda oshiqning orqasi bilan tushishi, pukkasi. Buni **چِكْ بُوكْ *čik-pük*** deyiladi.

بُوكْ *pük* – bir tur o‘rgimchak; ikki tilning birida.

كُوكْ *küg* – (jarangli *kāf* (ya’ni [*g*]) bilan – بكاف ركيكة) “she’rning vazni, o‘lchovi”; **بُو يِرْ نَا كُوكْ اُزَا اَلْ *bu yïr ne küg üzä-ol?*** – “bu she’r qaysi vaznda?”.

كُوكْ *küg* – maqom, ashulada maxsus qoidaga muvofiq ovozni baland-past qilish; **اَرْ كُوكْلَنْدِى *er kügländi*** – “kishi ovozini baland-past qilib, ma’lum maqomda ashula aytdi”.

كُوكْ *küg* – bu bir xil kulgiki, har shahar xalqi orasida mashhur bo‘lib aytib yuriladi; **بُو يِلْ بُو كُوكْ كَلْدِى *bu yïl bu küg keldi*** – “bu yil bu kulgi chiqdi” deyilishi kabi.

ك *g* [harfi]:

[**كُوكْ *kög***] **كُوكْ يِلْقِى *kög yïlqï*** – “boshvog‘i olinib, qo‘yib yuborilgan hayvon”.

(Shoir) shunday degan:

كُوكْلَرْ قَمُغْ تُزْلْدِى / تُزْلْدِى	***Küglär qamuγ tüzüldi / tüzildi,***
اِقْرِقْ اِذِشْ تِزْلْدِى	***Ïwrïq iδiš tizildi.***
سَنْسِزْ اُزُمْ اُزُمْ اُزَلْدِى	***Sensiz özüm özäldi,***
كَلْكِلْ آمُلْ اُيْنَلِمْ	***Kelgil, amul oynalïm.***

Aytmoqdaki: “Kuylar bir-biriga moslashtirildi, may idishlari qatorlashtirildi, ko‘nglim sensiz beqarordir. Kel, ko‘ngilni tinchitib, shodlanaylik”.

كُوكْ *küg* (251a) – bu echki va boshqa hayvonlarning qishda bir-biriga oshadigan (juftlashadigan) vaqti; **قُوىْ كُوكِى بُلْدِى *qoy kügi boldï*** – “qo‘ylarning qo‘shiladigan, uyur oladigan vaqti bo‘ldi”. Boshqa hayvonlarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

كُوكْ *kög* – “oyna yuziga tushadigan dog‘, zang”; **كُوزُنكُوكَا كُوكْ تُشْدِى *közüŋükä kög tüšdi*** – “oynaga dog‘ tushdi, zang bosdi” deyilgandagi kabi.

كُوكْ *kög* – “xotinlar va boshqalarning yuziga tushadigan dog‘”.

كُوكْ *kök* – (jarangsiz *kāf* (ya’ni [*k*]) bilan – بالكاف الصلبة) “ko‘k, osmon”. Maqolda (shunday kelgan): **كُوكَا سُذْسَا يُوزْكَا تُشُورْ *Kökkä süδsä yüzkä tüšür.*** Ma’nosi: “Ko‘kka tupirgan kishining tupugi qaytib yuziga tushadi”. Bu maqol birovga yomonlik qilgan kishining o‘ziga yomonlik qaytishiga ishorat qilib aytiladi.

[**كُوكْ *kök***] **كُوكْ تُونْ *kök ton*** – “ko‘k kiyim”. Osmon rangli har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[**كُوكْ *kök***] **كَنْدْ كُوكِى *kend köki*** – “shahar yashilliklari, ya’ni shahardagi ko‘k daraxtlar”.

كُوكْيُوقْ *kök-yuq* – “qishloq va turkman kattalariga berilagigan unvon nomi”.

ل *l* [harfi]:

بِيلْ *bel* – “bel”. **آنِى بِيلِنْدَا تُتْ *anï belindä tut*** – “uni belidan ushla”; **أَلْ اَنكَرْ اَنْجَا اَشْ بِيرْدِى بِيلْ قُلْدِى *ol aŋar anča aš berdi bel quldï*** – “u unga bellari to‘lguncha [qorni to‘yguncha] osh berdi”. Har qanday kishiga tilagidan ortiq ovqat berishga ham shu so‘zni qo‘llab, **بِيلْ قِلْدِى *bel qïldï*** deyiladi (chigilcha).

[**تُولْ *tul***] **تُلْ أَرَاغْتْ *tul uraγut*** – “beva xotin”. Maqolda (shunday kelgan): **يَقْلَاقْ تِيلّغْ بِيكْدَا كَرُو يَلِنكُوسْ تُولْ بِيكْ *Yawlaq tïllïγ begdän kerü yalïŋus tul yeg.*** Ma’nosi: “Tili yomon, so‘kong‘ich erli bo‘lgandan ko‘ra beva o‘tgan yaxshi”.

تُولْ *töl* – (*imāla* bilan) “bolalash vaqti” (o‘g‘uzcha). Bolaga nisbatan ham shu so‘z qo‘llanadi.

تِيلْ *til* – “til” (اللسان). Maqolda (shunday kelgan): **اَرْدَمْ بَشِى تِيلْ *Erdäm baši til.*** Ma’nosi: “Eng yaxshi xulqning boshi tildir”. Bu maqol arabcha اَلْمَرْءُ مَخْبُوٌّ تحْتْ لسانه deyilgan ibora kabidir.

تِيلْ *til* – “til” (اللغه). Chunonchi, **أُيْغُرْ تِيلِى *uyγur tili*** – “uyg‘ur tili” (لغة ايغر); **خِتاىْ تِلِى *xïtay tili*** – “xitoy tili” (لغة الصين) kabi.

تِيلْ *til* – “so‘z” (الكلام) **أَلْ بَكْكَا تِيلْ تَكُرْدِى *ol begkä til tegürdi*** – “u bekka so‘z tegizdi, haqoratomuz so‘z so‘zladi”. (251b)

تِيلْ *tïl* – “josus”; **يَغِيدَنْ تِيلْ تُتّى *yaγïdan tïl tuttï*** – “yov josusini tutib oldi”.

جِيلْ *čil* – “yomonlik” (o‘g‘uzcha).

جِيلْ *čil* – “badanda qolgan kaltak zarbining izi”.

سُولْ *söl* – “go‘sht va yog‘ochda bo‘lgan namlik”; **سُولْ لُكْ اَتْ *söllüg et*** – “yaxshi pishmagan, yuzida qon asarlari ko‘rinib turgan go‘sht”. Maqolda (shunday kelgan): **سُكْتْ سوُلِنكَا قَذِنكْ قَاسِنكَا *Sügüt söliŋä, qaδïŋ qasïŋa.*** Ma’nosi: “Tol daraxtining namligi o‘ziga yarashadi, qayin daraxti po‘stining qattiqlig‘i o‘ziga yarashadi”.

[**سُولْ *sol***] **سُولْ اَلِكْ / اِلِكْ *sol elig*** – “chap qo‘l”.

[**سِيلْ *sïl***] **سِيلْ كِشِى *sïl kiši*** – “har turli taomni yeyishdan o‘zini tortadigan chimxo‘r kishi”; **سِيلْ اَتْ *sïl at*** – “oz yem yeydigan ot”.

قُولْ ***qol*** – “qo‘l”.

قُولْ ***qol*** – tog‘ cho‘qqisidan pastga to‘g‘ri tushgan, vodiydan baland joy; **اُوبْرِى قُولِى** ***oprï qolï*** – “vodiy qo‘li”.

قُولْ ***qol*** – qilich yoki pichoqlar tig‘i qirg‘og‘ida o‘yma chiziq. Bu ko‘pincha oltin suvi berib qilinadi. Uni **قِلِجْ قُولِى** ***qïlïč qolï*** – “qilich qo‘li” deyiladi.

كُولْ ***köl*** – “ko‘l, hovuz”.

كُولْ ***köl*** – “to‘planib qolgan suv, ko‘l”.

اِسِكْ كُولْ ***İsigköl*** – بَرسْغَانْ *Barsγan* shahridagi ko‘l, uzunligi o‘ttiz, eni o‘n farsaxdir.

كُرُنكْ ***Körüŋ*** – كَاشْغَرْ *Kāšγar* tog‘larida بييزْ *bïγïz* da bo‘lgan bir ko‘lning oti. Atrofi o‘ttiz farsaxdir.

سِدِنكْ كُولْ ***Siδiŋ köl*** – yuqoridagiga o‘xshagan قُجِنكَارْ بَاشِى *Qočïŋar bašï* ga yaqin bir ko‘l.

يُلْدُزْ كُولْ ***Yulduzköl*** – كُجَا *Kücä,* كِيكُتْ *Kigüt* va ايْغُرْ *Uyγur* lar chegarasida bo‘lgan bir ko‘lning oti.

اَاىْ كُولْ ***Ayköl*** – اُجْ *Uč* shahri yaqinidagi bir ko‘lning oti.

تِرِنكْ كُولْ ***Teriŋköl*** – اِكّى أُكُوزْ *İki ögüz* chegarasidagi boshqa bir ko‘lning oti. Bu ko‘llarning atrofi qirq yoki o‘ttiz farsaxdir. Bu xil ko‘llar turk shaharlaridagi ko‘llardir. Men faqat musulmon shaharlaridagi ko‘llarning eng kattalarini bayon qildim.

كُولْ ***köl*** – “dengiz”. (252a) “Dengiz ko‘pigi”ga **تَنكِزْ كُبُكِى** ***teŋiz köpügi*** deyilmay, **كُولْ كُبُكِى** ***köl köpügi*** deyish shundandir.

تِيمْ ***tim*** – “ichimlik to‘la sanach”. “Ichimlik tayyorlovchi” ma’nosidagi **تِيمْجِى** ***timči*** so‘zi shundandir. Ba’zilar **تِيمْجِى** ***timči*** so‘ziga ichimlik sotuvchi deb ma’no beradilar. Avvalgisi (ichimlik tayyorlovchi) to‘g‘riroqdir. Chunki ج *čīm* va *yā* (جِى *-či, -čï*) hunarmandni anglatadi.

سِيمْ سِيمْرَاقْ ***sïm-sïmraq*** – ovqatning bir turi. Kalla qaynatilib pishirilgach, mayda qilib to‘g‘raladi, so‘ng dorivorlar bilan birga idishga solinadi va ustiga achigan qatiq solinib, u singigach, yeyiladi (chigillar so‘zi).

قُومْ ***qom*** – “tuya poloni; yuk ortiladigan egari”. Bu tuyaning yopig‘i, yelpo‘shi olinib, ichiga somon tiqilib, atrofini tuya o‘rkachiga yetgancha ko‘tarilib, so‘ng tuya ustiga qo‘yiladi. Uni **تقْىْ قُومِى** ***teväy qomï*** deyiladi, “tuya poloni” demakdir.

قُومْ ***qom*** – “suv to‘lqini”.

(Shoir) shunday degan:

كُلُمْ قُومِى قُبْسَا قَلِى تَامِغ اِتَارْ ***Kölüm qomï qopsa, qalï tamïγ itär,***
كُرْسَا اَنِى بِلْكَا كِيشِى سُوزْكَا بُتَارْ ***Körsä anï bilgä kiši sözkä bütär.***

Aytmoqdaki: “Agar ko‘lim to‘lqinlansa, uylarimni urib, joyidan qo‘zg‘atib yiqitib yuboradi, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan esli kishi so‘zimga ishonadi”.

نُومْ *nom* – “din va shariat”; bundan olinib **تَنـكْرِى نُومِى *täŋri nomï*** deyiladi, “Xudoning dini va shariati” demakdir. Hamma dinlarga ham **نُومْ *nom*** deyiladi. Bu صِين *ṣīn* liklar so‘zidir.

ن *n* [harfi]:

تُونْ *ton* – “kiyim”.

تُونْ *tun* – “tinchlanish”; **كُنـكُلْ تُونْ بُلْدِى *köŋül tun boldï*** – “ko‘ngil tinchlandi”.

[**تُونْ *ton***] **تُونْ اُغُولْ *ton oγul*** – “xotinning to‘ng‘ich bolasi”; birinchi tug‘ilgan bola, xoh o‘g‘il, xoh qiz bo‘lsin. “To‘ng‘ich qiz”ni **تُونْ قِيزْ *ton qïz*** deyiladi. Xotinning birinchi eriga **تُونْ بَكْ *ton beg*** deyiladi.

[**تِينْ *tïn***] **تِينْ كِشِى *tïn kiši*** – “biror ish bilan shug‘ullanmovchi, bekorchi kishi”. Shuningdek, bu so‘z bir necha kun dam olib, yalqovlashgan hayvonga ham qo‘llanadi.

تِينْ *tin* – “no‘xta, yugan, tizgin”.

[**چِينْ *čïn***] **چِينْ سُوزْ *čïn söz*** – “chin so‘z”.

[**چِينْ *čïn***] **چِينْ كِشِى *čïn kiši*** – “ishonchli, to‘g‘ri kishi”.

[**خُونْ *xun***] **خُونْ اِيشْ *xun ïš*** – “yoqimsiz, qo‘pol ish”; **خُونْ خَرَا اِيشْلَمَا *xun xara ïšlama*** (152b) – “noma’qul ish qilma”.

[**سُونْ *sun***] **سُونْ كِيشِى *sun kiši*** – “yumshoq fe’lli, ko‘ngli toza kishi”.

[**سُونْ *sun***] **سُونْ اَلْتُونْ *sun altun*** – “yaxlit oltin”. Bu bir barmoq uzunligidan bir gaz uzunligicha bo‘lishi mumkin.

سِينْ *sïn* – “qomat, gavda”. Bu so‘zdan olib, **بُوذلُغْ سِينْ لِغْ كِيشِى *boδluγ-sïnlïγ kiši*** (“uzun bo‘yli kishi”) deyiladi. “Go‘r”ni **سِينْ *sïn*** deyish ham go‘rning bo‘yi, uzunligi – kishining bo‘yiga tengligidandir.

سِينْ *sïn* – “go‘r”.

قَاتُونْ سِينِى *Qatun sïnï* – تَنُكُتْ *Täŋüt* bilan صِينْ *Ṣīn* orasidagi bir shahar oti.

سِينْ *sin* – “sen” (kanjak qabilasi tilida). Turklar **سَنْ *sen*** deydilar. Kanjaklar ko‘p so‘zlarni kasrali qilib so‘zlaydilar. Shuning uchun ularning so‘zlarida noaniqlik bor.

Yuqori صِينْ *Ṣīn* (الصين العليا)gacha bo‘lgan qabilalar: chigil, yag‘mo, tuxsi tillarida so‘zlarni ko‘proq peshli talaffuz qiladilar. O‘g‘uzlar, qipchoq, suvorin va رُومْ *Rūm*ga qadar bo‘lgan joylarda yashovchilar *fatḥa* qilib so‘zlaydilar. Chunonchi, turklar tuyani *kasra* bilan **تَقَىْ *tewäy*** deydilar. O‘g‘uzlar va yuqorida ularga qo‘shib aytilgan qabilalar **تَوَا *tewä*** deydilar. Turklar *dāl* harfini *kasra* qilib, **بَرْدِمْ *bardïm*** deydilar. Bu qoidaga muvofiqdir. O‘g‘uz va boshqalar *dāl* ni *fatḥa* qilib, **بَرْدَمْ *bardam*** deydilar. Bu qoidaga ziddir. Lekin arg‘ular *dāl* harfini o‘tru (pesh) qilib, **كَلْدُمْ *keldüm*, بَرْدُمْ *bardum*** deydilar. Bularning hammasi o‘tgan zamon fe’lidandir. Bu qoidadan uzoqroq. Bu toifalar orasidagi farq shunda.

شِينْ *šïn* – “taxt” (chigillar so‘zi).

قُونْ *qon* – “qo‘y” (arg‘ular so‘zi). Bu so‘zda *nūn* harfi *yā* o‘rniga almashgan. Bu xil qoida yuqorida bayon qilingan edi.

قِينْ *qïn* – “qilich va pichoq qini”.

كُونْ *kön* – “faqatgina otning terisi”. Shu bois **اَت كُونِى *at köni*** deydilar. Ba’zan bu so‘z odam terisiga ham qo‘llanadi. Chunonchi, **اَنِكْ كُونِى قُرِيدِى *anïŋ köni qurïdï*** deyiladiki, “u o‘ldi” demakdir. Bu so‘z istiora asosida tuya terisiga ham qo‘llanadi: **تَوَىْ كُونِى *tewäy köni*** – “tuya terisi” kabi. Bu – teriga ishlov bermasdan oldingi holat. Ishlov berilgach, **قِغُوشْ *qïɣuš*** deb ataladi. (253a)

م *m* [harfi]:

مُونْ *mün* – “kasallik; qusur”; **مُونْ كِشِى *mün kiši*** – “qusurli kishi”. Maqolda (shunday kelgan): **يَلِنكُقْ اُغْلِى مُونْ سُزْ بُلْمَاسْ *Yalïŋuq oɣlï münsüz bolmas.*** Ma’nosi: “Inson bolasi qusursiz bo‘lmaydi”.

Bu bo‘limning *maṭvī* xili

ب *b* [harfi]:

بُويْ *boy* – yeyiladigan bir turli o‘simlik (o‘g‘uzlar so‘zi).

بُويْ *böy* – bir turli o‘rgimchak. Bu so‘zning **بُوكْ *bög*** shakli ham bor; to‘g‘risi shudir.

بُويْ *boy* – (yo‘g‘on unli (ya’ni [*o*]) bilan – بالاشباع) “xalq; qabila; zurriyot; nasl” (o‘g‘uzcha). Bir-birini tanimagan ikki kishi uchrashib qolsa, dastlab bir-biriga salom beradi, so‘ng **بُويْ كِمْ *boy kim?*** deb so‘rashadi, “elating, qabilang kim, qaysi elatdansan?” demakdir. So‘ralgan kishi bunga javoban: elatim **سَلْغُرْ *salɣur*** (“elatim salg‘ur qabilasi”) deydi yoki kitob boshida zikr qilingan qabilalardan birortasining otini aytib javob beradi. So‘ng ular o‘zaro so‘zlashishga boshlaydilar yoki o‘z yo‘llariga ketadilar. Shunday qilib, ular bir-birlarining urug‘-aymog‘ini bilib olishadi.

تُويْ *toy* – “qo‘shinning turar joyi”; shundan olinib, **خَانْ تُويْ *xan toy*** – “xonning qo‘shini turadigan joy” deyiladi. Buni o‘g‘uzlar bilmaydilar.

[**تُويْ *toy***] **تُويْ اُتِى *toy otï*** – dori qilinadigan bir turli o‘tning oti.

تُويْ *toy* – “sopol idish qilinadigan loy”. Shundan olinib, “qozon tuvog‘i”ga ham **تُويْ اَشِجْ *toy ešič*** deydilar.

تُويْ *toy* – tuy deyilgan qush. Bu ذ *δāl* harfini *yā* ga almashtiruvchilar tilidadir. Bu so‘z **تُوذْ *toδ*** shaklida ham talaffuz qilinadi (chigilcha).

قُويْ *qoy* – “qo‘y”.

قُويْ يِلِى *qoy yïlï* – turklarning o‘n ikki yil otlaridan biri.

قُويْ *qoy* – “to‘nning qo‘yni”; **اَلِكْ قُويْقَا سُقْ *elig qoyqa suq*** – “qo‘lingni to‘nning qo‘yniga suq”.

قُويْ *quy* – “vodiyning tekis joyi”.

Bu bo‘limning *miṯāl* turi

ب *p* [harfi]:

يَابْ يُوبْ *yap-yup* – “hiyla, aldov”; **يُوبْ *yup*** so‘zi ayrim holda qo‘llanmaydi, faqat birga qo‘llanadi.

O‘g‘uzlar shundan olib, اُلْ اَنِی یُوبْلَادِی ***ol anï yupladï*** deydilar, “u uni aldadi” demakdir.

ت ***t*** [harfi]:

یُوتْ ***yut*** – “qishda sovuqdan hayvonlarni o‘ldiradigan tabiiy ofat; yut”.

ر ***r*** [harfi]:

یَارْ ***yar*** – “sel o‘yib ketgan chuqur yer; jar”.

یِیرْ ***yer*** – “yer; yer yuzi”.

یِیرْ ***yer*** – enning bir yuzi, bir tomoni yoki arqog‘ning bir yuzi. (253b) Yoki shunday bir rangki, undagi ranglardan biri quyuq, boshqasi sezilar-sezilmas holda bo‘ladi. Chunonchi, یَشِلْ یِیرْلِکْ بَرْچِنْ ***yašïl yerlig barčïn*** – “yashil rangi quyuq bo‘lgan ipak kiyimlik”. Bunda yashil ustun bo‘lib, boshqa ranglar unchalik emas.

یِیرْ ***yïr*** – “g‘azal, maqom, kuy” (الغزل و الغنا).

ز ***z*** [harfi]:

یُوزْ ***yüz*** – “yuz”. Maqolda (shunday kelgan): یُوزْکَا کُورْمَا اَرْدَمْ تِلَا ***Yüzkä körmä, erdäm tilä.*** Ma’nosi: “Yuzning ko‘rkli-ko‘rksizligiga qarama, kishining odobiga, xulqiga e’tibor ber”. Bu maqol عصام *İsam* ning انما المرء باصغریه بقلبه ولسانه degan iborasi kabidir.

یِیزْ ***yiz*** – bir turli o‘t. Bu qamishdan ingichka, unga qaraganda yumshoq bo‘ladi. Ko‘chmanchilar bundan o‘tov tepasini yopishda foydalanadilar.

ش ***š*** [harfi]:

یَاشْ یُوشْ ***yaš-yuš*** – “sabzavot”. Bu so‘zlar qo‘shaloq holda qo‘llanadi; یُوشْ ***yuš*** ning bir o‘zi ayrim qo‘llanmaydi.

یِیشْ ***yïš*** – “tushish”. Shundan olinib, اَرتْ یِیشْ ***art yïš*** (“chiqish va tushish”) deyiladi.

غ ***γ*** [harfi]:

یُوغ ***yoγ*** – o‘lik ko‘milgandan so‘ng qaytganlar uchun uch yoki yetti kungacha beriladigan ovqatning oti.

ق ***q*** [harfi]:

یَاقْ یُوقْ ***yaq-yuq*** – “idish yuqi”. Shundan olinib, ایَاقْ یُقِی ***ayaq yuqï*** – “idish yuqi” deyiladi. “Uzoq qarindoshlar”ga یَاقْ یُوقْ قَدَاشْ ***yaq-yuq qadaš*** deyish ham shundan olingan.

یُوقْ ***yoq*** – “yo‘q” ma’nosidagi so‘z; اُلْ مُنْدَا یُوقْ ***ol munda yoq*** – “u bu yerda yo‘q”.

ک ***g*** [harfi]:

یُوکْ ***yüg*** – “qush pati”.

یِیکْ ***yig***: یُکُونْ یِیکِی ***yügün yigi*** – “yugan so‘lig‘i”.

یِیکْ ***yeg*** – “juda yaxshi” ma’nosidagi so‘z. Bu narsaning boshqasidan ortiqligi ma’nosini anglatadi. Chunonchi, بُو اَتْ انْدَا یِیکْ ***bu at anda yeg*** – “bu ot undan yaxshi” demakdir.

[يِيگ *yig*] يِيگ اَتْ ***yig et*** – “pishmagan xom go‘sht”. “Har bir xom narsa”ga ham يِيگ ***yig*** deyiladi.

يِيگ ***yik*** – (jarangsiz *kāf* (ya’ni [*k*]) bilan – بالكاف الصلبة) “dug”; *alif* bilan qo‘llanuvchi اِيگ ***ik*** shakli ham bor. Bu arab tilida المعى و يلمعى النددد و يلندد so‘zlaridagi harf almashinishi kabidir. (254a)

ل ***l*** [harfi]:

يُولْ ***yol*** – “yo‘l”. Bu so‘z safar qilish ma’nosida ham qo‘llanadi; اَنگَرْ يُولْ چِقْتِى ***aŋar yol čïqtï*** – “unga yo‘l chiqdi”. Bu to‘satdan yo‘lga chiqish lozim bo‘lganda so‘zlanadi.

يُولْ ***yul*** – “buloq ko‘zi”.

يِيلْ ***yel*** – “shamol”.

يِيلْ ***yel*** – “jin”; اَرْ يَلْپِنْدِى ***er yelpindi*** – “kishiga shamol tegdi; jin tegdi”.

م ***m*** [harfi]:

يِيمْ ***yem*** – “yemak, taom”; يِيمْ كَلْدُرْ ***yem keldür*** – “yemak keltir”.

ن ***n*** [harfi]:

[يُونْ ***yun***] يُونْ قُشْ ***yun quš*** – “tovus”.

يُونْ اَرِقْ ***Yonarïq*** – بَلَاسَاغُونْ *Balasayun* yaqinidagi bir yaylov oti.

يِينْ ***yin*** – “kishi gavdasi”.

vāv li so‘zlarning boshi va o‘rtasi harakatli bo‘lgan فَعَل *fa’al* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ب ***p*** [harfi]:

تَابْ ***tap*** – “teridagi yara yoki kaltak izi”.

[تَابْ ***tap***] اُلْ اَنِى تَابْ تُوبْ اُرْدِى ***ol anï tap-tup urdï*** – “u uning har tomoniga tez-tez (tapillatib) urdi”.

سَابْ ***sap*** – “qilich yoki pichoq sopi”. Maqolda (shunday kelgan): اُغْلَانْ اِيشِى اِيشْ بُلْمَاسْ اُغْلَاقْ مُنگْزِى سَابْ بُلْمَاسْ ***Oγlan ïšï ïš bolmas, oγlaq möŋzi sap bolmas.*** Ma’nosi: “Bolalar ishini ish deb bo‘lmaydi, echki shoxi yaxshi sop bo‘lmaydi”.

سَابْ ***sap*** – (biror) so‘zga beriladigan javobdagi navbat. Tegirmon tortish, yer sug‘orishdagi navbatga ham shu so‘z qo‘llanadi; اُلْ سُوزْگَالِى سَابْ بِيرْمَاسْ ***ol söz(lä)gäli sap bermäs*** – “u so‘zlashga navbat bermaydi”. Tegirmon tortish va boshqalarga qo‘llanadigan سَنِگْ سَابْ كَلْدِى ***seniŋ sap keldi*** – “sening navbating, sening galing keldi” shundandir.

[شَابْ شَابْ ***šap-šap***] اُلْ اَنِى شَابْ شَابْ بُيُنْلَدِى ***ol anï šap-šap boyunladï*** – “u uning bo‘yniga shap-shap urdi”; اُلْ قَاغُونُغْ شَابْ شَابْ يِيدِى ***ol qaγunuγ šap-šap yedi*** – “u qovunni shapillatib yedi”. Shaftoli va boshqa suvli narsalarni yeyishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

Bu so‘z arabchaga muvofiqdir. Chunki الشيب arabcha so‘z bo‘lib, lablardan chiqqan shipillash tovushidir.

قَابْ ***qap*** – “mesh, sanach”.

قَابْ ***qap*** – “g‘ilof, qop”. (254b) Har bir ustki o‘rovga ham **قَابْ** ***qap*** deyiladi. Bu so‘z arabcha اَلفرس so‘zi kabidir. Aslida gardanga urish ma’nosida bo‘lgan bu so‘z, so‘ng har qanday o‘ldirishga ham qo‘llangan.

قَابْ ***qap*** – ona qornida bola o‘ralib turgan parda, xalta. Agar bola shu parda bilan tug‘ilsa, qutlug‘ deb fol qilinadi. Uni **قَابْلِغْ أُغُلْ** ***qaplïγ oγul*** deb ataladi.

قَابْ ***qap*** – “yaqin”. Istiora yo‘li bilan **اُلْ مَنِكْ بِرْلَا اُيَا قَابْ اُلْ** ***ol meniŋ birlä uya qap-ol*** deyiladi, “u men bilan bir qorindan tug‘ilgandek yaqin” demakdir.

ت ***t*** [harfi]:

جَاتْ ***čat*** – “quduq” (o‘g‘uzcha).

قَاتْ ***qat*** – tikanli bir daraxtning mevasi; **اَفِلْغُو قَاتِى** ***awïlγu qatï*** – “bir dengiz o‘simligining mevasi”; **سِنجْغَانْ قَاتِى** ***sïnčγan qatï*** – “tikanli daraxt mevasi”dir. Uni siqib qatiqqa aralashtiriladi, so‘ng tutmochga rang berish uchun unga qo‘shiladi. Yamak, qipchoq, qay, tatar, chumul qabilalari tilida har qanday daraxt mevasiga ham **قَاتْ** ***qat*** deyiladi.

ج ***č*** [harfi]:

سَاجْ ***sač*** – “tova”.

ذ ***δ*** [harfi]:

قَاذْ ***qaδ*** – kishini o‘ldiradigan qattiq bo‘ron; **قَاذْ بُلْدِى** ***qaδ boldï*** – “bo‘ron qo‘zg‘aldi”. Bu hodisa tog‘larda, ochiq yerlarda qishda ham, yoz oylarida ham kuzatiladi.

(Shoir) shunday degan:

كَلْدِى اَسِنْ اَسْنَيُو	***Keldi esin esnäyü,***
قَاذْقَا تُكَلْ اُسْنَيُو	***Qaδqa tügäl ösnäyü.***
كِرْدِى بُذُنْ قَسْنَيُو	***Kirdi boδun qasnayu,***
قَرَا بُلِيتْ كُكْرَشُورْ	***Qara bulït kökräšür.***

Aytmoqdaki: “To‘polon bilan shamol esdi. U sovuqligidan xuddi bo‘ronga o‘xshaydi. Kishilar undan qaltiradi. Qora bulutlar gumburlashdi”.

ر ***r*** [harfi]:

بَارْ ***bar*** – “bor”; narsaning borligini, o‘z joyida ekanini anglatuvchi so‘z. Chunonchi, birov-birovga **سَنْدَا يَرْمَاقْ بَارْمُو** ***sendä yarmaq barmu?*** – “senda pul tanga bormi?” desa, unisi **بَارْ** ***bar*** deb aytadi, “ha, menda u bor” demakdir. Bu so‘z arabcha لَيسَ ning antonimi bo‘lib, turkchasi **يُوقْ** ***yoq*** dir.

[**بَارْ** ***bar***] **بَارْ يِكْدَا** ***bar yigdä*** – “yirik jiyda”.

تَارْ ***tar*** – “tor; har qanday tor narsa”; **تَارْ اَقْ** ***tar ew*** – “tor uy”. Boshqa narsalar uchun ham shunday deyiladi.

تَارْ ***tar*** – kichik suvlarda qo‘llanadigan oddiy qayiq. Bu shundayki, bir necha meshlar damlanib shishiriladi. (255a) So‘ng og‘zi bog‘lanib, bir nechasi bir-biriga birlashtiriladi. Suv ustida tomga o‘xshash bir narsa hosil qilinadi. So‘ng

uning ustiga o‘tirilib, suvdan o‘tiladi. Shuningdek, qamish va shoxlardan ham shunday narsa yasaladi (yabaqu va tatarlar so‘zi).

تَارْ *tar* – “yog‘ quyqasi”; bu – yog‘ eritilib olingach, qozon tagida cho‘kib qolgan quyqadir.

تَارْ *ter* – “ish haqi”; “biron haq evazigaa ishlovchi”ni **تَرْچِى *terči*** deyish shundandir.

تَرْچِى *terči* (***ter?***) – “ter”.

جَارْجَرْمَقْ *čar-čarmaq* – “bola-chaqalar”.

قَارْ *qar* – “qor”.

زْ *z* [harfi]:

بَازْ *baz* – “begona, yot; g‘arib”; **يَاتْ بَازْ يَذْلِدِى *yat-baz yaδïldi*** – “begonalar tarqalishdi”.

تَازْ *taz* – “kal, tos”.

[**تَازْ *taz***] **تَازْ اَتْ *taz at*** – “terisi yo‘l-yo‘l, ola ot”.

[**تَازْ *taz***] **تَازْ قُوىْ *taz qoy*** – “shoxsiz qo‘y”.

[**تَازْ *taz***] **تَازْ يِيرْ *taz yer*** – “o‘simlik oz unadigan, oriq yer”. Maqolda (shunday kelgan): **تَازْ اَتْ تَفَارْچِى بُلْمَاسْنْ *Taz at tawarčï bolmas.*** Ma’nosi: “Terisi yo‘l-yo‘l ola otda yuk tashib bo‘lmaydi. Chunki uning tirnog‘i yomon”.

قَازْ *qaz* – “g‘oz”.

قَازْ *Qaz* – اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* qizining oti; قَزْوِينْ *Qazvïn* shahrini u qurgan. Bu so‘zning asli **قَازْاُيِنِى *qaz oynï*** – “g‘oz o‘ynaladigan joy” demakdir. Chunki u shu yerda turar va shu yerda o‘ynar edi. Shuning uchun ba’zi turklar قَزْوِينْ *Qazvïn* ni turk shaharlaridan hisoblaganlar. Shuningdek, قُمْ *Qum* shahri ham chegara hisoblanadi, chunki **قُمْ *qum*** turkcha so‘zdir. اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* ning qizi bu yerda ov qilar va o‘ynar edi. Ba’zilar turk o‘lkalarining chegarasi مَرْوَالشَاهْجَانْ *Marvaš-šāhijān* dan boshlanishini so‘zlaydilar. Chunki قَزْ *Qaz* ning otasi تُنكَا اَلبْ اَرْ *Toŋa Alp er* – اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* dir. U Tahmurasdan uch yuz yil keyin مَرْوْ *Marv* ni bino qilgan.

Ba’zilar butun مَا وَرَا النَهرْ *Māvarā-un-nahr* ni turk o‘lkalaridan deb hisoblaganlar. U يَنْكَنْدْ *Yenkänd* dan boshlanadi. Uning bir oti دزْرُوتِينْ *Dïzrutïn* dir. Ya’ni sariqligiga ko‘ra, “mis shahri” deyishgan. Bu بُخَارَا *Buxārā* ga yaqindir. Bu yerda اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* ning qizi – قَزْ *Qaz* ning eri سِيَاوُشْ *Sïyavuš* o‘ldirilgan. Ma’jusiy-otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, سِيَاوُشْ *Sïyavuš* bo‘lgan joy tevaragida yig‘laydilar. (255b) Mollar so‘yib, qurbonlik qiladilar. So‘yilgan mol qonini uning mozori tepasiga to‘kadilar. Ularning odati shunday. Butun مَاوَرَاالنَهرْ *Māvarā-un-nahr,* يَنْكَنْدْ *Yenkänd* dan Sharqqacha bo‘lgan o‘lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, **سَمَرْقَنْدْ *Samarqand*** aslida **سَمِزْكَنْدْ *Semizkänd,*** **تَشْكَنْدْ *Taškänd,*** bu **شَاشْ *Šaš*** dir, **اُوزْكَنْدْ *Özkänd,*** **تُنْكَنْدْ *Tunkänd*** otlarining hammasi turkchadir. **كَنْدْ *känd*** turkcha “shahar” demakdir. Ular bu shaharlarni qurishgan va shunday otlar bilan atashgan. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko‘paygach, so‘ng ular Ajam shaharlari kabi

bo‘lgan. Hozir turk o‘lkalarining chegarasi اَبِسْگُونْ *Äbisgün* dengizi bilan o‘ralgan. رُومْ *Rūm* o‘lkasidan va اُوزْجَنْدْ *Özjänd* dan صِينْ *Ṣīn* gacha cho‘ziladi. Uzunligi besh ming farsax, eni uch ming farsax, hammasi sakkiz ming farsaxdir.

قَازْ سُقِى ***Qaz suwï*** – اِيلَا *Ïla* daryosiga quyiladigan katta bir suvning oti. Shunday atalishining sababi اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* ning qizi uning qirg‘og‘iga bir shahar qurishi va bu ot unga nisbat berilishi bilan bog‘liq.

س ***s*** [harfi]:

[**قَازْ** ***qaz***] **قَازْ قِرَف** ***qaz qïraw*** – “har bir daraxtning po‘stlog‘i”. Maqolda: **قَاذِنكْ قَاسِنكَا** ***Qaδïŋ qasïŋa*** deyilgan, ma’nosi: “Qayin daraxtining po‘stlog‘i o‘ziga yarashadi”dir. Bu yerda *zā* harfi *sīn* ga almashgan. Chunki *zā* harfi so‘zda o‘zidan oldin o‘z hissasini olgan bo‘lsa ham, o‘zidan keyin *sīn* harfi kelgach, so‘zda *zā* harfiga o‘rin qolmagan. *zā* ning *sīn* ga almashinishi arabchada ham bor. Chunonchi, بوزى وَ بوصى لزق و لصق بزاق وَ بصاق lardagi singari.

ش ***š*** [harfi]:

بَاشْ ***baš*** – “bosh”.

بَاشْ ***baš*** – “yara”. Maqolda (shunday kelgan): **كُنِى بَرِرْ كَيِكْ نِكْ كُوزِنْدَا اَذِنْ بَاشِى يُوقْ** ***Köni barïr keyikniŋ közindä aδïn bašï yoq.*** Ma’nosi: “Hech qayoqqa qaramay, to‘g‘ri ketayotgan kiyikning ko‘zidan boshqa yarasi yo‘q”. Ya’ni “aslida ko‘zi yara emas” demakdir. Og‘ir ahvolga tushib qolib, har kimning malomatiga yo‘liqqan kishi haqida aytilgan. (256a)

تَاشْ ***taš*** – “tosh”.

[**تَاشْ** ***taš***] **تَاشْ تُونْ** ***taš ton*** – “ustki kiyim; to‘n”.

[**تَاشْ** ***taš***] **تَاشْ يِيرْ** ***taš yer*** – “keng yer; begona joy”.

[**سَاشْ** ***saš***] **سَاشْ اَتْ** ***saš at*** – “hurkovuch ot”.

قَاشْ ***qaš*** – “ko‘z ustidagi qosh”.

قَاشْ ***qaš*** – oq yoki qora, tiniq toza tosh; qosh toshi. Buning oqini chaqmoqdan, chanqoqlikdan, yashin urishdan saqlanish uchun uzukka ko‘z qilib taqadilar.

قَاشْ اُكُوزْ ***Qaš ögüz*** – خُتَنْ *Xotan* shahrining ikki tomonidan oqadigan ikki daryo; ularning birini **اُرُنكْ قَاشْ اُكُوزْ** ***Örüŋqaš ögüz*** deyiladi. Oq toza tosh shu yerda bo‘ladi. Bu ot ham shu toshga nisbatan berilgan; (yana) biri **قَرَا قَاشْ اُكُوزْ** ***Qaraqaš ögüz*** deyiladi. Qora toza tosh shu yerda bo‘ladi. Bu toshlar dunyoning biror yerda topilmaydi. Faqat shu yerda bo‘ladi.

قَاشْ ***qaš*** – “har narsaning cheti, yoqasi, yoni”; **يَارْ قَاشِى** ***yar qašï*** – “jar va boshqalarning yoqasi”.

غ ***γ*** [harfi]:

بَاغْ ***baγ*** – “tok”.

بَاغْ ***baγ*** – “o‘tin va shunga o‘xshash boshqa narsalarning bog‘i, bog‘lami”. Shundan olinib **اُتُنكْ بَاغِى** ***otuŋ bayï*** (“o‘tin bog‘lami”) deyiladi.

تَاغْ ***taγ*** – “tog‘”. Maqolda (shunday kelgan): **تَاغ تَاغْقَا قَشْمَاسْ كِشِى كِشِيكَا قَشْنُورْ** ***Taγ taγqa qawušmas, kiši kišikä qawušur.*** Ma’nosi: “Tog‘ tog‘ bilan

uchrashmas, chunki ular joylarida turg‘undirlar. Kishilar oradan ancha vaqt o‘tib ketsa ham, bir-birlari bilan uchrashadilar”. Bu maqol uzoq vaqtdan so‘ng o‘rtog‘ini uchratgan kishiga qarata aytiladi.

دَاغ ***daγ*** – qoramol va boshqalarga bosilgan tamg‘a. Forslar bu so‘zni turklardan olganlar. Chunki forslarda turklardagidek qoramol yo‘q. Shuning uchun bu so‘zga ularda zarurat ham bo‘lmagan. Men bu so‘zni musulmonlar hududida eshitdim.

دَاغ ***daγ*** **~ ذاغ** ***δaγ*** – “yo‘q; emas” ma’nosidadir (arg‘ucha); **اُلْ اَنْدَغ دَاغ اُلْ** ***ol anday daγ-ol*** – “u unday emas”. Keyinchalik o‘g‘uzlar “yo‘q; emas” ma’nosidagi bu so‘zni arg‘ulardan olib, **ذاغ اُلْ** ***δaγ-ol*** ni **تَگُلْ** ***tegül*** deb o‘zgartirganlar. Chunki o‘g‘uzlar arg‘ularga qo‘shni turadilar. (256b) So‘zlarida aralashish bor.

سَاغ ***saγ*** – “aql” (o‘g‘uzcha).

سَاغ ***saγ*** – “ziyraklik, tiyraklik, zehni o‘tkirlik” (o‘g‘uzcha); **سَنْدَا سَاغ يُوقْ** ***sendä saγ yoq*** – “senda ziyraklik yo‘q”.

سَاغ ***saγ*** – “sog‘liq, salomatlik”; **يِينِكْ سَاغْمُو** ***yiniŋ saγmu?*** – “taning sog‘mi?”.

[**سَاغ** ***saγ***] **سَاغ سُوقْ** ***saγ suw*** – “toza va totli suv”.

[**سَاغ** ***saγ***] **سَاغ اَلِكْ** ***saγ elig*** – “o‘ng qo‘l”; hammasi o‘g‘uzcha. Turklar [ya’ni, o‘g‘uzlardan boshqalar] bu so‘zlarni bilmaydilar.

سَاغ ***saγ*** – “yung savaydigan savag‘ich”.

[**سَاغ** ***saγ***] **سَاغ يَاغ** ***saγ yaγ*** – “sariyog‘”.

[**سَاغ** ***saγ***] **سَاغ كُنكُلْ** ***saγ köŋül*** – “ko‘nglida kiri yo‘q, oqko‘ngil kishi”.

ڤ ***w*** [harfi]:

سَاڤْ ***saw*** – “otalar so‘zi; maqol (*maṣal*)”. Chunonchi, **سَاڤدَا مُنْدَغ كَلِرْ** ***sawda munday kelir*** – “otalar so‘zida shunday keladi”.

سَاڤْ ***saw*** – “qissa (*qiṣṣa*)”.

سَاڤْ ***saw*** – “hikoya (*ḥikāya*)”.

سَاڤْ ***saw*** – “risola; maktub (*risāla*)”.

سَاڤْ ***saw*** – “so‘z, nutq (*kalām*)”.

سَاڤْ ***saw*** – xabarlar va yangiliklar (*anbā va aḥādīṯ*). Shu boisdan “nabiy, payg‘ambar”ga **سَاڤچِى** ***sawčï*** deyiladi. Chunki u bir qancha xabarlar eshittiradi, yozilgan narsalarni yetkazadi.

سَاڤچِى ***sawčï*** – kelin va kuyovlar orasida, yuqorida aytganimdek, bir-biriga xat-xabarlar eltuvchi sovchi.

(Bilimli) shunday degan:

بِلْگَا اَرَنْ سَڤْلَرِنْ اَلْغِلْ اُكْتْ ***Bilgä erän sawlarïn alγïl ögüt,***
اَدْگُوسَڤْغْ اَدْلَسَا اُوزْكَا سِنگَارْ ***Eδgü sawïγ eδläsä özkä siŋär.***

Aytmoqdaki: “Bilag‘on kishilarning so‘z, o‘gitlaridan foydalan. Chunki yaxshi so‘z ta’sir qilgach, ko‘ngilga joylashadi”.

شَاڤْ ***šaw*** – cho‘g‘on deyiladigan ishqor kabi bir o‘t; أُچْ *uč* larda u bilan kiyimlar tozalanadi.

قَاڤْ ***qaw*** – chaqmoq chaqilganda yondiriladigan pilik.

[**قَاڤْ قُوڤْ** ***qaw-quw***] **تُونْ قَاڤْ قُوڤْ بُلْدِى** ***ton qaw-quw boldï*** – “yomon tikilishdan kiyim tortishib qoldi”.

لَاڤْ ***law*** – “muhr bosish uchun ishlatiladigan mum”.

ق ***q*** [harfi]:

قَاقْ ***qaq*** – “shaftoli va boshqa turdagi meva qoqi”.

[**قَاقْ** ***qaq***] **قَاقْ سُوڤْ** ***qaq suw*** – “to‘plangan suv”.

ك ***g*** [harfi]:

بَاكْ ***beg*** – “bek, amir”.

بَاكْ ***beg*** – “xotinning eri”; (257a) u uyida beklarga o‘xshatilgani uchun shunday atalgan.

تَاكْ ***-teg*** – o‘xshatish qo‘shimchasi (حرف تشبيه) **اُلْ اَنْدَغْ تَاكْ** ***ol andaγ-teg*** – “u o‘shanday, unga o‘xshaydi”.

جَاكْ ***ček*** – بُرْدْ burd (ipaklik) shaklidagi yopinchiq qilinadigan bir bo‘z gazlama. Uni yamaklar kiyadilar.

نَاكْ ***nek*** – “timsoh”.

نَاكْ يِلَانْ ***nek yïlan*** – “ajdaho”.

نَاكْ يِلِى ***nek yïlï*** – turklarning o‘n ikki yillaridan biri. Bu kitobni yozgan yilimiz to‘rt yuz oltmish to‘qqizinchi yil, ya’ni **نَاكْ يِلِى** ***nek yïlï*** edi.

ل ***l*** [harfi]:

بَالْ ***bal*** – “bol, asal”; suvorin va qipchoqlar tilida. O‘g‘uzlar va turklar **اَرِى يَاغِى** ***arï yaγï*** deydilar.

(Shoir) shunday degan:

بَرْدِى سَنَكَا يَاكْ اُوتْرُو تُتُبْ بَالْ ***Bardï seŋä yek otru tutup bal,***
بَرْجِنْ كَذِبَنْ تَلُويُقْغَا بُلُبْ قَالْ ***Barčïn keδipän telü yuwγa bolup qal.***

Aytmoqdaki: “Shayton seni uchratdi, senga asal tutib, dunyo shirinligi, rohatini berdi. Mag‘rur bo‘lib ipakli kiyimlar kiyding. Agar uning aldovini tushunmayotgan bo‘lsang, shunday qolib rohatlanaver”.

تَالْ ***tal*** – “ho‘l novda”. Odamni ham yumshoqlikda tolga o‘xshatib, **تَالْ بُوذْلُغْ** ***tal boδluγ*** deydilar. Bu so‘z ko‘pincha nozik va xushqomat joriyalarga qo‘llanadi.

جَالْ قُوىْ ***čal qoy*** – “ola-bula qo‘y”.

سَالْ ***sal*** – “novda yoki meshlardan yasalgan yengil qayiq, sol”. **تَارْ** ***tar*** so‘zi ham shu ma’nodadir.

سَالْ ***sal*** – yelim va boshqa narsalardan tayyorlanadigan yaltiroq narsa; صِينْ *ṣīn* idishi va boshqalarga surtilib, so‘ng uning ustidan naqsh beriladi.

م *m* [harfi]:

تَامْ *tam* – “devor”.

اَمْ سَامْ *em-säm* – “dori”; **سَامْ *säm*** so‘zi yolg‘iz qo‘llanmaydi. Har vaqt qo‘shaloq holda qo‘llanadi.

قَامْ *qam* – “afsungar, kohin”.

ن *n* [harfi]:

تَانْ *tan* – “tongda esgan va kechki sovuq shamol”.

خَانْ *xan* – “turklarning eng katta boshliqlari”. اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* ning bolalari ham **خَانْ *xan*** deb yuritilar edi; اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* **خَاقَانْ *xaqan*** dir. Bu nom bilan atalish voqeasi haqida uzun hikoya bor.

سَانْ *san* – “son, adad”; (257b) **قُوىْ سَانِى نَجَا *qoy sanï nečä?*** – “qo‘yning soni, sanog‘i qancha?”.

قَانْ *qan* – “qon”. Maqolda (shunday kelgan): **قَانِغْ قَانْ بِرْلَا يُومَاسْ *Qanïγ qan birlä yumas.*** Ma’nosi: “Qonni qon bilan yuvilmaydi, ya’ni to‘polon kelishuv bilangina tinchitiladi” demakdir.

مَانْ قِشْلَاغ *Manqïšlaγ* – o‘g‘uz o‘lkalaridagi bir joyning oti.

مَانْ كَنْدْ *Mankänd* – كَاشْغَارْ *Kāšγar* yaqinidagi bir shaharning oti; keyinchalik xarob qilingan.

[**مَانْ *man***] **مَانْ يَاشْلِغْ قُوىْ *man yašlïγ qoy*** – “to‘rt yashar qo‘y”. Bu so‘z qo‘ydan boshqa hayvonga qo‘llanmaydi.

Oxirgi harfi illatli bo‘lgan so‘zlar

ب *b* [harfi]:

بَايْ *bay* – “boy”.

بَايْ يِغَاجْ *Bay yïγač* – اُجْ *Učˇ* shahri yaqinida كُجَا *Küčä* bilan اُجْ *Učˇ* orasidagi bir joyning oti.

ت *t* [harfi]:

تَايْ *tay* – “toy, toychoq”.

(Shoir) shunday degan:

تَكُرْ مَنِكْ سَافِمِى بِلْكَالكَا اَىْ ***Tegür meniŋ sawïmï bilgälikä ay,***
تِنَرْ قَلِى اَتَتْسَا / اَتِتْسَا قِسْرَقْ سِنِى تَايْ ***Tïnar qalï atatsa / atïtsa qïsraq sini tay.***

Aytmoqdaki: “Mening so‘zimni oqillarga yetkaz. Agar biyaning toychog‘i ot bo‘lsa, biya tinadi. Chunki onasi o‘rniga uni miniladi”.

س *s* [harfi]:

سَايْ *say* – “toshli yer”.

[**سَايْ *say***] **سَايْ يَرِقْ *say yarïq*** – “badanga kiyiladigan sovut”.

قَايْ *qay* – bir toifa turkiy qabilalar.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ب ***p*** [harfi]:

yap-yup يَابْ يُوبْ – “hiyla, aldov”; ***yap-yup qïldï*** يَابْ يُوبْ قِلْدِى – “hiyla qildi, aldadi”.

ت ***t*** [harfi]:

[يَاتْ ***yat***] ***yat kiši*** يَاتْ كِشِى – “yot kishi”. Shundan olinib, ***yat-baz yaδïl*** يَاتْ بَازْ يَذْلْ – “yot-begonalar tarqalsin” deyiladi.

yat يَاتْ – yomg‘ir va shamol keltirish uchun toshlar bilan qilinadigan afsungarlik.

ز ***z*** [harfi]:

yaz يَازْ – “yoz”. Maqolda (shunday kelgan): ***Yazïn qatïγlansa, qïšïn sewnür.*** يَازِنْ قَتِغْلَنْسَا قِيشِنْ سَقْنُورْ Ma’nosi: “Yozda tirishgan kishi qishda sevinadi”.

س ***s*** [harfi]:

yas يَاسْ – “zarar, ziyon”; ***anïŋ telim yasï tegdi*** اَنِكْ تَلِمْ يَاسِى تَكْدِى – “uning ko‘p zarari tegdi”.

yas يَاسْ – “o‘lim; halokat”; ***anïŋ oγlï yas boldï*** اَنِكْ اُغْلِى يَاسْ بُلْدِى – “uning o‘g‘li o‘ldi” (o‘g‘uzcha).

ش ***š*** [harfi]:

yaš يَاشْ – “ko‘z yoshi”; ***közüm yašï aqdï*** (258a) كُزُومْ يَاشِى اَقْدِى – “ko‘zimning yoshi oqdi”.

yaš يَاشْ – “ko‘kat”; ***yaš yedim*** يَاشْ يِيدِمْ – “ko‘kat yedim”.

yaš يَاشْ – “har qanday narsaning yangisi, tozasi”; bundan olinib ***yaš et*** يَاشْ اَتْ deyiladi, “yangi go‘sht” demakdir.

غ ***γ*** [harfi]:

yaγ يَاغْ – “yog‘; urug‘ va o‘simliklar yog‘i”.

saγ yaγ سَاغْ يَاغْ – “sariyog‘”; o‘g‘uzlar “charvi”ni ***yaγ*** يَاغْ deydilar.

ق ***q*** [harfi]

yaq-yuq يَاقْ يُوقْ – “idish yuqi”. “Uzoq qarindoshlar”ga ***yaq-yuq qadaš*** يَاقْ يُوقْ قَدَشْ deyish ham shundan olingan. Uning bizga yaqinligi “idish yuqi kabidir” degan ma’noda.

ک ***k*** [harfi]:

yek يَاكْ – “shayton”. Maqolda (shunday kelgan): ***Bilmiš yek bilmäδük kišidän yeg.*** بِلْمِشْ يَاكْ بِلْمَاذْكْ كِشِيدًا يِيكْ Ma’nosi: “Tanish shayton notanish kishidan yaxshi”. Bu maqol tanishlar hurmatini saqlashga undab aytiladi.

yal يَالْ – “yol”; hamma turkiy tillar (qabilalar tillari)da “yol bitadigan joy, a’zo” ma’nosidadir; ***at yalï*** اَتْ يَالِى deganda shu ma’noda qo‘llanadi.

م ***m*** [harfi]:

yam يَامْ – ko‘z va boshqa narsalarga tushgan xas, cho‘p.

ن ***n*** [harfi]:

yan يَانْ – son suyagining bosh qismi; “son suyagi”ga ham ***yan*** يَانْ deyiladi.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

يَاىْ *yay* – “bahor, ko‘klam”. Maqolda (shunday kelgan): **كُوزْ كَلِكِى يَايِنْ بَلْكُولُكْ *Küz keligi yayïn belgülüg.*** Ma’nosi: “Kuzning qanday kelishi ko‘klamdan ma’lum”. Bu maqol oxiri boshidan bilinadigan ishlar haqida qo‘llaniladi.

(Donishmand) shunday degan:

يَاىْ كُرْكِنكَا اِنَنْمَا	***Yay körkiŋä ïnanma,***
سُقْلَرْ اُزَا تَيَنْمَا	***Suwlar üzä tayanma.***
اَسِزْلِكِكْ اَنُنْمَا	***Esizligig anunma,***
تِلْدَا جِقَارْ اَدْكُو سُوزْ	***Tïlda čïqar eδgü söz.***

Aytmoqdaki: “Ko‘klamning ko‘rkiga, uning rang-barang chechaklariga, chiroyiga ishonma, undan yaxshilik umid qilma. Suvga tayanma, chunki dunyo ne’matlarining shirinligiga, ko‘klam go‘zalligiga suyangan kishilar suvga suyangan kabidirlar. Yomon ot qozonma. Tilingdan doim kishilar sendan minnatdor bo‘ladigan yaxshi so‘zlar chiqar”.

Qoida: bu bob va boshqalarni [shunga o‘xshashlarni] *manqūṣ* deb atadik. Chunki bu bobdagi so‘zlar o‘rtasidagi cho‘ziq harf – *harfi līn* tushadi. U vaqt yozuvda emas, talaffuzda ikki harfli so‘zga aylanadi. (258b) Chunonchi, “qo‘l” ma’nosidagi **قُلْ *qol*** so‘zi aslida **قُولْ *qol*** shaklida talaffuz qilinishi kerak edi. Lekin bu so‘zni **اَنِكْ قُلِنْ اَلْدِى *anïŋ qolïn aldï*** (“uning qo‘lini ushladi”) deganda, *vāv* tushib **قُلْ** so‘ziga o‘xshab talaffuz qilinadi. “Shamol” ma’nosidagi **يِلْ *yel*** so‘zi ham **اَنِكْ يَلِى كُوجْلُكْ *anïŋ yeli küčlüg*** (“uning shamoli kuchli”) deganda, so‘zlashuvda *yā* harfi tushiriladi; so‘z *yïl* – “yil” ma’nosidagi **يِلْ** ga o‘xshab qoladi. Bu *manqūṣ* bo‘limidagi har bir ism va fe’llarda uchraydi. Bu xususiyat arabcha so‘zlarda, fe’llarda uchraydi. Arabcha زَان يَزِين كَالَ يكيل fe’llaridan كل زن buyruq shakli yasalib, o‘rtadagi yengil harf tushiriladi. Turkchada bu xususiyat yolg‘iz fe’llarda emas, ismlarda ham tushiriladi. Arab tilida bu holat ismlarda emas, faqat fe’llarda uchraydi. Buni yaxshi bilib ol.

فَعَل *fa’al* o‘zagidan yasalgan *vāv* li so‘zlar

قِزِلْ جُوتْ / جُوِتْ *qïzïl čüvüt / čüvit* – “qizil rang; qizil bo‘yoq”.
اَلْ جُوتْ / جُوِتْ *al čüvüt / čüvit* – “malla rang”.
كُوكْ جُوتْ / جُوِتْ *kök čüvüt / čüvit* – “to‘q ko‘k”.
يَاشِلْ جُوتْ / جُوِتْ *yašïl čüvüt / čüvit* – “yashil rang, zangori”.
سَارِغْ جُوتْ / جُوِتْ *sarïγ čüvüt / čüvit* – “zirnix”. **جُوتْ *čüvüt*** so‘zi jarangli ڤ *w* (بالڤاء الركيكه) bilan **جُڤْتْ *čüwüt*** shaklida ham talaffuz qilinadi. Bilgilki, **جُوتْ / جُوِتْ *čüvüt / čüvit*** so‘zi bu ranglarning hammasi uchun umumiy so‘z bo‘lib, so‘ng unga ayrim ranglarni anglatuvchi so‘zlar qo‘shilib, farq qilinadi.

قَوُتْ ***qavut:*** **قَاغُوتْ** ***qaɣut*** shakli ham bor. Yangi tuqqan xotinlar ovqati. Qovurilgan tariq; uni yog‘ va shakarga qorib yeyiladi.

ج ***č*** [harfi]:

قُوُجْ ***qovuč*** – jin tegish asari. Bunday kishilar yuziga sovuq suv sepilib, **قُوُجْ قُوُجْ** ***/qovuč-qovuč*** / **قُوِجْ قُوِجْ** ***qovïč-qovïč*** deyiladi. So‘ng **اُزَرْلِكْ** ***özärlik*** deyiladigan o‘t va **اُودْ** ***ud*** deyilgan xushbo‘y o‘simlik tutatiladi. **قُوُجْ قُوُجْ** ***qovuč-qovuč*** so‘zi **قَجْ قَجْ** ***qač-qač*** so‘zidan olingan bo‘lsa kerak; “ket; daf bo‘l” degan ma’noda deb hisoblayman.

[**كُوُجْ** ***küvüč***] **كُوُجْ يُكُونْ** ***küvüč yügün*** – “no‘xta”.

ز ***z*** [harfi]:

[**قُوُزْ** ***qovuz***] **قُوُجْ** ***qovuč*** so‘zi o‘rnida o‘g‘uzlar **قُوُزْ** ***qovuz*** so‘zini qo‘llaydilar. Chunonchi, **يِيلْ قُوُزْ بِتِكِى** ***yel qovuz bitigi*** deyiladiki, “jin tegishga qarshi duo tumori” demakdir. (259a)

قُوُزْ ***qovuz*** – sharbatga tushgan xas-cho‘p; **قُوُزْ سُخِكْ دَنْ كَتَارْ** ***qovuz sučigdän ketär*** – “sharbatdan xas-cho‘pni ketkaz, olib tashla”.

كُوُزْ ***kövüz*** – yungdan to‘qilgan, yerga solinadigan har qanday polos, gilam, sholcha, namat.

يُوُغ ***yuvuɣ*** – sellar tog‘dan yumalatib, yuvib tushirgan katta tosh bo‘laklari. Bu so‘zning **يُقْغْ** ***yuwuɣ*** shakli ham bor.

ق ***q*** [harfi]:

سُوُقْ / **سُوُقْ** ***suvuq*** / ***suvïq*** – har bir suyuq narsa, chunonchi, suyultirilgan qatiq, suzma, shirinliklar; **سُوُقْ يُغُرْتْ** / **سُوُقْ** ***suvuq*** / ***suvïq yoɣrut*** – “suyuq qatiq”.

[**سُوُقْ** / **سُوُقْ** ***suvuq*** / ***suvïq***] **سُوُقْ قُدْرُقْ** / **سُوُقْ** ***suvuq*** / ***suvïq quðruq*** – “uzun, lekin qili kam dum”, chunonchi, “xachir dumi” kabi. (Bargi kam) daraxt va boshqalarga ham shu so‘z qo‘llanadi (qipchoqcha).

قُوُقْ ***qovuq*** – “har qanday ichi bo‘sh narsa”. Bu so‘zning **قُقْقْ** ***qowuq*** shakli ham bor.

قَوُقْ ***qavuq*** – “siydik qopi”. Bu so‘zning **قَقْقْ** ***qawuq*** shakli ham bor.

قَوِقْ / **قَوُقْ** ***qavuq*** / ***qavïq*** – “tariq qipig‘i”. Bu so‘zdagi *vāv* jarangli **ڤ** *w* (الفا الركيكة) o‘rniga almashgan.

ك ***k*** [harfi]:

[**كُوُكْ** ***küvük***] **كُوُكْ مُوشْ** ***küvük müš*** – “erkak mushuk”.

كُوُكْ ***küvük*** – “somon” (o‘g‘uzcha).

ل ***l*** [harfi]:

تُوُلْ / **تُوِلْ** ***tovul*** / ***tovïl*** – ovda lochin uchun chalinadigan dovul – nog‘ora. Men bu so‘zni arabchadan olingan va **ط** *ṭā* harfi **ت** *tā* ga almashtirilgan deb hisoblayman. Chunki bu tovushlarning mahraji bir-biriga yaqindir. Chunonchi, arab tilida قطر قتر ham deyiladi, غلَطَ غلتَ ham deyiladi. Ular ثابت desalar, bular ثبت qilib olganlari kabidir.

Lekin men bu so‘zni turk o‘lkalarining eng quyi chekkalaridagi asl turklardan eshitdim.

Bu bo‘limning *yā* harfi bilan kelgan so‘zlari

ر ***r*** [harfi]:

قَيِرْ *qayïr* – turklar tilida “yumshoq yer”. O‘g‘uzlar “qum”ni **قَيِرْ *qayïr*** deydilar.

ش ***š*** [harfi]:

تَوُشْ *tavuš* – “sas va harakat”. Bu so‘zning **تَفْشْ *tawïš*** shakli ham bor.

غ ***γ*** [harfi]:

[**تَيِغْ *tayïγ***] **تَيِغْ يِيرْ *tayïγ yer*** – “toyg‘oq yer”.

تُيَغْ *tuyaγ* – “tuyoq”; **اَتْ تُيَغِى *at tuyaγï*** – “ot tuyog‘i”.

[**قُيُغْ *quyuγ***] **قُيُغْ نَانَكْ *quyuγ näŋ*** – “oqadigan narsalarning quyug‘i”. “Uzum sharbati”ga **قُيُغْ سُجِكْ *quyuγ süčig*** deyish shundandir.

قَيِغْ *qayïγ* – o‘g‘uzlarning bir toifasi.

قُيُغْ *quyuγ* – “quduq”. Bu so‘zning **قُذُغْ *quδuγ*** shakli ham bor.

[**قَيِغْ *qayïγ***] **قَيِغْ يِيرْ *qayïγ yer*** – “yo‘ldan chetda qolgan yer va boshqalar”.

ق ***q*** [harfi]:

[**بَيِقْ *bayïq***] **بَيِقْ سُوزْ *bayïq söz*** – “to‘g‘ri so‘z” (o‘g‘uzcha).

[**تَيُقْ *tayuq***] **تَيُقْ اَرْ *tayuq er*** – “sezgir va tiyrak odam, yigit”. (259b)

تَيَقْ *tayaq* – “tayoq, suyanchiq”; **كُزَاكُو تَيَقْ بِيرْدِى *küzägü tayaq berdi*** – “kelin otdan tushar chog‘ida, suyansin deya kuyov unga joriya yoki qulni berdi”. Bu – boylarning bir odati bo‘lib, joriya yoki qullar kelinga mol sifatida beriladi. Maqolda (shunday kelgan): **تَيَقْ بِلَا تَيْمَاسْ تَنُقْ سُوزُنْ بُتْمَاسْ *Tayaq bilä taymas, tanuq sözün bütmäs.*** Ma’nosi: “Kishi tayanchiq bilan toyg‘oq yerda toymaydi, guvohning so‘zi guvohlik bergandagina bilinadi”.

[**تُيُقْ *tuyuq***] **تُيُقْ كِشِى *tuyuq kiši*** – “siqilgan, siquvga tushgan kishi”.

[**تُيُقْ *tuyuq***] **تُيُقْ كُونْ *tuyuq kün*** – “tumanli, bulutli kun”.

[**تُيُقْ *tuyuq***] **تُيُقْ قَبُغْ *tuyuq qapuγ*** – “yopiq eshik”.

قَيَقْ / قِيَقْ *qayaq* / *qïyaq* – “qaymoq”.

(Shoir) shunday degan:

سَدْرَمِشْ اُلْغُنْ قُيَاقْ ***Seδrämiš olγun qoyaq,***
سَرْمَمِشْ سُوتَنْ قَيَاقْ ***Sarmamïš süttän qayaq.***

Aytmoqdaki: “Tariq donlari siyrak bo‘lib qolgan. Sutdan qaymoq suzildi, yeyish uchun ikkovini birga pishirish kerak”.

قِيِقْ *qïyïq* – “va’daga vafo qilmovchi”. Ba’zan kishi shunday tavsif qilinadi: **قِيِقْ كِشِى *qïyïq kiši*** – “so‘zida turmaydigan kishi” kabi.

[**قِيِقْ *qïyïq***] **قِيِقْ نَانَكْ *qïyïq näŋ*** – “har bir egri-bugri narsa”; qalam va boshqa narsalarning egri kesilgan uchi kabi.

مَيَقْ *mayaq* – “tuya tezagi”. Bu so‘z tuya tezagiga xos bo‘lsa ham, istiora tarzida qo‘y tezagiga ham qo‘llangan: **قُوىْ مَيَقِى *qoy mayaqï*** – “qo‘y qumalog‘i” kabi. “Ot tezagi”ga faqat **يُنْدَقْ *yundaq*** deyiladi. Maqolda (shunday kelgan): **تَقَىْ**

تەۋەي بەدۈگ ئەرسە، مايىقى بەدۈگ ئەرمەس ***Teway bedüg ersä, mayaqï bedüg ermäs.*** Ma’nosi: “Tuya katta bo‘lgani bilan, tezagi katta emas”. Bu maqol ulug‘ kishining shogirdi bo‘lgan, o‘zini katta tutadigan kishiga nisbatan qo‘llanadi. “O‘zini ulug‘sifat ko‘rsatish senga emas, senga xo‘jayin bo‘lgan kishiga yarashadi” demakdir.

ك *k* [harfi]:

كەيىك *keyik* – har qanday yovvoyi hayvon. Bu so‘z eti yeyiladigan ohu, bug‘u, tog‘ takalariga nisbatan qo‘llanadi.

[**كەيىك *keyik***] **كەيىك كىشى *keyik kiši*** – “maymunga o‘xshagan vahshiy odam”.

[**كەيىك *keyik***] **كەيىك سۆگۈت *keyik sögüt*** – “yovvoyi daraxt”. Har qanday narsa ikki xil bo‘ladi: yovvoyi, xonaki. “Yovvoyisi”ga **كەيىك *keyik*** deyiladi.

كۆيۈك *keyük* (260a) – “namat va kigizlardan qilingan yomg‘ir yopinchig‘i”; ذ *δāl* harfini *yā* ga aylantiruvchilar tilida shundaydir.

[**كۈيۈك *küyük***] **كۈيۈك نەنگ *küyük näŋ*** – “kuygan narsa”.

ل *l* [harfi]:

[**مەيىل *mayïl***] **مەيىل يەمىشۈ *mayïl yemišü*** – shaftoli va katta qovun singarilarning pishish vaqtidan o‘tib, irishga moyil davri.

م *m* [harfi]:

قىيىم *qïyïm* – yov kelishi sababli mamlakat xalqlarida paydo bo‘lgan qo‘rqinch va tashvish. Chunonchi, **قورقۇنچ قىيىم بولدى *qorqunč-qïyïm boldï*** – “qo‘rqinch-xavotir bo‘ldi” deyilgandagi kabi.

[**كىيىم كىيىم *kim-kim***] **ئول كىيىم كىيىم كۈن كەچۈردى *ol kim-kim kün kečürdi*** – “u na g‘ayrat bilan ishlab, na butunlay ishlamay qo‘yib, yalqovlik bilan kun o‘tkazdi”.

ن *n* [harfi]:

بويىن *boyïn* – “inson va boshqa jonzotlarning bo‘yni”. “Qilich dastasi”ga **قىلىچ بويىنى *qïlïč boynï*** deyiladi. Shuningdek, “pichoq dastasi”ga **بىچاك بويىنى *bičäk boynï*** deyiladi.

بويۇن *boyun* – “jamoa”; ذ *δāl* harfini *yā* ga almashtiradiganlar tilida.

[**تويىن *tuyïn***] **تويىن ئەر *tuyïn er*** – “baxil, pastkash, qurumsoq kishi”.

تويىن *toyïn* – “islom dinida bo‘lmagan boshqa bir din jamoasining boshlig‘i”. U bizlarning olimlarimiz, muftilarimiz darajasidagi kishidir. U doim butxonada bo‘ladi, kufr kitoblar qoidalarini o‘qiydi. Uning sharridan Yaratganning O‘zi asrasin. Maqolda (shunday kelgan): **بىر تويىن بىر بېشى ئاغرىسا قومۇغ تويىن بېشى ئاغرىماس *Bir toyïn bašï ayrïsa, qamuy toyïn bašï ayrïmas.*** Ma’nosi: “Bir rohibning boshi og‘risa, boshqa rohiblarning boshi og‘rib qolmaydi”. Bu maqol o‘rtoqlari orasida ular yegan bir narsani yeyishdan tortingan kishilarga nisbatan qo‘llanadi.

Bu bo‘limning *maṭvī* lari

قايا *qaya* – “tog‘lardagi katta tosh, qoya”.

-قيا *-qïya* – tarkibida *yayn, qāf* harflari bo‘lgan va umuman, to‘yintirilgan (ya’ni yo‘g‘on) so‘zlarda (كلمة مشبعة) qo‘llanuvchi kichraytirish qo‘shimchasi

(حرف تصغير). Chunonchi, أُغْلْقِيَا ***oγulqïya*** – “o‘g‘ilcham”, قِيزْقِيَا ***qïzqïya*** – “qizcham” kabi.

ك ***k*** [harfi]:

كُيَا ***küyä*** – “namat va boshqalarni yeydigan kuya”.

كِيَا ***-kiyä*** – tarkibida *kāf* [*k, g*] harflari bo‘lgan va umuman, ingichka, yengil harfli so‘zlarda (الكلمة الكافيه او الركيكه) qo‘llanuvchi kichraytish qo‘shimchasi (حرف تصغير). Chunonchi, اَرْكِيَا ***erkiyä*** – “kishigina”, يِيرْكِيَا ***yerkiyä*** – “yergina” kabi.

ن ***n*** [harfi]:

يَنَا ***yana*** – qaytib kelish ma’nosini anglatadi; يَنَا كَلْدِمْ ***yana keldim*** – “qaytdim, qayta keldim” demakdir.

Bu bo‘limning boshqa bir turi (260b)

يَيَا ***yaya*** – “inson dumbasi”. Bu – faqat odamlarga xos. Bu bo‘limdagi ismlar talaffuzida ham, yozuvda ham qisqartirilmaydi. Chunki bu so‘zlardagi o‘rta harflar harakatlidir. O‘rtasi *sukun* li so‘zlardagina qisqartiriladi.

Mujarrad so‘zlar bo‘limi tugadi.

BU ZIYODALILAR BOBLARIDIR

فَاعِل ***fā’il*** qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ن ***n*** [harfi]:

تَادُنْ ***tadun*** – “bir yoshli buzoq”.

تُوذُونْ ***tuδun*** – “buloq suvini qishloq ahliga taqsimlovchi kishi”.

تِيذِينْ ***tïδïn*** – vaqtni anglatuvchi bir so‘z; bundan olinib بُو تِيذِنْ كَلْدِى ***bu tïδïn keldi*** deyiladi, “ayni vaqtda keldi” demakdir.

فَعَال ***fa’āl*** qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

بَيَاتْ ***Bayat*** – Tangri taoloning oti (arg‘ular tilida).

بَيَاتْ ***bayat*** – o‘g‘uz qabilalaridan birining oti.

ر ***r*** [harfi]:

قُيَارْ ***quyar*** – hayvonlar va qullarga nisbatan qo‘llanadigan so‘kish so‘zi; bundan olinib, بُو قُيَارِى ***bu quyarï*** deydilar, “bu og‘zidan so‘lak oqizadigan tuya” demakdir. Bu so‘z “suv va boshqa narsalarni to‘kdi” ma’nosidagi سُوفْ قُيْدِى ***suw quydï*** dan olingan.

س ***s*** [harfi]:

قَيَاسْ ***Qayas*** – tuxsi va chigil o‘lkasining oti. Uch shahardir: birinchisi سَابْلِغْ قَيَاسْ ***Saplïγ Qayas,*** ikkinchisi اُرُنكْ قَيَاسْ ***Örüŋ Qayas,*** uchinchisi قَرَا قَيَاسْ ***Qara Qayas*** deb ataladi.

قُيَاشْ ***quyaš*** – “qattiq issiq; qattiq quyosh issig‘ining tegishi”.

غ ***γ*** [harfi]:

اَيَاغْ ***ayaγ*** – “laqab; unvon”.

(Jangga otlangan kishi) shunday degan:

قُذْغِلْ مَنكَا اَقِيلِقْ	***Qoδγïl meŋä aqïlïq,***
بُلسُن مَنكَا ايَاغَا	***Bolsun meŋä ayaγ-a.***
اِذْغِلْ مَنِى تُقتُشْقَا	***Ïδγïl meni toqïšqa,***
يُڤْكِل مَنكَا اُلَاغَا	***Yöwgil meŋä ulaγ-a.***

Aytmoqdaki: “Meni o‘z holimga qo‘y, to‘sqinlik qilma, toki birovlarga foyda beruvchi sahiy laqabi menga tegsin. Meni jangga eltuvchi ot ber. U meni jangga eltsin”.

ن ***n*** [harfi]:

مُيَانْ ***muyan*** – “yaxshilik, savob”. Yo‘lovchilarning suv ichishiga mo‘ljallab qilingan “sardoba”ni مُيَانْلِقْ ***muyanlïq*** deyish ham shundan.

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَى *fa’lī* qolipidagi so‘zlar

ج ***j*** [harfi]:

[بُوجِى ***bojï***] بُوجِى قُبُزْ ***bojï qobuz*** – torli cholg‘ulardan biri. Bu barbat – “g‘ozko‘krak” deb atalgan cholg‘ularning bir turidir.

د ***d*** [harfi]:

قَيْدَا ***qayda*** – “qayerda?”; قَيْدَاسَنْ ***qayda-sen?*** – “qayerdasan?”. Bu so‘zning قَنْدَا ***qanda*** tarzida *nūn* li shakli ham bor. Shu bilan birga, (261a) قَيُودَا ***qayuda*** shakli ham bor.

كُيْدَا ***küydä*** – tilla, kumushlar eritilib javhari chiqariladigan o‘choq.

ق ***q*** [harfi]:

قُيْقَا ***quyqa*** – “teri”. Bu so‘z aslida teriga qo‘llansa ham, ba’zan po‘stinga ham qo‘llanadi; اُلْ قُويُغْ / قُونُغْ قُيْقَالَدِى ***ol qoyuγ / qonuγ quyqaladï*** – “u qo‘y terisini qaynoq suvda tozaladi; teri tukdan butunlay tozalandi”.

م ***m*** [harfi]:

[قِيْمَا ***qïyma***] قِيْمَا اُكْرَا ***qïyma ügrä*** – bir turli xamir; uni chumchuqning tili kabi yupqa va qiya qilib kesiladi, so‘ng قِيْمَا اُكْرَا ***qïyma ügrä*** deb ataladi.

قُيْمَا ***quyma*** – bir tur yog‘li non. Uni sharbat bilan qorilgan xamirdan yupqa qilib kesiladi. So‘ng qozonda qaynayotgan yoqqa solib, toblab olinadi, keyin ustiga shakar sepib yeyiladi.

Har bir ma’dan moddalaridan bolg‘a bilan urib shakl berish yo‘li bilan emas, quyish yo‘li bilan yasalgan hovoncha, shamdon va bolg‘a kabi narsalar ham قُيْمَا ***quyma*** deyiladi.

Har qanday harakatlar bilan qo‘llanganفَعَالُو *fa’ālū* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

غ ***γ*** [harfi]:
تَيَاغُو ***tayaγu*** – “tosh va g‘isht parchalari”.
تُرِيغَا ***torïγa*** – “to‘rg‘ay”.
سُيَاغُو / سِيَاغُو ***suyaγu*** / ***sïyaγu*** – “xo‘rozlar oyog‘idagi pix”.
ك ***g*** [harfi]:
بِتِيكُو ***bitigü*** – “turklar va boshqalarning siyohdoni, dovot”.
كُلِيكَا ***kölikä*** – “quyuq ko‘lanka, soya”.
م ***m*** [harfi]:
قَلِيمَا ***qalïma*** – “to‘rt ustunli ochiq shiypon”.
اَكَامَا ***egämä*** – cholg‘ularning bir turi.
كُشِيكَا ***köšikä*** – “kichik, yengil soya”.

Bu bo‘limning ***miṣāl*** turi

[يُرِيغَا ***yorïγa***] يُرِيغَا اَتْ ***yorïγa at*** – “yo‘rg‘a ot”.
ك ***g*** [harfi]:
يُلِيكُو ***yüligü*** – “soch olinadigan ustara”. O‘g‘uzlar buni bilmaydilar. Uni كَرَايْ ***geräy*** deydilar.
اَيَاكُو ***eyägü*** – hayvon va boshqalarning ko‘krak suyagi.

فَعْلَان ***fa’lān*** qolipidagi so‘zlar bo‘limi

غ ***γ*** [harfi]:
تَيْغَانْ ***tayγan*** – “chopqir it; tozi”. Maqolda (shunday kelgan): تَيْغَانْ يُكْرُكُنْ / يُكْرُكِنْ ***Tayγan yügrükün*** / ***yügrükin tilkü sewmäs.***
Ma’nosi: “Tulki yugurik tozini yaxshi ko‘rmaydi”. (261b) Bu maqol bir-biridan o‘zini ustun deb bilib, xusumatlashadigan ikki olimga tegizib aytiladi.
ك ***g*** [harfi]:
كَيْكَانْ ***Keygän*** – قَيَاسْ *Qayas* dan اِيلَا *Ïla* ga oqadigan ikki anhor oti. Katta-kichikligiga ishora qilinib, ularning biriga كِجِكْ كَيْكَانْ ***Kičig Keygän,*** ikkinchisiga اُلُغْ كَيْكَانْ ***Uluγ Keygän*** deydilar.

Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فَيْعَل *fay’al* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ج *č* [harfi]:

[قِيْمَجْ *qïymač*] قِيْمَجْ بُرك *qïymač börk* – “oq echkining uzun va mayin yungidan qilingan oq qalpoq”. Uni chigillar kiyadi.

ق *q* [harfi]:

بَيْنَقْ *baynaq* – “irkitlik; go‘ng” (o‘g‘uzcha).

بُيْنَقْ *boynaq* – “tog‘ bo‘yni”.

بُيْنَقْ *boynaq* – “kirtangkala” deyilgan jonivor.

قَيْغِقْ *qayγïq* – “qayiq”.

مَيْغَقْ *mayγaq* – tuksiz kishi yoki hayvonlardan kam tuklisi.

ك *k* [harfi]:

كَيْلِكْ *keylik* – “maymunga o‘xshagan vahshiy inson”. Telba-kezik yuradigan hushsiz yoki yovvoyi odamlar ham bunga o‘xshatilib, كَيْلِكْ كِشِى *keylik kiši* deyiladi.

ل *l* [harfi]:

[بُيْمَلْ *boymal*] بُيْمَلْ اَتْ *boymal at* – bo‘ynida oqi bor ot. Qo‘y va boshqalarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

م *m* [harfi]:

بَيْرَمْ *bayram* – “bayram” (o‘g‘uzcha). Men o‘ylayman, xalq tilida “shodlik va xursandlik kuni” ma’nosidagi بَذْرَمْ *baδram* so‘zi ana shu so‘z bilan bog‘lanadi, bu o‘rinda ma’noda o‘zgarish yuz bergan. Chunki johiliyat davrida bunday bir so‘zning kelib chiqishini talab qiladigan bayramning o‘zi bo‘lmagan. Agar bo‘lganda edi, turkiy xalqlar uni bilgan bo‘lur edilar. Holbuki, unday emas. Faqat ذ *δal* harfini *yā* ga aylantirib talaffuz etuvchilargina biladilar.

جِيْدَمْ / جَيْدَمْ *čaydam* / *čïydam* – uyga solinadigan, yomg‘irga qarshi yopinchiq qilinadigan bir turli yengil namat.

سَيْرَمْ *Sayram* – اِسْپِيجَابْ *İspïjab* deb ham ataladigan مَدينَه البَيضَاْ *Madīnatu-l-bayḍā* (Oqshahar) ning oti. Buning سَرْيَمْ *Saryam* degan oti ham bor.

[سَيْرَمْ *sayram*] سَيْرَمْ سُوقْ *sayram suw* – “to‘piqdan past oqadigan oz suv”.

Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فَعَالِل *fa’ālil* qolipidagi so‘zlar

ق *q* [harfi]:

بَقَايَقْ *baqayaq* – ayrituyoqlilarning ikkita tirnog‘i orasi va ikki tirnoqdan biri.

بَقَايُقْ *baqayuq* – yilqi tuyoqlilarning ustidagi va ostidagi et parchasi.

قَيَاجُقْ *qayačuq* – xushbo‘y bir tur tog‘ o‘simligi. (262a) Men sukud yaprog‘iga yoki turfa yaprog‘iga o‘xshaydigan bir o‘t yoki za’faron bo‘lsa kerak, deb hisoblayman.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ق ***q*** [harfi]:
[يَبِيتَق ***yapïtaq***] اَرْ اَتِنْ يَبِيتَقْ مُنْدِى ***er atïn yapïtaq mündi*** – “er otini yaydoq, egarsiz, to‘qimsiz mindi”.

BESH HARFLILAR BOBLARI

Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فَعَلعَل *fa’al’al* qolipidagi so‘zlar

غ ***γ*** [harfi]:
[قِيرْلِغْ ***qïrlïγ***] قِيرْلِغْ يِيرْ ***qïrlïγ yer*** – “ko‘pchigan yer”.
[قُيَسْلِغْ ***quyaslïγ***] قُيَسْلِغْ اَرْ ***quyaslïγ er*** – “quyaslik kishi”.
[تُيَغْلِغْ ***tuyaγlïγ***] تُيَغْلِغْ يِلْقِى ***tuyaγlïγ yïlqï*** – “har qanday tuyoqli hayvon”.
ق ***q*** [harfi]:
قُيُغْلُقْ ***quyuγluq*** – “oquvchan narsalardagi quyuqliq”.

O‘rta harfi *sukun* li bo‘lgan so‘zlar

ج ***č*** [harfi]:
سَنْدُوَاجْ ***sanduvač*** – “bulbul”.
(She’rda) shunday kelgan:

سَنْدًا قَجَرْ سُنْدِلَاجْ ***Sendän qačar sondïlač,***
مَنْدَا تِنَرْ قَرْغِلَاجْ ***Mendä tïnar qarγïlač.***
تَتلِغْ اُتَرْ سَنْدُوَاجْ ***Tatlïγ ötär sanduvač,***
اَرْكَكْ تِشِى اُجْرُشُورْ ***Erkäk-tïšï učrušur.***

Yoz bilan qish tortishuvini ta’riflab, aytmoqda: “Yoz qishga aytadi: Sa’va sendan qochadi, qaldirg‘och va boshqa qushlar menda bo‘ladi. Menda bulbul yoqimli sayrashi bilan kishilarni sevintiradi. Yoz bo‘yi nar va moda qushlar juftlashadilar”.

ق ***q*** [harfi]:
[بُلْغَيُقْ ***bulγayuq***] بُلْغَيُقْ سُوقْ ***bulγayuq suw*** – “loyqa; bo‘tana suv”.
سَرْقِيقْ / سَرْقِيقْ ***sarqïyïq*** / ***sarqïnïq*** – “har qanday narsaning ichi”. Bu so‘zning *nūn* bilan سَرْقِنِقْ ***sarqïnïq*** shakli ham bor. Bu xususiyat arab tilidagi ميزاب و منزاب ميشار و منشار ikki xil qo‘llashga mosdir.
قُدُوجَقْ ***qudučaq*** – “quyruq, tos suyagi”.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

بَيْبَيُقْ *baybayuq* – sayroqiligi bilan kishini shodlantiruvchi qushlarning bir xili. U inini daraxt butoqlari orasiga zambil shaklida quradi, bir chekkasidan kichik teshik qo‘yib, undan kirib-chiqib turadi.

Bu bo‘limning olti harflilari

ق *q* [harfi]:

بُيْنْدُرُقْ *boyunduruq* – “bo‘yinturuq”. U yog‘ochdan maxsus shaklda yasalib, qo‘sh ho‘kizlarning bo‘yinlariga solinadi.

مُيَنْجِلِقْ *muyančïlïq* – “vositachilik, ikki kishi orasida murosa yuritish”; **سَنْ مُيَنْجِلِقْ قِلْ *sen muyančïlïq qïl*** – “sen bizlarning oramizda murosachi bo‘l; o‘rtaga tush”. Bu so‘zning asli “yaxshilik” ma’nosidagi **مُيَان *muyan*** dir.

Manqūṣ bo‘limidan ismlar bobi tugadi. (262b)

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU *manqūṣ* FE’LLAR KITOBIDIR

IKKI HARFLI FE’LLAR BO‘LIMI

ج ***č*** [harfi]:

[**كِيجْتِى** ***kečti***] **اَرْ كِيجْتِى** ***er kečti*** – “kishi ishda kechikdi” (**كِيجَارْ** ***kečär,*** **كِيجْمَاكْ** ***kečmäk***).

ر ***r*** [harfi]:

[**بُورْدِى** ***burdï***] **يِبَارْ بُورْدِى** ***yïpar burdï*** – “iporning hidi chiqdi”;**سُوڤْ بُورْدِى** ***suw burdï*** – “suv bug‘i ko‘tarildi, bug‘landi”. Har qanday narsaning yaxshi hid taratishiga yoki bug‘lanishiga ham shunday deyiladi (**بُرَارْ** ***burar,*** **بُرْمَاقْ** ***burmaq***).

[**بِيرْدِى** ***berdi***] **اُلْ مَنكَا يَرْمَاقْ بِيرْدِى** ***ol meŋä yarmaq berdi*** – “u menga tanga (pul) va boshqa narsalar berdi” (**بِيرُرْ** ***berür,*** **بِيرْمَاكْ** ***bermäk***).

[**تَارْدِى** ***tardï***] **بَكْ سُوسِنْ تَارْدِى** ***beg süsin tardï*** – “bek qo‘shinini tarqatib yubordi”. Biron narsasini tarqatgan har kimsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (**تَارَارْ** ***tarar,*** **تَارْمَاقْ** ***tarmaq***).

[**تُورْدِى** ***turdï***] **اَرْ يُقَارُو تُورْدِى** ***er yuqaru turdï*** – “kishi va boshqalar o‘rnidan turdi” (**تُورُرْ** ***turur,*** **تُورْمَاقْ** ***turmaq***).

تُورُرْ ***turur*** – o‘tgan zamon va masdar shakllari bo‘lmagan kelasi zamon fe’lidir. Bu so‘z arabcha يَدَع va يَذر so‘zlariga muvofiq keladi. Bu so‘z biron narsaning so‘zlanayotgan vaqtda o‘z o‘rnida barqaror ekanini anglatadi. Chunonchi, **اُلْ اَقدَا تُرُورْ** ***ol ewdä turur,*** ya’ni “u uydadir” demakdir. Bu gapda bu so‘z “tik turmoq” ma’nosida emas yoki **اَرْ سُكَلْ تُرُورْ** ***er sögäl turur*** – “kishi kasaldir” demakdir. Bu yerda “tik turmoq” ma’nosida emas.

[**تُورْدِى** ***turdï***] **اَتْ تُورْدِى** ***at turdï*** – “ot va boshqalar oriqladi” (**تُورَارْ** ***turar,*** **تُورْمَاقْ** ***turmaq***).

[**تِيرْدِى** ***terdi***] **اُلْ تَڤَارْ تِيرْدِى** ***ol tawar terdi*** – “u mol va boshqa narsalar to‘pladi” (**تِيرَارْ** ***terär,*** **تِيرْمَاكْ** ***termäk***).

[**سَارْدِى** ***sardï***] **اُلْ اَنِى سَارْدِى** ***ol anï sardï*** – “u unga qo‘pol muomala qildi, dag‘al so‘zladi” (**سَرَارْ** ***sarar,*** **سَرْمَاقْ** ***sarmaq***[1]).

[**سُورْدِى** ***sordï***] **كَنجْ سُوتْ سُورْدِى** ***gänč süt sordï*** – “bola sut va boshqa narsalarni emdi”.

---

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (سَرْمَاكَقْ).

[سُوْرْدِی ***sordï***] اَرْ سُوزْ سُوْرْدِی ***er söz sordï*** – “kishi so‘z so‘radi”.

[سُوْرْدِی ***sordï***] اَرْ يِتُكْ سُوْرْدِی ***er yitüg sordï*** – “kishi yo‘qolgan narsasini qidirdi, izladi” (سُرَارْ ***sorar***, سُرْمَاقْ ***sormaq***). Bu ikki so‘z o‘g‘uzchadir.

[قَارْدِی ***qardï***] اَرْ سُقْقَا قَارْدِی ***er suwqa qardï*** – “kishi suvdan toza bo‘ldi (yuvinib poklandi)”. (263a)

[قَارْدِی ***qardï***] سُوقْ اَرِقْتِنْ قَارْدِی ***suw arïqtïn qardï*** – “qishda suv ariqdan toshdi”. Bu anhordagi qor va suvlar muzlab, suv muz ustiga chiqib toshishidir (قَرَارْ ***qarar***, قَرْمَاقْ ***qarmaq***).

ز ***z*** [harfi]:

[تُوزْدِی ***tözdi***] اَرْ تُمْلُغْقَا تُوزْدِی ***er tumluγqa tözdi*** – “kishi sovuqdan ochiqdi” (تُوزَارْ ***tözär***, تُوزْمَاكْ ***tözmäk***) (qipchoqcha).

[سِيزْدِی ***sïzdï***] يَاغْ سِيزْدِی ***yaγ sïzdï*** – “yog‘ eridi”.

[سِيزْدِی ***sïzdï***] اُلْمَاذِنْ سُوقْ سِيزْدِی ***olmaδïn suw sïzdï*** – “suv idishdan va boshqa narsadan sizib oqdi”.

[سِيزْدِی ***sïzdï***] كُونْ سِيزْدِی ***kün sïzdï*** – “kun ko‘rindi”. Bu quyoshning sharqdan chiqa boshlashidir (سِيزْمَاقْ ***sïzmaq***, سِيزَارْ ***sïzar***).

ش ***š*** [harfi]:

[قَيِشْدِی ***qayïšdï*** / ***qïyïšdï***] / قِيِشْدِی اَرْ يُولْدَن قَيِشْدِی ***er yoldan qayïšdï*** / ***qïyïšdï*** – “kishi yo‘ldan qayrildi, buruldi”. Quyoshning tikdan og‘ishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قِيِشَارْ ***qïyïšar***, قِيِشْمَاقْ ***qïyïšmaq***).

[تُوغْدِی ***toγdï***] تُوغْ تُوغْدِی ***toγ toγdï*** – “to‘zon ko‘tarildi” (تُوغَارْ ***toγar***, تُوغْمَاقْ ***toγmaq***).

(Shoir) shunday degan:

اَغْدِی قِزِلْ بَيْرَاقْ ***Aγdï qïzïl bayraq,***
تُوغْدِی قَرَا تُبْرَاقْ ***Toγdï qara tupraq.***
يَتْشُو كَلِبْ اُغْرَاقْ ***Yetšü kelip oγraq,***
تُقْشِبْ اَنِنْ كِيجْتِمِزْ ***Toqšïp anïn kečtimiz.***

Aytmoqdaki: “Musulmonlar qo‘shinining qizil bayroqlari ko‘tarildi. Qora tuproq yuqori ko‘tarildi [chang-to‘zon ko‘tarildi]. Bizga o‘g‘raq otliqlari ham kelib qo‘shildilar. Hammamiz qo‘shilishib jang qildik, shuning uchun qaytishda kechikdik”.

ف ***w*** [harfi]:

[اِيِڤْدِی ***ewdi***] اَرْ اِيِڤْدِی ***er ewdi*** – “kishi shoshildi” (اِيِڤَارْ ***ewär***, اِيِڤْمَاكْ ***ewmäk***).

[قُوڤْدِی ***quwdï***] اَرْ اَتِنْ قُوڤْدِی ***er atïn quwdï*** – “kishi otini haydadi, quvdi”. Boshqa narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

ق ***q*** [harfi]:

[جِيِڤْدِی ***jïqdï***] تُونْ جِيِڤْدِی ***ton jïqdï*** – “to‘n namlandi”. Har narsaning o‘ziga yerdan nam olishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (جِيِقَارْ ***jïqar***, جِيِڤْمَاقْ ***jïqmaq***).

[قُوقْدِی ***qoqdï***] اَتْ قُوقْدِی ***et qoqdï*** – “go‘sht hidlanib ketdi”. Chiroq o‘chirilganda tutuni ko‘tarilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قُوقْدِی ***qoqdï***] سُوۏْ قُوقْدِی ***suw qoqdï*** – “suv loyqasi cho‘kdi va tindi”.

[قُوقْدِی ***qoqdï***] سِیشْ قُوقْدِی ***siš qoqdï*** – “shish bosildi, tuzaldi” (قُوقَارْ ***qoqar***, قُوقْمَاقْ ***qoqmaq***).

ك ***g*** [harfi]:

[تُوكْدِی ***tügdi***] اَرْ تُوزْ تُوكْدِی ***er tuz tügdi*** – “kishi tuz va boshqa narsalarni tuydi, maydaladi” (تُوكَارْ ***tügär***, تُوكْمَاكْ ***tügmäk***). (263b)

[سُوكْدِی ***sökdi***] اُلْ اَنِی سُوكْدِی ***ol anï sökdi*** – “u uni so‘kdi” (سُوكَارْ ***sökär***, سُوكْمَاكْ ***sökmäk***).

ن ***n*** [harfi]:

[تَانْدِی ***tandï***] اُلْ اَلِمْنِی تَانْدِی ***ol alïmnï tandï*** – “u qarzini va boshqa narsalarni inkor qildi”. Biron narsadan tonuvchi kishiga shu so‘z qo‘llanadi (تَانَرْ ***tanar***, تَانْمَاقْ ***tanmaq***).

[تُونْدِی ***töndi***] اُلْ اَفِنْكَا تُونْدِی ***ol ewiŋa töndi*** – “u uyiga qaytdi” (تُونَار ***tönär***, تُونْمَاك ***tönmäk*** – o‘g‘uzcha).

[قَانْدِی ***qandï***] اُلْ سُوۏ دِنْ قَانْدِی ***ol suwdïn qandï*** – “u suvga qondi” (قَانَرْ ***qanar***, قَانْمَاقْ ***qanmaq***).

[قُونْدِی ***qondï***] قُشْ قُونْدِی ***quš qondï*** – “qush qo‘ndi”; بُذُونْ قُونْدِی ***boδun qondï*** – “qabila (biror yerga) ko‘chgandan so‘ng qo‘ndi” (قُونَارْ ***qonar***, قُونْمَاقْ ***qonmaq***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

[يِيرْدِی ***yirdi***] اَرْ اَشِغْ يِيرْدِی ***er ašïγ yirdi*** – “kishi oshdan irgandi, jirkandi”.

[يِيرْدِی ***yerdi***] اُلْ اَرِكْ يِيرْدِی ***ol erig yerdi*** – “u kishini jerkidi” (يِيرَارْ ***yerär***, يِيرْمَاكْ ***yermäk*** – o‘g‘uzcha).

[يُورْدِی ***yördi***] اُرَاغُتْ اُغْلِنْ بَشِكْتِنْ يُورْدِی ***uraγut oγlïn bešiktin yördi*** – “xotin bolasini beshikdan yechdi”. Bog‘lovidan yechilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (يُورَارْ ***yörär***, يُورْمَاكْ ***yörmäk***).

ل ***l*** [harfi]:

[يِيلْدِی ***yeyildi***] اَشْ يِيلْدِی ***aš yeyildi*** – “osh va boshqa narsalar yeyildi” (يِيلُورْ ***yeyilür***, يِيلْمَاكْ ***yeyilmäk***). Bu bo‘lim faqat ikki harfli yo uch harflilar bobigina emas edi, biz buni ikki harflilarga keltirib qo‘shdik. Chunki u talaffuzda qisqaroq va ravshanroqdir. Bu so‘zlar arab harflari bilan yozilganda, ikki harf bilan yoziladi. Turkiy harflar (بالتركيّه) bilan [ya’ni uyg‘ur harflari bilan – *Q.S.*] yozilganda, yuqorida ko‘rilgandek, cho‘zg‘i harflar orttiriladi.

UCH HARFLILAR BOBI

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعَلْدِى *fa’aldī* qolipidagi so‘zlar

ر ***r*** [harfi]:

[بُيُرْدِى ***buyurdï***] اُلْ اَنـكَرْ اَيْلَا بُيُرْدِى ***ol aŋar eylä buyurdï*** – “u unga shunday buyurdi” (بُيُرْمَاقْ ***buyurmaq***, بُيُرُرْ ***buyurur*** – o‘g‘uzcha).

[بَاقِرْدِى ***baqïrdï***] تَفْىْ بَاقِرْدِى ***teway baqïrdï*** – “tuya bo‘kirdi” (o‘g‘uzcha) (بَاقِرَارْ ***baqïrar***, بَاقِرْمَاقْ ***baqïrmaq***).

[تَاتُرْدِى ***taturdï***] اُلْ مَنـكَا اَشْ تَاتُرْدِى ***ol meŋä aš taturdï*** – “u menga oshni va boshqa narsalarni tottirdi” (تَاتُرُرْ ***taturur***, تَاتُرْمَاقْ ***taturmaq***).

[تِيتُرْدِى ***tetürdi***] اُلْ اَنْدَغْ تِيتُرْدِى ***ol andaγ tetürdi*** – “u shunday so‘zlatdi, dedirdi” (تِيتُرُرْ ***tetürür***, تِيتُرْمَاكْ ***tetürmäk***).

[تُوزَرْدِى ***tozardï***] تُوزْ تُوزَرْدِى ***toz*** (264a) ***tozardï*** – “to‘zon ko‘tarildi” (تُوزَارْ ***tozar***, تُوزْمَاقْ ***tozmaq***).

[سَاتُرْدِى ***saturdï***] اُلْ اَنـكَرْ قُوىْ سَاتُرْدِى ***ol aŋar qoy saturdï*** – “u unga qo‘y va boshqa narsalarni sanatdi” (سَاتُرُرْ ***saturur***, سَاتُرْمَاقْ ***saturmaq***).

[سِيتُرْدِى ***sïturdï***] اُلْ اُتْنـكْ سِيتُرْدِى ***ol otuŋ sïturdï*** – “u o‘tin va boshqa narsalarni kestirdi” (سِيتُرُرْ ***sïturur***, سِيتُرْمَاقْ ***sïturmaq***).

[قِيجُرْدِى ***qïčurdï***] اُلْ اَنـكَرْ قِيجُرْدِى ***ol aŋar qïčurdï*** – “u unga malomat qildi, qoraladi, uning tashvishidan suyundi” (قِيجُرَارْ ***qïčurar***, قِيجُرْمَاقْ ***qïčurmaq***).

[كُوتَّرْدِى ***küttürdi***] اُلْ اَنـكَرْ قُوىْ كُوتَّرْدِى ***ol aŋar qoy küttürdi*** – “u unga qo‘y va boshqa hayvonlarni boqtirdi” (كُوتَّرُرْ ***küttürür***, كُوتَّرْمَاكْ ***küttürmäk***).

[كِيتَرْدِى ***ketärdi***] اُلْ تَاشِغْ يُولْدَنْ كِيتَرْدِى ***ol tašïγ yoldan ketärdi*** – “u toshni yo‘ldan jildirdi, olib tashladi”. Har narsani o‘rnidan jildirishga ham shu so‘z qo‘llanadi (كِيتَرُرْ ***ketärür***, كِيتَرْمَاكْ ***ketärmäk***).

[كِيجُرْدِى ***kečürdi***] اُلْ اِيشِغْ كِيجُرْدِى ***ol išïγ kečürdi*** – “u ishni kechiktirdi” (كِيجُرُرْ ***kečürür***, كِيجُرْمَاكْ ***kečürmäk***).

[كُيتُرْدِى ***küytürdi***] اَرْ اُتْنـكْ كُيتُرْدِى ***er otuŋ küytürdi*** – “kishi o‘tin va boshqa narsalarni kuydirdi” (كُيرُرْ ***küyrür***, كُيرْمَاكْ ***küyürmäk***).

ش ***š*** [harfi]:

[تَيشْدِى ***tayïšdï***] اُلْ اَنِـكْ بِرْلَا تَيشْدِى ***ol aniŋ birlä tayïšdï*** – “u uning bilan topishda bahslashdi” (تَيشُورْ ***tayïšur***, تَيشْمَاقْ ***tayïšmaq***).

[سُيُشْدِى ***soyušdï***] اُلْ مَنـكَا تَرِى سُيُشْدِى ***ol meŋä teri soyušdï*** – “u menga qo‘y va boshqa hayvonlar terisini shilishdi”. Bu so‘z tuxum po‘chog‘ini artish, daraxt po‘stlog‘ini ajratishga ham qo‘llanadi (سُيُشُورْ ***soyušur***, سُيُشْمَاقْ ***soyušmaq***).

[قَيشْدِى ***qayïšdï***] اُلَارْ اِكّى بِيرْ بِيرْكَا قَيشْدِى ***olar ikki bir-birkä qayïšdï*** – “ular ikkovi bir-biriga qayishdi, g‘amxo‘rlik qilishdi” (قَيشُورْ ***qayïšur***, قَيشْمَاقْ ***qayïšmaq***).

(Shoir) shunday degan:

نَلُكْ اَنكَرْ بِلِشْتِمْ *Nelüg aŋar bilištim,*
قُجْشُبْ تَقِى قَقْشْتُمْ *Qučšup taqï qawuštum.*
تُزُنْلُكِنْ قَيِشْتِمْ *Tüzünlügin qayïštïm,*
اَلقْتِى مَنِكْ يَايِمِى *Alqtï meniŋ yayïmï.*

O‘ziga yomonlik qilgan birov haqida shoir aytmoqda: “Nega ham u bilan tanishdim, nega u bilan o‘rtoqlashib, apoq-chapoq bo‘ldim, unga xush muomalada bo‘lib, mehribonchilik qildim? U esa yoz bo‘yi vaqtimni bekorga ketkazdi”.

[قُيُشْدِى ***quyušdï***] اَنكَرْ سُوقْ قُيُشْدِى ***aŋar suw quyušdï*** – “unga suv va boshqa narsalarni quyishdi” (قُيُشُورْ ***quyušur***, قُيُشْمَاقْ ***quyušmaq***).

[قِيِشْدِى ***qïyïšdï***] اُلْ مَنكَا يِغَاجْ قِيِشْدِى ***ol meŋä yïγač qïyïšdï*** – “u menga egib, bukib yog‘och sindirishdi”. Bahslashishga ham shu so‘z qo‘llanadi (264b) (قِيِشُورْ ***qïyïšur***, قِيِشْمَاقْ ***qïyïšmaq***).

[مَيُشْدِى / مَيِشْدِى ***mayïšdï*** / ***mayušdï***] اَرْ يِيرْكَا مَيِشْدِى / مَيُشْدِى ***er yerkä mayïšdï*** / ***mayušdï*** – “kishi o‘z o‘jarlik va yalqovligidan yerga yopishdi” (مَيِشُورْ / مَيُشُورْ ***mayïšur*** / ***mayušur***, مَيِشْمَاقْ / مَيُشْمَاقْ ***mayïšmaq*** / ***mayušmaq***). Bu biron ish buyurilganda, u ishni qilishdan tortinishdir. مَيِشْدِى ***mayïšdï*** so‘zining harf almashtirilgan يَمَشْدِى ***yamašdï*** shakli ham bor (يَمَاشُو ***yamašur***, يَمَشْمَاقْ ***yamašmaq***).

ق ***q*** [harfi]:

[سُيُقْتِى ***soyuqtï***] اَرْ سُيُقْتِى ***er soyuqtï*** – “kishining moli tortib olindi” (سُيُقَارْ ***soyuqar***, سُيُقْمَاقْ ***soyuqmaq***).

[سَيِقْتِى ***sayïqtï***] يِيرْ سَيِقْتِى ***yer sayïqtï*** – “yer qora toshli bo‘ldi” (سَيِقَارْ ***sayïqar***, سَيِقْمَاقْ ***sayïqmaq***).

ل ***l*** [harfi]:

[سُيُلْدِى ***suyuldï***] بُلِتْ سُيُلْدِى ***bulït suyuldï*** – “bulut suyulib tarqaldi”.

[سُيُلْدِى ***soyuldï***] قُوىْ تَرِيسِى سُيُلْدِى ***qoy terisi soyuldï*** – “qo‘y terisi shilindi”.

[سُيُلْدِى ***soyuldï***] اَرْدِنْ تُونْ سُيُلْدِى ***erdin ton soyuldï*** – “kishidan to‘n yechib olindi” (سُيُلُورْ ***soyulur***, سُيُلْمَاقْ ***soyulmaq***).

[قُيُلْدِى ***quyuldï***] يُغُرْتْ قُيُلْدِى ***yoγrut quyuldï*** – “qatiq quyuldi”. Har qanday suyuq narsaning quyulishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُيُلُورْ ***quyulur***, قُيُلْمَاقْ ***quyulmaq***).

[قِيِلْدِى ***qïyïldï***] كُونْ قِيِلْدِى ***kün qïyïldï*** – “kun og‘di”.

[قِيِلْدِى ***qïyïldï***] اُودْ قِيِلْدِى ***öδ qïyïldï*** – “zamon o‘tdi”.

[قِيِلْدِى ***qïyïldï***] يِغَاجْ قِيِلْدِى ***yïγač qïyïldï*** – “yog‘och egib, bukib kesildi”.

[قِيِلْدِى ***qïyïldï***] سُوزْ قِيِلْدِى ***söz qïyïldï*** – “so‘zdan, va’dadan qaytildi” (قِيِلُورْ ***qïyïlur***, قِيِلْمَاقْ ***qïyïlmaq***).

[مَيِلْدِى ***mayïldï***] قَاغُونْ مَيِلْدِى ***qaγun mayïldï*** – “toza, sersuv qovun buzildi”. Bu qovunning irib yaroqsiz bo‘lishidir. Boshqa mevalarga ham shu so‘z qo‘llanadi (مَيْلُورْ ***maylur***, مَيِلْمَاقْ ***mayïlmaq***).

ن ***n*** [harfi]:

[تَيَنْدِى ***tayandï***] اُلْ مَنـكَا تَيَنْدِى ***ol meŋä tayandï*** – “u menga tayandi”. Har narsaga tayanish, suyanishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَيَنُورْ ***tayanur***, تَيَنْمَاقْ ***tayanmaq***).

[قَيْنَدِى ***qaynadï***] اَشِجْ قَيْنَدِى ***ešič qaynadï*** – “qozon va boshqa narsalar qaynadi” (قَيْنَارْ ***qaynar***, قَيْنَمَاقْ ***qaynamaq***). Maqolda (shunday kelgan): قَيْنَارْ اُكُزْ كَجِكْ سِيزْ بُلْمَاسْ ***Qaynar ögüz kečigsiz bolmas.*** Ma’nosi: “To‘lib-toshadigan suv ko‘priksiz bo‘lmaydi”. Bu maqol “qayg‘uli, tashvishli ishning oxiri albatta xayrli bo‘ladi” degan ma’noda qo‘llanadi.

[قُيُنْدِى ***quyundï***] اُلْ اُوزُنـكَا سُوقْ قُيُنْدِى ***ol özüŋä suw quyundï*** – “u o‘ziga-o‘zi suv quydi” (265a) (قُيُنُورْ ***quyunur***, قُيُنْمَاقْ ***quyunmaq***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ق ***q*** [harfi]:

[يَيِقْتِى ***yayïqtï***] اُوذْ يَيِقْتِى ***öδ yayïqtï*** – “vaqt ko‘klam bo‘ldi” (يَيِقَارْ ***yayïqar***, يَيِقْمَاقْ ***yayïqmaq***).

ل ***l*** [harfi]:

[يَيِلْدِى ***yayïldï***] يِغَاجْ يَيِلْدِى ***yïγač yayïldï*** – “shamol va boshqa sababdan daraxtlar qimirladi”. Har bir narsa o‘z-o‘zidan harakatga tushib, qimirlab egilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[يَيِلْدِى ***yayïldï***] يَيِلْدِى سُو ***yayïldï sü*** – “qo‘shin va boshqalar taraldi”. Bu so‘zning ذ *δal* bilan يَذْلْدِى ***yaδïldï*** shakli ham bor (يَيِلُورْ ***yayïlur***, يَيِلْمَاقْ ***yayïlmaq***). Bu bo‘limda o‘rtasi *sukun* li fe’llar shaklda to‘rt harfli kabi ko‘rinsa ham, haqiqatda ular uch harflidir.

Chunonchi, اُلْ قُويُغْ / قُونُغْ بَاتُرْدِى ***ol qoyuγ / qonuγ baturdï*** – “u qo‘yni bog‘latdi”; سَاتُرْدِى ***saturdï*** – “u qo‘yni sanatdi va boshqalar” kabi.

TO‘RTLIKLAR BO‘LIMI

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَدِى *fa’laldï* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

[تَيْتُرْدِى ***tayturdï***] اُلْ اَنِى سُقْقَا تَيْتُرْدِى ***ol anï suwqa tayturdï*** – “u uni suvga va boshqa joylarga toydirdi” (تَيِتُرْ / تَيْتُرْ ***taytur*** / ***tayïtur***, تَيِتْمَاقْ ***tayïtmaq***).

[تُيْتُرْدِى ***tuyturdï***] اُلْ مَنـكَا سُوزْ تُيْتُرْدِى ***ol meŋä söz tuyturdï*** – “u menga so‘z tuydirdi, so‘zni tushuntirdi” (تُيْتُرُورْ ***tuyturur***, تُيْتُرْمَاقْ ***tuyturmaq***).

[قَيْتُرْدِى ***qaytardï***] اَنـكَرْ قَيْتُرْدِى ***aŋar qaytardï*** – “o‘rtog‘iga ko‘maklashib, g‘amxo‘rlik ko‘rsatdi” (قَيْتُرُورْ ***qaytarur***, قَيْتُرْمَاقْ ***qaytarmaq***).

[قَيْتَرْدِى ***qaytardï***] اُلْ اَتِغْ قَيْتَرْدِى ***ol atïγ qaytardï*** – “u otni o‘z yo‘lidan qaytardi” (قَيْتَرُورْ ***qaytarur***, قَيْتَرْمَاقْ ***qaytarmaq***). Bu o‘g‘uzlar so‘zidir. Turklar قَتَرْدِى ***qatardï*** deydilar.

[قُيْتُرْدِى *quyturdï*] اُلْ مَنِڭْ اَلِكْگَا سُوڤْ قُيْتُرْدِى *ol meniŋ eligkä suv quyturdï* – “u mening qo‘limga suv quydirdi” (قُيْتُرْ *quyturur*, قُيْتُرْمَاقْ *quyturmaq*).

[قِيْتُرْدِى *qïyturdï*] اُلْ اَنكَرْ قَمِشْ قِيْتُرْدِى *ol aŋar qamïš qïyturdï* – “u unga qamish va boshqa narsalarni bukib kestirdi” (قِيْتُرْ *qïyturur*, قِيْتُرْمَاقْ *qïyturmaq*).

[كُيْتُرْدِى *küytürdi*] اُلْ اَنِكْ تُونِنْ كُيْتُرْدِى *ol anïŋ tonïn küytürdi* – “u uning to‘nini va boshqa narsalarni kuydirishga buyurdi” (كُيْتُرْ *küytürür*, كُيْتُرْمَاكْ *küytürmäk*). Bu so‘z fasih emas.

[سَيْغِرْدِى *sayγïrdï*]يِيرْ سَيْغِرْدِى *yer sayγïrdï* (265b) – “yer qora toshli bo‘layozdi” (سَيْغِرَارْ *sayγïrar*, سَيْغَرْمَاقْ / *sayγïrmaq* / *sayγarmaq*).

[قَيْغُرْدِى *qayγurdï*] اَرْ قَيْغُرْدِى *er qayγurdï* – “kishi qayg‘urdi”. Bu so‘z *zā* bilan ham talaffuz qilinadi (قَيْغُرَارْ *qayγurar*, قَيْغُرْمَاقْ *qayγurmaq*).

ش *š* [harfi]:

[بُيْمَشْدِى *boymašdï*] اِيشْ قَمُغْ بُيْمَشْدِى *iš qamuγ boymašdï* – “ish va boshqa narsalar butunlay chuvalashdi” (بُيْمَشُورْ *boymašur*, بُيْمَشْمَاقْ *boymašmaq*).

[سَيْرَشْدِى *sayrašdï*] اُلَارْ تَلِمْ سَيْرَشْدِى لَارْ *olar telim sayrašdïlar* – “ular xayol-parastlardek ko‘p so‘zlashdilar”. Yana: قُشْ لَارْ سَيْرَشْدِى *qušlar sayrašdï* – “qushlar sayrashdi”.

(Shoir) shunday degan:

يَرُقْ يُلْدُزْ تُغَرْدَا *Yaruq yulduz tuγarda,*
اُدْنُو كَلِبْ بَقَرْمَنْ *Uδnu kelip baqar-men.*
سَاتُولَيُو سَيْرَشِبْ *Satulayu sayrašïp,*
تَتْلِغْ اُونُنْ قُشْ اُتَارْ *Tatlïγ ünün quš ötär.*

Aytmoqdaki: “Yorug‘ yulduz tug‘ar vaqtida uyqumdan uyg‘onib, daraxtlarga qarayman, qushlarning sevintirguchi yoqimli sayrog‘ini tinglayman” (سَيْرَشُورْ *sayrašur*, سَيْرَشْمَاقْ *sayrašmaq*).

[قَيِرشْدِى *qayïrïšdï*] اُلَارْ اِكِى بُيُونْ قَيِرشْدِى *olar ikki boyun qayïrïšdï* – “ular ikkovi bir-birlarining bo‘ynini qayirishdi”. Boshqa narsalarga ham shu so‘z ishlatiladi (قَيِرشُورْ *qayïrïšur*, قَيِرشْمَاقْ *qayïrïšmaq*).

[قُيُلُشْدِى *quyulušdï*] تَاغْدِنْ سُوڤْ لَارْ قَمُغْ قُيُلُشْدِى *taγdïn suwlar qamuγ quyulušdï* – “butun suvlar tog‘dan quyilishdi, to‘kilishdi”. Har bir suyuq narsaning to‘kilishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (قُيُلُشُورْ *quyulušur*, قُيُلُشْمَاقْ *quyulušmaq*).

[قُيُلُشْدِى *quyulušdï*] سُوتْ لَارْ قُيُلُشْدِى *sütlär quyulušdï* – “sutlar va boshqa suyuq narsalar quyildi” (قُيُلُشُورْ *quyulušur*, قُيُلُشْمَاقْ *quyulušmaq*).

[قَيِتِشْدِى *qayïtïšdï*] اُلَارْ اِكِى قَيِتِشْدِى *olar ikki qayïtïšdï* – “ular ikkovi bir-birining ketidan bordi” (قَيِتِشُورْ *qayïtïšur*, قَيِتِشْمَاقْ *qayïtïšmaq*).

ق *q* [harfi]:

[تُيْسُقْدِى *tuysuqdï*] اَرْ تُيْسُقْدِى *er tuysuqdï* – “kishi o‘ziga qilingan hiylani tushunib yetdi” (تُيْسُقَارْ *tuysuqar*, تُيْسُقْمَاقْ *tuysuqmaq*).

ل *l* [harfi]:

[كِيجِلْدِى *kečildi*] اِيشْ كِيجِلْدِى *iš kečildi* – “ishda kechikildi” (كِيجِلُورْ *kečilür*, كِيجِلْمَاكْ *kečilmäk*).

[بِيلَلْدِى *beläldi*] اَرْ تَرْكَا بِيلَلْدِى *er terkä beläldi* – “kishi terga belandi, g‘arq bo‘ldi”.

[بِيلَلْدِى *beläldi*] اُغْلَانْ بِيلَلْدِى *oγlan beläldi* – “bola beshikka belandi” (بِيلَلُورْ *belälür*, بِيلَلْمَاكْ *belälmäk*). Bu fe’l o‘timli, oldingisi o‘timsizdir.

[بِيلَدِى *beläldi*] اَتْ قَانْقَا بِيلَدِي *at qanqa beläldi* (266a) – “ot qonga belandi”. Bu otlarning ko‘p so‘yilishiga ko‘radir. Bu fe’lning masdari bundan oldingi fe’l masdari kabidir.

ن *n* [harfi]:

[كُيفَنْدِى *küywändi*] اَرْ اِيشْقَا كُيفَنْدى *er ïšqa küywändi* – “kishi ishda sustkashlik qildi” (كُيفَنُورْ *küywänür*, كُيفَنْمَاكْ *küywänmäk*). Bu so‘zning كُفيَنْدِي *küwyändi* tarzida harfi almashtirilgan shakli ham bor.

Bu bo‘limning boshqa turi

ن *n* [harfi]:

[قَاتْلَنْدِى *qatlandï*] يِغَاجْ قَاتْلَنْدِى *yïγač qatlandï* – “daraxt meva qildi”. Bu ug‘raq, qipchoq, yamaklar so‘zidir (قَاتْلَنُورْ *qatlanur*, قَاتْلَنْمَاقْ *qatlanmaq*).

Boshqa qabilalar tilida bu so‘z bir turli tikanli daraxtlar mevasiga nisbatan qo‘llanadi. Bularda xonaki daraxtlar mevasi uchun يَمِيشْلَنْدِى *yemišländi* so‘zi qo‘llanadi.

ر *r* [harfi]:

[قَارْلَنْدِى *qarlandï*] اَرتْ قَارْلَنْدِى *art qarlandï* – “tog‘ning kamaridagi yo‘l qorlandi” (قَارْلَنُورْ *qarlanur*, قَارْلَنْمَاقْ *qarlanmaq*).

[قُورْلَنْدِى *qorlandï*] اَرْ تَقَارِنكَا قُورْلَنْدِى *er tawarïŋa qorlandï* – “kishi moli ketgani uchun xafa bo‘ldi, achindi”.

[قُورْلَنْدِى *qorlandï*] قِمِزْ قُورْلَنْدِى *qïmïz qorlandï* – “qimiz achitqi solingani sababli achidi”. Qatiqning quyilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُورْلَنُورْ *qorlanur*, قُورْلَنْمَاقْ *qorlanmaq*).

Asosiy o‘zakdan yasalgan fe’llar

[تَيَقْلَنْدِي *tayaqlandï*] اَرْ تَيَقْلَنْدِي *er tayaqlandï* – “kishi tayoqli bo‘ldi” (تَيَقْلَنُورْ *tayaqlanur*, تَيَقْلَنْمَاقْ *tayaqlanmaq*).

[تَيُقْلَنْدِى *tayuqlandï*] يِكِتْ تَيُقْلَنْدِى *yigit tayuqlandï* – “yigit ziyrak kishilarga o‘xshadi; ular darajasiga yetdi” (تَيُقْلَنُورْ *tayuqlanur*, تَيُقْلَنْمَاقْ *tayuqlanmaq*).

[قَيُقْلَنْدِى *qayuqlandï*] سُوتْ قَيُقْلَنْدِى *süt qayuqlandï* – “sut qaymoq bog‘ladi” (قَيُقْلَنُورْ *qayuqlanur*, قَيُقْلَنْمَاقْ *qayuqlanmaq*).

Qoida: uch harfli ismlardan yasalgan bu xil fe’llar bu kitobda (bo‘limda) bir necha xil ma’nolarni anglatadi:

Birinchisi, so‘zlangan narsa bilan birgalik yoki unga egalik ma’nosini anglatadi. Chunonchi, اَرْ تَيَقْلَنْدِي ***er tayaqlandï*** – “kishi tayoq egasi bo‘ldi”; سُوتْ قَيُقْلَنْدِى ***süt qayuqlandï*** – “sut qaymoq bog‘ladi” kabi.

Ikkinchisi, so‘zlovchi bir narsani so‘zlangan narsaning qatorida hisoblaganlik ma’nosini anglatadi. Chunonchi, اَرْ اَتغْ قِيزْلَنْدِى ***er atïγ qïzlandï*** – “kishi otni qimmatsiradi”. Shuningdek, اُلْ اَنِى قِيزْلَنْدِى ***ol anï qïzlandï*** (266b) – “u joriyani o‘z qizlari qatorida bildi” kabi.

Uchinchisi, majhul fe’l ma’nosini anglatadi. Chunonchi, تَقَارْ چُوغْلَنْدِى ***tawar čuγlandï*** – “mol to‘plandi”; بُوزْ جُغْلَنْدِى / جِغْلَنْدِى ***böz čuγlandï*** / ***čïγlandï*** – “bo‘z va boshqa matolar o‘lchandi”.

To‘rtinchisi, oti aytilgan narsaga o‘xshaganlik ma’nosini anglatadi. Chunonchi, اَرْ تَيُقْلَنْدِى ***er tayuqlandï*** – “kishi ziyrak va shunga o‘xshash odamlarga o‘xshadi; ular darajasiga yetdi”.

Bu yerda yana ikki xususiyatni yuqoridagiga qiyos qilib aytish mumkin.

Birinchisi, so‘zlovchi so‘zlangan narsa bilan birgaligi yoki unga egaligini anglatishdir. Chunonchi, تَاغ تِيتْلَنْدِى ***taγ tïtlandï*** – “tog‘ sanubar daraxtli bo‘ldi”; اَرْ قَابْلَنْدِى ***er qaplandï*** – “kishi qopga ega bo‘ldi” kabi.

Ikkinchisi, so‘zlovchi bir narsani so‘zlangan narsaning qatorida hisoblashi ma’nosida kelishi. Chunonchi, اُلْ نَانكْنِى قِيزْلَنْدِى ***ol näŋni qïzlandï*** – “u narsani qimmatsiradi” kabi. Bundan boshqasi yuqorida so‘zlaganimiz kabidir. Qiyos qiluvchi kishi so‘zni boshqa yo‘llar asosida qo‘llashi mumkin. Chunki har bir ism turli ma’no anglatuvchi qo‘shimchalarni qo‘shib, har xil ma’nolarda qo‘llanishiga mone bo‘lmaydi. Lekin shuni yaxshi bilish kerakki, butun turk tillarida xohlagan har bir ismdan fe’l turi yasash mumkin emas. Chunonchi, “kishi otalar so‘zini so‘zladi yoki unga ega bo‘ldi” ma’nosida اَرْ سَاقْلَنْدِى ***er sawlandï*** deyilishi yoki “sha’nu shuhrat egasi bo‘ldi” ma’nosida اَرْ جَاقْلَنْدِى ***er čawlandï*** deb ham qo‘llanmaydi. Holbuki, qoidaga ko‘ra, hamma ismdan fe’l yasab qo‘llash mumkin. Biror kishi uni qo‘llasa, hech kim ayblay olmaydi.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ب ***p*** [harfi]:

[كُرْبَالَنْدِى ***körpäländi***] اُتْ كُرْبَالَنْدِى ***ot körpäländi*** – “o‘rib olingandan so‘ng o‘t yana o‘sib chiqdi” (كُرْبَالَنُورْ ***körpälänür***, كُرْبَالَنْمَاكْ ***körpälänmäk***).

[كِرْبِيلَنْدِى ***kirpiländi***] كِشِى كِرْبِيلَنْدِى ***kiši kirpiländi*** – “kishi g‘alizlikda kirpi kabi qattiqyuzli bo‘ldi” (كِرْبِيلَنُورْ ***kirpilänür***, كِرْبِيلَنْمَاكْ ***kirpilänmäk***).

ت ***t*** [harfi]:

[بَرْتْلَنْدِي ***bertländi***] اَرْ بَرْتْلَنْدِي ***er bertländi*** – “kishi kalta paxtalik to‘nga ega bo‘ldi” (بَرْتْلَنُورْ ***bertlänür***, بَرْتْلَنْمَاكْ ***bertlänmäk***).

[بُرْتُلَنْدِى ***bortulandï***] بُرِكْ بُرْتُلَنْدِى ***börk bortulandï*** (267a) – “qalpoq oltin parchalari bilan ziynatlandi” (بُرْتُلَنُورْ ***bortulanur***, بُرْتُلَنْمَاقْ ***bortulanmaq***).

ر ***r*** [harfi]:

[بُغْرَلَنْدِی ***buγralandï***] تَفَی بُغْرَلَنْدِی ***tewäy buγralandï*** – “tuya bug‘ra darajasiga yetdi” (بُغْرَلَنُورْ ***buγralanur***, بُغْرَلَنْمَاقْ ***buγralanmaq***).

غ ***γ*** [harfi]:

[تُزْغُلَنْدِی ***tuzγulandï***] اُلْ مَنکَا تُزْغُلَنْدِی ***ol meŋä tuzγulandï*** – “u menga yegulik va boshqa narsalardan taqdim etdi” (تُزْغُلَنُورْ ***tuzγulanur***, تُزْغُلَنْمَاقْ ***tuzγulanmaq***).

[قَذْغُلَنْدِی ***qaδγulandï***] اُلْ بُو اِیشْقَا قَذْغُلَنْدِی ***ol bu ïšqa qaδγulandï*** – “u bu ishga va boshqa narsalarga qayg‘ulandi” (قَذْغُلَنُورْ ***qaδγulanur***, قَذْغُلَنْمَاقْ ***qaδγulanmaq***).

[قُذْغُلَنْدِی ***quδγulandï***] اَتْ قُذْغُلَنْدِی ***at quδγulandï*** – “ot pashshani o‘zidan haydadi” (قُذْغُلَنُورْ ***quδγulanur***, قُذْغُلَنْمَاقْ ***quδγulanmaq***).

[قُرْغُلَنْدِی ***qurγulandï***] اَرْ قُرْغُلَنْدِی ***er qurγulandï*** – “kishi quruqlandi, yengiltaklik qildi” (قُرْغُلَنُورْ ***qurγulanur***, قُرْغُلَنْمَاقْ ***qurγulanmaq***).

ق ***q*** [harfi]:

[تَلْقِلَنْدِی ***talqïlandï***] اُزُمْ تَلْقِلَنْدِی ***üzüm talqïlandï*** – “uzum g‘o‘ralandi” (تَلْقِلَنُورْ ***talqïlanur***, تَلْقِلَنْمَاقْ ***talqïlanmaq***).

ک ***k*** [harfi]:

[بُرْکَلَنْدِی ***börkäländi***] تَمُرْ بُرْکَلَنْدِی ***tamur börkäländi*** – “kishi tomiri qonga to‘ldi”. Boshqa narsalarga ham shunday.

[بَرْکَلَنْدِی ***berkäländi***] اَرْ بَرْکَلَنْدِی ***er berkäländi*** – “kishi mol haydaydigan qamchiga ega bo‘ldi” (بَرْکَلَنُورْ ***berkälänür***, بَرْکَلَنْمَاکْ ***berkälänmäk***).

[بُرْکَلَنْدِی ***bürgäländi***] اَرْ بُرْکَلَنْدِی ***er bürgäländi*** – “kishi achchig‘idan burga kabi sakradi” (بُرْکَلَنُورْ ***bürgälänür***, بُرْکَلَنْمَاکْ ***bürgälänmäk***).

[بِلْکَلَنْدِی ***bilgäländi***] اَرْ بِلْکَلَنْدِی ***er bilgäländi*** – “kishi aqlli bo‘ldi” (بِلْکَلَنُورْ ***bilgälänür***, بِلْکَلَنْمَاکْ ***bilgälänmäk***). Bu so‘zni بِلْکِمْسِنْدِی ***bilgimsindi*** tarzida olish yaxshiroqdir. Ya’ni “kishi o‘zini aqlli ko‘rsatdi” demakdir. Shuningdek, boshqa fe’llarda ham bo‘lmagan ishni bo‘lgandek qilib ko‘rsatish uchun fe’l o‘zagiga *mīm, sīn, nūn* (مسنْ -*msïn, -msin*) qo‘shib ifoda qilinadi.

[تِلْکُولَنْدِی ***tilküländi***] اَرْ تِلْکُولَنْدِی ***er tilküländi*** – “kishi laganbardorlik qildi” (تِلْکُولَنُورْ ***tilkülänür***, تِلْکُولَنْمَاکْ ***tilkülänmäk***).

[سِرْکَلَنْدِی ***sirkäländi***] اُغْلَانْ سِرْکَلَنْدِی ***oγlan sirkäländi*** – “bolaning va bosh-qalarning boshiga sirka tushdi” (سِرْکَلَنُورْ ***sirkälänür***, سِرْکَلَنْمَاکْ ***sirkälänmäk***).

م ***m*** [harfi]:

[تُکْمَلَنْدِی ***tügmäländi***] اَرْ تُکْمَلَنْدِی ***er tügmäländi*** – “kishi ko‘ylak tugmalarini ildi, taqdi” (تُکْمَلَنُورْ ***tügmälänür***, تُکْمَلَنْمَاکْ ***tügmälänmäk***).

[کَسْمَلَنْدِی ***kesmäländi***] قِیزْ کَسْمَلَنْدِی ***qïz kesmäländi*** – “qiz gajak kokil qo‘ydi” (267b) (کَسْمَلَنُورْ ***kesmälänür***, کَسْمَلَنْمَاکْ ***kesmälänmäk***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ر ***r*** [harfi]:

[یَقْرِلَنْدِی ***yaqrïlandï***] قُویْ یَقْرِلَنْدِی ***qoy yaqrïlandï*** – “qo‘yning yog‘i ko‘paydi; yog‘li bo‘lib semirdi” (یَقْرِلَنُورْ ***yaqrïlanur***, یَقْرِلَنْمَاقْ ***yaqrïlanmaq***).

غ ***γ*** [harfi]:

[**يُڤْغَلَنْدِي** ***yuwγalandï***] **اُغُلْ يُڤْغَلَنْدِي** ***oγul yuwγalandï*** – “bola beboshlandi” (**يُڤْغَلَنُورْ** ***yuwγalanur,*** **يُڤْغَلَنْمَاقْ** ***yuwγalanmaq***).

ق ***q*** [harfi]:

[**يُڤقَلَنْدِى** ***yuwqalandï***] **اُلْ مَنْكَا يُڤقَلَنْدِى** ***ol meŋä yuwqalandï*** – “u menga yaltoqlandi va tobe bo‘ldi” (**يُڤقَلَنُورْ** ***yuwqalanur,*** **يُڤقَلَنْمَاقْ** ***yuwqalanmaq***).

م ***m*** [harfi]:

[**يَغْمَلَنْدِى** ***yaγmalandï***] **اَرْ يَغْمَلَنْدِى** ***er yaγmalandï*** – “kishi kiyim-kechakda, yurish-turishda, xulq-atvorda yag‘molarga o‘xshadi; yag‘molashdi” (**يَغْمَلَنُورْ** ***yaγmalanur,*** يَغْمَلَنْمَاقْ ***yaγmalanmaq***). Bu arabchadagi وقيس غيلان و من تقيس iborasi kabidir. “Ularning xulq-atvorini qabul qildi, ularga o‘xshadi” demakdir. Yana arab iborasi تمعد الرجل اى ارى انه معدى ham shu borada aytilgan. Ya’ni “kishi o‘zini maod qabilasi kabi ko‘rsatdi” demakdir. Bu xil fe’llar yozuvda emas, talaffuzda oxiridan beshinchi harfi tushirilgan to‘rt harfli ismlardan yasaladi. Chunonchi, **قُوىْ يَقْرِلَنْدِى** ***qoy yaqrïlandï*** (“qo‘y yog‘li bo‘lib semirdi”) va **اَرْ يُڤقَلَنْدِى** ***er yuwqalandï*** (“kishi yaltoqlandi”) gaplaridagi **يَقْرِى** ***yaqrï*** (“yog‘”) so‘zidan *yā* tushirilib, “mayin narsa” ma’nosidagi **يُڤقَا** ***yuwqa*** so‘zidan *alif* tushirilgani kabi.

Bu bo‘limning olti harflilari

ج ***č*** [harfi]:

[**سَرَاغُجْلَنْدِى** ***sarayučlandï***] **اُرَاغْتْ سَرَاغُجْلَنْدِى** ***urayut sarayučlandï*** – “xotin boshyopinchiqli bo‘ldi” (**سَرَاغُجْلَنُورْ** ***sarayučlanur,*** **سَرَاغُجْلَنْمَاقْ** ***sarayučlanmaq***).

ك ***k*** [harfi]:

[**بِلَازُكْلَنْدِى** ***biläzükländi***] **اِشْلَارْ بِلَازُكْلَنْدِى** ***ešlär biläzükländi*** – “xotin bilaguzuk taqdi” (**بِلَازُكْلَنُورْ** ***biläzüklänür,*** **بِلَازُكْلَنْمَاكْ** ***biläzüklänmäk***).

Bu xil fe’llar to‘rt harfli ismlardan yasalgan. Besh harfli, olti harfli ismlardan yasalishi ham mumkin. Qoida hamma turkiy tillar uchun birdir. Chunonchi, **اَرْ سَقَلْدُرُقْلَنْدِى** ***er saqalduruqlandï*** – “kishi soqolturuq osdi”. Yana: **اَرْ الاجُولَنْدِى** ***er alačulandï*** – “kishi kichik chodir tikdi”. Yana: **اَرْ خُمَارُولَنْدِى** ***er xumarulandï*** (268a) – “kishi do‘sti yoki boshqaning molidan ulush oldi”; **اَرْ كَرَاكُولَنْدِى** ***er kerägüländi*** – “kishi o‘ziga chodir tikdi va unga kirdi”.

[**سَيْرَمْلَنْدِى** ***sayramlandï***] **سُوڤْ سَيْرَمْلَنْدِى** ***suw sayramlandï*** – “suv to‘piqdan kelar darajada ozaydi” (**سَيْرَمْلَنُورْ** ***sayramlanur,*** **سَيْرَمْلَنْمَاقْ** ***sayramlanmaq***).

[**قَاتُولَنْدِى** ***qatunlandï***] **اُرَاغْتْ قَاتُولَنْدِى** ***urayut qatunlandï*** – “xotin malikalarga o‘xshadi; ular darajasiga yetdi” (**قَاتُولَنُورْ** ***qatunlanur,*** **قَاتُولَنْمَاقْ** ***qatunlanmaq***).

[**قَاغُولَنْدِى** ***qayunlandï***] **اَرْ قَاغُولَنْدِى** ***er qayunlandï*** – “kishi qovunli bo‘ldi” (**قَاغُولَنُورْ** ***qayunlanur,*** **قَاغُولَنْمَاقْ** ***qayunlanmaq***).

Tangriga shukr, uch harflilar bo‘limi tugadi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU IKKI HARFLI ISMLARNING *δavāti-l-arba’a*[1] KITOBIDIR

ب *b* [harfi]:

بَا *be* – qo‘yning ma’ragan ovozi; **قُوىْ بَالَادِى *qoy belädi*** – “qo‘y ma’radi”.

بُو *bu* – “bug‘”; bundan **اَشِجْ بُوسِى *ešič busï*** deyiladi, “qozon va boshqa narsalarning bug‘i” demakdir.

بُو *bu* – “bu” ma’nosidagi so‘z; bundan **بُو اَرْ *bu er*** deyiladi, “bu kishi” demakdir.

بِي *bi* – turklarda “biya”, ammo o‘g‘uzlarda emas.

بِى *bi* – bu so‘zning **بُوىْ *böy*** shakli ham bor; “o‘rgimchak” (o‘g‘uzcha).

ت *t* [harfi]:

تُو *tü* – “badandagi tuk”; bundan **بِيرْ تُو سَجْ *bir tü sač*** deyiladi, “bir tolim soch” demakdir.

تُو *tü* – “rang”; bundan **تُودَشْ تُونْلَارْ *tüdäš tonlar*** deyiladi, “bir xil rangli kiyimlar” demakdir.

تُو *tü* – “ot rangi, turi”; bundan **اَتِنكْ نَا تُولُكْ *atïŋ ne tülüg?*** deya so‘raladi, “oting qaysi rangda, otingning turi qanday?” demakdir.

تُو *to* – yo‘g‘on unli (ya’ni [*o*]) bilan (بالاشباع); bulamiqda undan pishirilgan taomning bir turidir. Uni bir idishga solib achitiladi, so‘ng yeyiladi.

ج *č* [harfi]:

جَا *-ča, -čä* – o‘xshatish ko‘makchisi (حرف تشبيه) dir. Bu arab tilidagi *kāfü-l-tašbīh* ga o‘xshaydi. Chunonchi, **اُلْ مَنِكْ جَا *ol meniŋčä*** – “u menday”; **بُو اَنِكْ جَا *bu anïŋča*** – “bu uning kabidir”.

جِى *ji* – “namlik, zax”; bundan **جِى يِرْ *ji yer*** deyiladi, “nam yer” demakdir.

جُو *-ču, -čü* (268b) – bo‘lishli, bo‘lishsiz fe’l buyruqlari oxiriga qo‘shilib, buyruq ma’nosini kuchaytiradigan qo‘shimcha (حرف يلحق). Chunonchi, **كَلْ جُو *kelčü*** deyiladi, “albatta kel” demakdir; **بَرْمَاجُو *barmaču*** deyiladi, “zinhor borma” demakdir. Bu faqat kitobda qo‘llanadi.

س *s* [harfi]:

سَا *-sa, -sä* – shart ma’nosini bildiradigan qo‘shimcha (حرف بمعنى لو). Bundan **اُلْ اَفكَا بَرْسَا *ol ewkä barsa*** deyiladi, “u agar uyga borsa; qachonki borsa” demakdir; **سَنْ قَجَانْ بَرْسَا سَنْ *sen qačan barsa-sen*** – “agar sen borsang” singari. Bu faqat fe’llarga qo‘shiladi.

[1] Ya’ni *alif*, *vāv*, *yā* harflari qisqa unli sifatida yoki [*v*], [*y*] deb o‘qiladigan so‘zlar.

سَا ***sa*** – “sen” ma’nosidagi so‘zdir. Bundan **سَا اَيُرْمَنْ** ***sa ayur-men*** deyiladi, “senga aytaman” ma’nosidadir. Bu so‘zning oxiridagi *alif* **سَنْ** ***sen*** so‘zidagi *nūn* o‘rniga almashgan yoki **سَنْگَا** ***seŋä*** so‘zidan **نگَا** ***-ŋä*** tushirilgan.

nūn o‘rniga *alif* almashinishi arabchada ham bor. Chunonchi, ulug‘ Tangrining لنسفعا so‘zidagi va shoir عشى *’Ašā* ning والله ربک فاعبدا iborasidagi kabi.

سُو ***sü*** – “qo‘shin; askarlar”. Maqolda (shunday kelgan): **اُتَاغْقَا اُبْكَلَابْ سُوكَا سُوزْلَامَادُكْ** ***Otaγqa öpkäläp, sükä sözlämädük.*** Ma’nosi: “Chodirdagi hamrohlaridan xafa bo‘lib, askarlar bilan so‘zlashmadi”. Bu maqol birov qilgan bir ishdan achchiqlanib, do‘stlaridan xafalanuvchi, ular bilan so‘zlashmovchi kishiga qarata aytiladi.

(Shoir) shunday degan:

سُو كَلْدِى يِيرْ يَبَا	***Sü keldi yer yapa,***
قَرَارْ قَرْ ..... سَا	***Qarar qar ……sa***
قَجْتِى اَنكَرْ اَلبْ اَيَا	***Qačtï aŋar Alp Aya,***
اُفْتْ بُلُبْ اُلْ يَشَارْ	***Uwut bulup ol yašar.***

Aytmoqdaki: “Yer yuzini bosib qo‘shin keldi. Otning tuyoqlaridan chiqqan chang-to‘zon qorli tog‘larni qopladi. اَلبْ اَيَا *Alp Aya* degan kishi qochdi. U yengil gapidan uyalib yashirindi”.

سِى ***-sï, -si*** – ynlilar bilan tugagan so‘zlarga qo‘shiladigan izofa belgisi. Undoshlar bilan tugaganda faqat *yā* keladi. Chunonochi, **اَتَا** ***ata*** so‘zi oxiri unli bilan tugagan so‘zdir. Bu so‘z izofa vazifasida qo‘llanganda, **اَنِكْ اَتَاسِى** ***anïŋ atasï*** (“uning otasi”) shaklida so‘z oxiriga orttiriladi. **اَنَا** ***ana*** so‘zi ham shunday, oxiri unli bilan bitgan. Buni ham izofa vazifasida qo‘llaganda **اَنِكْ اَنَاسِى** ***anïŋ anasï*** (“uning onasi”) shaklida سِى *-sï* orttirib qo‘llanadi. Ammo **اَنِكْ اَتَايِى** ***anïŋ atayï*** deyilmaydi. (269a) Chunki unda uch cho‘ziq harf (حروف اللين) bir erda ketma-ket kelgan bo‘ladi. Holbuki, bu so‘zlash uchun noqulaydir. Shuning uchun, so‘zlashganda qulaylik bo‘lsin deb, o‘rtadagi cho‘ziq harf *sīn* ga almashtiriladi.

Oxiri undoshlar bilan bitgan so‘zlarga kelganda **اُغُلْ** ***oγul*** ni olaylik. **اُغُلْ** ***oγul*** so‘zini izofa vazifasida qo‘llaganda **اَنِكْ اُغْلِى** ***anïŋ oγlï*** (“uning o‘g‘li”) deyiladi. Bu so‘zning oxirgi harfi bo‘lgan *lām* harfi izofa tarkibida kelishi natijasida o‘ziga unli harfni qabul qilgan. Bu yerda *sīn* orttirishga zarurat qolmagan. Shuningdek, **اَت** ***at*** so‘zi ham izofa vazifasida qo‘llanganda, **اَنِكْ اَتِى** ***anïŋ atï*** (“uning oti”) shaklida qo‘llanadi. Bu so‘z oxiridagi *tā* undoshi izofa tarkibida qo‘llanishi natijasida o‘ziga unli harfni qabul qiladi; *sīn* orttirishga ehtiyoj qolmaydi.

Izofa qo‘llash borasidagi bu qoida hamma turkiy tillar uchun umumiydir. Ya’ni ismlarning oxiri unli yoki undosh bilan tugashiga qarab ish ko‘riladi.

ش ***š*** [harfi]:

شَا ***ša*** – baliqchiga o‘xshagan ola-bula yo‘lli bir turli qush; ملِک الحزين deb ataluvchi qushga o‘xshaydi. Bu ayrim kishilarga ham laqab sifatida qo‘llanadi: **اَرْدَمْ سِزْ شَا** ***erdämsiz ša*** deyiladi, “ko‘rimsiz, foydasiz qush” demakdir. U har vaqt erga yaqin uchadi.

شُو ***-šu, -šü*** – fe’llar o‘zagiga qo‘shilib, buyruq ma’nosini kuchlatuvchi **جُو** ***-ču, -čü*** qo‘shimchasi o‘rnida qo‘llanuvchi qo‘shimcha. Chunonchi, **بَرْغِلْ شُو** ***barγïl šu*** – “albatta bor, borsang-chi”; **كَلْ شُو** ***kel šü*** – “albatta kel, kelsang-chi” kabi.

شِی ***šï*** – صِينْ *Ṣīn* xoqonlarining sog‘-salomatlik so‘rash uchun qo‘llaydigan so‘zi. Bu so‘z arablarning ابيت اللعن “Xudo falokatlardan saqlasin” degan iboralari kabidir.

غ ***γ*** [harfi]:

غُو ***-γu*** – fe’l o‘zaklariga qo‘shilib, joy, payt yoki qurol otlari yasaydigan qo‘shimcha. Chunonchi, **بَرْغُو يِيرْ** ***barγu yer*** deyiladi, “boriladigan yer” demakdir; **تُرْغُو يِيرْ** ***turγu yer*** – “turiladigan er” deyilgandagi kabi.

ق ***q*** [harfi]:

قَا ***qa*** – “idish, qop”. Lekin bu asosan suyuq narsalar quyib qo‘yiladigan idishga nisbatan qo‘llanadi. Chunonchi, bu so‘z juft holda **قَا قَجَا** ***qa-qača*** tarzida qo‘llanadi, “qop-qanor; qop-qopchiq” demakdir.

قَا ***-qa*** – o‘rin-payt kelishigi vazifasida qo‘llanuvchi qo‘shimcha. Bu tarkibida *qāf* harfi bo‘lgan ismlar yoki, umuman, yo‘g‘on talaffuzli (المشبعة) ismlar va yoki ingichka talaffuzli (الركيكة) ismlar oxiriga qo‘shiladi. Chunonchi, **بَاغْقَا كِرْ** ***baγqa kir*** – “boqqa kir”; **تَاغْقَا يُقلَا** ***taγqa yuqla*** – “toqqa chiq” deyilgandagi kabi.

قَا ***-qa*** – jo‘nalish kelishigi qo‘shimchasi vazifasida qo‘llanadi. Bunday qo‘llanish arg‘uchadir. Chunonchi, **اَتَامْقَا بِيرْدِمْ يَرْمَاقْ** ***atamqa berdim yarmaq*** – “otamga pul berdim”; (269b) **اَنَامْقَا تَقَارْ بِيرْدِمْ** ***anamqa tawar berdim*** – “onamga mol berdim” kabi. Ba’zan bu qo‘shimcha izofadagi *lām* ma’nosida ham keladi. Chunonchi, **اَتَمْقَا سُوزْ اَيْدِمْ** ***atamqa söz aydïm*** – “otamga so‘z aytdim”.

قِی ***qï*** – “hey” ma’nosini beruvchi undov so‘zdir. Chunonchi, **قِی بَرُو كَلْ** ***qï berü kel*** – “hey, beri kel”. Bu so‘zdagi *qāf* bilan *yā* orasi cho‘zib talaffuz qilinadi.

قِی ***-qï*** – yaqinlik, qarindoshlik ma’nosida ismlar oxiriga qo‘shilib, sevgi va xayrixohlik ma’nosini anglatuvchi qo‘shimcha; **اَتَاقِی** ***ataqï*** – “otaginam”; **اَنَاقِی** ***anaqï*** – “onaginam” kabi.

ک ***k*** [harfi]:

كَا ***-kä*** – tarkibida *kāf* harfi bo‘lgan va umuman, ingichka harfli (الركيكة) so‘zlar oxiriga qo‘shilib, jo‘nalish ma’nosini bildiruvchi qo‘shimcha. Chunonchi, **اُلْ اَفكَا بَرْدِی** ***ol ewkä bardï*** – “u uyga kirdi” kabi.

Bu qo‘shimcha ba’zan o‘rin-payt ma’nosini bildiruvchi qo‘shimcha ma’nosida ham qo‘llanadi: **اُلْ اَفكَا كِرْدِی** ***ol ewkä kirdi*** – “u uyga kirdi” kabi. Ba’zan bu qo‘shimcha izofa *lām* i ma’nosida ham qo‘llanadi: **اُلْ تَرْكَا كِرْدِی** ***ol terkä kirdi*** – “u maoshli ishga kirdi”.

كُو *kü* – “kishilar orasidagi izzat, hurmat”; bundan olinib **كُولُكْ بِلْكَا *külüg bilgä*** deyiladi, “shuhrat egasi, oqil va dono” demakdir.

ل *l* [harfi]:

لَا *-la, -lä* – o‘g‘uzlar qilingan ishning aniq va qat’iyligini anglatish uchun fe’llar oxiriga qo‘shib qo‘llaydigan ta’kid qo‘shimchasi. Chunonchi, **أُلْ بَرْدِى لَا *ol bardïla*** – “u aniq bordi; u chindan ham bordi”; **أُلْ كَلْدِي لَا *ol keldilä*** – “u keldi; uning kelgani aniq bo‘ldi”. Bu ishning amalga oshganligini bilmagani uchun, uni inkor qilayotgan tinglovchiga nisbatan qo‘llanadi. Boshqa turklar buni bilmaydilar.

م *m* [harfi]:

مَا *-ma, -mä* – fe’lning buyruq shakli oxiriga qo‘shilib, bo‘lishsizlik ma’nosini ifodalovchi qo‘shimcha. Chunonchi, **قِلْ *qïl*** – “qilgin”; **قِلْمَا *qïlma*** – “qilmagin” kabi. Bu qoida har qanday fe’l turlari uchun ham bo‘lishsizlikni ifodalovchi umumiy qoidadir.

مَا *ma* – “ma; ol” ma’nosidagi bir so‘z. **مَا *ma*** – “ma, mana, ol” demakdir. Bu so‘zni ba’zan ه *hā* va *alif* bilan **مَه *mah*** shaklida ham talaffuz qiladilar.

Bu hol arabcha ابريه و هبرية و اراق وهراق kabilarning qo‘llanishi singaridir.

مَا *me* – bu so‘z echki va qo‘zilarning ma’rashi ma’nosida ham qo‘llanadi. Bunda arabchaga moslik bor. (270a) Chunonchi, ذى الرمة باسم الماء مبغوم so‘zi iborasida ham kelgan.

مُو *-mu, -mü* – ism va fe’llar oxiriga qo‘shilib, biror narsa haqida so‘rash ma’nosini anglatuvchi qo‘shimcha. Chunonchi, **بُو اَتْمُو *bu atmu?*** – “bu otmi?”; **بُو اِتْمُو *bu ïtmu?*** – “bu itmi?” kabi.

Fe’llarda qo‘llanishiga misol: **بَرْدِنگْمُو *bardïŋmu?*** – “bordingmi?”; **كلْدِنگْمُو *keldiŋmü?*** – “keldingmi?” kabi. O‘g‘uzlarning ba’zilari o‘zgaga qaratilgan fe’l turlariga so‘roq qo‘shimchasini qo‘shishda turklardan ajralib turadi. Ular *mīm* ni kasra qilib, *vāv* harfini *yā* ga almashtiradilar: **أُلْ بَرْدِيمِى *ol bardïmï?*** – “u bordimi?” deydilar. Bu farq faqat fe’llarda bo‘lib, ismlarni qo‘llashda ular ham turklar singaridir. Chunonchi, ular ham **بُو اَتْ سَنِكْ مُو *bu at seniŋmü?*** – “bu ot senikimi?”; **بُو أُغُلْ سَنِكْ مُو *bu oγul seniŋmü?*** – “bu sening o‘g‘lingmi?” tarzida qo‘llaydilar.

ن *n* [harfi]:

نَا *ne?* – “nima?” ma’nosidagi so‘z; bundan olib **نَا تِيرْ سَنْ *ne ter-sen?*** deya so‘raladi, “nima deysan?” demakdir.

نَا *ne* – arab tilida taajjubni anglatuvchi مَا *ma* qo‘shimchasi vazifasida qo‘llanuvchi qo‘shimcha. Bundan olib, **نَا مَا اَدْكُو كِشِى أُلْ *ne mä eδgü kiši-ol*** deyiladi, “u va boshqalar qanday yaxshi kishilardir” demakdir; **نَا مَا يَقْزْ نَانَكْ أُلْ بُو *ne mä yawuz näŋ-ol bu*** deyiladi, “qanday yomon narsadir bu” demakdir.

نُو *nü* – **نَا *ne*** qo‘shimchasi o‘rnida “nima?” ma’nosida qo‘llanadigan qo‘shimcha. Bundan olib, **نُو تِيرْ سَنْ *nü ter-sen?*** deya so‘raladi, “nima deysan?” demakdir. Bu so‘zning asli **نَا كُو *negü*** dir. So‘zdan *alif, kāf* harflari tushirilgan.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

و *v* [harfi]:

وَا *va* – so‘zlovchi buyrug‘ini inkor etishni anglatadigan so‘z. Chunonchi, **وَا نَا تِيرْسَنْ *va ne ter-sen?*** – “nima deyapsan; noto‘g‘ri gapiryapsan” demakdir.

وَا *va* – qayg‘u-alam vaqtida so‘zlanib, ta’kid ma’nosini anglatadi.

ي *y* [harfi]:

يَا *ya* – “yoy”. Maqolda (shunday kelgan): **قُرْمِشْ كِرِشْ تُكُلْمَاسْ اُقرُقْنْ تَاغ اَكِلْمَاسْ *Qurmïš kiriš tügülmäs, oqruqun tay egilmäs.*** Ma’nosi: “Qurigan yoyni bog‘lab bo‘lmaydi, shuningdek, arqon bilan tog‘ni egib bo‘lmaydi”. Bu maqol arzimagan bir bahona bilan katta ishga kirishishni istagan kishiga nisbatan qo‘llanadi.

يَا *ya* – yuqorida bayon qilingan inkorni anglatuvchi وَا *va* so‘zi ma’nosidadir.

يُو *yu* – xotinlar biror narsadan uyalganlarida so‘zlanadigan so‘z.

يِى *yi* – “kiyim choki”. “Tikuvchi”ga **يِچِى *yiči*** deyish ham shundandir.

يِى *yi* – “tog‘dagi kichik yo‘l”. (270b)

[**يِى *yi***] **يِى يِغَاجْ *yi yïγač*** – “bir-biriga o‘ralashib, chuvalashib ketgan daraxt”. Asli **يِيكِى *yigi*** – “zich” bo‘lgan, keyinchalik qisqartirilgan; “zich tish”ga **يِيكِى تِيشْ *yigi tïš*** deyish ham shundandir.

فَعَل *fa’al,* فَعُل *fa’ul,* فَعِل *fa’il* qoliplarida o‘rta harfi har xil harakatlar bilan talaffuz qilinadigan so‘zlar bo‘limi

ب *p* [harfi]:

تَبَا *tapa* – jo‘nalish kelishigining qo‘shimchasi o‘rnida qo‘llanuvchi qo‘-shimcha; **مَنِكْ تَبَا كَلْدِى *meniŋ tapa keldi*** – “u mening yonimga keldi” degandagi kabi.

تَبَا *tapa* – “qarshi, ro‘para”; **اُلْ اَنِكْ تَبَاسِى قِلْدِى *ol anïŋ tapasï qïldï*** – “u uning qarshisiga turdi”.

تَبِى *tapï* – bir narsaga rozi bo‘lish; **بُو اِيشْتَا اَنِكْ تَبِسِى كَرَاكْ *bu ïšta anïŋ tapïsï keräk*** – “bu ishda uning roziligi kerak”.

[**تَبِى *tapï***] **بُوذِى تَبِى اَرْ *boδï tapï er*** – “o‘rta bo‘yli kishi”.

[**تُبُو *töpü***] **تَاغ تُبُوسِى *tay töpüsi*** – “tog‘ tepasi”; **تُبُو *töpü*** – “kishi boshining tepasi”.

تُبِى *tüpi* – “qor bo‘roni”. Maqolda (shunday kelgan): **قَلِنْ بُلُتْغْ تُبِى سُرَارْ قَرَ نكْقُو اِيشِغْ اُرُنجْ اَجَارْ *Qalïn bulutuγ tüpi sürär, qaraŋqu ïšïγ urunč ačar.*** Ma’nosi: “Qora bulutdan osmonni bo‘ron ochadi, shohlar eshigidagi mushkul ishni pora yechadi”. Bu maqol mushkul ahvolda qolgan kishining, zarurat taqazosi bilan, pora berishiga undab aytiladi.

سُبِى *söbi* – “har qanday uzun, uchli narsa”. Boshi yumaloq emas, cho‘zinchoq kishiga **سُبِى بَاشْ *söbi baš*** deyiladi.

[قُبَا ***quba***] قُبَا اَتْ ***quba at*** – “sochi qo‘ng‘ir rangli ot”. Shu xildagi har bir rangga ham shunday deyiladi.

قَپَا ***qapa*** – “har bir baland narsa”; قَبَا يُوكْلُكْ اُقْ ***qapa yüglüg oq*** – “pati baland o‘q”.

كُبَا ***küpä*** – “zirak, isirg‘a”.

[كُبَا ***kübä***] كُبَا يَرِقْ ***kübä yarïq*** – “zirh ko‘ylak”.

كِبَا ***kibä*** – “oz vaqt, qisqa zamon” (o‘g‘uzcha); كِبَا بُلْدِى ***kibä boldï*** – “ozgina vaqt o‘tdi”.

بِتِى ***biti*** – “ko‘kdan nozil bo‘lgan kitoblar” [Tavrot, Injil, Zabur, Qur’onlardan biri].

ت ***t*** [harfi]:

بُتَا ***bütä*** – “ko‘p, mo‘l” anglamidagi so‘z; مَنْ اَنكَرْ بُتَا يَرْمَاقْ بِيرْدِمْ ***men aŋar*** (271a) ***bütä yarmaq berdim*** – “men unga ko‘p tanga berdim”; بُو اِيشْقَا بُتَا بُلْدِى ***bu ïšqa bütä boldï*** – “bu ishning yuz berganiga ko‘p zamonlar o‘tdi”. Bu so‘z o‘g‘uzlarning كِبَا ***kibä*** (“oz vaqt”) ma’nosidagi so‘zi kabidir.

بُتُقْ ***botuq*** – “tuya bo‘talog‘i”.

جَتُقْ ***čatuq*** – صِينْ *Sīn* dan keltiriladigan bir turli dengiz balig‘ining shoxi. Ba’zilarning aytishicha, pichoq sopi uchun foydalaniladigan bir daraxt ildizidir. U bilan taomda zaharning bor-yo‘qligi sinaladi. Shundayki, bu shoxni sho‘r va boshqa taom ustiga qo‘yilsa, taomda o‘z-o‘zidan harakat paydo bo‘ladi. Olov yoqilmagan bo‘lsa-da, taom qaynay boshlaydi. Yoki idishga u shox qo‘yilsa, idishdan bug‘ chiqmasa-da, ter paydo bo‘ladi.

سَتَا ***sata*** – “marjon”.

شُتِى ***šutï*** – “yosh qo‘zi”. Bu so‘z yoqimli emas.

قَتَا ***qata*** – “marta” anglamidagi so‘z; bundan بِيرْ قَتَا اَيْدِمْ ***bir qata aydïm*** deyiladi, “bir marta aytdim” demakdir.

قَيُو ***qayu?*** – “qaysi?” Bu so‘zning خَيُو ***xayu*** shakli ham bor; *qāf* harfi خ *xā* bilan almashgan: o‘g‘uz va qipchoqlar *qāf* ni خ *xā* ga almashtiradilar. Ular xalachlarning bir toifasidir. Turklar قِيزِمْ ***qïzïm*** (“qizim”) desalar, ular خِيزِمْ ***xïzïm*** deydilar. Turklar قَنْدَا اَرْدِنكْ ***qanda erdiŋ?*** (“qayerda erding?”) desalar, ular خَنْدَا اَرْدِنكْ ***xanda erdiŋ?*** deydilar.

كُتُو ***kötü*** – “tom”.

كَتُو ***ketü*** – “mayib, majruh, cho‘loq” (qipchoqcha).

ج ***č*** [harfi]:

بُجِى ***bočï*** – “bir turli cholg‘u”.

سَجَا ***sečä*** – “chumchuq” (o‘g‘uzcha).

سَجُو ***saču*** – “to‘n, ro‘mol va shu kabilarning hoshiyasi, shokilasi”.

قُجُو ***Qoču*** – اُيغُرْ *Uyγur* shaharlaridan birining oti. U yerdagi shaharlarning hammasi shunday ataladi.

كَجَا ***kečä*** – “namat” (o‘g‘uzcha).

كَجِى ***keči*** – “echki” (o‘g‘uzcha).

كَجَا *kečä* – “kech, kechqurun”.

(Shoir) shunday degan:

كَجَا تُورُبْ يُرِرْ اَرْدِمْ	***Kečä turup yorïr erdim,***
قَرَا قِزِلْ بُرِى كُرْدُمْ	***Qara, qïzïl böri kördüm.***
قَتِغْ يَانِى قُرَا كُرْدُمْ	***Qatïγ yanï qura kördüm,***
قَيَا كُورُبْ بَقُو اَغْدِى	***Qaya körüp baqu aγdï.***

Aytmoqdaki: “Kechasi turib kezar edim. Qora, qizil bo‘rilarni ko‘rib qoldim. Kuchli, qattiq yoyimni otishga hozirladim. Bo‘rilar menga qarashdi, meni ko‘rish bilan orqasiga, yuqorilarga ko‘tarildi”.

كَجَا *kečä* – qovun, bodring va shunga o‘xshaganlarni tashishda foydalaniladigan zambil, qop, kajava. (271b)

نَجَا *nečä* – “qancha?” ma’nosidagi bir so‘z; **نَجَا يَرْمَاقْ بِرْدِنكْ *nečä yarmaq berdiŋ?*** – “qancha tanga (pul) berding?” Ba’zan bu so‘z so‘roq qo‘shimchasi ma’nosida, ya’ni “qanday?” ma’nosida ham keladi.

تَدُو *tadu* – “kishi tabiati, mizoji”.

تَدَا *tada* – ko‘z ko‘radigan manzara; bu o‘n qadam oralig‘idagi tevarak-atrofning ko‘rinishi”.

دَدَا *dada* – “dada, ota” (o‘g‘uzcha).

قُذِى *quδï* – “har narsaning quyisi”; **قُذِى اِلْدِى *quδï ïldï*** – “quyi tushdi” demakdir.

بُرِى *böri* – “chiyabo‘ri”. Maqolda (shunday kelgan): **بُورِى قُشْنِيسِنْ بِيمَاسْ *Böri qošnïsïn yemäs.*** Ma’nosi: “Chiyabo‘ri qo‘shnichilik haqiga rioya qilib, qo‘shnisini yemaydi”. Bu maqol qo‘shnichilik haqiga rioya qilishi kerak bo‘lgan kishilarga qarata aytiladi.

بُرِى *burï* – “o‘q uchiga o‘rnatilgan temir halqa”. Buni **بَشَقْ بُرِيسِى *bašaq borïsï*** deyiladi.

بُرِى *burï* – ichimlik oqib ketmasligi uchun idish og‘ziga tiqib qo‘yiladigan tiqin, po‘kak.

[**تُرِى *torï***] **تُرِى نَانكْ *torï näŋ*** – “ta’mi mozi ta’miga o‘xshash qo‘lansa, taxir bo‘lgan har qanday narsa”. “Qattiq, qo‘pol xulqli kishi”ga **تُرِى كِشِى *torï kiši*** deyish ham shundandir.

[**تُرَا *tura***] **تُرَا قَلْقَنْ *tura qalqan*** – “yov o‘q-yarog‘laridan saqlanish uchun qo‘llanadigan qalqon, zirh”.

تُرَا *törä* – ingichka unli (ya’ni [*ö*]) bilan – باشمام; “to‘r, uyning to‘ri, yuqorisi”; **تُرَا يُقْلَادِى *törä yuqladï*** – “to‘rga chiqib o‘tirdi”. Bu so‘z **تُورْ *tör*** shaklida ham qo‘llanadi.

تُرُو *törü* – “rusm, odat”. Maqolda (shunday kelgan): **اِيلْ قَلِيرْ تُرُو قَلْمَاسْ *El qalïr, törü qalmas.*** Ma’nosi: “Mamlakat qoladi [ya’ni o‘zgaradi], odat qolmaydi”. Bu maqol eskilarning odatlarini saqlashga undab aytiladi.

تَرِى *teri* – “teri”.

سَرُو *serü* – uyda eshik ustiga qilinadigan raf; unga har xil buyumlar qo‘yiladi.

قَرَا *qara* – “har qanday qora narsa”. Xoqoniya shohlari **قَرَا *qara*** deb ataladi; **بُغرَا قَرَا خَاقَانْ *Buγra qara xaqan*** deyilgani kabi. Buning alohida hikoyasi bor.

قَرَاقُشْ *qaraquš* – “qirg‘iy”.

قَرَاقُشْ *Qaraquš* – مُشتَرِی *Muštarī* yulduzi [Yupiter]. Bu tong vaqtida chiqadi. (272a) Ba’zan buni **قَرَا قُشْ يُلْدُزْ *Qaraquš yulduz*** deb ham ataydilar.

قَرَاقُشْ *qaraquš* – “tuya oyog‘ining tag yonlari” (o‘g‘uzcha).

قَرَا اُرُنْ *qara orun* – “go‘r”.

(Bilimli) shunday degan:

بِرْمِشْ سَنِکْ بِلْ	***Bermiš seniŋ, bil,***
يَلَنْکُقْ تَبَرْ قَرِنْقَا	***Yalïŋuq tapar qarïnqa.***
قَلْمِشْ تَفَرْ اَدْنَکْ	***Qalmïš tawar aδïnnïŋ***
کِرْسَا قَرَا اُرُنْقَا	***Kirsä qara orunqa.***

Aytmoqdaki: “Bilgilki, birovga berganing yoki o‘zing yeganinggina seniki, chunki kishi qorni uchun ishlaydi. Kishi go‘rga kirgach, qolgan moli boshqanikidir”. **قَرَا اُرُنْ *qara orun*** ning asl ma’nosi “qorong‘i yer” demakdir.

قَرَا بَاشْ *qarabaš* – qullarga nisbatan qo‘llanadi. Erkak bo‘lsa ham, ayol bo‘lsa ham bir xilda aytilaveradi; “qora bosh” demakdir.

قَرَا اُتْ *qara ot* – zaharli, bir turli o‘t. U kishini o‘ldiradi.

قَرَا يَاغْ *qara yaγ* – “qora yog‘; neft”.

قَرَا سَنْکِرْ *Qara seŋir* – بَرسْغَانْ *Barsγan* yaqinidagi bir joyning oti.

قَرَا اِتْمَاکْ *qara etmäk* – “bir turli non”. Shundayki, go‘sht hil-hil pishib, suyaklari ayrilib ketguncha qaynatiladi. So‘ng ustiga un, yog‘, shakar solinadi, bir-biriga aralashtirilib, quyilguncha qaynatiladi, so‘ng yeyiladi. Bu **قَرَا قُرَا *qara-qura*** tarzida ham qo‘llanadi.

قَرِی *qarï* – “har qanday qari, keksa, ko‘p yashagan kimsa yoki jonzot”. Chunonchi, **قَرِی اَرْ *qarï er*** – “qari kishi; **قَرِی اَتْ *qarï at*** – “katta yoshli ot va boshqalar”.

قَرِی *qarï* – qo‘l o‘lchovi, qo‘l uzunligidagi o‘lchov, qarich.

قَرِی *qarï* – bo‘z o‘lchaydigan o‘lchov, gaz. Bu so‘z avvalgi so‘zdan olingan. Bu so‘zda arabchaga muvofiqlik bor. Chunki qo‘l o‘lchovi bilan kiyim o‘lchovi har ikki tilda birgina so‘z bilan ifoda qilinadi.

قَرِی قَرِی *qurï-qurï* – toy biyadan orqada qolganda yetib olishiga undab chaqiriladigan so‘z. Ba’zan so‘z oxiridagi *yā* harfi ه *hā* ga almashtirilib, **قُرَهْ قُرَهْ *qurah-qurah*** shaklida ham aytiladi.

قُرُو *qoru* – temirdan qilingan uch butoqli bir turli jang yarog‘i; qipchoqlar tilida.

نَرُو *naru* – “tomon” ma’nosidagi bir so‘z; **نَرُو بَارْ *naru bar*** – “u tomon bor” demakdir.

ز ***z*** [harfi]:

***bizi* بِزِی** – non yuzining qorayib kuyishi, kuyik; ***etmäk bizi boldï* اَتْمَاکْ بِزِی بُلْدِی** – “non yuzi kuydi”.

***qazï* قَزِی** – kishi qornining bo‘g‘imlari; ot qornining yog‘i; ***yund qazïsï yaγ* یُنْدْ قَزِیسِی یَاغْ** – “ot qornining semizligi yog‘dir”. (272b) Turklarning eng tansiq go‘shti – shu.

***qozï* قُزِی** – “qo‘zi, qo‘zichoq”.

س ***s*** [harfi]:

***basa* بَسَا** – “so‘ng” ma’nosidagi so‘z; ***men anda basa keldim* مَنْ اَنْدَا بَسَا کَلْدِمْ** – “men undan so‘ng keldim”.

***basu* بَسُو** – “to‘qmoq”; bir tilda.

***tusu* تُسُو** – “foyda, davo”; ***ol ot meŋä tusu qïldï* اُلْ اَتْ مَنَکَا تُسُو قِلْدِی** – “bu o‘t (dori) myenga foyda qildi, kor qildi”.

***qasï* قَسِی** – qo‘y va boshqa yilqi-qoralarni sovuqdan saqlash uchun yog‘ochdan qilingan og‘il. Bundan olib ***qasï badïm* قَسِی بَادِمْ** deyiladi, “og‘il soldim” demakdir.

***Qasï* قَسِی** – bizga tegishli bo‘lgan bir joy oti.

ش ***š*** [harfi]:

***tušu-tušu* تُشُو تُشُو** – eshakni to‘xtatish uchun qo‘llanadigan so‘z. Ba’zan *tā* harfi bilan *šīn* harfi orasiga *rā* harfi ham orttiriladi. Lekin uni hech vaqt yozib bo‘lmaydi.

***tiši* تِشِی** – “har qanday jonzotning urg‘ochisi”.

***kiši* کِشِی** – “kishi, odam”. Bu so‘z birlikka ham, ko‘plikka ham, erkakka ham, ayolga ham farqsiz qo‘llanaveradi.

***kiši* کِشِی** – “xotin”. Men buni yag‘molar tilida eshitdim; ***ol kiši aldïmu?* اُلْ کِشِی اَلْدِیمُو** – “u xotin oldimi?” demakdir.

غ ***γ*** [harfi]:

***buγa* بُغَا** – هِنْدْ *Hind* dan keltiriladigan bir dori. Buning sarig‘iga ***sarïγ buγa* سَارِغْ بُغَا**, kul rangiga ***boz buγa* بُوزْ بُغَا** dyeyiladi. Buning to‘q sariq va qo‘ng‘ir ranglisi ham bo‘ladi.

***tuγa* تُغَا** – “kasallik, ruhiyatning tushib ketishi”; ***ig tuγa* اِیکْ تُغَا** – “ruhiy tushkunlik” demakdir.

***čoγï* جُغِی** – bir shahardan ikkinchi shaharga sotish uchun olib borilgan mol. Bu so‘z barcha turkiy tillarda ***čoγï* جُغِی**, faqat arg‘ularda ***čaγï* جَغِی** shaklidadir.

***quγu* قُغُو** – bir qushning oti.

***saγu* سَغُو** – o‘lchov birligi.

ڤ ***w*** [harfi]:

***tewäy* تَڤَیْ** – “tuya”. Bu so‘z birlikda ham, ko‘plikda ham qo‘llanaveradi. Bu so‘z ikki maxraj orasidagi ف (بين المخرجين) [ya’ni *w*] bilan qo‘llanadi. Lekin o‘g‘uzlar ***dewä* دَوَا** deydilar.

***Čawa* جَڤَا** – yoshlarga berilgan ismlardan.

جُڤِی ***čowï*** – xo‘tanliklar tartibiga ko‘ra xoqondan ikki daraja quyi unvon nomi. Turklarda bu boshqachadir.

جِڤِی ***čïwï*** – bir toifa jinlar oti. Bu shundayki, ikki guruh turklar bir-birlari bilan urushganda, urushdan oldin har qaysi guruh yurtida yashovchi jinlar o‘z yurtlaridagi kishilarga ergashib, bir-birlari bilan jang qiladilar. Qaysi yurt jinlari yengsa, ertasiga o‘sha yurt shohi ham g‘alaba qilgan bo‘ladi. Qaysi yurt jinlari yengilsa, (273a) u yurtdagi shoh ham yengilgan hisoblanadi. Jang qiluvchi guruhlar askarlarga jinlar o‘qlari tegishidan qo‘rqib, chodirlariga kirib yashirinadilar. Bu turklar orasida tarqalgan urf-odatdir.

[**قُڤِی** ***qowï***] **قُڤِی يِغَاجْ** ***qowï yïγač*** – “quruq, churuk yog‘och”. Bu so‘zning **قُوِی** ***qovï*** shaklidagi talaffuzi ham bor.

[**قُڤِی** ***qowï***] **قُڤِی اَرْ** ***qowï er*** – “baxtsiz kishi” (arg‘ucha). Maqolda (shunday kelgan): **قُڤِی اَرْ قُدُغْقَا كِرْسَا يِلْ اَلِيرْ** ***Qowï er quduγqa kirsä, yel alïr.***

Ma’nosi: “Baxtsiz kishi quduqqa tushib olsa ham, shamol uni qiynash uchun chiqarib oladi”.

ق ***q*** [harfi]:

بَقَا ***baqa*** – “qurbaqa”. “Toshbaqa”ga **مُنكُزْ بَقَا** ***mönγüz baqa*** deyish ham shundan olingan.

بَقَاجُقْ ***baqačuq*** – **بَقَا** ***baqa*** ning qisqartirilgani. U kift bilan qo‘l orasidagi go‘shtdir.

بَقُو ***baqu*** – “tepa, balandlik”.

بُقَا ***buqa*** – “buqa”.

تَقِی ***taqï*** – “yana” ma’nosidagi so‘z; **تَقِی يَرْمَاقْ بِيرْ** ***taqï yarmaq ber*** – “yana tanga (pul) ber”. Bu so‘z ba’zan o‘g‘uzlarda “ham” (“birga”) ma’nosida ham keladi: **اُلْ تَقِی اَنْدَا** ***ol taqï anda*** – “u ham u yerda”.

تُقُو ***toqu*** – “kamar to‘qasi”.

سَقَا ***saqa*** – “tog‘ etagi”.

سُقُو ***soqu*** – “hovoncha”. Bu so‘zning asli ikki *qāf* li bo‘lgan, keyinchalik yengillatilgan; “balandlik” ma’nosidagi **بَقُو** ***baqu*** so‘zi ham ikki *qāf* li bo‘lgan, keyinchalik u ham yengillatib olingan. Shuningdek, “yomg‘ir yopinchig‘i” ma’nosidagi **يَقُو** ***yaqu*** so‘zining asli ham **يَاغْقُو** ***yaγqu*** bo‘lgan, so‘ng qisqartirilgan. Bu Tangrining فظلتم تفكهون oyatidagi kabidir. Buning asli فظللتم تفكهون bo‘lgan, bu ham qisqartirilgan. Bunda ham shundaydir.

اُرِی قِقِی ***orï-qïqï*** – “shovqin-suron”.

ک ***k*** [harfi]:

بُکَا ***bökä*** – “katta uzun ilon”. Maqolda (shunday kelgan): **يِتِی بَشْلِغْ يِلْ بُکَا** ***Yeti bašlïγ yil bökä.*** Ma’nosi: “Yetti boshli uzun ilon”. Yabaqularning eng ulug‘larini bu so‘z bilan **بُکَا بُدْرَجْ** ***bökä budrač*** deb atalgani kabi, ba’zan bahodirlarni ham shu so‘z bilan ataydilar. Yabaqular yetti yuz ming askar bilan qirq ming askarga ega bo‘lgan اَرسْلَانْ تِكِينْ الغَازی *Arslan tigin γāzî* ga qarshi qilgan jangda Xudo ularni mag‘lubiyatga uchratdi. مَحْمُودْ *Maḥmūd* (Koshg‘ariy)

aytadi: Men bu jangda qatnashganlardan: “Kofirlar shuncha ko‘p bo‘lgani holda nega yengildi?” – deb so‘radim; “urushda kofirlar shuncha ko‘p bo‘lgan holda nega qochishdi?” – dedim. U aytdi: “Biz ham bunga hayron qoldik-da, kofirlardan so‘radik, ularga shuncha kishi bo‘la turib, qanday qilib yengildingiz?” dedik. (273b) Ular aytdilar: “Jang nog‘orasi chalinib, hamla boshlangach, boshlarimiz tyepasida osmonni to‘sib turgan yashil tog‘ ko‘rdik. Uning sanoqsiz eshiklari bor edi, har bir eshik ochiq edi. U yerdan bizga do‘zah o‘tlarini yog‘dirishar edi. Biz undan xavfda qoldik, sizlar yengdingiz. Bu payg‘ambarning musulmonlar himoyasi yo‘lidagi mo‘jizalaridandir”, dedim.

Begi **بَكِى** – erkaklarning otlaridan.

bögü **بُكُو** – “bilag‘on, donishmand, aqlli”. Bu so‘zni ***bilgä*** **بِلْكَا** so‘zi bilan birga ***bögü bilgä*** **بُكُو بِلْكَا** deb qo‘llaydilar.

(Shoir) shunday degan:

Biligni irdädim,	**بِلكْنِى اِرْدَدِمْ**
Bögünï öδürdüm.	**بُكُونِى اُدْرْدُمْ**
Özümni aδïrdïm,	**اُزُمْنِى اَدِرْدِمْ**
Yalγïl atïm yazlïnur.	**يَلْغِلْ اَتِمْ يَزْلِنُورْ**

Aytmoqdaki: “Ilm-u donishni istadim. Ilmli, donishmandlarni qidirdim. O‘zimni odamlar orasidan ayirdim. Buning uchun oq yolli otim yechiladi”.

täkä **تَكَا** – “erkak kiyik”. Uning shoxidan yoy qilinadi.

täkä **تَكَا** – “taka”. “Ko‘sa kishi”ga ***täkä saqal*** **تَكَا سَقَالْ** deyish ham shundandir. Bunda uning soqoli takaning soqoliga o‘xshatiladi.

tügä **تُكَا** – “sigir bolasi; ikki yoshli buzoq”. “Urg‘ochi buzoq” ***tügä*** **تُكَا** deyiladi.

[***tikü*** **تِكُو**] ***bir tikü et*** **بِيرْ تِكُو اَتْ** – “et parchasi”. Aslida *kāf* harfi takrorlangan edi. Yuqorida aytilganidek, keyinchalik yengillatilgan.

[***jigi*** **جِكِى**] ***jigi yi*** **جِكِى يِى** – “pishiq chok”. Bu so‘zdagi ج *jīm* harfi ***yigi tikti*** **يِكِى تِكْتِى** – “pishiq tikdi” iborasidagi ***yigi*** **يِكِى** so‘zidagi *yā* harfi bilan almashgan. Bu xususiyat kitobning boshida aytganimdek, qipchoq va boshqalar tilida ج *jīm* ning *yā* bilan almashish hodisasidir. Chunonchi, ular ***yinčü*** **يِنْجُو** ni ***jinčü*** **جِنْجُو** der edilar. (274a)

tükü-tükü **تُكُو تُكُو** – kuchuk bolani chaqirishga qo‘llanadigan so‘z.

tügi **تُكِى** – tariqning po‘sti olinib, tozalangandan keyingi mag‘zi (o‘g‘uzcha).

tiki **تِكِى** – tunda eshitiladigan guvullagan ovoz. Turklar inonchiga ko‘ra, o‘liklarning ruhlari o‘zlari yashagan shaharga har yil bir kechasi to‘planib, o‘sha shahar xalqini ziyorat qiladilar. Tunda guvullagan ana shu tovushni eshitgan kishi o‘ladi. Turklarda bu inonch keng tarqalgan. Bu so‘z tilda ***tiki*** **تِكِى** shaklida qo‘llansa ham, mening nazdimda ***teki*** **تَكِى** bo‘lishi maqbulroqdir. Chunki xotinlar

o‘z oilasini ko‘rishga borib, uyiga qaytganda تَكْدِى كَلْدِى ***tegdi keldi*** deyiliad, “ziyoratchi keldi” demakdir (bu so‘z ana shundandir).

سَكُو ***sekü*** – “do‘kon; ustaxona”.

[سُكَا ***sökä***] اَرْ سُكَا اُلْتُرْدِى ***er sökä olturdï*** – “kishi cho‘kkalab o‘tirdi”.

(Shoir) shunday degan:

اَرَنْ اِيذِبْ سُكَا تُرْدِى	***Erän ïδïp sökä turdï,***
بَشِى بُيْنِنْ سُكَا تُرْدِى	***Bašï boynïn sökä turdï.***
اُفْتْ بُولُبْ بُكَا تُرْدِى	***Uwut bolup bükä turdï,***
اُذُو قَمَا تِبَنْ يَغْدِى	***Uδu qama tipän yaγdï.***

Yengilgan erni anglatib aytmoqda: “U menga bir qancha kishini yubordi. Ular yonimda tiz cho‘kib o‘tirdilar. U boshliqlari qilgan ishiga uyalib, boshini quyi soldi, bo‘ynini egdi, xalqdan uyalib yashirindi. Shoshilib menga kelib, meni ta’qib qilma, dedi. Men ham ma’qul ko‘rdim”.

كُكُو ***kökü*** – “xola”. Bu so‘zning كُكُوىْ ***köküy*** shaklli talaffuzi ham bor; to‘g‘risi shudir. كُكُويُمْ كَلْدِى ***köküyüm keldi*** – “xolam keldi” kabi.

ل ***l*** [harfi]:

بَلَا ***bala*** – “qush bolasi”. Yirtqich va boshqa hayvonlarning yosh bolasiga ham istiora qilib shu so‘z qo‘llanadi. Bundan قُشْ بَلَاسِى قُسِنْجِغْ اِتْ بَلَاسِى اُخْشَنْجِغْ ***Quš balasï qusïnčïγ, ït balasï oxšančïγ*** deyiladi, ma’nosi: “Qush bolasini pat chiqarmasdan oldin ko‘rgan kishi jirkanadigan bo‘ladi, ammo it bolasi o‘yinchoqdek yoqimli bo‘ladi. Katta bo‘lgach, aksiga aylanadi”.

بَلُو ***Balu*** – arg‘ularda kichik shaharning oti.

بَلُو بَلُو ***balu-balu*** – onalar bolasini beshikda uxlatish uchun qo‘llaydigan alla o‘rnidagi so‘z.

بَلَا ***bala*** (274b) – ishlarda kishilarga ko‘maklashuvchi, yordamchi. Bu so‘z ko‘pincha dehqonchilik ishlarida ko‘maklashuvchilarga qarata qo‘llanadi.

تَلُو ***telü*** – “telba, tentak” (o‘g‘uzcha).

[تَلُو ***talu***] تَلُو نَانىْ ***talu näŋ*** – “tanlangan narsa”.

[تُلُو ***tolu***] تُلُو اِذِشْ ***tolu iδiš*** – “to‘la idish”. Har qanday to‘la narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

تُلِى ***tolï*** – “ko‘kdan yog‘adigan jala, do‘l”.

تِلِى ***tili*** – “o‘q temiri ustiga chulg‘angan qayish”.

جِلَا ***čïla*** – “og‘ildagi otning hali ho‘l bo‘lgan yangi tezagi”.

سَلِى ***salï*** – “andava”.

سُلِى ***Süli*** – qullarga beriladigan otlardan. Bu so‘z سُلَيْمَانْ ***Sulaymān*** so‘zining qisqargani kabidir.

[قُلَا ***qula***] قُلَا اَت ***qula at*** – “za’faron rangli ot”.

قَلِى ***qalï*** – “qanday; agar; basharti” ma’nosidagi so‘z.

(Donishmand) shunday degan:

كَلْسَا قَلِى قَتِغْلِقْ *Kelsä qalï qatïγlïq,*
اَرْتَرْ تَيُو سَرِنـكِلْ *Ertär teyü seriŋil.*
اُدْلُكْ اِيشِنْ بِلِبْ تُرْ *Öδläk ïšïn bilip tur,*
اَنْجَا اَنـكَرْ تِرَنـكِلْ *Anča aŋar tiräŋil.*

Aytmoqdaki: “Senga qattiq alam va tashvish yetsa, o‘tib ketar deb sabr qil. Dunyo ishlaridan ogoh bo‘lib turishga tirish. Har qanday kulfatni o‘zingga olib, joningni qiynayverma”.

بُو سَنْ بُو اِيشِغْ قَلِى قِلْدِنـكْ ***bu sen bu ïšïγ qalï qïldïŋ?*** – “sen bu ishni qanday qilding?”; سَنْ قَلِى بَرْسَا سَنْ ***sen qalï barsa-sen*** – “agar sen borsang” kabi.

كُلِى ***küli*** – “yormay, danagi bilan quritilgan o‘rik, shaftoli qoqi”.

م ***m*** [harfi]:

تَمُو ***tamu*** – “jahannam, tamug‘”. Maqolda (shunday kelgan): تَمُو قَبْغِنْ اَجَارْ تَقَّارْ ***Tamu qapuγïn ačar tawar.*** Ma’nosi: “Pora (hatto) do‘zax eshigini ochadi, nega boshqa (joylar eshigi) ochilmas ekan”. Bu maqol “ishi bitishini istagan kishi pora berishi kerak” degan ma’noda qo‘llanadi.

[تُمَا ***tuma***] تُمَا بُخْسُنْ ***tuma buxsun*** – tariqdan qilingan ichimlik (bo‘za)ning xum tepasiga vijillab ko‘pirib chiqqan qismi.

[جُغِى ***čoγï***] جُغِى جَمِى قِلْدِى ***čoγï-čamï qïldï*** – “u baqir-chaqir qildi” demakdir; جَمِى ***čamï*** yolg‘iz holda qo‘llanmay, جُغِى ***čoγï*** bilan birga qo‘llanadi.

سُمَا ***suma*** – ivitilgan bug‘doy. Uni quritib tuyiladi. So‘ng undan ugra osh va non qilinadi. Sharbat uchun qilingan, undirilgan arpaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

كَمِى ***kemi*** – *fatḥa* li *kāf* bilan; “kema”; o‘g‘uz va qipchoqlar tilida.

[كُمِى ***kömi***] كُمِى تَلَاسْ ***Kömi Talas*** – uyg‘urlar hududidagi bir joyning oti.

كِمِى ***kimi*** – “kema”; (275a) turklarda; *kasra* li *kāf* bilan.

(Shoir) shunday degan:

كِمِى اِجْرَا اُلْدُرُوبْ *Kimi ičrä oldurup,*
اِلَا سُقْنْ كَجْتِمِيزْ *Ïla suwïn kečtimiz.*
اُيْغُرْ تَبَا بَشْلَنِبْ *Uyγur tapa bašlanïp,*
مِنـكْلَقْ اِيلِنْ اَجْتِمِيزْ *Mïŋlaq elin ačtïmïz.*

Aytmoqdaki: “Kemaga o‘tirib, اِلَا *Ïla* suvidan o‘tdik (اِلَا *Ïla* – katta bir suvdir). So‘ng uyg‘urlar tomon yuzlandik, hattoki, مِنـكْلَقْ *Mïŋlaq* yurtini ochdik”.

مَمَا ***mama*** – g‘alla yanchish vaqtida o‘rtaga qo‘yilgan ho‘kiz. Xirmonda boshqa ho‘kizlar uning tevaragida aylanadi.

مَمُو ***mamu*** – nikoh kechasi kelin bilan birga yuboriladigan xotin, yanga. Bu so‘z aslida turkcha emas.

نَمَا ***nemä*** – “bilmadim” degan ma’nodagi so‘z; نَمَا نَا قِلْدِى ***nemä ne qïldï?*** – “bilmayman, nima qildi?” kabi.

ن ***n*** [harfi]:

تَنَا *tana* – “kunjut, har xil urug‘ turlari”. Uch va arg‘ular tilida.

مَنْ بَرْغَایْ مَنْ / تَنُو تَیُو یَمُو *tanu / tayu-yamu* – “ko‘rarsan” ma’nosidagi ikki so‘z; **یَمُو *men barγay-men yamu*** – “men tezda boraman, ko‘rarsan”.

سُنِی *sunï* – “uyning yog‘ochi, to‘sini”.

قَنُو *qanu* /قَیُو *qayu*: قَیُو کِشِی *qayu kiši?* – “qaysi kishi?”; arg‘ular so‘zi. *nūn* harfi *yā* o‘rniga almashgan.

قَانِی قَنِی *qanï-qanï* – “qayerda?” ma’nosidagi so‘z; **اُغْلُمْ قَنِی *oγlum qanï?*** – “o‘g‘lim qani?”.

[**کُنِی *köni***] **کُنِی نَانَکْ *köni näŋ*** – “to‘g‘ri narsa”. “Ishonchli kishi”ga ham **کُنِی اَرْ *köni er*** deyiladi.

کُنِی *küni* – “quma”. Maqolda (shunday kelgan): **کُنِی نِکْ کُلِینَا تَکُو یَغِی *Küniniŋ külinä tegü yaγï.*** Ma’nosi: “Qumaning kuligacha yovdir. Hattoki, kuli do‘stining ko‘ziga tushadi”.

مُنُو *munu* – “mana” ma’nosidagi so‘z. Bu so‘z **قَانِی *qanï?*** – “qayerda?” degan so‘zning javobidir.

د *d* [harfi]:

دَوَا *dava* – “yulg‘un daraxtining mevasi”. Uni bo‘yoqchilar ishlatadi.

دَوَا *dava* – “yung bo‘lagi”. Yung titilib, kalava qilinib, qo‘lga o‘tkaziladi, so‘ng yigiriladi.

قُوَا *qova* – “qovg‘a” (o‘g‘uzcha).

قُوَا *qova* – turklarning yuganlarida bo‘ladigan ot burniga tegib turadigan qayish.

(275b) **Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فَاعِل *fā’il* qolipidagi so‘zlar**

ت *t* [harfi]:

لَیتُو *laytu* – “bir turli taom”. Suv, qor, muz kabi narsalarga qo‘yib sovutiladi, so‘ng ichiga ko‘katlar solinadi; sovuqlik o‘rnida yeyiladi.

ج *č* [harfi]:

قَاجَا *qača* – “qop, xalta”. Shundan olinib, **قَاقَاجَا *qaqača*** deyiladi. Ba’zan qisqartib **قَجَا *qača*** tarzida ham talaffuz qiladilar.

قُوجُو *Qoču* – uyg‘ur o‘lkasining oti.

جُوجُو *Ču̇ču* – turk shoirlaridan birining oti.

قِیجِی *qïčï* – “hardal”.

ن *n* [harfi]:

اُونُو *onu* – “uni” anglamida.

مُونُو *munu* – “buni” anglamida. Muayyan bir narsaga ishora uchun ishlatiladi.

سُونُو *sunu* – “bir turli o‘t”.

قَانِی *qanï* – “qayerda?” ma’nosidagi so‘z.

لِیُو *lïyu* – quriganda quruq balchiqqa aylanadigan qum bilan aralash loy.

اُوهِی *ühi* – “boyqush”. Ko‘pchilik turklar *kāf* bilan **اُوكِی *üki*** shaklida talaffuz qiladilar.

Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فَعَال *fa’āl* qolipidagi so‘zlar

ت *t* [harfi]:
خِتَایْ *Xïtay* – Yuqori صين *Ṣīn* ning oti.
غ *γ* [harfi]:
تَغَایْ *taγay* – “amaki”.
چِغَایْ *čïγay* – “kambag‘al”.
(Bilimli) shunday degan:

كُنكُلْ كِمِنكْ بُلْسَا قَلِی يُوقْ چِغَایْ ***Köŋül kimiŋ bolsa qalï yoq čïγay,***
قِلْسَا كُجُنْ بُلْمَسْ اَنِی تُقْ بَایْ ***Qïlsa küčün bolmas anï toq, bay.***

Aytmoqdaki: “Ko‘ngli qashshoq bo‘lgan kishini kuch bilan to‘q, boy qilish mumkin emas”.

Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فَعْلَى *fa’lā* qolipidagi so‘zlar

ر *r* [harfi]:
تُرْنَا *turna* – “turna”.
[**قَرْوِی *qarvï***] **قَرْوِی يَا *qarvï ya*** – “ingichka yoy”. “Nozik qoshli kishi”ga **قَرْوِی قَشْلِغْ كِشِی *qarvï qašlïγ kiši*** deyish ham shundan. Bu so‘z arabchaga muvofiq keladi. Chunki قَرْوَا *qarva* arab tilida har bir yoy kabi egilgan narsaga nisbatan aytiladi.
Shoir she’rida shunday:

روبه يذكر بعير
قروا مرجاب فنق

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَال *fa’lāl* qolipidagi so‘zlar

ب *b* [harfi]:
شَنْبُوْ *šanbuy* – bir ziyofatdan so‘ng kechasi hozirlangan ichkilik ziyofati (kanjakcha).
بُخْتَایْ *boxtay* – “kiyim bo‘xchasi”. Bu so‘zning **بُخْتُوْ *boxtuy*** shakli ham bor.
لُخْتَایْ *loxtay* – صِينْ *Ṣīn* ning bir turli qizil ipak kiyimligi, ustida sariq xollari bo‘ladi.

ج ***č*** [harfi]:

قُنْجُوىْ ***qunčuy*** – “sayyida [ya’ni, sayyidlardan bo‘lgan] xotin”. U **خَاتُونْ** ***xatun*** dan bir daraja quyidir; **قَاتُونْ قُنْجُوىْ** ***qatun qunčuy*** deyish shundan.

د ***d*** [harfi]: (276a)

بُغْدَاىْ ***buγday*** – “bug‘doy”. Maqolda (shunday kelgan): **بُغْدَاىْ قَتِنْدَا سَرْفَجْ سُقَالُورْ** ***Buγday qatïnda sarwač suwalur.*** Ma’nosi: “Bug‘doy orqasidan qoramug‘ ham suv ichadi”. Bu maqol birovga hamsuhbat bo‘lish natijasida yaxshilikka erishgan kishiga aytiladi. بَرسْغَانْ *Barsγan* liklar **بُغْدَاىْ** ***buγday*** deb talaffuz qila olmaydilar, ular **بُدْغَاىْ** ***budγay*** deydilar. “Barsg‘anlik emasman” degan kishiga shu so‘zni ayttirib sinaladi.

چِلْرَاىْ ***čilräy*** – otlarning ko‘kragiga chiqadigan bir yara. Uni dog‘lab tuzatadilar.

سَمْدُوىْ ***samduy*** – issiq-sovuqlikda o‘rtacha bo‘lgan, tab’ga yoqadigan taom nomi.

قُرْدَاىْ ***qorday*** – bir turli qush.

(Shoir) shunday degan:

قُرْدَىْ قُغُو اَنْدَا اُجُبْ يُمْغِنْ اُتَارْ ***Qorday quγu anda učup yumγïn ötär,***
قُزْغُنْ يَنكَانْ سَيْرَبْ اَنِنْ اُونِى بُتَارْ ***Quzγun yaŋan sayrap anïn üni bütär.***

Joy go‘zalligini ta’riflab aytmoqda: “Bu yerda qorday qug‘u va boshqa qushlar suv atrofida har xil yoqimli ovozlar bilan sayrashadi, yirik qarg‘alar, chipor qushlar sayrayverib, tovushlari bitib qoladi”.

ش ***š*** [harfi]:

قُمْشُوىْ ***qomšuy*** – “qon bilan to‘lgan kana”. Bu so‘z masal tariqasida siydigi tutilib, siyolmay qolgan kishiga ham so‘zlanadi.

غ ***γ*** [harfi]:

بُورْغُوىْ ***borγuy*** – “puflab chalinadigan karnay”.

چِرْغُوىْ ***čïrγuy*** – “o‘q temirining qalin, shishgan joyi”.

چِرْغُوىْ ***čïrγuy*** – “to‘nning qo‘ltig‘i ostidan o‘tkaziladigan o‘mrov”.

جَلْغَاىْ ***čalγay*** – “qush qanotining uchlari”.

قَرْقُوىْ / قِرْقُوىْ ***qïrquy / qarquy*** – “qirg‘iy”; **يُو يُو** *yu yu* degan qush. Shunga o‘xshagani uchun **جبَكْ قِرْغُوىْ / قَرْغُوىْ** ***čepäk qïrγuy / qarγuy*** deyiladi (yov kelganini bildirish uchun).

قَرْغُوىْ ***qarγuy*** – tog‘ cho‘qqisiga yoki baland yerlarga minoraga o‘xshatib yasab qo‘yiladigan joy. U yerda o‘t yoqilishi bilan yovdan xabar beriladi va kishilar o‘zlarini ham, mollarini ham qutqarishga harakat qiladilar.

مِنْغُوىْ ***mïnγuy*** – qog‘oz yopishtirishda foydalaniladigan bir turli xamir. Yaxshi yopishishi uchun uni suvda qaynatilib, quyiltiriladi.

ق ***q*** [harfi]:

[جُلْقُوىْ *čolquy*] اَتُكْ جُلْقُوىْ *čolquy etük* – “to‘pig‘ining bir tomoni yorilib ketgan etik”. (276b) “Qo‘li nogiron, cho‘loq kishi”ga اَلِكْ جُلْقُوىْ *čolquy elig* deyish ham shundan.

BESH HARFLILAR BO‘LIMI

ج *č* [harfi]:

تَرِغْجِى *tarïγčï* – “don ekuvchi dehqon”.

سُرُغْجِى *soruγčï* – “yo‘qolganni so‘roqlovchi”.

قُرُغْجِى *qoruγčï* – “qo‘riqchi; narsani qo‘riqlovchi”.

قُرُنْجِى *qurunčï* – “chodirda, boshqa yerda tutundan qoraygan namat va boshqalar”.

س *s* [harfi]:

بُقُرْسِى *buqursï* – “sopqon temiri”.

Bu bo‘limning olti harflilari

غ *γ* [harfi]:

جَنْجُرْغَا *čančurγa* – “chumchuq”.

ج *č* [harfi]:

سُكْلُنْجُو *söglünčü* – “qovurma”.

قَمْلَنْجُو *Qamlanču* – اُكُوزْ اِكِّى *İkki ögüz* daryosi yaqinidagi kichik shahar-chaning oti.

كِزْلَنْجُو *kizlänčü* – “yashirin”. Maqolda (shunday kelgan): كِزْلَنْجُو كَلِنْدَا *Kizlänčü kelindä.* Ma’nosi: “Yashirin narsa kelinda bo‘ladi, chunki u yaxshi narsani eri uchun yashirib qo‘yadi”.

كَسْلِنْجُو *keslinčü* – boshi kichik, dumi uzun bir maxluq.

فَعُوللى *fa’ūlulī* qolipidagi so‘zlar

ر *r* [harfi]:

حُقْبَرِى *hoqubarï* (*čoqubarï?*) – ma’dan moddalari eritiladigan gilvata idish.

غ *γ* [harfi]:

قَرَاغُنِى *qaraγunï* – bolalar kechasi o‘ynaydigan bir turli o‘yinning oti.

فَعْلَال *fa’lalāl* qolipidagi so‘zlar

ت *t* [harfi]:

تُرُمْتَاىْ *turumtay* – yirtqich qushlardan birining oti; yaxshi ovchidir. Ba’zan kishiga ham تُرُمْتَاىْ *Turumtay* deb aytiladi va shunday laqab beriladi.

To‘rt harfli ismlar kitobi tugadi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU *ðavāti-l-arba’a* SO‘ZLAR[1]NING FE’LLAR KITOBIDIR

IKKI HARFLILAR

ت *t* [harfi]:

[***taydï*** **تَيْدِى**] ***er taydï*** **اَرْ تَيْدِى** – “kishi toydi”. Har qanday hayvonning oyog‘i yomg‘ir yoki botqoqda toyishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (***tayar,*** **تَيَارْ** ***taymaq*** **تَيْمَاقْ**).

[***tuydï*** **تُيْدِى**] ***er ïšïn tuydï*** **اَرْ اِيشِنْ تُيْدِى** – “kishi ishida o‘ziga noma’lum [yashirin bo‘lgan] bir narsani sezdi” (***tuyar,*** **تُيَارْ** ***tuymaq*** **تُيْمَاقْ**).

[***tïydï*** **تِيْدِى**] ***ol anï tïydï*** **اُلْ اَنِى تِيْدِى** – “u uni tiydi, biror ishdan qaytardi”. Bu so‘zning asli ***tïðtï*** **تِذْتِى** bo‘lgan, keyinchalik yengillatilgan (***tïyar,*** **تِيَارْ** ***tïymaq*** **تِيْمَاقْ**).

[***toydï*** **تُيْدِى**] ***qarïn toydï*** **قَرِنْ تُيْدِى** – “qorin to‘ydi”. Bu so‘zning asli ***ðāl*** ذ bilan ***toðtï*** **تُذْتِى** bo‘lgan, yuqorida aytganimizdek, ***dāl*** ذ ni ***yā*** tarzida qo‘llovchilarning til xususiyatiga muvofiq harflar almashtirilgan (***toyar,*** **تُيَارْ** ***toymaq*** **تُيْمَاقْ**).

س *s* [harfi]:

[***soydï*** **سُيْدِى**] ***er qonuγ / qoyuγ soydï*** **اَرْ قُونُغْ / قُويُغْ سُيْدِى** – “kishi qo‘y va boshqa hayvonlarning terisini shildi” (***soyar,*** (277a) **سُيَارْ** ***soymaq*** **سُيْمَاقْ**). Maqolda (shunday kelgan): ***Bir tilkü terisin ikilä soymas.*** **بِيرْ تِلْكُو تَرِيسِنْ اِكِيلَا سُيْمَسْ** Ma’nosi: “Bir tulki terisi ikki martalab shilinmaydi”. Bu maqol odamdan bir marta yaxshilik ko‘rib, ikkinchi marta ham yaxshilik kutayotgan kishiga qarata aytiladi.

ق *q* [harfi]:

[***qaydï*** **قَيْدِى**] ***qadašïŋä qaydï*** **قَدَاشِنكَا قَيْدِى** – “qardoshiga va boshqalarga bo‘-lishdi”. Maqolda (shunday kelgan): ***Qaðaš temiš qaymaduq, qaðïn temiš qaymïš.*** **قَذَشْ تِيمِشْ قَيْمَادُقْ قَذْنْ تِيمِشْ قَيْمِشْ** Ma’nosi: “Birodari” va “yaqini” degan edi, kimsa unga iltifot etmadi, “qaynata” degan edi, u unga iltifot qilibdi”. Bu maqol qayinbo‘ylarni hurmatlashga rioya qilishi kerak bo‘lgan kishiga qarata aytiladi.

(Shoir) shunday degan:

بَرْدِنكْ نَلَكْ اَيْمَدِنكْ	***Bardïŋ nelüg aymadïŋ,***
كِيرُو كُرُبْ قَيْمَدِنكْ	***Kirü körüp qaymadïŋ.***
كُنكُلْ بَرُو يَيْمَدِنكْ	***Köŋül berü yaymadïŋ,***
بُلْدُنكْ اَرِنجْ بُلْمَغُو	***Bolduŋ erinč bolmaγu.***

[1] Ya’ni *alif*, *vāv*, *yā* harflari qisqa unli sifatida yoki [*v*], [*y*] deb o‘qiladigan so‘zlar.

Aytmoqdaki: “Ketding, ammo buni nega aytmading, nega bo‘lishmading, orqangdagilarga e’tibor qilmading, nega ko‘ngling bizga moyil bo‘lmaydi. Endi o‘zingga noloyiq shunday bir holga tushding”.

[***qaydï*** قَيْدِى] ***kerü qaydï*** كِيرُو قَيْدِى – “orqasiga qaradi” (***qayar,*** قَيَارْ ***qaymaq***).

[***quydï*** قُيْدِى] ***er kübkä suw quydï*** اَرْ كُبْكَا سُوقْ قُيْدِى – “kishi kubga suv quydi va suvni unda chayqatdi”. Boshqa har qanday suyuq narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (***quyar,*** قُيَارْ ***quymaq*** قُيْمَاقْ).

[***qoydï*** قُيْدِى] ***at qoydï*** اَتْ قُيْدِى – “ot va boshqa hayvonlar hurkib qochdi” (***qoyar,*** قُيَارْ ***qoymaq*** قُيْمَاقْ).

[***qïydï*** قِيْدِى] ***er sözin qïydï*** اَرْ سُوزِنْ قِيْدِى – “kishi so‘zidan, va’dasidan aynidi”.

[***qïydï*** قِيْدِى] ***ol yïγač qïydï*** اُلْ يِغَاجْ قِيْدِى – “u yog‘ochni qayirib kesdi” (***qïyar,*** قِيَارْ ***qïymaq*** قِيْمَاقْ).

k ك [harfi]:

[***küydï*** كُيْدِى] ***otuŋ küydi*** اُتْنكْ كُيْدِى – “o‘tin va boshqa narsalar yondi” (***küyär,*** كُيَارْ ***küymäk*** كُيْمَاكْ).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

[***yaydï*** يَيْدِى] ***ol suwda tonuγ yaydï*** اُلْ سُوقدَا تُونُغ يَيْدِى – “u kiyimini suvda chayqadi”.

[***yaydï*** يَيْدِى] ***ol meniŋ köŋül yaydï*** اُلْ مَنِكْ كُنكُلْ يَيْدِى – “u mening ko‘nglimni va boshqalarni yozdi”.

[***yaydï*** يَيْدِى] ***yel yïγačïγ yaydï*** يِيلْ يِغَاجِغْ يَيْدِى – “shamol daraxtni qimirlatdi” (***yayar,*** يَيَارْ ***yaymaq*** يَيْمَاقْ).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

[***badï*** بَادِى] ***ol atïγ badï*** اُلْ اَتغْ بَادِى – “u ot va boshqalarni bog‘ladi”. (277b) Har bir narsaning ip, arqon bilan bog‘lanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (***bar,*** بَارْ ***bamaq*** بَامَاقْ).

[***tudï*** تُودِى] ***ol ayzïn tudï*** اُلْ اَغْزِنْ تُودِى – “u og‘zini yumdi”. Har qanday teshikning bekitilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (***tur*** تُورْ, ***tumaq*** تُومَاقْ).

[***tedi*** تِيدِى] ***ol meŋä andaγ tedi*** اُلْ مَنكَا اَنْدَغ تِيدِى – “u menga shunday dedi” (***ter,*** تِيرْ ***temäk*** تِيمَاكْ).

[***sadï*** سَادِى] ***er qonuγ / qoyuγ sadï*** اَرْ قُونُغْ / قُويُغْ سَادِى – “kishi qo‘yni va boshqa narsalarni sanadi” (***sar,*** سَارْ ***samaq*** سَامَاقْ).

(Shoir) shunday degan:

Qara tünüg kečürsädim, قَرَا تُونُكْ كجُرْ سَادِمْ
Aγïr unï učursadïm. اَغِرْ اُونِى اُجُرْ سَادِمْ

يَتِيكَانِكْ قَجُرْ سَادِمْ *Yetikänig qačursadïm,*
سَقِشْ اِجْرَا كُنُمْ تُغْدِى *Saqïš ičrä künüm tuγdï.*

Aytmoqdaki: “Qorong‘i kechaning o‘tishini istadim. Og‘ir uyquni qochirishni istadim, bir necha marta Yetti qaroqchi yulduzining aylanishini sanadim. Sanamoqda edim, quyosh chiqdi”.

[سُودِى *sudï*] اُلْ اَنكَرْ بُيُونْ سُودِى *ol aŋar boyun sudï* – “u unga bo‘ysundi, itoat etdi”.

[سُودِى *sudï*] اُلْ مَنكَا يُونكْ سُودِى *ol meŋä yuŋ sudï* – “u menga to‘qish uchun yung yubordi” (سُورْ *sur*, سُومَاقْ *sumaq*).

[سِيدِى *sïdï*] اُلْ اُتُنكْ سِيدِى *ol otuŋ sïdï* – “u o‘tin va boshqa narsalarni sindirdi”.

[سِيدِى *sïdï*] اُلْ سُونِى سِيدِى *ol süni sïdï* – “u qo‘shinni yengdi” (سِيرْ *sïr*, سِيمَاقْ *sïmaq*).

ق *q* [harfi]:

[قَادِى *qadï*] اُلْ اَشِجْكَا اُتُنكْ قَادِى *ol ešičkä otuŋ qadï* – “u qozon atrofiga o‘tin uydi”.

[قَادِى *qadï*] اُلْ تُونُغْ قَادِى *ol tonuγ qadï* – “u to‘nni sandiqqa taxladi” (قَارْ *qar*, قَامَاقْ *qamaq*). Bu yag‘molar so‘zidir. To‘g‘rirog‘i قَالَادِى *qaladï* dir.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

[يُودِى *yudï*] اُلْ تُونْ يُودِى *ol ton yudï* – “u kiyim va boshqa narsalarni yuvdi” (يُورْ *yur*, يُومَاقْ *yumaq*).

[يِيدِى *yedi*] اُلْ اَشْ يِيدِى *ol aš yedi* – “u osh va boshqa yeguliklarni yedi”. Yabaqu qabilasi tilida بَكْ كِشِينِى يِيدِى *beg kišini yedi* deydilar; “bek kishi molini nes-nobud qildi” demakdir (يِيرْ *yer*, يِيمَاكْ *yemäk*). Bu fe’l turini biz “to‘rt harfli” deb atadik. Chunki so‘zlovchi birligini anglatuvchi so‘z to‘rt harflidir: اَتْ بَادِمْ *at badïm* – “otni bog‘ladim”; قُوىْ سَادِمْ *qoy sadïm* (278a) – “qo‘yni sanadim” degandagi kabi. Bu hol arabchada ham دعوت وغدوت kabi. Arabchada to‘rt harflidir. Bular orasidagi o‘xshashlikka muvofiq shunday ataldi.

فَعَلْدِى *fa’aldī* qolipida o‘rtasi uch xil harakat bilan qo‘llanuvchi so‘zlar bo‘limi

ب *b* [harfi]:

[اَبِيدِى *abïdï*] اُلْ اَنِى كِشِيدَنْ اَبِيدِى *ol anï kišidän abïdï* – “u uni kishilardan yashirdi”. Har bir narsani birovdan yashirishga ham bu so‘z qo‘llanadi (اَبِيرْ *abïr*, اَبِيمَاقْ *abïmaq*).

ت *t* [harfi]:

[اَتَادِى *atadï*] اُلْ اَنكَرْ اَتْ اَتَادِى *ol aŋar at atadï* – “u unga bir unvon berdi”. Ot qo‘yib atashga ham shu so‘z qo‘llanadi (اَتَارْ *atar*, اَتَامَاقْ *atamaq*).

[أُتَادِى *otadï*] **أُلْ تَرِغْ أُتَادِى *ol tarïγ otadï*** – “u ekinni o‘tadi”. Bu ekinning buzilmasligi uchun yaproqlarini kesishdir. Ba’zan uchlari kesilgan ekinga ham bu so‘zni qo‘llaydilar (**أُتَارْ *otar*, أُتَامَاقْ *otamaq***).

[أُتَادِى *ötädi*] **أُلْ اَنِكْ اِلِمِنْ أُتَادِى *ol anïγ alïmïn ötädi*** – “u uning qarzini to‘ladi” (**أُتَارْ *ötär*, أُتَامَاكْ *ötämäk***).

(Bilimli) shunday degan:

بُلْسَا كِمِنكْ اَلْتُنْ كُمُشْ اِرلَا اِتَارْ ***Bolsa kimiŋ altun-kümüš erlä etär,***
اَنْدَا بُلُبْ تَنكرِيكرُو تَبْغِنْ أُتَارْ ***Anda bulup täŋrigärü tapγïn ötär.***

Aytmoqdaki: “Kimning oltin, kumushi bo‘lsa, uy-joy quradi. Joyidan xotirjam bo‘lgach, u yerda Tangriga ibodat qiladi”.

[**أُتِيدِى *ütidi***] **أُلْ تُونُغْ أُتِيدِى *ol tonuγ ütidi*** – “u kiyim choklarini temir [ya’ni, dazmol] bilan silliqladi” (**أُتِيرْ *ütir*, أُتِيمَاكْ *ütimäk***).

[**أُتَادِى *otadï***] **أُلْ أُتُنكْ أُتَادِى *ol otuŋ otadï*** – “u o‘tga isindi, o‘tin yoqdi”. Bu nozik bir so‘z bo‘lib, yag‘mo va yamaklar so‘zidir.

[**أُتَادِى *otadï***] **اَمْجِى اَنكَرْ اُتْ أُتَادِى *emči aŋar ot otadï*** – “tabib uni dori bilan davoladi” (**أُتَارْ *otar*, أُتَامَاقْ *otamaq***) (o‘g‘uzcha).

ج *č* [harfi]:

[**اَجِيدِى *ačïdï***] **سِرْكَا اَجِيدِى *sirkä ačïdï*** – “sirka achidi; nordon bo‘lib qoldi”. Yara og‘rib achishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (**اَجِيرْ *ačïr*, اَجِيمَاقْ *ačïmaq***).

ر *r* [harfi]:

[**اَرِيدِى *arïdï***] **اَرِيدِى نَانكْ *arïdï näŋ*** – “narsa tozalandi” (**اَرِيرْ *arïr*, اَرِيمَاقْ *arïmaq***).

[**اَرُودِى *erüdi***] **يَاغْ اَرُودِى *yaγ erüdi*** – “yog‘ va boshqa narsalar eridi” (**اَرُورْ *erür*, اَرُومَاكْ *erümäk***).

[**اِرِيدِى / اِرُدِى *iridi* / *irüdi***] **يِغَاجْ اِرِيدِى / اِرُدِى *yïğač iridi* / *irüdi*** – “yog‘och va boshqa narsalar uzoq zamon o‘tishi natijasida chiridi”. Suyak chirishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (**اِرِيرْ / اِرُرْ *irir* / *irür*, اِرِيمَاكْ / اِرُمَاكْ *irimäk* / *irümäk***).

ز *z* [harfi]:

[**اَزِيدِى *azïdï***] **كُبْ اَزِيدِى *küb azïdï*** (278b) – “kub terladi” (kubdagi narsa sizdi, kub terladi). Har xil sopol idishdan sizgan har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[**اَزِيدِى *azïdï***] **قُلَاقْ اَزِيدِى *qulaq azïdï*** – “shovqin-surondan quloq kar bo‘layozdi” (**اَزِيرْ *azïr*, اَزِيمَاقْ *azïmaq***).

س *s* [harfi]:

[**اِسِيدِى *isidi***] **مُونْ اِسِيدِى *mün isidi*** – “sho‘rva va boshqa narsalar isidi”.

[**اِسِيدِى *isidi***] **تَمُرْ اِسِيدِى *temür isidi*** – “temir va boshqa narsalar qizidi” (**اِسِيرْ *isir*, اِسِيمَاكْ *isimäk***).

[**اَشَادِى *ašadï***] **اَرْ اَشْ اَشَادِى *er aš ašadï*** – “kishi osh yedi”. Xoqoniylar bu so‘zni faqat kattalarga xoslab qo‘llaydilar. Boshqa turklar farqsiz har kimga ham qo‘llayveradilar. Bularniki qoidaga muvofiqdir (**اَشَارْ *ašar*, اَشَامَاقْ *ašamaq***).

[اُشَادِی *üšädi*] اُلْ يِيرِکْ اُشَادِی ***ol yerig üšädi*** – “u bir narsani istab yer va boshqa narsalarni qidirdi” (اُشَارْ *üšär*, اُشَامَاکْ *üšämäk*).

[اَشُودِی *ešüdi*] اُلْ اَنـکَارْ يُغُرْقَانْ اَشودِی ***ol aŋar yoγurqan ešüdi*** – “u unga yopinchiq yopdi”. Har bir narsa ustiga bir narsa yopilib bekitilishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (اَشُورْ *ešür*, اَشُومَاکْ *ešümäk*).

[اُشِيدِی *üšidi*] اَرْ اُشِيدِی ***er üšidi*** – “kishi sovuqdan junjikdi” (اُشِيرْ *üšir*, اُشِيمَاکْ *üšimäk*).

ق ***q*** [harfi]:

[اُقِيدِی *oqïdï*] اُلْ مَنِی اُقِيدِی ***ol meni oqïdï*** – “u meni chaqirdi”.

[اُقِيدِی *oqïdï*] اَرْ بِتِکْ اُقِيدِی ***er bitig oqïdï*** – “u kishi kitob o‘qidi” (اُقِيرْ *oqïr*, اُقِيمَاقْ *oqïmaq*).

[اُقِيدِی *uqïdï*] اَرْ اُقِيدِی ***er uqïdï*** – “kishi qusdi”. Bu jarangsiz *kāf* dir[1] (اُقِيرْ *uqïr*, اُقِيمَاقْ *uqïmaq*).

ک ***g*** [harfi]:

[اُکِيدِی *ügidi*] اَرْ بُغْدَایْ اُکِيدِی ***er buγday ügidi*** – “kishi tegirmonda bug‘doy va boshqa narsalarni tortdi” (اُکِيرْ *ügir*, اُکِيمَاکْ *ügimäk*).

[اِکَادِی *egädi*] اُلْ بِچَاکْ اِکَادِی ***ol pičäk egädi*** – “u pichoq va boshqa narsalarni egovladi”.

[اِکَادِی *igädi*] بُغْرَا تِيشِنْ اِکَادِی ***buγra tïšïn igädi*** – “nor tuya tishini g‘ijirlatdi” (اِکَارْ *igär*, اِکَامَاکْ *igämäk*).

[اِکَادِی *igädi*] اُلْ اَنـکَرْ اِکَادِی ***ol aŋar igädi*** – “u unga o‘jarlik qildi, haddan ortiq takabburlik qildi” (اِکَارْ *igär*, اِکَامَاکْ *igämäk*).

ل ***l*** [harfi]:

[اُلَادِی *ülädi*] اُلْ يَرْمَاقْ اُلَادِی ***ol yarmaq ülädi*** – “u tanga (pul) va boshqa narsalarni ulashdi” (اُلَارْ *ülär*, اُلَامَاکْ *ülämäk*).

[اُلَادِی *uladï*] اُلْ يِبْ اُلَادِی ***ol yïp uladï*** – “u ip va boshqa narsalarni uladi”.

[اُلَادِی *uladï*] اُلْ يَغُوقْ اُلَادِی ***ol yaγuq uladï*** – “u yaqinlariga, yurtiga yetishdi” (اُلَارْ *ular*, اُلَامَاقْ *ulamaq*).

[اُلِيدِی *ulïdï*] بُرِی اُلِيدِی ***böri ulïdï*** – “bo‘ri ulidi”. Kechasi itning ulishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. (279a) Kishi qattiq alamdan bo‘riga o‘xshab uvlashiga ham shu so‘z qo‘llanadi (اُلِيرْ *ulïr*, اُلِيمَاقْ *ulïmaq*). Maqolda (shunday kelgan): يَزِيدَا بُرِی اُلِيسَا اَقدَا اِتْ بَغْرِی تَرْتِشُورْ ***Yazïda böri ulïsa, ewdä ït bayrï tartïšur.*** Ma’nosi: “Dashtda bo‘ri ulisa, unga achinib, uydagi itning bag‘ri o‘rtanadi”. Bu maqol yaqinlar bir-birlariga yordam qilishlariga undab aytiladi.

[اُلِيدِی *ölidï*] تُونْ اُلِيدِی ***ton ölidi*** – “kiyim va boshqa narsalar ho‘l bo‘ldi” (اُلِيرْ *ölir*, اُلِيمَاکْ *ölimäk*). Maqolda (shunday kelgan): کَدُکْلُکْ اُلِيمَاسْ کُفَجْلِکْ کُرِيمَاسْ ***Keδüglüg ölimäs, küwäčlig kürimäs.*** Ma’nosi: “Yopinchiqli kishi yomg‘irdan ivimay, u bilan saqlanib qoladi, shuningdek, yugan qantarilgan bo‘lsa, ot

[1] Bu izoh, aftidan, keyingi misollarga berilgan ko‘rinadi.

qashinmaydi, sarkashlik qila olmaydi”. Bu maqol ishga hozirlik ko‘rishga undab aytiladi.

ن *n* [harfi]:

[**انُودِى *anudï***] **اَنُودِى نَانكْ *anudï näŋ*** – “narsa tayyorlandi”. Bu o‘zlik fe’ldir. Agar arabcha gapirishga to‘g‘ri kelsa, انعد deyilar edi. Lekin buning arabchasi qo‘llanmaydi (**اَنُورْ *anur*, اَنُومَاقْ *anumaq***).

[**اُنَادِى *unadï***] **اُلْ بُو اِيشِغْ اُنَادِى *ol bu ïšïγ unadï*** – “u bu ishga unadi”; **سَن اُنَادِنكْمُو *sen unadïŋmu?*** – “sen rozi bo‘ldingmi?” (**اُنَارْ *unar*, اُنَامَاقْ *unamaq***).

[**اِنَادِى *enädi***] **اُلْ قُويِنْ اِنَادِى *ol qoyïn enädi*** – “taniqli bo‘lsin deb, u qo‘y qulog‘ining bir qismini kesdi, qulog‘iga en soldi” (**اِنَارْ *enär*, اِنَامَاكْ *enämäk***).

ت *t* [harfi]:

[**سَبِيدِى *sapïdï***] **اَتْ قُدْرُقِى سَبِيدِى *at qudruqï sapïdï*** – “otning va boshqa hayvonlarning dumi qimirladi” (**سَبِيرْ *sapïr*, سَبِيمَاقْ *sapïmaq***).

[**سُبِيدِى *sobïdï***] **سُبِيدِى نَانكْ *sobïdï näŋ*** – “narsa uzaydi, uchlari ingichkalandi” (**سُبِيرْ *sobïr*, سُبِيمَاقْ *sobïmaq***).

[**كَبِيدِى *kepidi***] **تُونْ كَبِيدِى *ton kepidi*** – “to‘nning ust tarafi nam va boshqa narsalardan biroz quridi” (**كَبِيرْ *kepir*, كَبِيمَاكْ *kepimäk***).

[**كُبِيدِى *köpidi***] **اُلْ تُونْ كُبِيدِى *ol ton köpidi*** – “u to‘nni zichlab tiktirdi” (**كُبِيرْ *köpir*, كُبِيمَاكْ *köpimäk***).

ت *t* [harfi]:

[**تَتِيدِى *tatïdï***] **اَشْ اَغْزْدَا تَتِيدِى *aš ayïzda tatïdï*** – “osh og‘izda totli ko‘rindi” (**تَتِيرْ *tatïr*, تَتِيمَقْ *tatïmaq***). Maqolda (shunday kelgan): **كِشِى اَتِى تِرِكْلَا تَتِيرْ *Kiši eti tiriglä tatïr.*** Ma’nosi: “Kishi etining shirinligi faqat sog‘lig‘ida tatiydi”. (279b) Ya’ni: “kishi sog‘lig‘idagina ishlab mol topadi, shirin taomlar qilib, undan lazzatlanadi” demakdir.

ج *č* [harfi]:

[**سُجِيدِى *sučidi***] **سُجِيدِى نَانكْ *sučidi näŋ*** – “narsa chuchidi” (**سُجِيرْ *sučir*, سُجِيمَاكْ *sučimäk***).

[**سُجِيدِى *sučïdï***] **اَتْ سُجِيدِى *at sučïdï*** – “ot va boshqa hayvonlar sakradi” (**سُجِيرْ *sučïr*, سُجِيمَاقْ *sučïmaq***).

[**كُجَادِى *küčädi***] **اُلْ اَنِكْ تَقَّارِنْ كُجَادِى *ol anïŋ tawarïn küčädi*** – “u uning molini kuch bilan tortib oldi” (**كُجَارْ *küčär*, كُجَامَاكْ *küčämäk***).

Yana: **اُغْلَانغْ كُجَادِى *oγlanïγ küčädi*** – “qul yoki joriyaga yomonlik qildi, zulm o‘tkazdi”.

(Shoir) shunday degan:

اُدْكْ مَنِى كُجَايُرْ	***Üδik meni küčäyür,***
تُنْ كُنْ تُرُبْ يِغْلَيُو	***Tün-kün turup yïγlayu.***
كُرْدِى كُزُمْ تَقْرَقِنْ	***Kördi közüm tawraqïn,***
يُرْتِى قَلِبْ اَغْلَيُو	***Yurtï qalïp aγlayu.***

Aytmoqdaki: “Sevgi menga azob berayotir, kecha-kunduz yig‘layman; ko‘zlarim uning yiroqlashganini ko‘rdi, ketida yurti [ya’ni uy-joyi] yig‘lab qoldi”.

[***kičidi*** كِچِيدِى] ***etim kičidi*** اَتِمْ كِچِيدِى – “etim qichidi”. Har bir hayvon etining qichishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (***kičir*** كِچِيرْ, ***kičimäk*** كِچِيمَاكْ).

د *d* [harfi]:

[***bedüdi*** بَدُودِى] ***oγlan bedüdi*** أُغْلَانْ بَدُودِى – “bola va boshqalar katta bo‘ldi, ulg‘aydi”. Har qanday narsaning katta bo‘lishiga, ulg‘ayishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (***bedür*** بَدُورْ, ***bedümäk*** بَدُومَاكْ).

[***büδidi*** بُذِيدِى] ***qïz büδidi*** قِيزْ بُذِيدِى – “joriya va boshqalar o‘ynadi, raqsga tushdi” (***büδir*** بُذِيرْ, ***büδimäk*** بُذِيمَاكْ).

Maqolda (shunday kelgan): ***Qurtγa büδig bilmäs, yerim tar ter.*** قُرتْغَا بُذِيكْ بِلْمَاسْ يِيرِمْ تَارْ تِيرْ Ma’nosi: “Kampirning o‘zi o‘yin bilmaydi-yu, yerim tor, deydi”. Bu maqol har ishda bilag‘onlik qilib maqtanadigan, ish qilish so‘ralganda, bajarmay, yolg‘on bahonalar ko‘rsatadigan kishiga qarata aytiladi.

ذ *δ* [harfi]:

[***uδïdï*** اُذِيدِى] ***er uδïdï*** اَرْ اُذِيدِى – “kishi va boshqalar uxladi” (***uδïr*** اُذِيرْ, ***uδïmaq*** اُذِيمَاقْ).

[***boδudï*** بُذُودِى] ***ol tonuγ boδudï*** اُلْ تُونُغْ بُذُودِى – “u kiyim va boshqa narsalarni bo‘yadi”.

[***boδudï*** بُذُودِى] ***ol oqïn urdï, keyikni yïyačqa boδudï*** اُلْ اُقِنْ اُرْدِى كَيِكْنِى يِغَاجْقَا بُذُودِى – “u o‘q bilan urdi, kiyikni yog‘och va boshqa narsalarga ilib olib ketdi” (***boδur*** بُذُورْ, ***boδumaq*** بُذُومَاقْ).

[***qaδudï*** قَذُودِى] ***ol tonuγ qaδudï*** اُلْ تُونُغْ قَذُودِى – “u kiyimni siyraklab tikdi” (***qaδur*** قَذُورْ, ***qaδumaq*** قَذُومَاقْ). (280a)

[***yïδïdï*** يِذِيدِى] ***yïδïdï näŋ*** يِذِيدِى نَانْكْ – “narsa hidlandi”. Bu yoqimsiz so‘zdir.

ر *r* [harfi]:

[***taradï*** تَرَادِى] ***qïz sačïn taradï*** قِيزْ سَاچِنْ تَرَادِى – “qiz sochini taradi”.

[***taradï*** تَرَادِى] ***anïŋ süsin taradï*** اَنِكْ سُوسِنْ تَرَادِى – “uning qo‘shini tarqatildi”. Bu so‘zning asli ***tardï*** تَرَدِى – “narsani ajratdi”dir.

Ko‘rasanki, ular kelasi zamon fe’lida birlashadi. “Ayirdi” ma’nosidagi ***tardï*** تَرْدِى fe’lining kelasi zamon shakli ham ***tarar*** تَارَارْ, ***taradï*** تَارَادِى ning kelasi zamon shakli ham ***tarar*** تَرَارْ bo‘ladi. Lekin bu tartib hamma fe’llar uchun umumiy emas. Ikki harfli, uch harfli fe’llarda kelasi zamon shakllari bir xil bo‘lib, o‘tgan zamon shaklida farqli qo‘llanadi. Chunonchi, ***er art ašdï*** اَرْ اَرتْ اَشْدِى – “er daradan oshdi” gapida va ***ol aš ašadï*** اُلْ اَشْ اَشَادِى (“u osh yedi”) gapida o‘tgan zamon shakli ikki xil bo‘lgan. ***ašdï*** اَشْدِى va ***ašadï*** اَشَادِى fe’llarining kelasi zamon shakli bir xil ***ašar*** اَشَارْ dir. Yana: ***ol suwqa qandï*** اُلْ سُقْقَا قَنْدِي (“u suvga qondi”) gapidagi ***qandï*** قَنْدِى fe’lining kelasi zamon shakli ***qanar*** قَنَارْ tarzida kelsa, “u otidan qon oldi”, ***ol atïn qanadï*** اُلْ اَتِنْ قَنَادِى gapidagi o‘tgan zamon fe’li ***qanadï*** قَنَادِى ning kelasi zamon fe’li ham oldingi fe’lga o‘xshash ***qanar*** قَنَارْ shaklida –

bir xil shaklda qo‘llanadi. Oldingisining masdari قَنْمَاقْ ***qanmaq*** shaklida kelsa, ikkinchisining masdari قَنْمَامَاقْ ***qanmamaq*** dir. Boshqacha aytganda, bu fe’l-larning kelasi zamon shakllari bir xil, o‘tgan zamon va masdar shakllari farqlidir.

[تَرُودِى ***tarudï***] اَقْ تَرُودِى ***ew tarudï*** – “uy toraydi”. Ko‘krak va boshqa narsalarning torayishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. اَرْ بُشْدِى تَرُودِى ***er pušdï tarudï*** – “kishi bezor bo‘lib siqildi, toriqdi” (تَرُورْ ***tarur***, تَرُومَاقْ ***tarumaq***).

[تُرُودِى ***törüdi***] يَلِنكُقْ تُرُودِى ***yalïŋuq törüdi*** – “inson yaratildi, to‘radi”. Bu fe’l o‘timsizdir (تُرُورْ ***törür***, تُرُومَاكْ ***törümäk***).

[تَرِيدِى ***tarïdï***] اُلْ تَرِغْ تَرِيدِى ***ol tarïγ tarïdï*** – “u ekin va boshqa narsalarni ekdi” (تَرِيرْ ***tarïr***, تَرِيمَاقْ ***tarïmaq***).

[تِرَادِى ***tirädi***] اُلْ قَبُغْ تِرَادِى ***ol qapuγ tirädi*** – “u eshikka tirgovich qo‘ydi”. Har bir narsaga tirgovich qo‘yishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِرَارْ ***tirär***, تِرَامَاكْ ***tirämäk***).

[سِرِيدِى ***sïrïdï***] اِتْ سِرِيدِى ***ït sïrïdï*** – “it siydi”.

[سِرِيدِى ***sïrïdï***] اُلْ كِذِزْ سِرِيدِى ***ol kiδiz sïrïdï*** – “u namatni turkmanlar o‘tovining ustki yopig‘idek yoki ko‘chish kunidagi o‘rovlari kabi zich qilib, pishiqlab tikdi” (سِرِيرْ ***sïrïr***, سِرِيمَاقْ ***sïrïmaq***). (280b)

[سَرُودِى ***sarudï***] اُلْ سُولُقْ سَرُودِى ***ol suluq sarudï*** – “u salla o‘radi”. Har qanday narsaning ustiga biror narsa o‘ralishiga ham shu so‘z qo‘llanadi ([سَرُورْ] ***sarur***, سَرُومَاقْ ***sarumaq***).

[قَرِيدِى ***qarïdï***] اَرْ قَرِيدِى ***er qarïdï*** – “kishi va boshqalar qaridi” (قَرِيرْ ***qarïr***, قَرِيمَاقْ ***qarïmaq***). Maqolda (shunday kelgan): اَرسْلَانْ قَرِيسَا سِجْغَانْ اُتِنْ كُذَازُورْ ***Arslan qarïsa, sïčγan ötin köδäzür.*** Ma’nosi: “Arslon qarisa, sichqon inini poylaydi”. Bu maqol katta ish qilishga kuchi etmay qolgan, kichik ishga rozi bo‘lgan qariyalarga qarata ishlatiladi.

[قُرِيدِى ***qurïdï***] قُرِيدِى تُونْ ***qurïdï ton*** – “kiyim va boshqa narsalar quridi” (قُرِيرْ ***qurïr***, قُرِيمَاقْ ***qurïmaq***).

[قُرِيدِى ***qorïdï***] اُتِغْ قُرِيدِى ***otïγ qorïdï*** – “u ko‘k o‘tni qo‘riqladi, qo‘ridi” (قُرِيرْ ***qorïr***, قُرِيمَاقْ ***qorïmaq***).

[كُرَادِى ***kürädi***] قُلْ كُرَادِى ***qul kürädi*** – “qul va boshqalar qo‘rqib qochdi” (كُرَارْ ***kürär***, كُرَمَاكْ ***kürämäk***).

[كُرِيدِى ***küridi***] اَتْ كُرِيدِى ***at küridi*** – “ot oldingi oyoqlari bilan yerni o‘ydi”.

[كُرِيدِى ***küridi***] اُلْ قَارِغْ كُرِيدِى ***ol qarïγ küridi*** – “u qorni kuradi” (كُرِيرْ ***kürir***, كُرِيمَاكْ ***kürimäk***).

ز *z* [harfi]:

[بَزَادِى ***bezädi***] اُلْ اَفِنْ بَزَادِى ***ol ewin bezädi*** – “u uyini va boshqa joylarni bezadi, bo‘yadi” (بَزَارْ ***bezär***, بَزَامَاكْ ***bezämäk***).

[تُزَادِى ***tuzadï***] اُلْ اَتْ تُزَادِى ***ol et tuzadï*** – “u go‘sht tuzladi”. تُزَادِى ***tuzadï*** so‘zi تُزْلَادِى ***tuzladï*** o‘rnida qo‘llanadi.

[قَزِيدِى ***qazïdï***] اُلْ يِيرِكْ قَزِيدِى ***ol yerig qazïdï*** – “u yerni qazidi”. Yara va boshqa shunga o‘xshashlarni kavlashga ham shu so‘z qo‘llanadi (قَزِيرْ ***qazïr***, قَزِيمَاقْ ***qazïmaq***).

[قُرِيدِى ***qurïdï***] اَنِىڭ بُغْزِى اَشْقَا قُرِيدِى ***anïŋ boγzï ašqa qurïdï*** – “uning tomog‘i oshga (yetolmay) quridi”. Qo‘llaniladigan shakl shudir. Lekin to‘g‘rirog‘i qoidaga muvofig‘i nuqtasiz, ya’ni *rā* bilan qo‘llashdir. Bunday qo‘llash سُوتْ اَمْزِدِى ***süt emüzdi*** gapidagi اَمْزِدِى ***emüzdi*** kabidir (قُرِيرْ ***qurïr***, قُرِيمَاقْ ***qurïmaq***).

[قِزُودِى ***qïzudï***] تَقَّارْ قِزُودِى ***tawar qïzudï*** – “molning bahosi ko‘tarildi, qimmatlashdi” (قِزُورْ ***qïzur***, قِزُومَاقْ ***qïzumaq***).

[قِزَادِى ***qïzadï***] اُلْ قِيزِغْ قِزَادِى ***ol qïzïγ qïzadï*** – “u qizning qizligini oldi” (قِزَارْ ***qïzar***, قِزَامَاقْ ***qïzamaq***).

[كُزَادِى ***közädi***] اُلْ اُوتْ كُزَادِى ***ol ot közädi*** – “u olovni kosov bilan jo‘nashtirdi, kavladi” (كُزَارْ ***közär***, (281a) كُزَامَاكْ ***közämäk***).

[كُزَادِى ***közädi***] اُلْ اُزُمْنِى كُزَادِى ***ol üzümni közädi*** – “u uzum boshidan g‘ujumlarini ayirib oldi”.

[كُزَادِى ***küzädi***] اُلْ يَايْلَاغْ دَا كُزَادِى ***ol yaylaγda küzädi*** – “u yaylovda kuz bo‘yi qoldi” (كُزَارْ ***küzär***, كُزَامَاكْ ***küzämäk***).

س ***s*** [harfi]:

[سَسِدِى ***sasïdï***] سَسِدِى نَانَكْ ***sasïdï näŋ*** – “narsa sasidi” (سَسِيرْ ***sasïr***, سَسِيمَاقْ ***sasïmaq***).

[كُسَادِى ***küsädi***] اُلْ اَنِى كُرْمَاكِنْ كُسَادِى ***ol anï körmäkin küsädi*** – “u uni ko‘rmakni, unga yo‘liqmoqni istadi”. Har qanday narsani ko‘rishni istashga ham shu so‘z qo‘llanadi (كُسَارْ ***küsär***, كُسَامَاكْ ***küsämäk***).

ش ***š*** [harfi]:

[بَشَادِى ***bašadï***] اُلْ يِغَاجِغْ بَشَادِى ***ol yïγačïγ bašadï*** – “u daraxtni kesib, belgilar qildi”. Boshqa narsalarga belgi qo‘ysa ham shunday. Yog‘ochlarni bir-biriga suyab, tirab qo‘yilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَشَارْ ***bašar***, بَشَامَاقْ ***bašamaq***).

[بُشُودِى ***bošudï***] اَنِىڭ اُوزِى بُشُودِى ***anïŋ özi bošudï*** – “uning ichi bo‘shaldi, ravonlashdi”.

[بُشُودِى ***bošudï***] تُكُونْ بُشُودِى ***tügün bošudï*** – “tugun bo‘shabroq qoldi”.

[بُشُودِى ***bošudï***] اَتْ بُشُودِى ***at bošudï*** – “ot bog‘lovidan echildi, bo‘shaldi”.

[بُشُودِى ***bošudï***] خَانْ يَلَاوَجِغْ بُشُودِى ***xan yalavačïγ bošudï*** – “xon mamlakatiga qaytish uchun elchiga ruxsat berdi”.

[بُشُودِى ***bošudï***] اَرْ اُراغْتِنْ بُشُودِى ***er urayutïn bošudï*** – “er xotinini taloq qildi, ajrashdi” (arg‘ucha). Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir (بُشُورْ ***bošur***, بُشُومَاقْ ***bošumaq***).

[تَشُودِى ***tašudï***] اُلْ اَفكَا يَرْمَاقْ تَشُودِى ***ol ewkä yarmaq tašudï*** – “u uyiga tanga (pul) va boshqa narsalarni tashidi” (تَشُورْ ***tašur***, تَشُومَاقْ ***tašumaq***).

[تُشَادِى ***tüšädi***] اُلْ تُوشْ تُشَادِى ***ol tüš tüšädi*** – “u tush ko‘rdi”. Uyquda ihtilom bo‘lsa ham shu so‘z qo‘llanadi (تُشَارْ ***tüšär***, تُشَامَاكْ ***tüšämäk***).

[تُشَادِى ***töšädi***] تُشَاكْ تُشَادِى ***töšäk töšädi*** – “to‘shak va boshqa narsalarni soldi, to‘shadi”.

[تِشَادِى ***tišädi***] تَكِرْمَانْ تِشَادِى ***tegirmän tišädi*** – “tegirmon toshini qayrab, o‘tkir qildi”.

Bu gapda *muḍāf* tushirilib, o‘rniga *muḍāfi ilayh* qo‘yilgan. Chunki تَكِرْمَانْ ***tegirmän*** hamma tegirmonning nomidir. Tegirmon charxlanmaydi, faqat uning toshi charxlanadi. Bu gapda ana shu “tosh” so‘zi tushirilgan.

[تِشَادِى ***tišädi***] اُلْ اُرْغَاقْ تِشَادِى ***ol oryaq tišädi*** – “u o‘roqni o‘tkirladi” (تِشَارْ ***tišär***, تِشَامَاكْ ***tišämäk***).

[چِشَادِى ***čišädi***] اُغْلَانْ چِشَادِى ***oγlan*** (281b) ***čišädi*** – “bola chush qildi, bulg‘atdi”. Bu so‘z yosh bolalargagina qo‘llanadi.

[سَشُودِى ***sešüdi***] تُكُونْ سَشُودِى ***tügün sešüdi*** – “tugun bo‘shadi, hattoki, echilayozdi” (سَشُورْ ***sešür***, سَشُومَاكْ ***sešümäk***).

[قَشِيدِى ***qašïdï***] اُلْ مَنِى قَشِيدِى ***ol meni qašïdï*** – “u mening badanimni qashidi” (قَشِيرْ ***qašïr***, قَشِيمَاقْ ***qašïmaq***). Maqolda (shunday kelgan): اُلْدَجِى سِجْغَانْ مُوشْ تَشَقِنْ قَشِيرْ ***Öldäči sïčγan müš tašaqïn qašïr.*** Ma’nosi: “Sichqonning o‘limi yaqinlashsa, mushukning tashog‘ini qashiydi”. Bu maqol ma’nisiz ishga uringan kishi to‘g‘risida aytiladi.

[كُشِيدِى ***köšidi***] تَامْ كُونُكْ كُشِيدِى ***tam künüg köšidi*** – “devor kunni to‘sdi”. Yorug‘liqning berkitilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (كُشِيرْ ***köšir***, كُشِيمَاكْ ***köšimäk***).

[كِشَادِى ***kišädi***] اُلْ اَتغْ كِشَادِى ***ol atïγ kišädi*** – “u otni bog‘ladi, kishanladi”.

[كِشَادِى ***kišädi***] اَرْ قُولِنْ كِشَادِى ***er qulïn kišädi*** – “kishi qulini bog‘lab qo‘ydi, kishanladi” (كِشَارْ ***kišär***, كِشَامَاكْ ***kišämäk***).

غ ***γ*** [harfi]:

[سُغِيدِى ***soγïdï***] سُوقْ سُغِيدِى ***suw soγïdï*** – “suv va boshqa narsalar sovidi” (سُغِيرْ ***soγïr***, سُغِيمَاقْ ***soγïmaq***).

ق ***q*** [harfi]:

[تُقِيدِى ***toqïdï***] اُلْ قَبُغْ تُقِيدِى ***ol qapuγ toqïdï*** – “u eshikni taqillatdi”.

[تُقِيدِى ***toqïdï***] اُلْ قُولِنْ تُقِيدِى ***ol qulïn toqïdï*** – “u qulini urdi” (o‘g‘uzcha). Boshqa turklar “urdi” ma’nosida اُرْدِى تُقِيدِى ***urdï-toqïdï*** shaklida juft qo‘llaydilar.

[تُقِيدِى ***toqïdï***] تَمُرْجِى قِلِجْ تُقِيدِى ***temürči qïlïč toqïdï*** – “temirchi qilich, pichoq va boshqa narsalarni yasadi”.

[تُقِيدِى ***toqïdï***] اَرْ بُوزْ تُقِيدِى ***er böz toqïdï*** – “kishi bo‘z va boshqa narsalarni to‘qidi”.

[تُقِيدِى ***toqïdï***] اَنِى سُقْ تُقِيدِى ***anï suw toqïdï*** – “uni oqar suv cho‘ktirdi”.

[تُقِيدِى ***toqïdï***] اَرْنِى يِيلْ تُقِيدِى ***erni yel toqïdï*** – “kishiga yel tegdi, to‘qindi” (تُقِيرْ ***toqïr***, تُقِيمَاقْ ***toqïmaq***).

[سَقِيدِى ***saqïdï***] اُلْ مَنِكْ كُوزُمَا سَقِيدِى ***ol menïŋ közümä saqïdï*** – “u mening ko‘z o‘ngimda shunday hayollandi”.

[سَقِيدِى ***saqïdï***] سَاقِغْ سَقِيدِى ***saqïγ saqïdï*** – “ko‘kat suvdek ko‘rindi. U ko‘katni suv deb hayol qildi” (سَقِيرْ ***saqïr***, سَقِيمَاقْ ***saqïmaq***).

[سُقِيدِى ***soqïdï***] اُلْ اَنِى سُقِيدِى ***ol anï soqïdï*** – “u uni barmog‘i bilan qitiqladi” (سُقِيرْ ***soqïr***, سُقِيمَاقْ ***soqïmaq***).

[سِقَادِی *sïqadï*] اُلْ اَنِکْ بَشِنْ سِقَادِی ***ol anïŋ bašïn*** (282a) ***sïqadï*** – “u unga achinib, qo‘li bilan boshini siladi”. Har qanday narsa ustiga qo‘l yugurtib siypalashga ham shu so‘z qo‘llanadi (سِقَارْ *sïqar*, سِقَامَاقْ *sïqamaq*).

[قَقِدِی *qaqïdï*] اُلْ اَنْدِن قَقِيدِی ***ol andïn qaqïdï*** – “u undan achchiqlandi, qilgan ishidan xafa bo‘ldi” (قَقِيرْ *qaqïr*, قَقِيمَاقْ *qaqïmaq*). Bu so‘z arg‘ular tilida قَقِيُورْ ***qaqïyur*** shaklida qo‘llanadi. Arg‘ular bu bobdagi hamma kelasi zamon fe’llarini ham, zarurat bo‘lmasa-da, o‘tru qilib so‘zlaydilar. Bu qoidaga muvofiq emas. Bu xususiyat mazkur tildagi kamchilikdir.

ک ***k*** [harfi]:

[بَکُودِی *beküdi*] تُکُونْ بَکُودِی ***tügün beküdi*** – “tugun mustahkamlandi”. Biror narsaning bekilishi, mustahkamlanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَکُورْ ***bekür***, بَکُومَاکْ ***bekümäk***).

[تُکَادِی *tügädi*] اِيشْ تُکَادِی ***iš tügädi*** – “ish qolmadi, tugadi”.

[تُکَادِی *tügädi*] بُو اَشْ قَمُغْقَا تُکَادِی ***bu aš qamuγqa tügädi*** – “bu osh hammaga yetdi”. Bu so‘z qarama-qarshi ma’noli so‘zlardir.

ل ***l*** [harfi]:

[بَلَادِی *beladi*] قُوئْ بَلَادِی ***qoy beladi*** – “qo‘y baladi, ma’radi” (بَلَارْ ***belär***, بَلَامَاکْ ***belämäk***).

[بُلَادِی *buladï*] قُزِی بُلَادِی ***qozï buladï*** – “qo‘zini va boshqa narsalarni pishirdi” (بُلَارْ ***bular***, بُلَامَاقْ ***bulamaq***).

[بِلَادِی *biladi*] اُلْ بِجَاکْ بِلَادِی ***ol pičäk biladi*** – “u pichoqni bilagiga surtdi”.

[بِلَادِی *biladi*] اُلْ تِيشْ بِلَادِی ***ol tïš biladi*** – “u tishlarini qayradi” (بِلَارْ ***bilär***, بِلَامَاکْ ***bilämäk***).

[بِلَادِی *beladi*] اُلْ کَنْجِنْ بِلَادِی ***ol gänčin beladi*** – “u bolasini beshikka beladi”.

[بِيلَادِی *beladi*] اُلْ اَنِی قَانِکَا بِيلَادِی ***ol anï qanïγa beladi*** – “u uni qonga beladi” (بِلَارْ ***belär***, بِيلَامَاکْ ***belämäk***).

[تُلَادِی *tüladi*] اَتْ تُلَادِی ***at tüladi*** – “ot va boshqa hayvonlar tulladi, qishki yungini to‘kib, yangi yung chiqardi” (تُلَارْ ***tülär***, تُلَامَاکْ ***tülämäk***). Bu so‘zning asli تُولَادِی bo‘lgan, keyinchalik *vāv* tushirilgan.

[تُلَادِی *töladi*] قُوئْ تُلَادِی ***qoy töladi*** – “qo‘y qo‘ziladi” (o‘g‘uzcha) (تُلَارْ ***tölär***, تُلَامَاکْ ***tölämäk***).

[تِلَادِی *tiladi*] اُلْ اَنِی تِلَادِی ***ol anï tiladi*** – “u uni so‘radi, surishtirdi”.

[تِلَادِی *tiladi*] تَنکرِی اَنْدَاغْ تِلَادِی ***täŋri anday tiladi*** – “Tangri taolo shunday bo‘lishini istadi” (تِلَارْ ***tilär***, تِلَامَاکْ ***tilämäk***).

[چِلَادِی *čiladi*] تُونُوغْ چِلَادِی ***tonuγ čiladi*** – “kiyimni va boshqa narsalarni nam qildi” (چِلَارْ ***čilär***, چِلَامَاکْ ***čilämäk***). Bu so‘zning asli چِيلَادِی edi, *yā* harfi tushirilgan.

[سُلَادِی *sülädi*] بَکْ بَغِيقَا سُلَادِی ***beg yaγïqa sülädi*** (282b) – “bek yovga (qarshi) jangga qo‘shin yubordi”. Bu so‘zning asli سُولَادِی edi, so‘ng *vāv* tushirilgan (سُولَارْ ***sülär***, سُولَامَاکْ ***sülämäk***).

(Bilimli) shunday degan:

يَغِنـكْ تَبَا تِتْرُو بَقِبْ بُكْدَنـكْ بِلَا *Yayïŋ tapa titrü baqïp bügdäŋ bilä,*
اُغْرَبْ قَلِى كَلْسَا سَنـكَا قَرْشُو سُلَا *Oyrap qalï kelsä seŋä qaršu sülä.*

Aytmoqdaki: “Yovingni diqqat bilan kuzat, bek nayzasini bilagingda tut. Yov senga qarshi kelsa, unga qarshi jang qil”.

[قَلِيدِى ***qalïdï***] اَتْ قَلِيدِى ***at qalïdï*** – “ot beboshlik qildi, boshini bermay chopdi” (قَلِيرْ ***qalïr***, قَلِيمَاقْ ***qalïmaq***).

[كُلِيدِى ***kölidi***] اُلْكْ كُلِيدِى ***ölüg kölidi*** – “o‘lik va boshqa narsalar ko‘mildi” (كُلِيرْ ***kölir***, كُلِيمَاكْ ***kölimäk***).

م ***m*** [harfi]:

[قَمَادِى ***qamadï***] كُوزْ قَمَادِى ***köz qamadï*** – “quyosh tig‘idan ko‘z qamashdi” (قَمَارْ ***qamar***, قَمَامَاقْ ***qamamaq***).

[قَمَادِى ***qamadï***] اَنِـكْ تِيشِى قَمَادِى ***anïŋ tïšï qamadï*** – “nordon, qimizak ho‘l meva yeyishdan uning tishi qamashdi”. Maqolda (shunday kelgan): اَتَاسِى اَنَاسِى اَجِغْ اَلْمِلَا يِيسَا اُغْلِى قِيزِى تِيشِى قَامَارْ ***Atasï, anasï ačïγ almïla yesä, oγlï-qïzï tïši qamar.*** – “Otasi yoki onasi biror nordon, qimizak olma yesa, bolalarining tishi qamashadi”. Bu maqol ota-onaning qilgan jinoyati uchun bolalarini aybdor qilish, ularni so‘roq qilishga ishora qilib aytiladi.

[قُمِيدِى ***qomïdï***] اَرْ اَقِنـكَا قُمِيدِى ***er ewiŋä qomïdï*** – “kishi uyiga intildi, qo‘msadi, uyini sog‘indi”. Har kimsa biror narsani istab, ko‘ngli unga talpinishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُمِيرْ ***qomïr***, قُمِيمَاقْ ***qomïmaq***).

ن ***n*** [harfi]:

[تَنُودِى ***tanudï***] اُلْ مَنـكَا سُوزْ تَنُودِى ***ol meŋä söz tanudï*** – “u menga bir so‘z aytdi, buyurdi”. Biron narsaning tavsiya etilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَنُورْ ***tanur***, تَنُومَاقْ ***tanumaq***).

[تُنَادِى ***tünädi***] اُلْ مُنْدَا تُنَادِى ***ol munda tünädi*** – “u bu yerda tunadi” (تُنَارْ ***tünär***, تُنَامَاكْ ***tünämäk***).

[سِنَادِى ***sïnadï***] اُلْ اَنِى سِنَادِى ***ol anï sïnadï*** – “u uni bir ishda sinadi” (سِنَارْ ***sïnar***, سِنَامَاقْ ***sïnamaq***).

[قَنَادِى ***qanadï***] اُلْ اَتِنْ قَنَادِى ***ol atïn qanadï*** – “u otining tomirini kesib qon oldi” (قَنَارْ ***qanar***, قَنَامَاقْ ***qanamaq***).

[قِنَادِى ***qïnadï***] بَكْ اَنِى قِنَادِى ***beg anï qïnadï*** – “bek uni qiynadi, iskanjaga oldi”; تَنـكْرِى اَنِى قِنَادِى ***teŋri anï qïnadï*** – “Tangri taolo unga jazo berdi”.

[قِنَادِى ***qïnadï***] اُلْ بِجَاكِنْ قِنَادِى ***ol pičäkin qïnadï*** – “u pichog‘iga qin oldi” (قِنَارْ ***qïnar***, قِنَامَاقْ ***qïnamaq***).

[قَنَدِى ***qanadï***] بُرُونْ قَنَدِى ***burun qanadï*** (283a) – “burun qonadi”. Kishi a’zosining biron yeri qonashiga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘zning asli قَانِيدِى ***qanïdï*** bo‘lgan, so‘ng *alif* harfi tushirilgan (قَنِير ***qanïr***, قَنِيمَاقْ ***qanïmaq***).

[مُنَادِى ***münädi***] اُلْ تُونُغْ مُنَادِى ***ol tonuγ münädi*** – “u to‘nning egri-bugrisi va boshqa narsalarini tuzatish uchun tevaragini kesdi, oroyishini oldi” (مُنَارْ ***münär***, مُنَامَاكْ ***münämäk***).

[سَنَادِى ***sanadï***] اُلْ قُويِنْ سَنَادِى ***ol qoyïn sanadï*** – “u qo‘yini sanadi” (سَنَارْ ***sanar***, سَنَامَاقْ ***sanamaq***). Bu so‘zning asli سَانَادِى edi, so‘ng *alif* tushirilgan.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ر ***r*** (?) [harfi]:

[بَيُودِى ***bayudï***] اَرْ بَيُودِى ***er bayudï*** – “kishi va boshqalar boyidi” (بَيُورْ ***bayur***, بَيُومَاقْ ***bayumaq***).

[تَيَادِى ***tayadï***] اُلْ اَنِى تَيَادِى ***ol anï tayadï*** – “u unga tirgovich qo‘ydi”. Hattoki ustiga chiqdi (تَيَارْ ***tayar***, تَيَامَاقْ ***tayamaq***).

Uch harflilar bo‘limi tugadi.

BU TO‘RT HARFLILAR BOBLARIDIR

فَعْلَلْدِى ***fa’laldī*** qolipidagi o‘rta harfi ***sukun*** li bo‘lgan so‘zlar bo‘limi

ب ***b*** [harfi]:

[بُرْبَادِى ***burbadï***] اَرْ اِيشِغْ بُرْبَادِى ***er ïšïγ burbadï*** – “kishi ishga beparvolik qildi, payiga tushmadi” (بُرْبَارْ ***burbar***, بُرْبَامَاقْ ***burbamaq***).

[تُرْبِيدِى ***törpidi***] اَرْ يِغَاجْ تُرْبِيدِى ***er yïγač törpidi*** – “kishi yog‘och va boshqa narsalarni yo‘ndi” (تُرْبِيرْ ***törpir***, تُرْبِيمَاكْ ***törpimäk***).

ت ***t*** [harfi]:

[سِيغْتَادِى ***sïγtadï***] اُغْلَانْ سِيغْتَادِى ***oγlan sïγtadï*** – “bola va boshqalar yig‘ladi” (سِيغْتَارْ ***sïγtar***, سِيغْتَامَاقْ ***sïγtamaq***). Bu so‘z خ *xā* bilan ham talaffuz qilinadi. Bu hol arabchada ham shunday:وَ خَمارُ هُمْ وغدار deyilishi kabi. Bu almashinish faqat fe’llardagina bo‘lishi mumkin. Ismlarda سِيخْتْ ***sïxït*** shaklida *yayn* o‘rniga خ *xā* qo‘llab talaffuz qilinmaydi.

ج ***č*** [harfi]:

[تُرْجِيدِى ***türčidi***] اَرْ اِيشْ تُرْجِيدِى ***er ïš türčidi*** – “kishi ishga boshladi” (تُرْجِيرْ ***türčir***, تُرْ جِيمَاكْ ***türčimäk***).

[تَفْجِيدِى ***tewčidi***] اُلْ تُونُغْ تَفْجِيدِى ***ol tonuγ tewčidi*** – “u to‘nni tepchidi, qavidi”. Bu biror narsani zichlab emas, siyraklab tikishdir (تَفْجِيرْ ***tewčir***, تَفْجِيمَاكْ ***tewčimäk***).

[تِنْجِيدِى ***tïnčïdï***] اَتْ تِنْجِيدِى ***et tïnčïdï*** – “go‘sht o‘tda qizdirildi” (تِنْجِيرْ ***tïnčïr***, تِنْجِيمَاقْ ***tïnčïmaq***).

[قَرْجَادِى ***qarčadï***] يُمْشَاقْ نَانكْ قَرْجَادِى ***yumšaq näŋ qarčadï*** – “yumshoq narsa qattiqlashdi” (قَرْجَارْ ***qarčar***, قَرْجَامَاقْ ***qarčamaq***).

[قِرْجَادِى ***qïrčadï***] اُلْ اُقْ اَمَاجْقَا قِرْجَادِى ***ol oq amačqa qïrčadï*** – “o‘q nishon yonidan sirg‘anib o‘tib ketdi” (قِرْجَارْ ***qïrčar***, قِرْجَامَاقْ ***qïrčamaq***).

[اَرِی كِشِكَا قَقْجِيدِی ***qawčïdï***] ***arï kišikä qawčïdï*** – “ari chaqish uchun kishiga otildi”. (283b) Kishi birovdan achchiqlanib, unga hujum qilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قَقْجِيرْ ***qawčïr***, قَقْجِيمَاقْ ***qawčïmaq***).

د ***d*** [harfi]:

[اُلْ اَنِكْ اَذَاقِنْ بَغْدَادِی ***baγdadï***] ***ol anïŋ aδaqïn baγdadï*** – “u uning oyog‘ini kurashda chaldi, qayirdi” (بَغْدَارْ ***baγdar***, بَغْدَامَاقْ ***baγdamaq***).

[قُنْدِيدِی ***qundïdï***] ***ol qïlïč qundïdï*** – “u qilichni sayqalovchi uskuna bilan yaltiratdi” (قُنْدِيرْ ***qundïr***, قُنْدِيمَاقْ ***qundïmaq***).

ر ***r*** [harfi]:

[تَبْرَادِی ***tebrädi***] ***tebrädi näŋ*** – “narsa tebrandi, qimirladi” (تَبْرَارْ ***tebrär***, تَبْرَامَاكْ ***tebrämäk***).

[تُبْرَادِی ***topradï***] ***ot topradï*** – “o‘t quridi” (تُبْرَارْ ***toprar***, تُبْرَامَاقْ ***topramaq***).

[تَبْرِيدِی ***taprïdï***] ***tewi taprïdï*** – “tuya xatladi”. Bu so‘z tuyadan boshqaga qo‘llanmaydi (تَبْرِيرْ ***taprïr***, تَبْرِمَاقْ ***taprïmaq***).

[سَدْرَدِی ***seδrädi***] ***kiši seδrädi*** كِشِی – “xalq siyraklashdi”; ***ton seδrädi*** تُونْ سَدْرَدِی – “kiyimning rangi ketib eskirdi” (سَدْرَارْ ***seδrär***, سَدْرَمَاكْ ***seδrämäk***).

[بُغْرَادِی ***boγradï***] ***ol yïγačïγ boγradï*** اُلْ يِغَاچِغْ بُغْرَادِی – “u quruq yog‘och va boshqa narsalarni kertdi” (بُغْرَارْ ***boγrar***, بُغْرَامَاقْ ***boγramaq***).

[تِغْرَادِی ***tïγradï***] ***er tïγradï*** اَرْ تِغْرَادِی – “kishi dadil bo‘ldi” (تِغْرَارْ ***tïγrar***, تِغْرَامَاقْ ***tïγramaq***).

[تُغْرَادِی ***toγradï***] ***et toγradï*** اَتْ تُغْرَادِی – “tutmoch va boshqa narsalar uchun go‘sht to‘g‘radi” (تُغْرَارْ ***toγrar***, تُغْرَامَاقْ ***toγramaq***).

[يَقْرَادِی ***yawradï***] ***er yawradï*** اَرْ يَقْرَادِی – “kishi quvvatlandi, kuchga to‘ldi” demakdir. Bu so‘z تَغْدَادِی ***taγdadï*** so‘zi kabidir (يَقْرَارْ ***yawrar***, يَقْرَامَاقْ ***yawramaq***).

(Shoir) shunday degan:

قِشْ يَايْغَرُو سُقْلَنُورْ ***Qïš yayγaru sawlanur,***
اَرْ اَتْ مَنِن يَقْرُيُور ***Er et menin yawruyur.***
اِغْلَرْ يَمَا سَقْرِيُورْ ***İglär yemä sewriyür,***
اَتْ يِنْ تَقِی بَكْرِشُور ***Et yin taqï bekrišür.***

Yoz bilan qish tortishuvini tasvirlab aytmoqda: “Kishilar va mollarning tanasi menda kuchga to‘ladi, mustahkamlanadi. Kasallar qishda ozayadi. Kishilarning tanasi qishda yetilib, kuchga to‘ladi”.

[تُقْرَادِی ***tuwradï***] ***ušaq näŋ tuwradï*** أُشَاقْ نَانكْ تُقْرَادِی – “kichik narsa kattardi”. Chunonchi, kichik qo‘zi kattalashgani kabi (تُقْرَارْ ***tuwrar***, تُقْرَامَاقْ ***tuwramaq***[1]). Bu so‘z katta inju – g‘alton ma’nosidagi تُقْزْ يُنْجُو ***tuwuz yünčü*** iborasidagi تُقْزْ ***tuwuz*** so‘zidan olingan.

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (تُقْرَامَاكْ).

[بُقْرِيدِى ***buqrïdï***] اَتْ سۈيْجِيدِى بُقْرِيدِى ***at suyčïdï-buqrïdï*** – “ot boshini bermay sakradi”. Bu so‘z yolg‘iz qo‘llanmay, faqat juft holda keladi (بُقْرَارْ ***buqrar***, بُقْرِمَاقْ ***buqrïmaq***).

[تِكْرَادِى ***tikrädi***] اَتْ اَذَاقِى تِكْرَادِى ***at aδaqï tikrädi*** – “ot oyog‘ida tik-tik yurdi”. (284a)

[تِكْرَادِى ***tikrädi***] أُغْلَانْ تِكْرَادِى ***oγlan tikrädi*** – “bola katta bo‘ldi” (تِكْرَارْ ***tikrär***, تِكْرَامَاكْ ***tikrämäk***).

[جِغْرُودِى ***čïγrudï***] يِيرْ جِغْرُودِى ***yer čïγrudï*** – “ustida ko‘p yurilganidan, ko‘p tepkilanganidan yer pishidi, qotib ketdi”. Har qanday yumshoq narsa pishitilishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (جِغْرُورْ ***čïγrur***, جِغْرِمَاقْ / جِغْرُمَاقْ ***čïγrumaq*** / ***čïγrïmaq***).

[جُقْرَادِى ***čoqradï***] اَشِجْ جُقْرَادِى ***ešič čoqradï*** – “bo‘tqa kabi quyuq narsadan qozon qaynadi”. Suyuq taomning qaynashiga bu so‘z qo‘llanmaydi; bu ma’noda قَيْنَدِى ***qaynadï*** so‘zi qo‘llanadi.

[جُقْرَادِى ***čoqradï***] مِنگَرْ جُقْرَادِى ***mïŋar čoqradï*** – “buloq suvi qozon qaynaganday qaynadi” (جُقْرَارْ ***čoqrar***, جُقْرَامَاقْ ***čoqramaq***).

[جِقْرَادِى ***čïqradï***] تِيشْ جِقْرَادِى ***tïš čïqradï*** – “tish g‘ijirladi”; قَبُغْ جِقْرَادِى ***qapuγ čïqradï*** – “eshik g‘ijirladi”. Kishi g‘arazlikdan va boshqa shunday biror sababdan to‘ng‘illashiga ham shu so‘z qo‘llanadi (جِقْرَارْ ***čïqrar***, جِقْرَامَاقْ ***čïqramaq***).

[جِكْرَادِى ***čikrädi***] اَتْمَاكْتَا تَاشْ جِكْرَادِى ***etmäktä taš čikrädi*** – “nondan chiqqan toshdan tish g‘ijirladi” (جِكْرَارْ ***čikrär***, جِكْرَامَاكْ ***čikrämäk***).

[جَلْرَادِى ***čalradï***] أَقْ كِيشْ تَا جَلْرَادِى ***oq keštä čalradï*** – “o‘q sadoqda shildiradi”. Shunga o‘xshash tovushga ham shu so‘z qo‘llanadi (جَلْرَارْ ***čalrar***, جَلْرَامَاقْ ***čalramaq***).

[سَفْرَادِى ***sewrädi***] اِيشْ سَفْرَادِى ***iš sewrädi*** – “ish bitdi”. Har qanday ishchining ishlamay qo‘yishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَفْرَارْ ***sewrär***, سَفْرَامَاكْ ***sewrämäk***).

[سَفْرَادِي ***sewrädi***] سُكَلْ اِيكْدِنْ سَفْرَادِي ***sögäl igdin sewrädi*** – “bemor yarasining o‘rni bitdi, undan qutildi”.

[سَكْرِيدِى ***sekridi***] اَرْ سُقْقَا سَكْرِيدِى ***er suwqa sekridi*** – “kishi suv va boshqa narsaga sakradi” (سَكْرِيرْ ***sekrir***, سَكْرِيمَاكْ ***sekrimäk***).

[سَمْرِيدِى ***semridi***] قُويْ سَمْرِيدِى ***qoy semridi*** – “qo‘y va boshqalar semirdi” (سَمْرِيرْ ***semrir***, سَمْرِيمَاكْ ***semrimäk***).

[سَنْرِيدِى ***sanrïdï***] اَسْرُكْ سَنْرِيدِى ***esrüg sanrïdï*** – “mast aljidi”. Asli سَنْدْرِيدِى ***sandrïdï*** / سَنْدِرَدِى ***sandïradï*** dir (سَنْرِيرْ ***sanrïr***, سَنْرِيمَاقْ ***sanrïmaq***).

[تَنْرِيدِى ***tenridi***] اَنِكْ بَشِى تَنْرِيدِى ***anïŋ bašï tenridi*** – “uning boshi aylandi”. Bu – uyqu bosganda, uyquni qochirmoqchi bo‘lgan paytda, uyqu o‘chishidan oldin chumoli yurganday tuyulishdir (تَنْرِيرْ ***tenrir***, تَنْرِيمَاكْ ***tenrimäk***).

[كُفْرَادِى ***köwrädi***] اَنِكْ كُوجِى كُفْرَادِى ***anïŋ küči köwrädi*** (284b) – “uning kuchi kesildi”. Har qanday quvvatli narsaning kuchi ketishiga ham bu so‘z qo‘llanadi (كُفْرَارْ ***köwrär***, كُفْرَامَاكْ ***köwrämäk***).

[كُكْرَادِى ***kökrädi***] اَرسْلَانْ كُكْرَادِى ***arslan kökrädi*** – “arslon o‘kirdi”; بُغْرَا كُكْرَادِى ***buγra kökrädi*** – “nor tuya bo‘kirdi”; بُلِتْ كُكْرَادِى ***bulït kökrädi*** – “osmonda

bulutlar ko‘kradi”. Maydondagi bahodirlarning hayqiriqlari ham shunga o‘xshatiladi. Maqolda (shunday kelgan): **تَكِرْمَنْدَا تُغْمِشْ سِجْغَانْ كُوكْ كُكْرَكِنكَا قُرقْمَاسْ** ***Tegirmändä tuγmïš sïčγan kök kökrägiŋä qorqmas.*** Ma’nosi: “Tegirmonda tug‘ilgan sichqon momaqaldiroq tovushidan qo‘rqmaydi”. Bu maqol qiyin ishlarda siqilgan kishini kichik bir ish bilan qo‘rqitmoqchi bo‘lgan kishiga qarata so‘zlanadi (**كُكْرَارْ** ***kökrär,*** **كُكْرَامَاكْ** ***kökrämäk***).

[**كُلْرَادِى** ***gülrädi***] **تَاشْ قُدُغْدَا كُلْرَادِى** ***taš quduγda gülrädi*** – “tosh quduqda guldirab ovoz berdi” (**كُلْرَارْ** ***gülrär,*** **كُلْرَامَاكْ** ***gülrämäk***).

ز ***z*** [harfi]:

[**تَبْزَادِى** ***tepzädi***] **اُلْ اَنِى تَبْزَادِى** ***ol anï tepzädi*** – “u uni ko‘rolmadi, hasad qildi” (**تَبْزَارْ** ***tepzär,*** **تَبْزَامَاكْ** ***tepzämäk***).

[**سِغْزَادِى** ***sïγzadï***] **اُلْ تِيشْ سِغْزَادِى** ***ol tïš sïγzadï*** – “u tish kavlagich bilan tishini kavladi”; **اُلْ اَتِكْ / اِتِكْ يِسِنْ سِغْزَادِى** ***ol etik yisin sïγzadï*** – “u etik sog‘ining choklari orasiga narsa qo‘yib tikib, chiziq-yo‘l qildi”. Shuningdek, ikki narsa orasiga bir narsa siqib kiritilsa ham shu so‘z qo‘llanadi (**سِغْزَارْ** ***sïγzar,*** **سِغْزَامَاقْ** ***sïγzamaq***).

[**قُبْزَادِى** ***qobzadï***] **اُلْ قُبُزْ قُبْزَادِى** ***ol qobuz qobzadï*** – “u qo‘buz chaldi” (**قُبْزَارْ** ***qobzar,*** **قُبْزَامَاقْ** ***qobzamaq***).

س ***s*** [harfi]:

[**تَبْسَادِى** ***tepsädi***] **اُلْ اَنِى تَبْسَادِى** ***ol anï tepsädi*** – “u uni ko‘rolmadi, hasad qildi” (**تَبْسَارْ** ***tepsär,*** **تَبْسَامَاكْ** ***tepsämäk***). Bu so‘zning *zā* li shakli ham bor.

[**بُتْسَادِى** ***bütsädi***] **بَاشْ بُتْسَادِى** ***baš bütsädi*** – “yara tuzalayozdi” (**بُتْسَارْ** ***bütüsär,*** **بُتْسَامَاكْ** ***bütüsämäk***).

[**بُخْسَادِى** ***boxsadï***] **اُلْ اَنكَرْ بُخْسَادِى** ***ol aŋar boxsadï*** – “u uning buyrug‘idan bosh tortdi, ishni (istar-istamas) bajardi” (**بُخْسَارْ** ***boxsar,*** **بُخْسَامَاقْ** ***boxsamaq***).

[**جَبْسَادى** ***čapsadï***] **اُلْ سُقْدَا جَبْسَادِى** ***ol suwda čapsadï*** – “u suvda suzmoq istadi” (**جَبْسَارْ / جَبْسَارْ** ***čapsar / čapïsar,*** **جَبْسَامَاقْ / جَبِسَامَاقْ** ***čapsamaq / čapïsamaq***[1]).

[**سَتِسَادِى** ***satïsadï***] **اُلْ اَتِنْ سَتِسَادِى** ***ol atïn satïsadï*** – “u otini va boshqa narsalarni sotmoq istadi” (**سَتِسَارْ** ***satïsar,*** **سَتِسَامَاقْ** ***satïsamaq***).

[**سُرِسَادِى** ***sürisädi***] **اُلْ اَتغْ سُرِسَادِى** ***ol atïγ sürisädi*** – “u otni va boshqa ulovni choptirmoqchi bo‘ldi” (**سُرِسَارْ** ***sürisär,*** **سُرِسَامَاكْ** ***sürisämäk***). (285a)

[**سُقْسَادِى** ***suwsadï***] **اَرْ سُقْسَادِى** ***er suwsadï*** – “kishi va boshqalar suvsadi, suvga tashna bo‘ldi” (**سُقْسَارْ** ***suwsar,*** **سُقْسَامَاقْ** ***suwsamaq***). Bu so‘zda ham istak, ham xohish ma’nosi bor.

[**سُقْسِدِى** ***suwsïdï***] **سِرْكَا سُقْسِدِى** ***sirkä suwsïdï*** – “sirkada suv ta’mi paydo bo‘ldi. Suvning qo‘shilishi sirka kuchini kesdi” (**سُقْسِرْ** ***suwsïr,*** **سُقْسِيمَاقْ** ***suwsïmaq***).

[**قَبْسَادِى** ***qapsadï***] **اَنِكْ تَكْرَا كِشِى قَبْسَادِى** ***anïŋ tegrä kiši qapsadï*** – “uning tevaragini kishilar qopladi” (**قَبْسَارْ** ***qapsar,*** **قَبْسَامَاقْ** ***qapsamaq***).

[**قَبْسَادِى** ***qapsadï***] **اُلْ اَنِكْ تَقَارِنْ قَبْسَادِى** ***ol anïŋ tawarïn qapsadï*** – “u uning molini tortib olmoq istadi”.

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (جَبْسَامَاكْ / جَبْسَامَاقْ).

[قُبُسَادِى *qopusadï*] اُلْ يُقَارُو قُبُسَادِى ***ol yuqaru qopusadï*** – “u yuqori chiqmoq istadi” (قُبُسَارْ *qopusar*, قُبُسَامَاقْ *qopusamaq*).

[كُرُسَادِمْ *körüsädim*] مَنْ اَنِى كُرُسَادِمْ ***men anï körüsädim*** – “men uni ko‘rishni istadim”. Bu so‘zning asli كُرُكْسَادِمْ ***körügsädim*** dir. Tarkibida ذلاقه harflari bo‘lgan so‘zlardan biror narsaga istak bildirish ma’nosini ifodalash uchun fe’l o‘zagiga *kāf, sīn, alif* harflarini orttirish qoidadir (كُرُسَارْمَنْ ***körüsär-men***, كُرُسَامَاكْ ***körüsämäk***).

[كَلِكْسَادِمْ *keligsädim*] مَنْ سَنْكَا كَلِكْسَادِمْ ***men seŋä keligsädim*** – “men senga kelishni istadim”. Bu so‘z كَلِسَادِمْ ***kelisädim*** shaklida ham qo‘llanadi (كَلِسَارْمَنْ ***kelisär-men***, كَلِسَامَاكْ ***kelisämäk***).

[قَقْسِدِى *qaqsïdï*] اَتْ قَقْسِدِى ***et qaqsïdï*** – “go‘sht qoq bo‘ldi, qoqshadi” (قَقْسِيرْ ***qaqsïr***, قَقْسِيمَاقْ ***qaqsïmaq***).

ش *š* [harfi]:

[تُشْدَى *tüwšädi*] اَنِكْ تَرِى تُشْدَى ***anïŋ teri tüwšädi*** – “qattiq ishlashdan undan dona-dona ter to‘kildi” (تُشْارْ ***tüwšär***, تُشْامَاكْ ***tüwšämäk***).

[تَشْادِى *tewšädi*] يِبْ قَمُغْ تَشْادِى ***yïp qamuγ tewšädi*** – “ip bir-biriga aralashib, uchini topib bo‘lmas darajada chigil bo‘ldi, chiyildi” (تَشْارْ ***tewšär***, تَشْامَاكْ ***tewšämäk***).

[جَخْشَادِى *čaxšadï*] تَاشْ جَخْشَادِى ***taš čaxšadï*** – “tosh chaqillagan ovoz berdi”. Ziynat narsalari va boshqa shunga o‘xshash narsalarning ovoz berishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (جَخْشَارْ ***čaxšar***, جَخْشَامَاقْ ***čaxšamaq***).

[جُقْشَادِى *čuwšadï*] جَغِرْ جُقْشَادِى ***čaγïr čuwšadï*** – “ichimlik (sharbat) qaynadi va ko‘pirdi”.

[جُقْشَادِى *čuwšadï*] قَرِنْ جُقْشَادِى ***qarïn čuwšadï*** – “taom qorinni achitdi” (جُقْشَارْ ***čuwšar***, جُقْشَامَاقْ ***čuwšamaq***[1]).

[سُفْشَادِى *suwšadï*] اُلْ قُلَاقًا سُفْشَادِى ***ol qulaqqa suwšadï*** – “u quloqqa bir so‘zni shipshidi” (سُفْشَارْ ***suwšar***, سُفْشَامَاقْ ***suwšamaq***).

[سُفْشَادِى *suwšadï*] سُكَلْ كَا سُفْشَادِى ***sögälkä suwšadï*** (285b) – “kasalga o‘qib sufladi”. Bu so‘z *sīn* bilan ham talaffuz qilinadi.

[قَرْشَادِى *qaršadï*] اُلْ تُونُغْ قَرْشَادِى ***ol tonuγ qaršadï*** – “u to‘n va boshqa narsalarni qarichlab o‘lchadi” (قَرْشَارْ ***qaršar***, قَرْشَامَاقْ ***qaršamaq***).

[قُرْشَادِى *quršadï*] اُلْ قَقْتَانْ قُرْشَادِى ***ol qawtan quršadï*** – “u qaftan bog‘ichini bog‘ladi” (قُرْشَارْ ***quršar***, قُرْشَامَاقْ ***quršamaq***).

[قُغْشَادِى *qoγšadï*] قَتِغْ نَانَكْ قُغْشَادِى ***qatïγ näŋ qoγšadï*** – “qattiq narsa bo‘shashdi, yumshadi” (قُغْشَارْ ***qoγšar***, قُغْشَامَاقْ ***qoγšamaq***).

[قُقْشَادِى *qowšadï*] اَرْ اُقْنِى قُقْشَادِى ***er oqnï qowšadï*** – “kishi o‘qni uzoq ketadigan qildi” (قُقْشَارْ ***qowšar***, قُقْشَامَاقْ ***qowšamaq***). Bu so‘z *yayn* bilan ham qo‘llanadi.

[كَقْشَدِي *kewšädi*] تَقْنْ اُتْ كَقْشَدِي ***tewäy ot kewšädi*** – “tuya o‘t kavshadi”.

[كَقْشَدِى *kewšädi*] قُرجْ نَانَكْ كَقْشَدِى ***qurč näŋ kewšädi*** – “qattiq narsa bo‘shashdi, yumshoq bo‘lib qoldi” (كَقْشَارْ ***kewšär***, كَقْشَامَاكْ ***kewšämäk***). Yaxshi yetiltirib pishirilgan, semirtiradigan yaxshi non ham كَقْشَكْ اَتْمَاكْ ***kewšäk etmäk*** deb ataladi.

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (جُقْشَامَاكْ).

غ ***ɣ*** [harfi]:

[**تَسْغَادِى** ***tasɣadï***] **اُلْ اَنِى تَسْغَادِى** ***ol anï tasɣadï*** – “u unga tarsaki tushirdi” (**تَسْغَارْ** ***tasɣar,*** **تَسْغَامَاقْ** ***tasɣamaq***).

[**سَتْغَادِى** ***satɣadï***] **اُلْ اَنِكْ بُيْنِنْ سَتْغَادِى** ***ol anïŋ boynïn satɣadï*** – “u uning bo‘ynini ezdi”.

[**سَتْغَادِى** ***satɣadï***] **بِيرْ يُولْ بِيرِكْ سَتْغَادِى** ***bir yol birig satɣadï*** – “bir yo‘l (janubdan kelgan yo‘l) g‘arbdan kelgan yo‘lga qo‘shildi; bir yo‘l ikkinchisi bilan birlashdi”.

[**سَتْغَادِى** ***satɣadï***] **اَلِمْ بِيرِ مْنِى سَتْغَادِى** ***alïm berimni satɣadï*** – “u olarini berariga o‘rinma-o‘rin almashdi” (**سَتْغَارْ** ***satɣar,*** **سَتْغَامَاقْ** ***satɣamaq***).

(Bilimli) shunday degan:

اَژُنْ تُنِى كُندُوزِى يَلْكِنْ كَجَارْ ***Ažun tüni kündüzi yelkin kečär,***
كِمْنِى قَلِى سَتْغَسَا كُوچِنْ كَقَارْ ***Kimni qalï satɣasa küčin kewär.***

Aytmoqdaki: “Falakning kecha-kunduzi yelday kechadi, u kimga yomon qarasa, uning kuchini sindiradi”. Bu so‘z o‘g‘uzlarda yo‘l va qarz xususida qo‘llanadi.

[**سِتْغَادِى** ***sïtɣadï***] **اُلْ قُولِنْ سِتْغَادِى** ***ol qolïn sïtɣadï*** – “u qo‘llarini shimardi” (**سِتْغَارْ** ***sïtɣar,*** **سِتْغَامَاقْ** ***sïtɣamaq***).

[**بَدْغَادِى** ***badɣadï***] **اُلْ اَنِكْ اَذَاقِنْ بَدْغَادِى** ***ol anïŋ aδaqïn badɣadï*** – “kurashda u uning oyog‘ini chaldi”. Bu so‘z **بَغْدَادِى** ***baɣdadï*** shaklida ham talaffuz qilinadi (**بَدْغَارْ** ***badɣar,*** **بَدْغَامَاقْ** ***badɣamaq***).

[**بُلْغَادِى** ***bulɣadï***] **اُلْ سُوقَغْ بُلْغَادِى** ***ol suwuɣ bulɣadï*** – “u suvni bulg‘adi, loyqalatdi”.

[**بُلْغَادِى** ***bulɣadï***] **اُلْ تُتْمَاجْ بُلْغَادِى** ***ol tutmač bulɣadï*** (286a) – “u qozondagi tutmoch va boshqalarni kavladi”. Qozondagi bulamiq va boshqa narsaning ustki qismi bilan tagi teng qaynashi uchun qorishtirishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[**بُلْغَادِى** ***bulɣadï***] **اُلْ اَرْ اَنِكْ كُنكْلِنْ بُلْغَادِى** ***ol er anïŋ köŋlin bulɣadï*** – “u kishi uning ko‘nglini siqdi”. Bu so‘zning asl ma’nosi nomuvofiq taom yeyishdan kishining ko‘ngli aynib, qayt qilishdir (**بُلْغَارْ** ***bulɣar,*** **بُلْغَامَاقْ** ***bulɣamaq***).

[**تَلْغَادِى** ***talɣadï***] **قِيزْ يِنْجُو تَلْغَادِى** ***qïz yinčü talɣadï*** – “qiz inju va boshqa narsalardan yasalgan zirak taqdi”.

[**تُلْغَادِى** ***tolɣadï***] **اُلْ يُونكْ تُلْغَادِى** ***ol yuŋ tolɣadï*** – “u dukka yung o‘radi”.

[**تُلْغَادِى** ***tolɣadï***] **اَنِكْ قَرْنِى تُلْغَادِى** ***anïŋ qarnï tolɣadï*** – “qusish va shunga o‘xshashlardan uning qorni og‘ridi” (**تُلْغَارْ** ***tolɣar,*** **تُلْغَامَاقْ** ***tolɣamaq***).

[**قَرْغَادِى** ***qarɣadï***] **تَنكْرِى اَنِى قَرْغَادِى** ***täŋri anï qarɣadï*** – “ulug‘ va qudratli Tangri uni qarg‘adi” (**قَرْغَارْ** ***qarɣar,*** **قَرْغَامَاقْ** ***qarɣamaq***).

[**قُرْغَادِى** ***qurɣadï***] **يِرْ قُرْغَادِى** ***yer qurɣadï*** – “yog‘ingarchilik ozligidan yer qaqrab qoldi” (**قُرْغَارْ** ***qurɣar,*** **قُرْغَامَاقْ** ***qurɣamaq***).

[قِزْغَادِى *qïzyadï*] بَكْ اَنِى قِزْغَادِى ***beg anï qïzyadï*** – “bek uni uzoqlashtirdi, qo‘pol, dag‘al muomala qildi” (قِزْغَارْ *qïzyar*, قِزْغَامَاقْ ***qïzyamaq***). Ulug‘ va qudratli Tangrining qarg‘ishidan farqli o‘laroq kishilar bir-birlari bilan so‘kishishlari, qarg‘ishlarini boshqacha aytadilar: birini قَرْغَامَاقْ ***qarγamaq***, ikkinchisini قِرْغَامَاقْ ***qïrγamaq*** shaklida qo‘llaydilar.

ڤ *w* [harfi]:

[قَرْڤَادِى ***qarwadï***] اُلْ قَرَنـكْقُودَا قَرْڤَادِى ***ol qaraŋquda qarwadï*** – “u qorong‘ida qo‘li bilan bir narsani timirskilab topmoqchi bo‘ldi” (قَرْڤَارْ ***qarwar***, قَرْڤَامَاقْ ***qarwamaq***). Bu so‘z قَرْوَادِى ***qarvadï*** shaklida ham qo‘llanadi. Har bir ف *fā* [*w*] harfi (الفاء الركيكة) bo‘lgan so‘zni *vāv* bilan qo‘llash ham mumkin. Bu to‘g‘rida avval ham aytganmiz.

ك *g* [harfi]:

[تَلْكَادِى ***telgädi*** (?)] (تَلْكَادِى) اُلْ اَتَاسِنْ بُلْغَادِي ***ol atasïn bulγadï*** [***-telgädi***] – “u otasini siqib, jonidan to‘yg‘izdi”. Bu so‘z har vaqt تَلْكَادِى ***telgädi*** (***bulγadï?***) so‘zi bilan birga qo‘llanadi, yolg‘iz holda ishlatilmaydi (تَلْكَارْ ***telgär***, تَلْكَامَاكْ ***telgämäk***).

ل *l* [harfi]:

[بَتْلَادِى ***batladï***] اُلْ بُوزْنِي بَتْلَادِى ***ol bözni batladï*** – “u bo‘zni quyqa bilan ohorladi” (بَتْلَارْ ***batlar***, بَتْلَامَاقْ ***batlamaq***).

[بُتْلَادِى ***butladï***] اِتْ اَرِكْ بُتْلَادِى ***ït erig butladï*** – “it kishining oyog‘ini tishladi”. Birov boshqa birovning oyog‘iga ursa ham shu so‘z qo‘llanadi (بُتْلَارْ ***butlar***, بُتْلَامَاقْ ***butlamaq***).

[بِتْلَادِى ***bitlädi***] اَرْ بِتْ بِتْلَادِى ***er bit bitlädi*** – “kishi bit qaradi” (بِتْلَارْ ***bitlär***, بِتْلَامَاكْ ***bitlämäk***[1]). (286b)

[بُزْلَادِى ***bozladï***] تِتِرْ بُزْلَادِى ***tetir bozladï*** – “urg‘ochi tuya va boshqa hayvonlar bo‘zladi” (بُزْلَارْ ***bozlar***, بُزْلَامَاقْ ***bozlamaq***).

[بَشْلَادِى ***bašladï***] اَرْ اِيشْ بَشْلَادِى ***er iš bašladï*** – “kishi ish boshladi” (بَشْلَارْ ***bašlar***, [بَشْلَامَاقْ ***bašlamaq***]).

[بَشْلَادِى ***bašladï***] اُلْ يُولْ بَشْلَادِى ***ol yol bašladï*** – “u yo‘l ko‘rsatdi”; اُلْ سُو بَشْلَادِى ***ol sü bašladï*** – “u qo‘shin oldida bordi, lashkarboshilik qildi” ([بَشْلَارْ ***bašlar***], بَشْلَامَاقْ ***bašlamaq***).

[بَغْلَادِى ***bayladï***] اُلْ اُتُنـكْ بَغْلَادِى ***ol otuŋ bayladï*** – “u o‘tin va boshqa narsalarni bog‘ladi” (بَغْلَارْ ***baylar***, بَغْلَامَاقْ ***baylamaq***).

[بُغْلَادِى ***boyladï***] اُلْ تُونْ بُغْلَادِى ***ol ton boyladï*** – “u to‘nni bo‘g‘chaga tugdi” (بُغْلَارْ ***boylar***, بُغْلَامَاقْ ***boylamaq***). To‘nni bo‘g‘chaga tugish bilan boshqa narsalarni bog‘lashni ajratish uchun ularni ikki xil: birinchisini بُغْلَامَاقْ ***boylamaq***, ikkinchisini بَغْلَامَاقْ ***baylamaq*** tarzida qo‘llaydilar.

[بُقْلَادِى ***boqladï***] يِلْقِى بُقْلَادِى ***yïlqï boqladï*** – “hayvon tezakladi” (o‘g‘uzcha) (بُقْلَارْ ***boqlar***, بُقْلَامَاقْ ***boqlamaq***).

[بَكْلَادِى ***beklädi***] اُلْ نَانـكِنْ بَكْلَادِى ***ol näŋin beklädi*** – “u narsasini saqladi”.

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (بِتْلَامَاكْ).

[بَكْلَادِي ***bekladi***] اُلْ قَبُغْنْ بَكْلَادِي ***ol qapuγïn bekladi*** – “u eshigini bekitdi”. Har bir narsani qattiq bog‘lashga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَكْلَارْ ***beklär***, بَكْلَامَاكْ ***beklämäk***).

[بَكْلَادِى ***beglädi***] اُلْ اَنِى بَكْلَادِى ***ol anï beglädi*** – “u uni bek qatoriga qo‘shdi va bek deb atadi” (بَكْلَارْ ***beglär***, بَكْلَامَاكْ ***beglämäk***).

[تَبْلَادِى ***tapladï***] اُلْ تُونُغْ تَبْلَادِى ***ol tonuγ tapladï*** – “u to‘n va boshqa narsalarni qabul qildi va undan rozi bo‘ldi” (تَبْلَارْ ***taplar***, تَبْلَامَاقْ ***taplamaq***).

[تُبْلَادِى ***tüblädi***] اُلْ اِيشِغْ تُبْلَادِى ***ol išïγ tüblädi*** – “u ishning tubini tekshirdi” (تُبْلَارْ ***tüblär***, تُبْلَامَاكْ ***tüblämäk***).

[تَتْلَادِى ***tatladï***] اُلْ اَنِى تَتْلَادِى ***ol anï tatladï*** – “u uni forslarga nisbat berdi, forslardan hisobladi” (تَتْلَارْ ***tatlar***, تَتْلَامَاقْ ***tatlamaq***).

[تَرْلَادِى ***terlädi***] اَتْ تَرْلَادِى ***at terlädi*** – “ot terladi”.

[تَرْلَادِى ***terlädi***] اُلْ اَتِنْ تَرْلَادِى ***ol atïn terlädi*** – “u otini qashlab, ter dog‘larini va irkitlarini tozaladi” (تَرْلَارْ ***terlär***, تَرْلَامَاكْ ***terlämäk***). Bu so‘z qarama-qarshi ma’noli so‘zlardandir. Bu fe’l ham o‘timli, ham o‘timsizdir.

[تَزْلَادِى ***tazladï***] اُلْ اَنِى تَزْلَادِى ***ol anï tazladï*** – “u uni kalga nisbat berdi, kal deb atadi” (تَزْلَارْ ***tazlar***, تَزْلَامَاقْ ***tazlamaq***).

[تُزْلَادِى ***tuzladï***] اُلْ اَتْ تُزْلَادِى ***ol et tuzladï*** – “u go‘sht va boshqa narsalarni tuzladi” (تُزْلَارْ ***tuzlar***, تُزْلَامَاقْ ***tuzlamaq***[1]). (287a)

[تِزْلَادِى ***tizlädi***] بُغرَا اَرِكْ تِزْلَادِى ***buγra erig tizlädi*** – “nor tuya hamla qilib, kishini toptadi, tizzasi bilan ezdi”. Birov biror narsaning ustidan tizzasi bilan ezishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِزْلَارْ ***tizlär***, تِزْلَامَاكْ ***tizlämäk***[2]).

[تَشْلَادِى ***tašladï***] اُلْ اِتِغْ تَشْلَادِى ***ol ïtïγ tašladï*** – “u itni tosh bilan urdi”. Yana اَرْ تَشْلَادِى ***er tašladï*** – “kishi (yurtidan) tashqariga chiqdi, musofirlikka chiqdi” (تَشْلَارْ ***tašlar***, تَشْلَامَاقْ ***tašlamaq***).

[تُشْلَادِمْ ***tušladïm***] مَنْ اَنِى تُشْلَادِمْ ***men anï tušladïm*** – “men uning qarshisida turdim, ro‘baro‘ turdim” (تُشْلَارْمَنْ ***tušlar-men***, تُشْلَامَاقْ ***tušlamaq***).

[تِشْلَادِى ***tišladï***] اُلْ اَنِى تِشْلَادِى ***ol anï tišladï*** – “u uni tishi bilan tishladi”. Birov boshqasining tishiga ursa ham shu so‘z qo‘llanadi (تِشْلَارْ ***tišlar***, تِشْلَامَاقْ ***tišlamaq***[3]).

[تَغْلَادِى ***taγladï***] اُلْ اَتِنْ تَغْلَادِى ***ol atïn taγladï*** – “u otiga tamg‘a urdi” (تَغْلَارْ ***taγlar***, تَغْلَامَاقْ ***taγlamaq***). Otdan boshqa hayvonlarga tamg‘a urishga ham shu so‘z qo‘llanadi. Bu so‘z asl emasdir.

[تُغْلَادِى ***tuγladï***] اُلْ يَارَغْ تُغْلَادِى ***ol yaraγ tuγladï*** – “u sel o‘ygan yerning yoriqlarini bekitdi” (تُغْلَارْ ***tuγlar***, تُغْلَامَاقْ ***tuγlamaq***).

[تُمْلِيدِى ***tumlïdï***] سُوفْ تُمْلِيدِى ***suw tumlïdï*** – “suv va boshqa narsalar muzladi” (تُمْلِيرْ ***tumlïr***, تُمْلِيمَاقْ ***tumlïmaq***).

(Shoir) shunday degan:

---

[1] Bu so‘z masdarida yanglishib *kāf* yozilib, ustidan *qāf* qilib tuzatib qo‘yilgan (تُزْلَامَاقْ).

[2] Bu so‘z masdarida yanglishib *qāf* yozilib, ustidan *kāf* qilib tuzatib qo‘yilgan (تِزْلَامَاقكْ).

[3] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (تِشْلَامَاكقْ).

كُرْدِی مَنِی اَمْلَیُو *Kördi meni emläyü,*
بَقْتِی مَنکَا اِمْلَیُو *Baqtï meŋä imläyü.*
قَلْدِمْ کُنکُلْ تُمْلِیُو *Qaldïm köŋül tumlïyu,*
قَدْغُو مَنِی تُرْغُرُورْ *Qadyu meni toryurur.*

Aytmoqdaki: “Sevgilim menga imlab boqdi, bir qiyo boqish bilan meni davoladi. Alamlardan ko‘nglim muzlay boshladi. Qayg‘u meni yaralayotir”.

[جَرْلَادِی *čarladï*] اُغْلَانْ جَرْلَادِی *oylan čarladï* – “bola yig‘ladi”.

[جَرْلَادِی *čarladï*] یَنکَانْ جَرْلَادِی *yaŋan čarladï* – “fil chinqirdi” (جَرْلَارْ *čarlar*, جَرْلَامَاقْ *čarlamaq*). Fil chinqirishi ma’nosida جَرْلَادِی *čarladï* shakli bilan birga جُغْلَادِی *čoγladï* shakli ham qo‘llanadi (جُغْلَارْ *čoγlar*, جُغْلَامَاقْ *čoγlamaq*).

[جُغْلَادِی *čuγladï*] اُلْ تُونُغْ جُغْلَادِی *ol tonuγ čuγladï* – “u kiyim va boshqa narsalarni uydi, tugunga tugdi” (جُغْلَارْ *čuγlar*, جُغْلَامَاقْ *čuγlamaq*).

[جِغْلَادِی *čïγladï*] اُلْ بُوزْ جِغْلَادِی *ol böz čïγladï* – “u bo‘zni turk o‘lchovi bilan o‘lchadi” (جِغْلَارْ *čïγlar*, جِغْلَامَاقْ *čïγlamaq*).

[جَقْلَادِی *čawladï* (*čuwladï?*)] اَتْ جَقْلَادِی *et čawladï* (*čuwladï?*) – “go‘sht yetilib pishmay, xom bo‘lib qoldi” (جُقْلَارْ *čuwlar*, جُقْلَامَاقْ *čuwlamaq*). (287b)

[جِنْلَادِی *čïnladï*] اُلْ اِیشِغْ جِنْلَادِی *ol ïšïγ čïnladï* – “u ishning chinligini tekshirdi” (جِنْلَارْ *čïnlar*, جِنْلَامَاقْ *čïnlamaq*).

[سَبْلَادِی *sapladï*] اَرْ قِلِجْ سَبْلَادِی *er qïlïč sapladï* – “er qilichning dastasiga kumush yoki temir o‘rnatilgan sop yasadi”. Har qanday narsaga sop yasash uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (سَبْلَارْ *saplar*, سَبْلَامَاقْ *saplamaq*).

[سَرْلَادِی *sarladï*] اُلْ سُقْلُقْ سَرْلَادِی *ol suwluq sarladï* – “u boshiga salla o‘radi”.

[سَرْلَادِی *sarladï*] اَذَاقِنکَا یُرْکَانْجُو سَرْلَادِی *aδaqïŋa yörgänčü sarladï* – “oyog‘iga paytava o‘radi”. Har qanday narsaning biron narsaga o‘rab qo‘yishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سَرْلَارْ *sarlar*, سَرْلَا مَاقْ *sarlamaq*).

[سِرْلَادِی *sïrladï*] اَیَاقْچِی اَیَاقْ سِرْلَادِی *ayaqčï ayaq sïrladï* – “kulol idish (kosa, lagan) ustiga sir berdi” (سِرْلَارْ *sïrlar*, سِرْلَامَاقْ *sïrlamaq*).

[سُوزْلَادِی *sözladï*] اُلْ مَنکَا سُوزْ سُوزْلَادِی *ol meŋä söz sözladï* – “u menga so‘zladi” (سُوزْلَارْ *sözlär*, سُوزْلَامَاکْ *sözlämäk*).

[سِزْلَادِی *sïzladï*] اَنِکْ تِیشِی بُوزْدُنْ سِزْلَادِی *aniŋ tiši buzdun sïzladï* – “muzdan yoki sovuq suv ichishdan uning tishida sizash, og‘riq paydo bo‘ldi”.

[سِزْلَادِی *sïzladï*] اَرْنِکْ سُنکُوکِی سِزْلَادِی *erniŋ söŋüki sïzladï* – “og‘riqdan kishining suyagi sirqiradi” (سِزْلَارْ *sïzlar*, سِزْلَامَاقْ *sïzlamaq*).

[سُغْلِدِی *suγlïdï*] اَرْ قُویُنکَا سُغْلِدِی *er qoyuŋa suγlïdï* – “bir narsani qidirib, kishi qo‘lini qo‘yniga tiqdi” (سُغْلِیرْ *suγlïr*, سُغْلِیمَاقْ *suγlïmaq*). Boshqasi ham shunday.

[سَقْلَادِی *sawladï*] اُلْ تَلِمْ سَقْلَادِی *ol telim sawladï* – “u ko‘p so‘z so‘zladi”. Birov otalar so‘zini so‘zlasa ham shu so‘z qo‘llanadi (سَقْلَارْ *sawlar*, سَقْلَامَاقْ *sawlamaq*).

[سُقْلَادِی *suwladï*] اَتْ سُقْلَادِی *at suwladï* – “ot va boshqa hayvonlar suv ichdi”.

[سُقْلَادِی *suwladï*] اَرْ تِتِکْ سُقْلَادِی *er titik suwladï* – “kishi loy va boshqa narsalarga suv quydi” (سُقْلَارْ *suwlar*, سُقْلَامَاقْ *suwlamaq*).

[سَمْلَادِی ***samladï***] اُلْ اَنِی اَمْلَادِي سَمْلَادِی ***ol anï emlädi-samladï*** – “u uni davoladi, sog‘aytirdi”. Bu so‘z yolg‘iz qo‘llanmaydi, اَمْلَادِی ***emlädi*** so‘zi bilan birga ishlatiladi (سَمْلَارْ ***samlar***, سَمْلَامَاقْ ***samlamaq***).

[سُمْلِيدِی ***sumlïdï***] اَرْ سُمْلِيدِی ***er sumlïdï*** – “kishi o‘zidan boshqa birov bilmaydigan, turkchadan boshqa bir tilda so‘zlashdi” (سُمْلِيرْ ***sumlïr***, سُمْلِيمَاقْ ***sumlïmaq***). (288a)

[سَنْلَادِی ***senlädi***] الْ اَنِی سَنْلَادِی ***ol anï senlädi*** – “u uni senladi” (سَنْلَارْ ***senlär***, سَنْلَامَاكْ ***senlämäk***). Bu (so‘z) “sen” demakdir. Ulug‘lash (hurmatlash)ni anglatish uchun سِزْلَادِی ***sizlädi*** deyiladi. Bu “siz” demakdir. Bu xoqonlar bilan so‘zlashilganda qo‘llanadigan so‘z o‘rnidadir. Tangrining اِنّا اَنْزَلْناهُ degan so‘zida ham hurmat, ya’ni ko‘plik shaklida qo‘llangan.

[قَرْلَادِی ***qarladï***] بُلْتْ / بُلِتْ قَرْلَادِی ***bulut / bulït qarladï*** – “bulut qor yog‘dirdi” (قَرْلَارْ ***qarlar***, قَرْلَامَاقْ ***qarlamaq***).

[قُرْلَادِی ***qurladï***] اُلْ قَفْتَانِغْ قُرْلَادِی ***ol qawtanïγ qurladï*** – “u qavtan ustidan belbog‘ bog‘ladi” (قُرْلَارْ ***qurlar***, قُرْلَامَاقْ ***qurlamaq***).

[قِرْلَادِی ***qïrladï***] اُلْ يِيرِكْ قِرْلَادِی ***ol yerig qïrladï*** – “u tarvuz va shunga o‘xshash ekinlar uchun yerda chuqur va ariqlar qazdi”. Yerni biror ekinga hozirlash uchun ham qo‘llanadi (قِرْلَارْ ***qïrlar***, قِرْلَامَاقْ ***qïrlamaq***).

[قَشْلَادِی ***qašladï***] اَرِقْ قَشْلَادِی ***arïq qašladï*** – “ariq uchun marza tortdi”. Birov birovning qoshiga ursa ham shu so‘z qo‘llanadi (قَشْلَارْ ***qašlar***, قَشْلَامَاقْ ***qašlamaq***).

[قُشْلَادِی ***qušladï***] بَكْ قُشْلَادِی ***beg qušladï*** – “bek qush ovladi” (قُشْلَارْ ***qušlar***, قُشْلَامَاقْ ***qušlamaq***).

[قِشْلَادِی ***qïšladï***] اَرْ اَفِنْدَا قِشْلَادِی ***er ewindä qïšladï*** – “kishi uyi va boshqa joylarda qishladi” (قِشْلَارْ ***qïšlar***, قِشْلَامَاقْ ***qïšlamaq***).

[قِنْلَادِی ***qïnladï***] اُلْ بِچَاكْ قِنْلَادِی ***ol pičäk qïnladï*** – “u pichoqqa qin qildi”. Boshqa narsalar uchun ham shu so‘z qo‘llanadi (قِنْلَارْ ***qïnlar***, قِنْلَامَاقْ ***qïnlamaq***).

[كُتْلَادِی ***kötladi***] اُغْلَانِغْ كُتْلَادِی ***oγlanïγ kötladi*** – “bola va boshqalarga yomonlik qildi” (كُتْلَارْ ***kötlär***, كُتْلَامَاكْ ***kötlämäk***).

[كَذْلَادِی ***keδladi***] اَرْ كَذْلَادِی ***er keδladi*** – “kishi tirishdi, harakat qildi” (كَذْلَارْ ***keδlär***, كَذْلَامَاكْ ***keδlämäk***).

[كَزْلَادِی ***kezladi***] اُلْ اُقِنْ كَزْلَادِی ***ol oqïn kezladi*** – “u o‘qining uchini tuzatdi” (كَزْلَارْ ***kezlär***, كَزْلَامَاكْ ***kezlämäk***). Qozonning kirini tozalashga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[كُزْلَادِی ***közladi***] اُلْ اَنِی كُزْلَادِی ***ol anï közladi*** – “u uning ko‘ziga urdi” (كُزْلَارْ ***közlär***, كُزْلَامَاكْ ***közlämäk***).

[كِزْلَادِی ***kizladi***] اُلْ كِزْلَادِی نَانْكْنِی ***ol kizladi näŋni*** – “u narsani yashirdi” (كِزْلَارْ ***kizlär***, كِزْلَامَاكْ ***kizlämäk***).

[كَسْلَادِی ***keslädi***] اُلْ اِتِغْ كَسْلَادِی ***ol ïtïγ keslädi*** – “u itni kesak bilan haydadi” (كَسْلَارْ ***keslär***, كَسْلَامَاكْ ***keslämäk***).

[كُكْلَادِی ***köklädi***] اُلْ اَدْرْ كُكْلَادِی ***ol eδär köklädi*** – “u egar bog‘ichini bog‘ladi” (كُكْلَارْ ***köklär***, كُكْلَامَاكْ ***köklämäk***). (288b)

[كُكْلَادِى *köklädi*] يِلْقِى كُكْلَادِى *yïlqï köklädi* – “hayvonlar ko‘k yedi” (كُكْلَار *köklär*, كُكْلَامَاكْ *köklämäk*).

[كُگْلَادِى *küglädi*] اَرْ كُگْلَادِى *er küglädi* – “kishi ashula aytdi; ashulada yangi nag‘ma chiqardi” (كُگْلَار *küglär*, كُگْلَامَاكْ *küglämäk*).

[كَمْلَادِى *kemlädi*] اَتْ كَمْلَادِى *at kemlädi* – “ot kasallandi”. Bu so‘zniكَمْلَانْدِى *kemländi* shaklida ham talaffuz qiladilar (كَمْلَار *kemlär*, كَمْلَامَاكْ *kemlämäk*).

[مُنْلَادِى *münlädi*] اَرْ مُنْلَادِى *er münlädi* – “kishi sho‘rva ichdi” (مُنْلَار *münlär*, مُنْلَامَاكْ *münlämäk*).

ن *n* [harfi]:

[بُلْنَادِى *bulnadï*] اَرْ يَغِينِى بُلْنَادِى *er yayïnï bulnadï* – “er yovni asir oldi” (بُلْنَارْ *bulnar*, بُلْنَامَاقْ *bulnamaq*).

[تُگْنَادِى *tögnädi*] اُلْ بَاشِنْ تُگْنَادِى *ol bašïn tögnädi* – “u yarasini olovga dog‘ladi” (تُگْنَارْ *tögnär*, تُگْنَامَاكْ *tögnämäk*).

[چِگْنَادِى *čegnädi*] قِيزْ چِگِنْ چِگْنَادِى *qïz čegin čegnädi* – “qiz ipak kiyimlik ustiga zardo‘zi qilib rasmlar tikdi”.

[چِگْنَادِى *čegnädi*] اَرْ چِگْنَا چِگْنَادِى *er čegnä čegnädi* – “kishi omoch bilan haydalgan yer ustidan mola bosdi” (چِگْنَار *čegnär*, چِگْنَامَاكْ *čegnämäk*).

[سُگْنَادِى *sögnädi*] اَرْ سُگَلْ سُگْنَادِى *er sögül sögnädi* – “kishi malham bosib so‘galni tuzatdi” (سُگْنَار *sögnär*, سُگْنَامَاكْ *sögnämäk*).

[قَيْنَادِى *qaynadï*] اَرْ اَنگَرْ قَيْنَادِى *er aŋar qaynadï* – “kishi uning buyrug‘idan bosh tortdi, uning so‘zini qaytardi” (قَيْنَار *qaynar*, قَيْنَامَاقْ *qaynamaq*).

[قَسْنَادِى *qasnadï*] اَرْ تُمْلُغْقَا قَسْنَادِى *er tumluγqa qasnadï* – “sovuqdan kishining tishlari takirladi”. Itning sovuqqa chidolmay, angillashiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قَسْنَار *qasnar*, قَسْنَامَاقْ *qasnamaq*).

[قَلْنُودِى *qalnudï*] يُفقَا نَانگْ قَلْنُودِى *yuwqa näŋ qalnudï* – “yupqa narsa qalinlashdi, qalin bo‘ldi” (قَلِنُور *qalïnur*, قَلْنُومَاقْ *qalnumaq*).

[قُلْنَادِى *qulnadï*] قِسْرَاقْ قُلْنَادِى *qïsraq qulnadï* – “baytal qulunladi, tug‘di” (قُلْنَارْ *qulnar*, قُلْنَامَاقْ *qulnamaq*).

[كِشْنَادِى *kišnädi*] اَتْ كِشْنَادِى *at kišnädi* – “ot kishnadi”.

[كِشْنَادِى *kišnädi*] قَتِرْ كِشْنَادِى *qatïr kišnädi* – “xachir hangradi” (كِشْنَارْ *kišnär*, كِشْنَامَاكْ *kišnämäk*).

Bu bo‘limning *misāl* turi

ت *t* [harfi]:

[يَسْتَادِى *yastadï*] اُلْ اَنگَرْ يَسْتُقْ يَسْتَادِى *ol aŋar yastuq yastadï* – “u unga suyanish uchun yostiq qo‘ydi”.

[يَسْتَادِى *yastadï*] اُلْ مَنگَا سُوزْ يَسْتَادِى *ol meŋä söz yastadï* – “u menga kinoya bilan tegizib so‘zladi” (يَسْتَار *yastar*, يَسْتَامَاقْ *yastamaq*). (289a)

ج *č* [harfi]:

[يُنْجِيدِى ***yunčïdï***] اَرْ يُنْجِيدِى ***er yunčïdï*** – “kambag‘allikdan kishining tinkasi quridi”.

(Shoir) shunday degan:

بِلْكَا بُكُو يُنْجِيدِى	***Bilgä, bögü yunčïdï,***
اَژُنْ اَتِى يَنْجِدِى	***Ažun atï (anï?) yenčidi.***
اَرْدَمْ اَتِى تِنْجِدِى	***Erdäm eti tïnčïdï,***
يَرْكَا تَكِبْ سُرْتُلُورْ	***Yerkä tegip sürtülür.***

Zamon ahvolini tushuntirib shunday demakda: “Bilimdonlar ahvoli yomonlashdi. Dunyo ularni yanchib tashladi, (hatto), odobning eti qotdi. (Zaiflikdan) yerga tegib sudralmoqda”. تَنْجَدِى ***tančadï*** so‘zining asli تَنْجْغَادِى ***tančγadï*** bo‘lgan. Bu o‘rinda she’riy zarurat yuzasidan *γayn* harfi tushirilgan. *γayn* harfini tushirish o‘g‘uz va qipchoqlar tilida uchraydi. Ular ism va fe’llarning o‘rtasida kelgan *γayn* harfini tushirib qo‘llaydilar.

ر ***r*** [harfi]:

[يَقْرِيدِى ***yawrïdï***] اَرْ يَقْرِيدِى ***er yawrïdï*** – “kishining ahvoli qashshoqlikdan yoki kasallikdan yomon bo‘ldi” (يَقْرِيرْ ***yawrïr***, يَقْرِيمَاقْ ***yawrïmaq***).

س ***s*** [harfi]:

[يَيْسَادِى / يَيِسَادِى ***yeysädi / yeyisädi***] اُلْ اَتْمَاكْ يَيْسَادِى / يَيِسَادِى ***ol etmäk yeysädi / yeyisädi*** – “uning non va boshqa narsalar yegisi keldi” (يَيِسَارْ ***yeyisär***, يَيِسَامَاكْ ***yeyisämäk***).

[يَبِسَادِى ***yapïsadï***] اَرْ اَتْمَاكْ يَبِسَادِى ***er etmäk yapïsadï*** – “kishi non yopmoqchi bo‘ldi”. Bu so‘z eshikni yopishga ham qo‘llanadi.

[يَبِسَادِى ***yapïsadï***] اَرْ تُوزَاقْ يَبِسَادِى ***er tuzaq yapïsadï*** – “kishi ov qilish uchun tuzoqni qush ustiga yopishga hozirlandi” (يَبِسَارْ ***yapïsar***, يَبِسَامَاقْ ***yapïsamaq***).

[يَتِسَادِى ***yatïsadï***] اَرْ يَتِسَادِى ***er yatïsadï*** – “kishi yonboshlab yotmoqchi bo‘ldi” (يَتِسَارْ ***yatïsar***, يَتِسَامَاقْ ***yatïsamaq***).

[يِتِسَادِى ***yetisädi***] اُلْ مَنِى يِتِسَادِى ***ol meni yetisädi*** – “u menga yetib olmoqchi bo‘ldi” (يَتِسَارْ ***yetisär***, يَتِسَامَاكْ ***yetisämäk***).

[يَذْسَادِى / يَذِسَادِى ***yaδsadï / yaδïsadï***] اُلْ تُشَاكْ يَذْسَادِى / يَذِسَادِى ***ol töšäk yaδsadï / yaδïsadï*** – “u to‘shakni yozmoq istadi, yozmoqchi bo‘ldi”.

[يَذِسَادِى ***yaδïsadï***] اُلْ سُوسِنْ يَذِسَادِى ***ol süsin yaδïsadï*** – “u qo‘shinini va boshqa narsalarni tarqatmoqchi bo‘ldi”. Xamir yoyishga ham shu so‘z qo‘llanadi (يَذِسَارْ ***yaδïsar***, يَذِسَامَاقْ ***yaδïsamaq***).

[يُذِسَادِى ***yoδïsadï***] اُلْ بِتِكْ يُذِسَادِى ***ol bitig yoδïsadï*** – “u xatni o‘chirmoqchi bo‘ldi”. Bu so‘z qilichdan qon va boshqa narsalarni tozalab ketkazishga ham qo‘llanadi (يُذِسَارْ ***yoδïsar***, يُذِسَامَاقْ ***yoδïsamaq***).

[يَرْسِيدِى ***yarsïdï***] اُلْ يَرْسِيدِى نَانْكْنِى ***ol yarsïdï näŋni*** – “u bir narsadan hazar qildi, jirkandi” (289b) (يَرْسِيرْ ***yarsïr***, يَرْسِيمَاقْ ***yarsïmaq***).

[يَزْسَادِى *yazïsadï*] اُلْ قُورِينْ يَزْسَادِى ***ol qurïn yazïsadï*** – “u belbog‘ini va boshqa narsalarni yechmoqchi bo‘ldi” (يَزْسَارْ *yazïsar*, يَزْسَامَاقْ *yazïsamaq*).

[يَشْسَادِى *yašïsadï*] اُلْ مِنْدِنْ يَشْسَادِى ***ol mendin yašïsadï*** – “u mendan yashirmoqchi bo‘ldi” (يَشْسَارْ *yašïsar*, يَشْسَامَاقْ *yašïsamaq*).

[يَغْسَادِى *yaγsadï*] اَرْ يَغْسَادِى ***er yaγsadï*** – “kishi yog‘siradi” (يَغْسَارْ *yaγsar*, يَغْسَامَاقْ *yaγsamaq*).

[يَغْسِيدِى *yaγsïdï*] يَغْسِيدِى نَانَكْ ***yaγsïdï näŋ*** – “kishiga mol yog‘ining ta’mi o‘rnashdi”. Maqolda (shunday kelgan): يُقرِى يَاغِى يَغْسِيمَاسْ ***Yuqrï yaγï yaγsïmas.*** Ma’nosi: “Ich yog‘i yog‘ o‘rnini bosmaydi” (يَغْسِيرْ *yaγsïr*, يَغْسِيمَاقْ *yaγsïmaq*). Bu so‘zning asli يَاغْسَادِى *yaγsadï* dir, keyinchalik idg‘om qilingan.

[يُقْسَادِى *yuwusadï*] اُلْ تُبِقْ يُقْسَادِى ***ol topïq yuwusadï*** – “u to‘p va boshqa narsalarni yumalatishni istadi” (يُقْسَارْ *yuwusar*, يُقْسَامَاقْ *yuwusamaq*).

[يُقْسَادِى *yöwüsädi*] اُلْ مَنكَا تَقَارْ يُقْسَادِى ***ol meŋä tawar yöwüsädi*** – “u mol bilan mening ko‘nglimni olmoqchi bo‘ldi” (يُقْسَارْ *yöwüsär*, يُقْسَامَاكْ *yöwüsämäk*[1]).

[يِقْسَادِى *yïqïsadï*] اُلْ تَامْ يِقْسَادِى ***ol tam yïqïsadï*** – “u devor va boshqa narsalarni yiqitmoqchi bo‘ldi” (يِقْسَارْ *yïqïsar*, يِقْسَامَاقْ *yïqïsamaq*).

[يُوكْسَادِى *yüksädi*] يُوكْسَادِى نَانكْ ***yüksädi näŋ*** – “narsa yuksaldi, uzaydi” (يُكْسَارْ *yüksär*, يُكْسَامَاكْ *yüksämäk*).

ش ***š*** [harfi]:

[يُمْشَادِى *yumšadï*] يُمْشَادِى نَانكْ ***yumšadï näŋ*** – “narsa yumshadi” (يُمْشَارْ *yumšar*, يُمْشَامَاقْ *yumšamaq*).

[يَلْغَادِى *yalγadï*] اَيَاقْ يَلْغَادِى ***ayaq yalγadï*** – “idish va boshqa narsalarni yaladi” (يَلْغَارْ *yalγar*, يَلْغَامَاقْ *yalγamaq*). Maqolda (shunday kelgan): يَقَادَاقِى يَلْغَاغَالِى اَلِكْدَاكِى اِجْغُورْ ***Yaqadaqï yalγaγalï eligdäki ïčγïnur.*** Ma’nosi: “Yoqadagi yuqni yalash bilan ovora bo‘lgan kishi qo‘lidagidan quruq qoladi”. Bu maqol bir narsani ta’ma qilib, qo‘lidagidan mahrum bo‘lgan kishiga qarata qo‘llanadi. Yo‘q narsadan umid qilmaslikka, qo‘lidagini mahkam tutishga undab so‘zlanadi.

ڤ ***w*** [harfi]:

[يَلْڤَادِى *yalwadï*] اَرْ يَاغْ يَلْڤَادِى ***er yaγ yalwadï*** – “kishi yog‘ va boshqa narsalarni yaladi”. Bu so‘z avvalgidan, ya’ni يَلْغَادِى *yalγadï* dan kengroq qo‘llanadi (يَلْڤَارْ *yalwar*, يَلْڤَامَاقْ *yalwamaq*).

ك ***g*** [harfi]:

[يُرْكَادِى *yörgädi*] اُلْ اَدَاقِنْ يُرْكَادِى ***ol aδaqïn yörgädi*** – “kishi oyog‘ini va boshqa narsalarni o‘radi”. Har qanday narsaning o‘rab qo‘yilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (يُرْكَارْ *yörgär*, يُرْكَامَاكْ *yörgämäk*).

ل ***l*** [harfi]:

[يِپْلَادِى *yïpladï*] اُرَاغُتْ يُزْنْ يِپْلَادِى ***urayut yüzin yïpladï*** – “xotin yuzining tukini ip bilan terdirdi” (يِپْلَارْ *yïplar*, يِپْلَامَاقْ *yïplamaq*).

[يَتْلَادِى *yatladï*] يَاتْجِى يَتْلَادِى ***yatčï yatladï*** (290a) – “yadachi yada toshi bilan yomg‘ir chaqirdi”.

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (يُقْسَامَاكقْ).

[يَتْلَادِى *yatladï*] اُلْ اَنِى يَتْلَادِى ***ol anï yatladï*** – “u uni yot deb hisobladi”.

[يِپْلَادِى *yïpladï*] اَرْ يِپْلَادِى ***er yïpladï*** – “kishi arqonda o‘ynadi” (يِپْلَارْ ***yïplar***, يِپْلَامَاقْ ***yïplamaq***[1]).

[يِذْلَادِى *yïðladï*] اُلْ يِبَارْ يِذْلَادِى ***ol yïpar yïðladï*** – “u mushk va boshqa narsalarni hidladi” (يِذْلَارْ ***yïðlar***, يِذْلَامَاقْ ***yïðlamaq***).

[يَرْلَادِى *yarladï*] اُلْ اَنِىڭ يُوزِنگَا يَرْلَادِى ***ol anïŋ yüziŋä yarladï*** – “u uning yuziga tupirdi” (يَرْلَارْ ***yarlar***, يَرْلَامَاقْ ***yarlamaq***).

[يِرْلَادِى *yïrladï*] اَرْ يِرْلَادِى ***er yïrladï*** – “kishi ashula aytdi” (يِرْلَارْ ***yïrlar***, يِرْلَامَاقْ ***yïrlamaq***).

[يَشْلَادِى *yašladï*] اَتْ يَشْلَادِى ***at yašladï*** – “ot va boshqa hayvonlar ko‘klamda ho‘l o‘t yedi”. Bu so‘zning asli يَاشْلَادِى ***yašladï*** bo‘lgan, yengillatish uchun *alif* tushirilgan. Boshqa so‘zlarda ham bu hol uchraydi (يَشْلَارْ ***yašlar***, يَشْلَامَاقْ ***yašlamaq***).

[يَغْلَادِى *yaγladï*] اَرْ قُغُشْ يَغْلَادِى ***er qoγuš yaγladï*** – “kishi qayish va boshqa narsalarni yog‘ladi” (يَغْلَارْ ***yaγlar***, يَغْلَامَاقْ ***yaγlamaq***). Bu so‘zning asli يَاغْلَادِى ***yaγladï*** dir.

[يُغْلَادِى *yoγladï*] اُلْ اُلُكْگَا يُغْلَادِى ***ol ölügkä yoγladï*** – “odam chaqirib, o‘likka atab osh berdi”. Bu turklar odatidir (يُغْلَارْ ***yoγlar***, يُغْلَامَاقْ ***yoγlamaq***).

[يِغْلَادِى *yïγladï*] اُوغْلَانْ يِغْلَادِى ***oγlan yïγladï*** – “bola va boshqalar yig‘ladi” (يِغْلَارْ ***yïγlar***, يِغْلَامَاقْ ***yïγlamaq***).

(Shoir) shunday degan:

يَلْكِنْ بُلُبْ بَرْدُقِى ***Yelkin bolup barduqï,***
كُنكُلُمْ اَنكَارْ بَغْلَايُو ***Köŋlüm aŋar baylayu.***
قَلْدِمْ اَرنچْ قَدْغُقَا ***Qaldïm erinč qadγuqa,***
اِيشِمْ اُدُو يِغْلَيُو ***Išïm uðu yïylayu.***

Aytmoqdaki: “Sevgan kishim uzoqlarga ketdi, qalbim unga bog‘lanib qolgan edi. Cho‘ng qayg‘uga qoldim. Ishim uning ortidan yig‘lash bo‘lib qoldi”.

[يُكْلَادِى *yüklädi*] اُلْ تَقَى گَا يُوكْ يُكْلَادِى ***ol tewäykä yük yüklädi*** – “u tuyaga va boshqa ulovga yuk ortdi, yukladi” (يُكْلَارْ ***yüklär***, يُكْلَامَاكْ ***yüklämäk***).

[يِكْلَادِى *yiklädi*] اُلْ يِيرِكْ يِكْلَادِى ***ol yerig yiklädi*** – “u yerni payhon qildi”. Bu so‘z *yā* harfini *alif* ga almashtiruvchilar so‘zidir, to‘g‘rirog‘i: اِكْلَادِى ***iklädi*** dir (يِكْلَارْ ***yiklär***, يِكْلَامَاكْ ***yiklämäk***).

[يَمْلَادِى *yamladï*] اُلْ اَفِنْ يَمْلَادِى ***ol ewin yamladï*** – “u uyini supirdi” (يَمْلَارْ ***yamlar***, يَمْلَامَاقْ ***yamlamaq***).

[يِمْلَادِى *yimlädi*] اُلْ مَنگَا يِمْلَادِى ***ol meŋä yimlädi*** – “u menga imladi” (يِمْلَارْ ***yimlär***, يِمْلَامَاكْ ***yimlämäk***). Bu so‘zning asli اِمْلَادِى ***imlädi*** dir.

ن ***n*** [harfi]:

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (يِپْلَامَاكْقْ).

[يَشْنَادِى ***yašnadï***] يَشِنْ يَشْنَادِى ***yašïn yašnadï*** – “chaqmoq chaqdi”. Tos (lagan, tovoq), oyna va shunga o‘xshash narsalarning yaltirashiga ham shu so‘z qo‘llanadi (290b) (يَشْنَارْ ***yašnar***, يَشْنَامَاقْ ***yašnamaq***).

[يَلْنَادِى ***yelnädi***] بِى يَلْنَادى ***bi yelnädi*** – “biya va boshqa urg‘ochi hayvonlarning yelini yaltirab ko‘rindi”. Bu yelinning sutga to‘lgan chog‘ida bo‘ladi (يَلْنَارْ ***yelnär***, يَلْنَامَاكْ ***yelnämäk***).

Bu bo‘limning *manqūṣ* turi

ب ***b*** [harfi]:

[بُيْبَادِى ***boybadï***] اُلْ اِيشِغْ بُيْبَادِى ***ol ïšïγ boybadï*** – “u ishni cho‘zdi, beparvolik qildi” (بُيْبَارْ ***boybar***, بُيْبَامَاقْ ***boybamaq***).

[سَيْبَادِى ***saypadï***] اُلْ تَوَارِنْ سَيْبَادِى ***ol tavarïn saypadï*** – “u molini behuda sarf qildi, isrof qildi” (سَيْبَارْ ***saypar***, سَيْبَامَاقْ ***saypamaq***).

[سَيْرَادِى ***sayradï***] سَنْدُوَاچْ سَيْرَادِى ***sanduvač sayradï*** – “bulbul ko‘ngilga xush yoquvchi lahnlar bilan sayradi”.

[سَيْرَادِى ***sayradï***] اَرْ تَلِمْ سَيْرَادِى ***er telim sayradï*** – “kishi ko‘p behuda so‘zladi”. Bu so‘z qarama-qarshi ma’noli so‘zlardandir (سَيْرَارْ ***sayrar***, سَيْرَامَاقْ ***sayramaq***).

ي ***y*** [harfi]:

[يَيْلَادِى ***yayladï***] اَرْ تَاغْدَا يَيْلَادِى ***er tayda yayladï*** – “kishi tog‘da yozladi, yozni o‘tkazdi” (يَيْلَارْ ***yaylar***, يَيْلَامَاقْ ***yaylamaq***).

Qoida: bu bo‘limning buyrug‘i to‘rt harflidir. Shuning uchun bu bo‘limni biz to‘rt harfli deb atadik. Chunonchi, اَتْ تُغْرَا ***et toγra*** (“go‘sht to‘g‘ra”) va اَوْكَا اُغْرَا ***ewkä oγra*** (“uyga bor”) gaplaridagi تُغْرَا ***toγra***, اُغْرَا ***oγra*** so‘zlari shundaydir. So‘zlovchi bu so‘zlarni تُغْرَاغِلْ ***toγrayïl*** (“to‘g‘ragin”), اُغْرَاغِلْ ***oγrayïl*** (“yo‘l ol”) tarzida so‘zlashi ham mumkin.

Bu bo‘limning o‘zga buyrug‘i تُغْرَاسُونْ ***toγrasun*** – “to‘g‘rasin”; اُغْرَاسُونْ ***oγrasun*** – “yo‘l olsin”dir. Bu bo‘limning bo‘lishsiz shakli buyruq oxiriga *mīm* va *alif* orttirib yasaladi: اُغْرَامَا ***oγrama*** – “borma”, تُغْرَامَا ***toγrama*** – “to‘g‘rama” demakdir. Bu fe’lning o‘zga bo‘lishsiz shakli اُغْرَامَاسُونْ ***oγramasun*** – “bormasin”, تُغْرَامَاسُونْ ***toγramasun*** – “to‘g‘ramasin” demakdir.

Ishning kelajak zamonda bo‘lishini anglatish istalganda *γayn* harfi bo‘lgan yoki, umuman, yo‘g‘on harfli (حروف الاشباع) so‘zlarda buyruqning oxiriga *γayn, alif, yā* qo‘shiladi va *kāf* harfi bo‘lgan yoki, umuman, ingichka harfli (الركيكة) so‘zlarda *γayn* o‘rniga *kāf* [*k // g*], *alif, yā* orttiriladi. Chunonchi, مَنْ اَتْ تُغْرَاغَايْ مَنْ ***men et toγrayay-men*** – “men go‘sht to‘g‘rayman” va مَنْ اَنَكَرْ اُغْرَاغَايْ مَنْ ***men aŋar oγrayay-men*** – “men unga yo‘l olaman” kabi.

Bu bo‘lim va bundan boshqa bo‘lim fe’llari ham shu xildadir. (291a) Arab tilida har xil ma’no va vazifalar so‘z oldiga qo‘shiladigan qo‘shimchalar vositasi bilan ifoda qilinadi. Chunonchi, har xil ma’nolarni anglatish uchun qo‘shiladigan qo‘shimchalar: so‘roqni anglatadigan qo‘shimcha, kelasi

zamon fe'li oldiga qo'shiladigan *sīn* va uzik *alif* lar, bog'lovchi hamda turli qo'shimchalar va boshqa shu kabilarning hammasi fe'l oldiga qo'shiladi. Lekin turkiy tillarda so'z o'zagi o'z shaklini saqlaydi. Har xil vazifalarni bajaradigan turli qo'shimchalar bu tilda, yuqorida ko'rilgandek, so'z oxiriga qo'shiladi.

Shuningdek, ish-harakatning bajaruvchisini anglatuvchi so'zlarning shakllari, ya'ni yasovchilari ham arabchada so'z o'rtalariga orttiriladi. Chunonchi, غافر غفار غفور kabi. Lekin turkchada, so'z o'z butunligini saqlagani holda, har xil qo'shimchalar quyida ko'rsatganimizdek, so'z oxiriga qo'shiladi.

Kelasi zamon bo'lishsizlik fe'li fe'llarning bo'lishsizlik qo'shimchasidan so'ng bir *sīn* orttirib yasaladi. Chunonchi, اُلْ اَتْ تُغْرَامَاسْ ***ol et toγramas*** – "u go'sht to'g'ramaydi"; اُلْ سَنكَا أُغْرَامَاسْ ***ol seŋä oγramas*** – "u senga bormaydi" kabi.

O'zganing bo'lishsizligi: اُلْ اَتْ تُغْرَامَاسُونْ ***ol et toγramasun*** – "u go'sht to'g'ramasin"; اُلْ اَنكَارْ أُغْرَامَاسُونْ ***ol aŋar oγramasun*** – "u unga bormasin" kabi.

Ko'pliklar qoidasi yuqorida ko'rsatib o'tildi. Bu qoida shundayki, o'g'uz va qipchoqlarda buyruqning birlik shakli oxiriga *γunna* li *kāf* [ŋ] orttirib yasaladi. Chunonchi, اَتْ تُغْرَانكْ ***et toγraŋ*** – "go'sht to'g'rang" yoki اَفكَا أُغْرَانكْ ***ewkä oγraŋ*** – "uyga boring" degandagi kabi. Bu to'g'ri qoidadir. Lekin turklar hurmatlilarga yoki katta yoshlilarga so'zlaganlarida, birlik buyruq shaklining oxiriga *γunna* li *kāf* [ŋ] orttirib qo'llaydilar. Bu *γunna* li *kāf* [ŋ] ularda hurmat belgisi sifatida o'rin olgan. Ko'plikda ular تُغْرَانكْ لَارْ ***toγraŋlar***, أُغْرَانكْ لَارْ ***oγraŋlar*** tarzida qo'llaydilar. Shuning uchun ikki mustaqil ko'plik belgisini birga qo'shib qo'llash xato hisoblanmay, to'g'ri deb tushuniladi. O'g'uzlar bilan qipchoqlar birinchi usulni qo'llaydilar. Qoidasi shudir.

Bu bo'limning harakat bajaruvchisini anglatuvchi shakli buyruq oxiriga -*γučï,* غُوچِی -*güči* كُوچِی qo'shimchasi qo'shilib yasaladi: (291b) اَتْ تُغْرَاغُوچِی ***et toγrayučï*** – "go'sht to'g'raydigan"; اَفكَا أُغْرَاغُوچِی ***ewkä oγrayučï*** – "uyga boradigan" deyilgandagi kabi. Lekin o'g'uz (va qipchoqlar, sahroyi) va suvorinlar hamda ular bilan birga yashovchilar bu shaklni تُغْرَادَاچِی ***toγradačï,*** أُغْرَادَچِی ***oγradačï*** shaklida qo'llaydilar. Bu haqdagi qoida yuqorida bayon qilingan.

Ishning davomiyligini anglatuvchi sifatdosh shakli تُغْرَاغَانْ ***toγrayan,*** أُغْرَاغَانْ ***oγrayan*** dir, ya'ni "doim to'g'raydigan", "doim boradigan", "borishni istaydigan" demakdir. Bu qoida hamma uchun umumiydir.

Ishlovchining ishni bajarish orzusida ekanligi ma'nosini anglatuvchi sifatdosh shakli yo'g'on harfli (المشبعه) va tarkibida ذلاقة harflaridan biri bo'lgan yoki tarkibida *γayn* harfi bo'lgan so'zlarda *γayn, sīn* va *qāf* orttiriladi, ingichka harfli yoki tarkibida *kāf* bo'lgan so'zlarda *kāf, sīn* va *kāf* orttiriladi. Chunonchi, اُلْ اَتْ تغْرَغْسَاقْ اُلْ ***ol et toγrayγsaq-ol*** – "u go'sht to'g'rashni istaydigandir", اُلْ تَوَيْكَا يُكْ يُكْلَكْسَاكْ اُلْ ***ol teväykä yük yüklägsäk-ol*** – "u tuyaga yuk ortishni istaydigandir" degandagi kabi. Lekin bu xususiyat boshqa bo'limlardagidek to'rt harflilarda kam qo'llanadi.

Ish-harakatni bajarishga qasd qilganini, lekin hali boshlamaganligini anglatadigan sifatdosh quyidagichadir: اُلْ اَتْ تُغْرَغْلِى اُلْ ***ol et toγraylï-ol*** – “u go‘sht to‘g‘rashga jazm qilgandir”; اُلْ سَنْكَا أُغْرَغْلِي اُلْ ***ol seŋä oγraylï-ol*** – “u sening huzuringga borishga jazm qilgandir” kabi. Boshqalari shunga qiyos qilib tuziladi.

Ish-harakatni bajarish uning vazifasi ekanini anglatuvchi sifatdosh shakli quyidagichadir: اُلْ اَتْ تُغْرَغْلِقْ اَرْدِى ***ol et toγraylïq erdi*** – “u go‘sht to‘g‘rashi kerak edi”; اُلْ سَنْكَا أُغْرَغْلِقْ اَرْدِى ***ol seŋä oγraylïq erdi*** – “u sening huzuringga kelishi kerak edi” kabi. Lekin o‘g‘uz va qipchoqlar tilida bu sifatdoshdagi *lām* o‘rniga *sīn* almashtirib qo‘llanadi. Chunonchi, اُلْ اَتْ تُغْرَغْسِقْ / تُغْرَغْسَقْ اَرْدِى ***ol et toγraγsïq / toγraγsaq erdi*** – “u go‘sht to‘g‘rashi kerak edi”; اُلْ سَنْكَا أُغْرَاغْسِقْ / أُغْرَاغْسَقْ اَرْدِى ***ol seŋä oγraγsïq / oγraγsaq erdi*** – “u sening huzuringga kelishi kerak edi” kabi. (292a) Bu shaklni qo‘llashda ko‘pchilik turkiy qabilalar o‘g‘uzlardan boshqa turklar tiliga muvofiq ravishda qo‘llaydilar.

Bu sifatdoshlarning bo‘lishsiz shakllari buyruq oxiriga مَا-*ma, -mä* qo‘shib yasaladi. Chunonchi, اُلْ اَيرْ اَتْ تُغْرَامَدَچِى تُرُورْ ***ol er et toγramadačï turur*** – “u kishi go‘sht to‘g‘ramaydigandir”; اُلْ يُكْ يُكْلَامَدَچِى تُرُورْ ***ol yük yüklämdäči turur*** – “u yuk yuklamaydiganlardandir”. Boshqalari shunga qiyos qilinadi.

Boshqa bir tilda yo‘g‘on harfli (حروف الاشباع) so‘zlarda *mīm, γayn, lām* va *yā* harflari qo‘shib, ingichka harfli so‘zlarda *mīm, kāf, lām* va *yā* harflari qo‘shib qo‘llaniladi: تُغْرَامَغْلِى اُلْ ***toγramaylï-ol***, يُكْلَامَكْلِى اُلْ ***yüklämägli-ol*** singari.

Bajarilgan ishni anglatuvchi majhul sifatdosh quyidagichadir: تُغْرَامِشْ اَتْ ***toγramïš et*** – “to‘g‘ralgan go‘sht”; اِرْغَامِشْ يِغَاجْ ***ïrγamïš yïyač*** – “irg‘itilgan yog‘och” kabi. Buning qoidasi so‘zlarning o‘zaklardan yasalishi bo‘limida bayon qilingan.

Masdarlarning bir qanchasini asosiy fe’llarni izohlagan o‘rinlarda bayon qilganmiz. Bu yerda aslida masdar bo‘lmay, boshqa bir so‘z bilan bog‘lanish natijasida masdarga aylanganlar haqidagina so‘zlaymiz. Bu xil masdarlar o‘zak oxiriga *kāf* yoki *γayn* qo‘shib yasaladi. Chunonchi, اَنِكْ اَتْ تُغْرَاغِى كُرْ ***anïŋ et toγrayï kör*** – “uning go‘sht to‘g‘rashini ko‘r”; اَنِكْ أُغْرَاغِى كُرْ ***anïŋ oγrayï kör*** – “uning mo‘ljalini ko‘r” gaplaridagi تُغْرَاغِى ***toγrayï***, أُغْرَاغِى ***oγrayï*** masdarlari kabi. Bu xil masdarlar ismlar o‘rniga qo‘llanadi. Bular ko‘p qo‘llangani uchun ularga (alohida) ishora qildim.

Payt, joy, qurol otlari bir xil usulda yasaladi. Chunonchi, بُو اَتْ تُغْرَاغُو ***bu et toγrayu*** – “bu to‘g‘raladigan go‘sht”; بُو (اَتْ) تُغْرَاغُو أُغُورْ اُلْ ***bu et toγrayu oγur-ol*** – “bu go‘sht to‘g‘raydigan vaqtdir”; بُو تُغْرَاغُو يِيرْ اُلْ ***bu toγrayu yer-ol*** – “bu to‘g‘raydigan joydir”; بُو تُغْرَاغُو نَانكْ ***bu toγrayu näŋ*** – “bu to‘g‘raydigan narsa (uskuna)” deyilgandagi kabi.

Bo‘lishsizlik shakli quyidagichadir: بُو تُغْرَاغُو أُغُرْ اَرْمَاسْ ***bu toγrayu oγur ermäs*** – “bu to‘g‘raydigan vaqt emas” kabi. Boshqalari shunga qiyos qilinadi.

So‘ng bilgilki, men o‘tgan zamon, kelasi zamon va masdarlarni bir yerda ko‘rsatib berish usulini qo‘lladim. Chunki o‘tgan zamon bilan kelasi zamon

fe’llarining o‘rtalaridagi harakat va *sukun* lar ba’zan bir-biriga mos kelsa, ba’zan teskari bo‘ladi (mos kelmaydi). Ularni qoida berish bilangina bilib bo‘lmaydi; faqat har birini aniq ko‘rsatib o‘tishni talab qiladi. Chunonchi, يِيرْ قُرْغَادِى ***yer quryadï*** – “yer quridi”. Buning kelasi zamon va masdar shakllari قُرْغَارْ ***quryar,*** قُرْغَامَاقْ ***quryamaq*** – o‘tgan zamon shakliga mos kelgandir. Yana يَا قُرْدِى ***ya qurdï*** (292b) – “yoy qurdi” gapidagi قُرْدِى ***qurdï*** o‘tgan zamon fe’lining kelasi zamon va masdar shakllari ham bir-biriga mosdir: قُرَارْ ***qurar,*** قُرْمَاقْ ***qurmaq***. O‘tgan zamon shaklining kelasi zamonga mos kelmaydigan shakllari yuqorida bayon qilindi.

Bu bo‘lim bir qancha vazifalarda qo‘llanadi: birinchidan, ikki yoki uch harfli *manqūṣ* fe’llardan tuzilib, ismi zikr qilingan narsa sohasida ishlovchining biror ish qilganini anglatadi. Chunonchi, اَرْ اُقْ كَزْلَادِى ***er oq kezlädi*** – “er o‘qni kamonga to‘g‘riladi”. Bu fe’lning asli كَزْ ***kez*** – “otar joy” ma’nosidagi ism edi. لَادِى-*lädi* qo‘shimchasi orttirilgach, fe’lga aylanadi. Yana: اَرْ تَقَارْ كِزْلَادِى ***er tawar kizlädi*** – “kishi mol va boshqa narsalarni yashirdi”.Bu gapdagi كِزْلَادِى ***kizlädi*** ning asli كِزْ ***kiz*** bo‘lgan, لَادِى-*lädi* qo‘shilib, fe’l yasalgan.

Manqūṣ bo‘limiga kiradigan so‘zlar quyidagichadir: بُلِتْ قَرْلَادِى ***bulït qarladï*** – “bulutdan qor yog‘di”; قُغُشْ يَغْلَادِى ***qoyuš yayladï*** – “kishi teri yog‘ladi”. Birinchi gapdagi قَرْلَادِى ***qarladï*** ning asli قَارْ ***qar,*** ikkinchi gapdagi يَغْلَادِى ***yayladï*** fe’lining o‘zagi يَاغْ ***yay*** edi. Bu so‘zlardagi *alif* yengillik bo‘lishi uchun tushirilgan.

Uch harfli sahih ismlardan fe’l yasash uchun faqat ism oxiriga bir *alif* orttirib yasaladi. Bu xil ismlarda *alif* bilan birga *lām* orttirishga ehtiyoj qolmaydi. Chunonchi, “chaqmoq” ma’nosidagi يَشِنْ ***yašïn*** so‘zidan fe’l yasash uchun bu so‘z oxiriga bir *alif* orttiriladi: يَشِنْ يَشْنَدِى ***yašïn yašnadï*** – “chaqmoq chaqdi” kabi. Yana: قِسْرَاقْ قُلْنَدِى ***qïsraq qulnadï*** – “biya bolaladi”; قِسْرَاقْ يِلْنَدِى ***qïsraq yelnädi*** – “biya yelin soldi” kabi. Bu misollardagi ismlar sahih bo‘lgani uchun birgina *alif* orttirish yetarli bo‘ldi; *lām* qo‘shmay, birgina *alif* orttirish bilan so‘z to‘la fe’lga aylandi.

Shuningdek, to‘rt harfli sahih ismlarga ham oxirgi harfi tushirilib, o‘rniga *alif* orttirilib, fe’l yasaladi. To‘rt harfli ismlarning oxirgi harfi tushirilgach, so‘z uch harfli bo‘lib qoladi. Unga *alif* orttirilsa, to‘rt harfli fe’lga aylanadi. Chunonchi, “yumshoq narsa” ma’nosidagi يُمْشَاقْ ***yumšaq*** so‘zidan yasalgan fe’l يُمْشَادِى ***yumšadï*** shunga misoldir, “narsa yumshadi” demakdir.

اُلْ اَنَكَرْ سُوزْ يَسْتَادِى ***ol aŋar söz yastadï*** gapidagi يَسْتَادِى ***yastadï*** so‘zi ham shunday; “u unga kinoya bilan so‘zladi” demakdir. Suyanish uchun yostiq qo‘yilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. Buning asli يَسْتُقْ ***yastuq*** dir. سُوفْ بُلْغَادِى ***suw bulyadï*** gapidagi بُلْغَادِى ***bulyadï*** fe’li ham shunday: “suvni bulg‘atdi; loyqatdi” demakdir. Buning asli بُلْغَانُقْ / بُلْغَايُقْ ***bulyanuq*** / ***bulyayuq*** dir. Bu ismlardan *qāf* tushirilgan. (293a) So‘ng *alif* orttirish bilan fe’lga aylangan.

Boshqacha aytganda, bu – ismlar oxiriga harf qo‘shib, fe’ldan yasalgan ismlardir. Mening qarashimda, to‘g‘risi shudir. Chunki ismlar fe’llardan yasaladi. Chunonchi, سُوذْتِى ***suδtï*** – “tupurdi”, سِذْتِى ***siδti*** – “siydi” fe’llaridan

سُدُقْ ***suδuq***, سِدُكْ ***siδük*** ismlari fe’l oxiriga *qāf, kāf* qo‘shilib yasalgan; “tupuk” va “siydik” demakdir. اَتْ بِشْدِى ***et pïšdï*** gapidagi بِشْدِى ***pïšdï*** fe’li ham shunday. اَتْ بِشِغْ ***pïšïγ et*** – “pishgan go‘sht” ma’nosidagi بِشِغْ ***pïšïγ*** sifatdoshi ham بِشْدِى ***pïšdï*** fe’lidan yasalgan. Bu hol arab va turkiy tillardan boshqa tillarda uchramaydi.

Ikkinchi hol, bu fe’l o‘zining asl ma’nosida kelishidir. Chunonchi, اَرْ يِغَاجْ ***er yïγač ïrγadï*** اِرْغَادِى – “kishi yog‘ochni irg‘itdi”. Yana: اَرْ يِغْلَادِى ***er yïγladï*** – “kishi yig‘ladi”; اَرْ اِيشْقَا اُغْرَادِى ***er ïšqa oγradï*** – “kishi ishga otlandi” gaplaridagi fe’llar kabi.

Arab tilidagi *mufā’alat* bobiga o‘xshash ish ikki va undan ortiq kishilar sherikligida bajarilganini anglatadigan fe’l yasash uchun so‘z oxiridagi harfi illat tushirilib, uning o‘rniga *šīn* harfi orttiriladi. Chunonchi, اُلْ مَنِكْ بِرْلَا يِغَاجْ اِرْغَشْدِى ***ol meniŋ birlä yïγač ïrγašdï*** – “u men bilan yog‘och irg‘itishdi”. Bu fe’l yordamlashish, bahslashish ma’nosini ham anglatadi. Ya’ni كِشِى بَرْجَا يِغْلَشْدِى ***kiši barča yïγlašdï*** – “kishilar hammasi yig‘lashdi” ham shunday. Boshqa so‘zlarning hammasi shunga qiyos qilinadi.

Qilinmagan biror ishni bajaruvchi qilgandek ko‘rinish ma’nosini anglatuvchi sifatdosh shakli so‘z oxiridagi harfi illat tushirilib, uning o‘rniga *mīm*, *sīn*, *nūn* harflari qo‘shilib yasaladi. Chunonchi, اُلْ سَنَكَا اُغْرَمْسِنْدِى ***ol seŋä oγramsïndï*** – “u senga qasd qilayotganday ko‘rindi”, haqiqatda u qasd qilmagan edi. Yana: اُلْ يُكْ يُكْلَمْسِنْدِى ***ol yük yüklämsindi*** – “u haqiqatda yuk ko‘tarmagani holda, yuk ko‘targandek ko‘rindi” kabi. Bu qoidalarning boshqasini solim bo‘limida ko‘rsatgan edik. Hamma so‘zlar ana shu qoidaga muvofiq yasaladi.

Ulug‘ Tangri xohlasa, bundan chetga chiqmaydi.

فَعَالَادِى ***fa’ālādī,*** فَعُولَادِى ***fa’ūlādī,*** فَعِيلَادِى ***fa’īlādī*** qoliplarida har xil harakatlar bilan qo‘llangan so‘zlar bo‘limi

ب ***b*** [harfi]: (293b)

[تَبَالَادِى ***tabaladï***] اُلْ اَنِى تَبَالَادِى ***ol anï tabaladï*** – “u uni yomonladi, tahqirladi, so‘kdi” (تَبَالَارْ ***tabalar***, تَبَالَامَاقْ ***tabalamaq***).

[تُبُولَادِى ***töpülädï***] اُلْ يَغِينِى تُبُولَادِى ***ol yaγïnï töpülädï*** – “u yovning boshiga urdi” (تُبُولَارْ ***töpülär***, تُبُولَامَاكْ ***töpülämäk***).

[سُبِيلَادِى ***subïladï***] سُبِيلَادِى نَانكِنِى ***subïladï näŋni*** – “keng narsaning yonlarini qirqib, uzun qildi, cho‘ziq holga keltirdi” (سُبِيلَارْ ***subïlar***, سُبِيلَامَاقْ ***subïlamaq***).

ت ***t*** [harfi]:

[جَتِيلَادِى ***čatïladï***] بَرْكَا جَتِيلَادِى ***bergä čatïladï*** – “qamchin shaqillagan ovoz chiqardi”. Shunga o‘xshash har bir tovush chiqishiga nisbatan ham shu so‘z qo‘llanadi ([جَتِيلَارْ ***čatïlar***], جَتِيلَامَاقْ ***čatïlamaq***).

[سَتُولَادِى ***satuladï***] اُلْ تِلِمْ سَتُولَادِى ***ol telim satuladï*** – “u behuda gaplarni ko‘p gapirdi” (سَتُولَارْ ***satular***, سَتُولَامَاقْ ***satulamaq***).

ج ***č*** [harfi]:

[***sačuladï*** **سَجُولَادِى**] **اُلْ سُقْلُقْ سَجُولَادِى** ***ol suwluq sačuladï*** – “u dastro‘mol va boshqa shunga o‘xshash narsalar chetiga popuk, shokila qildi” (**سَجُولَارْ** ***sačular,*** **سَجُولَامَاقْ** ***sačulamaq***[1]).

[***qačaladï*** **قَجَالَادِى**] **اُلْ نَانىڭنِى قَجَالَادِى** ***ol näŋni qačaladï*** – “u narsani idishda saqladi” (**قَجَالَارْ** ***qačalar,*** **قَجَالَامَاقْ** ***qačalamaq***). Bu so‘zning asli **قَاجَالَادِى** edi, keyinchalik *alif* tushirilgan.

[***qičïladï*** **قِچِيلَادِى**] **اُلْ مَنِى قِچِيلَادِى** ***ol meni qičïladï*** – “u meni qitiqladi”. Bu qo‘ltiq osti, oyoqning tagi kabi kishi ushlasa, kulgi qistaydigan joylarni qashishdir (**قِچِيلَارْ** ***qičïlar,*** **قِچِيلَامَاقْ** ***qičïlamaq***).

ر ***r*** [harfi]:

[***qaraladï*** **قَرَالَادِى**] **اُلْ قَرَالَادِى نَانىڭنِى** ***ol qaraladï näŋni*** – “u narsani qoraytirdi” (**قَرَالَارْ** ***qaralar,*** **قَرَالَامَاقْ** ***qaralamaq***).

[***qarïladï*** **قَرِيلَادِى**] **اُلْ يِيرِك قَرِيلَادِى** ***ol yerig qarïladï*** – “u yer va boshqa joylarni o‘lchadi”.

[***qarïladï*** **قَرِيلَادِى**] **اُلْ اَرِكْ قَرِيلَادِى** ***ol erig qarïladï*** – “u u kishini qari deb hisobladi, qariga chiqardi” (**قَرِيلَارْ** ***qarïlar,*** **قَرِيلَامَاقْ** ***qarïlamaq***).

[***qaraladï*** **قَرَالَادِى**] **اِتْ ىٖت قَرَالَادِى** ***ït qaraladï*** – “it bulg‘atdi”.

[***qarïladï*** **قَرِيلَادِى**] **تُبِى قَارِغْ قَرِيلَادِى** ***tüpi qarïγ qarïladï*** – “shamol g‘uvullab qor olib keldi” (**قَرِيلَارْ** ***qarïlar,*** **قَرِيلَامَاقْ** ***qarïlamaq***).

غ ***γ*** [harfi]:

[***čoγïladï*** **جُغِيلَادِى**] **اَرْ جُغِيلَادِى** ***er čoγïladï*** – “kishi baqir-chaqir qildi” (**جُغِيلَارْ** ***čoγïlar,*** **جُغِيلَامَاقْ** ***čoγïlamaq***). Bu so‘z ba’zan **جَغِيلَادِى** ***čaγïladï*** shaklida ham talaffuz qilinadi.

[***jaγïladï*** **جَغِيلَادِى**] **سُوقْ جَغِيلَادِى** ***suw jaγïladï*** – “suv sharilladi”. Bu so‘zning **ژَغِيلَادِى** ***žaγïladï*** va **شَغِيلَادِى** ***šaγïladï*** shakllaridagi talaffuzi ham bor (**شَغِيلَارْ** ***šaγïlar,*** **شَغِيلَامَاقْ** ***šaγïlamaq***).

(Shoir) shunday degan:

قَتُنْ سِينِى جُغِيلَادِى	***Qatunsïnï čoγïladï,***
تَنَكُتْ بَاكِنْ يَغِيلَادِى	***Taŋut begin yaγïladï.***
قَنِى اَقِبْ ژَغِيلَادِى	***Qanï aqïp žaγïladï,***
بُيُنْ سُوقِنْ قِزِلْ سَغْدِى	***Boyun suwïn qïzïl saγdï.*** (294a)

قَتُنْ سِينِى *Qatunsïnï* – تَنَكتْ *Taŋut* bilan صِينْ *Ṣīn* orasidagi bir shaharning oti; shu joyda yashovchilar tangutlar bilan jang qildilar. “قَتُنْ سِينِى *Qatunsïnï* xalqi qiy-chuv solib, tangut xalqi va ularning begi bilan yovlashdi, hattoki, qonlari suvdek shovullab oqdi. Bo‘yinlar qizil suv bilan, ya’ni qon bilan yuvildi”.

[***sayuladï*** **سَغُولَادِى**] **اَرْ بُغْدَايْ سَغُولَادِى** ***er buγday sayuladï*** – “kishi bug‘doy va boshqa narsalarni o‘lchadi” (**سَغُولَارْ** ***sayular,*** **سَغُولَامَاقْ** ***sayulamaq***).

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (سَجُولَامَاكْ).

ف *w* [harfi]:

[چِفِيلَادِى *čïwïladï*] كُبْ چِفِيلَادِى ***küb čïwïladï*** – “xum qaynadi”. Meva suvi shaqirlab ovoz berib qaynashiga ham shu so‘z qo‘llanadi (چِفِيلَارْ ***čïwïlar***, چِفِيلَامَاقْ ***čïwïlamaq***).

ق *q* [harfi]:

[تُقُولَادِى *toquladï*] اَرْ قَذِشْ تُقُولَادِى ***er qaδïš toquladï*** – “kishi qayish (kamar)ga to‘qa qildi” (تُقُولَارْ ***toqular***, تُقُولَامَاقْ ***toqulamaq***).

[تِقِيلَادِى *tïqïladï*] تِقِيلَادِى نَانَكْ ***tïqïladï näŋ*** – “bir mag‘izli narsa, kovagi bo‘lmagan zich narsa ustiga bir narsa tushgandek tovush chiqardi”. Chunonchi, tirgovichning ekin va shunga o‘xshashlar ustiga tushishi ham shunday (تِقِيلَارْ ***tïqïlar***, تِقِيلَامَاقْ ***tïqïlamaq***).

ك *k* [harfi]:

[تِكُولَادِى *tïkülädi*] اُلْ مَنكَا اَتْ تِكُولَادِى ***ol meŋä et tïkülädi*** – “u menga bir bo‘lak go‘sht va boshqa narsalardan berdi”.

[تِكُولَادِى *tïkülädi*] اُلْ بَكْكَا نَانَكْ تِكُولَادِى ***ol begkä näŋ tïkülädi*** – “u bekka biror narsani pora qilib berdi”. Bu so‘z oldingi (so‘z)dan olingan (تِكُولَارْ ***tïkülär***, تِكُولَامَاكْ ***tïkülämäk***).

[تِكِيلَادِى *tikiladi*] تِكِيلَادِى نَانَكْ ***tikiladi näŋ*** – “narsa shildirab, mayin ovoz chiqardi” (تِكِيلَارْ ***tikilär***, تِكِيلَامَاكْ ***tikilämäk***).

ل *l* [harfi]:

[تَلُولَادِى *taluladï*] اُلْ تَلُولَادِى نَانَكْنِى ***ol taluladï näŋni*** – “u narsani tanladi” (تَلُولَارْ ***talular***, تَلُولَامَاقْ ***talulamaq***).

م *m* [harfi]:

[تُمِيلَادِى *tümiladi*] اَشْيَاكْ تُمِيلَادِى ***ešyäk tümilädi*** – “eshak qadam tashladi”. Bu uning yo‘rg‘alashiga nisbatan aytiladi. Bu so‘z ko‘pincha تُمِيلْنْدِى ***tümiländi*** shaklida qo‘llanadi (تُمِيلَارْ ***tümilär***, تُمِيلَامَاكْ ***tümilämäk***).

[تَمُولَادِى *tamuladï*] اُلْ سُوقغْ تَمُولَادِى ***ol suwuɣ tamuladï*** – “u suv to‘g‘onini mahkamladi” (تَمُولَارْ ***tamular***, تَمُولَامَاقْ ***tamulamaq***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ب *b* [harfi]:

[يُبِيلَادِى *yupïladï*] اُلْ اَنِى يُبِيلَادِى ***ol anï yupïladï*** – “u uni aldadi”.

(She’rda) shunday degan:

تَنكُتْ خَانِى يُبِيلَادِى ***Taŋut xanï yupïladï,***
اُلُمْ بِرْلَا تُبُولَادِى ***Ölüm birlä töpülädi.***
قَذَشْ لَارِى تَبَالَادِى ***Qaδašlarï tabaladï,***
اُلُمْ كُورُبْ يُزِى اَغْدِى ***Ölüm körüp yüzi ayδï.***

تَنكُتْ *Taŋut* xoni قَتُنْ سِيدِى *Qatunsïnï* ning xonini aldadi, unga qo‘qqisdan zarba berdi. (294b) Yengilganini ko‘rgan qarindoshlarining ori keldi, bu holga yov sevindi. O‘limga yo‘liqqach, rangi o‘chdi, yuzlari o‘zgarib ketdi. Bu – o‘g‘uz va qipchoq tilida (يُبِيلَارْ ***yupïlar***, يُبِيلَامَاقْ ***yupïlamaq***). Boshqa turklar bu so‘zni ham qo‘llaydilar. Ular “hiyla” ma’nosida يَبْ ***yap***, يُبْ ***yup*** shaklini qo‘llaydilar, bundan fe’l yasamaydilar.

س ***s*** [harfi]:

[يَسِيلَادِى ***yasïladï***] اُلْ يَسِيلَادِى نَانكْنِى ***ol yasïladï näŋni*** – “u narsani supra va shunga o‘xshash narsaga yoyilgan xamirdek yoydi”; اُلْ سُوزُكْ يَسِيلَادِى ***ol sözüg yasïladï*** – “u so‘zni ochiq-oydin so‘zladi, piching, qochiriqli qilmadi” (يَسِيلَارْ ***yasïlar***, يَسِيلَامَاقْ ***yasïlamaq***).

غ ***γ*** [harfi]:

[يَغِيلَادِى ***yaγïladï***] اُلْ اَنِى يَغِيلَادِى ***ol anï yaγïladï*** – “u unga dushmanlik qildi”.

[يَغِيلَادِى ***yaγïladï***] اَرْ يَغِى يَغِيلَادِى ***er yaγï yaγïladï*** – “er yov bilan jang qildi” (يَغِيلَارْ ***yaγïlar***, يَغِيلَامَاقْ ***yaγïlamaq***).

Bu bo‘limning *manqūṣ* turi

[اَيَالَادِى ***ayaladï***] قِيزْ اَيَالَادِى ***qïz ayaladï*** – “qiz ikki qo‘lining kaftlarini bir-biriga urdi” (اَيَالَارْ ***ayalar***, اَيَالَامَاقْ ***ayalamaq***). Bu to‘g‘ri, fasih so‘zdir.

[اُيَالَادِى ***uyaladï***] قُشْ اَيَالَادِى ***quš uyaladï*** – “qush uya qurdi” (اُيَالَارْ ***uyalar***, اُيَالَامَاقْ ***uyalamaq***).

[كُيَالَادِى ***küyäladi***] اَرْ كذِزْ كُيَالَادِى ***er keδiz küyäladi*** – “kishi kuyani kigiz va boshqa narsalardan tushirdi, qoqdi” (كُيَالَارْ ***küyälär***, كُيَالَامَاكْ ***küyälämäk***). Bu bo‘limning qoidasi bundan oldingi bo‘limda ko‘rsatganimizdekdir. Bu bo‘lim bir qancha vazifalarda qo‘llanadi:

Birinchi: asli to‘rt harfli bo‘lgan uch harfli ismlarga لَادِى *-ladï, -lädi* qo‘shilib, fe’l yasaladi. Ishlovchi o‘zakda ifodalangan ish-harakat bo‘yicha biror ish qilganini anglatadi.

Chunonchi, اَرْ تُونْ قَرَالَادِى ***er ton qaraladï*** – “kishi to‘nni qoraytirdi”; يِيرْ قَرِيلَادِى ***yer qarïladï*** – “yerni o‘lchadi” degandagi kabi.

Ikkinchi: ismlarga لَادِى *-ladï, -lädi* qo‘shilib yasalgan fe’l kishi shu fe’lda zikr qilingan harakatga nisbat berilganlik ma’nosini anglatadi. Chunonchi, اُلْ اَرِكْ اَقِيلَادِى ***ol erig aqïladï*** – “u kishini sahiy deb bildi”. Yana: اُل اَنِى قَرِيلَادِى ***ol anï qarïladï*** – “u uni qariga chiqardi” kabi.

Uchinchi: o‘z holicha mustaqil fe’l bo‘lib, bu xil ma’nolardan hech biri ifoda qilinmaydi.

Chunonchi, (295a) اُلْ اَنِى قِجِيلَادِى ***ol anï qïčïladï*** – “u uni qitiqladi”. Yana: اَشْيَاك تُمِيلَادِى ***ešyäk tümilädi*** – “eshak yo‘rg‘aladi” kabi.

To‘rtliklar bo‘limi tugadi.

BU BESH HARFLILAR BOBLARIDIR

فَعَلْعَادِى *fa'al'adī* qolipidagi so‘zlarning *'ayn* harfi har xil harakatlar bilan kelgan so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

[تُبُتْلَادِى ***tüpütlädi***] اُلْ اَنِى تُبُتْلَادِى ***ol anï tüpütlädi*** – “u uni tubutlarga nisbat berdi, tubut deb bildi”; ular bir toifa xalqdir (تُبُتْلَارْ ***tüpütlär***, تُبُتْلَامَاكْ ***tüpütlämäk***).

[كِرِتْلَادِى ***kiritlädi***] اُلْ قَبُغْ كِرِتْلَادِى ***ol qapuγ kiritlädi*** – “u eshikni qulfladi” (كِرِتْلَارْ ***kiritlär***, كِرِتْلَامَاكْ ***kiritlämäk***).

ج ***č*** [harfi]:

[جَنَجْلَادِى ***čanačladï***] اُلْ اَنِي جَنَجْلَادِى ***ol anï čanačladï*** – “u uni kuchsiz, bo‘shashganga chiqardi” (جَنَجْلَارْ ***čanačlar***, جَنَجْلَامَاقْ ***čanačlamaq***).

[قُلَجْلَادِى ***qulačladï***] اُلْ اُرُقْنِى قُلَجْلَادِى ***ol oruqnï qulačladï*** – “u arqonni va bosh-qalarni qulochlab o‘lchadi” (قُلَجْلَارْ ***qulačlar***, قُلَجْلَامَاقْ ***qulačlamaq***).

[قِلِجْلَادِى ***qïlïčladï***] اُلْ اَنِى قِلِجْلَادِى ***ol anï qïlïčladï*** – “u uni qilich bilan urdi” (قِلِجْلَارْ ***qïlïčlar***, قِلِجْلَامَاقْ ***qïlïčlamaq***).

[قَمِجْلَادِى ***qamïčladï***] اُلْ مُونُكْ قَمِجْلَادِى ***ol münüg qamïčladï*** – “u sho‘rvaga cho‘mich botirdi” (قَمِجْلَارْ ***qamïčlar***, قَمِجْلَامَاقْ ***qamïčlamaq***).

ر ***r*** [harfi]:

[بَغِرْلَادِى ***bayïrladï***] اُلْ اَنِى بَغِرْلَادِى ***ol anï bayïrladï*** – “u uning bag‘riga urdi”.

[بَغِرْلَادِى ***bayïrladï***] اُلْ يَاسِنْ بَغِرْلَادِى ***ol yasïn bayïrladï*** – “u yoy dastasini tuzatdi” (بَغِرْلَارْ ***bayïrlar***, بَغِرْلَامَاقْ ***bayïrlamaq***).

[جَغِرْلَادِى ***čayïrladï***] اُلْ اُزُمْنِى جَغِرْلَادِى ***ol üzümni čayïrladï*** – “u uzumni chag‘ir (ichimlik) qildi” (جَغِرْلَارْ ***čayïrlar***, جَغِرْلَامَاقْ ***čayïrlamaq***). Kishi ichkilik ichganda ham shu so‘z qo‘llanadi.

[جِغِرْلَادِى ***čïγïrladï***] يَرِكْ جِغِرْلَادِى ***yerig čïγïrladï*** – “u yo‘lda kichik yo‘l qildi va u yo‘ldan ketdi”. Yerni qor bosganda, birov oyog‘i bilan yo‘l ochishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (جِغِرْلَارْ ***čïγïrlar***, جِغِرْلَامَاقْ ***čïγïrlamaq***).

[سِغِرْلَادِى ***sïγïrladï***] اُلْ اَنِى سِغِرْلَادِى ***ol anï sïγïrladï*** – “u uni sigir hisobladi, sigirga tenglashtirdi” (سِغِرْلَارْ ***sïγïrlar***, سِغِرْلَامَاقْ ***sïγïrlamaq***).

[بُكُرْلَادِى ***bükürladï***] اُلْ اَنِى بُكُرْلَادِى ***ol anï bükürladï*** – “u uning bukiriga urdi”.

[بُكُرْلَادِى ***bükürladï***] اُلْ يَغِينِى بُكُرْلَادِى ***ol yaγïnï bükürladï*** – “u yov safiga o‘ngdan-so‘ldan zarba berdi, yuzma-yuz bormadi” (بُكُرْلَارْ ***bükürlär***, بُكُرْلَامَاكْ ***bükürlämäk***).

س ***s*** [harfi]: (295b)

[تَرَسْلَادِى ***tarasladï***] اَلبْ جَرِكْ تَرَسْلَادِى ***alp čerig tarasladï*** – “bahodir cherigni to‘zitdi”. Yana: جَغْرِى قَازِغْ تَرَسْلَادِى ***čayrï qazïγ tarasladï*** – “qirg‘iy g‘ozni to‘zitdi”. Har bir narsa o‘zining kuchi bilan boshqa bir narsani tarqatib, to‘zitib yuborishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَرَسْلَارْ ***taraslar***, تَرَسْلَامَاقْ ***taraslamaq***[1]).

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (تَرَسْلَامَاكْقْ).

[تَرُسْلَادِى *tarusladï*] اُلْ اَوِنْ تَرُسْلَادِى ***ol ewin tarusladï*** – “u uy tepasini yopdi, bekitdi” (تَرُسْلَامَاقْ ***taruslamaq***, تَرُسْلَار ***taruslar***).

[قُرُتْسَادِى *qurutsadï*] اَرْ قُرُتْسَادِى ***er qurutsadï*** – “kishining qurut yegisi keldi” (قُرُتْسَامَاقْ ***qurutsamaq***, قُرُتْسَارْ ***qurutsar***).

[بَغِرْسَادِى *bayïrsadï*] اَرْ بَغِرْسَادِى ***er bayïrsadï*** – “kishining ko‘ngli jigar tusadi” (بَغِرْسَامَاقْ ***bayïrsamaq***, بَغِرْسَارْ ***bayïrsar***).

[كَدُرْسَادِى *keδürsädi*] اُلْ مَنكَا تُونْ كَدُرْسَادِى ***ol meŋä ton keδürsädi*** – “u menga to‘n kiygizmak istadi” (كَدُرْسَامَاكْ ***keδürsämäk***, كَدُرْسَارْ ***keδürsär***).

[تَتِغْسَادِى *tatïγsadï*] اَرْ تَتِغْسَادِى ***er tatïγsadï*** – “kishining ko‘ngli shirinlik tusadi” (تَتِغْسَامَاقْ ***tatïγsamaq***, تَتِغْسَارْ ***tatïγsar***).

[سَتِغْسَادِى *satïγsadï*] اَرْ اَتِنْ سَتِغْسَادِى ***er atïn satïγsadï*** – “kishi otini sotmoqchi bo‘ldi”.

(She’rda) shunday degan:

اَوِنْ بَرْقِنْ سَتِغْسَادِى ***Ewin-barqïn satïγsadï,***
يُلُغْ بِيرِبْ يَرِغْسَادِى ***Yuluγ berip yarïγsadï.***
تِرِكْ اَرْسَا تُرُغْسَادِى ***Tirig ersä turuγsadï,***
اَنَكَرْ سَاقِنِجْ كُنِى تُغْدِى ***Aŋar saqïnč küni tuγdï.***

Aytmoqdaki: “O‘zini qutqarishga fido qilsin deb, yov uning uyini-joyini sotmoqchi bo‘ldi. U tirik qolmoqni istadi, lekin unga qayg‘uli kunlar tug‘di” (سَتِغْسَامَاقْ ***satïγsamaq***, سَتِغْسَارْ ***satïγsar***).

[بَرِغْسَادِى *barïγsadï*] اُلْ اَوْكَا بَرِغْسَادِى ***ol ewkä barïγsadï*** – “u uyga va boshqa yerga ketishni istadi” (بَرِغْسَامَاقْ ***barïγsamaq***, بَرِغْسَارْ ***barïγsar***).

[تُرُغْسَادِى *turuγsadï*] اُلْ مُنْدَا تُرُغْسَادِى ***ol munda turuγsadï*** – “u bu yerda turmoq istadi” (تُرُغْسَامَاقْ ***turuγsamaq***, تُرُغْسَارْ ***turuγsar***).

قُرُغْسِيدِى ***quruγsïdï*** – “qurishga yuz tutdi” (قُرُغْسِيرْ ***quruγsïr***, قُرُغْسِيمَاقْ ***quruγsïmaq***). Shuning uchun ham me’daga قُرُغْسَاقْ ***quruγsaq*** deb ot berilgan. Chunki u vaqt o‘tishi bilan qurug‘sinib, ovqat yeyishga istak qo‘zg‘aladi.

[بَلِقْسَادِى *balïqsadï*] اَرْ بَلِقْسَادِى ***er balïqsadï*** – “kishining ko‘ngli baliq tusadi” (بَلِقْسَامَاقْ ***balïqsamaq***, بَلِقْسَارْ ***balïqsar***).

[بِلِكْسَادِى *biligsädi*] اُغْلَانْ بِلِكْسَادِى ***oγlan biligsädi*** – “o‘g‘lon bilim olishni istadi” (بِلِكْسَامَاكْ ***biligsämäk***, بِلِكْسَارْ ***biligsär***).

[بَرِكْسَادِى *berigsädi*] اُلْ مَنكَا تَوَارْ بَرِكْسَادِى ***ol meŋä*** (296a) ***tavar berigsädi*** – “u menga mol va boshqa narsalarni bermakchi bo‘ldi” (بَرِكْسَامَاكْ ***berigsämäk***, بَرِكْسَارْ ***berigsär***).

[كُرُكْسَادِى *körügsädi*] اُلْ مَنِى كُرُكْسَادِى ***ol meni körügsädi*** – “u meni ko‘rishni istadi” (كُرُكْسَامَاكْ ***körügsämäk***, كُرُكْسَارْ ***körügsär***).

[كِرِكْسَادِى *kirigsädi*] اُلْ اَوْكَا كِرِكْسَادِى ***ol ewkä kirigsädi*** – “u uyga va boshqa yerlarga kirishni istadi” (كِرِكْسَامَاكْ ***kirigsämäk***, كِرِكْسَارْ ***kirigsär***).

[كَلِكْسَادِى ***keligsädi***] أُلْ مَنكَا كَلِكْسَادِى ***ol meŋä keligsädi*** – “u mening yonimga kelgisi keldi” (كَلِكْسَارْ ***keligsär***, كَلِكْسَامَاكْ ***keligsämäk***).

ش ***š*** [harfi]:

[بَغِشْلَادِى ***bayïšladï***] أُلْ مَنكَا اَتْ بَغِشْلَادِى ***ol meŋä at bayïšladï*** – “u menga ot va boshqa narsalarni tuhfa qildi” (بَغِشْلَارْ ***bayïšlar***, بَغِشْلَامَاقْ ***bayïšlamaq***).

[تَقْشْلَادِى ***tawušladï***] تَقْشْلَادِى نَانكْ ***tawušladï näŋ*** – “narsada sezgi va harakat boshlandi, paydo bo‘ldi” (تَقْشْلَارْ ***tawušlar***, تَقْشْلَامَاقْ ***tawušlamaq***).

[سُرُشْلَادِى ***sorušladï***] أُلْ تَرِغ سُرُشْلَادِى ***ol tarïγ sorušladï*** – “u yeyish uchun bug‘doy boshog‘ini qovurdi” (سُرُشْلَارْ ***sorušlar***, سُرُشْلَامَاقْ ***sorušlamaq***).

[قَذِشْلَادِى ***qaδïšladï***] أُلْ كُونكْ قَذِشْلَادِى ***ol könüg qaδïšladï*** – “u ko‘ndan qayish kesdi” (قَذِشْلَارْ ***qaδïšlar***, قَذِشْلَامَاقْ ***qaδïšlamaq***).

[قَرِشْلَادِى ***qarïšladï***] أُلْ بَرْجِنْ قَرِشْلَادِى ***ol barčïn qarïšladï*** – “u ipak kiyimlik va boshqa narsalarni qarichlab o‘lchadi” (قَرِشْلَارْ ***qarïšlar***, قَرِشْلَامَاقْ ***qarïšlamaq***).

غ ***γ*** [harfi]:

[بِشِغْلَادِى ***pïšïγladï***] أُلْ اَتْ بِشِغْلَادِى ***ol et pïšïγladï*** – “u go‘sht va boshqa narsalarni pishirdi” (بِشِغْلَارْ ***pïšïγlar***, بِشِغْلَامَاقْ ***pïšïγlamaq***).

[سَتِغْلَادِى ***satïγladï***] أُلْ اَنِكْ بِرْلَا سَتِغْلَادِى ***ol anïŋ birlä satïγladï*** – “u uning bilan birga sotdi” (سَتِغْلَارْ ***satïγlar***, سَتِغْلَامَاقْ ***satïγlamaq***). Bu so‘zning to‘g‘rirog‘i سَتِغْلَشْدِى ***satïγlašdï*** dir. Lekin har ikki shakl ham birday qo‘llanadi.

[سَرِغْلَادِى ***sarïγladï***] أُلْ تُونِنْ سَرِغْلَادِى ***ol tonïn sarïγladï*** – “u kiyim va boshqa narsalarni sariqqa bo‘yadi” (سَرِغْلَارْ ***sarïγlar***, سَرِغْلَامَاقْ ***sarïγlamaq***).

[قِذِغْلَادِى ***qïδïγladï***] أُلْ بُركْ قِذِغْلَادِى ***ol börk qïδïγladï*** – “u bo‘rk va boshqa narsalarning chetini tikdi” (قِذِغْلَارْ ***qïδïγlar***, قِذِغْلَامَاقْ ***qïδïγlamaq***).

[قُرُغْلَادِى ***quruγladï***] قُرُغْلَادِى نَانكْنى ***quruγladï näŋni*** – “narsani bo‘shaganda ishlatdi” (قِرُغْلَارْ ***qïruγlar***, قِرُغْلَامَاقْ ***qïruγlamaq***).

[قَسِغْلَادِى / قَسِغْلَادِى ***qasïγladï*** / ***qïsïγladï***] قِسِغْلَادِى / قُلُنْ قَسِغْلَادِى / أُلْ قُلِنْ ***ol qulïn*** / ***qulun qasïγladï*** / ***qïsïγladï*** – “u qulining dahaniga urdi” (قَسِغْلَارْ / قِسِغْلَارْ ***qasïγlar*** / ***qïsïγlar***, قَسِغْلَامَاقْ / قِسِغْلَامَاقْ ***qasïγlamaq*** / ***qïsïγlamaq***).

ق ***q*** [harfi]:

[بُتَقْلَادِى / بُتِقْلَادِى ***butïqladï*** / ***butaqladï***] بُتَقْلَادِى / أُلْ يِغَاجِغْ بُتِقْلَادِى ***ol yïγačïγ butïqladï*** / ***butaqladï*** – “u daraxt butog‘ini kesdi, butadi” (بُتَقْلَار / بُتِقْلَارْ ***butïqlar*** / ***butaqlar***, بُتَقْلَامَاقْ / بُتِقْلَامَاقْ ***butïqlamaq*** / ***butaqlamaq***). Bu so‘zning to‘g‘rirog‘i بُتَدِى / بُتِيدِى ***butïdï*** / ***butadï*** dir.

[تُتُقْلَادِى ***tutuqladï***] أُلْ أُغْلِنْ تُتُقْلَادِى ***ol oγlïn*** (296b) ***tutuqladï*** – “u o‘g‘lining tumrug‘iga urdi yoki o‘sha yerga urishga nisbat berdi” (تُتُقْلَارْ ***tutuqlar***, تُتُقْلَامَاقْ ***tutuqlamaq***).

[بَشَقْلَادِى ***bašaqladï***] أُلْ سُنكُو بَشَقْلَادِى ***ol söŋü bašaqladï*** – “u nayza uchiga temir o‘rnatdi” (بَشَقْلَارْ ***bašaqlar***, بَشَقْلَامَاقْ ***bašaqlamaq***).

[تُرُقْلَادِى ***turuqladï***] أُلْ اَتغ تُرُقْلَادِى ***ol atïγ turuqladï*** – “u ot va boshqa hayvonlarni oriqlatdi; oriq-turuq qildi” (تُرُقْلَارْ ***turuqlar***, تُرُقْلَامَاقْ ***turuqlamaq***).

[جِبْقْلَادِى / جِبِقْلَادِى *čïbïqladï* / *čïbuqladï*] جِبْقْلَادِى / اُلْ اَتِنْ جِبِقْلَادِى *ol atïn čïbïqladï* / *čïbuqladï* – “u otni chiviq (ho‘l novda) bilan urdi” (جِبِقْلَاقْلَارْ *čïbïqlar*, جِبِقْلَامَاقْ *čïbïqlamaq*).

[جَرْقْلَادِى / جَرِقْلَادِى *čaruqladï* / *čarïqladï*] جَرِقْلَادِى / اُلْ اَذَاقِنْ جَرُقْلَادِى *ol aδaqïn čaruqladï* / *čarïqladï* – “u oyog‘iga turkcha choriq kiydi” (جَرِقْلَارْ / جَرُقْلَارْ *čaruqlar* / *čarïqlar*, جَرِقْلَامَاقْ / جَرُقْلَامَاقْ *čaruqlamaq* / *čarïqlamaq*). جَرُقْ / جَرِقْ *čaruq* / *čarïq* qabilasiga nisbatan ham shu so‘z qo‘llanadi.

[قَبَقْلَادِى *qabaqladï*] اَرْ قِيزِغْ قَبَقْلَادِى *er qïzïγ qabaqladï* – “kishi qizni xarob qildi, buzdi” (قَبَقْلَارْ *qabaqlar*, قَبَقْلَامَاقْ *qabaqlamaq*).

[قُجَقْلَادِى *qučaqladï*] اُلْ بَرْجِنْ قُجَقْلَادِى *ol barčïn qučaqladï* – “u shohi kiyimlikni o‘rab oldi” (قَجَقْلَارْ *qučaqlar*, قُجَقْلَامَاقْ *qučaqlamaq*).

[قَرَقْلَادِى *qaraqladï*] تَوَارِغْ قَرَقْلَادِى *tavarïγ qaraqladï* – “yo‘lni kesib o‘tdi va molni oldi” (قَرَقْلَارْ *qaraqlar*, قَرَقْلَامَاقْ *qaraqlamaq*). Bu yag‘molar so‘zidir.

[قَشْقْلَادِى / قَشِقْلَادِى *qašïqladï* / *qašuqladï*] قَشْقْلَادِى / اُلْ بَالِغْ قَشِقْلَادِى *ol balïγ qašïqladï* / *qašuqladï* – “u bolni qoshiq bilan yaladi” (قَشِقْلَارْ / قَشْقْلَارْ *qašïqlar* / *qašuqlar*, قَشِقْلَامَاقْ / قَشْقْلَامَاقْ *qašïqlamaq* / *qašuqlamaq*).

[قُلَقْلَادِى *qulaqladï*] اُلْ اُغْلِنْ قُلَقْلَادِى *ol oγlïn qulaqladï* – “u o‘g‘lining qulog‘iga urdi” (قُلَقْلَارْ *qulaqlar*, قُلَقْلَامَاقْ *qulaqlamaq*).

[قُمُقْلَادِى *qumuqladï*] اَتْ قُمُقْلَادِى *at qumuqladï* – “ot tezakladi”. Bu so‘z قُمُقْ *qumuq* qa nisbat berishda ham qo‘llanadi; u kishi otidir (قُمُقْلَارْ *qumuqlar*, قُمُقْلَامَاقْ *qumuqlamaq*).

[قُنُقْلَادِى *qonuqladï*] بَكْ مَنِى قُنُقْلَادِى *beg meni qonuqladï* – “bek va boshqalar meni mehmon qildi” (قُنُقْلَارْ *qonuqlar*, قُنُقْلَامَاقْ *qonuqlamaq*). O‘g‘uzlardan boshqa qabilalar tilida bu so‘z “uy egasi yoqtirmagan holda, birovning uyida turish” ma’nosida keladi.

(She’rda) shunday degan:

يَغِى بَكْدِنْ اُدْقْلَادِى / اُدِقْلَادِى *Yaγï begdin uδuqladï / uδïqladï,*
كُرُبْ سُونِى اَدِقْلَادِى *Körüp süni aδïqladï.*
اُلُمْ اَنِى قُنُقْلَادِى *Ölüm anï qonuqladï,*
اَغِزْ اِجْرَا اَغُو سَغْدِى *Aγïz ičrä aγu saγdï.*

Aytmoqdaki: “Yov bekni ko‘rib, pisand qilmadi, birdan qo‘shinni ko‘rib, hayratga tushdi, bu kutilmagan hodisadan shoshib qoldi. (297a) O‘lim uni mehmon qildi; og‘ziga og‘u tomizdi”.

ك *k* [harfi]:

[بِجَكْلَادِى *pičäkladï*] اُلْ اَنِى بِجَكْلَادِى *ol anï pičäkladï* – “u uni pichoqladi, pichoq urdi” (بِجَكْلَارْ *pičäklär*, بِجَكْلَامَاكْ *pičäklämäk*).

[بَدُكْلَادِى *bedüglädï*] اُلْ مَنِى بَدُكْلَادِى *ol meni bedüglädï* – “u meni katta deb hisobladi” (بَدُكْلَارْ *bedüglär*, بَدُكْلَامَاكْ *bedüglämäk*).

[بَلَكْلَادِى *beläkladi*] اُلْ مَنكَا بَلَكْلَادِى ***ol meŋä beläkladi*** – “u menga hadya berdi” (بَلَكْلَارْ *beläklär*, بَلَكْلَامَاكْ ***beläklämäk***).

[تَزَكْلَادِى *tezäkladi*] اَتْ تَزَكْلَادِى ***at tezäkladi*** – “ot va boshqa hayvonlar tezakladi” (تَزَكْلَارْ *tezäklär*, تَزَكْلَامَاكْ ***tezäklämäk***).

[تَژِكْلَادِى *täžikladi*] اُلْ اَنِى تَژِكْلَادِى ***ol anï täžikladi*** – “u uni forslardan sanadi, forslarga o‘xshatdi” (تَژِكْلَارْ *täžiklär*, تَژِكْلَامَاكْ ***täžiklämäk***).

[تَشُكْلَادِى *tešükladi*] اُلْ اَنِى تَشُكْلَادِى ***ol anï tešükladi*** – “u uni suq, ochko‘z deb hisobladi” (تَشُكْلَارْ *tešüklär*, تَشُكْلَامَاكْ ***tešüklämäk***).

[جُرَكْلَادِى *čüräkladi*] اُلْ اُونُغْ جُرَكْلَادِى ***ol unuŋ čüräkladi*** – “u hamirdan churak kulcha (lochira) yasadi” (جُرَكْلَارْ *čüräklär*, جُرَكْلَامَاكْ ***čüräklämäk***).

[كَرَكْلَادِى *keräkladi*] اُلْ اَنِى كَرَكْلَادِى ***ol anï keräkladi*** – “u uni axtardi, istadi” (كَرَكْلَارْ ***keräklär***, كَرَكْلَامَاكْ ***keräklämäk***).

[كُرُكْلَادِى *körükladi*] اُلْ اُوتُغْ كُرُكْلَادِى ***ol otuŋ körükladi*** – “u olovni pufladi” (كُرُكْلَارْ ***körüklär***, كُرُكْلَامَاكْ ***körüklämäk***).

[كُجُكْلَادِى *köčükladi*] اُلْ اُغْلِنْ كُجُكْلَادِى ***ol oγlïn köčükladi*** – “u o‘g‘lining orqasiga urdi” (كُجُكْلَارْ *köčüklär*, كُجُكْلَامَاكْ ***köčüklämäk***).

[كِچِكْلَادِى *kičiglädi*] اُلْ اَنِى كِچِكْلَادِى ***ol anï kičiglädi*** – “u uni kichik hisobladi” (كِچِكْلَارْ *kičiglär*, كِچِكْلَامَاكْ ***kičiglämäk***).

م ***m*** [harfi]:

[تُرُمْلَادِى *turumladï*] اُلْ سُوقَغْ تُرُمْلَادِى ***ol suwuγ turumladï*** – “u suv chuqurligini bo‘yi bilan o‘lchadi” (تُرُمْلَارْ *turumlar*, تُرُمْلَامَاقْ ***turumlamaq***).

[تَرِمْلَادِى *tarïmladï*] اُلْ اُكُزْنِى تَرِمْلَادِى ***ol ögüzni tarïmladï*** – “u suvning bir tomonidan ikkinchi tomoniga (bir oroldan boshqa orolga) kechib o‘tdi” (تَرِمْلَارْ *tarïmlar*, تَرِمْلَامَاقْ ***tarïmlamaq***). Bu botqoqdan qochish uchun qilinadi.

ن ***n*** [harfi]:

[بُتُنْلَادِى *bütünlädi*] اُلْ سُوزُكْ بُتُنْلَادِى ***ol sözüg bütünlädi*** – “u so‘z va boshqa voqealarning chinligini tekshirdi” (بُتُنْلَارْ *bütünlär*, بُتُنْلَامَاكْ ***bütünlämäk***).

[بُرُنْلَادِى *burunladï*] اُلْ اَنِى بُرُنْلَادِى ***ol anï burunladï*** – “u uning burniga urdi” (بُرُنْلَارْ *burunlar*, بُرُنْلَامَاقْ ***burunlamaq***).

[تَبَنْلَادِى *tapanladï*] تَوى تَبَنْلَادِى ***tevi tapanladï*** – “tuya tuyog‘i bilan tepdi” (تَبَنْلَارْ *tapanlar*, تَبَنْلَامَاقْ ***tapanlamaq***).

[سَبَنْلَادِى *sapanladï*] اُلْ يِيرِكْ سَبَنْلَادِى ***ol yerig sapanladï*** – “u yerni haydadi, ag‘dardi” (سَبَنْلَارْ *sapanlar*, سَبَنْلَامَاقْ ***sapanlamaq***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ر ***r*** [harfi]:

[يَغْزِلَادِى *yaγïrladï*] اُلْ اَتِنْ يَغْزِلَادِى ***ol atïn yaγïrladï*** (297b) – “u otining yag‘irini tuzatdi”. Agar otni yag‘ir qildi deyilmoqchi bo‘lsa, اُلْ اَتِغْ يَغْرِتّى ***ol atïγ yaγrïttï*** deyiladi. Ya’ni “u otini yag‘ir qildi”, demakdir. Bu arabcha “qashshoqlandi” ma’nosida ترب deb, “boyidi” ma’nosida اترب deyilgani kabidir; yoki “zulm qildi”

ma’nosida قسط deb, “odillik qildi” ma’nosida اقسط deyish ham shunday (يَغِزْلَارْ *yayïrlar*, يَغِزْلَامَاقْ *yayïrlamaq*).

ز *z* [harfi]:

[يَقُزْلَادِى *yawuzladï*] اُلْ يَقُزْلَادِى نَانسكْنِى *ol yawuzladï näŋni* – “u narsani yomon deb hisobladi” (يَقُزْلَارْ *yawuzlar*, يَقُزْلَامَاقْ *yawuzlamaq*).

ق *q* [harfi]:

[يَزِقْلَادِى / يَزُقْلَادِى *yazuqladï* / *yazïqladï*] بَكْ اَنِى يَزُقْلَادِى / يَزِقْلَادِى *beg anï yazuqladï* / *yazïqladï* – “bek uni aybladi” (يَزُقْلَارْ *yazuqlar*, يَزُقْلَامَاقْ *yazuqlamaq*).

ك *g* [harfi]:

[يِتِكْلَادِى *yitiglädi*] اُلْ اَتْ يِتِكْلَادِى *ol at yitiglädi* – “u yo‘qolgan ot va boshqa narsalarni qidirdi” (يِتِكْلَارْ *yitiglär*, يِتِكْلَامَاكْ *yitiglämäk*).

م *m* [harfi]:

[يَرِمْلَادِى *yarïmladï*] اُلْ يُولُغْ يَرِمْلَادِى *ol yoluγ yarïmladï* – “u yo‘lni va boshqa narsalarni yarimladi” (يَرِمْلَارْ *yarïmlar*, يَرِمْلَامَاقْ *yarïmlamaq*).

[يِلِمْلَادِى *yelimlädi*] اُلْ أَقْ يِلِمْلَادِى *ol oq yelimlädi* – “u o‘qqa pat yopishtirdi”.

[يِلِمْلَادِى *yelimlädi*] اُلْ يُولُغْ يِلِمْلَادِى *ol yoluγ yelimlädi* – “u yo‘lda yovning pistirmasi yoki ayg‘oqchisi bor-yo‘qligini bilish uchun qo‘shindan oldinroq ketdi” (يِلِمْلَارْ *yelimlär*, يِلِمْلَامَاكْ *yelimlämäk*[1]).

ن *n* [harfi]:

[يَغِرْنْلَادِى *yayrïnladï*] اُلْ اَنِى يَغِرْنْلَادِى *ol anï yayrïnladï* – “u uning yag‘riniga, kift suyagiga urdi” (يَغِرْنْلَارْ *yayrïnlar*, يَغِرْنْلَامَاقْ *yayrïnlamaq*).

Qoida: bu bo‘limning buyruq shakli besh harflidir. Chunonchi, مَنِى اَغِرْلَا *meni ayïrla* (“meni hurmat qil”), مَنكَا اَتْ بَغِشْلَا *meŋä at bayïšla* (“menga ot sovg‘a qil”) gaplaridagi اَغِرْلَا *ayïrla*, بَغِشْلَا *bayïšla* buyruqlari kabi.

Turli fe’l turlaridagi bo‘lishsizlik shakllari, buyruq va foillar, sifatdoshlarning ma’lum va majhul shakllari, joy, payt, qurol otlari yuqoridagi bo‘limlarda ko‘rsatilgan qoidaga muvofiq yasaladi. Hamma bo‘limlar uchun qoida birday. Bu bo‘limdan majhul fe’l yasash uchun buyruqqa bir *lām* qo‘shiladi. Bu vaqt fe’lda ikki *lām* paydo bo‘ladi. Chunonchi, اَرْ اَغِرْلَلْدِى *er ayïrlaldï* – “kishi hurmat qilindi”. Yana: اَتْ بَغِشْلَلْدِى *at bayïšlaldï* – “ot tuhfa qilindi” kabi. Bu fe’llarda *lām* o‘rniga *nūn* qo‘llab, اَتْ بَغِشْلَنْدِى *at bayïšlandï* – “ot tuhfa qilindi”, (298a) اَرْ اَغِرْلَنْدِى *er ayïrlandï* – “kishi hurmat qilindi” shaklida qo‘llash ham mumkin. Lekin ko‘pincha birinchi shakl qo‘llanadi.

Ish ikki kishi orasida bajarilganini anglatish uchun fe’lga *šīn* orttirish qoidasi yuqorida tanishtirilgan edi.

Bu bo‘lim olti xil vazifada keladi. Birinchi: fe’l harfi illatsiz, uch harfli ismlardan yasalgan bo‘ladi. Chunonchi, قَبُغْ كِرِتْلَادِى *qapuγ kiritlädi* – “eshikni qulfladi” kabikim, bu fe’lda o‘zak كِرِتْ *kirit* – “kalit” demakdir. Bunda o‘zakka لَادِى *-lädi* orttirib, fe’l yasaldi. Yoki اُلْ اَنِى قَسِغْلَادِى *ol anï qasïγladï* – “u uning ikki jag‘iga urdi”. Bu gapda o‘zak قَسِغْ *qasïγ* ism edi, bunga لَادِى *-ladï*

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (يِلِمْلَامَاكْقْ).

orttirilgach, fe’lga aylandi. Har bir ma’noni ifodalashda bu bo‘limda shunday qoida saqlanadi.

Ikkinchi: oti zikr qilingan so‘z, xoh kishi oti, xoh boshqa so‘z bo‘lsin, bir narsa qatorida hisoblanganlik ma’nosini anglatadi. Chunonchi, ***ol anï oγuzladï*** اُلْ اَنِى اُغُزْلَادِى – “u uni o‘g‘uzga nisbat berdi, ulardan deb hisobladi”. Yana: ***ol anï čigillädi*** اُلْ اَنِى جِكِلَّادِى – “u uni chigillardan hisobladi, ularga nisbat berdi” kabi.

Kishi har qanday narsaga nisbat berishiga ham shu so‘z qo‘llanadi. Chunonchi, ***ol anï saranladï*** اُلْ اَنِى سَرَنْلَادِى – “u uni baxil deb hisobladi, baxilga nisbat berdi”. Bu arabcha الظلم و الفسق “zulmga nisbat berdim, fisqqa nisbat berdim” iborasi kabidir.

Uchinchi: gapda tilga olinayotgan a’zoga o‘tishlik ma’nosini anglatadi. Chunonchi, ***ol anï qarïnladï*** اُلْ اَنِى قَرِنْلَادِى – “u uning qorniga urdi”. Yana: ***ol anï bükürlädi*** اُلْ اَنِى بُكُرْلَادِى – “u uning bukiriga urdi” kabi. Bu xususiyat arab tili bilan musobaqa qiladigan turkiy tillardagi alohida fazilatdir. Arabchada ham ismdan fe’l yasash bor. Chunonchi, “soniga urdi” deyilmoqchi bo‘lsa, son ma’nosidagi فخذ *faxz* ismidan fe’l yasab, فخذه *faxazahu* deydilar. “Boshiga urdi” ma’nosidagi راسه *raasahu* “siydikli joyiga urdi” ma’nosidagi مثنه *masanahu* va “terisiga urdi” ma’nosida جلده *jaladahu* va shunga o‘xshaganlar yuqorida aytib o‘tilgani kabidir. Turkiy tillarda ham shunday qilinadi. Chunonchi, “ko‘krak” ma’nosidagi ***töš*** تُوشْ ismidan yasalgan ***töšlädi*** تُوشْلَادِى (298b) – “to‘shiga urdi” demakdir. Shu ma’nolarda ismlardan yasaladigan fe’llar hamma turkiy tillarda ham qo‘llanadi.

To‘rtinchi: ishlovchi ishni zikr qilingan yarog‘ bilan ishlaganligi ma’nosini anglatadi. Chunonchi, ***ol anï qïlïčladï*** اُلْ اَنِى قِلِجْلَادِى – “u uni qilich bilan urdi”. Yana: ***ol atïγ čïbïqladï*** اُلْ اَتغْ جِبِقْلَادِى – “u otni chiviq bilan urdi” kabi.

Beshinchi: gapda zikr qilingan so‘z ajralib chiqqanlik ma’nosini anglatadi. Chunonchi, ***pamuq uruγladï*** بَامُقْ اُرُغْلَادِى – “paxta chigitini ayirdi”. Yana: ***taluladï näŋni*** تَلُولَادِى نَانكْنِى – “narsani o‘z turi ichidan ayirdi” kabi.

Oltinchi: o‘z holicha mustaqil bir shakl bo‘lib, yuqoridagi ma’nolardan hech biri ifoda qilinmaydi. Chunonchi, ***ol meŋä at bayïšladï*** اُلْ مَنكَا اَتْ بَغِشْلَادِى – “u menga ot va boshqa narsalar hadya qildi”. Yana: ***täŋri meni ayïrladï*** تَنكرِى مَنِى اَغِرْلَادِى – “Tangri meni siyladi” kabi. So‘ng bilgilki, har qanday ismdan fe’l yasalishi uchun qoida umumiy bo‘lsa ham, aslida har qanday ismdan fe’l yasalavermaydi. Chunonchi, “o‘rmon yong‘og‘i” ma’nosidagi ***qosuq*** / قُسُقْ / قُسِقْ ***qosïq*** so‘zidan ***qosuqladï*** / قُسُقْلَادِى / ***qosïqladï*** قُسِقْلَادِى tarzida fe’l yasab bo‘lmaydi. Holbuki, ***qašuq*** قَشُقْ so‘zidan ***qašuqladï*** قَشُقْلَادِى shaklida fe’l yasash mumkin. Shuningdek, “ot qo‘noq yedi” ma’nosida ***at qonaqladï*** اَتْ قُنَقْلَادِى deb bo‘lmaydi. Ammo ***ol meni qonuqladï*** اُلْ مَنِى قُنُقْلَادِى – “u meni mehmon qildi” tarzida qo‘llash mumkin bo‘lar edi. Chunki bu so‘zlarning har ikkisi ham bir xilda uch harflidir. ***qonaq*** قُنَقْ – “qo‘noq”, ***qonuq*** قُنُقْ – “mehmon” demakdir. Bularning biridan fe’l yasash mumkin, ikkinchisidan mumkin emas. Agar birov

bu ismlardan boshqalarga qiyos qilib fe’l yasab qo‘llasa, uni qaytarib bo‘lmaydi. Bunda xato ham bo‘lmaydi. Unga kenglik beriladi.

(299a) So‘ng bu bo‘lim bilan *nūn* li bo‘lim orasidagi farqni yuqorida so‘zladik. *nūn* li fe’llar harakat foil bilan chegaralanishini, ishlovchi ishni o‘zi qilganini anglatadi. Bu haqda yuqorida aytildi. Bu bo‘lim fe’llariga kelsak, bunda harakat ishlovchidan boshqaga o‘tadi. Chunonchi, oldingi fe’l turi quyidagichadir: اَرْ اَتُكْلَنْدِى ***er etükländi*** – “kishi etikka ega bo‘ldi”. Yana: يِغَاجْ اَرْكْلَنْدِى ***yïγač erükländi*** – “daraxt meva qildi” kabi. Bu bo‘lim arabcha انفعال bo‘limi o‘rnidadir. *lām* li bo‘limga kelsak, men bundan لَادِى *-ladï, -lädi* qo‘shilib yasaladigan fe’lni ko‘zda tutayotirman. Bu bo‘lim arabcha اِنفِعِيل bo‘limi o‘rnida doimo o‘timli bo‘ladi. Chunonchi, اُلْ اُوتْ كُرْكْلَادِى ***ol ot körüklädi*** – “u olovni puflagich (dam) bilan pufladi”. Yana: اُلْ قَبُغْ كِرتْلَادِى ***ol qapuγ kiritlädi*** – “u eshikni qulfladi” kabi. Agar ishlovchi zikr qilingan fe’llardan birgalik ma’nosini ifodalashni lozim topsa, *nūn* li fe’l bo‘limlarining hammasidan bu ma’noda fe’l yasashi mumkin. Buning qoidasi yuqorida aytib o‘tildi. Bu fe’llar shaxs qo‘shimchalari bilan qo‘shilib kelganda, u fe’llardan *harfi-l-līn* ni tushirish mumkin. Chunonchi, مَنْ اُذِقْلَدِمْ ***men uδïqladïm*** – “men uxladim”; سَنْ اُذِقْلَدِنكْ ***sen uδïqladïŋ*** – “sen uxlading”; اُذِقْلَدِى (اُلْ) ***ol uδïqladï*** – “u uxladi” kabi. Boshqa fe’llar shunga qiyos qilinadi, ulug‘ Tangri irodasi ila.

To‘rt harfli fe’llar ichida bir o‘rinda ketma-ket ikki *sukun* li harfli fe’llar topilmaydi.

Chunki bu xil fe’llarning oxirgi harfi ذلاقة harflari bilan yonma-yon keladi. Bu yerda ma’no bo‘lmaydi. Chunonchi, اَرْمَكُورْدِى ***ermägürdi*** – “yalqovlashdi”, اَرْمَكُورَارْ ***ermägürär*** – “yalqovlashar”, اَرْمكُورْمَاكْ ***ermägürmäk*** – “yalqovlashmoq” deyilgandagi kabi. Shu bilan birga, bu so‘zlardan *vāv* tushirilib, اَرْمَكْرْدِى ***ermägürdi*** shaklida ham qo‘llanadi. Shu holda ikki *sukun* bir yerda kelmaydi. Buni yaxshi anglab ol.

BESH HARFLILAR BO‘LIMI

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَلَادِى *fa’al’alādī* qolipidagi so‘zlar

[تَقْغَاجْلَادِى ***tawγačladï***] اُلْ اَنِى تَقْغَاجْلَادِى ***ol anï tawγačladï*** – “u uni mochinlikka nisbat berdi, mochinliklardan hisobladi” (تَقْغَجْلَارْ ***tawγačlar,*** تَقْغَجْلَامَاقْ ***tawγačlamaq***). (299b)

[سُرْقُجْلَادِى ***sorqučladï***] اُلْ بِجَاكْ سُرْقُجْلَادِى ***ol pičäk sorqučladï*** – “u pichoq va boshqa narsalar sopining dastaga o‘rnatilgan uch qismini lukdan siqib olingan shira bilan yopishtirib pishiqladi” (سُرقُجْلَارْ ***sorqučlar,*** سُرْقُجْلَامَاقْ ***sorqučlamaq***).

ز *z* [harfi]:

[قَلْبُزْلَادِی ***qalbuzladï***] اُلْ قَلْبُزْلَادِی نَانـكْنِی ***ol qalbuzladï näŋni*** – “u narsani luqma qildi” (قَلْبُزْلَارْ ***qalbuzlar***, قَلْبُزْلَامَاقْ ***qalbuzlamaq***).

ش ***š*** [harfi]:

[قِرْتِشْلَادِی ***qïrtïšladï***] اُلْ سَغْرِينِی قِرْتِشْلَادِی ***ol sayrïnï qïrtïšladï*** – “u teri va boshqa narsalarning yuzini qirtishladi” (قِرْتِشْلَارْ ***qïrtïšlar***, قِرْتِشْلَامَاقْ ***qïrtïšlamaq***).

ق ***q*** [harfi]:

[بُغْمَقْلَدِی ***boγmaqladï***] كُنـكْلَكْ بُغْمَقْلَدِی ***köŋlak boγmaqladï*** – “ko‘ylak va boshqa kiyimlarning bog‘ichi bog‘landi” (بُغْمَقْلَانُورْ ***boγmaqlanur***, بُغْمَقْلَانْمَاقْ ***boγmaqlanmaq***).

[تَمْغَقْلَدِی ***tamγaqladï***] اُلْ اَنِی تَمْغَقْلَدِی ***ol anï tamγaqladï*** – “u uning tomog‘idan bo‘g‘di” (تَمْغَقْلَارْ ***tamγaqlar***, تَمْغَقْلَامَاقْ ***tamγaqlamaq***).

[قَرْلُقْلَدِی ***qarluqladï***] اُلْ اَنِی قَرْلُقْلَدِی ***ol anï qarluqladï*** – “u uni qarluqqa nisbat berdi”. Ular turkmanlarning bir toifasidir (قَرْلُقْلَارْ ***qarluqlar***, قَرْلُقْلَامَاقْ ***qarluqlamaq***).

[قِفْجَاقْلَدِی ***qïwčaqladï***] اُلْ اَنِی قِفْجَاقْلَدِی ***ol anï qïwčaqladï*** – “u uni qipchoqlardan hisobladi va ularga nisbat berdi” (قِفْجَاقْلَارْ ***qïwčaqlar***, قِفْجَاقْلَامَاقْ ***qïwčaqlamaq***).

[قُلْتُقْلَدِی ***qoltuqladï***] اُلْ اُتْنـكْ قُلْتُقْلَدِی ***ol otuŋ qoltuqladï*** – “u o‘tin qo‘ltiqladi”. Bu so‘z “qo‘ltig‘iga urmoq” ma’nosida ham qo‘llanadi (قُلْتُقْلَارْ ***qoltuqlar***, قُلْتُقْلَامَاقْ ***qoltuqlamaq***).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ب ***p*** [harfi]:

[كُرْبَالَدِی ***körpäladï***] اَتْ كُرْبَالَدِی ***at körpäladï*** – “ot ko‘rpa o‘t yedi” (كُرْبَالَارْ ***körpälär***, كُرْبَالَامَاكْ ***körpälämäk***).

ت ***t*** [harfi]:

[تُرْتَالَدِی ***turtaladï***] اُلْ بُرِكْ تُرْتَالَدِی ***ol börk turtaladï*** – “u qalpoq va boshqa narsalarga yuqa tilla barglar yopishtirdi” (تُرْتَالَارْ ***turtalar***, تُرْتَالَامَاقْ ***turtalamaq***[1]).

[قِفْتُولَدِی ***qïwtuladï***] اُلْ قِفْتُولَدِی بُوزُكْ ***ol qïwtuladï bözüg*** – “u bo‘zni va boshqa (narsa)ni qaychi bilan qirqdi, qiydi” (قِفْتُولَارْ ***qïwtular***, قِفْتُولَامَاقْ ***qïwtulamaq***).

[كِرْتُولَدِی ***kirtülädi***] اُلْ اَنِی كِرْتُولَدِی ***ol anï kirtülädi*** – “u uning aytganini tasdiqladi” (كِرْتُولَارْ ***kirtülär***, كِرْتُولَامَاكْ ***kirtülämäk***).

ج ***č*** [harfi]:

[تَنْجُولَدِی ***tančuladï***] اَرْ اَتْمَاكْ تَنْجُولَدِی ***er etmäk tančuladï*** – “kishi non va boshqa narsalarni chaynadi” (تَنْجُولَارْ ***tančular***, تَنْجُولَامَاقْ ***tančulamaq***).

[قَمْجِيلَدِی ***qamčïladï***] اَرْ اَتِنْ قَمْجِيلَدِی ***er atïn qamčïladï*** – “kishi otini va boshqa ulovni qamchiladi” (قَمْجِيلَارْ ***qamčïlar***, قَمْجِيلَامَاقْ ***qamčïlamaq***).

د ***d*** [harfi]:

[بُكْدَالَدِی ***bügdälädi***] اُلْ اَنِی بُكْدَالَدِی ***ol anï bügdälädi*** – “u uni xanjar bilan urdi” (بُكْدَالَارْ ***bügdälär***, بُكْدَالَامَاكْ ***bügdälämäk***).

[1] Bu so‘z *kāf* va *qāf* bilan yozilgan (تُرْتَالَامَاكْ).

ر ***r*** [harfi]:

[سَغْرِيلَادِى ***sayrïladï***] اُلْ كُونُكْ سَغْرِيلَادِى ***ol könüg sayrïladï*** (300a) – “u teridan sag‘ri qildi” (سَغْرِيلَارْ ***sayrïlar***, سَغْرِيلَامَاقْ ***sayrïlamaq***).

غ ***γ*** [harfi]:

[تَمْغَالَادِى ***tamγaladï***] اُلْ بِتِكْ تَمْغَالَادِى ***ol bitig tamγaladï*** – “u maktubga sulton tamg‘asini urdi” (تَمْغَالَارْ ***tamγalar***, تَمْغَالَامَاقْ ***tamγalamaq***).

ك ***g*** [harfi]:

[سُرْكِيلَادِى ***sürgilädi***] اِتْ كِيكْنِى سُرْكِيلَادِى ***ït keyikni sürgilädi*** – “it kiyikni quvdi”. Bu uni qo‘lga tushirish uchun izidan borishdir. Har narsaning iziga tushish, qo‘lga olish uchun unga hamla qilishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُرْكَلَارْ ***sürgälär***, سُرْكَلَامَاكْ ***sürgälämäk***).

[سِرْكَلَادِى ***sirkäladi***] اُلْ اُغْلَنْ بَشِنْ سِرْكَلَادِى ***ol oγlan bašïn sirkäladi*** – “u bolasining boshidagi sirkani tozaladi”.

[سِرْكَالَادِى ***sirkäladï***] اُلْ سُوقَغْ سِرْكَالَادِى ***ol suwuγ sirkäladï*** – “u sirka va boshqa narsalarga suv quydi” (سِرْكَالَارْ ***sirkälär***, سِرْكَالَامَاكْ ***sirkälämäk***).

Bu bo‘limning qoidasi yuqorida ko‘rsatilgandek bo‘lib, unga qiyos qilinadi. Chunonchi: اُلْ قَرْمَالَادِى نَانكْنِى ***ol qarmaladï näŋni*** – “u narsani taladi, tortib oldi” kabi (قَرْمَالَارْ ***qarmalar***, قَرْمَالَامَاقْ ***qarmalamaq***).

To‘rtliklar bo‘limi tugadi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU *yunna* li[1] OTLAR KITOBIDIR

IKKI HARFLI OTLAR

مَحْمُودْ *Maḥmūd* aytadi: *γunna* li so‘zlar ikki xildir: ج *čīm* harfi bilan keladigan *γunna* lilar; *kāf* harfi bilan birga qo‘llanadigan *γunna* lilar. So‘ng bularning har biri ham ikki turli bo‘ladi: biri so‘z o‘rtasida keladi, boshqa biri so‘z oxirida keladi. Ularni o‘z o‘rnida bayon qilamiz.

ب *b* [harfi]:

[**بُنْكْ *böŋ***] **بُنْكْ كِشِى *böŋ kiši*** – “pakana, yo‘g‘on beso‘naqay kishi”. Bu so‘zning asli **شَبَنْكْ *šäbäŋ*** bo‘lib qisqartirilgan; “temirdan yasalgan hassa” ma’nosidadir.

[**بُنْكْ *böŋ***] **بُنْكْ اَتّى *böŋ etti*** – “og‘ir bir narsa yerga tushib, bungillagan ovoz chiqardi” demakdir.

[**بَنْكْ *baŋ***] **اُغْلَانْ بَنْكْ سِغْتَادِى *oγlan baŋ sïγtadï*** – “bola big‘illab yig‘ladi”.

ت *t* [harfi]:

تَنْكْ *teŋ* – “teng, yaqin”. “Teng, barobar, mos, munosib” ma’nosidagi **تَنْكْ تُوشْ *teŋ-tuš*** ham shundan olingan.

تَنْكْ *teŋ* – bir narsaning imkoni, payti va fursati. Maqolda (shunday kelgan): **تَنْكْسِزْدَا تَكِرْمَانْ تُرْغُرْسَا يَرَغْسِزْدَا يَارْ بَرِيرْ *Teŋsizdä tegirmän turγursa, yaraγsïzda yar barïr.*** Ma’nosi: (300b) “Tegirmonni o‘z o‘rniga emas, noo‘rin joyga qurilsa, kutilmagan joyda jar paydo bo‘ladi”. Bu maqol ishni o‘z vaqtida qilmagan kishi to‘g‘risida aytiladi.

تَنْكْ *taŋ* – yo‘g‘on unli (ya’ni [*a*]) bilan (بالاشباع); “elak” (arg‘ucha).

تَنْكْ *taŋ* – “ajoyib, g‘alati, qiziq, taajjubli”; **تَنْكْ نَانكْ *taŋ näŋ*** – “taajjubli narsa”. Shundan olinib, **تَانكْ كُردُمْ *taŋ kördüm*** – “taajjubli narsa ko‘rdim” deyiladi.

تَنْكْ *taŋ* – “tong, tong otar payt”.

(Shoir) shunday degan:

تَنْكْ اَتَا يُرْتَلِمْ ***Taŋ ata yortalïm,***
بُذْرُجْ قَنِنْ اِرْتَلِمْ ***Buðruč qanïn irtälim.***
بَسْمِلْ بَكِنْ اُرْتَلِمْ ***Basmïl begin örtälim,***
اَمْدِى يِكِتْ يُقْلسُونْ ***Emdi yigit yuwulsun.***

[1] Tarkibida burun tovushlari bo‘lgan so‘zlar.

Aytmoqdaki: “Tong otishi bilan yo‘lga tushaylik. Budruchning qonini (hunini) talab qilaylik (uning uchun o‘ch olaylik), u yabaqulardan edi, o‘ldirildi. Basmillar begini yondiraylik. Endi yigitlar to‘plansin”.

[تَنكْ ***taŋ***] تَنكْ اَتّى ***taŋ attï*** – “tong otdi”.

[تُنكْ ***toŋ***] تُنكْ تُنكْ اَتّى ***toŋ toŋ etti*** – “og‘ir narsa qattiq bir narsa ustiga tushib, to‘ng‘illagan ovoz chiqardi”.

[تُنكْ ***toŋ***] تُنكْ نَانكْ ***toŋ näŋ*** – “ichi bo‘sh bo‘lmay, to‘la bo‘lgan har narsa”. Savag‘ich novdasiga تُنكْ قَمِشْ ***toŋ qamïš*** deyish shundan olingan; “ichi bo‘sh bo‘lmagan qamish” demakdir.

تُنكْ ***toŋ*** – “to‘ng, to‘ng‘igan”; “Sovuqdan muzlab qotgan go‘sht”ga تُنكْ اَتْ ***toŋ et*** deyish ham shundan olingan. Boshqa narsalarga ham shu so‘z qo‘llanadi.

تَنكْ ***taŋ*** – ilgari qurilgan bino bo‘lib, keyin yiqilib ishdan chiqqan, faqat asli baland yer tusida xaroba va shunga o‘xshash bir holda saqlanib qolgan yer.

[تِنكْ ***tiŋ***] اَرْ تِنكْ تُرْدِى ***er tiŋ turdï*** – “kishi tik turdi”.

ج ***č*** [harfi]:

جَنكْ ***čäŋ*** – “chang; cholg‘u asbobi”.

[جُنكْ ***čoŋ***] جُنكْ اَتْ ***čoŋ et*** – “bir parcha et”.

[جِنكْ اَتّى ***jïŋ etti***] قُلَاقِمْ جِنكْ اَتّى ***qulaqïm jïŋ etti*** – “qulog‘im jing‘illadi”. Qo‘ng‘iroq, lagan-tovoq va shunga o‘xshashlarning ovoziga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[جِنكْ اَتّى ***jiŋ*** (?) ***etti***] قُلَاقِمْ جِنكْ اَتّى ***qulaqïm jiŋ*** (?) ***etti*** – “qulog‘im jingilladi”; bu talaffuzi oldingidan yaxshiroqdir.

[جِنكْ تُلُو ***jïŋ tolu***] جِنكْ تُلُو كُولْ ***jïŋ tolu köl*** – “limmo-lim ko‘l”. Har qanday narsa oxirigacha to‘ldirilsa ham جِنكْ تُلُو ***jïŋ tolu*** so‘zi qo‘llanadi.

د ***d*** [harfi]:

[دَنكْ دُنكْ ***daŋ-duŋ***] دَنكْ دُنكْ اَتّى نَانكْ ***daŋ-duŋ etti näŋ*** – “narsa dang-dung degan ovoz chiqardi, sezildi”. Bu so‘z تَنكْ تُنكْ اَتّى ***taŋ-tuŋ etti*** – “tang-tung qilib ovoz chiqardi” kabidir.

س ***s*** [harfi]:

سَنكْ ***saŋ*** – “qush tezagi”; قُشْ سَنكِى ***quš saŋï*** (301a) – “qush tezagi”.

سُنكْ ***soŋ*** – “kishining ortidagilar; oila; avlod”.

سُنكْ ***soŋ*** – “keyin” ma’nosidadir: سَنْ مَنِكْ سُنكْدَا كَلْ ***sen meniŋ soŋda kel*** – “sen mening ortimdan kel”.

سُنكْ ***soŋ*** – “har narsaning, har ishning oxiri, keti”; بُو سُوزْ سُنكِنْدَا اَيْغِلْ ***bu söz soŋïnda ayγïl*** – “sen bu so‘zni so‘ngidan ayt”.

[سِنكْ اَتّى ***sïŋ etti***] قُلَاقِمْ سِنكْ اَتّى ***qulaqïm sïŋ etti*** – “qulog‘im jing‘illadi”.

[سِنكْ اَتّى ***sïŋ etti***] كُمِنْجَا سِنكْ اَتّى ***kömінčä sïŋ etti*** – “pashsha g‘ing‘illadi”. Chivin g‘ing‘illashiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

ق ***q*** [harfi]:

[قَنكْ اَتّى ***qaŋ etti***] قَازْ قَنكْ اَتّى ***qaz qaŋ etti*** – “g‘oz g‘ag‘illadi”. Bu har narsa chiqargan ovozining shu ovozga muvofiq atalishi degan ma’nodir.

[قُنـڭ *qoŋ*] قُنـڭ اَتْ *qoŋ et* – “muskul go‘shti”.

ك *k* [harfi]:

كُنـڭ *küŋ* – “joriya”.

[كِنـڭ *keŋ*] كِنـڭ نَانـڭ *keŋ näŋ* – “keng narsa”. Maqolda (shunday kelgan): كِينـڭ تُونْ اُبْرَامَاسْ كَنـگَاشْلِكْ بِلِكْ اَرْتَامَاسْ *Keŋ ton opramas, keŋäšlig bilig artamas.* Ma’nosi: “Keng to‘n to‘zimaydi, kengashli ish buzilmaydi”. Bu maqol ishlarni bajarishda boshqalar bilan kengashish, o‘zboshimchalik qilmaslikka undab aytiladi.

م *m* [harfi]:

مَنـڭ *mäŋ* – “qush doni, xo‘ragi”. U yig‘ib olinadigan don, demakdir. Maqolda (shunday kelgan): قُوشْ تُوزَقَا مَنـڭ اُجُنْ اِلِنُورْ *Quš tuzaqa mäŋ üčün ilïnur.* Ma’nosi: “Qush tuzoqqa xo‘rak uchun ilinadi”. Bu maqol oziq izlab, qiyinchilikka yo‘liqqan kishiga qarata qo‘llanadi.

مَنـڭ *meŋ* – “yuzdagi xol”.

(Shoir) shunday degan:

بِيرِنـڭ مَنـگَا سُوزْ كِيَا *Beriŋ meŋä söz-kiyä,*
مَنـڭ لِكْ قَرَا تُزْ قِيَا *Meŋlig qara tuz-qïya.*
يَلْڤِنْ تُتَارْ كُزْ كِيَا *Yalwïn tutar köz-kiyä,*
مُنـگُمْ مَنِكْ بِلِنـگَا *Muŋum meniŋ biliŋ-ä.*

Aytmoqdaki: “Menga birgina so‘z ayt, va’da ber, ey qora xolli, yuzlari yoqimli, ey sehrli ko‘zlari bilan ovlaydigan go‘zal. Sevgidagi mening dard-u alamlarimni tushun”.

[مُنـڭ *muŋ*] مُنـڭ تَاغْ *muŋ taγ* – o‘n olti-o‘n yetti yoshlarga kirib, voyaga yetganda chiqqan tish; مُنـڭ تَاغْ اُنْدِى *muŋ taγ öndi* – “kishining voyaga yetganlik tishi chiqdi” demakdir.

مُنـڭ *muŋ* – “mung; qiyinchilik”. Maqolda (shunday kelgan): اَرْكَا مُنـڭ تَكِيزْ تَاغْ سَنـگِرِ ينـگَا يِيلْ تَكِيزْ *Erkä muŋ tegir, taγ seŋiriŋä yel tegir.* Ma’nosi: “Yel tog‘ burniga (cho‘qqisiga) tekkandek, qiyinchilik kishining boshiga tushadi. (301b) Tog‘ burnidan (cho‘qqisidan) yel o‘tib ketib, cho‘qqi o‘z holida qolganidek, kishidan ham qiyinchilik o‘tib ketadi”.

مِنـڭ *miŋ* – “ming; sanoqda ming”. Maqolda (shunday kelgan): بِيرِنْ بِيرِنْ مِنـڭ بُلُورْ تَمَا تَمَا كُلْ بُلُورْ *Birin-birin miŋ bolur, tama-tama köl bolur.* Ma’nosi: “Birlar to‘planib, ming bo‘ladi, tomchilar to‘lib ko‘l bo‘ladi”. Bu maqol oz bo‘lsa ham bir narsani olaverishga undab aytiladi.

ن *n* [harfi]:

نَنـڭ *näŋ* – “narsa”; بُو نَا نَانـڭ اُلْ *bu ne näŋ-ol?* – “bu qanday narsa?”.

نَنـڭ *näŋ* – “buyum”.

(Bilimli) shunday degan:

بُلْمِشْ نَنـكِـكْ سَقْرْسَنْ *Bulmïš näŋig sewär-sen,*
اَقْرُونْ اَنـكَرْ سَقِنْـكِلْ *Aqrun aŋar sewingil.*
بَرْمِشْ نَنـكِـكْ سَقِنْمَا *Barmïš näŋig saqïnma,*
اَزْرَاقْ اَنـكَرْ اُكُنْـكِلْ *Azraq aŋar öküngil.*

Aytmoqdaki: “Topgan molingni sevasan, unga kamroq sevingil, chunki u sendan (qo‘lingdan) chiqib ketishi mumkin. Qo‘lingdan ketgan narsa uchun qayg‘urma, unga ozroq achin. Chunki achinish senga (qo‘ldan ketganni) qaytarib bermaydi”.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

يَنـكْ ***yaŋ*** – “qolip, andaza”. Bu biror narsaning shakli olinib, so‘ngra unga o‘xshatilib yasalgan qolipdir. Chunonchi, بُركْ يَنـكِى ***börk yaŋï*** – “kuloh-qalpoq andazasi”. Bunda qog‘ozdan cho‘ziq yoki yumaloq shakllarda bir narsalar kesiladi yoki o‘yiladi. Yoki loydan quvur shaklida bir narsa yasalib, qalpoq shohisi unga o‘lchanib, unga moslab kesiladi. Har narsaning qolipi ham shunday ataladi.

يُنـكْ ***yuŋ*** – jigarga yaqin yerda joylashgan, unga ulashgan bezli go‘sht. Uni erkaklar yemaydi, xotinlar yeydi.

يُنـكْ ***yuŋ*** – “yung; tuya yoki qo‘yning yungi”.

يُنـكْ ***yuŋ*** – “paxta”; arg‘u, yag‘mo va qarluqlar tilida.

يينـكْ ***yeŋ*** – “yeng; kiyim yengi”.

يِنـكْ ***yiŋ*** – “burun suvi”.

Ikki harflilar bo‘limi tugadi.

Turli harakatlar bilan qo‘llangan فَعَل *fa’al,* فَعُل *fa’ul,* فَعِل *fa’il* qoliplaridagi so‘zlar bo‘limi

ت ***t*** [harfi]:

تَنـكُتْ ***taŋut*** – صِينْ *Ṣīn* yaqinida turuvchi bir toifa turklarning oti. Ular o‘zlarini arablardanmiz deb hisoblaydilar. (302a)

كِنـكُتْ ***Kiŋüt*** – اُيْغُرْ *Uyγur* hududidagi bir shahar oti.

سُنـكُتْ / سِنـكُتْ ***süŋüt*** / ***siŋüt*** – “sovg‘a”. Bu na qaytarib beriladigan, na uning baravariga bir narsa taqdim qilinadigan tortiqdir. Chunonchi, بُو اَتْ مَنـكَا سُنـكُتْ / سِنـكُتْ بِيرْدِى ***bu at meŋä süŋüt*** / ***siŋüt berdi*** – “bu otni menga tortiq qildi”.

تُنـكُرْ ***tüŋür*** – “xotinning yaqinlari”; bular – aka-ukalar, ota-onalardir.

سَنـكِرْ ***seŋir*** – “tog‘ burni”; “har bir devor tumshug‘i”ga ham shu so‘z qo‘llanadi.

سِنـكِرْ ***siŋir*** – “pay, tomir”.

[قُنغُرْ *qoŋur*] قُنغُرْ اُونْ ***qoŋur ün*** – “bo‘g‘iq ovoz”.

[قُنغُرْ *qoŋur*] قُنغُرْ قُوىْ ***qoŋur qoy*** – “qo‘ng‘ir (xira, och jigar rang) qo‘y va boshqalar”.

[قِنغِرْ *qïŋïr*] قِنغِرْ اَرْ ***qïŋïr er*** – “g‘ilay kishi”. Ikki ko‘zi ham g‘ilay kishini اِكّى كُوزِى قِنغِرْ ***iki közi qïŋïr*** – “ikki ko‘zi ham g‘ilay” deyiladi.

[مُنغَرْ *muŋar*] مَنْ مُنغَرْ اَيْدِمْ ***men muŋar aydïm*** – “men bunga aytdim”. Bu hozir bo‘lgan kishi(ni ko‘rsatish) ma’nosidadir.

مِنغَرْ ***mïŋar*** – “buloq; suv ko‘zi” (o‘g‘uzcha).

ز *z* [harfi]:

تَنغِزْ ***teŋiz*** – “dengiz”.

تُنغُزْ ***toŋuz*** – “to‘ng‘iz”.

تُنغُزْ ***toŋuz*** – turklarning o‘n ikki yillaridan biri.

قُنغُزْ ***qoŋuz*** – “yoqimsiz hidli qo‘ng‘iz” (o‘sroq qo‘ng‘iz).

كُنغُزْ ***köŋüz*** – xaroba, o‘nqir-cho‘nqirlarda tuya va qo‘ylar qumalog‘ining bir-biriga aralashib, yopishib ketgani.

مَنغِزْ ***meŋiz*** – “odam rangi; mag‘iz”. Chunonchi, قِزِلْ مَنغِزْلِكْ ***qïzïl meŋizlig*** – “qizilmag‘iz odam”. Bu ko‘pincha yuz yanog‘i qizilligiga nisbatan qo‘llanadi.

مُنغُزْ ***möŋüz*** – “shox; hamma hayvonlar shoxi”.

مُنغُزْ مُنغُزْ ***möŋüz-möŋüz*** – “mo‘nguz-mo‘nguz” deyilgan bolalarning bir turli o‘yini. Bu shunday: bolalar tiz cho‘kib, dengiz labida o‘tiradilar. Sonlari orasiga ho‘l qum solib to‘ldiradilar. So‘ng qo‘llari bilan qumni uradilar. Ulardan biri (ona boshisi) مُنغُزْ مُنغُزْ ***möŋüz-möŋüz*** deydi. Qolganlari نَا مُنغُزْ ***ne möŋüz?*** – “nimaning mo‘nguzi?” (shoxi) deb so‘raydilar. U birin-ketin shoxli hayvonlarni sanab ketadi. Uning ketidan ular ham qaytaradilar. So‘ng ona boshi shu nomlar orasiga tuya, eshak singari shoxsiz hayvonlar otini aytib chalg‘itadi. Bolalardan birortasi uning ketidan shoxsiz hayvon otini aytib yuborsa, uni suvga itarib yuboriladi. Maqolda (shunday kelgan): سُسَكَانْ اُوذقَا تَنكْرِى مُنغُزْ بِيرْمَاسْ ***Süsägän uδqa täŋri möŋüz bermäs.*** Ma’nosi: (302b) “Suzong‘ich sigirga Xudo shox bermaydi”. Bu maqol biror ishni qilmoq istasa ham, ammo bu ish xalqqa zarar berishi mumkinligi sababli shu ishni qilmagan kishiga qarata aytiladi.

س *s* [harfi]:

[كَنغَسْ *keŋäs*] كَنغَسْ سُوقْ ***keŋäs suw*** – “oz suv; to‘piqdan keladigan yuza suv”. Oson ishga ham shu so‘z qo‘llanadi.

ش *š* [harfi]:

سُنغُشْ ***süŋüš*** – surish, uzoqlatish; nayza bilan urish, jang qilish.

سُنغُشْ ***Süŋüš*** – erkak kishilarning otlaridan.

كَنغَشْ ***keŋäš*** – “ishlarda kengashish; mulohaza yuritish”.

غ *γ* [harfi]:

مَنغِغْ ***maŋïγ*** – “qadam, odim”; اَنِكْ مَنغِغِى كُورْ ***anïŋ maŋïγï kör*** – “uning oyoq bosishini ko‘r”.

ق *q* [harfi]:

تَنـُقْ ***taŋuq*** – shohlar safarga chiqqanda va shunga o‘xshash tadbirlarda ularga beriladigan sovg‘a. Unda taom va ipak kiyimliklar bo‘ladi.

تَنـُقْ ***taŋuq*** – chavgon o‘yinida koptokni tortilgan o‘rovdan o‘tkazganga beriladigan ipak kiyimlik.

تَنـُقْ ***taŋuq*** – jangda matorid va bayroqlar tepasiga osiladigan ipaklik.

[**سِنـُقْ** ***sïŋuq***] **سِنـُقْ نَانـَكْ** ***sïŋuq näŋ*** – “siniq narsa”. O‘g‘uzlar bu so‘zni burun tovushisiz **سِنْقْ** ***sïnuq*** shaklida qo‘llaydilar. Bularniki qoidaga muvofiq, chunki bu so‘z **سِنْدِى** ***sïndï*** (“sindi”) fe’lidan yasalgan. Demak, asl so‘zda burun tovushi yo‘q.

ل ***l*** [harfi]:

[**تَنـَكِلْ** ***taŋïl***] **تَنـَكِلْ كَيِكْ** ***taŋïl keyik*** – oldingi oyoqlarida yo‘l-yo‘l chiziqlari bo‘lgan kiyik va boshqalar.

[**جِنـكِلْ جِنـكِلْ** ***čïŋïl-čïŋïl***] **يُكُونْ جِنـكِلْ جِنـكِلْ اَتّى** ***yügün čïŋïl-čïŋïl ettï*** – “yugan jingillagan ovoz chiqardi”. Bunga o‘xshagan har qanday tovushga nisbatan ham shu so‘z qo‘llanadi.

سِنـكِلْ ***siŋil*** – “erkaklarning o‘zidan kichik qiz qardoshi”.

كُنـكُلْ ***köŋül*** – “yurak, ziyraklik, aqllilik”; **كُنـكُلْ لُكْ اَرْ** ***köŋüllüg er*** iborasi shundan olinib qo‘llangan, bu “aqlli, ziyrak kishi” demakdir. Maqolda (shunday kelgan): **كُوزْدَنْ يِرَاسَا كُنـكُلْ دَنْ يَمَا يِرَارْ** ***Közdän yïrasa, köŋüldän yemä yïrar.*** Ma’nosi: “Do‘stlar ko‘zdan uzoqlashsa, ko‘ngildan ham uzoq bo‘ladi”. Yana: **كُنـكُلُنـكْ نَتَكْ** ***köŋlüŋ netäg?*** – “ko‘ngling qanday?”.

Bu bo‘limning *muḍā’af* lari

يَنـكَكْ ***yeŋäk*** – “havo”.

سَنـكَكْ ***seŋäk*** – “suv ichiladigan idish”. “Yog‘ochdan qilingan zarang kosa”ga ham shu so‘z qo‘llanadi (o‘g‘uzcha).

سِنـكَكْ ***siŋäk*** – yerli xalqlar tilida “pashsha”, sahroliklar tilida “chivin” demakdir.

(She’rda) shunday deyilgan: (303a)

سَنْدَا قُبَرْ جَذْنْلَارْ	***Sendä qopar čaδanlar,***
قُذغُو سِنـكَكْ يِلَنْلَارْ	***Quδγu, siŋäk, yïlanlar.***
دُكْ مِنـكْ قُيُو تُمَنْلَارْ	***Dük miŋ quyu tümänlär,***
قُذرُقْ تِكِبْ يُكْرُشُورْ	***Quδruq tikip yügrüšür.***

Qish bilan yoz tortishuvini ta’riflab, qish yozga aytmoqda: “Senda chayonlar, pashsha, chivinlar, xalqqa ozor beruvchi har xil hasharotlar bor. Senda ilonlar dumlarini o‘rab (gajak qilib) xalqqa hamla qiladilar”.

سُنـكُكْ ***sönük*** – “suyak”. Maqolda (shunday kelgan): **اَذكُو اَرْ سُنـكُوكِى اَرِيرْ اَتِى قَلِيرْ** ***Eδgü er sönüki arïr, atï qalïr.*** Ma’nosi: “Yaxshi kishining suyagi tuproqda

chirisa ham, oti mangu qoladi”. Bu maqol kishilarni yaxshilik qilishga undab aytiladi.

To‘rt harflilar

ك *g* [harfi]:

تُنكُو *tuŋu* – “kar, garang”.

تُنكَا *toŋa* – yo‘lbars jinsidan bo‘lgan bir turli hayvon. U filning kushandasidir. Bu so‘zning asosiy ma’nosi shudir. Lekin bu so‘z turklarda ma’nosi o‘zgargan holda qo‘llanadi. Bu so‘z ko‘pincha kishilarga laqab o‘rnida ishlatiladi. Chunonchi, **تُنكَاخَانْ *Toŋaxan*,** **تُنكا تِكِينْ *Toŋa tigin*** va shuning kabilar. Turklarning ulug‘ xoni اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* ni **تُنكَا اَلبْ اَرْ *Toŋa alp er*** deb atar edilar; “yo‘lbars singari kuchli bahodir kishi” demakdir.

سُنكُو *süngü* – “nayza”.

[**سَنكَا *seŋä***] **سَنكَا اَيْدِمْ *seŋä aydïm*** – “senga aytdim”.

[**سِنكِى *siŋi***] **بُو اَشْ اُلْ سِنكِى *bu aš-ol siŋi*** – “bu singadigan oshdir”.

Bu bo‘limning *maṭvī* turi

يَنكَا *yaŋa* – “suv qirg‘og‘i; har qanday ariq bo‘yi” (o‘g‘uzcha).

[**يَنكِى *yaŋï***] **يَنكِى نَانكْ *yaŋï näŋ*** – “har qanday yangi narsa”.

يُنكُو *Yuŋu* – بَارْمَانْ *Varman* shaharchasiga oqadigan katta bir daryoning oti. Bu daryo bo‘yiga اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* ning بَارْمَانْ *Barman* degan o‘g‘li shahar qurgan edi. Shahar ham unga nisbat berilib, uning oti bilan atalgan. Bu – رُوم *Rūm* o‘lkasining *Isḥaq* payg‘ambarning o‘g‘li *’Īṣū* ning o‘g‘li *Rūm* ga (الروم بن عيصو بن اسحق النبى صلوات الله عليه) nisbat berilib aytilgani kabidir.

So‘z oxirida burun tovushi (*yunna*) kelgan so‘zlar

شَبِنكْ *šebiŋ* – “yo‘g‘on temir so‘yil” (chigilcha).

سِدِنكْ كُولْ *Sidiŋ köl* – قُجنكَارْبَاشِى *Qočŋarbašï* ga yaqin bir ko‘lning oti.

قَدِنكْ *qaδïŋ* – “qayin daraxti”. Maqolda (shunday kelgan): **قَدِنكْ قَاشِنكَا سُكُتْ سُولِنكَا *Qazïŋ qašïŋa, sögüt söliŋä.*** Bu maqolning ma’nosi yuqorida izohlangan.

قَشَنكْ *qašaŋ* – qulni so‘kkanda **قَشَنكْ *qašaŋ*** deyiladi, “ey past, pastkash” demakdir. (303b)

ر *r* [harfi]:

بُرُنكْ *buruŋ* – bir o‘q otimi yer; **بُرُنكْ اَتّى *buruŋ attï*** – “bir o‘q otimi yerga otdi”.

بُرُنكْ *bürüŋ* – ingichka *rā* bilan; suv o‘ygan yoriqlar.

[**تَرِنكْ *teriŋ***] **تَرِنكْ تَنكِزْ *teriŋ teŋiz*** – “keng, chuqur dengiz”.

O‘g‘uzlar har bir katta va chuqur narsaga ham تَرِنكْ ***terin̡*** deydilar. Shundan olinib, تَرِنكْ اُورِى ***terin̡ orï*** – “ikki tog‘ orasidagi keng maydon yo‘l” deyiladi; تَرِنكْ بِلْكَا ***terin̡ bilgä*** – “ilmi teran; bilimdon hakim” kabi.

[تِرِنكْ اَتّى ***tirïn̡ etti***] قُلَاقِمْ تِرِنكْ اَتّى ***qulaqïm tirïn̡ etti*** – “qulog‘im tiringladi”. Bu shunga o‘xshash har bir ovoz, demakdir.

[تِرِنكْ اَتَرْدِى ***tirïn̡ ettürdi***] يَاسِنْ تِرِنكْ اَتَرْدِى ***yasïn tirïn̡ ettürdi*** – “u yoyini tiringlatib otdi”. Bu yoy otganda kamondan chiqqan ovozdir.

چِرِنكْ ***jïrïn̡*** – “lagan, tovoq va shunga o‘xshashlarning ovozi”, demakdir.

[كُرُنكْ ***körün̡***] كُرُنكْ كُولْ ***Körün̡ köl*** – كَاشْغَرْ *Kāšγar* yaqinidagi bir ko‘lning oti.

ز ***z*** [harfi]:

بِزِنكْ ***bizin̡*** – “bizning”. Bu so‘z بِزْ ***biz*** va نک qo‘shilishidan yasalgan: بِزِنكْ اَفْ ***bizin̡ ew*** – “bizning uy” demakdir.

ک ***g*** [harfi]:

تَكِنكْ ***tegin̡*** – “sobol” [suvsarlar oilasidan bo‘lgan yirtqich hayvon].

ل ***l*** [harfi]:

بَلِنكْ ***belin̡*** – yov kelishi sababli xalq orasida paydo bo‘lgan qo‘rquv. “Bir narsadan qochgan kishi”ga بَلِنكْجِى كِشِى ***belin̡či kiši*** deyiladi.

بُلُنكْ ***bulun̡*** – “burchak”.

تُلُنكْ ***tulun̡*** – ko‘z bilan quloq orasi.

تُلُنكْ ***tulun̡*** – yugandagi bir halqa. U ot qulog‘ining tagida bo‘lib, otning boshi va yuzidan o‘tgan qayishlar unga biriktiriladi, uni يُكَنْ تُلُنكِى ***yügän tuluŋï*** – “yugan halqasi” deyiladi.

[جَلَنكْ ***jalan̡***] جَلَنكْ بَاشِى ***jalan̡ bašï*** – “ig‘vogar; ezma kishi”.

[جَلِنكْ ***jalïn̡***] جَلِنكْ اَيَاقْ ***jalïn̡ ayaq*** – صِينْ *ṣīn* idishi.

[جَلَنكْ ***jalan̡***] جَلَنكْ يِيرْ ***jalan̡ yer*** – “o‘t tushgan joy kabi qora, zarang, o‘t bitmas yer”.

خُلِنكْ ***xulïn̡*** – صين *Ṣīn* dan keltiriladigan, har turli ranglari bo‘lgan bir turli ipak kiyimlik.

قَلِنكْ ***qalïn̡*** – “qalin, sep”. Maqolda (shunday kelgan): قَلِنكْ بِيرْسَا قِيزْ اَلِيرْ كَرَاكْ بُلْسَا قِيزْ اَلِيرْ ***Qalïn̡ bersä, qïz alïr, kerak bolsa, qïz alïr.*** Ma’nosi: “Qalin bersa, kelinni qiz oladi, (304a) biror narsani istagan kishi (u narsa) zarur bo‘lgach, qimmat bo‘lsa ham oladi”.

(She’rda) shunday degan:

بِرْدِمْ سَنَكَا قَلِنكْ	***Berdim seŋä qalïn̡,***
اَمْدِى مُنِى اَلِنكْ	***Emdi munï alïn̡.***
اَمْكَاكْ مَنِكْ بِلِنكْ	***Emgäk menin̡ bilin̡,***
اُغْرَرْ تُنكُرْ بَرْغَلِى	***Oγrar tünür barγalï.***

Kuyov qayinotasiga aytmoqda: “Sizga qalin berdim, buni oling. Bu molni to‘plashdagi qiyinchiliklarimni tushuning. Qayinota aytmoqda: U ketish oldida turibdi, ketmoqchi bo‘lyapti-ku”.

كُلُنكْ *kölüŋ* – “ko‘lmak suv”; unga qushlar qo‘nadi.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

[**يَبَنكْ *yabaŋ***] **يَبَنك يِير *yabaŋ yer*** – “qumli yer”. Bu shunday qumki, unga mollar oyog‘i botib qolib chiqarish qiyin bo‘ladi.

ت *t* [harfi]:

يَتِنكْ *yatïŋ* – yung taraladigan charx.

د *d* [harfi]:

[**يَدِنكْ *yadïŋ***] **يَدِنكْ سُوڤْ *yadïŋ suw*** – “yer ustiga yoyilgan tarqoq suv”.

ش *š* [harfi]:

[**يُشَنكْ *yüšäŋ***] **يُشَنكْ تَاشْ *yüšäŋ taš*** – “silliq tosh”.

ل *l* [harfi]:

[**يَلِنكْ *yalïŋ***] **يَلِنكْ قِلِچْ *yalïŋ qïlïč*** – “yalang‘och, qinidan chiqarilgan qilich”.

[**يَلِنكْ *yalïŋ***] **يَلِنكْ اَرْ *yalïŋ er*** – “yalang‘och kishi”. “Har bir yalang‘och narsa”ga ham **يَلِنكْ *yalïŋ*** deyiladi.

يَلِنكْ *yeliŋ* – “yel ko‘p esadigan yer”; **بُو يَلِنكْ كُونْ *bu yeliŋ kün*** – “bugun shamolli kun”.

ج *čīm* li *ɣunna* lilar

ر *r* [harfi]:

[**بِرِنچْ *birinč***] **بِرِنچْ نَانكْ *birinč näŋ*** – “birinchi narsa”. Qoidaga muvofiq so‘z bo‘lib, oz qo‘llanadi.

كُزُنچْ *közünč* – bir narsaga qaraydigan kishilar.

ز *z* [harfi]:

بَزِنچْ *bazïnč* – “ipak va yung koptok”.

بَزِنچْ *bezinč* – tanasi va barglari qizil bo‘lgan bir turli o‘simlik. U bog‘larda bitadi; davo uchun yeyiladi.

ف *w* [harfi]:

سَڤِنچْ *sewinč* – “sevinch”. Maqolda (shunday kelgan): **اُكُوشْ سَڤِنچْ بُلْسَا قَتَغْ اُخْسُنُورْ *Öküš sewinč bulsa, qatïɣ oxsunur.*** Ma’nosi: “Ko‘p sevingan kishi biror ishda undan ko‘ra qattiqroq qayg‘uradi”. Bu maqol haddidan oshib hovliqishni tashlashga undab aytiladi.

(She’rda) shunday degan:

مَنْدَا بُلْنُرْ سَڤِنچْ اُتِى قَدْغُو اَتَارْ	***Mendä bulnur sewinč otï qaδɣu atar,***
قَرْشِى كُرُبْ سَغْدِچْ اَنِى اُجْمَقْ اَتَارْ	***Qaršï körüp saɣdïč anï učmaq atar.***

(304b) Aytmoqdaki: “Menda sevinch, quvonchning davosi bor, u qayg‘ularni daf qiladi. Yaqinlar mening imorat(ark)imni ko‘rsalar, yaxshiligidan uni jannat deb ataydilar”.

سَقِنچْ ***saqïnč*** – “qayg‘u, alam”.

ل ***l*** [harfi]:

قِلِنچْ ***qïlïnč*** – “qiliq, fe’l-u xo‘y”. Shundan olinib, اَذكُو قِلِنچْ ***eδgü qïlïnč*** – “yaxshi qiliq” deyiladi. Buning teskarisi – yomon qiliqqa ham shu so‘z qo‘llanadi.

قِلِنچْ ***qïlïnč*** – “xotinlarning noz-u istig‘nosi”. Shuning uchun xotinlarga اُكُشْ قِلِنجْلَنْمَا ***öküš qïlïnčlanma*** deyiladi, “ko‘p noz qilaverma” demakdir.

كُلِنچْ / كُلُنچْ ***külünč*** / ***külinč*** – “kulgi”.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ن ***n*** [harfi]:

يَفِنچْ ***Yawïnč*** – اِلَا *Ïla* yaqinidagi bir shaharning oti.

ک ***k*** [harfi]:

يُكُنچْ ***yükünč*** – “namoz” (qipchoqlar tilida). تَنكْرِيكَا يُكُنچْ يُكُنْدِى ***täŋrikä yükünč yükündi*** – “Tangri taologa yukundi”; اُلْ بَكْكَا يُكُنچْ يُكُنْدِى ***ol begkä yükünč yükündi*** – “u bek va boshqalarga bosh egdi”.

To‘rt harflilar

ت ***t*** [harfi]:

[تُتُنْجُو ***tutunču***] تُتُنْجُو اُغُلْ ***tutunču oγul*** – “kishining tutungan, asrandi bolasi”.

ز *z* [harfi]:

[سَزِنْجِى ***sazïnčï***] سَزِنْجِى تَاشِى ***sazïnčï tašï*** – “gips”.

قَرِنْجَا ***qarïnča*** – “chumoli” (o‘g‘uzcha).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

يُرِنْجَا ***yorïnča*** – “yo‘ng‘ichqa” (o‘g‘uzcha).

فَعَال *fa’āl* qolipidagi so‘zlar bo‘limi

ر ***r*** [harfi]:

سِنكَارْ ***sïŋar*** – “bir narsaning yoni, yon tarafi”. Chunonchi, سِنكَارْدِنْ يُرِى ***sïŋardïn yurï*** – “bir tomondan yur”.

[مُنكَارْ ***muŋar***] مُنكَارْ اَيْدِمْ ***muŋar aydïm*** – “bunga aytdim”.

مِنكَارْ ***mïŋar*** – “buloq ko‘zi” (o‘g‘uzcha).

ن ***n*** [harfi]:

يَنكَانْ ***yaŋan*** – faqat boshi oq bo‘lgan olaqarg‘a.

[سَنكَانْ ***saŋan***] سَنكَانْ نَانكْ ***saŋan näŋ*** – “kakra ta’mli har qanday narsa”.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

غ *γ* [harfi]:

یۈنگاغ yoŋaγ – “bekka chaqimchilik qilish”; ***انی یۈنگاغ یۈنگادی anï yoŋaγ yoŋadï*** – “u sultonga chaqimchilik qildi, uning sirini fosh qildi”.

ق *q* [harfi]:

یَنگاقْ yaŋaq – og‘izning ikki tomonidagi tishlar o‘rnashgan ko‘mik, milk.

یَنگاقْ yaŋaq – “har qanday narsaning yoni”. “Eshik yoni”ga ***قَپُغْ یَنگاقِی qapuγ yaŋaqï*** deyish ham shundan.

ن *n* [harfi]:

یَنگانْ yaŋan – “fil”; buni o‘g‘uzlar bilmaydilar.

فَعْلی *fa’lī* qolipidagi so‘zlarning har xil harakatlar bilan qo‘llangan namunasi

ر *r* [harfi]:

تَنگْری täŋri – “ulug‘ va aziz Tangri”. Maqolda (shunday kelgan): ***تُیِنْ تَبُغْسَاقْ تَنگْری سَفِنجْ سِیزْ Toyïn tapuγsaq, täŋri sewinčsiz.*** (305a) – “Kofirlarning din boshliqlari Tangri taologa ibodat qiladi, lekin Tangri subhonohu va taolo uning ishidan rozi bo‘lmaydi”. Bu maqol birovlarga yoqadi, deb gumon qilgan, ammo ishi yoqmagan odamlar haqida aytiladi.

(Bilimli) shunday degan:

تُنْ کُنْ تَبُنْ تَنگْریکَا بُیْنَمَغِلْ Tün-kün tapun täŋrikä boynamaγïl,
قُرْقُبْ اَنگَرْ اَیْمَنُو اُیْنَمَغِلْ Qorqup aŋar eymänü oynamaγïl.

Aytmoqdaki: “Kecha-kunduz Tangri taologa ibodat qil, yo‘ldan adashma. Xudodan qo‘rq, undan uyal, iyman, o‘yinqarolik qilma”.

Yaratganning qahriga uchragur kofirlar “osmon”ni ***تَنگْری täŋri*** deydilar. Shuningdek, ular ko‘zlariga katta ko‘ringan har narsani, chunonchi, “katta tog‘”, “haybatli yog‘och”ni ham ***تَنگْری täŋri*** deb ataydilar. Shuning uchun ham ular shunga o‘xshash narsalarga sajda qiladilar. Ular bilag‘on kishini ***تَنگْرِکَانْ täŋrikän*** deb atashlari ham shundandir. Bularning gumrohliklaridan Xudo panoh bersin.

تُنگْرَا toŋra – “badanning kiri”.

[***اُنگْرَا öŋrä***] ***اَرْ اُنگْرَا یَتّی er öŋrä yattï*** – “kishi chalqancha yotti”.

[***تُنگْرَا töŋrä***] ***اَرْ تُنگْرَا تُشْتِی er töŋrä tüšti*** – “kishi to‘ntarilib yuztuban tushdi”.

تُنگْشُو tüŋšü – “shamdon”.

جَنگْشُو čeŋšü – “kalta paxtalik to‘n”.

جَنگْشِی Čaŋšï – خُتَنْ *Xotan* begining oti. U خُتَنْ *Xotan* ni qo‘lga kiritgan edi. Odamlar ***جَنگْشِی Čaŋšï*** so‘zini جَمْشِیدْ *Jämšid* so‘zining o‘zgargani deydilar.

ك ***k*** [harfi]:

مَنـكُـو ***mäŋgü*** – “mangu, mangulik, cheksiz, cheksizlik”. Bu so‘z ham ot, ham masdardir. مَنـكُـو اَژُونْ ***mäŋgü ažun*** – “mangu dunyo” [ya’ni, u dunyo].

(Bilimli) shunday degan:

تُغُبْ تَقِى قَلْمَدِى مَنـكُـو اَرَنْ ***Tuγup taqï qalmadï mäŋgü erän,***
اَژُنْ كُنِى يُلْدُزِى تُتْجِى تُغَارْ ***Ažun küni yulduzï tutčï tuγar.***

Zamonni ta’riflab aytmoqda: “Tug‘ilgan inson mangu yashamaydi. Ammo dunyoni quyosh, yulduz mangu yoritadi, hech shikast topmaydi”.

ل ***l*** [harfi]:

[جَنـكْلِى ***čaŋlï***] جَنـكْلِى مَنـكْلِى ***čaŋlï maŋlï*** – bolalarning bir turli o‘yinlarining oti. Buning arabchasi اَلدَّوْداه dir.

قَنـكْلِى ***qaŋlï*** – ustiga og‘ir yuk ortilgan ikki g‘ildirakli arava.

قَنـكْلِى ***Qaŋlï*** – qipchoqlarning bir ulug‘ kishisining oti.

سَلنـكُو ***salŋu*** – mayda tosh otiladigan sopqon, tuppaq.

شُنـكْلَا ***šüŋlä*** (305b) – arg‘ular o‘lkasida bitadigan bir turli o‘simlik. O‘zagi olib tashlanib yeyiladi.

قَلِنـكُو ***qalïŋu*** – “suv yuziga chiqish; qalqish”; سُفْدَا قَلِنـكُولَا دِى ***suwda qalïŋuladï*** – “suv yuziga chiqdi, qalqidi”.

كُزْنـكُو ***közüŋü*** – “ko‘zgu, oyna”.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

يَنـكْقُو ***yaŋqu*** – “aks sado; tovushning qaytishi”. Maqolda (shunday kelgan): يَزْمَاسْ اَتِمْ يَغْمُرْ يَنـكِلْمَاسْ بِلْكَا يَنـكْقُو ***Yazmas atïm – yaγmur, yaŋïlmas bilgä – yaŋqu.*** Ma’nosi: “Yanglishmaydigan mergan yomg‘irdir, chunki yomg‘irning mo‘ljal o‘rni butun yer yuzidir; yer yuzi esa juda kengdir, bunday keng joyga otilgan narsa xato ketmaydi. Qaysidir yerga tegadi. Har narsada to‘g‘ri aytiladigan – bilag‘on aks sadodir. Chunki u sen nima desang, shunday qaytaradi”. Bu maqol bir ishda xato qilib, unga uzur aytadigan kishiga qarata aytiladi.

ل ***l*** [harfi]:

يَلِنـكُو ***yalïŋu*** – joriyalar o‘ynaydigan bir turli o‘yinning oti. Shundayki, arqonning ikki uchi bir daraxtga yoki ustunga bog‘lanadi, so‘ng ularning biri arqon o‘rtasiga o‘tiradi – oyoqlarini sakratib, ba’zan yuqori, ba’zan quyi tushib uchadi (arg‘imchoq).

ك ***k*** [harfi]:

يِنـجْكَا ***yinčkä*** – “har qanday ingichka narsa”; يِنـجْكَا تُرْقُو ***yinčkä torqu*** – “nafis ipak kiyimlik”; يِنـجْكَا قِيزْ ***yinčkä qïz*** – “nozik, o‘ynoqi qiz”; يِنـجْكَا كِشِى ***yinčkä kiši*** – “doimiy ibodat qiluvchi kishi”.

يَنـكَا ***yeŋä*** – “yanga”; u akaning xotini.

فَعَالُو *fa'ālū* qolipidagi so‘zlar

تَيَانكُو *tayaŋu* – bu so‘zning asl ma’nosi حَاجِبْ *ḥājib* – “vositachi, pardachi boshi” demakdir. Lekin حَاجِبْ *ḥājib* so‘zi ko‘p qo‘llana boshlagach, bu so‘z iste’moldan qoldi. Bu so‘z “suyanmoq; orqa qilmoq” ma’nosidagi **تَيَنْدِى *tayandï*** fe’lidan yasalgan. Haqiqatda, shoh ham hojiblarga ishonadi, xalq ham o‘z ahvolini shohga hojiblar orqali yetkazib, undan tegishli javob olib berishlariga ishonadi.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

[**يَنكِيلَا *yaŋïla***] **اُلْ اِيشِغْ يَنكِيلَا قِلْدِى *ol ïšïγ yaŋïla qïldï*** – “u ishni yangidan qildi; ikkinchi marta boshladi”.

Uch harflilar boblari tugadi.

BU TO‘RT HARFLILAR BOBLARIDIR

Har xil harakatlar bilan qo‘llanuvchi فَعْلَل *fa'lil,* فَنْعَل *fan'al* qolipidagi so‘zlar

ج *č* [harfi]:

تَنكُجْ *teŋüč* (306a) – yarim gaz balandligidagi har qanday narsa; qozon va boshqa narsalarning oyoqlari kabi.

سَنلَجْ *senläč* – findiq yong‘og‘i kattaligidagi bir turli shirin olma.

ر *r* [harfi]:

سُنكُقُرْ *suŋqur* – yirtqich qushlardan birining oti (shunqor). Bu **طُغْرِيلْ *ṭoγrïl*** dan kichikdir.

قُجنكَارْ *qočŋar* – “qo‘chqor”. Maqolda (shunday kelgan): **اِكّى قُجنكَارْ بَشِى بِيرْ اَشَجْتَا بِشْمَاسْ *İkki qočŋar bašï bir ešäčtä pïšmas.*** Ma’nosi: “Ikki qo‘chqorning boshi bir qozonda qaynamaydi”. Bu maqol bir shaharda ikki bek, ikki boshliq bir-biri bilan chiqisha olmasligi, birining u yerdan chiqib ketishi kerakligiga ishora qilib aytiladi.

قُجنكَارْ بَاشِى *Qočŋarbašï* – bir shaharning oti.

ش *š* [harfi]:

[**قَنكْدَشْ *qaŋdaš***] **قَنكْدَشْ قَدَشْ *qaŋdaš qadaš*** – “ota bir, ona boshqa aka-ukalar”. Maqolda (shunday kelgan): **قَنكْدَشْ قُمَا اُرُورْ اِكْدِشْ اُرُو تَرْتَارْ *Qaŋdaš quma urur, igdiš örü tartar.*** Ma’nosi: “Otasi bir bo‘lganlar oralaridagi adovat sababli bir-birlari bilan kelishmaydilar. Onasi bir bo‘lganlar oralaridagi do‘stlik sababli bir-birlariga yordam beradilar”.

غ *γ* [harfi]:

[مُنـكُلُغْ *muŋluγ*] مُنـكُلُغْ اَرْ *muŋluγ er* – “siqilgan, siqiqda qolgan kishi”.

ق *q* [harfi]:

[تَنـكْسُقْ *taŋsuq*] تَنـكْسُقْ نَانـكْ *taŋsuq näŋ* – “tansiq narsa”. Yaxshiligi uchun ahyon-ahyonda yeyiladigan taomni تَنـكْسُقْ اَشْ *taŋsuq aš* deyish ham shundandir.

تِرنـكَقْ *tirŋaq* – “tirnoq”.

قِرنـكَاقْ *qïrŋaq* – qassoblarning sotur degan asbobi kabi narsa; u bilan go‘sht va xamir kesiladi.

قَزُنـكُقْ *qazuŋuq* – “qoziq”; قُطب *Quṭb* yulduzini تَمُرْ قَزُنـكُقْ *Temür qazuŋuq* deyish ham shundandir; “Temir qoziq” demakdir. Chunki osmon uning tevaragida aylanadi.

[جِنـكْرَاقْ *čïŋraq*] جِنـكْرَاقْ اُونْ *čïŋraq ün* – “baland va tiniq ovoz”.

قَنـكْرَقْ *qaŋraq* – “engak osti, tumshuq”.

[قَنـكْسِقْ *qaŋsïq*] قَنـكْسِقْ اَتَا *qaŋsïq ata* – “o‘gay ota”; قَنـكْسِقْ اُغْلْ *qaŋsïq oγul* – “o‘gay o‘g‘il”.

قَلِنـكُقْ *qalïŋuq* – “bosh qasmog‘i”. Par va terilarga yopishib to‘plangan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

ك *k* [harfi]:

تُنـكْلُكْ *tüŋlük* – “tuynuk”.

جَنـكْلِكْ *čeŋlik* – sarmashiq deyilgan bir o‘simlik.

كُنـكْلَكْ *köŋläk* – “ko‘ylak”.

ل *l* [harfi]:

دَنـكَالْ *deŋäl* – arpa, bug‘doylar o‘rilgach, bog‘langan bog‘i.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

يَنـكَجْ *yeŋäč* – suvda bo‘ladigan kichik bir jonivor (o‘g‘uzcha).

س *s* [harfi]:

[يَلنـكُوسْ *yalŋus*] يَلنـكُوسْ اَرْ *yalŋus er* – “yolg‘iz kishi va boshqalar”. (306b) Maqolda (shunday kelgan): يَلنـكُوسْ قَازْ اُتْمَاسْ *Yalŋus qaz ötmäs.* Ma’nosi: “Yolg‘iz g‘oz tovush bermaydi, sayramaydi”. Bu maqol ishda boshqalarga yordam berishga undab aytiladi.

ق *q* [harfi]:

يَنـكْرَقْ *yaŋraq* – tog‘ning buriladigan va tagidan suv oqadigan joyi. U yerdan sakrab va shunga o‘xshash yo‘l bilan o‘tiladi.

[يَنـكْشَقْ *yaŋšaq*] يَنـكْشَقْ اَرْ *yaŋšaq er* – “ezma kishi”.

يَلنـكُقْ *Yalïŋuq* – ادمْ *Ādam* alayhis-salomning oti. Maqolda (shunday kelgan) يَلنـكُقْ اُغْلِى يُوقَاذُورْ اَدْكُو اَتِى قَلِيرْ *Yalïŋuq oγlï yoqaδur, eδgü atï qalïr.* Ma’nosi: “Odam bolasi o‘lib ketadi, agar yaxshilik qilgan bo‘lsa, yaxshi oti qoladi”. Bu maqol kishilarning yaxshilik qilishlari kerakligiga undab aytiladi.

يَلنـكُقْ *yalïŋuq* – “hamma odamlarga ham qo‘llanuvchi so‘z”.

(Bilimli) shunday degan:

يَغِى اَرُرْ يَلِنكُقِنَكْ نَانكِى تَقَّارْ *Yaγï erür yalïŋuqïŋ näŋï tawar,*
بِلِكْ اَرِى يَاغِسِنْ نَالِكْ سَقَّارْ *Bilig eri yaγïsïn nelig sewär.*

Aytmoqdaki: “Kishining moli-mulki o‘ziga yovdir. Aqlli kishi qanday qilib yovni sevsin?”.

يَلنكُقْ ***yalŋuq*** – “cho‘ri”; o‘g‘uzlar, qipchoq va sahroyilar tilida.

يَنكُلُقْ ***yaŋluq*** – “ishda, so‘zda, harakatda va boshqa shuning kabilarda yanglishish”.

Bu bo‘limning *γunna* lilari

تَبْجَنكْ ***tapčaŋ*** – dasturxon kengligidagi uch oyoqli narsa. Bog‘bon uning ustiga chiqib, ishkom – so‘ridagi uzumni uzadi.

جَلْبَنكْ ***čalpaŋ*** – “suyuq loy”.

ش *š* [harfi]:

[جِفشَانكْ ***čïwšaŋ***] جِفشَانكْ جَغِرْ ***čïwšaŋ čaγïr*** – “o‘tkir may; musallas”.

جَفشَانكْ ***čewšäŋ*** – “qo‘y yungini qirqadigan katta qaychi” (chigillar so‘zi).

جَفشَانكْ ***čawšaŋ*** – “ko‘zi yoshlanib turadigan odam”.

كَفسَنكْ ***kewsäŋ*** – “kapsan”. Xirmon yanchilgandan so‘ng kelgan kishiga beriladigan don hadyasi.

ل *l* [harfi]:

[سُقْلَانكْ ***suwlaŋ***] سُقْلَانكْ يِغَاجْ ***suwlaŋ yïγač*** – “butog‘i yo‘q daraxt”.

[سُقْلَانكْ ***suwlaŋ***] سُقْلَانكْ سَجْ ***suwlaŋ sač*** – “yoyiq soch”.

ق *q* [harfi]:

قَلْقَنكْ ***qalqaŋ*** – “qalqon”. Bu so‘zning قَلْقَنْ ***qalqan*** talaffuzi ham bor.

Bu bo‘limning *manqūṣ* turi

[تَيْلَنكْ ***taylaŋ***] تَيْلَنكْ اَرْ ***taylaŋ er*** – “nozik, ko‘rkam, xushbichim, rangi toza, kiyimlari toza kishi”. (307a) Bu so‘z ko‘pincha yigitlarga nisbatan qo‘llanadi: تَيْلَنكْ يِكِتْ ***taylaŋ yigit*** – “ko‘rkam, xushbichim yigit”.

Bu bo‘limning ج *čīm* lisi

غ *γ* [harfi]:

قَزْغَنجْ ***qazγanč*** – “ishlab topish, kasb, qozonch”.

ق *q* [harfi]:

قَرْقَنجْ ***qorqunč*** – “qo‘rquv”.

ك *g* [harfi]:

تَزْكِنجْ ***tezginč*** – “tog‘ va boshqalarning burilish joyi”. “Qing‘ir-qiyshiq yo‘l”ni تَزْكِنجْ يُولْ ***tezginč yol*** deyish shundan.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

يُرْكَنْجْ ***yörgänč*** – yo‘l va boshqalardagi qing‘ir-qiyshiqlik, **تَزْكِنْجْ** ***tezginč*** ma’nosida.

يُرْكَنْجْ ***yörgänč*** – daraxtlarga o‘ralib, uni quritadigan pechak o‘t.

فَعْلَلُو *fa’lalū* qolipidagi so‘zlar

غ ***ɣ*** [harfi]:

قُنْكُرَغُو ***qoŋraɣu*** – “qo‘ng‘iroq”.

قُنْكُرَغُو ***qoŋraɣu*** – “quloq ostidagi turtib chiqqan suyak”.

ك ***g*** [harfi]:

[**سَنْكُرَكُو** ***seŋrägü***] **اَتْ سَنْكُرَكُو** ***seŋrägü at*** – “boshida kasali bor ot”. Uning burnidan suv oqib turadi. Har vaqt burnidan suv (mishiq) oqib turadigan bolani ham **سَنْكُرَكُو** ***seŋrägü*** deb tahqirlaydilar, “mishiqi” demakdir.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

يِنْكْدَكُو ***yiŋdägü*** – bolani so‘kkanda **يِنْكْدَكُو** ***yiŋdägü*** deyiladi, “ey, mishiqi” demakdir.

Bu bo‘limning besh harflilari

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan **فَعَنْلَل** *fa’anlāl* qolipidagi so‘zlar

ق ***q*** [harfi]:

سِنْكَرْسُقْ ***sïŋarsuq*** – ikki kishi otga mingashganda, orqadagisining o‘tirgan o‘rni.

ك ***k*** [harfi]:

مُنْكُزْكَاكْ ***müŋüzgäk*** – “qo‘l qavarchig‘i”. Bu qo‘l mehnatidan paydo bo‘ladi.

Oxiri *yunna* li so‘zlar

قَرَنْغُو ***qaraŋɣu*** – “qorong‘i”.

[**قَزَنْغُو** ***qazaŋqu***] **بِبْ قَزَنْغُو بُلْدِى** ***ïp qazaŋqu boldï*** – “ip qattiq o‘ralashib, yechilmas darajada chigal bo‘ldi”.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

غ ***ɣ*** [harfi]:

[**يَنْكِلْغَنْ** ***yaŋïlyan***] **اَرْ يَنْكِلْغَنْ** ***yaŋïlyan er*** – “o‘tgan ishni unutadigan, adashadigan er”.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

تَـنـكِـلْـگُـجْ ***teŋilgüč*** – “do‘langich” deyilgan bir qush (o‘g‘uzcha).

ن ***n*** [harfi]:

تَـنـكِـلْـگُـونْ ***teŋilgün*** – o‘g‘uzlardan boshqa turkiy qabilalar tilida “do‘langich” deyilgan qush.

تَـنـكْـرِكَـانْ ***täŋrikän*** – “Tangriga topinuvchi bilimli kishi”; musulmon bo‘lmagan turklar tilida.

Bu bo‘limning olti harflilari

ق ***q*** [harfi]:

يَـنـكَـلْـدُرُقْ ***yaŋalduruq*** – yomg‘irdan, quyosh issig‘idan boshni saqlash uchun qo‘llanadigan yopinchiq. U namatdan tikiladi.

Bu bo‘limda ikki *sukun* yonma-yon kelmaydi. Chunki *γunna* ning o‘zi talaffuz uchun og‘irdir. Buning ustiga ikki *sukun* yonma-yon kelsa, so‘zlash mumkin bo‘lmaydigan darajada ikki og‘irlik paydo bo‘ladi. (307b) Shuning uchun so‘zlashda osonlik bo‘lsin deb, *γunna* ذلاقه harflari bilan qo‘shilib keladi. Bu yetarli emas. Ikki *sukun* bilan *γunna* faqat سُوزَنـكْـرِى كِشِى ***sözäŋri kiši*** iborasida kelgan bu so‘z “behuda so‘zlar so‘zlovchi kishi” demakdir. Bu iborada ذلاقه harflaridan ذ *δāl* bordir. Shu bilan talaffuz osonlashgan. Buni yaxshi bilib ol.

γunna li otlar bo‘limi tugadi.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU *ɣunna* li FE’LLAR KITOBIDIR

IKKI HARFLILAR BOBI

ت *t* [harfi]:

[**تِنـكْدِى *teŋdi***] **قُشْ تِنـكْدِى *quš teŋdi*** – “qush ko‘kka ko‘tarildi”. Ko‘kka qarata otilgan o‘q ko‘zga ko‘rinmay ketishiga ham shu so‘z qo‘llanib, **اُقْ تِنـكْدِى *oq teŋdi*** deyiladi (**تِنـكَارْ *teŋär*, تِنـكْمَاكْ *teŋmäk***).

[**تَنـكْدِى *taŋdï***] **اَلْ اَنِـكْ بَشِنْ تَنـكْدِى *ol anïŋ bašïn taŋdï*** – “u uning boshini ro‘mol bilan bog‘ladi”. Har qanday narsani arqon bilan siqib bog‘lashga ham shu so‘z qo‘llanadi (**تَنـكَارْ *taŋar*, تَنـكْمَاقْ *taŋmaq***).

[**تُنـكْدِى *toŋdï***] **سُوفْ تُنـكْدِى *suw toŋdï*** – “suv va boshqalar muzladi”. Yana: **اَرْ تُنـكْدِى *er toŋdï*** – “er sovuqdan yaxlab qoldi, o‘layozdi” (**تُنـكَارْ *toŋar*, تُنـكْمَاقْ *toŋmaq***).

س *s* [harfi]:

[**سِنـكْدِى *siŋdi***] **اَشْ سِنـكْدِى *aš siŋdi*** – “osh singdi, hazm bo‘ldi”; **سُوفْ يِرْكَا سِنـكْدِى *suw yerkä siŋdi*** – “suv yerga singib ketdi”.

[**سِنـكْدِى *siŋdi***] **سُوزْ كُنـكُلْكَا سِنـكْدِى *söz könülkä siŋdi*** – “so‘z ko‘ngilga joylashdi” (**سِنـكَارْ *siŋär*, سِنـكْمَاكْ *siŋmäk***).

[**سِنـكْدِى *siŋdi***] **اُرْدَكْ قَمِشْقَا سِنـكْدِى *ördäk qamïšqa siŋdi*** – “o‘rdak va boshqalar qamishzor orasiga kirdi, hattoki, u yerda yashirinib, ko‘rinmay qoldi”. Birov uy egasidan so‘ramay, uning uyiga yoki boshqa yerga kirib yashirinishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (**سِنـكَارْ *siŋär*, سِنـكْمَاكْ *siŋmäk***).

م *m* [harfi]:

[**مُنـكْدِى *möŋdi***] **اَتْ مُنـكْدِى *at möŋdi*** – “ot sarkashlik qildi va tepdi” (**مُنـكَارْ *möŋär*, مُنـكْمَاكْ *möŋmäk***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

[**يَنـكْدِى *yeŋdi***] **اَرْ اَنِى يَنـكْدِى *er anï yeŋdi*** (308a) – “kishi bir ishda uni yengdi”; o‘g‘uz va qipchoqlar so‘zi (**يَنـكَارْ *yeŋär*, يَنـكْمَاكْ *yeŋmäk***).

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعَلْدِى *fa’aldī* qolipidagi uch harfli so‘zlar bo‘limi

ر ***r*** [harfi]:

[تَنكُرْدِى ***teŋürdi***] اَرْ اُقْ تَنكُرْدِى ***er oq teŋürdi*** – “kishi o‘qni ko‘kka qarata otdi, hattoki, o‘q osmonda ko‘rinmay qoldi”. Qo‘ldan uchirilgan qushning ko‘zga ko‘rinmay ketishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَنكُرْ ***teŋürir***, تَنكُرْمَاكْ ***teŋürmäk***).

[سِنكِرْدِى ***siŋirdi***] اُلْ تَنجُو سِنكِرْدِى ***ol tanču siŋirdi*** – “u luqma va boshqa narsalarni yutdi, singdirdi” (سِنكُرِرْ ***siŋürir***, سِنكُرْمَاكْ ***siŋürmäk***).

[سِنكِرْدِى ***siŋirdi***] يَاغْنِى تَرِيكَا سِنكِرْدِى ***yaγnï terikä siŋirdi*** – “yog‘ni teriga singdirdi” (سِنكِرِرْ / سِنكُرِرْ ***siŋirir*** / ***siŋürir***, سِنكِرْمَاكْ / سِنكُرْمَاكْ ***siŋirmäk*** / ***siŋürmäk***).

[قُنكُرْدِى ***qoŋurdï***] اَرْ يِغَاجْ قُنكُرْدِى ***er yïγač qoŋurdï*** – “kishi daraxt va boshqalarni qo‘pordi”. Shamol bir narsani yiqitishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُنكُرُرْ ***qoŋurur***, قُنكُرْمَاقْ ***qoŋurmaq***).

[كِينكُرْدِى ***keŋürdi***] اَرْ اَفِنْ كِينكُرْدِى ***er ewin keŋürdi*** – “kishi uyini va boshqa joylarni kengaytirdi” (كِينكُرُرْ ***keŋürür***, كِينكُرْمَاكْ ***keŋürmäk***).

ز ***z*** [harfi]:

[تَنكِزْدِى ***taŋïzdï***] اَرْ اُبْكَاسِنْدَا تَنكِزْدِى ***er öpkäsindä taŋïzdï*** – “kishining jigari shishdi”. Bu achchiqdan shishishdir.

[تَنكِزْدِى ***taŋïzdï***] اُبْكَا تَنكِزْدِى ***öpkä taŋïzdï*** – “jigar shishib yetildi”. Bu jigar yaxshi yetilib pishishi uchun, uning ustiga ziravorlar va sirka solib pishirishdir (تَنكِزَرْ ***taŋïzar***, تَنكِزْمَاقْ ***taŋïzmaq***).

ش ***š*** [harfi]:

[تَنكَشْدِى ***teŋäšdi***] نَانكْ تَنكَشْدِى ***teŋäšdi näŋ*** – “bir narsa boshqa narsaga tenglashdi”.

(She’rda) shunday degan:

مَنِكْ بِلَا كِينكَشْدِى ***Meniŋ bilä keŋäšdi,***
بِلْكِى مَنكَا تَنكَشْدِى ***Bilgi meŋä teŋäšdi.***
اَرَنْ بِلَا سُنكُشْدِى ***Erän bilä sünüšdi,***
اَلب ٗلَارْ بَشِنْ اُلْ يُوَارْ ***Alplar bašïn ol yuvar.***

Jang haqida suhbat qilgan bir kishi to‘g‘risida aytmoqda: “Men bilan kengashdi; uning fikri mening fikrimga teng keldi. Jangda erlarni uzoqlarga uloqtirdi. Botirlarning boshlarini koptok singari dumalatdi” (تَنكَشُورْ ***teŋäšür***, تَنكَشْمَاكْ ***teŋäšmäk***).

[تُنكُشْدِى ***töŋüšdi***] اَرْ تُنكُشْدِى ***er töŋüšdi*** – “kishi kuchsizlanib boshini quyi soldi” (تُنكُشُورْ ***töŋüšür***, تُنكُشْمَاكْ ***töŋüšmäk***).

[تُنكُشْدِى ***toŋušdï***] تُنكُزْ تُنكُشْدِى ***toŋuz toŋušdï*** – “to‘ng‘iz qattiq tikilib, kishiga hamla qilishga intildi”. Biror ishni qabul qilishdan tortinib, bu ishni yoqtirmagani

uchun ish buyuruvchiga yomon tikilgan kishiga (308b) اَرْ تُنكُشْدِى ***er toŋušdï*** deyiladi (تُنكُشُورْ ***toŋušur***, تُنكُشْمَاقْ ***toŋušmaq***).

[سِنكِشْدِى ***siŋišdi***] سُوقلَارْ قَمُغْ سِنكِشْدِى ***suwlar qamuγ siŋišdi*** – “suvlar tamom singishdi”. Har bir suyuq moddaning boshqasiga singishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (سِنكِشُورْ ***siŋišür***, سِنكِشْمَاكْ ***siŋišmäk***).

[سُنكُشْدِى ***sünüšdi***] اِكّى اَرْ بِرْلَا سُنكُشْدِى ***ikki er birlä sünüšdi*** – “ikki er jangda urushdi, bir-birini surishga harakat qildi” (سُنكُشُورْ ***sünüšür***, سُنكُشْمَاكْ ***sünüšmäk***).

[كَينكَشْدِى ***keŋäšdi***] اُلْ مَنكَا كَينكَشْدِى ***ol meŋä keŋäšdi*** – “u men bilan kengashdi” (كَينكَاشُورْ ***keŋäšür***, كَينكَاشْمَاكْ ***keŋäšmäk***).

ق ***q*** [harfi]:

[اُنكُقْتِى ***uŋuqtï***] اَنِكْ يُوزِى اُنكُقْتِى ***anïŋ yüzi uŋuqtï*** – “kasallik va boshqadan uning yuzini ajin bosdi, unniqdi”.

[اُنكُقْتِى ***uŋuqtï***] بَرْجِنْ اُنكُقْتِى ***barčïn uŋuqtï*** – “shoyi kiyimlikning ohori ketdi, rangi aynidi” (اُنكُقَارْ ***uŋuqar***, اُنكُقْمَاقْ ***uŋuqmaq***). Shunga o‘xshash har qanday narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[مُنكُقْتِى ***muŋuqtï***] اَرْ مُنكُقْتِى ***er muŋuqtï*** – “kishi qiynaldi, qiyinchilikda qoldi” (مُنكُقَارْ ***muŋuqar***, مُنكُقْمَاقْ ***muŋuqmaq***).

ل ***l*** [harfi]:

[اُنكُلْدِى ***oŋuldï***] سُكَلْ اُنكُلْدِى ***sögäl oŋuldï*** – “kasal o‘ngaldi, tuzaldi”. Yana اِيشْ اُنكُلْدِى ***ïš oŋuldï*** – “chigal ish o‘ngaldi, tuzaldi” (اُنكُلُورْ ***oŋulur***, اُنكُلْمَاقْ ***oŋulmaq***).

[اُنكُلْدِى ***üŋüldi***] يِغَاچْ اُنكُلْدِى ***yïγač üŋüldi*** – “yog‘och va boshqa narsalar o‘yildi” (اُنكُلُورْ ***üŋülür***, اُنكُلْمَاكْ ***üŋülmäk***).

[تَنكِلْدِى ***taŋïldï***] تَنكِلْدِى بَاشْ ***taŋïldï baš*** – “kishi boshini tang‘idi”. Har qanday narsaning ip bilan bog‘lanishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (تَنكِلُورْ ***taŋïlur***, تَنكِلْمَاقْ ***taŋïlmaq***).

[تُنكُلْدِى ***tüŋüldi***] اَرْ اِيشْتِنْ تُنكُلْدِى ***er ïštïn tüŋüldi*** – “kishi ishdan umidini uzdi”.

ن ***n*** [harfi]:

[تَنكِنْدِى ***taŋïndï***] اَرْ بَشِنْ تَنكِنْدِى ***er bašïn taŋïndï*** – “kishi boshini o‘zi tang‘idi” (تَنكِنُورْ ***taŋïnur***, تَنكِنْمَاقْ ***taŋïnmaq***).

Muḍā’af lar bo‘limi

[تُنكُتّى ***töŋütti***] اَرْ بَشِنْ تُنكُتّى ***er bašïn töŋütti*** – “kishi va boshqa kimsa boshini egdi” (تُنكُتُورْ ***töŋütür***, تُنكُتْمَاكْ ***töŋütmäk***).

[تَنكتّى ***teŋitti***] اَرْ اُقِنْ تَنكِتّى ***er oqïn teŋitti*** – “er o‘qini ko‘kka qarata otdi” (تَنكِتُورْ ***teŋitür***, تَنكِتْمَاكْ ***teŋitmäk***).

[كِينكِتّى ***keŋitti***] اَرْ اَقِنْ كِينكِتّى ***er ewïn keŋitti*** – “kishi uyini va boshqa joylarni kengaytirdi” (كِينكِتُورْ ***keŋitür***, كِينكِتْمَاكْ ***keŋitmäk***).

To‘rt harflilar

ك ***k*** [harfi]:

[**كِينگَادِى** ***keŋädi***] **اُلْ مَنگَا كِينگَادِى** ***ol meŋä keŋädi*** – “u ishini men bilan kengashdi” (**كِينگَاْ** ***keŋär***, **كِينگَامَاكْ** ***keŋämäk***).

[**كِينگُودِى** ***keŋüdi***] **يِيرْ كِينگُودِى** ***yer keŋüdi*** – “yer va boshqa narsalar kengaydi” (309a) (**كِينگُورْ** ***keŋür***, **كِينگُومَاكْ** ***keŋümäk***).

Bu bo‘limning *lafīf* turi

[**يُنگَادِى** ***yoŋadï***] **اُلْ اَنِى بَگْگَا يُنگَادِى** ***ol anï begkä yoŋadï*** – “u uni bek va boshqa kimsaga chaqdi” (**يُنگَاْ** ***yoŋar***, **يُنگَامَاقْ** ***yoŋamaq***).

TO‘RT HARFLILAR BO‘LIMI

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَدِى *fa’laldī* qolipidagi so‘zlar

ر ***r*** [harfi]:

[**تُنگْتُرْدِى** ***tüŋtürdi*** (***teŋtürdi?***)] **اُلْ قُشْ تُنگْتُرْدِى** ***ol quš tüŋtürdi*** (***teŋtürdi?***) – “u qushni qo‘lidan uchirdi” (**تَنگْتُرُرْ** ***teŋtürür***, **تَنگْتُرْمَاكْ** ***teŋtürmäk***).

[**تُنگْدَرْدِى** ***töŋdärdi***] **اُلْ ايَاقْ تُنگْدَرْدِى** ***ol ayaq töŋdärdi*** – “u idish va boshqa narsalarni to‘nkardi” (**تُنگْدَرُرْ** ***töŋdärür***, **تُنگْدَرْمَاكْ** ***töŋdärmäk***).

[**سِنگْدُرْدِى** ***siŋdürdi***] **سُجِكْ اَشِغْ سِنگْدُرْدِى** ***sučig ašïγ siŋdürdi*** – “ichimlik (sharob) osh va boshqalarni singdirdi, hazm qildirdi” (**سِنگْدُرُرْ** ***siŋdürür***, **سِنگْدُرْمَاكْ** ***siŋdürmäk***). **اُلْ اَنِى اَفكَا سِنگْدُرْدِى** ***ol anï ewkä siŋdürdi*** – “u uni uyga singdirdi, yashirdi”.

[**مُنگْقَرْدِى** ***muŋqardï***] **اُلْ اَنِى مُنگْقَرْدِى** ***ol anï muŋqardï*** – “u uni iztirobga tushirdi, qiynoqqa soldi” (**مُنگْقَرُرْ** ***muŋqarur***, **مُنگْقَرْمَاقْ** ***muŋqarmaq***).

[**تَنگَرْدِى** ***teŋärdi***] **اُلْ بِيرْ نَانگْنِى بِيرْگَا تَنگَرْدِى** ***ol bir näŋnï birkä teŋärdi*** – “u bir narsani boshqa bir narsaga tenglashtirdi” (**تَنگَرُورْ** ***teŋärür***, **تَنگَرْمَاكْ** ***teŋärmäk***).

ش ***š*** [harfi]:

[**تَنگْلَشْدِى** ***teŋläšdi***] **بِيرْ نَانگْ بِيرْگَا تَنگْلَشْدِى** ***bir näŋ birkä teŋläšdi*** – “bir narsa boshqa bir narsaga tenglashdi” (**تَنگْلَشُورْ** ***teŋläšür***, **تَنگْلَشْمَاكْ** ***teŋläšmäk***).

[**تِنگْلَشْدِى** ***tïŋlašdï***] **اُلْ مَنِگْ بِرْلَا سُوزْ تِنگْلَشْدِى** ***ol meniŋ birlä söz tïŋlašdï*** – “u men bilan so‘z tinglashdi” (**تِنگْلَشْمَاقْ** ***tïŋlašur***, **تِنگْلَشْمَاقْ** ***tïŋlašmaq***).

[**تَنگْلَشْدِى** ***taŋlašdï***] **كِشِيلَارْ بُو اِيشِغْ تَنگْلَشْدِى** ***kišilär bu ïšïγ taŋlašdï*** – “kishilar bu ishga tang qolishdi” (**تَنگْلَشُورْ** ***taŋlašur***, **تَنگْلَشْمَاقْ** ***taŋlašmaq***).

(Shoir) shunday degan:

اُرْدِی بُلِتْ اِنـكْرَشُو	***Ördi bulït ïŋrašu,***
اَقِتِی اَقِنْ مُنـكْرَشُو	***Aqtï aqïn müŋräšü.***
قَلْدِی بُدُنْ تَنـكْلَشُو	***Qaldï bodun taŋlašu,***
كُكْرَرْ تَقِی مَنـكْرَشُورْ	***Kökrär taqï maŋrašur.***

Yomg‘irni ta’riflab aytmoqda: “Bulutlar ingrashib yuqori ko‘tarildi. Sel sharqirab oqdi. Bu holga kishilar tang qoldi. Bulutlar chaqmoq chaqar, momaqaldiroq guldurar edi”.

[مَنـكْدَشْدِی ***meŋdäšdi***] اِكّی اُرَاغْتْ مَنـكْدَشْدِی ***ikki urayut meŋdäšdi*** – “ikki xotin bir-birining sochini yuldi. Biri boshqasining sochini yoqaladi”. Bu *mufā’ala* yo‘li bilandir (مَنـكْدَشُورْ ***meŋdäšür***, مَنـكْدَشْمَاكْ ***meŋdäšmäk***).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ش ***š*** [harfi]: (309b)

[مُنـكَشْدِی / مِنـكَشْدِی ***miŋäšdi*** / ***müŋäšdi***] مُنـكَشْدِی / اُلْ مَنِـكْ بِرْلَا مِنـكَشْدِی ***ol meniŋ birlä miŋäšdi*** / ***müŋäšdi*** – “u men bilan birga otga va boshqa ulovga mingashdi” (مُنـكَشُورْ / مِنـكَشُورْ ***miŋäšür*** / ***müŋäšür***, مُنـكَشْمَاكْ / مِنـكَشْمَاكْ ***miŋäšmäk*** / ***müŋäšmäk***).

ن ***n*** [harfi]:

[كُنـكْرَنْدِی ***küŋrändi***] اَرْ اِيشْ قَا كُنـكْرَنْدِی ***er ïšqa küŋrändi*** – “kishi ishga bo‘yin bermay, o‘zicha bir narsalar deb g‘o‘ldiradi” (كُنـكْرَنُورْ ***küŋränür***, كُنـكْرَنْمَاكْ ***küŋränmäk***).

[كِينـكْرُنْدِی ***keŋründi***] اُلْ كِينـكْرُنْدِی ***ol keŋründi*** – “kishi biroz vaqt keng-to‘q yashadi” (كِينـكْرُنُورْ ***keŋrünür***, كِينـكْرُنْمَاكْ ***keŋrünmäk***).

[تَنـكْلَنْدِی ***teŋländi***] اَرْ اِيشِنْ تَنـكْلَنْدِی ***er ïšïn teŋländi*** – “kishi o‘zining ishiga chora topdi” (تَنـكْلَنُورْ ***teŋlänür***, تَنـكْلَنْمَاكْ ***teŋlänmäk***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

[يِنـكْشُرْدِی ***yiŋšürdi***] اُلْ اِسِـكْ سُوقِغْ تُمْلُغْقَا يِنـكْشُرْدِی ***ol isig suwuɣ tumluɣqa yiŋšürdi*** – “u issiq suvni sovuq suvga aralashtirdi; suv ilidi” (يِنـكْشُرُرْ / يَنـكْشُرُرْ ***yeŋšürür*** / ***yiŋšürür***, يِنـكْشُرْمَاكْ / يَنـكْشُرْمَاكْ ***yeŋšürmäk*** / ***yiŋšürmäk***).

[يَنـكْقُرْدِی ***yaŋqurdï***] اَرْ يَنـكْقُرْدِی ***er yaŋqurdï*** – “kishi g‘oyibdan bir ovoz eshitganday yoki bir narsa sezganday o‘ng-u chapga qaradi” (يَنـكْقُرَارْ ***yaŋqurar***, يَنـكْقُرْمَاقْ ***yaŋqurmaq***).

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعْلَادِی *fa’lādī* qolipidagi so‘zlar

د ***d*** [harfi]:

[سُنـكْدَادِی ***soŋdadï***] اُلْ يَغِينِی سُنـكْدَادِی ***ol yaɣïnï soŋdadï*** – “u yovni ta’qib qilib ketidan bordi”.

Har qanday narsani qo‘lga olish uchun uni ta’qib qilish, payiga tushishga ham shu so‘z qo‘llanadi (سُنْكْدَارْ ***soŋdar***, سُنْكْدَامَاقْ ***soŋdamaq***).

[مَنْكْدَادِى ***meŋdädi***] اُلْ اَنِكْ سَجِنْ مَنْكْدَادِى ***ol anïŋ sačïn meŋdädi*** – “u uning sochini yuldi”.

(Shoir) shunday degan:

اُدْمْ بَرِبْ سُنْكْدَدِى	***Uδum barïp soŋdadï,***
تَكِر تُرُبْ اَنْكْدِدِى	***Tegir turup aŋdïdï.***
سَجِنْ قَرَا مَنْكْدَدِى	***Sačïn qara meŋdädi,***
اَرْزُولَيُو اَرْ اَقَارْ	***Arzulayu er awar.***

Bir bekni yenggan er to‘g‘risida aytmoqda: “Ketidan poylab bordi, hiyla bilan qo‘lga tushirish uchun erlar uning tevaragiga to‘plandilar, o‘rab oldilar. Erlar uning sochlarini yuldilar”. Bu yerda xalqning to‘planishini chiyabo‘ri to‘planishiga o‘xshatilayotir. Chunki chiyabo‘rilar yolg‘iz odamga duch kelsa, uni o‘rab olib, tilka-pora qiladilar (مَنْكْدَارْ ***meŋdär***, مَنْكْدَامَاكْ ***meŋdämäk***).

ر ***r*** [harfi]:

[جِنْكْرَدِى ***jïŋradï***] اُلْ قُنْكْرَاغُو جِنْكْرَدِى ***ol qoŋraγu jïŋradï*** – “u qo‘ng‘iroqni jing‘irlatdi” (جِنْكْرَارْ ***jïŋrar***, جِنْكْرَامَاقْ ***jïŋramaq***). Bunga o‘xshash har qanday ovozga ham shu so‘z qo‘llanadi. (310a)

[سُنْكْرَادِى ***soŋradï***] اَرْ اِيشْقَا سُنْكْرَادِى ***er ïšqa soŋradï*** – “kishi ishga sarkashlik qildi, so‘zni qaytardi” (سُنْكْرَارْ ***soŋrar***, سُنْكْرَامَاقْ ***soŋramaq***).

[قُنْكْرَادِى ***qoŋradï***] اُغْلَانْ اُونِى قُنْكْرَادِى ***oγlan üni qoŋradï*** – “bolaning ovozi do‘rilladi”. Bu (ovoz o‘zgarishi) balog‘atga etganda bo‘ladi.

[قُنْكْرَادِى ***qoŋradï***] قُوىْ قُنْكْرَادِى ***qoy qoŋradï*** – “qo‘yning rangi qo‘ng‘ir bo‘ldi” (قُنْكْرَارْ ***qoŋrar***, قُنْكْرَامَاقْ ***qoŋramaq***).

[مَنْكْرَادِى ***maŋradï***] اَرْ مَنْكْرَادِى ***er maŋradï*** – “kishi va boshqalar baqirdi” (مَنْكْرَارْ ***maŋrar***, مَنْكْرَامَاقْ ***maŋramaq***).

[مُنْكْرَادِى ***müŋrädi***] اُوذْ مُنْكْرَادِى ***uδ müŋrädi*** – “ho‘kiz mo‘ngradi, mo‘radi” (مُنْكْرَارْ ***müŋrär***, مُنْكْرَامَاكْ ***müŋrämäk***).

ز ***z*** [harfi]:

[مَنْكْزَادِى ***meŋzädi***] بِيرْ نَانكْ بِيرْكَا مَنْكْزَادِى ***bir näŋ birkä meŋzädi*** – “bir narsa boshqa bir narsaga o‘xshadi” (مَنْكْزَارْ ***meŋzär***, مَنْكْزَامَاكْ ***meŋzämäk***).

ك ***g*** [harfi]:

[تَنْكْلَادِى ***taŋladï***] اَرْ اِيشِغْ تَنْكْلَادِى ***er ïšïγ taŋladï*** – “kishi ishga shoshirdi” (تَنْكْلَارْ ***taŋlar***, تَنْكْلَامَاقْ ***taŋlamaq***).

[تَنْكْلَادِى ***teŋlädi***] بِيرْ نَانكْ بِيرْكَا تَنْكْلَادِى ***bir näŋ birkä teŋlädi*** – “ikki narsani bir-biriga teng qildi” (تَنْكْلَارْ ***teŋlär***, تَنْكْلَامَاكْ ***teŋlämäk***).

[تِنْكْلَادِى ***tïŋladï***] اَرْ سُوزْ تِنْكْلَادِى ***er söz tïŋladï*** – “kishi so‘z tingladi, so‘zga quloq soldi” (تِنْكْلَارْ ***tïŋlar***, تِنْكْلَامَاقْ ***tïŋlamaq***).

[سَنـڭْلَادِى ***saŋladï***] قُشْ سَنـڭْلَادِى ***quš saŋladï*** – “qush tezakladi” (سَنـڭْلَارْ ***saŋlar***, سَنـڭْلَامَاقْ ***saŋlamaq***).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ر ***r*** [harfi]:

[يَنـڭْرَادِى ***yaŋradï***] اُلْ بِيرْ سُوزْ يَنـڭْرَادِى ***ol bir söz yaŋradï*** – “u yashirish kerak bo‘lgan so‘zni so‘zladi” (يَنـڭْرَارْ ***yaŋrar***, يَنـڭْرَامَاقْ ***yaŋramaq***).

ل ***l*** [harfi]:

[يُنـڭْلَادِى ***yuŋladï***] اُلْ قُويُنْ يُنـڭْلَادِى ***ol qoyun yuŋladï*** – “u qo‘yning yungini oldi” (يُنـڭْلَارْ ***yuŋlar***, يُنـڭْلَامَاقْ ***yuŋlamaq***).

Har xil harakatlar bilan qo‘llangan فَعِيلَادِى *fa’īlādī* qolipidagi so‘zlar

[تِنـكِيلَادِى ***tïŋïladï***] نَانـكْ تِنـكِيلَادِى ***näŋ tïŋïladï*** – “hovonchaga o‘xshash og‘ir bir narsa erga tushib, ting‘illagan ovoz chiqardi” (تِنـكِيلَارْ ***tïŋïlar***, تِنـكِيلَامَاقْ ***tïŋïlamaq***).

[جِنـكِيلَادِى / جَنـكِيلَادِى ***jaŋïladï*** / ***jïŋïladï***] اِتْ جِنـكِيلَادِى / جَنـكِيلَادِى ***it jaŋïladï*** / ***jïŋïladï*** – “it urishib, vangilladi”. Bu – odatdagi hurishdan boshqachadir. Birov haddan ortiq haqoratli so‘zlar so‘zlasa, تَلِمْ جَنـكِيلَادِنـكْ ***telim jaŋïladïŋ*** deyiladi, “ko‘p vangillading, baqirding” demakdir (جَنـكِيلَارْ ***jaŋïlar***, جَنـكِيلَامَاقْ ***jaŋïlamaq***).

[سُنـگُولَادِى ***süŋülädi***] اُلْ اَنِى سُنـگُولَادِى ***ol anï süŋülädi*** – “u unga nayza sanchdi” (سُنـگُولَارْ ***süŋülär***, سُنـگُولَامَاكْ ***söŋülämäk***).

[سِنـكِيلَادِى ***sïŋïladï***] اِتْ سِنـكِيلَادِى ***it sïŋïladï*** – “it sovuq va shunga o‘xshashlardan vang‘illadi”.

[سِنـكِيلَادِى ***sïŋïladï***] سُوقْ سِنـكِيلَادِى ***suw sïŋïladï*** (310b) – “suv sovudi, muz qotdi”.

[سِنـكِيلَادِى ***sïŋïladï***] قُلَاقِمْ سِنـكِيلَادِى ***qulaqïm sïŋïladï*** – “qulog‘im ching‘illadi” (سِنـكِيلَارْ ***sïŋïlar***, سِنـكِيلَامَاقْ ***sïŋïlamaq***).

[تُنـكَالَادِى ***toŋaladï***] اَرْ تُنـكَالَادِى ***er toŋaladï*** – “er botirlar va kuchlilar ishini qildi” (تُنـكَالَارْ ***toŋalar***, تُنـكَالَامَاقْ ***toŋalamaq***).

[مَنـكِيلَادِى ***meŋilädi***] اَرْ مَنـكِيلَادِى ***er meŋilädi*** – “kishi miya yedi”. To‘g‘risi shudir. So‘ng bu so‘z arablarning طوبى لك iborasi o‘rnida qo‘llangan. Bu “miya uchun qo‘y so‘yish kerak” degan ma’nodadir. Bu qo‘yning eng qimmatli a’zosidir. Birov hurmati uchun qo‘y so‘yilib, miya taqdim qilish eng buyuk hurmatdir. So‘ng bu so‘z oldida yaxshi taomi bor har bir kishi uchun ham ishlatiladigan bo‘lgan.

(She’rda) shunday degan:

اَنِی یَتِبْ سُنْکُولَادِی *Anï yetip süŋülädi,*
بَشِنْ یَنْدُرُو یَنْکِیلَادِی *Bašïn yanduru yaŋïladï.*
اَرَنْ بَایُبْ مُنْکِیلَادِی *Erän bayup müŋilädi,*
اَنِکْ اَلبِنْ قَرَا بُغْدِی *Anïŋ alpïn qara boγdï.*

Qo‘shinni enggan bir yerni ta’riflab aytmoqda: “U unga yetib oldi, nayza sanchdi, bitgan yarasini yana yangiladi, talagan mollardan kishilarga bo‘lib berdi. Yov botirlarini bo‘g‘di”.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ل ***l*** [harfi]:

[یَنْکِیلَادِی ***yaŋïladï***] اُلْ تُونِنْ یَنْکِیلَادِی ***ol tonïn yaŋïldï*** – “u kiyimi va boshqa narsalarni yangiladi” (یَنْکِیلَارْ ***yaŋïlar***, یَنْکِیلَامَاقْ ***yaŋïlamaq***).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

[یَشَانْکُرْدِی ***yašaŋurdï***] اَنِکْ کُوزِی یَشَانْکُرْدِی ***anïŋ közi yašaŋurdï*** – “uning ko‘zi kun tig‘idan yoshlandi” (یَشَانْکُرْ ***yašaŋur***, یَشَانْکُرْمَاقْ ***yašaŋurmaq***).

Bu bo‘limning besh harflilari

ر ***r*** [harfi]:

[تُنْکُرْلَنْدِی ***tüŋürländi***] اُلْ مَنْکَا تُنْکُرْلَنْدِی ***ol meŋä tüŋürländi*** – “u o‘zini menga quda hisobladi” (تُنْکُرْلَنُورْ ***tüŋürlänür***, تُنْکُرْلَنْمَاکْ ***tüŋürlänmäk***).

[سِنْکِرْلَنْدِی ***siŋirländi***] اَتْ سِنْکِرْلَنْدِی ***et siŋirländi*** – “go‘shtda pay ko‘paydi”. Yana: یَا سِنْکِرْلَنْدِی ***ya siŋirländi*** – “o‘qqa va boshqa narsalarga pay o‘raldi” (سِنْکِرْلَنُورْ ***siŋirlänür***, سِنْکِرْلَنْمَاکْ ***siŋirlänmäk***).

ز ***z*** [harfi]:

[مَنْکِزْلَنْدِی ***meŋizländi***] کِشِی مَنْکِزْلَنْدِی ***kiši meŋizländi*** – “kishining yuzi go‘zallashdi” (مَنْکِزْلَنُورْ ***meŋizlänür***, مَنْکِزْلَنْمَاکْ ***meŋizlänmäk***).

[مُنْکُزْلَنْدِی ***möŋüzländi***] قُزِی مُنْکُزْلَنْدِی ***qozï möŋüzländi*** – “qo‘zi va boshqalar shox chiqardi” (مُنْکُزْلَنُورْ ***möŋüzlänür***, مُنْکُزْلَنْمَاکْ ***möŋüzlänmäk***).

ک ***k*** [harfi]:

[سُنْکُوکْلَنْدِی ***söŋükländi***] اُغْلَانْ سُنْکُوکْلَنْدِی ***oγlan söŋükländi*** (311a) – “bola va boshqalarning kift suyaklari kattalashdi” (سُنْکُوکْلَنُورْ ***söŋüklänür***, سُنْکُوکْلَنْمَاکْ ***söŋüklänmäk***).

ل ***l*** [harfi]:

[کُنْکُلْنْدِی ***köŋülländi***] اَرْ اِیشْقَا کُنْکُلْنْدِی ***er ïšqa köŋülländi*** – “kishi ishga ko‘ngil berdi, ishlashga jazm qildi”. Bolaning aqli kirib, ziyraklashishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (کُنْکُلْنُورْ ***köŋüllänür***, کُنْکُلْنْمَاکْ ***köŋüllänmäk***).

[سِنگِلَنْدِی *siŋilländi*] اُلْ قِیزِغْ سِنگِلَنْدِی *ol qïzïγ siŋilländi* – “u qizni singil tutindi” (سِنگِلَنُور *siŋillänür*, سِنگِلَنْمَاک *siŋillänmäk*).

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

[تُنگُرْلَادِی *tüŋürladi*] اُلْ مَنِی تُنگُرْلَادِی *ol meni tüŋürladi* – “u meni o‘zining qudasiday hisobladi, qudasi deb bildi” (تُنگُرْلَارْ *tüŋürlär*, تُنگُرْلَامَاکْ *tüŋürlämäk*).

[سِنگَرْلَادِی *sïŋarladï*] اُلْ اَنِی سِنگَرْلَادِی *ol anï sïŋarladï* – “u uni yordamchisiz, yolg‘iz bo‘lgani uchun zaif hisobladi va undan o‘ch oldi” (سِنگَرْلَارْ *sïŋarlar*, سِنگَارْلَامَاقْ *sïŋarlamaq*).

[سِنگِرْلَادِی *siŋirladi*] اُلْ یَاسِنْ سِنگِرْلَادِی *ol yasïn siŋirladi* – “u yoyiga va boshqa narsalarga pay qopladi” (سِنگِرْلَارْ *siŋirlär*, سِنگِرْلَامَاکْ *siŋirlämäk*).

[کَنگِرْسِیدِی *keŋirsidi*] اَشَجْ کَنگِرْسِیدِی *ešäč keŋirsidi* – “qozon tagidagi narsa kuydi, hattoki, hidi chiqdi” (کَنگِرْسِیرْ *keŋirsir*, کَنگِرْسِیمَاکْ *keŋirsimäk*).

ک *g* [harfi]:

[بَلِنگْلَادِی *beliŋlädi*] اَرْ بَلِنگْلَادِی *er beliŋlädi* – “kishi o‘zida yuz bergan biror qo‘rquv sababli uyqusidan cho‘chib uyg‘ondi”. Hayvon to‘satdan hurkib sakrasa, qochsa ham bu so‘z qo‘llanadi (بَلِنگْلَارْ *beliŋlär*, بَلِنگْلَامَاکْ *beliŋlämäk*).

[تُلُنگْلَادِی *toluŋladï*] اُلْ قُلِنْ تُلُنگْلَادِی *ol qolïn toluŋladï* – “u qo‘lini engagiga, qulog‘ining ostlariga urdi” (تُلُنگْلَارْ *toluŋlar*, تُلُنگْلَامَاقْ *toluŋlamaq*).

Bu bo‘limning besh harflilari

ک *g* [harfi]:

[سَرِنگُولَادِی *seriŋülädi*] اَرْ سَرِنگُولَادِی *er seriŋülädi* – “kishi muz va boshqa narsalarga toydi” (سَرِنگُولَارْ *seriŋülär*, سَرِنگُولَامَاکْ *seriŋülämäk*).

[سَلِنگُولَادِی *salïŋuladï*] اُزُمْ سَلِنگُولَادِی *üzüm salïŋuladï* – “shiyponda uzum salanglagancha osilib turdi”. Har qanday narsa balandda osilib turishiga ham سَلِنگُولَادِی *salïŋuladï* so‘zi qo‘llanadi.

[سَلِنگُولَادِی *salïŋuladï*] اَرْ اِتِغْ سَلِنگُولَادِی *er ïtïγ salïŋuladï* – “kishi itni tosh bilan urdi” (سَلِنگُولَارْ *salïŋular*, سَلِنگُولَامَاقْ *salïŋulamaq*).

[قَلِنگُولَادِی *qalïŋuladï*] اَرْ سُقْدَا قَلِنگُولَادِی *er suwda qalïŋuladï* – “kishi suv ustida qalqib turdi”. Bu oyoqlarini, tizzalarini harakatlantirib, suv uzra turishdir (311b) (قَلِنگُولَارْ *qalïŋular*, قَلِنگُولَامَاقْ *qalïŋulamaq*).

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

ق *q* [harfi]:

[یَنگْقُولَادِی *yaŋquladï*] تَاغْ یَنگْقُولَادِی *taγ yaŋquladï* – “tog‘ aks sado berdi”. Bu sen chiqargan tovushning aksi aynan o‘zingga qaytib eshitilishidir.

[يَنـڤُولَادِى *yaŋquladï*] اَرْ قُلَاقِى يَنـڤُولَادِى *er qulaqï yaŋquladï* – “kishi qulog‘i biror tovush eshitganday yoki biror narsa sezganday o‘ngga, chapga qaradi” (يَنـڤُولَارْ *yaŋqular*, يَنـڤُولَامَاقْ *yaŋqulamaq*).

[يِلِنـكُولَادِى *yalïŋuladï*] قِيزْ يِلِنـكُولَادِى *qïz yalïŋuladï* – “qiz va boshqalar ikki tomoni ikki narsaga bog‘langan arqonda (arg‘imchoqda) uchdi” (يِلِنـكُولَارْ *yalïŋular*, يِلِنـكُولَامَاقْ *yalïŋulamaq*).

[يِنـجْكَالَادِى *yinčkäladi*] اُلْ نَانـكْنِى يِنـجْكَالَادِى *ol näŋni yinčkäladi* – “u narsani ingichka deb hisobladi”. Narsaning ingichkalashtirilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (يِنـجْكَالَارْ *yinčkälär*, يِنـجْكَالَامَاكْ *yinčkälämäk*).

To‘rt harflilarning *muḍā’af* turi

ك *k* [harfi]:

[تَرِنـكُلْنَدِى *teriŋükländi*] سُوفْ تَرِنـكُلْنَدِى *suw teriŋükländi* – “suv chuqurlashdi, teranlashdi” (تَرِنـكُلْنَلَنُورْ *teriŋüklänür*, تَرِنـكُلْنَمَاكْ *teriŋüklänmäk*).

[كُنـكُلْنَدِى *köŋläkländi*] اَرْ كُنـكُلْنَدِى *er köŋläkländi* – “kishi va boshqalar ko‘ylak kiydi” (كُنـكُلْنَلَنُورْ *köŋläklänür*, كُنـكُلْنَمَاكْ *köŋläklänmäk*).

ɣunna lilar bo‘limi tugadi. Tangriga hamd-u sanolar bo‘lsin.

بسم الله الرحمن الرحيم
[(So‘zimni) rahmli va mehribon Allohning nomi bilan (boshlayman)]

BU IKKI *sukun* YONMA-YON KELGAN SO‘ZLAR KITOBIDIR

OTLAR BOBI

اَلْدرُكْ *eldrük* – “uzarlik” deyilgan bir turli o‘simlik.

ن *n* [harfi]:

اُرتْمَانْ *örtmän* – “uy usti, tom”.

اُرتْگُونْ *örtgün* – “arpa, bug‘doy g‘arami”.

اَرسْلَانْ *arslan* – “arslon”. Hukmdorlar ham shu so‘z bilan ataladi. Maqolda (shunday kelgan): **اَلِينْ اَرسْلَانْ تُتَارْ كُوجِنْ سِجْغَانْ تُتْمَاسْ *Alïn arslan tutar, küčin sïčyan tutmas.*** Ma’nosi: “Hiyla bilan arslonni tutish mumkin bo‘lsa, kuch bilan sichqonni ham tutib bo‘lmaydi”. Bu maqol ishlarda zo‘ravonlik yo‘lini tutmay, yaxshi tadbir ko‘rishi lozim bo‘lgan kishilarga qarata qo‘llanadi.

م *m* [harfi]:

اُلْدُرُمْ *oldurum* – kishining o‘tiradigan yeri.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

تُرکْمَانْ *türkmän* – bular o‘g‘uzlardir. Bularga bunday ot berilishining bir hikoyasi bor: ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* سَمَرْقَنْدْ *Samarqand* dan o‘tib, turklar shahriga qarab yo‘l olgan vaqtlarda (312a) turklar shohi شُو *Šu* deb atalgan bir yosh kishi edi. U katta qo‘shin egasi edi. بَلَاسَاغُونْ *Balasayun* yaqinidagi شُو *Šu* shahrini o‘sha shoh fath qilgan edi. Bu shaharda har kuni beklar uchun uch yuz oltmish marta dovul chalinar edi. Kimdir undan: “ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* yaqin kelib qolibdi, biz u bilan urushamizmi, nima chora buyurasiz?” deb so‘radi.

Shoh شُو *Šu* esa ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* kelayotganini eshitib, uning o‘tganini bilib, xabar berish uchun خُجَنْدْ *Xojand* daryosi qirg‘og‘iga bir guruh ayg‘oqchilarni yubordi. Lekin ayg‘oqchilar yashirincha ketgan edilar. Shoh askarlaridan biror kishi ham (ularning ketganini) bilmas edi. Ulardan shohning ko‘ngli tinch edi. Shohga: “ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* bilan kurashamizmi?” – deb savol berganlarga o‘zining kumush hovuzini ko‘rsatib: “G‘oz, o‘rdaklarga qaranglar, ular suvga qanday sho‘ng‘ishadi”, – deydi. Shohning kumushdan yasalgan hovuzi bor edi. Safarga chiqishda shoh uni o‘zi bilan olib yurar edi.

Unga suv to‘ldirilgach, g‘oz, o‘rdaklar unga sho‘ng‘ishar edi. “U bilan urushamizmi, nima buyurasiz?” – degan savolga shoh bergan javob kishilarni o‘ylatib qo‘ydi. Ular bu gapdan: “Shoh u (*δu-l-qarnayn*) bilan urushmoqchi ham emas, biror yoqqa chekinmoqchi ham emas”, deb gumon qildilar. ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* yo‘lga tushadi. Ayg‘oqchilar uning otlanganini shohga kechasi kelib yetkazadilar. Shoh kechasiyoq dovul chaldiradi va Sharq tomonga yo‘l oladi. Shoh hozirliksiz yo‘lga chiqqanidan xalq orasida, biror ko‘ngilsizlik yuz bermasa edi, degan tashvish paydo bo‘ladi. Ulov topganlar shoshilinch otlanib, xoqon orqasidan yo‘lga tushadilar. Shoshganliklaridan unisi buning ulovini, bunisi uning ulovini olishar edi. Tong otguncha lashkargoh baland yer shakliga kiradi. U vaqtlarda طرَازْ *Ṭirāz,* اسْپِيجَابْ *Ispïjab,* بَلَاسَاغُونْ *Balasaγun* va boshqa shaharlar hali qurilmagan edi. Bularning hammasi keyin qurilgan. U yerdagilar chodir-o‘tovlarda yashovchi ko‘chmanchilar edi. Shoh va uning qo‘shinlari kech yo‘lga tushganda, ular bilan birga ketish uchun ulov topolmay, yigirma ikki kishi oilasi bilan u yerlarda qolib ketgan edi. (312b) Men ularning otlarini kitob boshida ko‘rsatganman. Ularning qoramollarining tamg‘alarini ham u erda bayon qilganman. Chunonchi, قِنِقْ ***qïnïq,*** سَلْغُرْ ***salγur*** va boshqalar shular jumlasidandir. Bu yigirma ikki oila ular orqasidan yayov borish yoki o‘z joylarida turaverish haqida maslahat qilayotgan edilar, bularning yoniga ikki kishi kelib qo‘shiladi. Oilalari ham ular bilan birga edi. Ular yuklarini orqalariga ortmog‘lab qo‘shin orqasidan borishardi. Ular charchab-xorib, og‘ir yuk ko‘tarishdan terga tushgan edilar. Bu ikki oila, qolib ketgan yigirma ikki oilaga yo‘liqqach, ular bilan so‘zlashdilar. Qo‘shin ketidan borish-bormaslik to‘g‘risida kengashadilar. Ikki oila ularga aytdi: “Ey odamlar, ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* yo‘lovchi kimsadir. U bir yerda turmaydi. Bizning yerlarda qolib ketmay, o‘tib ketadi. O‘z yerimizda o‘zimiz qolamiz”. Ular ikki oilaga: قَلْ اَچْ ***qal ač*** dedilar, bu “shu yerda turinglar, och qolinglar” demakdir. Keyinchalik ular خَلَچْ ***xalač*** deb atalganlar. Xalachlarning asli shudir. Ular ikki qabiladir.

ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* kelgach, bular unga idrokli kishilar bo‘lib ko‘rindi. Ularda turklarning nishonasi bor edi. Ulardan so‘ramasdanoq تُرکْمَان اندْ ***türkmānand*** dedi. Bular “turklarga o‘xshashdirlar” demakdir. Shundan so‘ng bu kungacha ana shu so‘z ularga ot bo‘lib qoldi. Aslida ular yigirma to‘rt qabiladir. Lekin xalachlardan ikki qabila ba’zi sabablardan o‘zlarini bulardan ayiradilar. Shuning uchun ular o‘g‘uzlardan hisoblanmaydi. To‘g‘risi shudir.

Shoh شُو *Šu* صِينْ *Ṣīn* ga yetdi. U ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* ning izidan tushgan edi. Uyg‘urlarga yaqin bir yerda شُو *Šu* ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* ga qo‘shin yubordi. Bu to‘qnashuv اَلْتُونْ قَانْ ***Altunqan*** deyilgan bir tog‘da bo‘lgan edi. Bu hozir اَلْتُونْ خَانْ ***Altunxan*** deb ataladigan tog‘ otidir. So‘ng ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* شُو *Šu* bilan sulh tuzdi. So‘ng uyg‘ur shaharlarini bunyod qildi. Bir qancha vaqt shu yerda turdi. ذوالقرنين *δu-l-qarnayn* qaytib ketgach, shoh شُو *Šu* بَلَاسَاغُونْ *Balasaγun* ga qadar olg‘a bosdi. (313a) O‘z nomi bilan atagan شُو *Šu*

shahrini qurdirdi. U yerga bir tilsim qurishga buyurdi. Hozirga kelib, laylak u tilsimli shahar ro‘parasida to‘xtab qoladi, undan o‘ta olmaydi. Tilsim hozirga qadar buzilmay saqlangan.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

ش *š* [harfi]:

سَنْدُرُشْ *sanduruš* – “tortishuv”. Maqolda (shunday kelgan): **سَبَبْدَا سَنْدُرُشْ بُلْسَا أُرتْكُونْ دَا اِرْتَشْ بُلْمَاسْ *Sabanda sanduruš bolsa, örtgündä irtäš bolmas.*** Ma’nosi: “Ekish davrida kengashilsa, xirmon vaqtida janjal, kelishmovchilik bo‘lmaydi”. Bu maqol, ish ustida oldin puxta tadbir ko‘rish zarur degan ma’noda qo‘llanadi.

ق *q* [harfi]:

بُرْسُمَاقْ *borsumaq* – kichik jonivor, “bo‘rsiq”. Bu so‘zni semizlarga nisbat berib qo‘llash mashhurdir. O‘g‘uzlar bu so‘zdan *mīm* ni tushirib, **بُرْسُقْ *borsuq*** shaklida qo‘llaydilar. Lekin o‘g‘uzlar boshqa turkiy qabilalar tilida **بَشَقْ *bašaq*** shaklida qo‘llanuvchi so‘zga *mīm* orttirib, **بَشْمَقْ *bašmaq*** shaklida qo‘llaydilar.

قِلْدِرُقْ *qïldïruq* – bug‘doy va boshqalar ichidagi qilsimon qism.

[**قُرُقْلُقْ / قُرُقْلِقْ اَرْ *qoruqluq* / *qoruqlïq***] **قُرُقْلُقْ / قُرُقْلِقْ اَرْ *qoruqluq* / *qoruqlïq er*** – “qo‘rqoq kishi”.

ل *l* [harfi]:

[**تُرتْكُلْ / تُرتْكِلْ اَفْ *törtkül* / *törtkil***] **تُرتْكُلْ / تُرتْكِلْ اَفْ *törtkül* / *törtkil ew*** – “to‘rtburchak uy”. Har bir to‘rtburchak narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

ن *n* [harfi]:

بَرسْغَانْ *Barsγan* – اَفْرَاسِيَابْ *Afrāsiyāb* o‘g‘lining oti. **بَرسْغَانْ *Barsγan*** shahrini u bino qilgan. مَحْمُودْ *Maḥmūd* ning otasi shu shahardandir.

Ba’zilar: “uyg‘ur beki otboqarining oti **بَرسْغَانْ *Barsγan*** edi; bu yerning havosi yaxshi bo‘lgani uchun, u otlarini shu yerda boqar edi. So‘ng shahar unga nisbat berilib, **بَرسْغَانْ *Barsγan*** deb ataldi” deydilar.

بُرسْلَانْ *burslan* – bu so‘zning asl ma’nosi “qoplon”, demakdir. Shuning uchun ham **اَرسْلَانْ بُرسْلَانْ *arslan-burslan*** tarzida qo‘llash bor, bu “arslon-qoplon” demakdir.

بُرسْلَانْ *Burslan* – erkak kishi otlaridan. **بُرسْلَانْ *Burslan*** so‘ziga (mustaqil so‘z emas) arslonning ergashma so‘zi deb qarash ham mumkin. Chunki ular **اَرسْلَانْ بُرسْلَانْ *arslan-burslan*** shaklida birga qo‘llanadi, **بُرسْلَانْ *burslan*** shaklida ayrim qo‘llanmaydi. Lekin to‘g‘rirog‘i – bu so‘z ergash so‘z bo‘lmay, “qoplon” ma’nosidagi mustaqil so‘zdir. Chunki ergash so‘z bo‘lganda, **بُرسْلَانْ *Burslan*** kishi oti bo‘lishi mumkin bo‘lmas edi. Chunonchi, arabchada ham حسن بسن deyilmay, faqat هذا شئ بسن shaklidagina qo‘llaydilar.

م *m* [harfi]:

[**قِرقْلُمْ *qïrqlum***] **قرقْلُمْ سَاغُو *qïrqlum saγu*** – bir turli o‘lchov asbobi.

Bu bo‘limining olti harflilari

[اِكِرجْكُونْ ***ikirčkün***] اِكِرجْكُونْ اِيشْ ***ikirčkün iš*** – “ishni qilish-qilmaslik ustida qat’iyatsizlik; (313b) ishda ikkilanib qolish”. Chunonchi, كُنكُلُمْ اِكِرجْكُونْ بُلْدِى ***köŋlüm ikirčkün boldï*** – “qilish-qilmaslik ustida ko‘nglim ikkilanib qoldi”.

كُكُرجْكُونْ ***kögürčgün*** – “kaptar”.

Bu bo‘limning fe’llari

ق ***q*** [harfi]:

[اَلقْتِى ***alqtï***] اُلْ تَوَارِنْ اَلقْتِى ***ol tavarïn alqtï*** – “u molini va boshqa narsalarini yo‘q qilib yubordi” (اَلقَارْ ***alqar***, اَلقْمَاقْ ***alqmaq***). Bilgilki, ikki *sukun* li harfi yonma-yon kelgan so‘zlar ozdir. Chunki ikki *sukun* li so‘zlarning yonma-yon kelishi faqatgina ذلاقه harflari deyilgan uch harf – *nūn, lām, rā* lar bilan qo‘shilib kelgandagina mumkin. Bu hol ism va fe’llarda keng qo‘llanuvchi qoidadir.

Ikki *sukun* lilarning yonma-yon kelishi faqat ana shu harflarga bog‘liqdir. Bu harflar talaffuzi og‘ir so‘zlarni yengillatadi. Ikki harf bir harf holiga o‘tadi. Shuning uchun shoirlar bularni bir harf hisoblab, bir harf qatorida qo‘llashlari mumkin (vaznga zarar yetmaydi).

ک ***k*** [harfi]:

[اُركْتِى ***ürkti***] قُوىْ اُركْتِى ***qoy ürkti*** – “qo‘y kechasi yoki kunduzi chiyabo‘ri yoki shunga o‘xshashlardan hurkdi”; بُدُونْ اُركْتِى ***bodun ürkti*** – “xalq yov kelishidan cho‘chidi. Kishilar orasida vahima paydo bo‘ldi” (اُرْكَارْ ***ürkär***, اُرْكَامَاكْ ***ürkämäk***).

[اِركْتِى ***irkti***] اَرْ تَوَارْ اِركْتِى ***er tavar irkti*** – “kishi mol va boshqalarni to‘pladi” (اِرْكَارْ ***irkär***, اِرْكَامَاكْ ***irkämäk***).

ج ***č*** [harfi]:

[سُرْجِدِى ***sürčidi***] اَتْ سُرْجِدِى ***at sürčidi*** – “ot va boshqa hayvonlar cho‘chidi” (سُرْجَارْ ***sürčär***, سُرْجَمَاكْ ***sürčmäk***).

[سَنْجْدِى ***sančdï***] اُلْ اَنِى بِجَكِنْ سَنْجْدِى ***ol anï pičäkin sančdï*** – “u uni pichoq va boshqa narsalar bilan sanchdi”.

[سَنْجْدِى ***sančdï***] بَكْ يَغِيسِنْ سَنْجْدِى ***beg yayïsïn sančdï*** – “bek yovini sanchdi, yengdi” (سَنْجَارْ ***sančar***, سَنْجْمَاقْ ***sančmaq***).

س ***s*** [harfi]:

[كُرسْدِى ***kürsdi***] يِكِتْ قَانكَا كُرسْدِى ***yigit qaŋa kürsdi*** – “yigit qonga to‘ldi, semirdi. Hattoki, unda erkaklik alomatlari ko‘rinib qoldi”. Bu so‘zning asl ma’nosi xamir va shunga o‘xshash narsalarni idishga to‘ldirib solgach, biroz vaqt o‘tishi bilan, agar xamir yaxshi bo‘lsa, kepchib idishdan oshib-toshishi ma’nosidadir (كُرْسَارْ ***kürsär***, كُرْسَامَاكْ ***kürsämäk***). Buning asli “takabbur, mag‘rur kishi” ma’nosida bo‘lib, ismga سَادِى -*sädi* qo‘shib yasalgan fe’ldir. Ma’nosini yuqorida bayon qilganmiz (كُرْسَارْ ***kürsär***, كُرْسَامَاكْ ***kürsämäk***). (314a)

ق *q* [harfi]:

[سَرقْدِى ***sarqdï***] سُوفْ سَرقْدِى ***suw sarqdï*** – “suv sirqidi”. Har qanday suyuq narsaning boshqa bir narsadan tomchilab sizishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

[سَرقْدِى ***sarqdï***] اَذاقِمْ سَرقْدِى ***aδaqïm sarqdï*** – “ulovni minishdan charchab, oyog‘im uyushdi” (سَرْقَارْ ***sarqar***, سَرقْمَاقْ ***sarqmaq***).

[قُرقْدِى ***qorqdï***] قُلْ تَنكرِيدَنْ قُرقْدِى ***qul täŋridän qorqdï*** – “banda ulug‘ va aziz Tangridan qo‘rqdi”. Har kimning biror narsadan qo‘rqishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (قُرْقَارْ ***qorqar***, قُرقْمَاقْ ***qorqmaq***).

Maqolda (shunday kelgan): قَرِى اُكُوزْ بَلدُوقَا قُرقْمَاسْ ***Qarï öküz balduqa qorqmas.*** Ma’nosi: “Qari ho‘kiz boltadan qo‘rqmaydi”. Chunki u odatlangandir.

(Bilimli) shunday degan:

قُرقْمَا اَنكَرْ اُتْرُو تُرُبْ تَكْرَا يَرَا	***Qorqma aŋar otru turup tegrä yara,***
قُبْسَا اَنِكْ اَلبَغْتِنْ اَنْدَنْ يَرَا	***Qapsa anïŋ alpaγutïn andan yar-a.***

Aytmoqdaki: “Yovdan qo‘rqma, yuzma-yuz chiq, unga tik qara, botirlarini uloqtirib tashla, qog‘ozni burdalagandek burdalab tashla”.

[قِرقْدِى ***qïrqdï***] اُلْ قُوِيُنْ قِرقْدِى ***ol qoyun qïrqdï*** – “u qo‘y va boshqa hayvonlarning yungini qirqdi” (قِرقَارْ ***qïrqar***, قِرقْمَاقْ ***qïrqmaq***).

ك *k* [harfi]:

[سِلكْدِى ***silkdi***] اَرْ يِغَاجْ سِلكْدِى ***er yïγač silkdi*** – “kishi daraxtni va boshqa narsalarni silkitdi” (سِلْكَارْ ***silkär***, سِلكْمَاكْ ***silkmäk***).

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

[اَنْدْغَرْدِى ***andγardï***] اُلْ اَنِى اَنْدْغَرْدِى ***ol anï andγardï*** – “u unga qasam ichirdi” (اَنْدْغَرْ ***andγar***, اَنْدْغَرْمَاقْ ***andγarmaq***).

[كُنْدْكَرْدِى ***köndgärdi***] اُلْ يِغَاجْ كُنْدْكَرْدِى ***ol yïγač köndgärdi*** – “u yog‘ochni va boshqa narsalarni tiklab qo‘ydi”.

[كُنْدْكَرْدِى ***köndgärdi***] اُغْرِينِى كُنْدْكَرْدِى ***oγrïnï köndgärdi*** – “o‘g‘rini yumshatib iqror qildirdi”.

[كُنْدْكَرْدِى ***köndgärdi***] اُلْ اَنِى يُولْقَا كُنْدْكَرْدِى ***ol anï yolqa köndgärdi*** – “u uni yo‘lga va boshqa narsalarga boshladi” (كُنْدْكُرْ ***köndgürür***, كُنْدْكُرْمَاكْ ***köndgürmäk***).

ن *n* [harfi]:

[كِرتْكُنْدِى ***kirtkündi***] قُلْ تَنكْرِيكَا كِرتْكُنْدِى ***qul täŋrikä kirtkündi*** – “banda Tangri taoloning birligiga iqror bo‘ldi va Xudoning Payg‘ambariga ham ishonch bildirdi, tasdiqladi”. Kishi aytganiga yoki qilgan ishiga iqror bo‘lsa ham, shu so‘z qo‘llanadi (كِرتْكُنُورْ ***kirtkünür***, كِرتْكُنْمَاكْ ***kirtkünmäk***).

Bu bo‘limning buyrug‘i besh harflidir. Chunonchi, يِغَاجْ كُنْدْكُرْ ***yïγač köndgür*** (“yog‘ochni tikla”), تَنكْرِيكَا كِرتْكُنْ ***täŋrikä kirtkün*** (314b) (“Tangri taologa ishon”) gaplaridagi buyruqlar kabi.

Bu fe’llardan ikkinchi bir ishlovchiga o‘tuvchi o‘timli fe’l yasash uchun o‘zakka bir *tā* harfi orttirish usuli qo‘llanadi. U vaqt fe’lda ikki *sukun* li harfning yonma-yon kelish holati paydo bo‘ladi. Chunonchi, **اُلْ نَانكْ بَرگْلَتّى *ol näŋ berklätti*** – “u narsani saqlashga buyurdi”. Yana: **اُلْ يِغَاچْ كُنْدْكُرتّى *ol yïγač köndgürtti*** – “u yog‘ochni va boshqa narsalarni tiklashga buyurdi” kabi.

Bu bo‘limda o‘timli fe’l yasovchi ت *tā* va غ *γayn tur,* تُرْ va غُرْ *-γur,* ك *kāf* va كُرْ *-gür* qo‘shimchalari qo‘llanmaydi. Chunonchi, **بَرْتُرْدِى *barturdï*** – “bordirdi”; **اُلْ اَنِى تُدْغُرْدِى *ol anï todγurdï*** – “u uni to‘ydirdi”; **تَنكْرِى اُلْكْ تِرْكُرْدِى *täŋrï ölüg tirgürdi*** – “Xudo o‘likni tiriltirdi” gaplaridagi تُرْ *-tur,* غُرْ *-γur,* كُرْ *-kür, -gür* qo‘shimchalari kabi.

Bu bo‘limning *muḍā’af* lari

ك *g* [harfi]:

تِرسْكَاكْ / تَرسْكَاكْ *tirsgäk / tersgäk* – ko‘z qovog‘ining chetlariga, ya’ni kiprik chiqadigan joylariga chiqadigan mayda-mayda chiqiq, husnbuzar.

تِرسْكَاكْ *tirsgäk* – “tirsak”.

Muḍā’af ismlarda o‘rtasi *sukun* li so‘z bo‘lmaydi. Faqat مَكّه *makkah* so‘zigina o‘rtasi *sukun* lidir. Bu so‘zda ikki *kāf* bor. Makkaga صِينْ *Ṣīn* dan keltiriladigan bir turli siyohdir. Turkcha yozuvlar (الكتابة التركيه) (uyg‘ur xati – *Q.S.*) shu (siyoh) bilan yoziladi. So‘z oxiridagi ه *hā* ning asli *alif* dir.

O‘rtasi *sukun* li so‘zlar to‘rt harfdan ortiq harfli so‘zlarda bo‘lmaydi.

Bu bo‘limning fe’llari

ت *t* [harfi]:

[**اَرتّى *arttï***] **اَرتّى نَانكْ *arttï näŋ*** – “narsa ortdi”; **اَنِكْ اَيَاگُوسِى اَرتّى *anïŋ eyägüsi arttï*** – “uning qovurg‘asi ortdi”. Bu kibrlanish, qarshilik qilishdan kinoyadir (**اَرْتَارْ *artar,* اَرتْمَاقْ *artmaq***).

[**اُرتّى *örtti***] **اُلْ اُرتّى نَانكْنِى *ol örtti näŋni*** – “u narsani bekitdi” (**اُرْتَارْ *örtär,* اُرتْمَاكْ *örtmäk***).

[**اَرتّى *ertti***] **اُدْلَكْ اَرتّى *öδläk ertti*** – “zamon o‘tdi”; **اَرْ اَفِندَنْ اَرتّى *er ewindän ertti*** – “kishi uyidan o‘tdi”. Bir erdan o‘tgan har bir kishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (**اَرْتَارْ *ertär,* اَرتْمَاكْ *ertmäk***).

ت *t* [harfi]:

[**بَرتّى *bertti***] **اُلْ اَنِكْ اَلكِنْ بَرتّى *ol anïŋ eligin bertti*** – “u uning qo‘lini mayib qildi”. Har qanday narsani birov bilmay turib yaralashi yoki sindirishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (**بَرْتَارْ *bertär,* بَرتْمَاكْ *bertmäk***).

[**تُرتّى *türtti***] **كُونكَا يَاغْ تُرتّى *köŋä yaγ türtti*** – “ko‘nga yog‘ surtdi”. Har bir narsani surtishga ham shu so‘z qo‘llanadi (**تُرْتَارْ *türtär,* تُرتْمَاكْ *türtmäk***).

[تَرتّى ***tarttï***] اُلْ يَرْمَاقْ تَرتّى ***ol yarmaq tarttï*** – “u tangani va boshqa narsalarni tortdi, o‘lchadi”.

[تَرتّى ***tarttï***] اُلْ يِبْ تَرتّى ***ol yïp tarttï*** (315a) – “u ipni va boshqa narsalarni cho‘zdi”.

[تَرتّى ***tarttï***] اُلْ تَرْتِنْ تَرتّى ***ol tartïn tarttï*** – “u taom tortdi, keltirib qo‘ydi”. Har narsaning tortilishiga [tarqatilishiga] ham shu so‘z qo‘llanadi (تَرْتَارْ ***tartar***, تَرتْمَاقْ ***tartmaq***).

[تَرتّى ***tarttï***] اُلْ اتُوكِنْ تَرتّى ***ol etükin tarttï*** – “u etigini tortdi, yechdi”. Maqolda (shunday kelgan): سُوفْ كُرْمَاكِنْجَا اَتُكْ تَرتْمَا ***Suw körmägінčä etük tartma.*** Ma’nosi: “Suvni ko‘rmaguncha etikni echma”. Bu maqol ishlarda mulohazali bo‘lishga undalgan kishilarga qarata qo‘llanadi.

[جَرتّى ***čertti***] اُلْ جَرتّى نَانكْنِى ***ol čertti näŋni*** – “u narsani qutqardi, bo‘shatdi”.

[جَرتّى ***čertti***] اُلْ يَرْمَاقْ اُوجِنْ جَرتّى ***ol yarmaq učïn čertti*** – “u tanganing uchini sindirdi”. Tevaragi sindirilgan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi (جَرْتَارْ ***čertär***, جَرتْمَاكْ ***čertmäk***).

[سُرتّى ***sürtti***] اُلْ اَتْمَاكّا يَاغْ سُرتّى ***ol etmäkkä yaγ sürtti*** – “u nonga yog‘ surtdi”.

[سُرتّى ***sürtti***] اُلْ يَرْمَاقِغْ تَاشْقَا سُرتّى ***ol yarmaqïγ tašqa sürtti*** – “u tangani va boshqa narsalarni toshga surtdi” (سُرْتَارْ ***sürtär***, سُرتْمَاكْ ***sürtmäk***).

[كَرتّى ***kertti***] اُلْ يِغَاجْ كَرتّى ***ol yïγač kertti*** – “u yog‘och va boshqa narsalarni kerti”; اُلْ قُلِنْ بُيْنِى كَرتّى ***ol qulïn boynï kertti*** – “u qulining bo‘ynini kertdi”. Bu qulni xo‘rlash, tahqirlashdan kinoyadir (كَرْتَارْ ***kertär***, كَرتْمَاكْ ***kertmäk***).

Bu bo‘limning buyruq shakli uch harflidir. Chunonchi, اَرتْ ***ert*** – “o‘tgil”, كَرتْ ***kert*** – “kert” kabi. Bu fe’llar aslida uch harfli bo‘lib, talaffuzda ikki harflidir. Har xil sarflanish (fe’l turlari) yuqorida bayon qilingan qoidaga muvofiq tuziladi.

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

[اُبُرتّمْ ***öpürttüm***] مَنْ اَنكَرْ سُوفْ اُبُرتّمْ ***men aŋar suw öpürttüm*** – “men unga suv va boshqa narsalarni xo‘plattirdim, ichirtirdim” (اُبُرْتُرْمَنْ ***öpürtür-men***, اُبُرتْمَاكْ ***öpürtmäk***).

[اَسُرتّى ***esürtti***] سُجِكْ اَنِى اَسُرتّى ***sučig anï esürtti*** – “may uni mast qildi” (اَسُرْتُرْ ***esürtür***, اَسُرتْمَاكْ ***esürtmäk***).

[اِسِرتّى ***ïsïrttï***] اُلْ اَنكَرْ اَتْمَاكْ اِسِرتّى ***ol aŋar etmäk ïsïrttï*** – “u unga non va boshqa narsalar tishlatdi”. Boshqa bir narsa tishlagan kishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (اِسِرْتُورْ ***ïsïrtür***, اِسِرتْمَاقْ ***ïsïrtmaq***).

[اِكِرتّى ***igirtti***] اُلْ كُنكَا يِبْ اِكِرتّى ***ol küŋkä yïp igirtti*** – “u joriyasiga ip yigirtdi”. Qo‘rg‘onni qo‘lga olish uchun diqqat bilan kuzatishga buyurilsa ham shu so‘z qo‘llanadi (اِكِرْتُورْ ***igirtür***, اِكِرتْمَاكْ ***igirtmäk***).

[اَلَرتّى ***alarttï***] اُلْ اَنكَرْ كُوزِنْ اَلَرتّى ***ol aŋar közin alarttï*** – “u unga ko‘zini yomon olaytirdi” (اَلَرْتُرْ ***alartur***, اَلَرتْمَاقْ ***alartmaq***).

[اِلَرتّى *ilärtti*] اُلْ اَنِکْ کُوزِینکَا بِیرْ نَانک اِلَرتّى *ol anïŋ köziŋä bir näŋ ilärtti* – “u uning ko‘ziga bir narsa xayolini ilashtirdi” (اِلَرْتُرْ *ilärtür*, اِلَرتْمَاکْ *ilärtmäk*). (315b)

[اَمُرتّى *amurttï*] اُلْ بَکْ اُبْکَاسِنْ اَمُرتّى *ol beg öpkäsin amurttï* – “u bekning g‘azabini tinchlatdi”. Toyni o‘ynoqiligidan tinchitib, yuvoshlatilishiga, (yoki) qozon qaynog‘ini pasaytirib tinchitilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi.

(Shoir) shunday degan:

تُسُنْ مُنُبْ سَکْرِتْسُنْ	*Tosun münüp sekritsün,*
اَسِزْلِکِنْ اَمُرتْسُنْ	*Esizlikin amurtsun.*
اِتْقَا کَیِکْ قَیْتَرتْسُنْ	*İtqa keyik qaytartsun,*
تُتْمِشْ / تِیتْمِشْ سَانِی امْنَلِمْ	*Tutmïš / tïtmïš sanï umnalïm.*

Bir yigitni ta’riflab aytmoqda: “U minilmagan bir (o‘ynoqi) toyni minsin, uni rom qilsin, toyni minib ov qilsin, ov hayvonlarini biz tomonga qaytarish uchun itlarni ovga solsin. So‘ng biz ovni qo‘lga kiritgan hisoblab, uning go‘shtini yeyishga umid qilaylik”.

ر *r* [harfi]:

[جُبَرتّى *čubarttï*] اُغْرِی اَرِکْ جُبَرتّى *oyrï erig čubarttï* – “o‘g‘ri kishining molini shilib olib, uni yalang‘och qoldirdi” (جُبَرْتُرْ *čubartur*, جُبَرْتْمَاقْ *čubartmaq*).

Bu so‘z جُبَرْتُوسِیدِی *čubartu(r)sïdï* shaklida ham qo‘llanadi.

[جِبِرتّى *čïbïrttï*] اُلْ اُغْلِنْ جِبِرتّى *ol oylïn čïbïrttï* – “u o‘g‘lini ho‘l chiviq, novda bilan urdi” (جِبِرْتُورْ *čïbïrtur*, جِبِرْتْمَاقْ *čïbïrtmaq*).

[قُبُرتّى *qopurttï*] اُلْ اَرِکْ اُرْنِنْدِنْ قُبُرتّى *ol erig ornïndïn qopurttï* – “u kishini va boshqa kimsani o‘rnidan qo‘zg‘atdi” (قُبُرْتُورْ *qopurtur*, قُبُرْتْمَاقْ *qopurtmaq*).

[قَبَرتّى *qabarttï*] اَتُکْ اَذاقِغْ قَبَرتّى *etük aδaqïγ qabarttï* – “etik oyoqni qabartib shishirdi”. Bu shish qabarib turish, demakdir (قَبَرْتُرُرْ *qabarturur*, قَبَرْتْمَاقْ *qabartmaq*).

[قَبَرتّى *qabarttï*] اُلْ سُوزُکْ قَبَرتّى *ol sözüg qabarttï* – “u so‘zni bo‘rttirdi”. So‘zni semirtiradigan, bo‘rttiradigan, oshirib-toshiradigan kishiga قَبَرْتْغَانْ *qabartγan* deyiladi.

[کُبُرتّى *köpürttï*] اُوتْ اَشَجْنِی کُبُرتّى *ot ešični köpürttï* – “o‘t qozonni ko‘pirtirdi”. Bir narsaning lab, suv va shunga o‘xshashlarni ko‘pirtirishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (کُبُرْتُرْ *köpürtür*, کُبُرْتْمَاکْ *köpürtmäk*).

[قَتَرتّى / قَتِرتّى *qatïrttï* / *qatarttï*] اَتغْ قَتِرتّى / قَتَرتّى *atïγ qatïrttï* / *qatarttï* – “otni qaytardi, qaytarishga buyurdi” (قَتِرْتُرْ *qatïrtur*, قَتِرْتْمَاقْ *qatïrtmaq*).

[قَجُرتّى *qačurttï*] اُلْ اَنِی قَجُرتّى *ol anï qačurttï* – “u uni qochirtdi” (قَجُرْتُرْ *qačurtur*, قَجُرْتْمَاقْ *qačurtmaq*).

[قَذِرتّى *qaδïrtti*] اُلْ اَنِنکْ بُیْنِنْ قَذِرتّى *ol anïŋ boynïn qaδïrttï* – “u uning bo‘ynini qayirdi” (قَذِرتُرْ *qaδïrtur*, قَذِرْتْمَاقْ *qaδïrtmaq*).

[قَرَرتّی ***qararttï***] اُلْ اَنِکْ تُونِنْ قَرَرتّی ***ol anïŋ tonïn qararttï*** – “u uning kiyimini va boshqa narsalarni qoraytirdi” (قَرَرتُرْ ***qararturˌ*** قَرَرتْمَاقْ ***qarartmaq***).

[قِزَرتّی ***qïzararttï***] اُلْ قِزَرتّی نَانکْنِی ***ol qïzararttï näŋni*** – “u narsani qizartdi” (قِزَرْتُرْ ***qïzartur***ˌ قِزَرتْمَاقْ ***qïzartmaq***).

[سَقْرتّی ***sawurttï***] اُلْ اَنکَرْ تَرِغْ سَقْرتّی ***ol aŋar tarïγ sawurttï*** – “u unga bug‘doy va boshqa narsalarni sovurtirdi” (316a) (سَقْرْتُرْ ***sawurturˌ*** سَقْرتْمَاقْ ***sawurtmaq***).

[سَکِرتّی ***sekirtti***] اُلْ اَتْ سَکِرتّی ***ol at sekirtti*** – “u ot va boshqalarni sakratdi” (سَکِرْتُرْ ***sekirtürˌ*** سَکِرتْمَاکْ ***sekirtmäk***).

[کَجُرتّی ***kečürtti***] اُلْ اَنکَرْ سُوفْ کَجُرتّی ***ol aŋar suw kečürtti*** – “u uni suvdan va boshqa narsalardan kechtirdi”. Birov boshqa kimsaning qilmishini kechirishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (کَجُرْتُرْ ***kečürtürˌ*** کَجُرتْمَاکْ ***kečürtmäk***).

Bu bobning buyrug‘i to‘rt harflidir. Chunonchi, سَکِرتْ ***sekirt*** – “sakrat” kabi. Lekin bu so‘z talaffuzda uch harfli kabidir. *İsmi fāil* (ishlovchini anglatuvchi sifatdosh), *ismi maf’ūl* (ish bajarilganini anglatuvchi sifatdosh), joy, payt va qurol otlari yuqoridagi boblarda bayon qilingan qoidalarga muvofiq yasaladi. Bularda qoida bir xil, o‘zgarmaydi.

Bu bo‘limning *miṣāl* turi

غ ***γ*** [harfi]:

يَلْتْغَا ***yaltγa*** – “masxara qilish”; اُلْ اَنِی يَلْتْغَا قِلْدِی ***ol anï yaltγa qïldï*** – “u uni mazax qildi, masxara qildi”.

ق ***q*** [harfi]:

[يَلدُرُقْ / يَلدُرِقْ ***yalduruq*** / ***yaldurïq***] يَلدُرِقْ نَانکْ ***yalduruq*** / ***yaldurïq näŋ*** – “jilvalangan lagan va boshqa yaltiroq narsalar”. Sersavlat xotinlarga يَلدُرُقْ / يَلدُرِقْ اَشْلَارْ ***yaludruq*** / ***yaldurïq ešlär*** deyiladi, “ziynatli, yasamol xotin” demakdir. Bu so‘zlarning birinchi harfi *yā* ni o‘tru bilan qo‘llash ham bor.

يَرِيمَاقْ ***yarïmaq*** – “tanga (pul)”; uyg‘urlar so‘zi. Bu so‘zning يَرْمَاقْ ***yarmaq*** shakli ham bor.

Bu bo‘limning *muḍā’af* turi

يَرسْغَاغ ***yarsγaγ*** – tog‘ va boshqa yerlardagi tirg‘anchiq joy.

Bu bo‘limning boshqa turi

يُلْدُرغَا ***yuldurγa*** – qilichday tik o‘sadigan bo‘ydor bir o‘simlik. Ba’zan bu so‘zni يُلْدُرْغَا ***yuldurγa*** (*?*) shaklida ham talaffuz qilinadi.

ک ***g*** [harfi]:

ايَا يَرسْکُو ***aya-yersgü*** – “ko‘rshapalak” (chigilcha). Ba’zilar يَرِسَا ***yarïsa*** deydilar.

Oxirgi harfi illatli ([*a*], [*ä*] li) so‘zlar

غ *γ* [harfi]:

يُرنجْغَا *yorïnčγa* – “yo‘ng‘ichqa”.

[**يِلنجْغَا *yïlïnčγa***] **اَشْ يِلنجْغَا *yïlïnčγa aš*** – “yog‘i, tuzi, ta’mi bo‘lmagan osh”.

يُمُرتْغَا *yumurtγa* – tovuq va boshqa qushlar tuxumi. Odam va boshqa hayvonlar tumrug‘iga ham **يُمُرتْغَا *yumurtγa*** deyiladi.

[**يِمِرتْغَا *yïmïrtγa***] **يَاشْ يِمِرتْغَا *yïmïrtγa yaš*** – ismaloq, gulkaram kabi har qanday tomirsiz ko‘k o‘t. Har qanday novdali narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi. “Bodring”ga **يُمِرتْغَا *yumïrtγa*** deyiladi.

Bu bo‘limning fe’llari

د *d* [harfi]:

[**يَاذْتِى *yaδtï***] **اُلْ يَاذْتِى نَانـكْنِى *ol yaδtï näŋni*** – “u bir narsani yozdi”. Chunonchi, dasturxonga nonni yozish kabi (**يَذْارْ *yaδar*, يَذْمَاقْ *yaδmaq***).

[**يُوذْتِى *yoδtï***] **اُلْ تُبْرَاقْ يُوزِنْدِنْ يُوذْتِى *ol tupraq yüzindin yoδtï*** – “u yuzidan tuproqni artib, tozaladi”. (316b)

[**يُوذْتِى *yoδtï***] ***ol bitig yoδtï*** – “u xat va boshqa narsalarni qirib o‘chirdi” (**يُوذْارْ *yoδar*, يُوذْمَاقْ *yoδmaq***).

[**يُوذْتِى *yüδti***] **اُلْ يُكْ يُوذْتِى *ol yük yüδti*** – “u yukni yukladi, ortdi” (**يُوذْارْ *yüδär*, يُوذْمَاكْ *yüδmäk***).

[**ييذْتِى *yiδti***] **اُلْ يَتْكَاكْ ييذْتِى *ol yetgäk yiδti*** – “u bo‘g‘cha va to‘rvani to‘ldirdi” (**ييذْارْ *yiδär*, ييذْمَاكْ *yiδmäk***).

Bu bo‘limning uch harflilari

ت *t* [harfi]:

[**يُرْتّى *yorttï***] **اَتلغْ يُرْتّى *atlïγ yorttï*** – “otliq otni tez choptirdi, yo‘rttirdi” (**يُرْتُورْ *yortur*, يُرتْمَاقْ *yortmaq***). Bu so‘zning **يُرتَار *yortar*** shakli ham bor.

[**يِرتّى *yïrttï***] **اُلْ تُونِنْ يِرتّى *ol tonïn yïrttï*** – “u kiyimini va boshqa narsalarni yirtdi” (**يِرْتَارْ *yïrtar*, يِرتْمَاقْ *yïrtmaq***).

ج *č* [harfi]:

[**يَنْجْدِى *yenčdi***] **اُلْ قَاغُونُغْ يَنْجْدِى *ol qayunuγ yenčdi*** – “u qovunni va boshqa narsalarni oyogi ostida ezdi va yanchdi”. Biror narsani yanchib, bo‘laklarining bir-biriga qo‘shib yuborilishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (**يَنْجَارْ *yenčär*, يَنْجْمَاكْ *yenčmäk***).

ق *q* [harfi]:

[**يَلقْدِى *yalqdï***] **اُلْ يَاغْقَا يَلقْدِى *ol yaγqa yalqdï*** – “unga yog‘ og‘irlik qildi va undan bo‘kdi” (**يَلْقَارْ *yalqar*, يَلقْمَاقْ *yalqmaq***).

Maqolda (shunday kelgan): **يَلقْسَا يَمَا يَاغْ اَدْكُو كُويْسَا يَمَا كُونْ اَدْكُو *Yalqsa yemä yaγ eδgü, küysä yemä kün eδgü.*** Ma’nosi: “Kishi yog‘dan bo‘kib, lohaslansa ham u

totsiz, tuzsiz taomdan yaxshidir. Quyosh kishini kuydirsa ham, tuman va bulutli havodan yaxshidir”.

[يُلْقْدِى *yulqdï*] تَاشْ اَنِنكْ اَذاقِنْ يُلْقْدِى ***taš anïŋ aδaqïn yulqdï*** – “tosh uning oyog‘ini shilib yubordi”. Har qanday narsani boshqa narsa shilib yuborishiga ham shu so‘z qo‘llanadi (يُلْقَارْ ***yulqar***, يُلْقْمَاقْ ***yulqmaq***).

[يُلْقْدِى *yulqdï*] اُلْ اَنْدِنْ نَانكْ يُلْقْدِى ***ol andïn näŋ yulqdï*** – “u undan narsani yuldi, yulib oldi”. Buning ma’nosi – “u undan foydalandi, qo‘lga kiritdi” demakdir (يُلْقَارْ ***yulqar***, يُلْقْمَاقْ ***yulqmaq***).

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

ت ***t*** [harfi]:

[يَبُرتّى *yapurttï*] اُلْ سُوزُكْ يَبُرتّى ***ol sözüg yapurttï*** – “u so‘zni va ishni yashirib ketishga buyurdi”.

[يَبُرتّى *yapurttï*] اُلْ يِيرِكْ يَبُرتّى ***ol yerig yapurttï*** – “u yerni tekislatdi”. Har qanday sochilgan narsaning bo‘laklarini bir-biriga qo‘shishga ham shu so‘z qo‘llanadi (يَبُرْتُرْ ***yapurtur***, يَبُرتْمَاقْ ***yapurtmaq***).

[يَشَرتّى *yašarttï*] يَغْمُرْ اُتُغْ يَشَرتّى ***yaγmur otuγ yašarttï*** – “yomg‘ir o‘tlarni yashnatdi” (يَشَرتُرْ ***yašartur***, يَشَرتْمَاقْ ***yašartmaq***).

[يُغُرتّى *yuγurttï*] اُلْ اَنكَرْ اُونْ يُغُرتّى ***ol aŋar un yuγurttï*** – “u unga unni xamir qildirdi” (317a) (يُغُرتُرْ ***yuγurtur***, يُغُرتْمَاقْ ***yuγurtmaq***).

[يُكُرتّى *yügürtti*] اُلْ اَنى يُكُرتّى ***ol anï yügürtti*** – “u uni yugurtirdi” (يُكُرْتُرْ ***yügürtür***, يُكُرتْمَاكْ ***yügürtmäk***).

Bu bo‘limning boshqa bir turi

[يَلدْرِنْدِى / يَلدْرَنْدِى *yaldrandï* / *yaldrïndï*] يَلدْرِنْدِى / يَلدْرَنْدِى كُونْ ***kün yaldrandï*** / ***yaldrïndï*** – “kun ozgina yoritdi”. Chaqmoq, olov va shunga o‘xshashlarning ozgina yaltirashiga ham يَلْدْرَدِى / يَلْدْرَدِى ***yaldradï*** / ***yaldïradï*** deyiladi (يَلْدِرِيرْ / يَلْدِرَرْ ***yaldïrïr*** / ***yaldïrar***, يَلْدِرِيمَاقْ ***yaldïrïmaq***).

[يِلْدِرَدِى *yïldïradï*] قِلِجْ يِلْدِرَدِى ***qïlïč yïldïradï*** – “qilich yaltiradi”. Butun javohirlarga ham shu so‘z qo‘llanadi. Birinchi harf *yā* li bo‘lsa, “nur”, *yā* (o‘tru) li bo‘lsa, “javohir yaltirashi” ma’nosidadir (يِلْدِرِيرْ / يِلْدِرَرْ ***yïldïrïr*** / ***yïldïrar***, يِلْدِرَمَاقْ ***yïldïramaq***).

Bu bo‘limning *manqūṣ* turi

ج ***č*** [harfi]:

اِينجْ ***inč*** – “tinch”; shundan olinib, كُنكُلْ اِينجْمُو ***köŋül inčmü?*** deyiladi, bu “ko‘ngil tinchmi?” demakdir.

اِينجْ كَنْدْ ***Inč kend*** – مُقَنّع *Muqanna’* fuqarosi yashagan kentning oti. Keyinchalik xarobaga aylangan.

كَانچْ ***gänč*** – “bola”. Bu so‘z hayvonlarning kichigiga ham qo‘llanadi.

كَانچْ لِيُو ***kenčliyü*** – xonlarning to‘ylarida yoki bayramlarida tashlash uchun o‘ttiz gaz balandligida qilingan minoraday dasturxon.

Bu bo‘limning to‘rt harflilari

ر ***r*** [harfi]:

قَاڤْغَرْ ***qawγar*** – za’faron rangidagi ipak kiyimlik.

غ ***γ*** [harfi]:

[بَارْلِغْ ***barlïγ***] اَرْ بَارْلِغْ ***barlïγ er*** – “badavlat, boy kishi”.

ك ***k*** [harfi]:

اُوزْلُكْ ***özlük*** – “o‘zlik; o‘z”. Kishining o‘ziga xoslangan har narsaga ham shu so‘z qo‘llanadi.

Bu bo‘limning fe’llari

ذ ***δ*** [harfi]:

[اِيذتِى ***ïδtï***] اُلْ مَنكَا اَتْ اِيذتِى ***ol meŋä at ïδtï*** – “u menga ot va boshqa narsalarni yubordi”; تَنكْرِى يَلَاوَچْ اِيذتِى ***teŋri yalavač ïδtï*** – “Tangri taolo payg‘ambarni elchi qilib yubordi” (اِيذُورْ ***ïδur***, اِيذمَاقْ ***ïδmaq***).

[ييذتِى ***yeδtï***] اَنِكْ كُوزِى ييذتِى ***anïŋ közi yeδti*** – “uning ko‘zi zaiflashdi” (ييذارْ ***yeδär***, ييذمَاكْ ***yeδmäk***).

[بُوذتِى ***buδtï***] اَرْ تُمُلْغَقَا بُوذتِى ***er tumluγqa buδtï*** – “kishi sovuqqa qotdi, sovuqdan o‘ldi” (بُوذارْ ***buδar***, بُوذمَاقْ ***buδmaq***).

[تُوذتِى ***toδtï***] مَنِكْ قَرِنْ تُوذتِى ***meniŋ qarïn toδtï*** – “mening qornim to‘ydi” (تُوذارْ ***toδar***, تُوذمَاقْ ***toδmaq***). Ikki tilda تُوذُورْ ***toδur*** shakli ham bor.

[تِيذتِى ***tïδtï***] اُلْ اَنِى اَشْقَا تِيذتِى ***ol anï ašqa tïδtï*** – “u uni oshdan tiydi”. Har qanday narsadan tiyilishga ham shu so‘z qo‘llanadi (تِيذارْ ***tïδar***, تِيذمَاقْ ***tïδmaq***).

[سُوذتِى ***suδtï***] اَرْ سُوذتِى ***er suδtï*** – “kishi va boshqalar tupurdi” (سُوذارْ ***suδar***, سُوذمَاقْ ***suδmaq***). (317b)

Maqolda (shunday kelgan): كُوكَا سُوذسَا يُوزْكَا تُشُورْ ***Kökkä suδsa, yüzkä tüšür.*** Ma’nosi: “Kimki ko‘kka tupursa, yuziga tushadi”. Bu maqol martabasi ulug‘ odamlar bilan yovlashuvchi kishiga nisbatan aytiladi. Ya’ni dushmanlik va uning jafosi tupuk yuziga tushgandek, o‘zingga qaytadi, demakdir.

[سِيذتِى ***siδti***] اَرْ سِيذتِى ***er siδti*** – “kishi va boshqalar siydi” (سِيذارْ ***siδär***, سِيذمَاكْ ***siδmäk***).

[قَاذتِى ***qaδtï***] اَرْ قَاذتِى ***er qaδtï*** – “kishi qor bo‘ronidan o‘ldi” (قَاذارْ ***qaδar***, قَاذمَاقْ ***qaδmaq***).

[قُوذتِى ***qoδtï***] اُلْ اِيشِنْ قُوذتِى ***ol ïšïn qoδtï*** – “u ishini qo‘yib ketdi”. Har narsani qo‘yish, tashlashga ham bu so‘z qo‘llanadi (قُوذُورْ ***qoδur***, قُوذمَاقْ ***qoδmaq***).

(Ko‘pni ko‘rgan) shunday degan:

أُغْلُمْ سَنكَا قُدُرْمَنْ اَرْدَمْ اُكُتْ خُمَارُو	***Oγlum seŋä qoδur-men erdäm, ögüt, xumaru,***
بِلْكَا اَرِكْ بُلُبْ سَنْ بَقّلْ اَنِنكْ تَبَارُو	***Bilgä erig bolup sen baqqïl anïŋ taparu.***

Aytmoqdaki: “O‘g‘lim, senga meros qilib ezgu xulq, odobni qoldiraman. Agar ilmli, aqlli kishilarga yo‘liqsang, ularga yaqin bo‘l, ulardan o‘rgan”.

ك *k* [harfi]:

[**كَاذتِى *keδti***] **اَرْ تُونْ كَاذتِى *er ton keδti*** – “kishi va boshqalar kiyim kiydi” (**كَاذَارْ *keδär*, كَاذمَاكْ *keδmäk***).

[**كُوذتِى *küδti***] **اُلْ مَنِى كُوذتِى *ol meni küδti*** – “u meni kutdi”.

[**كُوذتِى *küδti***] **اُلْ قُوىْ كُوذتِى *ol qoy küδti*** – “u qo‘yni va boshqalarni kuzatdi, qo‘riqladi” (**كُوذَارْ *küδär*, كُوذمَاكْ *küδmäk***).

TO‘RT HARFLILAR

ب *b* [harfi]:

زَانْبِى *zanbï* – chigirtkaga o‘xshash bir hasharot.

[**زَانْبِى *zanbï***] **زَانْبِى اَرتْ *Zanbï art*** – قُجنغَارْ بَاشِى *Qočŋarbašï* bilan بَلَاسَاغُونْ *Balasayun* orasidagi bir dara.

ج *č* [harfi]:

سَاقْجِى *sawčï* – “elchi”; ulug‘ Tangrining elchilaridan biri. Bu so‘zning asli “xabar, maqol va so‘z” ma’nosidagi **سَاقْ *saw*** dan olingan.

سَاقْجِى *sawčï* – “sovchi; qudalar orasida xabar yetkazuvchi elchi” (o‘g‘uzcha).

ژ *ž* [harfi]:

كَارْژُو *keržü* – “g‘o‘lak”. Loydan yumshoq qilib yasalib, kamonga qo‘yib otiladi. Bu so‘z ikki maxraj orasida talaffuz qilinadigan ژ *žā* lidir.

ج *č* [harfi]:

سَالْجِى *salčï* – “oshpaz”. Aslida bu so‘z shu ma’noda bo‘lsa-da, keyinchalik uning pichog‘iga nisbatan ham qo‘llangan, **سَالْجِى بِجَاكْ *salčï pičäk*** deyilgani kabi.

جَاقْلِى *čawlï* – olov uchun yoqiladigan yong‘oq po‘chog‘i, shaftoli danaklari.

جُوقْلِى *čowlï* – tutmoch suziladigan chovli. Bu ho‘l novdalardan cho‘mich shaklida to‘qilib yasaladi.

كَاقْلِى *kewli* – “daryo og‘zi”. (318a)

Bu uch so‘z kanjakchadir.

Bu bo‘limning boshqa bir turi

غ *γ* [harfi]:

[**اَسُرتْغُو *asurtγu***] **اَسُرتْغُو اُتْ *asurtγu ot*** – “aksirtiradigan o‘simlik”.

اَغْرَتْغُو *ayratγu* – yanchilgan bug‘doydan qilingan ichimlik (bo‘za).

ق *q* [harfi]:

[اَسُرتُغُقْ ***asurtyuq***] اَسُرتُغُقْ اَرْ ***asurtyuq er*** – “aqlli, ziyrak kishi”.

ک *k* [harfi]:

اَمِرجْکَا ***emirčkä*** – “quloq kemirchagi”.

[قَلْدُرْغَا ***qaldurγa***] قَلْدُرْغَا تُونْ ***qaldurγa ton*** – “shaldiroq to‘n”. Qog‘oz va boshqa shaldiraydigan narsaga ham bu so‘z qo‘llanadi.

Bu bobning fe’llari

ت *t* [harfi]:

[اَرتْلَادِی ***artladï***] اُلْ اَنِی اَرتْلَادِی ***ol anï artladï*** – “u uni shapaloq bilan urdi” (اَرتْلَارْ ***artlar***, اَرتْلَامَاقْ ***artlamaq***).

ق *q* [harfi]:

[اِرقْلَادِی ***ïrqladï***] قَامْ اِرقْلَادِی ***qam ïrqladï*** – “folbin biror narsa haqida fol ochdi” (اِرقْلَارْ ***ïrqlar***, اِرقْلَامَاقْ ***ïrqlamaq***).

ک *k* [harfi]:

[اَرکْلَادِی ***erklädi***] اُلْ يِيرِکْ اَرکْلَادِی ***ol yerig erklädi*** – “u yerni va boshqa joylarni bosdi” (اَرکْلَارْ ***erklär***, اَرکْلَامَاکْ ***erklämäk***). Bu so‘zning اَکْلَادِی ***eklädi*** shakli ham bor.

[اُرکْلَادِی ***örkladï***] اُلْ اَتِغْ اُرکْلَادِی ***ol atïγ örkladï*** – “u otni molxonaga qattiq bog‘ladi” (اُرکْلَارْ ***örklär***, اُرکْلَامَاکْ ***örklämäk***).

[تُرْبْلَادِی ***turbladï***] اَرْ تُرْبْلَادِی نَانکْنِی ***er turbladï näŋni*** – “kishi narsaning bichimini yasadi” (تُرْبْلَارْ ***turblar***, تُرْبْلَامَاقْ ***turblamaq***).

[سُرِيلَادِی ***sürilädi***] اُلْ اَرنِکَاکْ بِلَا سُرِيلَادِی ***ol erŋäk bilä sürilädi*** – “u barmoqlari bilan qur’a tashlab, toleini sinadi” (سُرِيلَارْ ***sürilär***, سُرِيلَامَاکْ ***sürilämäk***).

[کُرِيلَادِی ***körilädi***] اُلْ قُزِی کُرِيلَادِی ***ol qozï körilädï*** – “u qo‘ra (yerda kovlangan chuqur)da qo‘zini pishirdi” (کُرِيلَارْ ***körilär***, کُرِيلَامَاکْ ***körilämäk***).

ت *t* [harfi]:

[سَرتْلَادِی ***sartladï***] اُلْ اَنِی سَرتْلَادِی ***ol anï sartladï*** – “u uni savdogar deb hisobladi” (سَرتْلَارْ ***sartlar***, سَرتْلَامَاقْ ***sartlamaq***).

[سَرِيلَادِی / سَرِتْلَادِی ***sarïtladï*** / ***sarïladï***] سَرِيلَادِی / سَرِتْلَادِی يِيْنِی ***yïpnï sarïtladï*** / ***sarïladï*** – “ot quyrug‘ini ip bilan bog‘ladi”. Kichik vodiydan yuqoriga chiqilsa ham shu so‘z qo‘llanadi (o‘g‘uzcha) (سَرِيلَارْ / سَرِتْلَارْ ***sarïtlar*** / ***sarïlar***, / سَرِتْلَامَاقْ سَرِيلَامَاقْ ***sarïtlamaq*** / ***sarïlamaq***).

[قِرتْلَادِی / قَرتْلَادِی ***qartladï*** / ***qïrtladï***] قِرتْلَادِی / اُلْ اَرِکْ قَرتْلَادِی ***ol erig qartladï*** / ***qïrtladï*** – “u kishining xulqini yomon deb bildi”. Jarohatni, chipqonni tuzatishga ham shu so‘z qo‘llanadi (قَرتْلَارْ ***qartlar***, قَرتْلَامَاقْ ***qartlamaq***).

[تُرقْلَادِی ***turqladï***] اُلْ يِيرْ تُرقْلَادِی ***ol yer turqladï*** – “u yerning bo‘yini, enini o‘lchadi”. Ot tanasini va boshqani o‘lchashga ham bu so‘z qo‘llanadi (تُرقْلَارْ ***turqlar***, تُرقْلَامَاقْ ***turqlamaq***).

ک *k* [harfi]:

[بَرکْلَادِی ***berkládi***] اُلْ تَوَارِنْ بَرکْلَادِی ***ol tavarïn berkládi*** – “u molini saqladi”. Odamni va boshqani qamab qo‘yishga, har narsani saqlashga ham shu so‘z qo‘llanadi (بَرکْلَارْ ***berklär***, بَرکْلَامَاکْ ***berklämäk***). Bu so‘zning asli ***bəklädi*** بَکْلَادِی dir. Bu so‘z qo‘riqlangan, mahkam qilingan (318b) ma’nosidagi بَرکْ يِيرْ ***berk yer***-dan olingan bo‘lishi mumkin.

[تَرکْلَادِی ***terkládi***] اُلْ اِيشِغْ تَرکْلَادِی ***ol išïγ terkládi*** – “u ishini tezlatdi” (تَرکْلَارْ ***terklär***, تَرکْلَامَاکْ ***terklämäk***).

[تُرکْلَادِی ***türkládi***] اُلْ مَنِی تُرکْلَادِی ***ol meni türkládi*** – “u meni turklardan deb hisobladi, ularga nisbat berdi”. Birovni ajam hisoblasa ham shunday (تُرکْلَارْ ***türklär***, تُرکْلَامَاکْ ***türklämäk***).

Bu bo‘limning buyrug‘i besh harflidir. Chunonchi: بَرکْلَا نَانکْنِی ***berklä näŋni*** – “narsani mahkam qil” degandagi بَرکْلَا ***berklä*** va “qur’a tashla” ma’nosidagi سُرِيلَا ***sürilä*** buyruqlari kabi. Lekin bu so‘zlar talaffuzda to‘rt harflilar singaridir. Shuning uchun ular qatorida berildi. Chunki ikki *sukun* ning biri talaffuzda aniq, ochiq sezilmaydi. Shuning uchun shoir buni bir harf hisoblashi mumkindir. Men buni yuqorida bayon etganman. Bularning boshqa xil vazifalari yuqoridagi boblarda bayon qilingan qoidaga muvofiq qiyos qilib tuziladi.

Bu bobdagi fe’llar uch xildir. Birinchi: fe’l so‘zlangan narsa qatoridan hisoblanish ma’nosida keladi. Chunonchi: تُرکْلَادِی ***türkládi*** – “turklardan hisobladi” kabi.

Ikkinchi: o‘rta harfi *sukun* li otlardan yasalgan bo‘ladi. Chunonchi: تَوَی قُرتْلَادِی ***täwäy qurtladï*** – “tuya va boshqa hayvonlardagi qurtlarni olib tashlab tozaladi”.

Uchinchi: bu xil ma’nolardan hech biri ifodalanmay, fe’l o‘z ma’nosida qo‘llangan. Chunonchi: اُلْ تَوَارِنْ اَلقْدِی ***ol tavarïn alqdï*** – “u molini nes-nobud qildi”. Yana: اَرْ يَلقْدِی ***er yalqdï*** – “kishi yog‘li taomdan to‘yib ketdi, bo‘kdi” kabi.

TO‘RT HARFLILAR

د ***d*** [harfi]:

[تُلدْرَادِی ***toldradï***] تُوی تُلدْرَادِی ***toy toldradï*** – “kishilar har tarafdan tarqaldi” (تُلدْرَارْ ***toldrar***, تُلدْرَامَاقْ ***toldramaq***).

[قَلْدِرَادِی ***qaldïradï***] تُونْ قَلْدِرَادِی ***ton qaldïradï*** – “kiyim va boshqa narsalar shaldiradi” (قَلْدِرَارْ ***qaldïrar***, قَلْدِرَامَاقْ ***qaldïramaq***).

[جَلْدِرَادِی ***čaldïradï***] تَاشْ جَلْدِرَادِی ***taš čaldïradï*** – “tosh va boshqa narsalar shaqir-shuqur qilib ovoz chiqardi”. Zanjir va shunga o‘xshashlar yerga tushganda chiqargan ovozi ham shundaydir (جَلْدِرَارْ ***čaldïrar***, جَلْدِرَامَاقْ ***čaldïramaq***).

[گُلْدُرَادِی ***güldürädi***] تَاشْ قُدُوغ اِجْرَا گُلْدُرَادِی ***taš quδuγ ičrä güldürädi*** (319a) – “tosh quduq ichida gulduragan ovoz chiqaradi, quduq chuqurligini bildirdi” (گُلْدُرَارْ ***güldürär***, گُلْدُرَامَاکْ ***güldürämäk***).

ج *čīm* li *ɣunna* lilar

ت ***t*** [harfi]:

ötünč أُتُنْجْ – “qarz”; ***men aŋar yarmaq ötünč berdïm*** مَنْ اَنـكَارْ يَرْمَاقْ أُتُنْجْ بِيرْدِمْ – “men unga tanga qarz berdim, qarzga tanga berdim” (o‘g‘uzcha).

utunč [أُتُنْجْ] ***utunč ïš*** أُتُنْجْ اِيشْ – “uyaltiradigan ish” (o‘g‘uzcha).

ج ***č*** [harfi]:

üčünč أُجُنْجْ – “uchinchi”; tartib son. Bu qoidadir. Shundayki, o‘ndan quyi sonlarda tartibda o‘zidan oldingi sondan keyinlik, davom ma’nosi bayon etilsa, sonning o‘ziga *nūn* va *čīm* qo‘shiladi: ***törtünč,*** تُورْتُنْجْ ***bešinč*** بِيشِنْجْ so‘zlari kabi, bu “to‘rtinchi”, “beshinchi” demakdir. Bularning asli ***tört,*** تُورتْ ***beš*** بِيشْ edi. Tartib soni ma’nosini anglatish uchun bu so‘zlar oxiriga *ɣunna* li *nūn* bilan ج *čīm* harflari orttiriladi.

O‘nli sonlarda ham tartib soni shu usulda yasaladi: ***önünč,*** أُونُنْجْ ***yigirminč*** يِگِرْمِنجْ kabi, “o‘ninchi”, “yigirmanchi”, demakdir. Chunki “yigirmanchi” “o‘n to‘qqiz”ning keti, davomidir. Bu qoida umumiydir.

ر ***r*** [harfi]:

erinč اَرِنجْ – “zora, balki ma’nolaridagi so‘zdir”; ***ol bardï erinč*** اُلْ بَرْدِى اَرِنجْ – “zora u borgan bo‘lsa, balki u borgandir”.

urunč أُرُنجْ – “pora”.

irinč اِرِنجْ – oziq-ovqat mo‘l-ko‘lligi. Ba’zi tillarda bu so‘z ikki maxraj orasidagi ز *zā* (بيز المخرجين) bilan ***irinž*** اَرِنژْ shaklida qo‘llanadi.

ڤ ***w*** [harfi]:

awïnč اَوِنجْ – biror narsaga o‘rganib qolish, ovunish.

ك ***k*** [harfi]:

ikinč [اِكِنجْ] ***ikinč näŋ*** اِكِنجْ نَانـكْ – “ikkinchi narsa”.

ökünč أُكُنجْ – “achinish, pushaymon bo‘lish”; ***ol aŋar ökünč qïldï*** اُلْ اَنـكَرْ أُكُنجْ قِلْدِى – “u u ishga pushaymon qildi”.

ögünč أُگُنجْ – “maqtash”.

ل ***l*** [harfi]:

ilanč [اِلَنجْ] ***ilanč yol*** اِلَنجْ يُولْ – “egri, noto‘g‘ri yo‘l”.

iläč اِلَنجْ – kamchiligi ma’lum bo‘lib qolgan bir ishning boshlovchisini ayblash.

م ***m*** [harfi]:

umunč أُمُنجْ – “umid”; ***umunč täŋrikä*** أُمُنجْ تَنـكرِيـكَا – “umid ulug‘ va aziz Tangriga”.

ن ***n*** [harfi]:

ïnanč [اِنَنجْ] ***ïnanč beg*** اِنَنجْ بَـكْ – “ishonchli bek”.

onunč [أُنُنجْ] ***onunč yarmaq*** أُنُنجْ يَرْمَاقْ – “o‘ninchi tanga”. Boshqasi ham shunday.

Bu bo‘limning fe’llari

ك *k* [harfi]:

[***يِنجْكَالَنْدِى yinčkäländi***] ***اُلْ مَنكَا يِنجْكَالَنْدِى ol meŋä yinčkäländi*** – “u menga nozik muomala qildi, egilib bukildi”.

[***يِنجْكَالَنْدِى yinčkäländi***] ***اُلْ قِيزِغ يِنجْكَالَنْدِى ol qïzïγ yinčkäländi*** – “qiz haramga olindi”. (319b)

[***يِنجْكَالَنْدِى yinčkäländi***] ***قُلْ تَنكْرِيكَا يِنجْكَالَنْدِى qul teŋrikä yinčkäländi*** – “qul Tangriga sajda qildi, ro‘za tutdi, namoz o‘qidi; Xudodan qo‘rqdi” (***يِنجْكَالَنُورْ yinčkälänür***, ***يِنجْكَالَنْمَاكْ yinčkälänmäk***).

Ikki *sukun* li harflar yonma-yon kelgan so‘zlar bo‘limi tugadi. Bu sakkizinchi kitob(bob)ning oxiridir. Olamni tarbiyalovchi Tangriga maqtovlar bo‘lsin.

مَحمُودْ بِنْ اَلحُسَيِنْ *Maḥmūd bin-al-Ḥusayn* aytadi: Kitob boshida turkiy so‘zlar devoni tuzishga, so‘zlarning qoidalarini, asllarini bayon qilishga, ular orasidagi farqlarni qiyoslab izohlashga, ularni maxsus bo‘limlar tartibi bilan joylashtirishga umid bildirgan edik. Va’da bajarildi, tilak yuzaga chiqdi. Yozib bo‘lgach, ortiqchalarini, o‘rinsiz tushganlarini, keraksizlarini kitobdan olib tashladim. Endi kitob uzoq zamonlarga qadar keng tarqalsin, abadiy yodgorlik bo‘lsin. (Keling) kitobimiz shu yerda tugallansin.

Abadiy maqtov Tangriga, nihoyasiz yaxshilik uning payg‘ambariga va butun avlodlariga bo‘lsin.

Ulug‘ Tangrining yo‘qsil quli مُحَمّدْ بِنْ اَبِى بَكرْ بِنْ اَبِى اَلفتحْ اَلسّاوَسِى *Muḥammad bin-Abu Bakr bin-Abu-l-fatḥ as-Sāvasî* so‘ng اَلدّمَشقِى *ad-Damašqî* ni, Xudo uni kechirsin, bu kitobni muallifning [ya’ni Mahmud Koshg‘ariyning] o‘z qo‘li bilan yozilgan nusxadan ko‘chirib yozish ishini 664-yil, shavval oyining yigirma yettisida, yakshanba kuni tamomladi.

Muallif qo‘lyozmasining oxirlaridagi parchani aynan keltiraman: “Kitob yozishga 464-yil, jumodiu-l-avvalning boshlarida kirishgan edim. To‘rt qayta yozilib, tahrir qilinib, 466-yil, jumodiu-l-oxirning o‘n ikkisida tugadi”.

Kuch va quvvat ulug‘ Tangri bilandir; u biz uchun kifoya; u qanday go‘zal himoyachidir.

MATNDA ISHLATILGAN ARABCHA TILSHUNOSLIK ATAMALARI

manqūṣ (منقوص) – oxirgi harfi *alif, vāv, yā* bilan tugagan so‘zlar.

maṭvī (مطوی) – so‘zning boshi va oxiri illatli harflar (ya’ni *vāv, yā*) bilan ifodalanishi.

miṯāl (مثال) – *vāv, yā* harflari bilan boshlangan so‘zlar.

muḍā’af (مضاعف) – bir harfi ikki marta takrorlangan so‘zlar.

mujarrad (مجرد) – asl ma’nosi “yalang‘ochlangan”; grammatikada so‘zning qo‘shimchalar qo‘shilmagan tub shaklini bildiradi.

’imāla (امالە) – “moyil qilish; og‘dirish”; *fatḥa* ni *kasra* [*i*] ga moyil talaffuz qilish, ya’ni[*e*] sifatida o‘qish.

’išbā’ (اشباع) – “to‘yintirish”, ya’ni “yo‘g‘onlashtirish” degani.

’išmām (اشمام) – [*u*], [*i*] tovushlarini kuchli lablashtirib talaffuz qilish.

rakīka (رکیکە) – “zaif; bo‘sh”, turkiy tovushlarga nisbatan “ingichka unli” degani; undoshlarga nisbatan “jarangli” ma’nosini bildiradi: *kāfun rakīkatun* – “jarangli *kāf*” (ya’ni [*g*]).

ṣuluba (صلبە) – asli “yo‘g‘on” degani; undoshlarga nisbatan “jarangsiz” ma’nosini bildiradi: *kāfun ṣulbatun* – “jarangsiz *kāf* ” (ya’ni [*k*]).

γunna (غنّە) – “dimog‘da gapirish”, fonetikada burun tovushlarini (ya’ni [*n*], [*ŋ*] tovushlarini) anglatadi.

ẓamma (ضمە) – arab yozuvli turkiy matnlarda *o, ö, u, ü* unlilarini ifodalash uchun qo‘llanadigan diakritik belgi (ُ); bu belgi so‘zlarda tegishli harflarning ustiga qo‘yiladi.

kasra (کسرە) – arab yozuvli turkiy matnlarda til oldi, ingichka *i* va til orqa, yo‘g‘on *ï* tovushlarini ifodalash uchun qo‘llaniladigan diakritik belgi (ِ) bo‘lib, tegishli harflarning ostiga qo‘yiladi.

fatḥa (فتحە) – turkiy matnlarda *e, ä, a* tovushlarini bildiruvchi diakritik belgi (َ) bo‘lib, tegishli harflarning ustiga qo‘yiladi.

xayšūm (خیشوم) – “burun, dimog‘ tovushi”.

fa’al (فَعَل) – arab tilshunosligida ishlatiladigan so‘z shakllari (qoliplari)dan biri. Arab tilshunosligida so‘z turkumlari ism, fe’l va harfga bo‘lib o‘rganiladi. Shulardan ism va fe’llarning shakl-u shamoyili va anglatadigan ma’nolarini tez, qulay va bir tizimda o‘rganish uchun nahvshunoslar ل, ع, ف harflaridan foydalanib, vaznlar (qoliplar) ishlab chiqqan. Ushbu vaznlar bo‘g‘inlar soni va unlilarning bir xilligiga asoslanib, fe’l va uning shakldoshlari, mayllari hamda

tub va yasama ismlarni bir-biridan ajratib olish uchun foydalaniladi. Masalan, فَعَلَ vazni fe’lning o‘tgan zamonlaridan biri uchun, اَفْعُل vazni buyruq mayllaridan biri uchun, فَاعِل sifatdoshning anig‘i, مَفْعُول vazni esa sifatdoshning majhul nisbatini ifodalash uchun ishlatiladi. Fe’lning boshqa mayllari, zamonlari, ulardan hosil bo‘lgan shakllar, shuningdek, ismlar ham shu tarzda ifodalanadi. Masalan, “yozmoq” ma’nosidagi كَتَبَ fe’lidan hosil bo‘lgan boshqa so‘zlar va ularning vaznlari quyidagicha bo‘ladi:

كَتَبَ - فَعَلَ - “yozdi”;

كَتَّبَ - فَعَّلَ - “yozdirdi”;

كَاتِب - فَاعِل - “yozuvchi”;

مَكْتَبَة - مَفْعَلَة - “kutubxona”;

كُتَّاب - فُعَّال - “yozuvchilar; maktab” va b.

Vaznga solinayotgan so‘zning ل, ع, ف harflariga to‘g‘ri keladigan, ya’ni ularning muqobilida bo‘lgan harflari so‘zning asl harflari yoki o‘zak harflaridir.

“Devonu lug‘ati-t-turk”da Mahmud Koshg‘ariy turkiy so‘zlarni ham ana shu qoliplarga solib chiqqan. Masalan, اَفعَل *af’al* qolipidagi to‘rt harflilar bo‘limida quyidagi so‘zlar berilgan:

اَرْمُتْ ***armut*** – “nashvati, olmurut”.

اُجْلُج ***üčlüč*** – “quyon tuzog‘i”.

اُدْغُجْ ***oδγuč*** – “o‘t shu’lasi, alanga”.

اَرْكَجْ ***erkäč*** – “taka, erkak echki”.

اُرْكُجْ ***örküč*** – “mavj, to‘lqin”.

اُرْكُجْ ***örgüč*** – “o‘rilgan soch, xotinlar kokili”.

Qolgan so‘z qoliplari ham ana shularga qiyos qilinsin.

“DEVONU LUG‘ATI-T-TURK”DA KELTIRILGAN YER YUZI XARITASINING O‘QILISHI

Mahmud Koshg‘ariyning “Devonu lug‘ati-t-turk” asarida Yer yuzi xaritasi berilgan (MK.11b–12a; yoki ДЛТ.192-*betdan keyingi rangli illyustratsiyaga qarang*). Xarita qadimgi turklarning yerlashuv tartibi, o‘lka va shaharlari, geografik sharoiti to‘g‘risidagi tasavvurlarimizni boyitadi; istoriografiyaning kemtiklarini to‘ldiradi, xato qarashlarni izga soladi.

Ushbu xarita o‘tgan yuzyillikning 30-yillaridan buyon olimlar e’tiborini o‘ziga tortib kelmoqda. Xarita bo‘yicha A.N. Bernshtam, I.I. Umnyakov, A. German maqolalar yozdi. “Islom ensiklopediyasi”da ham Mahmud Koshg‘ariy xaritasining sharhi berilgan. O‘zbek olimi H. Hasanov Mahmud Koshg‘ariyga bag‘ishlangan risolasida xarita to‘g‘risida keng ma’lumot beradi (Ҳасанов 1963). Men ham o‘z ishlarimda xarita to‘g‘risida ma’lumot berib, uning o‘qilishini keltirganman (Содиқов 2018, 29–39).

Kezi kelganda, ushbu xaritani Mahmud Koshg‘ariyning o‘zi tuzganmi? yoki o‘sha davrdagi tayyor xaritani olib asarga kiritib qo‘ya qolganmi? degan savol ham tug‘ilishi tabiiy. Bu borada xaritani Koshg‘ariyning o‘zi tuzganligiga shubha bildirmasa ham bo‘ladi. Boisi, u turk tabaqa va qabilalari haqida ma’lumot berar ekan, “Bu qabilalarning turar joylarini bu doirada ko‘rsatdim” deb yozib qo‘yibdi (ДЛТ.24). Boshqa bir o‘rinda u turk shaharlari to‘g‘risida ma’lumot bera turib, “Bu shaharlar o‘rnini aniqlash maqsadida ularning hammasini yer shaklidagi doirada ko‘rsatdim” deb yozgan (ДЛТ.25). Bulardan tashqari, asar davomida keltirilgan geografik ma’lumotlar xaritada ko‘rsatilganlar bilan mos tushadi.

Mahmud Koshg‘ariy o‘z xaritasini “doira” deb atagan. Chindan-da, uning xaritasi doira shaklida bo‘lib, hozirgi xaritalardagi sharqiy yarim sharga to‘g‘ri keladi.

Xaritaning hozirgilardan farqli jihati Yer qutblarining joylashuvida. Doiraning to‘rt yog‘iga qutblarning nomlari yozib qo‘yilibdi: uning yuqori tomoni – Sharq (*aš-šarq*), pastki tomoni – G‘arb (*al-ɣarb*), o‘ng tomoni – Janub (*al-janūb*), chap tomoni – Shimol (*aš-šimāl*).

Xaritada okean, dengiz va ko‘llar to‘q qoramtir ko‘kda: daryolar xira och ko‘k, g‘uborli rangda; tog‘lar enli och qizil chiziqlar bilan; cho‘llar sarg‘ish yashil, xoldor enli chiziqlarda; shaharlar va ayrim viloyatlar sariq doirachalar bilan ko‘rsatilgan. Mamlakat chegaralari esa qizg‘ish ingichka chiziqlarda ko‘rsatilgan. Ushbu shartli belgilarning ma’nosi xaritaning to‘rt burchagiga qizg‘ish rangli siyoh bilan yozib qo‘yilibdi. Mana ularning o‘qilishi: *al-ɣubru-l-anhār* (“g‘uborli (rang) daryolardir”); *al-xuḍru-l-biḥār* (“yashil (rang) dengizlardir”); *aṣ-ṣuffuru-l-rimāl* (“sariq (rang) qumlardir”); *al-xumru-l-jibāl* (“qizil (rang) tog‘lardir”).

Muhimi, xaritada e'tibor ko'proq turk shahar va o'lkalariga qaratilgan. Tevarakdagi o'lkalar nisbatan umumiy masshtabda bo'lib, turk mamlakatlarining chegaralari, turk ellarining qaysi tomonida qanday mamlakatlar joylashganini ko'rsatishga xizmat qiladi. Shuning singari o'ziga yarasha belgilari bilan u o'z zamonida yaratilgan boshqa xaritalardan ham ajralib turadi. Albatta, unda sharqiy yarim sharning tuzilishi: quruqlik, dengiz va daryolarning ko'rinishi zamonaviy xaritalardagidek emas. Biroq, Mahmud Koshg'ariy xaritasi mamlakat va shaharlar, dengiz va daryolar, tog'-u cho'llar o'rnini aniq bera olganligi, geografik otlarning o'sha davr kartografiyasi talablari asosida ekanligi bilan muhim. Ushbu xarita o'rta asrlar Markaziy Osiyo, qolaversa, Sharq kartografiyasining ishonchli manbalaridandir.

Xaritada doirachalar bilan, asosan, turk shahar va o'lkalari keltiriladi. Berilgan doirachalarning umumiy soni 72 ta. Biroq, doirachalarning barchasi ham yozuvli emas. Aftidan, uni ko'chirayotgan kotib o'zi uchun kerakli bo'lgan shaharlarni belgilab, o'zini qiziqtirmaganlarini yozib ham qo'ymagan chog'i.

Xaritaning muhim yutuqlaridan yana biri, unda mamlakat va o'lkalar – *maskan, bilād, arḍ, arāz, hudud, balda,* tog'lar – *jabal,* dashtlar – *fayāf*, daryolar – *vādī*, dengizlar – *bahr* so'zi bilan qayd etilgan. Cho'lli o'lkalarga esa *raml* deb yozib qo'yilibdi.

Yana bir jihati, ushbu xarita "Devonu lug'ati-t-turk"da berilgan geografik ma'lumotlarni o'zida yig'iq bir ko'rinishda jamlaydi. Asar davomida xaritada aks etgan o'lka, mamlakat va shaharlar, tog' va suvliklarga keng ta'rif beriladi. Ularning joylashgan yeri, iqlimi, tabiiy holati, tarixi, ba'zan etimologiyasi haqidagi ma'lumotlarni ham asardan o'qiymiz. Xaritada esa ana shu ma'lumotlarning hammasi umumlashtirilib, yaxlit tizimga tushirilgan.

E'tiborlisi, "Devonu lug'ati-t-turk"da muallif turkiy qavmlarning yerlashgan o'rni to'g'risida aniq ma'lumot keltiradi. Uning yozishicha, turklar aslida yigirma qabiladir ("qabila" atamasi ostida qavmlar ko'zda tutilgan). Har bir qabilaning son-sanoqsiz urug'lari bor. Asarda Rumdan kun chiqargacha bo'lgan hududlardagi turk qavmlari birma-bir sanab o'tilgan. Muallif bu qavmlarning yurtlari "doira"da (ya'ni, xaritada) ham ko'rsatilganini ta'kidlaydi.

Asarda ta'kidlanishicha, Rumga yaqin birinchi qabila *pečänäk*; so'ng *qïwčaq,* so'ng *oγuz,* so'ng *yämäk,* so'ng *bašγïrt,* so'ng *basmïl,* so'ng *qay,* so'ng *yabaqu,* so'ng *tatar,* so'ng *qïrqïz* keladi. *Qïrqïz* lar *Ṣīn* yaqinidadir. Bu qabilalarning yeri *Rūm* dan kun chiqargacha cho'zilgan (ДЛТ.24). "Devonu lug'ati-t-turk"ka kiritilgan xaritada bu yurtlar g'arbdan sharqqa tomon joylashtirib chiqilgan.

Muallif yana davom etadi: So'ng *čigil*, so'ng *tuxsï*, so'ng *yaγma*, so'ng *ïγraq*, so'ng *čaruq*, so'ng *čumul*, so'ng *uyγur*, so'ng *taŋut,* so'ng *xïtay*. *Xïtay – Ṣīn* dir. So'ngra *tawγač*; bu *Māṣīn* dir (ДЛТ.24). Xaritada bu qabilalarning yurtlari janub bilan shimol o'rtasida berilgan.

Turk ellarining chegaralari to'g'risida ham Mahmud Koshg'ariyning o'z qarashlari bor. Chunonchi, u *Qaz* so'ziga izoh berar ekan, yozadi:

Qaz *– Afrāsiyāb* qizining oti. *Qazvïn* shahrini u qurgan. Bu so'zning asli *qaz oynï* – "g'oz o'ynaladigan joy" demakdir. Chunki u shu yerda turar va shu yerda o'ynar edi.

Shuning uchun ba'zi turklar *Qazvïn* ni turk shaharlaridan hisoblaganlar. Shuningdek, *Qum* shahri ham chegara hisoblanadi. Chunki *qum* turkcha so'zdir. *Afrāsiyāb* ning qizi bu yerda ov qilar va o'ynar edi. Ba'zilar turk o'lkalari *Marvaš-šāhijān* dan boshlanishini so'zlaydilar. Chunki *Qaz* ning otasi *Toŋa Alp er – Afrāsiyāb* dir. U Tahmurasdan uch yuz yil keyin *Marv* ni bino qilgan.

Ba'zilar butun *Māvarāu-n-nahr* ni turk o'lkalaridan deb hisoblaganlar. U *Yenkänd* dan boshlanadi. Uning yana bir oti *Dïzrutïn* dir. Ya'ni sariqligiga ishora qilib, "Mis shahri" deyishgan. Bu *Buxārā* ga yaqindir. Bu yerda *Afrāsiyāb* ning qizi – *Qaz* ning eri *Sïyavuš* o'ldirilgan. Ma'jusiy-otashparastlar har yili bir kun bu yerga kelib, *Sïyavuš* bo'lgan joy tevaragida yig'laydilar. Mollar so'yib, qurbonlik qiladilar. So'yilgan mol qonini uning mozori tepasiga to'kadilar. Ularning odati shunday.

Butun *Māvarāu-n-nahr, Yenkänd* dan Sharqqacha bo'lgan o'lkalarni turk shaharlaridan deb hisoblashning asosi shuki, *Samarqand* aslida *Semizkänd, Taškänd,* bu – *Šaš* dir*, Özkänd, Tunkänd* otlarining hammasi turkchadir; *känd* turkcha "shahar" demakdir. Ular bu shaharlarni qurishgan va shunday otlar bilan atashgan. Hozirgacha ham shunday kelmoqda. Bu yerlarda forslar ko'paygach, so'ng ular Ajam shaharlari kabi bo'lgan. Hozir turk o'lkalarining chegarasi *Äbisgün* dengizi bilan o'ralgan. *Rūm* o'lkasidan va *Özjänd* dan *Ṣīn* gacha cho'ziladi. Uzunligi besh ming farsax, eni uch ming farsax, hammasi sakkiz ming farsaxdir (ДЛТ.374).

Movarounnahrning sanab o'tilgan o'lkalari turklar tomonidan bunyod etilgani, joy otlari boshlab turkiyda bo'lib, keyinchalik esa forscha atab ketilganligidan dalolat beradi (*Yinčü ögüz – Sirdaryo, Keš (~Käš) – Shahrisabz* singari nomlarning yuzaga kelishi bunga yorqin misoldir).

Xaritada o'lka va mamlakatlarning joylashuv tartibi shunday:

O'rtaliqda turkiy ellar va o'lkalar. Xaritaning qoq o'rtasiga Balasag'un va Taraz oralig'idagi yerlar to'g'ri keladi. Bular tog'li vodiylar, Issiqko'l tevaraklaridir.

O'rtaliqdan shimoli-g'arb tomonda *Šaš, Xvārazm, Tabaristān, Āδarbādkān,* undan o'tib *Pečänäk* yurtiga boriladi.

G'arbi-janubiy tomonda *Samarqand, Xojand, Maryïnān, Kāsān*.

Xaritada *Maryïnān* (Marg'ilon) bilan *Kāšγar* o'rtasida ikki shahar berilgan. Biroq, ularning yozuvi nihoyatda zich, o'qish uchun qiyin. Birini *Özjand* deb o'qish mumkin, ikkinchisi aniqsizligicha qolmoqda.

Janubda *Kāšγar, Yārkänd*, ular ortida tog'lar osha *Qašmir* ga o'tiladi.

Janubi-sharqda *Xotan, Uč, Barman, Küčä*.

Sharqda Uyg'ur davlati (*Bilādu Uyγur*). U yerda *Bešbalïq, Čanbalïq, Qoču, Silmi, Xatunsini* shaharlari joylashgan.

Ïspïjab, Ṭarāz, Nazal, Yawïnč, İki ögüz, Kemi Talas shaharlari g'arbdan sharqqa tomon bir chiziqda joylashgan.

Mahmud Koshg'ariy o'z xaritasida *Kemi Talas* ni *Kemi Ṭirāz* deb bergan. Bu o'rinda yanglishayotgani yo'q. Sababi, u asarda *Talas* to'g'risida ma'lumot berar ekan yozadi: *Talas – Ṭirāz* ismi bilan mashhur bo'lgan shahar. U ikkita: biri "ulug'" ma'nosidagi *Uluγ Talas,* ikkinchisi musulmonlar chegarasidagi *Kemi Talas* dir (ДЛТ.147).

O‘rtaliqdan shimolga yurilsa, O‘g‘uz davlati (*Bilādu-l-γuziya*)dan o‘tib, Kaspiyga chiqiladi.

Ötükän, Čumul yurtlari hamda *Yämäk, Bašqïrt, Basmïl* dashtlari shimoli-sharqda.

Turkiy ellar va o‘lkalarni tevarakda turli mamlakatlar o‘rab turibdi.

Janubi-sharqiy tomonda cho‘llar va yarim doira shaklida tog‘lar aks etgan. O‘rtada *Saddi δulqarnayn* (Zulqarnayn devori) degan yozuv bor. Tog‘lar orqasida Ya’juj va Ma’juj yerlari (*Arḍu Yājūj va Mājūj*). Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida bu yurtning juda uzoqda ekanligini ta’kidlab, “*yājūj* va *mājūj* lar uzoqda turgani, orada *Māṣīn* yaqinidagi dengiz to‘sqinlik qilishi natijasida ularning tillari ham ma’lum emas” deb yozgan edi (ДЛТ.25).

Janubda Hind dengizi, Sarandib yurti va Sarandib tog‘lari, Hind va Sind mamlakati, G‘azna, uning ortida Sujiston, Kirmon, Fors, Xuziston, Yaman joylashgan.

Janubi-g‘arbiy chekkada Markaziy Afrika (Barbar, Zutt, Xabasha, Zanj).

G‘arb tomonda ham cho‘llar va uning orqasida Xuroson, Iroq, Hijoz, Qayruvon va boshqalar. Eng chekkada Mag‘rib va Andalus (Ispaniya). Bir tomonda Kurod, Shom, Misr va Aliskandariyya.

Shimol tomonda Kaspiy dengizi (*Bahri Ābiskun*). Dengizning g‘arbi-shimolida Rus, Saqalaba (slavyanlar va Sharqiy Yevropa) va Varang (Boltiqbo‘yi va Skandinaviya) berilgan. So‘nggi mamlakat otini Mahmud Koshg‘ariy devonda *Uraŋ – Varaŋ* shakllarida keltiradi. Bu joyning o‘rni va oti haqida u yozadi: “*Uraŋ – Rūm* viloyati yaqinida, shimoliy chegarasidagi bir joy oti. Bu so‘zning *Varaŋ* tarzida o‘qilishi yaxshiroq” (ДЛТ.67).

Pechanaklar yurti xaritaning shimoli-g‘arbiy chekkasida. Kaspiyning g‘arb tomonida – Tabariston va Pechanak dashtlari oralig‘ida *Darbandi Xazarān (~Xuzarān?)*.

Kaspiyning shimolida qivchaq, suvar, bulg‘ar yurtlari. Itil (Volga) daryosi ham shu yerda.

Kaspiyning yuqori tomonida qivchaq bilan tatar dashtlari o‘rtasida *Baldatu-s-saqāli mahdiya va-l-γuziya* (“Qalin o‘rmonlar va G‘uziya mamlakatlari”) degan yozuv bor.

Xaritaning bir chetida, Yamar suvining yuqorirog‘ida *Baldatu-l-nisā* (Xotinlar mamlakati) berilgan.

Xaritaning sharqiy chekkasida *Čawu,* dengizlar ortida *Čabarqa* (Yaponiya), so‘ng *Māṣīn* (Mochin).

Mahmud Koshg‘ariy *tawγač* so‘zining bir nechta ma’nosini keltirgan. Birinchisi:

Tawγač – Māṣīn mamlakatining oti. Bu mamlakat *Ṣīn* dan to‘rt oylik yo‘l uzoqliqda. *Ṣīn* (Chin) aslida uchtadir: birinchisi, Yuqori *Ṣīn* – bu Sharqda bo‘lib, bunga *Tawγač* deyiladi. Ikkinchisi, O‘rta *Ṣīn,* buni *Xïṭay/Xaṭay* deyiladi. Uchinchisi, Quyi *Ṣīn,* buni *Barxan* deyiladi va u *Kāšγar* dadir. Lekin hozir *Tawγač* ni *Māṣīn, Xïṭay/Xaṭay* ni *Ṣīn* deb yuritiladi (ДЛТ.180–181).

Bu so‘z “uyg‘urlar”ni ham anglatgan. Mahmud Koshg‘ariy so‘zning ushbu ma’nosi to‘g‘risida shunday yozadi: *tawγač – uyγur.* U *tat* dir. Ular *Ṣīn,* ya’ni *Tawγač* da yashaydilar. Har bir eski va katta narsaga *tawγač eδi* deydilar... Shohlarning

tawγačxan deyilishi ham shundandir, “katta yerli, eski xon” degan ma’nodadir (ДЛТ.181).

Bitiglarda bu so‘z qo‘shaloq *tat tawγač* shaklida ham ishlatilgan. Mahmud Koshg‘ariyning yozishicha: *tat tawγač* – “forsiy va turk” demakdir. Birinchi so‘z *tat* – “fors”, ikkinchi so‘z *tawγač* – “turk” o‘rnida qo‘llanadi (ДЛТ.181).

Mahmud Koshg‘ariy o‘z asarida *Čabarqa* ning juda uzoqda ekanligini ta’kidlab, “*čabarqa* liklarning uzoqda turishi, *Māṣīn* bilan ularni katta dengiz ayirib turgani uchun ularning tillari ma’lum emas” deb yozgan edi (ДЛТ.25).

Xaritadagi ayrim qayd va izohlar to‘g‘risida. Xaritada geografik atamalardan tashqari, ayrim qaydlar ham yozib qo‘yilgan. Chunonchi, Uyg‘ur davlati tepasida qumliklar berilgan va uning yoniga *Fayāfī va rimālun yayuru-l-mā’u fiyhā* (“Suv singib ketadigan dasht va qumliklar”) deb yozib qo‘yilibdi. Bu joylar Labno‘r atroflariga to‘g‘ri keladi.

Devonda bu o‘lkadagi suvlar haqida ham ma’lumot berilgan. Chunonchi, Mahmud Koshg‘ariy *Usmï tarïm* daryosi to‘g‘risida: “*Usmï tarïm* – Islom shaharlaridan uyg‘urlargacha oqadigan katta bir suv. U yerlarda (uyg‘urlarga yetgach) qumga singib ketadi” deb yozadi. Yoki *Tarïm* so‘zini izohlab, shunday ta’kidlaydi: “*Tarïm – Uyγur* chegarasida *Küčä* yaqinidagi bir joy otidirki, uni *Usmï tarïm* deydilar. U yerda oqadigan suv ham shu so‘z bilan ataladi” (ДЛТ.159). Shu o‘rinda muallif ushbu so‘zning lug‘aviy ma’nosini ham beradi. Uningcha, “ko‘l va qumliklarga quyiladigan suvlarning qirg‘oqlari” *tarïm* deyilgan (ДЛТ.159).

Xaritaning janubiy chekkasida *Lā yaskunu fiyha-l-xalqu liγalabati-l-barārati ’alayha* (“Harorat g‘alaba qilganidan u yerda odamzod yashamaydi”) deb yozilgan. Bu izoh ostida Sahro-i Kabir nazarda tutilmoqda.

Shimoliy chekkada: *Lā yaskunu fiyha ahadun min-al-xalqi liγalabati-l-burudati ’alayha* (“Sovuq g‘alaba qilganidan u yerda odamzod yashamaydi”) deb yozilgan. Bu yerlar Yevropaning shimoli va Arktikadir.

Shimoli-sharqda: *Yuqalu fi hazihi-l-fayāfī yaskunu-n-nasnāsu* (“Aytadilarki, bu dashtlarda nosnoslar (yovvoyi odamlar) yashaydi”) va uning ostiga *Mavazi’u li-l-vuhuši* (“Vahshiy hayvonlar joyi”) deb yozilgan.

Uyg‘ur davlatining shimoliy tomonida Beshbaliq va Ulviya yurti o‘rtasida *Unāsun kaširatun min-at-türki* (“Bu yerdagi xalqlarning ko‘pi turklar”) deb yozib qo‘yilibdi.

Xaritada Hind dengizi ham berilgan. Undan quyiroqda *Sarandīb* hamda *Jabalu Sarandīb* (“Sarandib tog‘lari”) bor. Dengiz va bu yerlarning o‘rtasiga *Mahbiṭu Ādam ’alayhi-s-salām* (“Odam alayhi-s-salom qadami yetgan joy”) deb yozib qo‘yilibdi. Muallifning bu ta’kidi Odam alayhi-s-salomning ana shu yerga tushganligi to‘g‘risidagi diniy qarashlarni boyitadi, unga aniqlik kiritadi.

Xaritada ko‘rsatiluviga qaraganda, turk davlatlarining g‘arbiy, sharqi-shimoliy, janubi-sharqiy chegaralari qumliklardan iborat. Bu cho‘llar yashil xoldor rangdagi chiziqlarda berilgan va ularning yoniga *raml, ar-raml* (“qum”) deb yozib qo‘yilgan.

Xaritada qayd etilgan joy otlari quyidagilardir:

(1) shahar va viloyatlar:

Šaš (Toshkent)
Samarqand
Xojand
Marγïnān (Marg‘ilon)
Kāsān
Özjand
Kāšγar
Yarkänd
Xotan
Jurjan
Čawu
Uč
Barman
Küčä
Balasaγun
Kūšān
Barsqan
Qočïŋarbašï
Ïspïjab (Sayram)
Ṭarāz
Nazal
Yawïnč
İki ögüz
Kemi Ṭirāz [ya’ni, *Kemi Talas*]
Bešbalïq
Čanbalïq
Qoču
Silmi
Xatunsini
Ötükän
Šanču
Xvārazm (Xorazm)
Manqïšlaγ
Bulγar
Suvar
Jand
Pečänäk

Darbandi Xazarān (Xazorlar devori)
Rūs (Rus)
Ṣaqaliba (Slavyan)
Almaj (?)
Varaŋ (Boltiqbo‘yi)
Qašmir (Kashmir)
Tabaristān
G‘azna
Sarandīb (Seylon)
Māṣīn (Mochin)
Čabarqa (Yaponiya)
Aliskandaiyya
(2) *maskan* (maskan) so‘zi bilan berilgan joy otlari:
Maskanu Qïwčaq (Qivchaq maskani)
Maskanu Čumul (Chumul maskani)
Maskanu Qay (Qay maskani)
(3) *fayāf* (dashtlar) so‘zi bilan berilgan joy otlari:
Fayāfī Tatar (Tatar dashtlari)
Fayāfī Yämäk (Yamak dashtlari)
Fayāfī Bašqïrt (Bashqirt dashtlari)
Fayāfī Basmïl (Basmil dashtlari)
(4) *bilād* (davlat) so‘zi berilgan joy otlari:
Bilādu Uyγur (Uyg‘ur davlati)
Bilādu-l-γuziya (O‘g‘uziya davlati)
Bilādu Sujistān (Sujiston davlati)
Bilādu Kirmān (Kirmon davlati)
Bilādu Fārs (Fors davlati)
Bilād Xūzistān (Xuziston davlati)
Bilādu Hind (Hind davlati)
Bilādu Sind (Sind davlati)
Bilādu Barbar (Barbar davlati)
Bilādu-z-Zuṭṭ (Zut davlati)
Bilādu-z-Zanj (Zanj davlati)
Bilādu-l-Xabaša (Xabash davlati)
(5) *arḍ* (yer) so‘zi bilan berilgan joy otlari:
Arḍu Āδarbādkān (Ozarbayjon yeri)
Arḍu Xurāsān (Xuroson yeri)
Arḍu-l-’Irāqayn (Ikki Iroq mamlakati)
Arḍu-l-Ḥijāz (Hijoz yeri)

Arḍu-l-Yaman (Yaman yeri)
Arḍu-l-Ukrād (Kurd yeri)
Arḍu-š-Šām (Shom yeri, Suriya)
Arḍu-l-Dayālama (Dayolama yeri)
Arḍu Yājūj va Mājūj (Ya'juj va Ma'juj yeri)
Arḍu Kalim (Kalim yeri)
Arḍu-l-Qayrivān va ɣayrhā (Tunis va boshqa yerlar)
(6) *balda* (mamlakat) so'zi bilan berilgan joy otlari:
Baldatu-l-nisā (Xotinlar mamlakati)
Baldatu-l-'Ulviya (Ulviya mamlakati)
Baldatu-s-saqāli mahdiya va-l-ɣuziya (Qalin o'rmonlar va G'uziya mamlakatlari)
(7) *arāz* so'zi bilan berilgan joy oti:
Arāzi-l-Maɣāriba va hiya Andalus (Mag'rib va Ispaniya)
(8) *hudud* (hudud) so'zi bilan berilgan joy oti:
Hududu Misr (Misr hududi)
(9) *jabal* (tog') so'zi bilan berilgan otlar:
Jabalu Qaračuq (Qarachuq tog'i)
Jabalu Sarandīb (Sarandib tog'i)

Xaritada berilgan dengiz, ko'l va daryolar. Doiraning tevaragi to'q qoramtir ko'kda ekanligi quruqlik to'rt yoqdan suv bilan o'ralgan degan tasavvurni uyg'otadi.

Xaritada Kaspiy dengizi ham berilgan. U *Bahri Ābiskun* deb otalgan.

Xaritada daryolar nihoyatda ko'p, biroq hammasining ham oti yozilgan emas. Unda ayrim daryolarning oti qayd etilgan, xolos.

Xaritada tog'lar orasidan chiqib, cho'l yoqalab *Bahri Ābiskun* ga borib quyiluvchi bir daryo e'tiborni o'ziga tortadi. Uning yonida *Jayhun* degan yozuvi bor. Bu hozirgi Amudaryodir. Xaritada Sirdaryo ham berilgan. U ham *Jayhun* ga parallel oqib, o'sha dengizga quyiladi. Biroq xaritada uning oti yozilmagan.

Janubdagi *Bilādu Hind* (Hindiston) tarafda ham bir daryo joylashgan. U ham tog'liqlardan boshlanib, boshqa bir taraf – janubdagi dengiz tomon oqadi. Uning yoniga esa *Sayhun* deb yozib qo'yilibdi. Lekin bu Sirdaryo emas, Mahmud Koshg'ariy Hind daryosini ana shunday atagan. O'tmishda bu daryoning ham shunday oti bo'lgan.

Xaritada ayrim daryolar *vādī* so'zi bilan berilgan: masalan, *Vādī Yamar* (Yamar daryosi) singari. Asarda berilgan turkiy matnda *vādī* o'rnida *suw* so'zi qo'llangan: *Ertiš suwï, Yamar suwï, etil suwï* singari. Bu daryolarning har biri to'g'risida devonda ma'lumot ham beriladi. Qadimgi turkiy tilda "daryo"ni *ögüz* deyilgan. Masalan, Kul tigin bitigida Sirdaryo *Yinčü ögüz* atalgan (K.39). Bu atama "Inju daryo" degan ma'noni anglatadi.

Xaritada nomi berilgan daryolardan biri *Vādī Ertiš* (Ertish daryosi)dir. Asarda bu daryo haqida Mahmud Koshg'ariy yozadi: *Ertiš – Yämäk* sahrosida oqadigan bir

suv(daryo)ning nomi. Bir necha tarmoq(ariq)lardan iborat bo‘lgan shu suv (daryo) o‘sha yer (qir)dagi bir ko‘lga quyiladi. Uni *Ertiš suwï* deyiladi. Bu so‘z suvdan o‘tishda “kim tez o‘tar” ma’nosida qo‘llanadigan *ertiš* so‘zidan olingan (DLT.52).

Kul tigin bitigida bu daryo *Ertiš ögüz,* ya’ni “Ertish daryosi” deb atalgan (K.37).

Xaritadagi boshqa bir daryo – *Vādī Ïla* (Ila daryosi). Bu suv to‘g‘risida shunday ma’lumotni o‘qiymiz: *Ïla* – bir daryo oti. U turk shaharlarining *Jayḫūn*idir. Uning ikki qirg‘og‘ida ikki turk qavmi: yag‘ma, tuxsi va ba’zi chigillar yashaydilar (ДЛТ.50).

Yana biri – *Vādi Etil* (Itil daryosi). Itil haqida muallif yozadi: “*Etil – Qïwčaq* ellarida bir daryoning oti. U *Bulγar* dengiziga quyiladi. Uning *Rūs* yerlariga quyiladigan bir irmog‘i ham bor” (ДЛТ.42).

Xaritada *Vādi Yamar* (Yamar daryosi) ham bor, Mahmud Koshg‘ariy keltirgan she’riy parchalardan birida bu daryoning oti (*Yamar suwï*) deya qayd etilgan (*qarang:* ДЛТ.45).

Shimoli-sharq tomonda bir ko‘l joylashgan. Ila, Ertish, Yamar suvlari turli tomondan unga kelib quyiladi.

Shunday qilib, “Devonu lug‘ati-t-turk”da keltirilgan Yer yuzi xaritasi turkiy dunyoning tarixiy-geografik o‘rni, uluslar yerlashuvi, davlat va shaharlari tarixini o‘rganishda eng ishonchli manba bo‘lib xizmat qiladi.

KITOBDA HAVOLA ETILGAN ASARLAR

ДЛТ – Маҳмуд Кошғарий. Девону луғати-т-турк [Туркий сўзлар девони]. Нашрга тайёрловчи Қ. Содиқов. – Тошкент, 2017.

DLT – Kâşgarlı Mahnud. Dîvânu Lugâti't-Türk. Giriş – Metin – Çeviri – Notlar – Dizin. Hazırlayanlar: A.B. Ercilasun – Z. Akkoyunlu. – Ankara, 2014.

MK – Kaşgarlı Mahmud. Dīvānü Lūgati't-Türk. Tıpkıbasım / Facsimile. Ankara, 1990.

K – Kul tigin bitigi: *Аманжолов А.С.* История и теория древнетюркского письма. – Алматы, 2003. С. 153–170.

Содиков 2018 – Содиқов Қ. Илк ўрта асрларда Марказий Осиёда кечган этнолингвистик жараёнлар. – Тошкент, 2018.

Ҳасанов 1963 – Ҳасанов Ҳ. Маҳмуд Кошғарий (Ҳаёти ва географик мероси). – Тошкент, 1963.

MUNDARIJA

Mahmud Koshg‘ariy va uning “Devonu lug‘ati-t-turk” asari.....4

“Kitābu dīvāni luγāti-t-türki” 20
[So‘z boshi] 20
[Muqaddima] 22
Hamza bilan boshlangan ismlar kitobi 40
Boshda *hamza* kelgan fe’llar kitobi 103
Sālim otlar kitobi 168
Sālim fe’llar kitobi 265
Muḍā’af otlar kitobi 378
Muḍā’af fe’llar kitobi 384
Miṯāl so‘zlar kitobi 415
Boshida harfi illat bo‘lgan fe’llar kitobi 441
Uch harfli so‘zlar kitobi 465
Manqūṣ fe’llar kitobi 495
Ikki harfli ismlarning *δavāti-l-arba’a* kitobi 523
Ǧunna li otlar kitobi 567
Ǧunna li fe’llar kitobi 584
Ikki *sukun* yonma-yon kelgan so‘zlar kitobi 594
Matnda ishlatilgan arabcha tilshunoslik atamalari 611
“Devonu lug‘ati-t-turk”da keltirilgan Yer yuzi xaritasining o‘qilishi 613

O‘ZBEK ADABIYOTI XAZINASIDAN

Adabiy-badiiy nashr

MAHMUD KOSHG‘ARIY

TURKIY SO‘ZLAR DEVONI
[DĪVĀNU LUĞĀTİ-T-TÜRK]

5

Muharrir **Lola Fattoyeva**
Badiiy muharrir **Islomjon Azamatov**
Dizayner **Shuhrat Mirfayozov**
Texnik muharrir **Yelena Tolochko**
Musahhih **Munisa Ismoilova**
Sahifalovchilar: **Shahlo Zakirova, Bobur Tuxtarov**

Tasdiqnoma № 4642. 22.07.2020.
2025-yil 23-iyulda bosishga ruxsat etildi. Bichimi 70x100 1/16.
Ofset qog‘ozi. “Times New Roman” garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog‘i 50,31. Nashriyot-hisob tabog‘i 51,52.
Adadi 1150 nusxa. Shartnoma № 24-095. Buyurtma №

Original maket O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining “O‘zbekiston” nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko‘chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

“TURON ZAMIN NASHRIYOTI” MCHJ da chop etildi.
Toshkent sh, O‘rda MFY, Labzak ko‘chasi, 8-uy, 24-xonadon.